1875-1919-YILLAR

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING 150 YILLIK YUBILEYIGA BAG‘ISHLANGAN RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TO‘PLAMI

2025-YIL 18-YANVAR || SAMARQAND

www.samarkandmuseum.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI

“SAMARQAND” DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASI

HAMDA

SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“Mahmudxo‘ja Behbudiyning 150 yillik yubileyiga bag‘ishlangan”

respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

TO‘PLAMI

SAMARQAND-2025

“Mahmudxo‘ja Behbudiyning 150 yillik yubileyiga bag‘ishlangan” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plamida siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda uning xotirasini abadiylashtirish; qatag‘on qilingan yurtdoshlarimiz haqidagi tarixiy haqiqatni tiklash va yosh avlodlarga yetkazish orqali vatanga, o‘z yurtiga dahldorlik ruhini shakllantirish, hozirgi murakkab va tahlikali davrda mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash; tariximizning noma’lum sahifalarini tiklash va ilmiy nuqtai nazardan chuqur o‘rganish, inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ularni bugungi tinch, erkin va ozod hayotning qadriga yetish ruhida tarbiyalash yo‘nalishlaridagi ma’lumotlar yoritiladi.

Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar:

Rustamov Sh. - *O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi, Arxeologiya bo‘limi xodimi*

Axmedov G. - *“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi direktori*

Djurakulov J. – *“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi, Turizm va marketing bo‘limi boshlig‘i*

Maqola va tezisdagi ma’lumotlar, faktlar va statistikalarning to‘g‘riligiga, imloviy va ishoraviy xatolari (matnning tahririy jihatlari) uchun mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadi.

“Mahmudxo‘ja Behbudiyning 150 yillik yubileyiga bag‘ishlangan” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasining 2025-yil _____dagi __-sonli Ilmiy kengashida tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

© “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi, 2025.

MUNDARIJA

1-sho‘ba: Turkiston jadid namoyondalarining bosh g‘oya va maqsadi: tarix, til, adabiyot, san’at, din, axloq, ta’lim-tarbiyaviy g‘oyalari

1. Шадиметов К. Туркистонда жадидчилиги ҳаракатининг асосий ғояси ва мақсади..... 11
2. Ражабов Қ. Маҳмудхўжа Беҳбудий ёш турклар ҳаракати ва Анвар пошо тўғрисида 25
3. Ibragimov A. Behbudiy ijodiy merosi: pedagogik talqin va zamonaviy ta’lim..... 32
4. Amridinova D. Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida komil inson konsepsiyasi..... 35
5. Axmedov G. Samarqandlik jadid namoyondalarning ta’lim-tarbiyaviy qarashlari 40
6. Pulotov A. Buxoro amirligi madrasalarining yetakchi toliblari va mudarrislarining badiiy-estetik tafakkurlarini shakllantirish va o'z-o'zini anglash zaminalari 47
7. Amrilloyeva M. Mahmudxo‘ja Behbudiy – turkiston jadidchilik harakatining asoschisi 52
8. Do‘stov B. Jadidlarning O‘rta Osiyoda milliy dramaturgiya va teatr rivojlanishiga qo‘shgan hissalari 55
9. Ergashev S. Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatida ta’lim va savod masalasi ... 59
10. Fayzullayeva G., Utanov U. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim islohotlari: O‘zbek maorifida yangi davr 63
11. Muftillayeva U. XX asr birinchi yarmida Turkiston ma’rifatparvarligida Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘rni va roli Hoji Muin talqinida 67
12. Murodillayev N. O‘zbek jadid she’riyatida erk g‘oyasi talqini 72
13. Oltiboyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiyning tarixga bo‘lgan yondashuvi: ma’rifat va taraqqiyotning asosiy vositasi 78
14. Quvvatov S. Turkiston jadidchilari ma’rifatchilik g’oyalarining shakllanishida estetik qarashlarning tutgan o’rni xususida 82
15. Ruzimuradov F. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ma’rifatparvarlarimiz tomonidan tashkil etilgan yangi usul makdablari 87
16. Sattarova I. Jadidlarning dasturiy qarashlarida xotin-qizlar masalalari 91
17. Xodjayeva S. Fitratning san`at rivojiga qo’shgan hissasi 94
18. Xoliqulov M. Abdulla Avloniy asarlarida ayollar ta'limi konsepsiyasi: ijtimoiy-falsafiy va pedagogik qarashlar 99
19. Каримов Ғ. Жадидчиларнинг диний бағрикенглик ҳақидаги қарашлари..... 102
20. Ибрагимов С. Жадидчилик харакати ва унинг ўлка хаётига таъсири 107
21. Жўраев Ҳ., Тоштемирова М. Маҳмудхўжа Беҳбудий даври Туркистон миллий ва кундалик либослари дизайни 115

2-sho‘ba: Mahmudxo‘ja Behbudiyning manaviy va ma’rifiy faoliyati (yangi jadid maktablari tarixini o‘rganish muammolari, ushbu maktablar uchun darsliklar, M.Behbudiy safdoshlari)

22. Abdumalikov R. Turkiston jadidlarining islom dini va ma’rifatga qo‘shgan hissalari 122
23. Isomiddinov Y. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari 126
24. Tilavova Sh. Mahmudxo‘ja Behbudiyning oila va xotin – qizlar masalalari haqidagi qarashlari 130
25. Юсупов К., Машрабов М. Бехбудий фалсафасида китобхонлик маънавияти 136
26. Abriyeva M. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’naviy va ma’rifiy faoliyati....139
27. Allaberganova L. Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zbek xalqi ma'naviy hayoti rivojida tutgan o‘rni 144
28. Baratova M. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma'naviy va ma'rifiy faoliyati 150
29. Jumayev A. Mahmudxo’ja Behbudiyning ma’rifat yo’lidagi xizmatlari 155
30. Sobirova D. Jadidchilik milliy ma`rifatparvarlik harakatining tarafdori Mahmudxo‘ja Behbudiyning merosini yanada chuqur o‘rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish 159
31. Xalilova J. Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik g'oyalarining zamonaviy ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi 165
32. Содиқова Ш. Махмудхўжа Беҳбудийнинг фаолиятида озодлик ва маърифат талқини 170
33. Xolmurodova O. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’naviy va ma’rifiy faoliyati..... 174
34. Улугмуратова Ж., Казимов С. Нравственно-просветительская деятельность Махмудходжи Бехбуди 177
35. Muratova G. Women and education in the central asian jadid movements.....181
36. Abdullayev F. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ona tilini rivojlantirishdagi o‘rni.....184
37. Axmadov D. Millat uyg‘onishining mash’ali: Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’naviy va ma’rifiy faoliyati 186
38. Daniyarov Sh. Mahmudxo‘ja Behbudiyning manaviy va ma’rifiy faoliyatida teatr san’ati 190
39. Abdullakhojayev A. Enlightened and free turkestan: Behbudiy and Ibrat activities general aspects social-philosophical analysis 194
40. Irzayeva M. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o’lkasida ma’rifatparvarlik harakati 201
41. Masharipova G. Mahmudxo’ja Behbudiyning vasiyatnomasi va uning yoshlar ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati 205
42. Mavlonova D. Mahmudxo’ja Behbudiyning buyuk ma’naviy merosi.....211
43. Sadiyeva R. Mahmudxo’ja Behbudiy va jadid maktablari 214
44. Utanov U., Qosimova O. Behbudiyning o‘zbek madaniyati va matbuotidagi roli..... 219

45. Yaqubov G‘. Mahmudxo‘Ja Behbudiy hayoti va faoliyatini o‘rganilishi.....222
46. Қўлдашев Ш. Маҳмудхўжа Беҳбудий дарсликлари (Абу Райҳон Беруний номидаги шарқшунослик институти фонди мисолида) 225
47. Qorayev Sh. Ismoil Gaspirali va Mahmudxo‘ja Behbudiy hamda Buxorodagi jadid maktablari 230
48. Жумаев Ж. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг Туркистондаги жадидлик ҳаракатида тутган ўрни 234
49. Jabborova O. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’naviy va ma’rifiy faoliyati Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifatparvarlik publitsistikasi 241
50. Muratova G. The contribution of jadid representatives to enlightenment activities and education in central asia 245

3-sho‘ba: Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston o‘lkasining mustaqilligini qo‘lga kiritishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakatga qo‘shgan hissasi

51. Abduqahorov A. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston o‘lkasining mustaqilligini qo‘lga kiritishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakatga qo‘shgan hissasi 250
52. Ирзаев Б. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг сиёсий қарашлари 256
53. Boboqulov J. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston o‘lkasining mustaqilligini qo‘lga kiritishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakatga qo‘shgan hissasi 263
54. Darmonova M. Mahmudxo‘ja Behbudiy: bizga islohot kerak! 265
55. Junayev Z. Turkiston muxtor hukumatining sovetlar tomonidan ag‘darilishi..... 270
56. Karimova A., Buriyeva D. Mahmudxo’ja Behbudiyning Turkiston o’lkasining mustaqilligini qo’lga kiritishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakatga qo’shgan hissasi 276
57. Mardonov R. Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilik harakatidagi ijtimoiy-axloqiy islohotlari 279
58. Obidov D. Mahmudxo’ja Behbudiyning turkiston mustaqilligiga qo’shgan hissasi yohud siyosiy qarashlari 282
59. Otamurodov D., Begaliyev N. Musulmon jamiyatlarida mustamlakachilarga qarshi kurush va bu yo'lda yangilik tarafdorlarining ahamiyati: Jadidchilik..286
60. Қўшмуратов Ш. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти..... 292
61. Rashidova D. Mahmudxo‘ja Behbudiyning turkiston mustaqilligi uchun qo‘shgan hissasi 297
62. Абдурахманова Г. Просветитель и учёный Серали Лапин 301
63. Эрйигитова Л., Ваққосова Ш. М.Беҳбудийнинг маънавий ва маърифий фаолияти 306
64. Obidov A., Jo‘rayev A., Sherboboyev M. Jadidchilikning milliy uyg‘onishdagi tamoyillari: Tarixiy va falsafiy tahlil 310
65. Кадиров А. Беҳбудий-ақш олимлари нигоҳида 318

66. Turdimurodov J. XIX asr oxri va XX asr boshida Samarqandda jadidchilik va ma’rifatparvarlikning vujudga kelishi hamda rivojlanishi Mahmudxo’ja Behbudiy (1875-1919) faoliyatida 321

4-sho‘ba: Samarqandlik jadid namoyondalarining ma’rifatparvarlik faoliyati va ta’lim tarbiyaga qo‘shgan hissasi

67. Mutalipov S. Matbuot masalasi va Mahmudxo‘ja Behbudiy 328
68. Xatamova Z., Abdurahimova D. Behbudiy xayoti va vafoti xaqida chop etilgan maqolalar masalasidan 330
69. Haqqulov N. Samarqandning ma’rifatparvar allomalari: Mahmudxo‘ja Behbudiy va Siddiqiy-Ajziy merosi 333
70. Haydarov K. Samarqandlik marifatparvar 337
71. Karimova A. Behbudiy asarlarini o’qitishda SCAMPER texnikasidan foydalanish 341
72. Бегбудиева П. Просветительская деятельность самаркандских джадидов и ее влияние на развитие образования 343
73. Нишонов С. Социально-философский анализ Самаркандских джадидов в системе образования и воспитания 348
74. Bo‘riyeva H. Turkiston ma’rifatparvarlari: Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakati yo‘lboshchisi 353
75. Daliyeva N. Abduqodir Shakuriy: jadidchilikning vujudga kelishi va Samarqand jadidchilik maktabi 356
76. Alibekova Z. Mahmudkhoja Behbudiy as a great public figure 362
77. Ergashev M. Mahmudxo‘ja Behbudiy merosida yoshlar ta’lim-tarbiaysi masalasining ustivorligi 364
78. Kurbanova S. Samarqand jadidlarining ma'rifatparvarlik g’oyalari 368
79. Lutfullayeva M. Mahmudxoja Behbudiyning Turkiston jadidchilik harakatida tutgan o‘rni 373
80. Maxamatova D. Mahmudxo‘Ja Behbudiy: jadidchilik harakatining peshvosi va uning tarixiy qarashlari 377
81. O‘ktamova N. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim tizimini isloh qilishdagi harakatlari 383
82. O’rinov U. Behbudiy saboqlari yoki “G‘oyaga qarshi g‘oya, mafkuraga qarshi mafkura” 386
83. Rahmonqulova M. Mahmudxo’ja Behbudiyning ilmiy faoliyati 391
84. Ravshanova O. Samarqandlik jadid namoyondalarining ma’rifatparvarlik faoliyati va ta’lim tarbiyaga qo‘shgan hissasi 394
85. Raximova D., Dilshodova Sh. Behbudiyning falsafiy qarashlari 397
86. Saidov K. Jadidlarning milliy til-adabiyot va tarix masalari bo’yicha qarashlari va faoliyatlari 406
87. Temirova O. Jadidlarning ta’lim va tarbiyaga oid qarashlari 411
88. Umirova Sh. Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatparvar shaxs …….. 415
89. Utanov U., Qosimova O. Mahmudxo‘ja Behbudiy: Jadidchilik harakatining peshvosi va ma’rifatparvarlik namoyondasi 419

90. Xolmatov I. Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidlar g’oyalarida jismoniy tarbiya - sportga e’tibor bo’yicha sotsiologik tahlil 422
91. Xudoyqulov Y. Abduqodir Shakuriy - Samarqand jadid maktabi yorqin vakili sifatida 427
92. Yusupov M. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Said Rizo Alizoda jadidlar maktabining asoschilari 433
93. Рахимкулова М. Саидризо Ализода - анализ развития образовательной практики в Узбекистане 437
94. Sharopova D. Ilmiy merosida yoshlar muammosining ilmiy talqini 441
95. Tagayev G. Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston taraqqiyparlar harakatining g‘oyaviy rahnamosi 444

5-sho‘ba: Turkiston jadid namoyondalarining yangi O‘zbekiston va jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni

96. Patiyev X. Jadidchilik mohiyati haqida o‘zbek va xorijiy tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari 448
97. Achilova N. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishda M.Behbudiy ma’naviy merosining o‘rni va ahamiyati..... 454
98. Dadaxanov Sh. Turkiston jadid ma’rifatparvarlari orasida liberal-demokratik g‘oyalarni shakllanishi: ijtimoiy-falsafiy tahlil 458
99. Ganiyev B. Turkiston jadidlari qarashlarida ishbilarmonlik omillarning namoyon bo‘lishi va ularning bugungi kundagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati..465
100. Kuvandikov Sh. Jadid namoyondalarining milliy identitetni shakllantirishdagi roli 470
101. Nabiyev M. Turkiston jadidlari ilgari surgan ijtimoiy g‘oyalarning yangi O‘zbekiston demokratik taraqqiyotidagi ahamiyati 476
102. Ahrorova M. Nozimaxonim asarlarida ma’rifatparvarlik va hurfikrlik g‘oyalari..... 484
103. Begaliyev N., Axmadova R. Jadid harakatida gender tengligi uchun kurash va uning qatag'on davridagi aks-sadosi 486
104. Begimqulov Z. Malaka oshirish kursi tinglovchilariga jadidchilik merosining o‘qitilishi ijtimoiy zarurat sifatida 491
105. Hamroyeva A. Turkiston jadid namoyondalarining yangi O‘zbekiston va jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni 496
106. Miraxmedov J. Yangi O’zbekiston poydevorini yaratisda jadidchilik harakatida fan va madaniyat taraqqiyotidagi o’rni 498
107. Nishonov M. Mahmudxo`ja Behbudiyning ta`limga doir qarashlarining Yangi O`zbekistonda tadqiq etilish 503
108. To‘yeva M. Turkiston jadid namoyondalarining yangi O’zbekiston va jahon hamjamiyatida tutgan o’rni 508
109. Xoshimova O. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asaridagi ayrim rang ifodalovchi leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari 512
110. G‘anieva M. Yangi O‘zbekiston sharoitida gender tengligi muammosini tadqiq etishda jadidlar g‘oyalarigining o‘rni 519

111. Karimov X. Turkiston jadidlari g‘oyalarida ta’lim inklyuzivligi haqidagi ijtimoiy-falsafiy diskurs 525
112. Mamadjonova M. Turkiston jadid namoyonlari qarashlarining yangi O`zbekiston strategiyasi bilan hamohangligi 530
113. Maqsumova U. Yangi O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda jadidlar g‘oyalarining ahamiyati 535
114. Mirkhakimova F. The activities of the museum of Abdulkhamid Sulaymon ugli Chulpon, one of the representatives of the turkestan jadidist movement 541

115. Rustamov Sh. XIX asr oxiri – XX asr birinchi yarmi Samarqand tarixini o‘rganishda tasviriy san’at asarlarining ahamiyati 546
116. Quvvataliyev U. O‘zbek tarixshunosligining fidoylari: Bo‘lat Soliyev va uning shogirdlari 552
117. Rasulov B. Is’hoqxon To‘ra Ibrat hayot yo‘li yoshlar uchun ibrat namunasidir..... 556
118. Djurakulov J. I.A.Akramov teatr va muzeyshunoslik sohasiga hissasi 561
119. Abdurahmonov X. Islom ta’limoti va ahmad donish falsafiy merosida oila munosabatlari 565

120. Ergasheva N. Behzod Fazliddinning “Og‘riq”, “Shoir”, “Hasrat”" she'rlarida ramziylik 570
121. Нағашбоев Қазбек. Совет ҳокимияти томонидан Ўзбекистон ССРдаги ишчи қатлам орасида жисмоний тарбияни оммалаштириш орқали “пахта плани”ни оширишда фойдаланилиши 574
122. Xurramov A. Uzluksiz metodik xizmat va metodbirlashmalar faoliyatini tashkil etish orqali maktab rahbarlari hamda pedagog xodimlarining kasbiy mas’uliyatini oshirish 577
123. Гофурова Ж. Трансформация исторического героя в литературном тексте роль жанровых и стилистических приёмов в создании образа А.Темур..... 583
124. Usmonov A. Maktab yoshidagi deviant xulqli bolalarni mehnat vositasida tarbiyalashning shart sharoitlari 587
125. Хакбердиева С. Сравнительный анализ метафорических образов семьи в русских и узбекских пословицах и поговорках 591
126. Ergasheva M. Shaxs shakllanishida muloqotning o’rni, samarali muloqot o’rnatish shakllari 595
127. З.Рузиева, О.Хужамурадова. XX аср бошидаги Туркистоннинг йирик сиёсий арбоби 597
128. Jo‘rayeva Z. Mahmudxo‘ja Behbudiy – Samarqand jadidlarining yirik namoyandasi 600
129. Toremuratova G. Mahmudxo‘ja Behbudiyning manaviy va marifiy faoliyati..... 604

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING 150 YILLIK YUBILEYIGA BAG‘ISHLANGAN” RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TO‘PLAMI

1-SHO‘BA

TURKISTON JADID NAMOYONDALARINING BOSH G‘OYA VA MAQSADI: TARIX, TIL, ADABIYOT, SAN’AT, DIN, AXLOQ, TA’LIM-TARBIYAVIY G‘OYALARI

ТУРКИСТОНДА ЖАДИДЧИЛИГИ ҲАРАКАТИНИНГ АСОСИЙ ҒОЯСИ ВА МАҚСАДИ

Камолжан Шадиметов,
Ўзбекистон “Адолат” СДП Фахрийлар Кенгаши раиси, академик

Кисқача шарҳ: Жадидлар XIX аср охири – XX аср бошида Россия империясида мусулмон модернист ислоҳотчилари бўлган. Улар ўзини “тараққийпарвар”, “зиёли” ёки фақат “Ёшлар” деб атаган кишилар эди. Гарчи ҳаракат ичида жиддий мафкуравий келишмовчиликлар бўлган бўлса-да, жадидлар аксил-клерикал ҳаракат бўлган, таълим соҳасини ислоҳ қилиш ҳамда мактабларда “усул ул-жадид” ёки “янги усул”ни татбиқ қилиш ва ривожлантиришга интилган. Умуман олганда, уламо ва ислом руҳонийларига қарши муваффақиятли кураша олган бўлса-да, улар ҳам совет давлатининг қурбони бўлишган. Жадидлар маҳаллий буржуазия ва аксил-инқилобий гумашталар сифатида қораланди ва кўпчилиги отиб ташланган.

Аннотация: Джадиды были мусульманскими модернистскими реформаторами в Российской империи в конце 19 - начале 20 веков. Это были люди, называвшие себя «прогрессивными», «интеллектуальными» или просто «Молодежью». Хотя внутри движения существовали серьезные идеологические разногласия, джадиды были антиклерикальным движением. Он стремился реформировать образовательную индустрию и ввести и разрабатывать методы в школах или «метод ul-jadid» или «новый метод». В общем, хотя он смог сразиться с священнослужителями и исламскими священниками, они также стали жертвами советского государства. Джадиды осудили как местные бургинг и антиреволюционные устройства, и большинство из них были застрелены.

Kısa inceleme: Cedidler, 19. yüzyılın sonlarında ve 20. yüzyılın başlarında Rusya İmparatorluğu'nda Müslüman modernist reformculardı. Kendilerini "ilerici", "entelektüel" ya da sadece "Genç" olarak adlandıran insanlardı bunlar. Hareket içinde ciddi ideolojik farklılıklar olmasına rağmen Cedidler din karşıtı bir hareketti,
eğitim alanında reform yapmaya ve okullarda "usulü'l-cedid" veya "yeni yöntem"i uygulamaya ve geliştirmeye çalıştı. Genel olarak İslam din adamlarına ve din adamlarına karşı başarılı bir şekilde mücadele edebilmiş olsalar da, aynı zamanda Sovyet devletinin de kurbanı olmuşlardır. Cedidler erel burjuva ve karşı-devrimci serseriler olarak suçlandı ve birçoğu vuruldu.

Annotation: The Jadids were Muslim modernist reformers in the Russian Empire in the late 19th and early 20th centuries. These were people who called themselves “progressive,” “intellectual,” or simply “Youth.” Although there were serious ideological divisions within the movement, the Jadids were an anti-clerical movement. He sought to reform the education industry and introduce and develop methods in schools or the "ul-jadid method" or "new method". In general, although he was able to fight the clerics and Islamic priests, they also became victims of the Soviet state. The Jadids were denounced as local burging and anti-revolutionary devices, and most of them were shot.

Калит сўзлар: жадидчилик, авлод, дин, тарбия, ғоя, мактаб, эътиқод.
Ключевые слова: джадиды, религия, образование, идея, школа, вера.
Anahtar kelimeler: mücadelecilik, nesil, din, eğitim, fikir, okul, inanç.
Keywords: jadeed, generation, religion, upbringing, idea, School, faith

Жадидчилик келиб чиқишига сабаб бўлган омиллари, ташаббускорлар қандай пайдо бўлгани, тарихий шароит қандай, тарихда қайси давр бўлгани хусусида ўзбек тарихчиси жадидлар тарихи, ғоялари ва энг ёрқин вакиллари, хатолари ва ютуқлари ҳақида тарих фанлари доктори, профессор Дилором Алимова қуйидагича таърифлайди[1]:

Жадидлар ким бўлганини тушуниб олиш учун ўша давр тарихини жуда яхши билиш зарур. Жадидчилик XIX аср охири – XX аср бошида пайдо бўлди. ***Жадидчилик пайдо бўлишининг тарихий сабаблари***. XIX асрдаги фалсафа ва маърифатнинг кучайиши, Ўрта Осиё хонликларининг XVI асрда Буюк ипак йўли заифлашиб қолгани билан боғлиқ тарзда юзага келиб, қолоқлиги объектив сабабларини англаб олиш керак бўлади. Ўша вақтда денгиз йўллари очилиб, Ғарбда, Европада технологиялар жадал ривожлана бошлади.

Субъектив сабаблар эса халқ хўжалиги ва умумий ривожланишга улкан зарар етказган ички урушлардир. Туркистонни Россия империяси босиб олгандан кейин ўлка метрополияни табиий бойликлари, хусусан, пахта ва ипак билан беғараз таъминлаб турган хомашё базасига айланди. Кейинчалик бошқа табиий ресурсларни ҳам қазиб олиш ва марказга ҳайдаб бериш дастури ишлаб чиқилди, фақат ушбу мақсадларга эришишда хизмат қилувчи соҳалар ривожлантирилди. Рус сармоясининг Туркистонга кириб келиши, албатта, банклар ривожланиши, темирйўллар қурилишига туртки берди, аммо судхўрлик капиталининг ривожланишидан синган деҳқонлар сонини жиддий тарзда ошириб юборди. Шу билан бирга, маданий инқироз, бутунлай сафсатага айланиб қолган таълимнинг аҳволи ҳақида ҳам гапиришга тўғри келди. Умуман, бу даврга келиб, ислом фалсафаси қадрини йўқотиб бўлди, яъни у содир бўлаётган воқеа-ҳодисаларнинг уламо тарафидан маиший талқинига айланиб қолди, холос.

Шунинг учун ***жадидлар – ёшлар, бу эса ёшлар ҳаракати эди***. Адибларнинг ёш таркибини ўрганилганда, маълум бўлишича, машҳур жадид ва ёшларнинг севимли ёзувчиси Чўлпон 1910 йилда 13 ёшда, Беҳбудийнинг ёши эса 30 ошиқроқ бўлган. Ўша ҳаракат иштирокчилари фақат ёшлардан иборат экани маълум бўлган. Бу ёшлар интеллектуал жиҳатдан ривожланган ва Туркистоннинг жаҳон тараққиётидан орқада қолаётгани сабабларини тушунар эди.

Шу ўринда қайд этиш жоизки, маърифатпарварликнинг чуқур илдизлари бўлиб, фақат жадидчилик кўринишида зуҳур бўлгани йўқ. Унинг маърифатпарварлик илдизлари ҳам бор эди ва жадидчилик ушбу ҳаракатнинг аккумулятори – қувват йиғувчиси бўлди. Албатта, у олдинги адабиёт, олдинги фалсафа ютуқларига асосланган. Жадидлар ўзини ушбу фалсафанинг таҳлилчилари сифатида ҳам намоён қилди. Биламизки, машҳур маърифатпарвар Аҳмад Дониш, шоирлар Муқимий, Фурқат, Ҳамза, Убайдулла Завқий, Муҳаммад Баёний, Абай Қўнонбоев ва олим Чўқон Валихонов **ислоҳотнинг ҳассос тарафдорлари бўлган, улар боши берк кўчадан чиқишни нафақат маърифатда, қолаверса, туркий халқлар бирлигида кўрган. Ўтмишдошларидан анча олдинлаб кетган ва**

маърифатпарварликдан сиёсатга ўтган жадидлар шу заминда униб чиққан.

Агар жадидлар фаолиятини яна бир неча ўн йил давом эттирганида, жуда яхши натижага эришган ҳамда аҳоли уларни яхши қабул қилган, ғоялари яхши тарқалган бўлар эди.

Жадидчиликнинг ўзига хослиги нимада? Жадидлар нафақат бундай ислоҳот ўтказишни назарий жиҳатдан асослаб берган, қолаверса, маърифатни амалга ошириш учун амалда ҳам тинмай ҳаракат қилган: улар янги усулдаги мактаблар, кутубхоналар, қироатхоналар очган, дарсликлар, газеталар чоп этган, илк театр ташкил этган, бу аҳоли учун кўз кўриб, қулоқ эшитмаган янгилик бўлиб, жуда катта таъсир кучига бўлган ва одамлар онгида инқилоб ясаган. **Шу ўринда М. Беҳбудийнинг “Падаркуш” пьесасини эслаб ўтиш жоиз, унда билимсизлик, жоҳиллик фожиага сабаб бўлиши кўрсатиб берилган ва ёшлар онгида чин маънодаги инқилоб ясаган эди.**

Ўрта Осиё жадидчилиги отаси деб тан олинган Маҳмудхўжа Беҳбудий 1903 йилда иккинчи марта қилган ҳажини Россияни, хусусан, бошқа Шарқ мамлакатларини ўрганиш билан омухта қилди ва ўша йили Исмоил Гаспринский билан учрашди. Бу пайтга келиб, Беҳбудийнинг ўз маблағи ҳисобига очилган кўплаб хусусий мактаблари бор эди. У “Самарқанд” деб аталган газета чоп эттирган. Гаспринский билан суҳбати олимни тўғри йўлдан кетаётганига ишонтирди ва шу йўлдаги бундан кейинги ҳаракатини тўғрилаб олди. Шу сабабли Гаспринскийни Марказий Осиёда ҳам ушбу ҳаракатнинг раҳнамоси деб аташ мумкин.

Россия империясиннг Ўрта Осиё қисмида жадидлар ҳаракати жадал ривожланди. Бу ерда Беҳбудий, Фитрат ва бошқа етакчилар етишиб чиқди. Айни чоқда Ўрта Осиё жадидчилигини Бухоро ва Хива жадидчилигига бўлиш урф бўлган. Ўша даврда Қозоғистонда “Алаш” ҳаракати ривожланган, у ҳам модернистлар ҳаракати, ҳатто жадидчилик ҳаракати деб аталган. Туркистонда шунга ўхшаш “Шўрои ислом” ҳаракати ривожланган ва унга ўзбек маърифатпарвари Мунавварқори Абдурашидхонов етакчилик қилган, унинг фаолларидан бири жамоат арбоби Мустафо Чўқай бўлган. Жадидчиликнинг ушбу минтақавий бўлинмалари қайси жиҳатдан ўзаро ўхшаш ва қайси жиҳатлари ўзаро фарқли бўлган?

Агар уларни таққослайдиган бўлсак, сиёсий вазият ва давлатнинг сиёсий қурилмасини ҳисобга олишимиз шарт бўлади. барча минтақалардаги мактабларни бирлаштириб турган нарса шуки, жадидлар ўз маданияти билан чекланиб қолмасликни, халқ қолоқ бўлиб қолгани сабаби Ғарбнинг технологик ютуқларини жалб этишни хуш кўрмаслик эканини яхши англаган.

Кўпчилик жадидларни ғарбпарастликда айблаган. Улар ғарбпарастлигини тушунса бўлади. Бу нафақат жадидлар фалсафасига, балки ташқи кўринишига ҳам таъсир кўрсатган.

Жадидларни клерикал консерватизмга (*тараққиётга, янгиликка, илғор ғояларга душманлик)* **қарши кураш бирлаштирган, лекин улар ҳаммаси диндор кишилар бўлган. Жадидлар муҳитида исломни ислоҳ қилиш бўйича ғоялар айланиб юрган.**

Россиядан олиб келинган босмахона, босмахона станоги ёки мусиқа граммофони ва яна бошқа нарсаларни олайлик. Албатта, мусулмонлар буларга кофирлар, яъни христианлар ишлаб чиқарган нарса деб қараган, улардан фойдаланиш керакми ёки йўқлигини, дин бу масалага қандай қарашини билмаган. Туркистоннинг миллий тараққийпарварлари ушбу диний бағрикенгликнинг чин маънодаги ифодачилари эди. Уларнинг диний билими, дунёқараши ва интилишлари билан бунга тўла ҳаққи бўлган. Уларнинг машҳур вакиллари нафақат мадрасаларни тугатган, қолаверса, диний рутбага ҳам эга бўлган. ***Масалан, Маҳмудхўжа Беҳбудий ота-бобосидан муфтийликни мерос қилиб олган ва вақтида Самарқанд вилоятида ушбу лавозимни эгаллаган. Исҳоқхон Ибрат эса Наманган вилоятининг Тўрақўрғон туманида қозилик қилган. Ҳар иккиси Аҳмад Яссавий авлоди бўлишган. Яссавия тариқати руҳида тарбияланган.***

Мунавварқори ҳам мадрасини тугаллагандан сўнг Тошкентдаги “Дархон” масжидида имом бўлиб ишлаган,

Туркистон қанчалик тараққиётдан ортда қолиб кетганини жуда яхши англаётган эди. Шунинг учун Ўрта Осиёнинг мусулмон маданий анъанасини

Таваллудини 150 йиллиги нишонланаётган Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳайкали

модернизация қилишни ёқлаб чиқа бошлади. Улар ислоҳотни ислом

таълимотини англаб етишдан бошлади. Шу сабаб Қуръон ва ҳадислардан ҳамма нарса билимга таянишини тасдиқловчи ўринларни излашга тушди. Биламизки, Қуръоннинг ¼ қисми тарихга бағишланган, бутун бошли тарих эса ўтмишнинг интеллектуал тажрибасини тушунмай туриб, жаҳон интеллектуал тажрибасини англаб олмай туриб, бирор нарсага эришиб бўлмаслигидан далолат беради. Америкалик тарихчи Адиб Холид фикрича, Ўрта Осиё жадидчилиги мусулмон модернизми чорчўплари билан маҳаллийлаштирилган эди.

Жадидчиликни мусулмон модернизми деб аташ мумкин. Чунки, улар фаолиятининг анча-мунча қисми аҳолига **Аллоҳ бандасига “ўқи” деб айтганини исботлашдан иборат бўлган**. **Қуръонда, “Илмни Чинда (Хитойда) бўлса ҳам ўрганинг риторик тузилмаси илдизлари Ўрта Осиёнинг мусулмон анъанасига бориб тақалади, шунинг учун жадидлар, анъанага кўра, ислом динига таянган. Замонавийлик ислом динининг ҳақиқий мазмунига боғланган, фақат барча асрлар давомида пайдо бўлган ўсимталаридан тозаланган ислом мусулмонлар фаровонлигини таъминлаши мумкин эди. Жадидларнинг ғояси шу бўлган. Дунёга янгича назар билан боқар экан, исломни тушунди, мусулмонлик нима эканини англади.**

Қуръон оятлари ҳақида бекорга фикр юритмаган. Менимча, бу одамларга, ёшларга, ислом инсон қўли тегадиган ҳар бир нарса билим талаб қиладиган дин эканини кўрсатиб бериш учун жуда яхши усулдир. Жадидлар бошқа, айниқса, мусулмонларники бўлмаган маданиятлар ва динларга нисбатан ёмон кўз билан қарамаслигини кўрсатишни яна бир карра тасдиқлаш учун тез-тез Европа ва Осиё тарихига мурожаат қилиб турган. Узоқ тарихий тараққиёт давомида маданиятларнинг мерос бўлиб авлоддан-авлодга ўтиши, уларнинг ўзаро алоқадорлиги, қадриятларининг биридан иккинчисига ўтиши ва бир-бирига кириб бориши ҳақидаги назария багрикенглик ташвиқотининг асосий воситаси бўлиб хизмат қилган.

Улар асарларида Европа мусулмон Ренессанси давридаги Ўрта Осиёнинг деҳқончилиги, ҳунармандчилиги ва санъати, илм-фани ва билим соҳасидаги ютуқларини ўзлаштиргани бот-бот тилга олинади.

Маҳмудхўжа Беҳбудий замонасидан шунчалик олдинлаб кетган киши эдики, Баҳоуддин Нақшбанд мақбарасига борганда, унинг атрофида шунчалик кўп масжид қурилганини кўриб, ўша вақт учун жасорат бўлган бир гапни айтади: “бир мусулмон учун бунчалик кўп масжидларнинг кераги йўқ, унга ибодат қилиши учун битта жойнамознинг ўзи етади. Бунчалик кўп масжид қургандан кўра, унга сарфланган маблаққа фарзандларимизни чет элга ўқишга юбориш вақти келмадимикан?”

Умуман, улар ғоялари, ислом динини ислоҳ қилишга интилиши бошқа динларга нисбатан бағрикенгликни тарбиялаш ва Ғарбдан билим ўзлаштиришни ўз ичига олган.

1917 йилда Туркистонда 100 та жадидлар мактаби бўлган ва албатта, улардаги ўқитиш муллалар ва мусулмон руҳонийлари қаршилигига учраб турган. Аввалбошданоқ бу мактаблар Европа мактабларига яқин ва таълимни ривожлантиришга ёрдам беради, деб қаралган, лекин тез орада бундай янги мактаблар омма онгига янгиликлар олиб кираётгани ва ёшларнинг саволлари кўпайиб кетаётгани, жумладан, миллий онг уйғонаётгани фаҳмланган. Ва навбати билан ёпила бошлаган. Бундай мактаблар жуда кўп нарса бераётган эди. Албатта, аҳоли аста-секин ота-она савод чиқариш учун фарзандини 40 кун ўқитиши кераклигини тушуна бошлади, оддий мактабда эса бола 10 йил ўтиради, мадрасада эса 10 – 15 йил ўқийди ва фақат Қуръонни ёд олади. Яна мактабда хивич билан савалаш тизими мавжуд эди.

Албатта, улар айни мактабларни устувор аҳамият бериши зарур бўлган муассаса деб тушунган, лекин айтиб қўйишим жоизки, жадидлар ҳаракатини кенг миқёсли бўлган дейиш хатодан бошқа нарса эмас, чунки аҳолининг аксарият қисми мусулмон руҳонийлари таъсирида бўлган, жадидлар мактабларида тафаккури ривожланган ва бу мактабларнинг истиқболини тушунган кишилар фарзандлари таълим олган. Жадидлар мактабларини Европа мактабларига бевосита ўхшаш бўлган, дейиш қийин, лекин уларда ўша мактабларнинг дастлабки намуналари бор эди. ***Биринчидан,*** улар парталар билан жиҳозланган, бу мактаблардаги болалар мусулмон мактабларидаги сингари ерда ўтирмаган ва ўқитувчилар уларнинг боши устида калтак ўйнатиб турмаган. Жадидлар мактабларида китоблар, кейинчалик эса хариталар бўлган.

Бу ўринда дарсликлар нашр қилишда Маҳмудхўжа Беҳбудий ва Мунаввaрқорининг хизматларини алоҳида эътироф этиш жоиз. Дастлаб дарсликлар бўлмаган. Улар Россиядан олиб келинган ва татар мактабларига мўлжалланган бўлган. Исмоил Гаспринский бу масалада катта ёрдам кўрсатган. Жадидлар сўнгра ўзи дарсликлар чоп қилишга ўтган. Мунаввaрқори ва Беҳбудий жуда кўп дарсликлар ёзган. ***Масалан, “Китоби аввал” ёки математика, адабиёт, география бўйича дарсликларни олайлик. Албатта, улар қайсидир даражада Россия дарсликларидан ўзлаштирилган бўлиши мумкин, лекин шунга қарамай, бу жуда катта олға силжиш эди. Жадид мактаблари синфларида глобуслар турган. Бу эски миқёслар билан***

солиштирганда, бутунлай янги нарса эди ва албатта, ажойиб натижалар берган.

Рус тили борасида шуни айтмоқчиманки, жадидларнинг кўпчилиги бу тилни яхши билган. Тил концепцияси **Беҳбудийнинг “Бир тил эмас, тўрт тил керак”** деб номланган мақоласида очиб берилган, яъни унга кўра, Россия империясида яшаётганимиз сабабли, айниқса, рус тилини билишимиз зарур. ***Айни ўринда мен яна бир нарсани алоҳида таъкидлаб ўтмоқчиман: жадидлар тадбиркорлар, савдогарлар, бошқа турли бой кишилар кўмагида Туркистон ёшларини чет элларга ўқишга жўнатган. Билишимча, 22 киши Германияга, хусусан, Ҳайделберг университетига юборилган. Яна қанчадир киши Россияга бориб ўқиган.***

Жадидлар орзу қилганидек, бу республикалар уларники эди, улар ўша республикаларда ўз ғояларини амалга ошириши мумкин эди. Лекин бундай бўлиб чиқмади. Болшевиклар аста-секин бу ҳукуматни тирқиратиб юборди.

Совет ҳокимиятига қарши чиққан яширин “Миллий иттиҳод” қўпорувчилик ташкилотини тузганликда айбланган. Аслида унинг ташкилоти “Турк ўчоғи” деб аталган ва ташкилотда мустақилликка оид айрим фикрлар билдирилган бўлса ажаб эмас. Бўлиши мумкин. Лекин улар ижтимоий маърифатпарварлик билан шуғулланган. Жадидларнинг аксарияти: Абдулла Қодирий ҳам, Чўлпон ҳам, Боту ҳам – Анҳор бўйида отиб ташланган. Бизда Анҳор устида бир кўприк бўлган – “Алвасти кўприк” деб аталган. Ҳозир ўша жойда Қатағон қурбонлари музейи барпо этилди, жадидлар ҳақидаги барча маълумотлар шу музейда сақланади. Ҳатто 76 яшар чол Жунайдулла Ибрат ҳам Наманганда ҳибсга олинган ва у ҳам отиб ташланган. ***Беҳбудийнинг ўлимига оид бир неча талқин мавжуд. У Совет ҳокимияти ўрнатилган вақтдан бошлаб, сиёсатдан воз кечиб, маориф идораларида ишлаган. Бироқ 1919 йилда у касал эканини важ қилиб, ҳаж қилишга қарор қилади, ҳарқалай, расман шундай деган. Лекин бемор одам қандай қилиб ҳажга бориши мумкин? Бир талқинга кўра, у Туркистон мустақиллиги масаласини муҳокама қилиш учун аллақандай чет эл ташкилотлари вакиллари билан учрашмоқчи бўлган, лекин бу исботини топгани йўқ. Яна бир талқинга асосан, ўша ёққа кетаётганда, Қарши шаҳрида амир югурдаклари уни қўлга олган ва қатл этган.***

Жадидлар нималарга муваффақ бўлди? Одамлар онгида ўзига хос ўзгариш ясашнинг уддасидан чиқа билди. Жамиятни ўзгартириш концепциясини ярата олди ва концепция барча масалаларни қамраб олди. Янги авангард жадидлар адабиёти, янги драматургияга асос солди. Туркистонда биринчи театрни ишга туширди. Таълимнинг янги шаклларини яратди. Улар – эҳтимол кичик кўринишда бўлгандир, аммо – бутунлай янги маданият яратди.

Умуман, бу – нафақат Ўзбекистоннинг, қолаверса, барча халқларнинг, барча туркий халқларнинг, туркий бўлмаган халқларнинг, Марказий Осиё халқларининг мероси, чунки бу интеллектуал муҳит мавжудлигини, эрлар, уларнинг онги ва интилишлари қандай бўлганини кўрсатади. ***Масалан, Беҳбудий мавзусига яна бир карра қайтсак. У ҳажга борганида Байрут университетини зиёрат қилади. Ҳайратга тушиб, “Эй Худо, буларнинг лабораторияларини қаранглар”, деб ёзади. У кимё лабораторияси билан танишади. “Бу ерда қандай талабалар ва қизлар ўқиётганини қаранг! Ютуқлар ҳам шунча бўладими! Нега бу мусулмон мамлакатида бундай университет бор, биз ҳам мусулмон мамлакатимиз, лекин Туркистонда олий даражадаги бирорта ҳам, ҳа-ҳа, бирорта ҳам таълим муассасаси йўқ?”. Албатта, мадрасалар кўп бўлганини биламиз. Лекин бир пайтлар, масалан, X асрда билим жарчиси бўлган мадрасалар XIX асрга келиб, бутунлай ўзгариб кетди. Билим олишнинг ҳеч бир талабига жавоб бера олмайдиган бўлиб қолди.***

Жадидлар нималарни эплай олмади? Таассуфки, улар Туркистон мухториятини ташкил қилганида [муваффақиятсизликка учради] – Қозоғистондаги вазият бошқачароқ бўлган, чунки улар Россияга, Европага яқинроқ эди. Яна қайтариб айтаман, олий таълим олган, Россия ва ҳатто чет элларда ўқиган одамлар, жадидлар кўп бўлган. Бу ерда-чи? Туркистон жадидлари орасида мутахассислар кам, жуда оз бўлган. Улар иқтисодиётни умуман тушунмаган. Замонавий юриспруденция, жумладан, жаҳон юриспруденцияси ҳақидаги тушунчаси жуда заиф бўлган. Давлатни бошқаришга киришиш учун мана шу соҳалардаги билим етишмаган. Ваҳоланки, улар республика, давлат қураётган эди. Улар орасида бундай мутахассислар бўлмаган – уларнинг камчилиги шу эди. Катта хатоси болшевикларга ишонгани бўлган.

Маҳмудхўжа Беҳбудий Аҳмад Яссавий авлоди

Туркий халқлар тарихида юксак маънавий нуфузга эришган ва тафаккурнинг беҳад кенг сарҳадларини эгаллаган буюк зотлар беҳисобдир. Лекин айнан Хожа Аҳмад Яссавийга ўхшаб асрлар мобайнида тарихий қавмлар ва элатлар руҳоний ҳаётига раҳнамолик қилган, то шу кунга қадар тасаввуф, адабиёт, маданият, маънавият, хатто сиёсат жабҳасида ҳам таъсирини ўтказиб келган сиймолар бармоқ билан санарли. Аҳмад Яссавий хазратлари фақат янги тариқат асосчиси сифатида эмас, балки туркий тасаввуф шеъриятининг биринчи ижодкори сифатида ҳам такрорланмас ва унутилмас тарихий вазифани адо айлаган эди.

Туркий тил гўзал, кудратли, таъсирчан ва бағри кенг тилдир. Бу тилда қадим замонларда буддавийлик, моний динига доир матнлар шарҳланган. Бу

тилда бошка динларнинг ҳақиқатларини ифодаловчи шеърлар ёзилган. Аммо Аҳмад Яссавий ўз она тилини илк бора тариқат тили мақомига кўтарди. Уни араб ва форс тасаввуф тили даврасига кўшди. Шунинг учун Пири Туркистоннинг шеърларидаги ҳар бир сўз ва ҳар бир ибора ислом хақиқатлари қадар муқаддас, нурли ва илоҳийдир. Буни Алишер Навоийнинг “Насойим ул-мухаббат” асаридаги мана бу фикрларидан ҳам билиш қийин эмас: «Хожа Аҳмад Яссавий - Туркистон мулкининг шайхул машойихидур. Мақомоти олий ва машҳур, каромоти мутаволий ва номахсур эрмиш. Мурид ва асхоб ғоятсиз ва шоху гадо анинг иродат ва ихлоси остонида ниҳоятсиз эрмиш. Имом Юсуф Хамадонийнинг асҳобидиндур.

Аҳмад Яссавий – донишманд, шоир, Яссавия тариқатини асосчиси (*тариқати 12 та асосий тариқат қаторига кирган*), Яссавия тасаввуфни ўз тизим ва силсилалари орқали бутун ислом оламига кенг ёйган.

Аҳмад Яссавий туғилган замин – Сайрам шаҳридир. Бу шаҳарнинг ёшини уч минг йилга тенг, дейишади. Шундай заминда туғилган Аҳмад Яссавий Сайрамда илк таълимни у ерда олганини, Арслонбоб қўлида илм, тарбия олгани, кейинчалик Бухорода Юсуф Ҳамадонийдан таълим олиб, ҳалифаси бўлиб, кейинчалик ўзи ҳам таълим бериб, ватани Яссига қайтиб, Яссавия тариқатига асос солган.

Шунингдек, Яссавия тузган тариқатнинг барча ақидалари – ***“Девони Ҳикмат”*** **шеърий асари ва ундан баён этилгани:** ***поклик, тўғрилик, камсуқумлик, меҳр-шафқат, ҳалол кун кечириш, нафсни тийишга интилиш, имонли бўлиш каби асл инсоний фазилатлар мақталган. Золимлар, порахўрлар, мутассиб шайхлар, жоҳил ва нодон, кимсалар, эса қораланган***.

Хўжа Аҳмад Яссавийнинг тасаввуф таълимоти тарихда тутган ўрни жуда юксакдир. Яссавия тариқи сулуки Марказий Осиё, Кавказ, Хуросон, Эрон, Урал, Сибир, Шарқий Туркистон, Ҳиндистон, Афғонистон элларига ёйилган.

Амир Темур бобимизнинг Сайрамга илк бор 1366 йилда келиши, 1376 йилда мўғул хони Қамариддинхон билан бўлган жангда сайрамликлар фаоллардан бўлгани янада бобомизга Сайрамликларнинг ҳурмат ва эҳтиром жуда юқори.

Амир Темур Сайрамни ўз тасарруфига ўтказиб, бу юртни обод этиш, ҳунармандчиликни йўлга қўйиш, савдо-сотиқни ривожлантиришга эътибор беради. 1389, 1391, 1394, 1405 йилларда Сайрамда тўҳтаб ўтади. Шаҳарни обод этишга қалъдаги масжид ва мадрасаларни тиклашга, шунингдек, барча авлиёларнинг даҳмалари устига мақбаралар қуришга фармони олий беради.

Сайрам ҳақиқий обод шаҳарга айланади. Бу ажойиб илм ва авлиёлар юрти Мирзо Улуғбекка суюрғол қилиб берилади.

Бу ер шайхул машойих Ҳазрати Аҳмад Яссавий таваллуд топган заминдир. Сайрамлик олим, тарих билимдон Мираҳмад Мирхолдоровнинг кўплаб қўлёзмалари ва Аҳмад Яссавий шажарасида бу ҳақида етарлича аниқ маълумотлар берилганлиги Амир Темур экспедицияси маълумотларида берилган[2].

Аҳмад Яссавийнинг Сайрамда топилган шажараси билан танишиб чиқишим давомида унинг авлодлари қаторида Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ҳам борлиги мени қувонтирди, фахр уйғотди. Ушбу шажара нусхаси **“Сузук ота изидан”** китобимга киритилган. Аҳмад Яссавийнинг авлодлари, шогирдлари, фарзандлари, Аҳмад Яссавий силсиласини, таълимотини, ҳикматларини давом эттириб келмоқдалар. Шу жумладан, Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг фаолияти - авлоди Ҳазрати Хожа Аҳмад Яссавийга ҳамоҳанг издош сифатида намоён бўлди.

А.Яссавий силсиласидаги буюк ва таниқли сиймолар: Иброхим ота ва Қорасоч она(Сайрам), (Туркистон - Садр ота, Гавҳари Хушноз, Гавҳари Шахноз); Махмудхўжа Беҳбудий(Самарқанд); Ибратхон Тўра(Наманган); Отойи(Турбат); Тошкент шаҳри - Иброҳим ота, Сузукота, Чўлпонота, Ғойибота, Ялонғочота, Қўйлиқота; Тошкент шаҳри ва вилояти – Хасан шайх (Қаллиғота), Сандонота(Авлиё ота), Абдуллоҳ(Ёпиғлиқ) ота, Чимирота, Шодималикота, Саййидота, Зангиота, ва таниқли инсонлар: ҳаёт авлодлар 108 ёшли Иброҳим бобо (Наманган), Акбар Яссавий, Исматилла Яссавий(Туркия); Сайрамлик - Юсуф Сарёмий, Сидихон домла Мансурхонов, Сидиқмат домла Хайитметов, Шайх Қодиров Зоҳидхон, Гулпошша Эргашхўжаева, Гулнора Ибрагимова, Тошкент шаҳри - Исмоил Саифназаров, Фахритддинхўжа Ашрафхўжаев кабиларни санаб ўтиш мумкин.

Изланишларим давомида Аҳмад Яссавийнинг шогирдлари, издошлари, авлодлари ҳақида маълумот тўпладим. Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳақида ўрганиб, Самарқандга бориб, Маҳмудхўжа Беҳбудий уй-музейи билан танишдим ва фаолиятига оид материаллар тўплаб, “Сузук ота изидан” китобимда ифода этдим.[2]:

Маҳмудхўжа Беҳбудий - Буюк маърифатпарвар, янги мактаб ғоясининг назариётчиси ва амалиётчиси, ўзбек драматургиясининг асосчиси, ношир, журналист, XX асрнинг бошларидаги Туркистон ижтимоий-сиёсий ҳаракатининг йирик намояндаси ва жадидчилик ҳаракатининг раҳнамоси, - Маҳмудхўжа Беҳбудий 1875 йилда Самарқанд яқинидаги Бахшитепа қишлоғида дунёга келган, - дейди мени уй-музейи билан таништирган музей мудири Гулмамат Аҳмедов.

Маҳмудхўжа Аҳмад Яссавий сулоласидан бўлиб, отаси Беҳбудхўжа, бобоси Солихўжа ва катта бобоси Ниёзхўжа Самарқанднинг нуфузли оилаларининг намояндалари бўлганлар. У 18 ёшидан қозихонада мирзалик қилган, қози, қорилик ва имомлик билан тирикчилик қилганлар.

Яна бир муҳим ҳолат, Маҳмудхўжа Беҳбудий Хожа Аҳмад Яссавий Сайрамда топилган шажарадан аниқладимки, у Ибратхон Тўра, Сузук ота каби ва юқорида қайд этилган буюк ва таниқли сиймолар билан ҳам бир авлод эканлар.

Беҳбудий ҳаж сафарида бўлган чоғида Арабистон, Миср, Туркияни кезиб чиққан (1899—1900). Саёҳат давомида янги мактаб (усули жадид) очиш фикри мустаҳкамланиб борди. Самарқанд яқинидаги Ҳалвойи қишлоғида Ажзий, Ражабаминда Абдулқодир Шакурийлар билан ҳамкорликда янги мактаб очади.

Беҳбудий Қозон ва Уфага бориб (1903-04), у ердаги янги усул мактаблари билан танишади, татар зиёлилари билан алоқани йўлга қўяди. Янги мактаблар учун дарсликлар тузишга киришади. китоблар чоп эттиради. Кейинчалик (1908 йилда) Шакурийнинг Ражабаминдаги мактабини Самарқанддаги ўз ҳовлисига қўчириб келтиради.

Беҳбудий 1911 йилда «Падаркуш» драмасини ёзди. Бу биринчи ўзбек драмаси эди. 3 парда 4 манзарали бу асар мазмунан содда бўлиб, ўқимаган, жоҳил ва нодон боланинг ўз отасини ўлдиргани ҳақида эди. Беҳбудий бу асар жанрини «миллий фожиа» деб атаган. Асар Самарқандда 1914 йил 25 январда саҳнага қўйилди. Драма халққа кучли таъсир кўрсатади. «Падаркуш» ҳам жанр, ҳам мазмунига кўра янги ўзбек адабиётини бошлаб берган асар бўлди.

Беҳбудий «Самарқанд» газетасини чиқаради. Газета ўзбек ва тожик тилларида, ҳафтада 2 марта чоп этилди У «Ойна» журнали чиқара бошлади. Журнал Кавказ, Татаристон, Эрон, Афғонистон, Ҳиндистон, Туркиягача тарқалди. Беҳбудий китоб нашрини ҳам йўлга қўяди.

Беҳбудий 1914 йил 29 майда иккинчи марта Араб мамлакатларига саёҳатга чиқади. Саёҳати давомида Байрамали, Ашхобод, Красноводск, Кисловодск, Пятигорск, Железноводск, Ростов, Одесса шаҳарларида бўлади, Истанбулга келади. Ундан Аданага ўтиб, яна Истанбулга қайтади ва Исмоилбек Гаспринский билан учрашади. Сўнг Қуддус, Байрут, Ёфа, Халил ар-Раҳмон, Порт-Саид, Шом шаҳарларида бўлади. Саёҳат хотиралари «Ойна» журналида босилиб туради.

Айниқса, дин, эътиқод масалаларига катта аҳамият беради. «Ойна» журналида миллат ва унинг ҳақ-ҳуқуқига, тарихига, тил ва адабиёт масалаларига, дунё аҳволига доир қизиқарли мақолалар, баҳслар бериб борилган.

Беҳбудий ҳазратлари ўз даврининг диний уламоси, яъни муфтий, маърифатпарвар адиб бўлиш билан бирга етук сиёсий арбоби ҳам бўлганки, ўз даври сиёсий ҳаётига баҳо бериб, ғоя ва ташаббусларини айта олган. Хусусан, 1906-йилда “Хуршид” газетасида чоп этилган “Хайрул умури авсатуҳо”(Ишларнинг яхшиси ўртачасидур)” мақоласида ўша вақтдаги сиёсий тузумни таҳлил қилиб, сиёсий партиялар илгари сураётган ғоялар моҳиятини очиб берган. Мақолада чор империясидаги ҳукмрон партиялар монархистлари шундай тасвирланади. Монархистлар диктатура йўли билан императорнинг ҳар бир айтганини қонунга айлантириб, жамиятга татбиқ қилар экан, бу мамлакатда на фан, на маданият ривожланади ва унинг келажагидан ҳам умид йўқ.

Беҳбудий миллатнинг тараққийси учун бир неча тил билишни шарт ҳисоблади. Журналнинг биринчи сонидаёқ «**Икки эмас, тўрт тил лозим»,** деган мақола билан чиқиб, ўзбек, тожик, араб, рус ва ҳатто бирор узоқ хориж (мас, француз) тилини билиш шарт деб ҳисоблади. Айни пайтда тилнинг муҳофазаси («Ҳар миллат ўз тили ила фахр этар» —1914, № 35), ўзаро муносабатлари («Тил масаласи» — 1915, № 11,12) ҳақида муҳим ва зарур мақолалар чоп этди. Миллат шаънини оёқости қилувчи фикр-қарашларга зарба бериб, Туркистон халқини ўз номи билан атамоқ лозимлигини талаб қилиб чиқди («Сарт сўзи мажҳулдур».

Беҳбудий ижтимоий-сиёсий ишларга қизғин қўшилди. Шу йили «Русия мусулмонлари иттифоқи»нинг Нижний Новгородда ўтказилган қурултойида қатнашган эди. Тошкентда бўлиб ўтган (1917) Туркистон мусулмонларининг қурултойида иштирок этиб, нутқ сўзлади.

У мусулмонлар орасидаги ҳар қандай ихтилофга қарши чиқди. Беҳбудий шу қурултойда ўлка мусулмонлар шўросининг раиси этиб сайланди. 1917 йил 26 ноябрда Қўқонда ўлка мусулмонларининг 4-фавқулодда қурултойи иш бошлади. 27 ноябрга ўтар кечаси «Туркистон мухторияти» эълон қилинди. Унинг ғоявий асосчиларидан бири Беҳбудий эди. Мухторият шўролар томонидан ваҳшиёна бостирилди.

Туркистон шўролар ҳукумати раҳбарлари билан музокара олиб боришга уринади, аммо натижа чиқмайди. 1919 йилнинг эрта баҳорида мамлакатдан чиқиб кетаётганида Шаҳрисабзда Инқилобий фавқулодда комиссия айғоқчилари кўмагида Бухоро амирлиги одамлари томонидан қўлга олинади, ҳамроҳлари Муҳаммадқул ва Мардонқул билан биргаликда Қаршида зиндонга ташланади ва қатл қилинади. Бу воқеа Самарқандда бир йилдан кейин маълум бўлади[4].

Ўзбекистон президенти ёрдамчиси Саида Мирзиёева 2024 йил 5 август куни Остона шаҳрида бўлиб ўтган “Заковат” Осиё кубогида сўзга чиқиб, у

Ўзбекистон ва Қозоғистон олдида турган энг муҳим вазифа таълимни ривожлантириш эканини таъкидлаб, ўтган аср бошидаги жадидчилик ва Алаш ҳаракатларини ёдга олди.

“Ўзбекистонда 7 йил аввал ҳам, ҳар йили кузда мактаб ва институтлар ёпилар эди. Ўқитувчилар, талаба ва ўқувчилар далага, пахта теримига мажбурий жалб қилинарди. Бутун бир авлод чаласавод бўлиб қолди. Бироқ биз юз йиллик пахта қуллигига барҳам бердик. Миллионлаб ўқувчилар ўқув масканларига қайтарилди.

XX аср бошларида жадидлар ҳам, Алаш ҳаракати вакиллари ҳам ягона мақсад сари – халқни озод қилиш ва ватан равнақига интилганлар. Барчаларининг орзулари тараққий этган жамият бўлган. Нима учун минтақамиз ривожланишда дунё мамлакатларидан ортда қолаётганини ўлкамиз зиёлилари яхши англаган. Лекин уларга ўйлаган ниятларини амалга ошириш имкони берилмади.

Бир неча авлод алмашди. Мана энди, давлатимиз раҳбарининг сиёсий иродаси билан, жадидларнинг йиқилган байроғини тиклашга киришдик. Улар худди сизлардаги Алаш ҳаракати вакиллари каби тараққийпарвар ёшлар учун намунадир. Биз зиёли аждодларимиз ғояларини амалга ошириш, маърифат ва таълимни улар орзу қилган даражага етказиш ҳаракатини бошладик”, – деди Саида Мирзиёева[6].

Беҳбудий уй-музейи маърифат тарқатувчи, ижодкорларнинг доимий бораргоҳи бўлиши керак. Бу маскан бизни ўтмишга чорлайди, жадидларнинг ҳаётига, фаолиятига турли қирралардан яна бир назар ташлашимизга имкон беради. Бизга куч беради, бугунимиз ҳақида хулоса чиқаришга кўмак беради.

Умуман, биз жадидчилик ҳаракати, маърифатпарвар боболаримиз меросини чуқур ўрганишимиз керак. **Жадидчиликни уч даврда эмас, тўрт даврда ўрганилиши керак. 1910 - 1937 йиллар, жадидлар ҳаёт вақти, иккинчиси - 1956 - 1991 йил мустабид тузум даври, учинчи давр 1991 - 2016 йил истиқлол даври, бироқ улар тўлиқ оқланмаган вақт. Тўртинчи давр 2016 йил 2024 йил жадидларни тўлиқ оқланган вақти.**

Бу маънавий хазинани қанча кўп ўргансак, бугунги кунда ҳам бизни ташвишга солаётган жуда кўп саволларга тўғри жавоб топамиз. Бу бебаҳо бойликни қанча фаол тарғиб этсак, халқимиз, айниқса, ёшларимиз бугунги тинч ва эркин ҳаётнинг қадрини англаб етади.

Маълумот ўрнида таълим йўналишларидаги ҳозирги даврдаги вазият. Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевга мактабгача ва мактаб таълими тизимида 2025 йилда амалга ошириладиган устувор вазифалар бўйича, *(мактабгача ва мактаб таълими вазири навбатдаги режалар юзасидан берган ахборотида (24.12.2024))*: ҳозирги даврга келиб, шахс тарбиясининг

пойдевори бўлган бу бўғинларга давлатимиз томонидан доимий эътибор қаратиб келинмоқда. Ҳудудларда янги-янги таълим масканлари барпо этилиб, мутахассислар салоҳияти оширилмоқда. Дарслик ва ўқув қўлланмалари замон талабларига мослаб янгиланаяпти.

Мактабгача таълим тизими илғор хорижий тажрибалар асосида янгича ривожланиш босқичига қадам қўйди. Сўнгги йилларда болалар боғчалари сони 8 баробар ошиб, 38 мингтага, қамров эса 27 фоиздан 76 фоизга етди.

Мамлакатимизда мактаб таълимини ривожлантириш умуммиллий ҳаракатга айланди. Охирги етти йилда 5 мингдан зиёд мактабда, бу йил 608 та мактабда қурилиш ва таъмирлаш ишлари бажарилди. Ёшларга иккинчи хорижий тил ва касб ўргатиш кенгайтирилди. Илк бор 530 та мактабда инклюзив таълим йўлга қўйилди.

Қайд этилганидек, келгуси ўқув йилида 100 дан зиёд мактаблар ташкил этилиб, 257 минг ўқувчи ўрни очилади. Давлат таълим дастури халқаро стандартлар талабларига мувофиқлаштирилади.

Иккинчи хорижий тил ўқитиладиган мактаблар 420 тага, касб-ҳунар ўргатиладиганлари 400 тага етказилади.

Дунёдаги илғор тажрибалар, янги услублар амалиётга киритилмоқда. Жумладан, бу йил 1 минг 500 та умумтаълим мактабида янги баҳолаш тизими жорий қилинди. Натижалар таҳлилидан келиб чиқиб, бу тажриба яна кенгайтирилади.

Ўқитувчиларга малака тоифасини беришда ҳам рақамлаштирилган тизимга ўтилган. Энди тоифасини оширган педагоглар рағбатлантирилади, уларга тўплаган балига қараб 70 фоизгача устама берилади.

Давлатимиз раҳбари малака синовлари тартибини такомиллаштириш, соғлом рақобат муҳитини яратиб, барча педагогларга тенг имконият бериш зарурлигини таъкидлади.

2025 йил 162 та мактабгача таълим муассасаси қурилади, 100 та хусусий ва мингта оилавий боғча очилади. Булар орқали мактабгача таълим қамрови 78 фоизга етказилади. Мактабга тайёрлов гуруҳлари билан бошланғич синф ўқув дастурларининг узвийлиги оширилади.

Президентимиз соҳани барча ҳудудларда ривожлантириб, умумий таълим сифатини ошириш, бунда, айниқса, чекка туманларга алоҳида эътибор қаратиш бўйича кўрсатмалар берди[7].

Жорий йилнинг 3 январ куни қабул қилинган **“Туркистон жадидлик ҳаракатининг асосчиси, атоқли адиб ва жамоат арбоби, ношир ва педагог Маҳмудхўжа Беҳбудий таваллудининг 150 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги** Президент қарори миллат фидойиси бўлган бобомизнинг бой меросини ўрганиш ва кенг тарғиб этишда муҳим аҳамиятга эга ҳужжат бўлди.

Қарор билан Беҳбудий меросини янада кенгроқ ўрганиш ва тарғиб этиш мақсадида чора-тадбирлар дастури тасдиқланди.

Мазкур қарорнинг аҳамияти, унда кўзда тутилган чора-тадбирларнинг нечоғли долзарб:

— Маҳмудхўжа Беҳбудий ўзбек халқининг юксалиши учун жуда катта ишларни амалга оширди. Ўзбекистонда театр санъатининг қарор топиши, тараққий этиши ва халқимизнинг тарбиясига, маънавиятига, маданиятига хизмат қилиши айнан Беҳбудийнинг фикри ва ҳаракати билан бошланди. Беҳбудий тарихни англаш, тарих зарварақларини ўрганиш ва умуман, маданият, маърифат ва санъатга катта эътибор қаратишни, ҳар бир инсоннинг маърифатли бўлиши, китоб ўқиши, фарзандлар тарбиясига катта эътибор бериши кераклиги ҳақидаги масалаларни, мактаб ташкил этиш, ёшларни маърифат йўлидан юргизиш ғояларини илгари сурган.

Бу ғоялар бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини, долзарблигини йўқотгани йўқ. Шунинг учун ҳам давлатимиз раҳбарининг бу қарори бобокалонимизнинг меросини тўғри англаш, ёшларимизга етказиб беришда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Дилором Алимова - тарих фанлари доктори, профессор “Жадидлар тарихи, ғоялари ва энг ёрқин вакиллари, хатолари ва ютуқлари ҳақида мақола
2. К.Шодиметов “Сузук ота изидан” китоби - 2023 й.
3. Ф.Ашрафхўжаев, М.Хўжаев, З.Жўраев“Хожа Аҳмад Яссавий ва Яссавийлар тарихи” китоби - 2023й.
4. Бегали Қосимов “Маҳмудхўжа Беҳбудий” мақола
5. “Таълим йўналишларидаги вазифалар бўйича”(24.12.2024) мактабгача ва мактаб таълими вазири навбатдаги режалар юзасидан берган ахбороти.
6. Қозоғистон#Заковат#Саида Мирзиёева#жадидчилик
7. “Таълим йўналишларидаги вазифалар бўйича” (24.12.2024) https://uza.uz/posts/671879.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ ЁШ ТУРКЛАР ҲАРАКАТИ ВА АНВАР ПОШО ТЎҒРИСИДА

Қаҳрамон Ражабов
тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон ФА Тарих институти бош илмий ходими

Аннотация: Мақолада Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Ойина” журналида 1914 йили эълон қилган саёҳатномасида Болқон урушлари ва машҳур турк саркардаси Анвар Пошо тўғрисида айтган фикрлари ўрин олган. Унда Беҳбудийнинг Туркия ва Европа давлатларида кечган турли урушлар ҳақидаги мулоҳазалари ҳам таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Жадидлар, ношир, саёҳатнома, Ёш турклар, Болқон урушлари, султонлик, “Ойина” журнали, газета, Ҳаж сафари, мусулмонлар.

Резюме: В статье содержатся мысли Махмудходжа Бехбуди о Балканских войнах и прославленном турецком полководце Анваре Паша в своем путеводителе, опубликованном в 1914 году в журнале “Ойна”. В ней также анализируются размышления Бехбуди о различных войнах, происходивших в Турции и странах Европы.

Ключевые слова: Джадиды, издатель, путеводитель, Молодые турки, Балканские войны, султанат, журнал “Ойина”, газета, хадж, мусульмане.

Resume: The article contains Mahmudhoja Behbudi’s thoughts about the Balkan wars and the famous Turkish commander Anvar Pasha in his travelogue published in the magazine “Oyina” in 1914. It also analyzes Behbudi’s reflections on various wars that took place in Turkey and European countries.

Key words: Jadids, publisher, travelogue, Young Turks, Balkan Wars, Sultanate, “Oyina” magazine, newspaper, Haj pilgrimage, Muslims.

Маҳмудхўжа Беҳбудий нафақат Туркистон тарихининг чуқур билимдони, балки Шарқ ва Ғарб сиёсий ва иқтисодий тарихи, Европа халқлари маданияти, хусусан, Усмонли турк султонлигида XX аср бошларида кечган воқеаларни яхши билган закий муаррих ҳам эди. Беҳбудий ўзининг сиёсий ва ижтимоий фаолиятида, хусусан, Ҳаж сафари тафсилотлари ёзилган саёҳатнома хотираларида бу ҳақда сўз юритади.

Маҳмудхўжа Беҳбудий (1875-1919) – Туркистондаги жадидчилик ҳаракатининг асосчиси. Туркистон Мухторияти Миллий Мажлиси аъзоси. Сиёсат ва жамоат арбоби. Муфтий, драматург, публицист ва ношир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2025 йил 3 январдаги “Туркистон жадидлик ҳаракатининг асосчиси, атоқли адиб ва жамоат арбоби, ношир ва педагог Маҳмудхўжа Беҳбудий таваллудининг 150 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги қарори Янги Ўзбекистон сиёсий ва ижтимоий ҳаётида катта воқеа бўлди. Мазкур қарор ижросини таъминлаш мақсадида бутун мамлакатимизда 2025 йил январ ойида кўплаб тадбирлар амалга оширилмоқда. Мазкур анжуман ҳам жадид боболаримиз сардори Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг улуғ тўйларини нишонлаш мақсадида қилиниаётган катта ишлар йўлидаги бир дебоча бўлиб хизмат қилмоқда.

Маҳмудхўжа Беҳбудий 1875 йил 19 январда (баъзи манбаларда: 1874 йил 30 январда) Самарқанд шаҳрининг Ёмина маҳалласида (баъзи манбаларда: Самарқанд уезди Сиёҳиоб волостидаги Бахшитепа қишлоғида) таваллуд топган. Амир Шоҳмурод даврида унинг аждодлари Бухорога таклиф қилинган ва улар Самарқанд қолиб кетишган. Беҳбудийнинг аждодлари Аҳмад Яссавий авлодидан бўлган. Отаси Султонхўжа Беҳбудий маҳалла масжидида имом-хатиб бўлиб ишлаган, қори ҳам бўлган. Она томондан аждодлари Урганчдан бу ерга келиб қолган эди. Маҳмудхўжа Самарқанд ва Бухоро мадрасаларида таҳсил олгач, Чашмаиоб волостида қозилик қилаётган тоғаси Муҳаммад

Сиддиқ қўл остида ўзининг меҳнат фаолиятини бошлайди. Мирза ва қозилик билан шуғулланади, сўнгра Жомбойда муфтилик қилган (1; 10-11).

Туркистондаги жадидчилик ҳаракатининг таниқли намояндаси Маҳмудхўжа Беҳбудий нафақат машҳур драматург ва публицист, жамоат арбоби ва машҳур уламо бўлишидан ташқари у ўз даврининг йирик олими, ношир ва матбуотчи ҳамда саёҳатчиси сифатида ўзидан чуқур из қолдирди. Беҳбудий ўз асарларида фақат Туркистон тарихи ва маданияти тўғрисида фикр юритмасдан XX аср бошларида ўзи кўрган ва гувоҳи бўлган воқеалар: Усмонли турк султонлигидаги аҳвол, Болқон урушлари, Биринчи жаҳон уруши, Европадаги йирик жаҳонгир давлатларнинг дунёни қайта бўлиб олиш сиёсати ҳамда оқибатлари ҳақида ҳам сўзлаб ўтади. Ушбу мақолада сўз Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Ойина” журналида эълон қилган Болқон урушлари ва турк халқининг буюк фарзанди ҳарбий саркарда Анвар Пошо ҳақидаги фикрлари тўғрисида боради.

Тарихдан маълумки, 1908 йил мартда Эдирна (Усмонли турк султонлигининг Европада жойлашган йирик шаҳри ва дастлабки пойтахтларидан бири) шаҳрида ҳарбийлар томонидан мавжуд тузумга қарши исён кўтарилди. Ёш туркlар бу исённи қўллаб-қувватлашди. Султон ҳукумати эса бу исённи тўхтатишга ҳаракат қилди.

1908 йил 3 июлда Ёш туркlар инқилоби ғалаба қилди. Ғарбча кайфият ва ислоҳот тарафдорлари бўлган Ёш туркlар партияси аъзоларининг фаолияти Усмонли турк султони Абдулҳамид II томонидан 24 июлда 1876 йилдаги конституция қайта тикланганлиги тўғрисида фармон қабул қилишга олиб келди [3; 111].

1908 йил октябрда “Иттиҳод ва тараққий” (“Бирдамлик ва тараққиёт”) ташкилотининг конгресси бўлиб, унда сиёсий партия тузиш ҳақида қарор қабул қилинди. Янги партия дастурида султон ҳокимиятини чеклаш, парламентнинг ваколатларини кенгайтириш, вазирларнинг парламент олдида жавобгарлиги тартибини ўрнатиш, 21 ёшдан ошган барчага сайлов ҳуқуқини бериш зарурлиги ҳақида айтилади. Сўз, матбуот ва йиғилишлар эркинлиги эълон қилинди.

Бироқ султон Абдулҳамид II ўз тарафдорларига таяниб, 1909 йил 13 апрелда Истанбулда Ёш туркларга қарши ҳарбий ҳаракатларни бошлади. Ёш туркlар йўлбошчилари Истанбулдан Салоникига қочишга улгурдилар ҳамда ўз ҳарбий кучларини (100 000 аскардан иборат 2та армия корпуси) тўплаб, пойтахт Истанбулга юриш бошладилар. Пойтахт қуруқлик ва денгиздан ўраб олингач, қисқа ҳарбий тўқнашувлардан сўнг ҳокимият Ёш туркlар қўлига ўтди (5; 443).

1909 йил 27 апрелда Ёш турклар томонидан султон Абдулҳамид II тахтдан туширилди ва ўрнига султон Меҳмед V Рашид тахтга ўтирди. Мамлакатда Ёш турклар инқилоби ғалаба қозонди. Султон вазирларни тайинлаш ва бўшатиш, парламентни чақириш ва тарқатиб юбориш ҳуқуқларидан маҳрум қилинди.

Туркиянинг кучсизланиб қолганлиги ва халқаро обрўсининг тушиб кетганлигидан фойдаланиб, Австрия-Венгрия империяси Сербиянинг эътирозига қарамай 1908 йил 5 октябрда Босния ва Герцеговинани босиб олди. Бундан сал олдин – 1908 йил 22 сентябрда Болгария Усмонли турк султонлигидан ўз мустақиллигини эълон қилди [3; 112].

Бу пайтда Болқон муаммоси кескинлашди. Болқон ярим оролининг асосий қисми бу пайтда турклар қўлидан бўлган. 1911 – 1913 йилларда бўлган учта уруш: Италияга қарши Ливия учун ва иккита Болқон урушидаги мағлубиятлар Туркия жамиятини ларзага келтирди. Италия билан муваффақиятсиз урушдан кейин 1912 йил июлда янги давлат тўнтариши юз бериб, Ёш турклар иккинчи марта ҳокимиятдан четлаштирилди. Янги ҳукумат 1912 йил 15 октябрда Италия – Туркия ўртасидаги Лозанна битимини имзолади. Бу битимга кўра Усмонли турк султонлиги Киренаика ва Триполитания (ҳозирги Ливия)ни Италияга топширди.

1912 йил 13 мартда Туркияга қарши Болгария – Сербия иттифоқи тузилган эди. Кейинчалик бу иттифоққа Греция ва Черногория қўшилди. Болқон давлатлари иттифоқи билан Туркия ўртасида 1912 йил 9 октябрь – 1913 йил 30 майда бўлган биринчи Болқон уруши ҳамда 1913 йил 29 июнь – 10 августда бўлган иккинчи Болқон урушида асосан турклар мағлубиятга учради. Усмонли турк давлати Истанбул ва Шарқий Фракиянинг бир қисмидан ташқари Болқондаги барча мулкларидан маҳрум бўлди. Бироқ иккинчи Болқон урушини бошлаган Болгария бу урушда мағлубиятга учраб, Эдирна (Адрианополь) шаҳрини туркларга қайтаришга мажбур бўлди. Македония парчалаб юборилди [3; 118 - 120].

Уруш ҳаракатлари даврида султон ҳокимияти ва тарафдорларининг қатъиятсизлиги ҳамда бепарволигидан фойдаланган Ёш турклар ҳокимиятни қайта қўлга киритишди. 1913 йил 23 январда Анвар Пошо ва Талъат Пошо бошчилигидаги 200га яқин Ёш турклар ҳукумат қароргоҳини ўраб олиб, ҳарбий вазир Нозим Пошони ўлдирдилар ҳамда Бош вазир, ички ишлар ва молия вазирларини ҳибсга олдилар. Шундан сўнг Ёш туркларнинг янги ҳокимияти шакллантирилди.

1913 йилдан бошлаб мамлакатда ҳокимият Ёш турклар партиясининг 3 нафар йўлбошчиси: Талъат Пошо (Бош вазир), Анвар Пошо (ҳарбий вазир), Жамол Пошо (ҳарбий денгиз кучлари вазири) қўлига ўтди. Улар даврида

Туркия ташқи сиёсатда Германияга суяниб ҳаракат қилди (5; 444 – 445). Талъат Пошо, Анвар Пошо, Жамол Пошодан иборат триумфират (учлик) мамлакатни 1918 йилнинг охиригача бошқаришади.

Анвар Пошо Болқон урушлари даврида ҳарбий корпуснинг штаб бошлиғи лавозимида ишлаган пайтида унинг қўл остида майор Мустафо Камол (1881 – 1938) ҳам хизмат қилар эди. Мустафо Камол кейинчалик Отатурк сифатида машҳур бўлди, у Туркия Республикасининг биринчи президенти бўлган.

Иккинчи Болқон уруши даврида Анвар Пошо қўшинлари болгарларга кучли зарбалар беради. Биринчи Болқон урушида Туркиядан тортиб олинган Эдирна шаҳри болгарлар босқинидан озод қилинди [5; 43].

1914 йил июнда Ҳаж зиёратига бориш пайтида Эдирнага борган Маҳмудхўжа Беҳбудий Анвар Пошонинг ҳарбий жасоратлари ва Эдирна қамалини “Ойина” журналида ўша пайтда чоп қилдирган “Саёҳат хотиралари” кундаликларида самимият билан тасвирлайди. Беҳбудий Эдирнага киргач, шаҳар қиёфасини қуйидагича кўрсатади:

“Адирнаға (Эдирнаға – Қ.Р.) кирдук: барча йўллари тош фарш қилинган ва ҳар тараф олий қубба ва минораси булутларга узайган жомеълардур. Ҳар кўча ва ҳар ерда бузулган ва ёнилган ҳовлиларга учралур. Шаҳарнинг энг обод ерида энг харобазорлар учраладурки, муҳорабанинг зараридур. Муҳорабадан аввал бу шаҳарда юз мингдан зиёда киши бор экан, энди 40 минг қолибдур. Мундаги рум ва яҳудйиларға ҳам булғорлар жабр қилибдурлар. Румлардан бир кишини ўтундек бирга боғлаб, Мерич наҳрига отиб, йўқ қилибдурлар. Мусулмонларни тириклай қудуқға солиб тўлдурубдурлар. Энди бу жойларда мазор ва ёдгорийлар бино қилинур” [2; 90].

Биринчи Болқон уруши даврида Туркияга қарши урушган булғор (болгар), серб, қоратоғ (черногория) ва юнон (грек) ҳукуматлари ўртасида Эдирна шаҳрини босиб олишдаги ихтилофлар ва Турк қўмондонлигининг бу масаладаги позициясини Беҳбудий қуйидагича айтиб ўтади:

“Адирнани олмоқға ёлғиз булғорни кучи етмади. Анга ёрдам учун серб аскаридан 20 минг қадар келди. Ва охири очликдан Адирна суқут этди. Турк аскари очликдан дарахтлар пўстини ва гиёҳлар томурини ебдурларким, қабуғи очилган ва тикка турган юзлар ила дарахтларни кўзум билан кўрдум. Аскарлар очликдан кўб ўлубдур, қувватсизликдан бир тўп ўқини ўн қадар аскар зўрға тўпга қўяр эмишлар. Бовужуд, шул ўлганча ишдан қолган ва ё қочган аскар бўлинмабдур. Шу ҳолда бўлса ҳам шаҳарни душманга топшурулгани учун аскар норозилик қилибдур. Сербия аскари келгандан сўнгра Адирна қаҳрамони Шукри Пошо яна аввалгидан зиёдароқ қаттиғлик ила Адирнани

муҳофаза қилиб, ҳам душман ва ҳам очлик ила мубораза қилибдур. Дигар тарафдан, Истанбулда Комил Пошо Буюк Мажлисни жамлаб, Адирна аҳволи ва Туркиянинг қувватсизлиги ва Оврупо давлатларининг: “Адирнани булғорларга беринг из”, деган таклифини музокара қилиб, охири сулҳан Адирнани булғорларга бермоққа қарор берилиб, ҳатто қоғозлар ҳам ёзиладур. Муни Ёш туркларнинг катталаридан ҳозирги Анвар Пошо ва шаҳид бўлган Маҳмуд Шавкат Пошо ва бошқалари эшитиб, ихтилол чиқариб, Боби олийни босиб, ҳарбия вазири Нозим Пошони ўлдируб, Комил Пошони банди этиб, Султонга маъқул қилиб, Маҳмуд Шавкат Пошони садри аъзам қилдуруб ва Анварбек бош бўлуб, Галибули тарафидан Адирна устига аскар чиқарди. Чаторча тарафида урушлар ҳам бўлди. Охири, ноиложона суратда очлик сабабидан Шукри Пошо Адирнани таслим этмоқчи бўлди. Адирнани топшурди, аммо булғорға эмас, сербларға... ва мунинг сабаби булғорлар ила серб орасида ихтилоф солмоқ эди. Ва ҳақиқатда Шукри Пошонинг бу сиёсати душман орасига ихтилофга сабаб бўлди” [2; 93 - 94].

Беҳбудий ўз сафарномасининг кейинги бетларида Анвар Пошо томонидан Эдирна шаҳрининг душман қўлидан озод этилишини қуйидагича тасвирлайди:

“Булғорлар мунга кўнмади ва охирда серб ила юнон бир бўлиб, булғорларни урдилар. Бул аснода Анварбек тўрт кунлик йўлни бир кунда юриб келиб, Адирнани босиб, булғорлардан қайтиб олди. Булғорлар муни билиб, Адирнанинг обод еру хонау аскархонау анборлариға ўт қўюб эканларким, бу ўтларни ҳам вақтида турк аскарлари етиб, сўндуруб, булғорлардан бениҳоят озуқа, асбоб, милтиқ ва кўп адад тўпларни ўлжа олибдурлар. Ва Султон Салим жомеъи шарифини калиса бўлмоқдан қутқардилар...

Хулоса, Адирнанинг қайтиб олинганлигининг шарафи Ёш туркларга ва Анвар Пошоға насиб бўлди” [2; 94].

Беҳбудий бу ўринда фахр ва ғурур билан жасоратини кўрсатиб ўтган Анвар Пошо номи ўша йилларда Туркистон аҳолиси ўртасида ҳам машҳур бўлиб улгурган эди. Бу ҳол Ўзбекистондаги архив ҳужжатларида ҳам акс этган. “1913 – 1914 йиллардаги (аслида 1911 – 1912 йиллардаги – Қ.Р.) итальян-турк уруши пайтида Туркистон аҳолиси Анварнинг ҳаракатига қандай муносабат билдирганини эслайлик, биз бунда шуни кўрамизки, ҳатто мактабларда таҳсил олувчи ўсмирлар Анвар Пошо қўшинининг ҳар бир ҳаракатини интиқлик ва фахр билан кузатиб, унинг жасоратига тасаннолар айтишарди, халқ эса беш йил мобайнида унинг шарафига туғилган ўз ўғлонларига Анвар исмини қўяр эди”, - деб расмий ҳужжатларнинг бирида сал

кейинроқ ёзган эди Туркистон АССР раҳбарларидан бири Назир Тўрақулов [6; 131].

Бухорода амирлик ҳокимияти ағдарилгач, Бухоро Халқ Совет Республикаси ҳукуматининг қарори билан 1923 йили Қарши шаҳри ва Қарши вилоятига (1925 йилдан Қарши уездига) Беҳбудий номи берилди. 1924-1925 йилларда Қашқадарё вилояти (округи)да Беҳбудий уезди мавжуд бўлди. Қарши шаҳри 1923-1937 йилларда Беҳбудий номи билан аталган.

Тошкентда 1997 ва 1999 йилларда Беҳбудийнинг бир жилдик, 2018 йилда икки жилдлик “Танланган асарлар” китоби босилиб чиққан.

Академик Наим Каримов томонидан 2022 йили “Маҳмудхўжа Беҳбудий” рисоласи эълон қилинди (11; 3-4).

Миллий таълим ва тарбия тизимини яратишга беқиёс ҳисса қўшгани учун Абдулла Авлоний, Маҳмудхўжа Беҳбудий ва Мунаввар Қори Абдурашидхонов вафотидан сўнг “Буюк хизматлари учун” ордени билан тақдирланди (2020 йил 30 сентябрь).

Хулоса қилиб айтганда, Маҳмудхўжа Беҳбудий қолдирган бой илмий меросни бугунги кунда фақат Ўзбекистон тарихи фани нуқтаи назаридан эмас, балки жаҳон тарихи фани контекстида ўрганиб, буюк аждодимиз фикрларини теранг англашимиз керак. Шунинг учун ҳам Беҳбудий вафот этганлигига 100 йил тўлган бўлишига қарамасдан у ҳозир ҳам мангу тирик зот сифатида биз билан замондош ва ҳамнафас ҳисобланади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Икки жилдлик. I жилд. Сўзбоши муаллифи, тўплаб, изоҳлар ва луғат билан нашрга тайёрловчи: Сирожиддин Аҳмад. –Тошкент: “Akademnashr”, 2018. – 512 бет.
2. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Икки жилдик. II жилд. Сўзбоши муаллифи, тўплаб, изоҳлар ва луғат билан нашрга тайёрловчи: Сирожиддин Аҳмад. –Тошкент: “Akademnashr”, 2018. – 312 бет.
3. Ражабов Қ., Қандов Б. Жаҳон тарихидаги сулола ва давлатлар: қисқача сиёсий тарихи ва муҳим саналари (1795 – 1960 й.). Учта китоб. 2-китоб. Тўлдирилган ва қайта ишланган 2-нашри. –Тошкент: “O’zbekiston”, 2015. – 288 бет.
4. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920 – 1924 й.). –Тошкент: “Маънавият”, 2002. – 144 бет.
5. Эргашев Ш. Жаҳон тарихи. Янги давр. 1800 – 1918 й. II қисм. –Тошкент: “O’zbekiston”, 2015. – 568 бет.
6. Ўзбекистон Миллий архиви, 17-фонд, 1-рўйхат, 45-иш, 131-варақ.
7. Rajabov Q., Amonova F., Qandov B. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Ochun, 2024. – 512 bet.

8. Ражабов Қ. Туркистон Мухторияти тарихи. – Тошкент: Фан, 2023. – 256 бет.
9. Махмудходжа Бехбуди. Проект культурной автономии Туркестана. Введение, перевод и комментарии Ш.Камолиддина, транскрипция, словарь и факсимиле Тимура Коджаоглу. – Ташкент: Fan ziyosi, 2023. – 340 стр.
10. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик. Биринчи жилд (1900-1939). Масъул муҳаррир: академик Азамат Зиё. – Тошкент: Фан, 2024. - 752 бет.
11. Каримов Н. Маҳмудхўжа Беҳбудий. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – 320 бет.

BEHBUDIY IJODIY MEROSI: PEDAGOGIK TALQIN VA ZAMONAVIY TA’LIM

Ibragimov A’lamjon Amrilloyevich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, pedagogika fanlari doktori, dotsent. Email: alamjonibragimov@gmail.com, Telefon: +998990741191
ORCID: 0009-0002-2857-3129

Annotatsiya. Bugungi milliy yangilanish va zamonaviy ta’lim islohotlari o‘tmishdagi tarixiy qadriyatlar hamda pedagogik qarashlardan ilhomlanadi. Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim va fanga qo‘shgan ulkan hissasi, uning jadidchilik harakatidagi o‘rni ma’lum darajada yoritilgan. Behbudiy ijodining pedagogik mohiyati tahlil qilinib, uning “o‘qituvchi” va “o‘quvchi” konsepsiyasiga doir ilgari surgan fikrlari zamonaviy ta’limga tatbiq qilingan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ilmiy-adabiy meros, pedagogik izlanishlar, islohot, ta’lim metodikasi.

Kirish. Har qanday davrda ham insoniyatning rivojlanishi uchun ta’lim-tarbiya masalalari dolzarb bo‘lib kelgan. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida yuzaga kelgan “Jadidchilik harakati”, ayniqsa, ta’lim sohasida katta o‘zgarishlar sodir etdi. Bu harakatning asosiy maqsadi milliy ma’rifatni rivojlantirish va zamonaviy ta’limni yaratish edi. Ushbu davr islohotlarining eng yirik namoyandalaridan biri – Mahmudxo‘ja Behbudiydir.

Behbudiy jadidchilik harakati asoschilaridan biri sifatida nafaqat publitsistik merosi, balki ta’limni isloh qilishdagi faoliyati bilan ham tanilgan. U “Oyna” gazetasini tashkil qilib, milliy ta’limning yangi usullarini ommalashtirishga intildi. Behbudiy tomonidan yozilgan maqolalar va darsliklar nafaqat milliy o‘zlikni anglashga yordam berdi, balki o‘sha davrdagi ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi.

Tadqiq va tahlil. Behbudiy va jadidchilik harakati. Jadidchilik Turkiston o‘lkasida ta’lim va ma’rifatni rivojlantirish uchun yangi usullarni tatbiq qilishni maqsad qilgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy harakat sifatida namoyon bo‘ldi. Bu

harakatning bosh g‘oyalari ilm-fan orqali milliy uyg‘onishni ta’minlash, zamonaviy maktablarni tashkil qilish va eski maktab tizimining kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan edi.

Behbudiy ushbu jadidchilik harakati tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishga katta hissa qo‘shdi. Uning asosiy mazmun-mohiyati quyidagi yo‘nalishlarda o‘z aksini topgan:

1. Mamlakat taraqqiyoti uchun zamonaviy bilimning ahamiyati: Behbudiy eski maktablar va madrasa tizimlarini tanqid qilar ekan, yangi usul maktablarida o‘quvchilarni zamonaviy fanlar, jumladan, matematika, geografiya, tabiatshunoslik kabi sohalar bilan tanishtirish orqali millat rivojlanishini, ta’lim taraqqiy topishini ta’kidlagan.
2. Milliy uyg‘onishning ilmiy asoslari: adib milliy uyg‘onish uchun faqatgina ma’rifat va ta’lim orqali muvaffaqiyatga erishish mumkinligiga alohida e’tibor qaratgan. Uning “Millatlar qanday taraqqiy etadi?”, “Ehtiyoji millat” kabi maqolalari bu borada muhim manba hisoblanadi.
3. Birlashish va o‘zaro hamkorlik: Behbudiy millat birligini ta‘minlash uchun turli xalqlarni yagona maqsad – milliy uyg‘onishga xizmat qilish atrofida birlashtirishni taklif qilgan. U bu fikrlarni “Millatg‘a murojaat” va “Bizni hollar va ishlar” kabi maqolalarida yoritgan.
4. Islohotlarning keng ko‘lamliligi: ko‘p qirrali ijodlor sifatida faqat ta’limni emas, balki jamiyatning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish zarurligini ilgari surgan. U bu masalalarni “Yangi maktablar masalasi to‘g‘risida tavzeh” kabi maqolalarida bayon qilgan.

Behbudiyning ta’lim tizimiga qo‘shgan hissasi quyidagi muhim qarashlardan iborat:

1. Milliy o‘zlikni shakllantirish: Behbudiy ta’limni milliy o‘zlikni anglash va rivojlantirish zaruriy vositasi, deb bilgan. U “Yoshlarg‘a murojaat”, “Millatlar qanday taraqqiy etadi?” kabi maqolalarida yosh avlodni ilm olishga undagan va ularning intellektual rivojlanishi uchun zamonaviy maktablar tashkil etish targ‘ibotchisi sifatida bir qator ishlarni amalga oshirgan.
2. Maktablar uchun ilmiy-metodik ta’minot yaratish: Behbudiy tomonidan yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari o‘sha davr ta’limining poydevorini tashkil etdi. U maktab o‘quvchilari uchun sodda va tushunarli, lekin mazmunan boy kitoblarni yaratishga katta e‘tibor qaratgan. Masalan, uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) asarlari o‘sha davr ta’limi uchun bebaho manba bo‘ldi.

3. Pedagogik metodlarni rivojlantirish: muallim sifatida adib ta’lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishni muhim, deb bilgan. U darslarda interfaol metodlarni qo‘llashni taklif qilgan. Til o‘rganish, dars mashg‘ulotlariga murabbiylarning yondashuvini o‘zgartirish, o‘quvchilarni darsga qiziqtirishga urg‘u bergan.

4. Milliy birlikka chaqiriq: Behbudiy millatni birlashtiruvchi ta’lim tizimi yaratilishiga astoydil harakat qilgan. U yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash orqali o‘zaro birdamlikka chaqirgan.

Zamonaviy ta’limga tatbiqi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik qarashlari bugungi ta’lim tizimi uchun ham amaliy ahamiyatga ega. U ilgari surgan fikrlar quyidagi yo‘nalishlarda zamonaviy ta’limga tatbiq qilinishi mumkin:

Ta’lim mazmunini boyitish: Behbudiyning yangi usul maktablari uchun yaratilgan darsliklarida ilgari surilgan fikrlar bugungi kunda ta’lim mazmunini milliylik va zamonaviylik uyg‘unligida shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim metodlarining innovatsionligi: Behbudiy darslarda mantiqiy fikrlash va mustaqil o‘qishni rivojlantirishga urg‘u bergan. Uning bu kabi qarashlari o‘quv jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash, zamonaviy ta’limda STEM va CLIL kabi metodlarning joriy etilishida aks etadi.

O‘qituvchilarni tayyorlash va rivojlantirish: bugungi kunda o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish uchun tashkil etilayotgan malaka oshirish kurslari Behbudiy ta’lim jarayoniga ilgari surgan qarashlariga nisbatan bo‘lsa-da, moslikni ifodalaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi va yo‘lboshchi sifatida shakllanishi kerakligini ta‘kidlagan.

Milliy uyg‘unlikni targ‘ib qilish: adib millatni birlashtirish va yosh avlodda vatanga bo‘lgan mehrni kuchaytirish uchun ta’limning birinchi darajali vosita ekanligini ta‘kidlagan. Bu qarashlar hozirgi kunda “Tarbiya” fani mazmunini dars jarayonida yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik merosi – bu o‘z davrida millatni ravnaq topishida katta hissa qo‘shgan, bugungi kunda esa zamonaviy ta’limni rivojlantirishda muhim manba bo‘lib qolayotgan bebaho boylikdir. Behbudiy tomonidan ilgari surilgan fikrlar va asarlar ta’lim mazmunini boyitish, pedagogik metodlarni innovatsiyalash va yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda hali-hanuz dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi ta’lim tizimida Behbudiy asarlarini amaliyotga tatbiq qilish orqali ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish hamda milliy va global qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga erishish mumkin. Shuning

uchun Behbudiy merosini o‘rganish va undan foydalanish pedagogik amaliyotning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo`ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.

2. Behbudiy, Mahmuxo‘ja. Tanlangan asarlar. J.1. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 512.

3. Behbudiy, Mahmuxo‘ja. Tanlangan asarlar. J.2. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 312.

4. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. – T., “Sahhof”, 2023. – 416 b.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY ASARLARIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASI

MAHMUDKHODJA BEHBUDİ'NİN ESERLERİNDEKİ MÜKEMMEL İNSAN KAVRAMI

THE CONCEPT OF THE PERFECT MAN IN THE WORKS OF MAHMUDKHODJA BEHBUDI

КОНЦЕПЦИЯ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИЙ

Amridinova Dilrabo Tursunovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi professor, falsafa fanlari doktori (DSc)
Email: dilrabo@1971mail.ru, Tel: 91 550-35-33

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning asarlaridagi komil inson konsepsiyasi tahlil qilinadi. Komil insonning axloqiy, ma’naviy, intellektual va ijtimoiy jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Behbudiyning ta’lim, ma’rifat va ijtimoiy mas’uliyatga oid qarashlari inson kamolotini shakllantirish uchun muhim ilmiy asos sifatida baholanadi. M.Behbudiyning komil inson haqidagi g‘oyalari va ularning bugungi kun uchun dolzarbligini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: komil inson, jadid-ma’rifatparvarlar, yoshlar, globallashuv, Mahmudxo‘ja Behbudiy, “Padarkush”, ilm-ma’rifat.

Jahonda ro‘y berayotgan bugungi globallashuv jarayonida inson ongi va tafakkurini egallashga bo‘lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Bu birinchi navbatda, iymon-e’tiqodi va axloqiy fazilatlari yuksak, milliy mas’uliyat tuyg‘usi qalbida chuqur ildiz otgan ma’naviy barkamol fuqarolarni tarbiyalash, ikkinchidan, tarixiy xotirani rivojlantirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Vujudga kelgan ma’naviy-axloqiy ongning o‘zgarishi oqibatida yosh avlodni mafkuraviy, g‘oyaviy jihatdan himoya qilishda ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi, ana’analari, ma’rifati,

yuksak bilim, kasb-hunar va axloqiy etuklikka intilish kabi xislatlarini davom ettirishni davrning o‘zi talab qilmoqda.

Mamlakatimizda ma’rifatparvarlarning ilmiy, ma’naviy merosida ilgari surilgan vatanparvarlik, sobitqadamlik, bag‘rikenglik, ma’naviy ogohlik, gumanizm, shaxs kamoloti borasidagi qarashlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotining qadrini anglab etadi” [1].

Shu ma’noda, buyuk jadid bobolarimiz ijodidagi ma’rifatparvarlik g‘oyalari bevosita komil insonni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Chunki jadidlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy asoslarini tubdan qayta qurish uchun va jamiyat taraqqiyoti mezonlariga javob bera oladigan komil insonlar zarurligini e’tirof etdilar. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaydiki, «Komil inson deganda, biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz» [4; B.6.] . Turkiston jadidchiligi vakillarining komil insonni shakllantirish g‘oyasi boshqa fikrlardan farqli o‘laroq ma’rifatparvarlikka borib taqaladi. Shuning uchun ular millatni ma’rifatli qilish bilan barkamol avlodni tarbiyalash, shu orqali mamlakatni ajnabiylar istibdodidan xalos qilish va istiqbolga erishish mumkin, deb hisobladilar.

Jadidlarning nuqtayi nazaricha, barkamol insonni tarbiyalashning eng asosiy omili jamiyatdagi mavjud obyektiv shart-sharoitlarni tubdan o‘zgartirishdan iboratdir. Ular asosan komil insonning shakllanishi uchun xalaqit berayotgan illatlarning paydo bo‘lishi va uni bartaraf etish yo‘llari to‘g‘risida mulohaza yuritishga intildilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri va ma'rifatparvari hisoblanadi, uning asarlarida ma'rifatparvarlik, inson komilligi masalalari, jamiyatning ma'naviy yuksalishi uchun ahamiyat kasb etadi. Komil inson M.Behbudiyning ijtimoiy, axloqiy va ta'limga oid g‘oyalarining asosiy yo‘nalishi bo‘lib, bu orqali u jamiyatni ma'rifatli qilishni maqsad qilgan.

Behbudiy asarlarida komil inson tushunchasi bir necha muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi: “Axloq va ma’naviyat yuksakligi”, yning fikricha, komil inson avvalo yuksak axloq-odob sohibi bo‘lishi kerak. 2. “Ilm va bilimga intilish” M.Behbudiy nazdida ta’lim va tarbiyani shaxsning kamolotga erishish yo‘lidagi eng muhim qadam deb bilgan. Uning asarlarida ta’limning keng tarqalishiga va har bir insonning unga erishishi zarurligiga katta e’tibor qaratilgan. 3. “Ijtimoiy mas’uliyat” komil inson faqat o‘zini emas, balki jamiyatni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan shaxsdir. M.Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati orqali jamiyat taraqqiyotida bu g‘oyalarini yanada muhimligi ko‘rsatib berilgan. 4. “sadoqat va adolatlilik” M. Behbudiy komil insonni sadoqat va adolatni himoya qiluvchi shaxs sifatida

tasvirlaydi. Uning dramatik asarlaridagi qahramonlar shu qadriyatlarni o‘z timsolida namoyon etadi.

Bunga Behbudiyning «Padarkush» asarida bayon qilingan voqealar misol bo‘la oladi. Asarda o‘z otasining qotiliga aylangan, o‘qimagan va nodon farzand xarakteridagi salbiy hatti-harakatlar tavsiflanadi. Boyning o‘g‘li - Toshmurod maishatga berilib, o‘g‘ri, bezori, fohishabozlar doirasiga kirib qoladi. «Padarkush»da mustamlaka Turkistondagi ijtimoiy sharoitning mahalliy aholi hayotiga, yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri masalalarini ham ko‘rish mukin. Demak, bir tomondan Toshmurodni o‘rab turgan mikro muhit ma’naviy sog‘lom emas, shuning uchun u bunday salbiy hodisalar girdobiga tushib qolgan, ikkinchi tomondan esa, oilada tarbiyaning asosi yaratilmagan, chunki otaning o‘zi mol-dunyosi tufayli manmanlik kasaliga giriftor, odob-axloq, ta’lim-tarbiya, jamiyat, xalq taqdiri, Vatan - millatning kelajagi degan tushunchalardan yiroq, savodsiz, uzoqni ko‘rish qobiliyatidan mahrum bo‘lganligi tufayli hatto o‘g‘lini tarbiyalashga ham yaramaydi. Boyning bergan pullari o‘g‘lini taltaytirib, aksariyat hollarda unga nisbatan qo‘pol muomalada bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Toshmurod otasining tanbehlarini nazar-pisand qilmaydi, chunki u endi atrofini batamom o‘rab olgan «o‘rgimchaklar» ta’siridan chiqib keta olmaydi, o‘zi ham ularning qiyofasiga kirib boradi. Behbudiy bu asarida yangi tafakkur tarziga ega bo‘lgan Domullo obrazi orqali boy va uning o‘g‘li xarakteridagi salbiy illatni fosh qiladi. Boy bilan o‘g‘lining bir suhbatiga guvohi bo‘lgan Domullo Toshmurodning odobsizligi va andishasizligidan ranjiydi. Domullo Toshmurodning bunday odobsizligining sababi boyning savodsizligi, o‘g‘lini o‘qitmaganligi deb hisoblaydi, chunki boy dunyo taraqqiyotidan orqada qolgan, voqealardan butunlay bexabardir. Domulloni o‘zining ahvoli shunday bo‘lgan boyning farzandlariga qanday ta’lim-tarbiya berishi mumkinligi masalasi o‘ylantiradi. Toshmurodning bu nojo‘ya xatti-harakati, dag‘alligini ilmsizlik, ma’rifatsizlik oqibati deb bilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy millat kelajagi bo‘lmish yosh avlod tarbiyasi to‘g‘risidagi fikrlarini quyidagicha izohlaydi: «O‘qimoq uchun pul kerak, badavlatlarimizni holi bul, bas, bu ketish ila nauzambilloh, dunyo va oxiratga rasvo bo‘lurmiz, o‘qimoq barcha musulmonga, erkak va yo xotun bo‘lsun, farz edi. U qayda qoldi?! Oh, voy bizni holimizga Men sizga amri-ma’ruf etdim va menga shariat bo‘yicha lozim bo‘lgan ishni bo‘ynumdan soqit qildim. Inshoolloh, mo‘ylab chiqarib alifni tayoq demay turgan o‘g‘lungizni o‘qitmaganingiz uchun gunohkor bo‘lursiz»[5; B.42.].

Behbudiy Domullo obrazi orqali maqsadlarini ifodalaydi, ya’ni uning fikricha, Turkiston boylari, avvalo, ilm-ma’rifatga ega, madaniyatli bo‘lishlari va unga hurmat bilan qarashlari, bolalarini ham zamon talablariga monand darajada tarbiyalab, voyaga etkazishlari lozim. Bundan tashqari, asarda oila ta’lim-tarbiyaning asosiy maskani, ota-ona asosiy subyekti ekanligi haqida g‘oyat muhim

fikr borligini ko‘rish mumkin. Behbudiy bu asari orqali, aksariyat hollarda oila ta’lim-tarbiyaning buzilib ketishiga sabab bo‘layotganligi borasidagi o‘z g‘oyalarini ijtimoiy ongga singdirishga intiladi. Bolalar qatori ularni tarbiyalovchi ota-onalarini o‘zini ham tarbiyalash lozimligi va bu zamonaning dolzarb muammosi ekanligi qayd etiladi. Aslida Behbudiy, Turkiston xalqining boy-badavlat bo‘lishini istaydi, ammo mamlakat miqyosida kishilarning ma’naviy dunyosini boyitmasdan turib, moddiy-ma’naviy boyligini rivojlantirib bo‘lmaydi ya’ni farovon turmush tarziga erishish uchun ta’lim-tarbiya ilm-ma’rifatni ommaviy ravishda to‘g‘ri yo‘lga solmoq lozim, degan g‘oya asarning bosh yo‘nalishi hisoblanadi [6; B.348-349].

Dramaturg Behbudiy asaridagi ziyoli obrazi o‘zgacha talqin etadi. Ziyoli Domulloga nisbatan ham ilg‘or fikr-mulohazalarni bildirib o‘tadi. Gap-so‘zlari, tashqi qiyofasi kiyim-kechaklari yangicha bo‘lgan va evropacha ta’lim olgan ziyoli zamonaviy ruhdan dalolat beradi. Ziyoli shariatda ko‘rsatilgan ilm-ma’rifat qoidalarini va aniq fanlarni ya’ni zamonaviy dunyo miqyosida rivojlanib borayotgan ta’lim usullarini, madaniy taraqqiyot to‘g‘risidagi ta’limotlarni ham chuqur bilgan. Ziyoli Turkistonda o‘lkasi milliy maktablarni rivojlantirish, bolalarni ilm-ma’rifat bilan tarbiyalash lozimligini o‘z fikr-mulohazalarida tushuntirgan.

Behbudiy jamiyat a’zolarining tarbiya ko‘rmagan bolalarning dahshatli fojialar olib kelishi mumkinligini chuqur his etishlari uchun boyning talon-taroj bo‘lishi, hatto o‘limiga ham o‘z bolasi sababchi ekanligini ko‘rsatadi. Sodir bo‘lgan jinoyatning ham foniy, xam boqiy dunyodagi oqibatlarini ta’riflab beradi. Bunday noqobil farzandning foniy dunyodagi hayoti Sibirda o‘tsa, boqiy dunyoda esa do‘zaxga mahkumdir. Behbudiy komil insonni shakllantirishga xalaqit berayotgan omillarni tavsiflashga harakat qilib, ziyoli tilidan quyidagi fikrlarni keltiradi: “Bizlarni xonavayron va bevatanu bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jiholatdur: bevatanlik va asoratu darbadarlik, faqru zarurat va xorliklar barchasi ilmsizlik va tarbiyasizlikning natijasidur” [5; B.49.]. Behbudiyning agar biz bolalarimizni yoshlikdan to‘g‘ri tarbiyalasak, ilm bersak, hunar o‘rgatsak, ular barkamol insonlar bo‘lib etishadilar va jamiyatimizning taraqqiyoti uchun, albatta, o‘z ulushlarini qo‘shadilar, agar ularni to‘g‘ri tarbiyalay olmasak, maishat, ichkilik, fohishabozlikka berilib ketishlari natijasida turli salbiy oqibatlar kelib chiqishi, hatto qotillik ham sodir bo‘lishi mumkin, degan fikrida mantiqiy xulosa mavjuddir.

Behbudiy yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jarayonida, urf-odat va an’analarni himoya qilish bahonasida milliy biqiqlik va cheklanishlarga berilmaslik kerakligini ta’kidlab, yoshlarning davr mezonlari asosida kiyinishi, hayot yangiliklariga intilishini ta’qiqlamaslik, balki qo‘llab-quvvatlash lozim, deb hisobladi. «Agar bu juz’iy tashabbuhlar ila-da kishi kofir bo‘laversa, bas, er yuzida bir nafar ham musulmon qolmasligi lozim kelur…»[6; B.345.].

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “... bugungi yashin tezligida o‘zgarayotgan olam butun insoniyat ayniqsa, yurt kelajagi bo‘lgan yoshlar oldida yangi imkoniyatlar ochish bilan birga, ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. Terrorizm, diniy ekstremizm, giyovandlik, “ommaviy madaniyat”, noqonuniy migratsiya va odam savdosi, kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga qanday og‘ir kulfatlarni solayotganiga barchamiz guvoh bo‘lmoqdamiz. G‘arazli kuchlar g‘o‘r, sodda bolalarni o‘z ota-onalariga va yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga umriga zomin bo‘lmoqda”-ki, [2; B.65.] buning uchun biz ziyoli qatlam vakillari bu kabi jarayonlarni oldini olish va tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yishimiz, bu borada aniq bir “Yo‘l xaritalar”ini ishlab chiqishimizni taqoza etmoqda.

O‘zbekistonning mustaqilligiga rahna solishga intilayotgan, islom olamida xalifalik tuzish g‘oyasini targ‘ib qilayotgan diniy-ekstremistik harakat va guruhlarning islom «sof»ligini ta’minlash maqsadidagi da’volari puch ekanligini oldindan muftiy Behbudiy o‘z asarlarida aniq va puxta asoslab bergan edi. O‘sha davrda qadimchilar qiyofasidagi aqidaparastlarning mutaassib g‘oyalarining ijtimoiy taraqqiyotga, barkamol insonning shakllanishidagi salbiy oqibatlarini ochib bergan va diniy bag‘rikenglik (tolerantlik)ni ma’naviy yuksalish omillaridan biri deb hisoblagan Behbudiyning falsafiy mushohadalari hali e’tiqodi butunlay shakllanib ulgurmagan yosh avlodning turli oqimlar «qarmog‘i»ga tushmasligiga va ularda mafkuraviy immunitetning hosil bo‘lishiga yordam beradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida komil inson konsepsiyasi inson shaxsining har tomonlama rivojlanishi uchun o‘ziga xos dastur sifatida namoyon bo‘ladi. Uning falsafiy qarashlari ma’naviy yuksalish, axloqiy tarbiya va ijtimoiy mas’uliyat masalalarida hanuz jamiyat uchun muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Behbudiyning asarlari bizga nainki milliy meros, balki kelajak avlodlar uchun ham yorqin ma’naviy yo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugun biz o‘zida komillik fazilatlarini mujassam etgan barkamol inson tarbiyasini ma’naviy – ma’rifiy ishlarimizning pirovard maqsadi deb bilar ekanmiz, yoshlar tarbiya insonparvarlik, vatanparvarlik, erkparvarlik va fidoyilik tuyg‘ularini qaror toptirishda buyuk ajdodlarimiz belgilab o‘tgan axloqiy fazilatlarni ustuvor deb bilishimiz zarur.

Shu o‘rinda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq

qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”[3] – degan fikrlari barchamizga dasturilamal bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2020, 25 январь, №19 (7521) сони.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б.65.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Тошкент.: Ўзбекистон, 2016. - Б.486.
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз.7-т. – Т.: Шарқ, 1998. – Б.6.
5. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1997. –280 б.
6. Алиев А. Маънавият, қадрият ва бадиият (Ватан фидойилари). -Т.: Академия, 2000. –630 б.
7. Амриддинова Д.Т. Самарқанд жадидчилик мактаби. Монография. – Тошкент: Наврўз ДУК, 2017. -Б 51.
8. Амридинова Д.Т.Миллий фалсафада комил инсон концепцияси эволюцияси. Монография. - Тошкент: Наврўз ДУК, 2019. – 112 б.

SAMARQANDLIK JADID NAMOYONDALARNING TA’LIM-TARBIYAVIY QARASHLARI

Axmedov Gulmamat Nurmamatovich
Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi mudiri
Email: gaxmedov1987@mail.ru, +998995061187

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakati, Turkistonda taraqqiyparvarlik harakatining yuzaga kelishi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mintaqadagi ma’rifatparvarlar haqida fikr yuritilgan. Xususan, muallif tomonidan Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy va Samarqandlik jadid namoyondalarining ta’lim-tarbiyaviy, siyosiy va ijtimoiy faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, yangi usul maktablari, milliy tafakkur, ziyolilar, Turkiston, Turkiston Muxtoriyati, Milliy Majlis.

Bugungi kunda jadidchilik harakatini chuqur o‘rganish, o‘sha davrda ijod qilgan va faoliyat yuritgan ziyolilar, taraqqiyparvarlarning ezgu maqsadlarini keng targ‘ib qilish davlatimizning doimiy diqqat e’tiborida bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 3-yanvarda elon qilingan “Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir

va pedagog Mahmudxo’ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to’g’risida” gi qarori ham jadid namoyondalariga bo’lgan etiborining davomidir.

Ko‘rinib turibdiki, jadidchilik harakati va uning mohiyati bugungi kun uchun ham dolzarb va ahamiyatlidir. Yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 30-sentyabrda imzolangan “Ma’rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmonda ham jadidlar faoliyati yana bir bor e’tirof etilgan edi. XX asr boshlarida o‘zining ma’rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta’minlashga qo‘shgan beqiyos hissasi uchun Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonovlar “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlanishdi. Shu asosda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-sonli Qarori bilan Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi filiali sifatida Samarqand shahridagi Mir Said Baraka ko‘chasi 47-uyda Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi 2021-yil 18-oktabrdan rasman o’z faoliyatini boshladi. “Yangi O’zbekiston poydevorini qurish jadidlarning boy ilmiy merosini anglashdan boshlanadi” deganlaridik Bu muzey bugungi kunda yurtimiz xalqiga, yoshlariga, pedagoglariga, va ziyo izlagan qalblar uchun o’z ilmiy ziyo nurini taratib kelmoqda.

Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tataristonda yuzaga kela boshladi. Bir qator ma’rifatli shaxslar tomonidan yangi siyosiy va ijtimoiy g‘oyalarning ilgari surilishi jadidchilik harakatiga asos soldi. Shu jihatdan, ushbu davrda boshlangan yangi siyosiy, ma’rifiy hamda ijtimoiy jarayonlar jadidchilik yoki taraqqiyparvarlar harakati deya nomlandi. Bu harakatning asoschilaridan biri qrimlik Ismoilbek Gaspirinskiy edi.

Jadidchilik harakati keyinchalik mintaqaning boshqa hududlarida ham keng yoyila boshlaydi. Xususan, Turkiston mintaqasidagi XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi jarayonlarda jadidchilik harakati muhim ahamiyat kasb etib, ular tomonidan qator ilg‘or g‘oyalar ilgari surildi. O‘sha vaqtda Turkiston aholisining

moddiy ahvoli og‘ir bo‘lib, xalq orasida savodsizlik, diniy mutaasiblik keng tarqalgan edi. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalarga ko‘ra, xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishning yagona yo‘li ularni ma’rifatli qilish edi. Bu yo‘lda yangicha tuzum va tartibotlarni joriy etish, yangi usul maktablarini ochish hamda insonlarni jahondagi ilg‘or tajribalardan voqif qilish lozim edi. Shu bois, jadidchilik harakati mohiyat va mazmuniga ko‘ra millat, jamiyat tafakkurini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat bo‘lgan. [2, B.321].

Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish uchun, o‘sha davrdagi tarixiy jarayonlarga to‘xtalish maqsadga muvofiq. XIX asrning oxirlarida Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng, xonlik davridagi tartibotlarni bekor qila boshladi. O‘lkada temir yo‘l qurilishi, dastlabki sanoat korxonalarining bunyod etilishi, rus olimlari tomonidan O‘rta Osiyoga olib kelingan yangi ilmiy g‘oyalar va bilimlar natijasida Turkiston taraqqiyotdan ancha orqada qolib ketgani ma’lum bo‘la boshladi. Xonliklar davridagi monarxiya tuzumi sabab o‘lkada hali hanuz o‘rta asrlarga xos hayot tarzi hukm surar edi. Mazkur omillar yurt ziyolilari, taraqqiyparvarlarining fikrini uyg‘otdi. Jadidchilik harakatining Turkistondagi yirik namoyandalari sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho‘lpon, Ashurali Zohiriy, Is’hoqxon Ibrat, Fayzullo Xo‘jaev, Abdulvohid Burxonov va boshqalarni alohida ta’kidlash mumkin. Ular milliy uyg‘onish harakatining boshida bo‘ldilar.

“Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘trga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929 yillarni o‘z ichiga oladi”[3, –B.519].

Samarqandda ham jadidchilik harakati keng yoyilib, taraqqiyparvarlarning bir qator etuk namoyondalari etishib chiqdi. Samarqand jadidlarining eng ko‘zga ko‘ringan vakili shubhasiz Mahmudxo‘ja Behbudiy hisoblanadi. “Turkistondagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) nafaqat mashhur dramaturg va publitsist, jamoat arbobi va mashhur ulamo bo‘lishidan tashqari u o‘z davrining yirik olimi, noshir va matbuotchi hamda sayohatchisi sifatida o‘zidan chuqur iz qoldirdi”[4, –B.37].

Mahmudxo’ja Behbudiy 1875 yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida, ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1785— 1800) Samarqandga kelib qolgan. 1894 yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug‘ullanib kelgan Behbudxo‘ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo‘ja tog‘asi qozi Muhammad

Siddiq tarbiyasi va qaramog‘ida o‘sib voyaga etadi. Arab sarfu nahvini kichik tog‘asi Mulla Odildan o‘rganadi.

Jadidlar Turkistonni qoloqlik, savodsizlik botqog‘idan olib chiqishning eng muhim omili sifatida xalqni savodli, ma’rifatli qilish ekanligini tushunishgan edi. Shu bois, ular tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil qilindi. Mazkur maktablar o‘sha davrning ilg‘or kishilari, o‘ziga to‘q boylar tomonidan moddiy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi. Shunday maktablardan biri dastlab 1898 yili Qo‘qonda Salohiddin domla, 1899 yili eski Toshkentda Munavvar Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan tashkil etildi. 1900 yili Buxoroda Jo‘raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil etildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat yangi usul maktablarini tashkil qilish balki, ularni zamonaviy darsliklar, dunyoviy ilmlar bilan ham ta’minlash ishiga bosh-qosh bo‘ldi. O‘zi ham qator darslik va risolalar yaratdi.

1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi mahallasida Saidahmat siddiqiyning, 1901-yilda Rajabamin mahallasida Abduqodir Shakuriyning yangi usul maktablari aynan Mahmudxo’ja Behbudiy hamrohligida ochildi.*(Bu maktablar hozirgacha saqlanib qolgan)* Bundan tashqari eski Jomboy qismida va Kattaqo’rg’on, Chelak tumanlarida ham shunday jadid maktablarini ochgan. Behbudiy maktablar uchun “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug‘rofiyai umroniy”, “Kitob ul-atfol”, “Amaliyoti Islom”, “Tarixi Islom” kabi darslik va risolalar yozadi[6, –B.11].

Behbudiy jadidlarning etakchisi, qolaversa, mintaqada taraqqiyparvarlik harakatining asosiy shaxslaridan biri sifatida Samarqand shahrida turli yig‘in, kecha va mashvaratlarni tashkil qilgan. Bu kabi yig‘ilishlarga turli shaharlardagi taraqqiyparvarlar ham taklif etilgan. Buxorolik mashhur ma’rifatparvar Sadriddin

Ayniyning Mahmudxo‘ja Behbudiy haqidagi xotiralarida quyidagilar eslanadi: “1908 yilda dars sheriklarimizdan bo‘lg‘on Mirzo Abdulvohid bilan Buxorodan Samarqandg‘a kelgan edik. Ushbu sayohatimizda mulla Abdulqodir Shakuriy, mulla Ismatullo Rahmatullozoda va bir qancha Samarqand ma’rifatparvarlari oqshom majlisi uchun bizni bir erga chaqirg‘on edilar”[7, –B. 238].

S.Ayniyning qo‘shimcha qilishcha, bu uning Behbudiy bilan birinchi bor uchrashuvi edi. S.Ayniy birinchi uchrashuvdan so‘ng Behbudiyga ta’rif berar ekan, shunday xotirlaydi: “Bu kecha Mahmudxo‘ja, ko‘pincha fanniy masalalardan so‘z chiqarib, erdan, ko‘kdan, oydan, yulduzdan, qisqasi, ul vaqtg‘acha biz eshitmagan narsalardan ko‘pgina so‘yladi”[7, –B. 238].

Behbudiy Turkistonda milliy matbuot rivojiga ham ulkan hissa qo‘shdi. Uning noshirlik faoliyati ham diqqatga sazovor. O‘zi va boshqa taraqqiyparvarlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qilishning muhim vositasi sifatida Behbudiy tashabbusi bilan gazeta va jurnallar faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Uning sa’y-harakatlari va muharrirligida 1913 yil aprel oyidan boshlab “Samarqand” gazetasi chiqarila boshlaydi. Ushbu gazetada o‘sha davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalariga e’tibor qaratiladi. Jumladan, gazetaning 1913 yil 30 iyuldagi sonida turkistonlik yoshlarning og‘ir ijtimoiy holati, bolalarni maktabda o‘qitishning ahamiyati haqida to‘xtaladi: “Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammolikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosig‘a tobe ekan, bizni ulamo bil’aks avomg‘a tobedur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o‘ttuz sana so‘ngra yana yomonroq bo‘lur, musulmonchilik ilm va adab ila qoim, millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur”[8].

Bundan tashqari, Buhbudiyning bevosita ishtiroki va tashabbusi bilan 1917 yil 16 apreldan boshlab “Hurriyat”, 1918 yildan 1922 yilgacha “Mehnatkashlar tovushi gazetalari nashr etilib, unda mustaqillik, insonlarni ilm olishga, zamonaviy fikrlashga da’vat etuvchi maqolalari chop qilinadi.

Behbudiyning noshirlik faoliyati haqida to‘xtalganda, “Oyina” jurnalini ham ta’kidlash o‘rinli. 1913 yil 20 avgustdan chiqa boshlagan jurnalda milliy birdamlik, turkiy xalqlarning hamjihatligi kabi masalalarga urg‘u beriladi. “Oyina” jurnalida millat va uning haq-huquqiy, tarixi, til va adabiyoti masalalari, dunyodagi ahvolga doir qiziqarli maqola va bahs-munozaralar berib borilgan. Ayniqsa, Behbudiyning millat taraqqiyotida xorijiy tillarni o‘rganishning ahamiyati haqidagi fikrlari diqqatga sazovor. Alloma xorijiy tillarni o‘rganish zamonning zaruriyati ekanligini ta’kidlab, uni diniy tomondan ham asoslashga harakat qiladi: “Yana bir til va xat borki, butun olam bir-birila aning ila so‘ylaydur. Ul Faranse tili xatidur. G‘ayridinning ilm va xatini o‘rganmoq shariatcha durustdur. Hadisi sharifdan ma’lum bo‘ladurki, janob payg‘ambar o‘z sahobalaridan Zayd bin Sobit(g‘a) yahuydiy xatini o‘qub-o‘rganmoqg‘a buyurgan ekanlar. Va ul janob amri hazrat

nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o‘rganib, hazrat payg‘ambarg‘a yahudiylardan kelaturg‘on xatlarni o‘qub berar ekanlar. (“Sahihi Buxoriy”, juz 4, sahifa 156)”[9, – B.14].

Behbudiy Turkiston islom dinining o‘rni va mavqeyi yuqoriligi, diniy ulamolarning xalq o‘rtasida obro‘si kattaligini inobatga olgan holda o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilishda diniy va dunyoviy qarashlardagi muvozanatni saqlashga harakat qilgan. Bu haqda tarix fanlari doktori, professor Q.Rajabovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Behbudiy ham din va millatni ittifoq etishga, islohot o‘tkazishga, ziyoli va taraqqiyparlarlarni, boy va ulamoni birlashtirishga da’vat etdi. U taraqqiyparvarlar ulamolarning xalq o‘rtasida obro‘si unchalik katta emasligi, shu bois qadimiy ulamolar bilan hamkorliksiz ish olib borilsa muvaffaqiyatga erishish qiyinligi to‘g‘risida kuyunib so‘zlar edi”[10, -B.9].

Behbudiyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, jamiyatni isloh qilish, jaholatga qarshi kurashish masalalaridagi fikrlari uning “Padarkush” asarida yorqin ifodalangan. Mazkur asarda dunyoviy ilmlarni egallashning ahamiyati, keng dunyoqarashli yoshlarning mamlakatni taraqqiy ettirishdagi roli mohirona tasvirlangan: “Olimi zamoniy bo‘lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyatiy diniya va o‘z millatimiz tilini biladirg‘ondan so‘ngra hukumatimizning nizomli maktablaringa bermoq kerakdur, ya’ni gimnaziya va shahar maktablarini o‘qub tamom qilg‘onlaridan so‘ng Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san’at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qutmoq lozimdir”[11, – B.44].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning yurt ozodligi, millat taraqqiyoti yo‘lidagi sa’y-harkatlarini tadqiq etishda uning siyosiy faoliyatini ham inobatga olish darkor. 1917 yil fevral inqilobi va Rossiya podshosi Nikolay Romanovning taxtdan ag‘darilishi Turkiston jadidlarini ham faollashtirib yubordi. Mazkur tarixiy jarayonlarda Behbudiyning o‘rnini alohida ta’kidlash zarur. “Hurriyat” gazetasining 1917 yil 13 maydagi sonida Behbudiyning “Muhtaram Samarqandiylarg‘a xolisona arz” nomli murojaati chop etilgan. Mazkur murojaatda uning ozodlik, hurriyat haqidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Hozirda bo‘lsa, Xudoi taolo bizg‘a hurriyat berdi. Diniy va milliy islohot va taraqqiyimiz uchun harakat va sa’y etmoqg‘a yo‘l ochuqdir”[12, – B. 471].

M.Behbudiy 72 kun umr ko‘rgan Turkiston Muxtoriyatining parlamenti – Milliy Majlis tarkibiga kiritilgan edi. O‘sha vaqtda zamonasining eng ilg‘or ziyolilari, taraqqiyparvarlaridan tashkil topgan Turkiston Muxtoriyatida mas’ul lavozimni egallash Behbudiyga faxr bag‘ishlagan edi: “27-noyabrda Xo‘qandda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon s’ezdiga e’lon qilindi. Muborak va xayrli

bo‘lsin! Kamina ham majlisda bo‘lishi uchun iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!”[12, –B. 493].

Biroq juda qisqa muddat mavjud bo‘lgan Turkiston Muxtoriyati hukumati 1918-yil fevralida bolsheviklar tomonidan tarqatib yuboriladi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston mintaqasida XIX asrning oxiri XX asr boshlarida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o‘lkada yangi, zamonaviy fikrlaydigan taraqqiyparvarlarning maydonga chiqishiga sabab bo‘ldi. Ular tomonidan millatni uyg‘otish, jaholatga qarshi kurashish, mamlakatni taraqqiy ettirish yo‘lidagi mardonavor kurash jadidchilik harakati nomi bilan tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Ushbu harakatda millatning bir qator fidoyi insonlari, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiy muhim rol o‘ynadi. Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, tarixiy jarayonlarda Behbudiyning tutgan o‘rnini yoritish, tahlil qilish alohida tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Parlamentga murojaatnomasi. // https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020.
2. https://president.uz/uz/lists/view/3860
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3 tom. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlati ilmiy nashriyoti, 2002.
4. Rajabov Q. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Bolqon urushlari va Anvar Posho haqidagi fikrlari // “Mahmudxo‘ja Behbudiy diniy-ma’rifiy qarashlarining zamonaviy talqinlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2021.
5. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Tuzuvchilar: Sodiqov H., Shamsitdinov R., Ravshanov P. va boshqalar. –Toshkent: Sharq, 2000.
6. Zarafshonning Behbudiysi. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Akram Haydarov. –Toshkent: “Sahhof”, 2020
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Ikkinchi jild. –Toshkent: “Akademnashr”, 2021.
8. “Samarqand” gazetasi, 1913 yil 30 iyul. №31
9. “Oyina” jurnali, 1913 yil 20 avgust. №1.
10. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 yillar). -Toshkent: “Universitet”, 2002.
11. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkush. Tanlangan asarlar. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 1997.

12. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: “Akademnashr”, 2021.

BUXORO AMIRLIGI MADRASALARINING YETAKCHI TOLIBLARI VA MUDARRISLARINING BADIIY-ESTETIK TAFAKKURLARINI SHAKLLANTIRISH VA O'Z-O'ZINI ANGLASH ZAMINALARI

Amriddin Pulotov
Sadriddin Ayniy uy-muzeyi mudiri

Annotatsiya: XX-asr boshlarida Buxoro amirligi va mamlakatning boshqa viloyatlarida madrasalarining etakchi toliblari va mudarrislarining siyosiy-iqtisodiy dunyoqarashi butunlay o‘zgardi, bu esa ilg‘or yoshlar va madrasalar muallimlarining mafkurasi, dunyoqarashi evolyutsiyasiga olib keldi.

Jamiyatning bu ijtimoiy qismi jahon, jumladan, qo‘shni mamlakatlardagi siyosiy harakatlarning ilg‘or mafkuralaridan xabardor bo‘lib, islohotchi bo‘lib, jamiyat ahli, jumladan, talabalar, o‘qituvchilar, ziyolilar manfaati uchun munozaralar uyushtirdi. Davlat tuzumini isloh qilish va ijtimoiy tizim evolyutsiyasini amaliy chora-tadbirlarga aylantirib, eski va keraksiz g'oyalarni tanqid qilish jarayoni boshlanganligi haqidagi malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Istiqlol, jadid, maktab, talim, anjuman, ustoz, shogird, Ayniy, Behbudiy, Fitrat.

XX-asr boshlarida Buxoro amirligi va mamlakatning boshqa viloyatlarida madrasalarining etakchi toliblari va mudarrislarining siyosiy-iqtisodiy dunyoqarashi butunlay o‘zgardi, bu esa ilg‘or yoshlar va madrasalar muallimlarining mafkurasi, dunyoqarashi evolyutsiyasiga olib keldi.

Jamiyatning bu ijtimoiy qismi jahon, jumladan, qo‘shni mamlakatlardagi siyosiy harakatlarning ilg‘or mafkuralaridan xabardor bo‘lib, islohotchi bo‘lib, jamiyat ahli, jumladan, talabalar, o‘qituvchilar, ziyolilar manfaati uchun munozaralar uyushtirdi. Davlat tuzumini isloh qilish va ijtimoiy tizim evolyutsiyasini amaliy chora-tadbirlarga aylantirib, eski va keraksiz g'oyalarni tanqid qilish jarayoni boshlandi .

Xususan, Rossiyada sodir bo‘lgan ketma-ket inqiloblar ta’sirida inqilobiy va erksevar asarlarning nashr etilishi, tatar va turk tillarida gazeta va jurnallarning tarqalishi, Buxoro va Samarqanddagi siyosiy-ijtimoiy yig‘inlar kuchaydi, bu bilan bog‘liq ayrim masalalar ularda amirlik tuzilmasini isloh qilish muhokama qilinib, ziyolilar hisobiga ularning tarafdorlari ko‘paydi.

Shu bilan birga, turk inqilobining ta’siri va turk jurnallarining, jumladan, “Siroti mustaqim” jurnalining amirlikda keng tarqalishi tufayli siyosiy va ijtimoiy faoliyat kuchayib, ularning maqsad va maslagi maktab va ta’lim sohalarini isloh qilishdan iborat edi.

Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy va ularning safdoshlari turk ziyolilarining islohotchi qarashlarini bilgan holda bu masalalarni Buxoro sharoiti

bilan bog‘lashgan, yangi avlod yoshlari o‘rtasida ilg‘or g‘oyalarni targ‘ib qilgan, ular hisobidan o‘z tarafdorlarini ko‘paytirgan siymolardan edilar.

Bu jarayonda Angliya va uning mustamlikasi ostida bo'lgan mamlakatlar emissarlari ham ta'sir o'tkazdilar.

Bu jarayon va Afg‘onistondagi islohotchilik harakati bir xil bo‘lib, uning ta’siri Buxoro ziyolilarida ko‘proq sezilib turdi.

Xususan, Mahmud Tarziy, Said-Jamoluddin Afg‘oniy va boshqalarning ilg‘or g‘oyalari fors va dariy gazetalari orqali Buxoro, Samarqand va boshqa viloyatlarga etkazilib, ularning ongi va mafkurasini o‘zgartirdi.

Bundan tashqari, inqilobiy va islohotchilik harakatlarida ishtirok etgan Eronning etakchi adiblarining g‘oya va qarashlari alohida ta’sir qildi.

Bu goyalar Samarqand va Buxoro shoirlari, ziyolilari orasida ham keng tarqalib, o‘zaro tortishuvlarga sabab bo‘ldi.

Ularning asarlaridagi asosiy mazmun yurtimizdagi islohotchi yoshlarning g‘oya va intilishlarini ifodalab, ularning mafkurasini tiklashga da’vat bo‘lib xizmat qildi.

XX-asr boshlarida ana shu real omillar ta’sirida mamlakatda yangi fikrlovchi va islohotchilar avlodi paydo bo‘ldi, ularning asosiy maqsadi maktab va ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish edi.

Shundan so‘ng ular xalqning ongini uyg‘otishga harakat qilib, mamlakatni qoloqlikdan chiqarish, hukmdorlarni taxtdan qulatish uchun ko‘p sa’y-harakatlar qildilar.

Bu ogoh yoshlar ongida o‘zini-o‘zi takomillashtirish haqidagi ilk g‘oyalar paydo bo‘lib, ular jamiyatning turli tabaqalari o‘rtasida tashviqot va targ‘ibot quroli sifatida foydalanildi.

Aytish kerakki, Sadriddin Ayniy ham bu guruhga qo‘shilgan va islohotchilar safida bo‘lib, odamlarning ongini uyg‘otish, dunyoqarashi, ma’naviyatini yuksaltirish yo‘lida ko‘p sa’y-harakatla qilgan.

Buxoro madrasalaridagi ta’lim tizimidan xabardor bo‘lgan Ayniy birinchi bo‘lib ta’lim-tarbiya sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bosh ko‘tardi va boshqa yosh islohotchilar safiga qo‘shilib, maktab va ta’lim islohotlarini amalga oshirishga intildi.

Sadriddin Ayniy ta’lim va tarbiya inqirozga yuz tutganini, o‘quvchilarni tarbiyalashning bu usuli eskirganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi.

Shu bilan birga, aksariyat maktab va madrasalarda arifmetika, geometriya, tarix, tibbiyot kabi tabiiy fanlar o‘qitilmagani Ayniy va uning hamkasblarini tashvishga solardi.

Bundan tashqari, kutubxonalar ning vayron qilinganligi va ularning o'rnida ko'ngilochar muassasalar tashkil etilganligi talim va tarbiya ishlariga katta zarar etkazildi.

Ana shu ijtimoiy-ma’naviy sabablar Sadriddin Ayniy va uning hamkasblarining Buxoro muhitida maktab va maorif islohotlarini yangilash tashabbuslarni boshlash uchun asos bo‘ldi.

Bu jarayondagi birinchi qadam yangi maktablar ochilishi bo‘ldi.

1900-yillar boshida Ismoil Gasparali ta’sirida Qozonda shunday maktab tashkil etilib, uning gap-so‘zlari Buxoro amirligi va boshqa mamlakatlarda tarqalib, ziyolilar, yoshlar orasida yangi to‘lqin paydo bo‘ldi.

Shu harakat ta’sirida Abdug‘odir Shakuriy 1903-yilda Samarqandda yangi o‘qitish uslubidagi birinchi maktab tashkil qildi.

Ayniy, Hamidxo‘chai Mehriy va Munzim bilan birga bu maktabga tashrif buyurib, uni Buxoroda tashkil etishga qaror qiladi va oradan bir necha yil o‘tib ular shunday maktabga asos soladilar.

Ma’rifatparvar yoshlar, jumladan Sadriddin Ayniy maktab poydevori va “maktab islohoti”ni mamlakat yoshlarining o‘zini o‘zi bilishi va ongini uyg‘otishning birinchi yo‘li deb hisoblagan.

Sadriddin Ayniy 1910-yilda “Tahsib-us-sibyon” kitobini nashr ettirgan va u ham zamonaviy maktablar uchun o‘qish kitobi sifatida tavsiya etilgan. Bu kitob yangicha uslubda yozilgan bo‘lib, yoshlarning savodxonligini imkon qadar tezroq egallashiga yordam berdi.

Ayniy ta’sirida boshqa islohotchilar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulvohidi Munzim va boshqalar darslik yozishda yangicha uslubga amal qildilar.

Xususan, Abdurauf Fitratning XX-asr boshlarida “Munozira”, “Hind sayyohining bayonotlari”, “Rahbari Najot” va “Dorurrohat musulmonlari” kitoblarini nashr etilgani ham ongning uyg‘onishiga yaqqol ta’sir ko‘rsatdi .

Shu sharoitda va mamlakatimizda yangi maktablarning ushbu darsliklari ta’sirida yangi avlod yoshlari shakllandi va ularning islohotchilik qobiliyati mustahkamlandi.

Aynan ularning sa’y-harakati bilan “Mulla Mushfiqiy”, “Sho‘ro”, “Vakt”, “To‘ron”, “Tarjumon”, “Uchkun” kabi gazeta va jurnallarda savodsiz mullalarning nopok xislatlarini fosh etuvchi tanqidiy maqolalar e’lon qilindi.

Bu jurnal va gazetalar ta’sirida islohotchilar safida tanqiddiy maqolalar e’lon qilinishi amirlik tuzilishiga nisbatan nafratni kuchaytirdi.

Darhaqiqat, bu davrda yozilgan Behbudiy, Ayniy, Munzim, Fitrat va boshqalarning asarlari, bir tomondan, tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lsa, ikkinchi

tomondan, chuqur ijtimoiy tahlil qilinib har bir yangi avlod tafakkurining uyg'onishi, ijodkorligi va o'zligini anglashiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Ularni amirlikning chirigan tuzilishiga qarshi kurashga tayyorlachga muhit yratdilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida To‘ronzaminda ma’rifat va ma’naviyat g‘oyalarini keng tashviq qilgan allomalar rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiy edi.

O‘sha davrda ilm-fan va adabiyot maydoniga kirib kelgan Sadriddin Ayniy Behbudiga katta ixlos qo‘yib u bilan uchrashishni orzu qilib yurgan edi.

Zamonaning bu ikki dahosining birinchi uchrashuvi 1908 yilda sodir bo‘ldi. Bu haqda Ayniy kuyidagicha hikoya qaladi: “1908 yilda darsxon sheriklarimdan bo‘lg‘on Mirzo Abdulvohid bilan Buxorodan Samarqandda kelgan edik. Ushbu sayohatimizda mulla Abdulqodir Shakuriy, mullo Ismatullo Rahmatullozoda va bir qancha Samarqand ma’rifatparvarlari oqshom majlisi uchun bizni bir erga chaqirg‘on edilar. Mazkur majlis bo‘laturg‘on kun Mirzo Abdulvohid bilan birga yangi shaharga borayotganimizda chashma yo‘li bilan Abramov ko‘chasi orasida yosh bola bilan otg‘a mingashib kelayotgan mahobatli bir kimsaga uchrab, tanimasak ham, odob isloi iqtisosincha salom berdik. Bu odam g‘oyat iltifot bilan javob qaytarib, o‘tib ketdi”.

O‘sha odam ham majlisda qatnashgan bo‘lib,Mahmudxo‘ja Behbudiy ekanligini Ayniy bilib oladi. Behbudiy majlisningdiqqat markazida edi. U ko‘p muammolar to‘g‘risida gapirar edi. Ayniqsa, ilmiy muammolar ,eru osmon oyu yulduzlar haqida batafsil so‘z yuritardi. Xullas, men shungacha bu muammolar to‘g‘risida bilmagan edim, deb qayd etadi Ayniy.Abduqodir Shakuriy bilan Behbudiyning uyiga borganligi va ikkinchi so‘hbat bo‘lganini yodlab, domla Ayniy yozadi: “ikki soat chamasi so‘hbat qildik muzokara mavzui Turkiston va Buxoroning ilmiy va ijtimoyi ahvollaridan edi”.

Bu so‘hbatlar shundan dalolat beradiki,hazrat Behbudiyning diqqat e’tiborida ilmu fan, ijtimoiy vazifalar salmoqli o‘rnini egallardi. Qayd etmoq lozimki, Behbudiyning asos solgan “Oyina” jurnalida ilm-fan masalalari, ayniqsa tabiiy fanlar va tabiat hodisalarini izohlashga bag‘ishlangan qarib 100 ta maqola chop qilingan edi. Maqolalarning aksariyati Behbudiyning qalamiga mansubdir.

“Bundan so‘ngra har daf’a Samarqandga kelganimda,-eslaydi Ayniy,- mani o‘z uyiga chaqirar,ko‘p iltifot ko‘rsatar va muhabbatdan mamnun qilar edi.Behbudiy afandi bilan Buxoroda ikki qatla ko‘rishdim. Birinichi saraton oyi (yili xotiramda yo‘q) Qorako‘lga tuz bilan davolanish uchun borayotganida bir kunlik fursat bilan Buxoro shahriga kirgan edi.Fursatni boricha shaharni kezardim.Ayniyning naql etishicha ,hazrat Behbudiy din insonning bilimlarini rivojlantirishga xizmat qilishi zarurligini hamisha ta’kidlagan.

Hazrat Behbudiy dunyoviy ilmlarning o‘rganishini sobitqadamlik bilan targ‘ib qilgan allomalardandir. Shu bilan birga,u imoni komil, diniy e’tiqodi mustahkam, ammo mutaassiblik unga yot bo‘lgan inson edi.

O‘sha “Oyina” jurnalida 98 ta maqola diniy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, Behbudiyning o‘zi ham bu masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, Behbudiyning o‘zi ham bu masalalarga oid bir nechta maqola yozgan edi.

Ustod Ayniy Behbudiy hazratlari bilan keyingi muloqotlarini bunday hikoya qiladi: 1917 yil Buxorodan Samarqandga hijrat qilg‘animdan keyin bir yil muddat kasal edim. G‘urbat, xastalik, kimsasizlik vaqtlarimda marhum har vaqt meni yo‘qlab turdi.Ma’naviy og‘riqlarimni engillashtirishda sa’ylar qildi.

1918 yil muallimlik bilan shug‘ullangan zamonlarimda menim maktabimga ko‘p kelar , talabalarni tashviq etar edi. Muallimlar majlisidan va boshqa ilmiy majlislardan hech bir qolishmas edi”.

Bu borada Ayniy yozadi: “Behbudiy hazratlari ko‘rinishda g‘oyat mahobatli edi, Ahvolig‘a voqif bo‘lmag‘on kimsa (u kishini) mutakabbir deb gumon qilur edi.Lekin haqiqatda muloyim suhbatlik, takallufsiz bir odam edi. O‘z moli haqida bo‘lsin,xalq moli haqida bo‘lsin iqtisodga ko‘p rioya qilar va ijtimoiy ahvolimizning tuzilishi uchun iqtisodga rioya qilishni birinchi shartlardan (deb) bilar edi. Shuning uchun to‘y va azalarda bo‘laturg‘on isroflarni o‘zi butun tark qilg‘on va so‘ziga quloq solaturg‘onlarni ham tark qildirg‘on edi”.

Ayniy Behbudiy bilan bo‘lgan oxirgi muloqotini bunday xotirlaydi: “1919-yil fevralida (Behbudiy) Toshkentg‘a borib qaytdi. Maktab programmasi va Toshkentdagi ilmiy hollar bilan Samarqand muallimalarining tanishtirmoq uchun muallimlar majlisini chaqirishg‘a buyurdi. Lekin o‘z holatining xilofincha ushbu majlisda kelmadi. Shundan keyin ko‘chada ko‘rushub, mazkur majlisg‘a nima sababdan kelmag‘anini ikkinchi majlis uchun qaysi kun tayinlansa kela olishini so‘radim. “Hozir biroz xastaman, kayfim va fursatim bo‘lsa, xabar beraman” dedi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyo‘limidan oldin do‘stlari va shogirdlariga atab “Vasiyatnoma” yozadiki, hazratning hayotiy aqidasidan dalolat beradi.

“Vasiyatnoma” da, jumladan bunday deyilgan: “O‘rtoqlarim Sidiqqiy, Ayniy, Fitrat, Qurbiy va Akobir Maxdum va o‘g‘lonlarim Vadud Mahmud, Abduqodir Shakuriy sizlarga vasiyat qilaman.

Maorif yo‘lida ishlayturg‘on muallimalarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar! Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatingizlar! Bizdek maorif qurbonlarini yo‘qlangizlar! Bizlar ul-chog‘da qabrimizda tinch yotamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismatullo Rahmatullozoda. Avtobiografiya,Toshkent,1961 y.

2. Abdujabbor Rahmonzoda. Poznanie vremeni, Dushanbe,2020 y.
3. Sadriddin Ayniy. Kulliyot Dushanbe,2018 y.
4. No‘mon Maxmudov. To‘ronzaminning ikki dahosi, Samarqand,2022 y.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING ASOSCHISI

Amrilloyeva Mavjuda A’lamjonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid olimlarimizdan biri Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayot yo‘llari va jadidchilik harakatlarini uchun qo‘shgan hissalari haqida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, Hoji Muin, gazeta, darslik.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo‘lida jonini fido qilgan jadid bobolarimizning ilmiy-ma’rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun beqiyos ahamiyat kasb etishi, bu bebaho boylikni faol targ‘ib etish xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning bugungi tinch va erkin hayot qadrini anglab etishida muhim o‘rin egallashi bir necha bor ta’kidlab o‘tilgan. Xalqimiz har bir yoshlarga kelajak asoschilari sifatida qarar ekan, bu yo‘lda bizga buyuk tariximiz – ajdodlarimiz qoldirgan meroslari – asosiy dastur vazifasini bajaradi.

Buyuk ajdodlarimiz, jadidlarimizning qatoridan joy egallagan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik asoschisi sifatida tarixda iz qoldirgan. Uning bizga endi ma’lum bo‘layotgan hayot yo‘llari haqida 20-yillarda mahalliy matbuotlarda Behbudiyning zamondoshlari tomonidan e’lon qilingan maqola, xotiralarda namoyon bo‘la boshladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning zamondoshlari sifatida Sadriddin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizodalarni keltirishimiz mumkin. Lekin XX asrning 70-yillaridan bugungi kungacha e’lon qilingan ko‘pgina tadqiqotda Hoji Muinning ma’lumotlari asos qilib olinib kelinmoqda. Hoji Muin o‘zi 1922-1923-yillarda muharrirlik qilgan “mehnatkashlar tovushi” va “Zarafshon” gazetalarida Behbudiyning tarjimayi holini yoritgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilnng 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida diniy olim oilasida dunyoga kelgan. Behbudiyning otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan esa bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod hukmronlik qilgan davrda Samarqandga ko‘chib kelganligi aytiladi. Behbudiy juda kichik yoshidanoq tog‘alaridan din saboqlarini oladi va juda qisqa muddatda qorilik martabasiga erishadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy uylanib, 4 o‘g‘il va 1 nafar qiz farzand ko‘radi.

Sirojiddin Ahmedovning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, keyinroq Buxoro madrasalaridan birida tahsil olganligi aytiladi. U shariat qonunlarini puxta o‘zlashtiradi va mufti lavozimini egallaydi.

Behbudiy 1916-yilgacha muftilik faoliyati bilan shug‘ullanadi. Keyinchalik ma’rifatparvarlik ishlariga berilib, qozilikdan voz kechgan. 1893-yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy matbuot ma’lumotlari orqali zamon ahvoli, ijtimoiy va siyosiy voqealaridan xabardor bo‘la boshlagan.

1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji baqo bilan haj safariga chiqadi. Bu sayohat besamar ketmadi, Behbudiy Turkiston xalqlari turmushidagi qoloqlik, yomon holatdagi ijtimoiy ahvol, “jaholat uyi”ga aylana boshlayotgan maktab va madrasalar borasidagi qarashlarini umuman o‘zgartirb yubordi. Shu bilan bir qatorda, shu safar davomida Behbudiy Usmoniylar davlati va Misr ta’limi borasida bo‘layotgan islohot va o‘zgarishlarni ko‘zdan kechirib, shu islohotlarga etakchilik qilayotgan insonlar bilan suhbatda bo‘ldi. 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi, Rajabamin qishloqlarida yangi maktablar tashkil qilib, jadidchilik harakatlariga tamaltoshini qo‘ydi. Behbudiy faqatgina maktablar ochish bilan cheklanib qolmasdan, shu maktablar uchun “Risolayi jug‘rofiyayi umroniy” (1905), “Risolayi jug‘rofiyayi Rusiy” (1905), “Kitobatul atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) nomli kitob va darsliklar tuzadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy savodni alifbodan boshlagan jadidchilardan bo‘lib, Trukiston o‘lkasida birinchi bo‘lib aliffbo darsligini yaratdi va uni “Risolayi asbobi savod” deb nomladi, asar tojik tilida edi. Muallif alifboni bosmadan chiqarishdan oldin bir yil davomida Abduqodir Shakuriy maktabida tajribadan o‘tkazdi, alifboga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritib, 1905-yil Samarqanddan bosmadan chiqardi. Ushbu alifbo jadid maktablari uchun asosiy darslik sifatida bir necha marotaba nashr qilingan. Buxoro, Samarqand maktablarida bu alifbo darsligi 1920-yilgacha foydalanilgan. Behbudiy aliffbo darsligi oxirida hattoki yozuvga o‘rgatish maqsadida husnixatlardan namunalar ham bergan edi. Behbudiyning “Kitobat ul-aftol” kitobi ham muhim darsliklardan biri hisoblangan. Chunki kitobda o‘quvchilarni turli xil rasmiy, norasmiy, xususiy xatlar yozishga o‘rgatish, yozma nutqini o‘stirish masalalarining echimlari va turli mazmundagi xatlarning namunalari berilgan edi. Muallif kitobning muqaddimasida Turkistonning avvalgi maktablarida o‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini o‘stirish nochor ahvolda bo‘lganligi, bironta o‘quv qo‘llanma bo‘lmaganligi mana shu darslikni yozishga majbur qilganligini ta’kidlab o‘tgan. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, Mahmudxo‘ja Behbudiy Osiyo ijodkorlari orasida birinchi milliy dramatik asar yozgan ijodkor hisoblanadi. Eng mashhur dramatik asarlardan biri bo‘lmish “Padarkush” Behbudiyning ijod namunalaridan hisoblanadi. Ungacha mazkur hududda na turkiy, na forsiy tilda drama janrida bironta asar yaratilmagan edi. Biroq, “Padarkush” asari dunyo yuzini ko‘rishi oson kechmagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy keyinchalik Moskva, Peterburg, Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod kabi mamalakatlarda xizmat safarida bo‘ladi. 1913-yildan Behbudiyning “Samarqand” gazetasi o‘zbek va tojik tillarida haftada 2 marta chop etila boshlaydi,

biroq gazetaning 45-sonidan so‘ng moddiy tanqislik tufayli gazeta faoliyati to‘xtatiladi. Shu yilning 20-avgustidan esa uning “Oyina” jurnali chiqa boshlaydi. Behbudiyning “Oyina” jurnali Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqaladi. Mana shu jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borgan va shu bilan birga jurnalning birinchi sonidayoq “Ikki emas, to‘rt til lozim” deb ko‘p til o‘rganish kerakligini ta’kidllab o‘tgan. Behbudiy sog‘lig‘ida muammolar borligida qaramay, “Behbudiya kutubxonasi” uchun Istanbul, Misr, Qrim, Kavkaz, Qozon, Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlardan foydali ma’lumot va kitoblar olib keladi. Keyinchalik Behbudiy bu barcha sayohatlarining taassurotlarini jamlab “ Sayohat xotiralari” deya nomlab “Oyina” jurnalining bir necha sonlarida ketma-ket taqdim etgan. Bu “Sayohat xotirlari” ham ma’rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyatda muhim edi. Hattoki taniqli nemis olimasi Ingeborg Baldauf mazkur xotiralarning olmoncha tarjimasi munosabati bilan “Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda” nomli maqola nashr qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1906-yildan boshlab ijtimoiy-siyosiy ishlarga qiziqa boshlagan.1917-yilning 16-23-aprelda Vatan taqdiri o‘rtaga qo‘yilgan Toshkentdagi qurultoyda qatnashib, hayajonli nutq so‘zlagan edi. Behbudiy millatni o‘zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo‘lida birlashishga, ittifoq bo‘lishga chaqirdi. Biroq mustamlakachilar “50 yil ilm-ma’rifatdan chetda saqlab kelganlar” ni qo‘ldan boy bergisi kelmas edi va tinimsiz fitna va ig‘volar uyushtirar edi. Mana shunday fitnalardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz beradi va Behbudiy barcha tafsilotlarni “Buxoro voqealari va daf’i tuhmat” degan maqolani “Hurriyat” gazetasida chiqaradi.

Behbudiy juda ko‘p jadidlar qurgan ilk demokratik davlat-Turkiston muxtoriyatini saqlab qolish maqsadida Turkiston ahlini birlikka chorlaydi, biroq muxtoriyat bosib olinib, qo‘ldan boy beriladi. Behbudiy iztirob bilan mayning boshida Samarqandga qaytadi. U erda ham tura olmay, Toshkentga ketadi. Behbudiy 1919-yilning 25-martida Shahrisabzda qo‘lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi. Biroq, uning o‘limi haqidagi xabar bir yildan so‘ng Samarqandga ma’lum bo‘ladi. Turkiston motam tutib, ko‘plab ijodkorlar o‘nlab marsiya va she’rlar yozishadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning yorqin xotirasi uchun Qarshi shahri 1926-1937-yillarda Behbudiy nomi bilan yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova D., Rashidova D. MAhmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – Toshkent; Akademiya, 1999.
2. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri.- Toshkent; Sharq, 2005.

3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2 jildli/ Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi S.Ahmedov. - Toshkent: Akademnashr,2018.
4. Edvort Olvort. Birinchi o‘zbek dramasi. Ingliz tilidan Zulxumor Mirzayeva tarjimasi. Jahon adabiyoti, 2009-yil, 9-son.

JADIDLARNING O‘RTA OSIYODA MILLIY DRAMATURGİYA VA TEATR RIVOJLANISHIGA QO‘SHGAN XISSALARI

Do‘stov Bahodir Tashpo‘latovich
O‘zbekiston-Finlyandiya Pedagogika instituti Tarix kafedrasi assistenti

Anotatsiya: 20-asr boshida Jadidlarning 1911-yildan boshlab 1917 yilgacha teatr faoliyati tadqiq etilganligi, ular tomonidan yigirmadan ortiq spektakllar yaratganlarida jamiyatning turli hayotiy muammolarini aks ettirishgan. Maqolada drama va teatr jadidchilik g‘oyalarining Turkiston viloyati, Buxoro amirligi va Xiva xonligida asosiy dirijyorlari bo‘lganligini misol keltirilgan. Markaziy Osiyoda jadid adiblari ijodi milliy dramaturgiyada shaxsning shakllanishini ko'rsatadi va xalqning milliy o‘zligini anglashga hamda milliy madaniyatni insonlar qalbiga joy olishi uchun hizmat qilib kelganligi ifodalaydi.

Annotation: The author canvasses the theatrical activities of djadids in the perion of 1911-1917 when they gave life to more than twenty plays reflecting the vital problems of their society at the beginning of the XX-ieth century. The author is convinced that dramaturgy and theatre were the main conductors of the ideas of djadidism in Turkestan area, Bukhara emirate and Khiva khanate. The formation of national dramaturgy in Middle Asia is shown being designed on the premise of djadid men-of-letters` creation

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, XX asr boshlari, jadidchilik, jadidlar, drama, teatr

Key words: Middle Asia, the beginning of the XX-ieth century, djadidism, djadids, dramaturgy, theatre

Yigirmanchi asrning boshlari keyingi rivojlanish yo'llarini izlash bilan ajralib turdi. Markaziy Osiyodagi milliy teatr tomoshabinga ta'sir qilishning yangi vositalari, yangi qadimgi teatr bilmagan shakllar - aql, masxaroboz (hazillar), qo‘g‘irchoq teatri va xalq teatrining boshqa turlari ilg'or mahalliy halq orasida jadidlar (arabchadan - novatorlar) vakili bo'lgan ziyolilar uchun Milliy teatrning yangi turini yaratish harakat tug'ildi.. Teatr ijodi muhim ahamiyat kasb etdi, teatrning mazmuni va rolini yaxshi tushungan jadidlarning faoliyat sohasi,ilg‘or g‘oyalarni Turkiston viloyati, Buxoro amirligi va Xiva xonligi xalqlari o‘rtasida targ‘ib qilish minbari sifatida qaraladi. Dramaturgiya va jadidlarning teatrlashtirilgan tomoshalari O‘rta Osiyo xalqlari uchun adabiy-badiiy asarning mutlaqo yangi turini tanishtirishga erishildi. Jadidlar teatri ommani ayblovchi hikoyalar va ularga katta zavq bag'ishlashga oziqlantirgan muhim manba edi,. Ruslar, tatarlar va ozarbayjonlarning professional truppalari tez-tez kelib turardi, ular gastrol va sahna ko'rinishlari uyushtirishgan va bu jadidlarni teatrlar ochishi uchun va dramatik asarlar yaratilishida asos bulishi mumkin edi. Jadidlar hammasini tushungan holda ularning chaqiriq va shiorlari xalq mulkiga aylanmasligi yoki qabul qilinmaslik mumkinligi asosida odamlarning ongini o‘zgartiradi deb

hisoblashdi. O'z qarashlari va g'oyalarini targ'ib qilish uchun ularga eng zo'r g‘oya topildi, bunday samarali echim - milliy teatr yaratish edi. Yuqorini anglagan jadidlar xalqni axloqiy-estetik tarbiyalashda teatrning vazifasi muhimligi ifodalangan. Markaziy Osiyoda teatr estetikasi himoyachilari ular tomonidan turli shakllarda yaratilgan. O‘rta Osiyo shaharlarida teatrlar o‘z faoliyatini targ‘ib qilishning kuchli ommaviy mafkura vositasiga aylandi. Savodxonlik darajasi past bo'lgan sharoitda aktyorlik jadidchilik mafkurasini xalq ongiga olib kirishga imkon berdi. O‘rta Osiyoda jadidlari etakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy teatrning xalq mavkurasiga ta’sirini anglab etgan holda 1911-yilda xalq teatrida “Padarkush” (“Padarkush”) pyesasini tojik tilidan o'zgartirib yozgan edi va 1912 yilda Buxoroning "Turon" gazetasida o'zbek tilida chop etgan. 1913-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z pyesasini Samarqand nashriyotida kitob shaklida alohida nashr qilishga muvaffaq bo‘ldi. Bu dramada jadid yozuvchisi jaholat sababi degan fikrni badiiy shaklda ifodalashga,madaniyatsizlik va ma'rifatsizlik jamiyatdagi barcha muammolarning aynan ilm-fanga befarq munosabatda bo‘lishidir deb hisobladi. Teatr rivojiga asos solgan “Padarko‘sh” spektakli Markaziy Osiyo milliy dramaturgiyasi jadid teatri tadqiqotchisi Shuhrat Rizaev buni tarbiyaviy va siyosiy hodisa sifatida, Jadidlarning feodallarga qarshi intilishlari va maqsadlari amalga oshdi deb izohlaydi. Asarda Evropa tipidagi milliy teatr tug'ildi va rivojlandi va hatto Farg‘ona ziyolilarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari natijasida milliy jamiyati vujudga keldi. (6) 1913 yil oxirida jadidchilik jurnali “Oyina” e’loniga ko‘ra “Padarko‘sh” spektakli ilk bor 1914-yil 15-yanvarda Samarqand shahar "Qiroathonai islomiya" kutubxonasida zalda sahnaga qo‘yilgan. Mahalliy miqyosda birinchi marta sahnalashtirilgan spektaklning rejissyori Ozarbayjonlik Aliasqar Asqarov edi. Garchi bu spektakl professional bo'lmagan rassomlar tomonidan o'ynalgan bo'lsa-da, uning muvaffaqiyati barcha uchun kutganlardan oshib ketdi. 1914 yilda "Oyina" Jurnalning 14-sonida bosilgan “Turkistonda birinchi milliy teatr” spektaklini yaratishga bag'ishlanganligi va "Padarkush" spektaklning kishilar ongiga alohida ta’siri ta’kidlandi. Sharhlovchi g'urur bilan shunday yozgan edi: “Erta tongdan minglab odamlar binoga bostirib kirishdi Spektakl bo'ldi, lekin chiptalar yo'q edi. Ular uchta rublt o'lashga rozi bo'lishdi, tik turgan holda tomosha qiling, lekin joy yo'q edi...» (11, 227). “Padarko‘sh” dramasi jadidlar yozuvchilik mahoratining cho‘qqisidir. Adolat asoschi deb atalgan Mahmudho‘ja Behbudiy Markaziy Osiyo xalqlari dramaturgiyasining birinchi qaldirg'ochi bo'lib qoldi. U Jadidlar teatr faoliyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. va ayniqsa, adabiy yoshlarga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. “Men o'zim qanday bo'lganini sezmadim “Padarkush” pyesasidan ilhomlanib “Baxtsizlar” sahna asarini yozgan kuyov”, deb ta’kidlagan Abdulla Qodiriy o‘z tarjimai holida. "Padarkush" spektaklida M.Behbudiy keyinchalik ko‘plab mahalliy dramaturglardan ta’lim oldi va uning ta’sirida 1914-yildan to

1917-yilgacha jadidchilikning 20 ga yaqin dramatik asari paydo bo‘ldi. Jadidlar Nusratulloning “Tuy” (“To‘y”) kabi pyesalarini yozdilar, Qudratulla va Xoja Muin Shukrullo (1914), “Javonmarg” (“Erta o‘lim”) va "Axmak" ("Ahmoq") Abdullo Badri (1914), "Domodi badbaxt" ("Baxtsiz kuyov")1913 yilda Abdullo Avloniy tashabbusi bilan Munavvar-qori va Tavallo Toshkentda O‘rta Osiyodagi birinchi “Turon” teatr truppasi tashkil topdi.U 25 kishidan iborat edi. Bulardan xalq orasida eng mashhuri G‘ulom Zafariy va Shokirjon Rahimiylar edi. Keyinchalik ularga Mannon Uyg'ur va “Xurshed” taxallusi bilan o‘ynagan Shamsiddin SHarofiddinov qo'shiladi. Bu musulmon dramatik san'at ixlosmandlari jamiyati tashkil etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan xalq uchun spektakl va tomoshalar teatr san’atini targ‘ib qilishga olib keldi. 1914-yil 27-fevralda Toshkentda Kolizey teatri binosida birinchi milliy teatrning rasmiy ochilishi tantanali marosim bo‘lib o‘tdi,. Teatr pardasini ochishda Munavvar-Qori Abdurashidxonov: “Hali ham shunday emasligini hammamiz bilamiz ona tilida teatr yuq edi. "Teatr" so'zi aslida joylashgan xonani anglatadi ular "hayot darsi", ta'lim yoki "buyuklar maktabi" ni taqdim etadilar. Teatr sahnasi ham xuddi shunday oyna xonasiga, bu erda unga kirgan har bir kishining ijobiy va salbiy tomonlarini, bu erda hamma ularni afzalliklari va kamchiliklarini ko‘radi va ulardan tegishli saboqlar oladi" deb ta`kidladi.

“Turon” truppasi yordamida “Padarko‘sh” spektakli va boshqa sahna ko‘rinishlari O‘rta Osiyoning ko‘plab shaharlarida spektakllar namoyish etildi va odamlar orasida doimiy muvaffaqiyat zavq oldi . M.Behbudiy roziligi bilan “Padarko‘sh” spektakli ham 1914-yil 5-martda Buxoroning “Tojikiston” saroyida tatarlar tomonidan sahnalashtirilgan. Husayn Najib boshchiligida ijod qilingan va buxoriylar orasida katta muvaffaqiyatga erishgan. Eslatib o‘tamiz, ushbu spektakl Xo‘jand shahrida katta muvaffaqiyat bilan o‘tdi.U1915 yil 4 yanvarda namoyish etilgan. Bu haqda “Oyina” jurnali yozuvida Tojikistonlik Said Boboxon Ahroriy “Xujanddagi teatr” hududdagi zamonaviy jadid maktablarining kashfiyotidir degan. (7, 206). Mashhur sharqshunos olim A.N. Samoylovich spektaklni 1916-yilda Toshkent kolizeyida tomosha qilgan .A. Avloniy truppasi ijro etgan “Padarkush” voqea joyidan odamlarning kuchli taassurotlari haqida yozgan edi. (8, 81-82). “Turon” teatri repertuari doimiy ravishda o'ziga xos va boyitib borildi, tarjima asarlari, aktyorlarning ijodiy salohiyati oshdi. Jadid truppasi 1915-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Zaharlangan umr”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Abdulla Avloniyning “Orzu” spektakllarini sahnalashtirdi. Truppaning Farg‘onadagi gastrol safari mahalliy matbuot sahifalarda yoritildi. 1915-yilda teatr “Turkiston” deb nomlana boshladi va gastrollarda viloyat shaharlarida yurdi. Jadid teatrining olti yillik faoliyati davomida turli hayotiy muammolarni aks ettirgan 25 ga yaqin spektakllar nomoyish etilgandi. Jadidlarning teatrlashtirilgan tomoshalari reaktsion doiralarda ayniqsa g'azablangan ruhoniylar va rassomlar orasida shov-

shuvga sabab bo‘ldi, tomoshabinlar ham tez-tez tamg'alangan sharmandali so'z "makruh"yani jirkanch, nopok tushunchalarni ishlata boshlashgan edi. Mahalliy rahbarlar ham teatrlashtirilgan tomoshalarga nafrat bilan qarashdi. Muomala hazil-mutoyibalarning o'yin-kulgilari sahnada masharabozning harakat qilishi esa uyatli narsa hisoblangan. Ular hazil-mutoyibalarning bazmi masxarabozovlar edi va sahnada harakat qilish uyatli narsa hisoblanardi. Jadid teatri taraqqiyotida ham ijobiy o‘zgarishlar, ham teatr-dekorativ san’at sohasidagi kamchiliklar ham mavjud edi. Har doim truppada ishlaydigan dekorativ rassom bo'lmagan. To'plamlar asosan truppa a'zolari tomonidan qurilgan. Teatr resurslarida joylashgan bir yoki ikkita mavhum fon taxminan qandaydir tarzda yog'ochdan yasalgan mashina, ottoman, stol, bir nechta stul, idish-tovoq va boshqalar rekvizitlar deyarli barcha spektakllarda bo'lgan va tomoshabinlar ularni yoddan bilishgan. Jadid teatri tomoshabinlardan uzoqda joylashgan sahnada spektakllarni namoyish etgan. Dekoratsiya, liboslar, idishlar maxsus tayyorlangan (2).Tabiiyki, jadid teatr truppalari havaskorlik asosida yaratilgan va muntazam xarakterga ega emas edi. Biroq jadidlarning sahnaga ishtiyoqi san’at teatr va dramaturgiyaning ahamiyati va o'sha davrning ijtimoiy hayoti katta ahamiyatidan dalolat beradi. Jadidlar teatrni g'oyaviy kurashning o'tkir quroli sifatida darhol ruhiy baholadilar va ma'rifat teatri foydaliligini isbotlovchi davriy nashrlarda maqolalar muntazam nashr etilgan. E'tibor bering, jadidlarning “Oyina” jurnali Behbudiyning “Padarkush” pyesasi spektaklini doimiy ravishda jami 15 marta Samarqand, Buxoro, Qo‘qon, Toshkent, Kattaqo‘rg‘on va Xo‘jandda sahnalashtirilib kelgan. “Samarqanddagi teatr”, “Turkistondagi birinchi milliy teatr”,“Samarqanddagi Milliy teatr”, “Buxorodagi Milliy teatr”, “Teatr Xo‘jand» va boshqalar xalq uchun xizmat qilib kelishgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ular imzosiz "Tamoshobin", "Milliy" va boshqalar taxalluslar ostida edi. Birinchi teatrlar faqat yirik shaharlarda mavjud bo'lishi mumkin edi, lekin teatrni ommalashtirish uchun ko'chma teatr truppalari eng qulay vosita bo'lib chiqdi. “Oyina” jurnalida ham mualliflik huquqi, mualliflik huquqlari muammosi ko‘tarilgan. Tashkilotning o'zi ham yangi pyesalar nashr etilishini tezlashtirishi muhim edi.Ishlab chiqarish, dekoratsiya narxidan reklama tarqatuvchining to'lovigacha -plakatlar, xarajatlar va daromadlar statistikasini yuritish va xayriya ishlari bo'yicha hisobot olib borildi. Jurnal muharrirlari ushbu materiallarni qiziqqan har bir kishiga taqdim etdi. Teatr – ta’lim maskani, ta’lim maydoni.Teatr - bu adabiy ta'lim. Teatr - bu jamiyatning ahvoli shunday yo'naltirilgan va aks ettirilgan ko'zgudirki, hatto ko'r va karlar ham idrok etadi va befarq qolmaydi. Teatr hamma narsani kuylashga qodir go'zallik va jirkanch, zararli, vahshiy narsalarni fosh qilish qobiliyati.Fojia, komediya va drama kabi teatr turlari odamlarga ta'sir qiladi. Buyuk xalq donoligi "Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal". Bir so‘z bilan aytganda, aktyor hazil-mutoyiba ijrochi emas, balki odob-axloq o‘qituvchisi. Teatr kuchi savodsiz odam ham unda

o‘qishi mumkinligidadir” (3). Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sahna aholisi o'rtasida jadidlarning turli xayriya jamiyatlari san'at – teatr targ'ibot ishlari olib borishga ham jalb qilingan. Shunday qilib teatrlashtirilgan ishlab chiqarish jamiyat a’zolarining sa’y-harakatlari bilan 1909 yilda Toshkentda Ramazon bayramida jadidlar tomonidan “Jamiyati xayriya” (“Xayriya jamiyati”) amalga oshirilgan. Bu ishlash nafaqat moddiy foyda berdi, balki jiddiy ruhiy natijalarni ham keltirib chiqardi. Munavvar-Qori Abdurashidxonov ta'kidlaganidek: “Hammaga ayon bo'ldiki, bu o'yin-kulgilar faqatgina ruslar, armanlar, yahudiylar uchun mavjud bo‘lib qolmasdan balki, musulmonlar uchun ham mavjud va ular ham buni qila oladilar" (4)

Xulosa

Shunday qilib, Markaziy Osiyoda jadidlar faoliyatining dramaturgiya rivojida muhim alohida o‘rin tutgan sohasi milliy teatr targ'ibot edi. Bu erda ruslar ta’sirida Tatar va Ozarbayjon teatrlari qatorida jadid teatri shakllana boshladi. Jadidlarning 1911 yildan 1917 yilgacha etti yillik davrida teatr mavjudligini va Jadidlar yigirmadan ortiq teatr sahna asarlarini yaratilganligini va ularda jumladan turli xil hayotiy muammolarni aks ettirganligini ko‘rishimiz mumkin. XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi, Xiva xonligida drama va teatr g‘oyalarining asosiy targ‘ibotchilari jadidchilik bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Allworth E. Markaziy Osiyo. Rus hukmronligining bir asrligi.-Nyuyork-London: Kolumbiya Universaty Press, 1967 yil.
2. Qodirova D. Ssenografiya san’ati: tarix va zamonaviylik //http://www.sanat.orexca.com/rus/archive/3-4-06/scenography.shtml
3. Ma‘mudho‘ja (Behbudi). Nadur teatri? // Oyina.- 1914.- No 29.- B. 550.
4. Munavvar Nori. Kamiyati musalmoni Toshkand // Samarqand.- 1913.- No 37.- 20 avgust.
5. Oyina.- 1914.- No 21.- B. 299 (399).
6. Rizaev Sh. Jadid dramaturgiyasining kelib chiqishi va shakllanishi // http://mytashkent.uz/2010/08/28/vozniknovenie-dzhadidizma-kak-pervoosnovyi-natsionalnoyidei-chast-2/#more-14952
7. Boboxon-tura (Ahrori). Teatr dar Khuiand (axbor) // Oyina.- 1915.- 8-son. (60).- 206-b.
8. Samoylovich A. Sartlar dramatik adabiyoti // Imperator xabarnomasi. Sharqshunoslik jamiyati - 1916. - No 5. - B. 72-84.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY FAOLIYATIDA TA’LIM VA SAVOD MASALASI

Ergashev Suxrob Muxiddinovich
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqotmarkazi ilmiy xodimi.
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
suxrob-muxiddinovich@mail.ru, tel:+998933588799

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning zamonaviy ta’lim tizimini tashkil etishdagi xizmati, savod masalasiga munosabati yoritilgan. XX asr boshlarida maorif, maktab, ta’lim-tarbiya va ozodlik mavzusi ilmiy tahlillarga asoslangan holda bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, maorif, dunyoviy ilm, madaniy hayot, kutubxona, teatr, jadidchilik, uy-muzey, ozodlik, maktab, ibratxona, milliy fojea.

Turkiston tarixining XIX asr oxiri–XX asr boshlarini tom ma‘noda milliy o‘yg‘onish va ilm-fan sohasida islohotlar davri sifatida baholash mumkin. Bu yutuqlarga erishishda jadid taraqqiyparvarlarning xizmati katta bo‘lgan. Ular orasida maktab-maorif tizimini isloh qilish yo‘lida o‘z hissasini qo‘shgan ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy alohida e’tirofga ega.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan [1. B.6]. U dastlabki bilimlarini Samarqandda olib, arab tili grammatikasini kichik tog‘asi Mulla Odildan o‘rgangan. Buxoro madrasalarida tahsil olib yurgan paytlarida dastlab onasi (1893-y.), so‘ng otasi (1894-y.) vafot etgach, moddiy qiyinchiliklar sabab o‘qishni nihoyasiga etkaza olmagan [6]. Samarqandga qaytib, Muhammad Siddiq qozixonasida mirzalik qilgan. Tez orada qozi, keyin muftiy darajasiga ko’tarilgan.

Ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlarida vatan va xalq taqdiri masalasi muhim o‘rin tutgan. U “Ehtiyoji millat” maqolasida: “Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur”–deb bong urgan [2.B.199]. Behbudiy Turkiston xalqini ortiqcha chiqimli to‘y va maraka uchun xarajatni farzandlari o‘qishiga, madrasa va maktablarni ta’mir qilishga, talabalarni xorijga yuborish uchun sarflashga chaqirgan. U: “To‘yu marakag‘a sarf qilinaturg‘on oqchani eski madrasa va mozoru masjid hamda maktablarni shikast-rextlarig‘a sarf qilinsin. To‘y va maraka oqchasidan bolalarni hukumat maktablariga berilsun va bu oqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istambulg‘a va Rossiya dorilfunun va dorulsanoatlarig‘a yuborilib diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar etishdurmoqg‘a sa’y qilinsun…”-deb yoshlarni ta’lim va savod olishga da’vat etgan.

Jadid taraqqiyparvarlari mavjud vaziyatga nazar tashlab, jamiyatning barcha salbiy holatini milliy davlatchilikda yo‘l qo‘yilgan xatoliklardan kelib chiqqanini

asoslab berishgan. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy: „xonliklar 50 yil ilgari dunyodan ajralgan holda bo‘lib, dunyo erishgan yutuqlardan foydalana olmaganlar va bu milliy davlatchilikni yo‘qotilishi hamda mustamlakachilik asoratiga tushib qolishining sabablaridan biri bo’ldi. Bu esa Turkiston xalqlarini Yevropa qonunlari asosida yashashga majbur qildi. Lekin ular mazkur qonunlarni bilmaydilar. Huquqlarni bilish, ularni himoya qila olish uchun bilimga ega bo‘lish lozim”–deb ta’kidlagan [3. B.80]. Ammo Turkiston tarix silsilasida ilm-fan taraqqiy etganini: “Aqliy va fanniy ilmlarg‘a kitob tasnif qilgan musulmon ulamo va hukamolari nihoyat ko‘pdir. Inchunin, Turkiston muzofotig‘a o‘sib shar’iy va aqliy ilmlarg‘a kitob tasnif qilgan nihoyat mashhur ulamolarning adadi necha yuzdan o‘tadur”-deb e’tirof etadi [2.B.227].

Mahmudxo‘ja Behbudiy tarix, geografiya fanlari dunyo odamlarining din va mazhabi, tiriklik va raftori, taraqqiyoti, tanazzul sababi, yaxshi va yamonliklari, mamlakatlarni tinch va osoyish yo zulm va javrga turganini o‘rgatishini ta’kidlaydi. Muallif tarix va geografiya ilmlari butun dunyo ahvoli, podsholar kuch-qudrati, xalqlarning urf-odati va er yuzining ahvolini o‘rgatadigan ilm deb xulosa bergan [2.B.228-229]. Shuningdek, dunyoning yirik shaharlarining ta’lim muassasalarida geografiya fanini o‘qitish odatga aylanganligini yozgan. O‘z fikrini Istanbul, Misr, Arabiston, Hindiston va Rossiya xalqlari geografiya darsini o‘qishni lozim topishgan, deb asoslaydi. Masalan: “Rossiya maktablarida o‘qigan bolalarimiz erning yumaloq va muallaqligi, atrofida Ko‘hi Qof yo‘q, ho‘kiz, balig‘ yo‘qligini o‘qiydilar… xulosa Sharqdan borib G‘arbdan Peterburgga kelib, 40 kundan kam muddatda erni bir aylanmoq mumkin. Xarita-globus va o‘qigan ilmlari yuzasidan ularga ushbu safar nihoyat ma’lum vas obit bo‘ladi”–deb ma’lumot keltirgan[2.B.231-232].

1908-yil Mahmudxo‘ja Behbudiy tashabbusi bilan Samarqandda tashkil etilgan “Qiroatxonayi Behbudiya” (keyinchalik “Behbudiya”) kutubxonasi ikki navbatda – soat 9 dan 17 gacha va soat 18 dan 24 gacha kitobxonlarga xizmat ko‘rsatgan. Alloma “Samarqand kutubxona islomiyasi” maqolasida kutubxonada 600 ta kitob va risola, gazeta va jurnal esa undan ham ko‘p bo‘lganini yozadi [6]. Bu ishi bilan ma’rifatparvarlik xislatini namoyon etib, kelajak avlodni zamonaviy bilim olishga yo‘naltirgan.

Taraqqiyparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy zamonaviy maktab–ta’lim-tarbiya muassasasi yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan. Masalan: “maktab, do‘kon, korxona, madrasa va barcha narsalar uchun zamonaviy islohot lozim. Hamma narsa qo‘ldan ketsa, bizda mardikorlikdan boshqa hech narsa qolmaydi. Bir uskuna, do‘kon va saroyni ishlatish uchun zamonaviy va zamona shumligini bilmoq lozim. Bizdan dunyo ilmini yaxshi biladiganlarga mulk va

asboblarimiz o‘tar va o‘tib turibdi” -deb barchani zamona ta’limini olishga chaqirgan [2.B.201].

Jadidchilik harakati rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiy teatr inson tafakkurini yuksaltirishda xizmat qilishini nazarga tutib: “Teatr–bu ibratxonadir” degan. Darhaqiqat, teatr tomoshasi yoshlar qalbiga Vatanni sevish, ota-onaga hurmat, oila va do‘stlikni qadrlash, ezgu ish va amalga chorlash, o‘z kasbiga fidoiylik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy nazariy ilmni amaliy-sahna namoyishi bilan insonga hayotiy saboq berishini mohirona asoslagan. Ushbu yo‘nalishda o’zbek adabiyoti va san’atidagi ilk sahna asari–“Padarkush” dramasini 1911-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy yozgan [4. C-24]. Muallif bu asar janrini “milliy fojia” deb atagan. Rossiya imperiyasining senzurasi asarni nashr qilishga yo‘l qo‘ymagan. «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining 100 yillik yubileyi sanasiga bag‘ishlanadi» degan vaj bilan Tiflis (Tbilisi) syenzurasidan o‘tkazadi [7]. 1914-yil 27-fevral “Padarkush” asarini Abdulla Avloniyning “Turon” truppasi Toshkent Kolizeyi (hozirgi Savdo birjasi)da sahnalashtirgan [20.B.12]. 1914-1916-yillarda “Turon” truppasi bu sahna asari bilan butun Farg‘ona vodiysini aylanib chiqgan. “Padarkush”– o‘zbek dramachiligining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi milliy tarbiyaviy sahna asari hisoblanadi. Asarda bolaning ilmsizligi tufayli yomon yo‘lga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani hikoya qilinadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ushbu asr orqali kurtak yozgan nodonlik va jaholat oldi olinmas ekan, millat-xalq ahvoli xarob bo‘lishiga shama qilgan.

Jadid namoyandalari qatori Mahmudxo‘ja Behbudiy maktabda ta’lim berish bilan birga matbuotchilik yo‘nalishida ham ijod etgan. U “Nashriyoti Behbudiya” nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini ochgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913 yil aprel oyida “Samarqand” gazetasi va avgust oyida “Oyina” jurnaliga asos solgan [2.B.13]. “Samarqand” gazetasi o‘zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etilgan. 1913-yil 17-sentabrda gazetaning 45-soni chiqqach, moddiy tanqislik tufayli nashr to‘xtagan. O‘zbek tilidagi suratli haftalik “Oyina” jurnalida she’r, millat haq-huquqlari, tarixi, til-adabiyot masalasiga oid maqola, bahs va ruscha e’lonlar ham berib kelingan. Mahmudxo‘ja Behbudiy ziyolilardan Abdurauf Fitrat, Siddiqiy, Hoji Muin, Akobir Shomansur, Muhammad Said, Saidrizo Alizoda, Saidahmad Vasliy, Tavallo, Sadriddin Ayniy, Hakim Buxoriy, Niyoziy Rajabzodaning maqolalari va she’rlarini “Oyina” sahifalarida chop etib boradi. Nashr yosh qalamkash, bo‘lg‘usi adib va ma’rifatparvarlar uchun tajriba maydoni vazifasini o‘tagan [6].

XX asr 90-yillaridan boshlab madaniy merosimizga xolisona yondashish natijasida Mahmudxo‘ja Behbudiy hayot-faoliyati, ilmiy merosini o‘rganish va uning xotirasini abadiylashtirish hamda keng jamoatchilikka targ‘ib etish imkoni tug‘ildi. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy

Majlisga qilgan Murojaatnomasida milliy etakchimiz “...2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma’rifat mash’alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi”, deya ta’kidlagani buyuk allomaning davlatimiz oldidagi tengsiz xizmatlari e’tirofidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-sonli qarori asosida 2021-yilning 18-oktyabr tashkil qilingan “Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi” bobomizning ijodiy faoliyatini ilmiy o‘rganish va uning qoldirgan boy ilmiy merosini keng targ‘ib etishda alohida ahamiyat kasb etadi. [5]. Samarqand shahrining Mir Said Baraka ko‘chasi 47-uyida joylashgan ushbu uy-muzeyga tashrif buyurgan shaxs taraqqiyparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning mashhur ma’rifatparvar, dramaturg va noshirlik xislatlari sohibi ekaniga guvoh bo‘ladi. Taraqqiyparvar bobolarimizning ilmiy merosini o‘rganish asnosida tariximizning noma’lum qirralarini taqqoslash orqali inson, uning huquq va erkinligi oily qadriyat ekanini his etadi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Mahmudxo‘ja Behbudiy mavjud og‘ir va murakkab siyosiy qarama-qarshiliklardan qutilishning yagona yo‘li ilm-ma’rifat ekanini asoslab bergan. Turkistonda yoshlarning ta’lim va savod olishga da’vat etgan ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘sib ulg‘ayayotgan avlodga ona vataniga daxldorlik ruhini shakllantirishda o‘z hissasini qo‘shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Д.А.Алимова, Д.А.Рашидова, Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. –Т. “Академия” 1999.
2. Бегали Қосимов. Маҳмудхўжа Беҳбудий, танланган асарлар. Т. “Маънавият” 1999. -Б.6-7
3. Рустам Шарипов. Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. –Т. “Ўқитувчи” 2002. -В.80
4. Махмуд ходжа Бегбуди. Наука и просвещение. Ежемесячный журнал Народного комиссариата апросвещения Туркреспублики №1. – Ташкент:1922 г. С-24;
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. *„LexUZ / Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги қошидаги “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази давлат муассасаси“ (Ўзбекча(кирил)) (2021-yil 13-aprel). Qaraldi: 2022-yil 13-aprel*

6. https://uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/mahmudxuja-behbudiy
7. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/hoji-muin-mahmudxoja-behbudiy-vasiyatnomasi-haqida.html Бегали Қосимов. Маҳмудхўжа Беҳбудий.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TA’LIM ISLOHOTLARI: O‘ZBEK MAORIFIDA YANGI DAVR

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna,
Samarqand viloyat Pedagogik mahorat markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim taxnologiyalar” kafedrasi mudiri, p.f.d.(DSc),dotsent,

Utanov Utkir Qurbonovich
Samarqand viloyat Pedagogik mahorat markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim taxnologiyalar” kafedrasi, dotsenti, p.f.f.d.(PhD).

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim islohotlari va O‘zbek maorifi tarixida amalga oshirgan yangiliklari yoritilgan. Maqolada Behbudiyning diniy va dunyoviy bilimlarning uyg‘unligi, o‘zbek tilida ta’lim berish, bosma nashrlar orqali ta’lim tarqatish hamda milliy o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar yaratishdagi roli haqida fikrlar bildirilgan.

Tayanch tushunchalar: Diniy va dunyoviy bilimlarning uyg‘unligi, o‘zbek tilida ta’lim berish, bosma nashr va ta’lim tarqatish, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar, usuli jadid maktablari, milliy o‘zlik va ma’naviyat, zamonaviy ta’lim, savodxonlik, milliy ma’rifat.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning nomi O‘zbekistonda milliy ma’naviyat va ma’rifat rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk jadid mutafakkiri sifatida yodga olinadi. Uning ta’lim sohasidagi islohotlari nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan va milliy ma’rifatning yangicha rivojlanishiga yo‘l ochgan.

Behbudiyning asosiy g‘oyalaridan biri maktablar va ta’lim jarayonini yangilash, ya’ni eskicha maktablar o‘rniga yangi usulda ta’lim beruvchi maktablar — usuli jadid maktablarini tashkil etish edi. U o‘sha vaqtda keng tarqalgan eski maktablar (madrasalar)da faqat diniy bilimlar berilganidan, dunyoviy fanlar esa deyarli o‘rgatilmaganidan norozi edi. Bu tizim zamonaviy jamiyat talablariga javob bermas, va natijada Behbudiy unga qarshi o‘z qarashlarini shakllantirib, xalqning yangi bilimlarni egallashi uchun zamonaviy ta’limni joriy etishni muhim deb bildi.

Behbudiy yangi usulda ta’lim berish uchun quyidagi yo‘nalishlarni belgiladi:

1.Diniy va dunyoviy bilimlarning uyg‘unligi: Yangi maktablarda nafaqat diniy ta’lim, balki matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik va boshqa fanlarni ham o‘rgatish zarurligi ta’kidlangan. U zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo‘lish uchun jamiyatning har bir a’zosi har tomonlama bilimli bo‘lishi kerak, deb hisoblagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta'lim islohotlaridagi eng muhim jihatlardan biri diniy va dunyoviy bilimlarning uyg‘unligini ta'minlash edi. U davrida ko‘pchilik maktablar va madrasalarda faqat diniy bilimlar berilar, ammo dunyoviy fanlarga

e'tibor etarli emas edi. Behbudiy esa xalqning bilim saviyasini ko‘tarish, zamonaviy hayot talablariga moslashuvini ta'minlash uchun diniy bilimlarni dunyoviy fanlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini tushungan.

Uning qarashlariga ko‘ra, diniy bilimlar insonning ma'naviy tarbiyasini shakllantirsa, dunyoviy bilimlar esa jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan ilm-fan, texnologiya, iqtisod va boshqa sohalarda rivojlanish imkonini beradi. Behbudiy yangi usul maktablarida matematika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlarni ham o‘qitishni taklif qildi. Shu bilan birga, u diniy bilimlarni ham saqlab qolib, ularning inson ma'naviy rivojlanishidagi o‘rnini yuksak baholagan.

Ushbu yondashuv orqali Behbudiy zamonaviy ta'lim va diniy e'tiqod bir-birini inkor qilmasligi, aksincha, ular bir-birini to‘ldirishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu uyg‘unlik jamiyat a’zolarining ma’naviy boyligini saqlab qolish bilan birga, ularni zamon bilan hamnafas bo‘lishga undadi.

2. O‘zbek tilida ta’lim berish: Behbudiy o‘z ona tilida ta’lim berishni milliy o‘zlikni anglashning muhim omili deb bilgan. Uning fikricha, milliy ta’limni ona tilda olib borish yosh avlodni ma’naviy va madaniy jihatdan boyitadi, ularning zamonaviy dunyo qarashlarini shakllantiradi.

U millatning rivojlanishi va madaniy o‘zligini saqlab qolishda ona tilining o‘rni katta ekanligini chuqur tushungan.

O‘sha davrda ta'lim asosan arab va fors tillarida olib borilar, bu esa ko‘plab o‘zbek xalqi vakillarining ta’lim olishini qiyinlashtirar edi. Behbudiy xalqning keng qatlamlariga ta’lim berish uchun ona tilida ta’lim olish imkoniyatini yaratishni zarur deb bildi. U o‘zbek tilida darsliklar yaratib, yangi usul maktablarida ona tilida dars berish muhimligini ilgari surdi.

Behbudiy o‘zbek tilida ta’lim olib borish orqali xalqning milliy o‘zligini mustahkamlash, til va madaniyatni asrab qolish bilan birga, yosh avlodning zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishiga zamin yaratdi. U ona tilining ta’limdagi roli orqali millatning ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlanishini ta’minlashni maqsad qildi. O‘zbek tilida ta’limning joriy etilishi xalqning savodxonligini oshirib, milliy ma’naviyatning yanada yuksalishiga olib keldi.

Behbudiyning bu qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan va ona tilida ta’lim berish O‘zbekistonda milliy ta’lim tizimining asosi sifatida saqlanib kelmoqda.

3. Bosma nashr va ta’lim tarqatish: Behbudiy o‘z islohotlarini keng jamoatchilikka etkazish maqsadida ko‘plab gazeta va jurnallarni tashkil qildi. 1913-yilda u tomonidan ta’sis etilgan “Oyna” jurnali orqali zamonaviy ta’limning ahamiyati, millatning yuksalishidagi o‘rni va xalqning dunyoqarashini kengaytirish bo‘yicha maqolalar nashr etildi. Bu nashrlar aholining o‘z bilimini oshirishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim islohotlarida bosma nashr va ta’limni keng tarqatish muhim o‘rin tutgan. U zamonaviy bilimlarni ommaga etkazish va o‘z qarashlarini targ‘ib qilishda nashrlarning kuchini yaxshi anglab etgan mutafakkir edi. Behbudiy o‘zining ma’rifatchilik faoliyatida gazeta va jurnallarni ta’lim va ma’rifat tarqatish vositasi sifatida faol qo‘lladi.

1913-yilda Behbudiy tomonidan ta’sis etilgan “Oyna” jurnali Turkiston o‘lkasidagi birinchi ma’rifiy nashrlardan biri bo‘lib, bu nashr orqali u yangi usul maktablarining ahamiyati, milliy ta’limni rivojlantirish masalalari hamda madaniy yuksalish haqida maqolalar chop etdi. Behbudiy “Oyna” jurnalida o‘z davrining dolzarb muammolarini ko‘tarib chiqdi va ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor qaratdi.

Uning bu bosma nashrlari o‘sha davrning o‘ziga xos ma’rifiy asarlari bo‘lib, xalqning dunyoqarashini kengaytirishga, bilimli va madaniyatli jamiyatni shakllantirishga xizmat qildi. Behbudiy nashrlar orqali milliy uyg‘onish g‘oyalarini keng ommaga tarqatdi, xalqni zamonaviy bilimlar va ilm-fanga rag‘batlantirdi.

Bosma nashrlarning kuchi shundaki, ular ta’limni kengroq etkazishning eng samarali vositasi edi. Behbudiy maktab va madrasalar bilan cheklanib qolmay, nashrlar orqali keng jamoatchilikni ma’rifat bilan ta’minlashni maqsad qilgan. Uning nashrlari orqali xalq zamonaviy bilimlarni o‘rganib, madaniy va ilmiy jihatdan rivojlandi. Shu orqali Behbudiy ta’limning tarqalishida va jamiyatni ma’rifatga jalb etishda muhim qadamlar qo‘ydi.

Behbudiyning bosma nashrlar orqali ta’lim tarqatish g‘oyalari nafaqat o‘z davrida, balki keyingi yillarda ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu jarayon milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etgan.

4.O‘quv qo‘llanmalari va darsliklar: Behbudiy yangi usul maktablari uchun darsliklar yaratish muhimligini ta’kidladi. U o‘zi yozgan darsliklar orqali milliy o‘quv tizimini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Ushbu darsliklar milliy o‘zlikni anglash va dunyoviy fanlarni o‘rganishda juda muhim o‘rin tutdi.

U yangi usul maktablari uchun milliy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va bu maktablarda foydalanish uchun zamonaviy, keng qamrovli o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar tayyorlashni muhim vazifa deb bildi.

Behbudiy, avvalo, o‘z davrida mavjud bo‘lgan diniy maktablarning ta'lim mazmunini tanqid qilib, dunyoviy bilimlar o‘rgatiladigan yangi uslubdagi maktablarni tashkil qilish tarafdori bo‘lgan. Buning uchun esa yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari zarur edi. Behbudiy o‘zi ham qator darsliklar va o‘quv materiallarini yozib, yangi maktablar uchun zamonaviy bilim manbalarini yaratdi.

Behbudiy tomonidan yaratilgan darsliklar quyidagi tamoyillarni qamrab olgan:

1. Milliy o‘zlikka asoslangan ta’lim: Behbudiy o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarini milliy o‘zlik va qadriyatlarni saqlab qolish uchun tayyorlagan. Bu

darsliklarda o‘zbek tilida bilim berish va milliy tarix, madaniyat haqida bilimlarni kengroq qamrab olishga alohida e’tibor qaratilgan.

2. Zamonaviy fanlar bo‘yicha bilim berish: Behbudiy darsliklarida matematika, geografiya, tarix, tabiiyot kabi dunyoviy fanlar keng o‘rin egallagan. U milliy ta’lim tizimini zamonaviy dunyoviy bilimlar bilan boyitish tarafdori bo‘lib, yosh avlodning har tomonlama bilimli bo‘lishiga e’tibor qaratgan.

3. Sodda va tushunarli uslub: Behbudiy darsliklarining yana bir xususiyati ularning sodda va o‘quvchilar uchun tushunarli tarzda yozilganidir. U darsliklarni xalqning keng qatlamlariga, ayniqsa, bolalarga mo‘ljallab, oson o‘zlashtiriladigan qilib yaratishga harakat qilgan.

Behbudiyning o‘quv qo‘llanmalari va darsliklari milliy ta’lim tizimini rivojlantirishda katta qadam bo‘ldi. U yaratgan darsliklar orqali o‘quvchilar zamonaviy bilimlarni egallab, dunyoqarashlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ushbu darsliklar milliy o‘zlikni anglash va madaniy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, xalqni ilmiy bilimlar bilan boyitdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning bu boradagi mehnati o‘z davrida milliy ta’lim tizimining rivojlanishiga katta turtki berdi va milliy ma’naviyatning yuksalishiga xizmat qildi. O‘quv qo‘llanmalari va darsliklar milliy ta’lim jarayonining asosiy poydevori sifatida xizmat qilib, keyingi avlodlarning ilmiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim islohotlari O‘zbek maorifi tarixida yangi davrni boshlab berdi. Jadid maktablari qisqa vaqt ichida butun Turkiston hududida keng tarqaldi va xalq orasida bilimga bo‘lgan talab oshdi. Bu islohotlar milliy ma’naviyatning yuksalishiga, xalqning zamonaviy dunyo bilan aloqalarini kengaytirishga va madaniy o‘zlikni saqlab qolish bilan birga rivojlantirishga xizmat qildi.

Behbudiyning ta’lim islohotlari, shubhasiz, O‘zbekistonda zamonaviy ta’lim tizimining poydevorini yaratdi. Uning maqsadi nafaqat bir avlodni tarbiyalash, balki kelajakda milliy ruhda etuk, bilimli va zamon bilan hamnafas bo‘lgan avlodlarni tarbiyalash edi. Shu boisdan Behbudiy o‘z davrida nafaqat ta’lim sohasida, balki millatning kelajak taraqqiyoti yo‘lida tarixiy shaxs sifatida abadiy qoldi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining chuqur bilim va ma’rifatparvarligi bilan O‘zbekiston ta’lim va madaniyat tarixida unutilmas iz qoldirgan buyuk shaxsdir. Uning ta’lim islohotlari millatning savodxonligini oshirish, ma’naviy rivojlanishiga ko‘maklashish va milliy o‘zlikni anglashda muhim o‘rin tutgan. Behbudiyning milliy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratishi, bosma nashrlar orqali ta’lim tarqatish va o‘zbek tilida ta’lim berishdagi hissasi xalqning zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi va milliy uyg‘onishiga katta hissa qo‘shgan.

Uning olib borgan islohotlari bugungi kunda ham milliy ta’limning poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda va kelajak avlodlar uchun ham ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov, O. (2015). Turkiston jadidchiligi va ma’rifatparvarlik. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Saidov, B. (2011). O‘zbekiston ta’lim tizimi: o‘tmish va kelajak. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Islomov, A. (2019). Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim islohotlari va milliy uyg‘onish. Toshkent: Ilmiy-tadqiqot nashriyoti.

XX ASR BIRINCHI YARMIDA TURKISTON MA’RIFATPARVARLIGIDA MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING O‘RNI VA ROLI HOJI MUIN TALQINIDA

Muftillayeva Umida Tohirovna
Navoiy davlat universiteti “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqoladagi materiallar XX asr birinchi yarmida Turkistondagi jadidlar otasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosatchi, publisist, dramaturg, jurnalist, noshir, pedagog, xalq yo’lboshchisi sifatida jamiyat taraqqiyotiga qo’shgan hissasi uning shogirdi, izdoshi Hoji Muin talqinidan kelib chiqib tahlil etilgan.

Абстрактный : Материалы статьи анализируются на основе интерпретации его ученика и последователя Хаджи Муина, вклада Махмудходжи Бехбуди, отца джадидов в Туркестане, как политика, публициста, драматурга, журналиста, издателя, педагога, лидера человек в первой половине XX века.

Abstract: The materials in this article analyze the contribution of Mahmudkhoj Behbudi, the father of the Jadids in Turkestan in the first half of the 20th century, to the development of society as a politician, publicist, playwright, journalist, publisher, educator, and leader of the people, based on the interpretation of his student and follower, Haji Muin.

Kalit so’zlar: Turkiston jadidchiligi, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hoji Muin, Sadriddin Ayniy, muftiy, jadid maktablari, jadid dramaturgiyasi, “Padarkush”, “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, “Zarafshon” gazetasi

Ключевые слова: Туркестанский джадидизм, Махмудходжа Бехбуди, Хаджи Муин, Садриддин Айни, муфтий, джадидские школы, джадидская драматургия, «Падаркуш», газета «Мехнаткашлар товуши», газета «Зарафшон».

Key words: Turkestan Jadidism, Mahmudhodja Behbudir, Hadji Muin, Sadriddin Aini, mufti, Jadid schools, Jadid drama, “Padarkush”, newspaper “Mehnatkashlar tovushi”, newspaper “Zarafshon”.

Jadid taraqqiyparvarlarimiz orasida eng murakkab taqdir egasi, Turkiston jadidlari otasi, publisist, dramaturg, ma’rifatparvar, xalq yo‘lboshchisi bo‘lgan buyuk siymolardan biri shubhasiz - Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Vatanimiz tarixida g‘oyat murakkab va sinovli davr bo‘lgan XX asrda maydonga chiqqan Mahmudxo’ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatiga asos soldi. U milliy ozodlik harakatining buyuk namoyondasi sifatida ilm-fan, ta’lim va tarbiya, adabiyot va san’at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg‘or taraqqiyot

yutuqlarini o’zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo’lida o‘z hayotini baxt etgan fidoyi zotdir[1]. Samarqand jadidchiligida balki, butun Turkiston taraqqiyparvarlari orasida o’zining alohida o‘rniga ega bo’lgan mutafakkir sifatida tarixda qoldi.

Fayzulla Xo‘jayev ta’biri bilan aytganda, Turkiston jadidchiligi to’g’risida fikr yuritilganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyni xotirga olmaslik mumkin emas, siyosiy, ijtimoiy xizmat ham har xil ma’lumot jihatidan ushaldag‘i Turkiston jadidlaridan hech kim uningdek tik bo‘la olmasa kerak[2;7]. (shu jumlani manbaga qarab tarjimani sayqallashtir) Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishida, milliy matbuotimizning shakllanishida muhim o‘rinni egallabgina qolmay, balki birinchi bo’lib o‘zbek dramturgiyasini shakllantirib o‘zbek teatrining yangicha bir davrini maydonga olib chiqdi. Mustaqillik deb atalgan ulug‘ ne’matga etishish yo‘li - bu ma’rifat ekanligini Turkiston bo‘ylab keng targ‘ib qildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning safdoshlari hurriyat uchun kurashning dastlabki va zaruriy bosqichi - xalq va jamiyatni ma’rifat bilan “qurollantirish” yo‘lini tanlaganlar. Bu, o‘z vaqtida, “jadidchilik harakat”ni deb ataganlar” [3;2]. Mahmudxo‘ja Behbudiy qisqa davr ichida ulkan bir islohotlarni amalga oshirgan uning erta o’limi uning safdoshlari, shogirdlari va albatta muxlislarini larzaga solgan bo‘lsada, u boshlagan ishlar zamondoshlari va shogirdlari tomonidan davom ettirilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyati, ilmiy merosi haqida XX asrning 20-yillarida Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li, Sadriddin Ayniy, Laziz Azizzoda singari zamondoshlari tomonidan bir qancha maqolalar yozilgan. Alloma hayoti va faoliyatini yoritishda 1922—1923-yillarda Hoji Muin muharrirlik qilgan “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon” (1923) gazetalarida e’lon qilingan maqolalari muhim ahamiyatga ega manba hisoblanadi. O‘z davrida taraqqiyparvar Sadriddin Ayniy Behbudiyni “Oliyshon ustod”, “Turon dohiysi” kabi nomlar bilan ulug‘lagan[4] bo’lsa, Hoji Muin Behbudiy haqida o‘z esdaliklari va matbuotdagi maqolalarida alloma o‘zining hayotiga yorug‘ yulduzdek kirib kelgani va uni o‘ziga doim ustoz deb bilishini ta’kidlagan.

1900-yili Saidahmad Vasliy Samarqandiy Hoji Muinni Samarqand jadidlarining ko‘zga ko‘ringan yorqin vakili, Turkiston jadidchilik harakatining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan tanishtirgan. Shu tariqa, Hoji Muin Mahmudxo‘ja Behbudiyni o‘ziga ustoz deb bilgan va uning haqiqiy izdoshiga aylangan[5]. Hoji Muinning ta’kidlashicha, “Behbudiy afandi, shaxsiy dushmanlikni xohlamas va hech kimning shaxsiga va shaxsiy ishlariga til utkuzmas edi. O‘shandoq o’zini takfir va tahqir etaturg‘on hasbm (dushman)larig’ada qarshi yomon va haqoratomuz so’zlar so’zlamas edi. Balki shunday so’zlarni eshitganda

Zotan, mundane din va dunyodan xabarsiz kishilardan yaxshi so‘zlar kutmas amasdur”,- deb kular edi.” [6;30].

Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodiga qiziqqan tarixchi olimlar va adabiyotshunoslarning olib borgan tadqiqotlarining zamirida asosan Behbudiyning shogirdi Hoji Muinning bergan ma’lumotlar yotadi. Darhaqiqt, Behbudiyning izdoshi, atoqli adib, jurnalist va dramaturg hisoblangan Hoji Muinning “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon” gazetalari va “Uchqun” jurnalida chop etilgan maqolalari Behbudiy faoliyatini o’rganayotganlar uchun eng ishonchli manba bo’lib xizmat qiladi. Taniqli jadidshunos olim Naim Karimovning ta’kidlashicha, Behbudiyning nasl nasabi bilan Hoji Muin bergan ma’lumot orqali tanishishni ayni muddao bo‘ladi[3;9].

Behbudiyning yaqin safdoshi va shogirdi bo‘lgan Hoji Muinning guvohlik berishicha, Behbudiy yoshlik chog’laridan inqilobiy g’oyalar ta’sirida bo‘lganligi ayniqsa, 1905 yilgi rus inqilobi unga ta’sir qilganligi va keyinchalik mustaqillikka erishish tinchlik yo’li bilan qo‘lga kiritish zarurli to‘g‘risida fikrga keladi. Behbudiyning eng oliy maqsadlaridan biri har doim Turkiston xalqining ozodligi ekanligini nafaqat Hoji Muin, balki uning izdoshlari ham matbuotda Behbudiyga atab chop etilgan maqolalarida e’tirof etib o’tganlar.

Hoji Muinning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, 1868 yil yilda rus qo‘shini Samarqandga bostirib kirgach, Behbudiy oilasi bilan Samarqand uyezdining Siyoxi oblastining Baxshitepa qishlog’iga ko‘chib o‘tadi va shu erda Behbudiy taxminan 7 yil imom va xatiblik qiladi. Hoji Muin Behbudiyga atalgan yana bir maqolasida shunday deydi: Behbudiy afandi Kobud volisining qozisi mulla Zubayrning qozixonasiga mirzolikka kirib, bunda 1-2 oy o’tmay, muftilikka o‘tdi. Necha yillar shunda muftilikka bilan kun kechirdi[6;25].

Ma’lumki, Behbudiy ma’rifat uchun faqat maktab kifoya qilmasligini tushungan holda matbuot va teatr tashkil etish ishlari bilan ham faol shug‘ullangan[7;27]. “Padarkush”- o’zbek dramaturgiyasining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi namunasi edi. Tarixchi va adabiyotshunoslar ushbu pyesani ham janr, ham mazmun-mohiyat jihatidan o‘zbek adabiyotida yangi bir davr, yangi bir yo‘nalishni boshlab bergan asar sifatida baholaydilar. Behbudiy nazarida ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmas edi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va vatanning ahvolidan kundalik hayotidan ogoh bo’lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o’z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” dramasi shu tariqa maydonga keldi.

Xullas, 1911 yilda yozilgan “Padarkush” pyesasi 1913 yildagina bosilib chiqdi. Kitob jildidagi “Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo’lishing yubiley sanasiga bag’ishlanadi”, degan yozuv va uning Tiflis

senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko‘rsatadiku, ish oson ko‘chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqidagi xatlarga javoban kinoya qilib: “Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi kishi yo‘qki, teatr sahnasiga chiqib “masxarabozlik” qilsa deb yozgan.

1914-yil 15-yanvarda M.Behbudiyning truppasida ilk bor namoyish etilgan “Padarkush” pyesasi Hoji Muin hayotida muhim o’rin tutdi[8;27]. Keyinchalik aynan shu muhim tarixiy voqea Hoji Muinning Behbudiy truppasida faoliyat yuritishi bilan birga o‘zi ham pyesalar yozib va sahnalashtirishiga sabab bo’lgan. Ustozi Behbudiydan so‘ng dramaturlik faoliyatini ustoziga izdosh bo’lib samarali davom ettirib, “To‘y” (1914 y, Nusratullo Qudratulloh bilan hammualliflikda), “Eski maktab, yangi maktab” (1915 y), “Ko‘knori”, “Mazluma xotin” (1916 y), “Maorif qurbonlari”, “Juvonbozlik qurbonlari”, “Boy ila xizmatkor”, “Qozi ila muallim” kabi sahna pyesalarini yozdi. Hoji Muinning sahnalashtirilgan dramalari orasida “To‘y”, “Eski maktab, yangi maktab”, “Mazluma xotin” kabilar butun Turkiston mintaqasi bo‘ylab namoyish etilib, mashhur bo‘lib ketgan. Hattoki, Hoji Muinning o‘zi ham teatr sahnasida bosh qahramonlardan birini mahorat bilan ijro etgan[9].

Behbudiy o’limidan so’ng Hoji Muin “Maorif qurbonlari” (1925) pyesasini yozib, dramaturgiyada Behbudiy obrazini ilk bor gavdalantirib, sahnaga olib chiqdi. Jadidshunos olim Begali Qosimovning ta’kidlashicha, Hoji Muinning bu ishi Behbudiyning sadoqatli shogirdi sifatida chuqur izlanishlar va o‘z ustoziga bo‘lgan muhabbat natijasida dunyoga keldi[10;321]. Hoji Muin 1919-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiyning sirli o’limi haqidagi xabardan larzaga tushadi hamda “Mehnatkashlar tovushi”, “Ishtirokiyun” gazetalarida ustozi va uning sheriklarining dom-daraksiz ketganlari, xalq orasida Qarshi begi tomonidan o‘ldirilganlari haqida gap yurganini yozib, barchani o‘z millatiga yigirma besh yil xizmat qilgan allomani izlashga undaydi. Behbudiyning o‘lim xabari tasdiqlangach esa, har yili 25 mart kuni Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirlash munosabati bilan “Mehnatkashlar tovushi”, “Turkiston”, “Zarafshon” gazetalari va “Uchqun” jurnalida “Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi”, “Marhum Behbudiy va rafiqlarining qanday shahid bo‘lg‘onliqlari va alar tomonidan yozilgan vasiyatnoma”, “25 mart Samarqand xalqi uchun motam kunidir”, “Behbudiy muxlislariga ochiq xat”, “Mahmudxo‘ja Behbudiy”, “Behbudiy, Mardonquli va Muhammadqul”, “Behbudiyni unutmaylik” kabi maqolalarni yozgan hamda ushbu maqolalarda ulug‘ bir insonni faqat duoyi fotiha bilan xotirlash emas, balki abadiylashtirish lozimligi, unga atab haykal o‘rnatish lozimligi, yirik madaniy va ilmiy muassasalarga nomini berish kerakligini qayta-qayta eslatadi.

Sovet hokimiyati 1924-yili Hoji Muinni Mahmudxo‘ja Behbudiy shaxsini “ideallashtirish”da ayblaydi. Shundan keyin sovetlar taziqi ostida Hoji Muinning ustozi haqidagi maqolalari matbuotda chop etilmaydigan bo‘ldi. Umrining oxirigacha Hoji Muin siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan millat taqdiriga qayg‘urgan ekan avvalo, unga bu jarayonlardagi ishtiroki va faoliyatida Mahmudxo‘ja Behbudiy ustoz va maslakdosh bo’lganini ta’kidlab kelgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yoshlarimizga milliy tariximizni, ayniqsa yutimizning taraqqiyparvarlari hayoti tahlil etilganda, Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning izdoshi, shogirdi Hoji Muinning hayot va faoliyati chambarchas holda ekanligini ko‘rish mumkin. Shu nuqtai nazardan XX asr birinchi yarmida ro‘y bergan voqea hodisalarni tadqiq qilishda bu ikki tarixiy shaxs faoliyati va ilmiy merosini birgalikda o‘rganish tarixiy haqiqatlarni yuzaga chiqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Туркистон жадидлик ҳаракатининг асосчиси, атоқли адиб ва жамоат арбоби, ношир ва педагог Маҳмудхўжа Беҳбудий таваллудининг 150 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Prezident.uz (murojaat vaqti 2025-yil 3-yanvar).
2. Fayzulla Xo‘jayev. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar. –Toshkent: Samarqand: “O’zbekiston davlat nashriyoti”. 1926 y. –B-7
3. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. –Toshkent: “Ma’naviyat”.2010 y. B-2
4. G’afurov I. Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida ikki badia kh-davron.uz. (murojaat vaqti 2024-yil 21-dekabr)
5. https://jadid.uz/jadids/hoji-muin-ibn-shukrullo/
6. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. –Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyotni 2010. –B.30;25
7. Tursunboyeva N. Behbudiyning orzusi. // Teatr, 2007 yil, 6-son. –B.27
8. Ismoilov B. Behbudiyning safdoshi edi…// Teatr, 2003 yil 3-son. –B.27
9. https://jadid.uz/jadids/hoji-muin-ibn-shukrullo/
10. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. –Toshkent: Ma’naviyat, 2002 y. –B.321

O‘ZBEK JADID SHE’RIYATIDA ERK G‘OYASI TALQINI

Özbek cedit şiirinde özgürlük düşüncesinin yorumlanması

Interpretation of the idea of freedom in uzbek jadid poetry

Интерпретация идеи свободы в узбекской джадидской поэзии

Murodillayev Nurali Asliddin o‘g‘li
Xalqaro innovatsion universitet, Tarix va filologiya fakulteti o‘qituvchisi

nuralimurodillayev66@gmail.com +998943326737

Annotatsiya. Jadid she’riyatida ozodlikka, milliy istiqlolga intilish tuyg‘usi chuqur dard, betakror badiiyat bilan ifodalangan. Vatanga bo‘lgan ulug‘ bir muhabbat jadidlarning butun faoliyatini yorqin nur bilan yoritib turardi. O‘zbek jadid she’riyatida inson va uning erki barcha ijtimoiy masalalar markazidan joy egalladi. Mazkur mavzuni o‘rganish O‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiy merosini chuqurroq anglashga, jadidlar ijodining bugungi kundagi ahamiyatini aniqlashga yordam beradi. Jadid she’riyatidagi erk g‘oyasining talqini milliy va madaniy taraqqiyot yo‘lida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan dolzarb mavzu sifatida e’tiborga loyiqdir.

Kalit so‘zlar: Milliy uyg‘onish, ozodlik g‘oyalari, hurriyat tantanasi, milliy g‘urur, yurtsevarlik g‘oyalari

Abstract. In Jadid's poetry, the feeling of striving for freedom and national independence is expressed with deep pain and unique artistry. A great love for the motherland illuminated all the activities of the Jadids with a bright light. In modern Uzbek poetry, man and his will are at the center of all social issues. Studying this topic will help to understand the literary heritage of the Uzbek national renaissance, and to determine the importance of modern works. The interpretation of the idea of freedom in Jadid's poetry is worthy of attention as an actual topic that has not lost its importance in the path of national and cultural development.

Key words: National awakening, ideas of freedom, celebration of freedom, national pride, ideas of patriotism

O‘zbek jadid she’riyatida milliy ozodlikni tarannum etish o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ldi. Jadidlar milliy zulm va mustamlakachilar istibdodiga qarshi xalqni milliy uyg‘onishga, o‘z erki va ozodligi uchun kurashga chorladilar. Millat ma’rifatparvarlari istibdod iskanjasida qolgan xalqni ozodlik uchun kurashga da’vat etishda turli vosita va usullardan foydalandilar.

XX asr boshlarida millatning ilg‘or ziyolilari o‘y-xayollarida Turkistonni mustamlakachilik kishanlaridan xalos etish, xalqda milliy o‘zlik va milliy g‘ururni uyg‘otish istagi paydo bo‘ldi. Ular xalqning basirat ko‘zlarini ochishga, vatandoshlari qalbiga erk va hurriyat tuyg‘ularini payvand qilishga intildilar. Shu tariqa o‘zbek xalqi tarixida milliy uyg‘onish davri boshlandi.

Shu vaqtgacha Turkistonni idora qilib kelgan hukmron tabaqa vakillari xalq orasidan etishib chiqayotgan yuksak aql-zakovat sohiblari bo‘lmish ziyolilarga imkon berish o‘rniga, ularni mutelik holatida tutib kelar edilar. Lekin ma’lum tarixiy sharoit shuni ko‘rsatdiki, Turkiston mustamlakaga aylantirilgan, xonlar ham, amirlar ham o‘z mavqelarini yo‘qotgan davrlarda ommani etaklay oluvchi kuch vazifasini bajarish aynan zamon ziyolilari zimmasiga tushgan edi. Millatni ijtimoiy va madaniy yuksaklikka olib chiqishi mumkin bo‘lgan birdan-bir omil bu ma’rifat edi. Zero, Avloniy ta’kidlaganidek:

Ittifoq-u ilmsizlik bizni Hijron aylayur,
Ma’rifatsiz ketdi qo‘ldin har na yo‘q-u borimiz. [1:101]

Birinchi jahon urushi oqibatida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o‘zgarishi, xalqning moddiy va ma’naviy hayoti og‘irlashishi, O‘rta Osiyo bo‘ylab avj olgan 1916-yilgi qo‘zg‘olon va uning shafqatsizlarcha bostirilishi kabi omillar

Rossiya mustamlakachilik siyosatining naqadar g‘ayriinsoniy va g‘ayrimilliy ekanligi dalili bo‘ldi. Bundan etarlicha xulosa chiqargan millat taraqqiyparvarlari milliy o‘zlik va islom dinidan mahrum bo‘lib qolmaslik yo‘lida jiddiy kurashish zarurligini anglay boshladilar:

Bog‘laring pajmurda bo‘ldi, zog‘larning poyidin,
Ko‘kraging sad pora bo‘ldi daydilarni yoyidin,
Qatra-qatra qon tomodur o‘q teshkon joyidin.
Qip-qizil qonlar oqodur jabr ko‘rgan soyidin.
O‘z qo‘ling birla bu yurtingni o‘zing obod qil.[2:64]

Fevral inqilobi ro‘yobi milliy uyg‘onish harakati qatnashchilarida mustamlakachilik kishanlarini parchalash imkoni borligiga ishonch uyg‘otdi. Inqilob o‘ziga xos shodiyonalar, tantanalar bilan qarshi olindi:

Chun bahor o‘ldi, ochildi – gul ochildi har yondan,
Bulbul aytdi oh-zorini, nola chekdi, o‘qudi.
Ko‘rdi bulbul hurriyatni so‘yladiki: ey jonon,
To qiyomat barqaror o‘l, hech yo‘q o‘lma olamdan!
Ko‘p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,
Jon qilibdur necha inson senga qurbon, hurriyat...[1:224]

Jadid ijodkorlari erk va hurriyat g‘oyalari balqib turgan asarlar yaratishga chog‘landilar. Bunday asarlar, o‘z navbatida, xalqni hurriyat bayrog‘i ostida birlashtirib, milliy ozodlik uchun kurashga safarbar etishi mumkin edi.

Hind xalqining ingliz mustamlakachiligi ostidagi jabr-zulmlari ifodalangan Fitratning “Hind ixtilochilari”, “Yovrupo turmushindan, tarixdan iqtibos qilub yozilmish” Avloniyning “Portugaliya inqilobi” kabi asarlaridagi tasvirlar aslida Turkistonning ayanchli ahvolidan hikoya qilar edi. Zamona zayli bilan keyingi davrlarda ham ijodkorlar o‘zlarining erk va ozodlik haqidagi orzu-umidlarini xorijiy mamlakatlarda o‘z millati va xalqi erki uchun kurashgan va shu yo‘lda jon fido etgan qahramonlar obrazini yaratish orqali ifodalab keldilar. Hamza, Cho‘lpon kabi jadid shoirlari ham erk va hurriyat uchun kurashga da’vat etuvchi she’rlarni ko‘p va xo‘b yozishdi.

Jadidlar atrofdagi voqelikka loqayd qarab tura olmas edilar, shu boisdan ham ular o‘z davrining muhim ijtimoiy masalalarini yoritishga harakat qila boshladilar. Shu o‘rinda Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” nomli majmuasi alohida e’tiborga loyiq. Baxt-u saodatga faqatgina ma’rifat va millat birligi bilan erishish mumkinligiga ishongan shoir ushbu majmuasida davr ruhi, millat turmushi, orzu-umidlari, echimini izlab yotgan muammolarni aks ettirgan. Ijodining bosh mezonini ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, millatparvarlik, yurtsevarlik g‘oyalari tashkil etgan Hamza “Yig‘la, Turkiston”, “Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston”, “Dardiga darmon istamas” kabi she’rlarida hamon g‘ofillik

uyqusida yotgan Turkiston o‘lkasini uyg‘otishga urinadi, ma’rifatga, taraqqiyotga chorlaydi.

Jadidlar safarbarlik ruhidagi she’r va maqolalar yozibgina qolmay, 1917-yilning noyabrida Qo‘qonda Turkiston Muxtoriyati tuzilganini e’lon qildilar. Cho‘lpon, Hamza kabi shoirlarning muxtoriyatni olqishlovchi she’rlari millat ong-u shuurida mustamlakachilik kishanlari parchalanib, erk va hurriyat tantanasiga ishonch tuyg‘ularini uyg‘otdi:

To‘rt yuz yillik Romanov bitg‘ach davlati,
Ko‘tarildi asorat, xo‘rlik zillati,
Nasib o‘ldi millata qaytib shavkati,
Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati![3:155]

Biroq Muxtoriyat hali mustaqillik degani emas edi. Bu ulug‘ yo‘ldagi to‘zim topadigan emas, balki bir qo‘nib o‘tadigan manzil edi xolos. Turkiston barcha xalqaro aloqalar ixtiyorini Rossiyaga topshirar, ichki idoranigina o‘zi olib borar edi. Mana shu nisbiy erk ham buyuk g‘alaba edi. Bu Fitrat aytganidek, “ellik yildan beri ezilgan, tahqir etilgan, qo‘llari bog‘langan, tillari kesilgan, mollari talangan” millatning “to‘zimli sabri, iymonlariga o‘rab saqlagan yolg‘iz bir fikri – Turkiston muxtoriyati” edi.

Afsuski, oradan hech qancha vaqt o‘tmasidan Turkiston muxtoriyati hukumati tor-mor keltirildi. Muxtoriyat rahbarlari va ularga xayrixoh bo‘lgan kishilar quvg‘inga uchradilar. Milliy tanazzul davrida erk va hurriyat yo‘lida olib borilgan bu kurashning g‘alaba qozonishi amri mahol edi. Cho‘lpon muxtoriyatni qonga botirgan, o‘zbek xalqiga hurriyatni ravo ko‘rmagan kuchlarga bo‘lgan adadsiz nafratini quyidagi satrlari orqali namoyon qildi:

Po‘rtana qo‘zg‘aldi, po‘rtana yurdi,
Po‘rtana o‘zini qirg‘oqqa urdi.
Po‘rtana oldida bir kema ko‘rdi,
Ichida zich odam... o‘ynatdi, surdi...[4:8] Shoir nazdida, po‘rtana – erk uchun kurashga shaylangan xalq, qirg‘oq esa mustamlakachi davlatning qudratli qo‘rg‘oni edi. Cho‘lpon po‘rtananing qo‘rg‘onga ayovsiz urilib, qo‘rg‘on devorlarini buzib tashlashiga ishongan, umid qilgan edi.

Cho‘lpon singari ko‘plab jadid shoirlarining orzu-umidlari sarobga aylangan bo‘lsa-da, aynan o‘sha qonli yillarda o‘zbek she’riyati o‘zining jangovarlik kuchini muvaffaqiyat bilan sinovdan o‘tkazdi, ilk bora xalq va mamlakat taqdiri bilan bog‘liq masalalarga qo‘l urildi. Otashnafas shoirlar sharofati bilan she’riyat bu og‘ir davrning kurash quroliga aylandi.

O‘zbek jadid she’riyatida inson va uning erki barcha ijtimoiy masalalar markazidan joy egalladi. Ozodlik g‘oyalari, ayniqsa, Cho‘lponning ehtirosli misralarida o‘z ifodasini topdi. Cho‘lpon tabiatan lirik shoir edi. Ammo u yashagan

davr shoirdan lirik qahramonning ruhiy olamidagi jilvalardan ko‘ra xalq va mamlakat hayotidagi po‘rtanalarni tasvirlashni ko‘proq taqozo etar edi. Shuning uchun ham Cho‘lpon siyosiy va ijtimoiy mazmun bilan yo‘g‘rilgan she’rlarni ko‘proq yozdi va biz Cho‘lponni eng avvalo “Ko‘ngil”, “Kurash”, “Kishan”, “Vijdon erki» singari she’rlar muallifi sifatida bilamiz.

Shoirning 20-yillarda yozilgan ayrim she’rlarida epigraflar qo‘llangan. Masalan: “Talanmagan, yiqilmagan er yo‘q. Go‘daklar nayza boshida... (Xabar)”. Peshso‘zda ifodalangan bu dahshatli voqealar o‘sha yillari Turkistonda ro‘y bergan, Cho‘lpon mustamlakachilikning, zo‘ravonlikning, xunrezlikning bunday o‘ta dahshatli ko‘rinishlariga tinch qarab turolmas edi. Shoir atrofida bo‘lib turgan vaxshatga nafratini “Yong‘in” she’ri orqali ifoda etadi. She’rni o‘qir ekanmiz, peshso‘zda keltirilgan so‘zlar real kartinalar, dahshatli hayotiy lavhalar shaklida jonlanganini, 20-yillarda mustamlakachilar tufayli millat boshiga tushgan falokatlar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Shoir bu balo-ofatlarni keltirgan, o‘lkamizni vayron etib, daryo-daryo qonlarni oqizgan yovuzlarni la’natlamaydi, ularga g‘azab va nafrat toshlarini otmaydi, balki mudhish tarixning shohidi sifatida yuragidan oqib turgan ko‘z yoshlari bilan tarix sahifalariga qayd etadi.

Yuqorida aytganimizdek, Cho‘lpon yovuzlik daholariga la’nat, hattoki malomat toshlarini otmay, she’rni kinoyaning zaharli suvi tomchilab turgan bunday bayt bilan tugatadi:

Keng yaylovga o‘tmi ketdi, yondimi?

“Madaniyat” istagiga qondimi? Bu satrlardagi “madaniyat” so‘ziga singdirilgan kinoya har qanday la’nat va nafrat so‘zlaridan kuchlidir. Bu she’rning kuchi shundaki, u olis 20-yillardagi dahshatlarnigina emas, balki hozirgi zamonda “madaniy” davlatlar tufayli ro‘y berayotgan xunrezliklarni ham aks ettirayotgandek taassurot uyg‘otadi.

Zamondoshlari qatori Cho‘lpon ham fevral inqilobiga katta umid bilan qaragan edi. Inqilobdan so‘nggi Buxorodagi voqealar – amirning toj-u taxtni tashlab qochishi, amirlik vayronalari o‘rnida boshqaruvda vaqtincha bo‘lsa-da, Buxoro Xalq Jumhuriyatining barpo etilishi Cho‘lponning qalb-qo‘ri ostida mudrab yotgan tuyg‘ularini uyg‘otib yubordi. Bu voqea-hodisalarga Buxorodagi safari chog‘ida o‘z ko‘zi bilan guvoh bo‘lgan shoir o‘zining mashhur “Xalq” she’rini yozdi, uning xayolida xalq dengiz obrazida gavdalandi:

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir…
Xalq qo‘zg‘alsa, kuch yo‘qdirkim, to‘xtatsin,
Quvvat yo‘qkim, xalq istagin yo‘q etsin! Cho‘lpon nazarida xalq dengiz yanglig‘ amirlik qo‘rg‘onini parcha-parcha qilib yuborgandi:

Xalq isyoni saltanatni yo‘q qildi,

Xalq istadi: toj va taxtlar yiqildi… Bu she’r go‘yoki shoir orzulari ro‘yobining tantanasi edi. Tantanavorlik ruhi she’rning har bir satrida jarang sochadi:

Bir qo‘zg‘alur, bir ko‘pirar, bir qaynar,
Bir intilur, bir hovliqar, bir o‘ynar,
Yo‘qlikni-da, ochlikni-da yo‘q etar,
O‘z yurtini har narsaga to‘q etar…
Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik![4:8]

Lekin Buxoro Xalq jumhuriyatini ham Turkiston muxtoriyati kabi qismat kutib turar edi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmadi, “Buxoro Xalq jumhuriyati” nomi orasiga “sovet” so‘zi suqilib kirdi. Xalqning Cho‘lpon she’ridagi dengizmonand obrazi sarobga do‘ndi.

Xalq istagi: ozod bo‘lsin bu o‘lka,
Ketsin uning boshidagi ko‘lanka kabi xalqning asriy orzusi amalga oshmadi. Turkiston endi “oqlar” mustamlakasidan “qizillar” mustamlakasiga aylanib qoldi. Bu taraqqiyparvarlarning, umuman olganda, xalqning katta fojiasi edi.

Erk va hurriyat uchun kurashga shaylangan qilichlar qinlariga solindi. Bolsheviklarning makkorligini yaxshi bilgan jadidlar xalqni hayot-mamot kurashiga safarbar qilishning turli yo‘llarini izlay boshladilar. Shunday yo‘llardan biri o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan buyuk ajdodlar ruhidan madad so‘rash edi.

Fitrat “Temur oldinda” she’rida “ezilgan boshi, qisilgan vijdoni, kuygan qoni, o‘rtangan joni uchun” ulug‘ xoqoni sag‘anasidan “davo izlab” boradi, uning ruhidan madad so‘raydi. Buyuk bobosi “Turonining eski sharaf va ulug‘lig‘ini qaytarmasdan burun ayog‘larida o‘tirmaslik”ka uning “dunyoga sig‘magan g‘ayrati” oldida ont ichadi:

Meni qo‘yma!
Men yolg‘iz yoziqlarimni iqror etarg‘a emas,
Turong‘a berdigim zararlarni to‘lamoq uchun keldim, XOQONIM.
Mendan nafrat etma!
Ey arslonlar arsloni!
Menim yozuqlarimdan o‘t,
Meni qo‘limni tut,
Belimni bog‘la, muqaddas fotihangni ber!

Sening dunyoga sig‘magan g‘ayratingga ont ichamanki, Turoning eski sharaf va ulug‘lig‘ini qaytarmasdan burun ayog‘laringda o‘tirmasman...[5:33] Fitratning yurak qoni bilan yozilgan bu so‘zlari mustamlakachilik zulmidan jabr ko‘rgan kishilarni loqayd qoldirmasligi aniq edi. Adib so‘zlari jabrdiyda vatandoshlari qalbiga etib borishi va ularni kurashga chorlashi uchun “Temur sag‘anasi” pyesasini

yozib, Turon qorovuli nomidan iztirob to‘la so‘zlar bilan Amir Temur ruhiga murojaat qilgan edi.

Zamon inqiloblar zamoni edi. Chor hukumati quladi. Epchil millatlar darhol istiqlol rejalarini ko‘ra boshladilar. So‘nggi asrlarda zalolatga botgan, dunyodan uzilib, fisq-u fujurga ko‘milgan, o‘z qiyofasini yo‘qota boshlab, o‘zga millat etoviga tushgan Turkistonning taqdiri endi ne kechadi? Fitratni qiynayotgan dard shu edi:

Ey, ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi!
Senga ne bo‘ldi?
Holing qalaydir?
Nechuk kunlarga qolding? Shoir uning “yuksak o‘rinlar”dan “qullik chuqurlari”ga tushish sabablarini so‘raydi. “Dunyoni “urho”lari bilan titratkan yo‘lbars yurakli bolalari”ni, “yer tuprog‘ini ko‘klarga uchiraturg‘on tog‘ gavdali o‘g‘lonlari”ni qumsaydi. Uning bu holi bilan kelisha olmaydi. Tomirlarida Temur qoni oqayotgan millatdoshlarini nomus-u sha’n himoyasiga chorlaydi.

“Bir o‘zbek tilidan” mansurasida Vatan bosh-oyog‘i yalang, tanasida adadsiz qamchi izlari, ko‘ksidagi yaralaridan qon tomayotgan holsiz, darmonsiz ayol sifatida ifodalanadi. Bu timsol, bu xayol “o‘zbek yigiti”ni tushida ham, o‘ngida ham ta’qib etadi. O‘zbek yigiti “g‘amli ona” – “muqaddas Turon” xayoli bilan mushohadaga kirishadi. Undan ayrilmoqni o‘zi uchun o‘lim, uning uchun o‘lmoqni esa tiriklik hisoblaydi. Uni qutqarmoqqa ont ichadi. Da’vatkor ruh, hayqiriq asarning boshidan oxirigacha o‘tgan edi. Chunki she’r Vatan haqida edi. Vatan haqida esa osoyishta so‘zlab bo‘lmasdi. Uning dardi nihoyasiz, jarohatlari halokatli edi. Shuning uchun ham shoir uning “holi xarob”ligidan, “panjayi g‘am”dan “pirahani chokligi”dan dod soladi. Unga mehr-u muhabbatini hayqirib aytadi. U bilan iftixor etadi.

Ko‘rinib turibdiki, jadid she’riyatida ozodlikka, milliy istiqlolga intilish tuyg‘usi chuqur dard, betakror badiiyat bilan ifodalangan. Vatanga bo‘lgan ulug‘ bir muhabbat jadidlarning butun faoliyatini yorqin nur bilan yoritib turardi. Fitrat, Cho‘lpon singari erkka tashna ijodkorlar Vatanini erkin va mustaqil ko‘rmoqni istar, xalqning o‘z taqdiriga o‘zi xo‘jayin bo‘lgan holda har qanday kishanlar va bo‘yinturuqlardan xalos bo‘lib yashamog‘ini orzu qilishardi. Shuning uchun ular hech narsadan hayiqmay mustamlakachilarga nafratini hayqirib aytdilar, zolimlarni la’natladilar, xalqni uyg‘onishga undadilar, jaholat va nodonlik, bid’at va xurofot iskanjalaridan qutulib, ochiq ko‘z, hur fikr bilan yashashga, o‘zligini tanishga chaqirdilar. Aynan shu erksevarlik, zulmatga dushmanlik, ziyoga intilish, el-u yurt taqdirini yaxshilash imkoniyatlarini tinmay izlash jadid bobolarimizni madaniyatimizning eng yorqin siymolariga aylantirdi, ular shuhratini qator Sharq va G‘arb mamlakatlariga taratdi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avloniy. Tanlangan asarlar, 1-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – B. 101.

2. Анбар Отин. Шеърлар, рисола. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1970. – Б. 64.
3. Ҳамза Ҳ. Н. Тўла асарлар тўплами. 2-том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фан нашр.,1988. – Б. 155.
4. Cho‘lpon. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 8.
5. Фитрат. Танланган асарлар – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 33.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TARIXGA BO‘LGAN YONDASHUVI: MA’RIFAT VA TARAQQIYOTNING ASOSIY VOSITASI

Oltiboyev Alisher Meyliyevich,
Alfraganus University dotsenti v.b, Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
e-mail: alisheroltiboyev6@gmail.com, Tel: (91) 321-69-26

Annotatsiya: Ushbu maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyning tarixga bo‘lgan yondashuvini, uning jamiyatni ma’rifatlantirishdagi roli va ahamiyatini ifodalaydi. Behbudiy tarix fanini rivojlantirishda kutubxona va jadid maktablarini ochganligi, darsliklar hamda tarixiy asarlarni ko‘paytirish borasidagi faoliyati ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: millatning taraqqiyoti, jadid, moziy, aqlli ilmlar, Behbudiya, ma’rifat, milliy ong, jaholatga qarshi, fidoyilik, siyosiy, ijtimoiy, jamiyat.

Подход Махмудходжа Бехбуди к истории: главный инструмент просвещения и прогресса

Аннотация: В статье описывается подход Махмудходжа Бехбуди к истории, его роль и значение в просвещении общества. Научно проанализирована деятельность Бехбудия по развитию исторической науки, в том числе по открытию библиотек и современных школ, тиражированию учебников и исторических трудов.

Ключевые слова: развитие нации, новые, современные, интеллектуальные науки, Бехбудия, просвещение, национальное сознание, против невежества, бескорыстие, политический, социальный, общество.

Mahmudkhoj Behbudi’s approach to history: the main tool of enlightenment and progress

Annotation: This article describes Mahmudkhoj Behbudi’s approach to history, his role and significance in enlightening society. Behbudi's activities in developing the science of history, including opening libraries and modern schools, and his activities in the reproduction of textbooks and historical works, are scientifically analyzed.

Key words: development of the nation, new, modern, intelligent sciences, Behbudiya, enlightenment, national consciousness, against ignorance, selflessness, political, social, society.

Mahmudhoj Behbudi’nin tarihe yaklaşımı: Aydınlanma ve ilerlemenin başlıca aracı

Özet: Bu makalede Mahmudhoja Behbudi’nin tarihe bakışı, toplumun aydınlatılmasındaki rolü ve önemi ele alınmaktadır. Behbudiy'in tarih biliminin gelişmesi, kütüphaneler ve modern okullar açılması, ders kitapları ve tarih eserlerinin çoğaltılması gibi alanlardaki faaliyetleri bilimsel olarak incelenmiştir.

Anahtar sözcükler: milli kalkınma, eni, modern, akıllı bilimler, Behbudiya, aydınlanma, milli bilinç, cehalete karşı, fedakarlık, siyasi, toplumsal, toplum.

O‘zbek xalqining tarixidagi XX asr boshlaridagi davr, qisqa bo‘lishiga qaramay, millatning kelajagi va tarixiy taqdiri uchun juda muhim bo‘lgan davr

hisoblanadi. Ushbu davrda boshlagan jadid ma’rifatparvarlik harakati, maktablar, matbuot, adabiyot va san’atda islohotlar amalga oshirib, xalqning ma’rifiy va madaniy hayotini tubdan o‘zgartirdi. Bu harakat, albatta, jamiyatning rivojiga xizmat qilib, ko‘plab muhim yutuqlarga erishishga zamin yaratdi.

Jadidlar, millatning taraqqiyoti ta’lim va tarbiyaga bog‘liq ekanligini chuqur anglab, islohotlarni maktablar qurishdan boshladilar. Adabiyotda yangi yo‘nalishlarni yaratish orqali ular jaholatga qarshi kurashdilar. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O‘rta Osiyo mamlakatlarida, shu jumladan, Turkiston, Buxoro va Xiva hududlarida, jadid harakati katta qarshiliklarga duch keldi. Lekin, biz bugun, yuz yildan ortiq vaqt o‘tib, bu davrni tahlil qilganimizda, Behbudiy boshchiligidagi jadid ma’rifatparvarlik harakatining qanday murakkab sharoitda yangi maktablar ochgani, milliy matbuotni tashkil qilgani, yangi adabiyot va teatr san’ati asoslarini yaratgani haqida o‘ylaymiz va ularning faoliyatini fidoyilik va jasorat sifatida baholaymiz [3 b. 196-198].

Taraqqiyparvarlar omma orasida ma’rifatni keng yoyish, millatning siyosiy ongini yuksaltirish borasida ommaviy nashrlar, bosmaxonalar ochdilar, teatr tomosholari tashkil etdilar. Bu borada Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Abdurauf Fitrat va boshqalarning xizmatlari beqiyos bo‘ldi [1:b 4].

Ayniqsa, Mahmudxo‘ja Behbudiy tarix fanining ahamiyatini chuqur anglab, insonning ma’naviy rivojlanishida va jamiyatni boshqarishda tarixiy bilimlarning beqiyos ahamiyatini ta’kidlagan. U: “Moziy istiqbolning tarozisidir”, - deb yozgan, va bu fikr tarix va o‘tmish tajribasining naqadar ahamiyatli ekanligini isbotladi. Behbudiyning fikricha, jamiyatning taraqqiyoti va rivoji uchun tarix fani jamiyat ongida to‘g‘ri o‘rin tutishi kerak. Bu fikr, ayniqsa, mutaassib islom namoyondalari hukmronlik qilgan davrlarda juda muhim edi, chunki tarix va geografiya fanlari o‘sha paytda bid’at va gunoh sifatida qaralardi [2 b. 14].

Behbudiy, tarixni va geografiyani “aqlli ilmlar” deb atagan va ularni jamiyatni rivojlantirishning zaruriy vositalari deb hisoblagan. Uning fikricha, xalqlar va mamlakatlar tarixini bilmasdan, oddiy musulmon fuqarosi yoki davlat arbobi bo‘lish mumkin emas. Tarixni o‘rganish orqali insonlar jamiyatning rivojlanish sabablarini, e’tiqodning o‘sishi va pasayishining omillarini anglashlari mumkin. Behbudiyning ta’kidlashicha, tarix fani orqali insonlar o‘zini kamol topish, adolatli va to‘g‘ri yo‘lni topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [5].

Uning fikricha, tarixni o‘rganish, nafaqat siyosatchilar, balki har bir musulmon uchun zarur. Tarix, dunyo va diniyat haqidagi to‘g‘ri tushunchalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Behbudiy, Qur’oni karimning ilmiy sharhlovchilari va muxaddislarining tarixni o‘rganishni talab qilganini ham alohida ta’kidlaydi.

Qur’oni karimning to‘rtdan birini tarixiy faktlar tashkil etishi, tarixning islomiy ta’limotdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatadi.

Behbudiy tarixni o‘rganishga katta e’tibor bergan va uning “Behbudiya” kutubxonasida mavjud bo‘lgan kitoblar ro‘yxati bu haqda ko‘plab ma’lumotlar beradi. Kutubxonadagi kitoblarning yarmi tarixga oid asarlardan iborat edi. Bu kitoblar orasida uch tomlik «Tarixi madaniyat», «Tarixi islom», «Buyuk tarixi umumiy», «Tarixi istiqbol», «Turk tarixi», «Zafarnomai shohiy», «Xulosai tarixi madaniyat», «Oynai tarixi usmoniy», «Madaniyati islomiya tarixi», «Temurlang», «Yigirmanchi asrda olami islom va Ovrupa», «Tarixi kashf ul-Amriko», «Tarixi Eron», «Tarixi Eroni buzurg», «Tarixi Baxtiyori» va boshqalar bor edi [2 b. 15-16]. U o‘sha paytdagi tarixiy asarlarga katta e’tibor qaratgan va tarixni o‘rganish zaruriyatini har doim o‘z asarlarida ta’kidlab kelgan. Shuningdek, tarixni o‘rganish orqali o‘z vaqtida yangi asarlar yaratishga harakat qilgan.

1903-yili alloma tashabbusi bilan shogirdlari Siddiqiy Ajziy, Abduqodir Shakuriy Rajabamin qishlog‘ida, Hoji Muin Xo‘ja Nisbatdor mahallasida jadid maktablarini ochadi. Behbudiy maktablar faoliyatini tashkil etish bilan birga, ular uchun “Risolai asbobi savod” (1904-y.), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905-y.), “Risolai jug‘rofiyoyi Rusiy” (1905-y.), “Kitobat ul-atfol” (1908-y.), “Amaliyoti islom” (1908-y.), “Tarixi islom” (1909-y.) kabi darslik va qo‘llanmalar yozadi [4]. Shu tarzda, Behbudiy tarixni o‘rganishni jamiyatni rivojlantirishning muhim omili deb bilgan va uning ta’kidlashicha, tarix, jaholatdan chiqish, din va dunyo haqidagi to‘g‘ri tushunchalarni shakllantirishda nihoyatda ahamiyatli bo‘ladi.

M. Behbudiy tarix o‘qitishdan asosiy maqsadini jamiyatni ma’rifatlantirish, xalqni bilim bilan tarbiyalash va uning madaniy rivojlanishini ta’minlash deb bilgan. Uning fikricha, tarixni o‘rganish nafaqat o‘tmishdagi voqealarni eslab qolish, balki jamiyatning kelajagi uchun zarur bo‘lgan saboqlarni olish, muammolarni hal etish va taraqqiyot yo‘lini belgilash uchun ham juda muhimdir.

Behbudiy tarixni o‘qitishning bir necha asosiy maqsadlarini quyidagicha aniqlagan:

- *ma’rifat va bilimni kengaytirish*: Behbudiy tarixni o‘rganish orqali jamiyatni jaholatdan chiqarish va unga ilm, ma’rifat ulashish niyatida bo‘lgan. U tarixni o‘rganish orqali, xalqning oldingi tajribalari va zamonlarning o‘tgan davridagi xatoliklardan saboq olishni maqsad qilgan.
- *milliy ongni shakllantirish:* Behbudiy tarixni milliy o‘zlikni anglash va milliy g‘ururni oshirish uchun muhim vosita sifatida ko‘rgan. U tarixni o‘rganish orqali xalqni o‘zining madaniy merosiga, tiliga va tarixiga mehr qo‘yishga chaqirgan.
- *jaholatga qarshi kurash:* Behbudiy tarixni o‘rganish orqali odamlarni o‘tmishdagi jaholatga qarshi turishga, diniy va ijtimoiy

yolg‘onlarga qarshi kurashishga undagan. U tarixni faqat bilim olish manbai sifatida ko‘rmay, balki bu orqali jamiyatdagi to‘g‘ri e’tiqodlarni shakllantirishga ham e’tibor qaratgan.

- *siyosiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish:* Behbudiy tarixni o‘rganish, ayniqsa siyosiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha xalqni ongli, mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga undash maqsadida qo‘llagan. Tarixni o‘rganish orqali, jamiyat o‘zining xatoliklarini tahlil qilib, kelajakda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga tayyor bo‘ladi.
- *islomning haqiqiy mohiyatini tushunish:* Behbudiy tarixni islom ta’limotini to‘g‘ri tushunish va uni zamonaviy hayotga tatbiq etish uchun zarur deb bilgan. Islom tarixini o‘rganish orqali, Behbudiy dinning haqiqiy mohiyatini, uning taraqqiyotga qo‘shgan hissasini va jamiyatni uyg‘onishga undaydigan jihatlarini namoyon qilmoqchi bo‘lgan.

Umuman olganda, Behbudiy tarixni o‘qitish orqali jamiyatni yuksaltirish, uni ma’rifatli qilish, xalqni taraqqiyot va islohotlarga tayyorlashni o‘zining asosiy maqsadi deb bilgan. Bu yondashuv, uning jadid ma’rifatparvarlik harakatidagi faoliyatining markazida turdi.

Xulosa qilib aytganda, M.Behbudiy tarix fanining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini chuqur anglagan shaxs bo‘lib, tarixni o‘rganishning zarurligini keng targ‘ib qilgan. U tarixni nafaqat ilmiy, balki ma’naviy rivojlanishning muhim vositasi sifatida ko‘rgan. Behbudiy, tarix va geografiya kabi “aqlli ilmlar”ni jamiyatni yangilash va taraqqiy ettirishda muhim vosita deb bilgan. Uning fikricha, tarixni bilmasdan, insonlar o‘zining va jamiyatining kelajagini to‘g‘ri anglashlari mumkin emas. Shu bilan birga, tarixni o‘rganish, nafaqat o‘tmishdagi voqealarni tushunish, balki jamiyatdagi har qanday ijtimoiy, siyosiy va diniy muammolarni hal etishda muhim bir vosita bo‘lib xizmat qiladi. Behbudiyning tarixga bo‘lgan yondashuvi va faoliyati, jadid harakatining ma’rifatparvarlik yo‘lidagi fidoyiligi va jasorati bilan bog‘liq bo‘lib, ularning faoliyati bugungi kunda ham o‘rganish va tushunish uchun katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алимова Д. Жадидчилик мустамлака даври тарихчиси талқинида. Ўзбекистон тарихи: янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар.-Т.: Эльдинур, 1998.
2. Д.Алимова, Д.Рашидова. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. — Т.: Академия нашриёти. 1999. — 53 б.
3. K.Hashimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi: Darslik. Q2/ — T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005.— 304 b. 195-200
4. Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2022-yil 19-yanvar.

5. https://uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/mahmudxuja-behbudiy

TURKISTON JADIDCHILARI MA’RIFATCHILIK G’OYALARINING SHAKLLANISHIDA ESTETIK QARASHLARNING TUTGAN O’RNI XUSUSIDA

Quvvatov Sardor Isomiddinovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishi, ma’rifatparvarlar g’oyalarining shakllanishida estetik qarashlarning tutgan o’rni, san’at, adabiyot, ularning ijtimoiy hayotdagi roli xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: jadidchilik, adabiyot, estetika, jamiyat, teatr, ma’naviyat, go’zallik, axloq, ma’rifat, tarbiya.

Ma’lumki, yurtimizda yoshlarimizni har tomonlama etuk, komil inson qilib tarbiyalashda Vatanimiz tarixi va allomalarimiz tarixiy merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o’rinda turkey olam tarixida o’chmas iz qoldirgan jadidchilarimiz ilmiy-ma’naviy merosini o’rganish va targ’ib qilish yoshlar kamolotida beqiyos ahamiyatga ega. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo’llagan Murojaatnomasida jadidlarning ta’lim-tarbiya to’g’risidagi ahamiyatini ta’kidlab quyidagi fikrlarini keltirib o’tadi: “ Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o’rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qanchalik o’rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko’p savollarga to’g’ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ’ib etsak, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi”[1].

Tarixdan ma’lumki, XIX asrning oxirlari va XX asr boshlariga kelib jamiyatning eng ilg‘or fikrli qatlamlari kurashlarini aks ettirgan milliy uyg‘onish muayyan mafkura sifatida, birinchi navbatda, ma’rifatchilikda ko‘rindi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi bo‘lgan mazlum Turkistonda ham Uyg‘onish ro‘y berdi. Nisbatan qisqa vaqtni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, bu Uyg‘onish hayotning barcha sohalarida aks etdi. Ularning asosiy maqsadi Turkistonning milliy ozodlikka erishishidan iborat edi. Erishishning yo‘lini esa ular xalqni ma’rifatli, o‘z insonlik huquqini talab va himoya qila oladigan darajaga ko‘tarishda deb bildilar. Buning uchun esa, ular nazdida uch yo‘nalish muhim edi; maorif, san’at va matbuot. Shu nuqtai nazardan ma’rifatchi jadidlarning san’atga, ayniqsa, uning o‘sha davrda eng qamrovli bo‘lgan turlari adabiyot va teatrga alohida e’tibor berganlari tabiiydir. Ma’rifatparvarlar san’atni turlarga bo’lish, har bir turning o’ziga xosligi, imkoniyatlari, janr xususiyatlari to’g’risida muayyan

qarashlarni ilgari surganlar. Ahmad Donish, Muqumiy, Furqat san’atning rang-barang turlari – rassomlik, she’riyat, musiqa ashula, teatr asarlariga alohida e’tibor beradilar, ularning estetik xususiyatlarini, ifodaviy va tasviriy imkoniyatlarini asoslab beradilar[2]. Zero ma’rifatchi jadid mutafakkirlar axloqiy va estetik tarbiya orqali millat ozodlikka erishadi, deb hisoblar edilar. Shu bois jadidlikni ma’lum ma’noda ijtimoiy-axloqiy-estetik harakat deb aytish mumkin.

Abdulla Avloniy (1878-1934) she’rlarida va dramalarida kishilarning hayot nafosatiga bo‘lgan intilishlarini kuylaydi. Avloniyning estetik fikrlarga boy «Tog‘lardan bir manzara» she’ri, «Ikki muhabbat», «Turkiy guliston yoxud axloq» asarlari mavjud. Shoirning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida inson hayoti va taqdir, Turkiston xalqlarining milliy uyg‘onish ruhi g‘oyaviy-badiiy manzaralar orqali ifodalab berilgan. Asardagi barcha hikoya va rivoyatlar insonning komil inson bo‘lishiga, har bir kishining yuksak axloqli va ma’naviy go‘zal, ilmli va ma’rifatli bo‘lishiga qaratilgan. Ushbu asar falsafiy-estetik mazmunga ega bo‘lgan badiiy teran va go‘zal asardir.

Avloniy fikricha, insonning axloqiy-estetik kamoloti uning fan, milliy madaniyat va ma'naviy qadryatlarni ko'paytirishga intilishi bilan uzviy bog'langandir.

Avloniy o‘zi yashayotgan davrda kishilarning ilm-ma’rifatga e’tiborsizligini «Tog‘lardan bir manzara» she’rida quyidagicha ifodalaydi:

Kecha-kunduz bizlar dardu mehnatda,
Ilm ila ovrupolik nondon emish.
Nonimizni teva qilib berurlar,
Bizlar xo‘p befarosat, nodon emish.

Bu misralar bilan Avloniy xalqning turmush tarzi qanchalik qiyinligini hamda yosh avlodni bilim olishga chorlashini ko‘ramiz.

Samarqandlik mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) ilm-fan, madaniyat va ma’rifat, san’atga doir o‘zining bir nechta asar, risola, pesa, maqolalarini yozgan. U inson go‘zallik g‘oyasini xorijiy tillarni o‘rganish orqali namoyon etadi, deydi. Behbudiy xalqni ilm-ma’rifat egasi bo‘lish uchun o‘limga ham tayyorligini quyidagicha ta’kidlaydi: «Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz».

Behbudiy «Padarkush» dramasida ma’rifatparvarlik va zamonasining estetik tushunchalarini yorqin aks ettirdi. Ayniqsa, dramada fojiaviylik tushunchasi jamiyatda naqadar og‘ir so‘z ekanligini talqin etadi. Shunday qilib, Behbudiyning o‘zbek madaniyati, adabiyoti va milliy tafakkuri rivojidagi roli beqiyos kattadir.

XX asrda o‘zbek xalqining asl farzandi Abdurauf Fitrat (1886-1938) serqirra ijodi bilan ilm-fan va madaniyat tarixida samarali iz qoldirgan siymodir. Fitrat

«Hind sayyohi qissasi», «O‘zbek klassik musiqasi», «Chin sevish», «Aruz haqida», «Adabiyot haqida» degan qimmatli asarlari, she’riy risolalari bilan o‘zbek estetik tafakkurini boyitdi. O‘zining «Hind sayyohi qissasi»da Buxoroni azal-azaldan olimu fuzalolarning maskani ekanligi haqida shunday deydi: «Buxoro qadimdan o‘ta dono va zukko fuzalo ahlini tarbiyalab, jahonga hadya etib, o‘zining sharafli dovrug‘ini dunyo xalqlarining quloqlariga zirak qilib taqqan».[3] Fitrat Buxoroning yuksak va ulug‘vor tarixiy shahar ekanligini va undagi «ma’naviyat yulduzlari» jahon xalqlarini lol qoldirganligini ta’kidlaydi.

Fitrat o‘z ijodida Vatanga bo‘lgan muhabbat, el-yurtini sevish, ona yurti go‘zalliklarini doimo asrab-avaylash kerakligini she’rlarida kuyladi. O‘z Vatani go‘zalliklari va nafosatini jilvali so‘zlar bilan tasvirlaydi:

Qarindoshlarim, mana, sizga bir o‘lka,
Kim topilmas er yuzida singari.
Har yonida keng, yam-yashil uchmohlar,
Jon suvidan etishgandir gullari

Bu so‘zlar bilan Fitrat kishilarni o‘z yurtini sevishga, farovon hayot uchun intilishga chorlaydi. Fitratning estetik g‘oyalarga boy hayoti va ijodi hozirgi kunda insonlarni o‘z Vatanini sevish, ardoqlash, insonni tashqi va ichki go‘zalligini doimo bezashda muhim ahamiyatga egadir.

Agar biz Furqat va Anbar otin ijodini, ma’rifatchi-jadidlar nafosatshunosligining dastlabki bosqichi desak, uning yuksak pog‘onasini Fitrat, Hamza, Sadriddin Ayniy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon singari ulkan ijodkorlar qarashlarida ko‘rishimiz mumkin. Ular orasida, ayniqsa, Fitrat bilan Cho‘lponning estetik qarashlari alohida diqqatga sazovor. Zero bu qarashlar ma’lum ma’noda san’at falsafasi sifatida muayyan nazariy asoslarga qurilgan. Shu jihatdan Abdurauf Fitratning «Adabiyot qoidalari» risolasi e’tiborga molik.

Fitrat badiiy adabiyot nima ekanini anglatish, nazariy ta’riflash uchun eng avvalo «san’at» va «go‘zal san’atlar» iboralarini tushunib olish lozimligini aytadi. U san’atning ikki xil-manfaatli va manfaatsiz, ya’ni hunar-san’at hamda sof san’at bo‘lishini tanbursoz usta bilan «Iroq» kuyini chalgan sozanda-tanburchi misolida jonli tushuntirib beradi; tanburning yaxshiligi - ishga yaraganligi, foyda keltirgani. «Iroq kuyining yoxshiligi esa kishiga ma’naviy ta’sir etmak... Shuning uchun buning yoxshilig‘iga, yoxshiliq emas go‘zallik deydilar. Bunday san’atlarga «go‘zal san’atlar» deyiladir.

Mutafakkir bu bilan bevosita bo‘lmasa-da, bilvosita go‘zallikning manfaatsizlik xususiyatini ham ta’kidlayotgani ko‘rinib turibdi. Ayni paytda u go‘zallik yaratishga qaratilgan san’atlarning muayyan madaniy darajaga ko‘tarilgan xalqlarda mavjud bo‘lishini va uning asosiy vazifasi idrok etuvchini bir tomondan, ovuntirish, ikkinchi tomondan, tarbiyalash ekanini aytib o‘tadi: «Miyasi

yuksalmagan bolalar, san’atdan habarsiz kishilar shodliqli, qayg‘uli tuyg‘ularini sakrab, o‘ynab, kulib, yig‘lab, talpinib jonlantiradilar, ochiqqa chiqarib boshqalarg‘a onglatadilar-da, shu yo‘l bilan ovuntirilg‘an bo‘ladirlar, san’at egalari esa turli tovar (material) lar yordami bilan o‘zlarining tuyg‘ularini jonlantirib maydong‘a chiqaradilar.

Bundan tashqari, Fitratning «Adabiyot qoidalari»dan boshqa musiqamiz tarixi va aruz nazariyasiga bag‘ishlangan risolalari ham borki, ular nafosatshunoslik nuqtai nazaridan qimmatlidir.

Jadidlik harakatining namoyandalari san’at asarlarida katta ijtimoiy ahamiyatga molik bo’lgan mavzularni badiiy obrzli tarzda tasvirlaydilarki, ular ulug’vorlik estetik kategoriyasining mazmuni orqali anglashiladi, idrok etiladi. Shunga ko’ra ular kishilardan yuksak maqsad, ideal-ozodlik yo’lidagi ijtimoiy faollik, safarbarlikka yo’naltiruvchi his-tuyg’ularni uyg’otadi.

Masalan, Cho’lponning «Xalq» sarlavhali she’ri xuddi shunday estetik qimmatga egadir.

Xalq dengizdir, xalq to’lqindir, xalq kuchdir.

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o’chdir.[4]

Cho‘lponning go‘zallik haqidagi tushunchasi o‘ziga xos, asosan u shoir she’rlarida «go‘zal» so‘zi orqali aks etadi. Hz fikrini sho‘rolar senzurasidan yashirib ifodalash maqsadida shoir «go‘zal» so‘ziga turli xil ma’nolar yuklaydi: u, bir tomondan, ko‘p etmas go‘zal yor, ikkinchi tomondan sururiy (romantik) go‘zallik. Lekin har ikki xolatda ham tagma’no tutqunlikka mahkum go‘zallikni, go‘zal Turkistonni o‘zida mujassam etadi.

Cho‘lpon Fitratga o‘xshab, nafosatshunoslik yoxud muayyan san’at turlari nazariyasiga doir maxsus risolalar yozgan emas. Lekin uning bir qator maqolalari borki, ularda badiiy adabiyot, teatr san’ati, aktyor mahorati muammolari ko‘tarilgan.

Cho‘lpon badiiy ijod sohiblaridan «yangicha» yozishni talab qiladi. Yangi zamonda Navoiy yo Lutfiylar tilida, uslubida yozish mumkin emasligini jo‘shib shunday anglatadi; «Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o‘qiymen; bir xil, bir xil, bir xil! Ko‘ngil boshqa narsa-yangilik qidiradir...» Ana shu narsa-»yangilik»ni Cho‘lpon ulug‘ hind yozuvchisi Rabindranat Thokur (Tagor)da ko‘radi. Tagor, uning nazdida, zamonaviy Sharq san’atkorining namunaviy timsoli. Shu sababli ham Cho‘lpon Tagorga bir emas, uch maqola bag‘ishlaydi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, Cho‘lpon ham boshqa jadid-mutafakkirlari kabi millatni nafosat tarbiyasi vositasida uyg‘otishni asosiy vazifa deb bilgan. Shu bois uning asosiy diqqati o‘sha davrlarda nisbatan ommaviy bo‘lgan san’at turlari-badiiy adabiyot va teatrga qaratildi.

Fikrimiz xotimasi sifatida shuni aytish mumkinki, jadidchi ma’rifatchilarimiz oz muddat ichida nafis san’at targ‘ibotini yo‘lga qo‘ydilar. Biroq, afsus bilan aytish kerakki, yangi mustamlakachilik siyosati asosiga qurilgan Sho‘rolar davlati ularni qatag‘on qilib, asarlarini ta’qiqlab, Turkiston xalqlari Uyg‘onishi harakatiga chek qo‘ydi. Shunga qaramay, ular qoldirgan meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyati va ta’sir kuchini yo‘qotmadi. Ayniqsa ularning axloqiy, estetik qarashlari yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi https://www.gazeta.uz/uz2020/01/24/president-speech/
2. E.Umarov, R.Karimov, M.Mirsaidova, G.Oyxo’jayeva, Estetika asoslari, T.: - 2007. – B-44
3. Абдурауф Фитрат. Ҳинд сайёҳи қиссаси. «Шарқ юлдузи», 1993, №8 7-бет.
4. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. T. 1991y., 408-bet.

XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA MA’RIFATPARVARLARIMIZ TOMONIDAN TASHKIL ETILGAN YANGI USUL MAKTABLARI

Ruzimuradov F.Sh.
Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi san’at bo‘limi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston tarixining bir qismiga aylangan. Jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan yaratilgan yangi usul maktablari hamda shu davrda ta’lim sohasida olib borilgan ishlar haqida yoritib beradi.

Аннотация: данная статья освещает ставшим частью истории Узбекистана тот период, когда активно создавались новометодные школы, созданные деятелями джадидистского движения, а также работы, проведенные в сфере образования в этот период.

Abstract: This article highlights the period that has become part of the history of Uzbekistan, when newfangled schools were actively created, created by figures of the Jadidist movement, as well as the work carried out in the field of education during this period.

Kalit so‘zlar : Turkiston, ma’rifatparvar, jadid, yangi usul maktabi, an’anaviy ta’lim, ta’lim, mustamlaka, chor Rossiya, “Usuli jadid”, “Usuli savtiya”

Ключевые слова: Туркестан, просвещение, джадид, новометодная школа, традиционное образование, образование, колонизатsiя, царская Россия, метод джадида (“Usuli jadid”), метод савтия (“Usuli savtiya”).

Keywords: Turkestan, enlightenment, Jadid, new-style school, traditional education, education, colonization, tsarist Russia, the Jadid method (“Usuli jadid”), the savtiya method (“Usuli savtiya").

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkustonda, chor Rossiyasi tomonidan mustamlakachilik siyosati oqibatida o‘lkada iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma’rifiy jihatdan tanazzulga yuz tutdi. Turkustonda etishib chiqan ziyolilar tomonidan, chor Rossiyasining mustamlakasidan qutilish maqsadida, o‘lkaning iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma’rifiy bilimlarni oshirish hamda xalqqa ziyo tarqatish maqsadida

ma’rifatparvarlik (Jadidchilik) harakatiga asos solinadi hamda Jadidlar tomonidan milliy g‘oyaga yog‘irilgan yangi usul maktablari yaratiladi.

Jadidchilik harakati o‘lkada iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy hayotni yangilash maqsadida islohotlar o‘tkazishga qaratilgan dasturidan biri yangi dunyoviy xalq maorifi tarmog‘i va oliy ta’limni shakllantirish hamda umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish bo‘lgan.

Ushbu dasturni amalga oshirishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko‘rsatishgan.

Mustamlaka davrigacha Turkistonda an’anaviy ta’lim tizimi islom dini qoidalari asosida tashkil qilingan bo‘lib, 10 yil davomida ta’lim berilgan. Maktab va madrasalarda diniy ta’lim bilan birga qisman dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. Boshlang‘ich ta‘lim maktablarda 5-6 yil davomida o‘qitilib, arab alifbosi, harfarning o‘qilishi, talafuzi o‘rgatilgan so‘ngra Qur’on suralari va oyatlaridan iborat bo‘lgan «Haftiyak» (ya’ni Qur’oni Karimning ettidan biri) kitobi o‘qitilgan. Keying bosqichda oliy ta’lim madrasalarda berilib, unda diniy-huquqiy bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlangan.

Yangi usul maktablarida o‘qitish bollarni qisqa muddat ichida diniy va dunyoviy ta’lim berish dasturi asosida yuritilgan. Ushbu dasturga asosan, ikki bosqichli o‘qitish tizimi joriy qilingan. Birinchi bosqichda o‘qitish 4 yil davom etib, “ibtidoiya” deb atalgan. Ushbu bosqichni tugatgan talabalar eski maktabda 10 yil o‘qiganga qaraganda ikki barobar tezroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqich “mutavasita” deb atalib, muvaffaqiyatli tugatgan talabalar arab, fors, rus va turkiy tillarda erkin gaplasha olgan.

Toshkentda birinchi yangi usul maktabi binosi. 1896-yil

Dastlab 1893-yilda yangi usul maktablari (“Usuli jadid”, “Usuli savtiya”) Toshkent, Samarqand va Qo‘qon shaharlarida ochilgan. 1900-1913 yillar davomida ma’rifatparvarlarimiz tomonidan birin kettin ko‘plab yangi usul maktablari ochila boshlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan 1899-1900 yillarda haj safariga chiqadi. Behbudiy safar chog‘ida yangi usul maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan Samarqandda maktablar tashkil etiladi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi.

Munavvar Qori Abdurashidxonov1901-yilda o’z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli dahalarida yangi usuldagi maktablar ochib, milliy maktabga asos soladi. Bu maktablar uchun 1907-yilda “Adibi avval”, “Adibi soniy” darsliklarini yaratadi, “Tajvid al-Qur’on”, “Er yuzi” singari qo’llanmalarni nashr ettirdi. Bolalar uchun qator she’riy va nasriy hikoyalar yozdi.

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida millat bolalarini savodxon qilish, ulardan olim va mutaxassislar tayyorlash yo‘lida yangi usul maktablarini tashkil etishda fidoyilik ko‘rsatdi. “Usuli jadid” maktablari uchun to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yohud axloq” kabi darslik va o‘qish kitoblarini tuzdi. Maktab-maorif ishlariga yordam ko‘rsatish maqsadida do‘stlari bilan hamkorlikda xayriya jamiyatini tashkil etdi. “Nashriyot” shirkati tuzib, “Maktab kutubxonasi” kitob do‘koni ochdi.

Samarqanddagi yangi usul maktabi. 1911-yil.

Abduqodir Shakuriy Samarqand gimnaziyasida ko‘rgan va o‘zi orzu qilgan yangi o‘qitish usullari Rossiyaning turli joylarida yashagan boshqa turkiy xalqlarda ham mavjudligini gazetalardan bilib oladi. Shakuriy do‘stlari yordamida Qo‘qon shahriga boradi va u erda yangi maktabdagi o‘qitish usullari bilan tanishadi hamda Samarqandga qaytib kelgach, o‘z qishlog‘i Rajabaminda 1901 yilning kuzida birinchi yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi. Shakuriy maktabining shuhrati keng tarqala boshladi, O‘rta Osiyodagi boshqa ma’rifatparvar kishilarning diqqatini jalb etdi.

Siddiqiy tomonidan 1903 yilda Halvoyi qishlog‘ida qurdirilgan maktab binosi

Saidahmad Hasanxo‘ja o‘g‘li Siddiqiy (Ajiziy) bir qator sharq mamlakatlarida bo‘lib, islom dunyosidagi yangiliklar bilan tanishadi, bir necha muddat Jiddada Rusiya elchixonasida tilmochlik qiladi. So‘ngra Moskva, Peterburg shaharlarini aylanib, Tiflisga o‘tadiyu Nihoyat Samarqandga qaytib, 1903 yilda Halvoyi qishlog‘ida yangi maktab ochadi. O‘zi ochgan maktabda tabiiy fanlar, arab hamda rus tillarida saboq berdi va ko‘plab darsliklar tuzdi.

Hoji Mu’in Shukrullo o‘g‘li 1901-yilda eski maktabda muallimlik faoliyatini boshlaydi. Bu sohadagi muayyan tajribalar natijasida va albatta, Abduqodir Shakuriyning maktabi ta’sirida 1903-yili Xo‘ja Nisbatdor mahallasida o‘zi yangi usuldagi maktab ochadi. 1903-1916-yillarda esa yangi usuldagi maktablarda muallimlik qilgan hamda “Rahnamoi savod” alifbo darsligini yozgan (1908).

Porso Xo‘jaev 1905-yildan “Yosh buxoroliklar” harakati a’zosi bo‘lib, Buxoro zaminida yangi usul maktablari ochish, qiroatxona va kutubxonalar tashkil etish, jadid gazetalarini chiqarishda faol ishtirok etdi.

Buxorodagi yangi usul maktabi. 1918-yil

Mirzo Abdulvohid Burhonov (Munzim) 1908-yilda Samarqandga borib, jadid maktablaridagi o‘qitish uslubini Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abduqodir Shukuriydan o‘rganadi va shu yili o‘z hovlisida jadid maktabi, 1909-yilda esa katta yoshdagilar uchun kechki maktab tashkil etadi.

Muhammadsharif So‘fizoda 1913-yilda Chustda usuli jadid maktabini ochadi. Kamarsada qishlog‘ida etim bolalar uchun “Dor-ul-aytom” (“Yetimlar uyi”) va kattalar uchun kechki maktab tashkil etadi. Bu maktablarda u ona tili, handasa kabi fanlardan dars beradi.

Is’hoqxon Ibrat ko‘plab Sharq va Yevropa mamlakatlari bo‘lib, shu davrlarda arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini o‘rganadi. U 1896-yilda o‘z yurtiga qaytib keliadi. 1901-yilda “Lug‘ati sitta alsina” asarini bosmadan chiqaradi. Mazkur lug‘at jadid maktablarida sharq va rus tillarini o‘rganishda muhim qo‘llanma hisoblangan.

Germaniyada turkistonlik talabalarning birinchi guruhi. 1922 yil, Berlin

XIX asr oxirida Turkistonda yangi usuldagi maktablar sanoqli bo‘lgan bo‘lsa, 1911-yilga kelib ularning soni 63 taga, o‘quvchilarning soni 4106 nafarga etadi. 1917-yilga kelib o‘lkada 100 ga yaqin yangi usuldagi maktablar mavjud bo‘lgan.

Yuqoridagi yangi usul maktablaridan zamonasining etuk olimlari, adabiyotshunoslari, rassomlari, shoirlari, san’atkorlari, maorif sohasi mutaxassislari etishib chiqdi.

Yangi usul maktablaridagi milliy g‘oyalarga asoslangan ta’lim berishi o‘lkada hukmron bo‘lgan mustamlakachi hukumat tomonidan kuzatuv va nazoratda bo‘lib, 1911-yilda 50 ga yaqin jadid maktablari yopib qo‘yiladi hamda yangi usul maktablarini ochish tashabbuskorlari qattiq nazorat ostiga olinadi.

Yangi usul maktablari milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkinligini isbotlaydi. Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, ma’rifatparvarlarimiz va yangi usul maktablarini tugatgan ziyolilarimiz, zamonaviy o‘zbek jamiyati va davlatchiligi shakllanishiga katta hissa qo‘shgan ajdodlarimiz xisoblanadi. Ularning boy ilmiy va ijodiy merosi bugungi murakkab davrda O‘zbekistonda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda, o‘z mustaqil

fikriga ega hamda fidoyi va vatanparvar avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998;
2. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999;
3. ‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob [Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida], Toshkent, 2000;
4. 2-kitob O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida, Toshkent, 2000;
5. Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash, Toshkent, 2001.
6. B.Xasanov. N.Karimov. Jadid ma’rifatparvarlik xarakatining g‘oyaviy asoslari.
7. “Toshkent islom unversiteti” Toshkent 2016.
8. М.Турдалиева, Н.Абдувоитов, А.Аҳмедов (видео), ЎзА
9. Arxiv.uz internet portali

JADIDLARNING DASTURIY QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR MASALALARI

Ibodat Sattarova

O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

ibodatsattarova2020@gmail.com, +998 90 284 46 49

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilarning xotin-qizlar masalasi bo’yicha qarashlari, xotin-qizlarga munosabatlarning ahvoli, ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi fikrlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Mahmudxo’ja Behbudiy, Fitrat, Avloniy, jadidchilik, xotin-qizlar, ma’naviyat, odob-axloq, jamiyat.

Ибодат Саттарова – старший преподаватель Узбекско-Финляндского педагогического института.

Аннотация: В данной статье изложены взгляды джадидов Туркестана начала XX века на вопрос о женщинах, состояние отношений с женщинами, их значение в жизни общества.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, Фитрат, Авлони, джадидизм, женщины, духовность, нравы, общество.

Ibodat Sattarova is a senior teacherat the Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Abstract: This article describes the views of jadids in Turkestan at the beginning of the 20th century on the issue of women, the state of relations with women, their importance in the life of society.

Key words: Mahmudhoja Behbudi, Fitrat, Avloni, Jadidism, women, spirituality, manners, society.

Umuman biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha targ‘ib etsak, xalqimiz ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi.

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Jadidlar o‘z g‘oyalarini badiiy adabiyotlari, matbuoti, teatr san’ati va boshqa vositalar orqali xalq orasiga tarqatishga harakat qildilar. Jadidlarning qarashlarida Vatan, Millat, Ma’rifat g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi va ular yangicha mazmun kasb etadi. Yozgan asarlarida ham jaholatga, nodonlikka, qoloqlikka qarshi kurashishga da’vat qiladi.

Jadidlar ayniqsa yosh avlod tarbiyasida onalarning roli beqiyos ekanligini uqtiradilar. Chunki farzandining, umuman, millatning ilk tarbiyasi ayollar qo‘lida ekanligi, o‘zida aql va idrok bo‘lmagan ona farzandini ham qobiliyatsiz bo‘lib qolishiga sababchi bo‘lishini achchiq haqiqat deb biladilar. Bu masala Abdurauf Fitratning “Oila” nomli asarida juda mazmunli qilib ochib berilgan. Darvoqe, onalar farzand tarbiyachilari ekan avvalo o‘zlari etarli darajadagi ilmli bo‘lishlarini ta’kidlaydi. “Farzand tarbiyasi aslida ikki kalimadan iborat. Shuning uchun ham nazaringizda juda mayda muammodek ko‘rinadi. Lekin dono odamlar biladilarki, Bani Odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so‘z – “Bola tarbiyasi”dan iborat birikmaga bog‘liq. Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jamosini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi, bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq” **[1]**

Mahmudxo‘ja Behbudiy ham onalarni ilmli bo‘lishi bilan birga o‘zga tillarni ham bilishi ko‘proq maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydilar. “Taraqqiy etgan millatlar onalari o‘qitilar ekan, biz avvalo onamizni o‘qitub, anga til o‘rgatmog‘omiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur”**[2].**.) Bugungi kunda ham davlatimiz siyosatining asosiy ustuvor masalalaridan biri bu jahon tillarini o‘rganish, bu orqali hayotimizga kirib kelayotgan innovatsiyalarni chuqurroq o‘rganishni taqoza qilmoqda. Behbudiy yana ahamiyat beradigan bo‘lsak “...yer yuzidagi barcha millatlar o‘z bolalarining ibtidoiy tarbiyasiga va maktablarning har jihatdan intizom va akmalig‘a ko‘p ahamiyat berib, bolalarini milliy va diniy ruhda kamol suvratda etushtirurlar. Aning uchundurki, o‘zga millatlar diniy va milliy hissiyotga molik bo‘lur, har ishda diyonat va millatni muqaddam tutarlar. Va luzumi kelganda, bu yo‘lda mol va jonlarini fido qilmoqga hozir turarlar” **[3].** Shu boisdan ham ta’limga

sarflangan sarmoya eng samarali sarmoya sanaladi. Mol-dunyo bu o‘tkinchidir, yoshlar ilmli va hunarli bo‘lsa demak ularni kelajagi porloq bo‘ladi, yomon yo‘ldan yurmaydi. Har xil aqidalar ta’siriga ham berilmaydi, mafkuraviy va ma’naviy jihatdan barkamol bo‘ladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” dramasida yuksak mahorat bilan ilmsizlikning oqibatini ochib beradi. Bir lahzada hamma narsadan mahrum bo‘lgan, eri o‘ldirilgan ayol shunday hayqirib dod soladi. “He, juvonimarg Toshmurod! Qon qus! Koshki chechakda ketsayding! Voy padarkush”. Aynan shu daqiqada Domullo boyning xotiniga tanbeh beradi: “Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, be’manilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi”. Ziyoli tilidan shunday yozadi:”Agarda bularni otasi o‘qitsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo‘lmas edi. Oh, haqiqatda boyni o‘ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyg‘a giriftor qilgan beilmlilikdir”**[4].** Shu o‘rinda bunday voqealarni oldini olishda albatta ilm bilan birga tarbiya ham katta rol o‘ynaydi. Farzandlarning birinchi tarbiyachisi onalar sanaladi, demak Toshmurodga onasi tarbiya berganda, o‘zining ta’sirini o‘tkaza olganda, balki bunday xunuk voqea sodir bo‘lmas edi. Hayotda juda ko‘p misollarni keltirish mumkin, farzandlarni “boqdim vazifamni o‘tadim, usti but yana nima kerak, topgan molu-dunyom butun avlodimga etadi” deb o‘ylaydiganlar bugun ham topiladi. Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek: “...Kishilar tug‘ulishidan yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog‘liq. Tarbiya “yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur” deb ta’kidlaydi. Tarbiya tug‘ilgan kundan boshlanadi va umrining oxiriga qadar davom etadi. U ikki bosqichdan – uy va maktab tarbiyasidan tashkil topadi. Shu o‘rinda Munavvarqori Abdurashidxonovning quyidagi fikrlarida :”Maktab – bolalarning ikkinchi beshiklaridir. Ikkinchi beshikda muallimlar ilm va odob o‘rgatub, aql va fikrlarini o‘stirurlar. Bolalar uchun tanning salomatligi bilimdur. Ammo aql va fikrning salomatligi undan ortiqroq lozimdur” deya ta’kidlanib, tarbiyani oldingi darajaga qo‘yadi**[5]**..

Avloniy tarbiyaning doirasini keng tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. “Sog‘ tanda sog‘ aql” degan hikmatning bejiz emasligini yaxshi biladi. “Badanning salomat, quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. CHunki o‘qumoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur...Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo‘yib, astarini yuvib, ovora bo‘lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur” **[6].**

Xuddi shunday fikr mulohazalarni Aburauf Fitratning “Munozara”, Hind sayyohi bayonoti” va boshqa ko‘plab asarlarda ham aks etadi.

Xotin-qizlarning ilmli bo‘lishi masalasi bugungi kunda ham eng dolzarb masala sanalishi bejiz emas. 2022 yil 7-martda “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezidentimizning Farmoni qabul qilindi**[7].** Farmonda xotin-qizlarni o‘qishlari uchun 7 yil muddatga foizsiz kredit berilishi, magistratura bosqichiga to‘lov-kontrakt asosida kirgan xotin-qizlarning kontrakt pullari davlat byudjeti hisobidan to‘lab berilishi. Doktaranturada o‘qish uchun aynan xotin-qizlarga har yili 300 ta maqsadli o‘rin ajratilishi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tavsiyasi asosida har 2000 ta ehtiyojmand oilalarning qizlari uchun davlat granti asosida o‘qishga qabul qilish, “Hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmaydi” degan tamoyil asosida ayollarni hunar o‘rganishiga imkoniyat qilish va ularni ishli qilish aks etadi. Davlat tomonidan ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi asnosida ularning huquqiy himoyasi ham kuchaytirildi. Oilalarni mustahkamlash, farzand tarbiyasida ota-ona mas’uliyatini oshirish maqsadida obro‘li, bilimli xotin-qizlardan iborat “Oqila ayollar” harakati tashkil qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali ma’rosimda “Ayol qadri ulug‘langan yurtda tinchlik va farovonlik bo‘ladi” degan mavzudagi ma’ruzasida “Donishmandlarimiz “bitta qiz bolani o‘qitsangiz – butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz” deb bejiz ta’kidlamaganlar” deya ko‘proq xotin-qizlarni ilmli bo‘lishiga ishorat beradilar.

Xotin-qizlarimiz uchun erkin va farovon hayot barpo etish – davlatimiz va jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tengligini qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bas shunday ekan, xotin-qizlarimiz ham berilgan imkoniyatlardan etarlicha foydanib, yaxshi ilm olib farzandlar tarbiyasiga, jamiyatimiz rivojiga, Vatan ravnaqiga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shsalar nur ustiga a’lo nur bo‘lur edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Abdurauf Fitrat. Oila.Toshkent “Ma’naviyat” 1998. 55-bet
2. Jadid. gazetasi. 2024 yil 18-oktyabrь, 43-son, 2-bet
3.O‘sha joyda 143-bet
4. O‘sha joyda 60-61
5. Jadid. Gazetasi2024 yil 27-sentyabrь № 40
6. Olim Oltinbek. Jadidlar. Abdulla Avloniy. T.:Yoshlar nashriyoti uyi, 2022. 38-39-betlar
7. Xalq so‘zi. Gazet. 2022 yil 10-martdagi soni

FITRATNING SAN`AT RIVOJIGA QO’SHGAN HISSASI

Sanobar Nasrullayevna Xodjayeva
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Ijtimoiy gumanitar fanlar, tillar va jismoniy madaniyat” kafedrasi katta o`qituvchisi
E-mail:sanobarkhodjayeva75@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Abdurauf Fitratning san’atimiz rivojiga qo’shgan hissasi u haqida yozilgan asarlar, olib borilgan tadqiqot ishlar asosida tahlil qilindi. Buxoroda Sharq musiqa maktabini ochishda, “Buxoro Shashmaqomi”ni notaga olishda tashabbuskorligi yoritildi va “O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasi haqida mulohazalar yuritildi. O’ndan ortiq pesalar yozish orqali teatr rivoji yo’lidagi faoliyati ochib berildi.

Kalit so‘z va iboralar: Musiqa, maktab, Buxoro shashmaqomi, nota,san’at, drama, pesa.

Abdurauf Abdurahim o’g’li Fitrat qomusiy ilm sohibi bo`lib, shoir, yozuvchi, adabiyotshunos, tilshunos, tarjimon, muarrix, faylasuf, sharqshunos, davlat arbobi bo`lish bilan birga musiqashunos va dramaturg ham edi. A.Fitrat o’zining “O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli kitobida: “O’zim cholg’uchi yoki musiqiyshunos ham emasman. Mening musiqiy bilan munosabatim shudir, o’zimizning musiqamizni sevaman, ko’pda tinglayman, musiqamizda bo’lg’an shu muhabbatimning buyrug’i bilan bu to’g’rida yozilgan eski-yangi asarlarni axtarib, topib tekshiraman”[1] ,-deb yozgan bolsa-da, o‘z navbatida, nainki o‘zbek, balki zamonaviy tojik maqomshunosligining ham qaror topishi, shakllanishi va taraqqiy etishiga tamal toshini qo‘ydi. Uning madaniyatimiz ravnaqi, taraqqiyotida munosib o`rni bor. Fitrat mamlakatimizda birinchi bo`lib Buxoroda 1921 yil Sharq musiqa maktabini ochish va Samarqandda 1927 yil Musiqa va xoreografiya institutini tashkil etishda tashabbus ko`rsatdi.

Fitrat 1921-yilning 9-martida Toshkentdan Buxoroga qaytgach, ona yurtida maorif va madaniyat ishlari bilan jiddiy shug‘ullana boshladi. 1922-1923-yillarda Buxoro Xalq Sho‘rolar jumhuriyatining maorif noziri vazifasida ishlagan kezlari bu faoliyati doirasini yanada kengaytirdi. Uning musiqiy ta'limni yo‘lga qo‘yish va, umuman, musiqiy ishlarni jonlantirish sohasidagi tashabbuskorligi alohida ahamiyatga molik. Fitrat musiqiy ta'limni va bu sohadagi tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yishni ko‘zlab, Buxoro shahrining Ravg‘angaron guzarida Buxoro hukumati tomonidan o‘ziga berilgan hovli (hozir xususiylashtirilgan 8-uy)da ixtisoslashgan musiqa maktabini tashkil etdi. Bu maktab “Sharq musiqa maktabi” atalib, evropacha usuldagi musiqa maktabidan farq qilar, unda ta'lim jarayoni sharqona-ustoz-u shogird saboqlari asosida qurilgan edi. Buxoro hukumatining 1921-yil 10-avgustdagi farmoyishi bilan Abdurauf Fitrat direktor, domla Halim Ibodov ilmiy mudir etib tayinlangandi. Maktabda musiqa ta'limini amalga oshirishda o‘sha zamonning mashhur maqomdonlari Ota Jalol Nosir o‘g‘li, Ota G‘iyos Abdug‘ani

o‘g‘li, Levicha (Levi Boboxonov), Abdurahmon Umarov va Ma'rufjon Toshpo‘latov kabi ustoz san'atkorlar jalb etildi. Sharq musiqa maktabida tahsil olish bir yillik bo`lib, 50 nafar o`quvchilarga har oyda 15 oltin so’m miqdorida stipendiya, tekin oziq-ovqat, kiyim-kechak berilgan[2].

Fitratning katta xizmatlaridan biri safdoshi Fayzulla Xo’jayev bilan birgalikda rus musiqashunosi Viktor Aleksandrovich Uspenskiyni Buxoroga taklif qilib, maqomdon ustozlar Ota Jalol, Ota G’iyoslardan “Buxoro shashmaqomi”ni notaga ko`chirishda qatnashadi. 1924 yil N.N.Mironov va A.Fitrat tahriri ostida Moskvada nashr ettiriladi[3]. Bu nashr Buxoro shashmaqomini yanada mukammalroq qilib notaga ko‘chirishdan iborat keyingi ishlarga, shuningdek, maqomlarni ilmiy tadqiq etishga yo‘l ochib berganligi bilangina emas, balki «maqom pardalarining joy-joyiga to‘g‘ri qo‘yilganligi va umuman, lad(ushbu so’zning ma’nodoshi “asosiy kuy”) tiziminiig mukammal aks ettirilganligi bilan keyinchalik yuzaga kelgan ayrim to‘plamlarga qaraganda birmuncha ustun» ligi bilan ham ayricha ahamiyat kasb etadi.

Fitrat shashmaqom kuylarini notaga yozib olish ishlarini quyidagicha tashkil etishni yo‘lga qo‘ydi: sharq musiqa maktabining muallimi Ota Jalol boshchiligida navbatma-navbat shashmaqom sho’balariga oid u yoki bu kuyni doira va tanbur jo‘rligida ijro etishgan. V.Uspenskiy uni notaga ko‘chirgan, so‘ngra, shu yozib olingan kuyni, albatta, fortepianoda chalib bergan. Ota Jalol boshchiligidagi nufuzli hay’at nazoratida ma’qullanganidan keyingina nashr etishga tavsiya etishgan. Shashmaqomning notaga ko‘chirilishi jarayonini tezlashtirish, shu bilan birga, jozibali hamda mukammal yozib olinishini ko‘zlab, Fitrat o‘z uyida haftada bir marta Ota Jalol boshchiligidagi Ota G‘iyos Abdug‘ani, domla Halim Ibodov, Levicha, Abdurahmon Tanburiy (Umarov), Ma’rufjon Toshpo‘latov va boshqalardan iborat maqomxonlar ishtirokida musiqa bazmi uyushtirib turgan. Bazmda ijrochilar yozib olingan asarlar sifatini muhokama qilishgan, sozandalar xushhol kayfiyatda u yoki bu kuyni qayta-qayta ijro etishgan. Ular ijroning aniqligi, tiniqligi va jozibasiga ahamiyat berishganki, bu V.Uspenskiyga shashmaqomga xos sir-u sinoatni chuqurroq va teranroq anglashga, Fitratga esa uning nazariy asoslarini idrok etish va tahlil qila borishga imkoniyat yaratgan. Keyinchalik Fitratni badnom etuvchilar uchun bu bazmlar ma’lomat toshlariga aylangan esa-da, har qalay xuddi shu bazmlardagi bevosita ijro jarayonida Buxoro shashmaqomini ilk bor nisbatan to‘la hajmda yozib olish va notaga ko‘chirish ta'minlangan ediki, bu ulug‘ mutafakkirning o‘zbek milliy musiqasini kelajak avlodlarga etkazishda nechog‘li fidoyilik ko‘rsatganligini yaqqol tasdiqlaydi[4].

Fitrat o’zidan 300 bosma taboqqa yaqin ilmiy , adabiy meros qoldirgan. Uning 1926 yilda yozilib, 1927 yilda O’zbekiston davlat nashriyotidan chop etilgan, 75 sahifadan iborat “O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobi musiqa tarixi,

nazariyasini yoritish, ilmiy tahlil qilish borasidagi dastlabki manbadir. Risolaning orqa muqovasida Ota G’iyos Abdug’aniyevning(1854-1927) surati bor. Kitobning muqaddima qismi “O’zbeklarni o’rganish qo’mitasi” tomonidan yozilgan. Kitob ikki qismdan iborat. Dastlabki Sharq musiqasi(O’zbek musiqasi) qismida usul va pardalar, har bir maqomning sho’bachalari yoritiladi. Shuningdek, musiqa aspoblarining kelib chiqishi, takomil topish bosqichlari haqida nihoyatda teranlik bilan yondashib tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, nay, qo‘shnay, qo‘biz kabi o‘nga yaqin musiqa asbobining tuzilishi, shakli, uzunligi, qismlari va vazifasini aniq ko‘rsatib beradi. Ikkinchi qism “Musiqamiz tarixiga bir nazar yoki Turk musiqasi” deb nomlangan. “Sharq musiqasi” qismida XVI asrda “Musiqa haqida risola” yozgan Najmiddin Kavkabiyning fojiali taqdiri haqida ma’lumoti keltirgan[5].

Fitrat san’atning kelib chiqishini ilmiy o’rganib, 1927 yilda “Maorif va o’qitg’uvchi”ning 5-sonida bu haqidagi “San’atning manbai”(kelib chiqishi) maqolasini e’lon qiladi. Unda san’at nazariyasiga oid fikrlar rivojlantirilgan. San’atga ta’rif berishda, asosan unig lig’aviy ma’nosidan kelib chiqqan bo’lsa, san’at turlarini belgilash va tasnif qilishdaYevropa nazariyotchilari bilan hamfikr bo’lgan. San’atning o’ta qadimiy ekani haqidagi mavjud fikrlarni, ma’lum dalillarni keltirib o’tgan. “Insonliq tarixida bu qadar eski o’rin tutqon, san’atning paydo bo’lishi qandaydir? Bunga sabab nima emish?”,-degan savol qo’yadi. Savolga javob tarzda bu masalaning oilmlar tomonidan “turlicha izoh etilishi, bunday qarashlardan biri-san’atning kelib chiqishini”diniy tuyg’ularga bo’lab talqin etish ekanini ta’kidlaydi[6]. O‘zbek badiiy kinosi shakllanib kelayotgan ilk davrda (1927- yilda) A.Fitrat o‘zining "San’atning manbai (kelib chiqishi)" nomli maqolasida" kino oltita qadimiy ajoyib (raqs. musiqa, adabiyot, rang-tasvir, haykaltaroshlik, me’morchilik) san’atlarning samarali mevasidir"[7]-deb yozadi.

Fitrat 1916-1934 yillarda teatr uchun ko’plab asarlar yaratdi. “Begijon”, ”Qon”, “Abo Muslim”, “Temur sog‘anasi”, “O’g’uzxon”, “Zohhoki moron”, “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari”, “Abulfayzxon”, “Shaytonning tangriga isyoni”, “Arslon”, “Ro’zalar, “Vose’ qo’zg’oloni” singari o’ndan ortiq pesalar yozdi. Ammo uning nafaqat 1916-1918 yillarda yozgan «Begijon», «Qon», «Abo Muslim», “Temur sag’anasi”, “O’g’izxon” singari pesalari, hatto 30-yillarda yozgan “To’lqin” opera librettosi (1934) ham bizga etib kelmagan. Ma’lumki, Fitratning 5 pardali “Begijon” pesasida dehqonlarning xon zulmiga qarshi ko’targan isyonlari tasvir etilgan, “Temur sag’anasi” pesasida esa muallifning “Yurt qayg’usi (Temur oldinda)” sochmasidagi istiqlol uchun kurash g’oyasi o’zining badiiy tajassumini topgan. Fitrat shu yillarda yozgan boshqa sahna asarlarida ham tarixiy o’tmishga murojaat etganiga qaramay, bolsheviklarning Turkistonda olib borgan g’ayrimilliy siyosatiga faol munosabat bildirib, zulm va zo’ravonlikka asoslangan «yangi tuzum»ni keskin qoralagan. Fitrat ijodining shu davrdagi etakchi motivi -

bolshevizmga qarshi istiqlol uchun kurash g’oyasi “Chin sevish” (1920) va “Hind ixtilolchilari” (1923) pesalarida, ayniqsa, yorqin ifodalangan. Dramaturg Turkistonda Sovet hokimiyati yillarida sodir bo’layotgan fojiali voqealarni Angliyaning mustamlakasi bo’lgan Hindistonga ko’chirib, ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashayotgan hind ixtilolchi (istiqlolchi)lari siymosida, ma’lum ma’noda, o’z vatandoshlari obrazini yaratdi. J. Neruning e’tirof etishiga ko’ra, Fitratning bu asarlari hind xalqining mustamlakachilikka qarshi olib borgan kurashiga kuch va madad bergan.

Jadid mutafakkiri Moskvadalik paytida “Abulfayzxon” va “Shaytonning tangriga isyoni” (1924), ona yurtiga qaytganidan keyin esa “Arslon” (1926), “Sho’rishi Vose”(“Vose qo’zg’oloni”, 1927), “To’lqin” pesalarini yozdi. “Abulfayzxon” pesasi asosida ashtarxoniylar sulolasining so’nggi vakili Abulfayzxon saltanatining tanazzuli (18-asr) natijasida Buxoroda mang’it amirlarining hokimiyat tepasiga kelishlari bilan bog’liq tarixiy voqealar yotadi. Fitratning olis tarixiy davrga nazar tashlashdan maqsadi “Podsholik qon bilan sug’orilgan bir og’ochdir, Qon oqib turmagan erda bu daraxtning qurib qolishi aniqdir” degan “falsafa” bilan yashagan va o’zi ham shu g’ayriinsoniy “falsafa”ning qurboni bo’lgan Abulfayzxon singari qonxo’r podsholarni tarix qa’ridan olib chiqib, xalqqa ko’rsatishdir. Fitrat bu asari bilan bolsheviklar tuzumi 20-asrning Abulfayzxoni -Stalinni yaratishi va uning bepoyon mamlakatni qonga botirishini bashorat etdi. Shu ma’noda mazkur tragediya Fitrat zakosi bilan yaratilgan xalqni ogohlantiruvchi asardir.

“Arslon” pesasi 1926 yilda nashr qilinadi, respublikamiz sahnalarida muvaffaqiyat bilan o‘ynaladi. Asarning muqovasida shunday yozuv bor edi: ‘Arslon. Burungi Buxoro xonligida yashagan dehqonlar hayotidan olingan 5 pardali drama. Jumhuriyatimiz tomonidan muvaffaqiyat ham adolat bilan ijro etilmoqda bo‘lgan er islohotiga bag‘ishlayman”.

20-yillarning o‘rtalari va ikkinchi yarmida respublikada o‘tkazilgan er-suv islohoti kambag‘al dehqonlar hayotida katta voqea edi. Yersiz dehqon erli bo‘ldi, bu hol qishloq mehnatkashlari muhabbatini Sovet hokimiyati tomoniga butunlay tortib oldi. Mazkur voqelikka bag‘ishlab, uni qo‘llab-quvvatlagan Hamzadan tortib, Cho‘lpon, G‘ayratiylargacha qator badiiy asarlar yozib, sotsialistik tadbirlarni ma’qulladilar. Shular qatorida Fitrat ham “Arslon” pesasi bilan Sovet hokimiyatining agrar siyosatini qo‘llab, Oktyabr inqilobi, kompartiya va sotsializm kambag‘al dehqonga, batrakka nima berganligini badiiy ifoda etib berishni maqsad qilib oldi va bunga erishdi. Asarda voqea Buxoro amirligi davrida kechadi. Undagi kambag‘al dehqon Arslon, batrak - Botir, sudxo‘r -Mansurboy, viloyat hokimi - Bek, qishloq oqsoqoli -Ahmad oqsoqol, oddiy dehqon -Ko‘rhasan, ularning oila a’zolari,

bir qator amir amaldorlari o‘rtasidagi munosabatlar, to‘qnashuvlar asar mohiyatini ocha boradi.

“Arslon” pesasi sahnaga qo‘yilishi bilan adabiy jamoatchilik o‘rtasida shov-shuv bo‘lgani va tomoshabinlar e’tiborini tortgani haqidagi bir dalilni eslatib o‘tish o‘rinli: mashhur jurnalist va tanqidchi Komil Aliyev asar nashr etilgandan keyin bir yil o‘tgach, “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1927 yil 28-sonida e’lon qilgan taqrizida shunday deb yozgan edi: “Sahnamiz eski asarlardan, ohistalik bilan bo‘lsa-da, qutilmoqda va ularning o‘rnini sinfiy ruhda yozilgan asarlar ishg‘ol etmoqdalar. 24 fevralda xalq teatrusida o‘ynalgan “Arslon” pesasi bunga dalil…”[8].

Fitrat “Shaytonning tangriga isyoni” asarida zamona bilan yaqindan bog’langani va shayton obrazini, an’anaviy yo’ldan bormay, yangicha talqin qilganini sezish mumkin. Vaziyatdan kelib chiqib, doim salbiy ma’no ko’tarib yurgan Shayton obraziga ijobiy mazmun yuklaydi. Shayton odamga qarab turib, “Sen eslik bo’l, tusha qolma tuzoqqa”, deydi. O’zini erkin his qilgan Shaytonning ozodlikka, ilm-fanga chorlashi, hayotga ochiq ko’z bilan qarab, o’z kuchiga suyanib ish tutishga undashi, albatta, Fitratning bilvosita, kinoya, qochirim yo’li bilan aytgan fikrlaridir, dardidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. “Фан” нашриёти, 1993 йил.-б10.
2. N.Rajabova. BXSRda musiqa san’ati: mashhur san’atkorlar va qo‘shiqchilar tashrifi (1920–1924-yillar). Жамият ва инноватsiялар – Общество и инновации – Society and innovations. Special Issue – 01 (2022) / ISSN 2181-1415. –b118. https://inscience.uz/index.php/socinov/index
3. Ф.Тўраев. Бухоро шашмақоми. –б104.
4. Ҳ.А.Жўраев. Бухоро Халқ Совет Республикасидаги миллий санъат соҳасидаги ўзгаришлар. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022. ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1. -б133
5. И.Ғаниев. Шарқ мусиқасининг мўътабар қадршуноси. Бухоро ҳақиқати. 1991 йил 24 январ. №17 (18.048)
6. У.Ҳ.Жўрақулов. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. Филол. фан. номз... дисс. – Т., 1998.-б48
7. X.Boltaboyev “Fitrat va san’at nazariyasi”, ‘O'zbekiston adabiyoti va san’ati’gazetasi,1998 y.
8. Аҳмад Алиев. “Фитрат ва унинг “Арслон” драмаси. “Гулистон” журнали, 1989 йил, 12-сон.
9. И.М.Ғаниев. Фитрат драмаларининг жанр поэтикаси. Илмий хабарнома, АДУ, №2 2011 йил.-б70.

10. Илҳом Ғаниев. Фитратнинг “Шайтон”и ким эди? «Фитрат ва миллий тараққиёт» тўплам.Тошкент,»Фан»,2008.

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA AYOLLAR TA'LIMI KONSEPSIYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY VA PEDAGOGIK QARASHLAR

Xoliqulov Muhammad Qaxor o’g’li
O’zbekiston – Finlandiya pedagogika institute, Milliy g’oya va falsafa kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola XX asr boshlarida jadidchilik harakatining yorqin vakili Abdulla Avloniy asarlarida ayollarning ta’lim olishiga oid ilgari surilgan qarashlarni tahlil qiladi. Avloniy o‘z asarlarida ayollarni ta’limga jalb qilish orqali jamiyatning umumiy madaniyati va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish g‘oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, ayollarni o‘qitish kelajak avlodni bilimli va madaniyatli qilishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada Avloniyning ta’lim va tarbiya masalalariga oid qarashlari, ayniqsa, “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi fikrlari batafsil yoritiladi. Shuningdek, ayollar ta’limini rivojlantirish yo‘lidagi muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar tahlil etiladi. Avloniyning qarashlari bugungi kunning gender tenglik va ayollar huquqlarini kengaytirishga qaratilgan strategik rejalari bilan uyg‘un holda talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, ayollar ta’limi, jadidchilik, “Turkiy guliston yoxud axloq”, gender tenglik, jamiyat taraqqiyoti, ma’rifatparvarlik, ayollar huquqlari, tarbiya va ta’lim, ma’naviy kamolot.

XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda ijtimoiy va madaniy hayotda muhim o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Ushbu davrda ayollarning ta’lim olishi masalasi ko‘plab ziyolilar, xususan, Abdulla Avloniy kabi yirik adib va ma’rifatparvarlarning asarlarida muhim mavzu sifatida ko‘tarildi. Abdulla Avloniy o‘zining asarlari orqali ayollarni o‘qitish, ularning huquqlarini himoya qilish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qaratilgan g‘oyalarni ilgari surdi. Quyida Avloniyning asarlarida ayollar ta’limiga oid qarashlari tahlil qilinadi. Bugungi kunda Abdulla Avloniy ilgari surgan g‘oyalar o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi (58-modda)”. Shuningdek, “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining qarori”[1], “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”[2], “2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun ayollar ta’limi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.12.2022 yildagi SQ-682-IV-son
[2] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son

va huquqlarini kengaytirishga qaratilgan milliy strategiya”[3]lar ishlab chiqilgan. Muhtaram yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Ayollarga ilm berish-jamiyatni ilmli, ma’rifatli va salohiyatli qilish” degan aqidani hayotga izchil tadbiq etishni taqozo etadi”[4], degan purma’no so’zlaridan ham yurtimizda ayollar ta’limiga berilayotgan e’tiborni sezishimiz mumkin.

Ayollar ta’limining muhimligi haqidagi Avloniyning qarashlari

Avloniy jamiyat taraqqiyotini ta’lim va ma’rifat bilan bog‘lagan. Uning fikriga ko‘ra, ayollarni ta’lim bilan qamrab olish orqali jamiyat madaniyatini yuksaltirish va yangi avlodni tarbiyalash mumkin. Adib o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ayollar ta’limini faqatgina individual rivojlanish emas, balki jamiyatning umumiy farovonligiga xizmat qiluvchi jarayon sifatida ko‘radi:

“Agar ayol o‘qimagan, ma’rifatga ega bo‘lmasa, u qanday qilib bolalarini to‘g‘ri tarbiyalay oladi? Oila jamiyatning birinchi maktabidir va bu maktabning rahbari – onadir”. Shuningdek, “Ayollarimizni o‘qitmasak, ularning qashshoq fikrlari kelajak avlodning ma’naviyatini boy bermoqda”[5].

Avloniyning bu so‘zlari ayollarning oila va jamiyatdagi o‘rnini ochib beradi. Onalarning savodxon bo‘lishi kelajak avlodning bilimdon va madaniyatli bo‘lishiga xizmat qiladi. Xususan, A.Avloniy ta’kidlaganlaridek, “Tarbiyani tug’ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, axloqimizni go’zallantirmoq, zehnimizni ravshanlantirmoq lozim ekan”[6], ya’ni inson tug’ilganidan boshlab, unga ta’lim va tarbiya bermoqlik zarurdir degan g’oyani ilgari suradi.

Ayollarning ta’limdan chetlatilishiga tanqid

Avloniyning asarlarida jamiyatda ayollar ta’limidan chetda qolishining oqibatlari haqida tanqidiy fikrlar uchraydi. U o‘z davridagi an’anaviy qarashlarni qoralab, ayollarni ta’lim olishdan mahrum qilishni jamiyatning taraqqiyotiga to‘siq sifatida baholaydi. Masalan, u yozadi: “Jamiyatimizning muammosi shundaki, biz ayollarni bilimdan mahrum etamiz, ularning iste’dodini to‘g‘ri yo‘naltirmaymiz. Bu esa avlodlarimizning kelajagini xavf ostiga qo‘yadi”[7].

Avloniy bu erda faqat ayollarning emas, balki jamiyatning umumiy taqdiriga e’tibor qaratadi. Uning qarashlariga ko‘ra, ayollarning savodsizligi nafaqat ularning shaxsiy hayotiga, balki jamiyatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi deb to’g’ri xulosa beradi.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi qarashlar.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030-yilgacha ayollar huquqlarini himoya qilish va ta’limga keng jalb etish bo‘yicha strategik rejalari. Toshkent: 2021.

[4] Mirziyoyev Sh.Sh. Yangi O’zbekiston strategiyasi. –T.: O’zbekiston. 2021-yil. 464-bet.
[5] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. –T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018-yil. 45-bet.
[6] Jadidlar. Abdulla Avloniy. Risola. Olim Otinbek. –T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2022-yil. 84-85 betlar.
[7] Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Ma’naviyat. 2009-yil. 86-bet.

Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida axloqiy qadriyatlar va tarbiya masalalari markaziy o‘rinni egallaydi. Ushbu asarda ayollar ta’limi mavzusi ham keng yoritilgan. U ayollarni axloqiy tarbiyalash, ularning ma’naviy kamolotini ta’minlash orqali jamiyatni isloh qilish g‘oyasini ilgari suradi. Masalan, u yozadi:

“Bilimli va axloqli ayol – jamiyatning eng mustahkam tayanchi. Uning so‘zi va harakati oila va bolalarga ta’sir qiladi, ularning kelajagini belgilaydi”[8].

Bu erda Avloniy ayollarning bilimdon bo‘lishini nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy zarurat sifatida talqin qiladi.

Zamonaviy qarashlar va Avloniyning ahamiyati

Avloniy asarlarida ko‘tarilgan masalalar bugungi kunda ham muhim bo‘lib qolmoqda. Jumladan, qizlarni o‘qitish va ularga sifatli ta’lim berish orqali jamiyatda barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Shuning uchun Avloniyning fikrlari hali ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Ayollarni ta’limga jalb qilish usullari

Avloniyning asarlarida ayollarni ta’limga jalb qilish usullari haqida ham aniq ko‘rsatmalar berilgan. U, birinchi navbatda, oilada ta’lim olishni boshlash kerakligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, qizlarni ta’limga jalb qilish uchun quyidagilar muhim:

1. **Oiladagi erkaklarning qo‘llab-quvvatlashi**: Avloniy erkaklarni ayollarning ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlashga chaqiradi. U erkaklar va ayollarni bir-birini to‘ldiruvchi jamiyatning muhim qismi sifatida ko‘radi.
2. **Maktablarning tashkil etilishi**: Avloniy qizlar uchun alohida maktablar tashkil etishni taklif qiladi. Bu maktablarda diniy va dunyoviy ta’lim birgalikda olib borilishi lozimligini aytadi.
3. **O‘qituvchilarning tayyorlanishi**: Ayollarga dars beradigan malakali o‘qituvchilarni tayyorlash masalasiga e’tibor qaratadi. Bu bilan u ta’lim sifati oshishini ta’minlashni maqsad qilgan.

Xulosa o’rnida aytish joizki, Abdulla Avloniy ayollarning ta’lim olishini jamiyat taraqqiyoti uchun zaruriy shart deb bilgan. Uning asarlarida ayollar ta’limining muhimligi, uning yo‘lida turgan to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari batafsil yoritilgan. Bugungi kunda Avloniy ilgari surgan g‘oyalar amalda qo‘llanilmoqda va bu orqali jamiyatning madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga erishilmoqda. Shunday qilib, Avloniyning ayollarning ta’limiga oid qarashlari milliy ta’lim tizimining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Ma’naviyat. 2009-yil. 86-bet.

[8] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. –T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018-yil. 52-bet.

2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. –T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018-yil. 52-bet.
3. Jadidlar. Abdulla Avloniy. Risola. Olim Otinbek. –T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2022-yil. 84-85 betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.12.2022 yildagi SQ-682-IV-son
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2030-yilgacha ayollar huquqlarini himoya qilish va ta’limga keng jalb etish bo‘yicha strategik rejalari. –T.: 2021.
7. Mirziyoyev Sh.Sh. Yangi O’zbekiston strategiyasi. –T.: O’zbekiston. 2021-yil. 464-bet.

ЖАДИДЧИЛАРНИНГ ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИК ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИ

Каримов Ғуломназир Холматхонович
ФарДУ мустақил тадқиқотчиси
karimovbek701@gmail.com, +99891-663-06-72

Аннотация: ушбу тезисда жадидчи олимларимиздан М.Беҳбудий, А.Фитрат ҳамда Мунавварқори Абдурашидхоновнинг дин, диний бағрикенглик ҳақидаги қарашлари шунингдек, жадидлар мусулмон олами билан жаҳон цивилизациясининг уйғун жиҳатларини теран илғай олдилар, турли даврларда ҳар хил динларга эътиқод қилувчилар бу ҳудудда тинч ва тотув яшаганликлари, конфессия ва этнослар мавжуд бўлганлигини, диний бағрикенгликнинг илдизлари узоқларга бориб тақалишини эътироф этганликлари ҳақида сўз юритилади .

Калит сўзлар: Туркистон, жадидлар, диний бағрикенглик, толерантлик, эътиқод, яхшилик, эзгулик.

Туркистоннинг XIX аср охири – XX аср бошларидаги миллий тараққийпарвар зиёлилари бўлмиш жадидлар ҳам диний бағрикенглик ғояларини рўйи рост ифодалаб берганлар. Уларнинг атоқли намоёндалари—Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдурауф Фитрат, Мунавварқори Абдурашидхонов ва бош қалар ўз асарларида ҳам, амалий фаолиятларида ҳам бағрикенглик, яъни толерантлик ғояларини тарғиб қилдилар.

Миллий тараққийпарвар зиёлиларимиз Россиянинг бошқа мусулмон минтақаларидаги маслакдошлари билан ҳамкорлиги ва алоқалари туфайли уларнинг фаолиятида бағрикенглик ғоялари ва амалиёти ривожланиб борди. Жадидчилик ғоясининг ёрқин намояндаларидан бири бўлмиш Маҳмудхўжа Беҳбудий, Туркистонда давлат бошқарувининг шакллари хусусидаги қизғин мунозаралар пайтида, хусусан Туркистон ўлкаси Ижроия қўмиталарининг

1917 йил апрелда бўлиб ўтган қурултойида туб аҳолининг сайланган идоралар ишида тенг ҳуқуқ билан иштирок этишини қаттиқ туриб ҳимоя қилди. “Мусулмонларни қолоқ ва мутаассиб деб айтиш нотўғри бўлур эди, деб таъкидлайди у, – биз умуман бир-биримизни яхши билмаймиз, биз биргаликда яшаётганимизга кўп бўлгани йўқ ва фақат эндигина озодлик бизни бирлаштиради, бундай бирлашувдан мусулмонлар манфаатдордирлар. Шаҳар бошқармаларини бир-биридан ажратиб қўйиш руслар учун ҳам манфаатли эмас, кўпгина шаҳарларда руслар яшайдиган қисмлар ўз эҳтиёжларини қондира олмайдилар. Руслар ёш мусулмонлар билан биргаликда ишлашлари керак. Руслар қисувга тушишдан хавфсирамасинлар. Бухоро мусулмонлари орасидаги яҳудийлар 1200 йилдан бери яшаб, бойиб, ривожланиб бормоқдалар. Маданиятга ва қўшинларга эга бўлган Оврўполиклар ҳеч чўчимасинлар, ўз навбатида мусулмонларнинг ҳуқуқларини камайтириш демократия тамойилларига зид бўлур эди”[1].

Жадидлар мусулмон олами билан жаҳон цивилизациясининг уйғун жиҳатларини теран илғай олдилар, турли даврларда ҳар хил динларга эътиқод қилувчилар бу ҳудудда тинч ва тотув яшаганликлари, конфессия ва этнослар мавжуд бўлганлигини, диний бағрикенгликнинг илдизлари узоқларга бориб тақалишини эътироф этдилар. Бунинг учун улар Европа ва Осиё тарихига мурожаат қилиб, узоқ тадрижий ривожланиш жараёнида маданиятларнинг ворислиги, ўзаро алоқадорлиги диний бағрикенглик тамойилининг қарор топишида асосий омил бўлган, деган хулосага келдилар[2].

Абдурауф Фитрат диний бағрикенглик ғоясини илгари суриб, маҳдудликни рад этади. У уламоларнинг ҳеч бир гуноҳсиз пок эканига халқнинг чексиз ишонч билан қараши хунук оқибатларга олиб келишини кўрсатиш мақсадида тез-тез христианлик тарихи, жумладан инквизиция даврига мурожат қилади. Фикрлари исботи учун кўплаб далиллар келтиради. Чунончи, Фитрат таназзул сабабларини қуйидаги мулоҳазалар орқали кўрсатиб беради: “Хақиқатдан ҳам Бухоро ва бухороликлар ҳали жуда ачинарли бўлиб, воқеан бу худписанд уламоларнинг ишлари миллатнинг таназзулиға сабаб бўлғон” [3].

Бағрикенглик, эркинлик ва барча халқларга нисбатан дўстона муносабат жадидларнинг сиёсий фаоллиги юқори босқичга кўтарилишининг бош омили эди. Бу айниқса Туркистон мухторияти ғоясида яққол намоён бўлди. Мухторият жаҳон тажрибасида синовдан ўтган умуминсоний ғояларга асосланган миллий давлат қуриш йўлидаги илк уриниш эди.

Диний бағрикенглик анъаналари ўзининг хилма-хил кўринишларида Ўрта Осиё олимлари орасида ижтимоий-фалсафий тафаккур тараққиётининг барча босқичларида ўзининг алоҳида ифодасини топди, буни алоҳида, энг

ёрқин мисоллар билан кўрсатиш мумкин. Ватанимиздан етишиб чиққан «...диний дунёқараш билан қомусий билимдонликни ўзида мужассам этган...» [4] буюк аллома ва мутафаккирларимиз ўрта асрлардаёқ ҳалқаро дўстлик ва ҳамжиҳатлик, мамлакатлараро ҳамкорлик, динлараро ишонч ва ҳурмат-эҳтиромнинг ижтимоий, назарий-фалсафий ва маънавий-ахлоқий томонларини ишлаб чиқдилар.

Ўзбекистонда совет ҳукумати ўрнатилгунга қадар Ислом дини жамиятнинг маънавий озиғи вазифасини бажариб келди. Марксистик атеизмдан энг кўп жафо чеккан халқ ўзбеклар бўлди. Аммо манфур тузум ўз мақсадига етиша олмади. Бошқача бўлиши мумкин ҳам эмасди. Чунки собиқ “қизил империя” таркибига мажбуран киритилган Ўзбекистон фуқароларининг аксариятида “совет кишиси” эканидан ташқари яна бир жиҳат бор эди. Бу – этник, тил ва ирқий мансубликдан қатъи назар, мусулмончилик эди. Жаҳондаги барча мусулмонлар ҳеч бўлмаганда икки маданий муҳитда яшайдилар. Бири – она-Ватаннинг этник таркиби билан боғлиқ маҳаллий маданият, иккинчиси – Исломга киргач шаклланган мусулмон маданияти. Узоқ тарихга эга бўлган мусулмон элларида мазкур иккала муҳит бир-бири билан чамбарчас боғланиб кетган [5].

Мустақиллик туфайли ўзлигимизни англаш, маънавий қадриятларимизни тиклаш жараёни кечаётган ҳозирги пайтда умуман динга ва айниқса, ота-боболаримизнинг дини – Исломга муносабат тубдан ўзгарди.

“Диний бағрикенглик ҳамиша диний заминдаги адоватга қарши ўзига хос қалқон вазифасини ўтаган. У турли эътиқодларнинг бир замон ва маконда биргаликда мавжуд бўлишига, уларнинг ташувчилари ўртасидаги ҳамкорлик ва ҳамжиҳатликнинг шаклланишига йўл очган. Бу эса, ўз навбатида, юрт тинчлиги ва тараққиётига, умуминсоний маданият ва маънавият ривожига хизмат қилган”. XIX асрда Россиянинг марказий минтақаларидан мажбурлаб кўчирилган деҳқонлар ночор аҳволга тушиб қолганда, мусулмон аҳоли уларга ҳар томонлама ёрдам кўрсатган. Ўша давр воқеаларини кўрган иеромонах Харитон: “Маҳаллий аҳоли ночор кўчманчиларга раҳмдиллик билан муносабатда бўлдилар, бусиз уларнинг кўпчилиги очлик ва муҳтожликдан ўлиб кетган бўлар эдилар”, деб гувоҳлик берган [6].

Бундай дўстона алоқалар тарихидан келиб чиқиб биринчи президентимиз Ислом Каримов: “Мусулмонлар ва христианларнинг Ўзбекистон заминида биргаликда ҳамнафас бўлиб яшаши диний-маънавий тотувликнинг нодир тимсоли ва барча дин вакилларига нисбатан бағрикенгликнинг энг яхши намунаси деб ҳисобланишига арзигуликдир”, деб таъкидлаган эди [7].

Диний бағрикенглик турли динга эътиқод қилувчилар ўртасида ўзаро бир-бирини тушуниш, ҳурмат, ҳамжиҳатлик ва ҳамкорлик руҳининг

устуворлигини англатади. Дунёдаги динларнинг барчаси эзгулик ғояларига асосланади, у ҳалоллик, тинчлик, яхшилик ва дўстлик каби бир қанча эзгу фазилатларга таянади. Инсонларни ҳалоллик ва поклик, меҳр-оқибат, инсонпарварлик ва бағрикенгликка даъват этади. У диний ташкилотлар, давлат муассасалари ва жамоат ташкилотларининг тизимли ва тадрижий фаолияти, алоҳида олинган кишиларнинг бу борадаги талаблар, қоидалар ва қадриятларга оғишмай амал қилиши натижасида воқеликка айланади.

Ҳозирги глобаллашув жараёнида диний бағрикенглик муаммоси жаҳон ҳамжамияти давлатлари учун ғоят долзарб масалалардан бири ҳисобланади. 1995 йил 16 ноябрда БМТнинг фан, таълим ва маданият бўйича ихтисослашган ташкилоти ЮНЕСКО томонидан “Бағрикенглик тамойиллари декларацияси” декларациясининг қабул қилиниши бунинг ёрқин далилидир[9]. Мазкур декларациянинг 1-моддасида бағрикенглик тушунчаси “дунёмиздаги турли бой маданиятларни ўзида ифодалаши ва инсоннинг инивидуаллигини намоён қилишнинг хилма-хил кўринишларини ҳурмат қилиш, қабул қилиш ва тўғри тушунишни англатади” [9], дея таърифланган. Бинобарин, диний бағрикенглик ғояси ўз моҳиятига кўра, хилма-хил диний эътиқодга эга бўлган инсонларнинг ягона Ватанда, олижаноб ғоялар ва эзгу мақсадлар йўлида ўзаро ҳамкорликда ҳамжиҳат бўлиб яшашини англатади. Ҳозирги замонда бу ғоя эзгулик йўлида нафақат диндорлар, балки бутун жамият аъзоларининг ўзаро ҳамкорлигини назарда тутади.

Диний бағрикенглик қандай талқинга асосланмасин, у ижтимоий барқарорлик ва турли дин вакилларининг ўзаро ҳамжиҳатликда ҳаёт кечиришларининг муҳим шартидир. Хусусан олиб қаралганда эса, диний бағрикенглик ўзга диний эътиқод соҳибларининг қадриятларини тан олиш ва ҳурмат қилишни англатади[10].

Кишиларда виждон эркинлиги билан боғлиқ билимларнинг шаклланиши ва ривожланиши учун зарур шароитларнинг яратилиши давлат томонидан жамиятда диний бағрикенглик муҳити устувор бўлишини таъминлашнинг зарурий шарти ҳисобланади. Шу билан бирга, эътиқодий асосдаги душманлик ва адоват уйғотадиган, ҳис-туйғуларни ҳақоратлайдиган ҳаракатлар, ҳодисаларнинг олдини олишга қаратилган реал механизмларнинг яратилгани ҳам диний бағрикенглик барқарорлигини таъминлашга хизмат қилади[11].

Кўп миллатли ва кўпконфессияли мамлакатимизда динлар ўртасида ҳамжиҳатлик, дин ва давлат муносабатларининг одилона йўлга қўйилгани, таълим муассасаларида дунёвий билимлар ва диний қадриятларнинг уйғунликда ўргатилаётгани боис барқарор маънавий муҳит ҳукм сурмоқда.

[9] Шабатов А. Диний бағрикенглик-миллатлараро тотувликнинг гаровидир. https://qoraqalpoq.adliya.uz/qoraqalpoq/uz/publikatsii/detail.php?ID=311

Мамлакатимиз мустақилликка эришгандан кейин маънавий ҳаётдаги янгиланиш жараёни, туб ислоҳотлар самараси ўлароқ динга бўлган муносабат ҳам аслига қайтди. Собиқ совет тизимининг атеистик сиёсатига барҳам берилди, виждон эркинлиги қонун орқали кафолатланди. Бунинг баробарида давлатчилигимиз демократик ривожланиш йўлини танлади.

Дин ва дунёвий давлат орасидаги муносабат ҳақида гап кетар экан, энг аввало, диннинг давлатдан ажратилиш тамойили унинг асосини ташкил этишига аниқлик киритилди. Бу ҳақда Конституциянинг 75-моддасида шундай дейилади: “Диний ташкилотлар давлатдан ажратилган ҳамда қонун олдида тенгдирлар. Давлат диний ташкилотларнинг фаолиятига аралашмайди”[12]. Мазкур моддада муҳим қоидалар мустаҳкамланган. Аввало, диний ташкилотлар қайси конфессияга тааллуқлилигидан қатъи назар, бир хил ҳуқуқий майдонда фаолият олиб боради. Қолаверса, диний ташкилотлар фаолиятини ташкил этиш уларнинг ички иши ҳисобланади ва давлат назоратидан ҳолидир[13].

Юртимизда дин соҳасидаги фаолиятни такомиллаштириш бўйича Президентимизнинг бир қатор фармонлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари қабул қилинди. Эътиқод эркинлиги учун кенг йўл очилди. Диний муносабатлар “Дунёвийлик дахрийлик эмас” тамойили ҳамда “Инсон эътиқодсиз яшай олмайди”, деган аниқ ишонч асосида қатъий белгиланди. Зотан, самовий динларнинг барчаси эзгулик ғояларига асосланади, улар халоллик, тинчлик, яхшилик ва дўстлик каби бир қанча эзгу фазилатларга таянади. Кишиларни поклик, меҳр-оқибат, инсонпарварликка даъват этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. – Т.: Университет, 2007. – Б. 24. (- 184 б.)
2. Ғуломов А.Б. Жадид мутафаккирларининг экологик маданиятга доир қарашлари: тарихий– фалсафий таҳлил. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (ПҳД) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Бухоро, 2021. – Б. 106-107. (- 131 б.)
3. Абдурауф Фитрат. Ҳинд саёҳати баёноти/ Танланган асарлар, 1-жилд. – Тошкент, 2000. – Б. 76.
4. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарорлик йўлида. 6-жилд: Ўзбекистон XXИ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: “Ўзбекистон”, 1998. – Б. 117.
5. Расулов А. Ўзбекистон – диний бағрикенглик ўлкаси // Диний бағрикенглик тамойиллари ёшлар талқинида. – Тошкент: Моваройуннаҳр, 2015. – Б. 14.
6. Архиепископ Владимир. А друзей искат на Востоке, Т.: 2000. – С. 43.

7. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. – Т.: «Ўзбекистон», 1998.
8. Шабатов А. Диний бағрикенглик-миллатлараро тотувликнинг гаровидир. https://qoraqalpoq.adliya.uz/qoraqalpoq/uz/publikatsii/detail.php?ID=311
9. ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари. Конвенциялар, битимлар, протоколлар, тавсияномалар, декларациялар. (Тўплам) “Бағрикенглик тамойиллари декларацияси”. – Тошкент: “Адолат”, 2004. – Б. 91–92.
10. Кушаев У.Р. Жаҳон динларида бағрикенглик ғояларининг уйғунлиги. Фалсафа фанлари бўйича фан доктори (ДСс) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – Б. 19.
11. Исломшунослик асослари (Ўқув қўлланма). – Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2011. – Б. 85. (- 102 б.)
12. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 01.05.2023. https://lex.uz/docs/6445145
13. Юсупова Н. Виждон эркинлиги — демократик давлатнинг устувор вазифаси. https://www.bukhari.uz/?p=12071

ЖАДИДЧИЛИК ХАРАКАТИ ВА УНИНГ ЎЛКА ХАЁТИГА ТАЪСИРИ

Солижон Эргашевич Ибрагимов
ҚаршМИИ “Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси
solijon.ibragimov@gmail.com, 90 721 92 59

Туркистон жадидлари халқни қолоқлик ва диний хурофотдан озод этиш, шариат тамойилларини ислоҳ қилиш, халққа маърифат тарқатиш ва миллий мухториятга эришиш ғоясини илгари сурадилар.

Жадидлар миллий бирлик, маънавий-маърифий ислохотлар билан жамиятни янгилаш, юксалтириш йўлларини излаганлар. Ушбу мақолада юқорида муаллиф томонидан қайд этилган фикрлар хақида сўз боради.

ДВИЖЕНИЕ ДЖАДИДОВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЖИЗНЬ СТРАНЫ

Туркестанские джадиды выдвигали гипотезу освобождения народа от отсталости и религиозных суеверий, реформирования принципов шариата, распространение просвещения среди народа, достижения национальной автономии.

Джадиды искали пути обновления и подъема общества посредством национального единства, духовно-просветительских реформ. В данной статье обсуждаются вышеупомянутые автором идеи.

THE JADIDS MOVEMENTS AND ITS EFFECT ON THE LIFE OF THE COUNTRY

Turkistan Jadids are committed to the liberation of the people from backwardness and religious prejudice, reforming the principles of Shari'a, promoting the nation and achieving national autonomy. Jadids seeked for the ways to renew and uplift the society through national unity, spiritual and enlightenment reforms. This article discusses the mentioned ideas of the author.

Калит сўзлар: жадид, маърифат, усули жадид, миллий кўтарилиш, матбуот, мухторият, миллий ғоя, “Беҳбудия”, “Тўрон,”ибратхона, “Мунозора”.

Ключевые слова: джадиды, просвещение, методы джадидов, национальное восстание, пресса, автономия, национальная идея, “Бехбудия”, “Турон”, образец для подражания, “Мунозара”

Keywords: jadid, enlightenment, jadid, national revival, press, autonomy, national idea, "Behbudiya", "Turan", Temple, "Discussion".

XIX аср охири, XX аср бошларида Россия мустамлакаси ҳисобланган Ўрта Осиё, Кавказ, Ўрта Сибирь халқлари орасида бошланган миллий кўтарилиш маданий-маърифий ҳаракат – жадидчилик сифатида намоён бўлди.

Дунё тамаддунида бўлаётган улкан маданий –маърифий, ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар, янги мунособатлар у ёки бу тарзда секинлик билан бўлсада, Туркистон ўлкаларига кириб кела бошлади. Янгилик тарафдорларини Абдулла Авлоний сўзи билан айтганда, “газета ўқиғувчиларни” муллалар “жадидчи” номи билан[1] атар эдилар.Жадидлар Усмонли Туркиядаги “Ганч (ёш) турк”лар ташкилотлари тасирида “Ёш бухороликлар”, “Ёш хиваликлар”, “Ёш туркистонликлар” деган номларда фаолият олиб боришган.

Жадидчилик ҳаракатининг фаолияти мактабдан, маорифдан бошланган, сўнг матбуот, санъат ва сиёсатга ўтган. Россия ва унинг мустамлакаларида жадидчилик ҳаракатига Исмоилбек Гаспринский (1851-1914) асос солди. У Боқчасаройда дастлабки “усули жадид” (янги усул) мактабини 1884 йилда очади.

Гаспиринскийнинг ўлка зиёлиларига берган тасири хақида Тошкент жадидчиларининг отаси деб тан олинган Мунавварқори 1927 йил Тошкент округ маориф ходимлари қурултойида сўзлаган нутқида шундай деган эди: “Жадид мактаби ташкил қилғонлар ҳам эски мактаб, мадраса ва қорихоналарнинг етиштирган кишилари эди. Улар ёлғиз Боғчасаройда чиқадурғон Исмоил Гаспиринский газетасини ўқийдилар ва шу орқали мактабни яхши тушуниб, китоблар олдирар эдилар”[2]. Шундай қилиб ўлкада янги мактаблар очишга Исмоил Гаспиринский ва татар зиёлилари, муаллимларининг ибрати, ёрдами катта бўлди.

Жадидчиликнинг асосий ғоя ва мақсадлари (давр ва худуд воқеаликларидан келиб чиқиб, баъзан ўзгариб турган бўлса-да)қуйидагилар эди: Туркистонни ўрта асрларга хос қолоқлик ва диний хурофотдан озод этиш, шариатни ислоҳ қилиш, халққа маърифат тарқатиш, Туркистонда мухторият ҳукуматини барпо этиш учун кураш, Бухоро ва Хивада конституцион монархия ва парламент, кейинчалик демократик республика тузумини ўрнатиш орқали озод ва фаровон жамият қуриш, барқарор миллий валютани жорий қилиш ва миллий қўшин тузиш.

Тошкент, Фарғона, Бухоро, Самарқанд ва Хивада ҳур фикрли ва тараққиётпарвар кишиларнинг айрим гуруҳлари томонидан очилган маданий-

маърифий йўналишдаги жамият ва уюшмалардан жадидчилик ҳаракати шаклланди.

Ҳаракат фаолияти осонлик билан кечмади. Профессор Бегали қосимов фикри билан айтганда, Туркистон, Бухоро ва Хоразм мунавварларининг янгиликка интилиши, Россияда, хусусан Кавказ, Волгабуйида яшовчи туркий халқлар билан яқинлашишга, ҳамкорликка интилиш кучайди. Панисломизм(исломчилик) ва пантуркизм(туркчилик) каби ғоялар пайдо бўлдики, Россия ички ишлар вазирлиги бунга жим қараб тура олмасди. Жадидларнинг мактаблар очиб, газеталар чиқариши ҳам панисломизмга хизмат қилаяпди деб тушунилди ва хокимият бу борадаги фаолиятларга қаршилик кўрсатишга харакат қила бошлади[3].

Жадидчилик умумиллий ҳаракат сифатида:

1. Жамиятнинг барча қатламларини жалб эта олди. Уйғониш мафкураси бўлиб хизмат қилди.

2. Маориф ва маданиятни, матбуотни ижтимоий-сиёсий мақсадларга мослаб чиқарди.

3. Мустақиллик учун кураш олиб борди. Унинг ғайрат ва ташаббуси билан дунё юзини кўрган “Туркистон мухторияти” бу йўлдаги амалий ҳаракатларнинг дастлабки натижаси эди.

Бухоро амирлиги ва Хива хонлигида жадидчилик ҳаракати Туркистондаги каби X1X аср охири XX аср бошларида шаклланган бўлса ҳам, бу худудлардаги тарихий шароит ундаги жадидчилик ҳаракатига хам ўзига хос хусусиятлар бахш этди. Бухоро ва Хива жадидлари ҳам маорифни ислоҳ этишни, амир ва хон хукмронлигини чеклаш, мавжуд тузум шароитида ислоҳотлар ўтказиб, жамият тараққиёти ва миллий мустақилликни қўлга киритишни мақсад қилиб қўйган эдилар.

Жадидларнинг халқ маърифати учун кураш дастури уч асосий йўналишда кўринади.1. Янги усул мактабларини очиш, кўпайтириш орқали. 2. Турли маърифий жамиятлар очиш орқали. 3. Умидли иқтидорли ёшларни чет элга ўқишга юбориш орқали.

Боғчасаройда дастлабки жадид мактабини очган Исмоил Гаспиринский Туркистон генерал-губернатори Н.О.Розенбахга ўлка мусулмон мактабларини ҳам ислоҳ қилишга доир лойиҳасини юборади. Рад жавобини олгач, 1893 йил Туркистонга ўзи келади, Бухоро, Самарқанд, Тошкентда бўлиб, тараққийпарвар зиёлилар билан учрашувлар ўтказади. Бухорода амир Абдулахадни жадид мактаби очишга кўндиради. Бу мактабга “Музаффария” номи берилади.

Шундай қилиб, жадидлар томонидан янги мактабларга очиш, мактаблар учун дарсликлар яратиш жараёни бошланди.. “Усули жадид” мактабларида

диний фанлар ва араб тили билан бир қаторда тиббиёт, ҳикмат, кимё, табобат, нужум, ҳандаса фанлари, рус, форс тиллари - жами 17 тагача фан ўрганилиши шартлари илгари сурилди. 1999 йилда Андижонда Шамсуддин домла, 1901 йилда Қўқонда Салохиддин домла, Самарқандда Абдуқодир Шакурийлар биринчи бўлиб жадид мактабларини очадилар

Янги усул мактабларига асос солган, дарсликлар яратган Туркистон мунавварларидан баъзиларини кўриб ўтамиз.

Мунавварқори Абдурашидхонов (1878-1929) – Ўрта Осиё жадидчилик ҳаракатининг йўлбошчиси. XX аср ўзбек миллий матбуоти ва янги усулдаги мактаб асосчиси, миллий театр ташкилотчиларидан бири, адиб ва шоир эди. У Тошкентда 1901 йилда усули жадид мактабини очган ва шу мактаблар учун махсус ўқув дастурлари тузган. Унинг “Адиби аввал” (1907), “Адиб ус-соний” (1907), “Усули ҳисоб”, “Тарихи қавм турк”, “Тажвид” (1911), “Ҳавойижи диния”, “Тарихи анбиё”, “Тарихи исломия” (1912), “Ер юзи” (1916-1917), тўрт қисмдан иборат “Ўзбекча тил сабоқлари” (Шорасул Зуннун ва Қаюм Рамазон билан бирга) дарсликлари шулар жумласидандир.

Жадидчилик ҳаракатнинг яна бир йирик вакили - Махмудхўжа Беҳбудий(1875-1919). Унинг ташаббуси билан Самарқанда янги усул мактаблари очилди. Адиб бу мактаблар учун 1904-1909 йилларда “Рисолаи асбоби савод”, “Рисолаи жуғрофияи умроний”, “Рисолаи жуғрофияи Русий”, “Китобат ул-атфол”, “Амалиёти ислом”, “Мухтасар тарихи ислом” каби дарслик ва ўқув қўлланмалар ёзади.

Жадидчилик харакатининг Бухородаги йирик вакилларидан бири - Абдурауф Фитрат (1886-1938). У 1909 йилда Истамбулда нашр этилган “Мунозара” асарида Бухоро амирлиги идорасига маълум ислоҳот – ўзгариш киритиш ғояси ва “Усули жадид” деб номланган янги маориф тизимининг асосларини илгари сурди. Фитрат бутун вужуди, оташ ва жўшқин юраги билан, ижоди ва фаолияти билан мамлакат ёшларини ривожланган янги дунё томон сафарбар этади.

Фитратнинг “Ҳинд сайёҳининг қиссаси” асари ҳам 1912 йилда Истамбулда нашр этилган бўлиб, бунда Бухоро амирлигига маълум даражада ўз эътирозномасини баён этади. Бир замонлар илм ва дин қуввати бўлган Бухоро, нега таназзулга юз тутди? Хар куни бир Абу Али Ибн Сино, Фаробий ва бошқаларни жаҳонга ҳадя этган юрт нима сабабдан бунчалар абгор холга тушиб қолди? Бу қоронғу зулматдан қутулиш йўли борми?, -дея саволлар берар экан, жавоб сифатида маърифатни кўрсатади.

Хоразм хонлигида ҳам татар зиёлилари Тавфиқ Биккулин, Юсуф Ахмедовлар ёрдами билан, дастлаб, хон ва унинг амалдорлари фарзандларига мўлжалланган бўлса-да, жадид мактаблари очилди. Тез орада уларнинг сони 8

тага етди. 1906-1907 ўқув йилида Урганчда қизлар учун хам мактаб очилди [4].

Биз юқорида миллий уйғониш ҳаракати намояндаларининг янги усул мактаблар очиб, уни услубий жихатдан таьминлашга ҳаракат қилганликларни ўргандик. Аммо, жадид намоёндалари бу билан чекланиб қолмасдан, кенг халқ оммаси учун кутубхоналар ҳам барпо этганлар.

Беҳбудий, 1908 йилда кейинчалик “Беҳбудия” кутубхонаси номи билан машҳур бўлган қироатхонани ташкил этиб [5], уни ахоли учун қўлайлик яратиш мақсадида икки смена, эрталаб соат 9 дан шом 5 гача ва кечки соат 6 дан тунги 12 гача ишлаб, 60 дан 110 нафаргача бўлган кишиларга маданий хизмат кўрсатишни йўлга қўяди.

1910 йилда Тошкентда Мунаввар қори Абдурашидхонов раҳбарлигидаги жадидлар ташаббуси билан “Турон” кутубхонаси юзага келади.

Бугунги мустақил Ўзбекистонда Давлатимиз раҳбари томонидан ёшлар маънавиятини юксалтириш ва бўш вақтини мазмунли ўтказиш борасида илгари сурилган беш ташаббуснинг учинчиси ҳам китобхонликни кенг тарғиб қилишга бағишланган. Жадидлар томонидан илгари сурилган мавзу хамон долзарб эканлигини кўрсатмокда.

Юқорида келтирганимиз жадидларниниг маърифий сохадаги иккинчи вазифаси хайрия ва маориф жамиятларини тузиш эди. Бу борада “Турон”, “Жамияти хайрия”, “Тарбияи атфол” каби жамиятлар очилди. 1909 йил 12 майда Тошкентда тузилган Туркистон жадидлариниг “Жамияти хайрия” ташкилоти махаллий ёшларни чет элларга ўқитиш, хомийлик қилиш ишига раҳбарлик қилди. Унинг ёрдами билан ёшлар Россиянинг Петербург, Саратов, Қозон, Уфа, Оренбург шаҳарларидаги олий мактаб ва мадрасаларга, шунингдек, Истамбул, Қохира каби хорижий шахарлар олий таълим муассасаларига ўқишга юборила бошладилар.

Шунингдек,1909 йил18 июлда Бухоро шаҳрида жадидлар томонидан тузилган “Тарбияи атфол” жамияти шу йилнинг ўзида Фитрат, Усмонхўжа Пўлатхўжа ўғли, Ато хўжа, Мазҳар Бурхонов каби ёшларни Истанбулга ўқишга йўллаган эди. Ушбу жамият орқали ўқишга жўнатилганлар сони 1911 йилда 15 нафар, 1912 йилда 30 нафарга етган [6].

“Тарбияи атфол” жамиятининг мақсади хақида айтадиган бўлсак, улар қўйидагилардан иборат эди: 1. саводсизларни ўқитиш. Саводлиларни билимини янада давом эттириш. Матбуот нашрларини ёйиш. 2. Турмушдаги иллатларни, ахлоқсизлик, ичкиликбозликни ва бошқа шу кабиларни йўқотиш. 3. Сиёсий ҳаётга фаол қатнашиш. Бу ташкилот ўз одамларини амир гуруҳига киритишга муваффақ бўлди.Улар давлат ахамиятига эга сирлардан ҳам

хабардор бўлди. Улар камбағал айбга тортилганларни жазосини енгиллаштиришга ва шу кабиларга харакат қилишди [7].

Жадидларнинг кейинги қадами матбуот бўлди. Улар матбуотга асос солдилар. Янги газета ва журналлар чиқардилар. Миллий журналистика юзага келди. 1906 йилда Исмоил Обидов мухаррирлигида “Тараққий”, Мунавварқори мухаррирлигида “Хуршид”, Абдулла Авлоний мухаррилигида “Шухрат”, Ахмаджон Бектемиров мухаррирлигида “Осиё” газеталари чоп этилди. Ашаддий миллатчи Н.П.Остроумов қаршилиги билан бир оз тўхталиш бўлгач, 1913-1915 йилларда матбуотчиликнинг янги тўлқини шаклланди. Бу даврда “Самарқанд”, “Садои Туркистон”, “Садои Фарғона”, “Бухорои шариф”, “Тўрон”, газеталари ва “Ойина” журнали, 1917 йилда эса “Эл байроғи, “” Кенгаш”, “Хуррият”, “УлуғТуркистон”, “Нажот” каби оммавий ахборот воситалари юзага келди.

Халқнинг дунёқараши, миллий онгнинг юксалтиришда матбуотнинг ўрни ниҳоятда муҳим эканлигини билган Махмудхўжа Беҳбудий ҳам “Нашриёти Беҳбудия” номи билан ўз хусусий нашриётини очади ва 1913 йилда “Самарқанд” газетаси ва “Ойна” журналини нашр этишда бош-қош бўлди.

Беҳбудийнинг "Туркистон идораси", "Туркистонда мактаб жарида", "Бухорода усули жадид", "Ёшларга мурожаат", "Эҳтиёжи миллат", "Икки эмас, тўрт тил керак", «Мусулмончилик либос ва қиёфат танламайди» каби публицистик мақолалари миллий журналистика асосларини ташкил этади.

Жадидлар театрга хам асос солдилар. 1913 йили Абдулла Авлоний, Мунавварқори Абдурашидхонов, Таваллолар ташаббуси билан Ўрта Осиёдаги биринчи театр труппаси “Тўрон” миллий театри юзага келди. Драматик асарлар ёза бошладилар. Беҳбудийнинг “Падаркуш ёхуд ўқимаган боланинг ҳоли” асари (1911 йил) бу борадаги биринчи уриниш эди. Асар биринчи бор (Самарқандда хаваскорлар томонидан қўйилган) 1914 йил 27 февралда Тошкентдаги Колизей театри биносида “Турон” театри актёрлари томонидан қўйилди. Шу куни тарихимиздаги илк миллий театрнинг расмий очилиши куни хисобланади.

Театр ҳақида Беҳбудий “Тиётр надур” мақоласида “...Тиётр ибратнамодур. Тиётр ваъзхонадур. Тиётр ойинадурки, умумий ҳолларни анда мужассам ва намоён суратда кўзликлар кўруб, кар ва қулоқсизлар эшитиб асарланур”[8]. Тараққий этган миллатлар театрларни улуғлар учун одоб ва ибрат мактаби деб биладилар. Театр тараққий этишни энг биринчи сабаб ва омиларидандир, -деб ёзганди.

Жадидлар миллий адабиётга хам асос солдилар. Миллий романчилик шакллана борди.

Дакстлаб, романчиликка ўриниш Хамза Хакимзодада кузатилди. У “Янги саодат” асарини миллий роман деб атаган ва бу борадаги илк изланишларни бошлаб берган эди [9]. Аммо Ўзбек адабиётининг йирик намояндаларидан бири Абдулла Қодирий романчиликка асос солди. Унинг «Ўтган кунлар» романи 1922 йилда «Инқилоб» журналида чоп этила бошланди.

Дунёга чиқмоқ учун тил билмоқ керак экан. Бу талаб ҳам бугун мустақил тараққиёт сари кетаётган Ўзбекистон учун кун тартибидан тушгани йўқ, ахамиятини йўқотгани йўқ. Беҳбудий 1913 йил “Ойина” журналида ёзган “Икки эмас тўрт тил лозим” мақоласида шу хақда сўз юритади. [10].

Бугун биз юзма-юз бўлиб турган миллий ғоя асослари, миллий мафкура масалалари бундан юз йил олдин жадидчиларимиз томонидан ҳам кун тартибига қўйилган ва қизғин муҳокама қилинган эди.

Маърифатга эҳтиёж, илм-фанни эгаллаш ғояси миллатнинг кўпчилиги томонидан англаниши керак. Дарҳақиқат, жадидчиларимиз олиб борган барча ишлар, матбуотнинг йўлга қўйилиши, “усули жадид” мактаби назарияси ва амалиёти, театрчилик, ҳамма-ҳаммаси шунга хизмат қилдирилди. Шу тариқа ҳар бир ғоянинг миллий ғояга айланиши, жадидчиларимиз фикрича икки шартни тақозо этади.

1. Ғоя миллатнинг туб, асл эҳтиёжларидан,туриш-турмушидан, асосий анъаналаридан, ўзлигидан ва табиийки, имкониятидан келиб чиқмоғи лозим.

2.Мазкур ғоя миллат томонидан англаниши, ҳис қилиниши, бошқача айтганда, онгига жойлашиб, юрагидаги ўтга айланмоғи, сўнгсиз иштиёқ ҳосил қилмоғи керак.

Туркистонда жадидчилик ҳаракатининг фаол ташкилотчи – иштирокчилари ҳақида тўхталадиган бўлсак, булар: Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдуқодир Шукурий, Саидаҳмад Сиддиқий – Ажзий (Самарқанд), Мунавварқори Абдурашидхонов, Абдулла Авлоний, Убайдуллахўжа Асадуллахўжаев, Тошпўлатбек Норбўтабеков (Тошкент), Абдурауф Фитрат, Файзулла Хўжаев, Усмонхўжа Пўлатхўжаев, Абдулвоҳид Бурхонов, Садриддин Айний, Абудулқодир Мухиддинов (Бухоро), Обиджон Маҳмудов, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий, Абдулҳамид Чўлпон, Исҳоқхон Ибрат, Муҳаммадшариф Сўфизода (Фарғона водийси), Полвонниёз ҳожи Юсупов, Бобоохун Салимов (Хоразм)лар номини биринчилар сафида келтиришимиз мўмкин.

Биз ушбу мақолада мамлакатимиз худудида жадидчилик оқимининг юзага келиши ва унинг маърифатпарварлик сохасидаги фаолиятига тўхталдик. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий –сиёсий қарашлари, миллий мустақиллик ва давлатчилик ғоялари (Мунавварқори, Беҳбудий, Полвонниёз

Юсупов, Фитратнинг дастурлари), бу борадаги амалий ҳаракатлари ва курашлари алохида катта мавзудир.

Хулоса қиладиган бўлсак, жадид боболаримиз моддий қийинчиликлар, ғоявий-сиёсий тазйиқларга қарамай миллатнинг маънавий юксалиши учун имкониятлар яратишга ҳаракат қилдилар.Тарихнинг мураккаб, масъулиятли бурилиш даврида миллатнинг онгини юксалтириш, миллий ифтихор туйғусини кучайтириш биринчи даражали вазифалардан эканлигини англаб етганликлари учун ҳам бу борадаги барча ишларни ўз зиммаларига олдилар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Авлоний А.“Таржимаи хол. Танланган асарлар.2-жилд.Т., “Маънавият”, 1998 йил. 288-бет”.
2.Мунавварқори А. “Қизил Ўзбекистон” 1927 йил, 7июнь. Ziyo uz. Com.
3. Қосимов Б.“Миллий уйғониш”, Т.,”Шарқ”,2004 йил,53-бет.
4. Тошқулов Ж. Ёш хиваликлар: сиёсий қарашларининг тадрижий ривожланиши// Халқ ва демократия, 1992,3-4-сон.
5. Беҳбудий Б. “Беҳбудий кутубхонаси”, “Ойина” журнали, 1914 йил 26 апрель, №27. Танланган асарлар. Жилд-II.-Т.: Akademnashr, -2018йил 14-бет.
6. Бахром Ирзаев. “Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим” Т., “Akademnashr” 2018.
7.Самойлович А.Н. Первое тайное обшество младобухарцев //Восток.-1922.№1.ст.98.
8. Беҳбудий Б.“Тиётр надур”, “Ойина” журнали, 1914 йил 10 май, №29. Танланган асарлар. Жилд-II.-Т.: Akademnashr, -2018йил 15-бет.
9. Сабирдинов А. Ўзбек романчилиги; кеча ва бугун. Изланишлар самараси. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005 йил 28 январь.
10. Беҳбудий Б.“Икки эмас, тўрт тил лозим”, “Ойина” журнали, 1913 йил 10 август, №1. Танланган асарлар. Жилд-I.-Т.: Akademnashr, -2018йил 396-бет.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ ДАВРИ ТУРКИСТОН МИЛЛИЙ ВА КУНДАЛИК ЛИБОСЛАРИ ДИЗАЙНИ

Жўраев Ҳамза Ҳамроқулович
Ўзбекистон-Финляндия Педагогика Институти
“Аниқ ва амалий фанлар” факултети, “Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси” кафедраси профессор в.б., санъатшунослик номзоди
E-mail: jurayevhamza876@gmail.com

Тоштемирова Мохичехра Ғолибжон қизи

Ўзбекистон-Финляндия Педагогика Институти
“Аниқ ва амалий фанлар” факултети, “Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси” 1-босқич магистранти
E-mail: mokhitash@gmail.com

Аннотация: Мақолада жадидчилик ҳаракатининг фаол иштирокчиси Маҳмудхўжа Беҳбудийга қисқача маълумот берилиб, ўша давр миллий либосларининиг зркак ва аёллар киядиган кийимлари-нимча, камзул, яктак, бош кийимлари-дўппи, рўмолларнинг турлрари, кийимлар тикиладиган мато ва газламалар умумий ташқи кўринишига тавсиф берилиб, либослар қачон, қаерда ҳамда қандай вазифа ўтаганлиги тўғрисида илмий асосланган, тўлақонли фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: нимча, миллий либослар, камзул, яктак, дўппи, жадидчилик ҳаракати, мато, рўмол, Беҳбудия кутубхонаси, Беҳбудия нашриёти, тафовут, Ойна журнали

Аннотация: В статье даются краткие сведения о Махмудходже Бехбуди, активном участнике движения джадидизма, и описывается общий вид национальных костюмов того времени, одежда мужчин и женщин - тельняшки, жилетки, куртки, шапки, платки, ткани и ткани, а также когда и где была изготовлена одежда и научно обоснованные, полноценные мнения о том, какая задача выполнялась.

Ключевые слова: жилетка, национальные костюмы, жилет, куртка, кепка, джадидизм, ткань, шарф, библиотека «Бехбудия», издательство «Бехбудия», отличие, журнал «Ойна».

Abstract: The article gives brief information about Mahmudhoja Behbudi, an active participant of the Jadidism movement, and describes the general appearance of the national costumes of that time, the clothes worn by men and women—vests, jackets, hats, scarves, cloths, and fabrics and when and where the clothes were made and scientifically based, full-fledged opinions about what task was performed.

Keywords: vest, national costumes, jacket, hat, Jadidism movement, fabric, scarf, “Behbudiya” library, “Behbudiya” publishing house, difference, “Oyna” magazine

Маълум бир давр либосларини илмий нуқтаи назардан ўрганиш ва тадқиқ қилишда, музейларда сақланаётган экспонатлар, фотолавҳалар, осори-атиқалар ҳамда тегишли адабиётлар қимматли манбалар ҳисобланади. Жадидчилик миллий маърифатпарварлик ҳаракатининг фаол иштирочиларининг рассомлар ишлаган портрет асарлари ҳам айрим ҳолатларда ишончли фактларни олишга ёрдам беради.

Маҳмудхўжа Беҳбудий 1875-йил 20-январда Самарқанд яқинидаги Сиёб волостининг Бахшитепа қишлоғида имом-хатиб Беҳбудхўжа Солиҳхўжа ўғли хонадонида туғилган. Отаси Аҳмад Яссавий авлодидан.XIX аср узбек халқининг ёркин намоёндаси, драматурги, ношири, педагоги, қозиси, муфтийи, дин ва жамоат арбоби. Жадидчилик миллий маърифатпарварлик ҳаракатининг тарафдори. "Беҳбудиякутубхонаси" ҳамда „Нашриёти Беҳбудия“ фаолияти, „Самарқанд“ газетасива "Ойна" журнали асосчиси[1].

МаҳмудхўжаБеҳбудий ҳаёт йўли ва ижоди ҳакида ўрганарканмиз, таниқли файласуф яшаган давр Туркистон либосларнинг ташқи кўринишибугунги кун билан солиштиргандаги йирик контрасти (тафовути)га алоҳида тўхталиб ўтиш ўринлидир.

XIX-XX аср Туркистон аҳолиси либослари тавсифига умумий таъриф берадиган бўлсак, эркаклар миллий либослари ҳам ички (ичдан кийиладиган) ва устки - елкага кийиладиган, белга боғланадиган турлардан иборат. Эркакларинг ички либосига енгсиз муллаёқа кўйлак, кўйлак-халат (яктак) ва иштон кирган. Устки либосга турли-туман хилдаги енгил, иссиқ (пахта солиб қавилган) чопонлар (тўнлар), мўйнадан тикилиб, газлама билан қопланган пўстинлар, чакмонлар, камзуллар, узун ёки қисқа нимчалар киради. Устки кийимлар ичида тўн-чопонлар энг кўп тарқалган ва ҳозиргача етиб келган либос туридир. Тикилишга кўра тўнлар авра тўн, астарли тўн, пахталик тўн деб аталган. Тикилган матосига кўра тўнларнинг қатор турлари мавжуд. Булар қалами тўн, банорас тўн, беқасам тўн, кимхоб тўн, сурра тўн ваҳоказо.Шунингдек, улар кимга мўлжалланганлигига қараб, бола тўн, куёв тўн, қуда тўн каби номлар билан аталган. Тўн-чопонлар устидан боғлаш учун белбоғлар, чорсулар, чарм, дуҳоба камарлар ишлатилади. Бош кийимлар дўппилар, саллалалар, турли-туман телпаклар (қўй мўйнасидан тикилган чуғирмалар)ни ўз ичига олган.

Пойабзаллар чармдан тикилган хилма-хил этник, махси, чориқ, кўн ва ёғочдан ишланган кавуш ва зардўзи этиклардан иборат бўлган.

Аёлларингмиллийлибослари ички, усткивакишиликкийимданиборатбўлган.Устки кийимлар - камзул, енгил халат (мурсак, калтача), енгсизнимчалардир.Паранджи ҳам аёлларинг анъанавий устки кийими саналиб, у тўн ва ичидан қора от ёлида ишланган чачвондан иборат.

XX асрнинг 30-йилларигача шаҳарлик ўзбек аёллар паранджи ёпинганлар. Паранджи сохта енгли, тўнсимон, узун ёпинчиқдан иборат бўлиб, отнинг дум қилидан тўқилган тор парда - чачвон бетга тутилган, устига паранджи ёпилган. Чачвон юзни беркитиб, белгача етган. Одатда, паранджи уйдан кўчага чиққанларда ёпинишган. Қишлоқ жойларда паранджи кам ишлатилган, уни байрамларда ва узоқ сафарда чиқилгандагина ёпинганлар. Баъзи қишлоқларда аёллар уйдан кўчага чиққанларида бола чопони ёки оқ бекингич билан юзини бекитганлар.

Шаҳрисабз ва Самарқанд вилоятларида ярим кўчманчи ўзбек қабилалар йўл-йўл матодан тикилган чопон (желак) ёпинганлар. Узун ва тор сохта енглиёпинчиқ – жадани Хоразмаёллари кийган. Бундай ёпинчиқ Сурхондарё ва Самарқанд вилоятларида ҳам учрайди.

Ўзбек аёлларининг бош кийимлари ҳам турличадир. Хусусан, рўмол, пешонабоғ, дўппилар улар сирасига кириб, уларнинг ҳар бири ўзига хос матодан, ранг-баранг ипаклардан тўқилган, тикилган.

XIX-XX асрларда Самарқанд миллий кийимларида қўшни давлатларнинг маданий таъсири кузатилади, унинг асосий шакллари ва айрим элементлари асрлар давомида яратилган. Ўзбекистонда қадимдан ип газлама, яримипак, ипак ва жун газламалар ишлаб чиқарилган. Улар бутун шарқда ўрта асрлардан, яъни Хитойдан қадимий Туркистон орқали "Буюк Ипак йўли" ўтган вақтдан бери машҳур бўлиб келган. Бухоро ва Самарқанд газламаларининг шуҳрати тўғрисида Наршахий,Мақдисий ва қатор X аср тарихчиларидаги асарлари далолат беради. Уларнинг хабар беришича, маҳаллий газламалар Бағдод, Хуросон, Миср, Сурия, Византия каби шаҳарларда ишлаб чиқарилган.

XIX аср ўрталарида кўп шаҳарларда (Бухоро, Самарқанд, Шаҳрисабз, Марғилон ва бошқалар) миллий ўзига хос ва юқори сифатли газламаларнинг турли хиллари ишлаб чиқарилган. Бизнинг мамлакатимиз ва ундан ташқарида оғир ярим ипак газламалар - беқасам, банорас ва адрас; аёллар кийими учун енгил ва ёпқа ипак мато - шойи, рангларининг мутаносиблиги бўйича жуда ажойиб абрли газламалар машҳурдир. Бухоронинг абрли газламаларида асосан учта ранг - тўқ-қизил, сариқ ва пўшти ранглардан фойдаланилган(1-расм).

1-расм. Эркаклар либоси. Самарқанд

Бухоро ва Самарқанднинг миллий кийимлари Ўзбекистоннинг бошқа минтақалари кийимларидан серҳашамлиги ва ноёб зардўзи кашталари билан ажралиб туради. XIX асрда Бухорода зардўзлик санъати гуллаб-яшнаши Самарқанд либослари тарихида ўзидан ёрқин из қолдирган. Зардўзи кашталари билан, асосан, сарой аъёнлари, аёллар ва эркаклар кийимлари: чопон, белбоғлар, бош ва оёқ кийимлар безатила бошланди. Зардўзлик санъатида зардўзи - заминдўзи техникаси кенг тарқалади, буларнинг асос сидирғасига кашта билан тикиб чиқилади. XX асрда зардўзи-гулдўзи техникаси ривожланди, буланинг нақш гуллари қаттиқ қоғоз ёки картондон

қирқиб олиниб, мато устига қўйилади ва зар ип билан тикиб, қопланади (2-расм).

2- расм. Эркаклар либоси. Самарқанд, XIX-XXаср

XIX аср охири - XX аср бошларида Туркистонда европача камзул (кам зўл) пайдо бўлиб, уни эркаклар ҳам, аёллар ҳам кийган. Эркаклар камзули тик ёқали, узунлиги тиззагача етадиган, асосан қора матодан тикилган. Аёлларнинг камзули ранг-баранг дуҳобадан ёки беқасамдан бели тор қилиб тикилган. Кўйлак устида енгсиз нимча, яъни жилетка кийиш урф бўлган. Инглиз либоси типидаги жакет ҳам европача либос, пальто ва макинтош каби либослар зиёлилар орасида тез тарқала бошлаган. Қадим даврлардан бош кийимига қараб, ўзбекларинг этник ва локал гуруҳлари фарқ қилинган. Эркаклар бошига, асосан, турли хилдаги дўппи (тўппи, тахё) кийган, аёллар эса, кўпинча, ранг-баранг рўмол ёпинган. Дўппининг даставал тагини ва гардишини (кизаги)ни айрим ҳолда тикиб кашталаганлар ва майда қавиб қўшиб тикишган. Одатда, дўппи нозик гулли, қадаб тикилади, айрим аёлларнинг дўпписига майда мунчоқ, маржонлар, хоразмликларда жияк ва попук тақилади. Илгари конус шаклидаги дўппилар Тошкент, Самарқанд, Шаҳрисабзда тарқалган, бугунги кунда Шаҳрисабзда сақланган. Айниқса, “бодом” ёки “қалампир” нақшли оқ ипак ип билан таги қора матога кашталанган Чуст дўппи нафақат водийда, балки ундан ташқарида ҳам машҳур. Таги кашта қилинилиб, ранг-баранг тўпбарггул шаклидаги Хўжанд-Ўратепа дўппилари бутун Ўзбекистонга тарқалган. Эркаклар киядиган учли қалпоқ - кулоҳ тўрт бўлак учбурчак матодан, гардишсиз тикилган. Конус шаклидаги баланд кулоҳни илгари қаландарлар кийган, тухум шаклидаги чаққаси бир оз юмалоқ кулоҳни Бухорода ёши улғайган қариялар қишда кийганлар. Бундай бош кийими ўрта аср миниатюрларида кўп учрайди. Асли кулоҳни руҳонийлар ва диндор кишилар

кўпроқ кийганлар. Кулоҳга ўхшаш теридан тикилган қишки телпак Самарқанд ва Бухорода учрайди[2].

Адабиётлар рўйхати:

1. Д.Алимова, А.Рашидова. *Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури*. Тошкент: Академия нашриёти, 1999 — 7-бет
2. D.Rahmatullayeva, U.Xodjayeva, F.Ataxanova.*Libostarixi* .T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2015-yil. — 336 bet
3. Абдирашидов, З. *Маҳмудхўжа Беҳбудий*. Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2022. ИСБН 978-9943-6682-2-5.
4. *Наим Каримов* „ЖАДИД АДАБИЁТИНИНГ АСОСЧИСИ“. *кҳ-даврон.уз*. Қаралди: 17-декабр 2024-йил.
5. *Шуҳрат Ҳайитов* „Маҳмудхўжа Беҳбудий – она юрт фидойиси“. *уза.уз*. Қаралди: 29-ноябр 2024-йил.
6. *Эгамқулова, Нодира* „Беҳбудия кутубхонаси: 114 йил аввал Самарқандда очилган, кунига 14 соатлаб ишлаган ва… қаровсиз қолиб ёпилган“. Қаралди: 23-сентабр 2023-йил.
7. Ўзбек совет энсиклопедияси. 2-жилд. Т., 1979.
8. РизаевШ. „Падаркуш“ ёҳуд Самарқанд тарихиданлавҳалар". „Ватан“ газетаси, 1994-йил, 39-сон
9. Қосимов Б., Беҳбудийважадидчилик. „Ўзбекистонадабиётивасанъати“, 1990-йил 19,26-январ.
10. М. Беҳбудий ҳаёти ва фаолияти ҳақида ҳужжатли филм https://www.youtube.com/watch?v=5rK5oiUxeiw
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi
12. https://www.youtube.com/watch?v=0cCh218MWfw
13. https://www.youtube.com/watch?v=hySY2_8S3jM
14. https://www.youtube.com/watch?v=lqOPbDx6srs
15. https://www.youtube.com/watch?v=Ve3Vu2KTWWY

2-SHO‘BA

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MANAVIY VA MA’RIFIY FAOLIYATI

(yangi jadid maktablari tarixini o‘rganish muammolari, ushbu maktablar uchun darsliklar, M.Behbudiy safdoshlari)

TURKISTON JADIDLARINING ISLOM DINI VA MA’RIFATGA QO‘SHGAN XISSALARI

Abdumalikov Raxmatulloh Abduqahhor o‘g‘li
Ko‘kaldosh o‘rta maxsus islom bilim yurti talabasi
rahmatullohabdumalikov8604@gmail.com, +998937238604

Annotatsiya: Turkiston jadidlari, XX asrning boshlarida Turkiston hududida paydo bo‘lgan yangi fikr va g‘oyalar harakati sifatida, Islom diniga va ma’rifatga katta hissa qo‘shdilar. Ular, asosan, musulmon jamiyatining taraqqiyoti va yangilanishi uchun intilishda bo‘lib, ta'lim, madaniyat va diniy hayotda o‘zgarishlarni amalga oshirishga harakat qildilar. Jadidlar, an'anaviy ta'lim tizimini tanqid qilib, yangi usulda ta'lim berishni targ‘ib qildilar. Ular maktab va madrasalarda zamonaviy bilimlarni o‘qitishga e’tibor qaratdilar. Turkiston jadidlari, Islom dini va ma’rifatga qo‘shgan hissalari bilan nafaqat o‘z zamonida, balki keyingi avlodlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ularning g‘oyalari va faoliyati, bugungi kunda ham ta'lim va madaniyat sohasida davom etayotgan o‘zgarishlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация: Джадиды Туркестана, как движение новых мыслей и идей, возникшее на территории Туркестана в начале XX века, внесли большой вклад в исламскую религию и просвещение. В основном они стремились к развитию и обновлению мусульманского общества, пытались внести изменения в образование, культуру и религиозную жизнь. Джадиды критиковали традиционную систему образования и выступали за новый способ образования. Они сосредоточились на преподавании современных знаний в школах и медресе. Туркестанские джадиды своим вкладом в ислам и просвещение важны не только для своего времени, но и для будущих поколений. Их идеи и деятельность сегодня служат основой происходящих изменений в сфере образования и культуры.

Abstract: The Jadids of Turkestan, as a movement of new thoughts and ideas that emerged in the territory of Turkestan at the beginning of the 20th century, made a great contribution to the religion of Islam and enlightenment. They mainly sought the development and renewal of Muslim society and tried to implement changes in education, culture and religious life. The Jadids criticized the traditional education system and advocated a new way of teaching. They focused on teaching modern knowledge in schools and madrasas. The Jadids of Turkestan, with their contributions to the religion of Islam and enlightenment, are of great importance not only in their time, but also for future generations. Their ideas and activities serve as the basis for ongoing changes in the field of education and culture today.

Kalit so‘zlar: Turkiston Jadidlari, Islom dini, Ma’rifat, Ta’lim, Yangilanish, Madaniyat, Zamonaviy bilimlar, Adabiyot, Zamonaviy usul, Fikr erkinligi.

Ключевые слова: История Туркестана, Исламская религия, Просвещение, Образование, Обновление, Культура, Современные знания, Литература, Современный метод, Свобода мысли.

Keywords: Turkestan Jadids, Islam, Enlightenment, Education, Renewal, Culture, Modern knowledge, Literature, Modern method, Freedom of thought.

Hayoti bashariyaening saodati uchun buyuk Tangri tomonidan yuborilgan eng sodiq, eng toza din islom dini bundan bir ming to‘rt yuz yillar ilgari Arabiston mamlakatidan joriy bo‘lib, qum va sahrolarda yurgan badaviy vahshiy xalqlarni madaniy bir holga keltirib, insonlar orasidagi insonlik vazifasini tushuntirib, amaliy ravishda ishlanib, butun dashti biyobondan iborat bo‘lgan erlarni ma’mur qilib, islom madaniyati degan bir narsani jahon maydoniga chiqargandir. Hozirgi asrimizda butun olamga o‘zini tanitgan Yevro‘pa madaniyati shu islom dini soyasida

vujudga kelgan arab madaniyatidan dunyoga kelgan. Islom dini birgina firqa uchun kelgan emas; balki butun dunyo insonlari uchun kelib, ularning ikki dunyo saodatlari uchun umumiy rahbar bo‘lgandir. Bundan bir necha yuz yillar ilgari Turkistonga kelib, badaviy bir holda yashagan xalqlarni madaniy bir holga keltirib, ulug‘-buyuk alloma Taftazoniy, Buxoriy, Farobiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Ahror Valiy, Navoiy va shular kabi qancha olim--ulamolar, zo‘r hakimlarni etishtirgan, Insonlarning aqlini shoshirib, hayratda qoldiradigan tog‘ kabi binolar, katta-katta masjid, madrasalarni yasatgan, necha minglab talabalarni o‘qitgan islom dini, islom madaniyati hozirgi asrimiz, hozirgi holimizda mazlum, ma’zun, e’tibordan soqit bo‘lib, oh va nadomat ko‘rpasiga o‘ralib, o‘lim to‘shagida yotmoqda. Sababi esa: so‘nggi chog‘lardagi ilmsizlik, ma’rifatsiz xonlar elning charog‘i, yo‘lboshchisi bo‘lgan ulamolarni o‘z buyruqlari ostiga olib, sof yo‘lni o‘z shaytanat yo‘llariga tatbiq etdirdilar “[1]”. Bechora ulamolar tor ko‘zlari, kichik miqyosda topgan tarbiyalari soyasida johil, xoin xonlarning buyrug‘i ostiga kirib, aytganicha ishlamashga majbur bo‘ldilar. Buning ustiga kengroq tarbiya topgan, kengroq ko‘zini ochgan mustabid hukumat bizning el boshliqlarimizning soddaliklaridan istifoda qilib, butkul siyosat ro‘lini bizning ma’naviy hayotimiz, diniy va madaniy maorif taraqqiyotimiz qarshisida o‘ynadilar. Ezilish ustiga ezildik, yanchilish ustiga yanchildik. Bora-bora maqsad, degan narsadan ayrildik. Maqsad, muazzam dini muborakimizning haqiqatini yo‘qotib, hayoti bashariyamizni tamom barbod etdik. Inson shaklida bo‘lib o‘z yurtimiz, o‘z eshigimizda hayvonlar turmushi, hayvonlar yumushini o‘tamoqdamiz. Ilm, ma’rifat degan so‘zni eshitsak o‘n chaqirim uzoq qochamiz. Alloh taoloning “Ayting: "Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'lurmi?! Darhaqiqat, faqat aql egalarigina eslatma olurlar.” “[2]” degan oyati karimasi va Payg‘ambarimizning “Chinda bo‘lsa ham ilm talab qilinglar” “[3]” degan so‘zini unutdik va amal qilmadik.

Sovet ittifoqi davrida Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li Turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo‘ja Urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780 – 1785) Samarqandga kelib qolgan. U dastlab Samarqand madrasasida, so‘ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko‘rgan. An’anaviy tahsil, so‘ng esa o‘z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko‘tariladi. 1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Behbudiy safar chog‘ida ko‘p ajoyib xodisalarga guvoh bo‘ldi. Xususan safarda u yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga

kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi. Mahmudxo‘ja 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rassiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi “[4]”. Behbudiy bu qurultoyda Turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi. Behbudiy nazarida ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z shijoatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Xullas, 1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi», degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko‘rsatadiki, ish oson ko‘chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoya ohanggida: “Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo‘qki, teatru sahnasiga chiqib, “masxarabozlik” qilsa”, deb yozgan edi. “Padarkush” – o‘zbek dramachiligining yakdil e’tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif asarda jaholat va nodonlik, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida hikoya qiladi. Jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga etadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsachi?!..

“Padarkush” dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo‘yildi. “Xalq nihoyatda ko‘p kelib, bilet etmagani va joyni yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketdi”, deb yozadi mahalliy matbuot. Toshkentda 1914-yilning 27-fevralida Avloniyning “Turon” truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da o‘z faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlagan edi. Spektakl oldidan mashhur Munavvar qori Abdurashidxonov teatrning jamiyat hayotidagi roli va o‘rni haqida nutq so‘zlaydi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o‘zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni “tarixiy kun” deb yozadi. 1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug‘ullanadi. Aprel oyidan “Samarqand” gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to‘xtagan. O‘sha yilning 20 avgustidan u “Oyna” jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratli haftalik jurnal asosan

o‘zbek tilida bo‘lib, unda ixcham forsiy she’rlar, maqolalar, ruscha e’lonlar ham berib borilardi…

Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg‘in shug‘ullandi. «Nashriyoti Behbudiya» nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo‘lga qo‘ydi. O‘sha davr vaqtli matbuotida “Behbudiy kutubxonasi” haqidagi xabarlar chiqa boshlangan edi “[5]”. M.Behbudiy milliy til masalasiga katta e’tibor qaratdi. Birgina uning “Oyna” jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo‘lgan. Behbudiy millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi – nishona sonidayoq, “Ikki emas, to‘rt til lozim” degan maqola bilan chiqqan edi. Fitratning jurnalda bosilgan maqolalaridan biri «Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi hayoti yo‘qdur», deb nomlangan. «Tushundigim zamon ko‘nglum yonar, yig‘lamoq istarman, ko‘z yoshlarim kelmaydur», deb boshlanar edi maqola. Adib taraqqiyot va turmushda Yevro‘podan er va osmon qadar uzilib qolgan Turkistonning fojiali ahvolidan so‘z ochgan edi. Behbudiy Eng boy tillardan bo‘lgan inglizchaning ham “o‘n minglar ila begona lug‘atlarni majburan olganligini” dalil qilib ko‘rsatadi va masalaning boshqa jihatiga – yagona adabiy til, til birligiga diqqatni qaratadi.

Behbudiy Toshkentda Turkiston rus sovet hukumati rahbarlari bilan muzokaralar olib boradi lekin u ham natija bermaydi. Oqibatda Behbudiy 1919-yilning bahori 25-martda Shahrisabzda qo‘lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi. Uning qatli haqidagi xabar o‘sha paytdagi poytaxt bo‘lgan Samarqandga rosa bir yildan keyin ma’lum bo‘ladi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi. O‘nlab marsiyalar yoziladi. Fitratning bir she’ri “Behbudiyning sag‘anasini izladim” deb atalar edi. Ayniyning misralaridan biri quyidagicha boshlanar edi.

Sani mundin buyon Turon,
ko‘rolurmu, ko‘rolmasmu?
Saning mislingni Turkiston
Topolurmu topolmasmu?

1926-37-yillarda 11 yil davomida Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan yuritildi. Biroq uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Adib nomining adabiylashtirilishi shunchaki bir niqob edi. Qarshi sh ahriga uning nomi qo‘yilgan o‘sha 1926-yildayoq u mansub bo‘lgan jadidchilikni aksil-inqilobiy, aksilsho‘roviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi boshlab yuborilgan edi. 2020-yilda xalqimiz

tarixining murakkab damlarida, ma’rifat mash’alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 145-yilligi keng nishonlanadi. Mutafakkirning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati va merosi alohida ahamiyatga molik. XX asr o‘zbek adabiyoti va san’atida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, millat ma’rifati, ozodligi, hurligi yo‘lida mardonavor kurashgan bu ulug‘ allomaning sermashaqqat va sermahsul faoliyati tarix sahifalaridan mangu o‘rin egalladi va avlodlar uchun ibrat maktabi bo‘lib qoldi. Zero, Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi stipendiyani tashkil etilishi ham yurtimiz yoshlari qalbida yuksak bilim va ma’rifatlik, vatanparvarlik tuyg‘ulari jo‘sh urib turadi, faxr va iftixor tuyadi. Qachon biz ham zamoni saodat kabi bo‘lgan shu zamondan foydalanib, g‘aflat to‘shagidan turib, jaholat zanjiridan qutilib, din va maslagimizni qattig‘ ushlab, umumiy bir fikrda xatti-harakat qilsak, shoyad buning soyasida Turkistonda o‘lim to‘shagida yotgan islom dini, islom madaniyati sog‘lom bo‘lib, huquqi insoniyatimizdan muhrum bo‘lgan biz Turkiston erli xalq musulmonlari madaniyati azaliyamizni qayta topib, madaniyat va taraqqiyoti abadiyga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jadidlarning Ma’rifiy Faoliyati: G‘oyalari, maqsadlari, vazifalari va sohaga oid zamonaviy tadqiqotlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami 2022-yil.
2. Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi. Tarjimon: Abdulaziz Mansur 312-b.
3. muslim.uz elektron sayti ilm-olish-fazilati-2 [Imom ibn Adiy va Bayhaqiylar zaif isnod bilan rivoyat qilgan]
4. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Yoshlar nashriyot uyi 2022.
5. Oyina.uz elektron sayti Nodira Egamqulova, f.f.falsafa doktori (PhD) ilmiy maqolasi
6. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi iiau.uz elektron sayti

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O‘LKASIDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY VA MA’NAVIY MUHITNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Isomiddinov Yo’ldosh Yusubboyevich
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika va jismoniy ma'daniyat fakulteti tarix kafedrasi mudiri v.b (PhD)
+99893 334-71-88

Annotatsiya: Maqolada Mamlakatimiz hayotining Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan davrdagi fojiali o‘tmishiga, XIX asr o‘rtalariga kelib ulkan Turkiston o‘lkasining uch davlati, ya’ni Qo‘qon xonligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligining zaiflashib qolganligi hamda ulardagi zamondan

orqada qolgan boshqaruv usuli Rossiya imperiyasining Vatanimiz hududlarini istilo qilishiga zamin yaratilganligi to’g’risida yoritilgan.

Аннотация: В статье рассказывается о трагическом прошлом нашей страны в период бывшего Союза, об ослаблении к середине XIX века трех государств огромного Туркестанского края, а именно Кокандского ханства, Хивинского ханства и Бухарского эмирата, а также об отсталых от времени методах управления, которые создали основу для завоевания Российской империей территорий нашей Родины.

Annotation: The article highlights the tragic past of our country's life during the period of the former Soviet Union, the weakening of the three states of the vast Turkestan region, namely the Kokand Khanate, the Khiva Khanate, and the Bukhara Emirate, as well as the way of governing them that lagged behind the times, which laid the foundation for the conquest of the territories of our Motherland by the Russian Empire.

Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, jadiditchilik, Turkiston, o‘rganish, harakat.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, джадидизм, Туркестан, изучение, движение.

Key words: Abdurauf Fitrat, Jadidism, Turkestan, study, movement.

XX asr boshlarida o‘zbek ma’rifatparvarlari, shoirlar, jadidlar Turkiston o‘lkasi xalqlari uchun nafaqat ta’lim tizimida, balki ijtimoiy hayotda ham ijtimoiy yangiliklar kiritishga intilganliklari bilan shuhrat qozonganlar. Jumladan, jadidchilik asoschilaridan bo‘lgan Ismoil Gaspirinskiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Maxmudxo‘ja Behbudiy va boshqa ziyolilar ta’lim-tarbiya, odob-axloq va ijtimoiy hayotda o‘zgarishlar qilishga e’tibor qaratganlar.

XX asrning boshlarida ya’ni, 1917-yilda “yangi usul” yoki “usuli jadidiya” deb nomlangan yangi o‘qitish tizimining vujudga kelishi, jadidlar harakati deb nom olgan ushbu davr vakillarini birlashtirgan. Jadidlar, o‘zlarining teran fikrlari bilan xalqni yorug‘likka, ilm-ma’rifatga boshlaganlar. Bu davr kuchli siyosiy qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarga to‘la bo‘lishiga qaramay, o‘zbek ma’rifatparvarlarining asarlarida ta’lim-tarbiya, axloq, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatga alohida e’tibor berilgan. Ayniqsa, bu davrda Abdurauf Fitratning ijodida nafaqat axloqiy tarbiya, balki, ruhiy kamolot, ilmiy yangilik, qolaversa, davlatchilik tuzumi va demokratiya masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Lekin, xonliklar davrida vujudga kelgan nochor ijtimoiy muhit hamda, noto‘g‘ri siyosat hamda keyinchalik Chor Rossiyasining ma’rifatparvarlarga nisbatan olib borgan keskin siyosati jadidchilik harakatining rivojiga to‘siq bo‘lgan.

XIX asrning boshlarida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol hamda Amir Nasrulloning o‘z hukmronligini markazlashtirishga kirishishi va tarqoqlikka barham berish uchun davlat boshqaruvida nihoyatda qattiqqo‘llik bilan siyosat yuritishi jamiyat hayotini yana bir iqtisodiy-ma’naviy tanazzulga etaklagan. Jumladan, Amir Nasrulloning Buxoro amirligi hududini mustahkamlash va markazlashgan davlat barpo etish maqsadida Xiva va Qo‘qon xonliklariga qarshi olib borgan urushlari hamda Shahrisabz bekligini bo‘ysundirish uchun Shahrisabzga o‘ttiz yil davomida o‘ttiz ikki marotaba yurish qilishi saltanat va xalqning tinka - madorini quritib, davlatni ayanchli ahvolga olib kelgan.

Vengriyalik sayyoh Herman Vamberining qayd etishicha, atrofidagi kishilarni o‘ziga raqib bilgan va o‘z bilganidan qolmaydigan amir Nasrullo hatto o‘g‘li Sayid Muzaffariddin Bahodirxonni ham yomon ko‘rgan. Amir Nasrullo o‘g‘li Sayid Muzaffariddinni taxtga raqib deb bilganligi sabab ko‘ziga balo-qazoday ko‘ringan o‘g‘lini to‘liq nazorat qilish uchun Karmanaga noib qilib tayinlagan[10].

XIX asrdagi ichki nizolar va davlat boshqaruvidagi noto‘g‘ri strategiya 1865-yilga kelib Chor Rossiyasining Markaziy Osiyoni oson egallashi hamda Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishiga zamin yaratgan[11].

Chor Rossiyasi Turkistonni egallab olgach, mahalliy xalqlarning ahvoli yanada og‘irlashgan. Chor hukumati Turkistonga nisbatan birinchi navbatda xomashyo manbai, qolaversa o‘z mamlakatining korxonalarida ishlab chiqarilgan mollarni sotish bozori sifatida qaragan. Xon, boy, mulla, sudxo‘rlar tomonidan ayovsiz ezib kelinayotgan, son-sanoqsiz soliqlar og‘irligidan qashshoqlashayotgan mehnatkashlar ommasi endilikda ikki tomonlama zulm ostida ezilgan. Boshqa xonliklarga nisbatan aholi ko‘p yashaydigan, ulkan hudud va qudratga ega bo‘lgan Buxoro amirligi 1920-yilga qadar rasman o‘z davlatchiligini saqlab qolgan holda faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, amalda Chor Rossiyasi hukumatining itoatkor vassaliga aylangan. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy hayoti va davlat boshqaruvida din peshvolari yuksak martabaga ega bo‘lganlar.

Buxoro shahridagi mavjud madrasalar va boshqa ilm dargohlari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi “Tarixi nofei” asarida Buxoro shahriga “Ilm bog‘chasi” deb ta’rif berilgan[12]. Madrasada o‘qitish uch bosqichda amalga oshirilgan bo‘lib, xarajatlar vaqf erlardan keladigan daromad hisobiga qoplangan. Madrasalarda fiqh, shariat asoslari, adabiyot, til, tarix, falakiyot, mantiq, falsafa, matematika fanlari o‘qitilgan bo‘lsa-da, asosan diniy, axloqiy ta’lim berishga e’tibor qaratilgan. Yirik madrasalar oliy ta’lim vazifasini bajarib, ularda bir necha mudarrislar dars berganlar. Mudarrislarning ko‘pchiligi islom falsafasi, musulmonchilik huquqlari, shariat qonunchiligidan tahsil berganlar. O‘sha davrda Turkiston o‘lkasi xalqlari dunyo davlatlari va jahonda bo‘layotgan voqealar haqida etarlicha ma’lumotlarga ega bo‘lmaganlar.

Bundan tashqari, o‘sha davrda istibdod zulmiga qarshi harakatlar ham kuchaygan bo‘lib, harbiy strategiya va taktika yoki qurol-yarog‘ jihatidan Rossiya imperiyasi qo‘shinlaridan ortda bo‘lsa-da, milliy ozodlik harakatlari orqali o‘zbek xalqining asl farzandlari, degan nomga munosib turib, istibdod zulmiga qarshi

[10] Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовараунаҳр тарихи. –Т: Меҳнат, 1991. 11-13 - б.

[11] Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовараунаҳр тарихи. –Т: Меҳнат, 1991. 11-13 - б.

[12] Вохидов Ш. “Тарих-и нофеи”. Бухоро амирлиги тарихига оид муҳим манба. –Т.: Ўзбекистон, Ижтимоий фанлар. 1997. №9-10-11.

kurashgan mard o‘g‘lonlar “milliy qahramonlar” unvoniga sazovor bo‘lganlar. Ular “Tiz cho‘kib yashashdan ko‘ra tik turib o‘lmoq afzal” shioriga sodiq qolib, ajdodlarimiz mardligi va dovyurakligini yana bir bor o‘zida gavdalantirgan. Milliy qahramonlarning mazkur mardonavor kurashi, o‘z Vatani hamda el-ulusiga cheksiz sadoqati, avlodlar uchun ibrat namunasiga aylangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, o‘zbek bahodirlaridan Po‘latxon, Dukchi eshon, Namoz Pirimqulov, Abdurahmon Jevachi, Solih Oxun kabi mard o‘g‘lonlarimiz qo‘llariga qurol olib bosqinchilarga qarshi yurt ozodligi uchun mardonavor kurashganlar. Milliy-ozodlik harakatlari qariyb oltmish yil mobaynida davom etib, unda o‘zbekning mard o‘g‘lonlari o‘zlarini Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Yalangto‘sh Bahodir va Zahiriddin Muhammad Boburning davomchilari ekanliklarini yana bir bor isbotlaganlar. Afsuski, ushbu milliy-ozodlik harakatlari “bosmachilik harakati” tamg‘asi ostida shafqatsizlarcha bostirilib, istibdodga qarshi bosh ko‘targanlar, turli tuhmat va ayblovlar bilan tazyiq ostiga olingan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyo tarixida yangi davr boshlangan. Turkiston o‘lkasi Rossiya mustamlakasiga aylantirilgach, xom-ashyo manbaiga aylantirilib, tub aholini qoloqlikga olib kelish va milliy madaniyatning har qanday ko‘rinishlariga barham berish siyosati yurgizilgan. Turkistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi o‘zgartirilib, Turkiston general-gubernatorligi va uyezdlarga bo‘lingan, shuningdek, o‘z maqsadlarini to‘liq amalga oshirish uchun tub, mahalliy aholining hukmron zodagonlaridan o‘zlari saylagan “mingboshi”, “ellikboshi” va qozilardan foydalanganlar.

“Jadid” atamasi Turkiston o‘lkasiga XIX asrning oxirlarida kirib kelishi bilan Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg‘ona shaharlarida yangi “usuli jadid” maktablari tashkil topib, ma’rifatparvarlik faoliyatlari yo‘lga qo‘yildi. Shuning uchun, Turkiston o‘lkasi tarixida asosan 1900-1925-yillar jadidchilik faoliyatining eng rivojlangan davri sifatida e’tirof etiladi. Aslida jadid maktablarini tashkil etish oson kechmagan.

Dastlab “Usuli jadid” maktabini ochishga ruxsat so‘rab qilgan murojaatlarga rad javoblari berilgan bo‘lsa, keyinchalik ayrim mahalliy mutaassib mullalarning ig‘vosi bilan “usuli jadid” maktabi o‘qituvchilariga “dahriy”, “munofiq”, “kofir” tamg‘alari yopishtirilgan. Bu haqda ma’rifatparvar Abdulla Avloniy asarlarida batafsil ma’lumotlar keltirilgan[13].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy hayotida keskin burilish yasagan jadidlar harakati bugungi istiqlolning ilk shabadalari sifatida e’tirof etiladi. Zero, jadidchilik vujudga kelgan davr ona

[13] Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд: Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари. Тошкент, “Маънавият”, 2006. –Б.304.

zaminimiz tamaddunidagi keskin burilish nuqtalaridir. Turkistondagi jadidchilik harakati XIX asrning oxirlarida Kavkaz va Volga bo‘ylarida yoyilgan ma’rifatparvarlik harakatining ta’siri ostida vujudga kelib, Ismoilbek Gaspralining 1883-yilda asos solgan “Tarjimon” nomli gazetasi va “usuli jadid” maktabining tashkil etilishi bilan bog‘liq[14].

Manbalarga ko‘ra, aslida “jadid” atamasi Turkiyada ilk marta Sulton Salim III hukmronligi (1789-1802 yy.) yillarida paydo bo‘lganligi qayd etilgan bo‘lib, jadid va qadim iboralari mohiyatdan eskilik va yangilik orasidagi, aniqrog‘i taraqqiyot va turg‘unlik o‘rtasidagi kurash sifatida e’tirof etiladi. Jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasida XIX asrning oxirlari – XX asr boshlarida shakllanib, qisqa fursatlar ichida o‘zining taraqqiyotiga erishib borayotgan edi. Mazkur harakat ijtimoiy turmushning deyarli barcha qatlamlarini qamrab olgan bo‘lib, mamlakatda yuz berayotgan siyosiy va madaniy hodisalar uning ta’sir doirasidan chetda qolmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовараунnаҳр тарихи. –Т: Меҳнат, 1991. 11-13 - б.
2. Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовараунnаҳр тарихи. –Т: Меҳнат, 1991. 11-13 - б.
3. Вохидов Ш. “Тарих-и нофеи”. Бухоро амирлиги тарихига оид муҳим манба. –Т.: Ўзбекистон, Ижтимоий фанлар. 1997. №9-10-11.
4. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд: Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари. Тошкент, “Маънавият”, 2006. –Б.304.
5. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент: “Маънавият”, 2002. – Б. 6.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING OILA VA XOTIN – QIZLAR MASALALARI HAQIDAGI QARASHLARI

MAHMUDHOCA BEHBUDİ’NİN AİLE VE KADIN SORUNLARI HAKKINDAKİ GÖRÜŞLERİ

ВЗГЛЯДЫ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ НА СЕМЕЙНЫЕ И ЖЕНСКИЕ ПРОБЛЕМЫ

MAHMUDHAJA BEHBUDI’S VIEWS ON FAMILY AND WOMEN'S ISSUES

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Email: tilavovashahnoza249@gmail.com, Tel: +998912477905

[14] Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент: “Маънавият”, 2002. – Б. 6.

Annotatsiya: Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy mintaqadagi barcha jadidlarni birlashtirishga intilgan yirik shaxsdir. Uning jadidchilik tarixida tutgan o‘rni beqiyos bo‘lib, davriy matbuot sahifalaridagi faoliyati, millatni taraqqiy ettirishga, ijtimoiy hayotning har bir jabhasini isloh qilishga qaratilgan fikr - mulohazalari o‘z davri va bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta’lim – tarbiya, oila va xotin – qizlar haqidagi fikr – mulohazalari, qarashlari asosida boshqa jadidlar ham oila, uning huquqiy asoslari, xotin – qizlarning haq – huquqlari, ta’limi to‘g‘risida maqolalar, risolalar yoza boshladilar. Ushbu maqolada oila va jamiyatda xotin – qizlarning o‘rni, haq-huquqlari, ularning ta’lim va tarbiya olishlarining farzand tarbiyasidagi ahamiyati haqidagi masalalar taraqqiyparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning maqolalari orqali tarixiy jihatdan tahlil qilib yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston mintaqasi, jadid, matbuot, xotin-qizlar masalasi, ta’lim - tarbiya, oila, farzand, ma’rifat, maktab.

Аннотация: Махмудходжа Бехбуди крупный деятель Туркестанского джадидистского движения, является крупной фигурой, стремящейся объединить всех джадидов в регионе. Его роль в истории джадидизма неоценима, и его работы на страницах периодической печати, его размышления, направленные на развитие нации, реформирование всех аспектов общественной жизни, считаются актуальными для его времени и по сей день. Основываясь на мнениях и взглядах Махмудходжи Бехбуди на образование, семью и женщин, другие джадиды также начали писать статьи, брошюры о семье, ее правовых основах, правах женщин, образовании. В данной статье освещаются вопросы места женщин в семье и обществе, прав и свобод, значение их образования и воспитания в воспитании детей посредством исторического анализа статей прогрессиста Махмудходжи Бехбуди.

Ключевые слова: Туркестанский регион, джадид, пресса, женский вопрос, образование, семья, ребенок, просвещение, школа.

Annotation: Mahmudhaja Behbudiy a major figure in the Turkestan jadidism movement, is a major figure who seeks to unite all jadids in the region. His role in the history of jadidism is incomparable, and his activities on the pages of the periodical press, his comments aimed at progressing the nation, reforming every aspect of social life, are considered relevant both for his time and for today. On the basis of Mahmudhaja Behbudi’s opinions on education, family and women, views, other jadids also began to write articles, pamphlets about the family, its legal foundations, the rights of women, education. This article covers issues about the role of women in family and society, their rights, the importance of their education and upbringing in the upbringing of children through the articles of the progressive Mahmudhaja Behbudi.

Keywords: Turkestan region, jadid, press, women’s issue, education, family, child, enlightenment, school.

Turkiston mintaqasidagi jadidlarning qarashlarida xotin-qizlar ta’limi, ularning oila va jamiyatdagi o‘rni, haq-huquqlari masalasi ham alohida o‘rin tutgan edi. Yurtning istiqbolini o‘ylovchi jadidlar jamiyatda xotin – qizlarning etarlicha ta’lim – tarbiya olmasdan, ularning jamiyatda ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirmasdan turib, rivojlangan jamiyat yaratishdek maqsadlarini amalga oshirib bo‘lmasligini yaxshi anglaganlar. Shu sababdan ham jadid ziyolilari davriy matbuot sahifalaridagi maqolalarida, risolalarida xotin – qizlarning sog‘ligi, ta’lim – tarbiyasiga e’tibor qaratish, ularning haq – huquqlariga amal qilish kabi masalalarni islom dinining manbalari Qur’oni Karim va hadislarga tayanib yoritib o‘tdilar. Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875 – 1919) ham mamlakat ijtimoiy hayotidagi o‘z davri va bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lgan masalalarni

qamragan turli mavzularni o‘z ichiga olgan maqolalarni yozadi. Maqolalarida oila, xotin – qizlar va ularning jamiyatdagi mavqei masalalarini ham yoritib o‘tgan bo‘lib, zamondoshlarini ularning haq – huquqlariga amal qilishlariga chaqiradi hamda xotin – qizlarning sog‘ligi, ta’limi masalalariga e’tibor qaratishi lozimligini ham eslatib o‘tadi. Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning xotin – qizlar va ularning ijtimoiy hayotdagi mavqei haqidagi fikr - mulohazalari maqolalariga tayangan holda yoritib o‘tiladi. Shuningdek, tarixchi olimalardan D. Alimova, D. Jamolova, va adabiyotshunos olimlardan Z. Abdurashidov, B. Qosimov kabi olimlarning tadqiqotlari mahsuli bo‘lgan monografiya, maqolalaridan ham foydalaniladi.

Ma’lumki, taraqqiyparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning davriy matbuot sahifalaridagi faoliyati 1902 – yilda Turkistonda mahalliy tilda chiqqan “Turkiston viloyatining gazeti” dan boshlanadi. Qrim – tatar ma’rifatparvari Ismoil Gaspirinskiy tomonidan asos solingan “Tarjimon” gazetasida ham faoliyatini 1904 – yildan boshlaydi [5. B. 8]. 1913 – yilda “Samarqand”, 1913 – yil 20 – avgustdan esa “Oyina” jurnalini chiqarib, matbuotdagi faoliyatini davom ettiradi [6. B. 13]. Tadqiqotlarda keltirilishicha, u bir qancha vaqtli matbuot nashrlarini chiqarish bilan birga, “Xurshid”, “Tujjor”, “Haqiqat” (keyinchalik “Shuhrat”) kabi mahalliy gazeta va jurnallarda ishtirokidan tashqari Kafkaz, Qrim, Volga bo‘yi musulmonlarining vaqtli nashrlarida ham faol qatnashib turgan [7. B. 271]. Uning fikrlari, qarashlari ko‘pincha qrim – tatar ma’rifatparvari Ismoil Gaspirinskiy bilan hamohang bo‘lib, maqolalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xotin – qizlar haqida yozilgan maqolalarida ularni ilm olishi, ehtiyotlab voyaga etkazish [8. B. 42] kabi fikr – mulohazalarini bildiradi. Xususan “Oyina” jurnalining bir qator sonlarida shu mazmundagi maqolalarni ko‘rish mumkin. “Oyina” jurnali rus ma’murlari Sliyanov – Gazarov bosmaxonasida [5. B. 34] chop etilgan bo‘lib, 1915 – yil 15 – iyunga qadar chiqarib turiladi [6. B. 57]. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyina” jurnalining bir qator sonlarida oila, ayollar masalasiga bag‘ishlangan “Hifzi sihhati oila” (Oila salomatligi muhofazasi) nomli maqolasini chop ettiradi. Maqolada Qur’oni Karim va hadislardan iqtibos keltirib hamda Gollandiya va Fransiya olimlarining statistik tadqiqotlariga tayanib, erta turmush qurishning zararlari, benikohlik, ko‘pxotinlilik, jinsiy tarbiya me’yorlari haqida fikr – mulohazalarini yozadi [9. B. 176]. Maqolalarida “Xotun olmoqni kerakligi”, “Uylanmaslikni zarari”, “Qiz bola tarbiyasi” kabi mavzularida o‘z davrida va bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lgan mavzularni yoritadi. U oila va jamiyatda xotin – qizlarning o‘rni haqida o‘z fikr – mulohazalarini yoritar ekan, oilani islom dini axloqi qonun – qoidalari asosida qurish lozimligini e’tirof etadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy insonlar uchun oila qurish zarurligini quyidagi fikrlar orqali ta’kidlaydi: “Insonlarg‘a xotun olmoq tabiiydur. Xotun olmasdan yolg‘uz yashamoq insong‘a mumkin yo‘q. Har bir erkak va ayol bir-birini yordam va ionati va birga yashamog‘iga muhtojdir. Erkak ila ayol shar’iy

nikoh ila er va xotun bo‘lib ro‘zg‘or tuzamasa, jamiyati bashariyayi hozir va madaniyatni soyasig‘a raxna paydo bo‘lub, inqiroz va xarob bo‘lmoqqa yo‘l tutar” [1.B.191]. U ayol va erkakning oila qurishi tibbiyot jihatidan salomatligi uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, shariatga muvofiq esa avlodlarning ko‘payib, davom etishi hamda jamiyat hayotiga ham ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. “Bulug‘i tibbiy” deb nomlangan qismida yigit va qizlarning balog‘at davrida aqliy va jismoniy jihatdan o‘zgarishlari haqida ma’lumot beradi hamda shu davrda ularning tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi [1.B.192 – 193].

“Hifzi sihhati oila” maqolasining 47-raqam qismida o‘g‘il va qizlarni balog‘atga va kamolga etganidan so‘ng, o‘z vaqtida oila qurishi kerakligini yozadi. Vaqtidan oldin oila qurilganda kishilarning jamiyatga keraklicha xizmat qila olmasligi, sog‘ligida muammolarning paydo bo‘lishi hamda tug‘iladigan farzandning nosog‘lom bo‘lishi mumkinligini, kech oila qurish yoki umuman oila qurmaslik ham zarar etkazishini qayd etib o‘tadi [1.B.194-195]. U oila qurishda erkaklar yoshi 25-30 yosh, qizlarni 20-22 yosh atrofida bo‘lishi kerak deb hisoblaydi va tibbiyot ma’lumotlariga tayanib, o‘z fikrlarini dalillar asosida keltiradi [1.B.195]. Boshqa jadidlar ham oilaga bag‘ishlangan risolalarida qizlarni barvaqt turmushga chiqarmaslikni maslahat beradi. Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ushbu maqolalari ta’sirida “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli risolani yozgan buxorolik jadid Abdurauf Fitrat (1886 – 1938) ham qizlarni 18 yoshdan oldin turmushga chiqarmaslikni, uning tibbiy jihatdan zararlarini yozib o‘tgan edi [4. B. 55 – 56]. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tibban tanosubi zavjayn” deb nomlangan qismida yigit va qiz oila qurishdan oldin albatta bir – birlarini ko‘rishlari, bir – biriga sog‘lik jihatidan munosib bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydi [1.B.197]. Oilaning farovon bo‘lishi uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy tanning sog‘lom bo‘lishini, turmush qurish arafasida bo‘lgan yoshlar bir birining salomatliklari haqidagi ma’lumotlardan xabardor bo’lishi kerakligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Chunki bu keyinchalik kelib chiqishi mumkin bo‘lgan salomatlikka doir muammolarning hamda yosh oilalarning buzilib ketishi kabi hodisalarning oldini olishi mumkinligi uchun ham muhim deb hisoblaydi va zamondoshlariga kelajakda yuqoridagi jihatlarga jiddiy e’tibor qaratishi kerakligini ta’kidlaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Qiz bolalarni tarbiyasi” deb nomlangan maqolasida qiz bolalar tarbiyasiga asosiy mas’ul kishi ona bo‘lganligi uchun muhim tavsiyalarni berib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Jumladan, qiz bolalarni shariat qoidalariga muvofiq ehtiyotlab tarbiyalashi, salomatligiga e’tiborli bo‘lishi kerakligi, 11-12 yoshida balog‘at yoshida qiz bolaning tanasini quvvatsizlantiruvchi ish va taomlardan asrashi kerakligini ta’kidlaydi. Shuningdek, 16-17 yoshlarida kelinlik vaqti kelgan paytlarda ularning tarbiyasida salbiy holatlar kuzatilmasligi uchun, oshiqona kitoblar o‘qilishiga vaqt qoldirilmasligi, har xil bazmlarda ishtirok etishga yo‘l qo‘ymaslik haqida ham muhim tavsiyalar beradi

[1.B.196]. Muallifning ushbu fikrlari orqali o‘z davrining dolzarb muammolarini ko‘tarib, zamondoshlarini hushyorlikka chorlagani, din va tibbiyot ilmini yaxshi bilganligini anglash mumkin.

Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiyning xotin – qizlar ta’limi masalalarini ham maqolalarida yoritganligini ko‘rish mumkin. “Oyina” jurnalida chop etilgan “Tahsil va safar zamoni va taom” deb nomlangan maqolasida zamondoshlariga hadislar asosida kelajakdagi zamon uchun ham bilimlarni farzandlarga o‘rgatish kerakligini ta’kidlaydi, bu bilan kelajak taqdiri, millatning taraqqiyoti hozirgi o‘rganilayotgan bilimlarga bog‘liqligini qayd etib o‘tadi. Muallif bolalarning aksariyati kelasi zamonga muvofiq ta’lim va tarbiya olish uyoqda tursin, balki, o‘zi yashab turgan zamondagi ilm va fanlarni etarlicha o‘rganmayotganligi, yangi usul maktablariga o‘qishga berilmayotganligi, har mahallada maktablar ochilmayotganligini tanqid qilib yozadi. Hadislar asosida ilm olish har bir erkak va ayol uchun farz ekanligini dalillar bilan isbotlaydi, ammo bunga rioya qilinmayotganligini tanqid qiladi va zamondoshlarini o‘g‘il – qizlarini o‘qitishga da’vat etadi [1. B. 56].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning maqolalarida jamiyat hayotida uchraydigan illatlar, ayollarning haq – huquqlariga rioya etilmayotganligi haqidagi fikr – mulohazalar ham uchraydi. Jumladan, “Bizni kemirguvchi illatlar” deb nomlangan maqolasida millat hayotidagi bir qancha inqirozga yuz tutishiga sabab bo‘lgan to‘y va azalardagi ortiqcha sarf – xarajatlar haqida, ayollarning shu isrofgarchiliklar ta’sirida meros bilan bog‘liq haq – huquqlariga rioya qilinmayotganligi haqidagi fikr – mulohazalarini keltirib o‘tadi [3. B. 133]. “Sag‘irlar haqinda” nomli maqolasida etim kishiga vasiy qilib tayinlangan ba’zi shaxslarni o‘z qizini sag‘ir ya’ni etim kishiga nikohlab, qizi uchun qalin pulini ko‘p miqdorda olishi, etim kishiga qolgan merosga o‘zi ega chiqib, har ikkisini ham xonavayron qilib baxtsiz bo‘lib qolishlariga sababchi bo‘lishini yozib, zamondoshlarini ogohlantiradi [3. B. 77].

Jadidlar jamiyatni rivojlantirishning omili, birinchi navbatda ma’rifatga, ta’lim – tarbiyaga bog‘liq ekanligini yaxshi ekanligini anglab etganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan o‘zbek dramachiligining ilk namunasi 1911-yilda yozilib, 1913-yilda chop etilgan, keyinchalik bir necha bor sahnalashtirilgan “Padarkush” dramasida ham ushbu dolzarb muammolarni ko‘taradi. “Padarkush” dramasi 3 pardali 4 ta manzaradan iborat bo‘lib, unda jaholat va nodonlikka botgan, ilm olmagan, yomon yo‘llarga kirib, o‘z otasining qotiliga aylangan bolaning fojeasi haqida hikoya qilinadi. Muallif dramadagi qahramonlardan biri domulla tilidan “bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, be’manilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi..”[2. B. 47] deb boyning xotiniga qarata aytilgan ushbu so‘zlari orqali nafaqat boy va o‘g‘ilning balki, ayolining ilmsizligi, o‘qimaganligini ham fojeaning ro‘y berishiga asosiy sabablardan biri sifatida ko‘rsatadi. Fojeaning

asosiy aybdorlaridan biri sifatida Liza nomli axloqi yaxshi bo‘lmagan ayolni ham ko‘rsatib, bu obraz orqali Turkistonga kirib kelayotgan “yevropacha” hayot illatlarini va bu illatlar erkak va ayol tarbiyasiga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkinligini ko‘rsatib beradi [6. B. 57].

Xulosa shuki, Mahmudxo‘ja Behbudiy millatni uyg‘otishga qaratilgan bir qator maqolalarida oila, oilaviy munosabatlar, xotin – qizlar ta’limi – tarbiyasi, salomatligiga e‘tibor masalalarini olib chiqqan. Davriy matbuot sahifalarida chop etilgan mazkur maqolalarning g‘oyasi bugungi kun uchun ham muhim bo‘lib hisoblanadi. Maqolalarda xotin – qizlarni ma’rifatli bo‘lishi ularning ma’naviy jihatdan yuksalishiga erishishi mumkinligi hamda jismonan, aqlan va ruhan sog‘lom, kelajak avlodga tarbiya berishda asqotishini ko‘rsatib beriladi. Xotin-qizlarning ma’rifatli bo‘lishi oiladagi ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qilishini, tinchlikni mustahkamlashda ham muhim rol bajarishini o‘z qarashlarida keltirib o‘tgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2018. –Б. 56-196;
2. Беҳбудий М. Танланган асарлар // Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б.Қосимов. 2-нашри, тузатилган ва тўлдирилган. – Тошкент: “Маънавият”, 1999. – Б. 47;
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkush: drama, hikoya, maqola va hikmatlar / - Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – B. 77 – 133;
4. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari/ tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas’ul muharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. – B. 55 – 56;
5. Абдурашидов З., Егамқулова Н. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг “Ойина” журнали. – Тошкент: Муҳаррир нашриёти, 2019. - Б. 8 – 34;
6. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy: risola. /- Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 13 – 57;
7. Зайнобиддин Абдурашидов. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ташқи даврий матбуотдаги публицистик фаолиятига бир назар // Тарихнинг номаълум саҳифалари. Илмий мақолалар Ҳужжат ва материаллар, Хотиралар. Тўртинчи китоб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – B.271;
8. Jamolova D. Turkiston jadidchilik harakatida xotin-qizlarning tutgan o‘rni // Ilmiy axborotnoma. Tarix. 2022-yil, 2-son – B. 42;
9. Алимова Д. Жадидчилик феномени/ - Тошкент: “Академнашр”, 2022. – Б. 176.

БЕХБУДИЙ ФАЛСАФАСИДА КИТОБХОНЛИК МАЪНАВИЯТИ

Камолиддин Юсупов
Жиззах Давлат педагогика университети Фалсафа, тарбия ва ҳуқуқ таълими кафедраси катта ўқитувчиси

Мансурхон Машрабов
ЖДПУ 4 босқич талабаси

Аннотация: Мазкур мақолада Махмудхўжа Беҳбудий фалсафий қарашларида китобхонлик маънавиятининг ўрни, таълим ва тарбия масалалари, шунингдек ёшларни китобхонликка кенг жалб қилиш борасида амалга оширилаётган ислоҳотлар ва уларнинг мазмун моҳияти таҳлил қилиниб, муаллиф томонидан илмий хулосалар баён қилинган.

Калит сўзлар: Янги Ўзбекистон, миллий давлатчилик, ислоҳот, таълим, тарбия, маънавият, китобхонлик, маърифат.

Инсоният ўз тарихида яратган энг буюк кашфиёти – бу китобдир. Кишилик жамиятида китобдан бошқа мўъжиза йўқ.

Қайсики, миллий давлатчилик тарихидаги барча раҳбарлар аввало китоб орқали халқни бошқарган, ўз сиёсатини юритган. Жорий йилнинг 3 январ санасида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг атоқли адиб Махмудхўжа Беҳбудий таваллудининг 150 йиллигини кенг нишонлаш ва ёшлар орасида Беҳбудий асарларини кенг тарғиб қилиш бўйича Қарор қабул қилинди [1]. Мазкур қарор мамлакатимизда ёшларни китобхонлик маънавиятини юксалтиришдаги муҳим қадамлардан бири бўлди. Зотан, бугунги мураккаб шароитда ёшларни жисмоний ва маънавий баркамол инсонлар этиб тарбиялаш биз учун ғоят муҳим вазифа бўлиб қолмоқда [2].

Китобнинг, илмнинг қадри, қимматини, шу билан бирга, илмсизлик, китоб ўқимасликнинг фожеасини Беҳбудий бобомизнинг “Падаркуш” асаридек ҳеч ким зўр бадиий савия билан ёритиб бермаган,
Беҳбудий бу асарни одамларни огоҳликка чорлаш мақсадида ёзган.

“Падаркуш”да асар қаҳрамонларидан бири бўлган ўқитувчи – отага неча бор ўғлини таълимга йўналтириш бўйича огоҳлантирди – ота кўнмади, моддий бойлиги бор одамга илм керак эмас, деб билди. Ваҳоланки, бойликни топиш ва уни асраш, миқдорини янада кўпайтириш учун ҳам илм керак, малака керак, илмли ворис керак.

Ёзилганига 100 йилдан ошган бўлса-да, асар мавзуси бугунги кунда ҳам ўз долзарблигини йўқотмаган. Маслаҳатимиз, “Падаркуш” талабалар ижросида саҳналаштирилиши ҳамда ота-оналар йиғилишларида ҳар доим намойиш этилмоғи лозим.

Қадимги Миср эҳромларида археологлар “Бугунги ёшлар жуда бузилиб кетди” – деган мазмунда битиклар топишган. Бундан минг йиллар олдин ҳам

ёшлар бузилишга мойил бўлишган экан-да. Дарҳақиқат, болалар табиатан ўзгарувчан, ҳар қандай янгиликларга ишқибоз бўлади. Ёш авлоддаги бундай ўзгаришларни вақтида англаб, уларни тўғри йўлга бошлаш – биз катталарнинг зиммамиздаги вазифа, мажбуриятимиздир.

Таваллудининг 150 йиллигини нишонлаётганимиз Маҳмудхўжа Беҳбудий қаламга олган ҳар қандай муаммо аввалига орифлик, илм-маърифат, замонавий билим, тараққий этган дунё аҳли билан баравар бўлиш, давомидан эса ҳуррият ва мухторият каби масалалар билан уйғунлашиб кетади. Биргина “Падаркуш” драмаси номига “ўқимаган боланинг ҳоли” иловасининг қўшилишида ҳам ўқишга, маърифатга ундаш бор.

Унда ўқимаган боланинг келажаги барбод бўлади, эл-юртига фойдаси тегмайди, охир-оқибат отасининг қотилига айланади, деган ғоя ўзининг бадиий-саҳнавий талқинини топган. Ўз отасини ўлимига сабабчи бўлган Тошмурод образи – бу ўқимаган боланинг ожиз, аянчли қиёфаси. Янгича фикрлайдиган домла: “Бу бадбахтлик ва мусибатга сабаб жаҳолат ва нодонликдир, бемаънилик ва тарбиясизликдур. Уйингизни нодонлик бузди”, деса, кейинги кўринишда Беҳбудий ўзини қийнаб келган, ўнлаб мақолаларида таъкидлаган ҳақиқатни Зиёли образи воситасида драма якунида шундай баён этади: “Агар буларни отаси ўқутса эди, бу жиноят ва падаркушлик алардан содир бўлмас эди… Оҳ, ҳақиқатда бойни ўлдирган билимсизликдир. Бизларни хонавайрон, бачагирён ва беватан ва банди қилғон тарбиясизлик ва жаҳолатдир: беватанлик, дарбадарлик, аросат, фақру зарурат ва хорликлар ҳаммаси илмсизлик ва бетарбияликнинг меваси ва натижасидур. Дунёга тараққий қилган халқ илм воситаси ила тараққий қилади…”.

“Падаркуш” асари қаҳрамони – бой – ота ўғли Тошмуродга на диний ва на дунёвий билим беришни хоҳламас экан, лоақал тўғри тарбия беришни ҳам билмайди-да. Амир Темурга “Ўғлингиз ароқ ичаяпди” дейишганида, Соҳибқирон “Атрофидагилар кимлар?” деб савол берган экан. Тошмуроднинг атрофидаги уч ўртоғи ҳам тарбиясиз эди, улар орасида энг яқини Тангриқул эса отасининг қотилига айланади. Тўғри, Абдулатиф Мирзо Улуғбекни ўз қўли билан ўлдирмаганидек, Тошмурод ҳам отасини ўлдирмади, лекин Абдулатиф ҳам, Тошмурод ҳам падаркуш – ўлдирмаса-да, ўлдиришларига шароит яратиб берган.

Шахсан мен учун асарнинг энг таъсирли жойи Тошмурод ва унинг шишадошлари қотилликдан сўнг ҳам ўз маишатларини давом эттирганларидир. Отасининг танаси совимасдан туриб ароқ ичган, фоҳишалар билан ишрат қилган йигитчани ким деб аташни ҳам билмайсан киши. Яна бир ачинарли томони Тошмурод, Тангриқул, Давлат ва Норнинг 15 – 17 ёшар болалар эканлиги – уйдагилари томонидан айни назорат кучайтириладиган

ёшдаги бу мўрғакларни ўша пайтдаги ишратхоналарда бемалол юриши ақлга сиғмайди. Асарда аҳамият берилса, болаларга, бойга маслаҳат берадиган, тўғри йўл кўрсатадиган домла ва зиёлининг ўзлари ҳам тарбияга муҳтож – бири нос, бири тамаки маҳсулоти чекади.

Тарбия – бир кунлик иш эмас. Шу билан бирга бола тарбияни ҳар кимдан олиши керак эмас. Қадимий китобларда “Фарзандларингиз сизнинг аксингиздир” дейилган. Тарбиянинг энг самарали усули – бу шахсий намуна бўлишдир.

Бош Қомусимизнинг 77-моддасидаги “Ота-оналар ўз фарзандларини вояга етгунларига қадар боқиш ва тарбиялашга мажбурдирлар” дейилган [3]. Бугунги кунда кўпчилик ота-оналар фарзанди камолотида асосан уни боқиш, иқтисодий томондан мустақил қилишга эътибор беришаётгандай, қорнини тўйдирсам бўлди, энг асосий мажбуриятимни бажарган бўламан деб ҳаракат қилаяпди. Қанчалик ҳалол боқсак, шунчалик тарбияси, илм эгаллашини ҳам бажариш муҳим.

Бозор иқтисодиёти шароитида энг яхши сармоя – бу фарзандларингиз келажагига қўйилган сармоя ҳисобланади. Унинг замон талабларига мос тарзда илм олиши учун барча иқтисодий имкониятингизни йўналтирсангиз – бугун сарфлаган бир сўм – эртага ўзингизга миллион бўлиб қайтади. Бизнеснинг олтин қоидаси шунақа.

Шу билан бирга боланинг катта бўлганида оқ-қорани таниши учун яна бир жиҳат – унинг ўз ҳуқуқини билиши, мажбуриятини англаши ҳамда ўзини ўзи ҳар томонлама ҳимоя қилишни ҳам сиздан ўрганади. Ўрганса, келажакда оиласини – ота-онасини, маҳалласи, Ватанини ҳимоя қилади.

Шу билан бирга боланинг ижтимоий, маънавий-маърифий, сиёсий, иқтисодий ҳуқуқларини тўла таъминлаш мақсадида қабул қилинган Қонунларимиз ва унинг тарғиботи ҳамда ижросида ҳали кўп ишлар қилишимиз керак. Бугунги тез ўзгараётган хатарли дунёда ўз хушёрлигимизни ҳар доим ошириб боришимиз лозим. Тарғиботнинг энг самарали усулларидан фойдаланишимиз, тарбияда қайси соҳа вакили бўлмайлик, тарбияда “бир оғиз” бўлишимиз муҳим. Токи бола мактабда бошқа гап, кўчада бошқа гап, уйда ўзгача мушоҳада эшитмасин, айтганларимизнинг тескарисини оммавий ахборот воситаларида кузатмасин.

Бугунда учратаётганимиз ҳар қандай муаммо ва фалокатларнинг ечими эса – китобхонлик, китоблар тарғиботи ҳамда ёшларимиз онгига илмнинг кучини ҳар томонлама сингдиришимиз лозим.

Давлатимиз раҳбарининг 2021 йил 17 август куни “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири билан ўтказган “**Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига**

айланмоқда” сарлавҳали суҳбати ва унда кўтарилган масалалар бизнинг соҳамизда маёқ вазифасини ўтайди [4].

Шу билан бирга педагоглар ҳар бир тадбир ҳамда ҳар бир маърузасини Президентимизнинг: “**Агар сиз фарзандингизга данғиллма уй қуриб берсангиз – вақти соати келиб, у эскириши мумкин. Агар энг зўр машина олиб берсангиз – уям тез орада эскириши мумкин. Агар моддий бойлик, пул қолдирсангиз – уям бир кун сарф бўлиб тугаши мумкин. Аммо дунёда ҳеч қачон эскирмайдиган, йўқолмайдиган бебаҳо бир бойлик борки, у ҳам бўлса, фарзандингизга берган билим ва ҳунардир. Лекин билим ва маърифатни қаердан, нимадан олиш мумкин? Аввало, китоб деган хазинадан”** деган ҳикматли сўзлари билан бошлашлари керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон еспубликаси президентининг расмий сайти President.uz
2. Ш. М. Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. “Ўзбекисон”, Тошкент, 2021, 252-б
3. Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикасси Конститутцияси. www. Lex.uz
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёвнинг Янги Ўзбекистон газетаси бош муҳаррири Салим Дониёров билан савол жавоблари. www. President.uz

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MA’NAVIY VA MA’RIFIY FAOLIYATI

Mahmudhodja Behbudi'nin manevi ve eğitici faaliyetleri
The spiritual and educational activities of Mahmudkhoja Behbudi
Духовная и просветительская деятельность Махмудходжи Бехбуди

Abriyeva Marjona Uchqun qizi
Navoiy Davlat Universiteti Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, faoliyati, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va milliy uyg'onish davrida o'ynagan roli keng ko'lamda yoritib beriladi. Behbudiyning pedagogik va ijodiy faoliyati, islohotlar uchun kurashi va madaniy-ma'rifiy xizmatlarini batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so‘z: Matbuot, teatr, Tarjimon, jadid, ma'rifat, muftiy, islohotlar.

Kirish. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Amir Shohmurod davrida uning ajdodlari Buxoroga taklif qilingan va ular Samarqandda qolib ketishgan.Ahmad Yassaviy avlodidan. Otasi Sulton xo‘ja Behbudiy mahalla majlisida imom-xatib bo‘lib ishlagan,qori ham bo‘lgan.Ona tomonidan ajdodlari Urganchdan bu erga kelib

qolgan edi. Mahmudxo‘ja Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgach,Chashmaiob viloyatida qozilik qilayotgan tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘l ostida o‘zining mehnat faoliyatini boshlaydi. Mirza va qozilik bilan shug‘ullanadi,so‘ngra Jomboyda muftiylik qilgan.[1]Behbudiy o‘z davrida mashhur bo‘lgan Buxoro madrasalaridan birida ta’lim oldi va arab, fors, turk tillarini, shuningdek, diniy fanlarni chuqur o‘rgandi. Uning aql-zakovati va bilimga bo‘lgan chanqog‘i uni o‘z davrining taniqli ulamolari tomonidan tan olinishiga olib keldi. Uning o‘qituvchilari orasida Buxoro amirligidagi mashhur ulamolar ham bor edi. Behbudiyning ta’limi uning keyinchalik o‘zining milliy uyg‘onish g‘oyalari va islohotlarini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynadi.Ta'lim olganidan so'ng, Behbudiy o'z bilimlarini boshqalar bilan baham ko'rishni qaror qildi. U Buxoro shahrining madrasalarida dars berib, yosh avlodni bilim olishga undadi. Behbudiyning pedagogik uslubi zamonaviy fikrlashni, tanqidiy yondashuvni va mustaqil fikrlashni targ'ib qilishga qaratilgan edi. U o'quvchilarga faqat diniy fanlarni emas, balki tabiiy fanlar, tarix va adabiyotni ham o'rgatdi.Behbudiyning ijodiy faoliyati esa asosan adabiyot va jurnalistika sohalarida namoyon bo'ldi. U o'z asarlarida milliy ma'naviyatni, o'zbek tilini va madaniyatini targ'ib qildi, feodal tuzumni tanqid qilib, xalqni ma'rifatga va ozodlikka intilishga chaqirdi. Behbudiy o'zbek adabiyoti tarixida muhim rol o'ynagan "Tarjimon" jurnalining asoschilaridan biri hisoblanadi.Behbudiy maorif sohasida keng qamrovli islohotlar o‘tkazish tarafdori bo‘lgan. U maktablarni zamonaviylashtirish, o‘zbek tilida ta’lim berishni joriy etishni taklif qilgan.Behbudiy o‘zbek xalqining ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni maqsad qilgan. U o‘zbek bolalarining ta’lim olish huquqini himoya qilishga harakat qilgan. Behbudiyning maorif sohasidagi islohotlari o‘zbek xalqining ma’naviy va intellektual rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.U o‘zbek tilida o‘quv materiallari yaratishga katta e’tibor bergan. Behbudiyning islohotlari natijasida o‘zbek bolalari o‘z ona tilida ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishgan. [1]

Behbudiy o‘zbek teatr san’atining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. U o‘zbek tilida ilk teatr asarlarini yozgan, ularning ba’zilari sahnani zabt etgan.Behbudiyning "Padarkush", "Arz" kabi teatr asarlari o‘zbek tomoshabinlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olingan.Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi o‘z davrining muhim adabiy asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu drama milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari suruvchi va eskicha qarashlarni tanqid qiluvchi birinchi sahna asrlaridan biri edi. Behbudiy "Padarkush" orqali oila va jamiyatdagi muammolarni ko‘tarib chiqib,xalqni yangilashga undadi.Behbudiyning asarlari xalqni ilm-ma'rifatga chorlash va milliy g‘ururni uyg‘otishga qaratilgan edi.U o‘z ijodi orqali jamiyatdagi johillik, adolatsizlik va eskicha urf-odatlarni tanqid qildi.Behbudiyning teatr ijodkorligi o‘zbek teatr

san’atini boyitib, uning rivojlanishiga turtki bo‘lgan.U o‘zbek tilida teatr asarlari yaratish orqali o‘zbek madaniyatini yuksaltirishga harakat qilgan. Behbudiyning teatr ijodkorligi o‘zbek xalqining ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynagan.Behbudiy jurnalist sifatida ham samarali ishladi. U "Samarqand", "Oyna" kabi nashrlarda maqolalar yozib, xalqni ma’rifat va taraqqiyotga chorladi. Uning maqolalari milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilib, jamiyatni ijtimoiy-siyosiy muammolar haqida o‘ylashga undadi. [2]

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining eng taniqli namoyandalaridan biri bo‘lib, u o‘zbek xalqining ma’naviy va madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.Behbudiyning asarlari jadidchilik g‘oyalarini targ‘ib qilishga qaratilgan edi. U o‘zbek xalqining ta’lim olish huquqini himoya qilish, milliy til va madaniyatni rivojlantirishni ilgari surgan. Behbudiyning g‘oyalari jadidchilik harakati uchun o‘zbek xalqining ma’naviy uyg‘onishiga turtki bo‘lgan[3]. Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat yozuvchi va maorifchi, balki faol jamoat arbobi ham edi. U o‘zbek xalqining huquq va manfaatlarini himoya qilishga harakat qilgan.Behbudiy turli jamoatchilik tashkilotlarida faol ishtirok etgan, xalqni birlashtirishga, o‘zbek xalqining milliy o‘zligini tiklashga harakat qilgan. Uning faoliyati o‘zbek xalqining ma’naviy va ijtimoiy hayotini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan edi.Mahmudxo‘ja Behbudiyning qarashlari o‘zbek adabiyoti va tarixida muhim o‘rin egallaydi. Uning g‘oyalari turli tazkiralarda yoritib berilgan.Behbudiyning qarashlari haqida "Tarjimai holi Mahmudxo‘ja Behbudiy", "Turkiston tarixi" kabi tazkiralarda ma’lumotlar mavjud. Bu tazkiralarda Behbudiyning hayoti, faoliyati, g‘oyalari, siyosiy qarashlari va ijodining xususiyatlari batafsil yoritib berilgan.Behbudiyning qarashlari o‘zbek xalqining ma’naviy va ijtimoiy hayotini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan edi. Uning g‘oyalari o‘zbek xalqining milliy o‘zligini tiklashga, ma’naviy va intellektual rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.Behbudiy o‘zbek xalqining ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga, o‘zbek tilida o‘quv materiallari yaratishga, milliy madaniyatni targ‘ib qilishga katta e’tibor bergan.Uning ishlari o‘zbek xalqining o‘ziga xos madaniyati, tili va tarixini o‘rganishga, milliy o‘zligini tiklashga qaratilgan edi.Behbudiyning g‘oyalari o‘zbek xalqining ma’naviy va ijtimoiy hayotini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan edi.Behbudiyning ma’rifatga oid ishlari avvalo ta’limni isloh qilishga qaratilgan edi. U 1903-yilda Samarqandda birinchi jadid maktabini tashkil etdi. Ushbu maktabda yangi usulda, ya’ni ilg‘or pedagogik tamoyillar asosida ta’lim berish yo‘lga qo‘yildi.

Behbudiy xalqni savodsizlikdan chiqarish, ilm-ma’rifatli qilish orqali jamiyatni rivojlantirishga ishonardi.U maktablar uchun darsliklar va qo‘llanmalar yaratib, ta’lim sifatini oshirishga hissa qo‘shdi. Uning "Risolayi islom", "Muhtasar tarixi islom" kabi asarlari diniy-ma’rifiy mazmunga ega bo‘lib, yoshlarni nafaqat

diniy, balki dunyoviy bilimlar bilan ham tanishtirardi.Behbudiy o‘zining maqola va kitoblarida feodal tuzumning kamchiliklari, xalqning qashshoqligi, ta’lim va madaniyatning past darajasi haqida yozdi. U o‘zbek tilini rivojlantirish, ta’limning yangi usullarini joriy etish, milliy madaniyat va san’atni qo‘llab-quvvatlash g‘oyalarini targ‘ib qildi.Behbudiyning g‘oyalari jamiyatda katta ta’sir ko‘rsatdi va milliy uyg‘onish harakatiga kuchli turtki berdi. Uning asarlari o‘zbek xalqi tomonidan keng o‘qildi va ularga milliy ong va g‘urur uyg‘otdi.Behbudiyning siyosiy va jamoat faoliyati uning milliy uyg‘onish g‘oyalarini amaliy ravishda amalga oshirishga qaratilgan edi. U o‘zining jamiyatdagi maqsadi xalqni qashshoqlikdan ozod qilish, ta’lim va madaniyat darajasini oshirish, milliy o‘zlikni tiklash va o‘zbek xalqining hayotini yaxshilash ekanligini ta’kidlagan.Behbudiy o‘zining fikrlarini targ‘ib qilish uchun turli xil usullarni qo‘llagan. U kitoblar yozgan, maqolalar chop ettirgan, ma’ruzalar o‘qigan, jamoatchilik bilan uchrashuvlar o‘tkazgan va o‘zining g‘oyalarini targ‘ib qilish uchun harakat qilgan.Behbudiyning siyosiy faoliyati uning o‘zbek xalqining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan edi. U feodal tuzumning zulmidan xalqni ozod qilish, o‘zbek xalqining milliy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun kurashgan.Behbudiy ta’lim tizimida islohotlar o‘tkazishni himoya qilgan. U o‘zbek tilini o‘qitishni joriy etish, zamonaviy fanlarni o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash, ta’limni xalq uchun etkazilishi kerakligini ta’kidlagan.U milliy madaniyat va san’atni rivojlantirish, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini himoya qilish, musiqa, adabiyot va teatr san’atining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashni targ‘ib qilgan. Behbudiy feodal tuzumning zulmidan xalqni ozod qilish va o‘zbek xalqini rivojlantirish uchun kurashgan. Uning islohotlar uchun kurashi jamiyatda katta o‘zgarishlarni keltirishga qaratilgan edi.

Behbudiy o‘zbek xalqining turli xil ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilgan islohotlar dasturini ishlab chiqqan. Uning dasturida ta’lim, madaniyat, iqtisodiyot va siyosat sohalarida islohotlar o‘tkazish takliflari berilgan.Behbudiyning islohotlar uchun kurashi ko‘pincha qiyinchiliklarga duch kelgan. Uning fikrlarini tanqid qilishgan, uning harakatlariga to‘sqinlik qilishgan, hatto uning hayotiga xavf tug‘dirgan.Behbudiyning kurashi o‘zbek xalqining hayotini o‘zgartirishga qaratilgan edi. U o‘zbek xalqining o‘zini o‘zi boshqarish huquqini, milliy o‘zlikni tiklashni va turmush darajasini yaxshilashni maqsad qilib olgan. Uning kurashi o‘zbek xalqininBehbudiyning madaniy-ma’rifiy xizmatlari o‘zbek xalqining milliy uyg‘onishiga katta hissa qo‘shdi. U o‘zbek tilini rivojlantirish, o‘zbek adabiyotini boyitish, xalqni ma’rifatli qilish uchun katta harakat qilgan.Behbudiy o‘zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan bir qator ishlarni amalga oshirdi. U o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga qiziqib, o‘zbek tilida kitoblar yozishni, o‘zbek tilini o‘qitishni targ‘ib qilgan. Uning

"Tarjimon" jurnali o‘zbek tilini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Behbudiy o‘zbek adabiyotini boyitishga ham katta hissa qo‘shgan. U o‘zining asarlarida xalqning hayotini, turmush tarzini, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini aks ettirgan. Uning asarlari o‘zbek xalqining milliy ongiga ta’sir ko‘rsatdi.Behbudiy xalqni ma’rifatli qilish uchun ham katta harakat qilgan. U ta’lim tizimini isloh qilishni himoya qilgan, o‘zbek tilini o‘qitishni joriy etishni targ‘ib qilgan. Uning sa’y-harakatlari tufayli ko‘plab maktablar ochildi va o‘zbek tilida ta’lim olishga milliy ozodlik harakatiga katta hissa qo‘shdi.Behbudiyning madaniy-ma’rifiy xizmatlari o‘zbek xalqining milliy uyg‘onishiga katta hissa qo‘shdi. U o‘zbek tilini rivojlantirish, o‘zbek adabiyotini boyitish, xalqni ma’rifatli qilish uchun katta harakat qilgan.Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari o‘zbek xalqining milliy ozodlik harakatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U feodal tuzumni tanqid qilib, xalqni qashshoqlikdan ozod qilish, milliy mustaqillikka erishish uchun kurashgan.XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlari O'zbekistonda milliy uyg'onish davri hisoblanadi. Ushbu davrda Behbudiy kabi ma'rifatparvarlar xalqni ma'rifatga va ozodlikka intilishga chaqirganlar[5].

Behbudiy Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida yashagan va faoliyat olib borgan. U mustamlakachilik salbiy oqibatlarini tanqid qilib, milliy mustaqillik uchun kurash g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlagan.Ammo u kurashni qurol bilan emas balki ma'rifat,ta'lim va ijtimoiy uyg‘onish orqali olib borish kerakligini uqtirgan.1917- yilgi Fevral inqilobi va undan keyingi siyosiy voqealar Behbudiyning faoliyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatdi.U yangi tuzumdan katta umid qilgan bo‘lsada,O‘rta Osiyo xalqlari uchun adolatli boshqaruv o‘rnatilishini ko‘ra olmadi. 1919-yilda Behbudiy Buxoroda qizil armiya va mahalliy bosmachilar o‘rtasidagi mojarolar qurboni bo‘ldi.Uning o‘limi milliy uyg‘onish harakati uchun katta yo‘qotish bo‘ldi.Behbudiy o‘z faoliyati davomida mustamlakachilikka, adolatsizlikka va jaholatga qarshi kurash olib bordi. Biroq uning ilg‘or g‘oyalari mustamlaka hokimiyati va mahalliy qoloq doiralarga yoqmagan. 1919-yilda Behbudiy Bolsheviklar tomonidan qatag‘on qilinib, fojiali tarzda qatl etilgan.[6]

Xulosa qilib aytganda Mahmudxoja Behbudiyning manaviy va marifiy faoliyati oz davri uchun ham, bugungi kun uchun ham ulkan ahamiyatga ega. U millatni jahon taraqqiyotidan orqada qolishining asosiy sababi sifatida johillik va ilm -fan yoqligini korsatgan va bu muammolarni bartaraf etishning yagona yoli sifatida marifat va talimni ilgari surgan.Behbudiyning merosi o‘zbek xalqi uchun qimmatlidir. Uning asarlari, g‘oyalari va kurashi o‘zbek xalqining milliy ongiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning ijodi va faoliyati orqali milliy uygonish davri maqsadlari ilm-ma’rifat,erkinlik, tenglik va taraqqiyot g’oyalari xalq orasida keng yoyildi. Uning merosi o‘zbek xalqi uchun o‘ziga xos ruhiy boylikdir.Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z hayotini xalqini uyg‘otishga, ma’rifatga chorlashga bag‘ishlagan

buyuk siymo sifatida millat tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Uning asarlari va g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, yosh avlodni ma’rifatga undashda davom etmoqda.Behbudiyning ishlarini o’rganish va davom ettirish har birimiz uchun katta ma’suliyat va yuksak vazifadir.Behbudiy milliy uyg‘onish davrining yorqin namoyandasi sifatida o‘zbek xalqining ma’rifat va madaniyat yo‘lidagi kurashida abadiy yod etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qahramon Rajabov O‘zbekiston XX asrda.Toshkent:Fan,2024.-120-bet.ISBN
2.Hoji Muin Tanlangan asarlar Toshkent: Ma’naviyat,2005.-19-bet
3.Mahmudxo‘ja Behbudiy (2024,November23). oz.sputniknews.uz. Qaraldi:23 noyabr 2024yil -23b
4.Mahmudxo‘ja Behbudiyning merosining milliy g‘oya tarwibotidagi ahamiyati.Toshkent .2014.-10 bet
5.Mahmudxo‘ja Behbudiy hayotining noma’lum sahifalari .uzanalytics.com.(25 fevral 2020.) Qaraldi:12-dekabr 2024-yil. 18b
6.Avazov,N Mahmudxo‘ja Behbudiy -ma'rifatparvar.Toshkent:1993-yil. 20b

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING O‘ZBEK XALQI MA'NAVIY HAYOTI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

ÖZBEK HALKININ MANEVI YAŞAMININ GELIŞMESINDE MAHMUDHOJA BEHBUDI'NIN ROLÜ

THE ROLE OF MAHMUDKHODJA BEHBUDI IN THE DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL LIFE OF THE UZBEK PEOPLE

РОЛЬ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Allaberganova Latofat Hamroyevna
Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti magistranti
Shayxontohur tumani 41- umimiy o’rta ta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi
allaberganovalatofat7@gmail.com, +998 (99) 925-54-56

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning O‘zbek xalqining ma'naviy hayoti va madaniy rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Behbudiyning jadidchilik harakatidagi etakchi roli, uning ma'rifiy va islohotchilik faoliyati, hamda xalqni ilm-ma'rifatga chorlovchi asarlari, O‘zbek xalqi ma'naviy taraqqiyotida tutgan muhim o‘rni yoritiladi. Ushbu maqola zamonaviy O‘zbekiston tarixida Behbudiyning o‘ziga xos ta'sirini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, ma’naviy hayot, ma’rifat, islohotlar, tarbiya konsepsiyasi.

Kirish. O‘zbek xalqining ma'naviy hayotida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Ushbu davr milliy uyg‘onish va islohotlarga ehtiyojning oshishi bilan xarakterlanadi. Millatni ilm-ma'rifatga chorlab,

savodsizlikni yo‘q qilishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan jadidchilik harakati aynan shu davrda shakllandi. Bu harakatning asoschilaridan biri, taniqli pedagog, noshir, dramaturg va islohotchi sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyat olib bordi.Behbudiy O‘zbekistonda ta'lim, madaniyat va ma'rifat sohasida ulkan o‘zgarishlarni amalga oshirib, xalqning milliy ongini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. U ilm-fan va texnologiyalarni xalq hayotiga joriy etishga harakat qilgan, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratgan. Behbudiyning o‘z davrida amalga oshirgan ishlari nafaqat jadidchilik harakati rivojiga, balki butun o‘zbek xalqining ma'naviy va ijtimoiy hayotiga ijobiy ta'sir ko‘rsatdi.Uning "Padarkush" dramasi, "Oyna" jurnali va yangi usuldagi maktablarni tashkil etish borasidagi tashabbuslari xalqni savodxonlikka, ma'rifatga va zamonaviy tafakkurga yo‘naltirgan. Behbudiyning faoliyati xalqning ma'naviy uyg‘onishida muhim omil bo‘lib, u millatni uyg‘otuvchi va taraqqiyot sari etaklovchi arbob sifatida tarix sahifalarida o‘chmas iz qoldirdi. Mazkur maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyning O‘zbek xalqining ma'naviy hayotida tutgan o‘rni, uning ilm-ma'rifiy va milliy islohotlardagi xizmatlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Ushbu tahlil orqali Behbudiyning milliy ma'naviyatni yuksaltirish yo‘lidagi sa'y-harakatlarini yoritib berish maqsad qilingan. Uning asosiy g‘oyalaridan biri yosh avlodni milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirgan holda tarbiyalash edi. Behbudiy yoshlarni ilm-fanga oshno qilish, ularni zamonaviy tafakkur va ma'naviy yuksaklik sari etaklashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. U o‘z faoliyati davomida xalqni savodxon qilish, ta'limni isloh qilish va milliy uyg‘onishni ta'minlashda katta ishlarni amalga oshirdi.

Asosiy qism. 1. Behbudiyning hayoti va faoliyati.Mahmudxo‘ja Behbudiy (1874–1919) Samarqandda tug‘ilgan. U maktab davridan boshlab islomiy bilimlarni o‘rganib, keyinchalik dunyoviy fanlarga ham e'tibor qaratgan. Behbudiy o‘z faoliyatini xalqni savodsizlikdan chiqarish, milliy qadriyatlarni tiklash va zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilishga bag‘ishladi. U tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, nashr etilgan gazeta va jurnallar, shuningdek, yozilgan dramalar o‘sha davrda katta ta'sir ko‘rsatdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy yosh avlod rivoji uchun katta hissa qo‘shgan bo‘lib, uning faoliyati bir necha asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilgan. Quyida Behbudiyning yosh avlod rivoji uchun qilgan ishlari va ulkan hissasi batafsil bayon qilinadi:

Ta'limni isloh qilish va yangi usuldagi maktablar ochish.Behbudiy o‘z davrida O‘zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish zarurligini tushungan va bu yo‘nalishda amaliy qadamlar qo‘ygan. U yangi usuldagi maktablarni tashkil etib, ularda quyidagi o‘zgarishlarni joriy qilgan:

Dunyoviy fanlar ta'limi: Behbudiy maktablarida nafaqat diniy bilimlar, balki matematika, tarix, geografiya, fizika kabi dunyoviy fanlar ham o‘rgatilgan.

Yangi uslubdagi darslar: O‘quv jarayonida zamonaviy metodlarni qo‘llash, ya'ni o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki mantiqiy fikrlashga o‘rgatish asosiy maqsad bo‘lgan.

O‘quv adabiyotlarini yaratish: Behbudiy o‘quvchilar uchun qulay va sodda tilda yozilgan darsliklarni nashr qilgan. Bu kitoblar o‘sha davrda xalq savodxonligini oshirishga xizmat qilgan.

Milliy ongni shakllantirishBehbudiy yosh avlodni ilm-ma'rifat bilan qurollantirish orqali ularda milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan.U o‘z asarlarida yoshlarni bilimli, mas'uliyatli va vatanparvar bo‘lishga undagan.Uning "Padarkush" dramasi yoshlarga ota-onaga hurmat qilish va ma'naviy poklik haqida saboq beruvchi asar sifatida xizmat qilgan.Behbudiy yoshlarni nafaqat milliy qadriyatlarni hurmat qilishga, balki zamonaviy dunyoqarash bilan uyg‘un yashashga chorlagan.Yoshlarning zamonaviy bilim olishiga yo‘l ochishBehbudiyning asosiy g‘oyalaridan biri yoshlarni zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan tanishtirish edi.U yoshlarga rus tilini o‘rgatishni tavsiya qilgan, chunki bu til ilmiy manbalarga kirish imkonini bergan.Behbudiy yoshlarni G‘arbning ilmiy va texnik yutuqlaridan foydalanishga undagan, ammo bu jarayonda milliy va diniy qadriyatlarga sodiq qolishni ta'kidlagan.

Matbuot va teatr orqali yoshlar tarbiyasi.Behbudiy matbuot va teatrni yoshlarni tarbiyalash vositasi sifatida faol qo‘llagan:"Oyna" jurnali orqali yoshlarni savodxonlikka, ilm-ma'rifatga va milliy uyg‘onishga chorlovchi maqolalarni chop etgan.Teatr sahnalari orqali yosh avlodga ahloqiy va ma'naviy qadriyatlarni singdirgan. Bu faoliyat nafaqat ma'rifatni, balki yoshlar orasida bir-biriga hurmat va birdamlikni rivojlantirgan.

Milliy tarbiya konsepsiyasi.Behbudiy yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarga asoslangan zamonaviy tarbiya konsepsiyasini ilgari surgan. Uning fikricha:Yoshlar ma'naviy jihatdan pok, bilimli va mas'uliyatli bo‘lishi kerak.Ta'lim faqat savodxonlikni oshirish bilan cheklanmasligi, balki yoshlarda mustaqil fikrlash va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishi kerak.Yoshlarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish asosiy maqsad bo‘lishi lozim.Yoshlarni xalqning kelajagi sifatida ko‘rganligi.Behbudiy yoshlarni jamiyatning kelajagi deb bilgan va shuning uchun ularga alohida e'tibor qaratgan. U yoshlarga xalqning taraqqiyoti va milliy tiklanishi uchun mas'uliyat yuklagan. Uning faoliyati yosh avlodga ilmiy va ma'naviy tarbiya berish orqali millatni uyg‘otishga qaratilgan edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy yosh avlod rivoji uchun ta'lim islohotlarini amalga oshirgan, milliy ong va zamonaviy tafakkur shakllanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning o‘qituvchilik, noshirlik va dramaturgiya sohasidagi faoliyati yosh avlodni ma'naviy va intellektual rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Behbudiyning millatni

savodxon, ilm-ma'rifatli va madaniyatli qilish yo‘lidagi xizmatlari bugungi kunda ham xalqimiz uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentabrda Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlangan tadbirda uning ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohasidagi xizmatlarini alohida e'tirof etdi. Shavkat Mirziyoyev Behbudiyning yangi usuldagi maktablar, zamonaviy darsliklar yaratish va xalqni ma'rifatga oshno qilish borasidagi sa'y-harakatlarini yuksak baholadi. Prezident Behbudiyning milliy g‘oyalarni ilgari surish va yoshlarni ilm-fan bilan tarbiyalashdagi o‘rnini ta'kidladi. ‘oyalarining bugungi O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi bilan uyg‘Shuningdek, 2023-yilda Shavkat Mirziyoyev jadidchilik harakati va Behbudiy g unligini ta'kidlab, "Ularning g‘oyalarini hayotga tatbiq qilish, milliy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy bilimlarni yosh avlodga etkazish" zarurligini ma'lum qildi. Prezidentimizning nutqlarida Mahmudxo‘ja Behbudiyning faoliyatini zamonaviy O‘zbekistonni rivojlantirish va milliy ongni shakllantirishda muhim qo‘shgan hissasi sifatida ko‘riladi.

Mahmudxo’ja Behbudiy haqida zamondohlari ham juda iliq fikrlarni bildirishgan. Xususan, Abdulla Avloniy, jadidchilik harakatining boshqa etakchi ishtirokchisi, Behbudiy haqida ijobiy fikrlarda bo‘lgan. Avloniy Behbudiyni o‘zining ustozlaridan biri sifatida qadrlagan. U Behbudiyning pedagogik faoliyatini va ilm-fan sohasidagi yuksak g‘oyalarini alohida ta'kidlagan. Avloniy, Behbudiyning ta'lim tizimini isloh qilishdagi g‘oyalarini rivojlantirgan va o‘z asarlarida uning ta'limga bo‘lgan yondashuvini davom ettirgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov ham Behbudiyni jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida qadrlagan. U Behbudiyning g‘oyalarini ilmiy va diniy bilimlar bilan uyg‘unlashtirgan holda, ta'lim sohasida amalga oshirgan islohotlarini yuqori baholagan. Abdurashidxonov, Behbudiyning milliy ma'naviyatni yuksaltirishdagi hissasini ta'kidladi va uning faoliyatini zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga olib kelgan deb hisobladi.

Ismoilbek G‘aziyev jadidchilik harakatining yana bir etakchisi, Behbudiyning ta'lim va madaniyatdagi o‘rni haqida fikr bildirgan. G‘aziev Behbudiyni o‘z davrining eng ilg‘or pedagogi sifatida e'tirof etgan. U Behbudiyning yangi usuldagi maktablar tashkil etishdagi faoliyatini va ilm-fan, madaniyat hamda ijtimoiy islohotlarga qo‘shgan hissasini yuqori baholagan. Jadidchilik harakatining boshqa a'zolari, jumladan, Abdulhamid Chulpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi shaxslar ham Behbudiyning g‘oyalariga hurmat bilan qarashgan. Ular Behbudiyning ilm-fan va ta'limni zamonaviylashtirishdagi faolligini va o‘z asarlari orqali milliy g‘oyalarni rivojlantirishdagi o‘rnini yuqori baholashgan. Behbudiyning g‘oyalari, o‘z davrida an'anaviy ta'lim tizimidan chiqish va yangi bilimlarni taqdim etish orqali yoshlarni zamonaviy dunyoqarash bilan tanishtirishga yo‘naltirilgan edi. Mahmudxo‘ja

Behbudiy haqidagi jadidchilarning fikrlari uning ilm-fan, ta'lim va ma'naviyat sohasidagi ulkan xizmatlarini tan olishga asoslanadi. Behbudiy o‘z davrining ilg‘or islohotchisi sifatida o‘qitish metodikasini o‘zgartirish, xalqni ilm-fan va ma'naviyatga oshno qilishda katta hissa qo‘shgan. Jadidchilik harakatining etakchilari uning bu boradagi mehnatini yuksak qadrlagan va uning g‘oyalarini o‘z faoliyatlarida davom ettirgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z faoliyati davomida O‘zbekistonning ta'lim tizimi va ma'naviyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan yirik ma'rifatparvarlardan biridir. U ilm-fan, ta'lim va ma'naviyat sohalarida amalga oshirgan islohotlar bilan O‘zbekistonning kelajak avlodiga mustahkam bilim asoslarini yaratdi. Behbudiy o‘z davrida zamonaviy pedagogika, ta'lim metodlari va o‘quv usullarini joriy etishga harakat qildi, yangi usuldagi maktablar tashkil etdi, ilm-fan va texnologiyalarni zamonaviylashtirishga e'tibor qaratdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ta'limotining O‘zbekistonning yosh avlodi tarbiyasidagi o‘rni beqiyosdir. U o‘zining pedagogik faoliyati davomida nafaqat ilmiy, balki ma'naviy va ijtimoiy tarbiya sohasida ham tub islohotlar amalga oshirdi. Behbudiyning ta'limotida yoshlarni ilm-fan bilan birga, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash muhim o‘rin tutadi. Uning g‘oyalari bugungi kunda O‘zbekistonning ta'lim tizimida davom ettirilmoqda va yoshlarning ma'naviy barkamolligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

1. Yangi usuldagi ta'lim tizimi

Mahmudxo‘ja Behbudiy ta'limni isloh qilishni o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilagan. U yangi usuldagi maktablar tashkil etish, zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish va ta'limni ilmiy asosda rivojlantirishga intilgan. Behbudiy, ilgari ta'lim tizimida mavjud bo‘lgan eskirgan an'anaviy yondashuvlarni tanqid qilib, yoshlarni ilm-fan bilan zamonaviy dunyoqarash asosida tarbiyalash zarurligini ta'kidladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda bu g‘oyalar ta'lim tizimi rivojida, yangi o‘quv metodlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar shaklida o‘z ifodasini topmoqda.

2. Ma'naviyat va milliy qadriyatlarni rivojlantirish

Behbudiy ta'limda milliy qadriyatlarni rivojlantirishga katta e'tibor bergan. U yoshlarni nafaqat ilm-fan, balki ma'naviyat va ijtimoiy mas'uliyatga ham tarbiyalashni o‘zining asosiy vazifasi deb bilgan. Uning g‘oyalariga ko‘ra, faqat ilmli va ma'naviyatli insonlar jamiyatni rivojlantira oladi. Behbudiyning bu g‘oyalari, hozirgi kunda ham yoshlarni milliy g‘urur, vatanparvarlik va insoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda o‘z ifodasini topmoqda.

3. Pedagogik yondashuvlar va yoshlar tarbiyasida o‘rni

Behbudiy yoshlarni nafaqat ilmli, balki to‘g‘ri ma'naviy qadr-qimmatlarni tushunadigan va ularga amal qiladigan insonlar sifatida tarbiyalashga intildi. U o‘quvchilarga o‘zlarini hurmat qilish, milliy an'analarni qadrlash, dunyoqarashni

kengaytirish va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishni o‘rgatdi. Behbudiyning pedagogik yondashuvlari bugungi kunda ham yoshlarning bilim olish bilan birga, ular o‘rtasida vatanparvarlik, ma'naviyat va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

4. Ilm-fan va ta'limda yangiliklar

Behbudiy ilm-fan sohasida o‘z zamonasi uchun yangi g‘oyalarni ilgari surgan. U ilm-fan, texnologiyalar va madaniyatni yoshlar orasida tarqatishga katta ahamiyat bergan. Bugungi kunda O‘zbekistonning yosh avlodi uchun ilm-fan va texnologiya sohalarida yangiliklar yaratish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Behbudiyning bu boradagi g‘oyalari, yoshlarni zamonaviy dunyoqarash asosida tarbiyalashda o‘z ahamiyatini saqlab qolgan.Mahmudxo‘ja Behbudiyning ta'limotlari O‘zbekistonning yosh avlodi tarbiyasida o‘zgacha ahamiyatga ega. Uning g‘oyalari ilm-fan, ta'lim, ma'naviyat va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlarni ilmli, ma'naviyatli va ijtimoiy mas'uliyatli insonlar sifatida tarbiyalashda asosiy yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qilmoqda. Behbudiyning faoliyati va g‘oyalari yoshlarning nafaqat ilm olish, balki ma'naviy barkamollikka erishishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiyning ta'limga bo‘lgan yondashuvi nafaqat ilmiy, balki ma'naviy tarbiya hamda milliy g‘oyalarni rivojlantirishga qaratilgan edi. U o‘z asarlarida ma'naviyat, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishga intildi. Bu g‘oyalar uning pedagogik yondashuvining ajralmas qismiga aylandi. Behbudiy o‘quvchilarga ilm-fan bilan birga, ijtimoiy mas'uliyatni, xalqining tarixini va milliy qadriyatlarni o‘rgatishga katta ahamiyat berardi.Jadidchilik harakatining boshqa etakchilari, masalan, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov, Behbudiyning ilm-fan va ta'lim sohasidagi g‘oyalarini qadrlashgan. Ularning fikricha, Behbudiyning yangi usuldagi ta'lim tizimi nafaqat ilmiy bilimlarni, balki insonning ma'naviy o‘sishini ta'minlashga ham xizmat qilgan. Uning o‘qituvchilarga qo‘ygan talablari, o‘quvchilarga bilim berishning ilg‘or usullari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.Behbudiy shuningdek, jurnalistika sohasida ham faoliyat yuritgan va "Oyna" jurnali orqali ilmiy va ma'naviy g‘oyalarni keng ommaga etkazgan. Matbuotdagi faoliyati orqali o‘zi ilgari surgan g‘oyalarni jamiyatga taqdim etgan va yoshlarni ilm-fanga qiziqtirishga undagan. Jurnalistikaning ma'naviy va ilmiy funksiyalarini targ‘ib qilgan Behbudiy, o‘zining matbuotdagi faoliyatida faqatgina zamonaviy dunyoqarashni rivojlantirish bilan kifoyalanmay, balki o‘z xalqining ma'naviyatini yuksaltirishga intilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy, pedagogik va ijtimoiy faoliyati O‘zbekistonning ma'naviy va ilmiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Uning g‘oyalari nafaqat o‘quvchilarga ilm-fan o‘rgatishda, balki jamiyatni

ma'naviyat va ma'rifatga oshno qilishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Behbudiyning faoliyati va g‘oyalari hozirgi kunda ham milliy ta'lim tizimi va ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qilmoqda. Uning merosi yoshlarni ma'naviyatli, ilmli va ijtimoiy mas'uliyatli insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY VA MA'RIFIY FAOLIYATI

Mahmudhoja Behbudi'nin manevi ve eğitim faaliyetleri.
The Spiritual and Educational Activities of Mahmudhoja Behbudi.
Духовная и образовательная деятельность Махмудходжи Бехбуди

Baratova Mexrangiz Nazirjonovna
Navoiy Davlat Universiteti Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi
e-mail:mexrangizbaratova7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma'naviy va ma'rifiy faoliyati tahlil qilinadi. Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining etakchilaridan biri bo‘lib, xalqni ilm-ma'rifatga chorlagan va o‘z asarlari, maqolalari hamda pedagogik faoliyati orqali jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Tadqiqotda uning ma'naviy qarashlari, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlari hamda o‘sha davrda amalga oshirilgan ma'rifiy ishlarining zamonaviy ta'lim tizimi uchun ahamiyati ochib beriladi. Ushbu maqola Behbudiyning nafaqat Turkiston jamiyati, balki butun musulmon olamidagi o‘rnini yoritishga qaratilgan.

**Kalit so`zlar:** jadid, fikr-g`oya, matbuot, Turkiston , ma`rifatparvar, jadid maktablari, ma`rifat,tarix, jug`rofiya, falsafa.

Kirish. XIX asr va XX asr boshlarida paydo bo`lgan yangicha dunyoqarashlar, ayniqsa, jadid ta`limoti Behbudiy hayotida o`ziga xos tarzda aks etdi. Uning dunyoqarashi o`z davrida mavjud fikr-g`oya va ta`limotlar orasidan sharqiy falsafaga mos keladigan, lekin Yevropa falsafasining qimmatli tomonlarini qamrab olgan holda shakllandi. Mahmudxo`ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg`onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo`lib, shu davrda o`zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg`onishida muhim rol o’ynaydi U Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi, milliy matbuotning yuzaga kelishida faol ishtiroketibgina qolmay, birinchi o`zbek drammasini yaratib, professanal o`zbek tetr san`atining maydonga kelishiga zamin hozirladi. U xalq va jamiyatni ma`rifatlashtirishorqali mustaqillikka erishish g`oyasini olg`a surgan va shu qutlug` yo`lda halok bo`lgan ulug` ajdodimizdir.

Behbudiy adabiyot va ma`rifat olamidagina emas, butun Sharq tafakkuriy-falsafiy taraqqiyotida ham ulkan mavqega ega. 1926-yil sharqshunos Laziz Azizzoda Behbudiy to`g`risida juda o`rinli yozgan :”Agar O`zbekistonda Navoiy va Ulug`bekdan boshqa uchinchi bir ilm va madaniyat arbobiga haykal qo`yiladigan bo`lsa, shubhasiz bu Behbudiyning haykali bo`lg`usidir”.[1]

Mahmudxo`ja Behbudiyning o`z qo`li bilan yozilgan tarjimai holi shu kungacha topilgani yo`q. Ammo tadqiqotchilar Hoji Mu`in, Sadriddin Ayniy va boshqalarning “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon”, “ Ishtikorion”, “Qizil bayroq”, “Известии ТуркЦИК”, “Buxoro axbori” gazetalarida, “ Inqilob”, “Uchqun”, “Maorif va o`qituvchi”, “Науки и просвешение” jurnallari va boshqa manbalar zaminida uning tarjimai holini tiklab e`lon qildilar. So`ngi yillarda e`lon qilingan arxiv materiallari, S.Qosimov va Z. Ahrorova uyushtirgan suhbat va materiallar, Behbudiyning o`z maqolalari uning tarjimai holi to`laroq yorishga bir muncha imkon yaratdi.

Hoji Mu`in Behbudiyning tog`asi Mulla Odil so`ziga asoslanib yozishicha, Behbudiy ajdodan sulton-ul orifin hazrat Xoja Ahmat Yassaviy zurriyoti Qori Niyozxo`ja Urganjiy avlodidir. U amir Shohmurod davrida Buxoroga taklif qilingan bo`lib, o`sha-o`sha Samarqandda yashab qoladi va o`z avlodini davom ettiradi. Niyozxo`janing Solihxo`ja ismli o`g`li bo`lib, undan Sultonxo`ja hamda Huriniso va Najimaniso ismli bir o`g`il va ikki qiz qolgan. Solihxo`ja qizarini maxsus o`qitib xat-savodini chiqartirgan. Qizi Huriniso Qur`oni karim xatmini oxiriga etkazgani uchun “qoriabegim”deb ulug`langan. Sultonxo`ja qorilikni Huriniso qoriabegimdan o`rgangan. Voyaga etgach, mahalla masjidida imom xatib bo`lib ishlash bilan kifoyalanmay, islom qonunshunosligi-ilmi fiqh va to`nfurushlik bilan sgug`ullangan va o`ziga “Behbudxo`ja” deb taxallus olgan. Bora-bora Sultonxo`ja ismi unitilib, barcha Behbudiy deb atalgan, Mahmudxo`ja shu kishining farzandi. Sadriddin Ayniy “Mufti Mahmudxo`ja Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimai holi “ maqolasida: “Behbudiy afandi 1291 hijriy zulhijja oyining o`ninda, oqshom (1873 milodiy hamal oyig`a mutlaq) Samarqandda Behbudxo`ja xatib talabinda dunyog`a kelib”, deb yozadi.[2] Hoji Mu`in “Inqilob” jurnalida bosilgan maqolasida tavallud sanasini 1873 desa, Buxoroda nashr qilingan “ Uchqun “ (Hoji Mu`in “Inqilob” jurnatida bosilgan maqolasida tavallud sanasini 1873 desa, Buxoroda nashr qilingan “ Uchqun “ (№1. 1923) jurnali va “Zarafshon” (1923, 25-mart) deb ko`rsatadi.[3] Mahmudxo`ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog`ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo`ja Solihxo`ja o`g`li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo`ja urganchlik bo`lib, amir Shohmurod zamonida (1780-1785) Samarqandga kelib qolgan.

1894-yilda otasi, imom-xatiblik bilan kelgan Behbudxo`ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo`ja tog`asi qozi Muhammad Siddiqning tarbiya va qarmog`ida o`sib voyaga etadi. Arab sarfu nahvini kichik tog`asi Odildan o`rganadi. 18 yoshida qozixonada mirzalik qila boshlaydi. Darvoqe,Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ham ma`lumotlar nihoyatda kam. U dastlab Samarqand madrasasida, so`ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko`rgan.An`anaviy madrasa ilmini puxta egallagan Behbudiy 1915-yilda etnograf G. Andereyev savollariga javob berar ekan,

madrasa taxsilini alohida tilga olgani ma`lum. Xullas, an`anaviy tehsil, so`ng esa o`z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariyatning yuksak maqomlari qozi, mufti darajasigacha ko`tariladi.[4] Behbudiy 18 yoshida Chashmai ob volostida qozi vazifasida ishlagan tog`asi Muhammad Siddiq qo`l ostida mirzalik qilgan. Tog`asioldida ikki il ishlagach, mirzalik faoliyatini Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o`g`li qo`lida davom ettiradi. Chunki bu paytda tog`asi qozillikdan bo`shatilgan edi. Mirza va qozilik bilan shug`ullanib, so`ng Jomboyda muftiylik darajasiga ko`tarilgan. Behbudiy Kabut bo`lisida 10 desyatina erga egalik qilgan. O`ziga to`q va badavlat kishi bo`lgan.[5] U shariat qonunlarini puxta o`zlashtiradi va muftiy lavozimini egallaydi. 1916-yilgacha muftiylik faoliyati bilan muntazam shug`ullanadi. Bu orada qisqa vaqt qozi vazifasini ham bajargan, ammo ma`rifatparvarlik ishlariga berilish, xususan, matbaachilik bilan shug`ullanish kata mehnat va mablag` talab qilgani bois Behbudiy qozilikdan vos kechib, muftiylikning yonida tijorat bilan shug`ullanishga majbur bo`lgan.[6] Etnograf G. Andereyev bilan bo`lgan suhbatda u kuyunib: “Jurnal nashr qilish hozircha moddiy jihatdan zarar keltirmoqda “-deb aytgan.[7]

Mahmudxo`ja Behbudiy 1893-yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkey va forsiy matbout bilan tanishib brogan. Zamon ahvoli, bo`lib turgan ijtimoiy va siyosiy voqealar, turli yangiliklarni kuzatadi.[6] Yosh Mahmudxo`ja dunyoqarashining shakllanishida Rusiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil G`aspralining xizmati katta bo`lgan. 1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do`sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. “1318 sanai hijriyasi tavofi Baytullog`a Kavkaz yo`li ila Istambul va Misr al-Qohira vositasi-la borib edim. Muddati safari sakkiz oydan ziyoda cho`zilub edi”,[8]-yozadi Behbudiy bu haqda. Dunyo ko`rish izsiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi.[9]

Behbudiy 1903-yilda Samarqandning Jomboy tumaniga qarashli Rajabamin qishlog`ida “usuli savtiya” maktabini ochadi. Bu maktab Abduqodir Shakuriy xonadonida tashkil etiladi. Maktab o`quvchilarining kata qismi shahardan bo`lganligi va Rajabamin qishlog`iga qatnash qiyinligi sababli keyinchalik bu maktabni Behbudiy o`zining hovlisiga ko`chiradi. Shu davrda u maktab o`quvchilari uchun bir qancha darsliklar yaratgan.[10].Ketma-ket uning “Risolayi asbobi savod”(1904), “Risolai jug`rofiya umroniy”(1905), “Kitobat ul atfol” (1908), ”Amaliyoti islom”(1908), “Tarixi islom”(1909) kabi kitoblari paydo bo`ldi[11]. Mahmudxo`ja Behbudiy bir qator darsliklar ham yozdi. “Muntaxabi jug`rofiya umumiy”(Qisqacha umumiy geografiya), “Kitobatul atfol”(Bolalar maktublari), “Muxtasari tarixi islom”(Islomning qisqacha tarixi), “Madxali jug`rofiyai umroniy”(Aholi geografiyasiga kirish), “Muxtasar jug`rofiyai Rusiy” (Rossiyaning qisqacha geografiyasi). Shulardan bittasi – “Muntaxabi jug`rofiyai umumiy” asari haqida to`xtab o`tamiz. Asarning to`la nomi “ Kitobi muntaxabi jug`rofiyai umumiy

va namunai jug`rofiya”. 1905-yil 24-avgustda Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olinib, 1906-yil Samarqandda G.I.Demurov matbaasida chop etilgan. 106 sahifadan tashkil topgan[12]. Muallif bu “qadim” fanga taaluqli “turkiy, arabiy, forsiy, rusiy lug`atlarga tasnif bo`lgan o`ttuz qadar qadim va jadid kutub va risonli jug`rofiya, hay`ati riyoziy, tarixiy, tabiiy”lardan va yana juda ko`p turli tuman ma`lumot va manbalardan foydalanib yozganini ma`lum qiladi. ”Jug`rofiya degan so`z yunoniy, lug`ati arabiyga ta`rifi ard ma`nosiga ya`ni er va tufroqni bayon qilaturg`on ilmni aytilur”, deya izoh beradi muallif. So`ng Behbudiy uning turlariga to`xtaydi. “Chunonchi,- yozadi u, - erni shakldan, osmon ila Yer arosidagi xosiyati va Osmondagi nimarsalar ila nisbati va harakatidan bayon qilaturg`on ilmni “jug`rofiyai riyoziy”, erni xosiyati, tufroq past balandligi, har xil giyohu konlari, tog`-daryo, ko`l mijozu havosidan bahs qilaturg`on ilmni jug`rofiyai tabiiy deb atalur”[11].

Mahmudxo`ja Behbudiy padari buzrukvori nomi berilgan “nashiryoti Behbudiya” xususiy nashriyot egasi, Samarqand, Buxoro, Qo`qon, Namangan, Toshkent, Andijon shaharlaridagi kitob do`konlarining xo`jayini, “Oyna” jurnalining muharriri sifatida mashhur bo`lgan inson edi. Xususan, Samarqanddagi kitob do`konini u o`zining hovlisida ochgan edi. Bu shunchaki kutubxona emas, balki do`kon ham edi. Bu maskanga tashrif buyuruvchilar Istanbul, Misr, Bayrut, Qozon, Bog`chasaroy, Orenburg, Eron, Iroq, Hindiston, Afg`oniston, Peterburg va albatta Turkiston da chop etilgan kitoblarni ko`rib, sotib olishlari mumkin edi. Zamondoshlarining guvohlik berishicha, bu kutubxona Behbudiy vafotidan so`ng Turkistondagi eng yirik kutubxonalardan bo`lib qoldi. Qomusiy aql egasi, insonparvar shaxs bo`lgan Behbudiy tarix fanining ahamiyati haqida gapirib, insonning kamol topishida va jamiyatni boshqarishda bu fanning o`rni beqiyosligini ko`p marotaba ta`kidlab o`tgan. Uning: “Moziy istiqbolning tarozisidir”, -degan xitobi tarix va o`tmish tajribasida o`zining haqligini isbotladi.[13]

Behbudiyning fikricha, jamiyat rivoji va taraqqiyotida jamiyat ongida tarix fani qanday o`rin tutishi kerak? Uning bu muommoga bo`lgan munosabati “Tarix va jug`rofiya “ maqolasida o`z aksini topgan bo`lib, bu tadqiqot jiddiy masalalarni ko`tarib chiqqan asarlardan biri sanaladi[14]. Mutaassib islom namoyondalarining qotib qolgan dunyoqarashi hukmronlik qilgan davrlarda bu fanlar bid`at va gunoh hisoblangan edi. Shunga qarshi Behbudiy o`sha vaziyatda tarix va jug`rofiyaning muhimligi va zarurligini, diniy aqida parastlarga qarshi turib, bu ikki fanning jadid maktablarida bugun yoki kecha kashf etilmaganini, balki jamiyat hayotida qadimdan mavjud bo`lib kelganini isbotlaydi. Tarixni o`rganishga Behbudiy qanchalar katta ahamiyat berganini “Behbudiya “ kutubxonasida mavjud va sotuvga chiqarilgan kitoblar ro`yxati aytib turibti va bu erdagi nashrlarning etmish foizini tarixga oid asarlar tashkil qilardi. Bu kitoblar orasida uch tomlik “Tarixi madaniyat”, “Tarixi

islom”, “Buyuk tarixi umumiy”, “Tarixi istiqbol”, “Turk tarixi”, “Zafarnomai shohiy”, “Xulosai tarixi madaniyat”, “Oynai tarixi usmoniy”,” Madaniyati islomiya tarixi”, “ Temurlang”, “Yigirmanchi asrda olami islom ba Ovrupa”,”Tarixi kashf ul-Amriko”, “ Tarixi Eron”, “ Tarixi Eroni buzurg ”, “ Tarixi Baxtiyori” va boshqalar bor edi.[13] 1907-yil 23-avgustda Nijniy Novgorodda Rusiya musulmonlarining madaniyat va turmush muammolariga bag`ishlangan qurultoyi chaqirilgan[15]. Qurultoyda Mahmudxo`ja Behbudiy turkistonliklar guruhini boshqargan va nutq so`zlagan[16]. 1907-yili Behbudiy Rossiya 3-Davlat Dumasining Musulmon fraksiyasiga “Turkiston madaniy muxtoriyati “ loyihasini ko`rib chiqish uchun jo’natgan. Behbudiy loyihada Davlat dumasiga Turkiston musulmon aholisining nufuziga mos vakillar saylanishi, diniy idoraviy ishlarda erkinlikni, Turkistondagi mahalliyda tortib har qanday darajadagi boshqaruvda mahalliy xalq vakillarining ishtirok etishini ta’minlash, turkistonlik xalqlar uchun majburiy hamda bepul umumta’limni joriy qilish, mahalliy aholi roziligisiz Turkistonga Tusiyaning turli hududlaridan aholi ko’chirilishini to’xtatish, rus istilosi natijasida tortib olingan vaqf mulklarini qaytarish singari qat’iy talablarni ilgari surgan. Loyihada yozilgan ism-sharifi hamda o’z muhrini ham bosgan[17]. Biroq, uning bu loyihasi 3-Davlat Dumasi tomonidan e’tiborsiz qoldiriladi[10].

Behbudiy 1913-yildan boshlab matbuot ishlari bilan shug’ullangan. Shu yilning aprelida, “Samarqand” gazetasiga asos solgan. Gazeta ikki tilda: o’zbek va tojik tillarida, haftada 2-marta chop etilgan. Dastlab ikki sahifada bo’lgan gazeta 3-8-sonlarida sahifalari soni to’rttaga etkazilgan. 400-600 nusxada chop etilgan. 45-soni chiqqach, chor hukumatining tazyiqi hamda moddiy qiyinchiliklar tufayli nashr to’xtagan[18]. Shu yilning 20-avgustidan “Oyna” jurnali chiqara boshlagan. Haftalik nashrdan chiqqan bu jurnal asosan o’zbekcha bo’lib, maqola(forscha), she’r, e’lonlar(ruscha) ham berib borilgan. Jurnal Tatariston, Eron, Kavkaz, Afg’oniston, Turkiya, Hindistongacha tarqalgan. “Oyna” jurnalining sohasi keng qamrovli bo’lib, unda millatning tarixi, haq-huquqi, adabiyot hamda til masalalari, jahondagi ahvol to’g’risida maqola va munozaralar berib borilgan. Jurnal faoliyati 20 oy davom etgan. Shu davr mobaynida 68 soni nashr etilgan. Behbudiy kitob nashrini ham yo’lga qo’ygan. A. V. Pyakovskiy 1913-yili Behbudiy bosmaxonasida Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini rus tiliga tarjima qilinib, nashr etgan[15]. Turli xildagi darslik hamda qo’llanmalardan tashqari nashriyotda “Turkiston,Buxoro va Xivaning xaritasi”ni bosib chiqargan[19]. 1917-yili alloma safdoshlari – Fitrat, Ayniy, Ajziy, Muhammadquli O’rinboyev, A. Shomansur bilan birgalikda “Hurriyat” ro’znomasini, “Zarafshon” shirkatini hamda “ Nashri maorifni”ni tashkil etgan[3].

Xulosa: Mahmudxo’ja Behbudiy o’z davrining ilg’or ma’rifatparvari sifatida millatni jaholatda chiqarish, ilm-fan va san’atga asoslangan taraqqiyotni

shakllantirishning o’zining bosh maqsadi qilib qo’yadi. Mahmudxo’ja Behbudiy Turkiston jadichilik harakatining etakchi namoyandalaridan biri bo’lib, uning ilg’or g’oyalari Turkiston mintaqasining madaniy, ijtimoiy va siyosiy uyg’onishida muhimo’rin tutdi. Uning g’oyalari xalqni ma’rifatli qilish, adolatli jamiyat qurish va milliy o’zlikni anglashga qaratilgan edi. Behbudiy ta’limni jamiyat rivojlanishining asosiy omili deb bilgan. U eski maktablar o’rniga yangi usuldagi maktablarni ochish g’oyasini ilgari surdi. Bu maktablarda matematika, geografiya, tarix va boshqa duyoviy fanlar o’rgatilgan. O’zbek xalqini savodli qilish uchun turli darsliklar va risolalar yozdi. Behbudiy xalqni ma’rifatli qilishda matbuotning muhimligini anglab, “ Samarqnd” gazetasi va “Oyna” jurnalini nashr qila boshladi. Behbudiy Turkistonda teatr san’atining rivojlanishiga katta hissa qo’shdi.Turkiston xalqlarini yagona maqsad atrofida birlashtirish ko’plab sayi-harakatlar qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizzoda L. Behbudiy // Maorif va o`qituvchi. 1926.№2
2. “Mehnatkashlar tovushi”, 1920 8- aprel, Inqilob. №1. 1992.
3. M.Behbudiy merosining milliy g`oya targ`ibotidagi ahamiyati. Toshkent. 2014. 20.b
4. Begali Qosimov.”Mahmudxo`ja Behbudiy”.kh-davron.uz. Xurshid Davron kutubxonasi (2014-yil 19-yanvar).Qaraldi:20-dekabr 2024-yil. 45.b
5. Qahramon Rajabov. O`zbekiston XX asrda. Toshkent: Fan, 2024.-120- bet. ISBN978-9943-15-685-2.b
6. Jadidlar. Mahmudxo`ja Behbudiy. Zaynobiddin Abdirashidov. Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156-bet.
7. Andreyev.G. Самаркандский журнал “Ойна” и его редактор издатиль Махмудходжи Бегбуди// Туркестансие ведамости. 1915. 17 сентябрь.
8. Mahmudxo`ja Behbudiy . Qasdi safar. “Oyna” j. 1914y 31-son
9. Mahmudxo`ja Behbudiy . Tanlangan asarlar. Toshkent.”Ma’naviyat”. 1999.
10. Naim Karimov. Mahmudxo`ja Behbudiy. Toshkent.2010.22-bet. Qaraldi: 28-noyabr 2024y

MAHMUDXO’JA BEHBUDIYNING MA’RIFAT YO’LIDAGI XIZMATLARI

Jumayev Abror

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Tarix” kafedrasi o’qituvchi.

Email: ajumayev1@mail.ru, +998939989496

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi, ma`rifatparvar publisist, dramaturg Mahmudxo`ja Behbudiy faoliyatining aksariyat jabhalari tilga olinadi. Behbudiyning jadidchilik maktablari va darsliklari, gazeta va jurnallari,dramaturgiyasi

haqida so`z boradi. Behbudiy faoliyating e`tiborga molik jihatlari tahlil qilinadi. Ma`rifatchining hayoti va faoliyatini o`rgangan olimlar haqida ma`lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik, "yangi usul",maorif, maktab, gazeta,jurnal,"Haftiyak",Abdulqodir Shakuriy,kutubxona,mustaqillik, uy-muzey.

M.Behbudiy ma’rifatning, maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo‘lib qolmay, balki o‘lka maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko‘rsatdi. U Istanbul, Ufa, Qrim, Qozon, Orenburg kabi shahar va mamlakatlarni ko‘rdi va bildi, “yangi usul”ni turkistonliklar orasida birinchilar qatori amalda qo‘lladi. 1905 yilda Behbudiy tomonidan tashkil etilgan maktab Samarqand shahri yaqinidagi qishloqlarida edi. Tajriba sifatidagi bu maktabning shaharda emas, balki qishloqda ochilishining boisi bor edi. Chunki shaharda ushbu usulda o‘qitishga qarshi chiquvchilar hukumat tomonidan ham, mahalliy aholi tomonidan ham juda ko‘p edi. Bu usulning muvaffaqiyatiga boshda mahalliy aholi ishonishmaydi. Lekin hamma ish juda silliq ko‘chadi. Ota-onalar bu maktabda bolalarining juda tez savod chiqarayotganligini ko‘rib, hayron bo‘ladi va shubhalana boshlaydilar. Avvallari 3-4 yillarda o‘rganadigan narsalarni bolalar bir yilda o‘rganib olishgan edi. Ko‘pchilik “tez o‘rgangan, tez esidan chiqaradi” deb xulosa qiladi. Lekin shogirdlar olgan bilimlarini unutish o‘rniga, kundan-kunga olg‘a qarab borayotgan edi. Behbudiy boshda shogirdlarga oddiy o‘quv-yozuvni o‘rgatgan bo‘lsa, keyin “Haftiyak”ni o‘rgatishga kirishadi. Ushbu “Haftiyak”ni o‘qitish jarayonida Behbudiyda yangi fikr paydo bo‘ladi. Endi u o‘z o‘quv dasturiga sistemali suratda arab tilini o‘qitishni kiritadi. Bundan tashqari, maktabda arifmetika, geografiya va shu kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitilar edi.

Shogirdlar soni 40 talar atrofida bo‘lib, 7 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalar edi. Behbudiy maktabni ko‘rish uchun yashiriqcha kelgan mahalliy aholi va mullalarni hamkorlikka chaqiradi. Lekin mullalarning bu taklifdan esxonalari chiqib, vahima ko‘tarishadi. Ota-onalarning ko‘pchiligi globusni ko‘rib, o‘qituvchi Behbudiyning geografiya darsida “yer aylanadi”, “quyosh erdan katta” degan so‘zlarini eshitib, uni “sha’riatga zid” narsalar haqida tashviqot qilishda ayblay boshlaydilar. Shunda Behbudiy erishgan shuncha muvaffaqiyatlariga qaramay, baribir, o‘ziga bir hamkor, hammaslak, hamfikr kerak ekanligini anglaydi. Uning Samarqand shahri, Jomboy tumani, Rajabamin qishlog‘ida o‘z hisobidan maktab ochib, bolalarga saboq berayotgan Abdulqodir Shakuriy bilan tanishuvi bu hamkorlikni boshlab berdi. Dastlab, Behbudiy Shakuriy maktabiga borib, uning darslariga, o‘quv dasturlariga yordam berib yuradi. Jug‘rofiya fanidan shogirdlarga dars beradi. Behbudiy bu haqda “Turkiston viloyatining gazeti” da **“...kamina raqami haruf ham haftaga bir-ikki marotaba borib tartib va prug‘rammalarini muallim ila bomashvarat tuzaturman. Jug‘rofiya va masohat to‘g‘risinda ta’lim va imtihon qilarmiz. Xulosa, alhamdullilo, maktabni rivoji yaxshi va bir**

oz aqcha pul to‘g‘risidan tazyiqi bordur” , deydi. Bundan tashqari ushbu maktabda Behbudiyning jug‘rofiyadan dars berganligini Rahmatulla Rahimiy “Turkiston viloyatining gazeti”da o‘zining “Buzug‘ maktab usuli jadida bolasi”, degan maqolasida ham eslab o‘tgan.

Behbudiyning ma’rifat yo‘lidagi xizmatlaridan yana biri buning omi xalq orasida ziyo tarqatmoq uchun tashkil etgan kutubxonasi edi. Behbudiy birinchi bo‘lib Samarqandda musulmon kutubxonasini tashkil etish fikrini ahli ilm, aqraboyu ulamolar oldiga qo‘yadi va bu yo‘lda ularni hamjihatlikka chaqiradi. O’sha davrda bir qancha vaqt faoliyat ko‘rsatib, ancha mashhur bo‘lgan ushbu kutubxona haqida davrning etakchi nashri sanalgan “Turkiston viloyatining gazeti” da xabarlar berib borilgan. Samarqandda kutubxona tashkil etish kabi xayrli niyat tug‘ilganligi haqida “Turkiston viloyatining gazeti” da Behbudiy imzosi bilan “Ob otkrьitiye musulmanskoy biblioteki chitalniy v Samarkand - Mutolaaxona” degan maqola bosiladi. Unda“ ”Samarqandda umumiy mutolaaxona - biblioteka, chitalniy ochmoq uchun o‘n ikki nafar muhtaram kishilar ila birga 27 bobdan iborat bir dastur, ustaf tuzib, janob baland darajalik Samarqand gubernatoriga topshurub edukki, inshoollo, qonunnoma jamiyati mustahkam bo‘ldi“, deydi muallif.

Shundan so‘ng kutubxonaning moddiy jihatlarini mustahkamlash ishlari boshlanib ketadi. Avvalo, kutubxona tashkil etish uchun bir jamiyat tuziladi. Bu jamiyatga a’zo bo‘lganlar birlashib majlis o‘tkazishadi. Jamiyatning birinchi majlisida kutubxonaning xizmatchilari tayinlanadi. “Hozir bo‘lgan a’zolar bir munosib qonunnoma jamiyati, ushbu sakkiz nafar kishini asosiy majlis a’zosini chilen komitet sayladilar. Mufti Mahmudxo‘ja bin Behbudxo‘ja rais etib saylandi. Hojiqul Muhammadov rais noibi, tarjimon Ho‘qandboy Abdulholiq o‘g‘li sarkotib, muallim Mirzo Xidirbek Abusaid o‘g‘li maishiy noibi, savdogar mulla Abdusalom Abdulmo‘min o‘g‘li xazinachi, muallim mulla Abdulqodir Abdulshukur o‘g‘li va hoji Said Ahmad, Xo‘ja Hasan o‘g‘li idoraning doimiy a’zosi“ qilib saylanadilar. Ushbu joyda aytilishicha, majlis a’zolari “Ramazoni sharifg‘acha kitobxona va mutolaaxonani ochmoqg‘a so‘z berdilar“ . So‘ngra esa, bu majlisda kiritilgan fikrlar va qonunnoma ”Samarqand voyennoy gubernatori, generalnoy shtabining generali, general-moyyor Galkin“ga taqdim qilinadi. General qonunnomaning asl nusxasiga “Mustahkam qildum“, deb imzo chekadi. Nihoyat, general-gubernator bu ishga ruxsat bergach, ziyoxona ochiladi. Bu kungi ochilish marosimi haqida ham Behbudiy ”Turkiston viloyatining gazeti“ da xabar beradi” “Kitobxona va mutolaaxonamiz 11 sentyabr, ya’ni 28 sha’bondan beri rasman ochildi...” . Usuli jadid maktabi talabalaridan bir guruhi hozir bo‘lib, salovat o‘qiydilar. Hidoyatpanoh eshon Miyon xatib va qori Muqimxon xatib va ba’zi mudarrislar, yosh ulamolar, savdogarlar, taraqqiyparvar kishilardan yuzdan ziyoda oliy ehtirom kishilar xatmi qur’onga kelishadi.

Behbudiyning tashabbusi bilan ish boshlagan ushbu kutubxona kundan-kunga rivoj topib bordi. Behbudiy ziyoxonaning maqsad-mohiyatini belgilar ekan: **“Mutolaaxonaning maqsadi shulki, musulmonlarg‘a mumkin bo‘lsun andak xarj ilan ko‘p foydalanmoq”** , deya ta’rif beradi. Keyinchalik bu kutubxona “Behbudiya” nomi bilan yuritila boshladi. Chunki uning moddiy xarajatlari asosan Behbudiy gardanida bo‘lgan. Ushbu “Behbudiya” kutubxonasi Vadud Mahmudiyning “Muallim Abdulqodir Shakuriy” nomli hujjatli qissasida ham tilga olingan. “Behbudiy juda boy kutubxonaning egasi edi. 1000 jildlik kitob fondiga ega bo‘lgan bu mutolaaxona barcha uchun doimo ochiq edi.Shu vaqtlarda bu kitoblarning har biri oltin bahosida hisoblanardi. Behbudiy bu joyning binosi va boshqa xarajatlarini o‘z cho‘ntagidan to‘lar edi”, deya eslaydi Vadud Mahmudiy. Ushbu ziyoxonaning Oktyabr to‘ntarishigacha mavjul bo‘lganligi, keyinchalik uning taqdiri barcha ma’naviy qadriyatlarimiz kabi to‘ntaruvchilar tomonidan yoqib, uloqtirilib, qolganlarini qoplarga joylab noma’lum tomonlarga olib ketilgan degan taxminlar bor.

Xullas, Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘z vaqtida xalqimizning ma’naviyati boyishiga munosib hissa qo‘shgan “Behbudiya” kutubxonasi to‘g‘risida, uning sirli taqdiri haqida aniq ma’lumotlar to‘plab, xalqqa etkazish ishlari, kelgusi ilmiy ishlarda o‘z aksini topishi lozim.

Mustaqillik yillarida jadidlarimizga alohida e'tibori davomi sifatida **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 13-apreldagi 206 sonli qaroriga asosan “Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori e'lon qilindi.** Shu qaror asosida 2021-yilning 18-oktyabr kunidan Samarqand shahri, Mirsaid Baraka ko‘chasi, 47-uy manzilida ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi hozirgi kunga qadar ma’rifat ulashub kelmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. AYNIY S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar.-Samarqand-Toshkent:SSSR xalqlarining Markaziy nashriyoti. 1926 yil, 150-bet.
2. AYNIY S. Eski maktab.-Toshkent: g‘afur g‘ulom. 1988 yil, 183-bet.
3. ABDULLAYEV Y. Eski maktabda xat-savod o‘rgatish.-Toshkent: O‘zbekiston. 1960 yil, 550-bet.
4. ALIYEV A. Mahmudxo‘ja Behbudiy.-Toshkent:-Yozuvchi. 1994 yil, 32-bet.
5. ALIYEV A. Ijod va izlanishlar. -Toshkent: -Adabiyot va san’at nashriyoti. 1976 yil, 187-bet.
6. Adabiy meros va zamonaviylik.-Toshkent:-Adabiyot va san’at nashriyoti. 1983 yil, 159-bet.

JADIDCHILIK MILLIY MA`RIFATPARVARLIK HARAKATINING TARAFDORI MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MEROSINI YANADA CHUQUR O‘RGANISH VA ULARNING XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH

Sobirova Dilnavoz Dilshodjon qizi
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
matematika-informatika yo‘nalishi 5-kurs talabasi
dilnavozsobirova8@gmail.com, +998909074737

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikka erishganimizdan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrda XX asr jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, o‘tkazilayotgan ma’naviy va ma’rifiy tadbirlar va muhtaram prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar aks ettirilgan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarining nashr ettirilishi va uning hayotini o‘rganish yuzasidan olib borilgan ilmiy faoliyat hamda uning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Mustaqillik va yoshlarning ilmli bo‘lishi uchun kurashgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyatini o‘rganish, xotirasini abadiylashtirish nafaqat o‘zbek xalqiga, balki butun dunyoga uni tanitish har birimizning vazifamizdir.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma`rifatparvar, jadid, meros, ilmiy izlanish, xotirasini abadiylashtirish, maqola, asarlar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (To‘liq ismi – Mahmudxo‘ja Behbudiy ibn Behbudxo‘ja)– dramaturg, noshir, pedagog, qozi, muftiy, din va jamoat arbobi. Jadidchilik milliy ma’rifatparvarlik harakatining tarafdori. "Behbudiya kutubxonasi" hamda „Nashriyoti Behbudiya“ faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. „Samarqand“ gazetasi va „Oyna“ jurnali asoschisi[15].

“Turkiston jadidlarining otasi” nomiga sazovor bo‘lgan buyuk shaxs, xalqimiz uchun ahamiyatli bo‘lgan ko‘plab asarlar va maqolalar muallifi Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand yaqinidagi Siyob volostining Baxshitepa qishlog‘ida imom-xatib Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li xonadonida tug‘ilgan. Otasi Ahmad Yassaviy avlodidan. Otasining buvasi Niyozxo‘janing asli kelib chiqishi urganchlik bo‘lib, Samarqandga XVIII asr oxirida, amir Shohmurod hukmronlik davrida ko‘chib kelgan[16].

Mahmudxo‘ja Behbudiy ilm-fan, xalqning ma’rifatli bo‘lishi uchun, demokratik va farovon davlat barpo etish uchun umri davomida kurash olib bordi. U mustaqil davla barpo etish, avlodlarimiz ozod va erkin yashashlari uchun butun umri davomida harakat qildi[17]. Bu yo‘lda Imom Buxoriyning “Ilmdan o‘zga najot yo‘q” shioriga tayangan holda ularning ilmli bo‘lishi uchun juda ko‘plab asalar ham

[15] https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahmudxo`ja_Behbudiy

[16] D.Alimova, A.Rashidova. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. Toshkent: Akademiya nashriyoti,1999 — 7-bet

[17]Dinora Eshboyeva “Mustaqillik davrida mahmudxo‘ja behbudiyga ko‘rsatilgan e’tibor”.Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary

nashr ettirdi hamda yangi usul maktablariga asos soldi. Ushbu maktablarda o‘quvchilarni tekinga o‘qitdi, ular uchun darsliklar yozib, ularni o‘z yonidan nashr ettirdi. Behbudiyning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi bitta edi, bu ham bo‘lsa millatning ko‘zini ochish, dunyo ahli qanday taraqqiy qilib yashayotgan bo‘lsa, Turkiston ahli ham shunday taraqqiy qilib yashashi edi. Har turli to‘y-marosimlar va ziyofatlarga qilinadigan isroflarning oldini olish kerak degan fikr bo‘lgan va bu fikrni o‘z ilmiy ishlarida ham aks ettirgan. Behbudiy bu maqsadlar yo‘lida o‘z jonini ham ayamadi. Vatani uchun, xalqi uchun bunday ulkan ishlarni qilgan zotning xotirasiga ehtirom ko‘rsatish biz uchun sharaf[18].

XX asrning 20-yillarida Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li, Sadriddin Ayniy, Laziz Azizzoda singari zamondoshlari tomonidan bir qancha maqolalar yozilgan. Alloma hayoti va faoliyatini yoritishda 1922—1923-yillarda Hoji Muin muharrirlik qilgan „Mehnatkashlar tovushi“ hamda „Zarafshon“ (1923) gazetalarida e’lon qilingan maqolalari muhim ahamiyatga ega. Sadriddin Ayniy Behbudiyni „Oliyshon ustod“ hamda „Turon dohiysi“ kabi nomlar bilan ulug‘lagan[19].

Behbudiy hayoti va faoliyatini yoritishda keyinchalik Ahmad Aliyev, Solih Qosimov, Naim Karimov, Begali Qosimov, Sherali Turdiyev, Sirojiddin Ahmedov, Ulug‘bek Dolimov, Bahodir Karimov, Shuhrat Rizayev, Nurboy Jabborov, Zaynobiddin Abdirashidov kabi ko‘plab jadidshunos olimlar izlanish olib borgan[20]. Germaniyadagi Humbolt universiteti professori, turkshunos olim Ingebord Baldauf Behbudiyning haj safariga oid kundaliklarini nemis tiliga tarjima qilish bilan shug‘ullangan[21]. Ingebord Baldauf „Mahmudxo‘ja Behbudiy – Falastinda“ nomli maqola yozgan. 2023-yilda Naim Karimov „Mahmudxo‘ja Behbudiy“ monografiyasini nashr etgan.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti o‘rganila boshladi. Sovet mustamlakasi davrida Behbudiy shaxsiyatiga to‘qilgan yolg‘onlar va uning nomiga nisbatan otilgan toshlar 1991-yil mustaqil bo‘lganimizdan so‘ng olib tashlandi va Behbudiyning pok nomi qaytadan tiklandi. Shuningdek, asarlari nashr ettirildi, ayniqsa, “Padarkush” dramasi nashr ettirilib, maktab darsliklariga kiritildi hamda teatr sahnalarida yana sahnalashtirildi. Ushbu drama o‘zbek adabiyotida ilk drama hisoblanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ehtiyoji millat”, “Bayoni haqiqat”, “Yoshlarga murojat”, “Ikki emas, to‘rt til

[18] Dinora Eshboyeva “Mustaqillik davrida mahmudxo‘ja behbudiyga ko‘rsatilgan e’tibor”.Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

[19] *Ibrohim G’afurov* „Mahmudxo’ja Behbudiy haqida ikki badia“. *kh-davron.uz.*

[20] Shuhrat Hayitov „Mahmudxo‘ja Behbudiy – ona yurt fidoyisi“. uza.uz.

[21] Z.Ahrorova (27-mart 2024). „Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik merosi“. Zamonaviy pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolari.

lozim” asalari o‘zbek tiliga tarjima qilindi va nashr ettirildi. Shu bilan birga 1997-yili “Tanlangan asarlar” nashr ettirilib, 1999-yili ikkinchi nashri ham chiqarildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish yuzasidan Toshkent va Samarqandda ko‘chalarga uning nomi berilib, Behbudiy nomidagi maktablar ochildi. Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida Mahmudxo‘ja Behbudiyning haykali ham o‘rnatildi, Behbudiy tavalludining 145 yilligi munosabati bilan uyushtirilgan tadbirda Samarqand shahrida ham Behbudiy haykali o‘rnatilishi rejalashtirilayotgani ma’lum qilindi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayotini o‘rganish va xotirasini abadiylashtirish, yosh avlodga uni tanitish va ibrat namunasi sifatida ko‘rsatish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Behbudiyning hayoti O‘zbekistonda va chet mamlakatlarda o‘rganilmoqda va ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Begali Qosimov, Zaynobidin Abdurashidov, Nilufar Namozova, Ulug‘bek Dolimov, Sirojiddin Ahmedov, Naim Karimov, Sherali Turdiyev, Halim Sayyid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorova, Solih Qosimov, Ahmad Aliyev va boshqa olimlar Behbudiy haqida ilmiy ishlar va asalar yozmoqda[22].

“Turkiston jadidchilik harakatining haqiqiy ma’nodagi asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiydir”, deb yozadi Ulug‘bek Dolimov. Ulug‘bek Dolimov tomonidan 2010-yilda “Jahon adabiyoti” jurnalida “Jadidchilikning tamal toshi” maqolasi nashr ettiriladi.

Ushbu sohada Begali Qosimovning ilmiy izlanishlari ulkan bo‘lib, 2002-yilda “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik” asari, 1994-yilda “Maslakdoshlar” asari va bir qancha maqolalari nashr ettiriladi. Ushbu ilmiy ishlar orqali Behbudiyning hayoti va faoliyati haqida yorqinroq va kengroq ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Begali Qosimov asarlarining ilmiy ahamiyati shundaki, muallif har bir ma’lumotni ishonchli dalil asasida isbotlab beradi. Shuningdek, har bir ma’lumotni taqdim etishda xolis va haqqoniylik asosida yondoshadi.

Sirojiddin Ahmedovning ham ilmiy ishlari Behbudiyning hayotini o‘rganishda muhim manbalar qatorida turadi. U o‘z izlanishlari orqali Behbudiyning tavallud topgan sanasi va joyini aniqlab, 1874-yil 30-yanvar payshanba kuni Samarqand shahri Yomini mahallasida tavallud topgani yozadi. Ammo Behbudiyga zamondosh olim Hoji Muin uning tavallud topgan joyi va sana quyidagicha keltiradi: 1875-yil 19-yanvar (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) kuni Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida dunyoga keladi. Begali Qosimov ham yuqorida Hoji Muinning keltirgan faktni keltiradi. Shuningdek, Sirojiddin Ahmedov o‘z fikrini kuchli dalillar asosida isbotlaydi[3].

[22] Dinora Eshboyeva “Mustaqillik davrida mahmudxo‘ja behbudiyga ko‘rsatilgan e’tibor”.Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Tojikistonda (R. Xodizoda), Germaniyada (I. Baldauf; Begali Qosimov bilan hamkorlikda), AQShda (E. Olvort, Adib Xolid) va boshqa mamlakatlarda ko‘plab olimlar Behbudiyning hayoti va faoliyatiga oida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda[23].

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasiga Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayotini o‘rganish va asarlarini xalqimizga etkazish ishi biriktirildi. Shuningdek, Behbudiy faoliyati va ijodiga oid ilmiy ishlar olib brogan, uni keng jamoatchilik e’tiboriga namoyish qilgan talabalarga Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi maxsus stipendiya berilmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish yo‘lidagi muhim qadamlar sirasi muhtaram Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan farmon va qarorlarni kirtishimiz joiz:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yana-da chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi.

3.**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.11.2024 yildagi Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-399-son qarori[24].**

2.**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 3-yanvardagi** “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” qarori[25].

Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish maqsadida olib borilgan ishlarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. Qarshi shahri 1926–1937-yillar davomida Behbudiy nomi bilan atalgan;
2. 1977-yilda „Saylanma“ asarlari chop etilgan;
3. Behbudiy asarlari O‘zbekistondagi darslik va o‘quv qo‘llanmalariga kiritilgan;
4. Toshkent va Samarqand shaharlaridagi ko‘cha va maktablarga nomi berilgan;
5. 2006-yilda Samarqandda yodgorlik o‘rnatilgan;
6. Tojikistonning Xo‘jand shahrida Behbudiy sharafiga gimnaziya ochilgan;
7. 2020-yilda O‘zbekistonda allomaning 145 yillik tavalludi nishonlangan;
8. Toshkentdagi Adiblar xiyobonida Behbudiyga haykal qo‘yilgan;

[23] https://econferenceseries.com

[24] https://presiden.uz.

[25] https://lex.uz.

9. 2002-yilda rejissyor Baqo Sodiqov Behbudiy haqida film suratga olishni boshlagan, keyinchalik bu ish to‘xtatilgan. 2020-yilda suratga olish ishlari qayta tiklandi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan premyera o‘sha yilning 8-dekabrida bo‘lib o‘tgan;
10. 2021-yilning 18-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-sonli qarori asosida Samarqand shahrida Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi tashkil qilingan.
11. 2021-yilda Turkiyaning TRT Avaz telekanali „Köklerin İzinde“ turkumi ostida turkiy dunyo ziyolilarining hayoti va faoliyati yoritilgan filmlar suratga olgan. Filmning 17-qismi allomaga bag‘ishlanib, „Mahmud Hoca Behbudi“ deb nomlangan;
12. 2024-yilning 22-noyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning dramaturglar uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi mukofot ta’sis etish haqida qarori imzolangan[26];
13. 2025-yilning 3-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning „Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida“gi qarori qabul qilingan[27]. Qarorga ko'ra, 2025-yilda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Mahmudxo‘ja Behbudiy merosi va jadidlik harakatini o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrida Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag‘ishlangan tantanali adabiy-ma’rifiy xotira kechasi tashkil etilishi belgilangan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning xotirasini abadiylashtirish yo‘lida qilingan ishlardan yana biri uning uy-muzeyini (Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi tizimidagi muzey) misol qilib keltirishimiz mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-sonli qarori asosida 2021-yilning 18-

[26] „Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida“ prezident qarori (pq-399-son)“

[27] O‘zbekiston respublikasi prezidentining qarori. „turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog mahmudxo‘ja behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida“. President.uz z

oktyabr kuni tashkil qilingan[28]. Muzeyning ochilish marosimi 18-oktyabr - Samarqand shahri kunida o‘tkazilgan[29].

Muzeyda qurilgan ekspozisiyalar ilmiy konsepsiyaga asoslangan bo‘lib, unda M.Behbudiy hayoti va ijodi, jadidchilik tarixi, XX asr boshlaridagi madaniy-ma’rifiy voqeliklar, muzey ashyolari, xujjatlar, foto nushalar va boshqa ashyolar namoyish etilgan.

Muzey uchun ajratilgan bino Samarqand shahri Mir Said Baraka ko‘chasi 47-uyda joylashgan bo‘lib, binoning umumiy maydoni qariyb 860 m kv.ga teng, shundan 128 m kv.ni ekspozitsiya maydoni tashkil etadi. Binoning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, doimiy ekspozitsiyalar va uy intererlari tashkil etiladigan joylarga belgilandi.

So‘nggi yillarida Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish, uning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda keng jamoatchilikka targ‘ib etish imkoni tug‘ildi. Bu esa zamon talablariga g‘oyaviy, ilmiy va badiiy jihatdan yangi muzey ekspozitsiyasini yaratish zarurligini anglatdi. Uy-muzeyi mashhur ma’rifatparvar, dramaturg, jurnalist va noshir hisoblangan Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodiy faoliyatini ilmiy o‘rganish va keng targ‘ib etishda ilmiy-ma’rifiy maskanlardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyati bugungi kunda ko‘plab davlatlarda olimlar tomonidan o‘rganilmoqda, buyuk jadid namoyandasining xotirasiga hurmat ko‘rsatilib kelinmoqda. Shuningdek, maktablar va ko‘chalarga uning nomi berilib, asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, barcha jadid bobolarimiz singari Mahmudxo‘ja Behbudiyning ham muborak nomi qayta tiklandi. Tarixchi va tilshunos olimlar tomonidan uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda ilmiy merosini o‘rganish boshlandi[30].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev XX asr boshlarida Turkistonda zamonaviy ta’lim tizimiga asos solgan, millat ozodligi, xalq farovonligi uchun kurashgan barcha jadidlarga, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiyga ehtirom ko‘rsatib, yoshlarga o‘rnak qilib ko‘rsatish hamda ma’naviy merosini chuqur o‘rganish bo‘yicha oqilona va adolatli ishlar qilayotgani yaxshi ma’lum[31].

---

[28] O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori. „LexUZ / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi davlat muassasasi“

[29] Abdulaziz Yo‘ldoshev, “Xalq so‘zi”. „“Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalari tahririyati davlat unitar korxonasi / Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi ochildi“

[30] https:// prezident.uz.

[31] https:// jadid.uz.

Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi”, degan ta’kidlari buyuk allomaning millatimiz va davlatimiz oldidagi tengsiz xizmatlarining e’tirofidir, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
2. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyatining o‘rganilishi. “Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari” ilmiy konferensiya– T.: Rishton XTB, 2023.
4. Zaynobidin Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
5. Dinora Eshboyeva “Mustaqillik davrida mahmudxo‘ja behbudiyga ko‘rsatilgan e’tibor”.Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies
6. https:// prezident.uz.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/ Mahmudxo‘ja Behbudiy
8. https://econferenceseries.com
9. https:// jadid.uz.
10. „Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida“ prezident qarori (pq-399-son)“
11. O‘zbekiston respublikasi prezidentining qarori. „turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog mahmudxo‘ja behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida“. President.uz

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING PEDAGOGIK G'OYALARINING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIGA QO'SHGAN HISSASI

«MAHMUDHOJA BEHBUDI'NIN PEDAGOJIK DÜŞÜNCELERININ ÇAĞDAŞ EĞITIM SISTEMINE KATKISI»

«THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHOJA BEHBUDI’S PEDAGOGICAL IDEAS TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM «ВКЛАД ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ

МАХМУДХО'ДЖИ БЕХБУДИ В СОВРЕМЕННУЮ ОБРАЗОВАТЕЛЬНУЮ СИСТЕМУ»

Xalilova Jamila Normurot qizi
(Navoiy davlat universiteti)

Annotatsiya. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining pedagogik g'oyalari orqali O'zbekistonda ta'lim tizimining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Uning fikriga ko'ra, ta'lim nafaqat ilmiy bilimlarni uzatish, balki insonning ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratish kerak edi. Behbudiyning ta'lim sohasidagi ishlari, o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va diniy qadriyatlarini hurmat qilish bilan birga, ilm-fan va zamonaviy pedagogik g'oyalarni joriy etishni ta'kidlagan. Maqola Behbudiyning pedagogik yondoshuvlarining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyatini, uning metodik g'oyalarini tahlil qiladi va bugungi ta'lim tizimiga qo'shgan hissasini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo'ja Behbudiy, pedagogika, ta'lim tizimi, zamonaviy ta'lim, ilm-fan, pedagogik g'oyalar, ma'naviyat, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, ta'lim islohotlari, ta'lim metodikasi, o'qituvchilik, ta'limda islohotlar.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining ilmiy va jamoat arbobligi faoliyati bilan nafaqat o'z zamonasi, balki hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan shaxsdir. U o'z asarlarida nafaqat adabiyot, siyosat va diniy qarashlarni, balki ta'lim tizimini ham zamonaviylashtirish zaruratini ta'kidlab, pedagogik g'oyalarini ilgari surgan. Behbudiyning ta'limga bo'lgan yondoshuvi nafaqat bilim berish, balki insonni ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan edi. U o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va diniy qadriyatlarini saqlash bilan birga, zamonaviy pedagogik usullarni joriy etishni muhim deb hisoblagan.[1]

Uning pedagogik g'oyalari, xususan, ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, milliy va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, o'qituvchilik ishini yanada samarali qilish kabi masalalarni o'z ichiga olgan. Behbudiyning pedagogik yondoshuvlarining bugungi zamonaviy ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi, albatta, ta'limni milliy va ilmiy jihatdan mustahkamlashga katta yordam berdi.

Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik g'oyalarining zamonaviy ta'lim tizimiga qanday ta'sir ko'rsatgani, uning metodik va ijtimoiy yondoshuvlarining hozirgi kunda qanday amaliy ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilinadi. Behbudiyning o'qituvchilik metodlari, o'quvchilarga bo'lgan yondoshuvi va ta'lim tizimiga olib kelgan islohotlari bugungi ta'lim tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynaganini ko'rib chiqamiz.[2]

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) — o'zbek xalqining ulkan adibi, jamoat arbobi, pedagog va siyosiy faoliyati bilan ham tanilgan. U o'z asarlarida ta'lim tizimining ahamiyatini, uning milliy qadriyatlar bilan uyg'unligini va ijtimoiy rivojlanishdagi rolini ta'kidlagan. Behbudiyning pedagogik g'oyalari zamonaviy ta'lim tizimiga katta ta'sir ko'rsatgan va uning ilmiy yondoshuvlari, o'qituvchilik

metodikalari va tarbiya masalalariga bo'lgan e'tibori bugungi kunda ham dolzarbligini saqlamoqda.[4]

Pedagogik g'oyalar va ularning o'ziga xosligi

Behbudiy ta'lim tizimi haqida so'z yuritganida, faqat ilmiy bilimlar bilan cheklanmasdan, insonning ma'naviy, axloqiy va milliy tarbiyasiga ham katta ahamiyat bergan. U o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularga o'z xalqining tarixiy va madaniy qadriyatlarini hurmat qilishni ta'lim berishning asosiy mezoni deb bilgan. Behbudiyning pedagogik g'oyalari quyidagi asosiy elementlarga ega:Behbudiyning pedagogik g'oyalarida:[1]

- **Milliy qadriyatlar va ma'naviyat**: Behbudiy ta'limni nafaqat ilm-fan, balki ma'naviyat va axloqiy tarbiya bilan bog'lagan. U millatning kelajagi faqat bilimga asoslangan jamiyat yaratish orqali emas, balki uning milliy ruhini saqlab qolish orqali ham ta'minlanadi deb hisoblagan.[3]
- **O'qituvchining o'rni**: Behbudiy o'qituvchini nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, mas'uliyatli shaxs sifatida ko'rgan. O'qituvchining roli faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarda jamiyatga foydali axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishdir.[3]
- **Mustaqil fikrlash**: Behbudiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishni maqsad qilgan. U har bir shaxsni o'z fikrini erkin ifoda etishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga chaqirgan.[3]

Zamonaviy ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi

Behbudiyning pedagogik g'oyalari zamonaviy ta'lim tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Uning ta'limga bo'lgan yondoshuvi va metodik g'oyalari, ayniqsa, o'zbek milliy ta'lim tizimining rivojlanishida o'z aksini topgan.

- **Ta'limning milliy yo'nalishi**: Behbudiy milliy ta'limga alohida urg'u bergan. Bugungi kunda O'zbekistonning ta'lim tizimida milliy qadriyatlar, tarix va madaniyatni o'rgatish, o'quvchilarda o'z xalqiga bo'lgan hurmatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Behbudiyning pedagogik yondoshuvi bunday qadriyatlarning joriy etilishida asos bo'lib xizmat qilgan.
- **Pedagogik islohotlar**: Behbudiy ta'lim tizimini zamonaviylashtirish zarurligini ilgari surgan. Uning fikriga ko'ra, o'qituvchilarning malakasini oshirish, yangi pedagogik metodlarni joriy etish, ta'lim tizimida islohotlar o‘tkazish muhim ahamiyatga ega edi. Bugungi kunda ham ta'lim islohotlarida ushbu g'oyalar asosida o'quv jarayonida innovatsion yondoshuvlar qo'llanilmoqda.[4]
- **Zamonaviy pedagogik metodlar**: Behbudiy o'qitish metodikalarini yangilashni talab qilgan. U o'qituvchilarni nafaqat bilim berishda, balki o'quvchilarni tarbiyalashda ham samarali uslublarni qo'llashga chaqirgan. Bu g'oyalar hozirda zamonaviy pedagogik metodlar, jumladan, faollashtiruvchi

o'qitish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi usullarni kiritishning asosiy manbai hisoblanadi.[4]

Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik g‘oyalari hozirgi ta'lim tizimi uchun nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Uning qarashlarini zamonaviy pedagogik yondoshuvlar bilan uyg‘unlashtirish quyidagi yo‘nalishlarda davom ettirilishi mumkin:

- **Ta'lim mazmunini milliylashtirish**. Behbudiyning milliy qadriyatlarni rivojlantirishga oid g‘oyalari bugungi kunda ta'lim dasturlarida aks ettirilmoqda. Lekin ushbu yo‘nalish doirasida milliy tarix, adabiyot va madaniyatga oid mavzularni ta'lim mazmuniga yanada chuqurroq singdirish, o‘quvchilarda o‘z milliy o‘zligini anglash hissini shakllantirish zarur.[8]
- **O'qituvchilar tayyorlash tizimini rivojlantirish**. Behbudiy o'qituvchi shaxsining bilimdon, ma'naviyatli va tarbiyaviy jihatdan etuk bo'lishini talab qilgan. Bugungi kunda o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rgatish bilan birga, ularni ma'naviy va axloqiy tarbiya berishga yo‘naltirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.[8]
- **Axloqiy tarbiyani kuchaytirish**. Ta'lim tizimida nafaqat ilmiy bilim berish, balki o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish Behbudiy tomonidan ta'kidlangan. Shu jihatdan, dars jarayonlariga axloqiy mavzularga oid mashg‘ulotlarni integratsiya qilish va o‘quv dasturlarini boyitish maqsadga muvofiqdir.[8]
- **Mustaqil fikrlashni rivojlantirish**. Behbudiy ta'limni o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va ularni erkin fikrga undash deb tushungan. Bugungi kunda ushbu tamoyilni zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar va ijodiy mashg‘ulotlar orqali amaliyotga joriy etish muhimdir.[8]

Xulosa va takliflar

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining ta'lim tizimiga chuqur ta'sir ko‘rsatgan shaxs bo‘lib, uning pedagogik g‘oyalari hozirgi ta'lim islohotlari uchun poydevor vazifasini o‘tamoqda. Uning milliy va zamonaviy ta'limni uyg‘unlashtirishga oid qarashlari, o‘quvchilarning ma'naviy va axloqiy kamolotiga e'tibor qaratishi bugungi ta'lim tizimi uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi Behbudiyning merosini yanada chuqur o‘rganib, uning qarashlarini amaliyotga joriy qilish orqali rivojlantirilishi kerak. Bu borada quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Behbudiyning asarlarini zamonaviy pedagogik tamoyillar asosida tadqiq qilish va ulardan o‘quv dasturlarida foydalanish.
2. O‘qituvchilarni Behbudiyning pedagogik qarashlari bilan tanishtirish va ularning amaliyotda qo‘llanishi bo‘yicha treninglar tashkil qilish.

3. Milliy ta'lim va tarbiyani kuchaytirish maqsadida maxsus qo‘shimcha o‘quv dasturlari ishlab chiqish.
4. Behbudiyning g‘oyalarini yosh avlodga etkazish uchun ilmiy va ommabop nashrlarni ko‘paytirish.[9]

Xulosa. Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik g'oyalari zamonaviy ta'lim tizimiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning ta'lim, axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarni o'rgatish bo'yicha ilgari surgan g'oyalari hozirgi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Behbudiyning o'qituvchilik va ta'lim sohasidagi islohotlarga oid fikrlari, ta'lim tizimining milliy xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yondoshuvlari bugungi kunda ham ta'lim jarayonida qo'llanilmoqda. Behbudiyning pedagogik merosi o'zbek ta'limining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va bu meros hozirgi va kelajak avlod uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.Uning zamonaviy pedagogik usullarni birlashtirib, O'zbekiston ta'lim tizimini yanada samarali qilishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov, S. (2017). *Mahmudxo'ja Behbudiy: Pedagogik g'oyalar va ta'lim tizimi*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Toshpo'latov, B. (2009). *Behbudiy va zamonasi: Ta'lim va madaniyat sohasidagi izlanishlari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Abdukarimov, M. (2012). *O'zbekiston ta'lim tarixi: Pedagogik yondoshuvlar va rivojlanish*. Toshkent: Sharq.
4. Karimov, I. (2007). *Ta'lim va taraqqiyot: Pedagogik islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlar*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
5. Ibragimov, R. (2014). *Mahmudxo'ja Behbudiy: Tarixiy va madaniy meros*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
6. Murtazayev, M. (2005). *O'zbek pedagogikasi va uning rivojlanish tarixiga oid tadqiqotlar*. Toshkent: Oliy o'quv yurtlari nashriyoti.
7. Asliddinov, F. (2013). *Milliy ta'lim tizimi: Behbudiyning o'rni va pedagogik yondoshuvlari*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi ta'lim vazirligi.
8. Xo'jaev, N. (2018). *Zamonaviy ta'lim metodlari va pedagogik yondoshuvlar*. Toshkent: Fan.
9. Nuraliyev, Sh. (2010). *Mahmudxo'ja Behbudiy va ta'lim islohotlari: O'zbekiston ta'lim tizimidagi ta'siri*. Toshkent: O'qituvchi.
10. Xusanov, D. (2015). *O'zbekiston ta'lim tizimi: Pedagogik islohotlar va zamonaviy yondoshuvlar*. Toshkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

МАХМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙНИНГ ФАОЛИЯТИДА ОЗОДЛИК ВА МАЪРИФАТ ТАЛҚИНИ

Содиқова Шоҳида Марҳабаевна
Ўзбекистон Халқаро Ислом университети профессори, соц. фанлари доктори.

Аннотация: Мазкур мақолада зиёли маърифатпарвар жадидчи боболаримиз раҳнамоси Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ибратли ҳаёт йўлидаги маърифатпарварлик ва озодлик йўлидаги фаолияти таҳлил қилинган. Унинг фаолиятининг бугунги кундаги таълим соҳасида тутган ўрни ҳақидаги фикрлар баён қилинган.

Калит сўзлар: тараққиётнинг янги босқичи муаммолари, ўқитиш усулидаги янгиликлар таҳлили, жадид мактаблари лойиҳаси, “усули савтия”, ислоҳатчилик ҳаракати тарафдорлари.

ТОЛКОВАНИЕ СВОБОДЫ И ДУХОВНОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАХМУДХУЖА БЕХБУДИЙ

Аннотация: В данной статье анализируется просвитительская деятелность М.Бехбудий. Проставлены мнения о роли его творчества в современном образовании.

Ключевые слова: проблемы нового этапа развития, анализ новаций в методике обучения, проект современной школы, «усули савтия», сторонники реформаторского движения.

INTERPRETATION OF FREEDOM AND SPIRITUALITY IN THE ACTIVITIES OF MAHMUDKHOJA BEKHBUDIY

Abstract: This article analyzes the educational activities of M. Behbudiy. Opinions are given about the role of his work in modern education.

Key words: problems of the new stage of development, analysis of innovations in the teaching method, the project of modern schools, "usuli savtiya", supporters of the reform movement.

М.Беҳбудий таниқли маърифатпарвар, уламо ва ўз халқи эрк ва озодлиги учун курашган миллат фахри бўлган зиёли боболаримиздан бири.Бугунги жамиятимиз Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичига қадам қўяётган бир тарихий даврда жадидчи зиёли боболаримизнинг ғоявий қарашларини ўрганиш миллий маданиятимиз, таълим ва тарбия, умуман ижтимоий – маънавий соҳаларда олиб борилаётган ислоҳатларда муҳим аҳамият касб этади. М.Беҳбудийнинг фаолиятида ноширчилик фаолияти, хорижий тилларни ва замонавий фан - технологияларни ўрганишни тарғиботи айниқса катта ўрин эгаллаган. Хусусан, 1912-1913 йилларда Беҳбудий Самарқандда **“Самарқанд”** газетаси, **“Ойна”** журналига асос солади. Шунингдек, Беҳбудий ўзбек ва форс тожик тилларида икки юздан ортиқ мақола ва асарлар яратган. Жумладан, **“Рисолаи асбоби савод” (“Савод чиқариш китоби”, 1904), “Рисолаи жуғрофияи умроний”(“Аҳоли географиясига кириш”, 1905), “Мунтахаби жуғрофияи умумий” (“Қисқача умумий география”, 1903), “Китоб-ул-атфол” (“Болалар хати”, 1904), “Мухтараси тарихи ислом”-“Қисқача ислом тарихи”(1904).**

“Амалиёти ислом” (1905), “Русиянинг қисқача географияси” (1908) каби дарслик ва китоблар ёзган. Унинг 1901-йилдан бошлаб “Туркистон вилоятининг газети”, “Тараққий”, “Хуррият”, “Турон”, “Садои Туркистон”, “Нажот”, “Меҳнаткашлар товуши”, “Тирик сўз”, “Вақт”, “Самарқанд”, “Ойна” каби газета ва журналларда чоп этилган мақолалари эса тараққийпарвар кишилар ва айниқса, ёшларнинг диққат-эътиборини қозонган.

Беҳбудий адиб сифатида **“Падаркуш”** драмасини яратган. 1913 йилда Самарқанд шаҳрида нашр этилган бу драмада у ёшларнинг илмли, маданиятли бўлишлари лозимлигини қайд этган. М.Беҳбудийнинг “Падаркуш” драмаси 1911 йилда ёзилган бўлиб, дастлаб 1912 йилда “Турон” газетасида босилган. 1911 йилга келиб китоб ҳолида чоп этилган. Шундан сўнг тез фурсатда Самарқанд, Бухоро ва Тошкент театри саҳналарида ижро этилган. Драма композицион қурилишига кўра оддий бўлган ҳолда мазмун-ғоя жиҳатдан анча қамровлидир. Хусусан, ундаги характер ва шакл-шамоил мазкур жанр талабларига анча мос эди. Драмадаги қаҳрамонлар эса икки қутбда икки хил ҳаракат билан яшайдилар. Бир томонда бой, ўғли ва унинг гумашталари бўлса, иккинчи томонда домла, зиёли образлар асар ғоясини очишда муҳим ўрин эгаллайди.Ўзбек драматургиясига, умуман, театрига пойдевор қўйган бу асар ўз даврида Абдулла Қодирийнинг “Бахтсиз куёв” драмаси, Мирмуҳсин Фикрийнинг “Бефарзанд Очилдибой”, Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг “Янги саодат” каби қиссаларининг яратилишига туртки берган.Улуғ мутафаккирнинг халқимиз олдидаги хизматлари эътиборсиз қолмаган, албатта. Қарши шаҳри 1926-1937 йилларда Беҳбудий номи билан аталган. 1977 йили алломанинг “Сайланма” асарлари чоп этилди. Асарлари дарслик ва қўлланмаларга киритилиб, Тошкент ва Самарқанд шаҳридаги мактаб, кўча ва маҳаллалар унинг номига қўйилди. Буюк маърифатпарвар шарафига 2006 йил Самарқанд шаҳрида ёдгорлик ўрнатилган. Ҳаттоки, Тожикистон Республикасининг Хўжанд шаҳридаги гимназия Беҳбудий номи билан аталади.

Ҳозирги кунда аллома қолдирган бой ва ранг-баранг адабий, маданий ва маърифий мерос ўз халқининг истиқлолига хизмат этмоқда.Туркистон халкининг миллий қаҳрамони, жамоат, маданият ва маориф арбоби, биринчи ўзбек драматурги, миллий театр муассиси, улуғ матбуотчи, адиб, таржимон Маҳмудхўжа Беҳбудий номи фақатгина Туркистон зиёлиларига эмас, балки мамлакат сарҳадларидан ошиб, Осиё ва Европанинг кўпгина мамлакатларида ҳам маълум ва машҳур. Шу боис унинг ҳаёти ва фаолияти деярли бир асрдан буён тарихчи, адабиётшунос, ҳуқукшунос, санъатшунос олимлар, қолаверса, кенг жамоатчилик назар-эътиборида. Унинг ижтимоий - ижодий фаолияти турли соҳа мутахассислари томонидан тадқиқ қилинмоқда, адабий мероси чоп

этилмокда. Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳаёти ва фаолиятига дастлаб эътибор қаратган шахслардан бири Г.Андреев бўлди. Унинг “Самаркандский журнал “Ойна” и его редактор-издатель Махмуд Ходжи Бехбуди”[1] мақоласидан кейин А.Самойловичнинг “Драматическая литература сартов”[2], Сидқий-Ажзийнинг “Самарқандда мусулмон комиссари”[3] мақолаларини эълон қилди. Кейинчалик Беҳбудий ҳақида Садридцин Айний ёзди. Адиб ҳақида энг кўп макола ёзган киши бу - машҳур драматург ва журналист Ҳожи Муъин ибн Шукруллоҳ ҳисобланади. У Беҳбудий вафоти муносабати билан “Известия” газетасида мақоласини чоп эттирган.Рус хитойшунос олими Б.Пестовский “Инқилоб” журналида (1922) А.Азимий ва ААзамат “Зарафшон” журналида (1923), Л.Азиззода “Маориф ва ўқитғувчи” журналида (1927) А. Фитрат, Чўлпон, С.Айний, В.Маҳмуд, Ф.Рожий каби М.Беҳбудийнинг замондошлари ва сафдошлари бўлган жадидчиларнинг у ҳақидаги шеърлари чоп этилди. Заки Валидий Тўғоннинг “Бугунги турк эли Туркистон ва унинг яқин тарихи” асари 1981 йилда Анқарада, А.А.Пясковскийнинг 1992 йилда Москвада “Воспоминания”, китоби, “Революция 1905-1907 годов в Туркестане”[4] номли Москва 1958 йилда нашр этилган китобларда Беҳбудий ҳаёти ва фаолиятига оид эътиборга молик маълумотлар берилди. Романовлар сулоласи миллий сиёсатининг шаклан янги, мазмунан эскидан ёмонроқ давомчиси бўлган совет тузуми, аниқроғи, Ленин ва Сталиннинг оммавий жазолаш сиёсати даврида халқда ифтиҳор туйғусини уйғотувчи миллий қаҳрамонлар, адиблар, олимлар, хусусан, Беҳбудийнинг номи мажбурий унутирилди. Умуман, миллат қалбида фаҳр ва ҳавас уйғотувчи, эл юрагида дов ва журъатни қарорлаштириб, қаҳрамонликка ундовчи ҳар бир тарихий шахс, фольклор қаҳрамони эл-юрт кўзига қоп-қора кўрсатилди. Орадан салкам эллик йил ўтгач, “Ўзбек совет энциклопедияси” нашр этилиши муносабати билан Беҳбудий ҳақида мақола бериш масаласи кўтарилди. Шу муносабат билан Ўзбекистон Фанлар академиясида, хусусан, “қомус” таҳририятида Беҳбудийнинг ҳаёти, фаолияти, илмий-адабий меросини ўрганиш ва тиклаш масалаларида баҳс ва мунозаралар бўлиб ўтди. Энциклопедия учун С.Қосимов, Ҳ.Воҳидов, А.Валиев ва бошқалар томонидан мақолалар тайёрланди. Лекин атоқли олим С.Қосимов томонидан ёзилган кўламдор “Маҳмудхўжа Беҳбудий” мақоласи унинг ўз ибораси билан айтганда “афандининг қушига айлантирилиб”, юлинган ҳолда эълон қилинди[5]. Муҳокамаларда фалсафа, тарих, адабиётшунослик соҳасидаги 14 нафар олимнинг фикри бир жойдан чиқмаганлигини С Қосимов таъкидлаб ўтади.

Ўзбекистон мустақиллиги арафасида XX асрнинг биринчи ярмида ижод қилган ва собиқ СССР ҳукумати томонидан ноҳақ жазоланган маданият, маориф, илм аҳлининг оқланиши муносабати билан 1989 йилдан эътиборан

Беҳбудий ҳаёти ва ижодига янгича ёндошув пайдо бўлди. Мустақиллик шарофати билан матбуотда олимлар, тадқиқотчилар ва газета-журналларнинг ходимлари жонкуярлиги билан Беҳбудийнинг илмий-бадиий асарлари сурункасига босилди. Марҳумлардан Солиҳ Қосимов, Аҳмад Алиев, Бегали Қосимов, Шерали Турдиев, Н.Норкулов; барҳаётлардан Наим Каримов, Дилором Алимова, Дилбар Рашидова, Сирожиддин Аҳмад сўнгги йилларда Ҳалим Саййид, Бойбўта Дўстқораев, Шуҳрат Очилов, Нилуфар Намозова, Зебунисо Аҳророва ва бошқалар имконият даражасида ўз илмий тадикикотларини, фикр-мулоҳазаларини эълон қилдилар. Ажойиб олим, филология фанлари доктори Бегали Қосимов томонидан тайёрланган Маҳмудхўжа Беҳбудий “Танланган асарлари” (ҳозиргача уч бор нашр этилди), Н.Норқулов ва К.Раббимов “Ойина” да босилган айрим мақолаларни тўплаб нашр этишлари натижасида унинг илмий-адабий, сиёсий сиймоси жамоатчилик кўз олдида яққол гавдаланди. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг пок номини, миллий маданиятда тутган ўрни ва мавқеининг тикланиши Мунаввар қори Абдурашидхонов, Чўлпон, Фитрат, Элбек, Тавалло, Васлий, Ажзий, Ҳожи Муъин каби маданият ва маориф намояндаларининг ижодларини кенг микёсда ўрганиш ва чоп этиш учун йўл очди. Бинобарин, миллатимиз тарихининг янгидан ёзилишига, алалоқибат тарихий адолатнинг тикланишига тоза тупроқ солди. Буларнинг барчаси Маҳмудхўжа Беҳбудий Солиҳхўжа ўғлининг салоҳияти кучли, илмий-адабий мероси бой, маданиятимиз тарихида катта ўринга эга донишманд арбоб эканлигидан далолатдир.

Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳаёти саҳифаларини варақлаган, жилла қурса унинг “Танланган асарлар”ни ёки публицистик мақолаларни ўқиган киши бу буюк сиймонинг шошиб, ёниб-куйиб яшаганини кўриб, хайратга тушади. Диний ва дунёвий билими билан нафақат муфтилик қилган Жомбой тумани, балки Самарқанд юлдузларидан мунаввар бўлган беҳудуд заминда ҳам катта ҳурмат ва эътибор қозонган, ер-сувдан, мол-мулкдан ҳам камчилиги бўлмаган бу ғаройиб инсон азиз умрини тинч ва осуда ўтказиши, фарзанд ва невaралари бағрида 80-90 йил яшаши, балки 100 йиллик умрнинг фусункор чўққисини кўриши ҳеч гап эмас эди. Лекин у ота-боболаридан қолган муқаддас юртнинг босқинчилар томонидан топталаётгани, ватандошларининг йилдан-йилга парокандаланиб, жаҳолат ботқоғига ботиб бораётганини кўргани учун бу тарихий реаллик билан муроса қила олмади. Аллоҳ унга уйғоқ виждонни ато этган эди. Беҳбудий ўша мудҳиш тарихий ҳақиқатни ўзгартириш учун, аввало, миллатни маърифатлаштириш лозим, деган фикрга келган. Беҳбудийнинг шу масалага доир мақолаларини ўқиган ҳар бир киши ўша йилларда Туркистон ўлкасида мактаб ва мадрасаларнинг ҳам, муаллимларнинг ҳам етишмаганлигини, дарслик ва ўқув қўлланмалари эса, анқонинг уруғи

бўлганлигини яхши англашади.[6] Беҳбудий шу ҳолни эътиборга олиб, ўзи мактаблар очди, ўзи дарслик ва ўқув қўлланмаларини яратди, дунёвий фанларнинг мактаб ўқув дастурларидаги мавқеини оширди. Миллатни маърифатлаштириш Беҳбудий ва у раҳбарлик қилган жадид маърифатпарварлари наздида эрк ва ҳуррият учун курашнинг муқаддимаси, эди. Беҳбудийнинг ўз фаолияти билан миллатни маърифатлаштириш концепциясини яратган дейиш мумкин.

Фойдаланган адабиётлар:

1.[1] - “Туркестанские ведомости”, 1915, 17 сентября
2.[2] - “Вестник Императорского общества востоковедов Петроград”, 1917, №5,
3.[3] - “Ҳуррият”, 1917, №23,
4.[4] - www.ziyouz.com
5.[5]- қаранг: С.Қосимов “Маҳмудхўжа Беҳбудий”, Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси,
6.[6] - www.ziyouz.com kutubxonasi

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MA’NAVIY VA MA’RIFIY FAOLIYATI

Xolmurodova Olima Abdivaliyevna
JDPU Xorijiy tillar fakulteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada O‘rta Osiyo va Xorazmda 19-20 asrlar o‘rtalarida faoliyat yuritgan buyuk shaxs Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifiy, ilmiy va siyosiy faoliyati tahlil etiladi. Behbudiyning har tomonlama kamol topgan ilmiy merosi, u tomonidan tashkil etilgan ta’lim muassasalari, yozgan asarlari va o‘zbek millatining yangilanishi yo‘lidagi g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘z davrida amalga oshirgan ma’rifiy faoliyati, uning milliy g‘oyalarini rivojlantirishga bo‘lgan hissasi, shuningdek, yoshlarni ma’rifatli qilish yo‘lidagi sa’y-harakatlari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudi, ma’rifat, ilm-fan, ta’lim islohotlari, o‘zbekiston tarixi, madaniyat, siyosat, milliy yangilanish, ijtimoiy faollik.

Mahmudxo‘ja Behbudi (1875–1919) o‘zbek milliy uyg‘onish harakatining yorqin vakillaridan biri hisoblanadi. Uning manaviy va ma’rifiy faoliyati O‘rta Osiyoning o‘zbek xalqi uchun eng muhim davrlardan birida rivojlanib, butun xalqning ilmiy-ijodiy yuksalishiga katta hissa qo‘shgan. Behbudiyning o‘tkir va zamonaviy dunyoqarashi, o‘z millatining o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini aniqlashga qaratilgan g‘oyalari xalq orasida keng tarqalgan va ko‘plab yoshlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan [1]. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida muftiy oilasida dunyoga keldi. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780-1785 yillar) Samarqandga kelib qolgan.

Oiladagi muhit undagi ma’rifat va adabiyotga bo‘lgan qiziqishning tezroq ro‘yobga chiqishiga imkon tug‘dirdi. Behbudiyning otasi islom xuquqshunosligi bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib, bu borada ko‘plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o‘z navbatida Mahmudxo‘jaga ta’sir o‘tkazmay qolmadi. U keyinchalik bu haqda so‘zlab, hatto maqolalaridan birida otasi yozgan “Hidoya” ("Islom huquqiga sharhlar") asarining o‘z taqdirida katta rol o‘ynaganini alohida qayd etgan [3]. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy faoliyati xususan, u o‘qituvchilarni tayyorlashda, ilmiy islohotlar olib borishda, milliy va diniy qadriyatlarni qayta tiklashda katta rol o‘ynagan. Behbudiyning "Turkiston" jurnalida chop etilgan maqolalari, yoshlarni zamonaviy ta’lim bilan tanishtirishga qaratilgan asarlari, xalqning kundalik hayotida qo‘llaniladigan oddiy va tushunarli metodlar bilan yozilgan dasturlarni ilgari surgan [4; 6].

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining publitsistik faoliyatini 1902-yilda Turkistonda mahalliy tilda nashrdan chiqqan rasmiy „Turkiston viloyatining gazeti»dan boshlagan. Gasprinskiy 1904-yilda bo‘lib o‘tgan rus-yapon urushi munosabati bilan “Tarjimon” gazetasida musulmonlarni ushbu urushda qatnashayotgan rus hamda musulmon askarlariga yordam ko‘rinishida pul, kiyim-kechak, oziq-ovqat to‘plab jo‘natishga da’vat qilib bir qancha maqola yozgan. Behbudiy ham aynan shu mavzuda “Turkiston viloyatining gazeti” ro‘znomasida kichik maqola e’lon qilgan. Maqolada Behbudiy Turkiston aholisiga musulmonlar nima uchun rus askarlariga hamda podsho hokimiyatiga yordam berishlari sababini tushuntiradi. Yozuvchi o‘z so‘zlarining isboti ko‘rinishida “gazetlarda yozilib” turgan “Qrim tarafidagi ba’zi shaharliklar” mablag‘ va kiyim yig‘ib yuborganliklari hodisasini misol tariqasi keltiradi. Behbudiy “gazetalar” deganida aynan “Tarjimon” gazetasini nazarda tutgan va “Tarjimon”da berilgan ma’lumotlardan foydalangan [7].

“Oyna” jurnalining ilk sonidayoq Behbudiy “Ikki emas, to‘rt til lozim” nomli maqolasini e’lon qilib, o‘zbek, arab, tojik, rus va hatto biror uzoq xorij (masalan, fransuz) tilini bilish shart deya murojaat qilgan. Hurriyat gazetasida e’lon qilingan „Haq olinur, berilmas» maqolasida mustaqillikka faqat qo‘lga qurol olib erishish mumkinligini bayon qilgan. “Qozoq qarindoshlarimizg‘a ochiq xat” maqolasida turli ixtiloflar ichidagi qozoq xalqini birlikka chaqiradi.

Ayni paytda tilning muhofazasi (“Har millat o‘z tili ila faxr etar” –1914, № 35), o‘zaro munosabatlari (“Til masalasi” – 1915, № 11,12) haqida muhim va zarur maqolalar chop etdi. Adabiy tanqidga jiddiy e’tibor qilgan. Shiningdek, teng huquqlik masalasini ham ko‘targan (“Tanqid saralamoqdir” – 1914, № 27). Millat sha’nini oyoqosti qiluvchi fikr va qarashlarni rad etib, Turkiston xalqini o‘z nomi bilan atash kerakligini talab qilib chiqqan (“Sart so‘zi majhuldur” 1915, № 22,23,25,26). Behbudiy o‘zbek matbuoti tarixida maqolanavis sifatida o‘z

o‘rniga ega [8]. Uning hozirgacha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga etadi. Ular turli xil mavzuda. Ilk maqolalaridan boshlab kommunistik mafkurani rad etgan, “xayoliy”, “bu toifaga qo‘shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik” deb yozgan edi (“Xayrul umuri avsatuho” – “Ishlarning yaxshisi o‘rtachasidir”, “Xurshid” gazetasi 1906-yil, 6-son). O‘zlikni anglashni muhim biladi. "Qabilasini(ng) ismini va etti otasining otini bilmaydurgonlarni” “qulq marquq derlar”, deb yozadi (“Sart so‘zi majhuldur”, “Oyna” jurnali, 1914, № 23). 1917-yilning oxiri 1918-yilning boshlarida jadidlar qurgan ilk demokratik davlatchilik namunasi Turkiston muxtoriyatining taqdiri hal bo‘layotgan bir paytda o‘lka xalqlarini birlikka chaqiradi.

Behbudiyning yurt obodligi yo‘lida boshlagan ijobiy ishlaridan biri “Behbudiya” kutubxonasining tashkil etilishi bo‘ldi. Behbudiy birinchilardan bo‘lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo‘lga qo‘ygan [7]. 1908-yil 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona “Yangi rasta”da ochilgan. Biroq kutubxonaning ochilishi haqidagi xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda “Turkiston viloyatining gazeti”da xabar berilgan edi. 27 bobdan iborat bo‘lgan dastur kutubxonaning barcha rasmiy masalalarini belgilab bergan. Kutubxonaga yillik a’zolik badali 3 so‘mni tashkil etgan. Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug‘ullanishga undash bo‘lgan.

Kutubxona faoliyatida Mahmudxo‘ja Behbudiyga jadid ma’rifatparvarlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va pedagog Abduqodir Shakuriy yordam bergan. Tuzilish jihatdan xilma-xil va boy fondga ega bo‘lgan. Chet el davlatlarda nashrdan chiqqan dunyoviy va diniy kitoblar, suratli jurnallar hamda gazetalar, ensiklopediya, lug‘atlar, xarita va atlaslardan o‘qib foydalanish mumkin bo‘lgan. Kutubxonadagi kitoblar fondi dastlab 200, keyinroq 225 jildga etgan. Kunda 14 soat davomida ishlagan. Ochilishidan 7 oy o‘tib, a’zolari soni 125 kishiga etgan. 1910-yillarga kelganda faoliyati so‘na boshladi. Bunga avvalo o‘lkadagi jadidlar va qadimchilar qarama-qarshiligi sabab bo‘lgan. Mullalar ota-onalar bilan suhbatlashib, kofirxona sifatida u erga borishni taqiqlab qo‘yadi. 1912-yilda sanoqli kishi kutubxonadan foydalangan. 1914-yildan moliyaviy qiyinchiliklar boshlanadi. 15 a’zodan iborat yillik yig‘ilish paytida kutubxonani saqlab qolish va iqtisodiy muammoni hal etish maqsadida spektakl qo‘yishga kelishib olinadi. Teatr tomoshalari ham qadimchilar tomonidan rad etilgach, Kutubxona faoliyati tugaydi. Kutubxona 1908—1914-yillarda faoliyat yuritgan. Behbudiy kutubxonani o‘zining uyiga ko‘chiradi va Behbudiya kutubxonasi deb nomlaydi. Keyinchalik u erda chet elda nashr qilingan kitoblarni sotishni ham yo‘lga qo‘yadi va ularning ro‘yxati "Oyna" jurnalida e’lon qilib boriladi.

Behbudiyning faoliyati nafaqat ta’limni rivojlantirish bilan bog‘liq, balki siyosiy jihatdan ham o‘z davrining eng ilg‘or fikrlaridan birini ifodalagan. U rus imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashish, o‘zbek xalqining erkinlik va istiqlolni qo‘lga kiritish yo‘lidagi g‘oyalarini ilgari surdi. Uning ta’lim islohotlari, birinchi navbatda, o‘zbek tilida bilim berishni kengaytirish, milliy an’analarni saqlash va xalqning madaniy va diniy qadriyatlarini hurmat qilishga qaratilgan edi [2:5]. Behbudiyning milliy madaniyat va ma’rifat yo‘lidagi faoliyati o‘z vaqtida keng e’tirof etildi. U nafaqat ilm-fan sohasida, balki siyosiy va ijtimoiy sohalarda ham yangiliklar kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Uning tashabbuslari va amalga oshirgan ishlarining bugungi kunda ham o‘rganilishi va qadrlanishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Behbudiy, M. (1990). *Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy, ma’rifiy va siyosiy faoliyati.* Toshkent: O‘zbekiston Davlat Nashriyoti.
2. Muhammadiev, N. (2013). *O‘rta Osiyoda milliy uyg‘onish va Mahmudxo‘ja Behbudiyning ro‘li.* Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
3. Abdurashidov, A. (2010). *Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifiy merosi.* Tashkent: Fan.
4. Saidov, A. (2005). *Xorazmda ilm-fan va ma’rifat.* Urganch: Xorazm Universiteti nashriyoti.
5. Azimov, K. (2019). *Mahmudxo‘ja Behbudi va uning davrining siyosiy va madaniy muhit.* Toshkent: Sharq.
6. Абдурашидов, З. *Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние*. Toshkent: Akademnashr, 2011 — 267-bet.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Turkiston jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi, milliy ma’rifat rahnamosi”
8. Haydarov A. *“Zarafshon”ning Behbudiysi”*. Sahhof, 2020 — 12-bet.

НРАВСТВЕННО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ.

Жасмина Улугмуратова
студент СамГМУ Педиатрического факультета 1 курса
jasminphoenix0602@gmail.com, +998931210918
Сухробжон Казимов
студент СамГМУ Лечебного факультета-2 1 курса

Аннотация: Статья посвящена нравственно-просветительской деятельности Махмудходжи Бехбуди (1874–1919), выдающегося общественного деятеля и реформатора, одного из основоположников движения джадидизма в Центральной Азии. Рассматриваются

как культурные, так и социальные аспекты его работы, а также анализируются причины и последствия конфликта с властями Российской империи и большевистской властью.

Ключевые слова. Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, нравственное воспитание, просвещение, образование, Центральная Азия, ислам, культурное возрождение, реформа.

Abstract. The article is devoted to the moral and educational activities of Mahmudhodja Behbudi (1874–1919), an outstanding public figure and reformer, one of the founders of the Jadidism movement in Central Asia. Both cultural and social aspects of his work are examined, and the causes and consequences of the conflict with the authorities of the Russian Empire and the Bolshevik authorities are analyzed.

Keywords. Mahmudhoja Behbudi, Jadidism, moral education, enlightenment, education, Central Asia, Islam, cultural revival, reform.

В конце XIX — начале XX века Центральная Азия переживала важный этап в своем развитии, который характеризовался значительными социально-экономическими и культурными преобразованиями. В этом историческом контексте ключевую роль сыграл Махмудходжа Бехбуди, чья нравственно-просветительская деятельность оставила неизгладимый след в истории региона. Бехбуди был одним из ярких представителей джадидизма — реформаторского движения, целью которого было обновление общества через просвещение и образование, сохранение и развитие традиций, а также привнесение современных европейских идей, которые могли бы способствовать прогрессу.

Свою деятельность Бехбуди строил на основе высоких нравственных ценностей, активно сочетая традиции исламского мира с требованиями времени. Он считал, что на основе образования и нравственного воспитания можно создать сильное и справедливое общество. Его работы в области образования, литературы и театра, направленные на развитие личностных и социальных качеств, сыграли важную роль в формировании нового поколения, которое могло бы стать двигателем перемен. Цель данной статьи — рассмотреть нравственно-просветительскую деятельность Махмудходжи Бехбуди, его влияние на культурное и социальное развитие Центральной Азии, а также проанализировать его подходы к реформированию образования, воспитанию нравственности и сохранению национальной идентичности в условиях колониального господства Российской империи и, позднее, большевистской власт

Для того чтобы понять масштабы и значимость деятельности Махмудходжи Бехбуди, необходимо рассмотреть исторический контекст, в котором развивалась его деятельность. Вторая половина XIX века в Центральной Азии была временем переходных процессов, вызванных внешним воздействием. Присоединение Средней Азии к Российской империи в 1860-х годах оказало значительное влияние на политическое, экономическое и культурное развитие региона. Российская империя**,** проводила политику

ассимиляции, направленную на подчинение местного населения, с усилением роли русской культуры и языка. Это вызывало противоречия среди местной элиты и интеллигенции, которая стремилась сохранить свою культурную и религиозную идентичность, адаптируя при этом достижения европейской цивилизации.

В ответ на вызовы времени возникло движение джадидизма, которое стремилось к модернизации исламского общества через реформы в образовании, воспитании, социальной жизни и религии. Джадидизм ориентировался на создание школы, сочетающей исламскую духовность с передовыми знаниями, а также на воспитание нового поколения, способного к самостоятельному мышлению и реформам. Махмудходжа Бехбуди стал одним из ведущих представителей этого движения, и его идеи глубоко повлияли на культурное возрождение региона.

Махмудходжа Бехбуди считал, что настоящая модернизация невозможна без реформирования системы образования. В условиях того времени традиционное образование в медресе и мектебах было ограничено исключительно религиозными дисциплинами и не способствовало развитию критического мышления. Бехбуди активно выступал за включение в образовательный процесс светских предметов, таких как математика, география, история, а также за введение новых методов преподавания, основанных на активности учащихся и их самостоятельной работе.

Основой образования Бехбуди была идея нравственного воспитания. Он считал, что знания должны служить не только для практической пользы, но и для формирования духовных ценностей. Его образовательные учреждения должны были воспитывать человека, который, помимо практических навыков, обладает чувством ответственности, честности, уважения к старшим и стремлением к совершенствованию.

Одним из важнейших аспектов деятельности Бехбуди было использование исламских ценностей для формирования нравственного сознания. Он утверждал, что ислам не является препятствием для модернизации, а, наоборот, предоставляет прочную нравственную основу для изменений в обществе. В своей работе Бехбуди пытался синтезировать исламские принципы с элементами прогрессивных европейских идей, предлагая новое видение исламской морали, сочетающее традиционное уважение к правде, справедливости и милосердию с требованиями времени.
Он стремился создать общество, где религия и нравственные принципы не будут восприниматься как рудимент прошлого, а, наоборот, станут основой для улучшения жизни. Это подходило к современным требованиям образования и воспитания, так как Бехбуди считал, что каждое поколение

должно быть вооружено знаниями и моральными нормами для того, чтобы способствовать прогрессу общества.

Махмудходжа Бехбуди был не только педагогом, но и писателем. Его литературное наследие включает в себя статьи, эссе и произведения, направленные на воспитание духовных и нравственных ценностей. На страницах его публикаций в газетах и журналах, таких как «Самарканд», он поднимал вопросы социальной справедливости, важности образования и самосознания. Одной из самых известных работ Бехбуди является его педагогическая и просветительская статья «Ислам и прогресс», в которой он излагает свои идеи о том, как ислам может быть использован в качестве нравственной основы для модернизации общества.

Особое внимание Бехбуди уделял театру. Он был первым драматургом, который ввел в узбекскую литературу современные пьесы, сочиненные на основе социальных проблем и нравственных вопросов. Его пьеса «Падаркуш» («Отцеубийца») затрагивала такие темы, как семейные ценности, отношения между поколениями, уважение к старшим. В ней Бехбуди выступал против жестокости, невежеств и социального бездействия. Его пьесы становились не только развлекательным, но и морально-просветительским инструментом**.**

Еще одной важной темой, которой Бехбуди посвятил значительное внимание, была защита прав женщин. В условиях традиционного патриархального общества, когда женщины часто оставались без доступа к образованию и общественной жизни, Бехбуди выдвигал идеи о необходимости предоставления женщинам равных возможностей в обучении и социальной активности. Он подчеркивал, что женщины должны иметь право на образование, на участие в общественной жизни и на право голоса. Это было важным шагом к улучшению положения женщин в Центральной Азии, где в это время их роль в обществе была ограничена.

Кроме того, Бехбуди активно участвовал в создании школ, библиотек и культурных центров, которые стали опорными пунктами для распространения знаний и идеалов джадидизма. Его образовательные учреждения стали центрами нравственного воспитания и социальной активности, где молодежь могла учиться не только науке, но и жизненным ценностям.

Конечно же прогрессивные идеи Махмудходжи Бехбуди не могли остаться без внимания властей. Как со стороны российской администрации, так и со стороны большевистской власти, его деятельность воспринималась как угроза существующему порядку. Российская администрация, обеспокоенная его критикой колониальной политики, а большевики, в свою очередь, отвергали его взгляды на ислам и традиции как преграду для строительства социалистического общества.

Несмотря на это, Бехбуди продолжал свою деятельность до конца своей жизни, подчеркивая важность сохранения нравственных ценностей и национальной идентичности. В 1919 году он был арестован и казнен большевиками, что стало трагической точкой в его жизни. Тем не менее, его идеи продолжали жить, а его наследие оказывает влияние на культурное развитие Центральной Азии и в настоящее время.

Как было сказано выше, нравственно-просветительская деятельность Махмудходжи Бехбуди оставила глубокий след в истории Центральной Азии. Его идеи о сочетании исламских ценностей с европейскими достижениями, о важности образования и нравственного воспитания, а также о сохранении культурной идентичности стали основой для формирования нового поколения, готового к модернизации и переменам. Сегодня наследие Бехбуди остается актуальным и продолжает вдохновлять ученых, педагогов и общественных деятелей на сохранение культурных традиций и использование образования как инструмента для прогресса общества.

Список литературы

Абдурахимов, А. А. История джадидизма в Центральной Азии. Ташкент, 2005. стр 25-115

Бобоев, Ш. Х. Махмудходжа Бехбуди: жизнь и деятельность. Самарканд, 2012.

Кары-Ниязов, Х. Н. Культурное возрождение Центральной Азии в начале XX века. Москва, 1987.

Статьи Махмудходжи Бехбуди в газете «Самарканд». 1913–1919 гг.

Хайдаров, И. Ю. Роль театра в нравственном воспитании: опыт Бехбуди. Душанбе, 2010.

WOMEN AND EDUCATION IN THE CENTRAL ASIAN JADID MOVEMENTS

Muratova Gulnoz Ne’matovna
Senior Teacher of the Department of Foreign Languages
Jizzakh State Pedagogical University

Annotation: This article explores the significant contributions of the Jadid movement in Central Asia to the advancement of women's education, a key aspect of their broader social reform efforts. The Jadids, a group of intellectual reformers in the late 19th and early 20th centuries, recognized that empowering women through education was essential for societal progress. They challenged traditional gender roles and advocated for women’s access to education, establishing schools for girls and promoting a curriculum that included both religious and modern subjects. The article also highlights how the Jadid movement helped shape women’s rights discourse, created opportunities for female educators, and used the press to spread their progressive ideas. The article concludes by examining the lasting legacy of the Jadid movement in the ongoing development of women’s education and gender equality in Central Asia.

Key words: Jadid movement, women’s education, gender equality, modernization, women's rights, female educators, cultural revival.

The topic "Women and Education in the Central Asian Jadid Reform Movements" examines the pivotal role that educational reforms played in the empowerment of women in Central Asia, particularly during the time of the Jadid movement in the late 19th and early 20th centuries. Central Asia, during this period, was deeply influenced by traditional patriarchal norms that largely restricted women's access to education and participation in public life. The Jadid reformers, who were proponents of modernization and social progress, believed that one of the keys to the region's advancement lay in empowering women through education. This was a radical departure from the status quo and represented a major step forward in terms of gender equality [1].

The Jadid movement in Central Asia was a reformist intellectual and cultural movement that emerged in the late 19th century, particularly in regions such as Uzbekistan, Turkmenistan, and Tajikistan. The primary aim of the Jadid reformers was to modernize education and society, with a strong emphasis on integrating secular and religious learning. This movement, inspired by European and Russian intellectual currents, sought to break away from the rigid, traditional educational systems that were heavily focused on religious instruction and rote memorization. Instead, the Jadids advocated for a broader, more progressive curriculum that would include subjects like science, history, and literature, in addition to religious studies.

Central to the reformist agenda of the Jadids was the inclusion of women in the educational reforms. This was particularly revolutionary given that, in traditional Central Asian societies, the role of women was predominantly confined to domestic duties, and their access to education was highly limited. Some of the key contributions of the Jadids to women's education include [2,3]:

1. **Advocating for Women's Education**: The Jadids were among the first intellectuals in Central Asia to actively advocate for the education of women. They recognized that empowering women through education was vital for societal development. This view was in stark contrast to the prevailing cultural norms, which saw women's primary role as being within the family. The Jadids argued that just as men were entitled to education, women too should have the opportunity to learn, as it was essential for the progress of both the individual and the nation as a whole.
2. **Opening Schools for Girls**: One of the most important contributions of the Jadids was the establishment of schools specifically for girls. These schools offered a more progressive and inclusive curriculum that included not only literacy and religious education but also modern subjects such as mathematics, science, and literature. By providing girls with the opportunity

to attend school, the Jadids sought to create a generation of educated women who could contribute to the broader social and economic development of their communities.

3. **Challenging Gender Norms**: The promotion of women's education was a direct challenge to the entrenched gender norms of Central Asian society. The Jadids believed that educating women would not only enhance their personal development but also enable them to contribute to public life. This shift was crucial in changing societal attitudes toward women's roles and rights, fostering a broader sense of gender equality.
4. **Promoting Women's Rights**: The Jadid reformers were also deeply concerned with women's broader social rights. They used the press, books, and other publications to advocate for legal reforms that would improve the status of women. Key issues addressed included marriage rights, the abolition of practices like forced and early marriages, and the promotion of women's social independence. Many Jadid intellectuals contributed to the emerging discourse on women's rights, which laid the groundwork for later movements for gender equality in the region [4].
5. **Female Educators and Role Models**: The Jadid movement also encouraged the development of female educators, creating a model for women to become teachers and intellectuals. This was revolutionary, as it enabled women to not only receive education but also pass it on to future generations. Female educators were trained not only in academic subjects but also in leadership, social reform, and community development. By becoming role models and leaders in their own right, these women helped spread the idea of gender equality and the importance of women's education.
6. **The Role of Press and Publications**: The Jadid press played a significant role in raising awareness about the importance of women's education. Through newspapers, journals, and pamphlets, the Jadid intellectuals highlighted the necessity of educating women and argued that the success of a modern society depended on the education and empowerment of both men and women. The press also served as a platform for female writers and intellectuals to voice their opinions on social issues, including women's rights and education [3].

The contributions of the Jadids to women's education had lasting impacts on Central Asian societies. While full gender equality was not immediately realized, their efforts laid the foundation for later advances in women's rights and education. The creation of schools for girls and the inclusion of women in educational reforms marked the beginning of a long process of social change. Over time, the ideas and

goals of the Jadid movement helped pave the way for the greater participation of women in public and intellectual life in Central Asia [5].

In summary, the Jadid movement played a crucial role in the development of women's education in Central Asia. By advocating for and implementing educational reforms, challenging gender norms, and promoting women's rights, the Jadids contributed significantly to the broader social and cultural transformation of the region. Their legacy continues to be felt today, as the empowerment of women through education remains a key factor in the ongoing modernization and development of Central Asian societies.

REFERENCES:

1. Borisov, D. (2008). *The Jadid Movement and Its Influence on Women's Education in Central Asia*. Tashkent: Academic Publishing House.
2. Rakhimov, D. (2012). *Women in Central Asia: Education, Rights, and Reforms in the Jadid Era*. Samarkand: Central Asian University Press.
3. Khakimov, M. (2005). *The Jadid Intellectuals and the Educational Renaissance in Central Asia*. Moscow: Eurasian Press.
4. Siddiqi, F. (2017). *Women and Education in the Jadid Movement*. Journal of Central Asian Studies, 13(2), 115-129.
5. Anderson, M. (2006). *Gender and Social Reform in the Central Asian Jadid Movement*. London: Routledge.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING ONA TILINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Farrux Abdullayev
Samarqand viloyat pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning til bo‘yicha qarashlari va uni rivojlantirishdagi xizmatlari tahlil etilgan.
Kalit so‘zlar: Behbudiy, jadidlar, turkiy til, Oyina, Sadoyi Farg‘ona.
Аннотация: В данной статье анализируются взгляды Махмудходжи Бехбуди на язык и его заслуги в его развитии.
Ключевые слова: Бехбуди, Джадидлар, турецкий язык, Ойна, Садойи Фергана.
Abstract: This article analyzes the views of Mahmudkhodja Behbudi on language and his services in its development.
Keywords: Behbudiy, Jadids, Turkic language, Oyina, Sadayi Fergana.

Mahmudxo‘ja Behbudiy – o‘z davrining yirik ma’rifatparvari, publitsisti va jamoat arbobi bo‘lib, uning o‘zbek adabiyoti va madaniyatiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. U nafaqat adabiyot, balki til masalasida ham o‘zining teran fikr va qarashlari bilan mashhur bo‘lgan. Behbudiyning til haqidagi qarashlari xalq ma’rifati va madaniyati rivojida muhim rol o‘ynagan.

Behbudiy adabiy tilni millatning birlashuvi va rivoji uchun muhim vosita deb bilgan. U yozuvlari va chiqishlarida adabiy til me’yorlarini shakllantirish va mustahkamlashga alohida e’tibor bergan. Bu orqali u turli shevalar va lahjalar o‘rtasida muvozanat saqlashga intilgan.

Behbudiy matbuot orqali tilni rivojlantirish va uni ommalashtirishga katta hissa qo‘shgan. U o‘zining “Oyna” gazetasi sahifalarida til masalalariga oid maqolalar chop etgan va o‘zbek tilining dolzarb masalalarini keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘ygan.

Uning “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Til masalasi” “Bizni kemirguvchi illatlar”, “Muhtaram yoshlarg‘a murojaat” kabi maqolalarida davrning benihoya o‘tkir muammolari va til masalalariga e’tibor qaratgan. U til haqida fikr yuritib nafaqat yurtimizda foydalanilyapgan arab, fors, shu jumladan, Yevropa tillarini ham ilm-fan kaliti deb hisoblaydi. Shuning uchun uning tilga oid qarashlari aks etgan maqolalaridan biri «Ikki emas, to‘rt til lozim» nomi bilan nashrdan chiqdi. Behbudi tilni xalqning asosiy boyligi va madaniy yodgorligi sifatida qabul qilgan. U tilni millatning ruhi va ma’naviyati aks etuvchi vosita deb bilgan. Uning fikricha, xalq tilining boyligi uning ma’naviy rivojlanishiga bevosita bog‘liq.

Buyuk ma'rifatparvar adib har bir turkistonlik o‘z ona tilidan tashqari fors, arab, rus, hatto fransuz tilini bilmog‘i kerak, aks holda dunyo bilan barobar yashab bo‘lmaydi degan qarashda edi. Bu qarashlar hozir ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmay turibdi. Mutafakkir o‘zining “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida turkistonliklar ijtimoiy turmush-tarziga ko‘ra sharoitlariga ko‘ra to‘rt tilni bilishlari lozimligi dalillar bilan isbotlab beradi. O‘zbeklar ona tillari o‘zbekchani, mumtoz adabiyot tili bo‘lgan forschani, madrasa tili bo‘lgan arabchani, davlat tili – rus tilini bilsalar, ijtimoiy munosabatlarda, ilmiy va adabiy adabiyotlarni o‘rganishda, umuman, turmushda qiynalmaydilar.

Behbudi tilni saqlash va boyitish zaruratini ko‘tarib chiqqan. U xalq og‘zaki ijodining imkoniyatlaridan foydalanib, adabiy tilni boyitish kerakligini ta’kidlagan. Shuningdek, u arab, fors va boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlarning o‘rinli qo‘llanishini qo‘llab-quvvatlagan, lekin xalq tilidan begona bo‘lgan so‘zlarni haddan ortiq ishlatishga qarshi chiqqan.

Forsiy va arabiydan maqsad bu – forscha va arabcha so‘zlardir. Bunda turkiy tilni rivojlantirish qarashlarini ilgari suradi. Yuqoridagi matndan shuni bilishimiz mumkin bo‘ladiki, tilimizga boshqa tillardan so‘zlarning kirib kelishi bundan bir yarim asr oldin ham echimi qidirilayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblangan. Mahmudxo‘ja Behbudiy yashagan davr muhitida arab va fors tilini o‘rni katta edi. Shuning adib turkey tilning sofligini saqlashga harakat qilgan va boshqalarni ham shunga chaqirgan. Bu ko‘tarilgan fikrlar hozirgi zamonda o‘zbek tili uchun ham muhimdir. Ayni paytda ijtimoiy muhit o‘zgarib tilimizga arab va fors tillari emas

balki, g‘arb tillaridan ko‘plab so‘zlar kirib kelmoqda. “Forscha va arabcha so‘zlar o‘rniga qadimgi turkiy so‘zlarni tiklash mushkullik tug‘diradi, Hamda ming yil avvalgi tilg‘a qaytmoq qonuni tabiatga muxolifdur. Chunki moziyga ruju' mumkin yo‘q. Begona tildan so‘z olmoqdan qutulgan til yo‘qdur... Xulosa fikrimiz shuki, yalg‘uz turkcha so‘ylamak va yozmoq abadan mumkin yo‘q. Baqadri imkon arabiy va forsiyni oz yozayluq”. Mazkur qarashlarda ham milliy tilning aslligini saqlab qolishlik muammolari ko‘tarilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy imkon qadar turkiy so‘zlarni qo‘llashga chaqirib, boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlardan vos kechib bo‘lmasligini ham takidlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning milliy tilning sofligi va uning rivojiga qararatilgan nazariyalari hozirgi kunda ham dolzabligicha qolmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiy vaziyatga xolisona, har tomonlama yondashishga harakat qiladi. Maqolalarida turkiy til va sof turkiycha so‘zlardan foydalanishga undagan bo‘lsada, adibning o‘zi ham arabcha va forscha hamda g‘arb tiliga oid leksikalardan ko‘plab istefoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. J.I.. -T.: Akademnashr, 2021. –512 b.
2. Zarafshonning Behbudiysi. Maqolalar (To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: A.Haydarov). – T.: Sahhof, 2020. – 204 b.
3. Sirojiddin Sotvoldiev. (2023). DICTIONARIES OF "MUSALLAS" PLACE IN ARABIC LEXICOGRAPHY. Innovative Development in Educational Activities, 2(11), 356–365.

MILLAT UYG‘ONISHINING MASH‘ALI: MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MA’NAVIY VA MA’RIFIY FAOLIYATI

Axmadov Dovudxon Xabibulloyevich
O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
dovudxon.axmadov@mail.ru, +998915226226

Annotatsiya :Mazkur maqola Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning o‘zbek millati uchun olib borgan ma’naviy va ma’rifiy ishlari yoritilgan. Behbudiy o‘zining qisqa, ammo sermahsul hayoti davomida xalqni ilm-ma’rifatga chorlab, milliy ong va uyg‘onish harakatining asoschilaridan biri sifatida tarixda iz qoldirdi. Maqolada Behbudiyyning ma’naviy tamoyillari, jumladan, axloqiy poklik, dinning ma’rifiy roli, milliy ongni rivojlantirish va jamiyatni uyg‘otish kabi masalalarga e’tibori tahlil etiladi. Shuningdek, uning jadid maktablarini tashkil etish va ta’lim tizimini isloh qilishga qo‘shgan hissasi, ayollar ta’limini rivojlantirishga bo‘lgan yondashuvi va matbuot sohasidagi faoliyati batafsil ko‘rib chiqiladi. Behbudiyyning adabiy merosi, jumladan, “Padarkush” asarining ahamiyati va uning milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qilishdagi roli ham maqolada alohida qayd etilgan. Ushbu maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyyning o‘zbek milliy uyg‘onish davridagi bebaho merosini anglashga yordam beradi va uning bugungi kundagi dolzarbligini ta’kidlaydi.

Kalit so’zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Milliy uyg‘onish harakati, Jadidchilik, Ma’rifatparvarlik harakati, O‘zbek ziyolilari, Ma’naviyat va ma’rifat, Ilm-ma’rifatga chorlov, Axloqiy poklik, Dinning ijtimoiy roli, Milliy o‘zlikni anglash, Ta’lim islohotlari, Jadid maktablari, Savodsizlikka qarshi kurash, O‘zbek adabiyoti, Padarkush dramasi, Ayollar ta’limi, Matbuot va jadidchilik, Samarqand gazetasi, O‘zbek madaniyati, Qur’on va hadis talqini, Milliy qadriyatlar targ‘iboti, O‘quv qurollari islohoti, Adabiy meros, Zamonaviy fanlar ta’limi, Tarix va madaniyat, Ma’rifiy adabiyotlar, O‘zbek milliy uyg‘onishi, Teng ta’lim imkoniyatlari, Johillikka qarshi kurash, Turkiston ma’rifati, Siyosiy ong rivoji, Taraqqiyot va islohotlar, Turkiston ijtimoiy muammolari, O‘zbek milliy taqdiri, Yoshlarning tanqidiy fikrlashi, Ma’naviy sog‘lomlik, Jamiyat uyg‘onishi, Ijtimoiy mas’uliyat, Adolat va tenglik, O‘zbek milliy liderlari.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) – o‘zbek millatining buyuk jadidchisi, ma’rifatparvari va milliy uyg‘onish harakatining peshqadamlaridan biri. Behbudiy o‘zining qisqa, ammo sermahsul hayotini xalqni ilm-ma’rifatga chorlash, milliy o‘zlikni uyg‘otish va jamiyatni rivojlantirishga bag‘ishladi. Uning ma’naviy va ma’rifiy faoliyati o‘z davrida yangi bir uyg‘onish davrining boshlanishiga turtki berdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilda Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumanida ziyoli oilasida dunyoga keldi. Yoshligida mahalliy madrasada ta’lim olib, arab, fors va turkiy tillarni puxta o‘rgandi. Shu bilan birga, u zamonaviy dunyoviy fanlarga qiziqib, o‘z bilimlarini mustahkamladi. Behbudiy nafaqat diniy ulamo, balki o‘z davrining dunyoviy bilimdonlaridan biri sifatida tanildi. U Toshkent, Buxoro va Qozonda ilmiy doiralar bilan aloqalar o‘rnatib, Turkistonning ijtimoiy va madaniy muammolarini chuqur tahlil qildi.

Behbudiyyning ma’naviy faoliyati uning islomiy tamoyillarni zamonaviy ijtimoiy va ma’rifiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga bo‘lgan intilishida namoyon bo‘ldi. U o‘z faoliyatini musulmon jamiyatida ma’rifat va axloqiy tarbiyani yuksaltirishga qaratdi. Behbudiy quyidagi asosiy tamoyillarni targ‘ib qildi:

1. **Axloqiy poklik:** Behbudiy xalqni halollikka, insoflilikka va adolatparvarlikka da’vat etdi. Unga ko‘ra, jamiyatda ma’naviy sog‘lomlikni ta’minlash har bir shaxsning axloqiy tarbiyasidan boshlanadi.
2. **Dinning ma’rifiy roli:** Behbudiy islom dinining faqat ibodat bilan cheklanmasligini, balki uning hayotning barcha sohalariga oid ma’rifiy va ijtimoiy ta’limotlarini keng targ‘ib qildi. U Qur’on va hadislarni zamonaviy hayot bilan bog‘liq holda talqin qildi.
3. **Milliy ong va ma’rifat:** Behbudiy o‘zining chiqishlarida va asarlarida xalqni o‘z tarixini, madaniyatini va tili qadriyatlarini anglashga undadi. Unga ko‘ra, ma’naviy uyg‘onishning asosi milliy ongni rivojlantirishdan boshlanadi.
4. **Jamiyatni uyg‘otish:** Behbudiy turli nutqlari va maqolalarida xalqni johillik va tanazzuldan chiqish uchun birlashishga chaqirdi. Uningcha, jamiyatning har bir a’zosi o‘z mas’uliyatini his etishi zarur edi.

Behbudiy xalqni savodsizlikdan qutqarish va ilm-ma’rifatga yo‘naltirish maqsadida birinchi navbatda ta’lim tizimini isloh qilishga kirishdi. U jadid maktablari ochib, an’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq, zamonaviy fanlarni joriy etdi. Bu maktablarda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim berildi:

1. **Tabiiy va aniq fanlar:** matematika, geografiya, fizika, va kimyo.
2. **Ijtimoiy fanlar:** tarix, adabiyot va iqtisodiy bilimlar.
3. **Til va madaniyat:** ona tili, arab va fors tillari.

Behbudiy bu orqali yoshlarga nafaqat ilm-fan, balki milliy qadriyatlarni ham singdirishga intildi. U ayollar ta’limiga ham katta e’tibor qaratdi, chunki jamiyatning taraqqiyoti uchun ayollarning o‘rni muhimligini anglagan edi.

Shuningdek, Behbudiy ta’lim jarayonini zamonaviy o‘quv qurollari bilan boyitishga e’tibor qaratdi. U yangi darsliklar tayyorlashda ishtirok etdi va o‘z davrining ilg‘or ta’lim tizimlarini o‘rganib, ularni Turkistonga tatbiq qildi.

Behbudiyyning fikriga ko‘ra, ma’rifat jamiyatni qoloqlikdan olib chiqishning yagona yo‘lidir. U o‘z maqolalarida va nutqlarida quyidagi asosiy fikrlarni ilgari surdi:

- **Savodxonlikning ahamiyati:** Behbudiy ta’kidlashicha, xalqni qutqarish va taraqqiyotga etaklash uchun avvalo savodxonlikni oshirish zarur. U barcha yoshdagi insonlarni ta’lim olishga chaqirdi.
- **Ta’limda tenglik:** Behbudiy ayollar va erkaklar uchun ta’lim imkoniyatlarini teng ravishda yaratish tarafdori edi. U bu borada ayollar ta’limi muhimligini qayta-qayta ta’kidlagan.
- **Ma’rifat va siyosiy ong:** Behbudiy xalqning siyosiy huquq va erkinliklarini anglab etishi uchun ma’rifiy ishlarni kuchaytirish zarurligini uqtirgan. Unga ko‘ra, siyosiy erkinlik va mustaqillik ma’rifatsiz amalga oshmaydi.
- **Jamiyatning uyg‘onishi:** Behbudiy ma’rifiy islohotlar orqali jamiyatni johillik va qoloqlikdan chiqarishga ishongan. U yoshlarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga katta e’tibor bergan.

Behbudiy matbuot orqali xalqni ongli qilishga katta ahamiyat berdi. U 1913-yilda "Samarqand" gazetasini nashr etishni yo‘lga qo‘yib, unda quyidagi mavzularda maqolalar chop etdi:

- Milliy ong va o‘zlikni uyg‘otish.
- Savodxonlikni oshirish va ta’limning ahamiyati.
- Ijtimoiy adolat va tenglik.
- Turkistonning iqtisodiy va siyosiy ahvoli.

Behbudiy matbuot orqali keng xalq ommasiga etib borishga muvaffaq bo‘ldi. Uning maqolalari orqali qishloq joylarda ham yangi g‘oyalar tarqala boshladi. Shuningdek, u turli risolalar va kitoblar yozib, ularni xalq o‘rtasida tarqatdi. Unga ko‘ra, matbuot jamiyatni ma’naviy uyg‘otishning eng samarali vositasi edi.

Behbudiy o‘z davrining ijtimoiy muammolarini yoritish uchun adabiyotni ham samarali vosita sifatida qo‘lladi. U 1911-yilda o‘zining mashhur sahna asari “Padarkush”ni yozdi. Bu drama orqali u ota-onaga hurmat, oilaviy qadriyatlar va yoshlarning ma’naviy tarbiyasini yuksaltirish masalalarini ko‘tardi.

Shuningdek, Behbudiy o‘z she’r va hikoyalari orqali milliy uyg‘onish, ma’rifatga bo‘lgan ishtiyoq va mustamlakachilikka qarshi kurash g‘oyalarini tarannum etdi. Uning asarlarida axloqiy poklik, milliy qadriyatlarni asrash va ilm-ma’rifatning kuchi yuksak ifodalangan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy – milliy uyg‘onish davrining yorqin namoyandasi, xalqni ilm-ma’rifatga chorlovchi ma’rifatparvar va jadid harakatining asoschilaridan biridir. U o‘z faoliyati davomida xalqni savodsizlikdan qutqarish, milliy o‘zlikni anglash va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko‘plab islohotlarni amalga oshirdi. Behbudiyyning o‘z davridagi diniy va dunyoviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga bo‘lgan intilishi zamonaviy ta’lim tizimining poydevorini yaratishga xizmat qildi. U nafaqat ilm-fan, balki adabiyot va matbuot sohasida ham katta iz qoldirdi, xalqni uyg‘otish uchun yozgan “Padarkush” kabi asarlari esa milliy uyg‘onishning ramzi bo‘ldi.

Behbudiyyning “Samarqand” gazetasi orqali olib borgan matbuot faoliyati ham xalqni savodxonlik va ijtimoiy mas’uliyatga chorlovchi asosiy vositalardan biri edi. Uning fikricha, ta’lim va ma’rifat jamiyatni johillikdan chiqaruvchi eng muhim omildir. Ayollar ta’limiga bo‘lgan alohida e’tibori esa uning jamiyatning barcha qatlamlarini uyg‘otish va teng imkoniyatlar yaratish tarafdori ekanligini ko‘rsatadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyyning ma’naviy-ma’rifiy faoliyati o‘z davri uchun qanchalik muhim bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ham shunchalik dolzarbdir. Uning merosi yosh avlod uchun ma’naviy yo‘l ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi va milliy uyg‘onish g‘oyalarining davomiyligini ta’minlaydi. Behbudiyyning faoliyati o‘zbek millati tarixidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, uning qoldirgan merosi xalqimizni yanada ravnaq topishiga xizmat qilishda davom etadi.

Adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. "Turkiston jadidchiligi tarixi". Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2007.
2. Vohidov Sh. "Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning zamondoshlari". Samarqand: Ma’rifat nashriyoti, 2012.
3. Qayumov H. "Jadidlarning ma’rifiy harakati". Toshkent: Fan, 1999.
4. "Behbudiyyning matbuotdagi faoliyati". O‘zbekiston tarixi jurnalining maxsus soni, 2014.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. "Padarkush" asari. Toshkent: Adabiyot va san’at, 1979

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MANAVIY VA MA’RIFIY FAOLIYATIDA TEATR SAN’ATI

Daniyarov Shavkat Ergashevich
Alfraganus universiteti xalqaro munosabatlar va tarix kafedrasi o‘qituvchisi
email: shavkat_daniyarov@gmail.com, +998974808134

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy taraqqiyotimizda Mahmudho‘ja Behbudiyning teatr san’ati sohasida olib borgan faoliyati keng yoritib berilgan. Behbudiy teatrni xalq ta’limi va ongini oshirishda, insonlarni ma’naviy taraqqiyotga erishishida muhim vosita sifatidagi qarashlari hamda teatr orqali u ko‘plab ijtimoiy masalalar va muammolarni yoritganligi ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Teatr, milliy o‘zlikni anglash, truppa, madaniyat, jadid, san’at, “Padarkush”, ma’naviyat, milliy identiklik, pyesa.

ТЕАТРАЛЬНОЕ ИСКУССТВО В ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ

Аннотация. В данной статье широко освещена деятельность Махмудходжи Бехбуди в области театрального искусства в развитии нашей страны. Научно проанализирован взгляд Бехбуди на театр как на важный инструмент повышения образованности и сознания людей, для достижения духовного развития людей, а также на то, что он через театр проливает свет на многие социальные вопросы и проблемы.

Ключевые слова. Театр, осознание национальной идентичности, труппа, культура, Джадид, искусство, «Падаркуш», духовность, национальная идентичность, игра.

THEATER ART IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITY OF MAHMUDKHOJA BEHBUDI

Abstract. In this article, Mahmudhoja Behbudi's activities in the field of theater art in our national development are widely covered. Behbudi's view of theater as an important tool for raising people's education and consciousness, for achieving spiritual development of people, and the fact that it shed light on many social issues and problems through theater has been scientifically analyzed.

Keywords. Theater, awareness of national identity, troupe, culture, Jadid, art, "Padarkush", spirituality, national identity, play.

MAHMUDKHOJA BEHBUDİ'NİN MANEVİ VE EĞİTİM FAALİYETİNDE TİYATRO SANATI

Soyut. Bu makalede Mahmudhoja Behbudi'nin ulusal gelişimimizde tiyatro sanatı alanındaki faaliyetleri geniş bir şekilde ele alınmaktadır. Behbudi'nin tiyatroyu, halkın eğitim ve bilinç düzeyinin yükseltilmesinde, insanın manevi gelişiminin sağlanmasında önemli bir araç olarak görmesi ve tiyatro aracılığıyla pek çok toplumsal konu ve soruna ışık tutması bilimsel olarak incelenmiştir.

Anahtar kelimeler. Tiyatro, milli kimlik bilinci, topluluk, kültür, Cedid, sanat, Padarkush, maneviyat, milli kimlik, oyun.

Mahmudxo‘ja Behbudiy – O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning manaviy va ma’rifiy faoliyatida teatr san’ati alohida o‘rin tutadi. 1913-yilda O‘zbek milliy teatrining tug‘ilishini belgilagan, asosini yoshlar tashkil etgan birinchi teatr Samarqandda tashkil etildi. 1914-yil 15-yanvarda birinchi repertuari M.Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qumagan bolani holi” asari bilan faoliyatini boshlaydi.[1.53] Spektakl shahardagi “Xalq uyi” binosida o‘ynaladi. Asarni

ozarbayjonlik rejissor Ali Asqar Akbarov sahnalashtiradi.[2.] Teatr sahnalashtirilgandan so‘ng M.Behbudiy boshchiligidagi bu teatr Qo‘qon, Andijon, Namangan shaharlari bo‘ylab bir qator gastrollar o‘tkazadi va o‘lka xalqlariga bu yangilikni targ‘ib qilib qaytadi. 1917-yilgacha bu teatr Samarqandda o‘z faoliyatini “Teatr va musiqa dastasi” nomi bilan davom ettiradi. Truppaga Abdulla Badriy rejissorlik qildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy boshlagan bu ish o‘z mevasini berib, 1913-yilda Toshkentda “Turon oqartuv jamiyati” qoshida Abdulla Avloniy boshchiligida tuzilgan teatr to‘dasi ham o‘z faoliyatini “Padarkush” spektakli bilan boshlaydi. Spektakl 1914-yil 27-fevralda “Kolizey’ teatri binosida namoyish etiladi va Turkiston ma’rifatparvarlarining rahbari M.Abdurashidxonovning tabrik so‘zi bilan boshlanadi. Truppa tarkibi tez kunda 25 nafarga etib, unda Nizomiddin Xo‘jayev, Duriya xonim, Badritdin A’lamov, F.Jonboyev, Qudratilla Yunus kabi o‘zbek ziyolilari faoliyat ko‘rsatadi. 1916-yildan boshlab truppaga Mannon Uyg‘ur, Sulaymon Xo‘jayev, G‘ulom Zafariy, G‘ozi Yunus, Xurshid kabi ijodkorlar kelib qo‘shiladi. Truppaga avval Ali Asqar Akbarov, so‘ngra Zakiy Boyazitskiylar rejissorlik qiladilar. 1914-1917 yillarda truppa tomonidan “To‘y’, “Zaharli hayot’, “Baxtsiz kuyov”, “Final’, ‘Advokatlik osonmi?” kabi asarlar sahnalashtiriladi. 1915-yili Farg‘ona bo‘ylab safarga chiqishi oldidan truppa “Turkiston” nomini oladi. Qo‘qon, Andijon, Namangan, Xo‘jand kabi shaharlarda “Padarkush”, “Istanbul”, ‘Badbaxt kelin” spektakllarini ko‘rsatib qaytadi va 1917-yilgacha mustaqil faoliyat ko‘rsatadi.[3.] Shuni ta’kidlash lozimki, bu teatrning shakllanishi va rivojlanishida, “Turkiston” truppasining sahna asarlarini xalqqa etkazishda Abdulla Avloniyning o‘rni va roli benihoya katta bo‘ldi. Bu truppadan bir qator teatr namoyandalari etishib chiqdilar. Ma’suma Qoriyeva (Sa’diya) ana shunday dastlabki aktrisalar sirasiga kiradi.

Behbudiy teatr san’atini umuman ta’lim va madaniyat vositasi sifatida qabul qilgan. U teatrni xalq ta’limi va ongini oshirishda, insonlarni ma’naviy taraqqiyotga erishishida muhim vosita sifatida ko‘rgan. Teatr orqali u ko‘plab ijtimoiy masalalar va muammolarni yoritgan.

1914-yil 27-fevralda o‘zbek xalqining madaniy hayotida unutilmas voqea ro‘y berdi. Shu kuni Toshkentdagi “Kolizey” teatrining 2 ming kishilik zali tomoshabinlar bilan to‘ldi. Shu kuni “Kolizey”da bundan uch yil muqaddam yozilgan, bir yil muqaddam risola shaklida nashr etilgan, qirq kun muqaddam Samarqandda teatr havaskorlari tomonidan o‘ynalgan M.Behbudiyning “Padarkush yoxud o‘qumagan bolaning holi” pesasi sahna yuzini ko‘rdi. Bu asar ustidagi ish Samarqandda ham, Toshkentda ham bir vaqtda 1913-yil dekabrida boshlangan edi. Toshkentda malakali rejissorning bo‘lmaganligi sababli spektakl ustidagi ish qirq kunga kechikdi. Lekin 1914-yil 27-fevralda “Turon” teatri truppasi tomonidan

qo‘yilgan spektakl milliy o‘zbek teatrining birinchi spektakli sifatida tarixda qoldi. Yana shu spektaklning tarixiy va ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati shunda ediki, undan tushgan mablag‘ “Musulmon jamiyati imdodiyasi” foydasiga o‘tkazilgan edi.[4.] Behbudiy o‘zi ko‘plab pyesalar yozgan va sahnadagi ijrolar orqali o‘z fikrlarini xalq bilan bo‘lishgan. Uning asarlarida o‘zbek xalqining urf-odatlari, tarixiy qadriyatlari va zamonaviy muammolar muhokama etilgan.

Behbudiyning pyesalarida bir qator qiziqarli va chuqur xarakterli obrazlar yaratilgan. Ular orasida quyidagilar alohida ajralib turgan:

- maqsadli kelajakni qidiruvchi qahramonlar – Ta’limni, bilimni va o‘zgarishni qidirayotgan yoshlar;

- qiyinchiliklarga duch kelayotgan ayollar – Oila va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilayotgan ayollar;

- ijodkorlik va o‘zini ifodalashni istagan san’atkorlar – Teatr va san’at orqali o‘z ijtimoiy fikrlarini ifoda etishi.

Behbudiy yaratgan obrazlar orqali o‘z zamonasining muammolarini keltirib chiqarib, ijtimoiy fikrni o‘zgartirishga uringan.

Alloma jamiyat hayotidagi illatlar, nuqsonlar va ilmsizlikni sahnada ko‘rsatish orqali xalqni taraqqiyparvarlikka da’vat etish maqsadida 1914-yili milliy teatrga asos soladi. Teatr sahnasi uchun “Padarkush” dramasini yozadi. Kitob jildiga “Borodino jangi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi”, degan yozuv bilan Tiflis senzurasidan ruxsat olgach, 1913-yili uni chop ettiradi. “Padarkush” dastlab 1914-yil 15-yanvarda Samarqandda, 1914-yil 27-fevralda Toshkentda sahnaga qo‘yilgan. Abdulla Avloniyning “Turon” guruhi o‘z faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlagan edi “Turon” guruhi 1914-1916-yillarda bu spektakl bilan butun Farg‘ona vodiysini aylanib chiqadi. Ushbu sahna asari Turkistonni junbushga keltirgan qirg‘inbarot yillarda ham sahnadan tushmaydi. Bu, bir tomondan, millatni ma’rifat va taraqqiyot sari undagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, rosmana o‘zbek teatri va dramaturgiyasining maydonga kelishi hamda taraqqiyotiga xizmat qiladi. 1917-yil mart oyida Toshkentda Turkiston musulmonlari qurultoyi o‘tkazilib, Turkiston musulmonlari sho‘rosi milliy markazi saylanadi. Unga mintaqaning hamma bo‘laklaridan vakillar, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Nosirxon To‘ra, Muhammad Tinishboyev, O‘roz Sardor ham kiritiladi.[5.]

Boris Pyaskovskiy 1922-yildagi “Inqilob” jurnali sahifalarida e’lon qilgan “O‘zbek teatri tarixi” maqolasida uning maydonga kelishi tarixi haqida fikr yuritar ekan, “O‘zbek teatrining asosini qo‘yib beruvchi samarqandlik Mahmudxo‘ja Behbudiydir” deb yozadi, adib nomida Toshkentda maorif klubi, Samarqanda kutubxona va dramtruppa, Turkistonning deyarli hamma shaharlarida uning nomiga

ochilgan maktablar, Buxoroda esa markaziy bosmaxona borligini ta’kidlaydi.[6.27-28.]

1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi bosilib chiqadi. Kitob jildidagi “Borodino jangi va Rusiyaning frasuzlar bosqinidan xalos bo‘lishning yubiley sanasiga bag‘ishlanadi” degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko‘rsatadiki, ish oson ko‘chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun bir yilcha vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: “Turkistonda bekor yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo‘qki, teatr sahnasiga chiqib, “masxarabozlik” qilsa”, deb yozgan edi.[6.52.] Behbudiy klassik sahna san’atidan boshlab, zamonaviy teatrning rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shgan. U yangi sahna turlarini rivojlantirgan, aktyorlik mahoratini oshirishga intilgan va yoshlarni teatr san’atiga jalb qilishda faol ishtirok etgan.

Zamonaviy drama shu davrdagi barcha hayotiy muammolar va mumtoz adabiyot an’analaridan ancha uzoq bo‘lsa-da, u boshqa janrlarda yozilgan asarlardan farqli o‘laroq ijro etish, ko‘rsatish xususiyatiga ko‘ra mahalliy aholi ko‘ngliga birdek yo‘l topa oldi. Mana shu muhim jihatiga ko‘ra yosh o‘zbek dramasi jamiyatda jiddiy islohotlar zarur bo‘lib turgan bir paytda muhim ma’rifiy tarbiya vasifasini bajardi.[6.53] Behbudiy yaratgan badiiy asarlar o‘z davrining muammolarini kuylab chiqdi, otashin qalbdan chiqqan nolalar xalqning qalbida chuqur iz qoldirdi.

Behbudiy o‘z asarlarini sahnalashtirganda bir qator muammolarga duch kelgan: ya’ni, sahna ehtiyojlari – teatrni yaratishda moddiy va texnik resursslarga bo‘lgan muhtojlik; talab etilgan sahna ijodkorligi – aktyorlarning mahorati, sahna uslublari va ijro etish qobiliyatlari; xalq e’tirozi – teatrdagi tashabbuslari va yangi g‘oyalarining ijtimoiy qabul qilinishi oson bo‘lmagan; siyosiy muammolar – mustaqillik va erkinlik masalalaridagi xususiyatlar va taqiqlovchi omillar mavjud bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy teatr san’atini ma’naviyat va ma’rifat tarqatishda kuchli vosita sifatida ishga solgan. Uning asarlari va faoliyati bugungi kunda ham o‘rganilishi lozim bo‘lgan qimmatli merosdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 53 б.
2. Каримов Н. Ўзбек театрининг тўнғич асари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент: 2011, 15-июль.
3. Рахмонов М. Театримиз ёши // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1998-йил, 4-декабрь.
4. “Жадид маърифатпарварларинингмиллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти”//Республика илмий-амалий анжумани. –

Тошкент. 2016. “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2016.
5. https://uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlargaehtirom/mahmudxuja-behbudiy
6. Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Risola. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 28 b.

ENLIGHTENED AND FREE TURKESTAN: BEHBUDIY AND IBRAT ACTIVITIES GENERAL ASPECTS SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Adkhamkhoja Abdullakhojayev
Kokand University teacher
e-mail: adhamxojaabdullahojayev@gmail.com, +998 90 362 91 41

Annotation . Mahmudhoja Behbudi and Ibrat, prominent figures in the early 20th century Central Asian intellectual and educational movements, played a crucial role in shaping the cultural and educational landscape of Turkestan. Both emphasized the importance of modern education, advocating for the integration of foreign knowledge while preserving Islamic traditions. They believed that mastering languages like Russian, Turkish, and Arabic was vital for the socio-economic and intellectual development of the Muslim population in Turkestan. Their efforts to promote a progressive understanding of Islam, education reforms, and the cultivation of practical skills aimed at overcoming the social and economic challenges faced by their society. They also highlighted the detrimental effects of excessive luxury and social customs, urging for a more pragmatic and responsible approach to wealth and education. Behbudi and Ibrat's contributions to education, literature, and social reform laid the foundation for the modernist movements that followed in Central Asia.

Keywords: Mahmudhoja Behbudi , Ibrat , Turkestan , Jadidism , education reform , Islamic modernism , language learning , social customs , national awakening , cultural revival .

Аннотация. Махмудхóджа Бехбуди и Ибрат - важные фигуры в начале 20 века в Центральной Азии, играли решающую роль в формировании культурного и образовательного ландшафта Туркестана. Оба подчеркивали важность современного образования, пропагандируя интеграцию иностранных знаний при сохранении исламских традиций. Они считали, что освоение таких языков, как русский, турецкий и арабский, было жизненно важным для социально-экономического и интеллектуального развития мусульманского населения Туркестана. Их усилия по продвижению прогрессивного понимания ислама, реформ образования и развитию практических навыков были направлены на преодоление социальных и экономических проблем, с которыми сталкивалось их общество. Они также подчеркивали вредные последствия чрезмерной роскоши и социальных обычаев, призывая к более прагматичному и ответственному подходу к богатству и образованию. Вклад Бехбуди и Ибрат в образование, литературу и социальные реформы заложил основу для последующих модернистских движений в Центральной Азии.

Ключевые слова: Махмудхóджа Бехбуди, Ибрат, Туркестан, джадидизм, реформа образования, исламский модернизм, изучение языков, социальные обычаи, национальное пробуждение, культурное возрождение.

Mahmudxo‘ja Behbudi and Ibrat, in their works, addressed social and educational reform issues, and Mahmudxo‘ja Behbudi’s contributions are

unparalleled in the unification and expansion of the Jadid movement in Turkestan. Behbudi’s creative work and practical activities were broad and diverse, ranging from school reforms to the transformation of Turkestan into a free and prosperous homeland. However, it is more appropriate to discuss certain issues within the scope of research rather than the entirety of Behbudi's activities. The idea of developing education in Turkestan is the foundation of Behbudi’s creative work. According to Behbudi, the primary cause of ignorance, backwardness, and decline in Turkestan was ignorance itself. In his educational activities, Mahmudxo‘ja Behbudi did not limit himself to publishing analytical articles on the state of education and its importance, but also wrote practical textbooks to assist schools. Some of his notable textbooks include:

1) "Alifbo Maktabi Islamiya" (in Persian);
2) "Madhali Ju'rofiyai Umrani" ("A Brief Geography of Russia", in Persian);
3) "Kitab-ul-Atfol" (in Turkish and Persian);
4) "Islamic Practice" (in Turkish);
5) "A Brief History of Islam";
6) "Muntahabi jug'rofiyai umum'y" (Selected information from general geography).

In these textbooks and manuals, Mahmudkhodja Behbudi raised important issues related to the socio-economic life of society, showed methods for improving the education and training system, and emphasized the need to master religious and secular knowledge. In this way, Behbudi not only sought to spread enlightenment, free the people from the swamp of ignorance, show them the path to justice, freedom, and truth, but also put forward the issue of training and educating national cadres, raising them to a level that meets world requirements. Mahmudkhodja Behbudi's ideas of enlightenment, his views on the need to train cadres for the development of society, are expressed through the image of an intellectual in his work "Padarkush". The intellectual tries to explain and prove his views on society, state, culture, science, and technology through clear, concise, and convincing arguments. In particular, these features of the intellectual are clearly visible in his discussion with the rich. The intellectual expresses the following thoughts: “In order to become a modern scholar, it is necessary to first teach children the Islamic script and literacy, and then, after teaching them the necessary religion and the language of our nation, send them to the chartered schools of our government, that is, after they have completed the gymnasium and city schools, they can go to St. Petersburg, Moscow, etc. It is necessary to send them to medical schools and teach them doctorate, law, engineering, jurisprudence, science and art, science of economics, science of wisdom, teaching and other sciences. It is necessary to become a full-fledged partner in the Russian homeland and state and to enter state positions… It is even necessary

to send Muslim children who have studied in this way to medical schools in France, America and Istanbul for education."[1] Ibrat was one of the examples of the enlightener Mahmudkhodja Behbudi, who tried to uncover the roots of the Turkestan people living in poverty despite their hard work. He analyzed the socio-political situation at the beginning of the 20th century and believed that the main reason for the people living in poverty was the colonial policy of Tsarist Russia. It has now become known that Ibrat clearly stated the need to follow the example of Europe in the development of trade, commerce, agriculture, science, and technology, to send young people to study abroad in order to master the achievements of world civilization and join it. Such views were covered in detail in his works such as "Islohi millat" and "Mezon uz-zamon". One of the main priorities of the social development of society, from the point of view of the Jadids, was to renew the concept of Islam, cleanse it of fanaticism, and promote religious tolerance. Deeply realizing that Islam can only be preserved through the acquisition of scientific achievements, Behbudi in his work "Mukhtasari Tarikhi Islam" ("A Brief History of Islam") criticizes the distortion of the essence of Islam by some clerics for their own interests, and shows how serious the consequences of using religion for selfish, political purposes are. By showing the progressive role of Islam, Behbudi advocated the need to reform all social spheres of society in general. Behbudi, who knew the description of the Quran very well, gave great importance to public education, as well as the history of Islam, by giving examples from the verses of the Quran and hadiths. He criticizes religious leaders who, due to ignorance of Islamic history, often find themselves in awkward situations. According to German scholar Ingeborg Baldauf, Mahmudkhoj Behbudi "compares the lives of Muslim Arabs living in Palestine with the lives of their Muslim compatriots living in Central Asia. It is clear that both peoples live under the tyranny of foreigners..." [2] Behbudi and Ibrat , major figures of the Jadid movement , did not ignore this issue. Behbudi attached great importance to the social phenomenon and wrote in his "Two Languages" "No, four languages are needed", article "The Language Issue " or Ibrat Domla's works "Jome' ul hutut" analyzed the position of various languages in the territory of Turkestan and tried to show their place in the development of society. Behbudiy admits that since ancient times, Turkish, Persian and Arabic languages have been introduced among the population living in Turkestan, and they were used in conducting state affairs, in the field of culture, and in the education system. This is explained by the prevalence of the Turkic, that is, Uzbek, language, the fact that the majority of the peoples of Turkestan speak this language, the fact that the Sharia and religious books in all madrasas are in Arabic, and the mudarris translate and explain them into Persian. So, the fact that the textbooks are in Persian, the teacher is Turkish (that is, Uzbek), and the explanation is in Persian, shows the cunning and strangeness. With this,

Behbudiy emphasizes that each language has its own function to perform at the level of society. "However," Behbudiy notes, "gradually or gradually, difficulties have arisen in the methods of education and literature, and now it has reached a point where ninety-nine out of a hundred literates or scholars do not have perfect literary editing in these three languages. That is, methods of education and teaching must be reformed." [3] The Jadids were in favor of the effective use of the Turkic, that is, Uzbek, language. They put on the agenda the issue of reforming foreign words that had entered the Uzbek language and were difficult for the people to understand. According to Behbudiy, reforming Persian and Arabic words in the Uzbek language is not easy, it is an artificial process that cannot be carried out and will take a long time. In particular, regarding the reform of Arabic words, Behbudi writes: "It should be said directly that as little Arabic should be written as possible. When Arabic nouns are combined, they should be combined in Turkish. For example, instead of saying 'ulum, funun, ulama, quzzat and ..., write 'fans, ilms, alims, qazilar and ...'." [4] The Jadids did not deny the need to master foreign languages along with learning their native language. Behbudi, who understood the essence of this issue well, also recognizes the need to learn at least one of these languages in order to develop economic and cultural relations with foreign countries. According to him, "In order to be aware of our world in terms of science, one must know one of the following languages: Russian, German, French, English, Italian, Arabic, Japanese..." [5] M. Behbudi's ideas about the importance of learning other languages have been realized during the ears of independence. Currently, interest in learning Eastern and Western languages has increased significantly in our country. This is the result of Uzbekistan's efforts to take a worthy place in the world community. Learning foreign languages has a positive impact not only on the development of economic relations, but also on the development of the education system, which is an important branch of the cultural sphere. In particular, the youth of our country have had great opportunities to study in Eastern and Western countries, and to communicate with students of higher educational institutions abroad. favorable conditions for using the Internet have arisen. Behbudi's dreams about the importance of knowing foreign languages and creating conditions for young people to study abroad are being realized in the ears of independence. Revealing the essence of literary and scientific language, which differs from the simple language used in everyday life, Behbudi showed its necessity for the development of science and knowledge of history. "Now we need to literaryize, enlighten, that is, illuminate the environment, that is, our surroundings. If science is a science, then language will not subjugate us, but rather it will subjugate us to itself" [6] , - Behbudi admits. In the works of the Jadids, not only religion and language, but also moral issues were expressed. They deeply understood that solving moral issues is an important factor for the development of

society. In particular, they analyzed the essence of some customs and traditions in the life of the local population and evaluated them from a moral point of view. In particular, the views of the Jadids on weddings and funerals have not lost their relevance even today. Behbudi stated that any pomp and showiness during weddings and mourning are worse than an infectious disease, and these vices are enemies that ruin and alienate people, causing crises. He considers it disbelief that some people spend their wealth on weddings and mourning, without following the rule in the Quran that says, "Do not put yourself in danger." Indeed, the lavishness of weddings, in some cases excessive consumption of alcohol, extravagance in funerals, and customs that contradict the religion of Islam have not only led to people missing work for several days in those times, but also today. Regarding this, Behbudi says: "As for us, we miss work for weeks, even months, for the sake of the dead and the wedding. However, the great prophet, peace and blessings of Allah be upon him, ordered the deceased to be buried quickly, and after the burial, they should disperse quickly and go to work, and the people of the morgue should not mourn for more than three days, wear black, or be dirty or cause trouble. In Behbudi's opinion, instead of helping to train specialists and professionals, the rich of Turkestan are busy holding lavish weddings that ruin and destroy the people, and perhaps the rich who think about the future of Turkestan have not et matured. Behbudi is a supporter of inexpensive and unpretentious weddings, and believes that it is appropriate to use the extra money that could be spent on them to send children to the Caucasus, Crimea, Kazan, Orenburg for education. In his opinion, a person who is not jealous of the money spent on weddings should not be jealous of the expenses spent on educating children. Behbudi laments the fact that large sums of money are spent on weddings and funerals in the face of a shortage of local personnel, and writes the following: "Weddings, weddings, condolences, feasts, parties. In one neighborhood, there is not one literate person in twenty. We have put those who know the Islamic faith through evidence. If the early judges were Bahram, there is not a single person in all ten million Turkestan who can become a modern judge... No, not anymore."[7] Due to the expenses incurred for holding large weddings, their owners would also go into debt. In addition, another disadvantage of this tradition was that since the weddings were held in the fall, when school began, the children studied for one day and rested for three days , as a result of which valuable time was wasted. Behbudi concludes that spending the money spent on weddings and condolences on the development of science and technology would allow us to catch up with European development in a short time, and if the current situation does not change, people's lives may be plunged into poverty and misery. Ibrat is an enlightened teacher who founded the first school in the city of Namangan using a new method. In his biography, he emphasizes that even during his ears of studying at the madrasa, he

was interested in schooling , but the difficulty of the educational method, therefore, it was necessary to build modern schools and educate Muslim children using a new method, but it was extremely difficult to realize his dream. However, in 1886, the first new method school was opened in Fergana opens, but is soon closed by the fanatics. Ibrat himself to the purpose achieve for power- He did not spare his energy, and thanks to his efforts, a new school system was established in the village of Turakurgan, Namangan , in the early ears of the 20th century. Lesson the school was fundamentally different from the schools of the dry memorization method in its methodology . The school taught religious and secular sciences together, and the path to literacy in a very short time was chosen. Although the tsarist government did not officially prevent the operation of this school, the program of subjects taught was strictly controlled by its local officials. They were concerned not with the religious lessons taught at the school, but with secular subjects. Local government officials often inspected Ibrat 's school, examining the books and notebooks of students. The emergence of the new-style school, its ability to educate children literate in six months, worried fanatics, old school teachers, and local officials, who tried to oppose the consistent operation of this school in every possible way. One of these methods was the propaganda by the mullahs to forbid parents from sending their children to this school. Intimidation was the most convenient tool used in propaganda against the school. In particular, it was common to threaten children in the name of Sharia, saying that they would grow up to be irreligious if they attended this school. Despite such severe obstacles, persecution, and discrimination, Ibrat combined his pedagogical activities with journalism. Trying to enrich , he tried to preserve the school and printing house and strengthen its material base. Ibrat not only opened a school, taught, and was also engaged in organizational work, but also created books suitable for students and taught children on the basis of them. Books written by the teacher were published at his own expense. This led to a new method of increasing the efficiency of teaching and learning. Labor requires daily production and thereby ensuring the well-being of members of society. Strictly speaking, labor is a condition for the existence of every family. Therefore, Ibrat emphasized that idleness is extremely harmful to society and the material and spiritual development of the individual. A person must master a profession in order to maintain his image, benefit his family, society in general, and gain respect among people. Wealth may be fleeting, but a profession is real wealth. If a person strives to master a profession, he will never be humiliated and will live in prosperity. In a poem at the beginning of this book, Ibrat encourages children to learn different languages. First of all, he notes the need to learn Uzbek, Tajik, and Arabic, as well as Russian, based on historical circumstances. The question of where to learn these languages, and what results mastering them can bring, is at the center of Ibrat's attention. In his opinion,

school is a place of enlightenment, the only place for literacy, and one must work hard to achieve literacy, only then can one become an advanced person of the time. It is precisely youth that is the most favorable time for acquiring knowledge. One of the directions of acquiring knowledge is the study of the native language, its laws and rules, the development of speech culture. Ibrat did not lose sight of the need to study the Russian language, which was the state language at that time, because, in his opinion, the importance of learning Russian perfectly was that this language was needed for translation. In general, Ibrat understood that language learning was of great importance for the development of cultural relations and the enjoyment of world civilization. Ishaq Khan's works, such as the collection of poems "San'ati Ibrat, kalami Mirrajab Bandiy" devoted to beautiful calligraphy and the development of literacy, "Ilmi Ibrat", and "Jome' ul-khutut" devoted to the history of writing, were published in the printing house he founded. Abdurauf Samadov (Abdurauf Shahidiy), one of the first examples of Uzbek written drama, "Mahramlar" (The Intimate), was also published in "Matbaai Ishoqiya". Although Behbudiy's "Padar Kush" is accepted as the first Uzbek drama in scientific literature, Abdurauf Samadov Shahidiy wrote the drama "Mahramlar" a ear before Behbudiy's drama. The daily increase in the output of the Namangan printing house led to a slight increase in the number of bookstores and markets in cities and villages. Starting from 1910, 13 bookstores were opened in Namangan, 1 in Yangikurgan, and 1 in Turakurgan. In these stores, mainly books published in "Matbaai Ishoqiya " were sold at very low prices. This in print, mainly, to enlightenment related brochures The main initiative in this work was taken by Ishaqkhon Ibrat. Understanding the great importance of the newspaper in the promotion of education and culture and the formation of public consciousness, Ishaqkhon Ibrat founded the "Matbaai" in 1913. Is ' haqiya » He attempted to publish a newspaper under the name "At-tijar al-Namangan" and even applied to the government. This was reported by a newspaper published in Orenburg, which was widely known in Central Asia and the Turkic world. The famous newspaper "Vaqt" writes with great pleasure: "Namangan. The respected andind Ishaq qazi has applied for a newspaper under the name "At-tijar al-Namangan". He opened a printing house in Namangan in 1908. This ear he opened a library under the name "Kutubxonai Ishaqiya" and purchased books of literature in Turkish, Tatar, and Uzbek languages. Now he is about to publish a newspaper. We sincerely wish him success." [8] Thus, despite the difficult conditions, difficulties, and obstacles of that time, the selfless, enlightened teacher Ibrat devoted all his energy to developing a new school and strengthening its material and technical base. He applied the most effective methods of teaching literacy to the school system based on his new, many ears of experience in teaching and learning, even developed programs for the school he founded, created textbooks and teaching

aids, and had them published. The organization of a new school, providing it with blackboards and desks, and the inclusion of stories written in the native language, of spiritual and moral significance, and texts from translated books in the curriculum required dedication from Ibrat. The opening of the first new school in Namangan by Ibrat , the development of schools based on new methods , and the widespread dissemination of national enlightenment views were the basis. Representatives of the Samarkand and Fergana new schools, Behbudiy and Ibrat, tried to unite the people together towards a single goal and common goal.

References:

1. Mahmudkhodja Behbudiy. Padarkush. // Selected Works. -T.: Ma'naviyat, 1997. 44- p. 50.
2. Ingeborg Baldauf. Mahmudkhoj Behbudiy in Palestine.//Illustrators of 20th century Uzbek literature. T: “Ma'naviyat”. 2001. p. 30.
3. Mahmudkhoj Behbudiy. Not two, but four languages are needed. Selected works. T.: Ma'naviyat”. 161-page. 3 The same work. 161-page.
4. Mahmudkhoj Behbudiy. The issue of language. Selected works. T.: Spirituality”. Pages 168-169.
5. Mahmudkhoj Behbudiy. The issue of language. Selected works. T.: Spirituality”. Pages 169-170.
6. Mahmudkhoj Behbudiy. The issue of language. Selected works. T.: Spirituality”. Page 168.
7. Mahmudkhoj Behbudiy. The vices that gnaw at us. Selected works. T.: “Ma'naviyat”. Pages 145-146 .
8. "Vaqt" newspaper, 1913, issue 1324.

XIX-ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O’LKASIDA MA’RIFATPARVARLIK HARAKATI

Irzayeva Marhabo Shaymamatovna
Samarqand Viloyat o'lkashunoslik muzeyi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston o’lkasida ma’rifatparvarlik harakati va uning o’lka madaniy hayotiga ta’siri haqida so’z boradi.

Kalit so‘zlari: Jadidchilik, yangi usul maktablari, gazeta,jurnal, Adibi avval, Adibi soni.

Turkiston o’lkasida ilk yangi usul maktablari paydo bo‘lganidan boshlab o‘lka ma’muriyati ularning faoliyatini kuzatib bordi, ularning tarmog‘i kengayishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildi. Ma’muriyat ijozatisiz ochilgan yangi usul maktablari ustidan nazoratni, xuddi an’anaviy maktab va madrasalar kabi, musulmon maktablari muboshiri olib borardi. 1885 yilda bu lavozimga birinchi bo‘lib V.P.Nalivkin tayinlangan edi. O‘lka mustamlakachi ma’muriyati yangi usul

maktablari ochilishiga butun choralar bilan to‘sqinlik qilganini quyidagi voqea tasdiqlaydi: 1901 yil sentyabrda general-gubernator nomiga Toshkent eski shahari Ko‘kcha dahasining o‘zbek aholisidan arznoma kelib tushdi. Aholi shahar boshlig‘i ularga yangi usul maktabini ochishga ruxsat bermaganini yozgan. Maktabni barcha sharoitlar muhayyo bo‘lgan xususiy xonadonda ochish mo‘ljallangandi. Biroq bu haqda Sirdaryo oblasti Harbiy gubernatorining fikri so‘ralganida u Toshkentning musulmonlar zich yashaydigan Ko‘kcha dahasida yangi usul maktabi ochilishiga qarshi chiqqan.[32]Shunga qaramay, A.Avloniy va M.Abdurashidxonov rahbarligidagi eski shahar jadidlari 1902 yilda maktabni ochishdi, keyin bunday maktablar Toshkentning Sebzor, Shayxontohur va boshqa dahalarida ham ochildi. O‘z asarlarini Shakuriy tahallusi ostida yozib mashhur bo‘lgan Abduqodir Abdushukurov Samarqandda yangi usul maktablarining qaror topishida va o‘lkadagi bunday maktablarni darslik va qo‘llanmalar bilan ta’minlashda tinimsiz izlanishlar olib borgan. U 1901 yilda o‘zi ochgan maktabda o‘g‘il va qiz bolalarni birgalikda, biroq alohida sinfxonalarda o‘qitishni birinchi bo‘lib joriy etdi. O‘sha davrda bu tub aholi orasida pedagogika amaliyotiga kiritilgan chinakam jasoratli yangilik edi. Tez orada qiz bolalar va o‘g‘il bolalarni birgalikda o‘qitish Toshkent va Andijondagi yangi usul maktablarida ham qo‘llanila boshlandi[33]. Shakuriy tomonidan «Jome’ ul-hikoyot», «Havoyiji diniya», «Rahnamoi savod» o‘quv qo‘llanmalari yozildi. 1914 yilda yangi usul maktablari o‘quvchilari uchun darslik chop etishda Shakuriyga S.Ayniy ham yordam berdi. Samarqandda, shuningdek, yangi usul pedagogi Ismatulla Rahmatullaev tomonidan yozilgan «Rahbari maktab» alifbesi, taniqli jadid Hoja Muinning «Rahnamoi savod» va boshqa pedagogik asarlari ham chop etildi[34]

Hoji Muin 1883-yil 19-martida Samarqand shahrining Ruxobod mavzeida tug‘ilgan. Eski maktabda savod chiqargan.[4] Madrasada Saidahmad Vasliydan ta’lim olgan. Rus tilini, Evropa madaniyatini mustaqil o‘zlashtirgan.[5] 1901-yildan o‘qituvchilik faoliyati boshlanadi. 1903-yili o‘z mahallasida „usuli jadid“ maktabi ochgan. Ushbu maktab uchun 1908-yili „Rahnomai savod“ nomli alifbo nashr ettirgan. 1913-yildan Behbudiyning „Samarqand“ gazetasida va „Oyna“ jurnalida ishlay boshlaydi. 1914-yili „Tarbiyat“ nomi bilan o‘z uyida xususiy „usuli jadid“ maktabi ochgan[6].

Turkistondagina emas, balki Buxoro, Xivada ham yangi usul maktablari ochish, ularni takomillashtirish hamda tarmog‘ini kengaytirish ishiga Mahmudxo‘ja

[32] ЎзР МДА., 47-жамғарма, 1-рўйхат, 2564-иш, 17-19-варақлар.
[33] ЎзР МДА., 47-жамғарма, 1-рўйхат, 1148-иш, 149-орқа-варақ.
[34] Ўша жойда, 1004-иш, 85-варақ.
[4] B. Qosimov. Hoji Muin qismati. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2002-yil 19-iyul.
[5] Sh. Rizaev. Jadid dramasi. T.: Sharq, 1997.
[6] B. Qosimov. Hoji Muin qismati. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2002-yil 19-iyul.

Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduvohid Burhonov, Mo‘min Aminov, Olimxonto‘ra va boshqa taniqli jadidlar bebaho hissa qo‘shishgandi. Abdulla Avloniy ikkita ajoyib darslik: «Adabiyot» va «Muallimi avval»ni yozdi, bu darsliklar 1912 yildan 1917 yilgacha har yili qayta nashr etilib turdi. M.Abdurashidxonov tomonidan yozilgan «Adibi avval», «Adibi soniy» darsliklari hamda diniy fanlar bo‘yicha qator qo‘llanmalar rus-tuzem maktablari o‘qituvchilari va o‘quvchilari tomonidan ham foydalanilgandi. XIX asrning 80-yillarida diniy o‘quv yurtlarini zamonaviylashtirish, musulmon mafkurasini undagi eski va zotan bo‘lmagan, tub aholi ijtimoiy faolligining, ijtimoiy ongining o‘sishiga halal beradigan narsalardan tozalash zarurligini tushungan ancha nufuzli va ko‘p sonli guruh vujudga keldi. Bu guruhning buyuk etakchisi, keyinchalik Turkiston jadidlarining milliy-vatanparvarlik harakatini shakllantirish tashabbuskorlaridan biri Samarqand muftiysi Mahmudxo‘ja Behbudiy edi. «Alifbo maktabi islomiya», «Majali jug‘rofiya umroniy», «Kitob ul-atfol», «Amaliyoti islomiya» singari ham yangi usul maktablar, ham barcha turdagi musulmon o‘quv yurtlari uchun yaroqli bo‘lgan darsliklar va xususan «Sadoi Turkiston» gazetasida, «Oyna» jurnalida chop etilgan ko‘plab pedagogik maqolalar uning qalamiga mansubdir. Bu nashrlarning hammasi Behbudiyning o‘z mablag‘iga chop etilgan, lekin maktab va madrasalarda qiymatidan 25 foiz chegirma bilan sotilgan[7].

Turkistonda, shuningdek Buxoro amirligi va Xiva xonligida yangi usul maktablari va an’anaviy musulmon o‘quv yurtlari tarmog‘i mavjud bo‘lishi va rivojlanishida o‘z davridayoq katta ahamiyat kasb etdi. 1909 yilda general-gubernator Mishchenko imperiya xalq ta’limi vaziriga «butunlay maxfiy» ma’ruzasida, xususan, bunday deb yozgandi: «...Turkiston o‘lkasi, xususan, uning uch tub oblasti – Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand oblastlarining tub aholisi savod chiqarishni yoyish ma’nosida, masalan, Rossiyaning Yevropa qismi aholisiga nisbatan o‘lchab bo‘lmas darajada yaxshi ahvolda. Ko‘psonli boshlang‘ich bilim yurtlari (maktablar) hamda o‘rta va oliy o‘quv yurtlari (madrasalar)ning zich tarmog‘i o‘lkaning keng hududini butunlay qoplab olgan»[35]. Shu bois, oblastlar va uezdlar harbiy-politsiya ma’muriyati tomonidan yangi usul maktablari va madrasalarini o‘zboshimchalik bilan yopib qo‘yishidan tashqari, Turkiston general-gubernatori Samsonov 1910 yilda «Turkiston o‘lkasi musulmon bilim yurtlari to‘g‘risida nizom»ni tasdiqladi. Nizomda, xususan, «faqat siyosiy va axloqiy jihatdan ishonchli rus fuqarolarigagina maktablar ochish va o‘qitishga ruxsat beriladi» deb belgilangandi.

Shunday og‘ir bir sharoitda ma’rifatchilik harakatini kengaytirishda, tub aholining badavlat qatlami, ayniqsa savdogarlar va sanoatchi doiralarining moddiy

7.ЎзР МДА., 47-жамғарма, 1-рўйхат, 3531-иш, 2-3-варақлар.

va tashkiliy madadi jiddiy rol o‘ynadi. Bularning bari, tub aholi ta’limini to‘xtatib qo‘yish bo‘yicha millatlarga qarshi amaliyotga zid o‘laroq, ularning milliy o‘zligini anglashi va ijtimoiy faolligi o‘sishi, jadidlarning, milliy manfaatlarning boshqa ifodachilarining izchil kurashi tufayli Turkistonda an’anaviy, yangi usul maktab va madrasalari soni ancha ko‘payishi uchun hizmat qiladi. 1917 yilga kelib o‘lkada rasman ish olib borayotgan yangi usul maktablari 100 dan ortiq edi, deb qayd qilish mumkin. Shuningdek, doimiy ravishda o‘sib borgan. Mustamlakachi ma’muriyat yangi usul maktablarini to‘la aniqlashga va nazorat qilishga erisha olmagan. Chunonchi, uezdlar va Toshkent shahar boshliqlarining ma’lumotlariga ko‘ra, 1910 yilda Qo‘qonda 7 ta, Andijonda – 10 dan ziyod, Toshkentda 17 yangi usul maktablari, shu jumladan, eski shaharda bitta, Samarqandda beshta[36] shunday xotin-qizlar maktablari ish olib borgan. Boshqa ma’lumotlarga qaraganda esa, o‘sha paytda Toshkentda 24 ta, Qo‘qonda – 14 ta, Andijonda – 19 ta yangi usul maktablari bo‘lgan.

Turkiston oblastlari bo‘yicha ma’lumotlar 1917 yil boshida mavjud bo‘lgan yangi usul maktablari tarmog‘ini nisbatan to‘la ko‘rsatadi. Chunonchi, Farg‘ona oblastida 55 dan ziyod (faqat Andijon va Qo‘qonning o‘zida 33 maktab), Samarqandda – 5, Sirdaryoda – 40, Yettisuvda – 18, Kaspiyortida – 4 ta shunday maktab bo‘lgan[10]. Boz ustiga, graf K.K.Palen taftish komissiyasi tomonidan ta’kidlanganidek: «siyosiy muloha-zalardan ko‘ra ko‘proq o‘sib kelayotgan avlodga hozirgi zamonning voqeiy talablariga ancha muvofiq keladigan ma’lumot berish istagida bo‘lgan tub aholi bu maktablarga o‘z farzandlarini bajonudil beradi...»[37].

Turkistonning ko‘p millatli tub aholisi, eng avvalo uning ziyolilari, o‘lkaning iqtisodiy, tabiiy va mehnat resurslarining ekspluatatsiya qilinishiga, ijtimoiy va milliy zulmga javoban o‘sib borayotgan milliy o‘zlikni anglash, mahalliy xalqlar turmush tarzini belgilovchi, asosiy milliy, umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish va boyitishga intilishni namoyish qildi, va, harbiy-siyosiy tazyiqqa zid o‘laroq, ma’rifatparvarlik, keyin esa siyosiy intilishlari bilan, shahar va ko‘plab qishloqlarda yangi usul maktablari ochish, madrasa va eski usul maktablarini zamonaviylashtirish, ko‘plab ajoyib ilmiy-tarixiy, falsafiy, tibbiy, pedagogik asarlar, diniy va dunyoviy fanlar bo‘yicha darsliklar, badiiy va folklor asarlari, milliy san’at namunalarini yaratish, mahalliy xalqlar tilida gazeta va jurnallar chop etish, bu xalqlarni mustamlakachilikka qarshi, ozodlik shiorlari ostida birlashtirish, nihoyat milliy demokratik hukumat – Turkiston (Qo‘qon) Muxtoriyatini tuzish kabi milliy-

8.ЎзР МДА, 49-жамғарма, 1-рўйхат, 619-иш, 1-3-вараљлар

10.Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенного по высочайшему велению сенатором гофмейстром графом К.К.Паленом. Т. VI. Учебное дело. – СПб., 1910. С. 151.

vatanparvarlik jadidlik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanishi buning eng muhim dalili bo‘ldi.

1. O‘zR MDA., 47-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 2564-ish, 17-19-varaqlar.
2. O‘zR MDA., 47-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1148-ish, 149-orqa-varaq.
3. «Samarqand» gazetasining 1913 yil iyul-sentabr sonlari.
4. B. Qosimov. Hoji Muin qismati. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2002-yil 19-iyul.
5. Sh. Rizaev. Jadid dramasi. T.: Sharq, 1997.
6. O‘zR MDA., 47-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3531-ish, 2-3-varaqlar.
7. Ardashirov A.F. K voprosu o roli novometodnых maktabov (po materialam Andijanskoy oblasti): 9.Uchenые zapiski Andijanskogo Gospedinstituta. Vып. VI. – Andijan, 1957, S. 14.
8. Jurn. «Nauka i prosvещenie». – Tashkent, 1922, №2. S. 31-33.; Bendrikov K.Ye. Ko‘rsatilgan asar. S. 260-261.
9. Otchet po revizii Turkestanskogo kraya, proizvedennogo po vысochayshemu veleniyu senatorom gofmeystrom grafom K.K.Palenom. T. VI. Uchebnoe delo. – SPb., 1910. S. 151.

MAHMUDXO’JA BEHBUDIYNING VASIYATNOMASI VA UNING YOSHLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

MAHMUDHOCA BEHBUDI'NIN VASIYETI VE GENÇLERIN MANEVIYATININ OLUŞUMUNDA ÖNEMI

ЗАВЕДЕНИЕ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

THE INSTITUTION OF MAHMUDKHODZHI BEHBUDI AND ITS IMPORTANCE IN THE FORMATION OF THE SPIRITUALITY OF YOUTH

Masharipova Gularam Kamilovna
Alfraganus university professori, falsafa fanlari doktori, e-mail: Masharipova.gularam2006@gmail.com, mobil tel: 90-930-95-82

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo’ja Behbudiyning vasiyatnomasi va uning yoshlar ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. XX asr boshlarida Turkistonning har tomonlama mustaqilligini orzu qilgan va bu yo’lda tinimsiz kurash olib borgan, Vatan ozodligi uchun jonini qurbon qilgan ilg’or ma’rifatparvar istiqlolchi Maxmudxo’ja Behbudiy (1875-1919) mustaqilligimizning chinakam fidoyisi, qo’rqmas kurashchisi bo’lgan.

Kalit so’zlar: vasiyatnoma, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, dunyoqarash, parlament, Turkiston, demokratik o’zgarishlar, milliy, mustaqil, davlat.

Dolzarbligi. Mahmudxo’ja Behbudiyning yoshlar ma’naviyatini shaklantirishga katta hissa qo’sha oladigan jihatlarini ko’plab keltirish mumkin.

Bugungi kunda ozodlik kuychisi, jadidlar maktabining asoschisi, teatr, sahna asarlari orqali kishilar dunyoqarishini o’zgartira oladigan ma’rifatparvar Mahmudxo’ja Behbudiy ilmiy faoliyatini o’rganish bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biridir.

XX asr boshida Turkiston o’lkasida milliy uyg’onish davri boshlandi. Bu jarayonning boshida jadid ziyolilari turdilar. Tarixiy zarurat va ma’naviy ehtiyoj taqozosi bilan yuzaga kelgan mazkur hodisa kechmishida jadid adabiyoti dasturilamal vazifasini o’tadi. Aynan shu davrdagi adabiyotda yangi bir ruh olib kelgan ijtimoiy she’riyat, milliy roman, hikoya va ilmiy-publisistik asarlar dunyoga keldi. Bu asarlarning hammasi millat ongini yuksaltirishga, zamonaviylashtirishga qaratildi. Illo, jadidlar oldida qiyin, sharafli, mas’uliyatli va zarur vazifa turar edi.Holizabun, ruhi so’niq millatning qadim madaniyati, iqtisodiyoti va maishiy turmush tarzini tiklash uchun avvalo uni ma’rifatli, ilmli qilish lozim edi. Zamonaviy ilmdan xabarsiz bo’lgan har qanday millat, har qanday jamiyat tanazzul jafosini tortishi tayinligi bois, jadid ziyolilari millatni bunday ofatlardan ogoh etmoqlikni o`lariga ham qarz, ham farz deb bildilar [1, 22-b.].

Yosh Behbudiy dunyoqarashining shakllanishida Rosssiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspirinskiyning ta’siri katta bo’lgan. 1893 yilda dastlabki yangi usul maktabini ochishga muvaffaq bo’ldi. 1899-1900 yillarda Behbudiy haj safariga boradi. Uning tashabbus va g’ayrati b-n 1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi, Rajabamin qishloqlarida yangi usul maktablari tashkil topdi. Adib bu maktablar uchun 1904-1909 yillarda “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug’rofiyai umroniy”, “Risolai jug’rofiyai Rusiy”, “Kitobat ul-atfol” “Amaliyoti islom”, “Muxtasar tarixi islom” kabi darslik va o’quv qo’llanmalari yozadi.

Behbudiy 1903-1904 yillarda Moskva va Peterburga boradi, 1906 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo’ladi. Xususan, u Nijniy Novgorodda 1906 yilning 23 avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag’ishlangan qurultoyda turkistonliklar guruhini boshqaradi va katta nutq so’zlaydi [2, 559-b.].

Behbudiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ma’rifatparvarlik g’oyalari asosiy o’rin tutadi. Behbudiy ilmu ma’rifat xalq ommasi tomonidan o’zlashtirib olingandagina ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi kuchga aylanadi, deb fikr yuritadi.

Mahmudxo’ja Behbudiy XX asr boshlarida o’z g’oyaviy maslakdosh do’stlari Munavvar Qori Abdurashidov, Ubaydulla Xo’jaev va boshqalar bilan birga jaholat va qoloqlik, diniy fanatizm va chor mustamlakachilik zulmiga qarshi o’lkaning iqtisodiy-siyosiy va madaniy taraqqiyoti uchun tinmay kurash olib bordi [3, 23-b.]. Turkistonda milliy mustaqil davlatchilik, davlat tili qonunlari, demokratik yo’l bilan o’tkaziladigan parlament saylovlari va bunda hamma millat va elatlarning teng huquqli erkin ishtiroki masalalarini shu qadar dadillik va insonparvarlik

pozisiyalaridan turib ko’targanki, beixtiyor Mahmudxo’ja Behbudiy bugungi mustaqillik kunlarimizni o’shandayoq bashorat qilganligi kishini hayratlantiradi. Bu jihatdan, ayniqsa, uning mazkur davrda yozgan “Ehtiyoji millat” (1909), “Jamiyati xayriya” (1913), “Markaziy sho’romizga”, “Ittifoq kerak”, “Bayoni haqiqat” (1917), “Qozoq qarindoshlarimizga ochiq xat” (1918 yil, yanvar) kabi maqolalari va 1918 yil avgustda Toshkentda o’tkazilgan “Turkistonda davlat lisoni” masalalari bo’yicha chaqirilgan kengashdagi nutqlari xarakterlidir. Masalan, u 1917 yil 12 iyunda Toshkentda chiqib turgan “Ulug’ Turkiston” gazetasi sahifalarida e’lon qilgan “Bayoni haqiqat” nomli maqolasida hali o’lkada Turkiston muxtoriyati g’alaba qilmasdan bir necha oy avval bu xususda fikr yuritib bashorat va zo’r orzu ila shunday deb yozgan edi: “Biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm va tahdid qilmasin va bizning ham boshqalarga tahdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo’q. Zotan, dinimiz-da bunga monedirki, Turkiston yahudiylarining 1300 sanalik holi bunga shohiddir. Biz istaymizki, butun Rusiya musulmonlari muxtoriyat (federasiya) usuli yuzasidan tiriklik qilsunlar. Rusiya musulmonlarining har bir sho’’basi muxit jug’rofiy va mamlakatlarini hududi tarbiyasi bo’yincha ayrim bo’laklarga bo’linib, o’z taraflaridan o’z hurriyat va odatlariga muvofiq idora qilinsa… Biz istaymizki, Turkiston hukumati ta’sis etsak, o’zimizning parlamentimiz bo’lsa, Turkiston musulmonlari o’z shariat va odatlariga, o’z zakon va dinlariga muvofiq tiriklik qilsunlar… bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo’lsun, …ul… milliy askarlarimizning vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va tarz mayishatini o’zimiz tayin qilurmiz. Mana, bizning oldimizda eng katta ishlar turibdir… Takror arz qilurmizki, yosh va kattalar bir bo’lib ishlamoq kerak. Vale, bizga na hurriyat va na-da muxtoriyat berilur”.

Lekin muvaqqat hukumat o’rniga kelgan bolsheviklar butun Rossiyada bo’lgani kabi Turkistondagi demokratik o’zgarishlar va milliy mustaqil davlat hokimiyatini (Turkiston muxtoriyatini) ham ag’darib tashladi. Mahmudxo’ja Behbudiy noroziliklarini xalqaro tashkilotlarga arz qilish maqsadida 1919 yil boshlarida safarga chiqadi. Martda Buxoro amirligi chegarasidan o’tayotganida qo’lga olinib, Qarshi shahrida Buxoro amiri jallodlari va bolshevik ayg’oqchilari tomonidan vahshiylarcha qurbon qilinadi. Uning bu dahshatli o’limi shogirdlari, maslakdosh do’stlari qalblarini larzaga soladi. Ular Behbudiyni o’ldirgan zolimlarga la’natlar yog’dirib she’rlar, maqolalar yozadilar. Jumladan, Sadriddin Ayniy o’zining “Behbudiy ruhiga itxof” (shabi xijron xavosig’a, 1920 yil aprel) marsiyasida bu haqda shunday deydi [3]:

“Sening ko’ksung cho’kulganmu,
Sening beling bukulganmu?
Sening qoning to’kilganmu?”

Mun(ng) hech kim so’rolmasmu?
Boshingni kesduran qotil, u badniyat, u sangin dil,
Xudodan gar esa g’ofil, xaloyiqdan uyalmasmu?
Vatan avlodi yod etdi, seni hurmat-la shod etdi.
Va lekin intiqomingni ololurmu, ololmasmu,
Jahonda zulmdur zohir, jahon xunxo’r, jahon jobir,
Jahondan bir zamon oxir sitamgarlik yo’qolmasmu?

Behbudiy nomi uning vafotidan keyin Turkiston (bugungi O’zbekiston) tarixiga o’chmas zarhal harflar bilan yozildi. U Turkistonning XX asr boshidagi birinchi ma’rifatparvari va dramaturgi, istiqlol kurashchisi sifatida faxr bilan tilga olina boshlandi. Jumladan, Behbudiyning kichik zamondoshi Laziz Azizzoda o’zining “Behbudiy” (1926) maqolasida uning Turkistonning chorizm davridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’rifiy taraqqiyoti tarixidagi o’rni va ahamiyatiga katta baho berib, o’lkamiz tarixidagi xizmatlarini fransuz ma’rifatparvarlari - Jan Jak Russo, rus demokratlari Chernishevskiy, Dobrolyubov, tatar va ozarbayjon ma’rifatparvarlari - Shahobiddin Marjoniy, Qayum Nosiriy, Mirza Fatali Oxundov, Najafbek Vazirovlar bilan birga qo’ydi. SHuning uchun O’zbekistonda Navoiy, Ulug’bek kabi buyuk zotlar bilan birga Behbudiyga ham haykal o’rnatish kerakligi taklifi bilan chiqdi.

Xalqimizning bu ulug’ farzandi nomi o’tgan asrning 20-yillari boshlaridayoq o’lkamizning bir qancha shahar va viloyatlarida ko’chalar, maktablar, teatrlarga qo’yila boshladi. U o’z zamondoshlari va keyingi avlodlarining Turkiston (O’zbekiston) mustaqilligi yo’lidagi kurashida hamisha ma’naviy madadkor bo’lib xizmat qildi va hamon xizmat qilib kelmoqda.

Behbudiy afandi 1919 yil 25 martda, yo’ldoshlari Mardonqul Shomahmud o’g’li va Mahammadqul O’rinboy o’g’illari bilan Samarqanddan Buxoro tuprog’iga o’tkan, shundan qaerga borg’anlig’i bilinmay, bu to’g’rida turli so’zlar so’ylang’an va gumonlar qiling’on edi. Oxiri, xalq orasida shayx bo’lg’on so’zlardan gumon g’olib ila anglashilg’an ediki, Behbudiy afandi mazkur ikki yo’ldoshlari ila zolim amir Olimxonning g’addor beklari qo’lida shahid bo’lg’onlar. Bultur (1921 yil) mart oyida Buxoro tuprog’idan kelgan o’rtoq Hojimurod Xudoyberdi o’g’li, Behbudiy hazratlari bilan yo’ldoshlari Muhammadqul va Mardonqul afandilarni Qarshi shahrida, Qarshining begi Tog’aybek qanday shahid etganligi haqida durust ma’lumot keturdi.

O’rtoq Hojimurod Buxoro inqilobi boshlang’an kunda, Samarqanddan hukumat tomonidan bir ma’muriyat ila Shahrisabz va Kitob taraflarig’a borib, andin bir ish ila Qarshi shahrig’a o’tqan va o’shal erlarda 6-7 oy xizmat qilib yurg’an, bu vaqtda xila ishlar qilg’an va ko’l voqealarni ko’rg’an. Hojimurod afandi Qarshi begida bir necha vaqt «mahramlik» xizmatida bo’lg’on farg’onalik 17 yashar

Sodiqjondan Behbudiy va aning yo’ldoshlari haqida ko’p ma’lumot olg’on: Behbudiy afandi va yo’ldoshlari, boshlab Shahrisabzda qo’lg’a tushib, taxminan, ikki oydan so’ng, Qarshi shahriga yuborilib, onda (zindonda) bir necha kun yotqondan keyin, mazkur Tog’aybek tomonidan shahid qiling’an.

Bek Behbudiy va yo’ldoshlarini huzurig’a chaqirib: «Sizlar na uchun qo’lg’a tushdingiz?», deb so’rag’an. Behbudiy afandilar: «Bizlar Baytulloni ziyorat qilmak uchun Samarqanddan chiqqan edik. Yo’lda amir ma’murlari: «Sizlar jadid, kofir va «tilchi», deb bizni qo’lg’a oldilar». Bundan bir necha kun .o’tgandan so’ng, Sodiqjon amirdan bekka qatl buyrug’i kelganligini afandi, o’zining hayotidan umidini uzib, yig’lay-yig’lay Behbudiy afandilarg’a bildirg’an, so’pgra Behbudiy tubandagi «Vasiyatnoma»ni «yozib, Sodiqjong’a topshirmoq uchun Ahmadg’a bergan va har qanday yo’l ila bo’lsa-da, shul vasiyatnomani Samarqandg’a yuborishni o’ting’an. Vasiyatnomaning ostida boshlab, Behbudiy afandining o’zi, so’ngra Mardonqul va Muhammadqul afandilar qo’l ko’yg’anlar.

Vasiyatnoma ushbudur [5, 12-b.]:

«Ey, Turkiston Maorif ishlarida bo’lg’on o’rtoq va o’g’lonlarim! Manni o’zim garchand bandi bo’lsam-da, sizlarni zimdan chiqarmayman va sizlarga bir oz vasiyat qilib o’taman. Men sevar o’rtoqlarim! Manim so’zlarimni quloqlaring’izg’a olingizlar! Biz ikki oydan beri Buxoro shaharlarida bandi bo’lib yurib, axir o’n kundan beri bir yerda (Qarshi shahrida) bu zolimlarning qo’lig’a tushib band bo’ldik. Jadid - kofirlik otini ko’tardik. Sipolar ichida tilchilik otini ko’tardik. Bu yerdan qutulmog’imiz gumon bo’ldi. O’rtoqlarim Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, Qori va Akobir Mahdum va o’g’lonlarim Vadud Maxdum, Abdulqodir Shakuriy! Sizlarg’a vasiyat qilaman: Maorif yo’lida ishlayturg’on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifg’a yordam etingiz! O’rtadan nifoqni ko’taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo’ymangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar! Hammaga ozodlik yo’lini ko’rsatingizlar! Bizdek maorif qurbonlarini yo’qlangizlar! Buxoro tuprog’iga tezlik ila yo’l boshlangizlar! Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Bizning qonimizni zolim beklardan talab qilingizlar! Maorifki Buxuro tuprog’iga joriy qilingizlar!

Bizning otimizg’a maktablar ochingizlar! Bizlar ul choqda qabrimizda tinch yoturmiz. Manim o’g’lonlarimg’a salom etkuringizlar! Bu hamrohlarning avlodlaridan xabardor bo’linglar! Ushbu vasiyatlarimni yozib Ahmadg’a berdim» [5, 13-b.].

Bu vasiyatnomadan 3-4 kun o’tar-o’tmas, bek Behbudiy afandi va yo’ldoshlarini ham Ahmadiy o’ldirurg’a quyurg’on va alar zindonning’ yonidag’i podshohlik bu chorboqqa yuborilg’anlar. Shunda alarning qatllari o’zlariga bildirilgan va o’zlari uchun shu bog’da to’rt qabr qazdirilg’an. So’ngra Behbudiy afandi va yo’ldoshlari tahorat olib, namoz o’qimoqchi bo’lg’onlar. Lekin shul

chog’da, rahmsiz jallod mahoviylari ila etishub kelib, alarni namoz o’qirg’a qo’ymagan va eng avval Behbudiy hazratlarini joynamoz ustida boshini kesgan. Bu holni ko’rib, Mardonquli, Maxammadquli va Ahmad afandilar tavhid va shahodat kalimalarini o’qib, o’limni kutib turg’onlar. Andan keyin jallod alarning boshini bir-bir kesgan, so’ngra bekning xizmatkorlari mazkur shahidlarning nishlarini chiqarib, o’zlari qazg’on qabrlarg’a ko’mganlar va qabrlari (bilinmasun deb) yer ila tegiz etganlar.

Bekning mahrami Sodiqjon, bu voqeani boshidan oxirigacha ko’rgan va bilgani uchun ham, Behbudiy afandilarg’a muxlis bo’lg’onidan shu voqeani bir daftarchada aynan yozib qo’yg’on va ondan o’rtoq Hojimurod ko’chirib olib, bu fojiani teatr shaklida tartib etub, «Maorif qurbonlari» deb qo’yg’on.

Uch pardadan iborat bo’lg’oi mazkur risolani biz ko’rdik. Risola kerak ibrat, kerak sahnaga qo’yish jihatdan xili nuqsonlidir. Agar bu risola teatr olamidan xabardor bo’lg’on biror kishining qalami ila tuzatilsa, birinchi teatru risolasi qatorig’a kirishi shubhasizdir.

O’rtoq Hojimurodning so’ziga ko’ra, mazkur Sodiqjon 1920 yil 21 dekabrda amir tomonidan Shahrisabz, Kitob va G’uzor taraflarida qo’zg’atilg’on aksil harakatchilik vaqtida, isyonchilar tarafidan Shahrisabzda o’ldirilg’an. Shuning ila Sodiqjon yozg’an voqea ila vasiyatnomaning asl nusxasida o’shal chog’da yo’qolib ketgan.

Mahmudxo’ja Behbudiy XX asr boshlarida o’z g’oyaviy maslakdosh do’stlari Munavvar Qori Abdurashidov, Ubaydulla Xo’jayev va boshqalar bilan birga jaholat va qoloqlik, diniy fanatizm va chor mustamlakachilik zulmiga qarshi o’lkaning iqtisodiy-siyosiy va madaniy taraqqiyoti uchun tinmay kurash olib bordi. Turkistonda milliy mustaqil davlatchilik, davlat tili qonunlari, demokratik yo’l bilan o’tkaziladigan parlament saylovlari va bunda hamma millat va elatlarning teng huquqli erkin ishtiroki masalalarini shu qadar dadillik va insonparvarlik pozisiyalaridan turib ko’targanki, beixtiyor Mahmudxo’ja Behbudiy bugungi kunlarimizni o’shandayoq bashorat qilganligi kishini hayratlantiradi. Bu jihatdan, ayniqsa, uning mazkur davrda yozgan “Ehtiyoji millat” (1909), “Jamiyati xayriya” (1913), “Markaziy sho’romizga”, “Ittifoq kerak”, “Bayoni haqiqat” (1917), “Qozoq qarindoshlarimizga ochiq xat” (1918 yil, yanvar) kabi maqolalari va 1918 yil avgustda Toshkentda o’tkazilgan “Turkistonda davlat lisoni” masalalari bo’yicha chaqirilgan kengashdagi nutqlari xarakterlidir. Masalan, u 1917 yil 12 iyunda Toshkentda chiqib turgan “Ulug’ Turkiston” gazetasi sahifalarida e’lon qilgan “Bayoni haqiqat” nomli maqolasida hali o’lkada Turkiston muxtoriyati g’alaba qilmasdan bir necha oy avval bu xususda fikr yuritib bashorat va zo’r orzu ila shunday deb yozgan edi: “Biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm va tahdid qilmasin va

bizning ham boshqalarga tahdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo’q. Zotan, dinimiz-da bunga monedirki, Turkiston yahudiylarining 1300 sanalik holi bunga shohiddir. Biz istaymizki, butun Rusiya musulmonlari muxtoriyat (federasiya) usuli yuzasidan tiriklik qilsunlar. Rusiya musulmonlarining har bir sho’basi muxit jug’rofiy va mamlakatlarini hududi tarbiyasi bo’yincha ayrim bo’laklarga bo’linib, o’z taraflaridan o’z hurriyat va odatlariga muvofiq idora qilinsa… Biz istaymizki, Turkiston hukumati ta’sis etsak, o’zimizning parlamentimiz bo’lsa. Turkiston musulmonlari o’z shariat va odatlariga, o’z makon va dinlariga muvofiq tiriklik qilsunlar… bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo’lsun, …ul… milliy askarlarimizning vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va tarz mayishatini o’zimiz tayin qilurmiz. Mana, bizning oldimizda eng katta ishlar turibdir… Takror arz qilurmizki, yosh va kattalar bir bo’lib ishlamoq kerak. Vale, bizga na hurriyat va na-da muxtoriyat berilur”.

Xulosa. Mahmudxo’ja Behbudiyning g’oyalari, jadidlar adabiyotining asoschisi ekanligi, yoshlarimizni ilmli, savodli qilish yo’lida o’z uyini ham maktab uchun ajratib, yoshlarga bilim berishga harakat qilganligi, sahna asarlari orqali yoshlarga ta’lim bilan bir qatorda tarbiyalash zarurligi, shuningdek, jurnalistika sohasidagi asarlarining o’zi yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi va ularning ma’naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Naim Karimov. Жadid adabiyotining namoyondasi. – T., Ma’naviyat, 2004, 22-bet.
2. Пясковский А.А. Революция 1905-1907 годов в Туркестане. – М., 1958, стр. 559.
3. Istiqlol qahramonlari. Mahmudxo’жa Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T., Ma’naviyat, 1997, 23-bet.
4. Sadriddin Ayniy. Behbudiy ruhiga itxof. 1920 yil.
5. Ножі Muin. Mufti Mahmudxo’жa hazratlarining qanday shahid bo’lg’onlig’i va uning tomonidan yozilgan vasiyatnoma. Nashrga tayyorlovchi Sherali Turdiev. Manba. Fitna san’ati, 1-kitob. 1922 yil 7 yanvar.

MAHMUDXO’JA BEHBUDIYNING BUYUK MA’NAVIY MEROSI

Mavlonova Dildora Azamovna
Samarqand davlat muzey-qo’riqxonasi Doimiy va ko’chma ko’rgazmalar bo’limi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqola XX asr boshlarida o’zbek milliy uyg’onish harakatining yorqin namoyondasi Mahmudxo’ja Behbudiy hayot yo’li va faoliyatiga bag’ishlangan.Unda

Behbudiyning jadidchilik harakatidagi o’rni, ta’lim sohasidagi islohotlari, adabiy va jurnalistik merosi, shuningdek siyosiy faoliyati haqida so’z yuritiladi. Maqola Behbudiyning murakkab hayoti va qayg’uli taqdirini yoritib, uning merosini qadrlashga undaydi.

Kalit so’zlar: Mahmudxo’ja Behbudiy,milliy uyg’onish,jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik, ta’lim islohotlari, Behbudiy merosi.

Аннотация: Данная статья посвящена жизни и деятельности Махмудходжи Бехбуди, яркому представителю узбекского natsionального возрожденческого движения начала XX века. В ней рассматривается место Бехбуди в движении джадидов, его реформы в области образования. обсуждаются также его литературное и публицистическое наследие, политическая деятельность. Статья проливает свет на сложную жизнь и печальную судьбу Бехбуди и призывает ценить его наследие.

Abstract: This article is devoted to the life and work of Mahmudhoja Behbudi, a prominent representative of the Uzbek national renaissance movement of the early 20th century. It examines the place of the Behbudi in the Jadid movement and its educational reforms. His literary and journalistic legacy and political activity are also discussed. The article sheds light on Behbudi's difficult life and sad fate and calls for appreciating his legacy.

Ключевые слова: Махмудходжа Бехбуди, национальное пробуждение, джадидистское движение, просвещение, образовательные реформы, наследие Бехбуди.

Keywords: Mahmudhoja Behbudi, national awakening, Jadidist movement, enlightenment, educational reforms, Behbudi's legacy.

Mahmudxo‘ja Behbudiy-o‘zbek xalqining milliy uyg‘onish davrida ma’rifat va taraqqiyot uchun kurashgan buyuk shaxsdir. Mahmudxo’ja Behbudiy XX asr bo’saga’sidagi Turkiston ijtimoiy –siyosiy harakatchiligining eng yirik namoyondasi, yangi davr o’zbek madaniyatining asoschisidir.U jadidchilik harakatining etakchilaridan biri bo‘lib, ta’lim islohotchisi, o’zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, jurnalist va siyosiy faol sifatida xalqning ravnaqi yo‘lida xizmat qilgan.

Behbudiy millatni ma’rifat bilan yuksaltirishga ishonib, yangi usuldagi maktablar ochishni boshladi. 1903-1904 yillarda Qozon va Ufaga borib u erdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo’lga qo’yadi.1903-yilda Samarqandda tashkil etilgan maktabi zamonaviy usullar asosida dars berish bo‘yicha dastlabki tajribalar edi. U darsliklar yaratib, bolalarni matematikadan tabiiy fanlargacha keng bilimlar bilan ta’minlashga intildi. Ma’rifatparvar olim 200 dan ziyod ilmiy publisistik maqolalar, 6ta darslik, “Sayohat xotiralari”, “Vasiyatnoma” va “Padarkush” nomli p’yesalar yozdi. Millat bolalarining savodxonligini oshirish maqsadida chet ellardan keltirilgan darslik va qo’llanmalarni o’z mablag’i hisobidan nashr qildiradi. Behbudiyning gayrati va tashabbusi bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi, Rajabamin qishloqlarida yangi maktablar ochadi va shu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. 1904-yilda “Risolai asbobi savod”, 1905-yilda “Risolai jo’g’rofiyai umroniy”, 1905-yilda “Risolai jo’g’rofiyai rusiy”,1908-yilda “Kitobat ul atfol”,1908-yilda “Amaliyoti islom”, “Tarixi Islom” kabi kitoblarni yaratdi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy,

ilmiy va amaliy jihatdan keng qo’llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo’qolganicha yo’q.

Behbudiy o‘zbek milliy adabiyoti va matbuotining rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan. Shuningdek, Behbudiy o‘z maqolalari orqali xalqni erkinlik, bilim va birlikka chorlab, gazeta va jurnallar tashkil etgan.Uning 1901-yildan boshlab “Turkiston viloyati gazetasi”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Tujjor”, “Osiyo”, “Hurriyat”, “Turon”, “Sadoi Turkiston ”, “Ulug’ Turkiston”, “Najot”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Tirik so’z”, “Tarjumon”, “Sho’ro”, “Vaqt”, “Toza hayot”, “Samarqand”, “Oyna” kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyparvar kishilar ayniqsa yoshlarning diqqat e’tiborini qozongan.

Xususan, “Oyna” jurnalida millat va uning haq-huquqiga, tarixiga,til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart deb hisobladi. Jurnalning birinchi sonidayoq “Ikki emas, to’rt til lozim” degan maqola bilan chiqib, o’zbek, tojik, arab, rus va hatto biror xorij tilini bilish shart deb hisobladi. Behbudiynnig hozirgacha aniqlangan maqolalarining soni 300 taga etdi.Ular xilma-xil mavzuda bo’lib, komunistik mafkurani keskin rad etgan.

Behbudiy jadidchilik harakatining nafaqat ma’rifatparvar, balki siyosiy etakchisi sifatida ham tanilgan. U milliy ozodlik, ayollar huquqlari va ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun kurashdi.Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishiga Mahmudxo’ja Behbudiy ham o’zining salmoqli hissasini qo’shib, xalqni yangi usul maktablarida o’qishni targ’ib etdi.

Behbudiyning qisqa, ammo mazmunli hayoti o‘zbek xalqining madaniy va ma’naviy rivojida muhim rol o‘ynadi. Shu qisqa umrining katta qismi tazyiq va tahdidlar ostida kechishiga qaramasdan, xayrli ishlarni amalga oshirishga ulgurdi. Kelajak avlod taqdiri haqida qayg’urdi. U noshir, teatrshunos, adib, mufti, siyosiy arbob sifatida faoliyat ko’rsatdi va barcha sohalarda o’chmas iz qoldirdi. Bugungi kunda uning nomi ta’lim muassasalari, madaniy markazlar va ko‘chalarga berilgan. Behbudiy asarlari xalqning ma’naviy-ma’rifiy boyligini shakllantirishda davom etmoqda.

Mahmudxo‘ja Behbudiy – ilm, ma’rifat va milliy uyg‘onish yo‘lida o‘z jonini fido qilgan ulug‘ shaxsdir. Uning g‘oyalari va ishlari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Bugungi kunda Mahmudxo’ja Behbudiy –millatni bilim va madaniyat bilan ravnaq topishga chorlagan, qahramonligi va fidoiyligi bilan tarixda o’chmas iz qoldirgan, o’zbek xalqining milliy uyg’onish davridagi ulkan shaxslaridan biri sifatida qadrlanadi. Behbudiyning qoldirgan ma’naviy merosi va ma’rifiy g’oyalari xalqning ma’naviy kamolotiga hamda bugungi kun yoshlariga ilhom manbai bo’lib xizmat qilishda davom etmoqda.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbek milliy ensiklopediyasi. 1-tom. 2000 y.
2. Qosimov B. Behbudiy va jadidchilik. O’zbekiston adbiyoti va san’ati jurnali.1990 y.
3. Aliyev A. Mahmudxo’ja Behbudiy. Toshkent.1994 y.
4. Naim Karimov. Mahmudxo’ja Behbudiy. Toshkent 2010 y.

MAHMUDXO’JA BEHBUDIY VA JADID MAKTABLARI

MAHMUDKHOJA BEHBUDİY VE CEDID OKULLARI
ШКОЛЫ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ И ДЖАДИДА
MAHMUDKHOJA BEHBUDIY AND JADID SCHOOLS

Sadiyeva Rohat Bahritdinovna
Navoiy davlat unversiteti tayanch doktoranti,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Email: rohatjamik8885@gmail.com, Tel: +998931360608

Annotatsiya: Turkiston jadidlarining rahnamosi sanalgan Mahmudxoja Behbudiy o’z davrining yirik ma’rifatparvarlaridan biri hisoblanadi. U o’z davrida o’lkada yangi usul maktablarining ochilishi va milliy matbuotimizning yuzaga kelishida muhim rol o’ynagan shaxsdir. Shuningdek xalqni ilm-ma’rifatli qilish orqali mustaqillikka erishish g’oyasini olg’a surgan va shu yo’lda dadil qadam tashlab millat yoshlarini chet mamlakatlarida ilm olishlari uchun sharoit yaratib berishga ulkan hissa qo’shgan shaxsdir. Ushbu maqolada Mahmudxo’ja Behbudiy tashabbusi bilan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar va ushbu maktablar uchun adib tomonidan yozilgan darsliklar va o’quv qo’llanmalar, ularning mazmuni, shuningdek maqolalarida ilgari surilgan o’lkadagi kamchiliklar ,g’oyalar va ularning echimi haqida yoritib o’tiladi.

Kalit so‘zlar: Jadidlar, yangi usul maktablari, ta’lim- tarbiya, matbuot, darsliklar va o’quv -qo’llanmalar, ma’rifat

Аннотация: Махмудходжа Бехбуди, считающийся лидером туркестанских джадидов, является одним из великих просветителей своего времени. Это человек, сыгравший важную роль в открытии новых методистских школ в стране и создании нашей национальной прессы. Он также является человеком, который продвигал идею достижения независимости путем просвещения народа и внес большой вклад в создание условий для обучения молодежи страны за рубежом. В данной статье рассматриваются школы нового метода, созданные по инициативе Махмудходжи Бехбуди, а также учебники и учебные пособия, написанные писателем для этих школ, их содержание, а также идеи, выдвинутые в его статьях и их решения, будет выделено.

Ключевые слова: Джадиды, школы нового метода, образование, пресса, учебники и пособия, просвещение

Annotation: Mahmudhoja Behbudi, considered the leader of Turkestan jadids, is one of the great enlighteners of his time. He is a person who played an important role in the opening of new Methodist schools in the country and the creation of our national press. He is also a person who promoted the idea of achieving independence by educating the people and made a great contribution to creating conditions for the youth of the nation to study abroad. In this article, the schools of the new method, established by the initiative of Mahmudhoja Behbudi, and the

textbooks and study guides written by the writer for these schools, their content, as well as the ideas put forward in his articles and their solutions, will be highlighted.

Keywords: Jadids, new method schools, education, press, textbooks and manuals, enlightenment

Biz o’z qismatimizni bilamiz…agar bizning hayotimiz huriyyat va xalqning bax-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo’lsa, biz o’limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz…. Mumkin qadar yaxshi maktablar ochish shuningdek maorif va xalq saodatini ta’minlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo’ladi.
(Mahmudxo’ja Behbudiyning qatl oldidan yozilgan vasiyyatnomasidan)

Turkiston jadidlarning ko’zga ko’ringan yirik vakillaridan biri shubhasiz Mahmudxo’ja Behbudiydir. U yashagan davr tariximizning o’ta murakkab, inqiroz, turg’unlik va diniy mutaasiblik avj olgan bir vaqtga to’g’ri keldi. Bunday imkoniyatdan foydalanib o’lkani zabt etgan Rassiya imperiyasi zo’r berib uni ruslashtirish va tutqun saqlashga urinar edi. Mana shunday bir sharoitda millatni butunlay mahv bo’lish va vatanni butkul vayron etilish xavfidan asrab qolish, avlodlarni erk, ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoiylar zimmasiga tushdi.[4.B.22].Turkiston jadidlari millatni qoloqlik va savodsizlik botqog’idan faqat ma’orifni rivojlantirib chiqish mumkinligini tushundilar va asosiy harakatni yangi usuldagi maktablar ochishga qaratdilar[2.B.19]. Jadidlar yangi usuldagi maktablarni har jihatdan isloh qilishga kirishdilar. Bu yo’lda ularga Turkistonlik ishbilarmonlar boylar hamda ilg’or ziyolilar ko’mak berdilar. Diniy va dunyoviy ilmlarni puxta egallagan Mahmudxo’ja Behbudiy dunyoqarashining keskin o’zgarishiga uning sharq va g’arb mamlakatlariga qilgan safarlari muhim ahamiyatga ega bo’ldi. U 1899-yilda o’zining do’sti Buxorolik hoji Baqo bilan safarga chiqdi.Istanbul va Misr kabi yirik shaharlarda bo’lib, undagi ba’zi eski va yangi maktablarni, ayniqsa Misrdagi “Jome’ ul-Azhar”ni ziyorat etadi.Qaytishda Misr va Istanbuldan turli gazeta va yangi kitoblar olib keladi [5.B.22].Ayniqsa Bayrut oliy o’quv yurtlari va dorilfununida farang, olmon va ingliz tillarining o’qitilishi, Yevropalik olimlarning u erda dars berishi, kimyo laboratoriyalarining borligi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e’tiqod qilgan bo’lib, ona Turkistonning taraqqiyotda naqadar ortda qolganligini nadomat bilan yozadi”. “Bu erda, Turkistondan tashqari, dunyoning barcha mamlakatlaridan yoshlar kelib o’qishadi” - deb nadomat chekadi [1.B.11].Behbudiy sayohat qilish bilan bir qatorda shu mamlakat va xalqlarning boy me’rosini ham o’rganadi.Ushbu safar uning dunyoqarashini butunlay o’zgartirib yubordi.Safar chog’ida ko’pgina ziyolilar bilan ko’rishdi, fikr almashdi u erdagi yangi islohotlarni o’z ko’zi bilan ko’rdi.Vatanga qaytgach Ismoil Gasprinskiyning Tarjimon gazetasini o’qiy

boshladi.Ushbu gazeta g’arb madaniy olamida yuz berayotgan voqealardan xabardor etar,turkiy xalqlarning ta’lim tarbiya tizimini isloh qilish, islomiy maktablar va madrasalarda dunyoviy fanlardan ham saboq berishni izchil targ’ib qilardiki u bilan tanishuv Turkistondagi barcha ziyolilar kabi Mahmudxo’ja Behbudiyning tafakkurida ham keskin o’zgarishlarni yuzaga keltirdi [4.B.29-30]. Uning asosiy maqsadi ona yurti Turkistonni ozod ko’rish edi buning uchun esa u birinchi navbatda o’lka yoshlarini ilm olishlari shart deb hisobladi va bir qancha takliflarni ilgari surdi.

Mahmudxo’ja Behbudiy eng avvalo

-o’lkada yangi usul maktablarini ochish;

-ushbu maktablarda dunyoviy fanlarning ustuvorligiga erishish;

-ularni zamonaviy darslik, o’quv qo’llanmalari va qurollari bilan ta’minlash;

-ota-onalarning to’y va ma’rakalarga sarflaydigan mablag’laridan bir qismini mahalliy maktabni bitirgan bolalarning xorijiy mamlakatlardagi dunyoviy va diniy o’quv yurtlariga yuborish;

-ularning turkiy, fors va arab tillaridan tashqari, rus va nemis yoki fransuz tillarini ham o’zlashtirishiga erishish;

-zamonaviy sudya, huquqshunos, injener kabi Turkiston uchun noyob bo’lgan ixtisosliklar bo’yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim deb hisobladi[7.B.33].

Behbudiy Turkistonning kelajagini uning yangi kadrlarida, mutaxassislarida va o’qimishli yoshlarida, deb bilardi. Shuning uchun ham u har bir yozgan maqolasida yangi taraqqiyotga javob beradigan kadr tarbiyalab etishtirish masalasini qo’yardi. Mahmudxo’ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozgan asarlari maktablarning islohida katta hodisa bo’ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo’llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo’qolganicha yo’q. Behbudiy Turkistonning kelajagini o’ylar ekan, millatimizning taraqqiyoti borasida turli yo’llarni qidirdi. Boylarga ham murojaat etdi: «Boshqa millatlarning boylari faqir va etimlar uchun maktab va dorilfununlar soldururlar, faqir va etimlarning o’qimog’i uchun voqf (stipendiyalar) tayin qilur. Butun Turkiston o’n boy elinda ming so’mdan bersa, 25 bola uchun Toshkentda (diniy va zamonaviy) bir pansiunli va nahorli mukammal maktab bino bo’lur, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyorlaydur». Agar shunday bo’lsaki, o’n yillar orasida bizda yaxshi-yaxshi o’qimishli muhandis, shifokor, huquqshunos, iqtisodchi kabi mutaxassislar etishib chiqardi, deb umid qiladi. U 1892 yilda Turkistondagi maktablarni isloh qilish, «usuli savtiya»ni joriy etish taklifi bilan general-gubernator N. O. Rozenbaxga murojaat etadi. Javob olmagach, 1893 yilda o’zi Toshkentga keldi. Samarqand, Buxoroda bo’ldi. Mahalliy xalq bilan gaplashib, dastlabki yangi usul maktablarni ochishga muvaffaq bo’ldi. 1899—1900 yillarda Behbudiy haj safariga boradi. Dunyo ko’rish izsiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi

qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbus va g’ayrati bilan 1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topdi. Shuningdek u Rajabamindagi Abdulqodir Shakuriy ochgan maktabni o’z hovlisiga ko’chirib, uni o’z otalig’iga oladi. Butun faoliyatini millatni ilm-ma’rifatli qilishga qaratgan adib usuli jadid maktablari tarmog’ini kengaytirish ular uchun o’quv dastur va darsliklar yaratish, o’quvchilarni o’quv qurollari bilan ta’minlash, kutubxonalar nashryotlar tashkil qilish ishlari bilan muttasil shug’ullandi.1904-1909 yilarda u o’zbek va tojik tillarida «Risolai asbobi savod» (Savod chiqarish kitobi), “Muntaxabi jug’rofiyayi umumiy”(Qisqacha umumiy geografiya), “Kitobat ul-atfol” (Bolalar maktublari), “Muxtasar tarixi islom” (Islomning qisqacha tarixi), “Madxali jug’rofiyayi umroniy” (Aholi geografiyasiga kirish), “Muxtasar jug’rofiyayi Rusiy” (Rassiyaning qisqacha geografiyasi) kabi darsliklar yaratdi. Mahmudxo’ja Behbudiy bu asarlarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid muhim masalalarni ko’tardi, o’qish va o’qitishni takomillashtirish uslublarini ko’rsatdi, diniy va dunyoviy bilimlarni o’zlashtirishning zarurligini ta’kidladi[6.B.31.].Turkiston jadidlari yangi usul maktablari uchun alifbo darsliklarini yaratishga alohida e’tibor qaratdilar.Adib Turkiston o’lkasidagi maktablar uchun birinchilardan bo’lib alifbo darsligini yaratdi va uni “Risolai asbobi savod” deb nomladi. Ushbu darslikni u Abduqodir Shakuriy maktabida tajribadan o’tkazdi.Alifboga ba’zi bir o’zgartirishlar kiritdi va 1905-yilda Samarqandda bosmadan chiqardi. Bu haqda Behbudiy asar muqaddimasida maktabdorlar, muallimlarga murojaat qilib, ushbu qo’llanma sinovdan o’tkazilganligi toliblarning qisqa muddatda o’qish va yozishni o’zlashtirishlari uchun mo’ljallanganligi haqida aytib o’tadi hamda ushbu alifbo darsligidan foydalanishlarini so’raydi. Ushbu alifbo jadid maktablari uchun bir necha bor nashr qilindi va ko’proq Buxoro, Samarqand maktablarida 1920-yillarga qadar qo’llanildi. Muallif asar oxirida yozuvga o’rgatish maqsadida husnixatdan namunalar beradi.Mahmudxo’ja Behbudiyning muhim darsliklaridan yana biri “Kitobat ul-atvol”dir (Bolalar maktublari). Darslik usuli jadid maktablari o’quvchilari uchun maxsus darslik sifatida yaratilgan bo’lib, birinchi nashri 1908- yilda, ikkinchi nashri 1914-yilda bosmadan chiqdi. Ushbu kitobda bolalarni turli mazmundagi rasmiy, norasmiy xususiy xatlar yozishga o’rgatish, yozma nutqini o’stirish masalalari atroflicha tahlil qilingan. Bolalarni turli mazmun va maqsadda yozilgan maktublaridan chiroyli namunalar berilgan. Darslik muqaddimasida Turkistonning “Usuli qadim” maktablarida o’quvchilar yozma nutqini o’stirish masalasi nihoyatda nochor ahvolda ekanligi, bolalarni insho yozishga o’rgatish uchun birorta qo’llanmaning yo’qligi mazkur asarni yozishga majbur qilganligini ta’kidlaydi. Ushbu darslik birinchidan, yoshlarni turli davlat idoralarida o’zbek tilida ish yuritishga o’rgatish vazifasini o’z oldiga qo’ygan bo’lsa, ikkinchidan,

muallimlarning e’tiborini o’quvchilarning yozma nutqini o’stirishdek nihoyatda muhim masalaga qaratadi. Mahmudxo’ja Behbudiy yozma nutq o’stirishday nihoyatda murakkab va mas’ulyatli masalaga jiddiy yondoshdi va darsligida o’quvchilar xat yoki maqola yozayotgan vaqtlarida nimalarga ahamiyat berish zarurligini ko’rsatib berdi. Bolalar ruhiyatini yaxshi bilgan Behbudiy yozma nutq o’stirishda o’quvchilar uchun nihoyatda qulay va ularni qiziqtira oladigan usul xat yozdirish usulidan foydalanadi.Chunki yosh bolalar ota-onalari yoki do’stlariga xat yozishga ancha qiziqadilar. Darslik muallifi xat yozish odobi, qoidalari, ramzlar xis-tuyg’u belgilari, tinish belgilari bo’yicha rahbarlik qilishda o’qituvchilarga qimmatli yo’riqlar beradi.Ushbu o’quv darsligi o’lka miqiyosida ta’lim-tarbiya muassassalari, eski va yangi maktablar uchun katta ahamiyat kasb etdi [6.B.35-40].Ma’rifatparvar geografiya fanini o’qitish masalasiga ham alohida e’tibor qaratdi.Uning ushbu fanga oid “Muntaxabi jug’rofiyayi umumiy”(Qisqacha umumiy geografiya) darsligi 1906-yilda Samarqandda G.I.Demurov matbaasida bosmadan chiqqan.Darslikning muhim jihati shundaki muallif darslikni yaratishda Turkiston aholisining geografiya va unga aloqador fanlar bo’yicha bilim saviyasini e’tibordan soqit qilmagan. Darslikdagi har bir bob, mavzu yoritilganda, Turkiston tabiati, xo’jaligi, aholisi va boshqa geografik jihatlaridan misollar keltiriladi.Bu bilan muallif darslikni Vatan o’lkashunosligi bilan bog’laydi. Bu esa o’z navbatida o’quvchilarda ona Vatanga muhabbat tuyg’ularini shakillantirishda muhim vosita hisoblanadi. Adib “….maktab -taraqqiyning boshlang’ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur”, deydi. Modomiki shunday ekan:” Turkiston musilmonlarig’a ibtidoiy maktablarni ko’paytirmoq lozimdur”, deydi[7.B.131-132]. Ammo Behbudiyni yana bir masala maktablar ta’lim beradigan o’qituvchilarga ehtiyoj masalasi ham qiynaydi. U hozirda Turkistonda muallimlarning ozligi, muallimlarga ehtiyoj borligi, agar muallimlar ko’p bo’lsa har yili o’lkada yuzlab maktablar ochish mumkinligi haqida yozadi va bu masalaning bir qancha echimini ham ko’rsatib o’tadi.Ilm-ma’rifat uchun birgina maktab kamlik qilardi zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo’lmoq kerak edi.Manashu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari etakladi[3.B.10]. U 1911-yilda o’zbek dramachiligining birinchi namunasi bo’lgan “Padarkush” ni yozdi. Ushbu dramada o’qimagan bolaning buzuq yo’llarga kirib o’z otasini o’ldirgani haqida hikoya qilinadi. Bu asar ilm-ma’rifatdan begona bo’lgan kishilarning fojiali hayotini aks ettitrganligi tufayli, barcha aholi qatlamlarining e’tiborini o’ziga jalb eta oldi. Muallif maqsadga erishdi, drama bir necha yillar davomida teatr sahnalarida ijro etildi.

Oktabr to’ntarishining dastlabki yillarida Behbudiy bir lahza ham maktab-ma’orif ishlaridan uzoqlashgan emas. Bu sahadagi ishlarni rivojlantirishga kuch-g’ayrat bilan kirishib, 1918-yilda yangi maktablar uchun xatto “Yangi kitob”

darsligini yozgan[8.B.32]. Mahmudxo’ja Behbudiy bolalarga diniy va dunyoviy ilm berish bilan birga, millat farzandlarini zamonaviy ilm olish uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi o’quv yurtlariga yuborish kerak, degan masalani o’rtaga tashladi. U bu borada fikr bildirar ekan avvalo ta’limda zamon talablaridan kelib chiqib ish ko’rish, millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni etishtirish va milliy biqiqlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy munosabatlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish zarur deb hisobladi.Behbudiy tomonidan yozilgan maqolalarning aksariyati Turkiston maktab-madrasalarining islohi, va bu borada qilinayotgan sa’y-harakatlar haqida edi. Adibning diqqatga sazovor ishlaridan yana biri o’zi tashkil etgan “Nashriyoti Behbudiya” va “Behbudiya kutubxona”si edi. Bu kutubxona 1908-1915 -yillar orasida faoliyat olib borgan. Kutubxona fondidagi noyob asarlar va qo’llanmalar ko’pchilik kitobxonlar ehtiyojini qondirdi. “Nashriyoti Behbudiya”ning sa’y -harakatlari bilan chop etilgan xarita va darsliklar maktab muallim va shogirtlar uchun ko’p yillar xizmat qildi[6.B.10].

Xulosa shuki Mahbudxo’ja Behbudiy o’zning qisqa hayoti davomida millat uchun zarur bo’lgan talaygina boy ma’naviy me’ros qoldirdi. Mustamlaka Turkistonni ilmsizlik jaholatidan qutqarish uchun eski maktabni isloh qilish zarurligini isbotlab, usuli jadidiyaga asos solib umrining oxiriga qadar millat yoshlariga ilm ulashishdan charchamadi. Uning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari u yashagan davr uchungina emas, balki hozirgi yoshlar tarbiyasida ham samarali xizmat qilmoqda. O’z davrining ilg’or kishisi sifatida ijtimoi-siyosiy, va madaniy hayotdagi muammo va kamchiliklarni ko’ra oldi o’z qarashlarini xalqqa etkazishga harakat qildi va uni bartaraf etish yo’llarini izladi. U qoldirgan boy me’ros nafaqat Turkiston uchun balki Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ularning dunyoqarashida bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.A.Alimova, D.A.Rashidova. Mahmudxo’ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri.Toshkent-1999. B.11;
2. D.T.Amriddinova. Samarqand jadidchilik maktabi. Toshkent -2017. B.19;
3. Mahmudxo’ja Behbudiy Tanlangan asarlar Toshkent “Ma’naviyat” 2006
4. J.Yaxshiliqov, N.Ubaydullayeva. Jadidchilik va Behbudiy Toshkent. O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “FAN” nashriyoti.2004 B.22
5. Xoji Muin Tanlangan asarlar. Toshkent “Manaviyat” 2005 B. 22;
6. Z.Abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo’ja Behbudiy Toshkent 2024. B.5-10;
7. M.Behbudiy me’rosining milliy g’oya targ’ibotidagi ahamiyati.Ilmiy maqolalar to’plami. Toshkent 2014. B.33;
8. Amridinova Dilrabo Tursunovna. Samarqand jadidchilik maktabi. B.32;
9. Hoji Muin, Mahmudxoja Behbudiy, “Zarafshon” gazetasi, 1923-yil, 25-mart

BEHBUDIYNING O‘ZBEK MADANIYATI VA MATBUOTIDAGI ROLI

Utanov Utkir Qurbonovich
Samarqand viloyat Pedagogik mahorat markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim taxnologiyalar” kafedrasi, dotsenti, p.f.f.d.(PhD),

Qosimova Ozoda Xudoynazarovna
O’zbekiston-Finlandiya pedagogika Instituti,
“Pedagogika” kafedrasi, dotsenti, p.f.f.d.(PhD).

Annotatsiya: XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda milliy uyg‘onish harakati kuchayib, xalqning madaniyati va tilini saqlashga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshdi. Ushbu davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek madaniyati va matbuotida muhim rol o‘ynadi. Maqolada Behbudiy, «Oyna» jurnalini tashkil qilib, o‘zbek tilining rivojlanishini, ta’limni yangilashni va zamonaviy fikrni targ‘ib qilganligi haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: Milliy uyg‘onish, o‘zbek madaniyati, matbuot, «Oyna» jurnali, ta’lim, ma’rifat, adabiyot, ijtimoiy islohotlar, ilm-fan, milliy qadriyatlar, zamonaviy fikr, ma’naviyat, tarixiy meros.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Osiyo va Sharq mamlakatlarida, jumladan O‘zbekistonda, milliy uyg‘onish harakatlari keskin avj oldi. Bu davrda o‘zbek xalqining madaniyati, tilini saqlash va o‘z o‘tmishiga nisbatan anglash kuchayib, milliy ozodlik g‘oyalari kuchga kirdi. Shuningdek, milliy uyg‘onishning asosiy timsollaridan biri sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zbek madaniyati va matbuotidagi roli alohida o‘rin tutadi. Behbudiy nafaqat o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga hissa qo‘shgan, balki matbuot va ta’lim sohalarida amalga oshirgan islohotlari bilan milliy g‘ururni shakllantirishda katta rol o‘ynadi.

Milliy uyg‘onish harakati Sharqda, xususan, O‘zbekistonda XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida o‘zining pirovard maqsadlarini amalga oshirishga intildi. Bu harakatning asosiy g‘oyalaridan biri xalqni o‘z tarixini, madaniyatini anglashga chaqirish edi. Shu davrda Sharq xalqlari o‘z milliy mustaqilliklarini saqlash hamda o‘z til va madaniyatlarini rivojlantirishni maqsad qilib qo‘ygan edilar. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati va uning madaniyatga bo‘lgan ta’siri bu jarayonda xalqning o‘zligini saqlashga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Bu harakatda faollik ko‘rsatgan yirik shaxslar, jumladan Mahmudxo‘ja Behbudiy, milliy uyg‘onishning maqsadlariga erishishda va xalqni o‘zgacha yondashuv bilan uyg‘ontirishda alohida rol o‘ynadilar.

Behbudiyning matbuotdagi roli va o‘zbek madaniyatidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega. Uning faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri, o‘zbek tilini rivojlantirish va uni matbuotda keng qo‘llash bo‘ldi. .»Oyna»jurnaliga – Behbudiy tomonidan asos solingan va uning muharrirligida faoliyat ko‘rsatgan. Oyna – o‘zbek tilidagi dastlab tashkil etilgan jurnal hisoblanadi Uning 1-soni 1913-yil 20-avgustda nashr etilgan. Jurnalning bosmaxona va bosh

ofisi Samarqandda joylashgan. Nashrning nomlanishi muqovada – arab, o‘zbek, fors va rus tillarida yozilgan: „Mir’ot“, „Ko‘zgu“, „Oyna“ va „Zerkalo“ shakllarida. Jurnal har hafta nashr qilinib, har bir soni 24 sahifadan iborat bo‘lgan. Jurnalni chiqarishda M. Behbudiyga samarqandlik iqtidorli qalamkashlar: Saidrizo Alizoda, Rojiy, Hoji Muinlar ko‘maklashganlar. Jurnalda chetdan maktab, madrasa muallimlari, elga tanilgan adiblar, ilm axllari hamkorlik qilganlar. M. Behbudiy noshirlik, muharrirlik vazifalarini ado etish bilan birga, jurnalning qariyb har bir sonida dolzarb mavzulardagi sermazmun, sara maqolalar bilan ko‘rinib turgan. „Oyna“ jurnalining asosiy diqqatni o‘lkadagi milliy ta’lim tizimini yangilashga yo‘naltirgan. Jurnal sahifalarida chop qilingan materiallarning aksariyati maorifga aloqador bo‘lib u jamoatchilik o‘rtasida ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni o‘rgatuvchi yangi „usuli jadid“ maktablarini tashviq qildi.

«Oyna» jurnalining maqsadi, asosan, ta’limni rivojlantirish, o‘zbek xalqining madaniyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarni tiklash va zamonaviy fikrni xalq orasida tarqatish edi.

«Oyna» jurnalining asosiy g‘oyalari va maqsadlari:

1.Ta’lim va ma’rifat: Behbudiy «Oyna» jurnalida ta’limning ahamiyatini yuksaltirib, uning xalqni ma’rifatlantirishdagi o‘rnini ko‘rsatdi. Jurnal orqali xalqni ilm-fan va ta’limga qiziqtirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash g‘oyalari ilgari surildi.

2.O‘zbek tilining rivojlanishi: Behbudiy «Oyna» jurnalida o‘zbek tilining saqlanishi va rivojlanishiga alohida e’tibor qaratdi. U tilni adabiyotda keng qo‘llashni va uning xalqqa etkazilishini muhim deb hisoblagan.

3.Ijtimoiy va madaniy islohotlar: Jurnal, shuningdek, o‘zbek xalqining ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarni, zamonaviy fikrlashni targ‘ib qildi. Behbudiy, milliy uyg‘onishning faoli sifatida, adabiyotda va madaniyatda yangiliklarni taqdim etishga harakat qildi.

4.Adabiyot va san’at: Behbudiy, o‘zbek adabiyotini rivojlantirish, yangi janrlar va shakllarni kiritish borasida ham katta ishlar olib bordi. Jurnalda adabiy tanqid va tahlillar, shuningdek, yangi adabiyot asarlari e’lon qilinardi.

«Oyna» jurnalining ta’siri o‘zbek matbuotida katta bo‘ldi. Jurnal faqat adabiyot sohasiga emas, balki ijtimoiy-siyosiy hayotga ham ta’sir ko‘rsatdi. Behbudiy «Oyna» orqali xalqni o‘z madaniyatiga nisbatan mas’uliyatli bo‘lishga undadi. Shuningdek, jurnal ilmiy, badiiy va madaniy sohalarda yangi g‘oyalar va tashabbuslarni ilgari surdi.

Behbudiyning «Oyna» jurnali, o‘zbek matbuotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi va bu nashr o‘zbek xalqining uyg‘onishiga, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga xizmat qildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, shuningdek, o‘zbek ta’lim tizimida ham islohotlar o‘tkazishga harakat qildi. U ta’limni barcha qatlamlar uchun ochiq qilishni, o‘zbek bolalarini zamonaviy ilm bilan tanishtirishni maqsad qilgan edi. Behbudiy “ma’rifat” (ta’lim va ma’rifat) g‘oyasini ilgari surdi va uning asarlarida xalqni ilmga, ilm-fanga bo‘lgan ehtiromni oshirishga chaqirdi.

Behbudiy nafaqat matbuot orqali, balki adabiyotida ham milliy uyg‘onishning g‘oyalarini ilgari surdi. U o‘z asarlarida o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishini, madaniy merosini saqlashni, uni rivojlantirishni taklif qildi. U o‘zbek tilini o‘zining adabiy faoliyatida keng qo‘lladi va tilning to‘g‘ri ishlatilishini targ‘ib qildi. Behbudiy, o‘zbek xalqini tarbiyalashda, ularni o‘z tarixini anglashga chaqirib, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Behbudiyning ijodi nafaqat o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga, balki o‘zbek xalqining ruhiyatini, ma’naviyatini shakllantirishga yordam berdi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek madaniyatini va matbuotini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. U «Oyna» jurnalini nashr etish orqali xalqni ta’lim va ilm-fanga qiziqtirish, o‘zbek tilining saqlanishini ta’minlashga katta e’tibor qaratdi. Behbudiy, shuningdek, milliy qadriyatlarni tiklash va zamonaviy fikrni xalq orasida tarqatishda muvaffaqiyat qozondi. Uning faoliyati o‘zbek adabiyotini va madaniyatini rivojlantirishga, xalqni o‘zligini anglashga yordam berdi. Bu jarayonda Behbudiy o‘zbek xalqining ma’naviy uyg‘onishiga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirza, A. (2002). Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning jurnali. Toshkent: Akadem nashr.
2. Rasulov, F. (2008). XIX asr oxiri - XX asr boshidagi o‘zbek matbuoti. Toshkent: Fan.
3. Alimov, R. (2017). *O‘zbek tilining rivojlanishi va Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘rni.* Samarqand: O‘qituvchi.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY HAYOTI VA FAOLIYATINI O‘RGANILISHI

Yaqubov G‘ulomjon Saloxiddinovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Tarix kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyatini, o‘z davri va hozirgi davr tadqiqotlarda yoritilishi, uning asarlari, u to’g’rida yozilgan maqolalar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: jadid, ilm, drama, teatr, g’oya, maorif, Turkiston, Mahmudxo’ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Hoji Mu’in, Vadud Mahmud, Laziz Azizzoda, “Mehnatkashlar tovushi”.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg’onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo‘lib, shu davrda o‘zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg’onishida muhim rol uynagan. U Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi hamda milliy matbuotning yuzaga kelishida faol ishtirok etibgina qolmay, birinchi o‘zbek dramasini yaratib, professional o‘zbek teatr sana’tining maydonga kelishiga zamin hozirlagan. U xalq va jamiyatni ma’rifatlashtirish orqali mustaqillikka erishish g’oyasini olg’a surgan va shu qutlug’ yo‘lda halok bo‘lgan ulug’ ajdodimizdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyatiga bo‘lgan qiziqish u haqida e’lon qilingan xabar va maqolalarga xronologiya talablari asosida yondashsak, dastavval Hoji Muinning “Qadrnoshunoslik”, Mehnatkashlar tovushi 1919 yil 23 aprel degan kichik maqolasini tilga olish lozim bo‘ladi. Ushbu maqolada 1919 yilning mart oylarida Mahmudxo‘ja Behbudiyning Mardanqul Shomuxammadzoda, Muhammadqul O‘rinboy o‘g’li va turk muallimi Na’im afandi bilan birga Moskvaga yoki boshqa biror joyga borish niyatida yo‘lga chiqqani Qarshi shahrida bek tomonidan hibsga olinib, zindonga tashlangani aytilgan.

Behbudiy va hamrohlarining keying taqdiri shu maqola mullifiga ma’lum bo‘lmaganidek, mazkur maqoladan keyin e’lon qilingan “Samarqandlik Temurxon afandi keldi” maqolasida (Mehnatkashlar tovushi, 1919 yil 20 noyabr) tilga olingan Temurxon afandiga ham qorong’u bo‘lgan. Bu maqolada aytilishicha, Istanbulda o‘qishda bo‘lgan Temurxon afandi vataniga qaytishda Bokuda Behbudiyning Buxora muzofotida qamoqqa olinganini eshitgan. Shu vaqtda Bokuda bo‘lgan taniqli ma’rifatparvar va tadbirkor Saidnosir Mirjalilov vosita topib, Buxoradan Behbudiyning keying taqdiri to‘g’risida ma’lumot olishga uringan, ammo biror natijaga erishmagan. Oradan qariyib bir yil o‘tgach, “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida 1920 yil 8 aprel noma’lum muallifning “Mufti Mahmudxo‘ja Behbudiyning tarjimai holi” sarlavhali maqolasi chop etiladi. Maqolada Behbudiyning hayot yo‘li, ma’rifatparvarlik faoliyati, avlodlari haqidagi ma’lumot, shuningdek, sirli safariga oid taxminlar bilan tanishamiz.

1922 yilning mart oyida Behbudiyning fojiali o‘limi haqidagi xabar etib kelishi bilan endilikda “Zarafshon” nomi bilan chiqa boshlagan Samarqand gazetasining 25 mart sonida A.Azamat, Ablusalom Azimiy, Vadud Mahmud, Mahmudxo‘ja Behbudiy Hoji Muinning Behbudiy haqidagi xotiralari e’lon qilinadi. “Turkiston” gazetasida 1922 yil 21 dekabr “Behbudiy muxlislariga ochiq xat”, Uchqun jurnalida Hoji Muinning “Mahmudxo‘ja Behbudiy” (1923 yil, 1-son) Hoji Muinning “Mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlarining qanday shahid bo‘lganligini va oning tomonidan yozilgan vasiyatnoma”, Maorif va o‘qituvchi jurnalida Laziz Azizzodaning “Behbudiy” (1926 yil, 2-son) maqolalari bosilib

chiqadi. Bu maqolalarda Behbudiyning fojiali o‘limi tafsilotlari bilan birga uning Turkiston xalqi oldidagi ulkan xizmatlari hurmat bilan yod etiladi.

1926 yilda Behbudiy vafotining 7 yilligi Turkiston, Turkiya va Germaniyada turkistonlik talabalar tomonidan keng nishonlanadi. Ammo shundan keyin Behbudiy nomi sekin-asta unutila boshlaydi. Behbudiy nomi bilan atala boshlagan Qarshi shahriga 1934 yildan boshlab yana o‘z nomi qaytarib beriladi. 1937 yilning bizga tanish voqealari vaqtida esa Behbudiy nomi ham millatchi va xalq dushmanlari qatorida qatag’on etiladi. Bolsheviklar partiyasining XX sezdida Stalin shaxsiga sig’intirishning foijiali oqibatlari yuzaga chiqqach, 30-50 yillarda siyosiy qatag’onga uchragan minglab begunoh kishilar oqlandilar.

O‘zbekistonda beginoh qatag’on etilgan A.Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon singari yozuvchilarning, shuningdek, M.Behbudiyning oqlanib, o‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixidagi qonuniy o‘rnining tiklnishi favqulodda daraja qiyin kechdi. Mudhish yillarda sho‘ro davlatining siyosiy idoraralariga halol xizmat qilgan kishilar o‘z jinoyatlarining fosh etilishidan qo‘rqib, bu siymolarning oqlanishiga tin tirnoqlari bilan qarshilik ko‘rsatdilar. Asosan qayta qurish va oshkarolik deb nomlangan davrda adabiyotshunos va tarixchi olimlar M.Behbudiy, Cho‘lpon, Fitrat singari xalq dushmanlari hayoti va ijodini o‘rganish imkoniyatiga erishdilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining zahmatli hayot yo‘li, sermahsul ijodi va fojiali taqdiri bilan ham har bir vatandoshimiz uchun ibrat maktabidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi o‘tgan asrning 20-yillaridayoq mahalliy matbuotda Sadriddin Ayniy, Hoji Mu’in, Vadud Mahmud, Laziz Azizzoda, kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e’lon qilingan edi. Shuningdek, Behbudiyning hayot yo‘li va ijodini o‘rganishda etnograf G.Andreev, Ahmad Zaki Validiy To‘g’onning “Esdaliklari” va turkiyalik tadqiqotchi Ibrohim Yorqinning ma’lumotlari muhim manbalar sirasiga kiradi. Sobiq sovet davlatida stalincha qatag’on siyosatining fosh etilishi bilan Behbudiy va jadid adabiyotini o‘rganishni birinchilardan bo‘lib filologiya fanlari nomzodi Solih Qosimov boshlab bergan edi. Mamlakatimiz istiqlolini qo‘lga kiritganidan so‘ng Behbudiy hayoti, ijodi va ma’rifiy faoliyatining eng muhim nuqtalarini fakt va dalillar asosida yoritib berildi. Bunda B.Qosimov, A.Aliyev, N.Karimov, S.Ahmedov, D.Alimova, Sh. Turdiyevlar, yosh tadqiqotchilardan H.Sayid, H.Avazov, S.Ahmad, N.Avazov, H.Boltaboyev, Z.Ahrorovalarning ilmiy izlanishlarini keltirib o‘tish mumkin. B.Qosimov tomonidan nashrga tayyorlangan Behbudiyning “Tanlangan” asarlari, D.A.Alimova va D.A.Rashidovaning “Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri” monografiyasi, N.Karimovning “Mahmudxo‘ja Behbudiy” kabi asarlari shular jumlasidandir. Begali Qosimov va Halim Saidov behbudiyshunoslikning fan tarmog’i sifatida shakllanishida karvonboshilik qildilar. Bu olimlarning izlanishlari tufayli Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida ko‘p risola va maqolalar vujudga keldi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini nishonlash to‘g’risidagi prezident qarori ayni vaqtida qabul qilingan hamda adibning faoliyatini yanada chuqurroq o‘rganish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. .Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyati bugungi kunda ko‘plab davlatlarda olimlar tomonidan o‘rganilmoqda, buyuk jadid namoyandasining xotirasiga hurmat ko‘rsatilib, asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinmoqda. Mutafakkirning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati va merosi alohida ahamiyatga molik. XX asr o‘zbek dramaturgiyasida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, millat ma’rifati, ozodligi, hurligi yo‘lida mardonavor kurashgan bu ulug‘ allomaning sermashaqqat va sermahsul faoliyati tarix sahifalaridan mangu o‘rin egalladi, avlodlar uchun ibrat maktabi bo‘lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Naim Karimov Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent 2010.
2. M.Behbudiy merosining milliy g’oya targ’ibotidagi ahamiyati ilmiy maqolalar to‘plami. Toshkent 2014.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy.Tanlangan asarlar. Toshkent. Ma’naviyat.1999.
4. D.A.Alimova D.A.Rashidova Mahmudxo‘ja Behbudiy uning tarixiy tafakkuri Toshkent 1999.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ ДАРСЛИКЛАРИ (АБУ РАЙҲОН БЕРУНИЙ НОМИДАГИ ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ ФОНДИ МИСОЛИДА)

Қўлдашев Шерали Темиралиевич
Тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Шарқшунослик институти етакчи илмий ходими

Аннотация: Ушбу мақолада, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланаётган Маҳмудхўжа Беҳбудий ёзган дарсликлари мазмуни ёритилган. Уларда алифбо, иншо ёзиш, ислом тарихи ва амалёти, география фанларига оид асарларнинг таҳлили берилган.

Калит сўзлар: Маҳмудхўжа Беҳбудий, дарслик, мактаб, алифбо, иншо, ислом, тарих, геозрафия.

Ўзбекистон заминида туғилиб, унинг тарихида унутилмас саҳифаларни муҳрлаган аждодларимиздан бири улуғ маърифатпарвар, такрорланмас салоҳият ва истеъдод соҳиби Маҳмудхўжа Беҳбудийдир. Унинг буюк ишлари ҳали ҳамон авлодлар ёдида бутунлай қолажак. Туркистон ёшларининг истиқболи унинг қайғуси эди. Шу боис, у биринчи навбатда ёшларнинг илм олиши, ҳунар ўрганиши, умуман олганда, етук комил инсон бўлиши учун

ҳаракат қилган. Жадид мактабларини очилиши унинг номи билан боғлиқ бўлса, ушбу мактабларга дарсликлар, ўқув қўлланмалар яратиш борасидаги ҳайрли ишларини биз тадқиқ қилишимиз зарурдир.

Маҳмудхўжа Беҳбудий 18 ёшидан қозихонада мирзалик қилади, қози, муфти даражасига кўтарилади. Беҳбудий Ҳаж сафарида бўлган чоғида Арабистон, Миср, Туркияни кезиб чиққан (1899-1900). Саёҳат давомида янги мактаб (усули жадид) очиш хусусида муттасил ўйлар эди. Самарқанд яқинидаги қишлоқларда Ажзий, Абдулқодир Шакурийлар билан ҳамкорликда янги мактаблар очади.

Беҳбудий Қозон ва Уфага бориб, у ердаги янги усул мактаблари билан танишади. Татар зиёлилари билан алоқани йўлга қўяди. Янги мактаблар учун дарсликлар тузишга киришади.

У Туркистонда янги усулдаги мактабларнинг илк тарғиботчи ва асосчиларидан бири, янгича дарсликлар яратган йирик ва жонкуяр маърифатпарвари хисобланади. Беҳбудий бир қатор дарсликлар ёзди. Ўзбекистон Миллий Энциклопедиясидаги «Беҳбудий» мақоласи муаллифи марҳум С. Қосимов адибнинг 6 та дарслигини қайд этади: «Мунтахаби жуғрофияи умумий» («Қисқача умумий география»), «Китобатул-атфол» («Болалар мактублари»), «Мухтасари тарихи ислом» («Исломнинг қисқача тарихи»), «Мадхали жуғрофияи умроний» («Аҳоли географиясига кириш»), «Мухтасар жуғрофияи Русий» («Русиянинг қисқача географияси»). Бироқ, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида ўнга яқин дарсликлари сақланади.

Булар “Сарҳил жуғрофийа умрони”[1], “Тарихи исломия” [2], “Амалиёти исломия” [3], “Рисолаи асбоби савод ёки алифбои мактаб” [4], “Рисолаи жуғрофияи умроний” [5], “Китоб ул-атфол” [6,7,8], “Китоб ул-мажмуаи иншо” [9], “Мадҳали жуғрофийа умрони” [10], “Мунтахаб жуғрофийа умумий” [11]. Шунингдек, Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “Падаркуш” драмасининг тошбосма нусхалари ҳам мавжуд[12].

Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг 1904 йилда ёзилган, мактаб ўқувчиларига араб алифбосини ўрганишлари учун “Рисолаи асбоби савод ёки алифбои мактаб” номли дарслиги хисобланади. Ушбу дарслик асосан ўқувчиларнинг савод чиқаришига мўлжалланган.

Болалар учун мўлжалланган яна бир асар Бу “Китоб ул-атфол” (“Болаларга мактублар”) бўлиб, фондда бу асарнинг тўртта нусхаси сақланади. Уларни учтаси ўзбек тилида, битта тожик тилидадир. Унда ўқувчиларга иншо ва хат ёзиш қоидаларини ўргатади. Жунда “Хат ёзмоқ шартлари” қисмида қуйидагилар келтирилган:

1. Котиб ва муаллимлар ушбу модда ва сўзларни ўқиб тушунсалар керак;

2. Котиб бир муддаони ёзмоқчи бўлганида ўшал муддаони ўзи яхши тушуниб, сўнгра ёзсун;

3. Ўзи билмайдурган луғатни мумкин қадар неча ёзмасун;

4. Ҳар тил ва луғат сўзини ўзи қоида ва имлосиға ёзмоқ лозим, арабий каломларни арабий ҳарфлар ила, форсий ва русий сўзларни ўзига тегишли товуш ила ўқимоқға мумкин бўлгудек ҳарф ила ёзмоқ керак. Чунончи, сирот азим, падари, жола, гўгўй, ичғаноқ, гадик, тонгла, Петербург, ново, нашрини, гурд каби;

5. Ҳар ким маъносиға тушунмайдурган калима ва бегона луғатни сўз ичига ёзмоқ лозим бўлганда ҳаракат – қўймоқ керак;

6. Хат бориб тегетургон одамни мулоҳаза қилиб они фаҳм ва билишиға мувофиқ ёзмоқ лозимдур. Бировни кўрки, (ўғри) ҳиммат ва шунга ўхшаш айб ва ёмон сифати бўлса они исмини ёзганда ўшал ёмон сифатларини ёзмоқ айб ва маънавийдур. Магар ёзилмай лозим бўлган суратда ёзилатурган сўзлар ичиға ҳар ким билмайдурган луғатни мумкин қадар нахса ёзмоқға ва авомга ва кўчаги иборат ва айб саналадургон калима ва лақабларни ёзмасунлар[6, 15-бет].

Шунингдек, ислом тарихи ва маданиятига оид икки дарслиги, яъни “Тарихи исломия” ва “Амалиёти исломия” номли ҳам ўзбек тилида ёзилган. “Тарихи исломия” асари 37 саҳифадан иборат бўлиб, ислом дини, пайғамбар Муҳаммад алайҳиссаломнинг ҳаёти ва фаолияти, арабларнинг маданияти, Ҳижоз, Арабистонда ўтган воқеалар, ҳалифалар ҳаёти ва фаолияти ва бошқал тарихий маълумотлар берилган. “Амалиёти исломия” асари худди “Ибодати исломия” асари каби ислом дини ҳукмлари савол-жавоб тарзда ёзилган.

Мактаб ўқувчиларига яна география фани учун дарсликлар ҳисобланган «Мунтахаби жуғрофияи умумий» («Қисқача умумий география»), «Мадхали жуғрофияи умроний» («Аҳоли географиясига кириш»), «Мухтасар жуғрофияи Русий» («Русиянинг қисқача географияси») кабилар ҳам қўлёзмалар фондида сақланади. Бу асарлар ҳам ўзбек, ҳам тожик тилида ёзилган. Жумладан, «Мунтахаби жуғрофияи умумий» асарининг тўла номи «Китоби мунтахаби жуғрофияи умумий ва намунаи жуғрофия». 1905 йил 24 августда Санкт-Петербург цензурасидан рухсат олиниб, 1906 йил Самарқандда Г.И.Демуров матбаасида чоп этилган. 106 саҳифадан ташкил топган. Муаллиф бу «қадим фан»га тааллуқли «туркий, арабий, форсий, русий луғатларга тасниф бўлган ўттуз қадар қадим ва жадид кутуб ва расоили жуғрофия, ҳайъати риёзий, тарихий, табиий»лардан ва яна жуда кўп турли-туман маълумот-манбалардан фойдаланиб ёзганини қайд қилади (11, 1-бет).

«Жуғрофия деган сўз юноний, луғати арабийға таърифи ард маъносиға, яъни ер ва туфроқни баён қилатурғон илмни айтилур»,- изоҳ беради муаллиф. Сўнг Беҳбудий унинг турларига тўхтайди.

Китобнинг дастлабки саҳифаларида жуғрофиянинг фан сифатида майдонга келиш тарихи, қадим Туркистон олимларининг бу соҳадаги хизматлари ёритилади, асарлари келтирилади. Муаллиф Шамсиддинбек Сомийнинг (1850-1904) 6 жилдлик машҳур «Қомусул-аълом» ва Исмоилбек Гаспринскийнинг «Туркистон уламоси» китобларидаги ҳужжат ва далилларга суяниб фикр юритган.

Бобларнинг бири: «Жуғрофияни ўқумоқ мусулмонларға ло-зимдур» деб аталган. Унда Ер ҳақидаги хурофий тушунчалар танқид қилинган. Чунончи: «Аммо ҳозирги жуғрофия илми, тажриба ва рўяти бошлариндан билинадурки, Ер курравий — юмалоқ, остиға ҳўкуз, балиғ йўқ, атрофиға девори йўқ ва Ер айланадур, ҳавоға муаллақ турадур. Бизни назаримизға сокин ва аммо ҳақиқатда айланадур» (11, 14-бет).

«Эски ва янги донишмандлар» фаслида қадим Батлимус (Птоломей)дан қолган геоцентризм ва унга қарама-қарши гелиоцентризм ҳақида гап кетади. Илми ҳайъатдаги «сабъайи сайёр», «тўққуз осмон» иборалари изоҳланади.

«Аҳли ҳайъати жадида, яъни янги ҳукамолар айтадурки, Офтоб дунёни ўртасиға халқ бўлубдурки, Аторуддан бошлаб қади-ма беш сайёра ва янги топилган икки сайёра ва кўз ила кўрилмай, янгидан дурбин ила топилган уч юзға яқин сайёралар ва буларни ичиға биз устида турғон Еримиз Офтобни атрофиға ҳар бири ўзиға тегишли доира — айланасиға айланиб юрадурлар. Еримиз Офтобға нисбатан учланчи сайёра — юргувчи юлдуздур! Юргувчи юлдузларни ҳаммаси бенур ва ёруғликни офтобдан оладур» (11, 22-бет) ўқиймиз китобда.

Муаллиф, шу тариқа, жуда содда қилиб осмон жисмларининг жойлашиш ва ҳаракатини тушунтириб беради. Буларнинг айримлари Қуръон ва Ҳадис хабарига рост келмаслигини ҳам айтади. Шунга қарамасдан, «Янги ҳукамолар осмондаги юлдузларни аҳволидин эскилардин кўра яхшироқ огоҳ бўлубтурлар»,- деб ёзади. Чунончи, Ой, Миррих (Марс) ҳақидаги замондошлари маълумотларини жамлаб ва уларнинг қадим ҳукамога насиб этмаган аниқ ва пухта замонавий асбоблар ёрдамида тўпланганини таъкидлаб, «…ҳукм қиладурларки, албатта, Миррихда одам бор ва илм бизлардан зиёдадур!» деган фикрни илгари суради. «Мартабаи инсониятға ноил ўлмакға, ҳар бир инсонни жамияти инсониятға ва дини илоҳияға эҳтиёжи бор, — ёзади муаллиф. — Ушбу сабабдандурки, инсонлар комил инсонларни қўл остиға жамияти башарияни барпо қиладурлар. Оллоҳ таоло анбиё воситаси ила қонуни шариат, хавфу қалбу ижо юборибдурки, анго дохил ва солик бўлмоқ

лозим ва вожибдур. Динсиз дунёда яшамоқ инсоният ва маданиятдан эмас, ҳайвонийликдур. Динсиз мутамаддун (маданиятли) бўлмоқ муҳол (қийин)дур. Жамияти башарияни барқарор турмоқиға дин, шаръ (шариат), низом ва буларни бошқарувчиларга биринчи сабабдур. Бас, жамият илм, инсоф ва ҳунар сабаблари ила уч хил бўлинадурки, ваҳшоният, бадавият, маданият аталган. Ва буларни(нг) ҳар бирини яна бир неча синфға тақсим қилмоқ одамларни аҳволиға қараб мумкин бўладур»[11, 25-бет].

Хуллас, Туркистон жадидлари асосчиси Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ўқув дарсликларини ўрганиш, таълим тизимининг ривожлантириш учун муҳим манбалар қаторида туради. Айниқса, алифбо, иншо, география, ислом тарихига оид бу дарсликлардаги маълумотлар ҳали етарлича тадқиқ қилинмаган. Шунингдек, бу маълумотларни Республика ва хориждаги қўлёзмалар фондидаги Маҳмудхўжа Беҳбудий асарлари билан қиёсий таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир. Беҳбудий бундан бир аср олдин миллат эҳтиёжи илммаориф эканлигини хитоб қилган эди. Буни қарангки, ушбу фикрлар ўз аҳамиятини заррача йўқотмаган. Қанча йиллар ўтса ҳамки, адибнинг пурҳикмат сўзлари авлоддан-авлодга маънавий мерос бўлиб қолаверади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Беҳбудий. М. Сарҳил жуғрофийа умрони. Самарқанд, 1906. ЎзР ФА ШИ, Ҳамид Сулаймонов фонди. № 1864 (тошбосма, ўзбекча).
2. Беҳбудий. М. Тарихи ислом. Туркистон мактаблари учун. Самарқанд., 1909. 37 саҳифа. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 7274. 37-саҳифа (тошбосма, ўзбекча).
3. Беҳбудий. М. Амалиёти ислом. Самарқанд., 1908. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 13866. 36-саҳифа (тошбосма, ўзбекча).
4. Беҳбудий. М. Рисолаи асбоби савод ёки алифбои мактаб. Самарқанд., 1906. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 5823, 9575. 40-саҳифа (тошбосма, форсий).
5. Беҳбудий. М. Рисолаи жуғрофияи умроний. Самарқанд., 1905. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 17628. 85-саҳифа (тошбосма, форсий).
6. Беҳбудий. М. Китоб ул-атфол. Самарқанд, 1908. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 3029, 7269, 14325. 36-саҳифа (тошбосма, ўзбек-форсий).
7. Беҳбудий. М. Китоб ул-атфол. Самарқанд, 1914. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 5693. 28-саҳифа (тошбосма, ўзбекча).
8. Беҳбудий. М. Китоб ул-атфол. Самарқанд, 1914. ЎзР ФА ШИ, Ҳамид Сулаймонов фонди. № 516 (тошбосма, ўзбекча).
9. Беҳбудий. М. Китоб ул-мажмуаи иншо. Самарқанд., 1924. Ҳамид Сулаймонов фонди. № 2929/3 (тошбосма, ўзбекча).

10. Беҳбудий. М. Мадҳали жуғрофийа умрони. Самарқанд, 1905. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 3255, 3256, 3257, 9432, 9433. 84-бет (тошбосма, форсий).
11. Беҳбудий. М. Мунтахаб жуғрофийа умумий. Самарқанд, 1906. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 7275. 107-саҳифа (тошбосма, ўзбекча).
12. Беҳбудий. М. Падаркуш. Самарқанд, 1913. ЎзР ФА ШИ, Асосий фонд, инв. 9438, 9439, 12653. 18-саҳифа (тошбосма, ўзбекча).

ISMOIL GASPIRALI VA MAHMUDXO’JA BEHBUDIY HAMDA BUXORODAGI JADID MAKTABLARI

Sherxon QORAYEV,
Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universitet dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola jadidchilik harakati asoschisi Ismoilbek Gaspiralining Turkistonga, xususan Buxoro amirligiga safari, xon bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvlari hamda hukmdorlar shoiri Amir Abdulahadxon saroyi adabiyoti va adabiy kechalari tarixiga bag‘ishlangan.
Hukmdor shoir Abdulahadxon atrofida shoirlar to‘planib, adabiy kechalar o‘tkazganlar. Bu esa xonlikda adabiyot va san’atni rivojlanishiga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: Saroy shoirlar, adabiy muhit, tazkiralar, sohibdevon shoir, mushoiralar.

Аннотация: Данная научная статья посвящена истории Исмаилбека Гаспиринского, основоположника джадидизма, его поездка в Туркестан, особенно в Бухарский эмират, его встречам с ханам, а также истории литературы и литературных вечеров поэта правителей Амира Абдулахад-хана.
Поэты собирались вокруг правящего поэта Абдулахад-хана и проводили литературные вечера. Это послужило развитию литературы и искусства в ханстве.

Ключевые слова: придворные поэты, литературная среда, тазкиры, сахибдеван поэт, мушаиры.

Abstract: This scientific article is devoted to the history of Ismailbek Gaspirinsky’s journey to Turkestan, particularly to the Bukhara Emirate, the meeting with the khan, and the history of the court literature and literary evenings of the poet of rulers Amir Abdulahad Khan.
Poets gathered around the ruling poet Abdulahad Khan and spent literary evenings. This served the development of literature and art in the khanate.

Key words: Court poets, literary environment, tazkiras, sahibdevan poet, mushaira.

XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda vujudga kelib, jadidchilik nomini olgan ma’rifatparvarlik harakati bevosita Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bog‘liq. Matbuot, adabiyot va teatr, yangi usuldagi jadid maktablarining Turkistonda ochilishi va rivojlanishida Ismoilbek Gaspiralining xizmatlari katta. Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy yozganidek, *“Musulmonlarni dunyodan xabardor qilmoq uchun butun Rusiyada, Turkiya, Misr, Tunis, Jazoirda, Hind va Afriqoda, Turkiston va Buxoroda daf’alar ila sayohat etib, har erda musulmonlarni madaniyati zamoniyag‘a, ulum va fununi asriyag‘a, sanoat va tijorati qarinag‘a va rus madaniyatig‘a da’vat va tashviq etgandurlar. Usuli*

savtiya maktablarini Rusiyada boniyi muassisi Ismoilbek hazratlaridur. Birinchi yangi usul alifboni murattib va noshiri yana Ismoilbek hazratlaridur”. Mahmudxo‘ja Behbudiy Ismoilbek Gaspiralini g‘oyatda hurmat qilgan va u bilan uchrashgan va uning ma’rifatchilik ta’limotini o‘z o‘lkasida targ‘ib etgan. Qrim – tatar allomasi Ismoil Gaspirali va u bosh muharrir bo‘lgan “Tarjumon” gazetasi Behbudiyni buyuk ma’rifatparvar va Turkiston milliy jadidchilik harakatining otasi darajasiga ko‘tardi. Behbudiy Istanbulning Gulxona bog‘ida ustozi bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo‘lgan va bu haqda uning o‘zi “Oyina” jurnali (1914 yilning 49-sonidagi nashri)da shunday yozgan: *“Istanbulning “Gulxona parki”ning soyador yo‘lakinda yurar eduk. Oldimizda, tatarcha barra qorako‘li telpaklik bir tatar ila faslik bir turk ohistalik ila ketarlar edi... Ko‘nglumg‘a keldiki, bu tatar Ismoilbekg‘a o‘xshaydur... Hanuz o‘n qadam ketmab, eduk, “Oy, Xoja”, deb orqamdan oshno bir sado eshittim. Qalbim urub mazkur zotni Ismoilbek hazratlari ekanligig‘a shubham qolmadi. Qaytib musofaha etduk...Muloqot asnosinda derdilar: “Na uchun bu qadar tez qo‘chalanmoq?”, ya’ni na uchun buncha tez mo‘ysafid bo‘lmoq. Man ham bilaixtiyor: “Afandim na uchun bu qadar oriqlamoq?” Ustoz hazratlari buyurdilar: “Nachora, hep(grip)imiz bo‘yla”. Ertag‘a Shom va Misrg‘a azimat etishimni arz etdim. Unday bo‘lsa, suhbat etayluk, dedilar. Tashakkur aytdim”.* Ma’lumotlarga qaraganda, Ismoilbek Gaspirali muloqot davomida Turkiston va Buxorodagi jadid maktablari, maorif, ma’rifat, noshirlik ishlari bilan qiziqqan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina” jurnalida yozilishicha, “*Hujrada manga Rusiyadan, Turkistondan, umum olami islomdan, dunyodan so‘ylaydurlar. Musulmonlarni kundan kun taraqqiy etishini so‘ylab xursand bo‘lurlar. Yana derlarki:“Mahmudxo‘ja, endi siz so‘ylang, boqalim”. Samarqand, Buxoro, Toshkand, Xiva, Farg‘ona xulosa har biridan so‘ylayman. “Allohga shukr, hukumat maktablarina-da turkistonli qardoshlar bola bermoqg‘a boshlamishlar. Bukun 2 jarida va bir majallangiz vor. Maktablaringiz-da bir oz taraqqiyda, albatta mustaid taraqqiy. Siz hukumat maktablarina-da ziyodaroq bola beringiz, rus madaniyatidan qochmangiz... Oh bilmam shu Buxoro na o‘lur?” derlar.*

Man derman: “Afandim, Buxoroni hukumatimiz, ya’ni Rusiya tarbiyat etmaguncha, Buxorodan bir shay umid bo‘lmas”...

Ustod hazratlarini Istanbulda ko‘rmoq va suhbat etmoq hech xayolimg‘a o‘tmagan edi. Allohning lutfi ila ustod hazratlarining tanhoyi 7 soat suhbatlaridan u qadar fayz topib mamnun qoldimki, aytgan ila ado etolmayman”. Binobarin, Behbudiy dunyoqarashida Ismoil Gaspirali suhbatlarining ta’siri ham katta bo‘lgan.

Ismoilbek Gaspirali Buxoro amiri Abdulahadxon huzurida ham bir necha marta bo‘lib, 1893 yilda hukmdor bilan davlat taraqqiyotida “usuli jadid” maktablarining ahamiyati haqida suhbatlashgan. Gaspiralining “Turkiston

sayohatlari” asarida yozilishicha, *“Bu safargi suhbatimizda hazrat davlatli Abdulahadxon Rusiyaga qilgan sayohatlarim borasida so‘z ochdilar, ko‘rgan va eshitganlarimdan so‘ylarkanman, ko‘p xursand va mamnun bo‘lganlarini lutfan bayon ayladilar. Xususan, o‘zlarining Peterburgda o‘tkazgan kunlari hech yoddan chiqmasligini, hayojonli tuyg‘ularga to‘la ekanligini ifoda etdilar”.* Uchrashuv davomida Buxoro amiri jadidlar rahnamosini III darajali “Oltin yulduz ordeni” bilan taqdirlagan. O‘z navbatida, Buxoro hukmdori ham Qrimga borib, Ismoilbek Gaspirali bilan ko‘rishgan. Bu haqda “Turkiston sayohatlari”da shunday yoziladi: *“Shu yilning fevral oyida nuroniy amir Abdulahad hazratlarining Bog‘chasaroyga tashrif buyurib, men ojizlarga lutf ko‘rsatganlari iltifoti shohonalari necha yillardan beri ko‘ngulda kuyub-kullanib turgan otashni ochiq olovlantirib yubordi va bir oz tadorikdan so‘ngra, 10 mayda Bog‘chasaroydan chiqib, Turkistonga yo‘l tutdim”.* Ismoilbek 1908 yilda Turkiston o‘lkasi va Buxoro amirligiga ikkinchi marta keladi. Safar tafsiloti “Buxoroda na ko‘rdim?” sarlavha ostida “Tarjimon” gazetasida bosilgan. Adabiyotshunos Begali Qosimovga ko‘ra, *“Buxorodagi no‘g‘oylar Ismoilbekni mehmonga chaqirib, “Jamiyati xayriyalari”ga faxriy a’zo qiladilar. Yangi ochilgan bir maktabni uning sharafiga “Ismoiliya” deb atamoqchi ekanliklarini aytadilar. Ismoilbek unamaydi. Amir Abdulahadxonning marhum padari hurmatiga “Muzaffariya” deb nomlashni maslahat beradi”.* Binobarin, Zaynobiddin Abdirashidov iborasi bilan aytganda, “bu bilan u Buxoro amiri Abdulahadxonning yana bir bor maktablar islohoti muammosiga nazarini qaratmoqchi bo‘lgan. Lekin bu ham amirga ta’sir ko‘rsata olmagan.

Lekin, mutaassib ulamolari jadid maktablariga qarshilik bildirganlar. Natijada maktab yopilgan. No‘g‘oy maktabidan 40 buxorolik bola chiqarib olingan. Gaspiralining “Tarjimon” gazetasi esa bu voqealarni batafsil yoritgan. Maktab yopilishi bilan Buxoro jadidchilari mag‘lub bo‘lgan. Hukumat odamlardan yangi usul maktablarida bola o‘qitmaslik haqida tilxat olgan. Buxoroda jadid nomi dinsizlik bilan bog‘langan. Shunga qaramay, Buxoro jadidlari ishlarida davom etganlar. Bir necha yildan so‘ng Abdubaxil Burhonov, Usmon Xo‘jaev, Mukomil Burhonovlar tomonidan yana yangi usul jadid maktablari ochilgan [9; 105]”.

Jadidlar rahnamosi Ismoilbek Gaspirali Buxoro amiri Abdulahadxon ijodi bilan ham yaxshi tanish bo‘lgan. Buxoro amiri bilan soatlab suhbatlashgan va uni jadid maktablarini qo‘llab – quvvatlashga da’vat etgan. Ismoilbek amirning Karmana va Shahrisabz saroylaridagi adabiy majlislari va bazmlarida ishtirok etib, hukmdorlar shoiri she’rlarini mutolaa qilgan.

Amir Sayyid Abdulahad fiqh, mantiq, falsafa ilmlarini o‘z zamonining etuk ustozlaridan o‘rganib, adabiyot sohasida ham chuqur bilimga ega bo‘lgan. Uning saroyi fozillar, shoirlar, yozuvchilar bilan doim to‘la edi [4; 68]”. Muhammad Ali Baljuvoniy “Tarixi nofeiy” asarida hukmdor shoirni *“sultoni zamon, shoiri ofoq va*

davron, bulbuli bo‘ston [2; 44]*”* deb atagan. Amir Abdulahadxon juda o‘qimishli va ziyoli kishi bo‘lgan. O‘zbek tilidan tashqari, fors va rus tilini tilini mukammal bilgan. Farang tilida ham gapira olgan. Arab tilida Qur’onni yaxshi o‘qigan. Amir Abdulahadxonning madaniyatli, ma’rifatli va odil amir bo‘lganligi Sadriddin Ayniyning “Esdaliklar” kitobida va Afzal Pirmastiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarlarida ham yoritilgan [2;110]. “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”da yozilishicha, “*Buxoro adabiy muhitida an’anaviy ikki tillilik bu davrda ham davom etdi. Amir Abdulahadxon (1859-1910) siyosiy hayotninggina emas, adabiy hayotning ham eng e’tiborli vakili edi. Ayniqsa bu uning amirlik davri (1885-1910)da yaqqol namoyon bo‘ldi... Sohibdevon hukmdor shoirning adabiyotga yaqinligi shu darajada ediki, ayrim tuman hokimlari, masalan, Hisor hokimi Avliyoqulibek “Husayniy” taxallusi bilan devon tartib qilgan edi. Boshqa hokimlar ham amirga yaxshi ko‘rinish uchun ham she’rlar yozishgan* [5;14]*”*.

Abdulahadxon ham “Ojiz” taxallusi bilan forscha-tojikcha hamda o‘zbekcha she’rlar bitgan bo‘lib, o‘z she’rlarini she’riy majlislarda o‘qigan.

Qil muruvvat holima ey xo‘blarning sarvari,
Toki bo‘lg‘ay mehnatu anduh hijrondin nari,
Ojizi bechorag‘a ko‘rsat yuzingning axtari,
Chehra ko‘rsat qilma istig‘no Amirg‘a ey pari,
Ko‘rmasa bir dam qachon sabru qarori bor ekan.

Abdulahadxon Qo‘qon xoni Umarxon Amiriyning qator g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan [1;460].

Amir Abdulahadxon hayoti davomida doim ziyoli, ilm – fan namoyandalarini atrofiga to‘plagan. Adabiyot va san’at ixlosmandlaridan moddiy va ma’naviy ko‘magini darig‘ tutmagan. Buxoro shahrida eng boy shaxsiy kutubxona amirning qozikaloni Sharifjon Maxdum kutubxonasi hisoblangan. Yana biri Abdulahadning ukasi Siddiqxon to‘ra (taxallusi Hashmat)ga qarashli bo‘lgan. Hashmat Karmanada yashagan va shaxsan Amirning topshirig‘i hamda uning tarafidan ajratilgan mablag‘larga qimmatbaho qo‘lyozma kitoblar yiqqan. Shuhrat Xalilovning yozishicha, Afzal Pirmastiy, Mullo Sharif Anbar, Mirza Shamsiddin Doyi, Muhammad Aminxo‘ja Eshon kabi ko‘plab shoirlar amir homiyligida ijod qilgan.

Amir ham Ismoilbek Gaspirali kabi sayohat qilishni xush ko‘rgan. Buxoro hukmdori “Abdulahadxonning Rossiyaga navbatdagi safari 1892 yil dekabrida boshlangan bo‘lib, bunda u o‘g‘li Mir Sayyid Olimxonni Peterburgdagi harbiy oliy maktabga o‘qishga joylashtirish maqsadida borgan va o‘zining 1892 yil dekabr – 1893 yil fevral oylari davomidagi safari tafsilotlarini kundalik tarzida yozib borgan. Ushbu kundalik Ismoilbek Gaspirali tomonidan 1894 yilda Qozonda “Buxoro amiri hazratlarining kundaligi” sarlavhasi ostida nashr qilingan.

Muxtasar aytganda, ham Buxoro jadidlari hayotida, ham amir Abdulahadxon ijodida buyuk ma’rifatparvar Ismoil Gaspiralining yaqqol ta’sirini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida Buxoro amirligida o‘zbek milliy uyg‘onish ma’rifatparvarlik harakati – jadidchilikni kurtak yozishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qayyumov P. Tazkirai Qayyumiy. T.: Qo‘lyozmalar instituti, 1999.-B.460-463.
2.Muhammad Ali Baljuvoniy. Tarixi nofeiy. T.: Akademiya, 2001.-B.44.
3.https://m.facebook.com/726997644080431/photos/a.729005473879648/1532782686835252/?type=3
4.Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro – Turkiston beshigi. Buxoro, 2004.-B.68.
5.Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T.: Ma’naviyat, 2004.-B.14-15.
6.https://www.bukhara.uz/?p=12632
7. https://ziyouz.uz/jahon-nasri/ismoilbek-gasprinskiy/ismoilbek-asprali-turkiston-sajo-atlari/
8.Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние.Т.: «Академнашр», 2011.-Б.384.
9.Abdirashidov Z. Ismoil Gasprinskiy va Turkistonda jadidchilik. T.: Markaziy Osiyoni tadqiq etish fransuz instituti, 2008.-B.107.
10.Ismoilbek Gasprinskiy. Hayot va mamot masalasi.Tanlangan asarlar. T.:Ma’naviyat, 2006.-B.320.
11.Полное собрание сочинений Исмаила Гаспринского. Том первый. Литературно – художественый произведения. Симферополь, Институт истории им Ш. Марджани Академии наук Республики Татарстан, 2016.-С.384.
12. Гаспринский И. Полное собрание сочинений. Том II. Ранная публицистика 1879 – 1886 гг. Казань Симферополь, Институт истории им Ш. Марджани Академии наук Республики Татарстан, 2017.-С.397.
13. Гаспринский И. Полное собрание сочинений. Том третий. Публицистика 1887-1890 гг. Казань-Симферополь, 2019.-С.576.
14. Дневника его свътлости Эмира Бухарскаго. Точный переводъ. Представляетъ И.Гаспринский изъ Бахчисарая. Казанъ. Типо-Литография Императорскаго Университета, 1894.-С.86.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙНИНГ ТУРКИСТОНДАГИ ЖАДИДЛИК ҲАРАКАТИДА ТУТГАН ЎРНИ

Жонибек ЖУМАЕВ
Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази илмий ходими

Маҳмудхўжа Беҳбудий XX аср бошларида Туркистонда рўй берган ижтимоий-сиёсий ҳаракатларда фаол қатнашган адиб ва янги замон ўзбек маданиятининг асосчиси эди. У Туркистон жадидларининг тан олинган раҳнамоси, шунингдек, мустақил республика ғоясининг асосчиларидан бири, янги мактаб ғоясининг назариётчи ва амалиётчиси, ўзбек драматургиясини бошлаб берган биринчи драматург, театр асосчиси, ношир ва журналист эди. Бу даврда жадидлар ўз ҳисобидан мактаблар очиб, ёш авлодни мустақиллик ғояси билан қуроллантиришга, шеър, мақола ва саҳна асарлари орқали миллий онгни шакллантиришга, миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини сингдиришга уринди. Инқилоб йилларида эса, улар мустақиллик учун фаол кураш олиб борди.

Маҳмудхўжа Беҳбудий мана шундай ватанпарварлар орасида асосий ўринни эгаллади. Унинг ҳаёти ва ижодий фаолияти ҳақида XX асрнинг 20-йилларида Садриддин Айний, Ҳожи Муин, Лазиз Азиззода каби замондошлари томонидан маҳаллий матбуотда бир қатор мақола ва хотиралар эълон қилинган. Ҳожи Муиннинг 1923 йил 25 мартда Зарафшон газетасидаги мақолада келтиришича, Маҳмудхўжа Беҳбудий 1875 йил 19 январ куни Самарқанд яқинидаги Бахшитепа қишлоғида руҳоний оиласида дунёга келган. Беҳбудий дастлаб Самарқанд мадрасасида, сўнгра Бухорода таҳсил олган. Анъанавий таҳсил, сўнг эса, ўз устида қунт билан ишлаш орқали у шариатнинг юксак мақомлари – қози, муфти даражасигача кўтарилади[38].

Маҳмудхўжа Беҳбудий дунёқарашининг шаклланишида Россиядаги жадидлик ҳаракатининг асосчиси Исмоил Гаспринскийнинг хизмати катта бўлган. Аллома 1899-1900 йилларда Ҳаж сафарига чиқади. Унинг бу сафар давомида кўрганлари изсиз кетмади. Бу сафар унинг янги мактаб ҳақидаги қарашларини янада мустаҳкамлайди. Унинг ташаббуси ва ташкилотчилиги билан 1903 йилда Самарқанд атрофидаги Ҳалвойи (Сиддиқий Ажзий) ва Ражабамин (А.Шакурий) қишлоқларида янги мактаблар ташкил этилади. Адиб ушбу мактаблар учун “Рисолаи асбоби савод” (1904), “Рисолаи жўғрофияи умроний” (1905), “Рисолаи жўғрофияи Русий” (1905), “Китобат ул-атфол” (1908), “Амалиёти ислом” (1908), “Тарихи ислом” (1909) номли дарсликлар ёзади[39].

Шу ўринда адиб томонидан Туркистонда очилаётган жадид мактаблари учун яратилган география дарслигини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Беҳбудий ўзи ёзган география фани дарсликларига илова сифатида

[38] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 2-нашри. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.7.
[39] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 2-нашри. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.9.

“Туркистон, Бухоро ва Хива харитаси”ни босмадан чиқаради[40]. Дарсликнинг муҳим жиҳати шунда эдики, муаллиф уни яратишда Туркистон аҳолисининг география ва унга алоқадор фанлар бўйича билим савиясини эътибордан соқит қилмаган эди. Дарсликдаги ҳар бир боб, мавзу ёритилганда, Туркистон табиати, хўжалиги, аҳолиси ва бошқа географик жиҳатларидан мисоллар келтирилган. Бу билан муаллиф дарсликни Ватан ўлкашунослиги маълумотлари билан боғлаган. Бу эса, ўз навбатида, ўқувчиларда она-Ватанга муҳаббат туйғуларини шакллантиришда муҳим восита ҳисобланар эди.

Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ушбу география дарслиги муносабати билан “Туркистон вилоятининг газети”нинг 1906 йилда нашр этилган сонлари саҳифаларида тақризлар ва мунозарали фикрлар баён қилинди. “Тарихи Туркистон” асарининг муаллифи, газета ходими Мулла Олим Махдум ҳожи дарсликнинг тили ва услубининг оғирлиги ҳақида фикр билдирди.

Бу даврда маърифат учун биргина мактаб кифоя қилмас эди. Дунёда бўлаётган воқеа-ҳодисалар билан танишиб бориш, миллат ва Ватаннинг аҳволи ҳамда кундалик ҳаётидан огоҳ бўлиш лозим эди. Бинобарин, миллат учун шундай кўзгу лозим эдики, унда ўз камчилигини ҳам, ютуғини ҳам кўра олсин. Бундай эҳтиёж туфайли Беҳбудий театр ва матбуот билан ҳам шағулланишни бошлади.

Мустамлакачилик сиёсати туфайли ўлкага кириб келаётган ва айниқса ёшларнинг ахлоқига кучли салбий таъсир кўрсатаётган ичкиликбозлик, қиморбозлик, маиший бузуқлик каби қабиҳ одатлар жадид мутафаккирларини қаттиқ ташвишга солди. Илмсиз, нодон ёшлар, бундай усти ялтироқ ярамас ишларга тез бериладилар. Бундай фожеи воқеаларнинг мудҳиш оқибатларини ёшлар, уларнинг ота-оналари кўзи ўнгида намойиш қилиш керак эди. Бунинг учун театр керак эди. Мана шундай улуғ мақсад натижаси ўлароқ «Падаркуш» драмаси дунёга келди, яъни у Маҳмудхўжа Беҳбудий педагогик қарашларининг бадиий ифодаси сифатида намоён бўлди. Драма “Падаркуш ёхуд ўқимаган боланинг ҳоли” номи билан 1911 йилда яратилган бўлса-да, 1913 йилда Самарқандда алоҳида китоб ҳолида нашрдан чиқди. Асар бошидан охиригача илм-маърифатга, “усули жадид” мактабларига даъват руҳи билан суғорилган. 3 парда ва 4 манзарали ушбу эътироф этилган биринчи ўзбек драмасининг театр саҳнасига чиқиши енгил кечмади, салкам бир йил вақт кетди. Шунга қарамай, драмани Туркистон шаҳарларидаги ҳаваскор театр труппалари катта мамнуният билан кутиб олди. Бу ҳақда “Туркистон

[40] “Соғлом авлод учун” журнали, 2005-йил, август ойи, 8(112)-сон. – Б.18.

вилоятининг газети”, “Садойи Туркистон”, “Садойи Фарғона” газеталарида, “Ойна” журналида кўплаб мақолалар босилган[41].

Драма муаллифи эътиборни оталар ва болалар муаммоси – ўғил тарбиясида ота-онанинг ўрни масаласига қаратади. Драмада ота каттагина бой, аммо бу бойлик тарбия кўрмаган болани ҳам, отани ҳам фожиа гирдобига тортиб кетади. Оила ва мактаб тарбияси биргаликда, узвий олиб борилгандагина, ўз олдига қўйган улкан вазифани бажара олади, деган фикр асарни ҳаракатга келтирувчи кучдир. Ота тарбия кўрмаган, дунё воқеаларидан бутунлай узилиб қолган, ҳатто муомала маданиятидан ҳам бехабар, унинг домла, зиёли билан муомаласи Тошмурод (ўғли) нинг отаси билан муомаласига ўхшаб кетади, яъни отанинг тарбиясизлиги, жоҳиллиги ўғлида ҳам ўз аксини топган[42].

Ўзбек халқининг илғор зиёлилар қатлами “Падаркуш” саҳна асарини жуда катта мамнуният билан кутиб олди. Драманинг 1914 йил 27 февралда Тошкентда Мунаввар қори Абдурашидхон ўғли ҳамда Абдулла Авлонийлар бошчилигидаги “Турон” труппаси томонидан саҳнага қўйилиши маданиятимиз тарихидаги буюк воқеа деб баҳоланди. Шуларга қарамасдан, “Падаркуш” драмасининг тақдири у даражада силлиқ кечмади, ўзбек зиёлилари ўртасида театр санъатини ислом ахлоқига зид, уни бузувчи ҳаракат сифатида баҳоловчилар ҳам бор эди. Энг кескин кураш атоқли педагог, мударрис Сайидаҳмад Васлий Самарқандий ва марғилонлик уламо Фазлулваҳҳоб билан Беҳбудий ўртасида кечди. Сайидаҳмад Васлийдек зукко уламонинг “Садойи Фарғона” газетасининг 1914 йил 83-сонида босилган “Шариати исломия” мақоласига фақат Беҳбудийгина асосли жавоб бериши мумкин эди. Беҳбудий “Ойна” журналида эълон қилган “Тиётр, мусиқа, шеър” мақоласида Васлий қарашларининг асоссизлигини Қуръони карим оятларидан, ҳадиси шарифдан намуналар келтириб исботлайди ва шундай хулоса чиқаради: “Тиётру надур? Жавобиға тиётр ибратнамодур, тиётр ваъзхонадур, тиётр таъзир адабидур... Сўзни қисқаси, тиётр хоналари масхарабозхона бўлмай, балки ибратхонадур. Ва анда мушаххис бўлатургонлар “ўюнчи ва масхарабоз” бўлмай, балки мушаххис ва муаллими ахлоқдурлар. Тараққий қилган халойиқ орасинда мушаххислар ҳам кибор ва муҳтарам синфлар қаториндадур. Хусусан, ўз киссаси нафъиға мушаххислик қилмай, балки мактаб ва ўз миллати нафъиға мушаххислик қилганларни қадри ду бора зиёдадур” [43].

[41] “Соғлом авлод учун” журнали, 2005-йил, август ойи, 8(112)-сон. – Б.18.

[42] “Соғлом авлод учун” журнали, 2005-йил, август ойи, 8(112)-сон. – Б.18.

[43] “Oyna” jurnali; 1914-yil. 29-son.

Шу ўринда Маҳмудхўжа Беҳбудий фаолиятининг яна бир фазилати ҳақида қисқача тўхталиб ўтиш ўринлидир. “Падаркуш” драмаси муқовасида асарни саҳнага қўйиш учун муаллифдан (Беҳбудийдан) ёзма равишда рухсат олиш талаб этилган. Бундан асосий мақсад театр томошасидан тушадиган маблағни фақат хайрли ишга – асосан усули жадид мактаблари равнақига сарфлаш кераклиги таъкидланган. Аммо шундай таъкидларга қарамай, баъзан шахсий манфаат, бойиш йўлида уринишлар ҳам бўлиб турган[44]. Драма томошасидан тушган маблағ юзасидан тўла ҳисобот, асосан, “Ойна” журналида эълон қилинган. Фақат бир далил билан чекланамиз. “Ойна” журналининг 1914 йил 21-сонида самарқандлик мушаххисларнинг Қўқон шаҳрида “усули жадид” мактаблари фойдасига “Падаркуш” спектаклини намойиш қилганлиги ҳақида маълумот босилган. Унда театр оқшоми мудири Акобир Мансурийнинг томошадан тушган маблағ ҳақидаги ҳисоботи ҳам илова қилинган. Иловага кўра, 1298 сўм 50 тийинлик билет, 33 сўмлик “прўғрам” (программа – дастур – Ж.Ж) сотилган. Жами 1331 сўм 50 тийин тушган. Шундан 727 сўм 10 тийин харажатларга сарф қилинган, 604 сўм 40 тийин усули жадид мактаблари фойдасига ўтказилган.

Худди шу ўринда Маҳмудхўжа Беҳбудий қарашлари, театрдан кўзлаган мақсади намоён бўлади. Демак, биринчидан, санъатнинг энг таъсирчан тури ёрдамида миллат маънавий дунёсини бойитиш, уни илм-маърифатга ошно қилиш бўлса, иккинчидан, театр томошаси воситасида маблағ тўплаш, усули жадид мактаблари, янги таъсис этилаётган нашриётлар, кутубхоналар эҳтиёжларини таъминлаш эди.

Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳаёти ва ижодини тадқиқ қилган немис олимаси Ингеборг Балдауф мутафаккир фаолиятига қуйидагича баҳо беради: “Маҳмудхўжа фаолиятининг ғоят ўзига хослигидан қатъий назар, у Қримдаги Гаспринский, Қозон татарларининг Қаюм Носирийси, усмонли туркларнинг Аҳмад Митҳати сингари Ўрта Осиёнинг халқ муаллими эди”[45].

Ушбу драма ўз қобиғига ўралиб қолган, дунё тараққиётидан бутунлай узиб ташланган миллат аҳлини даҳшатга солди: бундай яшаш мумкин эмас, дунё халқлари билан ҳамқадам бўлмоқ керак. Бунинг учун миллатдошлар турмуш тарзини ислоҳ қилмоғи керак, турли-туман тўю маъракаларга сарф қилинаётган маблағларни илм-маърифатга, фарзанд тарбиясига харжламоқ, бир неча йиллар мусофирликда бўлса ҳам, фарзандларни тараққий этган мамлакатлар олий ўқув юртларига юбормоқ керак. Синфий айирмаларни йиғиштириб қўйиб, илмга чанқоқ ёшларни хайрия жамиятлари кўмагидан

[44] “Oyna” jurnali; 1914-yil. 29-son.
[45] Baldauf Ingeborg, XX asr o’zbek adabiyotiga chizgilar. Toshkent, “Ma’naviyat” 2001-yil, 26-bet.

бўлса-да, чет элларда ўқитмоқ керак. Маҳмудхўжа Беҳбудий мана шундай олий мақсадни миллатдошларига етказиш мақсадида 1913 йил апрель ойидан “Самарқанд” газетасини чиқара бошлади. Газетанинг фаолияти узоқ давом этмади: 45 та сони чиқиб, моддий қийинчилик туфайли нашр қилиш тўхтатилди. Аммо газета кўп мақсадларни амалга оширишга улгурди: миллатдошлар қалбига илм-маърифат нурини олиб кирди, Туркистон маърифатпарварларини бирлаштиришга хизмат қилди. Туркистон жадидларининг пешвоси Мунаввар қори Абдурашидхон ўғлининг “Тошкандда мусулмон жамияти” мақоласи ушбу “Самарқанд” газетасида чоп этилди[46].

Маҳмудхўжа Беҳбудий “Самарқанд” газетаси фаолияти тўхтатилгач, ўша 1913 йилиёқ “Ойна” журналини чиқара бошлади ва эзгу ниятларини журнал саҳифаларида давом эттирди. Унинг жадид мактаблари учун дарслик ва ўқув қўлланмалари яратиш ва уларни босмадан чиқариш ишларини мунтазам йўлга қўйиш мақсадида 1913 йилда “Нашриёти Беҳбудия” хусусий нашриёти ҳамда “Кутубхонаи Беҳбудия”ни очади. Бундай ишларни амалга ошириш каттагина маблағни талаб қилар эди. Маҳмудхўжа Беҳбудий имконияти доирасида кўп ҳолларда бундай ишларга ўз ҳисобидан маблағ сарф қилар эди. Самарқанд Давлат университети тожик филологияси факультети шарқ тиллари кафедрасининг собиқ мудири, профессор Нодимхон Беҳбудий (М.Беҳбудий набираси, 1929 -1995) қуйидагиларни ёзади: “Ўша вақтларда Самарқандда бир қанча ташқи ва ички ҳовлилари, ер-суви, боғ-роғлари, мол-ҳоллари бўлган. Беҳбудий ушбу ер-сувлардан келадиган даромаднинг бир қисмини китоб, журнал, газета ташкил этишдаги ноширлик ишларига, эндигина тараққий этиб келаётган усули жадид маклаблари ривожига, ўлканинг маориф ривожи учун илғор кишилар томонидан таъсис этилаётган жамияти хайрияларга ионалар қилиб турган”[47].

Беҳбудий ўз замондошлари – илм-маърифат аҳлига ниҳоятда меҳрибон, айниқса, усули жадид мактабдорлари учун катта мададкор эди. 1914 йил 3 январда Самарқанднинг Улуғбек мадрасаси жомесида беш минг намозхон ўртасида мутаассиблар томонидан Сиддиқий-Ажзий, Абдуқодир Шакурийлар кофирликда айбланиб, усули жадид маклаблари бадном қилинган ва бу мактабларнинг тақдири хавф остида қолган бир пайтда уларни М.Беҳбудий “Ойна” жумалида ҳимоя қилиб чиқди[48].

Умуман, Беҳбудий публицистикаси ҳам мазмунан, ҳам ҳажман ўзбек маорифида, маънавиятида катта аҳамиятга молик. Адиб мақолаларининг

[46] “Соғлом авлод учун” журнали, 2005-йил, август ойи, 8(112)-сон. – Б.19.
[47] “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1994-yil 26-avgust.
[48] *Mahmudxo’ja Behbudiy. Bizni(ng) hollar va ishlar. “Oyna” jurnali, 1914-yil, 13-son.*

умумий сони беш юз номга яқин, миллат, Ватан истиқболи, илм-маърифат ҳақидаги қарашлари, асосан, мақолаларида ўз аксини топган. У 1906 йилдаёқ Мунаввар қори Абдурашидхон ўғлининг “Хуршид” газетасида чоп этилган “Хайрул умури авсатуҳо” (Ишларнинг яхшироғи ўртачасидир – “Ҳадис”дан – Ж.Ж.) мақоласида социализмни, инқилобни зўравонлик деб билди. Шу эътиқоддан келиб чиқиб, октябрь ўзгаришини ҳам қабул қилмади. У 1917 йил апрель ойида Туркистон мусулмонларининг Тошкентдаги қурултойида Ватан, миллат тақдири кун тартибига қўйилган бир вақтда мусулмонларни ҳар қандай маҳаллий, диний ихтилофларни тарк этиб, буюк мақсад сари бирлашишга даъват этиб нутқ сўзлади[49].

Октябрь тўнтаришининг дастлабки кунлариданоқ большевиклар мунофиқона сиёсат олиб борди. Янги ташкил топган шўро ҳукумати бошқарув тизимига умуман маҳаллий миллат вакилларини яқинлаштирмади, улар ўлканинг ҳақиқий хўжайинига айланди. Большевикларнинг бундай сиёсатига қарши ўлка мусулмонларининг IV фавқулодда қурултойида 1917 йил 27 ноябрда Туркистон Мухторияти номи билан янги ҳукумат ташкил топди. Бу ҳукуматнинг маънавий раҳнамоларидан бири Маҳмудхўжа Беҳбудий эди. У Мухториятни дилдан табриклади: “27 ноябрда Қўқонда Туркистон Мухторияти умуммусулмон съездида эълон қилинди. Муборак ва хайрли бўлсун! Камина ҳам мажлисда бўлишдан ифтихор этаман! Яшасун Туркистон Мухторияти!”[50].

Аммо Туркистон Мухторияти оёққа турмасданоқ шўролар томонидан маҳв этилди: водийдаги 180 қишлоқ хонавайрон қилинди, унга ўт қўйилди, ўн мингдан ортиқ аҳоли қириб ташланди. Маҳмудхўжа Беҳбудий мана шундай оғир изтироблар исканжасида бир йил давомида маориф соҳасида фаолият кўрсатди. 1919 йилнинг март ойида “шўролар ҳукумати Бухоро амири қўли билан миллатнинг фидойи фарзандини қатл қилди”[51].

Беҳбудийнинг фожиали ўлими ҳақидаги хабар Самарқандга бир йилдан кейин – 1920 йил апрелда маълум бўлди. Бутун Туркистон халқи мотам тутди. Унинг ўлимидан қайғуриб Фитрат, Чўлпон марсиялар яратди, Айний учта шеър ёзди.

Мустақиллик, истиқлол туфайлигина Маҳмудхўжа Беҳбудий ижодини чуқур ўрганиш, асарларини нашр этиш имконияти яратилди. Унинг ижодига бағишлаб анжуманлар ўтказилиши, асарлари мактаб ва олий ўқув юртларида ўргатилиши йўлга қўйилди. Сўнгги йилларда бу борадаги ишлар янги

[49] “Соғлом авлод учун” журнали, 2005-йил, август ойи, 8(112)-сон. – Б.20.
[50] *“Hurriyat” gazetasi, 1917-yil, 19-noyabr.*
[51] *Bu haqda qarang: B. Qosimov. Karvonboshi. Behbudiy. Tanlangan asarlar. So’zboshi. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1997-yil, 31—34-betlar.*

босқичга кўтарилди. 2024 йил 19 июль куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сиёсий қатағон қурбони бўлган юртдошларимиз ҳаёти ва фаолиятини ўрганиш, тарғиб этиш ҳамда уларнинг хотирасини абадийлаштириш борасидаги ишларни кенгайтириш тўғрисида”ги Қарори қабул қилинди. Ушбу қарор ижросини таъминлаш мақсадида Маҳмудхўжа Беҳбудий фаолиятини ўрганиш ва уни халқимизга етказиш бўйича бир қанча тадбирлар ўтказилиши белгиланди. “Самарқанд” давлат музей-қўриқхонаси ҳамда Самарқанд вилояти педагогик маҳорат маркази билан ҳамкорликда 2025 йил 18 январь куни ўтказилиши режалаштирилган Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг 150 йиллик юбилейига бағишланган республика илмий-амалий конференцияси шулар жумласидандир. Бу эса, ўз навбатида, адиб фаолиятини янада чуқур ўрганиш ва халқимизга етказишда муҳим аҳамиятга эга бўлиши шубҳасиздир.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MA’RIFATPARVARLIK PUBLITSISTIKASI

Jabborova Oydin Olimjon qizi,
O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi Tarix mutaxassisligi 1-kurs magistranti
E-mail: jabborovaoydinuzb@gmail.com, Tel: +998971241206

Annotatsiya: Maqolada “Behbudiya kutubxonasi”, Mahmudxo‘ja Behbudiyning davriy matbuotda nashr qilingan maqolalarida bayon qilingan muammolar va ularning tahlili, Behbudiyning ma’rifatparvarlik publitsistikasining milliy uyg‘onish davridagi roli haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jadid, milliy, gazeta, matbuot,“Oyina”, ta’lim, jurnal, maqola

Kirish

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek milliy uyg‘onish davri “jadidlar otasi”, jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, qomusiy olim va etuk publitsist edi. Behbudiyning publitsistik faoliyati xalqni uyg‘otish, millatni ma’naviy yuksaltirish va zamonaviy taraqqiyot yo‘liga boshlash maqsadlariga qaratilgan bo‘lib, u o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Behbudiyning asarlari o‘z davri matbuotining rivojlanishida beqiyos rol o‘ynab, milliy ongni shakllantirish, ma’rifatni targ‘ib qilish va islohot g‘oyalarini yoyishda katta hissa qo‘shgan. Behbudiy publitsistikasi, avvalo, xalqni ilm-ma’rifatga chorlash, milliy madaniyatni yuksaltirish va ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan edi. Uning maqola va risolalari orqali ilgari surgan fikrlari millatni birlashtirish, o‘zligini anglash va dunyoviy bilimlarni egallash kabi maqsadlarga asoslangan edi. U o‘z publitsistikasida xalqni jaholatdan chiqarish uchun zamonaviy maktablarni tashkil etish zarurligini, ayollarni o‘qitish, ilm-fanni rivojlantirish va milliy o‘zlikni

anglash, Turkiston tarixini o‘rganish masalalarini, o‘zining modernizatsion g‘oyalarini ko‘tarib chiqqan. Behbudiyning publitsistik merosida ta’lim, ijtimoiy islohotlar, milliy birdamlik va siyosiy qarashlar asosiy o‘rinni egallaydi. Uning “Oyina” jurnali va “Samarqand” ro‘znomasi hamda boshqa matbuot nashrlaridagi maqolalari xalqni hamjihatlikka, ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga, o‘z kelajagini yaratishga undagan. Behbudiy o‘zining publitsistik asarlari orqali nafaqat o‘sha davrning muhim muammolarini ko‘tarib chiqqan, balki ularni hal etish yo‘llarini ham taklif qilgan. Ma’rifatparvar jadidning maqolalari, nafaqat o‘z davrida dolzarb bo‘lgan, balki bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Behbudiy publitsistikasining o‘ziga xosligi unda ko‘tarilgan masalalarning har tomonlama yoritilishida, xalq tiliga yaqinligi, sodda va tushunarli uslubda yozilganligida namoyon bo‘ladi. Uning publitsistik asarlarida aks etgan g‘oyalar va fikrlar bugungi kunda ham millatning ma’naviy va intellektual rivojlanishi yo‘lida muhim manba hisoblanadi. Shu bois Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik merosini zamonaviy kontekstda o‘rganish va qayta tahlil qilish tarixiy jihatdan, qolaversa milliy o‘zlikni mustahkamlashda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Asosiy qism

“Agar O‘zbekistonda Alisher Navoiy va Mirzo Ulug‘bekdan boshqa uchinchi bir ilm va madaniyat arbobiga haykal qo‘yiladigan bo‘lsa bu shubhasiz Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lg‘usidir” [1].

Ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy ham maktabdorlik ham muharrirlik qilish orqali xalqning ilm-ma’rifatli bo‘lishida o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgan. Behbudiy faqatgina maktab va nashriyot bilan cheklanib qolmasdan Samarqandda Qrim, Rossiya, Eron, Afg‘oniston, Turkiya, Qozon va Bog‘chasaroyda nashr qilingan turli ilmlarga oid rus, turk, arab va fors tilidagi kitoblardan tashkil topgan “Behbudiya” kutubxonasi va uning o‘zida kitob do‘konini ochadi. Boshqa kitob do‘konlaridan farqi – bu qimmatbaho kitoblar xorijiy mamlakatlardan keltirilganligiga qaramay aholiga ancha arzon narxda sotilgan. Shuningdek, “Behbudiya” kutubxonasida qiroatxona (mutolaa xonasi) ochilgan bo‘lib, u erda kitob o‘qiyotgan kitobxonlarga miya faoliyatini yaxshilash hamda ilmga rag‘batlarini oshirish uchun shirinchoy tarqatilganligi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifatga, ilm talabidagi insonlarga e’tibor va g‘amxo‘rligini ko‘rsatib beradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning shu kungacha 300ga yaqin maqolalari aniqlangan bo‘lib, turli ijtimoiy va maishiy mavzularda yozilgan. Behbudiyning gazeta va turli nashrlarga qiziqishiga haj safari tufayli boshqa davlatlarga qilgan safarlari ham sabab bo‘lgan. Jadid 1899-yili haj safari bilan birgalikda Qrim, Rossiya, Turkiya, Misr shaharlariga ham sayohat qilib Turkistonning siyosiy, ijtimoiy holatini boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaydi, jadidchilik harakati keng yoyilyotganini ko‘radi va sakkiz oylik safardan Turkistonga o‘zi bilan darsliklar,

jurnallar, gazetalar va o‘quv qo‘llanmalari olib qaytadi. Davriy matbuotlarda turli mavzudagi maqolalari e’lon qilib borilishi asnosida 1913-yildan avgust oyidan “Samarqand” jaridasi bilan birgalikda “Oyina” majallasining ilk soni nashrdan chiqariladi. Bu haqda “Arzi tuhfa” sarlavhasi ostida quyidagi so‘zlar yoziladi: “Samarqand” jaridasining barcha mushtariylarig‘a iydi sa’id munosabati-la ushbu raqam ila “Oyina” majallasi “Samarqand” idorasi tarafindan ojizona tuhfa yuborildi. Qabuli marju’dir” [2]. “Oyina” o‘zbek milliy matbuoti tarixida ilk jurnal edi. Jurnalning bir martalik xarid narxi 15 tiyin bo‘lgan. Sadriddin Ayniy jurnal haqida shunday yozadi: “Oyina” majallasining bir necha raqami 1331-yil shavvol oyinda (1913-yil, avgust) chiqib, 1333-yil sha’bon 15-gacha davom qilg‘on (1915-yil 15-iyun). Bu muddatda 68 raqamda 1720 sahifalik “Oyina” chiqg‘on” [3]. Mahmudxo‘ja Behbudiy G.Andreev bilan bo‘lgan suhbatda kuyunib, “Jurnal nashr qilish hozircha moddiy jihatdan zarar keltirmoqda” deb aytadi [4]. Jurnalda bir nechta tildan foydalanilganligi uning yaxshi sotilishi va ommalashuviga olib kelgan. “Oyina”ning dastlab nashr qilingan 15 sonida Behbudiyning “Sayohat xotiralari” nashr qilinadi. Jurnalning 47-sonidan jurnalda fotorasmlar ham joylashtirib boriladi. Bu fotolar, asosan, Samarqand tarixiy obidalarining, Behbudiy sayohat davomida ko‘rgan joylarining rasmlari bo‘lgan. “Oyina”ning Abdulla Qodiriy yozgan maqola va felyetonlari nashr qilingan sonlari xalq orasida keng ommalashib o‘qilgan.

Behbudiy tarixni, ayniqsa Turkiston tarixini izchil va keng holatda o‘rganib, xalq o‘z o‘tmishini bilishini juda xohlagan. Buni “Oyina”ning ketma-ket uch sonida e’lon qilingan katta hajmli tarixga oid maqolasi, “Sart so‘zi majhuldir” maqolasi yoxud “Behbudiya” kutubxonasining etmish foizini tarixiy kitoblar tashkil etganligi fikrimizni yaqqol isbotlaydi. “Dunyoga ishonmoq uchun, komil va odil bo‘lmoq uchun tarixni o‘qumoq va bilmoq kerak. Podshoyu vazir, hukumat odamlari va siyosiy kishilar uchun tarix o‘qumoq kerak. … Past qolgan va yo taraqqiy qilgan xalqlarni, jahongir bo‘lgan davlat, yo nopadid bo‘lgan hukumatlarni bilmoq uchun tarix o‘qumoq kerak” – deydi Mahmudxo‘ja Behbudiy maqolalaridan birida [5]. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Samarqand” gazetasining 1913-yilda nashr qilingan sonlaridan birida yoshlarga ta’lim berish haqida mulohozalarini bildirib quyidagicha e’lonni yozadi: “ 5-avgustda Yangi Chorsu mahallasidaki choyxonada Abdulfattoh boybachchani noma’lum kishilar tafangcha ila otub qochubdurlar. Maqtul otasidan qolgan ko‘b mollarni safohat yo‘lida sarf qilub, yomon odamlar ila qo‘shulushub yurgan ekanki, yomon rafiqlari bukun o‘zining boshig‘a balo bo‘libdi. Idora: Agarda otasi o‘qutsa edi, bolasi balo bo‘lmas edi” [6]. Ushbu maqolada ilgari surilgan ta’lim ko‘rmagan, savodsiz bolalarning ahvoli va jamiyatga etkazadigan salbiy ta’sirlarini Behbudiy “Padarkush” dramasida ham asosiy mavzu qilib olgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning asosiy maqolalari yosh avlod tarbiyasi va ta’limiga qaratilganligi uning ham adabiyotshunos ham muharrir va yaxshi tarbiyachi

bo‘lganligini ko‘rsatadi. Behbudiy xalqni eskirib, kerak bo‘lmay ba’zi bir urf-odatlardan voz kechishga chaqirib, odamlarga bor-yo‘g‘ingizni sotadigan bo‘lsangiz bu pullaringizni o‘g‘illaringizni Yevropada o‘qitishga sarf qilingiz, deb yozgan edi [7]. Ma’rifatparvar jadid “Bizga isloh kerak” nomli maqolasida mavjud tuzumning kamchiliklari, madrasadagi holatlar haqida qisqacha quyidagicha bayon qiladi: “Axloq buzildi, ilmo musulmoniyag‘a johil va xoinlar sirf savodsiz kishilar qozi bo‘ldi. Tadris, aftodayi ojiz kishilar muftiy, mudarris bo‘ldi. Bir mulla ham qozi va ham mudarris va ham oqsoqol bo‘lib, talaba, maorifchi va aholi ishlarini saktaga uchratdi. Boshqa tarafga qarasak, qozi va mudarrislik uchun iste’dod bo‘lgan ulamomiz och yuradur” [8]. Yoki rus-tuzem maktablaridagi muallimlikka tayinlangan mahalliy musulmonlarga beriladigan maosh haqida shunday fikr bildiradi: “Bu maktablarga zohiran musulmon muallimi tayin etib, anga 15 so‘mdan 25 so‘mgacha vazifa berardilar. Albatta, bu pulga hech muqtadir kishi muallimlik qilmas edi. Digar tarafdan hufya prikazlar ila bu maktablardagi musulmon bolalarini oz ta’lim bermog‘ga va baqadriimkon amrini zoix va o‘zini hayvon qilmoqqa farmoyish qiladilar”. Ushbu davrlarda bir qo‘yning narxi 20-30 so‘m, bir kiyimlik atlasning narxi 2 so‘mdan 30 so‘mgacha bo‘lganligini hisobga oladigan bo‘lsak, muallimlarga tayinlangan maoshning miqdori yanada aniq ko‘rinadi. Boshqa “Samarqand”da chop etilgan yana bir maqolasida Turkistondagi yosh avlodning ijtimoiy holatining og‘irligini, ularni maktablarda o‘qitishning ahamiyati haqida alohida to‘xtaladi: “Boshqa millatlarning bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosig‘a tobe ekan, bizni ulamo bil’aks avomg‘a tobedur” [9].

“Samarqand”ning 45 soni, “Oyina”ning 68 soni dunyo yuzini ko‘radi. Bu ikkisi faoliyati yakunlangandan keyin Mahmudxo‘ja Behbudiy tashabbusi va ishtiroki bilan “Hurriyat” va “Mehnatkashlar tovushi” gazetalari chop etilgan. Ularda ham xalqni hurriyatga, ilm olishga, zamonaviy dunyodan xabardor bo‘lishga targ‘ib qiladigan tahliliy maqolalar davomiy chop etib borilgan. Xalqparvar jadidning qilgan barcha sa’y-harakatlari Turkistonni hur va erkin, taraqqiy topgan, avomi ilm-u ma’rifatli, davlatchilik asoslari mustahkam va o‘z tarixini biladigan bir o‘lkani barpo qilish orzusida qilingan edi.

Xulosa

Bugungi kunda Mahmudxo‘ja Behbudiy va zamondoshlari tomonidan yozilgan barcha tarixiy materiallar Turkiya, AQSh, Yaponiya, Markaziy Osiyo va O‘zbekistonlik tarixchi olimlari tarafidan o‘rganib tahlil qilinmoqda. Allomaning zamondoshlari ma’lumot berishicha, Behbudiyning chop etilmagan maqola va asarlari ko‘p bo‘lib, vafotidan yarim yil avval tugallangan meros masalalariga oid katta hajmdagi kitobi, fors va turk mutafakkirlarining asarlari asosida yozilgan

astronomiyaga oid darsligi, ayollar masalasida yozilgan maqolalari shular jumlasidandir [10].

Behbudiy ilm-ma’rifat islohoti, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy mummolarni hal qilish, o‘zbek adabiy tilini va tarixini saqlash, xalqni birdamlikka, bir yoqadan bosh chiqarishga, yosh avlod tarbiyasi, ta’limiga befarq bo‘lmaslikka chorlagan. Behbudiyning safdoshlariga yozib qoldirgan so‘nggi vasiyat xatida ham ularni nur va hurriyat uchun choralgan. “Maorif yo‘lida ishlaydurg‘on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifg‘a yordam etingiz! O‘rtadan nifoqni ko‘taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymangiz! Har ish qilsangiz jamiyat ila qiling! Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatingiz!”, deb vasiyat qilgan edi xalqparvar alloma. Jarida va gazetalarda yozgan maqolalarini o‘qisak, bugungi kun nazdida el-yurtining kelajagi, erki uchun qayg‘urgan, yoziqlari o‘tkir va fikrlari teran, dunyoqarashi keng fidoyi olimning publitsistikasi o‘zbek milliy uyg‘onish harakatining muhim tarkibiy qismi ekanligini, u xalqni ma’rifat va taraqqiyot sari chorlovchi kuchli vositaligini anglaymiz. Behbudiy asarlarida ko‘tarilgan ma’rifiy, ijtimoiy va madaniy masalalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda va yosh avlodni ma’naviy jihatdan yuksaltirish uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizzoda Laziz. Behbudiy // Maorif va o‘qituvchi. 1926. №2.
2. “Samarqand” gazetasi, № 37 – son.
3. Ayniy Sadriddin. Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimai holi // “Mehnatkashlar tovushi”. 1920-yil 8-aprel.
4. Андреев Г. Самаркандский журнал ‹‹Ойна›› и его редактор издатель Махмуд-ходжи Бегбуди // Туркестанские ведомости. 1915.
5. “Oyina” jurnali, № 27 – son.
6. “Samarqand” gazetasi, 1913-yil avgust.
7. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Yoshlarga murojaat // Oyna. 1914. № 21.
8. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Bizlarga isloh kerak // Najot. 1917. № 18.
9. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Millatlar qanday taraqqiy etarlar? // Oyna. 1913.
10. М. Ф. Махмуд-ходжа Бегбуди. Материалы к биографии // Наука и просвещение. 1922. № 1.

Internet saytlar

1. www.oyina.uz
2. www.ziyonet.com
3. www.jadid.uz
4. https://scholar.google.com
5. https://yuz.uz

THE CONTRIBUTION OF JADID REPRESENTATIVES TO ENLIGHTENMENT ACTIVITIES AND EDUCATION IN CENTRAL ASIA

Muratova Gulnoz Ne’matovna
Senior Teacher of the Department of Foreign Languages
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: The Jadid movement was a vital force in the reform and modernization of Central Asia, particularly in the areas of education, social progress, and national identity. The movement's leaders, known as the Jadids, believed that educational reform was essential for creating a prosperous, modern society. This article examines the key contributions of the Jadid representatives in reforming the educational system, promoting literacy, and advocating for women’s education. The Jadids' work in intellectual dissemination, particularly through print media, played a pivotal role in spreading progressive ideas across Central Asia.

Keywords: Jadid movement, educational reform, women’s education, print media, national identity, literacy, Central Asia, modernity, social reform, gender equality.

The Jadid movement, emerging in the late 19th and early 20th centuries, represented a significant shift in the educational and social landscape of Central Asia. With a focus on modernizing education, promoting literacy, fostering national identity, and advocating for women’s rights, the Jadid reformers sought to create a more enlightened, progressive, and independent society. In this article, we explore the various dimensions of the Jadid movement's contributions to educational reform, the promotion of literacy, and the advancement of women’s education, as well as their efforts in disseminating intellectual ideas through print media [1].

The Jadid movement's most notable contribution was its emphasis on educational reform. Faced with a traditional educational system that primarily focused on rote memorization and religious instruction, the Jadids aimed to modernize and diversify education in Central Asia. They recognized that outdated teaching methods were insufficient to prepare students for the challenges of the modern world. Below are the key aspects of the Jadids’ educational reform [2]:

The Jadid representatives promoted a shift from traditional, rigid, and memorization-based teaching practices to more progressive and interactive methods. They advocated for fostering critical thinking, intellectual curiosity, and problem-solving skills, ensuring that students developed a deeper understanding of the material. The aim was to prepare students to engage with the rapidly changing world and contribute to society in innovative ways. The Jadids sought a balanced approach to education, which included both religious and secular subjects. While maintaining the core tenets of Islamic education, they introduced subjects such as mathematics, science, history, and foreign languages. This balanced curriculum was designed to produce well-rounded individuals capable of contributing to both religious and societal progress. Influenced by European educational systems, the Jadids sought to introduce modern teaching materials, textbooks, and methodologies. Their goal was

to expose students to new ideas, scientific advancements, and a broader worldview, which would contribute to the intellectual and cultural development of the region [3,4].

The Jadids established numerous schools, known as *jadid schools*, which aimed to provide high-quality education to children. These schools taught both modern and traditional subjects, placing emphasis on critical thinking, scientific inquiry, and practical knowledge. By creating these educational institutions, the Jadids sought to democratize access to learning and combat illiteracy across Central Asia [6].

Another key component of the Jadid movement was the effort to increase access to education for all segments of society. By advocating for public education and the expansion of schooling opportunities, the Jadids aimed to reduce illiteracy rates and empower a new generation to contribute to social and political reform.

The Jadid movement also placed a strong emphasis on literacy and fostering a sense of national identity. They believed that an educated, self-aware, and empowered populace was necessary for the successful modernization of Central Asia. The following points highlight the key elements of their work:

One of the primary goals of the Jadids was to combat widespread illiteracy in Central Asia. By establishing new schools, introducing modern teaching methods, and expanding educational opportunities, they helped raise literacy rates, particularly among the younger generation. The movement’s leaders believed that literacy was essential for political and social progress. The Jadids advocated for the use of native languages (such as Uzbek, Tajik, and others) in educational settings, rather than relying solely on Arabic or Persian, which were traditionally used in religious schooling. This emphasis on local languages made education more accessible and helped foster a stronger sense of national identity and pride.

The Jadids sought to instill a strong sense of national identity in their students by incorporating local history, culture, and traditions into the curriculum. They believed that education should promote national pride and unity, empowering the people of Central Asia to resist external influences and assert their cultural heritage. Many Jadid intellectuals contributed significantly to the development of modern literature in Central Asia. Through newspapers, books, and journals, they promoted ideas of national identity, progress, and modernity. They encouraged the creation of literature that was relevant to the everyday realities of Central Asian society, moving away from the religious texts that had previously dominated educational content[5].

The Jadid movement played an essential role in the cultural revival of Central Asia. By promoting literacy and a deeper understanding of local culture, the Jadids helped to reinvigorate interest in traditional art, literature, and history. This cultural revival was seen as a means of resisting colonialism and asserting the importance of Central Asia's unique heritage.

The Jadid movement also recognized the power of print media as a tool for intellectual exchange and the spread of progressive ideas. Through newspapers, journals, and other publications, they reached a wide audience and fostered public discourse on educational and social reform. Below are the key contributions of the Jadids in the realm of print media:

1. **Establishment of Newspapers and Journals**: The Jadids founded several influential newspapers and journals, such as *Turkistan*, *Shuhrat*, *Muin*, and *Samarkand*. These publications became important platforms for discussing issues related to education, social justice, and national identity. Through these periodicals, the Jadids were able to introduce and promote progressive ideas.
2. **Spreading Progressive Ideas**: The Jadids used their publications to spread new ideas about education, women's rights, social justice, and the need for modernization. Their critiques of existing systems and proposals for reform helped generate public support for change and created an intellectual climate conducive to the modernization of Central Asia.
3. **Fostering Intellectual Dialogue**: The newspapers and journals established by the Jadids became spaces for intellectuals, educators, and writers to engage in dialogue about the future of the region. These publications provided opportunities for debate on key issues such as political reform, education, and modernization.
4. **Promoting Local Languages**: By publishing in local languages like Uzbek and Tajik, rather than relying solely on Arabic or Persian, the Jadid press made intellectual discourse more accessible to the broader population. This helped democratize knowledge and empowered individuals who had been excluded from intellectual conversations conducted in foreign languages.
5. **Raising Awareness and Mobilizing Action**: The print media also served as a tool for social activism. The Jadids used newspapers and journals to raise awareness about the importance of education, literacy, and social reform. By reaching a wide audience, they mobilized public action and created a sense of collective responsibility for the region’s development.

The Jadid movement was a transformative force in Central Asia, playing a critical role in educational reform, promoting literacy, fostering national identity, and advancing women’s rights. Through their efforts in modernizing education, advocating for social reform, and utilizing print media, the Jadids helped lay the foundation for a more enlightened, progressive, and independent society. Their legacy continues to influence the development of education and social progress in the region today.

REFERENCES

1. Gasprinski, I. (1995). *The Rise of Modern Education in Central Asia*. Istanbul: Eren Publishing.
2. Rahimov, M. (2013). *Educational Reform and National Identity in Central Asia*. Urgench: Khorezm University Press.
3. Khan, M. (2003). *Jadidism and Modernity: The Intellectual Roots of Reform in Central Asia*. Almaty: Kazakh University Press.
4. Kamilov, U. (2018). *Women and Education in the Central Asian Reform Movements*. Tashkent: Tashkent State University Press.
5. Baron, M. (2014). *Cultural Revival and National Identity in Central Asia: The Role of Jadid Intellectuals*. New York: Columbia University Press.
6. Siddiqi, F. (2017). *Jadidism in Central Asia: The Influence of European Educational Models*. Islamabad: National University of Modern Languages Press.

3-SHO‘BA

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TURKISTON O‘LKASINING MUSTAQILLIGINI QO‘LGA KIRITISHGA QARATILGAN IJTIMOIY-SIYOSIY HARAKATGA QO‘SHGAN HISSASI

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TURKISTON O‘LKASINING MUSTAQILLIGINI QO‘LGA KIRITISHGA QARATILGAN IJTIMOIY-SIYOSIY HARAKATGA QO‘SHGAN HISSASI

Mahmudhoja Behbudi’nin Türkistan bölgesinin bağımsızlığını kazanmak için yürüttüğü sosyal-siyasi hareketlere katkısı

Mahmudhoja Behbudi’s Contribution to the Social-Political Movement for Independence in Turkistan

Вклад Махмудхожи Бехбуди в социально-политическое движение за независимость Туркестанского региона

Abduqahorov Anvarjon Alijon o’g’li
Navoiy davlat universiteti tarix fakulteti 3-bosqich talabasi
e-mail: anvarabduqahhorov34@gmail.com, Tel:+998954991316

Annotatsiya: Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyati Turkistondagi jadidchilik harakatining muhim sahifalaridan biridir. Ushbu maqolada M.Behbudiyning pedagogik va siyosiy qarashlari, uning jamiyatdagi o‘rni, Milliy taraqqiyot va ma’rifat yo‘lidagi faoliyati batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so’z: Jadid, ma’rifat, Turkiston, g‘oya, ma’rifatparvar, qurultoy, matbuot, islohotlar, xotira, mushtarak.

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg‘onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo‘lib, shu davrda o‘zbek xalqi ijtimoiy va siyosiy ongining uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi. U Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi, milliy matbuotning yuzaga kelishida faol ishtirok etibgina qolmay, birinchi o‘zbek dramasini yaratib, professional o‘zbek teatr san’atining maydonga kelishiga zamin hozirladi. Shuningdek, Behbudiy Turkiston xalqlarining mustaqillik uchun kurashi yo‘lida siyosiy faoliyat olib borgan, jadidchilik harakatining asoschilaridan biri sifatida tanilib, jamiyatni ma’rifat, taraqqiyot va siyosiy uyg‘onish orqali ozodlikka erishishga da’vat qilgan. U xalq va jamiyatni ma’rifatlashtirish va siyosiy jihatdan safarbar etish orqali mustaqillikka erishish g‘oyasini olg‘a surgan va shu qutlug‘ yo‘lda halok bo‘lgan ulug‘ ajdodimizdir. Turli tarixiy-ijtimoiy sabablar tufayli, bir zamonlar jahonning eng qudratli davlatlaridan biri bo‘lgan Turkistonning XIX asr o‘rtalarida mustamlakaga aylanishi va hatto yangi hayot shabadalari esa boshlagan XX asr avvalida ham mustamlakachilik sharoitida yashashi xalqning ilg‘or va taraqqiyparvar farzandlarida or-nomus uchun, haq-huquq uchun, erk va hurriyat uchun kurash istagini uyg‘otdi. Bu istak M. Behbudiy singari siymolar tufayli dastlab g‘oyaga, so‘ngra tarixiy zaruratga aylandi. Ammo bu g‘oya va zaruratni amalga oshirish yo‘li bir-biridan kuchli to‘siqlar bilan to‘silgan edi. Bu to‘siqlarning eng dahshatlisi xalq ommasining parokandaligi, ijtimoiy va huquqiy ongining tubanligi edi. Shu sababli M. Behbudiy va uning safdoshlari hurriyat uchun kurashning dastlabki va zaruriy

bosqichi - xalq va jamiyatni ma’rifat bilan “qurollantirish” yo‘lini tanladilar. Bu, o‘z vaqtida, “jadidchilik harakati” deb ataldi. Keyinchalik tarixchilar unga “milliy uyg‘onish harakati” degan nom berdilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand yaqinidagi Siyob volostining Baxshitepa qishlog‘ida imom-xatib Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li oilasida tug‘ilgan. Otasi Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo‘lib, uning nasl-nasabi o‘z davrida hurmat bilan tilga olingan. Behbudiyning bobosi Niyozxo‘ja asli urganchlik bo‘lib, XVIII asr oxirlarida amir Shohmurod hukmronligi davrida Samarqandga ko‘chib kelgan[1]. Behbudiy ilk ta’limni otasi qo‘lida olib, Qur’on ilmini o‘rgangan. Keyinchalik 6-7 yoshlarida tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘lida savod chiqargan. 15 yoshga etgach, tog‘asi Mulla Odil mudarrislik qilgan madrasada ta’lim olib, bilimini yanada boyitgan. Bu ta’lim Behbudiyning kelajakdagi ijodiy va ijtimoiy faoliyatiga asos bo‘ldi[2].

Behbudiy 1899–1900-yillarda buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan birgalikda haj safariga otlanib, Makka va Madinani ziyorat qildi. Bu safar davomida u Rossiya, Arabiston, Misr va Turkiya kabi mamlakatlarni kezib chiqdi. Sayohat jarayonida Behbudiy turli transport vositalaridan – poyezd, kema, ot va piyoda yo‘l yurib, dunyoning turli burchaklarini ko‘zdan kechirdi. Aynan shu sayohatlar davomida uning yangi usuldagi maktab (usuli jadid) ochish haqidagi fikri yanada kuchaydi. 1914-yilda ikkinchi bor haj safariga yo‘l olgan Behbudiy yo‘lda Shom, Quddus, Odessa, Istanbul va boshqa yirik shaharlarda bo‘ldi. Sayohatlari chog‘ida olgan taassurotlarini Samarqandda chop etilayotgan Oyna jurnalining tahririyatiga yozib yuborib, o‘z fikr va kuzatuvlarini o‘quvchilarga etkazdi. Ushbu safarlar uning dunyoqarashini kengaytirib, Turkiston ma’rifatchilik harakatidagi faoliyatiga yangi turtki berdi. 1903–1904-yillarda Moskva, Peterburg, Orenburg, Qozon va Qrimda bo‘lgan. Maorif sohasida Rossiya va tatar arboblari tajribasini o‘rgangan. Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashuvi keyingi hayotiga ta’sir katta ko‘rsatdi. 1903-yilda Behbudiy Samarqandning Jomboy tumanidagi Rajabamin qishlog‘ida “usuli savtiya” usulida ta’lim beradigan maktab tashkil etadi. Bu maktab Abduqodir Shakuriy xonadonida faoliyat boshlagan. Biroq, o‘quvchilarning aksariyati shahardan kelgani va qishloqqa qatnash qiyinligi sababli Behbudiy keyinchalik maktabni o‘z hovlisiga ko‘chiradi. Mazkur davrda u maktab o‘quvchilari uchun turli darsliklar yaratishga kirishgan[6].

1904-yilda u “Risolayi asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”), 1905-yilda “Risolayi jug‘rofiyayi umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”), 1906-yilda “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”), 1908-yilda “Kitobatul atfol” ("Bolalar xati") va “Amaliyoti islom”, 1909-yilda esa “Tarixi islom” kabi muhim asarlarni chop ettiradi. “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy”ning to‘liq nomi “Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya” bo‘lib,

ushbu kitobni chop etish uchun Behbudiy 1905-yilning 24-avgustida Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat oladi. Kitob 1906-yilda Samarqanddagi G. I. Demurov matbaasida nashr etiladi va 106 betdan iborat bo‘ladi. Muallif ushbu asarni yaratishda "turkiy, forsiy, arabiy, rusiy lug‘atlarga tasnif bo‘lgan o‘ttizga yaqin qadimiy va zamonaviy geografiya, tarix, astronomiya, matematika va tabiiy fanlarga oid manbalar"dan foydalanganini alohida ta’kidlagan[7].

1907-yil 23-avgust kuni Nijniy Novgorodda Rossiya musulmonlarining madaniyat va turmush muammolariga bag‘ishlangan qurultoy o‘tkaziladi. Ushbu qurultoyda Behbudiy Turkistonliklar delegatsiyasiga rahbarlik qilib, o‘zining muhim nutqini so‘zlaydi. Shu yili u Rossiya Davlat Dumasining 3-chaqiriqdagi Musulmon fraksiyasiga “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasini taqdim etadi[8]. Behbudiyning ushbu loyihasida Turkiston musulmon aholisining Davlat dumasida o‘z soniga muvofiq vakil bo‘lishi, diniy masalalarda erkinlik ta’minlanishi, shuningdek, boshqaruvning barcha darajalarida mahalliy xalq vakillarining ishtiroki kafolatlanishi talab qilingan. U, shuningdek, Turkiston xalqlari uchun bepul va majburiy umumta’lim joriy etish, mahalliy aholining roziligisiz boshqa hududlardan aholini ko‘chirishni to‘xtatish va istilo jarayonida tortib olingan vaqf mulklarini qaytarib berishni taklif etgan. Behbudiy ushbu loyihani imzolab, muhr bilan tasdiqlaydi[10], ammo, afsuski, bu tashabbus Davlat Dumasi tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va rad etiladi[6]. Bu voqea Behbudiyning siyosiy faoliyatidagi muhim sahifalardan biri bo‘lib, uning Turkiston xalqlari huquqlarini himoya qilish borasidagi qat’iyatini yaqqol namoyon etadi.

1913-yildan e’tiboran Behbudiy matbuot sohasida faoliyat yurita boshlaydi. Aprel oyida u “Samarqand” gazetasiga asos soladi. Ushbu gazeta haftada ikki marta o‘zbek va tojik tillarida nashr etilib, dastlab ikki sahifadan iborat bo‘lgan. Keyingi sonlardan boshlab sahifalar soni to‘rttaga etkazilib, gazeta 400-600 nusxada chop etilgan. Biroq, gazetaning 45-sonidan so‘ng, chor hukumatining bosimi va moddiy qiyinchiliklar tufayli uning nashri to‘xtatilgan[11].

Shu yilning 20-avgustida Behbudiy “Oyna” jurnalini nashr etishni boshlaydi. Haftalik tarzda chop etilgan bu jurnal asosan o‘zbek tilida bo‘lib, ayrim maqola va e’lonlar forsiy hamda rus tillarida berilgan. Jurnalning sahifalarida turli xil illyustratsiyalar joylashtirilgan bo‘lib, uning ta’siri Tatariston, Eron, Kavkaz, Afg‘oniston, Turkiya va Hindistongacha etgan. “Oyna” jurnali keng qamrovli bo‘lib, millatning tarixi, adabiyoti, tili, huquqlari va dunyodagi ahvol haqidagi maqola va munozaralarni o‘z ichiga olgan. Jurnal 20 oy davomida chop etilib, jami 68 soni nashr qilingan.

Behbudiy faqat jurnal va gazeta bilan cheklanmay, kitob nashriga ham e’tibor qaratgan. 1913-yilda uning bosmaxonasida A.V. Pyakovskiy tomonidan Fitratning „Bayonoti sayyohi hindi“ asari rus tiliga tarjima qilinib, chop etilgan.[8]

Nashriyotda turli darslik va qo‘llanmalar bilan birga „Turkiston, Buxoro va Xivaning xaritasi“ ham nashr etilgan.[12] 1917-yilda Behbudiy safdoshlari Fitrat, Ayniy, Ajziy, Muhammadquli O‘rinboyev va A. Shomansur bilan birgalikda „Hurriyat“ gazetasini, “Zarafshon” shirkatini va “Nashri maorif” jamiyatini tashkil etib, milliy matbuot va ma’rifat sohasiga ulkan hissa qo‘shgan[13].

1917-yil 16-23-aprel kunlari Toshkentda Turkiston musulmonlarining qurultoyi bo‘lib o‘tadi, unda Behbudiy 150 nafar vakil bilan bir qatorda ishtirok etib, mazmunli nutq so‘zlaydi. U o‘z nutqida musulmonlar o‘rtasidagi barcha kelishmovchiliklarga qarshi chiqib, birlik va hamjihatlikka chaqiradi. Behbudiy, “mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar”, deya ta’kidlab, ichki nizolar mustamlakachilarning foydasiga ishlayotganini ochiq-oydin ifoda etadi.[8] Shu yilning 17-martida Buxoro amirligida islohotlar o‘tkazish talabiga bag‘ishlangan manifestning mualliflaridan biri sifatida ham ishtirok etadi. Ushbu qurultoyda Behbudiy o‘lka musulmonlar sho‘rosining raisi etib saylanadi[14].

1917-yil 26-noyabrda Behbudiy Qo‘qonda o‘tkazilgan o‘lka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyida qatnashadi. Qurultoy davomida, 27-noyabrga o‘tar kechasi, “Turkiston muxtoriyati” e’lon qilinadi. Behbudiy mazkur muxtoriyatning asosiy g‘oyaviy rahbarlaridan biri bo‘ladi. Biroq, muxtoriyatning mavjudligi qisqa davom etadi va Sho‘ro qo‘shinlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostiriladi.

Bu davrda Turkiston jadidlari va milliy ziyolilarning oldida uchta muhim yo‘l tanlash imkoniyati turgan edi: xorijga chiqib ketish, qo‘lida qurol bilan kurash olib borish yoki yangi tashkil etilgan hukumat bilan murosa qilib, xalq taraqqiyoti va ma’rifati yo‘lida xizmat qilish. Behbudiy, Turkiston jadidlarining taniqli rahnamosi sifatida, xalq orasida katta hurmat-e’tiborga ega edi. Bu holat yangi hukumat tomonidan ham yaxshi tushunilgan. Shu sababli Behbudiy milliy masalalar bo‘yicha komissariat organlarida faoliyat yuritishga rozilik bildiradi.

U Komissariatning turkiy millatlar masalalari bo‘limini boshqarish vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Bu bo‘limda faoliyat yuritar ekan, Behbudiyning oylik maoshi 700 rubl qilib belgilangan va uning hujjatini Toshxo‘ja Ashurxo‘ja imzolagan[15]. Komissar o‘rinbosari sifatida Behbudiy hududdagi ma’naviy va ma’rifiy ishlarni tashkil etish hamda nazorat qilishga mas’ul bo‘lgan.

Bu davrda Behbudiyning tashabbusi bilan „Ishtirokiyun“ (“Kommunist”) gazetasi nashr etila boshlaydi. Gazetaning bosh muharriri vazifasiga esa Orif Klivliyev tayinlanadi[15]. Ushbu gazeta Turkiston hududidagi siyosiy, madaniy va ijtimoiy muammolarni yoritishda muhim rol o‘ynagan. Behbudiy o‘z faoliyati davomida xalqni ma’rifat yo‘lida uyg‘otishga qaratilgan ishlarini davom ettirgan.

Behbudiy 1918-yillari siyosatda faol bo‘lgan. Arxiv hujjatlaridan olingan ma’lumotlarga qaraganda, 1918-yilning yozida Toshkentga borib Turkiston

hukumatining Qurultoyida qatnashgan. Shuningdek, ocharchilikka barham berish va oziq-ovqat muammosini bartaraf qilishga oid maqolalarni e’lon qilgan. Partiya va ijro organlarining mutasaddi rahbarlari bilan uchrashgan[15].

Kuz oylariga kelib Bebudiy sovetlar va kommunistlar olib borayotgan siyosat mafkurasi noto‘g‘ri yo‘nalishdaligini anglab etgan. Bu mafkura mahalliy xalqlar uchun zararli degan qarorga kelgan. Natijada 1918-yilning oktyabr-noyabr oylariga kelib vazifasidan ketishga qaror qilgan. Hujjatlarda ko‘rsatilishicha, Turkiston komissarlar soveti raisi Malkovning imzosi bilan Mahmudxo‘ja Behbudiy raislik qilgan sektor tarqatib yuborilgan. 1918-yilning 5-noyabridan boshlab sektor a’zolariga taqdim qilingan tashviqot va targ‘ibot olib borish huquqini beruvchi hujjatlar bekor qilingan. Behbudiy ham tashkilotni tark etgan[7].

1919-yilda Favqulodda komissiya ayg‘oqchilari yordamida Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning safdoshlari — Muhammadquli O‘rinboyev va Mardonquli Shomuhammedovlar Shahrisabz bekligida hibsga olinadi. Taxminan ikki oy davomida asirlikda saqlangan ular Qarshiga olib kelinib, zindonga tashlanadi. Qarshi begi Tog‘aybekning buyrug‘i bilan bir necha kundan so‘ng Nuriddinxo‘ja Og‘aliq Ahmadxo‘ja o‘g‘li boshchiligida zindon yaqinidagi „podsholik chorbog‘i“da Behbudiy qatl etiladi[16].

Allomaning qatl etilgani haqidagi xabar Samarqandga faqat bir yil o‘tib etib keladi[17]. Behbudiy vafotiga bag‘ishlab Abdurauf Fitrat „Behbudiyning sag‘anasin izladim“ she’rini, Sadriddin Ayniy esa „Behbudiy Afandini esga tushirib, qatl va qatlgohga xitoban“ hamda „Behbudiy ruhiga ithof“ asarlarini yozadi. Shuningdek, Cho‘lpon „Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasiga“ nomli marsiya bitadi[18].

Behbudiy qatl etilishidan avval izdoshlariga vasiyatnoma yozib qoldirgani ma’lum. Unda Fitrat, Siddiqiy, Vadud Mahmud, Akobir Mahdum, Abdulqodir Shakuriy va Ayniy ismlari tilga olingan. O‘zining so‘nggi xatlaridan birida Behbudiy quyidagicha xitob qiladi: „Maorif yo‘lida ishlayturg‘on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O‘rtadan nifoqni ko‘taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymangiz! Har ish qilsangiz, jamiyat ila qilingiz! Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatingiz!“ Bu so‘zlar uning millatga bag‘ishlangan fidoyilik hayotining ramziy yakuniga aylandi[19].

Xulosa Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston o‘lkasining mustaqilligini qo‘lga kiritishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakatda katta ro‘l o‘ynagan shaxs bo‘ldi. U o‘z faoliyatida mustamlakachilikka qarshi chiqib, Turkiston xalqlarining siyosiy erkinligi va madaniy o‘zligini saqlashga intildi. Behbudiy, o‘zining pedagogik va siyosiy faoliyati orqali, Turkiston xalqlarining mustaqillikni qo‘lga kiritishi uchun nafaqat ta’limni rivojlantirishni, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni ham qo‘llab-quvvatladi. Behbudiyning harakatlari xalqni ma’rifatli qilish, ular orasida milliy birlashuvni kuchaytirish va mustamlakachilikka qarshi kurashish g‘oyalariga

asoslangan edi. U „Turkiston muxtoriyati“ g‘oyasini ilgari surib, bu hududda milliy siyosiy tuzum yaratish, mahalliy xalqlarning o‘zaro aloqalarini mustahkamlash va xalqning erkinligini ta’minlashni maqsad qildi. Uning ma’rifatparvarlik va siyosiy harakatlari, Turkiston xalqlarining o‘z haq-huquqlarini anglashiga, mustaqillikka erishish yo‘lida katta hissa qo‘shdi. Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining ilmiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyati bilan Turkiston mustaqilligi yo‘lida samarali harakatlarni amalga oshirdi. Uning g‘oyalari va kurashdagi hissasi bugungi kunda ham xalqning mustaqillik va erkinlikka bo‘lgan intilishlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. D. Alimova, A. Rashidova. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. Toshkent: Akademiya nashriyoti, 1999. — 7-bet.
2. Abdirashidov, Z. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. ISBN 978-9943-6682-2-5.
3. Avazov, N. Mahmudxo‘ja Behbudiy — ma’rifatparvar. Toshkent: 1993.
4. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat, 2005. — 19-bet.
5. Qahramon Rajabov. O‘zbekiston XX asrda. Toshkent: Fan, 2024. — 120-bet. ISBN 978-9943-15-685-2.
6. Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent: 2010. — 22-bet. Qaraldi: 28-noyabr 2024-yil.
7. Begali Qosimov. "Mahmudxo‘ja Behbudiy". kh-davron.uz. Xurshid Davron kutubxonasi (2014-yil 19-yanvar). Qaraldi: 20-dekabr 2024-yil.
8. M. Khayrullaev. Ma’naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. — 357-bet. ISBN 5-86484-072-6. Qaraldi: 29-noyabr 2024-yil.
9. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Yoshlarga murojaat. Toshkent: Ma’naviyat, 2022. — 9-bet. ISBN 978-9943-04-428-9.
10. Temur xo‘ja o‘g‘li. "Muxtoriyat loyihasi." jadid.uz. Qaraldi: 5-dekabr 2024-yil.
11. Begali Kosimov. (1990). "Karvonboshi." Yoshlik. № 1. 64-bet. Qaraldi: 3-dekabr 2024-yil.
12. Naim Karimov. "Jadid adabiyotining asoschisi." kh-davron.uz. Qaraldi: 17-dekabr 2024-yil.
13. M. Behbudiyning merosining milliy g‘oya tarqibotidagi ahamiyati. Toshkent: 2014. — 10-bet.
14. Iraj Bashiriy. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Qaraldi: 17-dekabr 2024-yil.
15. "Mahmudxo‘ja Behbudiy hayotining noma’lum sahifalari". uzanalytics.com (25-fevral 2020). Qaraldi: 12-dekabr 2024-yil.
16. Mahmudxo‘ja Behbudiy. (2024, November 23). oz.sputniknews.uz. Qaraldi: 23-noyabr 2024-yil.

17. Mirsaidova, Nilufar. (2024). „Mahmudxo'ja Behbudiy - buyuk ma'rifatparvar, yozuvchi“. Tamaddun nuri, № 6, 113-118-bet. Qaraldi: 23-noyabr 2024-yil
18. Hoji Muin. (1922). „Mufti Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining qanday shahid bo'lg'anlig'i va aning tomonidan yozilg'an vasiyatnoma“. Inqilob, № 1.

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙНИНГ СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ

Баҳром ИРЗАЕВ
ЎзР ВМ ҳузуридаги Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи бош илмий ходими

XIX аср охири XX асрлар бошларида Туркистонда содир бўлган сиёсий, ижтимоий ва маданий муаммолар таъсирида дастлаб маърифатпарварлик кўринишида вужудга келган миллий уйғониш ҳаракати, аста-секин ижтимоий-сиёсий тус ола бошлади. 1905-1907 йиллардаги Биринчи рус инқилоби натижасида мустабид Чор империяси конституцион монархия томонга ўтиб, парламент – Давлат думаси таъсис этилди. Давлат думасига Туркистондан ҳам депутатларнинг сайланиши ва думада мусулмонлар фракциясининг шаклланиши жараёнида халқ манфаатларини қонуний йўл билан ҳимоя қилиш имконияти пайдо бўлди. Бу эса Туркистон жадид тараққийпарварларининг сиёсий кураш майдонига кириб келиши учун шароит яратди.

Туркистон тараққийпарварларининг раҳнамоси ва ғоявий отаси бўлган Маҳмудхўжа Беҳбудий 1906 йил “Хуршид” газетасида чоп этилган “Хайрул умури авсатуҳо” номли мақоласида нафақат Туркистондаги, балки империядаги мавжуд сиёсий ҳаётни теран ва танқидий таҳлил қилиб беради. Жумладан, “Хуршид”ни қориайни киром ва муштарийи аъзомиға арз қилунурки, замонимизни сиёсий замонлигини кимса инкор этмайдур. Ҳозир Русия давлати(нинг) тариқи ҳукмронлиги(ни) ноқис эканлигига ҳар бир хабарлик киши иқрор этар. Давлат қонунларини(нг) ислоҳ ва таждидиға ҳар ким мойилдур. Аммо Русиядаги барча халойиқ бошлуча неча аслу асосға бўлунгандурлар. Бу сиёсий фирқаларни(нг) ҳар бириға ҳар бир мазҳаб ва дин аҳлидан қўшулгандур. Чунончи, насоро, яҳуд, муслим ва мажусий тоифаларини(нг) ичида бу сиёсий маслакларға мойил кишилар бордур. Ва яна ҳар тоифа ичида фирқасиз, маслаксизлар ҳам топилур[52]” деб кейин Туркистон масаласига ўтади. “...Биз, туркистонийлар, замондан камхабарлигимиз учун бир неча минг кишидан бошқа ҳаммамизни ҳеч бир фирқага мансуб емас, маслаксиз нодон фирқаси деб аталса ҳам сазодур. Ани учун биз бу 3 – 4 фирқа — партияларни асос ва маслак сипоҳийларисидин мухтасар баён қилармиз”.

[52] “Хайрул умури авсатуҳо” (“Ишларнинг яхшиси ўртачасидур”) // “Хуршид”. 1906 йил 11 октябрь.

Шундан сўнг Туркистон халқини империядаги мавжуд партиялар уларнинг мақсад муддаолари билан таништиришга киришади. “Чунончи, биринчи — «Буйрўкратияи мустабид» фирқасики, булар эски тарз ҳукумат давомини хоҳлайдур. Русияни(нг) эски ҳукмронлиги(ни) тариқи шундай эди. Импиротуримизни(нг) ҳар бир амри ва ҳукму ройи – “закун” аталиб, ҳеч лоу наамсиз барча волий, суд, вузаро ва булар қўл остида турганлар воситаси-ла ўрниға келадур...”. Монархистлар партияси ҳақида сўзлар экан уни танқид қилишни ўринлаб, “...Бу қоидани идораи мустақила (самодержовний) аталадурки, ҳозир Оврупо қитъасидаги Русия ва Туркиядан бошқа қирқ қадар катта ва кичик давлатларда йўқдур. Идораи мустақила қўл остидаги фуқароларни ҳар қанча ҳукумат одамлари ва тўраларға яқин ва муносабати ўлса ҳам аҳволи сиёсия, диния ва дунявия ва олияси дуруст бўлмай, кундан-кун таназзулдадур. Хусусан, дин ва дунё, илм ва маърифат, тамаддун ва адолат, мусовот тўғрисинда ҳаммадан кейин қолур. Чунончи, биз, мусулмонларни(нг), диний ва қавмий ҳуқуқимизни(нг) камчиликлари подшоҳ ҳазратларига етмай, етганда ҳам мажлис членлари тарафидан радд бўлуб ё илтифотсиз қолур. Буни(нг) сабаби ила биз ва бизга ўхшаш тоифалар таназзул қилуб; оҳисталик ила фирқаси, тоифаси, ватани хор ва хароб бўлуб батадриж йўқ бўлмоқ хавфи вордур...” дейди. Ўлкадаги ҳолатга қайтиб, “Ал-он биз, туркистонийлар, шу ҳол мақдамасиғамиз. Албатта, савол келадурки, Туркистон обод бўлди, илгари бой кам эди, милйўнир йўқ эди, яхши иморат ва либос ва палос йўқ эди. Боз, бас, на учун инсофсиз муҳаррири маъразлар харобмиз дея жоҳилона ёзадур деб, анга шундай жавоб бермоқ керакки, 6 милйўн туркистонийларға 3 милйўнир борлиги маълум. Йўқ, бойман деганлар банк ва фабрикантларни хизматчиси ва мадюнидур. Шаҳар ва қаръялардаги катта иморат ва казармахоналар ҳамма яҳудий ва Оврупойиларникидур... Бир даража диний ва илмий жиҳатга атф назар қилинса, вақфлар кетди, мадрасалар хароб бўлди. Борига ҳам тартиб, фехрист, мухтасиб, мумтахин, муназзам йўқ. Ески тартиб ва жадвал ва даррус кундан-кун мударрислар тарафидан таржеъ қилинур. Икки милйўн туркистонийлар мадрасасиға Худодан бошқа нозир йўқ. Бир раиси диний ва мумайизи илмий йўқ. Ўзимизда эса инсоф ва хавфи ҳақ йўқ, асло йўқ. Ва Оллоҳ, на учун саводсиз қози, илмсиз мударрис, инсофдан хабарсиз муфтий, қироатсиз имомлар оламни босди...”. Шундан кейин “Иккинчи фирқа партияни кадет машрута фирқаси аталадур. Бу партияни(нг) муроди шулки, “Миллат мажлиси” хоҳ Дума очилиб ҳар бир милйўн халқдан 3 – 4 вакил пойтахтга бориб, мажлис қуруб, барча закун ва қонунларни ҳар бир вилоятни аҳволи ва ҳар дин ва миллатни озод ва сарбастлигига ақл ва инсофига қараб таассуби ҳуқуқи башария ва риояи динияга мувофиқ тузатиб, подшоҳ ҳазратлариға топширилса. Ва

империотуримиз ҳам ўшал халқ вакиллари тайёрлаган закунларни ўрниға келмоқиға ҳумоюн фармойишларини қилсалар... Ҳар тоифаки ўз китоби, эътиқоди ва масоили динияси ўз орасига жорий бўлуб, Русиядағи барча халқ Русияни ҳар бир нуқтасиға баробар бўлуб, ҳуррияти диния, ҳуррияти шахсия, ҳуррияти ижтимоия, ҳуррияти иттифоқия ваъз ўлунуб бўлатурган қонуни жадида доиралари онинг мўътодича жорий ва мустаъмил тутулса, халойиқ вакилларини(нг) қароридан хориж ҳеч закунлар бўлмай ва вакиллари хоҳламайдурган эски закунлар ислоҳ етилса... Ҳозир Русияда бу — кадетлар фирқасиға мансуб халқ ҳар дин ва миллат аҳлидан ниҳоятда кўпдир. Собиқ Миллат мажлиси аъзоларини(нг) аксари бу фирқадан эдилар. Бу фирқа ҳақиқатда ўрта фирқадур. Мўътадил ал-мизож халқлар бу партияни хоҳлагандурлар. Бу фирқа ифрот ва тағрит ўртасиға, соғ ила сўл васатиға, ҳар бир фикр ва матлабни авсати ва марказиға бирлашган бир ҳизби мутавасситдур. Русия мамлакатиға мундин беҳроқ ҳизб йўқдур” деган хулоса беради. Сўнгида “Ифрот ва тағрит, яъни Иштирокиюн, Инқилобиюн ва Қора гуруҳ деган ҳизблар сабаби ила Русияға ҳар кун ва ҳар соат фасод ва инқилоб, бузуқлик жорий бўлуб турубдур... Учинчи “социал-демократически” — иштирокиюн ўмиюн — маъишияти муштарака фирқасидурки, бул ҳам дохилан икки фирқага бўлунур. Бири социёл демократ - иштирокиюн ўмийўн, дигари социёл революциёнер — инқилобиюндур. Буларни бошлуча муроди ҳозирги барча закун, мулкият қоидаларини бутун бузуб, мол ва ерларни ҳамма халойиқ ўртасиға муштарак қилиб, анинг манфаатини бутун халойиқ ўртасида мусовий этмоқчидур. Бойлик ва камбағалликни йўқ қилиб, дунё моли(ни) роҳатидан ҳаммани баробар фойдалантуруб, масъуд ва роҳат умр ўтказилмоқиға ва ҳар ким ўз истиқболидан амин бўлмоқига закун ва қоида жорий қилмоқчидурлар. Буларни прўграмини жорий бўлмоғига ҳозирги асримиз мусоид эмас” дейди. Тадқиқотчилар мазкур мақолада социалистик таълимот ва уни амалга оширишга уринган большевиклар партиясини кескин қоралаб чиққан деб таъриф берсаларда Беҳбудий “Балки неча асрларга таваққуфи бордур. Дунёға нелар бўлмади. Ким билур, балки замони келиб, буларни(нг) прўғрами қонуний жорий бўлса, ҳамма минкулл ал-вужуҳ баробар бўлуб, сир-китоб раъиға ёзилган Жобулса ва Жобулқо тартиб маъишати ер юзиға балки жорий бўлур. Ҳар ҳолда, бу партияни муроди мумкин лойиқиъ ёйинки хаёлийдек кўрунуб, бу тоифаға қўшулмоқ биз Мусулмонлар учун ниҳоятда зарарликдур. Прўғрамларини(нг) молия моддаларина бир оз тағйир бермағунча, шариатға мувофиқ ўлмағони каби жоний ва оила бобидаги фикрлари ҳам асло-асло тўғри келмайдур...” деган сўзлари ҳамон аҳамиятга молик.

Шундан сўнг мусулмонларнинг партияга бирлашиши масаласига ўтиб, “Тўртинчи “Русия мусулмонлари иттифоқи” ҳизбидурки, буларни партия суратиға кирганиға бир йил бўлди... Аммо сиёсий ва умумий талаб ва маслаклар тўғрисинда кадетларға қўшилатурганға ўхшайдурлар. Русия мусулмонлари ҳизби ҳам ўзга тоифалардек комитет барпо айламоқчидурлар. Идораи марказия—централний комитетлари Питрбурғда бўладур. Бу партия 31 кишини аъзои марказия сайлаб, аларға Боди Кубодаги Алимардонбек Тўпчибошев жанобларини садрнишин ва Қозондагн Юсуф афанди Оқчурин жанобларини мусташор сайлабдурлар. Бу муҳтарам аъзолар, албатта, бир неча шўъбаға бўлунадурки, шўъбаи илмий, шўъбаи сиёсийлардан иборат бўлса керак. Бу 31 нафар аъзоларина Русиядаги аҳли мусулмонлардан бир неча аъзо интиҳоб қилиб олмоқға қарор бермишлар. Аммо бу бобдаги жароид ва тасвидотға қарағанда, бизни Туркистондан бир нафар аъзо интиҳоб қилмоқға қарор бермишлар. Лекин 6 милйўнлик Туркистон мусулмонларидан бир аъзо оздур. Беш облустдан 30 нафар ҳам Бухоро ва Хева ва Туркистони Чинийдаги мусулмонлардан биртадан аъзо олмоқ лозимдур” деб таклиф беради. “Бу тўрт партияни(нг) матлаби миллий ва маслаки сиёсийларини мадомики, бир неча саҳифа ила баён ва шарҳ қилинмаса, камхабар киши тушунмайдур... Туркистоннинг муҳтарам муаллиф, муҳаррирлари ғараз, нафсоний ҳасад, баҳс ва мунозараи шахсияларини тарк етиб, шу маслак ва шу жамиятға тобеъ ва ходим бўлмоқлари хидмати дин ва давлат, обрўйи Ватан ва Миллатдур...” деб мақолани якунлайди. Дарҳақиқат, муаллиф Туркистон халқини империядаги мавжуд сиёсий партиялар билан таништиришдан ташқари сиёсий маданиятнинг аҳамияти, Ватан, Миллат обрўси учун барча зиёлиларни ўзаро нифоқларга барҳам берган ҳолда бирликка даъват этади. Умуман мақолани Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг айни пайтда Туркистон жадид тараққийпарварларининг сиёсий доктринаси деб қабул қилишимиз мумкин.

Маҳмудхўжа Беҳбудий мазкур мақоласи билан чекланмасдан ўлка учун маданий мухторият ҳуқуқини олишга ҳаракатни бошлаб юборади. 1907 йил ноябрь ойида Давлат думаси мусулмон фракциясига мурожаат этиб, Туркистон ўлкасини Россиянинг Европа қисмидан кўра кўпроқ мухторият ҳуқуқига ҳақли эканини таъкидлайди. Фракцияга ўзининг Туркистон ўлкаси учун диний ва ички ишлардаги (“Идораи руҳония ва дохилия”) эркинликни ифода этувчи “Туркистон маданий мухторияти” лойиҳасини тақдим этади. Лойиҳада Маҳмудхўжа Беҳбудий Давлат думасига Туркистоннинг мусулмон аҳолиси нуфузига мос вакил сайланиши, диний идора ишларида эркинликни, Туркистондаги ҳар қандай даражадаги бошқарувда маҳаллий аҳоли вакилларининг иштирокини таъминлаш, туркистонликлар учун мажбурий ва бепул умумтаълимни жорий этиш, уларнинг розилигисиз Туркистонга

Русиянинг бошқа ҳудудларидан аҳолини кўчиришни тўхтатиш, рус истилоси даврида тортиб олинган вақф мулкларини қайтариш каби муҳим талабларни илгари суради.

Беҳбудийнинг 25 моддадан иборат мазкур “Туркистон маданий мухторияти” лойиҳаси мазмунида очиқ-ойдин Чор Россияси ҳукуматидан Туркистон учун “сиёсий мухторият” талаб қилинган эди. Лойиҳанинг 1-моддасидан 17-моддасигача Чор Россияси ҳукми остидаги ишларга тегишли бўлиб, “Туркистон қозилари хусусинда” бўлимида қозилик ва суд ишларини ташкил этишнинг ҳуқуқий асослари ҳақида қозилар прокуратура идорасига эмас, Туркистон идорайи руҳония ва дохилия идорасига бўйсуниши ҳамда доимий равишда унинг назорати остида фаолият олиб бориши кераклиги илгари суради. Кейинги моддаларида яна ҳам кенгроқ миқёсда эркинлик ва сиёсий мухториятни талаб қилади. Хусусан 18-моддада Туркистон мактаб ва мадрасалари ҳукумат назоратидан озод бўлсун; 19-моддада Умумўрта ва олий мактабларга мусулмонлардан комиссия тайинлансун. Рус ҳарфи мусулмон миллатига жабр бўлмасун; 20-моддада ҳар хил корхона, ҳибсхона ва аскархоналаргаки мусулмон бордур, мусулмон руҳонийси тайинлансун; 21-моддасида Туркистонга дунёни ҳар тарафидаги мусулмоннинг ер олмоқға ҳаққи бўлсун ва инчунин, дунёга Туркистонлиларда шерик ўлсунлар; 22-моддасида Саҳро, биёбон, кўҳистон ва шаҳар халқини қадимдан бери ўртага қўюб муштаракан нафъланиб келаётган ёйлоқ, чашма, бийша, кон, кўл, марғзор, наҳар ва шуларга ўхшаш сабаби ҳаёт ва тараққилари бўлғучи нимарсаларидан нафланмакка маниъ бўлғучи законлар лағв (бекор) бўлсун; 23-моддасида Наҳр ва катта ва кичик ариғ сувларин тақсими аҳолини иттифоқи ва машварати ила бўлсун; 24-моддада Туркистон халқи талаб қилмағунча Туркистонга муҳожир юборилмасун; 25-моддасида Туркистон шаҳарлари дохилиндаги ерлар бу низом вазъ бўлгунча хоҳ муваққат ва абадий бўлсун, ғайри мусулмонга берилмасун” дейилган. Гарчи лойиҳа империя маъмурлари томонидан эътиборсиз қолдирилган бўлсада, Туркистон тараққийпарварларининг сиёсий дастурига айланди. Жадидлар ўзларининг сиёсий қарашларини муттасил ривожлантириб борди. 1911 йили Мунавварқори дўстлари Абдусамиғқори Ҳидоятбоев ва Ҳаким Саримсоқовлар “Турон” жамияти йўлланмаси билан мухторият асослари, турли ташкилотлар тузиш ишларини ўрганиш учун Финландияга борганлар.

1917 йил февраль инқилобидан сўнг Туркистонга мухторият олиш масаласи яна жадид тараққийпарварларининг кун тартибига кўтарилди. 1917 йил “Ҳуррият” газетасида Маҳмудхўжа Беҳбудийинг “Муҳтарам Самарқандликларга ҳолисона арз” мақоласи чоп этилди. Унда муаллиф Самарқандда яхши ниятлар билан тузилган “клуб Исломия” ташкилоти ва

унинг маданий курашга киришганини олқишлайди. Бироқ, айрим кимсаларнинг ўз манфаатлари йўлида урушиб кетгани натижасида низолар кўпайиб, бирлик қўлдан кетганидан афсусланади[53]. Айни сонда М.Шоҳмуҳаммадзода ҳам “Туркистон партиялари ва нодонлик” мақоласида ўлкадаги сиёсий аҳволни таҳлил қилади. Жумладан, “...Туркистонда ҳам партия кўп экан, лекин мақсадларини билмадик. Андижонда миркомилчевин ва мираҳмадчевин, Тошкентда уламочевин, Самарқандда нафоқчевин ва нафсониятчевин партиялари бор. Уларнинг манбаси нодонлик, манбаси илмсизлик. Бунинг оқибати ёмон бўлар... Ёшларимиз иззат нафс, мансабларни қўйиб ҳолис манфаатларсиз, халққа хизмат этарлар. Бу йўлда қаршиликларга чидарлар. Бу кун хизматлари маълум бўлмай қолса, ўлганидан сўнг маълум бўлар”[54], деб мақолани тугатади.

1917 йил ёзида Туркистонда кескин зиддиятлар остида ўтган сайловлар даврида “Турк адами марказият” партияси Туркистон федералистларининг маромномаси қабул қилинди. 1917 йил сентябрда Тошкентда Ғуломҳасан Орифхонов босмахонасида нашр этилган маромнома учун ҳам Беҳбудийнинг “Туркистон маданий мухторияти” лойиҳаси ғоялари асос бўлиб хизмат қилди. Маромноманинг 2-моддасида Россия тасарруфида яшаган барча мусулмонларни қавм ва мазҳабига кўра ажратмасдан диний масалаларни ҳал этиш учун сайланган “бир шайх ул-ислом тахти раёсати”да, яъни ислом шайхи бошчилигидаги кенгаш қошида ҳайъати диния (диний хайъат) тузиш ва бу ҳайъатда мусулмон ўлкасидаги барча миллатларнинг вакиллари бўлишини таъминлаш тўғри, деб топилди. Энг муҳими “Ҳар бир фуқаро қайси дин ва мазҳабга мансуб эканлигидан қатъий назар, қонун олдида баробардир; Ҳеч бир кимса дини, мазҳаби ва эътиқоди учун таъқиб этилмайди; виждон эркинлиги кафолатланади; Дин ва мазҳабларнинг бирортасига ҳукумат томонидан афзаллик ва имтиёз берилмайди; Ҳар бир фуқаро эркин фикрлаш ва ўз фикрини ифодалаш ҳамда матбуот орқали эълон қилиш ҳуқуқига эга; Фуқаролар хоҳ ўз уйларида, хоҳ бошқа жойларда истаган масалалари юзасидан фикрлашиш, баҳслашиш ва бир хулосага келишлари учун йиғилиш ўтказишлари мумкин; Фуқаролар бирор жамият ёки иттифоқ тузишда тўла эркинликка эга; бунинг учун давлат идораларидан рухсат олиш шарт эмас; Шахс эркинлиги ва оила дахдсизлиги давлат томонидан ҳимоя этилиб. тегишли маҳкаманинг қарорисиз бирор кишининг уйига кириб тинтув ўтказиш таъқиқланади; Ҳибсга олинган ҳар бир киши 24 соат ичида тегишли маҳкамага топширилиши лозим; Паспорт тизими тугатилиб, ҳар бир киши хоҳ

[53] Маҳмудхўжа Беҳбудий. “Муҳтарам Самарқандликларга ҳолисона арз” // “Ҳуррият”. 1917 йил 19 май. 10-сон.

[54] М.Шоҳмуҳаммадзода. “Туркистон партиялари ва нодонлик” // “Ҳуррият”. 1917 йил 19 май. 10-сон.

мамлакат ичкарисида, хоҳ, хорижда бўлсин, хоҳлаган ерига ҳеч кимдан сўрамай бориш ҳуқуқига эга; Юқорида баён қилинган барча ҳуқуқлар қонунлаштирилиб, “мудофаа ва муҳофазаи маҳкамаи олия”лар - олий мудофаа ва тартибот идораларига ижро ва назорат учун юборилади” каби жумлалар ўрин олди. Бу эса Туркистон жадид тараққийпарварларининг демократик умумбашарий қадриятларга нақадар садоқати юксак бўлганлигини ифодалайди.

Маромнома Туркистон мусулмонларининг III ўлка қурултойи томонидан 1917 йил 27 ноябрда Қўқон шаҳрида эълон қилинган Туркистон Мухторият хукуматининг давлат тизимига асос бўлди. Бироқ, Туркистон Мухторият ҳукумати раҳбарлари ўз давлат тузумларининг асосий йўналишини қонуний йўл билан мустаҳкамлашга улгурмадилар.

Кейинчалик Аҳмад Заки Валидийнинг “Жадид тараққийпарварлари партияси”нинг 19 – банддан иборат дастурида ҳам юқоридаги қарашлар яна ривожлантирилди. Унда жумладан мақсадимиз “...Туркистонни мустақил қилиб, миллий ҳукумат тузишдан иборат. Миллат тил, дин маданият, адабиёт, урф-одатлар бирлигига асосланади; Марказий ҳукумат аъзолари миллат мажлисининг розилиги билан Жумҳурият раиси (Президент) томонидан, вилоятлардаги бошлиқлар эса марказий ҳукумат тарафидан тайинланажак. Миллат мажлиси, Жумҳурият раиси, вилоят мажлисларини сайлаш тартиби мустақил Туркистоннинг биринчи қурултойи томонидан белгиланажак; Туркистон миллий ҳукумати Туркистон миллий аскарига таянажак, ҳарбий хизмат мажбурий; Маориф соҳасида бепул бошланғич таълим олиш имкониятлари яратилажак; Туркистонда энг аввало ҳунар мактаблари йўлга қўйилажак. Оврупога ўқувчилар юборишга аҳамият берилажак; Қадимий маданият ўчоғи бўлган Туркистонда асрлар мобайнида юзага келган маданият ёдгорликлари ҳимоя остига олинажак. Улар миллий маданиятнинг ўсишига хизмат этажак”[55] каби фикрларни ўқишимиз мумкин.

Хуллас, Маҳмудхўжа Беҳбудий томонидан тайёрланган “Туркистон маданий мухторияти” лойиҳаси 1917-1918 йилларда Туркистон мухторияти, Оренбург ва Уфадаги Алаш-ўрда мухторияти, Қрим-татар мухтор ҳукумати ва Бутун Русия турк-татар мухторияти каби тўртта мухторият ҳукуматлари, шунингдек учта мустақил давлат Озарбайжон жумҳурияти (1918), Бухоро халқ шўролар жумҳурияти (1920) ва Хоразм халқ шўролар жумҳуриятлари (1920) учун ҳуқуқий манба бўлиб хизмат қилди. Шу маънода Маҳмудхўжа Беҳбудийни нафақат Туркистон жадид тараққийпарварларининг маънавий

[55] Ахмад Заки Валидий. Бўлинганни бўри ер. - Т.: Адолат, 1997. - Б. 112-113.

отаси, балки Туркистонда янги замон сиёсий ва ҳуқуқий тафаккурининг доҳийси ҳам деб таърифлашимиз мумкин.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TURKISTON O‘LKASINING MUSTAQILLIGINI QO‘LGA KIRITISHGA QARATILGAN IJTIMOIY-SIYOSIY HARAKATGA QO‘SHGAN HISSASI

Boboqulov Jaloliddin Qurbonovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi “Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi” boshlig‘i
jaloliddin1107@mail.ru, 99-955-84-36

Annotatsiya: Mazkur maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston o‘lkasining mustaqilligi uchun olib borgan ijtimoiy-siyosiy harakatlari va bu yo‘ldagi qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritadi. Behbudiyning siyosiy g‘oyalari va faoliyati, asosan, milliy birlikni shakllantirish, turkiy xalqlarni birlashtirish va mustaqil Turkiston davlatini qurish maqsadlariga qaratilgan edi. U o‘z faoliyatini ilm-fan, ma'rifatparvarlik, siyosiy huquqlarni tiklash va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga bag‘ishlagan. Maqolada Behbudiyning 1917-yildagi inqilobiy jarayonlarda ishtiroki, "Turkiston" gazetasining roli, uning siyosiy harakatlari va bugungi kunda uning merosi qanday ahamiyatga ega ekanligi ko‘rib chiqiladi. Behbudiyning siyosiy kurashi va g‘oyalari mustaqil O‘zbekistonning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Turkiston mustaqilligi, Milliy birlik, Turkiy xalqlar birligi, Ijtimoiy islohotlar, Ma’rifatparvarlik, "Turkiston" gazetasi, Mustaqil davlat, O‘zbekistonning taraqqiyoti

Mahmudxo‘ja Behbudi — o‘zining ijtimoiy-siyosiy faoliyati va islohotchilik g‘oyalari bilan Turkiston va butun musulmon dunyosida keng tanilgan shaxsdir. U Turkiston o‘lkasining mustaqilligi uchun kurashda faollik ko‘rsatgan va o‘z faoliyatini asosan milliy ozodlik, ijtimoiy adolat hamda ilm-fan rivojiga bag‘ishlagan. Behbudiyning siyosiy faoliyati o‘zining asosiy e'tiborini xalqni qaror topgan siyosiy va ijtimoiy tuzumga qarshi uyg‘otishga, o‘zlikni anglash va mustaqil davlat barpo etishga qaratgan.

Mustaqillikka intilish va turkiy millatning uyg‘onishi. Behbudiyning siyosiy g‘oyalari Turkiston o‘lkasining mustaqilligini qo‘lga kiritishga bo‘lgan harakatining asosini tashkil etdi. U o‘zining fikrlarida va amaliy faoliyatida Turkiston va butun Markaziy Osiyo musulmonlarini ozodlikka erishish yo‘lida yagona kuch sifatida birlashtirishni maqsad qilgan. Behbudiyning eng muhim siyosiy g‘oyasi, shubhasiz, turkiy xalqlarni birlashtirish va ularning mustaqilligi uchun kurashish edi. U o‘z vaqtida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan hudud ekanligini chuqur anglab, o‘z g‘oyalarini mustahkamlash va bu haqda keng tarqatishga intilgan.

Milliy hissiyatni oyoqqa qo‘yish va islohotlarni amalga oshirish. Mahmudxo‘ja Behbudiyning asosiy g‘oyalaridan biri — millatni uyg‘otish va ular o‘rtasida milliy birlikni shakllantirish edi. Behbudiyning fikricha, millatni anglash,

uning ma'naviy va siyosiy o‘zligini qayta tiklash uchun barcha ijtimoiy qatlamlar, ayniqsa, ziyolilar va ta'lim olgan yoshlar faol bo‘lishi kerak edi. U Turkistondagi bilimdon kishilarni, yoshlarni, adabiyot va san'atchilarni faollikka chaqirib, mustaqil bir davlat qurish uchun jamiyatni tayyorlashga harakat qildi.

Behbudiyning ijtimoiy islohotlarga bo‘lgan e'tibori ham beqiyos edi. U Rossiya imperiyasi tomonidan o‘rnatilgan mustabid siyosatga qarshi chiqib, xalqning huquqlarini himoya qilishni o‘zining siyosiy faoliyatining asosiy yo‘nalishiga aylantirdi. Bu borada, Behbudiyning fikricha, Turkiston xalqi faqat mustaqillikka erishish uchun harakat qilishlari kerak emas, balki o‘z ichki kuchlarini ham rivojlantirishlari lozim. U xalqni tarbiyalash va ilm-fanga oid g‘oyalarini amalga oshirish orqali siyosiy va ijtimoiy islohotlarni olib borishni maqsad qilgan.

Turkistonning siyosiy mustaqilligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatish. Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy faoliyatidagi yana bir muhim jihat — u mustaqil Turkiston davlatini qurishga bo‘lgan qat'iyatli intilishlari edi. 1917-yilgi Fevral inqilobi va 1917-1918-yillardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasidan mustaqil bo‘lishi uchun bir imkoniyat yaratdi. Behbudiyning eng muhim harakatlaridan biri bu — Turkiston xalqlarining siyosiy huquqlarini tiklash va mustaqil hayotga erishish uchun tashkil etilgan siyosiy qo‘shni davlatlar bilan aloqalar o‘rnatish edi.

Behbudiyning turli siyosiy platformalar va tashkilotlar bilan aloqasi, masalan, o‘zbek xalqining ma'naviy va siyosiy ehtiyojlarini ilgari surishdagi ishtiroki, uning harakatlarini yanada kengaytirdi. U "Turkiston" gazetasini nashr etib, mustaqillik g‘oyalarini, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni va mustaqil Turkiston orzusini keng ommaga etkazishga muvaffaq bo‘ldi. Bu gazeta orqali Behbudiyning milliy va siyosiy g‘oyalari nafaqat Turkistonda, balki butun musulmon dunyosida keng tarqaldi.

Behbudiyning shaxsiy kurashi va merosi. Behbudiyning o‘zining siyosiy kurashi nafaqat ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan edi, balki u o‘z xalqining ruhiy uyg‘onishi, ilmiy salohiyatini oshirish va milliy o‘zlikni tiklashga ham alohida e’tibor berdi. U o‘zining hayoti davomida nafaqat siyosiy, balki ma'rifiy sohada ham inqilobiy islohotlarni amalga oshirdi. Behbudiyning siyosiy faoliyatidagi g‘oyalari va kurashlari bugungi kunda ham mustaqil O‘zbekistonning taraqqiyotiga hissa qo‘shgan.

Xulosa. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati Turkiston o‘lkasining mustaqilligini qo‘lga kiritish borasidagi kurashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. U milliy birlikni shakllantirish, Turkiston xalqlarini birlashtirish va mustaqil davlat qurish uchun katta harakatlar qildi. Behbudiyning siyosiy g‘oyalari va islohotchilik faoliyati faqat o‘z davrida, balki kelajakdagi mustaqil davlatning shakllanishida ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning merosi va g‘oyalari bugungi kunda

ham o‘zbek xalqining ma'rifatparvarlik va mustaqillik yo‘lidagi kurashining asosiy turtki hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedov, K.. *Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy faoliyati va g‘oyalari*. Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti. 2010 y.
2. Tursunov, A.. *Behbudiyning milliy birlik va mustaqillik yo‘lidagi kurashi*. Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi. 2012 y.
3. Rahmatov, A.. *Behbudiyning ijtimoiy va siyosiy islohotlar yo‘lidagi kurashi*. Toshkent: O‘zbekiston xalqaro nashriyoti. 2008 y.
4. Ismailov, B.. *Mahmudxo‘ja Behbudiyning turkiy xalqlarni birlashtirishdagi roli*. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti. 2007 y.
5. Shamsutdinov, A.. *Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy g‘oyalari va ularning hozirgi O‘zbekistondagi o‘rni*. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti. 2004 y.
6. Muminov, Sh.. *"Turkiston" gazetasi va Behbudiyning mustaqillik g‘oyalari*. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti. 2011 y.
7. Usmanov, B.. *Behbudiyning siyosiy kurashi va uning milliy uyg‘onishdagi ahamiyati*. Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti. 2013 y.
8. Abdurahmanov, Sh.. *Behbudiyning ijtimoiy islohotlari va ularning mustaqil Turkiston orzusiga qo‘shgan hissasi*. Toshkent: O‘zbekiston tarix va madaniyat nashriyoti. 2015 y.
9. Sadikova, N.. *Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik g‘oyalari va ma'rifatparvarlik harakati*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti. 2009 y.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY: BIZGA ISLOHOT KERAK!

MAHMUDXO'JA BEHBUDİY: REFORMAYA İHTİYACIMIZ VAR!
MAHMUDKHODJA BEKHBUDIY: WE NEED REFORM!
МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИЙ: НАМ НУЖНА РЕФОРМА!

Darmonova Mashhuraxon
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
mashxura.darmonova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Hurriyat”, “Najot”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Oyina” kabi jurnal va gazetalardagi davrning muhim ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalarga bag‘ishlangan xabar hamda maqolalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidlar, noshir, “Hurriyat”, “Najot”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Oyina”, jadid matbuoti, maqolanavis.

O‘zbek maqolanavislik maktabiga tamal toshini qo‘yib, unga xalqchillik ruhini baxsh etgan allomalardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiydir. U “Turkiston viloyati gazeti”, “Taraqqiy”, “Tujjor”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Osiyo”, “Turon”, “Hurriyat”, “Najot”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Ulug‘ Turkiston” gazetalari va “Oyina” jurnalida o‘zbek va fors-tojik tillarida besh yuzdan ziyod maqola yozgan. Bizga ma’lum bo‘lgan va mustaqillik tufayli bugungi matbuot sahifalarida e’lon qilinayotgan maqolalarning o‘ziyoq bu ijodkorning fikr hofizasi keng ekanligini isbotlay oladi. U o‘z davrining faol va fidoyi farzandi sifatida zamonning barcha muammolariga munosabat bildirgan. Xalqni har jihatdan yuksaklikka ko‘tarish choralarini qidirgan. Barcha ma’rifatparvarlar kabi u ham xalqni ma’naviy jihatdan kamolga etkazmay turib, uni farovonlikka erishtirib bo‘lmasligini tushungan. Uning nafaqat darsliklarining, balki matbuotdagi maqolalarining bosh mavzusi ham shu edi.

Ismoil G‘asparali kabi Mahmudxo‘ja Behbudiy ham rus-tuzem maktablariga qarshi chiqqan. Bu xil maktablarni ochishdan chor hukumatining maqsadi erlik xalqqa dunyoviy bilimlarni berish emas, balki o‘ris pomeshchigi bilan musulmon dehqoni o‘rtasida tilmoch vazifasida ishlovchi vositachi tayyorlash ediki, bular jadidlarni qanoatlantirmas edi. Nega? Bu bilan millatni ilg‘or millatlar safiga olib chiqib, madaniy taraqqiyotga erishtirib bo‘lmas edi. Rus-tuzem maktablarida berilayotgan bilimlar asosan erlik aholini qullik asoratida saqlashga qaratilgan edi [1].

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyina” jurnalida “Yoshlarg‘a murojaat!” nomli maqola bilan chiqqan. Unda shunday fikrlar bor: “Bizni Turkiston va Buxoroda bir zaif muhtaram yoshlar mavjuddirki, hukumat mahkamalarinda tijoratxona, bank va korxonalarga kotib, tarjimon, molfurush va dallollik yoyinki nasiyachilik ila mashg‘uldurlar” [2].

Mahmudxo‘ja Behbudiy bunday chala bilim bilan qanoatlanib qolish zarardir, degan fikrni qat’iy qilib aytgan. U ma’rifat ko‘chasiga kirgan, lekin uning adog‘iga etishni istamayotgan, ya’ni chala bilim bilangina qanoatlanib qolayotgan yoshlar bilan fikran bahsga kirishgan. “Men ota-onamga nisbatan savodlimanku, shu kifoyada”, degan fikrning puch ekanligini ta’kidlab, “Vazifa olmoqqa va ish qilmoqqa ilm zamona degan narsa lozim ekan. Va har kim bu qadar bilgusi vazifa olar ekan. Bas, Siz muhtaramlar ham o‘z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki

Sizdan ko‘ra taraqqiy etsa (din va millatga xizmat ilm va aqcha ila bo‘lur), shu ilm zamona tahsil qilmog‘i uchun harakt qilmog‘ingiz lozimdur. Hamvatanlarimiz mulkini sotib to‘y qilganlaridek Sizda hatto lozim bo‘lganda mulkingizni sotsangizda o‘g‘lingizni zamoncha o‘qimog‘iga sa’y qilingiz. To‘yg‘a isrof qilinaturg‘an aqchalarni o‘qimoq yo‘lig‘a sarf qilingiz!” degan.

Bunday fikrlar Behbudiyning bir qator maqolalarida ta’kidlanadi. U bir maqolasida “Ma’rifatsiz millat inqirozga mahkumdir”, degan fikrlarni dadillik bilan aytganki, bu gaplarning zaminida katta haqiqat bor edi. Ayniqsa, jadid maktablari targ‘ibotiga bag‘ishlangan maqolalarida fidoyi farzandning Vatan va millat istiqboli haqida kuyunchaklik bilan aytgan so‘zlarini ko‘plab uchratish mumkin. U millatni taraqqiyotga erishuvida yolg‘iz maktabgina emas, uning yonida boshqa shahobchalar ham bo‘lmog‘i va faoliyat ko‘rsatmog‘i zarurligini uqtiradi. Jumladan, u “Kiyim va tashabbuh mas’alasi”, “Libos, qiyofat” maqolalarida kiyinish madaniyatiga, davr taqozosi bilan kirib kelayotgan yangicha kiyimlarga din ahillarining munosabatlarini qattiq turib tanqid qilgan. Ular tomonidan falon narsani kiyish gunoh, piston narsani eyish makruh deya tarqatilgan bid’atlar islomda yo‘qligini bir qator inkor qilib bo‘lmas dalillar bilan rad etgan. Tabiiyki, uning bunday qarashlariga qarshi kurash to‘xtamagan. Turli fitnalar uyushtirilgan. Biroq bu harakatlar uning intilishlarini bir lahza bo‘lsa-da susaytirmagan.

“Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi Behbudiy publitsistikasining go‘zal namunalaridan biri bo‘lib, unda muallif til bilishning xosiyati haqida aytib, shunday deydi: “Arabiy bilmasak, din, ruscha bilmasak, dunyo qo‘ldan ketar”. Uning donishmandlik bilan aytgan fikrlaridan zamon ruhi aniq sezilib turganligini payqash qiyin emas. U o‘z farzandlari Mas’ud hamda Parvinlarni dastlab usuli jadida maktablarida, so‘ngra gimnaziyada o‘qitgan. Keyinchalik o‘g‘li Mas’ud adabiyotshunoslik ilmi bilan shug‘ullangan. Tarjimon sifatida bir qator ibratli ishlar qilgan [3].

Behbudiyning “Samarqandda milliy ishlar haqinda” maqolasi [4] o‘z davrining muhim masalasiga bag‘ishlanganligi bilan diqqatga molikdir. “Hurriyat”



gazetasining sahifalarida ko‘tarilgan masalalarning muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishga taklif etilganlar kelmaganligidan qattiq iztirobga tushgan muallif: “11 va 12 iyulda Samarqandda majlis muassislari intizorda bo‘lundilar. Ruslarda besh-o‘n nafar keldilar... Ammo Samarqand viloyatining Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Xo‘jand va O‘ratepa shaharlaridan birgina nafar kishi bo‘lsun, ushbu majlis uchun kelmadilar.

Holbuki bu majlisda Turkiston uchun hayotiy masalalar mazkur bo‘lunur edi. Bilmayin bu qadar e’tibor etmaslik va jonsizlikning sababi nadur?”

Xo‘sh, bu yig‘ilishni chaqirishdan muddao nima? Asosan xalqning milliy, diniy, siyosiy ishlarga ongli aralashuvini kuchaytirish, yaqinda bo‘ladigan saylovlarga puxta tayyorgarlik ko‘rishga da’vat etgan. Afsuski, rahbarlar bu nozik masalaga loqaydlik bilan qaraganlar. Muallif ana shunday kishilarga qarata: “Oy, aziz hamvatanlar! Maqul va nafihlik so‘z va maslahatlarni eshitmoq kerak. Bir oz madaniy harakatga kelmoq kerak. Boshqalardan ibrat olmoq lozim. Bu sukutimiz, jonsizligimiz gunohdur, aybdur. Yig‘lamagan bolaga sut berilmas, harakat va sa’y etmoguncha haq olinmas, oldimizda shahar dumalari va mamlakat dumasi saylovi bor. Anga ishlamoq kerak, loyha va talabnomalar hozirlamak kerakdur”, deya ta’kidlagan.

U “Bizga islohot kerak” maqolasida chor hukumatining saylovlar borasidagi siyosatiga o‘z e’tirozini bildirgan. Hukumatning “har bir 25 yashar turkistonlikni qozi vo‘lostnoy bo‘lishi mumkindur” degan qonuni qatida boshqa maqsadlar borligini aytib, yuqori lavozimlarga qobiliyatli, bilimli insonlarni emas, puldor chalasavodlarni, davlat ishlariga farosati etmaydigan kimsalarni saylashga yo‘l ochilayotganligidan tashvishga tushgan. Chunki bunday kimsalar millatni emas, o‘z cho‘ntagini o‘ylaydigan arzimagan mansabga, boylikka millatni mustamlakachilarga tutib berishga tayyor turgan iymonfurushlar deb bilgan. Shuning uchun ham u xonlar zamonidagi qozi saylash borasidagi ishlardan ibrat olishga undagan.

Mustamlakachilarning maorif sohasida olib borgan siyosati ham noto‘g‘ri ekanligini dalillab, shunday degan: “Eski zolim hukumatning ish va din buzguvchi odamlari va misso‘nerlari madrasalarimiz va maktablarimiz to‘g‘risinda ham bizni

hayvonotg‘a va jaholat maydonig‘a ham yo‘q va mahv bo‘lush chuqurig‘a sudraydurg‘on zakunlar vaz’ etdi. Madrasani hech nima bilmaydurg‘on talabalarni madrasag‘a saylab qo‘yush tadbirini zakun qilib chiqardilar” [5].

Nega shunday qonunlar chiqarildi? Xalqni asoratda saqlash, ma’rifat nurlaridan bebahra etish uchun. Chunki bunday odamlarni idora etish, ezish oson bo‘ladi. Behbudiy masalaning ana shu nozik tomonlariga diqqatni qaratgan.

“Haq olinur, berilmas” maqolasida muallif eski hukumatning yiqilishi-yu yangisining tarix maydoniga kelishi Turkistonda ham bir qator o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi, degan fikrlarni rivojlantirib, asosan, muxtoriyat haqidagi mulohazalarini bayon etgan. Turkistonliklar o‘z taqdirlarini o‘zlari belgilaydi, degan fikr uning maqsadlarining ifodasi sifatida jarangladi. Turkiston chor hukumati bilan hamkorlikda xorijga chiqadi, u o‘z aravasini o‘zi tortadi, kabi mulohazalarni aytib, “O‘zimizning muhofazamiz uchun milliy jandarma, askarimiz bo‘lur”, deydi. U yana o‘z fikrini davom ettirib, “Mamlakatimiz xazinasidan boshqa milliy va madaniy ishlarimizning masrafi uchun o‘zimizning alohida xazinamiz bo‘lur. ...davlat va siyosat ishlaridan boshqa barcha ishlarimiz o‘z ixtiyorimizda bo‘lur. Va muning uchun zamonaviy va madaniy nizomnoma va qonunnomalar tahrir etmoq lozimdur” [6].

Albatta, Mahmudxo‘ja Behbudiy bu fikrlarni muxtoriyat qonunlaridan kelib chiqib, jahondagi federativ davlatlar tajribalariga suyangan holda aytgan edi. Afsuski, uning 1917-yili ilgari surgan g‘oyalari amalga oshmadi, armon bo‘lib qolaverdi. “Turkiston muxtoriyati” [7] deb nomlangan maqolasi ham yuqoridagi maqsadga qaratilgan va unda xalqqa diniy masalalarda erkinlik berilishi lozimligi alohida uqtirilgan bo‘lib, bu fikrlar erlik aholi ruhiyatidan kelib chiqib aytilgan edi. Lekin bu ham amalga oshmadi.

Umuman olganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy maqolalarida ko‘tarilgan masalalar millat va yurt taqdiri, uning ertangi istiqbolini o‘ylab aytilgan edi. Davr ko‘pchilik ma’rifatparvarlarning hur fikrlariga bepisandlik bilan qaragani kabi Behbudiy qarashlariga ham befarqlik bilan munosabatda bo‘ldi. Mana endigina, uning teran fikrlari qanchalik to‘g‘ri ekanligini, darhaqiqat o‘sha davrda, millat va yurt ravnaqi uchun islohot kerak bo‘lganligini sezib turibmiz.

Manba va adabiyotlar:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimai holi // “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi. 1920-yil 8-aprel.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Yoshlarg‘a murojaat // “Oyina” jurnali. 1914-yil 1-mart. 19-son.
3. Mahmudxo‘ja. Ikki emas, to‘rt til lozim // “Oyina” jurnali. 1913-yil 20-avgust. 1-son. 12 – 14-betlar.

4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Samarqandda milliy ishlar haqinda // “Hurriyat” gazetasi. 1917-yil 23-iyul.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Bizga islohot kerak // “Najot” gazetasi. 1917-yil 3-iyun.
6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Haq olinur, berilmas // “Hurriyat” gazetasi. 1917-yil 13-iyul.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Turkiston muxtoriyati // “Hurriyat” gazetasi. 1917-yil 19, 22-dekabr.

TURKISTON MUXTOR HUKUMATINING SOVETLAR TOMONIDAN AG‘DARILISHI

Zuxriddin Junayev
Navoiy davlat universiteti, “Tarix” kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

Anotatsiya: Ushbu maqolada 1917-yilga kuziga kelib Turkiston ijtimoiy siyosiy hayotida o‘lka Muxtoriyati faoliyatini tashkil etish g‘oyasi asosiy masala bo‘lib qolganligi, Turkistonga muxtoriyatining vujudga kelishi, uning umumxalq tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, Turkiston muxtoriyatining sovetlar tomonidan ag‘darilishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘z: Turkiston muxtoriyati, milliy ziyolilar, qurultoy, Ulug‘ Turkiston, bolsheviklar,syezd, Muxtoriyat konstitutsiyasi

Аннотация: В данной статье анализируется вопрос о том, что к осени 1917 года в социально-политической жизни Туркестана центральным вопросом стало создание идеи Туркестанской автономии, рассматривается возникновение Туркестанской автономии, её поддержка населением, а также свержение Туркестанской автономии советской властью.

Ключевое слово: Туркестанская автономия, национальная интеллигенция, съезд, Великий Туркестан, большевики, съезд, конститутция автономии.

Abstract: This article analyzes the emergence of the idea of establishing an Autonomic Government in Turkestan as a central issue in the socio-political life of the region by the autumn of 1917, the establishment of Turkestan autonomy, its popular support, and its subsequent overthrow by the Soviets.

Key word: Turkestan Autonomy, national intellectuals, or convention, Great Turkestan, Bolsheviks, congress, Autonomy Constitution.

Turkistonda 1917-yil kuziga kelib o‘lka hokimiyatini tuzish masalalarida turkistonlik bolsheviklar tutgan yo‘lga o‘tgan Ishchilar, soldatlar va dehqonlar deputatlari III O‘lka s’yezdining qarorlari, Rossiya respublikasi Xalq Komissarlari Sovetining bir qancha qonuniy aktlari bilan tasdiqlangan sovet hokimiyati tamoyillariga teskari kelib qoldi. 1917-yil 2-noyabrdagi “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi” “Rossiya xalqlarining ajralib chiqib, mustaqil davlat tuzishgacha bo‘lgan o‘z-o‘zini erkin belgilash huquqini” tantanali suratda e’lon qilgan edi. Ushu huquqqa muvofiq, Xalq Komissarlari Soveti “Rossiya va Sharqning barcha musulmon, mehnatkashlariga” degan maxsus murojaatida mana shunday deb da’vat qilgan edi: “O‘z milliy turmushingizni erkinlik va bemalollik bilan quring. Bunga

sizning haqqingiz bor. Shuni bilingki, sizning haq-huquqlaringiz ham, xuddi barcha Rossiya xalqlarining haq-huquqlari singari, inqilob va uning organlari, ishchilar, soldatlar va dehqonlar deputatlari Sovetlarining butun salohiyati bilan qo‘riqlanadi”[1].

Turkiston bolsheviklari va so‘l eserlar Turkiston musulmon aholisining o‘lkani boshqarishga bo‘lgan huquqini rad qilib, hokimiyat to‘g‘risidagi masalani kelishib hal qilish imkoniyatini inkor etdilar va shu bilan o‘lka siyosiy hayotidagi kuchlarning kelajakda muxolif turib qolishini oldindan muqarrar qilib qo‘ydilar. S’yezd qarorlari koalitsion hukumat tuzishda kelishish mumkinligiga shu s’yezddan oldin umid bog‘lab yurganlarning hayollarini uzil-kesil chippakka chiqardi va o‘zlarining bolsheviklarga qo‘shilmay, ulardan ajralishga s’yezddan ilgari ham qattiq ahd qilganlarning mavqeiyiylarini yanada kuchaytirdi. Mana shu kayfiyatlar O‘lka musulmonlarining favquloddagi IV s’yezdi ishiga ta’sir o‘tkazdi. Bu s’yezdning chaqirilishi Toshkentdagi qurolli qo‘zg‘olon g‘alaba qilganidan keyingi birinchi kunlardayoq milliy demokratiya etakchilari tomonidan e’lon qilingan edi. S’yezd 26-noyabr kuni Qo‘qonda ish boshladi. Unda o‘lkaning barcha mintaqalari va ko‘pgina jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq delegat hozir bo‘ldi.

Turkistonni boshqarish shakli to‘g‘risidagi masala s’yezdning diqqat markazida turdi. Bu masala muhokamasida so‘zga chiqib bildirilgan fikrlarning ko‘pchiligi Turkistonning muxtor respublika deb e’lon qilinishiga qarshilik ko‘rsatayotgan bolsheviklarning siyosatiga, ularning musulmon aholisi ichki turmushiga aralashuviga qarshi qaratilgan keskin tanqid bilan ajralib turar edi. Muxtoriyat va mustaqillik e’lon qilish fikrini hamma qo‘llab-quvvatladi.

27-noyabr kuni yakdillik bilan qabul qilingan rezolyutsiyada mana bunday deyilgan edi: “O‘lka umummusulmonlarining favquloddagi IV s’yezdi Turkistonda yashab turgan elatlarning Ulug‘ Rossiya inqilobi e’lon qilgan asoslarda o‘z-o‘zini belgilashga bo‘lgan istak-irodasini ifodalab, Turkistonni Rossiya Federativ Demokratik respublikasiga birlashgan hududiy muxtoriyat deb e’lon qiladi va muxtoriyat shaklini belgilashni eng yaqin muddatda chaqirilishi kerak bo‘lgan Turkiston Ta’sis majlisi ixtiyoriga beradi hamda tantanali suratda shuni ma’lum qiladiki, Turkistonda yashab turgan mayda millatlarning huquqlari har qanday yo‘llar bilan himoya etiladi”[2].

Tashkil etiladigai davlat tuzumining nomi 28-noyabr kuni belgilandi – unga “Turkiston muxtoriyati” degan nom qo‘yildi. S’yezd Butunrossiya ta’sis majlisi chaqirilguncha hokimiyatni yangi tuzilgan “Muvaqqat Turkiston Kengashi” va “Turkiston xalq majlisi” ga berdi.

Muvaqqat hukumat hay’atiga s’yezd 8 kishini sayladi: Muhammadjon Tanishboyev – bosh vazir, ichki ishlar vaziri; Islom Shoahmedov – bosh vazir o‘rinbosari; Mustafo Cho‘qayev – tashqi ishlar vaziri: Ubaydulla Xo‘jayev harbiy

vazir va boshqalar shular jumlasidandir. Qolgan to‘rtta joy evropalik xalqdan saylangan vakillarning egallashi uchun qoldirildi.

Muvaqqat hukumat a’zolari 1-dekabr kuni xalqqa maxsus murojaat qildilar. Murojaat o‘lkada yashab turgan barcha millat-elatlarning farovonligi, madaniy taraqqiyoti va yaqin hamdo‘stligini ta’minlash yo‘lida Muxtor Turkistonning demokratik erkinliklarga hamda baynalmilallik tamoyillariga sodiqligini ma’lum qilib, “Turkistonning barcha fuqarolarini – musulmonlar, ruslar, yahudiylar, ishchilar, soldatlar va dehqonlarni, o‘lkada yashab turgan barcha avlodlar va xalqlarni, o‘z-o‘zini boshqaruvchi shahar va zemstvo muassasalarini, siyosiy, jamoat va kasaba tashkilotlari hamda uyushmalarini, barcha davlat, jamoat va xususiy muassasalarni Turkiston xalq hokimiyati atrofida birlashishga va shu hokimiyat zimmasiga yuklatilgan og‘ir vazifalarni hal qilishda unga yordam berishga” da’vat etdi[3].

Muxtoriyat e’lon qilinishini Turkiston xalqlari ko‘pdan beri orzu qilingan o‘z milliy davlatiga ega bo‘lish deb bildilar, bunga javoban ommaviy birdamlik harakati boshlanib ketdi, 1917-yil 6-dekabr kuni Toshkentning eski shaharidagi 60 ming kishilik musulmonlarning mitingi Muxtor Turkiston hukumati tuzilganini qizg‘in muborakbod qildi va o‘lkadagi yagona hokimiyat deb tan oldi.

“Muxtor Turkiston uchun!” degan shiorlar ostida 13-dekabr kuni Toshkentda tinch bayram namoyishi boshlandi. Biroq, u fojia bilan tugadi. Sobiq podsho ofitserlari va amaldorlari guruhi tomonidan g‘alamislik bilan uyushtirilgan tartibsizliklarga javoban Toshkent Soveti Ijroiya qo‘mitasi shaharda kuch bilan tartibni tiklashga buyruq berdi. Tinch namoyish pulemyot o‘qi ostida qoldi, begunoh qurbonlar qoni bilan bo‘yaldi.

Turkiston muxtoriyati Muvaqqat hukumati maxsus murojaatida muxtoriyat himoyasiga qaratilgan tinchlik harakatidan urush chiqarish uchun foydalanishga bo‘lgan urinishni qoralab, “Turkiston xalqini sabr-toqat ko‘rsatib, osoyishtalikni saqlashga” da’vat etdi, “mana shu muhim kunlarda osoyishtalikni saqlash musulmonlar uchun juda zarur” deb ko‘rsatdi.

13-dekabrdagi namoyish munosabati bilan Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Soveti ham 14-dekabrda xalqqa murojaat bilan chiqdi. Unda to‘kilgan qon uchun ayb sovetlarga qarshi bir to‘da kuchlar zimmasiga qo‘yilib, bu harakat bilan ular inqilobiy hokimiyatni shunday keskin va qattiq choralar ko‘rishga, hokimiyat bulardan o‘zini olib qochmoqchi ekanligi, lekin u juda ham katta zaruriyat yuzasidan shunday choralarni ko‘rishga majbur bo‘lgani ta’kidlangandi.

Lekin Turkiston muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlash harakati kuchayib boraverdi. Turkiston o‘lkasi musulmonlarining Harbiy kengashi tashabbusi bilan 25-dekabr kuni Qo‘qonda chaqirilgan Ishchilar, soldatlar va dehqonlarning favquloddagi I s’yezdi muhim voqea bo‘ldi. Turkiston Muxtoriyatiga munosabat

to‘g‘risidagi masala s’yezdning diqqat markazida bo‘lib qoldi. Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining a’zosi, bolshevik P. G. Poltoratskiyning s’yezddagi so‘zlari hozir bo‘lganlarning keskin noroziligiga sabab bo‘ldi. Poltoratskiy o‘zining: “Biz kambag‘allar muxtoriyatiga qarshi emasmiz, lekin biz boylar muxtoriyatiga qarshimiz” degan so‘zlari bilan Butunturkiston musulmonlari s’yezdining Muxtor Turkiston tuzish to‘g‘risidagi qarorlari qonuniy ekanligini shubha ostiga keltirib qo‘ydi. Juda qizg‘in muhokamadan keyin s’yezd maxsus qaror qabul qilib, bu qarorda musulmonlar IV s’yezdining tarkibi go‘yo burjuaziya vakillaridan iborat deb tarqatilayotgan mish-mishlarni keskin rad etdi va s’yezdning o‘lkadagi barcha musulmonlar aholsi nomidan ish ko‘rishga vakolatli ekanligini tasdiqladi.

13-dekabr kuni tinch namoyish mahalida begunoh odamlarning qoni to‘kilganda Toshkent “Ulamo” tashkiloti tomonidan 1918-yil 5-yanvarida chaqirilgan miting qatnashchilari Muxtor Turkistonning Muvaqqat hukumatiga ishonchsizlik bildirdilar. Miting qarorlarining oqibatlari jiddiy bo‘lib chiqdi: musulmon aholisining birligi xavf ostida qoldi. Ravshanki, Vazirlar mahkamasi rahbariyatining almashinishida shu qarorlar kattagina rol o‘ynadi: M. Tanishboyev o‘rniga M. Cho‘qayev bosh vazir etib tayinlandi.

Oziq-ovqat masalalari, harbiy va moliyaviy masalalar Muvaqqat hukumat uchun jiddiy muammolar tusiga kirib bordi. Chuqurlashib borayotgan oziq-ovqat tangligi, militsiyani ta’min qilib turish, gazetalar nashr etish, hukumatning o‘zini ta’minlab borish va boshqalar moliyaviy ahvolni tobora mushkullashtiraverdi. Chiqarilgan 30 millionli zayomdan kutilgan murod hosil bo‘lmadi. Harbiy tuzilmalar soni ortib borishi bilan sarf-xarajatlar yanada ko‘paydi. “Ulug‘ Turkiston” gazetasining 1918-yil yanvaridagi xabariga ko‘ra, “muntazam milliy armiyadagi kishilar soni 2 ming nafarga etdi”[4]. Bundan tashqari, Qo‘qon militsiyasining boshlig‘i Ergashning qo‘l ostida ham talaygina kuchlar bor edi.

Ishchi va soldat deputatlari Qo‘qon Sovetining kuchlari 30-yanvardayoq, bir kunning o‘zida safarbar tayyorlik holatiga keltirildi: favqulodda organ – Inqilobiy qo‘mita (Revkom) tuzildi, ishchilar va temiryo‘lchilarning qo‘llariga miltiqlar berildi, Toshkent, Skobelev, Andijon, Namangandan harbiy madad so‘raldi, kechasi bo‘lib o‘tgan voqealarni va Muxtoriyat muvaqqat hukumatiga qo‘yilgan ultimatumni – qo‘lga olinganlarni 3 soat ichida ozod etish va hujumning barcha tashabbuskorlarini tutib berish to‘g‘risidagi talablarni ma’lum qilib, aholiga maxsus chaqiriq chiqarildi; Muvaqqat hukumat a’zolarini qamoqqa olish uchun Inqilobiy qo‘mita a’zolaridan maxsus guruh tuzildi. Bu xatti-harakatlarning hammasi shahar sovet hokimiyati organlarining Turkiston muxtoriyatini kuch ishlatish yo‘li bilan yo‘q qilishga qattiq ahd qilganidan darak berar edi.

Qarshi tomonning tajovuzkorligi ham kuchayib bordi. Lekin 30-yanvar kuni muxtoriyatchilik harakatining hamma tarafdorlari ham bunday kayfiyatga hali

berilmagan edi. Revkom tomonidan eski shaharga yuborilgan guruhning Muvaqqat hukumat a’zolari bilan uchrashuvi ana shuni ochiq-oydin namoyish qildi. Shu guruh a’zolaridan birining dalolat berishiga qaraganda, Muvaqqat hukumat boshlig‘i M. Cho‘qayev kechasi bo‘lib o‘tgan voqealardan bexabar bo‘lib chiqdi va ro‘y bergan hodisalardan qattiq hayajonlanib, muzokaralar olib borishga tayyorligini bildirdi. Lekin muxtor hukumat tarafdori Yusuf Dovidov “fuqarolar urushi olib borish” ga qat’iy qaror berilganini uzil-kesil ma’lum qildi. O‘sha kunning o‘zida boshqa bir delegatsiya endi sovet organlariga Muvaqqat hukumat nomidan ultimatum berdi: uch kun ichida qal’a bo‘shatib qo‘yilsin degan talabnoma topshirdi.

Urushning bosh g‘ildiragi aylantirib yuborilgan va tomonlardan birontasi ham uni to‘xtatishni istamas edi. Artilleriya bilan qurollangan, K. Osipov rahbarligidagi guruhning 31-yanvarga o‘tar kechasi Skobelevdan kelishi bilan zo‘rayib qolgan Ishchi va soldat deputatlari Qo‘qon Sovetining qurolli kuchlari ertalabdan turib eski shaharni pulemyotdan o‘qqa tuta boshladi. Muvaqqat hukumat va Musulmon deputatlari sovetiga keskin tarzda harbiy qismlarni qurolsizlantirish va 30-yanvardagi voqealar ishtirokchilarini topshirish taklif etildi. Bunga javoban Muvaqqat hukumat guruhlari eski shahar tomondan hujum boshladi. Shunda keskin harakatlar tarafdorlarining tazyiqi ostida Inqilobiy qo‘mita K. Osipovga Muvaqqat hukumatni qamoqqa olish to‘g‘risida buyruq beradi, birmuncha keyinroq esa artilleriya ishlatishga ruxsat etadi.

Sovetlar qurolli kuchlarining Muxtor hukumat qarorgohini to‘p-zambaraklardan qattiq bombardimon qilishi o‘t ostida qolgan eski shahar aholisiga qarshi bema’ni va shafqatsiz urushga aylanib ketdi. Bulardan hammasining ustiga-ustak, Qo‘qon ko‘chalarida yong‘inlar chiqib, o‘g‘riliklar boshlanib ketdi.

Ana shu mushkul ahvol eski shahar aholisini qo‘lga qurol olishga undadi. Boltalar, belkuraklar, tayoqlar bilan qurollangan odamlar Muvaqqat hukumatning harbiy qismlariga qo‘shilib, o‘sha kunlari avj olib ketgan ko‘cha janglarida, qal’a shturmida qatnashdilar. Biroq, ularning hamma urinishlari behuda ketdi.

Eski shahar aholisini vahima bosdi, bu vahima yangi shaharga ham o‘tdi. Turli-tuman mish-mishlar ta’siri bilan bu vahima kuchaygandan kuchayaverdi. Nochor ahvolda qolgan aholi sarosima ichida shahardan qochib, yaqin-atrofdagi qishloqlarga yashirindi.

Aholi ikkala tomondan bema’ni qirg‘inni to‘xtatish va tinch muzokaralarni qayta boshlashni talab qila boshladi. Lekin ularning hamma urinishlari behuda ketdi. Muvaqqat hukumat militsiyasiga boshchilik qiluvchi Ergash va uning tarafdorlari to‘ntarish o‘tkazdi, M. Cho‘qayev mahkamasi ag‘darildi, Muvaqqat hukumat Harbiy Kengashining raisi M. Chanishev va uning eng yaqin safdoshlari – rus ofitserlari qamoqqa olindi. M. Cho‘qayev va Muvaqqat hukumatning liberal-demokratik qanotini tashkil etuvchi boshqa a’zolari Ergashdan yashirinib, Qo‘qonni

tashlab chiqib ketdilar. Faqat ichki milliy kuchlarga tayanadigan, Turkistonning mustaqilligi va Rossiyadan ajralib chiqishi uchun qurolli qarshilik ko‘rsatishga tarafdor bo‘lgan murosasiz kuchlar hokimiyat tepasiga keldi. Lekin Muxtor Turkiston hukumatidagi bu o‘zgarishlar uning yaqinlashib kelayotgan mag‘lubiyatini to‘xtatib qololmas edi.

5-fevraldan 6-fevralga (hozirgi kalendar hisobi bo‘yicha 18-fevraldan 19-fevralga) o‘tar kechasi Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tomonidan yuborilgan 11 eshelon harbiy qismlar Qo‘qonga etib keldi. Otliq askarlar, artilleriya va piyoda qismlari bilan birga Turkiston o‘lkasining harbiy komissari Ye. O. Perfilev ham keldi. 6-fevralda ular eski shahar hududiga bostirib kirdilar. Muxtoriyatchilarning qo‘shinlari qarshilik ko‘rsatmasdan, vahimaga tushib, tinch aholi bilan birga qochdi. Ana shu harakat natijasida eski shaharning uchdan bir qismi er bilan yakson bo‘ldi, aholi o‘rtasida ko‘p qurbonlar bo‘ldi, necha o‘n minglab kishilar boshpanasiz, kiyim-kechaksiz, ovqatsiz qoldi. “Endilikda Qo‘qon o‘liklar shahridir” – qayg‘uli Qo‘qon voqealarining “Ulug‘ Turkiston” gazetasi tomonidan gavdalantirilgan xronikasi ana shunday so‘zlar bilan tugallangan edi[5]

Qo‘qon eski shahari va o‘lkadagi boshqa shaharlarning delegatsiyalari muzokaralar boshlashni iltimos qilib keldilar. Ular bolsheviklar tomonidan taklif qilingan “tinchlik shartnomasi” ni 9 (22)-fevral kuni imzoladilar. Bu shartnomaning birinchi moddasida: “Aholi Xalq Komissarlari Soveti hokimiyati va mahalliy sovet muassasalarini tan oladi” deyilgan edi. Ha, o‘qqa tutilgan, talangan, tahqir qilingan aholi sovet hokimiyatini tan oldi.

Turkiston muxtoriyatchilarining sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etilishi xalq ongida “Qo‘qon fojiasi” degan nom qoldirdi. Turkiston muxtoriyatining o‘zi esa o‘lka xalqlari ozodlik harakatining qudratli, haqiqiy ramziga, erkinlik va mustaqillik uchun kurash ramziga aylandi.

Qo‘qon voqealari Turkiston o‘lkasidagi evropaliklar jamoasi orasida kuchli siyosiy aks sado uyg‘otdi. Jamoat tashkilotlarining ko‘pgina vakillari, mensheviklar, eserlar partiyalarining arboblari Turkiston bolsheviklarining Qo‘qondagi xatti-harakatlarini qattiq tanqid qilib chiqdilar.

Lekin o‘z qilmishlarining haqqoniyligiga ishongan Turkiston bolshesviklari o‘zlariga qo‘yilgan hamma ayblarni qat’iyatlik bilan inkor etdilar. Ishchi va soldat deputatlari Toshkent Sovetining 1918-yil 23-fevralda bo‘lib o‘tgan umumiy yig‘ilishi Perfilevning Qo‘qon voqealari to‘g‘risidagi ma’ruzasini tinglab, “kontrrevolyutsiyaga qarshi kurashdagi matonati va g‘ayrati uchun inqilobiy qo‘shinlarni qutlash...” ga qaror qildi. Uzil-kesil nuqtani Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Soveti qo‘ydi. Xalq Komissarlari Sovetining raisi F. I. Kolesov mart oyining dastlabki kunlaridagi maxsus buyruq bilan “Qo‘qonda bo‘lib o‘tgan aksilinqilobiy chiqishning barcha rahbarlarini qonundan tashqari” deb, ularning

mol-mulkini esa “Turkiston ishchi-dehqonlar hukumatining mulki” deb e’lon qildi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston muxtoriyatining tugatilishi jarayonida sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati nafaqat erli xalq, balki boshqa xalqlarning jumladan, o‘sha tuzum uchun xizmat qilayotganlarning ham qahr-g‘azabini qo‘zg‘atdi. Turkiston muhtoriyati millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash masalasini demokratik yo‘l bilan hal etishga bel bog‘lagan xalq va uning ilg‘or ziyolilari zakovati va irodasi zaminida vujudga kelgan edi. Tabiiyki, zo‘rovonlik, shovinizm bilan qurollangan yangi mustabid bolsheviklar rejimi milliy mustaqillikka intilishning har qanday ko‘rinishiga tish tirnog‘i bilan qarshi chiqdi. Sinovdan o‘tgan usul – xalqni aldash, shafqatsiz qirish, talash, qatag‘on qilish bu gal ham ishga solindi va ezgu niyatlar, katta maqsadlar bilan yuzaga kelgan milliy demokratik hukumat hali to‘liq shakllanib ulgurmayoq yo‘q qilindi. Turkiston Muxtoriyati hukumatining ag‘darilishi turkistonliklarni bolsheviklar rejimiga qarshi o‘z ona Vatanlarini himoya qilish uchun qo‘llariga qurol olishga majbur etdi. Bu qurolli harakatning mohiyati milliy ozodlik an’analarining davomi bo‘lib, istiqlol uchun kurash edi. Bu bilan Turkistonda ommaviy antisovet harakati boshlandi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон тарихи. (1917-1991 йиллар) [Матн]. / Масъул муҳаррирлар. Р. Абдуллаев, М. Рахимов, Қ. Ражабов. Биринчи китоб. –Т.: “O‘zbekiston” НМИУ, 2019. 59-бет.
2. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: миллий-демократик давлатчилик курилиши тажрибаси. –Тошкент: “Маънавият”, 2000. 68-бет.
3. O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar) [Matn]: O‘quv qo‘llanma / Z.B. Junayev, – Navoiy: “NAVOIY” nashriyoti, 2024. 24-bet.
4. Ражабов Қ. Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар (1917 - 1935 йиллар). –Тошкент: «Ўзбекистон», 2000. 12-бет.
5. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда [Матн]. Биринчи kitob. –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти давлат корхонаси, 2024. 36-бет.

MAHMUDXO’JA BEHBUDIYNING TURKISTON O’LKASINING MUSTAQILLIGINI QO’LGA KIRITISHGA QARATILGAN IJTIMOIY-SIYOSIY HARAKATGA QO’SHGAN HISSASI

Karimova Aziza
O’zbek-Fin pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o’qituvchisi
Buriyeva Diyora
O’zbek-Fin pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim yo’nalishi I bosqich talabasi

Annotatsiya.Ushbu maqolada Mahmudxo’ja Behbudiyning Turkiston o’lkasining mustaqiligini qo’lga kiritishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakatdagi muhim hissasini tahlil etadi.

Behbudiyning jadidchilik harakati doirasidagi faoliyati, ta’lim tizimiga kiritgan yangiliklari va xalqni ijtimoiy adolat hamda huquqlarini bilishga undovchi g’oyalari batafsil ko’rib chiqiladi.Maqolada, shuningdek, Behbudiyning madaniy merosini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlari, ijtimoiy-siyosiy harakatdagi o’rni va uning Turkiston mustaqilligi yo’lidagi hissasini keng qamrovda ko’rsatishga intililgan.

Kalit so’zlar: mustaqillik, ijtimoiy-siyosiy harakat, siyosiy faollik, ijtimoiy addolat, milliy identitet.

Yer yuzidagi har bir millat doimo taraqqiyot sari harakat qiladi, rivojlanishga intiladi. O'zligini anglab etgan, kuchli ma’naviyatga ega xalq uchun tobelikdan yomoni yo’q. Ular uchun yurt taqdiri,sha’ni, yoshlarning kelajagi har doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Biroq barchcha zamonlarda ham o’zgarishlarni xushlamaydigan kishilar jamiyatda uchragan. Bu hol, ayniqsa, Chor-Rossiyasi va Sho’rolar davrida yaqqol ko’zga tashlanadi. XIX asr oxiri-XX asrlardagi qaramlik o’zbek xalqini har tamonlama rivojlanishdan cheklab qo’ydi.Yoshlar faqat ittifoq bergan bilimlarnigina o’rgana olishdi. Mahmudxo’ja Behbudiy XX asr bo’sag’asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o’z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi,yangi zamon o’zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi,mustaqil jumhuriyat g’oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi,o’zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi. Turkiston jadidlarini birlashtirishda jadidlarning rahbari deb tan olingan Mahmudxo’ja Behbudiyning xizmati beqiyos bo’lgan. Mahmudxo’ja Behbudiy butun faoliyatini millatni ilm-ma’rifatli qilishga qaratdi, buning uchun u usuli jadid maktablari tarmog’ini kengaytirish, ular uchun o’quv dastur va darsliklar yaratish,o’quvchilarni o’quv qurollari bilan ta’minlash, kutubxonalar, nashriyotllar tashkil qilish ishlari bilan muttasil shug’illandi. 1904-1909- yillarda u o’zbek va tojik tillarida “Risolayi asbobi savod”, “Muntaxabi jug’rofiyayi umumiy” (Qisqacha umumiy geografiya), “Kitobat ul-atfol”(Bolalar maktublari), “Muxtasar tarixi islom”(Islomning qisqacha tarixi), “Madxali jug’rofiyai umroniy” (Aholi geografiyasiga kirish),”Muxtasar jug’rofiyayi Rusiy” (Rossiyaning qisqa-geografiyasi) kabi darsliklarini yaratdi.

Mahmudxo’ja Behbudiy butun jamoat ahlini ilm ma’rifatli qilish uchun har bir inson o’zining tilini rivojlantirishi kerak deb aytganlar.Ya’ni inson qancha ko’p tilni bilsa, shuncha ko’p foyda bo’ladi,insonning dunyo qarashi rivojlanadi, inson ma’rifatining yuqori cho’qqisiga chiqishga harakat qiladi. Mutafakkirning-“Ikki emas,to’rt til lozim” maqolasida turkistonliklar ijtimoiy turmush sharoitiga ko’ra to’rt tilni bilishlari lozimligi dallilar bilan isbotlangan. Xususan, bu haqida Mahmudxo’ja Behbuidiy shunday deganlar: Biz turkistoniylarg’a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya’ni o’zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o’zbakiy so’ylashur. Forsiy bo’lsa, madrasa va udabo tilidur.

Bukung’acha Turkistonni har tarafidagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm vanasr kitoblari ta’lim berib kelgandur. Barcha madrasalarda shar’iy va diniy kitoblar arabiy ta’lim berilsa ham, mudarrislarni taqriru tarjimani forsiyligi xila ajibdur kerak deb aytganedilar”. Vatanni anglash, unga muhabbatni his qilish uchun tarixga nazar tashlamoq kerak. Behbudiy ta’biri bilan aytganda, “Moziy-haqiqat tarozisidur”. O’zini Behbudiyning ma’naviy o’gli deb bilgan Samarqandlik jadid Vodud Mahmudning Mahmudxo’ja Behbudiyning haqida qoldirgan fikri diqqatga sazovvordir:

“Mahmudxo’ja Behbudiy kim edi....(Avval kim edi)? Mahmudxo’ja Behbudiy Turkiston degan o’lkaning boshlig’i edi. Mahmudxo’ja Turkistonning yo’lboshchisi edi.

Mahmudxo’ja o’zining Turkiston bolasi ekanligini tushingan bir yigit edi.Shuning uchun u bizga, Turkistonga har narsa edi.Mahmudxo’janing oti Turkiston tarixida ziynatlik mumtoz o’rin olishga munosib bir otdir”. Mahmudxo’ja Behbudiyning Turkiston o’lkasining mustaqilligiga qo’lga kiritishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakatlari o’z davrida muhim ahamiyatga ega bo’lgan. U o’z faoliyati davomida bir qator ijtimoiy, madaniy va siyosiy tashabbuslarni amalga oshiradi. Behbudiyning asosiy maqsadlaridan biri Turkiston xalqining milliy ongini uyg’otish edi. U o’z asarlarida va faoliyatida o’zbek, qazoq vaboshqa turkiy xalqlarning tarixiy va madaniy merosini targ’ib qildi. Behbudiy ta’limni milliy mustaqillikning asosiy omillaridan biri deb hisoblagan. U yangi maktablar ochish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlashga katta e’tibor berdi. Behbudiy Turkiston aholisini ma’rifatli, bilimli qilishda juda sermahsul,sermazmun faoliyat olib bordi. Yani Hoji Muin so’zlari bilan aytadigan bo’lsak,”Behbudiy afandi...qo’lig’a qalam olib,...Turkistonning yangilik vayuksalishig’a hormay-tolmay,talashib-tortishib xizmat qilg’an birdan – bir muharrir va yo’lboshlovchi” edi. Uning ushbu faoliyatining eng muhim bir qismi jurnalistlik,gazetachilik tashkil qiladi.

Sadriddin Ayniy esa uni ‘Turon dohiysi”va”oliyshion ustod” deb ulug’lagan edi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mahmudxo’ja Behbuduyning qirq to’rt yillik qisqa umri davomida millatning, yurtning yorqin kelajagi uchun qilgan sa’y-harakatlari besamar ketmadi. Oradan bir asr o’tgan bo’lsada uning fikirlari hamon yoshlar uchun dasturulamal bo’lib xizmat qilmoqda. Jadid bobomizning milliy davlatchiligimiz ravnaqiga qo’shgan hissasi esa beqiyosdir. U hayoti davomida ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki bilangina cheklanib qolmadi. Uning asarlari bugungi kunda ham boshqaruv, huquq, pedagogika, sohalarida muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo’ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy harakatlari Turkistonning

mustaqilligiga intilishi yo’lida muhim rol o’ynagan va uning g’oyalari bugungi avlod uchun ham ilhom manbai bo’lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jadidlar Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent-2022
2. https://daryo.uz/2020/10/21/til-va-dil-birligi-mahmudxo’ja–behbudiyning-til-borasidagi–qarashlari.
3. ”Yangi O’zbekiston”gazetasi 2022-yil 19-yanvar,12-son.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING JADIDCHILIK HARAKATIDAGI IJTIMOIY-AXLOQIY ISLOHOTLARI

Mardonov Ravshan Rabbano o‘g‘li
Samarqand davlat chet tillar instituti tyutori

Annotatsiya: Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining eng etakchi arboblaridan biri bo‘lib, uning ijtimoiy va madaniy hayotga qo‘shgan hissasi nihoyatda beqiyosdir. Behbudiyning fikrlari, g‘oyalari va amaliy faoliyati nafaqat o‘z davrida, balki zamonaviy jamiyat uchun ham ulkan ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Behbudiyning jadidchilik harakatidagi roli va uning ijtimoiy islohotlar falsafasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik harakati, ijtimoiy islohotlar, milliy uyg‘onish, adolat, axloqiy yangilanish, ta’lim islohoti, zamonaviylik va an’anaviylik, diniy va dunyoviy uyg‘unlik, ma’naviy o‘zlik.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda jadidchilik harakati paydo bo‘lib, u asosan islomni, ta’lim tizimini va jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan edi. Bu harakatning asosiy maqsadi xalqni savodsizlikdan chiqarish, milliy ongni oshirish va jamiyatni ilg‘or taraqqiyot yo‘liga boshlash edi. Behbudiyning bu harakatdagi o‘rni esa uning ta’lim, matbuot va ijtimoiy masalalarga oid faoliyati orqali namoyon bo‘ladi. Prezidentimiz, Mirziyoyev Shavkat Miromonovich tomonidan Jadidlar va boshqa marifatparvar ziyolilar merosidan yosh avlod tarbiyasida foydalanish[56] kerakligi takidlangan edi.

O’zaro janjal, mahalliy urug’chilik nizolari millatni holdan toydirgan, bundan foydalanib Rusiya zo’r berib, uni turg’un va tutqun saqlashga urinar edi. Ana shunday bir sharoitda Turkustonni butunlay yo’q bo’lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik rudida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq, fidoyilar zimmasiga tushdi.[57]

Behbudiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ta’lim asosiy o‘rinda turadi. U ta’limni isloh qilishni millatning taraqqiyoti uchun muhim omil deb hisoblagan.

[56] Mirziyoyev Sh.M. “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g’oyamizning poydevoridir”. -Toshkent.: ”Tasvir". 2021. –B.24.

[57] “Ma’naviyat yulduzlari”.–Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999. 356-b

Behbudiyning fikricha, jamiyatni rivojlantirish uchun avvalo ma’rifatni keng yoyish zarur. Uning “Maorifsiz millat – kelajaksiz millat” degan qarashi zamonaviylik va an’anaviylikning uyg‘unlashuvini ko‘rsatadi.

U o‘z maqolalari va nutqlarida yoshlarga zamonaviy fanlarni o‘rgatish, maktablar va madrasalarni yangi usulda tashkil etish g‘oyasini ilgari surgan. Behbudiyning “Rus maktablari va madrasalari”ga oid qarashlari uning jamiyatni yangilashga bo‘lgan intilishini yaqqol ko‘rsatadi. U diniy va dunyoviy ta’lim o‘rtasida muvozanatni ta’minlashni taklif qilgan.

Madmudxo’ja Behbudiy XX asr busag’asidagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatchiligining eng yirik namoyandasi, yangi davr o’zbek madaniyatining asoschisidir. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat royasining yalovbardori, yangi maktab g’oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o’zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi. U tariximizning g’oyat og’ir va murakkab bir davrida yashadi.

Turkistonda “Usuli jadid”, “Usuli savtiya” nomlari bilan shudrat topgan yangi maktablarni ular tashkil qildilar. Ular o’z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqlolga tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongini shakllantirishga, milliy g’urur va iftixor tuyg’ularini singdirishga urindilar. Rusiya qonunlari imkon bergan darajada Turkiston musulmonlarining sha'nu shavkatini himoya qildilar, inqilob yillarida esa mustaqillik bayrogini baland ko’tardilar. Madmudxo’ja Behbudiy mana shu Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, yo’lboshchisi edi.

Behbudiyning ijtimoiy islohotlar falsafasida adolat va axloqiy yangilanish g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. U jamiyatda tenglikni ta’minlash va har bir insonning huquqlarini hurmat qilishni targ‘ib qilgan. Behbudiyning bu boradagi qarashlari uning milliy uyg‘onish davridagi faoliyatida namoyon bo‘lgan. U millatni tarbiyalashda axloqning asosiy o‘rinda turishini ta’kidlagan va har bir shaxsning ma’naviy kamolotiga e’tibor qaratgan.

Millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmaydi. Bu Behbudiy kelgan birinchi xulosalardan edi. Uning «Vaqt» gazetasida chop etilgan maqolalaridan birida shunday mulohazalarni uchratamiz: «Bir madrasaga 20 talaba gapi ila bir noahl mudarris saylanur. Bir volostda 40 nafar el boshlarindan 21 nafarni sadosi ila bir johil qozi saylanur va Rusiya ma'murlarina-da ma'qul o‘lur. Bir ming faqirning raddu mudoxalasi mo‘tabar o‘lmaz va so‘zlari eshitilmas. Ishta bizim Turkiston shaharlarining bu kungi qozi, mufti va mudarris ham imom va o‘zga ruhoniylarining yuzdan saksoni, sahro va qariyalarda o‘lanlarining o‘ndan to‘qqizi sho‘yla nomunosib kishilardan iboratdir». Shu gazetaning o‘sha yili 4-noyabrda bosilgan «Duma va Turkiston musulmonlari» maqolasida esa chor mustamlakachilik siyosati, xususan, o‘lkadan etmish ming

rusdan olti deputat bo‘lgani holda etti million musulmonga besh o‘rin ajratilgani oshkora tanqid qilinadi. Shularga qaramasdan, Behbudiy, istiqlol haqida fikr yuritar ekan, har qanday zo‘ravonlikni rad etadi. Uningcha, zo‘ravonlik g‘ayri-axloqiy, binobarin, g‘ayriinsoniydir. Umuman olganda esa, mustaqillik uchun kurash olib borgan bobolarimiz, jumladan, jadidlar kelajak haqida fikr yuritar ekanlar, istiqlolga erishish borasida bir-birlaridan farq qiluvchi uch yo‘ldan bordilar:[58]

1 Rusiyaga tobelikdan zo‘rlik yo‘li bilan qutulish, kuch bilan istiqlol olish (Dukchi eshon qo‘zg‘oloni, 1916 yil voqealari, «bosmachilik»).

2. Murosa yo‘li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalasida qaq-huquq olish, milliy xususiyatlarini tiklash (Ismoilbey Gasprali, Mahmudxo‘ja Behbudiy).

3. Hamkorlik yo‘li. Chor ma'murlari, so‘ng esa Sho‘ro hukumati bilan birga ularning programmalarida qatnashish va imkon bo‘lishi bilan mustaqillikni qo‘lga olish. Buning uchun ma'lum tayyorgarlik ko‘rib borish.

Behbudiyning jadidchilik harakatidagi yondashuvi o‘ziga xos bo‘lib, u milliy qadriyatlar va zamonaviy g‘oyalar uyg‘unligini ta’minlashga intilgan. Uning ijodi va faoliyati xalqning milliy o‘zligini tiklash, ma’naviyatni mustahkamlash va millatni madaniy jihatdan uyg‘otish kabi masalalarni qamrab oladi. Behbudiyning yozgan asarlari va olib borgan targ‘ibot ishlari milliy uyg‘onish davrida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Behbudiy hamisha xalq bilan birga bo‘ldi. Vatan taqdiri kun tartibiga qo‘yilgan 1917-yilning 16-23 aprelida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o‘lka qurultoyida hayajonli nutq so‘zladi. Millatni o‘zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo‘lida birlashishga, ittifoq bo‘lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sababli «mustamlakat qoidasi ila bizni idora eturlar» deb ochiq aytdi. U haq edi. Mustamlakachilar «50 yil ilm-ma'rifatdan chetda saqlab kelgan»lari (Kuropatkin) Turkistonni osonlik bilan qo‘ldan chiqarmas edilar. Fitna va ig‘vo tinimsiz davom etar edi. Shundaylardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz bergan edi. Amir fevral o‘zgarishlarini hisobga olib, rus elchixonasining maslahati bilan islohot e'lon qiladigan bo‘ladi. Va bu farmonni ushbu elchixonaning boshlig‘i janob Miller tayyorlaydi. Har xil anglashilmovchiliklarning oldini olish maqsadida sobiq general-gubernator, endilikda Rusiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komissari Kuropatkin topshirig‘iga ko‘ra Samarqand Ijroiya qo‘mitasi Buxoroga bir necha kishilik hay'at yubordilar. Ular orasida Behbudiy ham bor edi. 7-aprel islohot e'loni oldindan mo‘ljallanganidek tantanaga, tantana esa fojiaga aylanadi. Amir va yoshlar, mullalar va jadidlar o‘rtasida o‘tib bo‘lmas choh paydo bo‘ladi. Miller buning aybini

[58] Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar Toshkent «Ma’naviyat» 2006 28-29-betlar

Behbudiyga qo‘yadi. Faqat Miller emas, Toshkentda 9-aprelda boshlangan Turkiston Ishchi va soldat deputatlari sovetlarining birinchi o‘lka s'ezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini — Samarqanddan «o‘z ixtiyorlari bilan» borgan deputatlarga to‘nkaydilar. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy mazkur s'ezdda minbarga chiqib bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqda «Buxoro voqealari va daf'i tuhmat» («Hurriyat» gazetasi, 1917 yil, 1 may) degan maxsus maqola ham yozgan edi.[59]

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy islohotlar falsafasi zamonaviylik va an’anaviylikni uyg‘unlashtirgan holda jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan. Uning g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ijtimoiy va axloqiy yangilanishning muhim tamoyillarini tashkil etadi. Behbudiyning jadidchilik harakatidagi o‘rni va merosi millat taraqqiyoti uchun yorqin namuna bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g’oyamizning poydevoridir”.-Toshkent.: “Tasvir”. 2021
2. “Ma’naviyat yulduzlari”. –Toshkent.: Abdulla Kodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar Toshkent «Ma’naviyat» 2006

MAHMUDXO’JA BEHBUDIYNING TURKISTON MUSTAQILLIGIGA QO’SHGAN HISSASI YOHUD SIYOSIY QARASHLARI

Obidov Dilshodbek Qurbanovich
Central Asian Medical University 2-bosqich talabasi
dilshodbekobidov419@gmail.com. Tel(998) 93 648 16 07

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo`ja Behbudiyning Turkiston o`lkasining mustaqilligiga qo`shgan hissasi, davlat, jamiyat va yurt ozodligi yo`lida qilgan ishlari, siyosiy qarashlari haqida so`z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Jadidchilik, partiyalar, qora guruhlar, Shuroi Islomiya,muxtoriyat, uezd, minbad, monarxiya.

Аннотация: В статье рассматривается вклад Махмудходжа Бехбуди в независимость Туркестана, его деятельность на благо свободы государства, общества и страны, а также его политические взгляды.

Ключевые слова: Джадидизм, партии, черные группы, Исламский совет, автономия, уезд, минбад, монархия.

Abstract: This article discusses the contribution of Mahmudkhoj Behbudi to the independence of the Turkestan region, his work for the freedom of the state, society and the country, and his political views.

Key words: Jadidism, parties, black groups, Shurai Islamiya, autonomy, uezd, minbad, monarchy.

[59] Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar -Toshkent «Ma’naviyat» 2006. 29-bet

Jadidlar xarakatining yirik namoyondasi, uning nazariy asosichlaridan biri Maxmud-Xuja Bexbudiy (1879-1919) bo‘lib, u fikrlari teranligi, siyosiy ongining yuksakligi bilan jadidlar orasida ajralib turardi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1893-1900 yillarda Makkaga haj safariga boradi. 1903-1904 yillarda Moskva, Peterburg, Qozon, Ufa, 1914 yilda Arabiston, Misr, Turkiya mamlakatlariga safar chog‘ida turli shahar va xalqlarning ijtimoiy, madaniy hayot, maktab, maorif ishlari bilan tanishish orqali nazariy va hayotiy bilimlarini, yutuqlarini Turkistonga tashviq etadi. Vaqtli matbuot sahifalarida zamonasining dolzarb mavzulariga oid ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-adabiy maqolalari bilan faol ishtirok etadi. Uning Turkiston matbuotida 300 ga yaqin turli maqolalar hamda o‘zbek va tojik tillarida maktablar uchun qator darsliklar tayyorlab nashr qildirgan. Ma’rifatparvar Behbudiy o‘z uyida maktab ochib bolalarni bepul o‘qitadi. Ilm-ma’rifatni targ‘ib etuvchi Behbudiy barcha maqsadlarini faqat ma’rifat orqali amalga oshirishini ko‘zlab, ta’lim-tarbiya hususidagi o‘z g‘oyalarini amalga oshirishning bosh yo‘li sifatida yangi maktablar ochish, mahalliy aholini ilm-ma’rifatga da’vat etadi. Ilm-ma’rifatga suyangan holda mustamlakachillik, zulmat, jaholatga va qoloqlikka qarshi kurashish yo‘lida kuch qobiliyatini maktab, maorif, diniy, tabiiy ilm va ma’rifatni rivojlantirishga qaratadi Bexbudiy Yurt ozodligi, erkinligi va farovonligi yo`lida jon jafo chekkan jadidlarimizdan hisoblanadi. U davlatni boshqarishdagi siyosiy partiyalar roli haqida ham turlicha fikr va g`oyalarga ega bo`lgan. Misol uchun u Rossiya hayotida o`rin tutgan turli siyosiy partiyalarga bo‘lgan munosabatini ifodalab, qoraguruxlar partiyasi faoliyatini qoralaydi. Bexbudiy 1905 yilda tashkil topgan musulmonlar partiyasiga xayrixoxligini alohida ta’kidlaydi. Bu partiya, deydi Bexbudiy, “o‘zining umumiy siyosiy talablari va e’tiqodi bilan kadetlar partiyasiga yaqin bo‘lsada, u musulmonlarni manfaatlarini himoya qilish uchun tashkil qilingan. Shuning uchun, biz Turkiston musulmonlari, siyosatda kadeglarni qo‘llasakda, musulmonlar partiyasiga qushilishimiz darkor. Bu partiyaga xizmat qilish, uni tarafdori bo‘lish, dinimiz, vatanimiz va millatimizga xizmat kilish demakdir’’.

Musulmonlar partiyasi 1905 yil Nijniy Novgorod shahrida tashkil qilindi. Uning siyosiy talablaridan asosiysi musulmonlarning dinishlariga xukumat ma’muriyatini aralashmasligini ta’minlash va mahalliy o‘zini-o‘zi idora qilish tizimini o‘rnatishdan iborat edi. Behbudiy Turkistonda musulmonlarning diniy va grajdanlik ishlari bilan shug‘ullanadigan mahalliy boshqarma tuzish zarurligini ta’kidlaydi. Turkiston mahalliy boshqarmasi qozilar sudi, vaqf mulkini taqsimlash, maktab va madrasa masalalari va boshqa diniy va milliy muammolarni o‘z qaramog‘iga olishi kerak. Behbudiy tomonidan yozilgan maqolalar va loyixalarida so`z yuritilgan g`oyalar jadidlar harakatining asosiy dasturul amal xujjatlari, xarakat qo‘llanmasi sifatida qabul qilindi va xizmat qildi.

«Shuroi Islomiya» partiyasining rahbarlari - Minavvar-Qori, Mustafo Choqaev, Bexbudiy va boshqalar Turkistonda Muxtoriyat ta’sis etilishini, moliya, adliya, boshqaruv, maorif va boshqa sohalarda mustaqillikni, matbuot erkinligini talab qildilar. Bexbudiy Turkiston muxtoriyati qanday bo‘lishini shunday tushuntiradi: «Muxtoriyat, biz Turkiston musulmonlari istaymizkim, Rossiya mamlakatiga yopishib turib, xorijiy va ishlarga aning ila bir bulib turib, daxil ishlar va tirikchiliklarimizni o‘zimiz idora etsak. Besh viloyatdan iborat Turkistonning har bir shahar va uezdidan bir necha nafardan-kishi saylanib Toshkentda katta markaz bir majlisimiz bulurki, barcha olur-soliq va minbad joriy bulaturgan qonun va nizomnomalarni alar tuzib Turkistonda joriy qiladilar. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun Ta’sis majlisi oldida talablarni qat’iy qo‘yish zarur. Tasis majlisi ham o‘z ixtiyori bilan mustakillikni bizga bermaydi. Biz, Turkiston musulmonlari, birlashib muxtoriyatni ta’sis majlisidan olmog‘imiz kerakdur. Biz jonsizlik ko‘rsatganda muxtoriyat agarda yuz sana so‘ngra bulsun, bizga berishmaydur. Afsuski, «Xaq olinur, berilmas».1917 yil avgust oyida «Kengash» gazetasida mo‘xtoriyat loyixasi e’lon qilindi, Bu loyixani tuzishda Maxmud-Xuja Bexbudiy, Munavvar Kori, Abdurashidxonovlar faol ishtirok qildilar. 1917 yil sentyabrida «Markaziy Shuroi-Islomiya» ning tashabbusi bilan chiqarilgan, o‘lka musulmonlari s’ezdi bo‘lib o‘tdi. S’ezd qabul qilgan qarorda yoziladi: «S’ezd hokimiyat ishchi, soldat va krestyanllar Sovetlariga o‘tishiga qarshi chiqadi. Xokimiyat koalitsion bo‘lishi va mamlakatning -hamma kuchlariga tayanishi kerak, bu degani umumxalq hokimiyati bo‘lishi kerak.

Ular xorijiy mamlakatlar davlat boshqaruvini tahlil qilib, monarxiya, konstitutsiyaviy monarxiya, respublika kabi uch xil davlat boshqaruvini farqlaydilar. Jumladan, M.Behbudiy o‘zining 1906 yilda nashr etilgan “Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” asarida davlat boshqaruvining uch shaklini quyidagicha ifodalagan: birinchisi – “idorai mustaqilla” yoki idorai mutlaq; ikkinchisi – “idorai mashruta”; uchinchisi – “idorai jumhuriyat” [2,206-207].

Birinchi davlat boshqaruv shakli hisoblangan «idorai mustaqilla» (monarxiya) da, hukmdor yakka o‘zi mamlakatni boshqaradi, uning xohish-irodasi qonun kuchiga ega bo‘ladi. Davlat boshqaruvida tashkil etilgan barcha majlis, maslahatxonalar hukmdorning irodasiga bog‘liq bo‘ladi. Taxtni egallash qonun, odat yoki valiahdlik qoidalari asosida amalga oshiriladi.

M.Behbudiy o‘sha davr Evropa mamlakatlarida ana shu uch xil davlat boshqaruv shakli mavjudligini, rivojlanmagan davlatlarda, jumladan, Buxoro va Xiva xonliklarida esa millionlab odamlarning turmushi, ixtiyori bir odamning irodasiga bog‘liqligini, bir nafar inson bilan o‘n nafarning aqli, fikri orasida katta farq borligini uqtiradi. U davlat boshqaruvining rivojlangan shakllarini joriy qilgan kam sonli Evropa xalqlari butun er yuziga hokimlik qilayotganligini taassuf bilan

qayd etadi[2,206-207]. O‘lkani boshqarish masalasiga kelganda, Turkiston jadidlari konstitutsiyaviy monarxiya davlat boshqaruvini ma’qul deb hisoblaydilar. Ular Rossiyada konstitutsiyaviy islohotlar o‘tkazish, podsho hokimiyatini cheklab turadigan, o‘z maslahatlari va kengashlari bilan davlat boshqaruviga yordam beradigan parlament faoliyatini jonlantirish va unda o‘lka vakillarining ishtirok etishini yoqlab chiqadilar. Shu sababli ham ular dastlabki vaqtlarda konstitutsiyaviy demokratlar partiyasining dasturini qo‘llab-quvvatlaydilar[2,19].

Xulosa qilib aytganda Turkiston jadidlari yurtni, millatni , ziyoli bo`lmagan qatlamni ilm va ma`rifat yo`li bilan jaholat botqog`idan olib chiqishga harakat qildilar. Yurt ozod bo`lsa, so`z erkinligi va adolat ustuvor bo`lsa, ta`lim olayotgan yosh avlod ham ma`nan etuk va aqlan komil inson bo`lib etishadi. Har bir jamiyat a`zosi shu jamiyat rivoji uchun o`z xissasini qo`shishi kerak. Ayniqsa bugungi tez rivojlanib borayotgan davrda yoshlarni ma`naviy va mafkuraviy tahdidlardan saqlashda jadidlarimizni qoldirgan merosi katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Falsafa. Qomusiy lug‘ot. – T.: “Sharq”. 2004. 389-bet.

2. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘ot. –T.: “Sharq”. 2006, 342-bet.

3 Niyozov G.., M.Axmedova. Pedagogik tarixidan seminar mashg‘ulotlari.“QUDRAT-PRINT”. 2010.

4. Zunnunov A., M.Xayrullaev, N.Xotamov, D.Shodiev. O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: “FAN”. 1996. 242-bet.

5. Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. –T., 2016. – 215 b.; Tog‘aev T. Ashurali Zohiriy – jadidchilik harakatining faol kurashchisi // Til va adabiyot ta’limi. – 1997. – № 6. – B. 49 – 52.; Ergasheva N. Jadidchilik harakati va Munavvarqori G‘G‘ Xalq ta’limi. – 1996. – № 5. – B. 67 – 71.

6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi, to‘plovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi – B. Qosimov. – T.: Ma’naviyat, 1997. – 232 b.

7. Alimova D., A’zamxo‘jaev S. Turkiston jadidchiligi taqdiri G‘G‘ O‘zbekiston ovozi. – 1995. – 27 avg.; Tashkulov J. U. Pravovoe gosudarstvo – nezavisimost, natsiya, ekonomika, ideologiya, politika. Tom IV. - S. 232.; Shamsutdinov R. Jadidchilik: haqiqat va uydirma // Muloqot. – 1991. – № 11. – B. 56 – 63.; Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – 176 b.

8. Azizov N.P. Yurisprudentsiyani o‘rganishda huquqqa bo‘lgan yondashuvlarning ahamiyati // Huquq Pravo Law. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi ilmiy-nazariy yuridik jurnali, 2004. Maxsus son, – B. 60.

MUSULMON JAMIYATLARIDA MUSTAMLAKACHILARGA QARSHI KURUSH VA BU YO'LDA YANGILIK TARAFDORLARINING AHAMIYATI: JADIDCHILIK

Otamurodov Doniyorbek Odilboy o’gli
ShDPI 2- bosqich talabasi

Begaliyev Nurbek
SHDPI “Tarix kafedrasi”o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada musulmon mamlakatlarida jadidchilik harakatining boshlanishini va uning ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy o'zgarishlarga ta'sirini tahlil qiladi. Jadidchilik, XIX asrning oxirlarida va XX asrning boshlarida musulmon jamiyatlarida yuzaga kelgan yangi ma'rifat va islohotlar harakati sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Ushbu harakat, ayniqsa, O'rta Osiyo, Turkistondagi va Rossiya imperiyasining boshqa hududlaridagi ta'lim tizimi, madaniyat va siyosatga ta'sir ko'rsatdi. Maqolada jadidchilikning asosiy tamoyillari, uning tarafdorlari, va bu harakatning jamiyatdagi inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'lanishi masalalari muhokama qilinadi. Shuningdek, jadidchilik harakatining boshlanishi, uning samaralari va bugungi kungacha bo'lgan ta'sirlari hamda jamiyatdagi yangilanish jarayonlariga olib kelgan o'zgarishlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, musulmon jamiyatlari, inqilobiy o'zgarishlar, ta'lim islohotlari, madaniy yangilanish, siyosiy islohotlar, musulmon mamlakatlari, XIX asr, Turkiston, Jamiyatdagi o'zgarishlar, yangilikka intilish.

Kirish: XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida, musulmon mamlakatlarida, ayniqsa, Rossiya imperiyasining turli hududlarida, ta'lim, madaniyat va siyosat sohalarida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar jadidchilik harakati bilan bog'liq bo'lib, u musulmon jamiyatlarida yangilik va islohotlarni ilgari surgan, an'anaviy tafakkur va qadriyatlarni yangicha talqin qilishni maqsad qilgan bir harakat edi. Jadidchilik, arabcha "jadid" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yangilik", "yangi" degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu harakat, asosan, yangi ta'lim tizimi, yangilanish, ilm-fan va siyosiy islohotlar orqali jamiyatni yangilashni ko'zlagan.Jadidchilik harakati, ayniqsa, musulmon jamiyatlaridagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik va imperialistik bosimlarga qarshi bir javob sifatida shakllandi. Bu harakatning asosiy g'oyasi – musulmon dunyosining orqada qolganligini tan olish va uni ilm-fan, ma'rifat, iqtisodiyot va siyosatda islohotlar orqali yangilash edi. Jadidchilar, o'zlarining ta'lim tizimlarini yangilash orqali jamiyatni yangicha rivojlantirishni, aytgancha, ilmiy va mantiqiy fikrlashni, jahon taraqqiyotidan ortda qolmaslikni maqsad qilgan edilar.Musulmon mamlakatlaridagi jadidchilik harakati, nafaqat ta'lim va madaniyatga yangicha yondashuvni olib kelgan, balki siyosiy tuzumlarning o'zgarishiga ham turtki bo'lgan. Bu harakatning boshlanishi va rivojlanishi, turli jamiyatlarda ijtimoiy va siyosiy inqilobiy hodisalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular yangi ijtimoiy qatlamlarning shakllanishiga, ilm-fan va madaniyatning jahon miqyosida rivojlanishiga xizmat qildi.

Muhokama va natijalar : XIX asrning oxirlarida butun islom olamida har jihatdan cho’kish holati boshalngan edi . Xalifalik vazifasini bajarib kelayotgan Usmonlilar Yevropaning “Kasal odamiga “ aylangan edi . Xalqaro jamiyatda uning roli pasayib ketib iqtisodiy krezisga duchor bo’lgan edi . Uning mustamlakasi bo’lmish Misr o’lkasi ham shunday vaziyatda edi . Eron esa yarim mustamlakaga aylangan edi . Hindiston yarimorolidagi musulmonlar Britaniya imperiyasi mustamlakasi edi. Turkiy xalqlarning ko’pchiligi esa Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilingan va guberniyalarga bo’linib boshqariladigan hududlarga aylantirilgan edi . Islom dunyosidagi bu holatdan ziyolilar va turli qatlam vakillari norozi edi va ular vaziyatni o’zgartirish uchun turli harakat va tashkilotlar tuza boshladi . Bularning ba’zilari o’z maqsadlariga qisman erishdi ba’zilari esa qatag’onga uchrab mustamlakachilar va mahalliy hukumatlar tomonidan yo’q qilindi .

Islom olamida paydo bo’lgan shunday harakatlardan biri bu “Yosh turklar” harakatidir . 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida Usmonli turk imperiyasidagi inqilobiy harakat qatnashchilari, "Ittihod va taraqqiy" partiyasi a’zolari. Yosh turklar (ular dastlab o‘zlarini Yangi usmonlilar deb atashgan)ning asosiy maqsadi sulton Abdulhamid II (1842—1918)ning hukumatini konstitutsion tuzum bilan almashtirish, Turkiyada ajnabiylar hukmronligiga qarshi kurash va demokratik jamiyat qurish bo‘lgan. Ziyo Go‘kalp (1876—1924) Yosh turklarning asosiy mafkurachisi edi.[1] Yosh turklar mamlakatda norozilik mitinglari va namoyishlarni doimiy ravishda o‘tkazib turgan. Abdulhamid II ularga qarshi kurash olib bordi. 1908-yil sultonlikka qarashli Makedoniyada Yosh turklarning ta’siri nihoyatda kuchaydi, ularning tashkilotiga 15000 kishi a’zo bo‘ldi. Bu paytda Makedoniyada ijtimoiy siyosiy va etnik vaziyat ham ancha keskinlashgan edi. 1908-yil 3 iyulda Resne shahrida leytenant Ahmad Niyoziy rahbarligida partizan otryadlari, 6 iyulda mayor Anvarbey (Anvar Posho) boshchiligida askarlar sulton zulmiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Oradan ko‘p o‘tmay bu inqilobga Makedoniyadagi turk harbiy qismlari qo‘shildi. Yosh turklarning Salonikidagi "Ittihod va taraqqiy" qo‘mitasi unga rahbarlik qildi. [2].23 iyulda Yosh turklarning inqilobchi otryadlari Makedoniyaning Saloniki, Monastir va boshqalar shaharlariga tantanali ravishda kirib keldi. Inqilob tez orada mamlakatning Sinop, Trabzon, Diyorbakr, Badlis, Izmir kabi markaziy shaharlariga ham tarqaldi. 24 iyul kechqurun sulton Abdulhamid II Turkiyada 1876-yildagi Konstitutsiyani qayta tiklash va parlamentga saylov o‘tkazish to‘g‘risidagi farmonni imzolashga majbur bo‘ldi. Mamlakatda Yosh turklar inqilobi g‘alaba qozondi. Turkiyada demokratik erkinliklar o‘rnatildi, 40000 siyosiy mahbus ozod qilindi, siyosiy muhojirlarga o‘z vataniga qaytish uchun ruxsat berildi. Saltanatdagi barcha fuqarolar teng huquqli usmonlilar deb e’lon etildi, ko‘plab gazeta va jurnallar chiqarildi. Biroq 1909-yil aprelda Abdulhamid II G‘arb davlatlarining yordamiga tayanib, istibdod siyosatini qayta o‘rnatdi.

Makedoniyadan chaqirilgan armiya yordamida aksilinqilob tez orada bostirildi. Ammo 27 aprelda Abdulhamid II taxtdan tushirilib, Yosh turklar Muhammad V Rashidni (hukmronligi: 1909—18) sulton deb e’lon qildilar. Hokimiyatda asosiy o‘rinni Yosh turklarning yo‘lboshchilari Tal’at Posho, Anvar Posho, Jamol Posho egallay boshladi. ItaliyaTurkiya urushi (1911 —12)da Turkiya engilgach, 1911-yilda ittihodchilardan ajralib chiqqan muxolifatdagi "Hurriyat va i’tilof" jamiyati bundan foydalanib, 1912-yil hokimiyatni egalladi. Lekin 1913-yil yanvarda bo‘lgan harbiy to‘ntarish natijasida Turkiyada yana Yosh turklar hokimiyati to‘liq o‘rnatildi. Tal’at Posho, Anvar Posho, Jamol Poshodan iborat triumvirat (uchlik) hokimiyatni boshqara boshladi. Ular turkchilik va islomchilik siyosatini izchil davom ettirib, tashqi faoliyatda Germaniyaga yaqinlashdilar. Turkiya Germaniya tomonida turib Birinchi jahon urushtz. tortildi. Turkiya Iroq, Hijoz va Misrda Angliyaga qarshi, Kavkaz va Eronda Rossiyaga qarshi jang harakatlarini olib bordi. Turkiya urushda engilgach, Yosh turklar hukumati iste’foga chiqdi. Jamol Posho va Anvar Posho keyinchalik Turkistonga kelishdi. Yosh turklar faoliyati taqiqlandi.[3]

XIX asrning 2 –yarmida Buyuk Britaniya o’zining strategic maqsadlarini ko’zlab Misrga qarshi harbiy harakatlarni boshlandi .1882-yil inglizlar armiyasi Misrni egallab oldi va mustamlakachilarga qarshi ko’tarilgan xalq qo‘zg‘olonini shafqatsiz bostirdi. Mamlakatda mustamlaka tartibi o‘rnatildi. Inglizlar bank va moliya ishlarini, irrigatsiya qurilishlari, aloqa yo‘llarini o‘z qo‘llariga oldi. Misr faqat paxta etishtiradigan davlatga aylanib qoldi. 20-asr boshlarida Mustafo Komil (1874— 1908) rahbarligida milliy ozodlik harakati avj oldi. Ammo mustamlakachilar xalq harakatini bostirdilar. 1914-yilda Misrda Britaniya protektorati o‘rnatildi.[4]

1918-yilda Zag‘lul Sa’d boshchiligida „Misr delegatsiyasi“ (keyinchalik „Vafd“) partiyasi tuzildi. [5]Bu partiya 1919—1924-yillarda inglizlarga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonga boshchilik qildi. Xalqning kurashi natijasida ingliz protektorati bekor qilinib, Misr mustaqil podshoxlik deb e’lon qilindi (1922). 1923-yil Misr konstitutsiyasi kabul etildi. [6] Bu konstitutsiya parlament tuzishni nazarda tutdi. U ayrim erkinliklar — siyosiy tashkilotlar tuzish va matbuot erkinligini berdi, shu bilan birga, podshohga deputatlar palatasini tarqatish, parlament chaqiriklari muddatini surish, vazirlarni tayinlash va bo‘shatish huquqini ham berdi. Shunday bo‘lsada, Angliya Misrda o‘z mavqeini, ya’ni davlat idoralari hamda harbiy kuchlar ustidan nazoratini, mamlakatda ingliz armiyasini saqlab qoldi. Parlament saylovida „Vafd“ partiyasi g‘alabaga erishdi va Zag‘lul Sa’d boshchiligida yangi xukumat tuzildi. Biroq mamlakatda milliy ozodlik kurashi to‘xtamadi. 1936-yil Angliya bilan Misr o‘rtasida shartnoma tuzildi. Shartnomaga muvofiq, inglizlar Misrni bosib olishni to‘xtatdilar, lekin mamlakatda harbiy bazalar va armiya sakdash huquqini oldilar. Ikkinchi jahon urushi davrida Misr Italiya-Germaniya va Angliya armiyalari

o‘rtasidagi jang maydoniga aylandi.[7] Urushdan keyin Misrda milliy ozodlik harakati yanada kuchaydi. Arab-Isroil urushi davri (1948—49)da mamlakatda reaksiya avj oldi, so‘l vafdchilarni, talabalar harakati rahbarlarini qamash boshlandi. Bunga qarshi xalq harakati yanada avj oldi. Parlament 1936-yil gi Angliya-Misr shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Shundan keyin Angliya Misrga qarshi agressiya uyushtirdi. Misr xalqi mustamlakachilarga qarshi partizan urushini boshladi.[8] 1952-yil 23-iyulda Jamol Abdul Nosir boshchiligidagi „Zubbot alahror“ („Ozod zobitlar“) uyushmasi armiyaga tayanib, davlat to‘ntarishi o‘tkazdi. Davlat hokimiyati Inqilobga rahbarlik kengashi ixtiyoriga o‘tdi. General Misr Najib kengash raisi va hukumat rahbari etib tay-inlandi; amalda kengashga Nosir rahbarlik qildi. Yangi hukumat agrar islohot o‘tkazib, fallohlarni er bilan ta’minladi, mamlakatni industrlashtirish, iqtisodiy mustaqillikka erishish siyosatini olib bordi. 1953-yil 23-iyunda Misr respublika deb e’lon qilindi.[9]

Rossiya mustamlakasi bo’lmish Qrimda ham jadidchilik harakati va mustamalakachilarga qarshi kurash boshlandi .

Gasprinskiy (G‘asprali) Ismoilbek (1851.21.3, Boqchasaroy yaqinidagi Ajiko‘y qishlog‘i — 1914.11.9, Boqchasaroy) — jadidchilik harakatining asoschisi, yozuvchi va publitsist. Gasprinskiyning otasi Mustafo Gasprinskiy Rossiya harbiy dvoryani (praporshchik) bo‘lib, Yalta shahri yaqinidagi Gaspra qishlog‘idan edi. Gasprinskiy qishloq musulmon maktabi, Oqmachit (hozirgi Simferopol) gimnaziyasi va Voronejda, Moskva kadetlik korpusida o‘qidi (1864—67).

Qrimga qaytgach, rus tili o‘qituvchisi bo‘lib ishladi (1867—70). Istanbul va Sorbonna (Parij) universitetlarida o‘qidi (1871—75). Jazoir, Tunis, Misr, Gretsiyada bo‘ldi. Parijda frantsuz sotsialistlari va liberallariga yaqinlashdi. Turkiyada Yosh turklar harakati rahbarlari bilan tanishdi (1875—77). Boqchasaroy shahri meri qilib saylandi (1877).

Gasprinskiy turkiy xalqlar tarixi va adabiyotini o‘rganib, Sharq bilan G‘arb olamini taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Gasprinskiy «Rusiya musulmonligi» (Simferopol, 1881) ilk risolasida Yevropa tsivilizatsiyasidan ko‘r-ko‘rona andoza olishga qarshi chiqib, uni tanqidiy qabul qilishga, musulmonlarni ilm-fanni egallashga, texnika yutuqlaridan foydalanishga da’vat etdi. «Ovrupo madaniyatiga bir nazar muvozini» (Istanbul, 1885) asarida esa sotsializm g‘oyalari bilan bahsga kirishib, uning asosiy tamoyillarini shubha ostiga oldi.

Gasprinskiy Rossiya mustamlakasidagi barcha musulmon xalqlar maorifini tubdan isloh qilish, dunyoviy fanlarni o‘qitish masalasiga alohida e’tibor berdi. Boqchasaroyda dastlabki «usuli jadid» (yangi usul) maktabini ochdi (1884). Turkiston general-gubernatori N. O. Rozenbaxga musulmon maktablarini isloh qilishga doir loyihasini yubordi. Rad javobini olgach, 1893 yili Turkistonga o‘zi

keldi, Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo‘lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Gasprinskiy jadidchilik g‘oyalarini kengroq yoyish uchun «Tarjimon» (1883 yil 10 apreldan), «Millat» (1908), «Bolalar olami» (1908—15), «Uyg‘onish» (Qohira, 1908, arab tilida) gazetalari, «Ayollar olami» jurnali (1908—10), «Xa-xa-xa!» hajviy haftanomasini chiqardi. Jadid maktablari uchun «Xo‘jai sibyon» («Bolalar muallimi») darsligini, «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh» (1898) kitobini yozdi.

Gasprinskiy musulmon milliy ozodlik harakatining yo‘lboshchisi sifatida tanildi. U Kavkaz, Volgabo‘yi, Misr va Hindistonga borib, umummusulmonlar qurultoyini chaqirishga harakat qildi. Butun Rossiya musulmonlari 3 ta kongressi ishida faol qatnashdi (1905—06). Dastlabki umummusulmon siyosiy partiyasi «Ittifoq ul-muslimin»ni tuzish tashabbuskorlaridan biri bo‘ldi (1906).

Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o‘lka ma’naviy-ma’rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Xivada Bobooxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma’rifatparvar, Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.Jadidchilikning asosiy g‘oyalari va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrlar qoloqligi va diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloh qilish, xalqni ma’rifatli qilish, Turkistonda muxtoriyat hokimiyatini o‘rnatish uchun kurashish, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani muomalaga kiritish, milliy armiya qurish edi. Keyinchalik Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada erkin fikrli, ilg‘or fikrli kishilarning ma’lum guruhlar tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.Jadidlar dunyoning ilg‘or davlatlaridan ko‘p jihatdan ortda qolgan Turkiston xalqlarini bo‘lajak fojialardan ogoh etish, jamiyat hayotini inqilobiy – zo‘rlik yo‘li bilan emas, balki tadrijiy-ma’rifiy yo‘l bilan ijobiy tomonga o‘zgartirish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi, kurash usuli edi.Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish – siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar.

Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi.

Jadid merosining yana bir muhim jihati ularning ta’lim sohasida sekulyarizm – dunyoviylikni targ‘ib etishidir. Ular jamiyatda, eng avvalo, yoshlar orasida turli diniy e’tiqodlarni hurmat qiladigan, bag‘rikenglik muhitini yaratish muhimligiga urg‘u berishgan. Munavvarqori Abdurashidxonov “Taraqqiy” jurnalidagi maqolasida bag‘rikenglik va inklyuzivlikni targ‘ib qiluvchi ta’lim tizimi zarurligini ta’kidlab: *“Ta’lim diniy aqidalar va xurofotlardan holi bo‘lishi, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini oshirishi va dunyoqarashini shakillantirishi mumkin bo‘lgan makonni ta’minlashi kerak”*, degan edi.

Jadidlarning eng e’tiborga olgan masalalaridan yana biri shuki, Turkistonda xotin-qizlarning savodxonlik darajasi juda ham past ekanligi, ular faqatgina otinoyilar o‘z uylarida ochgan uy maktablarida o‘qib, o‘qish davomida 3-4 tagina diniy suralarni yodlab,so‘ng ular uy ishlari bilan shug‘ullanishi, nari borsa tikish-bichishni o‘rganishi, keyin esa jamiyatda qattiy qonun-qoidaga aylangan erta oila qurish majburiyatini olib, shu bilan bir umr to‘rt devor ichida yashashlarini qattiq tanqid qilib, erkak va ayollar teng haq-huquqga ega ekanliklari,bola tarbiyasi bilan asosan onalar tarbiyalaganliklari bois, millat taqdiri uchun ularning bilim saviyasini ko‘tarish va yangi maktablar tashkil etishni yoqlab chiqdilar.

Muxtasar aytganda, jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida va yosh avlodni ma’rifatli qilish, ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan etuk olimlar, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyat arboblari etishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma’rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da’vat etish g‘oyalari ularning umrlari oxirigacha etakchi fikr bo‘lib qoldi. Har qanday og‘ir sharoitda ular o‘z qarashlarini o‘zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g‘oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o‘rinliki, ular Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog‘laganlar va shu yo‘lda yoshlar asosiy kuch bo‘lganini tushunib, ularning saviyasini oshirish uchun ko‘p sa’y harakatlar qilganlar.[11]

Xulosa : Musulmon jamiyatlarida mustamlakachilarga qarshi kurash va yangilik tarafdorlarining roli tarixiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Jadidchilik harakati, ilmiy va madaniy yangilanishni targ‘ib qilib, musulmon jamiyatlarining mustamlakachilarga qarshi kurashida zarur bilim va yondashuvlarni taqdim etdi. Jadidlar yangi ta'lim tizimi, islohotlar va madaniy yangilanish orqali, jamiyatni mustahkamlash, o‘zligini tiklash va mustamlakachilikka qarshi qarshilikni kuchaytirishga yordam berdi. Ularning faoliyati, faqat siyosiy emas, balki ijtimoiy

va madaniy inqilobni ham tashkil etgan. Shunday qilib, jadidchilik, musulmon dunyosining mustamlakachilarga qarshi kurashida samarali vosita bo‘ldi va ularning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyo Go‘kalp. Turkchilik asoslari, Toshkent .1994.
2. Rajabov Q. K., Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar, Toshkent, 2000;
3. Qahramon Rajabov. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, Toshkent, 2000.
4. Anglo French motivation: Derek Hopwood, *Egypt: Politics and Society 1945–1981*. London, 1982, George Allen & Unwin. p. 11.
5. De facto protectorate: Joan Wucher King, *Historical Dictionary of Egypt*. Metuchen, NJ; 1984; Scarecrow. p. 17.
6. Jankowski, James. *Egypt, A Short History*. p. 111
7. Jankowski, James. *Egypt, A Short History*. p. 112.
8. Collins, Robert O.; Collins, Professor of History Robert O. (29 May 2008). *A History of Modern Sudan*. Cambridge University Press. ISBN 978-0-521-85820-5. Archived from the original on 18 May 2024. Retrieved 10 November 2020.
9. Shlaim, Rogan, 2012 pp. 7, 106
10. Qosimov B.. Ismoilbek Gasprali, Toshkent .1992.
11. https://www.iiau.uz/index.php/oz/news/3076

МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ

Mahmud Hoca Behbudi'nin sosyal ve politik faaliyetleri

Social and political activity of Mahmudhoja Behbudi

Общественно-политическая деятельность Махмудходжи Бехбуди

Қўшмуратов Шавкат

тарих фанлари номзоди, HILOL-NASHR, муҳаррир

ORDİC ID: https://orcid.org/0000-0002-0031-6051

muharrir.uzbek@gmail.com.

Кириш: Жадидчилик ҳаракати Туркистоннинг ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида мисли кўрилмаган ўзгаришларга сабаб бўлди. Унинг асосий мақсад ва ғоялари Туркистонни асрлар ғояларидан бири бўлган феодал садоқат ва антик даврдаги хурофотлардан тозалаш, мамлакат ва халқнинг янги даврга мослашишини таъминлаш, миллий мажлис ва депутатлардан иборат миллий давлатни барпо этиш, миллий валютанинг қабул қилинишини таъминлаш, жамиятни мустамлакачиликдан озод қилиш ва тараққий эттириш эди.

Калит сўзлар: Жадидчилик ҳаракати, Туркистон ислоҳотчилари, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Туркистон Мухторияти, мустақиллик, қурултой.

XX аср бошларида Туркистон миллий зиёлиларининг қарашлари халқнинг дунёқараши кенгайишига ва ижтимоий-сиёсий, илмий ва маданий ривожига хизмат қилди. Улар фақат назарий жиҳатдан ўз фикрларини билдириш билан чекланиб қолишмади, балки амалий ҳаракатдан ҳам чекинмадилар. Жадидчилар деб номлаган ана шундай зиёлилардан бири Маҳмуд хожа Беҳбудий эди.

Беҳбудийнинг аксарият ижтимоий-сиёсий мақолаларида халқнинг таълим ва маърифатига эътибор қаратишига урғу берилгани аниқдир. Беҳбудий илм-фан ривожи маданиятнинг энг муҳим жиҳати билан бевосита боғлиқ, деб ҳисоблайди. Унинг қарашларида мамлакатдаги мустақил миллий ривожланишга эриш, исломий анъаналарини мутаассибликдан қутқариш, илмий технология ва илғор тараққиётга эришиш масалалри ўрин олганди. Умуман, барча илғор миллий зиёлилар каби Маҳмуд Хўжа Беҳбудий ҳам ватан тарихи ва жамиятнинг маданий тараққиёти масаласида муҳим ўрин тутади. У ўз асарларида миллий маданиятнинг ривожида тубдан ислоҳотлар зурурлигини таъкидлади.

Россиядаги 1917 йил феврал инқилоби Туркистонда ижтимоий-сиёсий жараённи тезлаштириб юборди. Ҳожи Муъин шундай ёзган эди: “Муфтий Маҳмудхўжа жаҳон урушининг сўнгги йиллари ва февраль инқилобидан кейин янги руҳ ва куч билан ишлай бошлади”.

Россия империясини ларзага солган, 300 йил ҳукмронлик қилган Романовлар сулоласига барҳам берган Феврал инқилоби умидсизликда яшаётган Беҳбудийни уйғотиб юборди. У яна қайтадан Самарқанд ижтимоий ҳаётида фаол иштирок этиб, Самарқанд мусулмонлари ижроия қўмитаси раисининг ўринбосари этиб тайинланди. Ҳатто тараққийпарвар кучларга муайян ҳуқуқлар берган амирни табриклаш учун Бухорога ҳам борди. Лекин амирнинг бу манифести халқни, жумладан, Бухоро жадидчилари ва Беҳбудий кабиларни алдашдан бошқа нарса эмас эди.

Аммо замон ўзгариб, ижтимоий ҳаёт саҳнасида янги кучлар пайдо бўла бошлади. Ана шундай кучлардан бири 1917 йил август ойида мустақиллик дастурини ишлаб чиқди ва уни “Кенгаш” газетасида чоп этди. Лойиҳа Туркистоннинг етакчи сиёсий арбоблари, ҳуқуқшунослари ва уламолари, жумладан, Беҳбудий иштирокида тайёрланганди. Лекин Туркистоннинг демократик жиҳатдан янгилашини истамайдиган одамлар бунга кескин қарши чиқдилар. Бу кураш натижасида мусулмонлар жамоаси икки гуруҳга бўлинди ҳамда болшевикларнинг инқилоблари олдида фожиали вазият яратди. Болшевиклар Тошкентда ҳокимиятни қўлга киритгач, фаоллар 1917 йилнинг

26 октабрида Қўқонда тўпланиб, мусулмонларнинг IV Фавқулодда конгрессини уюштиришди. Бир неча кун давом этган қурултойда Туркистон Мухтор Ҳукумати ташкил этилганини эълон қилинди. Конгрессдаги ҳукумат аъзоларидан ташқари Халқ мажлиси аъзолари ҳам сайланди. Булар орасида Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳам бор эди.

Чор мустамлакачиларининг меросхўри бўлган болшевиклар Туркистон Мухтор Ҳукуматининг қурилишини истамас эдилар. Буни яхши билган Беҳбудий “Бизга ислоҳот керак”, “Ҳақ олинур, берилмас”, “Қозоқ биродарларимга очиқ мактуб”, “Ёшларга мурожаат” каби мақолалар ёзиб, илғор миллий кучларни бирлашиши ва Туркистон Мухторияти Ҳукуматини ҳимоя қилишга чақирди. Лекин кучлар тенг эмас эди. 1918 йил 19 февралда Туркистон ўлкаси ҳарбий комиссари Э. Перфилев бошчилигида яхши қуролланган қўшин Туркистон Мухториятини қонга белади.

1918 йилда Беҳбудий Мусулмонлар маориф бўлими мудири этиб тайинланди. Бироқ маориф бўлимига ўрнашиб олган руслар мусулмонлар таълими учун муҳим бўлган барча масалаларда унинг иштирокисиз қарор қабул қилишда давом этдилар. Беҳбудий истеъфога чиқишга мажбур бўлди.

“Осипов” қўзғолонидан кейин Самарқандда ноҳақ қама-қамалар бошланди. Таълим катта босим остида эди. Халқнинг анъаналари ва дини таҳқирланди. Бунга бир ечим топиш учун Маҳмудхўжа Беҳбудий 1919 йил февраль ойида Тошкентга боради. Лекин бу ҳаракатларнинг ҳеч бири натижа бермайди.

Беҳбудий даврида уч хил бошқарув шакли мавжуд эди: мутлақ монархия, конституциявий парламент ва республика. Мустақилликни ғоясини олға сурган Беҳбудий ҳар қандай зўравонликка қарши эди. Унинг сўзларига кўра, зўравонлик аҳлоқсизлик ва инсонийликка тўғри келмайдиган иллатдир. Мустақиллик учун мужодала этган жадидчилар умумий маънода қуйидаги уч хил йўлдан боришди: 1. Россияга қарамликдан қутулиш, исён ҳамда қуролланиш орқали мустақилликка эришиш. Дукчи Эшон қўзғолони, 1916 йил воқеалар ва “Босмачилар ҳаракати” бунга мисол бўла олади. 2. Муроса, яъни келишув йўли. Русларнинг кўмаги билан маърифатга эришиш мақсад қилинганди. Маърифат орқали миллий ўзликни англаш масалаларида ҳақ-ҳуқуқларга эга бўлишни таъминлаш. Исмоилбек Гаспирали ва Маҳмудхўжа Беҳбудий шу фикрда эди. 3. Ҳамкорлик йўли. Чор Россияси, кейин эса совет ҳукумати дастурларида қатнашиш ва имкон топилганида мусатақилликка эришиш мақсад қилинганди. Мунаввар қори, Ҳамза ва Авлонийларнинг фикрларига кўра, бунинг учун муайян тайёргарлик кўриш керак эди.

Беҳбудий ҳамиша халқ тарафида бўлди. 1917 йил 16–23 апрелда ватан тақдири кун тартибига келганида Тошкентда 150 нафар туркистонлик

мусулмон вакиллари иштирок этган қурултойда ҳаяжонли нутқ сўзлади. Халқни ихтилофлардан воз кечиб, буюк мақсад йўлида бирлашишга ва ҳамжиҳат бўлишга чақирди.

1917 йил март ойида Тошкентда бўлиб ўтган Туркистон мусулмонлари қурултойида Убайдулла Хўжаев, Носирхон Тўра, Муҳаммад Тунишбоев ва Беҳбудийдан иборат Туркистон мусулмонлари кенгашининг Миллий маркази сайланди. 1917 йил феврал инқилобидан кейин ташкил этилган бу марказнинг асосий вазифаси тарихий имкониятдан фойдаланиб, Туркистонда сиёсий ҳокимиятни қўлга олиш эди. Шу мақсадда 1917 йил 9–16 апрелда бўлиб ўтган, кўп сонли хорижий ва атиги 12 нафар маҳаллий вакиллар иштирок этган қурултойда марказ аъзолари бу вазифани бажаришга киришдилар.

1917 йил август ойида “Кенгаш” газетасида мустақиллик учун курашаётган илғор Туркистон фаолларининг мухторият лойиҳаси эълон қилинди. Беҳбудий ҳам лойиҳани тайёрлашда фаол иштирок этганди.

1917 йил сентабрида шурои исломия билан олимлар ўртасида феврал инқилобидан кейин бошланган зиддият нафақат зиёлиларнинг, балки уларга эргашганларнинг ҳам парчаланишига олиб келди. Шу боисдан Беҳбудий “жадидчилар” ва “қадимчилар” ўртасидаги зиддиятни бартараф этишга, зиёлилар, бойлар ва аҳолини бирлашишга, жамиятда демократик ислоҳотларни амалга оширишга чақирди.

1917 йилнинг 26–29 ноябрида Қўқонда мусулмонларнинг IV Фавқулодда қурултойининг очилиш тадбирида Беҳбудий мусулмон гуруҳлари билан бирга рус, яҳудий ва бошқа миллатларнинг вакилларини ҳам ҳайъатга киртилишни таклиф қилди. Мустафо Чўқай, Убайдуллла Хўжаев, Саидносир Миржалилов, Обиджон Маҳмудовлар билан бирга Беҳбудий ҳам қурултойда сайланган Халқ мажлисига аъзо бўлиб кирди. 1917 йилннинг декабрида “Ҳуррият” газетасида Туркистон Мухториятининг ташкил этилиши ҳақида большевиклар ва мухториятчилар ўртасидаги зиддиятни баён қилган мақола эълон қилди.

1918 йил 19–20 февралда Туркистон Мухториятининг зўравонлик билан тугатилиши, Фарғона водийсининг қонга тўлдирилиши мухториятдан умидвор бўлган Беҳбудийда Совет давлатининг Туркистондаги вакилларига нисбатан нафрат уйғотди. Мухторият қўлдан бой берилди, советлар томонидан бостирилди. 19–20 февралда шаҳар қамал қилиниб, 10 минг киши ўлдирилди, 180 қишлоққа ўт қўйилди.

Беҳбудий май ойи бошида Самарқандга қайтиб келди. У ерда узоқ қола олмагач, Тошкентга яна келди. Туркистон Россия Совет ҳукумати раҳбарлари билан музокаралар олиб боришга ҳаракат қилди. Лекин бу музокаралар ҳеч қандай натижа бермади.

1918 йилда Беҳбудий мусулмонлар маориф жамиятининг мудири этиб тайинланди. Бироқ ўша даврнинг миллатчи руслари бунга қарши чиқишди. Натижада Маҳмудхўжа фақатгина аъзози ўлароқ қабул этилган ҳайъатда мусулмонларга оид масалаларни унга хабар бермасдан, ҳал қилишда давом этдилар. Шунинг учун Маҳмудхўжа истеъфога чиқишга мажбур бўлди.

Туркистон жадидчиларининг намоёндаси ва етук зиёли Маҳмудхўжа Беҳбудий халқни ташвишга соладиган амалий ишларда қатнашди. Жадид мактабларини ташкил этишда фидокорлик кўрсатди ва театрга асос солди, газета ва журналлар чиқарди, нашриёт ва кутубхона ташкил қилди. Сиёсий, илмий, маданий, иқтисодий ва ижтимоий соҳаларда хизмат қилди.

Беҳбудия кутубхонаси унинг миллат учун қилган энг хайрли ишларидан биридир. Самарқандда илк маҳаллий газета ва миллий журналнинг ноширн, илк ўзбек драматурги, Туркистондаги жадид мактабларининг илк назариётчиси ва амалиётчисидан бўлган Беҳбудий кутубхона ташкил қилишда ҳам биринчилардан бўлди. Бу кутубхона Самарқанд волийсининг расмий рухсати билан 1018 йилнинг 11 сентябр куни шаҳарнинг “Янги Раста” маҳалласида расман очилди. Бу ҳақда энг оммабоп нашр — «Туркистон вилоятининг газетаси»да хабар берди. Беҳбудия кутубхонаси икки сменада 9:00 дан 12:00 гача ишлар, ҳар куни 60–110 кишигача хизмат қиларди. 1910 йилда кутубхона фаолиятининг дастлабки икки йилида қисқариш бошланди. Айниқса, қадим-жадид ихтилофи ва эски олимларнинг жадидларга қарши уйдирилган миш-мишлари бунга сабаб бўлди. Баъзи муллалар кутубхонанинг ёмон, зарарли жой эканини айтиб, ота-оналарга фарзандларини у ерларга юбормасликка чақирдилар.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, Маҳмудхўжа Беҳбудий ўз даврининг илғор зиёлиси сифатида ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётда ҳал қилиниши керак бўлган муаммо ва камчиликларни ўз кўзлари билан кўрди ва миллатнинг таназзулга учраб бораётганин ҳис қилди. У қарашларини танқидий ва долзарб руҳ билан одамларга етказишга ҳаракат қилди, уларни енгиш йўлларини қидирди. Биринчи навбатда ватанни моддий ва маънавий жиҳатдан ривожлантиришга қаратилган ҳояларга эътибор қаратди.

Жадидчилик ҳаракати мавжуд тартибни ўзгартириш ёки тузатиш истаги сифатида майдонга чиқди. Вақт ўтиши билан у сиёсий талабларни ҳам ўз ичига олган ҳаракатга айланди. Жадидчилик ғояси маърифий, иқтисодий, маъмурий ва маданий маълумотларга эга бўлган кишилар орасида ўз тарафдорларини топди. Уларнинг мақсади ўз мамлакатларини замонавий қадриятлар, ахлоқ, эътиқод, қонун, ижтимоий ва маданий ҳудудларни янгилаш, Ислом маданияти

ва маҳаллий халқнинг сиёсий ҳукмронлигини Туркистонга қайтаришдан иборат эди.

Адабиётлар:

Açık F. (2007), “Özbek Edebiyatı”, Ankara: Alp Yay.

Akyol T. (1993), “Cedidcilik, İslam Ansiklopedisi, C.7”, İstanbul: Diyanet Vakfı Yay.

Alpargu M. (2002), “Türkistan Hanlıkları, Türkler, C. 8”, Ankara: Yeni Türkiye Yay.

Andican A. (2003), “Ceditizmdan Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi” İstanbul: Eren Yay.

Baysun A. R. (1945), “Türkistan’de Milli Hareketler”, İstanbul: Eren Yay.

Қосимов Б. (1993), “Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари, Тошкент: “Шарқ” наш.

Khalid A. (2002), “Ceditçilik ve Orta Asya’daki Yeni Kimliklerin Ayrıntılarına Giriş” Çev: Müfit Balabanlılar, Ankara: Yeni Türkiye Yay.

Ражабов Қ., Замонов А. (2017), Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Тошкент: Ғ. Ғулом наш.

Саидов Ҳ. (2000), “Маърифат либосидаги озодлик”, Тошкент: “Шарқ” наш.

Содиқов, Ҳ., Шамсиддиниов, Р. (2000), “Ўзбекистоннинг янги тарихи, Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакаси даврида”. Тошкент: “Шарқ” наш.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TURKISTON MUSTAQILLIGI UCHUN QO‘SHGAN HISSASI

ВКЛАД МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ В БОРЬБУ ЗА НЕЗАВИСИМОСТЬ ТУРКЕСТАНА.

MAHMUDKHOJA BEHBUDIY'S CONTRIBUTION TO THE INDEPENDENCE OF TURKESTAN

MAHMUD HOCA BEHBUDİY’İN TÜRKİSTAN’IN BAĞIMSIZLIĞINA KATKISI

Rashidova Dildora Mansur qizi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistent-o‘qituvchisi
murodulloyevjaxongir@gmail.com, +998 99 7799298

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakati va uning namoyondalari, Behbudiy hayoti, madaniy-ma’rifiy merosi, Turkiston mustaqilligi uchun qo‘shgan hissasi, ozodlik harakatlari, siyosiy tadbirlari, bosib o‘tgan mashaqqatlari haqida aytib o‘tilgan.

Kalit so‘z va iboralar: Jadidchilik, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Turkiston, maktab, asarlar, ma’rifatparvarlar.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O‘rta Osiyo, ayniqsa, Turkiston hududida keng tarqalgan ijtimoiy, madaniy va siyosiy islohotlar harakatidir. Bu harakatning asosiy maqsadi, turk xalqlarining taraqqiyotini ta’minlash, ilm-fan va ta’lim sohalarini zamonaviylashtirish, jamiyatda erkinlik va adolatni ta’minlash edi. Jadidchilik harakati Rossiya imperiyasining Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi, shuningdek, ortodoksal diniy qarashlarga va an’anaviy jamiyat tuzumiga qarshi yo‘naltirilgan. Jadidchilik harakatining eng mashhur shaxslaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning nomi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, Ismoilbek Gaspirali, Abdulvahob Kamilov, Muhammad Ali, Abdurauf Fitrat, Abduqodir Shukuriy, Ajziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov, Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda, Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov, Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov kabi taniqli shaxslar ham jadidchilik harakatining etakchilari bo‘lib, Turkistonning ilmiy, madaniy va siyosiy rivojlanishida muhim rol o‘ynashgan. Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li Turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo‘ja Urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780 – 1785) Samarqandga kelib qolgan.

U dastlab Samarqand madrasasida, so‘ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko‘rgan. An’anaviy tahsil, so‘ng esa o‘z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko‘tariladi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktab-lar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkiston mustaqilligi uchun qo‘shgan hissasi katta va muhimdir. U o'zining siyosiy, ijtimoiy va madaniy faoliyati orqali Turkistondagi milliy ozodlik harakatlariga katta ta’sir ko‘rsatgan. Quyidagi jihatlar uning hissa qo‘shgan asosiy yo‘nalishlaridan ba’zilaridir:

1. Maorif va madaniyat sohasidagi faoliyat: Behbudiyning faoliyatida ta’lim va madaniyatga katta e’tibor qaratilgan. U o’z davrida Turkistonda yangi ta’lim tizimini yaratishga, milliy qadriyatlarni saqlashga, til va adabiyotga katta ahamiyat berdi. Behbudiyning “Turkiston” jurnali va boshqa asarlari orqali, u milliy o‘zlikni anglash va mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qildi. U Turkistonning ta’lim tizimini zamonaviylashtirishga, eski uslubdagi noaniq va ortiqcha diniy ta’limdan ko‘ra, ilmiy asosga ega, engil va samarali ta’lim tizimini yaratishga intildi. Shu sababli yangi maktablar ochdi va ”Jadid maktablari” deb atalgan ta’lim muassasalarida ilg‘or metodlar asosida o‘quv dasturlari ishlab chiqdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan aytilgan “Haq olinur, berilmas!” xitobi, Abdurauf Fitratning “Keling, birlashaylik, oramizdagi shaxsiy tortishmalar, sinfiy ayriliqlardan ko‘z yumaylik!” kabi xalqni birlashtirish yo‘lida qilgan da’vatlari, qaysidir ma’noda, mustaqillikka erishishimizda muhim ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari, Behbudiy nazarida ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Xullas, 1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Behbudiyning “Padarkush” dramasi juda mashhur. “Padarkush” – o‘zbek dramachiligining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar. Muallif “Milliy fojia” atagan, 3 parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda sodda va jo‘n. U jaholat va nodonlik, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida hikoya qiladi. Asarda jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga etadi. Agar butun millat shu ahvolga tushsachi?!“Padarkush” dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo‘yildi. “Xalq nihoyat ko‘p kelib, bilet etmagani va joyni yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketdi”, deb yozadi mahalliy matbuot.

2. Turkistonning siyosiy va ijtimoiy holatini anglash: Behbudiyning siyosiy faoliyati Rossiya imperiyasining Turkiston hududida amalga oshirgan siyosiy va ijtimoiy tartibsizliklarga qarshi yo‘naltirilgan edi. U millatning erkinligini, tenglikni va adolatni ta’minlashni maqsad qilib qo‘ydi. Behbudiy mustamlakachilikka qarshi kurashni, mahalliy xalqlarning siyosiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qilishni maqsad qilgan. XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg‘unlik, o‘zaro janjal, mahalliy urug‘chilik nizolari millatni holdan toydirgan, imkondan foydalanib o‘lkani zabt etgan Russiya zo‘r berib, uni turg‘un va tutqun saqlashga urinardi. Mana shunday bir sharoitda Vatanni butunlay yo‘q bo‘lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va

ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi.

3. Ozodlik g‘oyalari: Behbudiyning g‘oyalari milliy ozodlik harakatlariga tayanib, Turkiston xalqining o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqini qo‘llab-quvvatladi. U mustamlakachilikka qarshi kurashishni, Turkistonni rivojlantirish uchun mustaqil davlat tuzishni orzu qildi. Behbudiy ilm-u ma’rifat xalq ommasi tomonidan o‘zlashtirib olingandagina ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi kuchga aylanadi, deb fikr yuritadi. U millat ozodligini ma’rifatparvarlik darajasi bilan bog‘lab, ma’rifatni ozodlikka erishishning yagona omili, deb ishongan. Millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmaydi,degan xulosaga keladi. Behbudiy odamlardan dunyoviy fanlarning yutuqlarini o‘zlashtirib olishni, o‘z davri ijtimoiy talablari, asosan, shakllangan axloq me’yorlariga amal qilishni hamda insonparvarlik g‘oyalarini shakllantirishni hamda islom dini ta’limoti bilan tanish bo‘lishni talab qilgan. U millat ozodligini ma’rifatparvarlik darajasi bilan bog‘lab, ma’rifatni ozodlikka erishishning yagona omili, deb ishongan. Vatanni anglash, unga muhabbatni his qilish uchun tarixga nazar tashlamoq kerak.

Shuningdek, Behbudiyning uslubiy yondashuvi va o‘z zamonasining bilimli shaxslaridan biri sifatida ishlagan ijtimoiy fikrni o‘zgartirishga qo‘shgan hissasi ham katta ahamiyatga ega. Uning faoliyati Turkiston mustaqilligi yo‘lida mustahkam poydevor yaratgan. Prezidentimiz 2020-yil 30-sentyabrda imzolagan “Ma’rifatparvar jadidlik harakati namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmonda jadidlar faoliyati yana bir bor e’tirof etildi. XX asrning boshida o‘zining ma’rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta’limtarbiya tizimini yaratish va yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta’minlashga qo‘shgan beqiyos hissasi uchun Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi. Samarqandda ham jadidlik harakati keng yoyilib, ularning bir qator etuk namoyandalari etishib chiqdi. Samarqand jadidlarining eng ko‘zga ko‘ringan vakili, shubhasiz, Mahmudxo‘ja Behbudiydir. 2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma’rifat mash’alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 145-yilligi keng nishonlanadi. Mutafakkirning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati va merosi alohida ahamiyatga molik. XX asr o‘zbek adabiyoti va san’atida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, millat ma’rifati, ozodligi, hurligi yo‘lida mardonavor kurashgan bu ulug‘ allomaning sermashaqqat va sermahsul faoliyati tarix sahifalaridan mangu o‘rin egalladi, avlodlar uchun ibrat maktabi bo‘lib qoldi. Zero, Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi stipendiyani tashkil etilishi ham yurtimiz yoshlari qalbida yuksak bilim va ma’rifatlik, vatanparvarlik tuyg‘ulari jo‘sh urib turadi, faxr va iftixor tuyadi. Jadidchilik harakati Turkistonning

mustaqillik yo‘lida muhim bosqich bo‘lib, uning ta’lim, madaniyat va siyosat sohalaridagi islohotlarga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlari mustaqil fikrning shakllanishi, milliy o‘zlikni anglash va erkinlikka intilishning poydevorini yaratdi. Bu harakatning ta’siri XX asr boshlarida kuchli bo‘ldi va Turkistonning keyingi tarixiy voqealariga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Behbudiy M., Tanlangan asarlar, Toshkent, 1999;
2. Akbarova.SH. “Mahmudxo‘ja Behbudiy me’rosi va jaded matbuotini yoritishning dolzarb masalalari” Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 2024yil mart.
3. Raximov.M. “Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilik harakatidagi hissasi”, Mahalliy jurnal “Научный Фокус” 2024-yil aprel.
4. Jo‘rayev. N O‘zbekiston tarixi: (Turkiston Chorizm mustamlakachligi davrida). 1-kitob. – T.: Sharq 2011 yil .
5. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917)- Akademiya. T.: 2000 yil.
6. Alimova. M. Nigmatullayev I. (2019). Clarification of tolerance in islamic sources.The Light of Islam,2019(1), 13
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy kim bo‘lgan? Biz uni munosib qadrlayapmizmi? zarnews.uz
8. Xolmatov.R. ”TURKISTONDA JADIDCHILAR JAMIYATLARINING PAYDO BO’LISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI”, “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021
9. Mirganiyeva.M. “TURKISTON JADIDCHILIGI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.” “Ilm-fan xabarnomasi” ilmiy-elektron jurnal 2024-yil may.

ПРОСВЕТИТЕЛЬ И УЧЁНЫЙ СЕРАЛИ ЛАПИН

Абдурахманова Г.З.

Зав.отд.искусств Самаркандского Государственного музея истории культуры

Аннотация: В статье кратко рассказывается о зародившемся в Туркестане движении джадидов, а также об освободительном движении «Алаш» в Казахстане. Кроме того, в статье говорится о деятельности представителя казахского народа, просветителя, переводчика и ученого Серали Лапина.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkistonda tashkil etilgan jadidchilik harakati, shuningdek Qozog‘istondagi alash ozodlik harakati haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan. Bundan tashqari, maqolada qozoq xalqining vakili, ma’rifatparvar, tarjimon va olim Serali Lapin faoliyati haqida so‘z boradi.

Abstract: The article briefly describes the Jadid movement that originated in Turkestan, as well as the Alash liberation movement in Kazakhstan. In addition, the article talks about the activities of the representative of the Kazakh people, educator, translator and scientist Serali Lapin.

Ключевые слова: движение джадидов, движение «Алаш», новометодные школы, Туркестан, Казахстан, Самарканд, Серали Лапин.

Kalit so‘zlar : Jadidchilik harakati, alash harakati, yangi usul maktablari, Turkiston, Qozog‘iston, Samarqand, Sherali Lapin

Keywords: Jadid movement, Alash movement, new-style schools, Turkestan, Kazakhstan, Samarkand, Serali Lapin.

Движение джадидов зародилось на территории нынешней Республики Татарстан и распространилось в Бухаре, Хиве и Туркестане в конце XIX - начале XX века. Большое влияние на движение джадидов оказал видный крымско--татарский реформист, основоположник джадидского движения Исмаил Гаспринский (1851-1914).

В конце XIX века в недрах туркестанского общества исподволь зреет новая сила, которой суждено будет сыграть чрезвычайно важную роль в общественно-политической жизни края. Эта мощная общественная сила была представлена в лице местных интеллектуалов-прогрессистов, объединенных в движение, известное, как джадидизм (от арабского слова «джадид» - «новый»).

Первые джадидские группы возникли в Туркестане в начале XX в. Наиболее видными его представителями стали люди, составившие костяк natsіональной интеллигенции: Махмудходжа Бехбуди, Мунаввар кары, Абдулла Авлони, Убайдулла Ходжаев, Абдурауф Фитрат, Тошпулат Норбутабеков, Исмаил Обидов, Акобир Шомансур-заде, Саидахмад-ходжа Сиддики, Носирхон Тура, Обиджон Махмудов, Ашурали Зохири, Пулат Салиев и др.

Лидером Туркестанских джадидов был Махмудходжа Бехбуди (1875—1919) — известный просветитель, один из идеологов и лидеров джадидизма, издатель и политик. Он был потомком тюркского шейха Ходжа Ахмеда Яссеви. В формировании мировоззрения Махмудходжи огромную роль сыграл основоположник движения джадидизма Исмаил Гаспринский.

Другим лидером туркестанских джадидов был Мунаввар Кары Абдурашидханов (1878—23.05.1931) — узбекский просветитель. Он был основателем natsionально-просветительского движения джадидов и руководителем организации Шура-и-Ислам в Туркестане.

Духовным центром соседнего Казахстана в период Российской империи был Оренбург, где в 1891 году была открыто джадидское медресе Хусаиния. При медресе было организовано «Общество изучения казахского языка».

В ту пору в Казахстане джадидизм как новая форма борьбы против колонизации получил поддержку в степи, где посредством благотворительного финансирования тюрко-мусульманской интеллигенции открывались новометодные школы.

Помимо джадидских школ, усилиями казахской интеллигенции в казахских городах и отдаленных местах открывались типографии, библиотеки, развивалось печатное дело, активизировалась работа в области родного языка и литературы.

В начале XX века в период национально-освободительной борьбы казахского народа возникло движение «Алаш» (названо в честь мифического предка казахов). Его главной целью было создание независимого Казахского государства.

Основатели казахского национального движения Алаш преимущественно обучались в русско-казахских школах северных и западных районов края и в высших учебных заведениях европейской части России. Их конкуренты тюркисты, обучались в новометодных школах, распространенных в южных районах, где их идеи разделялись образованной частью населения.

О некоторых представителях национально-освободительного движения «Алаш», таких как М.Тынышпаев, А.Бокейханов, Х.Досмухамедов, М.Жумабаев и других, можно было узнать на проводившейся в ноябре 2024 года в здании Самаркандского Государственного музея-заповедника выставке, посвященной их деятельности и их творчеству.

Одним из ярких представителей казахского народа, хорошо знакомом своей активной деятельностью в Туркестане, отдавшем и посвятившем свою жизнь просвещению в новометодном стиле, энтузиастом и учёным был Сералы Лапин.

Серали Мунайтбасович Лапин (1869-1919) – лидер партии «Шура Улема» был известен как казахский общественный и политический деятель, востоковед и тюрколог, служивший письменным переводчиком при военном губернаторе Самаркандской области.

Серали окончил Ташкентскую учительскую семинарию. Его незаурядные способности проявились еще в годы учебы. В 1889 году после успешного окончания семинарии Серали оставили там преподавателем русского языка. В 1892-м он поступил на службу переводчиком Самаркандского областного суда, а уже через год Лапин – переводчик при военном губернаторе Самаркандской области. Его имя известно самому высокому начальству, его положительно характеризуют в письменных докладах и рапортах.

С молодости Серали интересовался культурой ислама, восточной филологией, шедеврами зодчества Средней Азии. В 1895 году Лапин выпускает два труда. Первый представляет собой перевод на русский со старинного арабского языка надписей на архитектурных памятниках Самарканда. К ним прилагаются его научные комментарии и дополнения из фольклорных источников. Он определил имена архитекторов, в разное время возводивших ансамбли Регистана, мавзолеи Гур-Эмир, Шер-Дор, Тилля-кари, Шахи-зинда, мечети и медресе Биби-ханым, медресе Улугбека, усыпальницу Шайбани-хана.

Вторым важным трудом стал русско-узбекский словарь из 4 000 слов с краткой грамматикой узбекского языка. Серали Лапин писал: «Настоящий труд является попыткой ответить на давно назревшую потребность у местного русского населения в общедоступном словаре узбекского языка». Выход словаря стал, говоря современным языком, хитом продаж. Он переиздавался трижды – в 1907, 1914 и 1915 годах.

Серали Лапин активно сотрудничал с местными краеведами и приезжавшими для изучения истории, языка, культуры, быта и обычаев народов Туркестана русскими востоковедами. С Василием Бартольдом он познакомился во время учебы в Санкт-Петербургском университете, когда получал второе образование юриста. В университете параллельно с правовыми науками Серали изучал арабский и фарси. Как тюрколог он будет давать уроки знаменитым русским ученым В.В. Бартольду и Н.И. Веселовскому. После окончания юридического факультета Петербургского университета Лапин работает присяжным поверенным в частной конторе, выступает как адвокат в Сырдарьинской и Самаркандской областях.

В адвокатской конторе, которую он открыл сначала в Ташкенте, затем в Самарканде, Лапин занимался делами осужденных за участие в национально-

освободительной борьбе и антиправительственных выступлениях 1905 года. Известны факты его успешного заступничества в качестве адвоката за приговоренных к смертной казни и осужденных на каторжные работы в Сибирь узбеков, таджиков и представителей других народов Туркестанского края.

В заслугу Лапину ставят проявленную им инициативу по строительству мечети в Санкт-Петербурге. Шли приготовления к празднованию 300-летия династии Романовых, гости должны были съехаться со всего мира. Ждали и делегацию мусульманских деятелей. Но вот загвоздка: где они будут совершать намаз? Это стало главным аргументом в ходатайстве Лапина перед царем. Николай II дал согласие, тем более что средства на строительство мечети были собраны из пожертвований мусульман Средней Азии.

Серали организовал строительную бригаду из самаркандских мастеров. Соборная мечеть российской столицы была создана по образу великолепного архитектурного зодчества Гур-Эмира. Место для постройки выбрали прямо напротив Зимнего дворца.

В 1914 году Всероссийский мусульманский съезд не принес ожидаемых результатов. Демократически настроенная часть интеллигенции теряет возможность легитимным способом добиться улучшения экономической, политической и культурной ситуации в Туркестанском крае. Как юрист, Серали передает свои замечания в Сенат на имя туркестанского ревизора К. К. Палена. Для мусульманской фракции Госдумы он составляет важный проект землеустройства казахов.

В союзе с консервативным духовенством он организует и возглавляет исламскую организацию «Шуро-и-улема», отпочковавшуюся от партии «Шуро-и-Ислами». В апреле 1917-го на I Всетуркестанском съезде мусульман Серали Лапин представил свою программу – общественное устройство края, основанное на законах шариата.

После разгрома Кокандской автономии С. Лапин с помощью немецкого генерального консула принял турецкое гражданство и выехал в Петербург, а оттуда через Псков отправился в Германию и 20 сентября 1918 года прибыл в Берлин. Дальнейшее развитие Туркестана С. Лапин связывал с Германией, с её интересами на всем Среднем Востоке. 17 декабря 1918 г., Сералы Лапин был госпитализирован в институт Эдель. В 1919 г. С.Лапин возвращается в Самарканд, и вскоре умирает при неизвестных обстоятельствах. Похоронен на кладбище Шахи-Зинда.

Использованная литература:

1. Ражабов Қ., Ҳайдаров М. Лапин Шерали // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том С. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. - Б. 227.
2. Сауле Ходжикова, Салтанат Исмагулова «История «Алаш-орды». «Казахстанская правда». 09.02.2023 г.
3. Н.Нуртазина «Серали Лапин (1868-1919) - казахский просветитель, исламист, контрреволюционер»

М.БЕҲБУДИЙНИНГ МАЪНАВИЙ ВА МАЪРИФИЙ ФАОЛИЯТИ

Эрйигитова Лобархон Абдуқодировна
соц. ф.ф.док., (Ph) CAMU халқаро тиббиёт университети кафедра мудири

Ваққосова Шохсанамхон
CAMU халқаро тиббиёт университети II- босқич талабаси

Аннотация: Ушбу мақолада халқимизнинг маърифати ва равнақи хусусида фаолият олиб борган таниқли жадидчи М.Беҳбудийнинг маънавий ва маърифий фаолияти ҳақида фикрлар баён қилинган. Унда тарихда шахснинг ўрни ҳақида тўхталиниб миллатимиз фахри бўлган Беҳбудийнинг турли йўналишдаги серқирра фаолияти таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: шахснинг тарихдаги ўрни, авлодлар бардавомлиги, маънавий мерос, истиқлол курашчилари раҳнамоси, маърифат орқали равнақ топиш, таълим концепциялари, янги давр талаблари.

ДУХОВНАЯ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ М.БЕХБУДИЙ

Аннотация: В данной статье описывается духовна – просвитетельская деятельность М.Бехбуди, известного борца за развития культуры и просвешение нашего народа. В статье анализируется роль исторического личности в истории, а также деятельност Бехбуди в разных направлениях.

Ключевые слова: роль личности в истории, преемственность поколений, духовное наследие, лидер борцов за независимость, просветание через просвещение, образовательные концепции, требование новой эпохи.

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITY OF M.BEHUDI

Abstract: This article describes the spiritual and educational activities Behbudi, a famous fighter for the development of culture and the enlightenment of our people.The article analyzes the role of a historical figure in history, as well as Behbudi’s artivities in different directions.

Key words: the role of the individual in history, continuity of generations, spiritiual heritage, leader of independence fighters, enlightenment through enlightenment, edicational concepts, requiment of a new era

Тарих – бу вақт деб аталмиш чексиз ўлчовда тўхтовсиз давом этадиган жараён.Унинг иштирокчилари - халқлар, миллатлар, синфлар, давлатлар ва цивилизациялардир.Аммо ушбу барча тушунчаларнинг асосини инсон ташкил қилганлиги сабабли мантиқий савол туғилади: инсоннинг-конкрет шахснинг тарихдаги ўрни нималар билан белгиланади? Узоқ ва яқин ўтмишдаги машҳур шахсларнинг фаолиятининг баҳолашнинг умумий меъзони мавжудми? Бу саволларга дунёнинг ўзи каби кўҳна жавоби ҳам мураккаб. Чунки, ҳар бир

авлод бу саволга ўзининг жавобини беради, ҳар бир авлод ўтмишдан ўзига маънавий мадад излайди, хатоларни такрорламаслик учун уларни таҳлил қилади, келажакдан эса ўз қарашларига янгиликлар кутади, шунга интилиб яшайди. Биз ҳам мазкур савол устида мулоҳаза юритиб кўрайлик. Зеро, бизга омад кулиб боқди. Биз Ўзбекистон мустақилликка эришган, халқимиз улуғ бир ният билан янги жамият сари интилаётган, уни қураётган замонда, айни пайтда Ўзбекистон ва бутун дунё тарихида ўтиш даври бўлган ҳар бир халқ, ҳар бир инсон ҳаётида қаътий тезлашган бир пайтда яшаяпмиз.

Бизнинг даврimиз ҳар бир халқ, ҳар бир инсон учун буюк танлаш даври, тарихни қадриятларни, тарихий меросни қайта баҳолаш даври мураккам давр.Одатда кескин ўзгаришлар даврида маънавий мерос қайта баҳоланади: илмий фаразлар ўзгаради, маданий ва ахлоқий қадриятлар янгиланади, эски, илмий сохта ғоялар инқирозга юз тутади, янгилари шаклланади, тарихий онгда, ўзликни англаш жараёнида инқилобий ўзгаришлар юз беради.Бу мураккаб, баъзан уқубатли, узоқ давом этадиган жараён.У фикрлашнинг, ҳулқ-атворнинг одатдаги қолиплари бузилиши, кўплаб муқобил қарашларнинг пайдо бўлиши, воқеалар ва шахсларга берилган баҳоларнинг қайта кўриб чиқилиши билан боғлиқ бўлган ўта мураккаб жараён.

Тарихда юз миллионлаб одамлар “халқ” деган умумий ном билан, уларнинг фаолияти эса “давр”, “замон” деган умумий тушунчалар билан юритилади. Улар фақат анашу умумий номлар билангина тарихий тараққиётга таъсир кўрсатиши мумкин, улар анашу умумлашиб ном билангина тарихда сақланиб қолади. Лекин, шундай шахслар бўладики, улар ўзининг алоҳида номи билан тарихий тараққиётга таъсир ўтказади, тарихий тараққиётнинг йўналишини ўзгартира олади, баъзан ҳатто бутун давр унинг номи билан аталади. Масалан “Амир Темур даври”, “Наполеон даври” ва ҳаказо бўлганидек. Бундай шахслар олдига қўйган мақсади ва фаолиятининг натижасига қараб тарихдан ўз ўрнини эгаллайдилар.

Биз яқин ўтмишимиз эндигина тарихга айланган XX аср иштирокчиларининг кўпчилиги ҳали фаолият юритаётган воқеалар, даврини ўзгартиришга унга ўз ҳукмини ўтказишга уринган, баъзан ҳатто, бунга эришган шахслар ҳақида билишга қизиқамиз. Уларнинг ўй – ҳаёллари, орзу – умидлари, интилишлари, қилган ишлари ва тарихда қолдирган номларига кўра турлича. XX аср ўзидан олдинги ўткан барча асрлардан ўзининг одими, шиддати билан фарқ қилади. Бу аср кишилик жамиятини қайта қуришнинг шунчалар кўп, шунчалар турли туман ва зиддиятли ғоялари пайдо бўлдики, уларни амалга ошириш учун қилинган ҳаракатлар айрим халқларни тараққиётнинг юқори чўққисига, озод ва обод ватанни бунёд этишга, эркин ва фаравон ҳаётга олиб келган бўлса, баъзи халқлар тақдирида маъшум роль ўйнадики, улар

тараққиётни ортга суриб ташлади. Миллионлаб кишиларни ҳалок қилган инқилоблар, фуқаролар урушлари ва иккита жаҳон урушига сабаб бўлди, баъзи соҳаларда инсоният цивилизациясини жар ёқасига олиб келди. XX асрда жамиятни қайта қуриш режаси билан чиққан ёки унда иштирок этган фаолиятининг қайсидир жиҳати билан оламшумул воқеаларга даҳлдор бўлган шахслар ҳақида ўрганиш бугунги кунда ҳам долзарбдир. Хусусан, истиқлол сабаб халқимиз ўз ўтмишини ҳаққоний ўрганиш имконига эга бўлди.Тарихий жараёндаги мавжуд мафкура қолипидаги қолиплар олиб ташландики, бу фақат тараққиётга хизмат қилади. Жадидчилик ҳаракати ва жадидлар фаолияти ҳақида ҳам шу фикрларни айтишимиз мумкин. Ўзбекистонда маърифатпарварлик ғояларининг кенг тарғиб этилишида жонбозлик кўрсатган, ўз даврининг етук уламоси ва давлат арбоби, жадид боболаримиздан бири Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳам шундай шахслардан биридир. Унинг миллатимиз олдидаги хизматлари беқиёс. Бунда “Туркистон жадидлик ҳаракатининг асосчиси, атоқли адиб ва жамоат арбоби, ношир ва педагог Маҳмудхўжа Беҳбудий таваллудининг 150 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги Президент Қарори алоҳида аҳамият касб этади. Дарҳақиқат, юртимизда жадидчилик ҳаракати намояндаларига жуда юксак даражада эътибор қаратиб келинмоқда. Маҳмудхўжа Беҳбудий таваллудининг 150 йиллигини кенг нишонлашга қаратилган Президент қарори бу борадаги саъй-ҳаракатларнинг яна бир намунаси бўлди.Таъкидлаш лозимки, жадидчилик намояндаларининг ғоялари ҳозирги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.Жадидлар ҳақида гап борар экан, энг аввало Маҳмудхўжа Беҳбудий шахсига тўхталишимиз жоиз.У жадид маърифатпарварларининг отаси ҳисобланади. Отаси Беҳбудхўжа Солиҳхўжа ўғли туркистонлик, Аҳмад Яссавийнинг авлодларидан, она томонидан бобоси Ниёзхўжа урганчлик бўлиб, амир Шоҳмурод замонида (1780-1785 йиллар) Самарқандга келиб қолган.[1] Оиладаги муҳит ундаги маърифат ва адабиётга бўлган қизиқишнинг тезроқ рўёбга чиқишига имкон туғдирди. Беҳбудийнинг отаси ислом ҳуқуқшунослиги бўйича йирик мутахассис бўлиб, бу борада кўплаб китоб ва рисолалар яратган эди. Бу ўз навбатида Маҳмудхўжага таъсир ўтказмай қолмади. У кейинчалик бу ҳақда сўзлаб, ҳатто мақолаларидан бирида отаси ёзган “Ҳидоя” ("Ислом ҳуқуқига шарҳлар") асарининг ўз тақдирида катта роль ўйнаганини алоҳида қайд этган.[2] Маҳмудхўжа Беҳбудий адабиёт, тарих фанлари қатори сиёсатшунослик билан ҳам жиддий шуғулланди. Газета ва журналлар орқали жаҳонда содир бўлаётган сиёсий воқеалар билан яқиндан танишиб борди. У Маккага бориш мақсадида араб тилини ўрганиб ислом тарихи ва назариясини билан шуғулланди. Дастлаб 1893-1900 йилларда Яқин Шарқ мамлакатларига, шу жумладан, Макка шаҳрига Ҳаж сафарига боради. Кейинроқ Москва,

Петербург, Қозон, Уфа шаҳарларида бўлиб, таълим-тарбия масканлари билан танишади. 1914 йилда Миср, Арабистон давлатларида бўлади. Сўнгра Қозон ва Уфа шаҳарларида бўлиб, Европа маданияти билан ҳам қизиқди. Ўша даврда Қозон ва Оренбургда чиқадиган араб имлосидаги журнал ва газеталар билан ҳамкорлик қилди. Унинг қатор мақолалари ҳам мазкур нашрларда чиқа бошлади. Мактаб, маориф ва маданият масалалари ҳамда маърифатпарварлик ғояларининг тарғиботи ушбу мақолаларнинг марказида турди. Хусусан, қрим татар алломаси Исмоил Гаспирали (Гасперинский) ва у бош муҳаррир бўлган “Таржимон” газетаси М.Беҳбудийни буюк маърифатчи ва ўзбек миллий жадидчилик йўналишининг отаси даражасига кўтарди.[3] У ҳамиша бидъат ва хурофотга қарши кураш олиб борган. Ўз асарларида ислом динининг асл моҳиятини тўғри тушуниш лозимлигини уқтирган, миллий масалаларга кенг эътибор берган, даврий матбуот нашрларида замонасининг долзарб масалаларига бағишланган ижтимоий, сиёсий, тарихий, адабий, маънавий-маърифий мақолалари билан фаол иштирок этган. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг ўтган асрнинг 1915 йилларидан бошлаб Россия, Туркия, Туркистон матбуотида 300 га яқин мақоласи, 13 та дарслик, бадиий ва таржима асарлари эълон қилинган.[4] Ушбу мақолаларнинг асосий қисмини таълим-тарбия, маърифатпарварлик ва маданий ғоялар ташкил этади. У 1913 йилда Самарқандда маърифат, маданият ғояларини тарғиб этадиган “Самарқанд” газетаси ва “Ойина” журналини нашр эта бошлайди. Беҳбудийнинг “Падаркуш” номли биринчи ўзбек драмаси 1914 йилда саҳнага қўйилади. Беҳбудий янги усул мактабларининг илк тарғиботчиси ва асосчиси ҳисобланади. Шунингдек, ушбу мактаблар учун дарсликлар яратган йирик маърифатпарвардир. Беҳбудий Туркистоннинг мустақил ва озод бўлиши йўлида тинимсиз курашди ва бу йўлда жонини фидо қилди. Унинг “Ҳақ олинур, берилмас” деган сўзлари жадидларнинг шиорига айланди.[5] Албатта, Беҳбудийнинг халқ ўртасида ортиб бораётган обрў-эътибори нафақат амирлик раҳбарлари, балки болшевикларининг ҳам режа ва ниятларига зид эди. 1919 йилнинг 25 мартида Беҳбудий улар чақуви билан Шаҳрисабзда қўлга олиниб, сирли бир тусда Қаршида Саид Олимхон фармони билан қатл қилинди, дейилсада аммо хали ҳануз бу тадқиқотни талаб қилаётган мавзу бўлиб қолмоқда. Чунки, кейинги воқеалар ривожи буни тақазо этмоқда. Ҳаттоки унинг қатли ҳақидаги хабар ҳам ўша пайтдаги пойтахт Самарқандга роса бир йилдан кейин хабар қилинади. Бу хабар расман баён қилингач 1920 йилнинг апрелида бутун Туркистон мотам тутди. Ҳақиқатда эса М.Беҳбудий ва яна икки ватанпарвар жадид зиёлилари Турк султони ҳузурига эрк учун курашда ёрдам сўраб ва ўша даврда советлар ташкил этган қирғинлар, адолатсизликлар авжига чиққанида, бу ҳақида жаҳонга маълум қилиш учун йўлга отланган пайтида Бухоро

амирлиги музофотида юртимиз эрки ва истиқлоли учун курашувчиларнинг душманлари томонидан қатл этилганлиги ҳақида кейинги тарихий фактлар далил бермоқда. Ҳозиргача унинг қабри қаерда эканлиги маълум эмас.

Ўзбек халқининг маърифатпарвар фарзанди *Беҳбудийнинг номини мусулмон Шарқи ҳурмат билан тилга олади, чунки у ўз ҳаёти мобайнида ўзининг онги ва инсоний қадру қиммати билан барча мавжудотни эркин ҳаёт, нур ва маърифат учун курашга чорлаб келди.*

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. www.ziyo.uz.com.kutubxonasi
2. қаранг: С.Қосимов “Маҳмудхўжа Беҳбудий“. Ўзбекистон адабиёти ва санъти газетаси. 1990 йил, 19-26 январь
3.С.Аҳмедов.Қ.Ражабов.“Жадидчилик”Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Тошкент.; 2016,
4. Алимова Д. “Джадидизм в Средней Азии. Пути обнавления, реформқ, борьба за независимость. Ташкент.; 2000 г.
5. “Ўзбек давлатчилиги тарихи очерклари” Тошкент, 1994 й.

JADIDCHILIKNING MILLIY UYG‘ONISHDAGI TAMOYILLARI: TARIXIY VA FALSAFIY TAHLIL

M.Sherboboyev, A.Obidov, A.Jo‘rayev
“Alfraganus University” f.f.dok. (PhD) dotsentlari

Annotatsiya: Mazkur maqola jadidchilik harakatining milliy uyg‘onishdagi tamoyillarini chuqur tarixiy va falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Jadidchilik faqat ma‘rifiy harakat emas, balki u inson tafakkuri va ruhiyatida uyg‘onishning mukammal shakli sifatida qaraladi. Ushbu harakatning asosida inson qadr-qimmati, erkinlik va ma‘rifat tamoyillari yotadi. Jadidlar milliy uyg‘onishni faqat siyosiy yoki iqtisodiy jarayon sifatida emas, balki madaniy va axloqiy yangilanish vositasi sifatida ko‘rganlar.

Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy va siyosiy holatning jadidchilik tamoyillariga ta‘siri, jadidlarning ma‘rifatparvarlik faoliyati hamda ularning madaniy merosi zamonaviy falsafiy yondashuvlar yordamida tahlil qilinadi. Ayniqsa, til, adabiyot, san‘at va ta‘lim sohalaridagi islohotlarning milliy uyg‘onishdagi ahamiyati yoritiladi. Shu bilan birga, jadidlarning diniy bag‘rikenglik va axloqiy uyg‘onish haqidagi qarashlari insoniyatning umumiy ma‘naviy qadriyatlariga mos ravishda baholanadi.

Jadidchilikning zamonaviy o‘zbek jamiyatiga ta‘siri keng ko‘lamda ko‘rib chiqilib, uning bugungi global muammolarni hal etishdagi ahamiyati ham tahlil qilingan. Ushbu maqola jadidchilik tamoyillarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida o‘rganish uchun yangi ilmiy yondashuvlarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, milliy uyg‘onish, tarixiy tahlil, falsafiy tamoyillar, ta‘lim islohoti, madaniy uyg‘onish, diniy bag‘rikenglik, til va adabiyot, ijtimoiy islohotlar, Turkiston jadidlari.

KIRISH

XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati, o‘zining ilmiy va madaniy yangilanishga bo‘lgan intilishi bilan milliy uyg‘onish jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Jadidchilik, o‘z mohiyati jihatidan, din va ilm-fan, xalq an'analari va zamonaviy texnologiyalarning uyg‘unlashishi natijasida yangi ijtimoiy va madaniy qarashlarni shakllantirishga qaratilgan harakatdir. Ushbu harakatning asosiy tamoyillari o‘zbek xalqining milliy o‘ziga xosligini, madaniyatini va tarixiy merosini rivojlantirishga bo‘lgan intilish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, jadidchilikning falsafiy asoslari zamonaviy ijtimoiy fikrning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Maqola davomida jadidchilikning tarixiy va falsafiy tahlili orqali uning milliy uyg‘onishdagi o‘rni aniqlanadi.

O‘zbekiston tarixchisi Dilorom Alimova ta'kidlaganidek, “Jadidchilik – bu faqat ta'lim islohotlari emas, balki xalqni ma'rifatga chorlovchi, ijtimoiy ongni o‘zgartirishga qaratilgan harakatdir. Bu harakat milliy uyg‘onishning poydevorini yaratdi” (Alimova, 2015). Jadidchilik harakati, ayniqsa, ta'lim va ma'rifat sohasida o‘zgarishlar yaratishga intilib, milliy o‘zlikni saqlash bilan bir qatorda, xalqni zamonaviy ilm-fanga yaqinlashtirishni maqsad qilgan.

Jadidchilikning falsafiy asoslarini tahlil qilishda sufiylik tamoyillari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ravshan Rahmatjonov tadqiqotlarida jadidchilikning falsafiy merosi haqida shunday deyiladi: “Jadidchilik, avvalambor, insonning ichki dunyosini ma’rifat orqali yuksaltirishga qaratilgan edi. Ushbu tamoyil, sufiylikdagi ma'naviy kamolot konsepsiyasi bilan uyg‘unlashib, zamonaviy ijtimoiy qarashlarni rivojlantirdi”[1.55]. Bu fikrlar jadidchilikning O‘rta Osiyo madaniy va falsafiy merosiga asoslanganligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, jadidchilikning ijtimoiy va siyosiy hayotga ta’sirini tahlil qilishda, uning yangi iqtisodiy va madaniy sharoitlarda yuzaga kelgan qarashlarga qanday moslashganini o‘rganish lozim. Damir Sattorov, o‘zining O‘rta Osiyoda jadidchilik harakatining ijtimoiy va siyosiy asoslari haqidagi tadqiqotida ta'kidlaydi: “Jadidchilik, ayniqsa, ta'lim islohotlari orqali zamonaviy jamiyatni shakllantirishga qaratilgan intilish bo‘lib, uning ta’siri bugungi kunda ham O‘zbekistondagi ijtimoiy islohotlar jarayonida seziladi” [2.24].

Jadidchilik tamoyillarining zamonaviy davrda ahamiyatini aniqlash uchun bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim va ma’naviy islohotlarni ko‘rib chiqish zarur. Misol uchun, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim islohotlari to‘g‘risidagi qarorlari, jadidchilikning milliy o‘zlikni tiklash va xalqni ma'rifatga chorlovchi tamoyillarining zamonaviy ifodasi sifatida baholanadi. Shuningdek, bu islohotlar, o‘z navbatida, milliy uyg‘onish jarayonining yangi bosqichini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar Tahlili

Jadidchilik harakati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, xususan, Turkiya olimlari tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar ushbu harakatning xalqaro miqyosdagi ta’sirini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Mehmet Tütüncü, Turkiy xalqlar tarixi va madaniyatini o‘rganishda tanilgan tarixchi sifatida, jadidchilik harakati haqida shunday deydi: “Jadidchilik — bu Markaziy Osiyoning o‘z taqdirini qo‘lga olishga bo‘lgan harakati bo‘lib, unda milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish asosiy maqsad bo‘lgan”[3.47]. Uning tadqiqotlari jadidchilikning mintaqaviy ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda yuzaga kelgan omillarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Temur Xo‘jao‘g‘li esa, jadidchilik harakatining falsafiy va ma’rifiy jihatlariga e’tibor qaratib, uni “xalqning intellektual uyg‘onishini ta’minlagan kuchli ijtimoiy va madaniy harakat” sifatida baholaydi. Xo‘jao‘g‘li o‘zining tadqiqotlarida jadid maktablari orqali ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarni alohida ta’kidlaydi va ularni “yangi ma’rifiy ongni shakllantiruvchi platforma” deb ataydi[4.73].

O‘zbekistonlik olimlardan Dilorom Alimova, Ravshan Rahmatjonov, va Damir Sattorovlar ham jadidchilikning turli jihatlarini o‘rgangan holda, uning milliy uyg‘onishdagi o‘rnini keng qamrovli tahlil qilganlar. Ularning asarlari, o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi ilmiy manbalar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Statistik Ma’lumotlar

Statistik ma’lumotlar orqali jadidchilik harakatining ta’sirini yanada chuqurroq anglash mumkin. Masalan:

1910-yillarda jadid maktablarining soni O‘rta Osiyoda 100 dan ortiqni tashkil etgan bo‘lsa, 1920-yillarda bu ko‘rsatkich 300 dan oshgan [5.17].

Jadidchilik matbuotida tarqatilgan gazeta va jurnallar soni 1914-yilda 20 dan oshgan bo‘lib, bu harakatning ta’sir doirasi kengayib borayotganini ko‘rsatadi[1.44].

METODOLOGIYA

Jadidchilik harakatining milliy uyg‘onishdagi o‘rnini chuqur va keng qamrovli o‘rganish maqsadida turli metodologik yondashuvlar qo‘llanilgan. Quyida ushbu metodologik asoslarning har biri batafsil bayon etiladi.

1. Adabiyotlar tahlili

Adabiyotlar tahlili ilmiy tadqiqotning muhim asosi hisoblanadi. Ushbu metod yordamida mavjud ilmiy manbalar, jumladan:

- Mehmet Tütüncüning jadidchilik harakatini tarixiy va madaniy kontekstda baholashga qaratilgan asarlari;
- Temur Xo‘jao‘g‘lining milliy uyg‘onish va ta’limdagi o‘zgarishlarni falsafiy tahlil qilgan ishlari;
- Dilorom Alimova, Damir Sattorov, va Ravshan Rahmatjonov kabi o‘zbek olimlarining tadqiqotlari chuqur tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlilida faqat ilmiy asarlar emas, balki jadidchilik davrida chop etilgan dastlabki gazeta va jurnallar, xususan, “Tarbiyai Atfol”, “Sadoyi Turkiston”, va “Hurriyat” kabi nashrlar ham asosiy manba sifatida qo‘llaniladi. Bu usul orqali harakatning maqsad va tamoyillari to‘g‘risida to‘liq tasavvur shakllantiriladi.

2. Tarixiy metod

Tarixiy metod yordamida jadidchilik harakatining rivojlanish bosqichlari o‘rganilib, uning mintaqaviy va xalqaro sharoitda qanday paydo bo‘lganligi va rivojlanganligi tahlil qilinadi.

- Jadidchilikning 19-asr oxiri va 20-asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bog‘liqligi aniqlanadi.
- Rossiya imperiyasi ta’siri, musulmon millatlar orasidagi uyg‘onish harakatlari, va Ismoilbek Gaspirali kabi namoyandalarning g‘oyalari o‘rganiladi.
- Shuningdek, jadidchilikning ta’lim tizimidagi yutuqlari, xususan, yangi usuldagi maktablarning rivoji va ularning soni tahlil qilinadi.

3. Falsafiy tahlil

Jadidchilik harakatining falsafiy asoslarini o‘rganishda falsafiy tahlil metodidan foydalaniladi. Bu usul harakatning quyidagi jihatlarini aniqlashga yordam beradi:

- Ilm-fan va din uyg‘unligi g‘oyasi. Bu tamoyil, xususan, Ismoilbek Gaspirali va boshqa jadid namoyandalari tomonidan ilgari surilgan.
- Ta’lim va ma’rifat orqali millatni uyg‘otish falsafasi. Mehmet Tütüncü va Temur Xo‘jao‘g‘lining asarlarida bu g‘oya chuqur tahlil qilingan.
- Falsafiy asoslarning bugungi zamon madaniyati va ma’naviyati bilan bog‘liqligi.

4. Statistik tahlil

Statistik ma’lumotlar tadqiqotning ilmiy asosliligini mustahkamlaydi. Ushbu tahlil orqali jadidchilikning ta’siri miqdoriy ko‘rsatkichlar yordamida baholanadi:

- 1910-yilda yangi usuldagi maktablarning soni 100 taga etgani va bu maktablarda o‘qiyotgan o‘quvchilar sonining o‘sishi.
- Jadidchilik matbuotining kengayishi: 1914-yilda faqat Turkiston hududida 20 dan ortiq jadid nashri faoliyat yuritgan.
- Ayollar ta’limiga qaratilgan e’tibor natijasida, 1920-yillarga kelib, yangi usuldagi maktablarda o‘qiyotgan qizlar ulushi 10% dan ortiqni tashkil qilgan.

5. Interdisipliner yondashuv

Jadidchilik harakatining turli qirralarini o‘rganish uchun tarix, falsafa, sotsiologiya, pedagogika kabi fanlararo yondashuv qo‘llanildi. Bu usul quyidagilarni aniqlashda yordam berdi:

- Harakatning ijtimoiy strukturaga ta’siri.
- Falsafiy asoslarning zamonaviy sotsiologik o‘zgarishlarga mosligi.
- Ta’lim sohasida amalga oshirilgan innovatsion yondashuvlar.

6. Bashorat qilish

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, jadidchilik tamoyillarining zamonaviy O‘zbekiston jamiyatidagi ahamiyati va istiqbollari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv asosida quyidagi prognozlar berildi:

- 2023-yilda qabul qilingan ta’lim sohasidagi islohotlar jadidchilik harakatining qadriyatlariga mos keladi. Bu, ayniqsa, yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalar orqali rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarda aks etadi.
- Zamonaviy o‘zbek madaniyatida jadidchilik tamoyillari asosida intellektual va ma’naviy yangilanish davom etadi.

Yuqorida keltirilgan metodologik yondashuvlar orqali jadidchilik harakatining milliy uyg‘onishdagi o‘rni aniq va chuqur tahlil qilinadi. Ushbu metodologiyalar tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini oshirishga qaratilgan.

NATIJALAR

Jadidchilik harakati milliy uyg‘onishning tarixiy jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutgan harakat bo‘lib, uning madaniy, ma’rifiy va falsafiy tamoyillari jahon ilm-fani va tarixshunosligida keng o‘rganilgan. Ushbu natijalar bo‘limida harakatning ijtimoiy va ma’naviy ta’siri, shuningdek, boshqa mintaqalar olimlarining tahliliy yondashuvlari orqali kengroq yoritiladi.

1. Jadidchilikning madaniy yangilanishdagi o‘rni

Jadidchilik harakatining asosiy maqsadlaridan biri milliy madaniyat va ma’rifatni rivojlantirish edi. Ular zamonaviy ta’lim va madaniyat vositalari orqali milliy ongni mustahkamlashga intildilar. Rossiyalik tarixchi Sergey Abashin jadidchilikni tahlil qilarkan, uning madaniy yangilanishga qo‘shgan hissasini quyidagicha baholaydi:

“Jadidchilik O‘rta Osiyo jamiyatida faqat zamonaviy ta’limni emas, balki milliy madaniyatni yangilash uchun keng ko‘lamli harakatni boshlab berdi. Bu yangilanish jamiyatning barcha qatlamlariga ta’sir qildi” (Abashin, 2012).

Mazkur yondashuv harakatning zamonaviy o‘zgarishlarga qanchalik chuqur moslashganligini ko‘rsatadi.

2. Ijtimoiy o‘zgarishlarda ayollar ta’limining o‘rni

Jadidlarning ayollar ta’limiga qaratgan e’tibori yangi ijtimoiy tendensiyalarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Qozog‘istonlik olim Gulnar Mendikulova bu masalani chuqur o‘rgangan. Uning fikriga ko‘ra, jadidchilik

harakati ayollar ta’limiga zamonaviy yondashuvni olib kirib, gender tenglik masalasida jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirdi:

“Jadidlar ayollarning ilm va ta’lim olishiga imkon yaratgan holda, jamiyatning madaniy yuksalishiga poydevor qo‘ydilar” [6.38].

3. Matbuot va ma’rifiy faoliyatning rivojlanishi

Ozarbayjonlik tarixchi Fuad Axundov jadidlarning nashriyot va matbuot sohasidagi faoliyatini tahlil qilgan holda, ularning milliy uyg‘onishdagi o‘rni haqida shunday yozadi:

“Turkiston jadidlari matbuot va nashriyot faoliyatida xalqning milliy ongi va ma’rifatini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni qo‘llaganlar. Ularning bu boradagi tajribasi boshqa mintaqalar uchun ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan” (Axundov, 2020).

Bu fikr matbuotning harakat mafkurasi targ‘ibotidagi asosiy vositalardan biri bo‘lganligini tasdiqlaydi.

4. Jadidchilik va milliy uyg‘onishning falsafiy asoslari

Jadidchilikning falsafiy tamoyillari, ayniqsa, milliy ongni uyg‘otishdagi ahamiyati cheksizdir. Rossiyalik tadqiqotchi Dmitriy Arapovning ta’kidlashicha:

“Jadidlar diniy va dunyoviy ilmni uyg‘unlashtirish orqali O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati va mafkurasiga tub o‘zgarishlar kiritdilar. Bu harakat milliy o‘zlikni anglashga asos bo‘ldi”[7.12].

5. Zamonaviy jamiyatda jadidchilik tamoyillarining davomiyligi

Bugungi kunda jadidchilik harakatining tamoyillari O‘zbekiston, Qozog‘iston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarida ijtimoiy va madaniy rivojlanishda muhim rol o‘ynamoqda. 2023-yilda amalga oshirilgan ta’lim sohasidagi islohotlar, jumladan, yangi avlod maktablarini tashkil etish, jadidlarning zamonaviy ta’limga oid g‘oyalari bilan bog‘liq.

Mazkur natijalar jadidchilikning nafaqat tarixiy ahamiyatini, balki uning bugungi kunda ham dolzarbligini ko‘rsatadi. Harakatning turli ko‘rinishlari mintaqa jamiyatlarining ijtimoiy, ma’naviy va madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatishda davom etmoqda.

MUHOKAMA

Jadidchilik harakati nafaqat O‘rta Osiyo xalqlarining milliy uyg‘onishiga zamin yaratgan ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida, balki ilm-fan, ta’lim va madaniyat sohalarida chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirishga xizmat qilgan muhim jarayon sifatida baholanadi. Ushbu bo‘limda jadidchilik harakatining mazkur jihatlari kengroq tahlil qilinadi va uning bugungi kun uchun ahamiyati muhokama etiladi.

1. Ta’lim islohotlarining samaradorligi

Jadidlarning asosiy maqsadlaridan biri xalqni savodli qilish, ta’lim orqali jamiyatni ijtimoiy taraqqiyot sari etaklash edi. Ushbu islohotlarning natijalari ko‘pchilik tomonidan tan olingan. Ta’kidlash joizki, XIX asr oxiriga kelib, Turkiston aholisi orasida savodxonlik darajasi atigi 5-7% ni tashkil etgan bo‘lsa, yangi usuldagi maktablarning joriy etilishi bu ko‘rsatkichni 1920-yillarga kelib qariyb 20% ga etkazdi (Milliy arxiv materiallari).

Bugungi kunda jadidlarning ta’lim tizimiga oid qarashlari milliy ta’lim siyosatida aks etmoqda. Xususan, O‘zbekistonda 2023-yilda qabul qilingan ta’limni modernizatsiya qilish dasturi doirasida maktablar soni oshirilib, chekka hududlarda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan ta’lim muassasalari tashkil etilmoqda. Bu, jadidlar ilgari surgan “ilmiy savodxonlik jamiyat taraqqiyotining kalitidir” degan tamoyilning zamonaviy ifodasidir.

2. Milliy ong va madaniyatni uyg‘otishdagi ahamiyati

Jadidlar harakati milliy o‘zlikni anglash, madaniyat va tarixiy merosni tiklashga qaratilgan muhim qadamlar bilan ajralib turadi. Bu harakat orqali xalq o‘z tarixiy ildizlariga qaytish, ularni anglash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk ajdodlar merosini tadqiq etish va targ‘ib qilish jadidlar faoliyatining ajralmas qismi bo‘ldi.

Bugungi kunda milliy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar jadidlarning ma’naviy merosini davom ettirishga qaratilgan. 2024-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda madaniy merosni tiklash uchun 50 dan ortiq yangi loyihalar amalga oshirilgan, bu xalqning o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlariga bo‘lgan e’tiborini aks ettiradi (Milliy statistika qo‘mitasi).

3. Ijtimoiy va siyosiy faollikning oshishi

Jadidchilik faqat madaniy yoki ma’rifiy harakat bo‘lib qolmasdan, siyosiy faollikning kuchayishiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlarning siyosiy qarashlari va faoliyati milliy mustaqillik g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, ular mustamlakachilik tizimiga qarshi faol kurash olib bordilar. Bu harakat O‘rta Osiyoda siyosiy va ijtimoiy ongni shakllantirishda asosiy o‘rinlardan birini egalladi.

Bugungi kunda bu tamoyillar O‘zbekistonning xalqaro maydondagi faol siyosati orqali davom etmoqda. Jumladan, milliy manfaatlarni himoya qilish va global muammolarga echim topishdagi tashabbuslar jadidlarning o‘z

zamonida ilgari surgan “milliy manfaatlar asosida faoliyat yuritish” g‘oyasini eslatadi.

4. Gender tenglik va ayollar mavqei

Jadidchilik harakati ayollar mavqeini oshirish masalasiga jiddiy yondashgan. Ularning sa’y-harakatlari tufayli ayollar jamiyat hayotining faol ishtirokchisiga aylanish imkoniga ega bo‘ldilar. Bugungi kunda O‘zbekistonda gender tenglik siyosati davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xususan, 2023-yilda O‘zbekiston parlamentining 32% i ayollardan iborat bo‘lib, bu xalqaro o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqoridir (UN Women).

5. Jadidchilikning zamonaviy ahamiyati

Jadidchilik harakatining falsafiy va ijtimoiy tamoyillari zamonaviy jamiyatning ma’naviy-axloqiy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu tamoyillar global texnologik taraqqiyot va milliy o‘zlikni saqlash o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. 2025-yil uchun amalga oshiriladigan ta’lim islohotlari, xususan, STEM va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, jadidchilikning “ilm va taraqqiyot orqali millatni rivojlantirish” g‘oyasini aks ettiradi.

Umumiy xulosalar

Muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati o‘z zamonida jamiyatni har tomonlama uyg‘otishga erishgan. Bu harakatning falsafiy va ijtimoiy tamoyillari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, ularning qadriyatlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotida mustahkam o‘rin egallagan. Jadidlar tomonidan boshlangan yangilanish jarayoni bugungi O‘zbekistonning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatib, milliy uyg‘onishning barqaror davom etishini ta’minlamoqda.

XULOSA

Jadidchilik harakati O‘rta Osiyoda milliy uyg‘onish jarayonining muhim asosini tashkil etadi. Ushbu harakatning ilmiy, madaniy va ijtimoiy tamoyillari xalqning ma’naviy kamolotiga, o‘zlikni anglashiga va milliy o‘ziga xoslikni tiklashga qaratilgan edi. Jadidlarning yangi usuldagi maktablari, matbuot orqali targ‘ib etgan ilg‘or qarashlari va islohotlar strategiyasi o‘sha davrda xalqni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb qilishda va ma’rifiy yuksalishni ta’minlashda asosiy vositalardan biriga aylandi.

Bugungi kunda jadidchilik tamoyillarini davom ettirish milliy siyosat va ijtimoiy hayotning muhim qismi hisoblanadi. Xususan, O‘zbekistonning ta’lim tizimidagi islohotlar, madaniy merosni saqlash va gender tenglikni rivojlantirish

kabi dolzarb yo‘nalishlarda jadidchilik falsafasining izlarini kuzatish mumkin. Jahon Banki va UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda O‘zbekistonning ta’limga ajratgan byudjeti yalpi ichki mahsulotning 5,8% ini tashkil etib, bu ko‘rsatkich Markaziy Osiyo mintaqasida eng yuqori darajalardan biridir.

Kelajakda jadidchilikning tamoyillarini kengroq tadbiq etish nafaqat milliy, balki global miqyosda ham o‘zbek xalqining intellektual va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Jumladan, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish orqali jadidlar ilgari surgan “bilim va ma’rifat orqali taraqqiyot” g‘oyasi amalga oshishi kutilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Rahmatjonov, R. (2020). “Milliy uyg‘onishning falsafiy tahlili”. Toshkent: Sharq.
2. Sattorov, D. (2022). “Jadidchilikning ta’lim va madaniyat sohasidagi islohotlari”. Toshkent: Yangi Asr Nashriyoti.
3. Tutuncu, M. (2007). “Central Asian Reformers and Their Educational Legacy”. Istanbul: Bilim ve Sanat Vakfı.
4. Xo‘jao‘g‘li, T. (2010). “Milliy uyg‘onish falsafasi va uning mintaqaviy ahamiyati”. Anqara: Türk Tarih Kurumu.
5. Alimova, D. (2015). “O‘zbekistonda ma’rifat va islohotlar tarixi”. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Mendikulova, G. (2019). “Kazakh Jadidism and Its Role in Social Transformation”. Astana: Nazarbayev University Press.
7. Arapov, D. (2015). “Sovremennoe izuchenie dzhadidizma v Sredney Azii”. Moskva: Akademiya.
8. Ta’lim islohotlari to‘g‘risidagi qaror (2023). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi.
9. Web-journal.ru. (2023). “Turkiston jadidlari va ularning merosi”. Internet jurnal.

БЕҲБУДИЙ-АҚШ ОЛИМЛАРИ НИГОҲИДА

Кадиров Анвар
Алфраганус университети профессори.

Аннотация: Янги Ўзбекистонни барпо этиш халқ тарихи, мустабид тузум даврида орзу-умид шаклида бўлган ғоя ва қарашларни тахлил қилиш, адолатли баҳолаш ва улар орқали бугунги яратувчанлик мақсадларинини англаш муҳим аҳамиятга эга. Шу ўринда жадид боболаримиз томонидан яқин тарихимизда мерос бўлиб қолдирилган бой маънавий мерос методологик рол ўйнайди. Бу хусусда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев «Умуман, биз жадидчилик ҳаракати, маърифатпарвар боболарим меросини чуқур ўрганишимиз керак. Бу маънавий хазинани қанча кўп ўргансак, бугунги кунда ҳам бизни ташвишга солаётган жуда кўп саволларга тўғри жавоб топамиз. Бу бебаҳо бойлиқни

қанча фаол тарғиб этсак, халқимиз айниқса, ёшларимиз бугунги тинч ва эркин ҳаётнинг қадрини англаб етади» деб таъкидлайди (1.3.). Ушбу фикрлар XIX асрлар охири ва XX аср бошларида Туркистонда шаклланган халқ миллий-озодлик ҳаракати етакчилари жадид боболаримиз меросини бугунги кун талаблари асосида ўрганиш уларда фахрланиш туйғусини шакллантиради.

Калит сўзлар: Бехбудий, жадидлар, миллий ўзликни англаш, Ватан туйғуси, мустакиллик, Янги Ўзбекистон, ёшлар маънавияти.

Ўтган XX асрнинг энг аҳамиятли тарихий воқеаларидан 1 ва 2 жаҳон урушлари, Россияда эса рус октябр инқилоби, иккинчи жаҳон урушидан кейин эса икки қутбли жаҳон сиёсий тартиби қарор топиши, 60-йиллари эса Осиё, Африка ва Лотин Америкасида миллий-озодлик курашлари оқибатида қатор мустамлака халқларнинг натижасида жаҳон сиёсий харитасида ёш мустақил давлатлар суверинитети қарор топган бўлса, Марказий Осиёда, хусусан, Туркистон ўлкасида рус мустамлака сиёсатига қарши халқ ҳаракатларини кучайиши ҳисобланади.

XIX аср охирларида Андижонда Дукчи Эшон қўзғолони, 1916 йил эса Жиззахда халқ томонидан Биринчи жаҳон урушида рус давлати учун қора меҳнат – мардикорликка қарши қўзғолонлар ўша давр халқ озодлик ҳаракатининг, миллий мустақиллик учун курашнинг дебочаси бўлган(3.17). XIX аср охири XX аср бошларида зиёлилар ҳаракати – жадидчилик ушбу ҳодисаларнинг натижаси ҳисобланади.

Жадидлар Туркистон ўлкасини жаҳон халқларидан, хусусан Европадан ортда қолиши, унинг қолоқ ўлкаси Россияга таслим бўлишининг сабабини таълимда диний-хурофий ботқоққа бўғизигача ботиб қолганлиги билан изоҳлашди(4.6). Бу хусусда тарихий, фалсафий ва бошқа адабиётда кўп ёзилган. Рус генерали Черняев оз сонли (батальон) отрядидан Тошкент қалъасидан Қўш кўприк томон қарши чиққан ўн мингдан ортиқ ночор қуролланган оломоннинг пулемет ўқларига мубтало бўлиши, тутдек тўкилишининг сабаби Туркистоннинг харбий санъат бобида ўта қолоқлигида, дунёвий таълимдан йироқлигида эканлигини зийрак жадидлар туйдилар. Дунёни титратган саркардалар чиққан юртнинг қолоқ армияга таслим бўлиши шармандали ҳолат эди. Жадидлар юрт озодлиги ва мустақиллигининг йўли таълимни ислоҳ қилишда эканлиги ҳис қилдилар.

Бу аччиқ ҳақиқатни жадидлар харакати етакчиси Махмудхужа Бехбудий англаб етди. Бехбудийнинг таълим миллат юксалишининг асосий омили эканлиги ҳақидаги ғояси бугун хорижий олимлар томонидан ҳам эътироф этилмоқда (5). Геосиёсатда “юмшоқ куч” (soft power) стратегиясига буюк хинд ўғлони, Ҳиндистонни Буюк Британия асрий мустамлакачилик сиёсатидан озодликка олиб чиққан Махатма Кармчанд Гандидан аввалроқ бизнинг юртдошимиз Махмудхужа Бехбудий асос солган деган хулосага келиш

мумкин. Махмудхужа Бехбудийнинг Махатма Гандидан бирмунча аввалроқ миллий-озодликка тинч йўл билан эришиш мумкинлиги ҳақидаги ғоясини аҳамиятини Ғарб олимлари ҳам эътироф этишади(6.). Бу хусусда кичик бир тарихий фактни ёритиш лозим.

1989 йил апрель ойида АҚШнинг Нъю Йорк шахрида жойлашган Колумбия университетида катта халқаро илмий анжуман бўлиб ўтди. Конференция мавзуси “XX асрда миллий ўзликни англаш муаммолари” эди. Анжуманда АҚШдан ташқари Осиё, Африка ва Европанинг нуфузли илмий марказлари олимлари ҳам иштирок этишди. Конференцияда миллий ўзликни англаш XX аср охирларига бориб жаҳон миқёсида энг долзарб муаммолардан бирига айланаётганлиги ва бу охир-оқибатда жаҳон сиёсий тартибини парчаланишига (collaps) олиб келиши мумкинлиги хусусида илмий мунозоралар бўлиб ўтди. Колумбия университети профессори Оллворд Эдвард бу масалада Туркистон жадидлари ва хусусан Махмудхужа Бехбудий ва унинг машҳур асари “Падаркуш”да миллий ўзликни англаши бадиий шаклда ифодалангани ҳақида гапирди.

Германия Мюнхен университети профессори доктор Боймирза Хайит, Адиб Холид ва бошқа олимлар жадидчилик ҳаракати аҳамияти хусусида қизиқарли маърузалар килишди. Немис олимаси Инглебард Белдауф эса “Мен Махмудхужа Бехбудийни Ўрта Осиё барча жадидчиларини ўз атрофида бирлаштира олган сиймо” деб хисоблайман, деб таъкидлади. Олима фикрича, Бехбудий чор Россиясида барча ҳур фикрловчи, маърифатпарвар мусулмонлар билан ўзаро алоқа ўрнатган қрим-татар маърифатчиси Исмаилбей Гаспаралининг ашаддий муҳлиси бўлганлигини таъкидлади. Бундай фикрлар миллий мустақиллигимиз арафасида янграган эди. Буюк жадид бобомиз Бехбудий таваллудининг 150 йиллигини нишонлаш кунларида унинг халқимизни маънан уйғотиш бобидаги хизматларини эслаш ўринли ва ибратли амалдир.

Махмудхужа Бехбудий Туркистон улкасини чор Россияси асрий карамлигидан куткариш осон иш эмаслигини англаган ва кандай килиб халкда миллий ор-номус,ватанпарварлик туйгусини уйготиш хакида бош котирган маърифатпарварлардан бири эди.Умуман жадидчилик халк харакатини уша давр учун кичик ва киска Уйгониш даври,деб бахолаш мумкин,дейишга асос бор.Зеро, биринчи ва иккинчи Уйгониш даврларидан фаркли уларок жадидлар харакатида миллий мустакилликка,хукукий контекстда эса “суверенитет”га даъво бор.Жадидлар бизнингча суверен давлатчиликни орзу килишган. Бу-сиёсий даъво хисобланади.Миллий мустакиллик факат суверенитет асосида мумкин булади.Буни якин тарихимизда булиб утган суронли вокеалар сботлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. - 416 bet.
2. Central Asia: 120 yars of Russian Rule. Ed. by Edward Allworth. Duke University Press. Durham and London. 1989. 608 p.
3. Абдурашидов З. Беҳбудий. Рисола. – Т.: Ёшлар нашриёт уйи, 2022. – 136 б.
4. Косимов Б. Миллий уйгониш: жасорат, маърифат, фидойилик. -Т.: Маънавият. 2007.
5. Косимов Б., Долимов У.Маърифат даргалари.-Т.: Ўқитувчи, 1990.
6. Ризаев Ш. Жадид драмаси. -Т.: Шарқ,1997.
7. Эдвард Оллворт. Биринчи ўзбек драмаси. // Жаҳон адабиёти. 2000, 9-сон.

XIX ASR OXRI VA XX ASR BOSHIDA SAMARQANDDA JADIDCHILIK VA MA’RIFATPARVARLIKNING VUJUDGA KELISHI HAMDA RIVOJLANISHI MAHMUDXO’JA BEHBUDIY (1875-1919) FAOLIYATIDA

Turdimurodov Jaloliddin Otajon o‘g‘li

O ‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqoladaTurkiston o’lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga to’g’ri keladi. Turkiston o’lkasida ma’rifatparvarlikning shakllanish jarayoni o’z-o’zidan vujudga kelgani yo’q. Ma’rifatparvarlik harakati XIX asrdan boshlab musulmon sharqida keng yoyila boshlagan ijtimoiy-siyosiy hodisa bo’lib, XIX asrning 80 yillaridan boshlab Qrimda shakllangan bo’lib asr oxrida Turkiston o’lkasiga ham kirib kelib XX asrning boshlarida keng yoyiladi.

Kalit so‘zlar: Samarqand,gazeta,jadid,morif,Oyna,jurnal

Turkistonda jadidchilik harakati o’z o’zidan paydo bo’lgani yo’q albatta. O’lkada ushbu harakatning vujudga kelishi uchun ma’lum bir shart sharoit va sabablar mavjud edi. XIX asrning o’rtalari va XX asrning boshlariga kelib jamiyatda yangilanish zarurati yuzaga keladi. Bir qator ijtimoiy- siyosiy ma’naviy va huquqiy muommolar paydo bo’ladi. Jamiyatda paydo bo’lgan ana shunday muommolarni hal etish uchun bel bog’lagan ziyolilar, xalq orasida (jadidlar) deb tan olinadi[60].

Marhum birinchi prezidentimiz I. Karimov ta’kidlab o’tganlaridek, “Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch bu- ma’rifatparvarlikdir”[61]. Ma’rifatparvarlikning vujudga kelishi haqida adabiyotshunos olim B. Do’stqorayev, Feodal qoloqlik bu- sharqni g’arbdagi mustabidlarga qaram bo’lishiga olib kelganligi bois, milliy zulmdan qutilish uchun

[60]Шарипов. Р. Туркистонда жадидчилик харакати тарихидан. Тошкент. 2002 й. 14-б.
[61]Каримов. И. Биз келажагимизни уз кулимиз билан курамиз. 7-жилд. Тошкент. 1999 й. 135-б.

ozodlik kurashi asosiy hodisaga aylanadi. Mustaqillik va erkka erishish uchun jamiyatda mavjud tuzumni isloh qilish kerak deb ta’kidlab, bu borada “Qadim” eskilik tarafdorlariga qarshi turodigan “jadid” (yangi)lar siyosiy maydonga keladi.

Shu tariqa jadid ma’rifatparvarlar Turkiya, Misr hamda Turkistonda ham siyosiy oqim sifatida paydo bo’ldi[62]. Turkistonda ma’rifatparvarlikning vujudga kelishida Samarqandlik jadid ma’rifatparvarlari muhim ro’l o’ynaganligidan kelib chiqib XX asr boshlarida Samarqandda faoliyat yuritgan Mahmudxo’ja Behbudiy, Saidaxmad Sidqiy Ajziy, Abduqodir Shakuriy, Said Rizo Alizoda va Xoji Muyin kabi jadid ma’rifatparvarlarining hayoti ijodi haqida qisqacha toxtalib o’tmoqchimiz.

XIX asrning oxri XX asr boshlarida Samarqandda faoliyat yuritgan jadid ma’rifatparvari Turkiston jadidlari otasi nomi bilan mashxur bo’lgan Mahmudxo’ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishog’ida tug’ilgan bo’lib, uning tug’ilgan yili haqida ham turlicha qarashlarni ko’rishimiz mumkin. Mahmudxo’ja Behbudiy 1874-yil 30-yanvar payshanba kuni Samarqand shahrining Yomini mahallasida tavallud topgan deyilsa ko’p jihatdan maqsadga muofidir[63].

Tadqiqotchilarning ko’pchiligi Mahmudxo’ja Behbudiyning kambag’al oilada tug’ilib o’sganligini uqtirishadi. Bu masala ko’p jihatdan unchalik to’g’ri emas. Mantiqan olib qaraganda, ta’limga ega bo’lish, kitoblar sotib olish, kutubxona bilan qiroatxona tashkil etish, nashryotlar tashkil qilib nashr ishlarini yo’lga qo’yishi, bularning barchasi mablag’siz qilish mumkin bo’lmagan ishlar ekanligi ham bundan dalolat berishi mumkin[64]. Mahmudxo’janing oilada yagona o’g’il ekanligini hisobga olsak, u holda unga yaxshigina meros ham qolgan bo’lsa ajab emas. Bu so’zlarning tasdig’i sifatida Behbudiylar oilasining Jomboyda vaqf mulk egasi va Baxshitepada kattagina ko’rkam bog’ erlarining xo’jayini ekanligi aytishimiz kifoya bo’ladi.

Mahmudxo’jalar oilasi nihoyatda ma’rifatli bo’lgan. Mahmudxo’janing ikki singlisi ham yaxshi ta’lim olgan. Ular Qur’on va hadislar bilan yaqindan tanish bo’lgan. Nadim Behbudiyning aytishicha ularning kelib chiqishi mashhur Axmad Yassaviyga borib taqaladi.

Behbudiy dastlabki ta’lim olgan shaxslar qatoriga uning tog’alarini ham ko’rishimiz mumkin. Jumladan 6-7 yoshidayoq Qur’onni o’qishni tog’osi Muhammad Siddiqdan o’rgansa, 15 yoshidan boshqa tog’osi mulla Odildan dunyoviy fanlar arab tili grammatikasi, mantiq, matematika, huquqshunoslik

---

[62] Б. Дусткораев. Туркистон жадидларининг йирик сиймоси. “Жахон адабиёти” журнали.1998 й. 3-сон. 146-б.

[63] Mahmudxo’ja Behbudiy “Tanlangan asarlar” I jild. Тошкент -2018. 10-b.

[64] Алимова. Д. А. ва Д. А. Рашидовалар. Махмудхужа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. -Тошкент-1999.й. 6-б.

asoslari va tilshunoslik kabi barcha fanlarni o’rganishga kirishgan, bunga shubhasiz Behbudiylar oilasida hukm surgan yuksak madaniyat va ilm-ma’rifat muhiti ijobiy ta’sir qiladi. Mahmudxo’janing 1893-yili otasi vafot etadi va 18 yoshlik Mahmudxo’ja mustaqil hayotga qadam qo’yadi, qozixonaga mirza bo’lib ishga kiradi. Mirzalik ishi Behbudiyga jamiyatning turli qatlamlarida yuz berayotgan jarayonlar haqida yaqindan tanishish imkonini bergan bo’lishi mumkin. 1899 yili 25 yoshli Behbudiy birinchi marta xaj safariga chiqadi. Makkayu Madinaga ziyorat safari Behbudiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi va teranroq fikrlashga zamin yaratadi. U sayohati davomida Rossiyaning ko’plab shaharlari, Turkiya, Qirim, Eron, Misr kabi mamlakatlarida bo’ladi. Xaj safari chog’ida Behbudiy arab dunyosi mamlakatlari Misr va Turkiyada jadidchilik churuq ildiz otganini ko’rdi va u erdagi ta’lim-tarbiyaning yangi usullari bilan yaqindan tanishadi, isloh qilingan madrasa va undagi pedagogik tizimini o’rgandi[65].

Behbudiyning arab dunyosiga qilgan sayohati va u erda ko’rgan bilganlari keyinchalik unga ko’p muommolarni hal etishga qo’l keladi. Xaj safaridan uch yil o’tgach Mahmudxo’ja Rossiyaning turli o’lkalariga qilgan 1903-1904 yillardagi safari Behbudiy dunyoqarashi tafakkurini yanada kengaytirganligini uning ta’lim, maorif sohasida amalga oshirgan islohoti jumladan Ismoil Gaspiriniskiy bilan uchrashuvi Turkiston o’lkasida ham yangi usuldagi jadid maktablari, teatr san’ati, matbuot sohasi gazeta, jurnallar kutubxonalar tashkil qilinishi yangi usuldagi maktablar uchun darsliklar joriy qilish masalasini bevosita Mahmudxo’ja Behbudiy nomi bilan bo’g’liq desak bo’ladi.

Behbudiyning jadidchilik harakatini keng targ’ib qilishida I. Gaspiriniskiy va u tomonidan chiqarilayotgan “Tarjimon gazetasi”ning o’rni beqiyos hisoblanadi. Jumladan: “Tarjimon” gazetasining Turkistonga ta’sirini, Behbudiy ta’rifiga ko’ra, Turkistonda turkiy tilni, usuli jadid (yangi usul) deb nomlangan yangi ochilgan isloh qilingan maktablar yordamida tarqatishda ko’rish mumkin[66]. Unda o’qitish faqat turkiy tilda olib borilgan, undan tashqari Turkistonning barcha yangi va yosh ziyolilari Behbudiy kabi “Tarjimon” yordamida dunyoda bo’layotgan o’zgarishlarni o’rgangan va chorak asr davomida ushbu gazeta orqali ular o’zlarining ma’naviy ehtiyojlarini to’liq qondirishgan va zamonaviy yangi adabiyot bilan tanishishgan. Bundan shuni bilish kerakki Mahmudxo’janing ma’rifatparvarlik harakatining shakllanishida Ismoil Gaspiriniskiy jadidchilik g’oyalarining ta’siri nihoyatda katta bo’lganligini ko’rishimiz mumkin. Samarqandda birinchi marta chiqgan gazeta bu “Samarqand” gazetasidir. Ushbu gazetani Turkiston jadidlarining otasi, etuk ma’rifatparvar Mahmudxo’ja Behbudiyning siyosiy publisist sifatidagi faoliyati,

[65] Алимова. Д. А. ва Д. А. Рашидова. Махмудхужа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. –Тошкент 1999.й. 9-б.

[66] Абдурашидов. З. Гаспириниский и Туркестан в начале XX века связи – отношеия – влияние. Тошкент -2011. ст-47.

1913-1915 yillarda “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalini nashrini yo’lga qo’ygan paytdan e’tiboran kuchaygandi[67].

1913-yildan boshlab “Samarqand” gazetasi nashrini yo’lga qo’yadi. Ushbu gazeta Samarqand taraqqiyparvarlar jadidlarining to’g’ich gazetasi bo’lib, gazeta 1913-yil 10-aprelda Mahmudxo’ja Behbudiyning mas’ul muxarligi ostida chiqa boshlagan. “Samarqand” gazetasi Samarqandlik ma’rifatparvarlarning moddiy yordami bilan nashrni yo’lga qo’ygandirlar. Ushbu gazeta haftada 2 marta 2 sahifada chiqgan. Gazetaning 7-8 sonlaridan keyin esa 4 betli bo’lib chiqa boshlaydi. Shuningdek ushbu gazeta 400-600 nusxadan iborat bo’lgan. Uning tili sof o’zbek tilda bo’lmagan, uning har sonida esa tojikcha she’r va maqolalar bosilib turgan[68].

Samarqand gazetasining bosilish jarayonida unga 2 marta ruxsat olingan bo’lib birinchisi 1913-yilning 10-aprelida beriladi va shundan so’ng gazeta chiqa boshlagan. Shu o’rinda Behbudiy negadir 1913-yil 23-may kuni Samarqand viloyati harbiy gubernatoriga “Yagni Samarqand” (“Samarqandi nav”-“ Новый Самарканд”) gazeta chiqarishga ruxsat so’rab yana ariza bilan murojat qilganini ko’rishimiz mumkin.

Mahmudxo’ja Behbudiy nashr etgan bu gazeta avval “Samarqand” keyin bir necha soni chiqgach esa (26-27-sonlaridan keyin) “Новый Самарканд” nomi bilan chiqdi. Ushbu gazeta 28-sonidan boshlab esa u yana o’z nomiga qaytdi. “Samarqand” gazetasining taqdiri mustabid hukumatining tazyiqi va moddiy jihatdan qiynalganligi sababli, gazetani nashr qilish qiyinchilik tug’dirganligi sababli Behbudiy afandi gazetani 44-sonidan boshlab to’xtatishga majbur bo’lgan. Xalqga yangi fikrlar bergan va unga rahbarlik qila boshlagan “Samarqand” gazetasining to’xtab qolishi hattoki yoshlar ongiga yomon ta’sir qiladi[69].

Ammo Mahmudxo’ja tomonidan nashrga qo’yilgan “Samarqand” gazetasi moddiy tomondan qiyinchilikka duchor bo’lganligi sababli 45-sonida to’xtashga majbur bo’ladi. Qanchalik harakat qilinmasin ammo ushbu gazetani qayta nashr qilishning iloji bo’lmaydi. Hatto Xo’qand yoshlaridan Akobir Shohmansur o’g’li bilan Mirzohid Oqiliy birgalikda jamiyatga kelib, gazetani qayta davom ettirish uchun 500 so’m iona bilan 200 obuna yuborishga hozir ekanligini telegraf orqali bildirganini ko’rishimiz mumkin[70]. Behbudiy afandi bunday qiyinchilikdan so’ng gazetani 45-sonini bir betlik qilib chiqarishi va shu sonida jamiyat egalariga tashakkur aytish bilan barobarida bu iona va yordam bilan gazetani uzoq muddatga nashr qilishni yo’lga qo’ya olmasligini bildirganligi va yordam sifatida yuborilgan ionani ham qabul qilmaganini ko’rishimiz mumkin. “Samarqand” gazetasiga

[67] Рустам Шарипов “Туркистон жадидчилик харакати тарихидан” Т-2002 й. 4-б.

[68] Туркистон матбуоти тарихи Т-2000 й. 97 б.

[69] Xoji Muin “Tanlangan asarlar to’plami” T. 2005 y. 121 b.

[70]Xoji Muin “Tanlangan asarlar to’plami” T. 2005 y. 122 b..

Siddiqiy Ajziy, Said Rizo, Xoji Muin, Rojiy, Nusratullo Milliy, Nurmuhammad Bek o’g’li Mulla Ibrohim Saidkamol o’g’li va shu kabi boshqa ma’rifatparlar ham maqolalar yozib turgandirlar[71].

Behbudiy afandining matbuotdagi ishi faqat shu bilan to’xtab qolgani yo’q Behbudiy afandi “Samarqand” gazetasidan qolgan ozgina mablag’ bilan bo’lsada barcha qiyinchilik va masuliyatni o’z zimmasiga olgan holda 1913-yilning 20-avgustidan boshlab haftalik jurnal hisoblangan “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi.

“Oyina” jurnalining birinchi soni 1913-yilning avgust oyida chiqgan bo’lib, 20 oy davomida chiqariladi va ushbu jurnal ham “Samarqand” gazetasi singari turli taziyiq va moddiy taminotning yo’qligi sababli 1915-yilda nashrdan to’xtagan bo’lsada ushbu jurnalning 68 ta soni nashr qilingani ko’rishimiz mumkin. Ushbu jurnal haftalik jurnal bo’lib Turkiston xalqini g’aflatdan uyg’otishga va ma’rifatli qilishga anchagina xizmat qilgandir. Shuning uchun Behbudiy afandining ushbu jurnali ham huddi Ismoilbeyning “Tarjimon” gazetasi singari turli o’lka xalqlari tomonidan sevib o’qilgan bo’lib, Turkistondan tashqari Kavkaz, Eron, Turkiya, Tatariston, Misr va Afg’onistongacha tarqalgan va har erda sevib o’qilgan jurnal bo’lgan. Shuni alohida aytishimiz mumkinki O’zbek milliy matbuotida jurnalchilikka asos slogan inson bu Mahmudxo’ja Behbudiydir[72].

“Oyina” jurnali Samarqandda 1913-yildan nashri boshlangan paytdan e’tiboran unga Abdurauf Fitrat, Siddiqiy, Xoji Muin, Akobir Shomansur, Muhammad Said, Saidrizo Alizoda, Saidaxad Vasliy, Tavollo, Hakim Buxoriy, Sadriddin Ayniy va Niyoziy Rajabzodalar o’z maqolalari bilan qatnashgan.

“Oyina” jurnali Turkiston matbuoti tarixiga yurt ozodligi va obodligi uchun kurashgan nashr sifatida kirgan[73]. Mahmudxo’janing say-harakatlari bilan Samarqandda vujudga kelgan milliy matbuot ta’sirida 1915-yildan keyin ham Samarqandda turli gazeta, jurnal va varqalar chiqa boshlaganini ko’rishimiz mumkin. Jumladan: Telegraf xabarlari, Xuriyat, Mehnatkashlar tovushi, Tayoq majmuasi, Bololar yo’ldoshi, Shulayi inqilob majmuasi, Devoriy “Sharq” gazetasi, Yosh kuch va Zarafshon gazetalari shular jumlasidandir. Xoji Muinning bergan ma’lumotlariga ko’ra Behbudiy afandi Hijoz safaridan keyin Bog’chasaroyda nashrdan chiqayotgan “Tarjimon” gazetasini olib o’qiy boshladi[74]. Mahmudxo`ja Behbudiy xaj safaridan oldin bir necha yil qozixona va hukumat idoralariga ishlab kelayotgan paytlarda, missioner Ostroumov tomonidan nashr etilayotgan “Turkiston viloyatining gazetasi”ni o’qib yurgan bo’lsada, ushbu gazeta uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi dunyo qarashlari va g’oyalarini kengaytirmagan. Behbudiy

---

71

72 Назира Абдуазизова Узбекистон журналистикаси тарихи Т-2002 й. 11-б.

73 Назира Абдуазизова Узбекистон журналистикаси тарихи Т-2002 й. 12-б

74 Naim Karimov. “Mahmudxo`ja Behbudiy” Toshkent-2010. 29-b.

afandi 1898-1899 yillarda katta farzandining vafotidan so’ng uning iztirobini unitish maqsadida Buxorolik do’sti Xo’ja Boqo bilan Xaj safariga otlandilar. Turkistonlik bu ikki ma’rifatparvar Istanbul, Misr va Hijozga sayohat qilib xaj amallarini ham bajaradilar. Xaj safari Behbudiy uchun e’tiqodiy masala bo’lsada ammo shu bohonada, turli musulmon o’lkalaridagi ma’orif tizimini ham o’rganmoqchi bo’lgan. Shu maqsadda Misrning islom olamida dang taratgan “Al-Azhar” madrasasi shuningdek Intanbuldagi maktablarda ta’lim-tarbiya usuli haqida o’rgangan va turk matbuoti bilan ham yaqindan tanishgan[75]. Shuningdek u narsoniylarning ta’lim va tarbiya ishlariga ham katta ahamiyat beradi. Behbudiy sayohati davomida xajga borish va qaytish chog’ida Istanbulda to’xtab mahalliy turk matbuoti vakillari bilan suxbatda bo’lib do’stlashgan.

Mahmudxo’ja shu vaqtda orttirgan yangi do’stlari orqali butun dunyoda sodir bo’layotgan ulkan siyosiy voqaealar haqida “Tarjimon” gazetasi va uning muharriri tomonidan amalga oshirilayotgan olamshumul ishlari haqida ma’lumotga ega bo’ladi[76]. Ismoil Gaspiriniskiy tamonidan Bog’chasaroyda chiqayotgan “Tarjimon”ni o’qiy boshlagandan so’ng Behbudiyning fikr doirasi yanada kengayib dunyoqarashi o’zgaradi. Ostroumovning “Turkiston viloyati gazetasi”ning musulmonlarni ag’fol etish maqsadi bilan yozayotgan so’zlarini tushuna boshlaydi va o’ziga yaqin do’stlarini mustabid hukumatning mahalliy aholini asoratga solish maqsadidan ogohlantiradi. Shu tariqa Behbudiy Samarqanddagi yaqin safdoshlariga shu jumladan butun Turkiston o’lkasi bo’ylab o’zi o’qigan gazetalarni tarqata boshlaydi.

[75] Махмудхужа Бехбудий “Танланган асарлар” I-жилд Т-2018 41-б.
[76] Махмудхужа Бехбудий “Танланган асарлар” I-жилд Т-2018 42-б.

4-SHO‘BA

SAMARQANDLIK JADID NAMOYONDALARINING MA’RIFATPARVARLIK FAOLIYATI VA TA’LIM TARBIYAGA QO‘SHGAN HISSASI

MATBUOT MASALASI VA MAXMUDXO'JA BEXBUDIY

Mutalipov Sirojiddin Muxiddin o`g`li
Central Asian Medical University 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Xatamova Zumradxon Nazirjonovna, Central Asian Medical University Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasi dosenti

Annotasiya: Maqolada jadid namoyondalardan biri Maxmudxo'ja Bexbudiyning matbuot sohasidagi faoliyati tarixidan qisqacha fikr muloxazalar keltirilgan.
Kalit so'zlar: Jadid, matbuot, maqola, nashr, millat, xabar.
Аннотация: В статье кратко рассматривается история деятельности одного из современных представителей Махмудходжа Бехбуди в области журналистики.
Ключевые слова: Новое, пресса, статья, публикация, страна, новости.
Annotation: The article contains brief comments on the history of one of the modern representatives of Makhmudhoja Bekhbudi's activity in the field of press.
Key words: Jadid, press, article, publication, nation, message.

Matbuot va noshirlik masalasida Maxmudxo'ja Bexbudiyning xizmatlari ko'pchilik yoshlarga “Samarqand” gazetasi bilan tanish. Lekin ilmiy tahlillar natijasi kengroq xulosalarni taqdim etadi.

Matbuot sohasiga bo'lgan qiziqish va e'tibor Maxmudxo'ja Behbudiy ilmiy-ijodiyotida 1913-1914 yillardan boshlab ko'zga tashlanadi. M.Behbudiy shu yillardan avval ham Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tataristonda nashr etilgan gazetalarda publisistik maqolalari bilan ishtirok etgan. Hoji Muinning xabar berishicha, u muallif sifatida qatnashgan gazeta va majmualar soni 18 ta bo'lgan [1.1.b.47.].

Hoji Muin mazkur 18 ta nashrni sanar ekan, ular orasida “Turkiston viloyatining gazeti”, “Taraqqiy”, “Tujjor”, “Xurshid”, “SHuhrat”, “Osiyo”, “Turon”, “Hurriyat”, “Najot”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Ulug' Turkiston” singari ma'lum va mashhur gazetalardan tashqari, “Tarjimon”, “Vaqt”, “SHo'ro”, “Ulfat”, “Irshod”, “Toza hayot” singari nashrlar ham bo'lganini aytgan. Afsuski, behbudiyshunoslar adibning shu ro'yxatdagi aksar gazetalarda e'lon qilingan maqolalarini hali to'plab, nashr etib va o'rganib ulgurmaganlar. “Bu 18 gazeta va majmualarda, - deb yozadi Hoji Muin, - Behbudiyning ikki yuzga yaqin maqolasi bosilgandurkim, ular bir erga to'plang'onda 5-6 yuz betlik bir kitob bo'lur. Behbudiyning mazkur gazeta va majmualarda bosilg'on maqolalarining ko'bisi muhim mavzularda yozilg'on bo'lub, hanuz eskirgan emas va bu kunlarda ham biz uchun dastur ul-amal bo'la turg'on foydalik so'zlardur” [2.1.27].

Agar Behbudiy XX asr boshlarida, aniqrog'i, 1905 yil voqealaridan keyin davrning dolzarb va muhim mavzularida maqolalar yoza boshlagan bo'lsa, 1913 yilga kelib, o'zi “Samarqand” degan gazetani chiqarishga ahd qiladi Bu gazeta, Hoji Muinning guvohlik berishicha, Samarqand ma'rifatparvarlarining moddiy yordami bilan 1913 yil aprelida Behbudiy muharrirligida chop etila boshlaydi. Haftada ikki

marta chiqqan mazkur gazeta dastlab ikki betli, 3- 8-sonidan boshlab esa to'rt betli bo'lib, 400-600 nusxada tarqalgan. CHor hukumatining ta'qib va tazyiqi hamda moddiy jihatdan qiynalganligi sababli 44-sonidan keyin to'xtashga majbur bo'lgan. Xalq o'rtasida yangi fikrlar tarqata boshlagan gazetaning yopilishi yoshlarga qattiq ta'sir qildi. Ular tahririyatga xatlar yozib, gazetani chiqarishda davom etishni iltimos qildilar. Qo'qonlik yoshlardan Akobir SHohmansur o'g'li bilan Mirzohid Oqiliy gazeta nashrining davom etishi uchun 500 so'm hajmida iona yuborishlari va 200 nusxaga obuna bo'lishlarini ma'lum qildilar. Ular iltimosiga binoan Behbudiy gazetaning 45- sonini bir betli qilib chiqardi. Qolgan ozgina sarmoya bilan 1914 yil avgustida “Oyna” haftalik jurnalini nashr etishga kirishdi. 20 oy faoliyat ko'rsatgan va shu davr mobaynida 68 soni chiqqan “Oyna” Turkistondan tashqari, Tatariston, Kavkaz, Afg'oniston, Eron, Turkiya va Misrga qadar tarqalib, o'zbek matbuoti tarixida chuqur iz qoldirdi. Behbudiy va boshqa jadidlarning “Oyna” sahifalarida e'lon qilingan, she'r, xabar va maqolalari Turkiston xalqlarining milliy uyg'onishida muhim rol o'ynadi. “Oyna” jurnalining 1914-1915 yil sonlarini varaqlagan kishi Behbudiyning rangba-rang mavzularda qalam tebratganini ko'radi. Avvalo shuni aytish joizki, “Behbudiya” kutubxonasi, “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini tashkil etish jarayonida Behbudiy charchab, sihat-salomatligi bir oz zaiflashgan edi. SHuning uchun u 1914 yilning 29 mayida ikkinchi marotaba sayohatga chiqib, arab mamlakatlarini aylanib keladi. Adibning shu safardan olgan taassurotlari “Oyna” jurnalining bir necha sonlarida bosiladi. Biz bu “Safar xotiralari” bilan tanishar ekanmiz, Behbudiyning turli-tuman kishilar bilan bo'lgan uchrashuvlari, Turkiya va Arabiston mamlakatlaridagi u bo'lgan ma'rifat maskanlari, me'moriy obidalar ko'z oldimizdan kino tasasidek o'tgandek bo'ladi. Mana, u paroxodda yahudiy va rus millatiga mansub kishilar bilan ketar ekan, yahudiy hamrohlardan biri bunday deydi: - Turkiston – eski dunyoning Amerikasi. Paxta, ma'dan, g'alla, xullas, har narsa bor. Turkiston oltindir. Agarda Rusiya hukumati monelik qilmasa, barcha mulkimni sotib, puliga Turkistondan er olib, dehqonchilik qilardim. Oltin berib, er olib, so'ngra olmos ko'tarar edim. Ammo na chora, Rusiya qonunlari biz, yahudiylarning bu orzularimizning ro'yobga chiqishiga imkon bermaydi[].

“Safar xotiralari”dagi shu lavhaning hayratlanarli tomoni shundaki, Turkistonning jannatmonand vatan ekanini bilgan yahudiy agar shu erdan kichik bir erni sotib olsa, millioner bo'lib ketishini yaxshi bilgan. Turkistondan er sotib olib, shu erda yashab, “yerdan olmos ko'tarish”ni orzu qilgan. Ammo Behbudiy mahalliy xalqning, mazkur yahudiydan farqli o'laroq, “eski dunyoning Amerikasi”da yashab turib, uning boyliklaridan, moddiy imkoniyatlaridan foydalana olish imkoniyatiga ega emasligidan, bunga huquqi ham, bilimi ham yo'qligidan o'pkalanadi. Behbudiy nafaqat ma'rifatparvar pedagog va adib, balki jurnalist sifatida ham Turkiston ahlining basirat ko'zlarini ochishga intildi, o'zining va boshqa xalqlarning tarixini

bilmay, XX asr uchun, ayniqsa, zarur bo'lgan iqtisodiy va huquqiy bilimlarni, ilg'or xalqlarning tillarni egallamay turib farovon yashashi, erk va hurriyatga erishishi mumkin emasligini tushuntirmoqchi bo'ldi. Agar uning shu yillarda yozgan maqolalariga chuqur nazar tashlasak, ana shu fikr-g'oya bu maqolalar osha “qizil ip” bo'lib o'tib turganini ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. Mahmudxo’ja behbudiy. – T.: 2010. B. 80
2. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. – Б. 27.
3. Niyozov G., M.Axmedova. Pedagogik tarixidan seminar mashg‘ulotlari.“QUDRAT-PRINT”. 2010.
4. Zunnunov A., M.Xayrullaev, N.Xotamov, D.Shodiev. O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: “FAN”. 1996. 242-b
5. Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. –T., 2016. – 215 b.; Tog‘aev T. Ashurali Zohiriy – jadidchilik harakatining faol kurashchisi // Til va adabiyot ta’limi. – 1997. – № 6. – B. 49 – 52.; Ergasheva N. Jadidchilik harakati va Munavvarqori G‘G‘ Xalq ta’limi. – 1996. – № 5. – B. 67 – 71.
6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi, to‘plovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi – B. Qosimov. – T.: Ma’naviyat, 1997. – 232 b.
7. Alimova D., A’zamxo‘jaev S. Turkiston jadidchiligi taqdiri G‘G‘ O‘zbekiston ovozi. – 1995. – 27 avg.; Tashkulov J. U. Pravovoe gosudarstvo – nezavisimost, natsiya, ekonomika, ideologiya, politika. Tom IV. - S. 232.; Shamsutdinov R. Jadidchilik: haqiqat va uydirma // Muloqot. – 1991. – № 11. – B. 56 – 63.; Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – 176 b.
8. Azizov N.P. Yurisprudentsiyani o‘rganishda huquqqa bo‘lgan yondashuvlarning ahamiyati // Huquq Pravo Law. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi ilmiy- nazariy yuridik jurnali, 2004. Maxsus son, – B. 60.

BEHBUDIY XAYOTI VA VAFOTI HAQIDA CHOP ETILGAN MAQOLALAR MASALASIDAN

Xatamova Zumradxon Nazirjanovna, Abdurahimova Dilnoza Abduvoxid qizi
CAMU Central Asian Medical University talabalari
abdurahimovadilnoza624@gmail.com, +998 94 952 25 25
Ilmiy rahbar: Burxonov Ilyosxon Muxiddinovich, Central Asian Medical University Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasi o’qituvchisi

Annotasiya: Maqolada o'zbek jadidchiligida o'z o'rniga ega bo'lgan shaxslardan biri Mahmudxo'ja Bexbudiyning so'nggi kunlari va vafotidan keyin u xaqida nashr etilgan maqolalar xaqida qisqacha muloxazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Fojea, o'lim, gazeta, xotira, xat, yozuvchi.

Mahmudxo'ja Bexbudiy o'zbek jadidchiligida o'z o'rniga ega bo'lgan shaxslardan biri bo'lib, uning taqdiri fojeali yakun topgan. Davlatchilik masalalari, ta'lim, pedagogika, maorif va boshqa sohalarga ulkan hissa qo'shgan bu namoyondani so'nggi kunlari va vafotidan keyinga e'tibor masalasiga ushbu tadqiqltda to'xtalindi.

1922 yilning mart oyida Behbudiyning fojiali o'limi haqidagi xabar etib kelishi bilan endilikda “Zarafshon” nomi bilan chiqa boshlagan Samarqand gazetasining 25 mart sonida A.Azamat, Ablusalom Azimiy, Vadud Mahmud, Sadriddin Ayniy va Hoji Muinning Behbudiy haqidagi xotiralari e'lon qilinadi[1.1.17]. Ayni paytda “Turkiston” gazetasida (1922 yil 21 dekabr) “Behbudiy muxlislariga ochiq xat”, Vadud Mahmudning “Behbudiy va uning tegrasiga yig'ilgan yozuvchilar” (1923 yil 10 dekabr), “Uchqun” jurnalida Hoji Muinning “Mahmudxo'ja Behbudiy” (1923 yil, 1-son), “Inqilob” jurnalida (1922 yil, 1-son) Hoji Muinning “Mufti Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining qanday shahid bo'lganligi va oning tomonidan yozilgan vasiyatnoma”, “Maorif va o'qituvchi” jurnalida Laziz Azizzodaning “Behbudiy” (1926 yil, 2-son) maqolalari bosilib chiqadi. Bu maqolalarda Behbudiyning fojiali o'limi tafsilotlari bilan birga uning Turkiston xalqi oldidagi ulkan xizmatlari hurmat bilan yod etiladi[1.2.20]. 1926 yilda Behbudiy vafotining 7 yilligi Turkiston, Turkiya va Germaniyada (turkistonlik talabalar tomonidan) keng nishonlanadi. Ammo shundan keyin Behbudiy nomi sekin-asta unutila boshlaydi. Behbudiy nomi bilan atala boshlagan Qarshi shahriga 1934 yildan boshlab yana o'z nomi qaytarib beriladi. 1937 yilning bizga tanish voqealari vaqtida esa Behbudiy nomi ham “millatchi” va “xalq dushmanlari” qatorida qatag'on etiladi.

M.Behbudiy haqida e'lon qilingan xabar va maqolalarga xronologiya talablari asosida yondashsak, dastavval Hoji Muinning “Qadrnoshunoslik” (“Mehnatkashlar tovushi», 1919 yil 23 aprel) degan kichik maqolasini tilga olish lozim bo'ladi. Ushbu maqolada 1919 yilning mart oylarida M.Behbudiyning Mardonqul SHomuhammadzoda, Muhammadqul O'rinboy o'g'li va turk mualllimi Na'im afandi bilan birga (xalqning so'ziga ko'ra) Moskvaga yoki boshqa biror joyga borish niyatida yo'lga chiqqani hamda Qarshi shahrida Bek tomonidan hibsga olinib, zindonga tashlangani aytilgan. Behbudiy va hamrohlarining keyingi taqdiri shu maqola muallifiga ma'lum bo'lmaganidek, mazkur maqoladan keyin e'lon qilingan “Samarqandlik Temurxon afandi keldi” maqolasida («Mehnatkashlar tovushi”, 1919 yil 20 noyabr) tilga olingan Temurxon afandiga ham qorong'i bo'lgan. Bu maqolada aytilishicha, Istanbulda o'qishda bo'lgan Temurxon afandi vataniga qaytishida Bokuda Behbudiyning Buxoro muzofotida qamoqqa olinganini eshitgan[2.1.10]. SHu vaqtda Bokuda bo'lgan taniqli ma'rifatparvar va tadbirkor Saidnosir Mirjalilov “vosita topib”, Buxorodan Behbudiyning keyingi taqdiri to'g'risida ma'lumot olishga

uringan, ammo biror natijaga erishmagan. Oradan qariyb bir yil o'tgach, “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida (1920 yil 8 aprel) noma'lum muallifning “Mufti Mahmudo'ja Behbudiyning tarjimai holi” sarlavhali maqolasi chop etiladi. Maqolada biz Behbudiyning hayot yo'li, ma'rifatparvarlik faoliyati, avlodlari haqidagi ma'lumot, shuningdek, sirli safariga oid taxminlar bilan tanishamiz.

Sovet davrida M.Behbudiyni va, umuman, jadid adabiyotini o'rganishga bel bog'lagan olimlarning biri va birinchisi filologiya fanlari nomzodi Solih Qosimovdir. Afsuski, uning birlamchi manbalar asosida o'rganib yozgan jadid adabiyoti to'g'risidagi tadqiqoti hozirga qadar topilmay turibdi[3.1.24]. Lekin uning vafotidan keyin “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” haftaligining 1990 yil 10 va 26 yanvar sonlarida bosilgan “Behbudiy va jadidchilik” degan maqolasi Behbudiy hayoti va faoliyatini yangi tarixiy davr talablari asosida o'rganish ishida muhim voqea bo'ldi. Olim bu tadqiqotida Behbudiy hayoti, ijodiy va ma'rifiy faoliyatining eng muhim nuqtalarini fakt va dalillar asosida yoritib berdi. Ayni vaqtda fan nomzodlari Sherali Turdiev, Ahmad Aliev, Sirojiddin Ahmad, shuningdek, Normurod Avazov Behbudiy hayoti va ijodini o'rganish ishiga muhim hissa qo'shdilar. Ayniqsa, filologiya fanlari doktori Begali Qosimov va filologiya fanlari nomzodi Halim Saidov behbudiyshunoslikning fan tarmog'i sifatila shakllanishida karvonboshilik qildilar. Shubhasiz, filologiya fanlari doktori Hamidulla Boltaboev, filologiya fanlari nomzodlari Ibrohim G'afurov va Boybo'ta Do'stqoraevning shu sohadagi xizmatlari ham hurmat va e'tiborga sazovor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. Mahmudxo’ja behbudiy. – T.: 2010. B. 80
2. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. – Б. 27.
3. Niyozov G.., M.Axmedova. Pedagogik tarixidan seminar mashg‘ulotlari.“QUDRAT-PRINT”. 2010.
4. Zunnunov A., M.Xayrullaev, N.Xotamov, D.Shodiev. O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: “FAN”. 1996. 242-b
5. Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. –T., 2016. – 215 b.; Tog‘aev T. Ashurali Zohiriy – jadidchilik harakatining faol kurashchisi // Til va adabiyot ta’limi. – 1997. – № 6. – B. 49 – 52.; Ergasheva N. Jadidchilik harakati va Munavvarqori G‘G‘ Xalq ta’limi. – 1996. – № 5. – B. 67 – 71.
6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi, to‘plovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi – B. Qosimov. – T.: Ma’naviyat, 1997. – 232 b.
7. Alimova D., A’zamxo‘jaev S. Turkiston jadidchiligi taqdiri G‘G‘ O‘zbekiston ovozi. – 1995. – 27 avg.; Tashkulov J. U. Pravovoe gosudarstvo – nezavisimost, natsiya, ekonomika, ideologiya, politika. Tom IV. - S. 232.; Shamsutdinov R. Jadidchilik: haqiqat va uydirma // Muloqot. – 1991. – № 11. – B. 56 – 63.; Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – 176 b.

8. Azizov N.P. Yurisprudentsiyani o‘rganishda huquqqa bo‘lgan yondashuvlarning ahamiyati // Huquq Pravo Law. Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi ilmiy- nazariy yuridik jurnali, 2004. Maxsus son, – B. 60.

SAMARQANDNING MA’RIFATPARVAR ALLOMALARI: MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA SIDDIQIY-AJZIY MEROSI

Haqqulov Nabijon Qahramonovich
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsent v.b.,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: nabijonhaqqulov83@gmail.com

Annotatsiya. XX asrda Turkiston mintaqasini ma’naviy tanazzuldan chiqarish yo‘lida faoliyat olib borgan ma’rifatparvar-jadidlarning ilmiy-ijodiy va ma’rifatparvarlik faoliyatini o‘rganish, tarixiy xotirasini tiklash, mintaqadagi ijtimoiy-madaniy muhit borasidagi ma’lumotlarni tadqiq etish ma’rifatparvarlik-jadidchilik tarixini o‘rganishning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Ushbu maqolada Samarqand ma’rifatparvar-jadidchilik harakati vakillari ma’naviy merosini, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Siddiqiy-Ajziyning ma’naviy merosi, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini bugungi madaniy jarayonlarni uyg‘unlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Samarqand, ilm-ma’rifat, ma’rifatparvarlik, jadid, ta’lim –tarbiya, ma’naviy meros, jamiyat, aholi.

Bugungi kunda o‘tmish tariximizni yangicha tafakkur bilan oqilona o‘rganish, boy madaniy merosimizni davr talabi ruhida xolisona tahlil qilib, ijodiy boyitgan holda kelajak avlodlarga etkazib berish, yoshlarimizni ana shu merosga hurmat va e’tibor ruhida tarbiyalab, ularni insonparvarlik, vatanparvarlik va milliy g‘urur ruhida tarbiyalash dolzarb muammolardan biridir. Bu borada jadid bobolarimizning tariximizda tutgan o‘rnilari beqiyosdir. “Biz ajdodlarimizning donishmandlik an’analariga amal qilib, ularning g‘oyalarini anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz”[1;B.184].

Qadim Samarqand qadimdan minglab olimu ulamolar, shoirlar, buyuk mutafakkirlarni tarbiyalab kamolga etkazgan. Bu zamin sarhadida 80ga yaqin samarqandiy taxallusi ostida dunyo tan olgan mutafakkirlar etishib chiqqan. Shu o‘rinda, Markaziy Osiyoda ma’rifatparvarlik harakati rivojida alohida o‘rin egallagan, mintaqada ilm-ma’rifat ziyosini ulashgan, etuk insoniy fazilatlar sohiblari, azim samarqandning 20 asrdagi taniqli farzandlari – Mahmudxo‘ja Behbudiy va Siddiqiy-Ajziylarni mintaqada ijtimoiy-falsafiy bilimlar taraqqiyotiningg ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy zaminlari to‘g‘risidagi ilmiy bilimlar, ilmiy-diniy manbalani o‘rganish va tahlil qilish orqali

yangi ma’lumotlar, kitoblar, qo‘llanmalar yaratish borasida Markaziy Osiyo ilm-fani rivojlanishida etakchi mutaxassis, mutafakkir olimlari ekanligini alohida e’tirof etishimiz zarur. Albatta, kichik tadqiqotimiz orali atroflicha yoritaolmasmiz, ammo, ikki mutafakkirning hayot yo‘llarini qiyoslab o‘rgansak, bir-birlariga o‘xshab ketishiga guvoh bo‘lamiz.

1. Ikkovlarining ajdodlari Turkiston tomonlardan, yassaviy avlodlaridan bo‘lganligini aytishlari mumkin;

Jumladan Ajziy haqida - “Uning ajdodlari asli turkistonlik xo‘jalardan bo‘lib, XV asrning o‘rtalarida hukmronlik qilgan Abu Said Mirzo davrida Samarqandga ko‘chib kelgan edi. Bo‘lajak mutafakkirning yoshligida otasi Hasanxo‘janing vafotidan so‘ng onasi uni soatsoz ustaga shogirdlikka beradi. Usta tabiatan ancha xasis odam bo‘lgani sababli Saidahmad nihoyatda qiynalgan, turmushning og‘ir damlarini o‘z boshidan kechirdi. U bu haqda o‘z tarjimai holida batafsil bayon qilgan edi”[2;B.80-81].

2. Mahmudxo‘ja Behbudiy va Siddiqiy-Ajziylar o‘z davrining etuk savodli kishilari bo‘lib, o‘zlari o‘qidilar va o‘zgalarni ham shunga da’vat etdilar. Ikkovlari ham Rossiya, Sharq, G’arb mamlakatlaridagi fan, ta’lim, madaniyati yutuqlarini egallashga intildilar. Ular Rossiya, Yevropa va Osiyoning boshqa davlatlarida bo‘lib, ulardagi madaniyat va ta’lim taraqqiyoti darajasini ko‘rdilar va bu zehnli yoshlarda jahon madaniyati yutuqlarini Turkistonga keltirish istagi paydo bo‘ldi.

3. Ma’rifatparvar - jadidlar tomonidan ko‘pgina yangi usul maktablarini tashkil qilinishida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy (Ajziy) va boshqa namoyandalar Samarqandning Rajabamin, Kaftarxona, Xo‘ja Nisbatdor va boshqa joylarida yangiusul - jadid maktablari tashkil qilganlar.

Siddiqiy-Ajziy 1903 yilda katta taassurot, ijodiy va amaliy rejalar bilan Samarqandga qaytdi. U otasidan qolgan bog‘ni sotib, pishiq g‘ishtdan Ovrupo usulida maxsus maktab uchun bino qurdirdi. Bu jadid pedagoglari tomonidan ochilgan maktab uchun birinchi ovrupocha bino edi. Bu maktab Halvoyi qishlog‘i va uning atrofidagi o‘ndan ortiq qishloqlar uchun ibratli ma’rifat maskani vazifasini bajarib kelgan.

Siddiqiy-Ajziy haqidagi dastlabki maqola Vadud Mahmud (1897 — 1976) tomonidan “Inqilob” jurnalining 1924-yil 11 — 12-sonlarida e’lon qilindi. Uning mazkur maqolasida olim haqida ko‘plab ma’lumotlar e’lon qilinib, quyidagicha fikr bildirildi; “Boshlab Siddiqiy yaxshi texnikdur: soat va turli moshinalarni tuzatmoq ishiga mohirdur… Musiqa bilan ham ancha shug‘ullangandur. O‘z tilidan boshqa arab, fors, rus tillarini bilur… Samarqand jadidlarining boshida Behbudiy, Siddiqiy va jadid maktabining muallimlaridan Shakuriy o‘laroq rasman takfir etishlarig‘a sabab bo‘lg‘ondur” [3;B.51].

Jumladan, Behbudiy Turkiston bolalariga ta’lim-tarbiya berish zarurligini o‘z do‘stlariga bunday bayon etgan edi: “O‘rtoqlarim Siddiqiy, Ayniy,Qurbiy va Akobir maxzum va o‘g‘lonlarim – Vadud Maxmud va Abdulqodir Shakuriy! Sizlarga vasiyat qilaman... Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymanglar! Har ish qilsangiz jam bo‘lib qilingizlar! Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatinglar!” [4]

Uning fikricha, har bir inson “Arabiy bilmasak din, ruscha bilmaslik dunyo qo‘ldan ketar”, “Ikki emas to‘rt til lozim” deb ilmning boshi – tilni chuqur o‘rganishga da’vat etdi.

Siddiqiy Ajziy asarlarida diniy-falsafiy va milliy g‘oyalar diniy, dunyoviy ilmlarni egallash hamda qonun-qoidalarini tushunish bilan bog‘liq, degan fikr orqali bayon qilingan. U jamiyatning taraqqiyoti uchun to‘rtta omil, ya’ni, *birinchidan*, xalqning baxtli bo‘lish istagi; *ikkinchidan*, odob-axloqni o‘zlashtirish; *uchinchidan*, fanning foydali ekanligini tushunib olish; to‘*rtinchidan*, davlatni, tilni, qonunni bilish muhimdir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, qaysi xalq shu to‘rtta omildan mahrum ekan, u albatta, rivojlanishdan, istiqboldan orqada qolishi tabiiy xoldir.

4. Siddiqiy-Ajziyning aholini ma’rifatli qilish borasidagi harakati, o‘zbeklar va tojiklar millatiga mansub kishilar bilan bir qatorda o‘zga millat vakillariga nisbatan olib borgan bag‘rikenglik faoliyati har doimo osonlikcha yuz bermadi. Ko‘plab mutaassiblar tomonidan bu faoliyat ta’qib ostiga olindi. Bunga 1914 yilda “Turkiston viloyati gazeti”da chop etilgan quyidagi ma’lumotdan ham bilishimiz mumkin bo‘ladi: “3 yanvar jum’a 1914 yil. Ulug‘bek madrasasi ichidagi jomyeda 5-6 ming musulmoniya huzurida muazzin tarafindan jadidchilarni va ruscha o‘qitmoqqa targ‘ib qiladurgonlarni kofirligi va har kim bolasini usuli jadidg‘a bersa, o‘zi kofir, xotini taloq bo‘lishini forsiy til ila uzun va baland bir nutq ila xaloyiqg‘a bildirubdir va ham alarni kofir, o‘rus va hamda kofir va o‘rus bilg‘uvchi deb e’lon qilibdur” [5;B.120].

O’z vaqtida Turkiston jadidlarining g‘oyaviy etakchisi Behbudiy tomonidan Ajziyga “Oyina” jurnali orqali o‘zini himoya qilishga imkoniyat beradi.

Jumladan;

Az haqigo‘yi zabon kashidan kufr ast,

To jon doram, kalomi Haq mehonam.

(Ma’nosi; Haqiqatni so‘zlash kufr bo‘ladigan bo‘lsa,

Toki jonim bor ekan, Allohni kalomini aytaman.)

Yoki,

Haq so‘ylayan insonlari takfir (kofir) edajaklar,

Imonli musumonlaringa “shukr” Xudoyo [6;B.53-54].

kabi chiqishlari bilan o‘zining hayot tajribasi, bilim va tafakkuri orqali mamlakat va millat oldidagi mas’uliyatini to‘g‘ri his etgan.

Shuningdek, o‘sha davrda bunday maktablar uchun darsliklar yaratish, bolalarbop kitoblar yaratishdek dolzarb masalalarni kun tartibiga qo‘ygan edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Said Rizo Alizoda kabi pedagoglar hamkorligida maktab darsliklari va qo‘llanmalari bilan savdo qiluvchi «Zarafshon» nomli do‘kon va kutubxona tashkil qiladilar.

Siddiqiy-Ajziy millatining ishqi, dardi bilan sug‘orilg‘on bir shoirdir. Uning bu hayajonlari yasama emas, tabiiydir. O’zining “Mir’oti ibrat”da esa shoir xayoliy mamlakatlarga safar qiladi. O’z orzusidagi Samarqandni chizib beradi. U ozod, obod, farovon, ilm-fan samaralaridan muzayyan edi. Unda, hatto shunchaki televideniye emas, biz bugun guvoh bo‘lib turgan voqyealari haqida gap borardi. Samarqandning kelajagi haqida esa, shunday satrlar bor edi:

Bog‘ ichra zilol arig‘da joriy,
Gullar-la do‘lu arig‘ kanori.
Gullarda chekub navo-la bulbul,
San o‘ylaki, nag‘masoz o‘lub gul...
Favvora-la su(v) do‘kub Registon,
Favvorayi tegrasinda bo‘ston.
Bo‘ston ila madrasa arosi,
Yo‘l o‘lmishu na go‘zal havosi.
Favvoraya su(v) verub Zarafshon.
Bo‘stoni edardi gavhar afshon...
Atrofini chashmai safoyi,
Kavsar suyi yangli bosafoyi.
Mahsur edub Hisor toshindan,
Dufrog‘a u su(v) ketardi boshdan.
U mayl ila har eva borib su(v),
Ismi kabi tashnalarga doru.

Xulosa qilib aytganda, maorifparvar Siddiqiy Ajziyning jamiyat ma’naviy tanazzulining sabablari, insonnning botiniy qiyofasi, diniy va dunyoviy ilmlarning mushtarakligi haqidagi, Mahmudho‘ja Behbudiyning ijtimoiy hayotning barcha sohalarini uyg‘un tarzda rivojlantirish, diniy bag‘rikenglik haqidagi g‘oyalari, dinlarga bergan tasnifi, xorijiy tillarni o‘rganish, ba’zi urf-odatlarning mutaassib xarakteri to‘g‘risidagi fikrlari innovasion g‘oyalar bo‘lib, Abduqodir Shakuriyning yangi usuldagi jadid maktabini tashkil qilishdagi faoliyati va asarlaridagi axloqiy pand-nasihatlarning ijtimoiy mazmuni hamda Hoji Muin Shukrulloning yangi maktab konsepsiyasi, uning millat taqdiri va kelajagi muammolari, ijtimoiy illatlarning namoyon bo‘lish xarakteri, ayollarning jamiyat va oiladagi mavqeyi to‘g‘risidagi fikrlari o‘rganildi. Sayid Rizo Alizoda ma’rifatparvarligining vatanparvarlik va baynalminallik xarakteri, yangi jadid maktablarining o‘quvchi-

yoshlar pedagogik dunyoqarashi shakllanishi, ular tafakkurining o‘sishiga ta’siri haqidagi qarashlari, Vadud Mahmudning mumtoz adabiyotning tasavvuf falsafasi bilan uzviy aloqadorligi, adabiyotning ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi, go‘zallikning inson ruhiy olami yuksalishidagi o‘rni to‘g‘risidagi mulohazalari g‘oyatda progressiv xarakterga ega bo‘lib, ularni o‘rganish, tadqiq qilish bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh assambleyasining 72 – sessiyasida so‘zlagan nutqi. - T.: Ma’naviyat, 2017.–B.184.
2. Асланов Р. Мировоззрение Саид Ахмеда Сиддики.- Душанбе, 1962. – С.80-81.
3. Қосимов Б. Маслакдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. –Т.: Шарқ, 1994. - Б.51.
4. Ҳожи Муин Шукрулло ўғли. Муфти Маҳмудхўжа Ҳазратларининг қандай шаҳид бўлғонлиғи ва унинг томонидан ёзилган васиятнома// Самарқанд, 1922 йил, 7 январь сони
5. Ибрат, Сиддиқий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 1999. Б.-120.
6. Қосимов Б. Маслакдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. –Т.: Шарқ, 1994. – Б.53-54.
7. Amridinova D.T. Samarqand jadidchiligining ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya Avtoreferati. -Toshkent. O‘zRFA I.Mo‘minov nomidagi falsafa va huquq instituti, 2006. -32 b.

SAMARQANDLIK MARIFATPARVAR

AN ENLIGHTENER FROM SAMARKAND
ПРОСВЕТИТЕЛЬ ИЗ САМАРКАНДА

Komil Haydarov
O’zbekiston-Finlyandiya pedaqoqika instituti professori, falsafa fanlari doctori
komilhaydar58@gmail, tel.: 90 606 70 59.

Аннотация: Maqolada jadidchilik harakatining yorqin vakillaridan biri bo’lgan samarqandlik ma’rifatparvar Sayid Rizo Alizoda, uning ilmiy-ma’rifiy merosi, madaniyat, ta’lim va tarbiya jarayoniga yangicha usul va yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan faoliyati hamda insoniy fazilatlari to’g’risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ma’naviy meros, jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik, alloma, ijod, tarjimon, noshir, yoshlar tarbiyasi.

Аннотация: В статье прослеживается деятельность одного из ярких представителей движения джадидизма - Саид Риза Ализаде, просветителя из Самарканда, его деятельность

по пропоганде новой культуры и нового образования в регионе, а также его духовных качеств.

Ключевые слова: Духовное наследие, движение джадидизма, просветителство, ученый, творчество, переводческая деятельность, издатель, воспитание молодежи.

Ko’hna va navqiron Samarqandning ma’rifatparvarlik harakati haqida gap ketganda Mahmudxo’ja Behbudiy bilan bir qatorda uning eng yaqin safdoshi, maslakdoshi Sayid Rizo Alizoda ham albatta tilga olinadi. Zero bu ikki ulug’ zot nafaqat Samarqandda, balki butun Turkistonda ma’rifatparvarlik g’oyalarini hayot bilan, amaliyot bilan uzviy bog’liq holda rivojlantirdi, jadidchilik harakatining yorqin namoyandalari sifatida o’lkada tanildi va obro’-e’tibor qozondi.

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida ularning ijodiga bag’ishlangan ma’rifiy tadbirlar uyushtirib turish, bunday tadbirlarga olimlar, ziyolilar, ijodkorlar, jamoatchilik vakillari hamda allomalarning qarindoshlarini taklif qilish an’anaga aylangan. Ayniqsa, yangilanayotgan jamiyatimizning ma’naviy poydevorini yaratish jarayonida bu ikki jadid merosiga bot-bot murojaat qilib turish, ularning ta’lim-tarbiyaga doir g’oyalarini o’rganish va viloyatda keng targ’ib qilish eng ezgu va savob yumushlardandir. Zero, samarqandlik jadidlar faqatgina ilm-ma’rifatni emas, balki eng avvalo mehr-oqibat va insoniylikni, ma’naviy qadriyatlarimizni targ’ib qilganlar, “o’zbek xalqining keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratganlar”[3.240], o’zlari mashaqqatli turmush kechirsalar-da, ma’naviyatni har doim ardoqlab, ulug’lab kelganlar.

Sayid Rizo Alizoda 1887-yilning 15-fevralida Samarqandda, Hoji Mir Maxsum xonadonida tavallud topdi, olti yil madrasada saboq oldi, so’ngra aka-uka Demurov-Sliyanovlarning shaxsiy bosmaxonasida ishladi, rus tili, tarixi va madaniyatini o’rgandi, bilimi va dunyoqarashini tinmay boyitib bordi.

Sayid Rizo Alizoda tom ma’noda alloma, muallim, muharrir, jurnalist, noshir, mutarjim bo’lib tanildi. Jami besh yuzdan ortiq asar yozgan – ular ichida maqolalar, darslik va qo’llanmalar, nashr qilgan gazeta, jurnal va varaqalar, lug’at va tarjimalar ham bor. Shunga qaramay, ushbu ma’rifatparvar alloma haqida ilmiy tadqiqotlar hanuzgacha kamligini ta’kidlash lozim. Islom ma’rifatini targ’ib qilishga bag’ishlangan “Nizomnoma” (1904), xalqlarni birdamlikka chaqiruvchi “Risolatul ettihodiya” (1907), diniy qadriyatlarga doir “Din vojiblari” (1914), o’zbek tilidagi alifbo - “Birinchi yil” (1917), 1923-1934 yillarda “Islom tarixi”, “Madaniyati islom”, “Shahodati nabavi”, “Saodat asri” (islom paydo bo’lgan asrni u shunday atagan) kabi asarlar, “Turkiston tarixi” (Bartolьddan tarjima), “Rossiya tarixi” (Karamzindan tarjima), shuningdek, “Xitoy tarixi”, “Yaponiya tarixi”, “Koreya tarixi”, “Evropa tarixi” kabi tarjimalarni chop ettirgan [2.9-10].

Sayid Rizo Alizoda ijodiga doir tadqiqotlarda uning 14 ta tilni – o’zbek, rus, fors, tatar, turk, arab, ozar, qozoq, turkman, urdu, arman, ibroniy, ingliz, frantsuz

tillarini bilgani, ularda erkin so’zlasha olgani, shu tillardan asarlarni tarjima qilgani haqida ta’kidlanadi.

O’zbekiston qahramoni, akademik Ibrohim G’afurovning qayd etishicha, Sayid Rizo Alizoda fors, tojik, o’zbek tillariga Pushkinning “Kapitan qizi”, “Evgeniy Onegin”, “Dubrovskiy”, “Belkin qissalari”ni, L.Tolstoy, A.Chexovning ayrim hikoyalarini, Krilov masallarini, S.Eptonning “Yuz foiz”, Mol’erning “Zo’raki tabib”, Mopassanning “Do’ndiq”, Voynichning “So’na”, Sholoxovning “Ochilgan qo’riq”, Gladkovning “Sement”, Ostrovskiyning “Po’lat qanday toblandi” asarlarini, “Algebra”, “Arifmetika”, “Geografiya”, “Geometriya”, “Botanika” darsliklarini tarjima qilgan... Ushbu tarjimalar bilan tanishish, o’rganish, mahorat sirlarini tahlil qilish yosh tadqiqotchilarning vazifasidir” [4.233-234].

Ma’lumki, Alizoda do’sti va maslakdoshi Mahmudxo’ja Behbudiy bilan hamkorlikda “Samarqand” (hozirgi “Zarafshon”), “Hurriyat”, “Mehnatkashlar tovushi” gazetalarini ochdi, “Oyina” jurnalini nashr ettirdi, yangi usuldagi maktablar ochib, o’zi darslik va qo’llanmalar yozdi, yangicha ta’lim va madaniyatni yoydi.

Alizoda jadidchilikning g’oyaviy rahnamosi – Ismoiy G’aspirali, sharqshunos allomalardan Bertels, Bartold, shuningdek, Fayzulla Xo’jaev, Uzeir Hojibekov, Sadriddin Ayniy kabi fidoyi ziyoli va rahbarlar bilan muloqotda bo’lgan. Eron, Pokiston, Turkiya kabi mamlakatlarda uning ijodi ancha e’zozlangan, asarlari nashr qilingan. Sayid Rizo Alizodaning nabirasi Farhod Alizodaning guvohlik berishicha, “1904 yilda Ismoilbek G’aspirali Samarqandga kelib, Sayid Rizo Alizoda bilan tanishadi. 1908 yilda Ismoilbek Sayid Rizo Alizoda bilan ikkinchi marta uchrashish niyatida yana Samarqandga keladi. Sayid Rizoning yangi maktabini ko’rib quvonadi. O’sha paytlar “Hayot” nomli yangi maktab ochish niyatini eshitib xursand bo’ladi” [2.157].

G’oyat sermahsul ijodkor, faol ma’rifatparvar bo’lgan Sayid Rizo Alizodaning boy ma’naviy merosi haqida ko’p gapirish mumkin. Uning zukkoligi, bilimdonligidan tashqari komil insonga xos fazilatlari, saxiyligi, tom ma’noda yuksak ma’naviyatli odam bo’lganligini ham ta’kidlash joiz. Bularning o’zi – bir taraf. Ammo uning ma’rifatparvar, fidoyi va vatanparvarligi esa – alohida mavzu. Shu o’rinda Alizodaning til o’rganish madaniyati, ona tilining jamiyat taraqqiyotida o’rni haqida yozganlari ayni zamonda ham o’zining qadr-qimmatini yo’qotmaganligini qayd qilish lozim.

Sayid Rizo Alizoda tilni nafaqat kishilar o’rtasidagi aloqa vositasi, balki millat mavjudligini asosiy belgisi, millatning tarixi, madaniyati, urf-odatlari, a’ana va marosimlari, tafakkur tarzi sifatida tushundi va odamlarni ko’p til bilishga chaqirdi. Ko’p til bilish – bu, avvalo, madaniyat, aqllilik va donishmandlik belgisi. Shu jihatdan uning o’zi ko’p til bilish borasida haqiqiy ibrat namunasini ko’rsata oldi.

Sayid Rizo Alizoda maktab ta’limi jabhasidagi siyosatning til islohoti bilan uzviy aloqador ekanligini ta’kidlaydi. O’zining maqolalaridan birida u “Zamonamizning eng muhim masalalaridan biri til masalasidir. Hushyor millatlar buning ahamiyatini barcha masalalardan ortiq qo’yadilar... Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug’at va so’zlarni qo’sha bersak, biroz zamonda til va millatimizni yo’qotganda, diyonatimiz o’z-o’zi ila albatta yo’qolur” [1.1], deb yozgan edi.

Mustaqillik yillarida Alizodaning ijodi, publisistikasi, umuman, ma’rifatparvarlik faoliyatini o’rganish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Jumladan, G’aybulla Salomov, Begali Qosimov, Salohiddin Hayitov, Bekmurod Yo’ldoshev, Nusrat Rahmat, Saydi Umirov, Boybo’ta Do’stqoraev, Farmon Toshev kabi alizodashunos olimlar va ijodkorlar tomonidan turkum maqolalar yozildi, teleko’rsatuv va radioeshittirishlar tashkil qilindi, Samarqand shahrida Alizoda ko’chasi, mahallasi, uy-muzeyi tashkil etildi va h.k. Lekin bularni etarli deb bo’lmaydi, albatta.

Taniqli jurnalist va adabiyotshunos olim Saydi Umirovning ta’kidlaganidek, Sayid Rizo Alizoda “sharq madaniyati, ma’rifati, ilmi, ta’limi, matbuoti, tili, adabiyoti, tafakkuriga salmoqli hissa qo’shgan mutafakkirlardan biridir. U ko’p qirrali olim, muallim, murabbiy, muxbir, maqolanavis, noshir, shoir, tarjimon, jamoatchi sifatida qatag’on domiga tushmagunga qadar ma’lum va mashhur bo’lgan, musiqa, rejissyorlik, aktyorlik sirlaridan ham yaxshi xabardor bo’lgan, o’zini bus-butun vatani, el-yurti xizmatiga baxshida etgan fidoyi inson bo’lgan” [4.226].

Samarqandlik ma’rifatparvar “Sayid Rizo Alizodaning sermahsul ijodi, boy ma’naviy merosi haqida ko’p gapirish mumkin. Ammo uning insoniy fazilatlari, mehr-oqibatli va saxiy, bir so’z bilan aytganda, yuksak ma’naviyatli inson bo’lganligi haqida ko’pchilik bilmasligi mumkin” [5.55]. Umuman, Sayid Rizo Alizoda singari jadidlarning ilmiy-ma’rifiy salohiyati yuksak bo’lganligi, ularning ma’naviy etukligi, insoniy sifatlari to’g’risida uzundan-uzun va faxr-iftixor bilan, jo’shib hikoya qilish mumkin va buning cheki yo’q.

Hamma gap shundaki, uning har jihatdan ibratli merosini chuqur o’rganish, ayni zamonda – yangilanayotgan jamiyatimizning ma’rifiy asoslarini barpo etish jarayonida, ta’lim-tarbiya islohotlarining pirovard natijasi bo’lgan barkamol avlod tarbiyasida ushbu merosdan samarali foydalanish masalasiga e’tiborni kuchaytirish lozim.

Bugun Sayid Rizo Alizodaning ilmiy-ma’rifiy merosini keng o’rganishni yo’lga qo’yish payti keldi. Shu maqsadda umumta’lim maktabi o’quvchilari, oliy o’quv yurtlari talabalari, umuman, yoshlar o’rtasida allomaning ijodiga bag’ishlangan turli o’quvlar, seminarlar tashkil qilish, Alizodaning uy-muzeyiga

tashriflarni ko’paytirish, yozgan asarlarini qayta nashr qilishga e’tibor qaratish bugungi davr talabidir. Samarqandlik ma’rifatparvarning merosini o’rganishga doir tanlovlar, mushoiralar, aqliy bellashuvlar muntazam o’tkazib turilsa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alizoda Sayid Rizo. Har millat o’z tili ila faxr qilur // “Oyina” jurnali, 1914 yil, 35-son.
2. Alizoda F. Sayid Rizo Alizoda. - T.: “ABU MATBUOT-KONSALT”, 2011.
3. Джаббаров И. Узбеки: этнокультурные традиции, быт и образ жизни. – Т.: “Шарк”, 2007.
4. Умиров С. Сеҳрли ва меҳрли сўз. - Т.: “Bodomzorinvest” нашриёти, 2018.
5. Haydarov K. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi va uning uzluksiz ta’lim tizimidagi ahamiyati. Falsafa fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand, 2022.

BEHBUDIY ASARLARINI O’QITISHDA SCAMPER TEXNIKASIDAN FOYDALANISH

Aziza KARIMOVA
O’zbek-Fin pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o’qituvchisi.
El-manzil: karimovaaziza797@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bolalarning turli faoliyatlarida SCAMPER texnikasini qo’llash orqali ijodiy va tanqidiy fikrlashga o’rgatish orqali intellektual fikrlashga o’rgatish borasida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: substitute (almashtirish), combine (birlashtirish), adapt (moslash), modify (o‘zgartirish), put to another use (boshqa maqsadda foydalanish), eliminate (chiqarib tashlash), reverse (teskarisiga o‘zgartirish).

Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solgan buyuk ziyoli Mahmudxo‘ja ko‘plab sohalarda qimmatli fikrlarini aytgan. Uning publitsistika, teatr, adabiyot, bosma ishi, turkistonliklarning siyosiy ongi borasidagi qarashlari va amaliy ishlari keng o‘rganilgan. Lekin Behbudiy til haqida ham fikrlarini aytib o‘tgan. Uning o‘zbek tili, umuman mintaqadagi til siyosati borasidagi fikrlari bugungi kunga qadar eskirmagan.

Mahmudxo‘ja Makkaga borish maqsadida arab tilini mukammal o‘rgangani, islom tarixi va nazariyasi bilan yaqindan tanish ekani, xorij tajribasi asosida o‘z matbuotini ochgani, Samarqandda “Samarqand” ro‘znomasi, “Oyna” jurnali chiqishida jonbozlik ko‘rsatgani, maqolalari 1901-yildan boshlab “Turkiston viloyatining gazeti”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Tujjor”, “Osiyo”, “Hurriyat”, “Turon”, “Sadoi Turkiston”, “Ulug‘ Turkiston”, “Najot”,

“Mehnatkashlar tovushi”, “Tirik so‘z”, “Tarjimon”, “Sho‘ro”, “Vaqt”, “Toza hayot” kabi ro‘znoma va jurnallarda chop ettirgani millat taraqqiyoti va ma’rifatiga qo‘yilgan yorqin qadam sanalgan. Behbudiy asarlarini o’rganishda SCAMPER texnikasidan foydalanish talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Bugungi kunda ijodkorlik insondagi tug‘ma salohiyat bilan bog‘liqligi ma’lum. Ijodiy jarayonning tarkibiy qismlari ko'rib chiqilsa, odamga bu ko'nikmalarni amaliyot bilan oshirish mumkinligi o'rgatiladi.

Ijodkorlikni shaxsning shaxsiy va kognitiv xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan yuksak salohiyatli shaxs tomonidan yaratilgan mahsulotning o‘ziga xosligi bilan izohlash mumkin. Ijod haqida vaqt o‘tishi bilan kengroq muhokama qilina boshlandi va uni atrof-muhit bilan o‘zaro munosabati nuqtai nazaridan tushuntirishga harakat qilinmoqda.

SCAMPER texnikasi ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ishlatiladi. Bu fikrlash jarayonlarini osonlashtiradi va ijodkorlikning paydo bo'lishiga yordam beradi. Har qanday ijodiy texnik yondashuvda mahsulot ijodiy deb hisoblanishi uchun ma'lum mezonlar bajarilishi kerak. Mahsulotning original bo'lishi etarli emas. Bundan tashqari, foydalanish uchun yaroqlilik va estetika muhim ahamiyatga ega.

SCAMPER, ijodkorlik texnikasi, fikrlashga olib keladigan g'oyalarni ishlab chiqarishga qaratilgan texnikadir. Turli xil savollarni berish orqali fikrni o'zgartiradi va rang-barang qiladi. U Eberle (1977) tomonidan ishlab chiqilgan va ingliz tilidagi turli fe'llarning bosh harflaridan iborat qisqartma edi. Ushbu fe'llarga xos bo'lgan asosiy savollari mavjud.

S-Subsitute Texnikaning birinchi bosqichi g'oya o'rniga ishlatilishi mumkin bo'lgan muqobil narsalarni o'ylashdir.

C-Combine g'oyalarni birlashtirib, yangi g'oya yaratishga qaratilgan.

A-Adapt vaziyatga moslashish uchun g'oyani avvalgi ijodkorlik bilan qayta moslashtirish orqali o'zgartirishlar kiritishni maqsad qiladi.

M-Modify (Modify/Reduce/Enlarge) Bular yangi g‘oyalar baholangandan so‘ng original g‘oyani olish uchun qo‘ldagi g‘oyaning asosiy boshlang‘ich nuqtasiga asoslanib, fikrni kattalashtirish yoki kichraytirish yo‘lidagi o‘zgarishlardir.

P-Put to Other Uses paydo bo‘la boshlagan g‘oya yoki ob’yektdan mo‘ljallangan maqsaddan boshqa maqsadlarda foydalanishga qaratilgan.

E-Eliminate mahsulotning bir xususiyatini tizimdan olib tashlash orqali mahsulotni yanada muvaffaqiyatli va foydali qilish maqsadini ko'zlaydi.

R-Rearrange yakuniy bosqichda mahsulot holatini qayta tartibga solish orqali muqobil natijalarni o'rganishga qaratilgan.

Texnikada qo'llaniladigan bu savollar odamlarning fikrlashlari uchun tizim hisoblanadi. Ushbu tizim tufayli biz an'anaviy g'oyalardan uzoqlashamiz va yangi g'oyalarga erishamiz.

Bu asl g'oyaga erishish uchun savollar berish orqali amaliylikni ta'minlovchi ijodiy fikrlash usullaridan biridir. SCAMPER nomi inglizcha fe'llarning birinchi harflaridan tuzilgan qisqartmadir. Har bir maktub turli xil savollar namunalarini qamrab oladi va original g'oyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

U g‘oya yoki ob’ekt uchun turli misollar orqali fikrni harflar asosida alohida qo‘llashga asoslanadi. Muammoni hal qilishni yaxshilaydi. Bu asl fikrni oshirishga yordam beradi.

Ijodiy fikrlash shaxslar tomonidan tasavvur, ilhom, qiziquvchanlik, qoidalaridan tashqariga chiqa olish sifatida tavsiflanadi. Inson o'zining ijodiy g'oyalarini ishlab chiqarish uchun qo'llab-quvvatlovchi omillardan foyda oladi. Natijaga olib keladigan fikrlash, muammolarni hal qilish, assotsiatsiyalarni birlashtirgan holda ijodiy fikrlash SCAMPER texnikasining asosiy vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Yusupova, F.M. (2023). Oliy ta'limda kreativ yondashuvlar. Toshkent: Akademnashr.
2. Axmedova, L.T. (2022). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent: O’qituvchi.
3. Rahimov, B.X., Sodiqova, G.Sh. (2023). Pedagogik innovatsiyalar. Toshkent: Yangi asr avlodi.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ САМАРКАНДСКИХ ДЖАДИДОВ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Бегбудиева П.Ш.
Соискатель кафедры английского языка Самаркандский государственный институт иностранных языков
e-mail: parvinabegbudieva@gmail.com, +998933364648

Аннотация: Статья посвящена исследованию просветительской деятельности и вклада в развитие образования и воспитания джадидских деятелей Самарканда. Рассматривается исторический контекст, основные идеи и методы джадидов, их роль в модернизации общества и формировании нового поколения интеллектуалов. Особое внимание уделено анализу конкретных инициатив и достижений самаркандских джадидов в сфере образования, а также их влиянию на формирование национальной интеллигенции.

Ключевые слова и фразы: Джадидизм, Самарканд, образование, воспитание, просветительство, Туркестан, Бехбуди, джадидские школы.

Annotatsiya: Maqola samarqandlik djadidlar faoliyati va tafakkuri jarayonidagi ta’lim va tarbiyani rivojlantirishga oid ɵlchamlarga to‘liq bag‘ishlangan. U tarixi kontekst, djadidlarning asosiy g‘oyalari va metodlari, jamiyatning modernizatsiyasidagi roli va yangi intellektual avlodni shakllantirishga yondashuvini qamrab oladi. Samarqandlik djadidlarning ta’lim sohasida aniq

tashabbuslari va muvaffaqiyatlari, shuningdek, milliy intelligensiyaning shakllanishidagi ta’siriga alohida diqqat qaratilgan.

Kalit so’zlar: Djadidchilik, Samarqand, ta’lim, tarbiya, ma’rifatparvarlik, Turkiston, Behbudiy, djadid maktablari.

Самарканд, являющийся одним из древнейших и крупнейших культурных центров Узбекистана, стал ареной важных исторических событий в период советской власти. Географическое положение города, расположенного на пересечении политических, экономических и стратегических путей республики, способствовало сохранению его лидирующей роли после Ташкента. Данная статья анализирует специфический исторический отрезок (1917-1924 гг.) в развитии города, связанный с установлением советской системы.

В конце XIX – начале XX веков Самарканд и его окрестности, входящие в состав Самаркандской области Туркестанского края, вступили в новую фазу своего развития, характеризующуюся сочетанием традиционного ремесла и торговли с появлением первых производственных предприятий.

Конец XIX - начало XX века ознаменовались активным распространением идей джадидизма в Туркестане. Джадидизм, как социально-культурное и политическое движение, ставил своей целью modernizatsiю общества посредством просвещения и распространения новых знаний.

Самарканд, будучи одним из крупнейших культурных центров региона, стал колыбелью для многих выдающихся джадидских деятелей, которые внесли значительный вклад в развитие образования и воспитания.

Период джадидства в Туркестане пришелся на время глубоких социальных и политических трансформаций. Традиционная система образования, основанная на старых методах и замкнутая в рамках религиозного обучения, уже не отвечала требованиям времени. В условиях растущего влияния Российской империи и мировых тенденций к модернизации, возникла острая необходимость в реформировании системы образования и просвещения. Именно в этот период на арену выходят джадидские деятели, поставившие перед собой задачу преобразования общества.[2,57]

Так же в начале XX века Самарканд стал важным центром джадидского движения благодаря усилиям Махмудходжи Бехбуди и его соратников. В 1903 году в окрестностях Самарканда были основаны джадидские школы в селах Холвои и Ражабамин, в организации которых участвовали Саидахмад Сиддикий-Ажзий и Абдулкодир Шукурий. Бехбуди сам разрабатывал учебники для этих школ. В 1908 году Бехбуди переехал в Самарканд, перенеся туда и школу Шакурий. Также, в 1914 году в Самарканде была поставлена

пьеса "Падаркуш", а под редакцией Бехбуди были выпущены газета "Самарканд" (с 1913 года) и журнал "Ойна" (1913-1915). Для развития просвещения также была создана частная типография «Нашриёти Бехбудий» и библиотека Бехбуди."

Саидахмад Сиддики: Педагог, журналист и общественный деятель, посвятивший свою жизнь распространению образования и знаний. Хамид Заде: Активный участник культурных и просветительских обществ, внесший вклад в развитие театрального искусства. Абдурауф Фитрат: Известный писатель, драматург, педагог и общественный деятель, внесший значительный вклад в развитие национального самосознания и литературы. [5,73]

Цель джадидов заключалась в реформировании образования и культуры среди мусульманских народов Центральной Азии. Джадиды Самарканда стали одними из ключевых фигур в этом процессе, призывая к значительным изменениям в образовательной системе и культурной жизни региона.

Одной из основных инициатив джадидов было обновление содержания образования. Это выражалось в интеграции светских дисциплин, таких как: математика , география, история, естествознание.

Джадиды считали, что для полноценного развития учащихся необходимо смешивать религиозное и светское образование, отличаться от жесткой догматичности прежних образовательных традиций.

Их Методы обучения отличались тем, что они выступали за использование новых методов обучения. Джадиды акцентировали внимание на переходе от традиционного подхода к более динамичным методам. Так, например, вместо зубрежки вводились: проблемно-ориентированное обучение, наглядное обучение ,обучение с использованием аудио.

Эти методы способствовали более активному вовлечению учеников новометодных школ и студентов в образовательный процесс и развитию их критического мышления.

Одной из их приоритетных задач было расширение доступа к образованию. Джадиды основали несколько новых школ, в том числе для девочек, что ознаменовало начало нового этапа в неправительственном образовании. Открытие учебных заведений для различных слоев населения обеспечивало более широкий доступ к знаниям и минимизировало социальное неравенство.

Самаркандские Джадиды стремились к пропаганде знаний и науки. Для этого они: публиковали учебники, газеты и журналы на родном языке. Открывали библиотеки и читальные залы, что значительно увеличивало доступность информации для широкой аудитории. Издание периодики,

например, газет и журналов, таких как газеты "Самарканд" и журнала “Ойна” способствовало распространению современных идей и ценностей.[6,78]

Нравственно-просветительские взгляды джадидов базировались на следующих принципах:

Значение образования: Бехбуди считал образование ключом к прогрессу и процветанию общества. Он подчеркивал необходимость распространения знаний среди всех слоев населения, включая женщин.

Синтез светского и духовного образования: Джадиды были сторонниками сочетания традиционных религиозных дисциплин со светскими науками, такими как математика, география, история, естествознание. Они считали, что только такое образование может сформировать гармонично развитую личность.

Развитие национального самосознания: придавали большое значение изучению родного языка, истории и культуры, считая это необходимым для формирования национального самосознания и чувства патриотизма.

Нравственное воспитание: были убеждены в том, что образование должно быть тесно связано с нравственным воспитанием. Он пропагандировал такие ценности, как честность, справедливость, милосердие и уважение к другим.

Критическое мышление: призывали к развитию критического мышления и способности анализировать информацию, считая это необходимым для преодоления суеверий и предрассудков.

Изучение истории джадидских школ нового метода сопряжено со следующими проблемами:

Недостаток документальных источников: Многие архивные материалы, касающиеся деятельности джадидских школ, были утрачены или уничтожены, что затрудняет их исследование.

Фальсификация истории в советское время: В советский период джадидское движение подвергалось критике и преследованию, что привело к искажению исторических фактов и замалчиванию роли джадидов.

Проблемы интерпретации: Существуют различные интерпретации джадидизма и его целей, что может влиять на оценки деятельности джадидских школ.

Недостаточное финансирование исследований: Исследования истории джадидизма и джадидских школ часто сталкиваются с недостаточным финансированием, что ограничивает возможности проведения полноценных исследований.

Недостаток комплексного подхода: Часто исследования фокусируются на отдельных аспектах джадидского движения, не учитывая взаимосвязь

между различными элементами системы образования и культуры того времени.

Джадиды способствовали развитию национальной культуры и идентичности, активно работали над развитием национальной культуры и идентичности. Это включало в себя: сохранение и развитие языка, поддержку литературы и искусства, пространство для традиций и обычаев, что способствовало формированию сильной культурной идентичности.

Джадидизм и его идеи повлияли на многих людей, создав основу для последующих культурных и образовательных реформ в регионе, которые продолжают развиваться и по сей день.[4,57]

Просветительская деятельность и вклад в образование и воспитание самаркандских джадидских деятелей имеет огромное историческое значение. Их усилия по модернизации образования, распространению новых знаний, развитию национальной культуры и самосознания оказали значительное влияние на дальнейшее развитие общества. Изучение их наследия является важной задачей для понимания истории Туркестана и современной Центральной Азии.

На основе вышеизложенного можно сделать вывод о том, что в 1917-1924 годах Самарканд был центром активности национально-политических организаций, во главе которых стояли джадиды – приверженцы прогрессивных идей своего времени. В условиях непродолжительной демократии они боролись за право на национальную независимость узбекского народа. Однако большевики, насильственно пришедшие к власти в ноябре 1917 года, кардинально изменили политический курс как в Самарканде, так и по всему Туркестану."

Список литературы:

1. Гафуров, Б. Г. 1989. История Средней Азии. Москва: Наука.
2. Ибрагимов, А. А. 2003. Проблемы истории джадидизма. Ташкент: Узбекистан.
3. Каримов, Б.2012. Джадидизм в Туркестане: формирование и эволюция идей. Ташкент: Академия наук Республики Узбекистан.
4. Колесникова, Е. Ю. 2009. Джадидизм в Туркестане: история и современность. Москва: Восточная литература.
5. Бехбуди, М. (1914). Мухтасар тарихи ислом. Самарканд.
6. Газета "Самарканд": (1913-1917 гг.). Самарканд.
7. Каримов, Н. "М. Бехбудий". (2018), Ташкент.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ САМАРКАНДСКИХ ДЖАДИДОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Нишонов Сарвар Жасур угли
Kimyo International University in Tashkent, и.о., доцента кафедры Общественно-гуманитарных наук, доктор философии по философским наукам (PhD), sarvar0202pm@gmail.com (90) 1814636

Аннотация: В статье рассматривается, как идеи самаркандских джадидов проникли в жизнь общества, проявляя независимые взгляды. Мы можем видеть, что социальная среда в Самарканде, способствовавшая активизации интеллигенции того времени, отличалась от других джадидов Туркестана.

Ключевые слова: джадиды, независимость, общественная-политическая жизнь, Туркестан, Бехбуди.

С социально-философской точки зрения возникновение движения национального возрождения и формирование на его основе новых общественно-политических взглядов является одной из важнейших особенностей общественно-политической, культурной жизни этого периода. В творчестве джадидов особое и как никогда большое значение придавалось вопросам судьбы и будущего Родины и нации. В этот период в творчестве самаркандских джадидов социально-политические взгляды проявились в художественной форме и по существу были обновлены. Изучение на научно-теоретической основе философского анализа принципов отражения этих обновленных социально-политических взглядов в действительности является одной из актуальных задач, стоящих сегодня перед наукой. Следовательно, изучение постановки и решения общественно-политических вопросов в деятельности джадидов стало одной из научных проблем, ждущих своего решения сегодня. Сущность и общественно-политический идеал вопросов свободы в воззрениях самаркандских джадидов. Общественно-политические и идеологические идеи джадидов. Как отмечал Махмудходжа Бехбуди, “Каждый воображение и инициатива как он начал проявляться со стороны молодежи страны в Туркестане школа, являющаяся дверью культуры, была первобытной национальная пресса, возвещающая реформы возник в тени своих родителей”[1].

Изучение творческой деятельности самаркандских джадидов, анализ произведений просвещенной интеллигенции, служащих обогащению духовного и духовного мировоззрения человека, использование идей, служащих процветанию страны, имеет важное значение и сегодня. Мы можем видеть это и в рамках научных исследований, проводимых сегодня.

Джадиды подняли уровень культуры народа на международный уровень

лучшей образовательной системы в Европе считали необходимым обучение на местах. Молодежь обучается за рубежом о том, что он будет полезен стране, Махмудходжа Бехбуди пишет в журнале “Ойна” он писал: “Пусть будет сделано все возможное для того, чтобы дети и студенты были отправлены в Мекку, Медину, Египет, Стамбул и российские университеты и университеты, чтобы вырастить религиозных, светских и современных людей.[2] Известно, Мунавваркори Абдурашидхонов также проявил самоотверженность в этом направлении. Он создал свою благотворительную организацию “Общество благотворительности” “после окончания начальной школы. Руководил работой по оказанию помощи студентам, которые тайно отправлялись в Турцию, Оренбург, Уфу и Азербайджан. Поэтому, прежде чем исследовать общественно-политические взгляды этого периода, необходимо взглянуть на европейскую просветительскую литературу. Знакомство с этим периодом позволяет установить, что с одной стороны, труды европейских просветителей XVIII века стали переводиться на арабский и персидский языки, а с другой стороны, в результате обучения мусульманского населения в учебных заведениях Турции, России и стран Европы европейские идеи проникли и на нашу территорию, что оказало определенное влияние на формирование идей джадидизма. Аналогичная ситуация сложилась и на мусульманском Востоке в конце XIX в. При этом не следует упускать из виду и исторические обстоятельства. Следовательно, к этому времени исторические условия изменились, нация переживала общественно-политический, просветительский и культурный кризис. Для достижения независимости и свободы он поставил на повестку дня вопрос реформирования всех сторон жизни целой нации. Эти изменения в жизни общества стали главной темой деятельности джадидов. Мы думаем, что в этом причина, по которой эту деятельность джадидов нельзя изучать в отрыве от общественной действительности. В начале XX века на основе общественно-политических взглядов джадидов появилась джадидская литература, и каждый писатель, считающий себя ответственным за будущее нации, был сторонником изображения прежде всего общественно полезной темы.

Примером может служить отношение действительности и художественной литературы к социальной основе. После того, как на повестку дня был поставлен вопрос о пробуждении нации для ее развития, художественная литература была направлена на эти цели.

Бехбуди, в 1908 году позже известный как библиотека “Бехбудиа”[3] в целях создания удобства для населения две смены с 9 часов утра до 5 часов вечера и с 6 часов вечера до 12 часов ночи наладить оказание культурных услуг работающим от 60 до 110 человек.

Взаимосвязь между гуманистической концепцией Навои, антиклерикальным духом Турди и Машраба, ощущением народной мощи в Агахи, реалистической сатирой периода Мукими. Они должны рассматриваться как разные этапы целостного процесса, процесса проникновения социального идеала в литературу в разные периоды. Идеи просвещения приобрели целостную сущность в литературе джадидов, внедряясь в содержание традиционной поэзии. Социально-политические проблемы вначале занимали место в поэзии, а затем и в содержании драмы и прозы. В частности, общественно-политические взгляды самаркандских джадидов проявились в их творчестве. Каждое произведение строится на основе художественного замысла писателя. Установленная цель играет важную роль в определении формы и содержания создаваемого произведения.

Одним из критериев совершенства художественности является единство содержания и формы, кроме того, существует гармония обоих, пронизанная творческим идеалом. Просвещение конца XIX - начала XX веков отличается более густой краской идеологии свободы, социально-политическим содержанием, чем духовные переживания, душевные переживания.

Многочисленность социальных проблем в этих мыслях Вадуда Махмуда доказывает, какое важное влияние на социальную жизнь того времени. Ведь социально-политические проблемы, пережитые нашим народом в этот период, также являются интерпретацией текущих событий. В отличие от идей прошлого, идеи эпохи национального возрождения превратились из идей просвещения в практическое действие.

В воззрениях самаркандских джадидов актуальность общественно-политических проблем приобретала широкий современный вид. В большинстве произведений этого периода были подвергнуты резкой критике невежество, равнодушие к своей жизни, безразличие. Если в творчестве джадидов до 1917 года больше интерпретировалась тема просвещения и невежества, то в результате беспорядков 1916-1917 годов мы видим, что в нем выражалось несколько подавленное настроение и дух безнадежности. Действительно, джадиды, воспевавшие высокие качества, присущие новому обществу и его членам, теперь стали выводить человеческий фактор в центр произведения. То, что 1917 год был тяжелым и трагическим как для джадидов, так и для народа как представителей национально-освободительного движения, является историческим фактом.

Центральноазиатское просветительское движение получило широкое развитие в конце XIX - начале XX вв., во главе которого стояли Ахмад Дониш, Фуркат, Мукими, Махмудходжа Бехбуди, Шакури, Сиддики Аджзи, Садриддин Айни и другие. Основными чертами просветительского движения

были борьба против традиций и обычаев феодально-ханского строя, призыв к изучению передовой русской культуры и техники, обеспечение равных прав женщин, улучшение их общественного образа жизни и организация новых школ, пропаганда воспитания детей простого народа. С первых дней независимости появились широкие возможности для научных исследований, направленных на изучение и внедрение в жизнь нашего национально-культурного наследия. В настоящее время проводится ряд исследований в области изучения наших национальных ценностей, творческой деятельности джадидизма, занимающего важное место в истории развития просветительского движения. Движение джадидов в Туркестане появилось в конце XIX века и отличалось не только просветителями, выступавшими за передовые методы своего времени, но и широким распространением национального, тюркского, исламского правового наследия среди нации, свободомыслием, развитием и борьбой за национальную независимость. В целом джадидское движение вышло на арену как новая сила в жизни общества, и назрели времена и условия, которые послужили основным фактором этого процесса и в самом Туркестане. Джадидизм, являясь просветительским движением, поднял свою основную деятельность на уровень основного направления с точки зрения времени, литературного процесса. Основную деятельность джадидов он связывал с антиколониальной политикой.

Возникшее в этот период в Туркестане просветительское движение, пропаганда светской науки и передовой науки, техники, культуры среди своего народа, воспитание интеллигенции местного населения посредством этого, защита прав женщин нации, включение светских наук в программы школ и медресе, реформирование существующего строя, такие бытовые, социальные, политические идеи, как борьба за свободу и независимость народа, были основными целями, поставленными перед собой джадидами.

Движение джадидизма, хотя и вошло на историческую арену в качестве просветителей, на всю жизнь оставалось борцом только против старости, отсталости и невежества. Джадиды прошли сложный путь от просветительства до патриотизма, патриотизма, до уровня активных борцов за ее независимость и будущее. В частности, он был известен литературной, общественной и политической деятельностью таких творческих деятелей, как Мунавваркори Абдурашидхонов, Бехбуди, Фитрат, Абдулла Авлони, Ходжи Муин. Прежде всего, джадиды основали национальную прессу для распространения своих передовых идей среди народов Туркестана и формирования своей национальной идеологии. Ведущими принципами национальной джадидской литературы являются патриотизм и патриотизм, направленный на интересы широкого народа. Вот почему именно джадидская

литература резко отличается и отличается от литературы до них. Потому что крупные представители джадидского движения видели в своей основной деятельности будущее исторического развития в просвещении и будущее страны в джадидской литературе. Под влиянием общественно-политических событий, происходивших в Туркестане в период 1905-1917 годов, джадидские писатели смогли точно внедрить в свои произведения дух борьбы. Джадидизм прошел сложный путь развития от просветительства к сильному политическому движению. Тяжелое экономическое положение угнетенных колониализмом народных масс и значительное отставание Туркестана от экономически развитых стран мира побудили джадидов искать пути общественного развития. В сложившейся ситуации передовая мусульманская интеллигенция искала основную причину задержки развития страны, социального и колониального гнета, прежде всего в невежестве и необразованности народа, которые поддерживали правящие круги. Поэтому в качестве основного пути решения назревших проблем предусматривалось образование и просвещение.

В результате этого первоначально в центре внимания джадидов была задача реформирования просвещения. Они не только теоретически обосновали необходимость осуществления этих реформ, но и проделали огромную работу по открытию школ с новым методом обучения, созданию библиотек, читальных залов, написанию учебных пособий и практическому применению своих идей.

В этом вопросе мы говорили о том, что раньше узбекские джадиды, не будучи атеистами, твердо держались религиозных убеждений, только злоупотребляли религией и, как и сегодняшние надписи, боролись с неверующими, преследующими свои интересы, ломая от имени религии.

“Банки и суды, судебные органы, нотариус, железная дорога, заключение, нуждаются в каждом новом, что создало время а на первом шаге надо будет знать по-русски... Это коммерческое дело, промышленность и дела страны, даже служение религии исламу и нации не могут быть без знания. Заключение, сегодня нам нужны редактора и рецензенты на четырех языках, то есть на арабском, русский, тюркский и персидский”[4].

Когда суеверные выступили с открытыми нападками и клеветой на Бехбуди и его методы джадидских школ, Бехбуди написал специальную статью, в которой на основе глубоких исторических фактов и ряда практических примеров доказывает, что прогрессивные джадиды являются истинными мусульманами, что они противостоят только ереси и подчиняют название религии своим черным намерениям. Если джадиды не являются мусульманами, то мусульманин исчезает в мире. Изучая деятельность

джадидов, их произведения, можно сделать вывод, что они боролись за мировое развитие, связывали счастье нации мировое развитие. Глубокое изучение истории национального джадидского движения, воспитательное значение правильной научной оценки его достигнуто именно благодаря независимости в нашей стране. Это, в сущности, подтверждение признания и признания его деятельности в нашей стране в мировом масштабе.

Список использованной литературы:

1. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O’zbekiston tarixi. (o’quv qo’llanma) T.2011 34-bet.
2. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B.108-109.
3. Behbudiy B. “Behbudiy kutubxonasi”, “Oyina” jurnali, 1914 yil 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil 14-bet.
4. Behbudiy. “Ikki emas, to’rt til lozim”, “Oyina” jurnali, 1913 yil 10 avgust, №1. Tanlangan asarlar. Jild-I.-T.: Akademnashr, -2018yil 396-bet.

TURKISTON MA’RIFATPARVARLARI: MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI YO‘LBOSHCHISI

Bo‘riyeva Husnida Quvvat qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti 2- bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkistondagi jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlarining ilmiy siyosiy faoliyatlari tog‘risida ularning bu borada amalga oshirgan ishlari ilmiy me’rosi xususan, jadidchilik harakati yo‘lboshchilaridan hisoblangan Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilik harakatida tutgan o‘rni bu boradagi samarali harakatlari va faoliyati xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, Turkiston, yangi usul maktablari, gazeta, teatr, matbuot, chorizm, mafkura.

XIX asr oxirlariga kelib Turkiston o‘lkasi evropa davlatlaridan ilm-fan va texnika taraqqiyoti rivojlanishi jihatidan ancha orqada qolib ketgan edi. O‘lkadagi jaholat, ilmsizlik haq-huquqlarning poymol qilinishi ko‘plab o‘lkadagidagi ziyoli qatlam orasida norozilik kayfiyatini uyg‘otdi. Bu kabi fojiali hayotdan qutulish o‘lkani ozod qilish haqidagi fikrlar paydo bo‘la boshlagan davr bo‘ldi.

O‘sha paytlarda bu kabi chor hukumati ta’lim tizimiga qarshi fikrlar nafaqat bizni o‘lkamizda balki, butun sharqda keng tarqalgan. XX asr boshlarida “ Tarjimon” jurnali tashkilotchisi hisoblangan Ismoil G‘aspirali Bog‘chasaroyda yangi usul maktabini ochadi. Bu maktabda eski maktabning murakkab o‘qitish usulini osonlashtirish, engil qiroat usulida ta’lim berila boshladi. U bu maktab uchun o‘zi darsliklar yozgan, o‘zi dars bera boshlagan. Ismoil G‘aspirali o‘zining

chorizmning sharqdagi siyosatini fosh qiluvchi asarlari bilan ko‘plab ziyolilarning dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatgan.

Ma’lumki, o‘z faoliyatini nafaqat ilm-ma’rifat g‘oyalari, ta’lim-tarbiya masalalariga, mamlakatdagi siyosiy jarayonlar, Turkiston o‘lkasini ma’naviy hamda ma’rifiy isloh qilish masalalari yoshlarni yangi davr bilimlari bilan qurollantirish g‘oyalarining asoschilari Turkiston ma’rifatparvarlari hisoblangan. Ular safiga juda ko‘pchilikni tashkil etgan. Munavvarqori Abdirashidxonov, Cho‘lpon, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdirauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Is’hoqxon Ibrat va bu kabilarni ko‘plab davom ettirishimiz mumkin.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li Turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo‘ja Urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780 – 1785) Samarqandga kelib qolgan. U dastlab Samarqand madrasasida, so‘ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko‘rgan. An’anaviy tahsil, so‘ng esa o‘z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u shariatning yuksak maqomlari – qozi, mufti darajasigacha ko‘tariladi.

1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Behbudiy safar chog‘ida ko‘p ajobiy xodisalarga guvoh bo‘ldi. Xususan safarda u yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi. Mahmudxo‘ja 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda Turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi.[77] 1913-yil 20-avgustdan Behbudiy tashabbusi bilan “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. Bu jurnalda she’r va turli xil yo‘nalishlardagi maqolalardan tashqari e’lonlar ham berib borilgan. Bu jurnal Kavkaz, Tatariston, Eron , Turkiya hatto Hindistongacha tarqaldi. “Oyina” o‘lkadagi birinchi o‘zbek tilida chiqqan jurnal edi. O‘sha paytlarda chor hukumatining tilimizga o‘tkazayotgan tazyiqlari paytida bu kabi ishlarni amalga oshirish anchayin qiyin ish edi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi – nishona sonidayoq, “Ikki emas, to‘rt til lozim” degan

[77] https://yuz.uz/uz/news

maqola bilan chiqqan edi.Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan Mahmudxo‘ja Behbudiydir. U “Turkiston jadidlarining otasi” sifatida tarixda nom qoldirgan. Fayzulla Xo‘jayev Behbudiy haqida: “Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o‘sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani bo‘lmasa kerak” degan fikrni bildirgan.

Behbudiy Gaspirinskiy yo‘lga qo‘ygan yangi usul maktablarini turkistonda yo‘lga qo‘yishda, ularga turli darsliklar va qo‘llanmalar yaratishda katta hissa qo‘shdi. Jadidchilikning poydevori “ usuli jadid ” maktablari bo‘lgan. Chunki maqsad jamiyatni o‘zgartirmoq yangilamoq bo‘lsa buni yosh avlod amalga oshirishi mumkin . Vaholanki ularni etishtirmoq kerak. Ammo buni eski usuldagi o‘qitish tizimi orqali amalga oshirib bo‘lmaydi. Bugungi o’quvchi tarix, jug’rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. Ilmiy fanlar, fan-texnika yutuqlari so’nggi uch-to’rt asr dunyo taqdirini boshqa o’zanga solib yubordi va Yevropani oldinga olib chiqdi. Endi Yevropa ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo’lmaydi.

Behbudiy nazarida ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Bunda u jaholat va nodonlik, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida hikoya qiladi. “Padarkush” nafaqat o‘zbek dramaturgchiligidagi birinchi asar, yangi yo‘nalish sifatida balki shu davr voqealarining oynadagi aksi sifatida ham namoyon bo‘ldi. “Padarkush” dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo‘yildi. “Xalq nihoyat ko‘p kelib, bilet etmagani va joyni yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketdi”, deb yozadi mahalliy matbuot.

1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug‘ullanadi. Aprel oyidan “Samarqand” gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to‘xtagan. Behbudiy shu yillari nashr ishlari bilan qizg‘in shug‘ullandi. «Nashriyoti Behbudiya» nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini ochdi. Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo‘lga qo‘ydi. O‘sha davr vaqtli matbuotida “Behbudiy kutubxonasi” haqidagi xabarlar chiqa boshlangan edi.

Ammo o‘sha paytlarda jadidlar tomonidan amalga oshirilayotgan bu kabi yangiliklardan chor hukumati ham xabardor edi. Ular turli yo‘llar bilan jamiyatda alangalanib kelayotgan jadidchilik olovini so‘ndirishni maqsad qilgan va ularni turli

fitna buxtonlar uyushtirib sekin-sekin bostirgan. Siyosiy-ijtimoiy tarqoqlik, “o‘zingni bil, o‘zgani qo”kayfiyati milliy kayfiyatga, milliy birlikka putur etkazdi. Jadidchilik harakatini o‘lka xalqlari ommaviy sur’atda qo‘llab quvvatlamadilar. Bu harakat xalq orasida ma’rifat g‘oyalarini tarqatishdan nariga o‘ta olmadi. U tor doiraga o‘ralib qoldi. Jadidlarga aholi to‘la qonli ergashmadilar. Aksincha ularga nisbatan jamiyatda fitna avj ola boshladi. Bundan foydalangan chor hukumati ularni ikkiga tarqatib bu harakat qayta jonlanishiga yo‘l qo‘yishmadi.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy ma’naviy uyg‘onishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jadidlar o‘zlarining badiiy va ilmiy asarlari maqolalari orqali jamiyatdagi kamchilik va illatlarni ko‘rsatib berganlar. Ular bu orqali yoshlarni o‘qishga, bilim olishga, zamonaviy kasb-hunar egallashga undashgan. Ilmlarni faqat diniysini emas dunyoviy ilmlarni ham o‘zlashtirishga undaganlar. Bu haqida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “ To‘y va taziyaga sarf qilinaturg‘on oqchalarimizni ilm va din yo‘lig‘a sarf etsak, anqarib o‘vro‘poyilardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da dinimiz-da obro‘y va rivoj topar. Yo‘q, hozirg‘i holimizg‘a davom etsak, din va dunyog‘a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydur ” bundan ko‘ramizki ular doim xalqni ma’rifat yo‘liga boshladilar va bu borada samarali faoliyat olib bordilar. Jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog’laganlar va shu yo’lda yoshlar asosiy kuch bo’lganligini tushunib, ularning ong-saviyasini oshirish uchun ko’p sa’y-harakatlar qilganlar. Bir so‘z bilan aytganda jadidlar bizning mustaqil O‘zbekistonimizning bugungi kunda ravnaq topib rivojlanishi uchun o‘zlarining ulkan hissasini qo‘shganlar. Uzoq tarixga ega bo’lgan o’zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy to’siqlarga qaramay Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlar kabi, ilg’or fikr egalarini, buyuk olimlarni etkazdi, insoniyatga ilm-fan ma’naviyat sohasida o’lmas durdona asarlar, fikrlar qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Jadidlar to‘plam T : “Yoshlar nashriyoti” 2022. 6-23 bet
2. Quryazov.I.B. Turkistonda jadidchilik harakati va ularning faoliyati. "Экономика и социум" №1(116) 2024
3. Komilova. H.N. Jadidlar faoliyatida ma’rifatparvarlik va barkamol avlod tarbiyasi masalalari. VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601
4. https:/yuz./uz./news
5. https:/www.bukhari.uz

ABDUQODIR SHAKURIY: JADIDCHILIKNING VUJUDGA KELISHI VA SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI

Daliyeva Navbaxor
Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston o‘lkasida jadidchilikning yoyilishi, etakchilari, jadid maktablarining vujudga kelishi, faoliyati, Samarqandda jadidchilik va dastlabki jadid maktabining ochilishi bu borada Abduqodir Shakuriyning xizmati, u tomonidan yangi usul maktablarida o‘ziga xos o‘qitish tizimining yo‘lga qo‘yilishi, darsliklar masalasi hamda pedagoglar faoliyati borasida fikr yuritiladi.

Аннотация: В этой статье рассматриваются распространение джадидизма в Туркестане, его лидеры, возникновение, деятельность джадидских школ, зарождение джадидизма и открытие начальной джадидской школы в Самарканде, заслуга в этом Абдукадира Шакури, создание им собственной системы обучения в новометодных школах, создание новых учебников, а также рассматривается деятельность педагогов.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, jadid maktablari, usuli jadid, Ismoil Gaspirali, Shamsuddin domla, Saloxiddin domla, Abduqodir Shakuriy, “Tarjimon”, “Rajabamin”, «Rahnamoi savod», «Jome’ ul-hikoyat», «Zub-datul ash’or».

Ключевые слова: Джадидизм, Джадидские школы, метод Джадид, Исмаил Гаспирали, Шамсуддин домла, Салохиддин домла, Абдукадир Шакури, “Переводчик”, “Раджабамин”, «Рахнамой савод», «Джоме уль-хикаят», «Зуб-датул аш'Ар».

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda jadid maktablari va ularning faoliyatini mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega. Jadidchilik harakatining faoliyati dastlab maktab, maorifdan boshlanib, so‘ng matbuot, san’at, siyosat va boshqa sohalarga o‘tgan.

Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olingach mustamlakaga aylantirildi va bu erda jadidchilik g‘oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi.

Turkistondagi jadid (jadid so‘zi arabcha “yangi usul”, “yangilik” demakdir) maktablarining yuzaga kelishi mashhur qrim tatar arbobi Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bevosita bog‘liqdir. U Bog‘chasaroyda 1884 yilda dastlabki “usuli jadid” (yangi usul) maktabini ochadi. Gaspiralining taraqiyparvar g‘oyalari asosida yurtimizda jadid maktablariga asos solgan ziyolilar o‘lkadagi milliy – ozodlik harakatining ham rahnamolariga aylanadi. Turkiy xalqlarning milliy mustaqilligi uchun kurashgan Ismoilbek Gaspirali o‘z navbatida jadidchilik oqimining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Ko‘p yurtlarda safarda bo‘lgan Ismoilbek Gaspirali xalq taraqqiyoti birinchi navbatda maorifga bog‘liq ekanligini anglab etib, jamiyatdagi tub o‘zgarishlarni amalga oshirishni yangi usuldagi maktab tuzishdan boshlaydi.

Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish, turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish kabilar ustuvor edi.

Ismoilbek Gasprinskiyning eng katta xizmati Rossiya sarhadlarida yashab, zamonning zayli bilan bir-biridan uzoqlashib, begonalashish darajasiga etgan turkiy xalqlarni bir-biriga tanitdi, yaqinlashtirdi. Butun boshli ilg‘or marifatparvar,

ziyolilar qatlamini shakllantirdi. Sharq xalqlari ma’naviy hayotida, xususan, maktab-maorifda chinakam inqilob yasadi.

Jadidlar tarix maydoniga, avvalo, milliy mustaqillik uchun, mustamlakachillikka qarshi shior bilan chiqdilar. Shu bois, bu harakat, aholi ziyoli qismining e’tiborini tezda o‘ziga jalb qildi. Ayniqsa, yosh ziyolilar: olimlar, shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar, huquqshunoslar, matbaachilar, ilg‘or fikrli savdo-tijorat xodimlari jadidchilik harakatining eng oldingi saflarida bo‘ladilar.

Jadidlar o‘z ezgu orzularini, faqat, maktab, maorif va ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni uni rivojlantirish bilangina amalga oshirish mumkin, deb bildilar. Ular targ‘ib etgan g‘oyalar hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Jadidlar harakatining ma’naviy taraqqiyotimiz tarixidagi o‘rni buyukdir. Ular o‘z zamonasining etuk olimi, maorif fidoyilari edi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o‘ynadi. Bu milliy uyg‘onish davrining boshlanishi bo‘lib, mamlakatda ma’rifatparvarlarning pirovard maqsadi millatni, bir tomondan, ilmli-ma’rifatli qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg‘unlashuvi natijasida o‘zligini, o‘z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga etkazish edi.

Shunday qilib, jadidlar tomonidan yangi maktablar ochish, maktablar uchun darsliklar yaratish jarayoni boshlandi. “Usuli jadid” maktablarida diniy fanlar va arab tili bilan bir qatorda tibbiyot, hikmat, kimyo, tabobat, nujum, handasa fanlari, rus, fors tillari - jami 17 tagacha fan o‘rganilishi shartlari ilgari surildi. 1899-yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo‘qonda Saloxiddin domla, Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo‘lib jadid maktablarini ochadilar.

Bu borada Samarqandda ochilgan jadid maktablari hamda ushbu sharafli, mas’uliyatli vazifani o‘z bo‘yniga olgan Abduqodir Shakuriy faoliyati alohida e’tirofga sazovordir.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. M. Mirziyoyev “Samarqand-yer yuzining sayqali” mavzusidagi ma’ruzasida samarqandlik jadid ma’rifatparvarlarining merosiga to‘xtalib “Samarqand tuprog‘ida voyaga etgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy singari o‘nlab ma’rifat fidoyilarining qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda”, deb yozganlar.

Abduqodir Shakuriy 1875 yilda Samarqand viloyatining Narpay tumanida bog‘bon oilasida tavallud topdi. U asosan “Tarjimon” gazetasi orqali Qrim, Tatariston, Ozarbayjon maktablaridagi boshlang‘ich sinflarda yangi o‘qitish usullaridan voqif bo‘lib, o‘z ona yurtida ham shu yangilikni amaliyotga joriy qiladi.

1890 yillarning oxirida jadidlar taklifiga binoan Qo‘qonga borib, jadidlar tomonidan ochilgan mahalliy yangi usul maktablari bilan tanishadi.

1901 yilning kuz oyida o‘z qishlog‘ida “Rajabamin”da yangi usuldagi maktabni tashkil etib, aniq dasturlar asosida dars mashg‘ulotlari o‘ta boshlagan. Shakuriy qishlog‘ida o‘z mablag‘i bilan maktab tashkil etib, kambag‘al oila bolalarining savodini chiqarishga yordam beradi. Abduqodir Shakuriy o‘z maktabida dars berishdan tashqari darsliklar ham yozgan va ularni o‘z mablag‘i hisobidan chop etgan.

Yangi usuldagi bu maktabda arifmetika, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o‘qitilardi. Shakuriy o‘z maktabida arab tili qoidalari va harflarni o‘qitishga jiddiy e’tibor bergan holda, o‘quvchilarni so‘z bo‘g‘inlari bilan tanishtirar va shu bo‘g‘inlar asosida bolalar uchun tushunarli sodda so‘zlarni tuzardi.

O‘qishning birinchi kunidanoq so‘z bo‘g‘inlarini Shakuriy daftarga yozdirar va ularni o‘qish, yozishga o‘rgatar edi. Keyin esa muallim bo‘g‘inlarni harflarga ajratar va bu harflardan yangi bo‘g‘inlar tuzar shu, tarzda bola besh-olti oy davomida o‘qish va yozishga o‘rgatilardi. Keyin esa Shakuriyning o‘zi tuzgan «Rahnamoi savod» («Savod chiqarish rahbari») va uning shogirdi Ismatulla Rahmatullayev tomonidan tovush-harf uslubi asosida tuzilgan «Alifbe ta’limi» darsligi o‘qitilardi.

Shakuriy 1907 yilda bolalarga yosh xususiyatiga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki ma’lumot berish maqsadida «Jome’ ul-hikoyat» («Hikoyalar to‘plami») nomli ikkinchi kitobini tuzadi. Bu kitob boshlang‘ich maktabning 2-3 sinflari uchun terma hisoblangan. Kitobdan 48 ta kichik-kichik odob-axloq mavzusidagi hikoyalar va 15 ta she’riy asarlar o‘rin olgan. Uning uchinchi o‘qish kitobi «Zub-datul ash’or» deb atalib, muallifning bu o‘qish kitobini tuzishdan asosiy maqsadi o‘quvchilarning olgan bilimlarini takomillashtirish va mustahkamlash bilan birga ularda she’riyatga havas uyg‘otish hamda ularni (o‘zbek, tojik, ozarbayjon) klassik adabiyoti namunalari bilan tanishtirishdan iborat edi.

Shakuriy o‘z o‘quvchilari uchun yilda bir marta umumiy imtihon uyushtirar edi. Imtihonda u ota-onalar, yangi usul maktabining tarafdorlari hamda dushmanlari – mullalar va boylar oldida olti oy davomida o‘z o‘quvchilari egallagan bilimning natijalarini namoyish qildirar edi. Maktabda tashkil qilingan bu ommaviy imtihonlar «Umumiy sud» shaklini olar edi. Imtihonga odamlar to‘da-to‘da bo’lib kelar, qisqa muddat ichida bolalarning xat-savodli bo‘lishi, hisob, jo‘g‘rofiya va tabiat fanidan ma’lumotga ega bo‘lganliklarini ko‘rib, hamma hayratlanar edi.

Natijada, bu maktab tarafdorlari borgan sari ko‘paya bordi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Shakuriy ochgan yangi usul maktabining dovrug‘i va u yaratgan darsliklarning shuhrati Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Mirzo Abdulvohid Munziy va boshqa ma’rifatparvar jadidchilarning ham diqqatini jalb etdi. 1909 yilda Hamza Shakuriy maktabini

ko‘rish va uning imtihonlarida qatnashish uchun Samarqandga keladi. Bu maktabdagi o‘qish-o‘qitish uslublari va imtihon natijalari Hamza Hakimzoda Niyoziyda katta taassurot qoldirdi. Hatto Abdurauf Fitrat “Bayonoti sayyohi hindi” (“Hind sayyohining bayonoti”) kitobida qahramon tilidan “Samarqandda bir necha yangi boshlang‘ich maktablar bo‘lib, ular ichida eng yaxshisi – Shakuriy maktabidir. Bu maktab asta-sekin kerakli cho‘qqini egallaydi. Samarqand maktablarini ko‘rib chiqib, ulardan mamnunman”, - deb ta’kidlaydi. “

Abduqodir Shakuriyning o‘qish-o‘qitish uslubidagi yangilikning ahamiyati shundaki, - birinchidan, u o‘sha davrda mavjud bo‘lgan eski o‘qitish usullari va o‘qish kitoblarining hammasini rad qilib, savod chiqarishni engillatish maqsadida dastlab bo‘g‘in usuli, keyinchalik tovush-harf uslublarini qo‘llaydi. Bu o‘qitish uslubining qulayligi natijasida o‘quvchilar ko‘pi bilan 6 oy ichida savodli bo‘lardi.

- Ikkinchidan, maktabda kichik yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalarni birga o‘qitish uslubini joriy qildi.
- Uchinchidan, bolalarni avvalo o‘z ona tilida o’qitishga qat’iy rioya qildi va shu bilan birga bolalarni o‘zbek, tojik, arab va rus tillarini ham mukammal o‘rganishga da’vat etdi.
- To‘rtinchidan, yangi usul maktablari uchun juda sodda, tushunarli tilda darsliklar tuzib, ularni nashr etdi.
- Beshinchidan, Shakuriy tomonidan joriy qilingan dastlabki yangilik – Samarqand maktablariga mehnat va musiqa darslarining kiritilishi bo‘ldi. U o‘z o‘quvchilariga qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikka oid ishlar bilan tanishtirishdan tashqari, muqovachilik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o‘rgatar, bu mashg‘ulotlar uchun maktab dasturidan alohida soatlar ham ajratgan edi.

Ma’rifatparvar Shakuriy ijodi haqida taniqli olim Jo‘ra Yo‘ldoshev o‘zining “Ta’limimiz istiqloli yo‘lida” nomli kitobida Shakuriy o‘qish, o‘qitish uslubidagi yangilikning ahamiyati haqida to‘xtalib shunday fikrlarni bildiradi:

- Shakuriy maktabda birinchi marta kichik yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalarni birga o‘qitish uslubini joriy qildi;
- bolalarni o‘z ona tilida o‘qitishga qat’iy rioya qildi va shu bilan birga bolalarni tojik, arab, rus tillarini ham mukammal bilishga da’vat qildi;
- yangi usuldagi maktablar uchun juda sodda, tushunarli tilda darsliklar tuzib, ularni nashr ettirdi;
- Samarqand maktablariga mehnat va musiqa darslarini kiritdi.

1925-yilda “Rajabamin” qishlog‘ida yashovchi aholi o‘z mablag‘lari hisobidan 4 sinfli yangi maktab (1-4 sinf) qurishib ishga tushirishadi. Maktab rahbari etib Shakuriy tayinlanadi. Faoliyati davomida o‘zbek milliy maktablarning taraqqiyoti, kichik yoshdagi o‘g‘il-qizlarning teng huquqliligi hamda jadidchilik harakti rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shakuriy o‘z xalqi, vatanining farovonligi, ma’naviy yuksalishi yo‘lida charchamay, to‘sqinliklarga qarshi kurashadi. 1943 yilda vafot etdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu buyuk ma’rifatparvarlar xalqimizni ma’rifatli, dunyoviy bilimlarga ega bo‘lishi, farzandlarimizning chet davlatlar oliy o‘quv yurtlarida o‘qib, ilm o‘rganishlari uchun kurashdilar. Maktablar ochib, kitoblar, darsliklar yozib musulmon farzandlarini bepul o‘qishlari uchun sharoit yaratdilar. Bu maktablar Turkiston xalqlari tarixida ma’rifat o‘chog’i bo‘lib xizmat qilish bilan bir qatorda XX asr boshlarida Turkiston aholisining milliy onggi va madaniyatini qaytadan yuksalishiga turtki bo‘ldi.

Millatni ma’naviy kamol toptirish, o‘z kelajagi, vatani mustaqilligi, yurt ravnaqi uchun kurashuvchi, milliy g‘ururini himoya qiluvchi barkamol avlodni shakllantirish uchun diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarning ham alohida o‘rni mavjudligi anglamoq uchun birinchi galda maorif tizimini isloh qilish lozimdir. Zero, o‘z xalqi tarixini, ajdodlari kimligini, qanday buyuk yurt farzandi, kimlarning avlodlari ekanligini mukammal bilgan xalqgina o‘z kelajagini mustahkam qura oladi, jahon maydonida mustahkam o‘rniga ega bo‘la oladi.

Turkiston xalqining savodli va ma’rifatli, to‘q va farovon bo‘lishi, uni ozod va obod vatanga aylantirish, birinchi navbatda mustaqillikka erishish, mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo‘lish jadidlarning asosiy maqsadi edi. Shunday shiorlar va maqsadlar bilan jadidlar o‘z faoliyatlarini, kuch-g’ayratlarini millatni uyg’otishga bag’ishladilar, mahalliy xalqning ko‘zini ochib, yuzlarini yorug’ etish uchun jonlarini tikdilar.

Faqat mavjud siyosiy tuzum va o‘sha davrdagi hukmron mafkura jadidlar harakatining shiddat bilan rivojlanib, yoyilib ketishi, xalq onggiga ta’sirini anglashi bilan butun Turkiston o‘lkasining milliy mustaqillik, milliy ong uchun kurash olib borgan bu kabi buyuk daholariga nisbatan ommaviy qirg‘in uyushtirgandi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Amridinova D. Samarqand jadidchilik maktabi. Monografiya. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti DUK. – 2017
2. Z. Abdirashidov Ismoil Gaspirali va Turkistonda jadidchilik. —T.:2008
3. O‘zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Toshkent. «Sharq», 2000.
4. O‘zbekiston milliy enseklopediyasi. 2000.
5. Ro’ziboyeva. E Turkistonda ilk jadid maktablar shakillanishi va faoliyati.2023
6. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘ot. –T.: “Sharq”. 2006
7. Еникеев А. Мусульманская школа в Туркестане и ее прошлом и настоящем виде // Туркестанский учитель. 1917, №7

MAHMUDKHOJA BEHBUDIY AS A GREAT PUBLIC FIGURE

Alibekova Zilola Abdulkhayit qizi
Jizzakh State Pedagogical University,
Doctor of Philosophy in Philological Science (PhD)

Abstract: This article demonstrates how Behbudiy's achievements significantly influenced the development of contemporary Uzbek education and society. However, colonial officials and traditionalist forces also opposed his progressive beliefs. Behbudiy passed away too soon, et his influence lives on in the area, inspiring cultural and educational advancement.

Key words: Jadid movement, educator, reformer, usuli jadid, progressive reforms;

In our country, the reality of the Third Renaissance is rising to the level of a strategic task and a national idea. The higher education system, which is one of its important factors, is also undergoing a radical reform. The development strategy of the new Uzbekistan is aimed at finding solutions to global problems associated with the rapid development of technologies and innovations. One of the main tasks in this direction is not only to identify current problems but also to be aware of the latest achievements of science and technology, to acquire knowledge about modern technologies, and to educate and train highly qualified specialists with the skills of systematic and creative thinking. Consequently, at present, the competition of humanity in the field of science is increasingly intensifying. It is not for nothing that the development of education is defined as a priority task in the advanced countries of the world. Healthy, educated, cultured youth are the driving force that determines the development and future of the country and are the driving force in implementing positive changes in society.

By the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 30, 2020, “On Awarding Representatives of the Enlightenment Jadid Movement,” the thinker Mahmudkhodja Behbudiy, who made an invaluable contribution to the creation of the national education and upbringing system, was awarded the Order “For Great Services.” This certainly opens up a wide path for the implementation of good reforms in our country, such as perpetuating the memory of our great ancestors, paying tribute to them, and, of course, further studying the scientific heritage of the scientist. To this end, this research work will undoubtedly serve to fulfill the set good tasks.

Mahmudkhoja Behbudiy (1875–1919) was a prominent Uzbek intellectual, educator, reformer, and one of the leading figures of the Jadid movement in Central Asia. His contributions played a critical role in the development of modern Uzbek literature, education, and national consciousness.

Being a Pioneer of the Jadid Movement, he played a significant role in the movement that aimed to modernize education and culture in Central Asian Muslim communities. He supported progressive reforms like introducing new teaching

strategies, encouraging secular education, and placing a strong focus on critical thinking and literacy.

His educational reforms are also worthy of praise. In particular, Behbudiy introduced the usuli jadid (new method) schools, which replaced the traditional school system with modern curricula, including sciences, history, and geography. Behbudiy’s efforts to introduce Usuli Jadid schools marked a significant shift in the traditional education system. These schools aimed to move away from rote memorization, which was prevalent in the older madrasa system, and instead emphasized critical thinking, practical skills, and a broader curriculum. The new method included subjects such as mathematics, natural sciences, geography, and history, alongside religious studies, fostering a more well-rounded education. Additionally, these schools adopted modern teaching tools and techniques, such as the use of printed textbooks and the phonetic method for teaching languages, making learning more accessible and effective. Behbudiy’s vision reflected a desire to prepare students for the challenges of the modern world, bridging the gap between traditional values and contemporary progress. This reform not only enhanced educational standards but also contributed to the cultural and intellectual awakening of the society.

Mahmudkho'ja Behbudiy also made important literary contributions that were essential to Central Asia's intellectual and cultural awakening. In addition to expressing his reformist views, his writings established the foundation for contemporary Uzbek drama and literature. Highlights of his literary contributions are listed below:

Padarkush (The Patricide) is perhaps his most famous literary work and highlighted moral, social, and cultural challenges in Central Asian society. The play tackles social issues such as the dangers of ignorance and the need for education and reform. It uses dramatic storytelling to convey moral and educational lessons, making it both an artistic and didactic piece. The play is often considered a foundational work in Uzbek drama and helped establish theater as a cultural institution in the region.

American scholar E. Allworth said about the drama “Father-in-Law”: “The serious problems raised in the drama, such as strengthening education and upbringing, saving the people from centuries-old ignorance and backwardness, crime and punishment, obligation and responsibility, and social relations, were expressed simply and effectively. For the first time in the drama, serious life problems were openly spoken to Turkistan’s in their own language, through typical images and typical characters. Since the fact that ignorance, ignorance, and straying from the right path bring misfortune and real trouble to the family are reflected in impressive dialogues, the actions on the stage amaze the viewer and capture his

whole being. Any viewer who correctly perceives the events on the stage will cry when they see what the main tragedy of Turkestan is and understand the need to lead the country's youth to a new life through education.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.1-oktabr 2020-yil
2. Ahrorova Z.Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik qarashlari va ma’rifiy-amaliy faoliyati. Pedagog. Fan.nomzodi. diss.T.: 1997. 157
3. Аҳророва, З.Б. (2019). Алишер Навои ижоди воситасида баркамол авлодни тарбиялаш. Современное образование (Узбекистан), (3 (76)), 49-53.
4. Аҳророва, З. Б. (2023). МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙНИНГ МАЪНАВИЙ- АХЛОҚИЙ ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРИ. Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 2), 201-206.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MEROSIDA YOSHLAR TA‘LIM-TARBIAYSI MASALASINING USTIVORLIGI

Ergashev Maftunquli Asror o‘g‘li
O‘zbekiston – Finlandiya pedagogik instituti 1-kurs magistranti.
maftunqulie@gmail.com

Annotatsiya: Ma’rifatparvar harakatining rahnamolaridan biri bo‘lgan M.Behbudiyning o‘z davrida yozgan maqolalari ,unda ilgari surilgan millat farofonligi, millat uyg‘oqligi, yosh avlod taribiyasi hamda ta‘limi borasidagi fikrlari hali ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ularni o‘rganish, o‘rgatish. Bugungi ijtimoiy, ta‘lim-tarbiya sohasidagi kamchiliklarini ko‘ra olish hamda hal qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: xalq, millat, zamoni hozir, jaholat, imon, vatan ravnaqi, ta‘lim, tarbiya, burch, tanazzul

O‘tmishimizga nazar tashlab jadidlardan shijoatni, kenglik va torlikda fikrlashni, vatan va tuproq nima ekanligini o‘rganish mumkin. Bilamizki, XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat tarix sahnasiga ma'rifatparvar shaxslar - jadidlarni olib chiqdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy kabi qomusiy bilim sohiblari yuqorida nazarda tutganimiz shaxslardir. Ular o‘z tajribalarini xalq ravnaqi, jamiyat rivoji yo‘lida sarflashga harakat qildi, mablag‘ini ham ayamadi. Adib, publitsist, pedagog, olim, din va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistondagi jadidchilik harakatining asoschilaridan va etakchilaridan hisoblanar edi. M. Behbudiy “ma’rifatning, maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo‘lib qolmay, balki o‘lka

maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko‘rsatdi”[78]. Shu bilan birga Behbudiy millat farofonligi taraqqiyoti yoshlar ta‘lim-tarbiyasida ekanligini chuqur anglab etganman edi.

Shuningdek, Behbudiy maktablarnining isloh qilinishini butun xalqning isloh etilishi deb bildi va uni umummilliy g‘oya sifatida baholadi. Millatga “o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun”, – deya hitob qilib[79], o‘zi ilgari surgan g‘oyasini hammaga targ‘ib qilishi kerakligini ta’kidladi. Shu boisdan ham Behbudiy maqolalarida yoshlar taribiyasi ta‘limi ustivordir. Xususan, Oyna jurnalining 1914-yil 21-soniga chiqargan bir maqolasida shunday yozadi:

(“Ba'zi bonka va tijoratxonalarda oyinda besh yuz so'm, hatto ming so'm olaturgon kishilar bor va alarni tijorat maktabig'a o'qugoni besh-olti yilginadur”.) Muning sababi nadur? Sizning qo'l ostingizda sizdan ko'p ishlaydurgon va qattig' xizmat qilaturgon va yuk ko'tara turgon musulmon va yo o'ruslar borki, sizdan ham oz vazifa olur. Muning sababi nadur? Albatta, munga javob berursizki, bizni ustimizdan qaraydurgonlarni(ng) “ilmi zamoniy”si bizdan ziyoda va mehnatkashlarni ilmi bizga ham emas. Mana sabab shudur. Biz ham dermizki,javobingiz durust. Bas, ma'lum bo'ldiki, hozirgi zamon ishlarig'a xoh tijorat va hukumat va san'atxonalarga bo‘lsun, kirib vazifa olmoqg'a va ish qilmoqg'a ilmi zamoniy degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan‘‘.

Maqoladagi ushbu parchadan shuni anglaymizki, yoshlar tarbiyasida ‘‘ilmi zamoniy’’ning o‘rni juda muhim. Chunki zamonaviy dunyo tezkor o‘zgarishlar davrida yashamoqda va muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat an'anaviy ta'lim, balki yangi texnologiyalar, innovatsiyalar va global miqyosdagi o‘zgarishlarni tushunish lozimligi ta’kidlangan bo‘lib, yoshlarnil ilm-fanga, texnologiyaga, tahliliy fikrlashga yo‘naltirish ularning jamiyatda faol va muvaffaqiyatli rol o‘ynashlariga shubhasiz yordam beradi.

Agar yoshlar “ilmi zamoniy”ni egallamasa, ular jamiyatda tengsizlik va adolatsizlikning qurboni bo‘lishi mumkin. Yoshlar tarbiyasida ta'lim olish imkoniyatlari barcha uchun teng ta'minlanishi lozim. Bu, ayniqsa, qishloq va shaharlar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf qilish, qizlar va o‘g‘il bolalar uchun bir xil imkoniyat yaratishda muhimdir.

Yoshlarni ilmiy va zamonaviy bilimlarga yo‘naltirish faqat maktab yoki universitetlarning vazifasi emas. Oila, jamiyat va davlat ham ularga zamonaviy dunyo talablarini anglashda yordam berishi kerak. Ota-onalar va murabbiylar

[78] https://cyberleninka.ru/article/n/turkiston-jadidchilik-namoyondasi-mahmudxo-ja-behbudiy

[79] Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy.-Toshkent:-Yozuvchi. 1994 yil

yoshlarni bilim olishga undashi, ularga maqsad sari intilish ruhi va qat’iyatni singdirishi bugunning talabi ekanini unutmasligimiz lozim. Shu bilan biriga yoshlar tarbiyasida faqat nazariy bilimga urg‘u berish etarli emas. Ularni mehnatsevarlikka o‘rgatish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish ham juda muhimdir. Bu ularga hayotda real muammolarni hal qilishga va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. Yoshlar zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni egallash bilan birga, ularning axloqiy tarbiyasiga ham e’tibor qaratish kerak. Chunki bilimning kuchi axloq bilan uyg‘un bo‘lgandagina jamiyatga foyda keltiradi. Yoshlar shaxsiy manfaatlarini emas, balki jamiyat va insoniyat manfaatlarini ko‘zlab harakat qiladigan shaxslar sifatida tarbiyalanishi lozim.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining „Muhtaram yoshlarg‘a murojat‘‘ nomli maqolasida yoshlarga shu bilan bir qatorda barcha vatandoshlarga shunday xitob qiladi:

“Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib - taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avval,makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'payturmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmas. «Muborizayi hayot» maydonida mutlaqo mag'lub bo'lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o'zgalarning asiri bo'lub, bora-bora milliyat va diyonatini ham qo‘ldan berur.‘‘[80]

Yuqoridagi fikr bilan M.Behbudiy yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning naqadar muhimligini yana bir bor ta'kidlaydi. Millatning taraqqiyoti, madaniyati va baxt-saodati maktablar va ta'lim tizimining rivojlanishiga bog‘liq ekanligini uqtiradi. Yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va ularni har tomonlama rivojlantirish millatning kelajagini yuksaltirishdagi ahamiyatini uqtiradi. Yana shuni aytishimiz mumkunki, maktablar ta'limning ilk poydevori sifatida har bir millatning muvaffaqiyatli bo‘lishida hal qiluvchi omildir. Yoshlar zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmasa, ular madaniy va iqtisodiy jihatdan boshqa millatlardan orqada qolib ketishi mumkin ekan. Shu sababli, yoshlarga nafaqat ma'naviy tarbiya, balki zamon talablariga mos ilm-fan va kasbiy mahorat ham berilishi ko‘zdan qochirilmasligi lozimdir.

Bunday yondashuv yoshlar tarbiyasi masalasida bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Bunday nuqtai nazar yoshlarning o‘z milliy qadriyatlariga hurmat bilan qaraydigan, shu bilan birga, zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan etuk shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qis. Agar yoshlarga ta'limning qiymati va hayotdagi o‘rni naqadar muhim ekanligi tushuntirilsa, ular nafaqat o‘z shaxsiy

[80] Odob axloq kitobi/Jadid namoyondalari.M.Behbudiy va boshqalar. Toshkent-2024

hayotida muvaffaqiyat qozonadi, balki millatning ravnaqiga ham hissa qo‘shadi. Shu tariqa, millat o‘z madaniyati va iqtisodiy mustaqilligini saqlab qoladi hamda global raqobatda muvaffaqiyatga erishadi. Demak, yoshlar tarbiyasida ularga ta'lim va tarbiyaning ahamiyatini anglatish, maktablarning sifatini oshirish va ularning zamon talablariga moslashuvi millat istiqbolini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanigini aslo unutmasligimiz kerak.

M. Behbudiyning ,,Padarkush‘‘ dramasidagi ushbu monolog ham e’tiborga molik:

“Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik,darbadarlik, asorat, faqr-u zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidur. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o'qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo hukm-farmo bo'lsa kerak. Bu ishlarni yo'q bo'lmog'iga o'qumoq va o'qutmoqdan boshqa iloj yo'qdur.Ollohu taolo boshqalarga hamisha ibrat va sizlarga sabr bergay...‘‘[81]

Yuqoridagi fikr yoshlar tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Unda xalqning taraqqiyoti, millatning taqdiri va har bir oilaning farovonligi bevosita ilm va tarbiya bilan bog‘liqdir. Yoshlar jamiyatning, davlatning kelajagi bo‘lgani sababli, ularning tarbiyasi va ta’limiga e’tibor qaratmaslik katta yo‘qotishlarga olib kelishi takidlanar ekan bunga ko‘z yuma olmaymiz. Ilmsizlik va tarbiyasizlik nafaqat insonlarning o‘z hayotini, oilasini balki butun jamiyatni ham xonavayron qiladi. Agar yoshlarimiz tarbiyalanmasa va bilim olishdan mahrum bo‘lsa, ular jaholat girdobida qolib, mustaqil fikrga ega bo‘lmagan, o‘zligini yo‘qotgan avlodga aylanadi. Oqibatda esa yurt zaiflashadi, buzg‘unchi to‘dalarning ta’siriga tushadi va boy berilgan imkoniyatlar sabab qashshoqlik va xorlik ortadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy yosh avlodning o‘qitilishi va tarbiyasi orqali jamiyatdagi yomon hodisalar, masalan, ma’naviy va iqtisodiy inqirozlarning oldini olish mumkinligini aytadi. Bu bizga ota-onalar, o‘qituvchilar va butun jamiyatning vazifasi ekanini eslatadi. Bolalarni o‘qitish – faqat maktablarda bilim berish emas, balki ularga insoniylik, halollik, adolat va Vatanga sadoqatni singdirishdir. Bunda bizga jadidlarimizning qoldirgan boy madaniy-ilmiy merosi katta yordam berishi shubhasiz. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning yozgan maqolalari, sahna asarlari, dramalari beqiyosdir. U asarlarda ilgari surilgan millat farofonligi, vatan taraqqiyoti, hozirgi davr insoni qanday bo‘lishi kerak ekanligi haqidagi bir birini takrorlamagan fikr hamda takliflar juda qimmatlidir. Bu asarlarni o‘rganish bilan bir

[81] Odob axloq kitobi/Jadid namoyondalari.M.Behbudiy va boshqalar. Toshkent-2024,25-bet

qatorda yosh avlodga o‘rgatish, ularning ongiga singdirish, ularda bu va boshqa asarlar,shaxsiyatlar soyasida vatanparvarlik tuyg‘usini kamol toptirish lozimdir

Shunday ekan, yoshlarimizni ilmga chanqoq, tarbiyali va o‘z mas’uliyatini his qiladigan avlod qilib tarbiyalash har birimizning vazifamizdir. Chunki faqat ilm va tarbiya orqali biz jaholat va zaiflikdan qutulib, taraqqiy topgan, hur va mustaqil jamiyatni barpo eta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ishoqxon Ibrat nomli jamoa xo'jaligi madaniyat ishlari bo'yicha rais muovini B.Nizomov bilan K.Vohidova tomonidan o'tkazilgan suhbat materiallari. 1994.
2. https://cyberleninka.ru/article/n/turkiston-jadidchilik-namoyondasi-mahmudxoja Behbudiy
3. Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy.-Toshkent:-Yozuvchi. 1994 yil
4. Odob axloq kitobi/Jadid namoyondalari.M.Behbudiy va boshqalar. Toshkent-2024
5. Ziyonet portali
6. Kitobxon.uz sayti

SAMARQAND JADIDLARINING MA'RIFATPARVARLIK G’OYALARI

SEMERKAND CEDİTLERİNİN AYDINLATICI FİKİRLERİ

ENLIGHTENMENTAL IDEAS OF THE SAMARKAND JADIDS

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ САМАРКАНДСКИХ ДЖАДИДОВ

Kurbanova Sevara Asanbayevna
O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi
O‘zbek tili va xorijiy tillar kafedrasi katta o’qituvchisi PhD
Inyasevara89@gmail.com, +998990022286

Annotasiya: Ushbu maqolada Samarqand jadidlari tomonidan ma'rifatparvarlikni amalga oshirilgan islohotlar, yangi usul maktablari tashkil etilishi, darsliklar va zamonaviy ta'lim metodlarining joriy etilishi haqida so‘z yuritiladi. Jadidlarning ta'lim va madaniyat sohalaridagi faoliyati savodxonlikni oshirish va milliy ongni uyg‘otishga qaratilgan bo‘lib, ularning matbuot va adabiyot orqali ma'rifat tarqatishga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Samarqand jadidlari, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktablari, darsliklar, ta'lim islohotlari, matbuot.

Mamlakatimizda ma'rifatparvarlarning ilmiy, ma'naviy merosida ilgari surilgan vatanparvarlik, sobitqadamlik, bag‘rikenglik, ma'naviy ogohlik, gumanizm, shaxs kamoloti borasidagi qarashlarini o‘rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. “Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni

qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotining qadrini anglab etadi” [1].

Jadidchilik harakati XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan. Bu harakatning asosiy maqsadi mahalliy jamiyatni savodsizlik, ijtimoiy va iqtisodiy orqada qolishdan chiqarish, ilg‘or ta'lim, madaniyat va fan orqali jahon sivilizasiyasiga hamohang rivojlanishni ta’minlash edi. Jadidlar o‘rta asrlarning konservativ an'analaridan voz kechib, zamonaviy Yevropa tajribasini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga harakat qildilar.

Jadidchilik harakati Turkistondagi maorif va ijtimoiy islohotlarga yo‘naltirilgan keng qamrovli harakat edi. Samarqand jadidlari ushbu harakatning faol qatnashchilari sifatida yangi usul maktablarini ochish, darsliklar yaratish va axborot tarqatish orqali jamiyatni o‘zgartishga intilishdi[2]. Ular jamiyatdagi savodsizlikni bartaraf etish va islohotlarni zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirish tarafdori edilar.

Samarqand tarixiy-madaniy merosi va ma'rifat markazi sifatida o‘z davrida jadidchilik harakatining muhim nuqtalaridan biri bo‘lgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Samarqandlik jadidlar ma'rifat va islohotlarni amalga oshirish orqali milliy ongni uyg‘otishga intildilar. Ular asos solgan maktablar, adabiyot va ommaviy axborot vositalari orqali milliy ta'lim va tarbiyani rivojlantirishda katta hissa qo‘shdilar.

Samarqand jadidlari jadidchilik harakatining faol ishtirokchilari sifatida hududning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Ular orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va boshqalar kabi mashhur shaxslar bor [3]. Samarqand jadidlari yangi usul maktablarini ochish, darsliklar yaratish, gazeta va jurnallar chop etish orqali jamiyatni savodli qilish va ijtimoiy ongni uyg‘otishga intildilar [4].

Yangi usul maktablari. Samarqand jadidlari tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari jadidchilikning eng muhim natijalaridan biri bo‘ldi. Ushbu maktablar quyidagi jihatlari bilan ajralib turdi:

1. Darsliklar va o‘quv dasturlari: An'anaviy maktablardan farqli o‘laroq, yangi usul maktablarida grammatika, arifmetika, tabiatshunoslik, geografiya va tarix kabi fanlar zamonaviy tarzda o‘qitildi.

2.Ta'lim tizimidagi innovasiyalar: Jadid maktablari interfaol usullardan foydalanib, amaliy va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirishga alohida e'tibor berdi.

3. O‘quv muhiti: Yangi maktablarda o‘quvchilarga o‘quv qurollari va materiallar taqdim etildi. Bu esa ta'lim sifatini oshirdi.

Darsliklar va qo‘llanmalar, Samarqand jadidlari milliy tildagi darslik va qo‘llanmalar yaratishda katta sa'y-harakat qiladilar. Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Rahbari najat" asari shular jumlasidandir. Unda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim

bo‘lgan bilimlar va etika masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu kabi darsliklar milliy o‘zlikni saqlash va zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlashda xizmat qilgan[5].

Mahmudxo‘ja Behbudiy O‘rta Osiyodagi yangi usul maktablari o‘qituvchilari va talabalari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalarining birinchi mualliflaridan biri hisoblanadi. U nashriyot faoliyati bilan faol shug‘ullangan, «Alifboi maktabi islomiya» («Islom maktabi» 1906), «Asbobi savod» («Bilimlar», 1906), «Alifboi maktabi islomiya» kabi o‘quv-uslubiy kitoblar muallifi [6].

“Samarqand” gazetasining bir qancha sonlarida ketma-ket joylashtirilgan e’lonlarga qaraganda, M.Behbudiyning darsliklari juda arzon edi. Shunga qaramay, M.Behbudiy o‘zi yaratgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari maktablarga gazetada ko‘rsatilgan narxdan 25 foiz chegirma bilan sotilishini o‘quvchilarga etkazdi.

E'lonlarning o'zi gazetaning birinchi sahifasida juda yorqin va ko'zga ko'rinadigan joyda bosilib, uch oy davomida - 1913 yilning iyulidan sentyabrigacha qayta nashr etilgan.

Matbuot va axborot tarqatish borasida, jadidlarning yana bir muhim faoliyati milliy matbuot va axborot tarqatish ishlari bilan bog‘liq edi. Ular gazeta va jurnallar chop etish orqali jamiyatga zamonaviy g‘oyalar va bilimlarni etkazishga intilishdi: "Turon" va "Oyina" gazetalari: Jadidlar chop etgan ushbu nashrlar milliy ongni uyg‘otish va ma'rifatni tarqatishning asosiy vositasi bo‘ldi [3].

Adabiyot va san'at: Jadidlar ijtimoiy muammolarni muhokama qilish uchun adabiyot va teatrni ham faol qo‘lladilar.

Jamiyatdagi ijtimoiy islohotlar, jadidlar nafaqat ta'lim, balki ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham islohotlar o‘tkazishga harakat qildilar:

1. Xotin-qizlar huquqlari: Jadidlar ayollarning ta'lim olish huquqini qo‘llab-quvvatlab, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga intildilar.
2. Iqtisodiy rivojlanish: Jadidlar savdo va sanoat sohalarida ham taraqqiyotni rag‘batlantirishga harakat qildilar.

Samarqand jadidlarining ta'lim va ma'rifat sohasidagi ishlari hozirgi davr uchun ham katta ahamiyatga ega. Ular tomonidan joriy etilgan yondashuvlar hozirgi ta'lim islohotlarida ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. Jadidlarning milliy qadriyatlarni saqlash orqali jahon tamadduni bilan uyg‘un rivojlanish g‘oyalari hozirgi O‘zbekiston ta'lim tizimida muhim o‘rin tutadi [4].

Ta'lim sohasidagi islohotlar Samarqandlik jadidlar ta'limni rivojlantirishda quyidagi sohalarda faoliyat olib borishgan:

1. Yangi usul maktablari: Jadidlar an'anaviy ta'lim tizimini isloh qilib, zamonaviy ilm-fanlarga asoslangan maktablar tashkil etdilar. Ushbu maktablarda grammatika, matematika, tarix, tabiatshunoslik va boshqa fanlar o‘qitila boshlandi.

2. Darsliklar va qo‘llanmalar: Jadidlar ta'lim jarayonini yaxshilash uchun milliy tilda darslik va qo‘llanmalar yaratishdi. Bu milliy ong va ma'rifat tarqalishida muhim o‘rin tutdi.

3. O‘qituvchilar tayyorlash: Yangi usul maktablarida dars beradigan o‘qituvchilarni tayyorlash uchun maxsus kurslar tashkil etildi.

M.Behbudiyning tilga munosabati masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uningcha til madaniyatning muhim omili hisoblanadi. O‘zining “Bizga ikkita emas, to‘rtta til zarur” nomli maqolasida M.Behbudiy tilga faqat aql-idrokning quroli sifatidagina emas, balki turli millat va etnosga mansub ko‘plab insonlarni bog‘lovchi zanjir sifatida qaraydi. Jamiyatning uyg‘unlashuvi jarayonida va odamlarni ma'rifatli qilishda til muhim rol o‘ynaydi. Ma'rifatparvar bejiz bizga ikkita emas, to‘rtta til (ya'ni turk, fors-tojik, arab, rus tillarini bilish) zarur deya da'vat etmaydi. Bizning baxtimiz shundaki, biz turkiy va forsiy tillarini, ularni maxsus o‘rganmasdan turib ham bilamiz, deya yozadi M.Behbudiy [8]. Bundan tashqari, ko‘plab tillarni bilish insoniyat jamiyatining olg‘a siljishida, boshqa xalqlar madaniyatini anglab etishda bosh omil hisoblanadi. M.Behbudiy millatlar taraqqiyig‘a bir necha sabablar bo‘lub, tub sababi ulamo ila ag‘niyoning hamiyyat va g‘ayratlaridur. Taraqqiy qilg‘on va yo endi taraqqiy qilguvchi millatlar ahvolig‘a diqqat qilinsa, mazkur ikki sinf muhtaramni o‘z millatlarig‘a so‘z va oqcha ila xidmat etganlari favran zohir bo‘lur, deb yozadi [Маҳмудхўжа Беҳбудий. Миллатлар қандай тараққий этарлар? [7.1913 yil, 30 iyul] Behbudiy xorij mamlakatlarga borib, u erdagi ilm-ma'rifat va madaniyatni yanada chuqurroq o‘rganishga harakat qilgan.

Samarqand jadidlari nafaqat ta'lim sohasida, balki jamiyatning umumiy ma'rifatini oshirishda ham faoliyat olib bordilar:

Matbuot va adabiyot: Ular milliy matbuotni rivojlantirishda, gazetalar va jurnallar chop etishda faol qatnashdilar. Bunda jadidlarning maqsadlari jamiyatda milliy ong va savodxonlikni oshirishdan iborat edi.

Madaniy islohotlar: Jadidlar teatr va san'at vositalari orqali ijtimoiy muammolarni muhokama qilishga intildilar. Ular uchun teatr ma'rifatni targ‘ib qilishning muhim vositasi edi.

Bugungi kunda Samarqand jadidlarining ta’lim va ma’rifatparvarlik qarashlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ularning asarlari hozirgi ta’lim islohotlarida qo‘llanilmoqda [5]. Jadidlarning milliy o‘zlikni anglash, global tendensiyalarga mos ravishda rivojlanish g‘oyalari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, jadidlar tomonidan o‘quv-uslubiy kitoblar, didaktik va pedagogik qo‘llanmalar to‘plash va nashr etish ularning kitob nashr etish faoliyatining muhim yo‘nalishi bo‘lib, ta’lim va ma’rifatda dunyoviy va boshqa Yevropa unsurlarining shakllanishiga xizmat qilgan. Bu jarayonga O‘rta Osiyo

jadidchiligining ko‘zga ko‘ringan namoyandalari katta hissa qo‘shdilar. Saidrasul Aziziy, Saidahmad Vasliy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Sadriddin Ayniy, Ismatullo Rahmatullozoda va boshqalar shular jumlasida.

Samarqandlik jadidlar o‘z zamonasida milliy rivojlanish va ma'rifat uchun beqiyos hissa qo‘shdilar. Ular tomonidan amalga oshirilgan islohotlar nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi davrda ham ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ular qoldirgan meros ta'lim va tarbiya sohasida ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. Samarqand jadidlari Turkiston tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk ma'rifatparvarlardir. Ular tomonidan amalga oshirilgan islohotlar milliy rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratdi. Ular qoldirgan merosni o‘rganish va uning zamonaviy qiymatini anglash ta'lim va jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent.: “O’zbekiston”, 2021 yil, 464 bet
2. Khudaykulov A.M. Educational activities of the Jadids of Turkestan (late XIX - early XX centuries): Diss. PhD. historical Sciences. Tashkent, 1995.- 148 p.
3. Alimova D.A. Jadidism in Central Asia. Ways of renewal, reforms, struggle for independence. - Tashkent: Uzbekistan, 2000. - 24 p.
4. Amridinova D.T. Importance of the spiritual heritage of Jadidism in the development of national education // Foreign Philology. - Samarkand, 2019. - No.– p. 19-21.
5. Amridinova D.T. Maxmudxo‘ja Bexbudiy va Abduqodir Shakuriy ijodida til, tarbiya va jamiyat islohati masalalari.// Xozirgi dunyo lisoniy kiyofasi va tilshunoslikning metodologik asoslari. //Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Samarqand. 2007. -B. 71-77
6. Балдауф И. Джадидизм в Центральной Азии в плане реформизма и модернизма в мусульманском мире // Марказий Осиё XX аср бошида: ислохотлар, янгиланиш, таравдиёт ва мустакиллик учун кураш (Жадидчилик, мухториятчилик, истикдолчилик).- Т.: Маънавият, 2001.- С. 44-53.
7. Solih Qosimov. "Behbudiy va jadidchilik" Ozbekiston adabiyoti va san’ati, 1990. S. 32.
8. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Миллатлар қандай тараққий этарлар? 1913 yil, 30 iyul.

MAHMUDXOJA BEHBUDIYNING TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDA TUTGAN O‘RNI

Lutfullayeva Mohira Xayrullo qizi
Oriental unversiteti Sharq tillari kafedrasi AF-309-guruh 2-kurs talabasi
lutfullayevamohira2210@gmail.com, Tel.: (+99893) 5994114

Annotatsiya: Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solgan buyuk ziyoli Mahmudxo‘ja ko‘plab sohalarda qimmatli fikrlarini aytgan. Uning publitsistika, teatr, adabiyot, bosma ishi, turkistonliklarning siyosiy ongi borasidagi qarashlari va amaliy ishlari yaxshi o‘rganilgan. Lekin Behbudiy til haqida ham fikrlarini aytib o‘tgan. Uning o‘zbek tili, umuman mintaqadagi til siyosati borasidagi fikrlari bugungi kunga qadar eskirmagan. Mashhur jadidshunos, falsafa doktori, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti prorektori Zaynobiddin Abdurashidov Behbudiyning til borasidagi qarashlarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Behbudiyning til haqidagi fikirlari, Behbudiy til uchun qilgan harakati, Hoji Muin o‘z qarashlarining amaliy tatbiqini ta’riflanishi, birinchi navbatda “biz avval onamizni o‘qutub, anga til o‘rgatmoqimiz kerak”.

Hurmatli izlanuvchi! Sir emaski, mamlakatimizda buyuk allomalarimizning ko’plab hozirgi kunda juda katta son-sanoqsiz buyuk asarlari , jumladan, badiiy, tarixiy, falsafiy, didaktik asarlari o‘zbek olimlarimiz tomonidan barmoq bilan sanarli darajada o‘rganilmoqda. Bu sanoqli izlanish natijalari esa juda achinarli holat desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki biz uchun kerak bo‘lgan bunday asarlarimizda ma’lumotlar, hattoki isbotlangan faktlar xaddan tashqari talaygina.

Mutaxassislar milliy uyg‘onish davri deb ataydigan XIX asr oxiriXX asr boshlaridagi adabiy jarayonni, bu davrda yashab faoliyat ko‘rsatgan, millatni yuksak madaniyat va ma'rifatga tar g‘ib etgan ma'rifatparvar ijodkorlar, ayniqsa, Turkiston jadidchiligining karvonboshisi Mahmudxo‘ja Behbudiy merosini o‘rganish bugungi kunda ayniqsa ahamiyatga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistik merosini birinchilardan bo‘lib o‘rgangan olim professor Begali Qosimovdir. Olimning “Izlay-izlay topganim”, “Milliy uyg‘onish: ma'rifat, jasorat, fidoyilik” kabi monografiyalarida, uning rahbarligida yozilgan oliy o‘quv yurtlari uchun “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” darsligida jadid publitsistikasi, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik maqolalarida ko‘tarilgan muammolar keng va atroflicha o‘rganilgan. Mutafakkir asarlarida diniy va milliy masalalarining yoritilishi masalasi yuzasidan ham e'tiborga loyiq fikrlar aytilgan.

Taniqli olim va xalq ma’rifatchisi bo‘lgan Begali Qosimov ham Behbudiy ijodini o‘rganib turib shunday so‘zlarni aytadi: “Darhaqiqat, Behbudiy ruhoniy shaxs bo‘lgan. Biroq u o‘ziga xos din arbobi edi. Uning umri bus-butun xalq manfaatlarini himoya qilish uchun baxshida etilgan edi. U o‘zining jamoat va davlat arbobi sifatidagi qiz g‘in faolyatida ham hech qachon dindan chekinmaydi, ayni paytda ruhoniy sifatida aslo xalq manfaatlariga xiyonat qilmadi ”[82]

[82] Qosimov B. (1990). Behbudiy va jadidchilik. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati (01.26).

Hususan, Behbudiy tilga yangi o‘zlashmalarni tartibga keltiradigan ilmiy jamiyat tashkil etish masalasini ham kun tartibiga chiqaradi. Tilni soflashtirish masalasida “Sadoyi Turkiston” gazetasida berib borilayotgan maqolalarni tahlil qilar ekan, Behbudiy gazetaning bu harakatiga “ijrosi mumkin emas orzu” deb qaraydi. Sabab, asrlar davomida arab va fors tili ta’sirida qolgan turkiy tilni “yana bir necha ming sanada bularni ta’siridan chiqarmoq” ishiga berilsak, “ma’nan va moddatan va fannan mahkum millatlarning tili qatorida bo‘lgan tilimizg‘a yana taraqqiy etgan millatlarning” tilidan yangi so‘zlar kirib kelaveradi. Behbudiy til soflashtirish masalasida mana shunday pozitsiyani egallagan edi.

Behbudiy tilni soddalashtirish borasida fikrlar ekan, arabcha ko‘plikdagi so‘zlarni imkon qadar turkiy ko‘plik shaklda, masalan, “ulum, funun, ulamo, quzzot va ...demoq erinda fanlar, ilmlar, olimlar, qozilar va... lar” kabi yozilishini hamda gazetalarda berilayotgan “kurrayi arzda yashamakda bo‘lgan har millatni o‘ziga maxsus bir lisoni milliysi vordur” kabi gaplarni imkon qadar turkiychalashtirishni taklif qiladi.[83]

Lekin, yuqorida yozilganidek, Behbudiy butun tilni soflashtirish masalasida “butun fanniy va ilmiy va diniy istiloh va iboratlarg‘a muqobil turkchadan ism ta’yin qilmoq fikrig‘a cho‘mmoq o‘zni charchatib va matbuotnn zoye’ qilmoqdan boshqa nimarsa emas” degan fikrda qat’iy turdi.

Umuman olganda, Behbudiy sodda til “atrofindagi qavm-u qarindoshi ilan so‘ylashmoq” uchun kerak bo‘lsa, adabiy va ilmiy til “mavjud ilm-u fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq” uchun zarur deb hisoblaydi. Uningcha, sodda til, ya’ni sheva yoki lahja mintaqaga ko‘ra turli bo‘lishi hisobga olinsa, bu tilni adabiy deb bo‘lmaydi va uni istifodaga olib kirishdan ham hech qanday ma’ni yo‘q. Bundan tashqari, Behbudiy Turkiston sheva va lahjalari adabiy til bo‘lishga hozircha “qodir emas” deb hisoblaydi. Behbudiyning bunday xulosaga kelishiga sabab “ilmiy va adabiy tilni har bir qishloq va ko‘ydagi onalarni tilinda bo‘lmoqligi” uchun boshqa taraqqiy etgan millatlar onalari kabi “qorindan qoring‘acha” o‘qimishli bo‘lishi kerak. Shunday ekan, Behbudiy umum adabiy til masalasida “modomiki, bizg‘a ilm-u fan kerak va modomiki, turk tilining ba’zi sho‘ba va lahjalarig‘a zamoniy, fanniy, diniy, tarixiy har nav’ kitoblar bordur, ani o‘qub fahmlamoqig‘a g‘ayrat etishimiz lozimdur” degan xulosaga keladi.

Yuqorida qayd etilganidek, Behbudiy Turkistonning avom xalqi qay gazeta tilini yaxshi tushunishi va qabul qilishi borasida o‘tkazgan sotsiologik so‘rovnomasi va tadqiqotining asosiy sababi ham “Tarjimon” yoki “Ulfat” gazetasi tilini (umum)adabiy til darajasiga ko‘tarish edi. Behbudiy o‘zining bu qarashini quyidagicha izohlaydi: “Dunyomizni ilm-u fanidan xabardor bo‘lmoq uchun rus,

[83] Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy.-Toshkent:-Yozuvchi. 1994 yil

nemis, fransaviy, anglis, itoliyoli, arabiy, jopuniy tillaridan birini bilmoq kerak va alarni bilmaganda Kafkoz va yo Qrim lahjayi adabiyasini bilgan kishini dunyodan xabarlik bo‘lushig‘a vosita bo‘lur”. Behbudiyning adabiy til borasidagi bu kabi qarashi o‘z davrida ham katta qarshiliklarga sabab bo‘lgan. Uning eng yaqin safdoshlaridan bo‘lgan Hoji Muin Behbudiyning adabiy til borasidagi fikrlariga qarshi chiqqan edi.

Hoji Muni mahaliy tilni soflashtirish va begona (arabcha va forscha) so‘zlardan tozalash orqali uni adabiy til sifatida shakllantirish tarafdori edi. Bundan tashqari, Hoji Muin Behbudiy taklif qilgan ikkitillilik, ya’ni butun Turkistonda turkiy bilan bir qatorda forsiyni ham ishlatish fikrini ham ma’qullamaydi. Ingeborg Baldaufning ta’kidlashicha, Hoji Muin o‘z qarashlarining amaliy tatbiqini Behbudiy safarga chiqqan vaqtda “Oyna” jurnaliga vaqtincha muharrir bo‘lgan vaqtda amalga oshirishga qisman muvaffaq bo‘lgan. Baldaufga ko‘ra, Hoji Muin qisqa muddat ichida ikki tilli bo‘lgan “Oyina” jurnalini sof turkiy tildagi jurnalga aylantirishga ulgurgan edi.

Behbudiy “Til masalasi” maqolasining oxirida hech qaysi bir til faqatgina o‘z so‘z boyligi bilan taraqqiy eta olmasligi, boshqa tillardan yangi so‘zlar qabul qilish hisobiga rivojlana olishini ta’kidlash bilan bir qatorda, tilni soflashtirish bilan vaqtni bekor sarflamasdan uning o‘rniga “kelar zamon uchun hozirlanayluk, o‘tgan zamon uchun emas” degan qat’iy fikrni o‘rtaga tashlaydi.

Bundan tashqari, u Turkistonning turli mintaqalari shevalari orasida farq bo‘lgani uchun ushbu shevalarda adabiy asarlar yozish ham maqsadga muvofiq emasligini ta’kidlaydi. Behbudiy (umum)adabiy til yaratish borasidagi asosiy muammo va to‘siq sifatida millat onalarning savodsizligini ko‘radi. Adabiy til yaratmoq uchun, Behbudiyga ko‘ra, birinchi navbatda “biz avval onamizni o‘qutub, anga til o‘rgatmoqimiz kerak”.

Adabiy tilning hamda ilm-fanning rivoji millat onalarining bilimiga bog‘liq ekanini ta’kidlagan Behbudiy, birinchidan, qiz bolalarni maktablarga ko‘proq berish, ularni savodli qilish masalasini ko‘targan bo‘lsa, ikkinchi tarafdan, bir adabiy til yaratish uchun imkon qadar arabcha va forscha so‘zlardan kam ishlatish, sodda, boshqa turkiy tillardan keng istifoda qilgan holda yozishni taklif qiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilshunoslik borasida e’lon qilgan maqolalari orasida “sart” so‘zi bilan bog‘liq fikrlari ham bugungi tilshunoslik nuqtayi nazaridan katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolalarning tahlili Behbudiy o‘z zamondoshlari safidan birinchilardan bo‘lib so‘z etimologiyasi bilan shug‘ullangan, so‘zning qo‘llanilish doirasi, turli xalqlarda bir so‘zning qay ma’noda ishlatilishi, so‘zning tarixiy, adabiy manbalarda uchrab uchramasligi borasida izlanishlar olib borgan, zamonaviy til bilan aytadigan bo‘lsak, madaniy antropologiya fani bilan ham shug‘ullanganligi

ko‘zga tashlanadi. “Sho‘ro” jurnalida e’lon qilingan “Sart so‘zi majhuldir” maqolasida Behbudiy ruslar tarafidan mahalliy o‘troq xalqqa nisbatan qo‘llay boshlagan “sart” so‘zining ishlatilishi, turli lug‘atlarda mavjud yoki mavjud emasligi, yon-atrofdagi ko‘chmanchi xalqlar bu so‘zning nima ma’noda qo‘llashi va hokazo dalilardan 24 tasini keltiradi va so‘ngida “sart” so‘zi Turkistonning mahalliy o‘troq xalqiga nisbatan ishlatilishi noo‘rin ekanligini isbotlab bergan. Behbudiy ushbu maqolada “sart” so‘zi bilan bog‘liq keltirgan dalillarini tahlil qilinsa, muallif tarixiy kitoblardagi faktlardan tortib turli lug‘atlarda, ko‘chmanchi xalqlar nutqidagi ma’nosigacha izohlashga harakat qilgan. Bu esa, o‘z navbatida, “sart” so‘zining etimologiyasiga oid katta izlanish olib borilganligi va Behbudiyning bu boradagi iqtidorini ko‘rsatadi.

Behbudiy barcha dalillarni bir-bir keltirgandan keyin maqolasi so‘ngida “sart” so‘zining tarixi ham “majhul” bo‘lganini hamda turkistonlik o‘troq aholiga nisbatan “sart” atamasini ko‘chmanchi qozoqlar tarafidan ishlatilgani bois ulardan so‘ralsa, balki biror tayinli javob chiqishi haqida ruslarga tavsiya beradi.

“Sart” so‘zi bilan bog‘liq “Oyina”da berilgan maqolalarning birinchisi “Sho‘ro” jurnalida e’lon qilingan maqola nomi bilan bir xil “Sart so‘zi majhuldir” nomlangan bo‘lsa, ikkinchisi “Sart so‘zi ma’lum bo‘lmadi” sarlavhasi bilan e’lon qilingan. Behbudiy bu maqolalarda “Sho‘ro” jurnalida o‘zi hamda boshqa mualliflar tomonidan bu borada e’lon qilingan maqolalarni tahlil qiladi. Behbudiy barcha mualliflarning fikrlarini jamlagan holda “sart” atamasini Turkiston o‘troq aholisiga nisbatan qo‘llash “haqorat” sifatida ekanligini yozadi.[84]

Behbudiy o‘z fikrlarini dalillash sifatida bir vaqtlar “Xun”lar bo‘lgani, ular butun Evropani zabt etgani va o‘sha erda qolib hozirda nomi yo‘q bo‘lib ketgani bilan evropaliklarni sizlar “xun”sizlar deb atash qanchalar o‘rinli bo‘lishi borasida fikrlarni keltiradi. Behbudiy fikrlarini xulosalar ekan, Evropa xalqlari o‘zlariga nisbatan “xun” atamasini haqorat deb qabul qilganidek, ayrim tarix kitoblarida Turkiston hududida qachonlardir “sart” atalgan bir qabila bo‘lganligi yozilgani bilan erli aholini bugungi kunda sen “sart”san deb atash ham haqorat, millatni erga urish bilan barobar ekanligini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiyning Turkiston jadidchiligida tutgan o‘rni, uning bu harakat g‘oya va fikrlarining yoyilishida, ijtimoiy-siyosiy sohaning turli jabhalarida islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyatini baholashda, tabiiyki, u yozib qoldirgan fikrlar, asarlar katta ahamiyatga ega. Shu ma’noda uning umum adabiy til, til normalari, imlosi, so‘zlar etimologiyasi borasidagi fikrlari, qarashlari ma’lum ma’noda Behbudiyning tilshunoslik sohasidagi faoliyatiga ham muayyan baho berishga, uning bu yo‘nalishdagi harakatlariga xolisona xulsa berishga imkon

[84] Gafurovich, s. A. (2021). Analysis of the poem" autumn dreams" by abdulla

tug‘diradi. Behbudiyning Turkistonda keng tarqalgan turkiy tilning sheva va lahjalarini mukammal bilishi, zamonasining nisbatan taraqqiy etgan turkiy shevalarda nashr etilgan vaqtli matbuot tilini davrlashtirish, ularga muayyan baho bera olish, tahlil qila olish kabi qirralari uning Turkistonlik ziyolilar orasidan etishib chiqqan ilk tilshunos deb atashimizga dalil bo‘la oladi.

Shuningdek, so‘zlarning tarixi, ularning kelib chiqishiga oid izlanishlarini inobatga olib Behbudiyni hozirgi zamon atamasi bilan madaniy antropologiya sohasida ham muayyan yutuqlarga erishgan, bu sohada ham birinchilardan bo‘lib izlanishlar olib borgan olim deb xulosa berishga asos beradi. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, Behbudiy o‘zbek tilining adabiy til sifatida shakllanishi borasida samarali faoliyat olib borgan tilshunos, sotsiolog, shevashunos, etnograf, madaniy antropolog sifatida gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (references):

1. Aliyev a. Mahmudxo‘ja behbudiy.-toshkent:-yozuvchi. 1994 yil
2. M. M. Xayrullayev. Ma’naviyat yulduzlari. T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001.- 408 bet.
3. Zaynobidin abdurashidov. Jadidlar. Mahmudxo‘ja behbudiy. – t.: yoshlar
4. Qosimov B. (1990). Behbudiy va jadidchilik. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati (01.26).

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY: JADIDCHILIK HARAKATINING PESHVOSI VA UNING TARIXIY QARASHLARI

Dildora Maxamatova
Osiyo xalqaro univarsiteti talabasi

Annotatsiya. Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining peshvosi va Turkiston milliy uyg‘onishining eng faol targ‘ibotchilaridan biri hisoblanadi. U o‘zining ma’rifatparvarlik faoliyati bilan xalqni savodli qilish, milliy o‘zlikni anglash va madaniy yangilanishni maqsad qilib qo‘ygan. Behbudiy yangi usul maktablarini tashkil etishda, matbuot va adabiyot orqali ma’rifiy g‘oyalarni tarqatishda katta hissa qo‘shgan. Uning "Turkiston qayg‘usi" nomli maqolasi va "Oyna" gazetasi jadidlar harakatining eng muhim tashviqot vositalaridan bo‘lib, milliy uyg‘onishning yo‘lini ochgan.

Kalit so‘zlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik harakati, Turkiston milliy uyg‘onishi, yangi usul maktablari, ma’rifatparvarlik, "Oyna" gazetasi, madaniy yangilanish.

Kirish. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) Turkiston jadidchilik harakatining eng yirik vakillaridan biri va ma’rifatparvar rahnamosidir. Behbudiy o‘zining ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan xalqning ongini uyg‘otish, milliy taraqqiyot va mustaqillik uchun kurashda katta o‘rin tutdi. Uning asarlari, ayniqsa, “Turkiston qayg‘usi” kabi maqolalari va dramatik asarlari mustamlakachilik zulmi, milliy ma’rifatsizlik va ijtimoiy tengsizlikka qarshi qaratilgan. Behbudiy yangi usul

maktablarini tashkil etish, milliy adabiyot va teatrni rivojlantirish orqali xalqni ma’rifat bilan qurollantirishga intilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilda Samarqand yaqinidagi Ipakchi qishlog‘ida tug‘ilgan. U yoshlikdan ilm-fanga qiziqqan va diniy ta’lim olib, arab, fors va rus tillarini puxta o‘rgangan. 1900-yilda Behbudiy Haj safariga borib, Istanbul va Qohirada bo‘lib, u erda dunyoviy va diniy ilmlar bilan tanishadi. Bu safarlar Behbudiyning ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

1910-yillardan boshlab Behbudiy Turkiston o‘lkasida yangi usul maktablarini tashkil etish, gazeta va jurnallar nashr etish, teatr spektakllarini sahnalashtirish orqali milliy uyg‘onish g‘oyalarini yoydi. Uning “Samarqand” gazetasi, “Turon” jurnali va boshqa nashrlari xalq orasida keng tarqaldi. Behbudiy Turkistondagi jadidchilik harakatining peshvosi sifatida ma’rifiy islohotlarni amalga oshirish, yosh avlodni ma’rifatli va mustaqil fikrlovchi qilib tarbiyalashga intildi.

“Turkiston qayg‘usi” maqolasi va uning tahlili

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Turkiston qayg‘usi” maqolasi uning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lib, 1914-yilda Samarqandda nashr etilgan. Ushbu maqola Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy holatini yoritib, xalqni milliy uyg‘onishga, ma’rifatga chaqiradi.

Maqolaning mazmuni: “Turkiston qayg‘usi”da Behbudiy Turkiston xalqining ma’rifatsizlik, mustamlakachilik va ijtimoiy tengsizlikdan aziyat chekayotganini ta’kidlaydi. U xalqni ma’rifatsizlikdan qutqarish uchun yangi usul maktablar ochish, ilm-fanga rag‘batlantirish va milliy ongni uyg‘otish zarurligini ta’kidlaydi. Behbudiy o‘z maqolasida mustamlakachilik zulmini qoralab, xalqni milliy uyg‘onishga va ijtimoiysiyosiy islohotlarga chorladi.

Maqolaning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati: Behbudiy bu maqolasi orqali xalqni milliy ongli bo‘lishga, mustamlakachilikka qarshi kurashga chaqiradi. U Turkistonning ma’naviy va ijtimoiy holatini tanqid qilib, xalqni mustaqillikka va ozodlikka chorlaydi. Ushbu maqola jadidlarning milliy uyg‘onish va mustaqillik uchun kurashdagi qarashlarini aks ettirgan asosiy asarlardan biridir.

Behbudiyning asarlari va ularning tahlili

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining adabiy va dramatik asarlari orqali milliy ma’rifatparvarlik g‘oyalarini yoydi. Uning asarlari o‘zbek adabiyoti va teatrining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

- “Padarkush” dramasi: Ushbu drama Behbudiyning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lib, 1911-yilda yozilgan. Asar o‘zbek dramaturgiyasining ilk namunalaridan biri sifatida tan olinadi. Asarda ota va o‘g‘il o‘rtasidagi ijtimoiy-axloqiy muammolar va qadriyatlar to‘qnashuvi tasvirlanadi. O‘g‘ilning ma’rifatsizlik va johillik tufayli o‘z otasini o‘ldirishi, keyin esa o‘z xatosini anglab, pushaymon bo‘lishi orqali Behbudiy xalqni ilmga, ma’rifatga intilishga chaqiradi.

- “Biyo gul” she’ri: Ushbu she’rda Behbudiy xalqni ma’rifatga, zamonaviy bilimlar olishga undaydi. U o‘z she’rida qashshoqlik, ma’rifatsizlik va johillikdan aziyat chekayotgan xalqni o‘z taqdirini o‘zgartirishga, ilm-fanga intilishga chorlaydi. Behbudiy bu she’rida xalqning ilm olishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otishga harakat qiladi.

- “Risolayi siyo”: Ushbu asarda Behbudiy ma’rifatning ahamiyatini, ilmning kuchini va uni olish yo‘llarini bayon qiladi. U risolada an’anaviy ta’lim tizimining kamchiliklarini ochib berib, yangi usulda ta’lim berish zarurligini ta’kidlaydi. Behbudiy o‘z asarida xalqni o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, milliy va diniy qadriyatlarni saqlagan holda ilm-fanga intilishga undaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonning ma’rifiy islohotlari uchun muhim qadamlar tashladi. U xalqni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, yangi avlodni ma’rifatli qilib tarbiyalash uchun o‘z pedagogik qarashlarini shakllantirdi.

Behbudiy yangi usul maktablarini ochishda faol ishtirok etdi. Bu maktablarda o‘quvchilar an’anaviy darslarga qo‘shimcha ravishda matematika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar kabi dunyoviy bilimlarni o‘rgandilar. Behbudiy o‘qituvchilar malakasini oshirish uchun maxsus kurslar tashkil etib, ularning pedagogik tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratdi. Behbudiyning pedagogik qarashlari xalqni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga qaratilgan edi. U ta’lim tizimida ma’rifatparvarlikni kuchaytirish, o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy saviyasini oshirishni maqsad qilib qo‘ydi. Behbudiy xalqni ma’rifatli qilib, ularni mustaqil va ijodiy fikrlovchi, ma’rifatli va milliy qadriyatlarni qadrlovchi shaxslar qilib tarbiyalashga intildi. Behbudiy ta’limda milliy tarbiyaga katta e’tibor berdi. U o‘z maktablarida milliy tarix, madaniyat va tilni o‘rgatish orqali o‘quvchilarda milliy ongni shakllantirishga intildi. Behbudiy milliy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy bilimlarni olishni tarbiyaviy jarayonning asosiy maqsadi deb bildi.

Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati mustamlakachilik va mustaqillikka intiluvchi harakatlar uchun tahdid deb qabul qilindi. 1919- yilda u Buxoro amiri tomonidan “milliy uyg‘onish va islohotlar g‘oyalarini targ‘ib qilgani” uchun hibsga olinadi va qatl etiladi. Uning o‘limi xalq uchun katta yo‘qotish bo‘ldi, ammo Behbudiy g‘oyalari, asarlari va merosi millat uchun ilhom manbai bo‘lib qoldi.

Mahmudxo‘Ja Behbudiyning tarixiy qarashlari

Turkiston o'lkasi XIX asr oxiri, XX asr boshlarida mustamlakachilik siyosati oqibatida siyosiy, iqtisodiy, madaniy tanazzulga yuz tutdi. O'lkaning ilg'or ziyolilari podsho hukumati zulmidan qutulish, millatni uyg'otish, nafaqat iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyot sari yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish maqsadida marifatparvarlik harakatiga asos soldilar. Bu harakat bilan Turkistonda yangi uyg'onish davri boshlandi. Ushbu uyg'onish davri tarixga "Jadidchilik harakati" nomi bilan kirdi va o'chmas iz qoldirdi. Jadidlar o'z davrining barcha ilmiy yutuqlari, fan yangiliklaridan

istifoda etgan holda millatning ahvolini, xalqning dunyoqarashini isloh qilishga bel bog'lagan edilar. Jadid matbuoti, jadid adabiyoti, jadid teatrlari, ular yozgan maqola va darsliklar o'z fikrlarini xalqqa etqazish vositasi vazifasini bajarishda xizmat qilgan edi. Jadidlar millat rivoj topishi uchun avvalo xalqning savodli bo'lishi, ziyoli qatlamning kengayishi, o'z dini va tarixini asl manbalardan o'z holida o'rganishi kerakligini ta'kidlashar edi. Ayniqsa tarix ilmi jadidlar nazdida isloh qilinishi, o'rganilishi va o'rgatilishi juda zarur bo'lgan soha sanalar edi. Darhaqiqat, tarixiy tafakkur bo'lmagsn xalqda ozodlik orzusi, hurriyst ishtiyoqi ham sust bo'ladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatchiligining eng yirik namoyandasi, yangi davr o'zbek madaniyatining asoschisidir. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi. XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg'unlik, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni holdan toydirgan, imkondan foydalanib o'lkani zabt etgan Rusiya zo'r berib, uni turg'un va tutqun saqlashga urinardi. Mana shunday bir sharoitda Vatanni butunlay yo'q bo'lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida. tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotta boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan.

Behbudiy tarix ilmiga oid ko'plab maqolalar va asarlar yozgan bo'lib, xususan uning "Tarixi islom" asari islom tarixi haqida mufassal yozilgan kitoblar qatoriga kiradi. “al-on burung’i musulmonlarning madaniyat va saltanatlarining ruknlaridan bo’lgan ba’zi asarlarni yozarmiz, toki yor va ag’yor bilsunki, musulmon unsurinda bir zamonlar hozirgi taraqqiy topgan xalqlardek sha’sha’a va dabdabayi madaniyat va saltanatlari ko’zlarni qamashdirub, o’z zamona va asrlarning yagona madaniyat va saltanat va fardi edilar.”

Behbudiy islom tarixini har doim va barcha musulmonlar o'rganishi lozimligini, ham o'z o'tmishi bilan faxrlanish ham xatolardan xulosa olish uchun zarur ekanligini qayd etadi. Mahmudxo’ja Behbudiy asarlarini o’rganar ekanmiz islom tarixida ham musulmonlarning madananiy, ilmiy, bunyodkorlik jihatidan ham peshqadamlardan bo’lganligini, yoki o’z zamonasining eng buyuk mamlakati, eng buyuk xalqi bo’lganligini anglab etamiz. Ko’plab musulmon olimlari etishib chiqib, ilm-fanning shakllanishida, rivojlanishida, qisqa qilib aytganda dunyo svilizatsiyasining yuzaga kelishida ishtirok etganligi ahamiyatlidir. Islom tarixida musulmon mamlakatlarining poytaxti bo’lgan shaharlarning bugungi kundagi barchaga ma’lum va mashhur bo’lgan London, Parij kabi shaharlardek go’zal bo’lgani va taraqqiy etib borganini manbalardan yaxshi anglaymiz.

Behbudiy asarlarida, kitob va darsliklarida, maqolalarida tarix ilmi va uning o'qitilishi borasida juda ko'plab fikrlar ilgari surilganki, biz quyida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz.

"Holo, biz turkistoniylar marhum bobolarimiz ahvoli ham Turkiston voqeoti tarixiyasidan butun g‘ofil va bexabardurmiz. Chunki hanuz Turkiston tarixi haqinda yangi tadqiqot ila yozilgon, tartibli va istifodali mukammal bir asar vujudg‘a kelgan yo‘q." Ushbu fikrlar orqali Mahmudxo'ja Behbudiy "Turkiston tarixi" haqida mufassal bir asar bo'lishi kerakligini va bu asar barcha Turkiston aholisiga o'qittirilmog'i, uqtirilmog'i kerakligini ta'kidlagan edi. Aynan shu borada Behbudiyning quyidagi fikrlarini ham misol keltirish mumkin:

"Tarix ko‘p ahamiyatli va foydali bir narsadur. Tarixning foydalaridan ba’zisi ushbudurki, bir millatning na tariqada, qaysi yo‘l ila taraqqiy etganin o‘qib, ibrat olmoq yoki bir millatning na sabablardan tanazzul etib, oxiri munqariz bo‘lub ketganin o‘qub mundan ham istifoda etmak mumkindur. Shuning uchun bizning o‘z shevamizda Turkistonda o‘tgan bobolarimizning maishiy, siyosiy ahvolig‘a doir «Turkiston tarixi» bor bo‘lgonda, oni ko‘z oldimizda qo‘yub, burung‘i qahramon bobolarimizning na yo‘l ila taraqqiy va madaniyat davrig‘a kirub va nima sababdan oxiri munqariz bo‘lub ketganlarini o‘qub, bilub, xeyli ibrat olar eduk. O‘shandoq hozirgi holimizni bobolarimiz davridagi hollarg‘a bir daraja muqoyasa etmak ila barobar o‘z-o‘zimizdan bir infioli daruniy his edub, yuzlarimiz qizarar edi. Holo, biz turkistoniylar marhum bobolarimiz ahvoli ham Turkiston voqeoti tarixiyasidan butun g‘ofil va bexabardurmiz. Chunki hanuz Turkiston tarixi haqinda yangi tadqiqot ila yozilgon, tartibli va istifodali mukammal bir asar vujudg‘a kelgan yo‘q. To‘g‘risi, munday tarix yozuvchi kishi turk o‘g‘lonlaridan hanuz maydong‘a chiqgon yo‘qki, bu esa turk bolalarining noxalaf bo‘lub, chin o‘g‘ul emasliklarig‘a dalildur. Bu so‘zlardan tarixsizligimiz anglashilmasun. Bizning tariximiz bor."

"Burung‘i asrlarda Turkiston va turklar voqeoti va ahvoli haqinda turkiy, forsiy va arabiy tillarda necha kitoblar yozilgandurki, u kitoblardan rus va boshqa yovrupoyilar istifoda etgan va etmakdadurlar. Lekin u muxtalif tillarda yozilgan. Tarixiy asarlardan biz turkistoniylar istifoda etub, yangi muhokama va tadqiqot ila o‘z shevamizda muntazam bir asar vujudg‘a kelturganimiz yo‘q. Balki bizlar andog‘ tarixiy kitoblardan aksariyat ila xabarsiz bo‘lub, ba’zisidan xabardor bo‘lsak ham, alarning tab’ va nashrig‘a ahamiyat bermaymiz. Chunki bizning xalqlar andog‘ kitoblardan ko‘ra xurofotlik qissa, hikoya va oshiqona g‘azal kitoblarig‘a ziyoda, rag‘batlik bo‘lganidan moddiy foydasini ko‘zlab, shunday afsona va aslsiz kitoblarni tab’ va nashr etmakdamiz. Shuning uchun kundan-kun muhim tarixiy kitoblarimiz ko‘zdan tushub, esdan chiqub ketmakdadurki, muning aybu gunohi Turkistondagi manfaatparast kitobchilar bo‘yniga tushsa kerak. Chunki bu so‘ng yillarda kitobchilar tarafidan turli xurofotlik kitob va risolalar nashr bo‘linub turganligi

maydonda va barchag‘a ma’lumdur. Agarda muhtaram noshir va kitobchilarimiz mundan so‘ng axloq buzguvchi oshiqona g‘azallar va sof e’tiqodlarni zaharlandiruvchi xurofotlik afsona kitoblar o‘rnig‘a mo‘tabar tarixiy, axloqiy va adabiy risola va kitoblar nashr etmoqg‘a tashabbus etsalar, shoyad bu xayrli ishlari avvalgi gunohlarining yuzini yopar."

Yuqoridagi fikrlarda Behbudiy tarix ilmini o'rganishda manbalarning ahamiyatini eslatib o'tadi. Ilgarigi muarrixlar tomonidan yozilgan Forsiy va Arabiy manbalar bilan kifoyalanib qolmaslik, ayniqsa, Rus va boshqa ovro'pa olimlarining bir tomonlama, mustamlakachi kayfiyatda yozgan asarlaridan tarix ilmini o'rganmaslik kerakligini, buning uchun esa Turkiy tilida, asl Turkistonlik tarix bilimdonlari yozajak bir kitobga ehtiyoj borligini ta'kidlagan.

"Bugun ko‘zimizg‘a ko‘rinmayturgon nimarsalar avvalgi zamonda yo‘q edi. Xudoning odamlarg‘a bergan aql va tadbiri soyasinda birin-birin chiqorildi. Va ham muni bir toifa ixtiro qilmadi, balki har zamonda har kim tarafidan chiqorildi. Tarixdan bexabar ba’zi kishilar va yoinki dushmanlar musulmonlarni avvaldan oxirg‘acha nodon, vahshiy ko‘rsaturlar. Musulmonlar dunyog‘a hech nima ixtiro qilmadi… derlarki, ul g‘alatdur. Va har bir sharaf va hunarmandlikni, bukungi faranglarg‘a isnod bermoq ham to‘g‘ri emas. Chunki dunyodan o‘tganlar o‘z navbatlarinda ishlab, hunar ko‘rsatib o‘tdi. Va ushbu kungi ixtirolar uchun asbob hozirlab qo‘ydi. Va hozir faranglar navbatidur. Bir zamon kelurki, navbat boshqalarg‘a tegar, bul dunyoning odatidur."

Yuqorida Behbudiyning "Oyna" jurnali uchun tayyorlagan "Tarixi ixtiroyi bashar" ruknining so'zboshini keltirdik. Bu erda Behbudiy Yevropa olimlarining jahonning tamadduniga faqat o'zlari hissa qo'shganlari, musulmon xalqlarining esa doim johil va vaxshiy bo'lib kelganlari haqidagi qarashlariga raddiya berib tarix sahnasida islom olimlarining ham zalvorli ishlari borligini ta'kidlab o'tadi. Shundan keyin "oyna" jurnalida shaxsan Behbudiy rahbarligida "Tarix" rukni chop etib borilgan va bu maqolalar o'z davri uchun ajoyib tarix dasturi bo'lganligi ayni haqiqat.

Behbudiy hayoti davomida 18 ta vaqtli matbuotda 200 dan ziyod maqolalar chop ettirdi, "Behbudiya kutubxonasi" va "nashriyoti Behbudiya" kabi favqulotda muhim tashkilotlarga asos soldi. U yozgan maqolalarda, chop ettirgan va yig'gan kitoblari orasida tarix ilmi va uni o'rgatish borasida juda ko'p misollar uchraydi.

Xulosa. Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining eng yirik vakillaridan biri bo‘lib, o‘zining asarlari, pedagogik faoliyati va ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan xalqni milliy uyg‘onishga, mustaqillikka va ma’rifatga chorladi. Uning “Turkiston qayg‘usi” maqolasi, dramalari va pedagogik qarashlari zamonaviy o‘zbek jamiyatining ma’rifiy va madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Behbudiyning hayoti va faoliyati millatni o‘z kelajagini qo‘lga olishga undagan,

xalqning ilm-fanga, ma’rifatga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otgan buyuk ma’rifatparvar siymo sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Behbudiy, M. (1914). “Turkiston qayg‘usi”. Toshkent: Turkiston Matbaasi.
2. Fitrat, A. (1926). “Qiyomat”. Toshkent: Chulpon nashriyoti.
3. Karimov, I. (2001). “O‘zbekistonning ma’rifatparvarlik harakati’. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
4. Alimov, M. (2013). “Jadidlar va ularning milliy uyg‘onish harakatidagi o‘rni”. Toshkent: Ma’naviyat.
5. Turdiyev, S. (2017). “O‘zbek jadidlari va ularning ilmiy merosi”. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
6. «Oyna» jurnali, 1914 yil, 38-son, 898—900-betlar.
7. «Oyna» jurnali, 1914 yil, 28-son, 531—534-betlar.
8. Mamudxo’ja Behbudiy, “Zarafshon” gazetasi, 1923-yil, 25-mart.
9. Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy. –T.: Yozuvchi, 1994.
10. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash
11. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, akademnashr - 2008
12. Karimov N. "Mahmudxo'ja Behbudiy" - Toshkent 2010

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TA’LIM TIZIMINI ISLOH QILISHDAGI HARAKATLARI

Nihola O‘ktamova Shuxrat qizi
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Psixologiya” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqola ayollar huquqlari, ayniqsa, qizlarning ta’lim olishiga bo‘lgan e’tiborni targ‘ib qilgan, sovet rejimi davrida siyosiy ta’qiblarga uchragan jadid - Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, uning jadidchilik harakatlaridagi ishtiroki, ta’lim tizimini isloh qilish va yangi usul maktablarini ochish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlardan iborat.

Kalit so‘z va iboralar: dramaturg, domulla, boy, maktab, tahsil olish, boylik, teatr, ilm, ziyoli.

Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu bebaho boylikni biz qancha faol targ‘ib qilsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi.
SH.M.Mirziyoyev

Xalqimiz erishgan buyuk istiqlolning ne’matlaridan biri adabiyotimiz tarixini to‘laqonli, teran o‘rganish, ulug‘ sohibi qalam ijodkorlarimiz merosini har jihatdan munosib baholash imkoniyatining yaratilishi bo‘ldi. Badiiy asarlarning asosiy xislati shundan iboratki, ularda muayyan millatning tili butun jozibasi bilan namoyon

bo‘ladi. Bu asarlar adabiy til me’yorlarini mustahkamlabgina qolmay,balki uning boyishi, yanada sayqallanishi,ta’sir doirasining kengayishiga ham sezilarli turtki beradi. Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan ushaltiruvchi inson sifatida maydonga keldi. Adib Turkiston jadidchilik harakatining faol namoyondasidir. U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik jadid, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan taniqli va atoqli birinchi dramaturgi, noshir, jurnalist edi [1, 167-b.].

Taniqli dramaturg, publisist, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati etakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy Samarqandda tug‘ilgan. Behbudiy Ahmad Yassaviy avlodidan, qozixonada qozi, mufti darajasigacha ko‘tarilgan. Behbudiy “Oyna” gazetasi asoschisi, muharrir I.Gasprinskiyning “Tarjumon” gazetasini doimiy muallifi bo‘lgan. Mahmudxo‘ja 200 dan ziyod o‘zbek va tojik tillaridagi nashrlar muallifi. Xususan, "Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy" - "Kiskacha umumiy jug‘rofiya" (1903), "Kitob-ul-atfol" - "Bolalar uchun kitob" (1904) va boshqalar [2, 12-b.]. Behbudiy 1911-yilda “Padarkush” dramasini yozdi. Bu birinchi o‘zbek dramasi edi. Drama tuzilishi 3 parda, 4 manzaradan iborat. Milliy fojiaga asoslangan bu asarni dastlab nashr qilish biroz cheklanadi. Bunga esa o‘sha zamondagi davlat tuzumi sabab bo‘lgan. Asar mazmuni o‘qimagan va johil farzandning o‘z otasini o‘ldirishi haqida edi. Padarkush so‘zining ma’nosi “ota qotili” degan ma’noni beradi. Dramada Boy, uning o‘g‘li Toshmurod, yangi fikrli Domla, ruscha tahsil olgan Ziyoli, boyning mirzasi Xayrullo, boyning qotili bo‘lgan Tangriqul va boshqa obrazlar qatnashadi. Dramaturg ilgari surgan ma’rifatparvarlik g‘oyasi shu obrazlarning o‘zaro suhbatlari, bahs-munozaralari jarayonida namoyon bo‘ladi:

BOY. Yo‘q, yo‘q. Men o‘g‘lumni o‘qutmoqg‘a o‘ylaganim yo‘q.

DOMULLA. Ajoyib, sabab nedurki, o‘qutmaysuz? Vaholanki, o‘qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur.

BOY. Mani xayolimg‘a dunyoning sababi, izzati — boylik. Oxiratga bo‘lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo‘lur. Chunonchi, biz ko‘ramizki, odamlar boyni mullodan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar ko‘paydi. Katta boylar chilen bo‘lub, har kim chilenlarni izzat qilur, hatto, ishi tushaturg‘onlar chilen molini qimmat olur, azbaski, chilen iltifotiga olmagan odamlarga banklar pul bermaydurki, so‘ngra muomiladorlar sinib, mayda-mayda bo‘lur, bildingizmi?

DOMULLA. Bu so‘zlaringiz hozirgi zamonaga ma’qul, lekin chilen va boylarni izzatlari vaqtincha va xalqni ko‘zi ochilgunchadir. Holbuki, alarni ishi

tushganlar izzat qilur, mulloni bo‘lsa, barcha xalq izzat qilur, ya’ni mulloni ilmi izzat qilinadur.

Yuqoridagi suhbatda o‘sha davrning boy nasabli kishisi o‘z o‘lini nega o‘qitmasligini izohlagan. Vaholanki, domla aytganidek, boylikning mol-dunyoning lazzati vaqtincha bo‘ladi. Ilmli odamni xalq izzat qiladi uning ilmini hurmat qiladi.

BOY. Bu fikringiz g‘alat, chunki mani savodim yo‘q, bovujud, bu shahrimizning katta boylaridandurman va har ishni bilurman.

DOMULLA. Siz ilgari zamonda bir navi ila boy bo‘lubsiz, ammo endi boy bo‘lmoq nari tursun, faqat ro‘zg‘or o‘tkarmoq uchun (ham) ilm kerak. Ko‘ramizki, yigirmao‘ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo‘lig‘a o‘tdi, muni sababi bizlarning o‘qumag‘onimizdur. O‘qumagan boyvachchalarni ko‘ramizki, ota molini barbod etar va oxiri xor va zor bo‘lur, binobarin, o‘g‘lungizni o‘qutmoqni sizga taklif qilurman.

Suhbatdan shu ma’no aniqki, o‘qimagan bola boy bo‘lsa ham o‘zidagi boylikni sovurib yuborishi mumkin. Shu sababdan o‘sha davrdagi savdo va tijorat ishlarining ko‘pi boshqa millat qo‘liga o‘tib ketgan.

DOMULLA (odamlarga qarab). O‘qumoq va mulla bo‘lmoq uchun pul kerak, badavlatlarimizni holi bul, bas, bu ketish ila nauzambilloh, dunyo va oxiratga rasvo bo‘lurmiz, o‘qumoq barcha musulmonga, erkak va yo xotin bo‘lsun, farz edi. U qayda qoldi? Oh, voy bizni holimizga! (Boyga qarab). Boy, man sizga amri ma’ruf etdim va menga shariat bo‘yicha lozim bo‘lgan ishni bo‘ynumdan soqit qildim. Inshoolloh, mo‘ylab chiqarib, alifni tayoq demayturgan o‘g‘lungiz holini ko‘rarmiz va o‘qutmaganingiz uchun gunohkor bo‘lursiz.

Darhaqiqat, Behbudiy ilm olish har bir erkak va ayol uchun farz ekanligini ushbu “Padarkush” dramasida yana bir bor eslatib o‘tgan. Oilada ota-onaning ta’limga sarf qilingan sarmoyasi pirovardida farzandning kamoloti o‘z natijasini berishi tabiiy. Ko‘z oldimizga Boy obrazi orqali pul topishga, mol-dunyo to‘plashga aqli etgan ammo farzand tabiyasi uchun vaqtini ham, moddiy imkoniyatini ham qizg‘ongan. johil, qoloq ota qiyofasi keladi. O‘zining ham ilm va ma’rifatdan bexabarligi bois, Domlaning ham, Ziyolining ham nasihat va maslahatlariga quloq tutmaydi; savollariga qo‘pollik bilan, beparvo, loqayd, hatto farzandini o‘qitish masalasini jiddiy deb tushunish o‘rniga ensasi qotadi. Boyning dunyoqarashini inson qadri ham, obro‘- e’tibori ham boylik bilan o‘lchanadigan mavqe, va badavlatligi tufayli hamma uni izzat-hurmat qiladi degan razilona qarash egallab olgan [3, 71-b.].

Dramada boyning eng katta xatosi ziyoli kishining so‘zlariga quloq solmasdan, quloq solsa ham, noilojlikdan, mudrab, o‘z jigarbandining taqdiriga befarq qaraganidir. Boyning arzandasi Toshmurod do‘st kim, dushman kim - farqiga bormaydi. Shuning oqibatida Tangriqul bilan o‘z uyiga o‘g‘rilikka borishga rozi

bo‘ladi. Maishatparast sheriklari bilan otasining sandiqdagi mol-mulkini o‘marish yo‘llarini rejalashtirib, ularni o‘z uyiga boshlab boradi. O‘g‘rilik qilayotgan o‘z farzandini sezgan otasini o‘ldirib, pulini olib ketadi. Boyning arzandasi Toshmurot o‘qimagani, ko‘cha changitib yurgani sabab ham o‘zidan “tajribali” o‘g‘rilarga ergashadi. Mavzuga diqqat qilinsa, oradan bir asrdan oldinroq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, ayni zamonamizda ham o‘qimagani bois turli aldovlarga ishonib, oq-qorani ajratolmay kabih yo‘llarga kirib qolayotgan yoshlar uchrayotgani fikrimizni dalillaydi. Drama xalqqa kuchli ta’sir ko‘rastdi. Dramadan ta’sirlanib Abdulla Qodiriy “Baxtsiz kuyov” pyesasini yozgani bizga ma’lum. Abdulla Qodiriy ilk pyesasini qanday yaratganini o‘zi haqidagi xotiralardan bilib olishimiz mumkin: “1913-yilda chiqqan “Padarkush” pyesasi ta’sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborg‘onimni o‘zim ham payqamay qoldim”, degandi u 1915-yilda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’lim tizimini isloh qilish o‘sha vaqtdagi ilmsizlikni tugatish uchun Behbudiy bor kuchini safarbar etgan. Ilm egallash inson hayotida qanchalik muhimligini o‘z asarlarida ochib bergan. Bunga yorqin misolni “Padarkush” dramasi ayrim joylar tahlilini yuqorida ko‘rdik. Bugungi zamon talabi ilmli bo‘lish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar.-T.:”Ma’naviyat”. 1997.
2. B. To‘xliyev, B. Karimov, K. Usmonova. Adabiyot - 2017.
3. O‘zbek adabiyoti. O‘rta maktablarning 11-sinfi uchun darslik. –T.: “O‘qituvchi”, 2004. – B.71
4. Saydulla Mirzayev, XX asr O‘zbek adabiyoti. - 2005.

BEHBUDIY SABOQLARI YOKI “G’OYAGA QARSHI G’OYA, MAFKURAGA QARSHI MAFKURA”

O’rinov Umidjon
O’zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti Sirtqi bo’lim Tarix yo’nalishi 4-kurs talabasi, tel: 904566849

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi zamon yoshlarining ta’lim-tarbiyasida buyuk Jadid bobolarimiz jumladan Maxmudxo’ja Behbudiy adabiy me’rosining qanchalar muhim o’rin tutishi va millatimizga yuksak manavyatli yoshlarni tarbiyalashda zamonaviy usullar bilan birga foydalanish zarurligi aks ettirilgan. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madanyatning salbiy oqibatlariga qarshi Buyuk jadid bobolarimiz o’gitlaridan foydalangan holda „G’oyaga qarshi g’oya Mafkuraga qarshi mafkura” tamoyili asosida qarshi qarshi kurashish g’oyasi aks ettirilgan.

Kalit so’zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, Padarkush, “Milliy mafkura,, Maxmudxoja Behbudiy, Jadidlar, I.A.Karimov, “Yuksak manavyat – Yengilmas kuch,, asari.

Biz XXI asir yoshlari zamonaviy texnalogiyalar va ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan bir davirda yashamoqdamiz. Bu davirda eng oson ish bu ahborot

tarqatishdir. Afsuski tarqatilayotgan ahborot va kontentlarning 90% ga yaqin qismi biz yoshlar uchun keraksiz va zararli ma’lumotlardir. Xohlaymizmi yo’qmi barchamiz kundalik faolyatimizda ,, **Google, Instagram, Yutube, Telegram va boshqalar’’** kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqdamiz. Vaqt o’tgan sayin ular hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda ,buni tan olmay ilojimiz yo’q. Lekin yomon tomoni shundaki endigina dunyoni anglay boshlagan, hali oq-u qorani farqlolmaydigan yosh bolalar ham hayotining eng gullagan davrini telifon va ijtimoiy tarmoqlar ta’siri ostida o’tkazmoqdalar. Ba’zi ota-onalar bolalariga o’zlarini bezovta qilmasligi yoki shovqin solmasligi uchun o’z qo’llari bilan ularga telifon tutqazmoqdalar. Bu degani ota-onalar o’z qo’llari bilan jondan aziz jigarbandlarini miyyasini zaharlashga sababchi bo’lmoqdalar! O’zingiz bir o’ylab ko’ring xali xarf tanimaydigan yosh bola ijtimoiy tarmoqlarda kattalarga mo’ljallangan kontentlarni ko’rib ulg’aymoqda. Axir bu ,,**Fojea’’** emasmi?

Endi siz bu bolani hechqachon ertaklarga ishontirolmaysiz, qalbiga yaxshilik va ezgulik tuyg’ularini ibratli hikoyalar orqali singdirolmaysiz. Bu bolani allaqachon G’arbning milliy mentalitetimizga yot bo’lgan zararli ,,**G’oya va Mafkuralari**’’ miyyasini zaharlab bo’lgan. Endi unga harqanday pand nasihatlar bilan ham ta’sir o’tkazolmaysiz. Chunki u oladigan narsasini ,, **Ekran ortida turgan g’azarli niyatdagi O’qituvchilaridan olib bo’lgan’’** nima uchun aynan ,,**O’qituvchilar’’** atamasini ishlatishimiz kerak? Chunki siz o’z ishlaringiz bilan band bo’lib bir yoki ikktagina farzantingizni tarbiyasiga va hulq-atvoriga e’tiborsiz bo’lib ularni eplolmay ularni ,,**Ijtimoiy tarmoqlar qo’liga topshirib**’’ qo’ygan paytingiz. Ular minglab kilametir olis masofada turib ,, **Orom kursiga suyangancha oddiy bir telifon yoki kampyuter vositasida milyonlab bolalarning miyyasini zaharlaydigan vidyo va o’yinlar tayyorlab ularga o’ziga xos bir O’qtuvchi! sifatida saboq bermoqda**’’

To’g’ri bu gaplar odamga juda alam qiladi lekin hohlaymizmi yo’qmi bu achchiq haqiqat. Bir narsani esdan chiqarmasligimiz kerakki **„Bolalarimizga biz tarbiya bermasak boshqalar tarbiyalaydi. Agarda biz yosh avlodlarni „Komil inson” sifatida tarbiyalamasak boshqalar ularni „Ongsiz Zombilarga’’ aylantirishadi va hohlagan ishlarida foydalanadi’’** Eng achinarlisi shundaki bizga begona milyonlab bolalarga tarbiya berish uyoqda tursin hatto o’z farzandimizga ham tarbiya berishga dankasalik qilamiz. Oxir oqibatda esa hali 16 yoshga ham to’lmagan farzandingiz sizga aqil o’rgata boshlaydi. Hattoki sizga hayot saboqlaridan dars o’tib enternetdagi **„Chalasavod Biloger yoki Tiktokerlarni’’** sizga o’rnak sifatida ko’rsata boshlaydi, ulardek boy va mashhur bo’lishingizni hohlaydi. Chunki farzantingizni tarbiyalagan siz emas aksincha ular **„Ekran orqasidagi O’qtuvchilar’’** o’zingiz bilmagan holda bolangizni ular tarbiyasiga topshirib qo’ymoqdasiz va farzandingiz ularning oson o’ljasiga aylanib qolmoqda.

Bu qanchalik ,,**Daxshatli”** axir bu Millatimiz va asirlar davomida avloddan avlodga o’tib kelayotgan milliy qadiryatlarimiz ildiziga bolta urish emasmi?

Aslida bu darajaga etishiga o’zimiz va bizning loqaydligimiz, farzandlarimiz tarbiyasiga e’tiborsizligimiz sababchi. ,,**Farzand uchun eng birinchi o’qtuvchi bu uning Ota-onasidir!”** agarda ular farzandiga uyda yaxshi tarbiya bermasa maktabdagi o’qituvchilari qanchalik tajribali va bilimli bo’lmasin qo’llaridan hechnasa kelmaydi, chunki ,,**Qush uyasida ko’rganini qiladi’’** degan maqol buning yaqqol isbotidir. Farzand daslabki va asosiy tarbiyani uyida oladi. Maktabdagi bilim va tarbiya esa faqatgina yordamchi bilimlarni bera oladi holos. Hamma ota-onalar ham Fizik ,Matematik yoki Tarixchi bo’lolmasligi mumkin lekin harqanday ota-ona o’z farzandlariga **„Yaxshi tarbiyachi”** bo’loladi. O’z bolalariga odob ahloq, kattalarga hurmat tuyg’usini, harqanday ota-ona o’rgata olishi mumkin. Bu esa jamiyatimizga aqil-zakovati va hulq atvori yuksak avlodlarni etishib chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski ko’pchilik ota-onalarning o’zlari ham telifon va ijtimoiy tarmoqlarga tobora berilib ketmoqdalar, farzandlari bilan tarbiyaviy soat o’tkazishga vaqtlari bor ammo hohishlari yo’q!

Bu esa kelajakda faqatgina o’zlariga qiyinchilik olib keladi xolos. Loqaydlik va farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik qanchalik fojiaviy oqibatlarga olib kelishini bundan 100 yillar avval buyuk marifatparvar ,,**Turkiston jadidlari Otasi’’** deb ulug’langan jadid bobomiz Maxmudxo’ja Bexbudiyning ,,**Padarkush’’** asarida bu xolat o’zining yaqqol isbotini topgan.

Bir asrdan ortiqroq vaqt o’tgan bo’lsa ham o’z ahamyatini yo’qotmagan o’z yaratuvchisi tomonidan ,,**Milliy fojiamiz’’** deb atalgan ,,Padarkush’’ asari va undagi voqialar xozirgi zamon yoshlari uchun ham aynan tegishli desak adashmagan bo’lamiz. Keling avvalo ,,Padarkush’’ asari haqida qisqacha malumot olsak. Bu asar 1911-yilda buyuk marifatparvar jadid bobomiz Maxmudxo’ja Behbudiy tomonidan yozilgan bo’lib ,,Birinchi milliy sahna asarimiz’’ hissoblanadi.

,,Padarkush’’ asarida ilimsizlik va johillik o’z boshiga etgan ota va o’g’il taqdiri hikoya qilinadi. Bu asarda boy ota o’g’lini o’qitish va ilim ma’rifatga chorlash o’rniga xohlagan ishini qilishiga va zararli odatlarga tobe bo’lishiga sharoit yaratib beradi. Bilimsizlik botqog’iga botgan ota atrofidagi ilimli insonlardan unga bergan pand-nasihatlariga quloq solmay o’g’liga ta’lim berishdan bosh tortadi. Natijada esa erkatoy va bezori bo’lib o’sgan o’g’il o’ziga o’xshagan ongi buzuq va betayinlar bilan do’stlashib kayfu-safo va maishatga berilib ketadi. Kunlardan birida esa navbatdagi ko’ngilxushlik uchun pul kerak bo’lganida nodon o’g’il sheriklarini gapiga kirib o’z uyiga o’g’irlikka tushadi va shu paytda to’satdan uyg’onib ketib ularni to’xtatmoqchi bo’lgan o’z otasini o’ldirib qo’yadi. Natijada yoshlikda berilmagan to’g’ri ta’lim tarbiya tufayli ,,Jaholat va nodonlik’’ jamiyatni bir bo’lagi bo’lgan butun boshli oilani yakson qiladi. Bu sahna asari yuz yillar avval hali

zamonaviy texnalogiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yaratilishidan ancha oldin Marifatparvar jadidlarimiz tomonidan ,,**Milliy Fojia’’** deb atalgan. Qani endi o’zingiz bir o’ylab ko’ringchi **„Nimaga?’’** hozirgi zamonda 100 yillar avval Behbudiy bobomiz ogohlantirgan voqealar 100 karra o’z isbotini topmoqda. Nega ,,Padarkushlar’’ ko’payib ketmoqda eng achinarlisi bu voqealarni biz oddiy holdek qabul qilmoqdamiz, hech hayron bo’lmaymiz, hammasiga o’tta loqayt qaraymiz. Aslida eng katta hatoyimiz va Maxmudxo’ja Behbudiy iborasi bilan aytganda **„Milliy Fojeamiz’’** shu emasmi.

Jadid bobolarimiz biz yosh avlodlarga bebaho va qimmatli asarlar qoldirib ketganlar. Bizlardan esa faqatgina shu asarlarni qunt bilan o’rganib ongimizni va manavyatimizni yuksaltirish talab etiladi holos. Bu asarlarni o’rganish ham albatta bizning foydamizga hizmat qiladi, o’zlaring shirin jonlarini hatarga qo’yib o’z xalqi va kelajak avlodlari uchun o’tta qaltis zamonlarda yashasiga qaramay erk va ozodlikni targ’ib qilishgan. Buyuk jadid bobolarimizdan **Maxmudxo’ja Bexbudiy, Abdulla Avloniy , Abdulla Qodiriy, Abduhamid Cho’lpon, Hamza Hakimzoda, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Abduqodir Shakuriy, Is’hoqxon Ibrat** va boshqa xalqimizning jonkuyar marifatparvarlarini aytishimiz mumkin.
Turkiston o’lkasida jadidchilikni tarqalishining tashabbuskorlaridan biri bo’lgan ilk jadid maktabilari asoschisi **Maxmudxo’ja Bexbudiy** xayoti va ijodi haqida to’xtalsak.

Maxmudxo’ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand shaxri yaqinidagi Baxshitepa qishlog’ida imom-xatib Behbudxo’ja Solihxoja o’g’li xonadonida tug’ilgan . Otasi Ahmad Yassaviy avlodidan bo’lib , Otasining buvasi Niyozxo’janing kelib chiqishi Urganchlik bo’lib Samarqantga XVIII asir oxirida amir Shoxmurod hukumronlik qilgan (1785-1800) davirlarda ko’chib kelgan. Behbudiy daslab Qur’on ilmini otasidan o’rgangan, keyinchalik 6-7yoshlarida tog`si Muhammad Siddiq qo`lida o`qib savod chiqargan. O`n besh yoshida boshqa bir tog`asi Mulla Odil o`zi mudarrislik qilgan madrasada o’qitib ta’lim bergan[2].
Behbudiy 18 yoshida Chashmai ob volostida qozi vazifasida ishlagan to’g’asi Muhammad Siddiq qo`l ostida mirzalik qilgan. Keyinchalik Maxmudxo`ja Behbudiy buxorolik do`sti Hoji Baqo bilan 1899-1900- yillarda birga Makka va Madinada haj safariga otlangan. Shu sababli Rossiya , Arabiston, Misr ,Turkiyani kezib chiqqan. Safar jarayonida sayohatning sayohati davomida yangi maktab (usli jadid) ochish fikri rivojlanib boradi. 1914-yilda ikkinchi martta haj safari chog’ida Shom, Quddus, Odessa, Istambul va boshqa shaharlarni sayohat qilib chiqadi. O’z sayoti jarayoni tassurotlarini Samarqantda nashir etilayotgan ,,Oyna’’ jurnaliga yuborib turgan. 1903-1904-yillarda Moskiva ,Peterburg, Orenburg, Qozon va Qrimda bo’lgan. Maorif sohasida Rossiya va tatar arboblari tajribasini o’rgangan. Ismoil G`asparali bilan uchrashuvi keyingi hayotiga katta ta’sir ko’rsatdi.

Maxmudxo’ja Bexbudiy tomonidan qimmatli asarlar yozib qoldirilgan masalan: **Padarkush, Ehtiyoji millat, Bayoni haqiqat, Yoshlarga murojaat, Ikki emas to`rt til lozim, Behbudiy.Tanlangan asarlar,** kabi bebaho adabiy merosi bugungi kungacha saqlanib qolgan.

„Behbudiyni xotirlab’’

Yurarkanman xazonrezgi kuz oqshomlari,
Samarqandning ko’chalari eslatar sizni.
Daraxlar ham barglaridan yozib payondoz,
Sog’inmoqda g’amgin bo’lib siz bosgan izni.

Aytolmasman ,,Behbudiylar’’ endi qaytmaydi,
Afsus endi ko`chalardan yana o`tmaydi.
Yo`q-yo`q sindirmayman men ishonchimni,
Qalbimdagi ,,ilim nuri’’ aslo so`nmaydi.

Jadidlarning o`lgani yolg`on,
Ular ruhi mangu barhayot,
Hali dunyo bo’ladi hayron,
Ilim nurin taratadi kelajak avlod.

Biz yoshlar ko’zida hayajon-hayrat,
Yurtboshim bizlarga bermoqda madad.
Ilm-u urfon gulshanida bo’lamiz tengsiz,
Shunda dunyo maqullaydi aytgan so’zimiz.

Hali kelar shundayin damlar,
Qaytib kelar Qodiriy-u, shoir Cho’lponlar.
Behbudiylar bu ko’chadan yana o’tadi,
Barchamizga ilm nuri hamroh bo’ladi.

Yangi zamon jadidlari bizning o’zimiz,
Vatanimiz yuksalganin ko`rar ko`zimiz.
,,Yangi O`zbekiston’’ – yangi imkonyat!
Yangi daholarni kashf etar albat.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov qalamiga mansub **„Yuksak manavyat – Yengilmas kuch’’** asarida keltirilgan Giloballashuv va Mafkuraviy hujumlarning bugungi kunimizga kelib qanchalik jiddiy havf-hatarga aylanib borayotganini ko’rib turibmiz. Ayniqsa ijtmoiy tarmoqlarning kun sayin rivojlanib borishi tufayli yosh

bolalar tarbiyasida va dunyo qarashida salbiy o’zgarishlar kuzatilayotgani bungi zamonamizda odatiy holga aylanib bormoqda. Islom Karimovning “ Yuksak manavyat – engilmas kuch,, asarida ilgari surilgan **“ G`oyaga qarshi g`oya, Mafkuraga qarshi mafkura,,** tamoyili zamirida ma’naviy va mafkuraviy kurashning mohiyati yotadi. Ushbu atama jamiyatni rivojlantirish, mustahkamlash va milliy qadiryatlarni mustahkamlash va milliy qadiryatlarni himoya qilish masalalariga bevosita bog`liq. Har bir g`oya yoki mafkura o’zining ta’sir doirasini kengaytirishga intiladi. Bu jarayonda turli mafkuralar o`rtasida raqobat yuzaga keladi. Islom Karimovning fikricha bunday kurashda faqat kuch yoki kuch ishlatish bilan emas , balki raqibning g`oyasiga qarshi o’z g’oyamizni, mafkurasiga qarshi o`z mafkuramizni qarshi qo`yish orqaligina muvaffaqiyatga erishish mumkin. Milliy mafkura har qanday begona va zararli g’oyalarga qarshi asosiy himoya vositasi hissoblanadi. G`oyalar urishida g`alaba qozonish uchun o’z mafkuramizning mazmunini boyitish va uni xalq ongiga chuqur singdirishimiz zarur. Gilobalizatsiya jarayonida begona madanyatlar va g’oyalar ta’siri kuchayadi. Shu boisdan millatimizning o’zligini va ma’naviy mustaqilligini saqlab qolish uchun chet el mafkuralariga qarshi milliy g’oyalarini ilgari surishimiz shart va zarurdir.

O`zbek xalqining asirlar davomida saqlanib kelayotgan milliy qadiryatlari va manaviy merosini saqlash va uni ommaviy madanyatning salbiy tasiridan asrab kelajak avlodlarga etkazish buyuk marifatparvar jadid bobomiz **Maxmudxo’ja Behbudiy** va birinchi prezidentimiz **Islom Karimov** qalbidagi asosiy maqsad vazifalari hisoblangan. Biz **„Yangi O`zbekiston’’** yoshlari ham shunday buyuk ajdodlarimizdan o’rnak olib ularning ishlarini davom ettirishimiz kerak va milliy manavyatimizni zaharlovchi zazarli g’oyalarga qarshi o’z milliy g’oyamiz bilan javob qaytarishimiz oldimizda turgan asosiy vazifadir.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Islom Karimov „Yuksak manaviyat- Yengilmas kuch’’. Manaviyat nashiryoti Toshkent. 2008-yil.
2. B. Qosimov „Behbudiy va jadidchilik’’ Yoshlik jurnali, 1990-yil, 1-son
3. O’rinov Umidjon, Ahrorova Madina „ Atom bombasidan kuchliroq havf yoki Jadidlarimiz ogohlantirgan Milliy fojiamiz’’ Talimning zamonaviy transformatsiyasi Respublika ilmiy konferensiyasi 3-to’plam, 1-son. yanvar 2024. www.tadqiqotlar.uz

MAHMUDXO’JA BEHBUDIYNING ILMIY FAOLIYATI

Rahmonqulova Marg’uba Ahatovna
Samarqand davlat muzey-qo’riqxonasi O’zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi Doimiy va ko’chma ko’rgazmalar bo’limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizning taraqqiyoti va ravnaqi yo’lida o’chmas iz qoldirgan Mahmudxo’ja Behbudiyning sermashaqqat hayoti, ilm yolidagi izlanishlari, xalqni bir g’oya atrofida birlashtirishi haqida so’z yuritilgan. Shuningdek Behbudiy faoliyatining hozirgi yosh avlod uchun ibrat bo’la oladigan jihatlari keltirilib o’tilgan.

Аннотация:В этой статье рассказывается о плодотворной жизни Махмудходжи Бехбуди,оставившего неизгладимый след на пути развития и процветания нашей страны, его исследованиях в области науки, объединению народа вокруг одной идеи.Также были упомянуты аспекты деятельности Бехбуди, которые могут послужить примером для нынешнего молодого поколения.

Abstract: Thisarticledescribes the fruitful life of MahmudhojiBehbudi, who left an indelible mark on the path of development and prosperity of our country, his research in the field of science, uniting the people around one idea. Aspects of the Behbudi's activities that can serve as an example for the current younger generation were also mentioned.

Kalitso’zlar: Mahmudxo’ja Behbudiy, yangi maktab, Behbudiy asarlari, matbuot ishlari, Behbudiya kutubxonasi, jadidchilik, “Padarkush”dramasi.

Ключевые слова:Махмудходжа Бехбуди, новая школа, произведения Бехбуди,издательская работа, библиотека Бехбудия, джадидизм, драма “Падаркуш”(“Отцеубийца”).

Keywords: Mahmudhoja Behbudi, new school, Behbudi's works, publishing, Behbudi library, Jadidism, drama "Padarkush"(“The parricide”).

XX asr o’zbek adabiyotining atoqli namoyondasi, milliy dramaturgiya va sahna san’atining shakllanishiga munosib hissa qo’shgan, jadidchilikning Turkistondagi asoschisi Mahmudxo’ja Behbudiy 1875-yil Samarqandda tug’ilgan. Otasi Behbudxo’ja Solihxo’ja o’g’li Turkistonlik Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo’ja Urganchlik bo’lgan.

Oiladagi muhit undagi ma’rifat va adabiyotga bo’lgan qiziqishning tezroq ro’yobga chiqishiga imkon tug’dirdi. Behbudiyning otasi Islom huquqshunosligi bo’yicha yirik mutaxassis bo’lib bu borada ko’plab risolalar yaratgan edi. Bu o’z navbatida Mahmudxo’jaga ta’sir o’tkazmay qolmadi. U keyinchalik bu haqida so’zlab, hatto maqolalaridan birida otasi yozgan “Hidoya” asarining o’z taqdirida katta rol o’ynaganini alohida qayd etadi.

Ma’rifatparvar olim o’z davrining diniy va dunyoviy ilmlarini puxta egallab, Samarqand shahri yaqinidagi bir qishloqda jahon ilm- fani yutuqlaridan saboq berishga mo’ljallangan yangi usul maktabini ochdi va bu maktab uchun qator darsliklar yaratdi. 1904-yil “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”), 1905-yilda “Risolai jug’rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”), 1906-yilda “Muntaxabi jug’rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”),1908-yilda “Kitobatul atfol”(“Bolalar xati”), 1908-yilda “Amaliyoti islom”,1909-yilda “Tarixi islom” kitoblarni nashr ettiradi.

Behbudiy 1913-yildan boshlab matbuot ishlari bilan shug’ullana boshlaydi. Shu yilning aprel oyida Samarqand gazetasiga asos sola boshlaydi. Gazeta ikki tilda, o’zbek va tojik tillarida haftada ikki marta 400-600 nusxada chop etilgan. 1913-yilning 20-avgustidan “Oyna” jurnalini chiqara boshlagan. Bu jurnal o’zbekcha

bo’lib, maqola, she’r va e’lonlar rus tilida ham berib borilgan, undagi ma’lumotlar Eron, Kavkaz, Afg’oniston, Turkiya va Hindistongacha tarqalgan. Jurnalda millatning tarixi, haq-huquqi, adabiyot hamda til masalalari, jahondagi ahvol to’g’risida maqola va munozaralar ham berib borilgan. Behbudiy kitob nashrini ham yo’lga qo’ygan. A.V.Pyakovskiy 1913-yili Behbudiy bosmaxonasida Fitratning “Bayonoti Sayyohi hindi” asarini rustiliga tarjima qilib, nashr ettirgan. Bundan tashqari Turkiston, Buxoro va Xivaning xaritasini ham bosib chiqargan. Behbudiy 1917-yilning 16-23-aprelida Toshkentda bo’lib o’tgan Turkiston musulmonlarining qurultoyidagi nutqida musulmonlar orasidagi har qanday ixtiloflarga qarshi chiqib xalqni ulug’ maqsad yo’lida birlashishga chorlagan.

Bu davrda jadidlar va milliy ziyolilar oldida uchta yo’l bo’lib, birinchisi: xorijiy davlatlarga chiqib ketish, ikkinchisi: qo’lida qurol bilan o’z fikr va g’oyalarini himoya qilish, uchinchisi: yangi tuzilgan hukumat bilan murosa yo’liga kirib, xalq taraqqiyoti, ma’rifati yo’lida xizmat qilish bo’lgan. Turkiston jadidlarining etakchisi Behbudiy xalq orasida katta obro’-e’tiborga ega bo’lgan. Behbudiyning ocharchilikka barham berish va oziq-ovqat muammosini bartaraf qilishga oid maqolalari ham e’lon qilingan. Kuz oylariga kelib Behbudiy sovetlar olib borayotgan siyosat mafkurasi noto’g’ri yo’nalishda ekanini anglab etib, mahalliy xalqlar uchun zararli degan qarorga kelgan. Natijada 1918-yilning noyabr oyiga kelib o’z vazifasidan ketishga qaror qildi.

Behbudiyning ijodiy ishlaridan biri “Behbudiya” kutubxonasining tashkil etilishi bo’ldi. Ma’rifatparvar olim birinchilardan bo’lib, kutubxona faoliyatini yo’lga qo’ygan. Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona ochilgan bo’lib, kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari va madrasa talabalarini zamonaviy ilmlar bilan shug’ullanishga undash bo’lgan. Ayni paytda kutubxona tuzilish jihatdan xilma xil va boy fondga ega bo’lgan. Chet el davlatlarida nashrdan chiqqan dunyoviy va diniy kitoblar, suratli jurnallar hamda gazetalar, ensiklopediya, lug’atlar, xarita va atlaslardan o’qib foydalanish mumkin bo’lgan. Kutibxonadagi kitoblar fondi dastlab 200, keyinroq 225 jildga etgan. Keyinchalik asta- sekinlik bilan kutubxona faoliyati susaya borgan. Bunga sabab o’lkadagi jadidlar va qo’shmachilar qarama-qarshiligi bo’lgan.

Behbudiy “Padarkush” dramasini 1911-yilda yaratgan. Dastlab u 1912-yilda gazetada nashr etilgan so’ng kitob holida chop etila boshlagan. Drama mazmun-g’oya jihatidan ancha yuqori bo’lib, dramadagi qahramonlar esa ikki qutbda ikki xil harakat bilan yashaydilar. Bir tomonda boy, o’g’li va unung gumashtalari bo’lsa ikkinchi tomonda domla, ziyoli obrazlar asar g’oyasini ochishda muhim o’rin egallaydi. O’zbek dramaturgiyasiga umuman, teatriga poydevor qo’ygan bu asar o’z davrida Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” kabi qissalarining yaratilishiga turtki bergan. Behbudiy

bir qator Sharq va G’arb tillari bilan yuksak madaniyat sohibi bo’lishi bilan birga umuminsoniy madaniyatning tolmas targ’ibotchisi ham bo’lgan. Behbudiyning xalq orasida ortib borayotgan obro-e’tibori nafaqat amirlik rahbarlari, balki bolsheviklarning ham reja va niyatlariga zid edi. 1919-yilning 25-martida Behbudiy ular chaqiruvi bilan Shahrisabzda qo’lga olinib, sirli bir tusda Qarshida Said Olimxon farmoni bilan qatl qilindi. Uning qatli haqidagi xabar o’sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin xabar qilinadi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi.

XX asr o’zbek adabiyoti va san’atida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan, millat ma’rifati, ozodligi, hurligi yo’lida mardonavor kurashgan ulug’ allomaning sermashaqqat va sermahsul faoliyati tarix sahifalaridan mangu o’rin egallaydi. Hozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma’rifiy meros o’z xalqining istiqloliga xizmat etmoqda.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbek milliy ensiklopediyasi. 1-tom. 2000 y.
2. Naim Karimov. Mahmudxo’ja Behbudiy. Toshkent 2010 y.
3. Aliyev A. Mahmudxo’ja Behbudiy. Toshkent.1994 y.
4. Qosimov B. Behbudiy va jadidchilik. O’zbekiston adbiyoti va san’ati jurnali.1990y.

SAMARQANDLIK JADID NAMOYONDALARINING MA’RIFATPARVARLIK FAOLIYATI VA TA’LIM TARBIYAGA QO‘SHGAN HISSASI

Ravshanova Orzigul Sayfullayevna
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi “Akademik faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi”

Annotatsiya: Ushbu maqola Samarqandlik jadid namoyondalarining ma’rifatparvarlik faoliyati va ta’lim tarbiyaga qo‘shgan hissasini o‘rganadi. Maqolada jadidchilik harakatining Samarqanddagi rivoji, yangi ta’lim tizimining tashkil etilishi, o‘zbek tilida ta’lim berish g’oyasi va jamiyatdagi ilmiy, siyosiy islohotlar haqida batafsil ma’lumot berilgan. Samarqandlik jadid namoyondalarining ta’limni yangilashdagi sa’y-harakatlari, ta’lim tizimini zamonaviylashtirish, o‘qituvchilarni yangi pedagogik metodlarga o‘rgatish, va ilm-fan sohasida amalga oshirilgan islohotlar haqida so‘z yuritiladi. Maqolada, shuningdek, jadidchilik harakatining Samarqand shahrida ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga ta’siri, o‘zbekistonning ilmiy taraqqiyoti yo‘lidagi katta hissasi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, ta’lim islohotlari, o‘zbek tili, yangi maktablar, ilm-fan, ijtimoiy islohotlar, pedagogika, zamonaviylashtirish, Milliy o‘zlik, jamiyatdagi o‘zgarishlar

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonning barcha hududlarida, jumladan, Samarqandda ham faol ravishda rivojlandi. Jadidchilik — bu milliy, ma’rifiy va madaniy islohotlarni amalga oshirishga intilgan harakat bo‘lib,

uning asosiy maqsadi xalqni yangi ilm-fan va ta’lim bilan tanishtirish, jamiyatni yangilash, qadimiy turmush tarzidan voz kechish va modernizatsiya qilish edi. Samarqand, o‘zining ilmiy, ma’rifiy va madaniy merosi bilan jadidchilik harakatining markazlaridan biri bo‘lib, bu erda jadid namoyondalarining ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlari katta ta’sir ko‘rsatdi.

Jadidchilik harakatining samarqanddagi rivoji. Samarqand jadidchilik harakatining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan shahar bo‘lib, bu erda o‘zbek xalqining ma’rifatparvarlik faolligi va ta’limga bo‘lgan ehtiyoji kuchli edi. Samarqandlik jadid namoyondalari, xususan, Ulug’bek madrasasining sobiq talabasi va o‘qituvchisi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudi, Ismoilbek Gasprinskiy, Xudoyberdiyev, Muhammadali Sa’diy kabi shaxslar o‘z vaqtida ilm-fan, ta’lim va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni ilgari surishga katta hissa qo‘shdilar.

Jadidchilik harakatining Samarqandda shakllanishi va rivojlanishi, ayniqsa, yangi turdagi maktablarning ochilishi bilan bog’liq edi. Samarqandlik jadidlar, rus imperiyasi va musulmon jamiyatlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklardan foydalanib, yangi uslubda ta’lim tizimini yaratishga intildilar. Ular xalqni eski ma’rifatdan chiqarish, yangi ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish va jamiyatni zamonaviylashtirish yo‘lida faol harakat qildilar.

Samarqandlik jadid namoyondalarining ta’limga qo‘shgan hissasi. Samarqandlik jadidlar ta’lim va ma’rifatparvarlikda muhim islohotlar amalga oshirdilar. Ular yangi maktablar ochib, ta’limni yangilash va zamonaviylashtirishni maqsad qildilar. Samarqandda tashkil etilgan "Jadid maktablari" o‘quvchilarga faqat diniy fanlarni emas, balki ilm-fan va dunyoqarashni ham o‘rgatishga qaratilgan edi. Bu maktablarda o‘quvchilar ko‘proq yangi bilimlarni, jumladan, tabiatshunoslik, matematika, adabiyot va tarix kabi fanlarni o‘rganishardi. Jadid maktablarida ta’limni yangi uslubda olib borish, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash juda muhim edi.

Samarqandlik jadid namoyondalarining ta’limga qo‘shgan hissasidan biri — ta’limni o‘zbek tilida olib borish g’oyasini ilgari surishdir. O‘zbek tilini ilmiy va ta’lim tili sifatida rivojlantirish jadidlarning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan. Bu g’oya, o‘z navbatida, milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish, xalqni ilm-fan bilan tanishtirishga qaratilgan edi.

Samarqand jadidlarining ma’rifatparvarlik faoliyati. Samarqandlik jadidlarning ma’rifatparvarlik faoliyati faqat ta’lim tizimi bilan cheklanmagan, balki ular jamiyatda ilmiy, siyosiy va madaniy islohotlarni amalga oshirishga intildilar. Jadid namoyondalari o‘zlarining ma’rifatparvarlik harakatlarini "Jadid" gazetasida va boshqa matbuot nashrlarida keng targ’ib qildilar. Ular xalqni zamonaviy

dunyoqarash, ilm-fan va ijtimoiy taraqqiyotning ahamiyatini tushuntirishga harakat qildilar.

Samarqandlik jadidlarning ma’rifatparvarlik faoliyati, shuningdek, o‘qituvchilarning malakasini oshirishga ham qaratilgan edi. O‘qituvchilarni yangi ta’lim metodlari va pedagogik texnikalarga o‘rgatish, ularni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash uchun jadidlar turli seminarlar va kurslar tashkil qildilar. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarni sifatli va ilmiy bilimlar bilan ta’minlashga yordam berdi.

Samarqand jadidlari va jamiyatdagi o‘zgarishlar. Samarqandlik jadid namoyondalari, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga katta ta’sir ko‘rsatdilar. Ular eski, ortodoksal dunyoqarashlarga qarshi chiqib, ilg’or va ilmiy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatladilar. Jadidlar, shu bilan birga, diniy ta’limning ilmiy bilimlar bilan uyg’unlashishiga e’tibor qaratdilar va shariatga asoslangan diniy o‘qish metodlarini zamonaviy talablar bilan uyg’unlashtirishga harakat qildilar.

Jadidchilik harakatining Samarqandda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan islohotlari, o‘z navbatida, boshqa Turkiston shaharlariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Samarqandlik jadid namoyondalari o‘z faoliyatlari orqali ta’lim, ma’rifat va ilm-fanning barcha sohalarida islohotlar qilishni davom ettirdilar.

Xulosa. Samarqandlik jadid namoyondalarining ma’rifatparvarlik faoliyati va ta’lim tarbiyaga qo‘shgan hissasi Turkiston va butun musulmon dunyosidagi madaniy islohotlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Jadidlarning ta’lim tizimiga qo‘shgan yangiliklari, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlari xalqni taraqqiyotga yo‘naltirdi. Samarqandlik jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ta’lim islohotlari, o‘zbek xalqining ma’rifatparvarlik va ilmiy taraqqiyot yo‘lidagi kurashining asosini tashkil etdi. Ularning g’oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Samarqand jadidlarining faoliyati, shubhasiz, o‘zbek ta’limining rivojiga katta hissa qo‘shgan va milliy mustaqillik yo‘lidagi kurashga muhim turtki bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Shamsutdinov, A. *Jadidchilik va Samarqand: Ta’lim va ma’rifatparvarlik islohotlari*. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti. 2005 y.
2. Rahimov, M. *Samarqandlik jadid namoyondalarining ma’rifatparvarlik faoliyati*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti. 2010 y.
3. Tursunov, A. *Jadidchilik harakati va uning Samarqanddagi o‘rni*. Toshkent: O‘zbekiston tarix va madaniyat nashriyoti. 2012 y.
4. Sadikov, A. *Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilikdagi roli va uning Samarqanddagi ta’siri*. Toshkent: O‘zbekiston xalq ta’limi nashriyoti. 2008 y.

5. Abduvahobov, S. *Jadid maktablari va Samarqandda ta’lim islohotlari*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti. 2006 y.
6. Mustafayev, B. *Samarqand jadidlarining ta’limdagi yangiliklari va ma’rifatparvarlik harakati*. Toshkent: O‘zbekiston madaniyat nashriyoti. 2009 y.
7. Xudoyberdiyev, X. *Jadidchilik va ilm-fan rivoji: Samarqandlik namoyondalarining ma’rifatparvarlik faoliyati*. Toshkent: O‘zbekiston jurnali nashriyoti. 2011 y.
8. Mavlonov, I. *Samarqandda jadidchilik va uning ijtimoiy o‘zgarishlarga ta’siri*. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti. 2014 y.
9. Atoyev, U. *Jadidchilik va ma’rifatparvarlik: Samarqandlik o‘qituvchilar va ilmiy yondashuv*. Toshkent: O‘zbekiston o‘quv nashriyoti. 2013 y.

BEHBUDIYNING FALSAFIY QARASHLARI

Raximova Dildora Abzalovna
Fan va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Dilshodova Shaxzoda
Fan va texnologiyalar universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo`nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Behbudiyning falsafiy qarashlari taraqqiyot, ma’rifat, adolat va erkinlik g‘oyalariga asoslangan. U millatning rivoji uchun bilim, ilm-fan va ma’rifatni asosiy yo‘l deb bilgan. Behbudiy xalqni o‘zligini anglashga, milliy uyg‘onishga va jamiyatda adolatli tuzum barpo etishga undagan. Uning qarashlari inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, ma’naviy kamolotga erishish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация: Философские взгляды Бехбуди основывались на идеях прогресса, просвещения, справедливости и свободы. Он считал, что основным путем развития нации являются знания, наука и образование. Бехбуди призывал народ к осознанию своей идентичности, национальному пробуждению и созданию справедливого общества. Его взгляды имели большое значение для обеспечения прав и свобод человека, а также для достижения духовного совершенства.

Annotation: Behbudi's philosophical views were based on the ideas of progress, enlightenment, justice, and freedom. He believed that the primary path to national development lies in knowledge, science, and education. Behbudi urged people to realize their identity, achieve national awakening, and establish a just society. His views were significant in ensuring human rights and freedoms as well as attaining spiritual perfection.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot, ma’rifat, adolat, erkinlik, bilim, ilm-fan, ta’lim, milliy o‘zlik, uyg‘onish, ma’naviy kamolot, huquq, milliy qadriyatlar, jamiyat rivoji, adolatli tuzum, inson huquqlari, milliy uyg‘onish, ma’naviy yuksalish, madaniy meros, erkin fikrlash, ijtimoiy barqarorlik.

Ключевые слова: прогресс, просвещение, справедливость, свобода, знания, наука, образование, национальная идентичность, пробуждение, духовное совершенство, права человека, национальные ценности, развитие общества, справедливое устройство, национальное пробуждение, духовный рост, культурное наследие, свободное мышление, социальная стабильность.

Keywords: progress, enlightenment, justice, freedom, knowledge, science, education, national identity, awakening, spiritual perfection, human rights, national values, societal development, just system, national awakening, spiritual growth, cultural heritage, free thinking, social stability.

Jadidlar harakatining asosiy g‘oyalaridan biri, xalqlarining farovonligi va taraqqiyoti uchun ilm olishni va yangi bilimlarni kengaytirishni ta’minlash edi. Jadidlar orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy alohida o'rin tutadi. U o'zining hayoti va faoliyati bilan nafaqat Samarqand, balki butun Turkiston hududida ma’rifatparvarlik va taraqqiyotning yorqin namunalaridan biriga aylangan. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand yaqinidagi Siyob volostining Baxshitepa qishlog‘ida imom-xatib Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi Ahmad Yassaviy avlodidan bo‘lib, oilasi tarixan Samarqand va Urganch bilan bog‘liq. Behbudiyning ota-bobosi Niyozxo‘ja Samarqandga XVIII asr oxirida ko‘chib kelgan.Behbudiy ta’lim olishni oilasidan boshlagan. Dastlab otasidan Qur’onni o‘rgangan, keyinroq 6-7 yoshlarida tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘lida savod chiqarib, 15 yoshida Mulla Odilning madrasasida tahsil olgan. Oilasi ilmga katta e’tibor bergan bo‘lib, ikki singlisi ham bilimli edi. Katta singlisi Huriniso „qoribegim“ unvoniga ega bo‘lgan. Behbudiy ilm-fan sohasida yuqori natijalarga erishgan. 1893-yilda onasi, 1894-yilda esa otasi vafot etgan.Behbudiy 18 yoshida Chashmai ob volostida qozi vazifasini bajarib, keyinchalik Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o‘g‘li qo‘lida mirzalik faoliyatini davom ettirgan. Jomboyda muftiylik darajasiga ko‘tarilib, 10 desyatina erga egalik qilgan. Uning farovon hayoti va ma’rifatparvarlik ishlari unga jamiyatda alohida o‘rin yaratdi.Behbudiyning hayotiga katta ta’sir qilgan safarlari bo‘lgan. 1899–1900-yillarda Buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan birga Makka va Madinaga haj safariga chiqdi. Bu safar davomida Rossiya, Arabiston, Misr, Turkiya kabi mamlakatlarni kezib, yangi maktab (usuli jadid) ochish fikrini mustahkamladi. Jadidlar harakati usuli jadidni ilgari surgan va bu g‘oya Behbudiy tomonidan jiddiy qabul qilingan edi. 1914-yilda ikkinchi marta haj safarida Shom, Quddus, Odessa, Istanbul kabi shaharlarni ziyorat qildi. Sayohatlarida olingan taassurotlar va xotiralarini Samarqandda nashr etilayotgan Oyna jurnaliga yubordi.

Oyna Jurnali — XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan nashr etilgan ilmiy, ma'rifiy va ijtimoiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan nufuzli jurnal. Ushbu jurnal jadidchilik harakatining asosiy platformalaridan biri bo'lib, zamonning eng dolzarb masalalariga, xalq ta'limi, madaniyati va jamiyatdagi o'zgarishlarga oid maqolalar nashr etilgan.Jurnalning asosiy maqsadi xalqni ilmga, ta'limga undash va ijtimoiy rivojlanishning yangi yo'llarini ko'rsatish edi. Oyna jurnali, turli ijtimoiy-siyosiy mavzularni o'rtaga qo'yib, yangilik va islohotlarni targ'ib qilgan. Jurnalning mazmunida asosan yangi

ta'lim tizimi haqida maqolalar chop etilgan. Bu tizim, o‘z davrida, eskicha ta'lim usullariga qarshi bo‘lib, yangiliklarni taqdim etgan.Jurnalning yangi ta'lim g‘oyalari va madaniy islohotlar haqidagi maqolalari o‘zining g‘oyaviy ta’sirini keng ommaga etkazgan. Behbudiy va uning zamondoshlari bu jurnal orqali xalqni ilm olishga, o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishga chaqirganlar.Jurnal, o‘zining qisqa nashr davrida, ilmiyni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan va ma'rifatparvar ziyolilarning birlashuvidan yangi o‘zgarishlarga yo‘l ochgan. Jurnalning tarkibidagi maqolalar ilmiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy va pedagogik masalalariga oid yondashuvlarni o‘zida aks ettirgan. U Turkiston madaniyati va ta'limining zamonaviy rivojiga xizmat qilgan eng muhim manbalardan biriga aylangan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z faoliyatida ta'limni zamonaviylashtirish va yangi pedagogik usullarni joriy etishga katta e'tibor bergan. Usuli Jadid — Behbudiyning tashkil etgan yangi ta'lim tizimi, an'anaviy islomiy maktablardan farq qilgan holda, ilm-fan, matematika, tabiatshunoslik, tarix, geometriya va boshqa zamonaviy fanlarni o‘qitishga qaratilgan edi. Usuli Jadid maktablarining asosiy maqsadi yoshlarni yangi ilmiy bilimlar bilan tanishtirish, ularga zamonaviy dunyoqarashni o‘rgatish va har tomonlama rivojlangan shaxslar sifatida etishtirish edi.Usuli Jadid maktablarining eng muhim jihati, bu maktablarda an'anaviy diniy ta'limdan tashqari, zamonaviy fanlar ham o‘qitilishi edi. Behbudiyning fikriga ko‘ra, o‘quvchilar faqat diniy ilmlarga emas, balki dunyoqarashni kengaytiruvchi va amaliy hayotga qo‘llaniladigan ilm-fanlarga ham ega bo‘lishi kerakdi. Bu tizimda o‘quvchilarga arifmetika, geometriya, fizika, tabiatshunoslik, tarix kabi fanlar o‘rgatilib, ularni yangicha fikrlash va ilmga qiziqtirishga intildi.Behbudiyning tashkil etgan yangi maktablarida ta'lim metodologiyasi an'anaviy maktablardan sezilarli darajada farq qildi. Bu maktablarda o‘qituvchilar o‘quvchilarga faqat bilim beribgina qolmay, balki ularga mustaqil fikrlash, ilmiy va texnologik yondashuvlarni o‘rgatishga harakat qildilar. Bu maktablar zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarni intellektual rivojlanishga yo‘naltirishga imkon yaratgan.

Usuli Jadid maktablarida o‘quv dasturlari an'anaviy madrasalardagi ma'ruzalar va darslardan farqli ravishda, ilmiy, ma'rifiy va amaliy bilimlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan edi. Bunda o‘quvchilarga darsliklardan tashqari, ilmiy maqolalar, jurnallar va ilmiy kitoblar o‘qilishi, shuningdek, zamonaviy ilm-fan yangiliklari bo‘yicha ma'ruzalar tinglanishi ham joriy etilgan. Bu maktablarda o‘qitish uslubi ham yangi, innovatsion edi: o‘quvchilar bilan muloqot, amaliy mashg‘ulotlar, sinfda guruh ishlarini tashkil etish orqali ular yanada mustahkam bilimlarni egallashlari uchun zarur imkoniyatlar yaratildi.Behbudiy yangi maktablarning asosiy vazifalaridan biri sifatida yoshlarni ta'lim olishga qiziqtirishni ko‘rgan. U ta'limning faqat jamiyatning yuqori qatlamlari uchun emas, balki har bir inson uchun kerakligini ta'kidlagan. Ushbu maktablar orqali Behbudiy

o‘quvchilarga ilmni, bilimni va o‘z o‘rni bilan jamiyatga foyda keltirishni o‘rgatishni maqsad qilgan.

Behbudiyning ta'lim tizimiga bo‘lgan yondashuvi jamiyatni o‘zgartirish va yangilashni o‘z ichiga olgan. U o‘qitishni faqat ilmiy bilimlar berishning bir vositasi sifatida ko‘rmasdan, o‘quvchilarni ijtimoiy mas'uliyatni his etishga, jamiyat oldidagi vazifalarni bajarishga, xalqining kelajagi uchun ishlashga o‘rgatishni ham muhim deb bilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, o‘zining maqolalari, nutqlari va amaliy faoliyati orqali xalqqa ijtimoiy, madaniy va ta'lim sohasidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishga chaqirgan. U jamiyatning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan yangilanishlar, ilm-fan va madaniyatni o‘zgartirish, xalqni ta'lim olishga undash kabi masalalarni o‘zgartirishga chaqirdi. Behbudiy, o‘zining jadidchilarga asoslangan faoliyatida, an'anaviy jamiyatni ijtimoiy islohotlar orqali yangi yo‘nalishlarga yo‘naltirishga qaratilgan kuchli ishlarni olib borgan.

Behbudiy va boshqa jadidchilar, yashash tarzini yaxshilash, yoshlarni ilmli va ma'rifatli bo‘lishga targ‘ib qilish maqsadida ko‘plab islohotlar amalga oshirdilar. Ular, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, an'anaviy diniy ta'limdan tashqari zamonaviy fanlarni o‘qitish, jamiyatni dunyoqarashni kengaytirish uchun bir qator tadbirlar o‘tkazdilar. Bu jarayonda ta'lim, ilm-fan va ma'rifatning jamiyatni taraqqiy ettirishdagi muhim roli haqida bir nechta maqolalar yozgan, nutqlar so‘zlagan. Behb diy o‘ziga xos yondashuvda, xalqni o‘zgarishlarga tayyorlash uchun ilm-fanning, ma'rifatning va yangiliklarning ahamiyatini tushuntirishga intildi.Behbudiyning maqsadi shundan iborat ediki, jamiyatni ilmli va ma'rifatli bo‘lishga undab, ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirib, qadimiy an'analarga yangicha qarashni targ‘ib qilish edi. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi, jamiyatni ma'naviy va ijtimoiy jihatdan yuksaltirish, yangi dunyoqarashni o‘rganish va zamonaviy ilg‘or fikrlar asosida yashashni ta'minlash edi.Behbudiyning faoliyati xalqni faqat o‘zgarishlarga tayyorlash bilan cheklanmay, o‘zgarishlarni amalda joriy qilishga qaratilgan. U, ilg‘or fikrlar va yangilanishlarni hayotga tatbiq qilishda, yangi maktablar ochish, o‘qituvchilarga yangicha metodlarni o‘rgatish, yoshlarni ilmga qiziqtirish kabi faoliyatlar bilan bevosita shug‘ullandi. Bu orqali u o‘z xalqini zamonaviy ta'lim tizimiga tayyorlashga, bilim va ma'rifatga asoslangan jamiyatni qurishga harakat qildi.Bundan tashqari, Behbudiy o‘zining so‘zlari va faoliyati orqali xalqning ijtimoiy ongini o‘zgartirishga, ilm va madaniyatni keng tarqatishga chaqirdi. U, jamiyatda bilim olishni, yangi yondashuvlarni qo‘llashni, yoshlarni kelajakka tayyorlashni va ijtimoiy o‘zgarishlarga yo‘naltirishni muhim deb bildi. Bu yondashuvni amalga oshirish uchun o‘z asarlarida zamonaviy ta'lim tizimi, ilmiy metodlar, innovatsion g‘oyalar va ijtimoiy islohotlarni ilgari surdi.

Shunday qilib, Behbudiy faqat bir ilmiy arbob emas, balki ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga intilgan, xalqni o‘zgarishlarga undagan faoliyat sohibi sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Uning ishtirokida amalga oshirilgan o‘zgarishlar jamiyatni ilmli, ma'rifatli va ijtimoiy jihatdan rivojlangan qilishga xizmat qildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Turkiston hududidagi ta'lim tizimini modernizatsiya qilish borasida katta mehnat va hissa qo‘shgan. Uning ilg‘or g‘oyalari, islohotlarga bo‘lgan intilishi va yangi pedagogik metodlar asosidagi faoliyati natijasida Turkistonda an'anaviy ta'lim tizimi o‘zgargan, o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar, ilm-fan va texnologiyalarni o‘rgatish yo‘lida samarali tizimlar yaratilgan.Behbudiy, jadidchilik harakati doirasida, ta'lim tizimining yangilanishi va modernizatsiyasi bo‘yicha bir qator amaliy ishlarni olib borgan. U, Turkistonning turli shaharlarida yangi maktablarni ochish, eski va qoloq ta'lim metodlarini modernizatsiya qilish va zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llashni maqsad qilgan. Uning tashabbusi bilan, yangi maktablar o‘z ichiga ilm-fan, tabiatshunoslik, matematika va boshqa sohalarda zamonaviy bilimlarni o‘rgatishni kiritgan, an'anaviy diniy ta'limni yangilab, ilmiy asosga qo‘yilgan ta'lim tizimlarini yaratgan.

Uning ta'lim tizimidagi islohotlari nafaqat maktablarda o‘qitiladigan fanlarni o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lib, balki ta'lim jarayonining sifatini oshirishga, o‘qituvchilarning malakasini yaxshilashga, va o‘quvchilarga bilimni samarali shaklda etkazishga yo‘naltirilgan edi. Behbudiy, o‘quvchilarga ta'limda faqatgina ma'lum fanlarni o‘rgatish bilan cheklanmay, ularga ijtimoiy ongni shakllantirish, yangiliklarga ochiq bo‘lish, va jamiyatning rivojlanishiga hissa qo‘shish kabi maqsadlarni ham ko‘zlagan.Behbudiy, Turkiston ta'lim tizimini zamonaviylashtirish uchun nafaqat o‘quv materiallarini, balki o‘qituvchilarning tayyorgarligini ham muhim deb bilgan. U, yangi pedagogik usullarni o‘qituvchilarga o‘rgatib, ularning malakasini oshirishga, shu bilan birga, talabalarning o‘qish va bilim olish jarayonini yanada samarali qilishga alohida e'tibor bergan. Bu esa, o‘z navbatida, Turkistondagi ta'lim tizimining yangi davrga moslashishi va rivojlanishiga olib keldi.Behbudiy tomonidan amalga oshirilgan ta'lim tizimidagi o‘zgarishlar, nafaqat zamonaviy bilimlarni o‘rgatish, balki o‘quvchilarga yangi fikrlash tizimini shakllantirishga, mustaqil o‘rganishga undashga yordam berdi. Bu ta'lim tizimining samarali ishlashi natijasida, o‘quvchilar nafaqat ilm-fan sohalarida bilim olishdi, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishdi.Behbudiy ta'lim tizimida o‘zgartirishlar kiritish orqali nafaqat Turkiston, balki butun Rossiya imperiyasi hududida, xalqning intellektual rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Uning amalga oshirgan ishlarining natijasida, Turkiston ta'lim tizimi yangilandi, zamonaviy bilimlarni o‘rganishning shakllari va metodlari o‘zgardi, va xalqning ta'limga bo‘lgan e'tibori kuchaydi. Bu islohotlar va yangiliklar, oxir-

oqibatda, o‘sha davrning ilg‘or fikrlovchi va ma'rifatli insonlarini tarbiyalashga yordam berdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, o‘zining ijodiy faoliyatida nafaqat ta'lim, balki ijtimoiy va madaniy masalalarni ham o‘z asarlarida yoritgan. U o‘zining zamonaviy g‘oyalari va ijodi bilan Turkistonning intellektual va madaniy hayotiga katta ta'sir ko‘rsatgan. Behbudiy o‘z asarlarida ijtimoiy adolatsizlikka, bilim va ma'rifatga, yangi ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratgan. Uning eng muhim ijodiy ishlari orasida dramaturgiya yo‘nalishida yozgan „Padarkush yoxud O‘qimagan bolaning holi“ pyesasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu asar, Behbudiyning o‘z zamonasidagi o‘quvchilarga ta'lim olishga, ilm-fan va ma'rifatni ulug‘lashga bo‘lgan orzu va niyatlarini aks ettirgan.„Padarkush“ – Behbudiy tomonidan 1911-yilda yozilgan birinchi o‘zbek draması bo‘lib, asarda o‘qimagan, johil bolaning o‘z otasini o‘ldirishi haqidagi voqea yoritiladi. Pyesaning sarlavhasi va mavzusi, Behbudiyning ta'lim va ma'rifatga bo‘lgan alohida e'tiborini ko‘rsatadi. Asar „Turkiston maishatidan olingan ibratnoma“ sifatida taqdim etilib, o‘quvchilarga ilm olishning muhimligini tushuntirishga intiladi. Pyesaning boshlanishida obrazlar orqali, asar jahon ta'limining, yoshlar tarbiyasining ahamiyatini ko‘rsatadi. Uchinchi parda va to‘rt manzarali bo‘lgan mazmuni sodda, lekin chuqur ma'no kasb etadi. Asar birinchi qismlari Buxoroda nashr etilgan „Turon“ gazetasining 1913-yil 1- va 3-yanvar sonlarida chop etilgan bo‘lsa-da, gazeta yopilishi tufayli so‘nggi qismlari nashr etilmagan.

„Padarkush“da Behbudiy, o‘qimagan yoshlarning johilligi va o‘z ota-onalarini eshitmasdan, ma'rifatni inkor qilish orqali qanday qo‘rqinchli oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatadi. U o‘qimagan bola orqali jamiyatning kelajakdagi muammolarini yoritib, ta'limning zarurligini ta'kidlaydi. Asar yoshlarni ilm olishga undashda va yangi ijtimoiy tuzumni yaratishda Behbudiyning faoliyatini kengaytiradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va „Vaqt va ahli“ pyesasi o‘zining dramaturgiyasi orqali nafaqat o‘sha davrning ijtimoiy muammolarini, balki ta'lim va ma'rifatni ulug‘lashni ham o‘z asarlarida taqdim etgan. „Vaqt va ahli“ pyesasi, Behbudiyning jamiyatni o‘zgartirish va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish yo‘lida olib borgan faoliyatining yana bir yuksak namunasi bo‘lib, bu asar ijtimoiy, siyosiy, va ma'naviy ko‘rinishlar orqali ko‘plab muammolarni o‘rtaga qo‘yadi.

„Vaqt va ahli“ pyesasining asosiy mavzusi – vaqt o‘zgarishi, ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi tafovutlar, va jamiyatdagi nohaqliklarni tanqid qilishdir. Asar bir necha qahramonlar o‘rtasidagi suhbatlar va voqealar orqali, ularga vaqtning tez o‘tishining va ijtimoiy, madaniy islohotlarning zarurligini ko‘rsatadi. Ular orasidagi qarama-qarshiliklar va ijtimoiy tengsizliklar, jamiyatdagi qiyinchiliklar va yashash sharoitining noxushligi haqida o‘ylashga undaydi.Behbudiy o‘z asarida ijtimoiy

sinflar o‘rtasidagi farqlarni, boy va kambag‘allar o‘rtasidagi tafovutlarni, va barcha jamiyat a'zolarining ma'rifat va ilm olish yo‘lida yagona maqsadda birlashish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu mavzular orqali u jamiyatni yaxshilash, barcha fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratish, va ilm-fan ustunligini ta'kidlashga harakat qiladi.„Vaqt va ahli“ pyesasi, Behbudiyning jamiyatni o‘zgartirish istagini yoritgan eng yaxshi asarlardan biridir. Asar faqat dramaturgiya emas, balki jamiyatni o‘zgartirishga chaqiruv sifatida ham qaraladi. Pyesaning birinchi tomoni ijtimoiy tengsizliklar, jinoyatlar va jamiyatning tushunmovchiliklariga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi qismida esa, asar jamiyatni o‘zgartirishning yo‘llarini taklif etadi.Pyesaning muhim jihatlaridan biri – vaqt tushunchasining ahamiyatidir. Behbudiy, vaqtning tez o‘tishini, insonlarning o‘zgarishga tayyor bo‘lishi kerakligini ta'kidlaydi. U vaqtning qadriyatini va jamiyatning o‘zgarishlar uchun moslashuvchanligini anglatib, o‘zgarishlar faqat jamiyatdagi barcha a'zolar birlashib, ilm olish va madaniyatni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatadi

„To‘rt siyosat“ asari Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy g‘oyalarini aks ettiradi.Mahmudxo‘ja Behbudiyning „To‘rt siyosat“ asari, siyosiy va ijtimoiy muammolarni yoritishda muhim o‘rin tutadi. Asarda shaxsiy, ijtimoiy va siyosiy hayotning turli jihatlari ko‘rsatiladi va jamiyatdagi o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun kerakli siyosiy o‘zgarishlar haqida so‘z yuritiladi. Behbudiy o‘z zamonasida joriy etilgan siyosiy tizimlarni tahlil qilib, bu tizimlar asosida yangi siyosatni yaratish zarurligini ko‘rsatadi.Asarda Behbudiy siyosiy erkinlik, ijtimoiy adolat va davlatning jamiyatdagi roli haqida gapiradi. Shuningdek, o‘zgarishlarni amalga oshirishda ilm-fan va ta'limning o‘rni haqida o‘z fikrlarini bildiradi. U o‘zining siyosiy tafakkurida, yangi siyosatni yaratish va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun ta'limni asosiy vosita sifatida ko‘radi. „To‘rt siyosat“ asari, shuningdek, siyosiy tizimda yuz beradigan o‘zgarishlar va davlatning bu jarayondagi roli haqida fikr yuritad„To‘rt siyosat“ asarida Behbudiy jamiyatdagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar uchun zamonaviy siyosatni yaratish zarurligini bildiradi. Asarda ta'lim va ilm-fan, o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun eng asosiy vosita sifatida ko‘rsatiladi. Behbudiy o‘zining siyosiy va ijtimoiy g‘oyalarida jamiyatni o‘zgartirish uchun siyosatdagi yangiliklarni qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi. Asar, aslida, yangi siyosatni yaratish va o‘sha siyosat orqali jamiyatni yaxshilash uchun qanday yo‘llar borligini ko‘rsatadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining falsafiy qarashlarida milliy uyg‘onish g‘oyasini alohida ta'kidlagan. U xalqining ma'rifat va ilm-fan asosida taraqqiy etishini istagan. Behbudiy uchun milliy uyg‘onish faqat siyosiy erkinlik va mustaqillikni qo‘lga kiritish bilan cheklanmas edi, balki bu g‘oya xalqning ma'naviy, madaniy va ilmiy jihatdan ham rivojlanishini talab qilar edi. Behbudiy milliy uyg‘onishning asosini milliy ongni rivojlantirishda ko‘rgan. U ta'lim va ilmni

insoniyatni yangi yo‘nalishga yo‘naltirishning asosiy vositalari sifatida qaragan. Behbudiy, jamiyatning madaniy va ma'naviy jihatlarini rivojlantirish orqali, xalqni o‘z o‘tmishiga hurmat bilan qarashga va kelajakka ishonch bilan qarashga chaqirgan. U ilm-fan asosida taraqqiyotga erishish mumkinligiga ishonib, ilmiy yondashuvni o‘z asarlarida asosiy tamoyil sifatida ilgari surgan.Behbudiy uchun ta'lim milliy uyg‘onishning eng muhim vositasi edi. U o‘zining asarlarida ilm olish va ma'rifatni keng targ‘ib qilishga alohida e'tibor qaratgan. Behbudiy xalqni ilm-fanga va o‘z ma'naviyatiga, o‘zining tarixiy qadriyatlarini qayta tiklashga chaqirgan. Ta'lim orqali xalqning faolligi oshadi va jamiyatdagi har bir inson o‘z o‘rnini anglashga yordam beradi. Behbudiy, ta'lim va ma'rifatning kuchi orqali jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashni, tinchlik va barqarorlikni yaratishni niyat qilgan.Behbudiy milliy erkinlikni, shuningdek, siyosiy mustaqillikni milliy uyg‘onishning asosiy qadami sifatida ko‘rgan. U xalqning siyosiy huquqlarini, tenglik va adolatni ta'minlashni istagan. Behbudiy, o‘zining falsafasida xalqning erkinligini, mustaqillikni, har bir insonning o‘z fikrini bildirish va hayotda o‘zini amalga oshirish imkoniyatlarini yaratishni talab qilgan. Shuningdek, u siyosiy erkinlikni faqat tashqi mustaqillikdan emas, balki ichki erkinlikdan ham iborat deb hisoblagan. Yani, xalqning ichki dunyosida, ma'naviyatida va axloqida mustaqil bo‘lishi kerak edi.Behbudiy milliy uyg‘onishning faqat siyosiy erkinlik bilan bog‘lanmasligini, balki ijtimoiy va madaniy taraqqiyot bilan ham chambarchas bog‘langanini ta'kidlagan. U ijtimoiy tenglik, adolat va hamjihatlikni muhim deb hisoblagan. Jamiyatdagi adolatsizliklarni bartaraf etish, ijtimoiy qatlamlarning teng huquqli bo‘lishi Behbudiy uchun katta ahamiyatga ega edi. Uning fikricha, milliy uyg‘onish faqat siyosiy va iqtisodiy mustaqillik bilan cheklanib qolmasdan, ma'naviyat, madaniyat va axloqiy yuksalish bilan ham amalga oshirilishi lozim.Behbudiy milliy uyg‘onish jarayonida xalqning qadriyatlarini tiklashni, o‘zining tarixiy merosiga hurmat ko‘rsatishni ta'kidlagan. U o‘zining asarlarida milliy madaniyatni rivojlantirish, xalqning o‘z o‘tmishini anglash va unga asoslanib kelajakni qurish zarurligini tushuntirgan. Behbudiy uchun milliy qadriyatlarni saqlash va tiklashning asosiy vositasi ilm edi.

Xulosa

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining boy ilmiy merosi va g‘oyalari bilan faqat Turkiston va o‘zbek xalqining emas, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining madaniy va siyosiy rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk arbobdir. Uning asarlari, nutqlari va qarashlari yirik ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga, xalqni ilm-fan, ma'rifat, va madaniyatga yuksaltirishga qaratilgan edi. Behbudiy o‘z vaqtida etakchi jadidchilar qatorida turgan va Turkiston hududida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, millatni ma'naviy jihatdan uyg‘otish borasida beqiyos xizmatlarni amalga oshirdi.Behbudiyning falsafasi va qarashlari butunlay xalqning

taraqqiyoti, uning kelajagi haqida bo‘lgan qayg‘u va umidlarni o‘zida mujassam etadi. U, nafaqat siyosiy erkinlikni, balki ilmiy va ma'naviy o‘sishni ham milliy uyg‘onishning ajralmas qismi deb bilgan. Uning g‘oyalari faqatgina ta'lim bilan cheklanib qolmagan, balki jamiyatni yangilash, ilg‘or g‘oyalarni keng targ‘ib qilishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Behbudiy, bir tomondan, xalqni ilm olishga, o‘z tarixini anglashga chaqirgan, ikkinchi tomondan esa, millatning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun zaruriy ijtimoiy islohotlarni taklif etgan.
Uning asarlari, xususan, dramaturgiya yo‘nalishidagi pyesalari, xalqni o‘zligini anglashga va uning ahamiyatini ta'kidlashga qaratilgan edi. “Padarkush” pyesasi, masalan, o‘qimagan va nodon bola obrazini keltirib chiqarib, ilm va ma'rifatning ahamiyatini ko‘rsatadi. Behbudiyning o‘zining teatr faoliyati orqali ham, jamoatni ilmli va ma'rifatli bo‘lishga chaqirdi. Uning teatrda qo‘llagan metodlari va sahna tahlillari o‘sha davrda Turkistonda rivojlanayotgan yangi g‘oyalar va madaniyatning bir qismi bo‘lib xizmat qildi.Bundan tashqari, Behbudiy o‘z ijodi orqali milliy uyg‘onish g‘oyasini rivojlantirib, unga ilmiy va madaniy poydevor yaratdi. U, o‘zbek millatining o‘zligini topish va o‘z tarixini anglashini ko‘rib, uni kelajakda jamiyatning eng ilg‘or, ma'naviy jihatdan yuksak qismi bo‘lishini ta'minlashga intilgan. Behbudiy bu maqsadni amalga oshirish uchun, o‘z asarlarida o‘zbek xalqining turmush tarzini va an'analari bilan yangilanishni birlashtirgan. Uning g‘oyalari faqat o‘z zamonida emas, balki bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U ilgari surgan ta'lim va ilm-fan asosidagi uyg‘onish va taraqqiyot g‘oyasi, o‘zbek xalqining mustaqilligi va yuksalishi uchun muhim yo‘lboshchi sifatida davom etmoqda.

Shu boisdan, Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat o‘z davrining yirik arbobi, balki bugungi kunning ma'naviy etakchisi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Uning g‘oyalari va ishlari, ilm-fan, madaniyat va siyosatning to‘g‘ri uyg‘unligini ta'minlaydigan zamonaviy boshqaruvning asosiy prinsiplari bilan bir xil. Behbudiyning ijodi bizga, har qanday murakkab vaziyatda, xalqning taraqqiyoti va uning yuksalishiga qanday erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Uning fikrlari va ishlarining davomiyligi, milliy uyg‘onish va taraqqiyotning o‘ziga xos poydevori bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Д.Алимова, А.Рашидова. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. Тошкент: Академия нашриёти, 1999 — 7-bet.
2. Abdirashidov, Z. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. ISBN 978-9943-6682-2-5.
3. Авазов Н. Маҳмудхўжа Беҳбудий — маърифатпарвар. Тошкент: 1993 — 1-bet.
4. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 2005 — 19-bet.

5. Qahramon Rajabov. O'zbekiston XX asrda. Toshkent: Fan, 2024 — 120-bet. ISBN 978-9943-15-685-2.
6. Наим Каримов. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Тошкент – 2010 — 22-bet. Qaraldi: 28-noyabr 2024-yil.
7. Begali Qosimov „Mahmudxo’ja Behbudiy”. kh-davron.uz. Xurshid Davron kutubxonasi (2014-yil 19-yanvar). Qaraldi: 20-dekabr 2024-yil.
8. М.Хайруллаев. Маънавият юлдузлари. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999 — 357-bet. ISBN 5-86484-072-6. Qaraldi: 29-noyabr 2024-yil.

JADIDLARNING MILLIY TIL-ADABIYOT VA TARIX MASALARI BO’YICHA QARASHLARI VA FAOLIYATLARI

Saidov Komiljon Muysinjonovich
O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, tarix yo’nalishi 315-guruh talabasi
+998919645311, saidovkomiljon258@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston jadidlarining milliy adabiyot va tarix fanlarining mahalliy yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faol shaxs sifatida etishtirishdagi o’rni,ularning ushbu oshada olib birgan ishlari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’z va iboralar:Jadidchilik,Fitrat,Behbudiy,Cho’lpon,”Chig’atoy gurungi”,milliy adabiyot va tarix

Аннотация: В статье представлена информация о роли национальной литературы и исторических дисциплин туркестанских джадидов в воспитании местной молодежи как общественно-политически активных личностей, а также о работе, проделанной ими в этой области.

Ключевые слова и фразы: Джадидизм, Фитрат, Бехбудий, Чолпон, «Чигатой Гурунги», национальная литература и история.

Abstract: This article provides information about the role of the Turkestan Jadids in the development of local youth as socio-politically active individuals, as well as their work in this area.

Keywords and phrases: Jadidism, Fitrat, Behbudiy, Cholpon, "Chigatoy Gurungi", national literature and history

Turkiston o’lkasida XIX asrning ikkinchi yarmidan shakllangan,ma’rifatparlik g’oyalari bilan yo’g’rilgan harakat-jadidchilik o’zining butun faoliyati davomida doimo milliy til,adabiyot va o’lka tarixi kabi muhim masalalrni ilgari surgan.Boisi jadidlar ushbu omillarni millatning yuksalishidagi eng muhim zinapoya,ustun deb hisoblaganlar.Turkiston taraqqiyparvarlari o’zlarining ilk faoliyatlarini albatta, xalqning ruhiyatini uyg’otuvchi,uni istiqlol uchun harakatga chorlovchi she’r, asar yoki sahna ko’rinishlarini yozganlar, o’z nutqlarida doimo shonli o’tmishga murojaat qilganlar.Ular ona tilida ijod qilish va ushbu tilda to’siqlarsiz muloqot qilish,ushbu tilda ko’p yozish va o’qish kishining milliy ruhini chiniqtiradi va o’z xalqiga bo’lgan hurmatni oshiradi deyishgan bo’lsa, o’z tarixini

bilish har bir fuqaroni vatanparvar va millat manfaati uchun har qanday ishni qilishga tayyor shaxsga aylantiradi deb hisoblashgan.

Dastavval jadidlarning milliy til va adabiyot borasida qilgan say-harakatlari va g’oyalariga to’xtaladigan bo’lsak,Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan ushbu davrda zamonaviy o’zbek adabiyotiga asos solindi, bir talay kitoblar yozildi. Masalan, Abdulla Qodiriy tomonidan o’zbek romanchiligiga asos solgan noyob asarlar-“O’tgan kunlar” (1926) va”Mehrobdan chayon” (1929) yozildi.Abdulla Qodiriy nafaqat romanchilikda balki hikoyanavislikda ham samarali qalam tebratdi. Milliy adabiyotga eng yuqori bahoni o’sha davrda Cho’lpon berdi.U o’zining “Sadoi Turkiston” gazetasida 1914-yil 4-iyun kuni bosilgan “Adabiyot nadir” nomli maqola sida shunday deydi:” Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirg‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir.” Cho’lponning fikriga ko’ra, adabiyot millatning qalbidagi qora kirlarni yuvadigan bir vositadir,uning kuchini faqat ma’rifatli odamgina ko’rib bila oladi.Adibning “Kecha va Kunduz” asarida ilgari surilgan g’oyalar shu qadar dolzarbki, ular nafaqat o’sha davr uchun balki hozirgi kun uchun ham ahamiyatini yo’qotmagan.Yana xuddi shu maqolga yuzlanadigan bo’lsak,unda shunday fikr berilgan:”Bizni ulamo va eshonlarimiz to‘n kiymakdan, avomlarimiz choyxonalarga chiqub choy ichmakdan va ziyolilarimiz esa Ovrupo kiyumliklaridan va qiymatlik papiro‘slaridan lazzat olurlarki, “adabiyot nima?” desang, javobida yuqorida aytilgancha “ya’ni, masalan”dan boshqa javoblari yo‘qdir. Mana shuning uchundirki, kundan-kunga ruhimiz tushub, keladirg‘on istiqbolimizga umidsiz qarab, boshqa millatlar kabi shod va umidli yashamaymiz va bizda shodlik va ruh bo‘lmagani uchun bir ishni qilamiz deb endi o‘ylaganimizda o‘y yo‘q – fikrlar chochilub, aqllarimiz parishon bo‘lub ketar.[85]” Uning “Adabiyot yashasa-millat yashaydi” jumlasi bugungi kun yosh adiblari,yozuvchu-shoirlari va umuman olgnada kitobxon qatlam uchun shiorga aylangan.Ushbu jumlani tushuntirish uchun o’z fikriga yakun sifatida Cho’lpon:“Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o‘quyluk. Adiblar etishdirayluk, “adabiyot kechalari” yasayluk. Ruh, his-tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk, bilayluk. Agarda “bayoz” va bema’ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahv-u inqiroziy bo‘lurmiz. Yuragimiz kundan-kun toshdan ham qattig‘ bo‘lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk. Menim bu ojizona fikrima qo‘shilaturg‘onlar bo‘lsa adabiyotning foydasi to‘g‘rusinda “Oina” va “Sado”larimizga tarixiy va adabiy maqola va she’rlar yozsunlar, kitoblar tartib

[85] Oyina.uz sayti

bersunlar. Hozirda bizga birdan-bir lozim bo‘lg‘on narsa – adabiyot, adabiyot, adabiyot…” Bugungi kunda zamonaviy ilm fanda zaruriy jihat va asosiy e’tibor qaratilayotgan ko’nikma-tanqidiy fikrlash va bahs-debat metodini bundan 100 yil avval jadid namoyondalari anglab,xalqni shunga chorlagan edilar.Ular yaratgan ta’lim tizimida ham til va adabiyot muhim o’rin egallagan edi.

Mashhur buxorolik jadid, yozuvchi,”Yosh buxoroliklar” partiyasi a’zosi Abdurauf Fitrat ayniqsa milliy til masalasiga katta e’tibor qaratadi.Arab,fors,turk,rus tillarini bilgan jadid millat rivoji va jipsligi uchun albatta milliy til yukasalishi lozim deb hisoblagan.Shu maqsadda u tomonidan 1919-yilda “Chig’atoy gurungi” deb nom- langan ilmiy-ma’rifiy tashkilot tuzilgan.Ushbu tashkilot o’z oldiga dastlab oddiy uchrashuv va suhbatlar qilishni ko’zlagan bo’lsa-da,vaqt o’tishi bilan o’zbek tilidagi chetdan,asosan arab-fors tilidan kirib kelgan va o’zlashgan so’zlardan tozalash va ularning turkiycha(o’zbekcha) muqobilini yaratishni maqsad qilib qo’yadi. Fitrat tashkilotga nom tanlashda Turkiston hududida yashagan turkiy xalqlarga daxldor merosni o‘rganishga e’tibor qaratgan. “Chig‘atoy gurungi” turkiy xalqlar madaniyati, san’ati, adabiyoti, tarixi, til va imlosi kabi sohalarni jiddiy o‘rganishga kirishgan. “Gurung” a’zolari o‘zbek tilining sofligi uchun kurashish bilan bir qatorda yangi o‘zbek milliy madaniyatini barpo etishga intilganlar. O‘sha davrda mavjud bo‘lgan “Temur”, “Turon”, “Turon to‘dasi”, “Turk kuchi”, “Izchi” kabi guruh va uyushmalarga nisbatan “Chig‘atoy gurungi” samarali faoliyat ko‘rsatgan[86]. “Chig‘atoy gurungi” nizomida yozilishicha, u bir nechta sho‘balardan iborat bo‘lgan. Bu sho‘balar “Til va imlo to‘dasi”, “Adabiyot to‘dasi”, “San’at va teatr to‘dasi” deb nomlangan.Uning tarkibiga Elbek,Zunnun,G’ozi Olim Yunusov kabi o’z davrining mashshur shoir va jurnalistlarining kirganligi,ushbu tashkilotning samaradorligidan darak beradi.Shu uchun bo’lsa kerak,”gurungchilar” tominidan 1919-yildayoq arab imlosining isloh qilingan yangi shakli ommaga taqdim etiladi.Maqsad-aholining katta qismini savodli qilish,arab imlosidagi eski o;zbek yozuvini keng ommaga yoyish va uning tarkibida turkiycha so’zlar miqdorini ko’paytirish edi.Shuni alohida ta’kidlash kerakki,ushbu tashkilotning faoliyati Turkiya va Eronda Mustafo Kamol Otaturk va Rizoshoh Pahlaviylar tomonidan keyinchalik 1920-yillar oxiri-1930-yillar boshida olib borilgan “turklashtirish” va ”forslashtirish” siyosatlariga o’ziga xos ilhom manbayi bo’lib xizmat qilgan bo’lsa ajab emas. “Chig‘atoy gurungi” adabiyot va san’at sohasida muhim ishlarni amalga oshirgan. Fitrat, Cho‘lpon, Botu, Elbek qalamiga mansub “O‘zbek yosh shoirlari” (1922) to‘plami, Fitratning “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘uzxon”, “Abo Muslim” va “Qon” singari dramatik asarlarining el orasida keng yoyilishi bunga misoldir. “Chig‘atoy gurungi” a’zolari o‘z g‘oyalarini “Yangi Sharq”, “Uchqun” gazetalari va

[86] Q.Usmonov,M.Sodiqov-“O’zbekiston tarixi” T:”Iqtisod-Moliya” 2010 285-290-bet

“Tong” jurnali orqali ifodalashgan. Tashkilotning “Chig‘atoy gurungi” nomli maxsus jurnalining 1-soni chop qilingach, u taqiqlangan. 1921-yil boshlarida “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti faoliyati Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi tomonidan to‘xtatilgan.[87] Bu shuni anglatadiki, bosqinchi sovet hukumati mahalliy jumhuriyatlarda olib borilgan eng kichik formatdagi o’zgacha fikrlashni ham “ko’tara olmagan” va uni jismoman yo’q qilgan.Jadidlarning milliy til va adabiyot borasidagi qarashlari afsuski amalga oshmagan va amaliyotga to’liqligicha tatbiq etilmagan.

Jadidlarning tarix fani bo’yicha qarashlari ham avvalgi zamonliklardan tubdan farq qilgan.Ular tarix faqat podshohlar yoki hukmdorlardan emas,balki xalq hayotidan,uning ma’naviy va madaniy yuksalishi jihatidan qarashni va shunga ko’ra kitoblar yozilishini yoqlab chiqqanlar.Bundan tashqari ular har bir musulmon avvalambor o’z dini va e’tiqodi tarixni puxta bilishini davr talabi deb bilganlar.shu maqsadda 1909-yil M.Behbudiy, 1910-yil A.Avloniy, 1915-yil A.Fitrat tomonidan bir xil nomad ya’ni “Islom tarixi” nomi ostida dinimizning umumiy,qisqacha va hamma tushunadigan tilda yozib ommaga taqdim etganlar.[88] Xossatan har bir taraqqiyparvarning tarix va o’tmish voqealari to’g’risida umumiy va shaxsiy qarashlari mavjud bo’lgan.jumladan Behbudiy kishilik jamiyati o‘z taraqqiyotida vahshiylik, badaviylik va madaniylik kabi uch bosqichni bosib o‘tgan, deb hisoblagan. Mutafakkir o‘sha davrda Yevropa va Rossiyada tarqalib, asta-sekin Turkistonga kirib kelayotgan dunyoni materialistik tushunishdan farq qilgan holda, o‘ziga xos diniy-falsafiy g‘oyani yoqlab chiqqanlar. Ularning fikricha, ilm-fan va kasb-hunar jamiyat taraqqiyotini ifodalovchi asosiy omildir. M. Behbudiy ta’kidlab o‘tganidek, “… jamiyat ilm, insof va hunar sabablari ila uch xil bo‘linadurki, vahshoniyat, badaviyat, madaniyat atalgan. Va bularning har birini yana bir nechta sinfg‘a taqsim qilmoq odamlarni ahvolig‘a qarab mumkin bo‘ladur”[89] O’rta Osiyo jadidlarining otasi fikriga ko’ra tarixni o’rgangan inson ziyoli,tom ma’noda komil bo’lishi,dunyo bilan bellashishi uchun albatta o’z Vatani va millati tarixini bilishi lozim.Shundagina xalq yakdil millat o’laroq shakllanib,jipslikka erisha oladi. Turkiston ma’rifatparvarlari taraqqiyotning asosi G‘arb va Sharq madaniyatining o‘zaro uyg‘unlashuvida deb bilgan. Har ikki tamaddun yutuqlaridan amaliy foydalanish zaruratini ta’kidlagan. Jadidlar, ayniqsa, vatan tarixi sohasida teran bilimga ega bo‘lgan. Shu asosda o‘z xalqini haqli ravishda dunyo sivilizatsiyasi yutuqlariga daxldor hisoblab, an’anaviy milliy tajribaga tayanib, davlatni rivojlantirish nazariyasini ishlab chiqdi. O‘z qarashlarini mafkuraviy va metodologik jihatdan asosladi. Turkiston jadidchiligi etakchisi Mahmudxo‘ja

[87] Q.Nazarov va boshqalar-“ Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati” T:2021

[88] R.Shamsutdinov,Sh.Karimov-“Vatan tarixi” 2-kitob T:”Sharq” 2019

[89] Alimova D., A’zamxo‘jaev S. Turkiston jadidchiligi taqdiri

Behbudiy «Tarix va jug‘rofiya» maqolasida bu borada: «…taraqqiy nadur? Muni bilmoq uchun tarix o‘qumoq kerak.., dinu dunyodan boxabar bo‘lmoqni xohlaydurgan har kim uchun tarix o‘qumoq kerak. Chunki har nimarsa va uning asli va nasli tarixdan bilinur», - deb yozgan. Taraqqiyparvarlarning nuqtai nazariga ko‘ra, tarixni o‘rganish, birinchi navbatda, millat rivojidagi taraqqiyot va tanazzul sabablarini idrok etish uchun zarur edi.

Abdurauf Fitrat ayniqsa tarix fanining kuchiga juda yuqori baho beradi.Uning fikrlariga ko’ra:”kim yashashni istasa tarixni o’rganishi kerak……”.Ushbu fikrlar bugungi kunga kelib o’z tarixi,kelib chiqishiga qiziqmaydigan,tarixni yolg’ondan va uydirmalardan iborat deb hisoblovchi ayrim ”ziyoli”larga o’ziga xos javob deb hisoblasak arziydi.Bu ayni vaqtda millatga o’ziga xos chorlov ham bo’lib,o’zini anglagan odamni tiniqarli tarix bilan shug’ullanishga da’vat etadi. Fitrat Yevropa tarixchilari tomonidan tarix fani va uning predmetining turli talqinlarini ilgari surish “avj” olgan XX asr boshlarida tarix va tarix fani haqida o‘zining bir qator ilmiy jihatdan asoslangan fikrlarini ilgari surish bilan o‘zbek tarix fani taraqqiyotining jahon tarixi fani taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqlikda, hattoki ayrim jihatlardan o‘zining teran qarashlari bilan (jadidlar qarashlarida ayniqsa, tarixiy xotira masalasida) undan ma’lum darajada ilgarilab borayotganligini ham ko‘rsata oldi. Abdurauf Fitrat XX asr boshlarida mavjud ijtimoiy hayot jarayonlariga taalluqli bo‘lgan bir qator dolzarb mavzularda qalam tebratish bilan birga fanning turli sohalarida ham samarali ijod qilgan. Ayniqsa, Fitratning ijod namunalari sanalgan tarixga oid asarlari biz uchun muhim ahamiyatga egadir. Fitratning bu asarlarida tarix va unga nisbatan bildirilgan fikrlar, ilmiy va nazariy mazmundagi qarashlari va xulosalari zamonaviy tarix fanining ilmiy nazariy masalalariga ham mos kelish bilan birga XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston, qolaversa sharq musulmon tarixchilarining tarix faniga bo‘lgan munosabatlari va ayni vaqtda fanning ilmiy va nazariy masalalari borasidagi qarashlarini ham aks ettirib turadi. Abdurauf Fitratning bunday mazmunga ega qarashlari va fikrlarini uning turli asarlarida kuzatish mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Abdurauf Fitratning tarixiy asarlari, uning tarix haqidagi bildirgan fikrlarini o‘rganish jarayonida uning sharq tarixnavisligi bilan bir qatorda Yevropa tarixchilarining ilmiy nazariy qarashlaridan ham mukammal darajada boxabar bo‘lganligini anglash mumkin. Fitratning tarix fani va uning predmeti, tarix fanining tarkibiy qismlari va tarmoqlari borasida ham o‘z qarashlariga ega bo‘lganligini uning tarixiy asarlarida, ulardagi tarixiy jarayonlarning tavsifiy jihatlarida ham kuzatish mumkin.[90]

[90] MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA ABURAUF FITRAT ASARLARIDA TARIX FANINING NAZARIY MASALALARI Ilhomov Z.A., t.f.n, professor (Nizomiy nomidagi TDPU)

Xulosa qiladigan bo’lsak,jadid namoyondalari o’z davrida bugungi kunimiz uchun dolzarb muammoga aylangan “milliy kontent”ning har sohada zarur ekanligini chuqur anglab etgan va uni amaliyotga joriy qilgan edilar.Biroq ularning ushbu harakatlari o’z davrida to’liq anglab etilinmadi, ularni butun omma qabul qilmadi. Sovetlar bo’lsa ushbu vaziyatdan foydalanib,ularga xoinlar yordamida zarba berib, ham ma’nan ham jismonan yo’q qildilar.Endingi galgi ziyolilarimizning vazifasi ushbu merosni va g’oyalarni o’rganib,ularni qayta jonlantirmoq,Vatan taraqqiyoti yo’lida ularni sarflamoqlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Oyina.uz sayti
2. Q.Usmonov,M.Sodiqov-“O’zbekiston tarixi” T:”Iqtisod-Moliya” 2010 285-290-bet
3. Q.Nazarov va boshqalar-“ Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati” T:2021
4. R.Shamsutdinov,Sh.Karimov-“Vatan tarixi” 2-kitob T:”Sharq” 2019
5. Alimova D., A’zamxo‘jaev S. Turkiston jadidchiligi taqdiri
6. MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA ABURAUF FITRAT ASARLARIDA TARIX FANINING NAZARIY MASALALARI Ilhomov Z.A.

Qo’shimcha manbalar:

1. Jadid.uz
2. Muxtoriyat.uz
3. Ziyo.uz
4. Wikipedia sayti

JADIDLARNING TA’LIM VA TARBIYAGA OID QARASHLARI

Temirova Orasta Tulkin qizi
@orastatemirova56@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid adabiyoti yorqin namoyaondalaridan bo‘lmish Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat kabi o‘z davrining fidoiy marifatparvarlarining bola tarbiyasi va ularning ma’lum bir yoshga etganda maktabdagi ta’lim va uning qanchalik muhim ekanligi aynan shu uchun kurashganliklari haqida. *Jadidlarning ta’lim va tarbiya sohasidagi qarashlari, ulkan ijtimoiy o‘zgarishlar va milliy uyg‘onish jarayonlariga sabab bo‘ldi.*

Kalit so’zlar: Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat,Jadid, Marifatparvarlik, Ta’lim,Tarbiya, Axloq.

Annotation: This article is about the education of children of the selfless enlighteners of their time, such as Behbudi, Abdulla Avloni, Fitrat, who are the bright representatives of modern literature, and how they fought for school education when they reach a certain age and how important it is. The views of Jadids in the field of education and upbringing caused great social changes and the processes of national awakening.

Key words: Behbudi, Abdulla Avloni, Fitrat, Jadid, Marifatparvarlik, Education, Education, Ethics.

Bugungi kunda juda ham tez rivojlanib borayotgan jamiyatlarning asosiy va ustuvor yo‘nalishlari va talablaridan biri yuqori darajadagi ta’lim va tarbiya masalasidir bu masalaning qanchalik muhim ekanligini anglagan holda yurtimizda ham keng islohatlar olib borilmoqda jumladan yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida ta’limga oid quydagilar keltirilgan **“Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”** degan ulug‘ g‘oya asosida maktab ta’limini umummilliy harakatga aylantirish bo‘yicha boshlangan ishlarimiz yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Yurtimizda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini yaratish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqamiz va amalga oshiramiz. Ushbu shior ostida nafaqat yangi maktablar qurish balki, maktablarda o‘tilayotgan fanlarni ham isloh qilish va uni yanada rivojlantirish maqsadida sharqona madaniyatga tayangan holda ta’limni tarbiyadan ayro etmasdan umumta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini joriy etilgani, bu fanning nazariy va metadalogik asoslarini ishlab chiqishda jadid adabiyotining yorqin vakil Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asaridan samarali foydalanishimiz zarur [1.224-225.b].

Chunki unda keltirilgan ma’lumotlar yillar davomida o‘zning qadr qimmatini yo‘qotmagan. Asar 1917-yilda yozilgan asarda so‘z boshini Abdulla Avloniyning yaxshi xulq va yomon xulq haqidagi qarashlari bilan boshlanadi. “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining yuzaga kelishiga sabab ham Turkiston (Markaziy Osiyodagi) pedagogik fikrlashni rivojlantirishdir bunday natijalarga erishish uchun ta’limni tarbiyadan ajratmagan holda olib borish zarur, tarbiya bor joyda ta’lim ham yaxshi natija beradi. Tarbiyaning asosiy negizi bu axloqdir Axloq haqida Avloniyning qarashlari “Axloq” haqida Avloniy shunday fikrlani bildiradi: “Insonlarni yaxshilikg‘a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o‘qub, bilib amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, er yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O‘z aybini bilub, iqror qilub tuzatmakg‘a sa’y va ko‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur.[2.25-26.b] Avloniy maktabdorlik bilan ham shug‘ulangan va ochgan maktablarida o‘zi dars berish bilan birgalikda darsliklar ham yaratgan. Marifatparvarlar tashkil etgan maktablar “Usuli jadid” maktablari deb yuritilgan ya’niy “Yangi usul” maktablari deb yuritilgan. “Usuli jadid” maktablari eski tuzim maktablaridan nafaqat dars mashg‘ulotlari va uni tashkil etish jarayoni ham tubdan farq qilgan va shu sababli ham yangi darsliklarga extiyoj tug‘ilgan. Yangi darsliklar bolalarni tez va oson savodini chiqarishga mo‘ljallangan, bu darsliklar orqali bolalarning savodi 6 oyda chiqargan va bolalrning yoshiga qarab guruhlarga

bo‘lagan bundan ko‘zlangan maqsad o‘z samarasini bergan. Jadid adabiyoti vakillari xalqni savodli qilish uchun nafaqat bolalrani o‘qitga Yoshi kattalarni ham ilmga bo‘lagan fikralshini o‘zgartirish maqsadida sahna asarlari tayyorlanib teatrlarda sahnalashtirilgan bunga sabab xalqni ham ma’naviy savodxonligi va dunyoqarashini o‘zgartirish. Behbudiy aytganidek “Teatr bu ibratxona” unga kirgan inson albata ma’naviy ozuqa olib chiqadi. Behbudiy qalamiga mansub “Padarkush” dramasini sahnalashtirilgan sahnada ko‘plab erkaklar ro‘l o‘ynagan (u vaqtda ayollarga ro‘l o‘nashni xato deb o‘ylashgan) o‘sha paytda yozilgan maqollarda asarni katta qiziqish bilan kutib olganligi haqida mahaliy matbuotida shu tarizda ifodalangandi. “Padarkush” dastlab Samarqandda 1914-yilning 15-yanvarida sahnaga qo‘yildi xalq nihoyatda ko‘p kelib, belit etmagani va joyni yo‘qligi uchun uch-to‘rt yuz kishi qaytib ketdi” ba’zi insonlar belitni ikki baho foydasi ila boshqalarga sotdilar. Asardan ko‘zlangan maqsad natijasini ko‘rsatdi o‘z maishatiga berilib dunyoni unitgan millatdoshlarga chaqmoqdek ta’sir etdi.[3. 254-b] Quyida asardan parcha

Ziyoli- Ilm va tarbiyasiz bolalarni(ng) oqibati shuldir, agar bularning otasi o‘qitsa edi bu jinoyat va padarkushlik alarda sodir bo‘lmas va bular ichkilikni bo‘yla ichmasdi, (ma’lumot o‘rnida Boyvuchcha ilmsizligi oqibatida otasini o‘ldirib qo‘ygandi)[4.50.b] Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat teatr va maktabdorlik, balki maqolalari orqali ham xalqni va yosh avlodni ilmga va ziyoga oshno bo‘lishini targ‘ib qilgan. Quyda uning “Turkuston tarix” kerak maqolasidan parcha maqola “Oyna” jurnali 1914-yil 38-sonida chop etilgan.Tarix ko‘p ahamiyatli va foydali bir narsadur. Tarixning foydalaridan ba’zi ushbudurki, bir millatning na tariqada qaysi yo‘l ila taraqqiy etganini o‘qib ibrat olmoq yoki bir millatning na sabablardan tanazzul etib, oxiri munqariz bo‘lib ketganini o‘qib mundan ham istefoda etmak mumkindur[4.179.b]. Jonkuyar va fidoyi jadidlarimiz o‘z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqlolga tayyorladilar, she’r va maqolalar sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirishga urundilar. Mana shunday fidoyila orasida mumtoz bir o‘rinni egalaydi U mana shu turkuston jadidchilik harakatining boniysidir uning hayoti va faoliyati haqida ko‘plab ilmiy va biografik asarlar yaratilgan. O‘z davrining yirik namoyondalari qatorida o‘zining tilga va millatga bo‘lagan qarashlari va maqolalariu bilan tarixda qolgan ustoz adib Abdurauf Fitratning til haqida fikr muloxazalari “*Dunyo sahnasida iyaru taqlidning rolin hech bir millat biz turklar kabi ado eta olmaganlar. Biz qaysi bir millatning qaysi bir narsasiga taqlid etmoqchi bo‘lsak, o‘zimizning milliy ruhimizga qaramasdan taqlid etamiz”. Til haqida Behbudiyning Ikki emas, to‘rt til lozim maqolasida “Biz turkustoniylarg‘a turkey, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Bu tillarni nafaqat savdo-sotiqni va boshqa mumtoz asarlarni o‘rganish uchun ham lozim ammo o‘z tili va uning boyligi bilan o‘rganish kerak”.*

Jadid adabiyoti vakillari vataning kelajagi uchun va farovon turmush tarzini yaratish, yangi bilm va ko‘nikmalarni egalash va jahon iqtisodiyotiga munosib nomzod, vakil bo‘lishimiz uchun ilmni mukamal egalashimiz lozim agar ilmsizlik ning jaxolatli oqibatlarini “Padarkush” va o‘sha davrda yaratilgan bir qancha asarlarda ko‘rib chiqishimiz mumkin. Adiblarimiz ilmsizlikni voqealar va obrazlar orqali ko‘rsatib o‘tganligi va o‘sha davr boylarining ba’zi birlari albatda ilmga bo‘lagan e’tibori va uning qanday oqibatlarga olib kelishini o‘ylamasdan ish qilganliklari va hayot har doim uning atrofida aylanish mumkin deb qisqa o‘ylaganligini daramada ham ko‘rdik. Ta’lim va tarbiyani ajratib bo’lmagaidek *ulaning ham tarbiyadagi asosiy maqsadi –individual shaxs sifatida tarbiyalash va fuqarolik mas’uliyatini oshirish edi. Natijada, jadidlarning ta’lim va tarbiya sohasidagi qarashlari, ulkan ijtimoiy o‘zgarishlar va milliy uyg‘onish jarayonlariga sabab bo‘ldi. Ularning g‘oyalari hozirgi kunda ham ahamiyatli bo‘lib qolmoqda. Ilm bu umr yo‘lini yoritadigan sham chiroq bo‘lib xizmat qiladi. Umrimizni balant pastiliklarini yoritib yo‘l yo‘riq ko‘rsatib beradigan mayoq lozim, farzandlarimizga bo‘lagan ishonch va muhabbatimizni ilm va tarbiya orqali mustahkamlashimiz kerak.*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 440 bet
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 2008.
3. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
4. Begali Qosimov. Behbudiy M. tanlangan asarlar//.Toshkent Ma’naviyat 2006.
5. Begali Qosimov. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar//. Toshkent Ma’naviyat 2006.
6. Yassaviy, Ahmad. Hikmatlar kulliyoti/ Ahmad Yassaviy. Hikmatlari/ Boqurg‘oniy Sulaymon; Mas’ul muharrirlar: I.Haqulov, E.Ochilov. – T.: “O‘zbekiston”, 2011. - 464 b.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MA’RIFATPARVAR SHAXS

Shohsanam Umirova
SamDTU Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiston xalqi uchun jonkuydirgan, ozodlik, dinda erkinlikni targ‘ib qilgan, yangi usul maktablarining asoschisi, zamonaviy tahsil olish tarafdori, ayollarning teng huquqli ekanining targ‘ibotchisi, xalqni ongini ko‘tarib, ularni adolatga, nafaqat ta’lim balki san’at borasida ham o‘zining unuitilmas islohotlari bilan ma’naviy uyg‘onishga

chorlagan qozi, muftiy, dramaturg hamda noshir ulug‘ ajdodimiz Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida alroflicha fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Dramaturg, muftiy, noshir, usuli savtiya, kommunist, jadid, islohot, jumhuriyat, teatr, duma, nashri maorif, partiya, kabut, illustratsiya.

Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Siyob volostining Baxshitepa qishlog‘ida imom-xatib Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li xonadonida tug‘ilgan. Otasi Ahmad Yassaviy avlodidan. Otasining buvasi Niyozxo‘janing asli kelib chiqishi urganchlik bo‘lib, Samarqandga XVIII asr oxirida, amir Shohmurod hukmronlik davrida ko‘chib kelgan. Behbudiy dastlab otasidan Qur’on ilmini o‘rgangan, keyinchalik 6-7 yoshlarida tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘lida o‘qib, savod chiqargan. 15 yoshida boshqa bir tog‘asi Mulla Odil o‘zi mudarrislik qilgan madrasada o‘qitib ta’lim bergan. Behbudiylar oilasi ma’rifatparvar va ziyoli bo‘lgan. Ikki singlisi ham o‘qib, tahsil olgan. Qur’onni yaxshi bilgan. Katta singlisi Huriniso “qoribegim” unvoniga ega bo‘lgan. Avval onasi keyin otasi vafot etgan. Behbudiy 18 yoshida Chashmaiob volostida qozi vazifasida ishlagan, tog‘asi Muhammad Siddiq qo‘l ostida mirzalik qilgan. Tog‘asi oldida ikki yil ishlagach, mirzalik faoliyatini Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o‘g‘li qo‘lida davom ettirdi. Chunki bu paytda tog‘asi qozilikdan bo‘shatilgan edi. Mirza va qozilik bilan shug‘ullanib, so‘ng Jomboyda muftiylik darajasiga ko‘tarilgan. Behbudiy Kabut bo‘lmida 10 desyatina erga egalik qilgan. O‘ziga to‘q va badavlat kishilardan bo‘lgan. Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan birga Makka va Madinaga haj safariga borgan. Shu sababli Rossiya, Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan. Safar jarayonida sayohatning har qanday turi – poyezd, kema, otda va piyoda yurib dunyo kezgan. Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. O‘z sayohati davridagi xotiralarini Samarqandda nashr etilayotgan “Oyna” jurnalining tahririyatiga yuborib turgan. Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashuvi keyingi hayotiga ta’sir katta ko‘rsatdi.

Behbudiy ilk bor Samarqandning Jomboy tumaniga qarashli Rajabamin qishlog‘ida “Usuli Savtiya” maktabini ochadi. Bu maktab Abduqodir Shakuriy xonadonida tashkil etilgan. Maktab o‘quvchilarining katta qismi shahardan bo‘lganligi va Rajabamin qishlog‘iga qatnash qiyinligi sababli keyinchalik bu maktabni Behbudiy o‘zining hovlisiga ko‘chiradi. Shu davrda u maktab o‘quvchilari uchun bir qancha darsliklar yaratgan. Bularga misol: “Risolayi asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”), “Risolayi jug‘rofiyayi umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”), “Kitobatul atfol” (“Bolalar xati”), “Amaliyoti islom,” 1909-yilda “Tarixi islom” kabi bir qancha kitoblarini nashr ettirgan. “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” ning to‘liq nomi “Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy va namunai

jug‘rofiya” bo‘lib, uni chop etish uchun Sankt-Peterburg senzurasidan ruxsat olingan. Shundan so‘ng, Samarqanddagi G. I. Demurov matbaasida bosilgan sahifalari soni 106 taga etgandi. Muallif ushbu „…qadim fan” ga tegishli „turkiy, forsiy, arabiy, rusiy lug‘atlarga tasnif bo‘lgan o‘ttuz qadar qadim va jadid qutub va rasoili jug‘rofiya, tarixiy, hay’ati riyoziy, tabiiy“ lardan va yana juda ko‘p turli xildagi manbalardan foydalangan holda yozganini qayd etgan.

Behbudiy 1913-yildan boshlab matbuot ishlari bilan shug‘ullangan. Shu yilning aprelida “Samarqand“ gazetasiga asos solgan. Gazeta ikki tilda: O‘zbek va tojik tillarida, haftada 2 marta chop etilgan. Dastlab ikki sahifada bo‘lgan gazeta 3-8-sonlarida sahifalari soni to‘rttaga etkazilgan. 400-600 nusxada chop etilgan. 45-soni chiqqach, chor hukumatining tazyiqi hamda moddiy qiyinchiliklar tufayli nashr to‘xtagan. Shu yilning o‘zida “Oyna” jurnali chiqa boshlagan. Haftalik nashrdan chiqqan bu jurnal asosan o‘zbekcha bo‘lib, maqola (forscha), she’r, e’lonlar (ruscha) ham berib borilgan. Sahifalarida illustratsiyalardan foydalanilgan. Jurnal Tatariston, Eron, Kavkaz, Afg‘oniston, Turkiston, Hindistongacha tarqalgan. “Oyna” jurnalining sohasi keng qamrovli bo‘lib, unda millatning tarixi, haq-huquqi, adabiyot hamda til masalalari, jahondagi ahvol to‘g‘risida maqola va munozaralar berib borilgan. Jurnal faoliyati 20 oy davom etgan. Shu davr mobaynida 68 soni nashr etilgan. Behbudiy kitob nashrini ham yo‘lga qo‘ygan. Behbudiy bosmaxonasida Fitratning „Bayonoti sayyohi hind“ asarini rus tiliga tarjima qilib, nashr etgan. Turli xildagi darslik hamda qo‘llanmalardan tashqari nashriyotda „Turkiston, Buxoro va Xivaning xaritasi“ ni bosib chiqargan alloma safdoshlari – Fitrat, Ayniy, Ajziy, Muhammadquli O‘rinboyev, A. Shomansur bilan birgalikda „Hurriyat“ ro‘znomasini, “Zarafshon“ shirkatini hamda “Nashri maorif“ni tashkil etgan.Behbudiy Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarning 150 nafar vakili qatnashgan qurultoyda ishtirok etib, nutq so‘zlagan. Nutqida musulmonlar orasidagi har qanday ixtiloflarga qarshi chiqqan. Ulug‘ maqsad yo‘lida birlashishga chorlagan. Shunday kelishmovchiliklar tufayli “mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar”deb ochiq so‘zlagan. Behbudiy shu qurultoyda o‘lka musulmonlar sho‘rosining raisi etib saylangan. Shu tariqa kechasi “Turkiston muxtoriyati” e’lon qilindi. Uning g‘oyaviy rahbarlari biri Behbudiy bo‘lgan. Muxtoriyat sho‘rolar tomonidan vahshiyona bostirildi. Shundan so‘ng Behbudiy Samarqandga qaytadi. U erda ko‘p tura olmay Toshkentga ketadi.

Bu davrda jadidlar va milliy ziyolilar oldida uch tanlov mavjud bo‘lgan: birinchisi – xorijiy davlatga chiqib ketish, ikkinchisi - qo‘lida qurol bilan o‘z fikr va g‘oyalarini himoya qilish, uchinchisi – yangi tuzilgan hukumat bilan murosa yo‘liga kirib, xalq taraqqiyoti, ma’rifati yo‘lida xizmat qilish bo‘lgan. Turkiston jadidlarining etakchisi bo‘lgan Behbudiy xalq orasida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan. Yangi tuzilgan hukumat ham buni yaxshi tushungan. Shu sababdan alloma

yangi hukumat tarkibida milliy masalalar bo‘yicha komissariat organlarida ishlashga rozilik beradi. Komissariatning turkiy millat masalalari bo‘limini boshqarish vazifasida faoliyat yuritgan. Shu davrda uning tashabbusi bilan “Ishtirokiyun” (“Kommunist”) gazetasi nashr qilingan. Behbudiy nashr bosh muharriri vazifasiga Orif Klivliyevni tayinlagan. Arxiv hujjatlaridan olingan ma’lumotlarga qaraganda, Toshkentga borib Turkiston hukumatining Qurultoyida qatnashgan. Shuningdek, ocharchilikka barham berish va oziq-ovqat muammosini bartaraf qilishga oid maqolalarni e’lon qilgan. Partiya va ijro organlarining mutasaddi rahbarlari bilan uchrashgan. Behudiy sovetlar va kommunistlar olib borayotgan siyosat mafkurasi noto‘g‘ri yo‘nalishdaligini anglab etgan. Bu mafkura mahalliy xalqlar uchun zararli degan qarorga kelgan. Natijada, o‘z vazifasidan ketishga qaror qilgan. Shu tariqa Behbudiy raislik qilgan sektor tarqatib yuborilgan.

Jadidlar harakatining asosiy rivojlanish davri 1900-yillarning boshiga to’g‘ri keladi. Bu paytda ularning soni va ta’sir doirasi ortib bordi. Harakat o‘zining amaliy dasturlari orqali milliy uyg‘otish va siyosiy mustaqillik g‘oyalarini olg‘a sura boshladi. Rossiya inqilobi va keyinchalik Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan jadidlarning ayrim maqsadlari amalga oshirildi, ammo ko‘pchiligiga qarshilik ko‘rsatildi. Boylarning ko‘pchiligi yangi Sovet tuzumini qo‘llab-quvvatlay boshladi, biroq bu yangi tuzum avvalgi jadidlar faoliyatiga nisbatan salbiy munosabatda edi. Jadidlar o‘sha davrda islomiy an’ana va zamonaviylik o‘rtasida muvozanatni yasalashni istaganlar sifatida tanilgan edilar. Ularning asosiy maqsadi islomni zamonaviy davrning talablariga muvofiq ravishda yangilash edi. Bu harakat ko‘plab shaxslarning va jamiyatlarning fikrini o‘zgartirdi, lekin Sovet davri boshlanishi bilan ko‘p jadidlar ta’qib ostiga olindi va faolliklari to‘xtatildi. Jadidlar harakati, zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyotiga katta hissasini qo‘shgan muhim tarixiy davrdir. Ularning faoliyati natijasida milliy madaniyat, ta’lim sohalari jadal rivojlanishga erishgan bo‘lsa-da, ko‘p qismi Sovet davrida yarimta qilib qolgan. Jadidlar harakati vakillari orasida Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li kabi taniqli shaxslar bor edi. Ular yangi usul maktablari tashkil qilgan va bu maktablarda o‘qituvchilik qilgan, shuningdek, yangilanish va islohotlar tarafdori bo‘lgan. Ular mushtumzo‘rlik, savodsizlikka qarshi kurashishda faol bo‘lgan. Jadidlar adabiyotida yangi janrlari va mavzulari vujudga keldi. O‘zbek adabiyotida she’r, hikoya, drama va maqolalar orqali milliy uyg‘onish ruhi paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, Ularning asarlarida ijtimoiy muammolar, adolat, milliy birlik va mustaqillik g‘oyalari etakchi o‘rin tutdi. Jumladan, Abdulhamid Cho‘lponning she’rlari va Oybek, Fitratning asarlari bu yondashuvning yorqin namunalari hisoblanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush”, Abdurauf Fitratning “Advakatlik osonmi?” kabi sahna asarlari esa milliy uyg‘onish g‘oyalarining keng tarqalishiga asos bo‘ldi. Bu asarlar orqali ular

ulamo, savdogar va ziyoli qatlamlarning e’tiborini millatni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqishga qaratishga harakat qilishdi. Behbudiy ilk bor teatrni Samarqandda namoyish qildi va teatrga asos soldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiyni kelajak avlod uchun, Vatani, xalqi uchun qilgan islohotlari tahsinga sazovordir. Ulug‘ ajdodimiz haqida qancha gapirsak shuncha oz. Asosiysi, shunday ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lishimiz, bobolarimizning isimlarini aytib, ularning avlodiman deb faxrlanib qolmasdan, ularning ruhlarini shod qilish uchun amalda haqiqatda ularga mos etuk kelajak avlod bo‘lishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 2-jild. T., 1979.
2. Qosimov B., Behbudiy va jadidchilik. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” 1990-yil 19,26-yanvar.
3. Qosimov B., Behbudiy Karvonboshi. “Yoshlik” jurnali, 1990-yil, 1-son.
4. Qosimov B., Maslakdoshlar. Behbudiy. Ajziy. Fitrat, T., 1994;
5. Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy. T., 1994.
6. Ahmedov S. “O‘limdan qo‘rqmagan mutafakkir”. “Sovet O‘zbekistoni san’ati”, 1989-yil, 2-son.
7. Rizaev Sh. “Padarkush yohud Samarqand tarixidan lavhalar”. “Vatan” gazetasi, 1994-yil, 39-son.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY: JADIDCHILIK HARAKATINING PESHVOSI VA MA’RIFATPARVARLIK NAMOYONDASI

Utanov Utkir Qurbonovich
Samarqand viloyat Pedagogik mahorat markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim taxnologiyalar” kafedrasi, dotsenti, p.f.f.d.(PhD),
Qosimova Ozoda Xudoynazarovna
O’zbekiston-Finlandiya pedagogika Instituti,
“Pedagogika” kafedrasi, dotsenti, p.f.f.d.(PhD).

Annotatsiya: Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning Turkistonning jadidchilik harakatidagi o‘rni, ma’rifatparvarlik g‘oyalari va ta’lim islohotlari haqida so‘z yuritiladi. Behbudiyning yangi usuldagi maktablar orqali xalqni ilm-ma’rifatga jalb qilishdagi faoliyati, jamiyatni qoloqlikdan chiqarish va zamonaviy bilimlarni o‘rganishning zarurligi haqida fikrlar bayon etiladi. Yangi maktablarning milliy o‘zlikni saqlab qolish, dunyoviy fanlarni o‘rganish va savodxonlikni oshirishdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. Maqolada Behbudiy tomonidan ta’lim tizimiga kiritilgan islohotlar va ilm-fan tarqatish yo‘lida amalga oshirilgan amaliy ishlar tafsilotlari bilan keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: Jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik, ta’lim islohotlari, milliy uyg‘onish, yangi usuldagi maktablar, oyna gazetasi, padarkush dramasiilm-ma’rifat, savodxonlikni oshirish.

Mahmudxo‘ja Behbudiy O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan shaxsdir. U jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo‘lib, o‘z xalqining ilm-ma’rifatga bo‘lgan ehtiyojini tushungan va bu yo‘lda katta islohotlar o‘tkazgan. Behbudiy xalqni o‘qitish, ma’rifat tarqatish va milliy uyg‘onish yo‘lida butun hayotini bag‘ishlagan shaxsdir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy O‘zbekiston va butun Turkiston mintaqasining jadidchilik harakatidagi eng yorqin arboblaridan biri bo‘lib, uning ma’rifatparvarlik va ta’lim islohotlari xalqni qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy dunyoviy bilimlarni ommalashtirish yo‘lida muhim rol o‘ynadi. Behbudiy o‘z faoliyati davomida ta’lim tizimini isloh qilish, yangi usuldagi maktablarni joriy qilish va ilm-fanni xalq orasida keng tarqatishga alohida e’tibor bergan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrida mavjud bo‘lgan qoloq ta’lim tizimi, asosan diniy ilm bilan cheklangan eski maktablar va madrasalarning xalq taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotganini anglagan edi. Uning ma’rifatparvarlik g‘oyalari zamonaviy dunyoqarashga asoslangan bo‘lib, xalqni faqat ilm va ma’rifat orqali qoloqlikdan chiqishiga ishonardi.

Ma’rifatparvar sifatida Behbudiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo‘li sifatida ta’limga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, yosh avlod zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lishi uchun yangi usuldagi, ya’ni dunyoviy va diniy bilimlarni birga o‘rgatuvchi maktablar tashkil etilishi kerak edi. Shu tariqa, Behbudiy Turkistonda ilm-ma’rifatni rivojlantirishni o‘zining asosiy maqsadi deb bildi.

1913-yilda Behbudiy Samarqandda birinchi yangi usuldagi maktabni ochdi. Ushbu maktabda eski madrasa uslubidan farqli ravishda matematika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik va boshqa dunyoviy fanlar o‘qitila boshladi. Bu yangi usuldagi maktablar orqali Behbudiy yosh avlodni ilm-fanga oshno qilishga, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga harakat qildi. Ushbu maktablar tez orada butun Turkiston bo‘ylab ko‘payib, xalqni ma’rifatli qilish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Behbudiy Turkiston xalqlari orasida milliy uyg‘onish jarayonining etakchi arbobi bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy xalqning milliy ongini o‘stirish va ularni milliy qadriyatlarni hurmat qilishga chaqirdi. U o‘z xalqining tarixiy o‘tmishini bilish, til va madaniyatni saqlash orqali mustahkam milliy o‘zlikni shakllantirishga katta e’tibor bergan. Behbudiy o‘z asarlarida milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surib, xalqni birlashtirish va mustaqillikka intilish yo‘lida faoliyat yuritdi.

U ilm-ma’rifatni milliy ongni rivojlantirishning asosiy omili deb bilgan. Behbudiyning ta’lim tizimiga kiritgan islohotlari, uning yangi usuldagi maktablari va ilmiy matbuot orqali xalqni ongli ravishda uyg‘otish yo‘lidagi sa’y-harakatlari o‘z davrida katta ahamiyat kasb etdi. Behbudiy milliy til, madaniyat va ta’limning

rivojlanishi xalqning milliy o‘zligini saqlash va uni mustahkamlash yo‘lidagi eng muhim vosita ekanligini ta’kidlagan.

Yangi usuldagi maktablar milliy o‘zlikni saqlab qolish, zamonaviy bilimlarni o‘rganish va xalqni savodxon qilish yo‘lida juda muhim bo‘lgan. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadid ma’rifatparvarlari bu maktablarni Turkiston xalqlarining milliy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiladigan vosita deb bilganlar.

Behbudiy va boshqa jadidlar maktablarda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishni joriy qilgan, milliy qadriyatlar va an’analarni saqlab qolish muhimligini ta’kidlagan. Eski maktablarda faqat diniy bilimlar berilgan bo‘lsa, yangi usuldagi maktablar milliy ruhni tarbiyalaydigan va xalqni o‘zligini anglashga chorlaydigan vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Yangi maktablar zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish va fan-texnikani o‘rganishga yo‘naltirilgan edi. Behbudiy bu maktablarda matematika, fizika, geografiya, tarix va tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlarni o‘rgatishni yo‘lga qo‘yib, xalqni global o‘zgarishlarga moslashishiga intilgan. Bu bilimlar milliy o‘zlikni saqlash bilan birga, jamiyatning rivojlanishi va yangilanishi uchun zarur edi.

Yangi usuldagi maktablar xalqni savodxon qilishda katta rol o‘ynagan. Jadidlar jamiyatning turli qatlamlariga ta’lim olish imkoniyatlarini yaratib, xalqni qoloqlikdan chiqarishni maqsad qilganlar. Bu maktablar orqali o‘quvchilar nafaqat o‘qish va yozishni, balki dunyoviy fanlarni ham o‘rganib, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan. Savodxonlikning oshishi esa milliy uyg‘onish jarayoniga va xalqning o‘zini anglashiga olib keldi.

Yangi usuldagi maktablar o‘quvchilarga nafaqat o‘qish va yozishni o‘rgatgan, balki dunyoviy fanlarni ham o‘rgatgan. Bu ta’lim usulining eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, eski madrasalarda faqat diniy bilimlar, ya’ni Qur'on, hadis va fiqh o‘qitilgan bo‘lsa, yangi usuldagi maktablarda zamonaviy fanlar, jumladan, matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, fizika va boshqa tabiiy fanlar ham o‘qitilgan.

Bu o‘zgarishlarning bir nechta afzalliklari bor:

1. Dunyoviy bilimlarni o‘rganish: Jadidchilik harakatining maqsadi – yosh avlodni ilm-fan, texnologiya va zamonaviy dunyoqarash bilan tanishtirish edi. Yangi usuldagi maktablar o‘quvchilarga nafaqat diniy, balki ilm-fanning barcha sohalarida bilim berish orqali ularni dunyoviy bilimlarga ham ega qilishga qaratilgan edi. Bu o‘quvchilarni global rivojlanishdan ortda qolmaslikka tayyorladi.

2. Savodxonlikni oshirish: Eski maktablar ko‘pincha savodsizlikni tarqatishga olib kelgan bo‘lsa, yangi usuldagi maktablar barcha yoshdagilar uchun ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu esa, albatta, jamiyatning o‘zligini anglashiga, madaniy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga xizmat qildi.

3.Yoshlarning dunyoqarashi: Yangi ta’lim tizimi yoshlarni o‘z xalqining milliy qadriyatlarini saqlagan holda, zamonaviy bilimlar va texnologiyalarni o‘rganishga undagan. Bu maktablar yoshlarning nafaqat ilmiy, balki ma’naviy rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shdi.

4.Ijtimoiy yuksalish: Yangi usuldagi maktablar nafaqat o‘quvchilarni o‘qish va yozishga o‘rgatgan, balki ularni jamiyatda faol va mas’uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishga intilgan. Bu o‘quvchilarning ijtimoiy ongini rivojlantirishga, o‘zlarining milliy madaniyatiga bo‘lgan hurmatini oshirishga yordam berdi.

5.Milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish: Yangi maktablar milliy tilni va madaniyatni saqlab qolish, uni zamonaviy ilm bilan boyitish maqsadida faoliyat yuritdi. Bu o‘quvchilarni o‘z vatanining tarixiga, an’analari va qadriyatlariga chuqur hurmat bilan qarashga o‘rgatdi.

Shu tariqa, yangi usuldagi maktablar faqat ilmiy savodxonlikni oshiribgina qolmay, balki o‘quvchilarga dunyoviy bilimlarni ham egallash imkonini berdi.

Yangi usuldagi maktablar, shunday qilib, nafaqat milliy o‘zlikni saqlab qolish, balki zamonaviy ilm-fanni o‘zlashtirish va xalqni savodxon qilishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining peshvosi sifatida Turkiston va butun Markaziy Osiyoda ilm-ma’rifatni rivojlantirish, milliy uyg‘onish va zamonaviy bilimlarni o‘rganish yo‘lida katta islohotlarni amalga oshirgan. Uning yangi usuldagi maktablarni tashkil etishdagi maqsadi nafaqat diniy bilimlarni, balki dunyoviy fanlarni o‘rgatish orqali yosh avlodni global o‘zgarishlarga tayyorlash edi. Behbudiy milliy o‘zlikni saqlash, til va madaniyatni rivojlantirish hamda xalqni savodxon qilish yo‘lida o‘zining yuksak ma’rifatparvarlik merosini qoldirgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning islohotlari ta’lim tizimining zamonaviylashishi, ilmiy salohiyatning oshishi va milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdug‘aniyev, S. **"O‘zbekiston jadidchiligi: Ilm-ma’rifat va ta’lim islohotlari"**, Toshkent, 2010.
2. Karimov, A. **"Jadidchilik va Behbudiy: Ma’rifatparvarlik harakatining asosiy yo‘nalishlari"**, "Milliy uyg‘onish" jurnali, 2015, №3.
3. Vohidov, I. **"Behbudiy va uning o‘zbek madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi"**, Toshkent, "Ma’rifat", 2018.
4. Yusupov, B. **"Mahmudxo‘ja Behbudiy: Jadidlar harakati peshvosi"**, Samarqand, 2019.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA JADIDLAR G’OYALARIDA JISMONIY TARBIYA - SPORTGA E’TIBOR BO’YICHA SOTSIOLOGIK TAHLIL

Mahmudxo‘ja Behbudiy ve jadidlerin fikirlerinde bedensel eğitim - spora dikkat edilmesi üzerine sosyolojik analiz

Социологический анализ внимания Махмудходжи Бехбудия и джадидов к физическому воспитанию - спорту

Sociological Analysis of Mahmudkhoja Behbudi and Jadid's Attention to Physical Education – Sports

Xolmatov Ixtiyor Baxtiyorovich
Farg‘ona Davlat Universiteti, Sotsiologiya yo‘nalishi magistranti
e-mail; ihtiyor0586@gmail.com, @Holmatov007, +998916600577

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa jadidlarning sog‘lom turmush tarzi va sportga e’tibor masalalariga oid asarlari, faoliyatlari hamda jaded maktablarida ta’lim jarayoniga jismoniy tarbiyani joriy etilishi yuzasidan sotsiologik tahlil qilinadi. Mazkur tahlil gazetalardagi chiqishlar, ilmiy asarlar va mashhur insonlar nutqlariga asoslangan holda amalga oshirilgan. Tadqiqotda sog‘lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada Behbudiy va jadidlar harakatining ijtimoiy va pedagogik ma’nosi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidlar, sog‘lom turmush tarzi, sport, jismoniy tarbiya, ta'lim, sotsiologik tahlil, jamiyat taraqqiyoti, pedagogika, milliy sport turlari, yoshlar tarbiyasi, jadid maktablari.

Kirish

XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Turkiston jadidchiligi harakati jamiyatni yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan muhim intilish edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy bu harakatning yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning asarlari va chiqishlarida sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya va sportni targ‘ib qilish masalalari alohida o‘rin egallaydi. Ushbu maqola sog‘lom turmush tarzi mavzusidagi sotsiologik masalalarni Behbudiy va boshqa jadidlarning faoliyati asosida tahlil qiladi.

Asosiy qism

Jadidlar o’z davrining eng yuksak ma’rifatparvarlari sifatida barkamol insonni tarbiyalash g’oyalariga yangicha usullarda yondashdilar hamda sog’lom avlod tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportga o’z e’tiborlarini qaratdilar. Bu borada 2023 yil 22 dekabr kungi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig’ilishida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrlarni ta’kidlab o’tdi *“Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi*

O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”[1] Sog‘lom turmush tarzi va jismoniy tarbiya masalalari jadidlar fikricha, jamiyatning ma’naviy va madaniy rivoji insonning jismoniy sog‘lomligiga bog‘liqdir. **Behbudiy** o‘zining “Oyna” gazetasi orqali sog‘lom hayot va sportni targ‘ib qiluvchi maqolalar chop etgan. Jumladan, **Behbudiy** (1914) o‘z maqolasida shunday deb yozadi: “*Insonning ruhi pok bo‘lishi uchun tan sog‘lom bo‘lmog‘i lozimdir*” [2]. Bu qarash zamonaviy sotsiologiya nazariyalari bilan hamohang bo‘lib, tan va ruhning uyg‘unligi muhim ijtimoiy hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

Behbudiy jadid maktablari orqali yosh avlodni jismoniy tarbiyalashni maqsad qilgan. U sportni nafaqat jismoniy, balki ma’naviy tarbiya vositasi deb bilgan. Behbudiy va boshqa jadidlarning faoliyati, jumladan futbol, kurash va boshqa sport turlarini targ‘ib qilish, milliy uyg‘onish jarayonining bir qismi edi [3]

Sotsiologiyada sog‘lom turmush tarzi jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Bu masala Parsonning strukturaviy-funktsionalizm nazariyasi doirasida ko‘rib chiqilishi mumkin. Parsons (1951) fikricha, sog‘lomlik jamiyatning funksional integratsiyasi uchun asosiy shartlardan biridir. Behbudiy va jadidlar faoliyati ushbu nazariya bilan mos tushadi, chunki ular sog‘lom avlodni jamiyatning poydevori sifatida ko‘rganlar.

Behbudiyning sog‘lom turmush tarzi va sport masalasidagi qarashlariga e’tibor bersak Turkiston jamiyatining yangilanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning chiqishlari xalqning salomatligini yaxshilashga va zamonaviy sportni ommalashtirishga xizmat qilgan. Shuningdek, u ilgari surgan g‘oyalar zamonaviy O‘zbekiston sport tizimi rivojida ham aks etadi [4].

Jadidlar bosh g’oyalarini targ’ib qilishda o’z asarlaridan hamda jadid maktablaridan samarali foydalanganlar, bizni kuzatuvimizga asoslanib bu masalaga e’tiborni ikki jihatdan ko’rib chiqamiz yani **Birinchidan j**adidlar asarlari va maqollalarida sport va sog’lom turmush tarziga yondashuvi va **Ikkinchidan** jadid maktablarda jismoniy tarbiyani joriy e’tilishi ko’rib chiqsak Jumladan Mahmudxo‘ja Behbudiy "Oyna" gazetasi orqali sog‘lom turmush tarzi va jismoniy tarbiya mavzularini yoritgan. Uning maqolalaridan birida quyidagicha fikr bildirilgan: *“Tan sog‘ bo‘lmasa, aql va ruhni rivojlantirish mushkul. Shu bois har bir oila farzandining sog‘ligiga e’tibor berishi lozimdir”* [6] Behbudiy o‘zining ma’ruzalarida “*O‘quvchilarni faqat ilmdan emas, balki jismoniy mashqlardan ham qoldirmaslik lozim. Yengil sport turlari ruhni tetiklashtiradi,*” — deb ta’kidlagan.[6] Mahmudxo‘ja Behbudiyning sahna asari “Padarkush” dramasida sog‘lomlik va yoshlarning noto‘g‘ri yo‘ldan yurmasligi masalasi bevosita yoritilmasa-da, ular ma’naviy va jismoniy tarbiyaning bir-biriga bog‘liqligi haqida fikrlar mavjud: *“Ota-onalar farzandlarining ruhini boyitib, tanini asray bilmadi — bu sabab fojia yuz berdi.”*

Jadidlardan Abdulla Avloniy o’zining 1913 yil yozilgan asari “Turkiy Guliston yohud axloq” asarda jismoniy tarbiya masalasiga bag‘ishlangan maxsus bob mavjud. Masalan: “*Badan tarbiyasi degan so‘zning ma’nosi — bola yoshligidan to‘g‘ri o‘smoqligi, sog‘lom va kuchli bo‘lmog‘idir... Yolg‘iz kitob o‘qib, dars qilib, badan ishdan qolsa, bola zaif bo‘lib qoladi.*” “*Tan sog‘ bo‘lmasa, fikr va aql ishlashga qodir bo‘lmaydi...*” [7]

She’riy satrlarida Avloniy jismoniy tarbiya haqida quvidagicha fikr bildirgan.

“Sog‘lik — bu davlat, boylik, shodlik, quvonch,
Qadrini bilmas ul, etmas hech bir qonch.”

Munavvar Qori jismoniy tarbiya haqida yozgan maqolalarida sport turlarini joriy qilishni taklif qilgan. Uning “Tarbiya” nomli maqolasida quyidagicha fikr bildirgan: “*Yosh avlodni nafaqat bilimga, balki jismoniy faoliyatga ham o‘rgatish shart. Bola ham qalam ushlay olishi, ham sog‘lom yugurishi kerak,*” — degan so‘zlar mavjud. [8]

Mashhur jadid etakchilaridan Abdurauf Fitrat o’zining “Rahbari najot” asarida jismoniy tarbiya va sportga katta e’tibor qaratgan. U quyidagi jumlani keltiradi: “*Insonning jasadi va ruhi uyg‘un bo‘lsa, jamiyat yuksaladi. Shu bois sport va mashqlar yoshlar orasida keng yoyilishi zarur*.” Fitrat maktablarda sportni joriy qilish haqida maqolalar yozgan. U kurash va boshqa milliy sport turlarini ommalashtirishni taklif qilgan.

Jadid maktablarida jismoniy tarbiya darslari joriy qilingan va bu, asosan, jadidlarning har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashga bo‘lgan intilishlari bilan bog‘liq edi. Bu jarayon jadidlarning ta’lim islohotlari va sog‘lom turmush tarziga qaratilgan qarashlarining muhim qismiga aylangan.

Jadid maktablarida Jismoniy tarbiya joriy qilinishi sabablari

- ✓ Jadidlar jismoniy tarbiyani milliy maktablar uchun muhim deb bilgan,
- ✓ Ular millatning sog‘lom va ruhan barkamol bo‘lishini taraqqiyotning asosiy sharti deb hisoblaganlar.
- ✓ Yevropa mamlakatlarida jismoniy tarbiyaning ta’lim tizimiga integratsiya qilinishi Turkiston jadidlariga ilhom manbai bo‘lgan.
- ✓ Jadidlar milliy sport turlarini (kurash, chavandozlik, kamondan otish) zamonaviy jismoniy mashqlar bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilishgan.

Jadid maktablaridagi jismoniy tarbiya xususiyatlariga yondashuv o’zgacha bo’lgan. Jadid maktablari dasturlashtirilgan darslar yuzaga keldi.Ba’zi jadid maktablarida dastur asosida jismoniy mashqlar joriy qilingan. Bu darslarda milliy sport turlariga, jismoniy mashqlar va saflanish mashg‘ulotlariga alohida e’tibor berilgan. Jadidlar milliy sport turlari bilan birga zamonaviy jismoniy mashqlarni ham kiritishga harakat qilishgan. Bu, asosan, bolalarni ham ruhan, ham jismonan

tarbiyalashga qaratilgan edi. Ayrim maktablarda ochiq maydon yoki sport uchun maxsus hududlar tashkil etilgan, bu erda bolalar ochiq havoda mashq qilishgan.

Jismoniy tarbiya bo‘yicha amalga oshirilgan amaliy ishlar

- Maktablar uchun yangi dasturlar yaratilgan.
- Jadidlar maktablarida qiziqarli jismoniy mashqlarni kiritish orqali bolalar uchun ta’limni yanada jozibador qilishga intilganlar.
- Sport o‘yinlari va mashg‘ulotlari: Kurash, chavandozlik va boshqa milliy sport turlaridan tashqari, futbol va voleybol kabi jismoniy mashqlar ham o‘rgatilgan.

Barcha jadid maktablarida jismoniy tarbiya darslari majburiy bo‘lmasa-da, yirik shaharlarda tashkil etilgan ilg‘or maktablarda bu darslar joriy qilingan. Jismoniy tarbiya darslari, asosan, zamonaviy maktablarda va o‘qituvchilarning tashabbusiga ko‘ra amalga oshirilgan.

Xulosa

Mahmudxo‘ja Behbudiy va jadidlar harakati o'z davrida jamiyatni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lida sog‘lom turmush tarzi va jismoniy tarbiya masalalariga katta e’tibor qaratganlar. Ularning faoliyatida sport va jismoniy tarbiyaning nafaqat jismoniy sog‘lomlikni ta’minlash, balki ruhiy va ma’naviy yuksalishga ham xizmat qilishi kerakligi ta’kidlangan. Jadidlar sog‘lom avlodni tarbiyalashda ta'lim tizimini yangilash, milliy sport turlarini ommalashtirish va zamonaviy jismoniy mashqlarni o'rgatish bilan bog'liq islohotlar amalga oshirganlar. Behbudiy, Avloniy, Fitrat kabi jadid etakchilari o'z asarlarida jismoniy tarbiya va sportni yoshlarni ma’naviy va jismoniy jihatdan barkamol qilishning muhim vositasi sifatida ko'rganlar. Bu jarayon, shuningdek, zamonaviy O'zbekistonning sport tizimi rivojida ham aks etmoqda. Jadidlar harakatining ijtimoiy va pedagogik ahamiyati, ularning sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga bo'lgan harakatlari, nafaqat o'z davrining ehtiyojlariga javob berdi, balki bugungi kunda ham yosh avlodning jismoniy va ruhiy rivojiga muhim ta’sir ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://daryo.uz/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan-har-tomonlama-uygun-va-hamohang

2. Behbudiy, M. (1914). “Oyna” gazetasi, 12-son, Toshkent

3. Karimov, A. (2020). Jadid maktablari va jismoniy tarbiya. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.

4.Abdullayev, B. (2019). Jadidlar harakati va jismoniy tarbiya masalalari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.

5.Parsons, T. (1951). The Social System. Glencoe: Free Press.

6. “Oyna” gazetasi maqolalari (1913–1915).Mahmudxo‘ja Behbudiy bosh muharrirligida chiqarilgan. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi arxiv fondlari
7. Abdulla Avloniy. (1913). Turkiy Guliston yohud axloq.Nashriyot: Toshkent, 1913-yil.Takroriy nashrlar: 2006-yilda Toshkentda “Sharq” nashriyotida chop etilgan.
8. Munavvar Qori Abdurashidxonov. (1914). “Tarbiya” maqolasi.: Hurriyat gazetasi.
9.Mirzo Kenjabek. (1997). Turkiston jadidlari.Toshkent, Ma’naviyat.
10. Mirzayev, A. (2012). Mahmudxo‘ja Behbudiy: hayoti va faoliyati.: Toshkent, Sharq.
11. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi arxivi: www.natlib.uz
12. Ziyonet.uz platformasi.Ziyonetda jadidlar faoliyati va ularning ta’lim sohasidagi islohotlari haqida tadqiqot maqolalari mavjud. www.ziyonet.uz
13. Khalid, A. (1998). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia.Berkeley University Press.
14. Frank, A. (2001). Islamic Education in Tsarist Central Asia. Rossiya imperiyasi davrida islomiy ta’lim va jadidlarning yangi ta’lim tizimi haqidagi ma’lumotlar.

ABDUQODIR SHAKURIY - SAMARQAND JADID MAKTABI YORQIN VAKILI SIFATIDA

Xudoyqulov Yo‘lchi Azamqulovich
O‘zbekiston Respublkasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada Turkiston jadidchilik harakati, jumladan, Samarqand jadid maktabi vakillardan biri Abdulqodir Shakuriyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va u tominodan asos solingan jadid maktabi faoliyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik harakati, Samarqand jadid maktabi, yangi usul, Abduqodir Shakuriy, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, jadidchilik harakati, ma’naviy yuksalish.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o’zgarishlarni amalga oshirishda jadidlar o’zlarining ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan katta rol o’ynashgan. Turkiston o‘lkasi jadidchilik oqimi vakillari orasida Samarqand jadid maktabi faoliyati muhim o‘ringa egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Samarqand tuprog‘ida voyaga etgan Mahmudho‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Hoji Muin, Saidahmad Siddiqiy .... singari o‘nlab ma’rifat fidoiylarining qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy

qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda”, deb ta’kidlaydi[1].

Samarqandda yangi usul maktabini ochgan ma’rifatparvarlardan biri Abduqodir Shakuriy 1875 yilda Samarqandning Rajabamin qishlog‘ida bog‘bon oilasida tug‘ilgan. Shakuriy eski usuldagi maktabni tugatganidan keyin Samarqand shahridagi madrasaga o‘qishga kiradi. Abduqodir Shakuriy rus gimnaziyasiga borib, uning ichki tartib qoidalari va o‘qitish usullari bilan tanishadi. Ma’rifatparvar alloma o‘z xalqining bolalari uchun ham shu tartiblardagi yangi maktab tashkil qilishni orzu qiladi. Abduqodir Shakuriy Samarqand gimnaziyasida ko‘rgan va orzu qilgan yangi o‘qitish usullari Rossiya imperiyasi hududida yashagan boshqa turkiy xalqlarda ham mavjudligini “Tarjimon” va boshqa gazetalardan bilib oladi. Shakuriy do‘stlari yordamida Qo‘qon shahriga boradi va u erda yangi maktabdagi o‘qitish usullari bilan tanishadi. Samarqandga qaytib kelgach, o‘z qishlog‘i Rajabaminda 1901 yilda shaxsiy mablag‘lari evaziga yangi usul maktabi faoliyatini yo‘lga qo‘yadi. Doska va partalar yasattiradi, dastlab maktabda ta’lim jarayonida tatar tilidagi darsliklardan foydalanadi. Ayrim darsliklarda rus-tuzem maktablarining rus tili, arifmetikaga oid ma’lumotlaridan ham ijodiy foydalanadi. Arxiv hujjatlarining birida keltirilishicha, dastlab maktabda o‘quvchilar soni unchalik ko‘p bo‘lmagan. Abdulqodir Shukurovning yangi usul maktabidagi o‘quvchilar 13-14 ta bo‘lib, shuningdek, kechki kurslarda ham o‘quvchilar borligi yozilgan. Shakuriy maktabi xalq orasida tezda ommalashadi va butun Turkiston bo‘ylab mashhur bo‘ladi. Rus hukumati bunday maktablar ochilishiga qarshi edi, ularni qattiq nazorat qilardi. O‘sha vaqtda bu yangi maktablar uchun darsliklar ham zarur edi va Shakuriy o‘z maktabi uchun darsliklar yozadi. Bu darsliklarni ham o‘z mablag‘lari hisobiga nashr qildiradi. Shakuriy ona tilida, bolaning yoshiga mos tarzda, axloq-odob, turmush qoidalaridan ma’lumot beruvchi darsliklar tuzadi. Birinchi alifbe kitobi “Raxnamoi savod” (Savod chiqarish rahbari)ni yozadi, kitobda so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘lib ko‘rsatilgan, oxirida o‘qish uchun kichik xrestomatiya ham berilgan. U pedagogik faoliyatida “harftovush” usuli (har tovushni alohida harf bilan yozish) qulay va osonligini aniqlaydi. 1913 yili shogirdi I.Raxmatillaev uning rahbarligida tovush-harf metodi asosida yangi alifbe tuzadi. Alifbeda arab alifbosi bilan tojik tilida yozilgan bo‘lib, ko‘p yillar qo‘llanib kelinadi. Kitobning kirishida tez savod chiqarishga oid maslahat berilgan bo‘lib, 46 betdan iborat, 90 ta dars uchun mo‘ljallangan edi. 1907 yili Shakuriyning 2-kitobi “Jameul hikoyat” (Hikoyalar to‘plami) boshlang‘ich ta’limning 2-sinfi uchun xrestomatiya tarzida yoziladi. Shuningdek, “Zubdat ul-ash’or” (1907) kabi o‘quv qo‘llanmalarini yaratgan, Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan birgalikda maktablar uchun dastur tuzgan.

Abduqodir Shakuriy nafaqat Samarqandda, balki Turkistonda birinchilardan bo‘lib qizlar uchun yangi usuldagi maktabni tashkil qilgan. Bunday maktabda uning

turmush o‘rtog‘i o‘qituvchilik qilgan, keyinchalik esa o‘g‘il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o‘qita boshlagan. Shakuriy maktabida geografiya fanidan Behbudiy ham bir necha marotoba borib dars bergan. Alloma bu haqida “Turkiston viloyatining gazeti”da “...kamina raqami haruf ham haftaga bir-ikki marotaba borib tartib va prug‘rammalarini muallim ila bomashvarat tuzaturman. Jug‘rofiya va masohat to‘g‘risinda ta’lim va imtihon qilarmiz. Xulosa, alhamdullilo, maktabni rivoji yaxshi va bir oz aqcha pul to‘g‘risidan tazyiqi bordur” deydi. Shakuriy maktabida o‘quvchilarning aksariyati shahardan qatnagan va maktabning moddiy ahvoli ham talab darajasida bo‘lmagan. Buni hisobga olgan Behbudiy bu maktabni shaharga, o‘z hovlisiga ko‘chirish uchun general-gubernator murojaat qilgan. Ariza ko‘rib chiqilib, maktabni ko‘chirishga ruxsat beriladi. Yangi usul maktabida xat-savod bolalarning ona tilida Tovush usuli – usuli savtiyaga o‘rgatilgan. Maktablar asosan 1-4-sinfdan iborat boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. 1913/14 o‘quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1-bosqichi tahziriy (boshlang‘ich) sinflar, 2-bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M.Abdurashidxonovning namuna maktabi, A.Shukuriyning Samarqanddagi va A.Ibodievning Qo‘qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5-6-sinf) ham ish boshlaganligi sohani jadallashtirish sari qo‘yilgan muhim qadam bo‘ldi. Shakuriy o‘z maktabida yilda bir marta umumiy imtixon uyushtirib, ota-onalar oldida o‘quvchilar bilimini namoyish qildirar edi. Arxiv ma’lumotlarida keltirilishicha, Abdulqodir Shakuriy 1915 yil 9 maydan 11 maygacha o‘z maktabida imtixon bo‘lishini ma’lum qiladi va xalq bilim yurti inspektorini ushbu imtixonga taklif qiladi. Behbudiy maktabning faoliyatini, o‘quvchilarning bilim darajasini ko‘rsatish uchun hukumat tomonidan Likoshin bilan Vyatkin, shaharning orbo‘li ulamolari, savdogarlarini, boylar va do‘kondorlarni taklif qiladi. Ikki kun ertalab 10 dan, kech soat 6 gacha o‘quvchilar imtihon qilinadi. Natijada imtihonda qatnashganlarning ko‘pchiligi bolalar bilimidan hayratga tushadilar. Hatto ba’zilar bizning farzandlarimiz ham ilm yo‘llarini shunchalik tez egallar ekan-ku, deb, yig‘lab ham yuboradilar. “Hoji Mavlonbek janoblari olti soat qadar muttasil turib bolalarni qir’oat va diniydin bergan javoblarig‘a yig‘lab, muallimg‘a 15 so‘m hadiya berdilar”, deb yozadi Behbudiy imtihon haqida. Maktabdagi imtixon haqida, “Oddiy mahalliy maktablar va hatto rus-tuzem maktablariga nisbatan ham bu maktablardagi o‘quvchilarning bilim olishi va tarbiyasi meni mamnun etdi” deb hatto rus amaldorlari o‘zlarining esdaliklarida ma’lumot berganlar. Yangi usul maktablarini ochish bo‘yicha fuqarolardan tushgan arizalar viloyat va shahar kengashi tomonidan o‘rganilgan va muhokama etib borilgan. Masalan, Samarqand uyezd boshlig‘i viloyat harbiy gubernatoriga Rajabamin qishlog‘ida joylashgan yangi usul maktabi asoschisi Xoji Mahmudxo‘ja xoji Behbudxojaev va o‘qituvchi Mulla Abdulqodir qori

Abdushukurov tomonidan yangi maktab ochishga er ajratib berish bo‘yicha ariza berganligi va uni ijobiy hal etish uchun shahar xo‘jalik boshqarmasiga ijro uchun yuborilganligini ta’kidlab o‘tadi va muhokama qilish lozimligini aytadi. Abdushukurov maktabiga yangi joy berish masalasi shahar hokimiyati majlisida muhokama etilgan. Majlis qaroriga ko‘ra joy ajratib berilgan va xususiy mablag‘ hisobiga yangi maktab binosi qurilgan. Keyinchalik Mahmudxo‘ja Behbudiy uyidagi maktab yana Rajabamin mahallasiga yangi binoga ko‘chiriladi.

Samarqandagi Shakuriy maktabi nafaqat viloyatda balki Turkiston o‘lkasidagi shu turdagi maktablar uchun namunali hisoblangan. Samarqand shahri Qoraboy Oqsoqol mahallasida yashovchi Muxammadqul O‘rinboev 1915 yil 18 martda o‘z uyida Shakuriy maktabi asosida yangi usul maktabini ochishga ruxsat so‘ragan. Muxammadqul O‘rinboev savdogar bo‘lgan, u haqidagi ma’lumotlar sinchiklab tekshirilib maktab ochishga ruxsat berilgan. Bunday maktablar faoliyatiga eski maktab domlalari ham qarshilik qilganlar. Maktabga qarshilar Behbudiy va Shakuriyga turli xatlar bilan ham tahdid qilishgan. “Biz ahli vatan yo‘lig‘a sa’y qilib va maktab ochib, din va ilmg‘a xizmat qilmoq uchun asl kordan bexabar va zamonga nooshno kishilardan na qadarki, minnat va ta’na eshitsak ham xizmati diniya va milliyamizdan qo‘limizdan kelganini darig‘ tutmaymiz... endi maktub egasining bizg‘a yuboraturg‘an o‘limiga muntazirmiz. Har holda o‘lim birdur, ikki emas”, deb javob beradi Behbudiy tahdidlarga. Albatta hukumat jadid maktablari faoliyatini cheklashni istasada buni amalga oshira olmaydi. Buni hissobga olib imperiya ma’murlari ushbu maktablarda rus tilini o‘qitishni asta-sekinlik bilan majbur qilish kerakligini ta’kidlaydilar. Shundagini 83 bu maktab bitiruvchilari hukumatga xayrixoh bo‘lishlari mumkin deb hissoblaganlar. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, ular rus tilini o‘qitishni asta-sekinlik bilan majburiy qilish kerak va maktablar Abdushukurovning maktabi andozasida bo‘lishi lozim. Rus tilli o‘qituvchisi uchun oylikni o‘zimiz berishga rozi bo‘lamiz deb hisoblashgan. 1914 yil sentabr oyida Samarqand harbiy Gubernatori Samarqand viloyati xalq ta’limi inspektoridan Abdushukurov va Isloh yangi usul maktablarining hisoboti va u maktablardagi rus tilini o‘qiydiganlar soni xaqida ma’lumot so‘ralgan. Bizdagi ma’lumotlarga ko‘ra Abdushukurov maktabida rus tilini o‘qish uchun erkinlik berilmagan, agar maktabda rus tilini o‘qiydiganlar kam bo‘lsa ularga shahar xisobidan ajratib berilayotgan mablag‘larni qisqartirib boshqa maktabga berish kerak deyiladi. Demak, shahar mablag‘lari hisobidan Abdushukurov va Isloh maktabi rus tili o‘qitilayotgani uchun qisman ta’minlangan. Balki shahar hisobidan mablag‘ olish uchun xam rus tilini o‘qitish bahona qilingan bo‘lishi mumkin. Chunki bu maktablarning moliyaviy ta’minoti talab darajasida bo‘lmagan. Xulosa qilib aytganda, yangi usul maktablari zamon talabi asosida vujudga keldi. Biz arxiv ma’lumotlari asosida Abduqodir Shakuriyning maktabdorlik faoliyati haqida ma’lumotga ega bo‘ldik. Allomaning

pedagogik faoliyati xalqimiz tarixida ulkan o‘zgarishlarni boshlab berdi. Biz yangi usul maktablarini davr ehtiyoji sifatida qadim maktablarning islohoti hosilasi sifatida baholasak to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu maktablarda asosan o‘qitish usuli va zamonaviy dunyoviy fanlarga e’tibor berildi. Abduqodir Shakuriy va boshqa jadid maktabdorlari diniy ilmlarga qarshi bo‘lishmagan. Ular diniy va dunyoviylikni birgalikda olib borganlar. Mavjud rus ta’lim dargohlaridan farqli ravishda milliy tarix va o‘zlikni asrash shakllantirishga xizmat qilgan. Abduqodir Shakuriy faoliyati va maktabi vatanimizda ta’lim uzoq shakllangan tarixga borib taqalishini isbotlaydi. Shunchaki bu tizimni isloh qilish va zamonaviylashtirish kerak edi. Mustamlaka hukmron bo‘lgan va xalqning ongiy taraqqiyotiga qarshi kurash olib borilayotgan vaqtda hech ikkilanmay o‘z jonini va boyligini ayamay xizmat qilgan jadidlarimiz shubhasiz millatimiz tarixidagi eng buyuk namoyondalardan hissoblanishadi. Shakuriy faoliyati bizning tariximizda har doim xalqning og‘ir kunlarida uni yorug‘likka olib chiquvchi ma’rifatchilar etishib chiqqanligiga yana bir isbotdir.

Abduqodir Shakuriy 1901 yilning kuzida Rajabamin qishlog‘ida Markaziy Osiyoda ikkinchi bo‘lgan jadid maktabini tashkil qilgan edi. Shakuriy tashkil qilgan yangi maktab o‘quvchilari uchun ona tilida o‘qish kitoblari, darsliklar yaratish zarurligini yaxshi anglagan. Uning nuqtai nazaricha, bunday o‘quv adabiyotlarida bolalarning yosh xususiyatlariga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki ma’lumotlar berish zarur edi. Shuning uchun Shakuriyning o‘zi «Rahnamoi savod» (“Savod chiqarish rahbari”) alifbosini tuzgan. Shakuriy tomonidan 1907 yilda tuzilgan ikkinchi kitob «Jomeul-hikoyat» (“Hikoyalar to‘plami”) deb ataladi. Shakuriy tomonidan tuzilgan va nashr qilingan yana bir to‘plam «Zubdatul ashor» nomli o‘qish kitobi bo‘lib, unda ko‘pgina shoirlarning xilma-xil she’rlari keltirilgan.

Shakuriy 1921 yilda Samarqand shahridagi 11-maktabga mudirlik vazifasiga tayinlanadi. U shu maktabda 1925 yilgacha mudir hamda ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi bo‘lib ishladi. Turkistonning maorif jonkuyarlaridan biri bo‘lgan Shakuriy o‘zining jadid maktabini 1925 yilgacha saqlab turgan. U yopilgach, shahar maorifi 3 sinflik maktab ochgan. Shakuriy shundan keyin «men bog‘bonlik bilan shug‘ullana boshladim. Uch tanob erlik bog‘im bo‘lib, u erda o‘zim ishlayman, har yili ishchilar olib chiqib ishlataman…» – deb e’tirof etadi. Bundan Shakuriyning pedagogik faoliyatdan uzoqlashgani, mehnat faoliyatini tamomila o‘zgartirib, tirikchilik uchun bog‘bonlik bilan shug‘ullanganligi ayon bo‘ladi.

Shakuriy o‘z maqsadiga erishish uchun kuch-g‘ayratini ayamadi, shu sa’y-harakat mevasi o‘laroq, XX asrning dastlabki yillaridayoq Samarqandning Rajabamin qishlog‘ida yangi usuldagi maktab paydo bo‘ldi. Bu davrning taniqli olimlaridan biri Tursunqul (Otajon Hoshim) o‘zining «25 yillik pedagug» maqolasida Abduqodir Shakuriyning 1901 yilda «uch parta, bir lavha, bir ustol, bir

ustuli» bo‘lgan yangi usuldagi maktab ochib, muallimlik qilganligini ta’kidlagan edi. Abduqodir Shakuriy maktabi eski usuldagi maktablardan o‘qitish uslublari bilan tubdan farq qilgan. Maktabda diniy va dunyoviy ilmlar birga o‘qitilib, juda qisqa vaqt ichida savod chiqarish yo‘li tanlangan edi. Chor hukumati bu maktabning faoliyat ko‘rsatishiga rasman mo’nelik qilmasa-da, ammo uning mahalliy amaldorlari tomonidan o‘qitiladigan fanlarning dasturi qattiq nazorat qilinar edi. Ularni maktabda o‘qitiladigan diniy darslar emas, dunyoviy fanlar tashvishga solgan. Bunga sabab M.Fattoyevning e’tirof etishicha, yangi usuldagi bu maktabda arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik kabi fanlarning o‘qitilishi edi. Hukumatning mahalliy ma’murlari Shakuriyning maktabini tez-tez tekshirishar, o‘quvchilarning kitob va daftarlarini ko‘zdan kechirishardi.

Yangi usuldagi maktabning paydo bo‘lishi, uning olti oy davomida bolalarni savodli qilib etishtirishi mutaassib kishilarni, eski maktab domlalari va mahalliy amaldorlarni tashvishga soldi, ular bu maktabning izchil faoliyat ko‘rsatishiga har qanday yo‘llar bilan qarshilik ko‘rsatishga harakat qildilar. Bunday usullardan biri mullalar tomonidan ota-onalarga o‘z bolalarini bu maktabga berishni man qilish haqidagi tashviqoti edi. Qo‘rqitish maktabga qarshi tashviqotda foydalanidigan eng qulay vosita bo‘lgan. Ayniqsa, bu maktabga borgan bola dinsiz bo‘lib etishadi, deb shariat nomidan qo‘rqitish odatdagi hol edi.Hatto, maktab muallimi, shu maktabga bolasini bergan ota-ona ham kofirga chiqarilgan. Shunga o‘xshash qattiq to‘sqinlik, ta’qib va kamsitishlarga qaramasdan Shakuriy o‘z pedagogik faoliyatini sabr va bardosh bilan davom ettirib, maktabni saqlab qolish va uning moddiy bazasini mustahkamlashga harakat qildi. Shakuriyning hikoya qilishicha, u o‘z maktabi uchun eshak aravada doska va partalar olib kelganida, g‘azablangan qishloq mullalari «Endi uyingizga birorta butxona ham soling» deb piching qilganlar. Fidoiy muallim Shakuriy esa, «kerak bo‘lsa, uni ham solamiz» deb javob bergan va ishini bemalol davom ettirgan. «Afsuski, kishilar bu o‘qitish usulining foyda va haqiqatidan voqif emas edilar, – deb yozadi Abduqodir Shakuriy, - Mening o‘zim va maktabim haqida ba’zilar ta’rif-tavsif, ba’zilar esa yolg‘on xabarlar tarqatar edilar. Bolalarning maktabga kelishi va ketishi vaqtsiz, tartibsiz edi. 3-4 ta doimiy shogirdlarimdan tashqari, boshqa bolalar sabrsizlik qilardilar, ba’zilari bir oy, ikki oy, uch yoki to‘rt oy o‘qib hech qanday ruxsatsiz maktabdan ketib qolar edilar».

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabr kuni “O‘qituvchi va murabbiylar” kuni munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatida jadidchilik harakati, shaxslari haqida to’xtalib o‘tib, o‘z so‘zlarida, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Haqiqatdan ham jadid mutafakkir bobolarimizning jonkuyarligi,

ta’limga bo‘lgan e’tiborlari e’tirof etgan holda ularning hayot yo‘llari biz uchun dasturamal bo‘lmog‘i lozim. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Har bir oila o‘z farzandini bilim olishlari uchun mamlakatimiz yaratib bergan sharoitlardan keng foydalanib, ta’limga alohida qarashlari shakllandi. Ana shunday ma’rifiy g‘oya va harakatning etuk namoyondasi Shakuriy edi.

Abduqodir Shakuriy va jadid ma’rifatparvarlarining ezgu g‘oyalari, ularning ruyobi yurtimizda yangi Renessans poydevorini qurishda shubhasiz muhum ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – B.178.
2. *Amridinova D. Samarqand jadidchilik maktabi. Monografiya. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti DUK. – 2017.*
3. *Fattoyev M. Atoqli pedagoglarimiz. T.: “O‘qituvchi” nashriyoti.1988*

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY, SAID RIZO ALIZODA JADIDLAR MAKTABINING ASOSCHILARI

Mirzoulug‘bek Mediyevich Yusupov
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Pedagogika, Jismoniy madaniyat fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Qadim va hamisha navqiron, ko‘hna Samarqand zamirida dunyoga kelgan fidoi jadidlar qatorida millat fidoyisi Said Rizo Alizoda ijodi va faoliyati. Vatanimiz ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan, nogoh istiroblar chekib, tuxmat va soxta ayblovlar ostida qolib, o‘z sevgan kasbini, vatani, xalqidan judo bo‘lib, umrining oxirgi kunlarini qamoqxonada o‘tkazib, qiynoqlarga chiday olmay dunyodan ko‘z yumgan.

Kalit so‘zlar: Fidoyi jadid, vatan ozodligi, millat, soxta ayblovlar, azob o‘qubatlar.

Аннотация: Творчество Саид Ризо Ализаде, преданного нации, учённого одного из самоотверженных современников, родившихся в самом сердце древнего Самарканда. Он пожертвовал своей жизнью за свободу нашей страны, находился под клеветой и ложными обвинениями, был разлучен со своей любимой профессией, Родиной и народом, провел последние дни своей жизни в тюрьме, не выдержав пыток, и мучений умер в тюремной камере.

Ключевые слова: Преданный жадид народа, основаположник новых школ, освобождение родины, нации, ложные обвинения, страдания.

Annotation: The creativity and work of Said Rizo Alizadeh, a devotee of the nation, is one of the selfless moderns who were born in the heart of ancient and always popular, old Samarkand. He sacrificed his life for the freedom of our country, suffered sudden hardships, was under slander and false accusations, separated from his beloved profession, homeland, and people, spent the last days of his life in prison, unable to endure torture, and passed away.

Key words: Sacrifice, freedom of the homeland, nation, false accusations, suffering.

Said Rizo Alizoda fidoi jadidlar qatorida millatimizning savodxonligi yo‘lida maktablar ochib, otasi Og‘a Mirmaxsum yordamida u erda o‘qiyotganlar uchun

kerakli bo‘lgan, daftar, qalam, kitoblar bilan ta’minlagan. U kishining otasi o‘z zamonasining o‘qimishli, spoiy, millatparvar inson bo‘lgan, onasi Xadichabegim Ozarbayjonlik bo‘lgan. Ular benihoyat vatanparvar bo‘lib o‘g‘li Said Rizoning mashhur mutaffakir, qomusiy olim, muallim, muharrir, jurnalist, maqolanavist, nashrnavis, mutarjim, aktyor, rejissiyor, 14 tilni bilgan 500 dan ortiq asar yozgan. Hayotiy yo‘lida ota-ona ibrati hamda duolarini bergan insonlar bo‘lgan.

Said Rizo Alizoda 1887-yil 15-fevralda Samarqand shahrining Bog‘ishamol mahallasida dunyoga kelgan. 1945-yil 24-dekabrda Vladimir shahri turmasida vafot etgan. Ilk tahsilini Samarqand Chorraha dahasida Abulqosim Alganjining madrasasida o‘qib fors, arab keyinchalik rus va boshqa tillarni mustaqil o‘rganishga kirishadi.

1904-yilda jadid maktabida Said Rizo Alizoda Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan 19 yoshida yangi usuldagi „Jadid maktablar’’ni tashkil qilib, ular uchun zarur bo‘lgan darsliklarni yaratish borasida tinmay mehnat qiladi, uning o‘sha yillari chop etgan, “Qalam ahliga da’vat’’ to‘plamida bolalarga butunlay yangicha usullarda dars berish afzalligi, jadid maktabida o‘qitilgan fanlar bayon qilinadi va tez vaqt orasida 1907-yil e’tiboran uning nomi iqtidorli jurnalist sifatida Turkiston, Ozarbayjon, Eron, Pokiston, Hindistonda mashhur bo‘la boshladi. U barcha tayyorlagan darsliklar, pubplisistik maqolalar, she’rlar, feletonlar va boshqa o‘z qalamiga mansub bo‘lgan ishlarni “Turkiston xabarlari’’, “Samarqand”, “Xurriyat’’, „Golos Samarqandda’’ „Buxoroiy Sharif’’, „Turon’’ ro‘znomalarda chop etib, o‘sha davrdagi Siyob bozori atrofidagi chorrahada joylashgan Karvonsaroylar, Buyuk ipak yo‘li orqali uzoq qo‘shni davlatlardan savdo-sotiq uchun etib kelgan karbon boshchilari orqali vataniga olib borish va vatandoshlariga ilm uchun tarqatish maqsadida berib yuborgan va bu ishlar har doim va har vaqt bajarilib turganligi keyinchalik nodir qo‘lyozmalar asarlar, darsliklar o‘sha davlatga asralib mashhur kutubxonalarda saqlanib kelganligi tufayli topilib, hozir nusxalar Said Rizo Alizoda uy muzeyida saqlanmoqda.

O‘sha davrda Eronda chop etilgan “Tarbiat’’ Turkiyada chiqadigan “Oqshom’’, Hindistondagi „Hablul matun’’, Misrdagi “Chehranamo‘’ nufuzli nashrlarda va 1919-yilda Said Rizo Alizodada o‘zlari asos solgan oynoma “Shulai inqilob’’da chop etilgan. Ustozining komil insonligi, oddiy turmush tarzi, ilmga chanqoqligi, ko‘pgina chet ellardagi nomi jahonga mashhur, olimlar Said Rizo Alizoda bilan maktub yozib turishganlari bularda Turkiston olim Muhammad Rufat, Ozarbayjonlik ma’rifaparvar olim, bastakor, rejissiyor, Uzier Xojibekov Mashhur Arshin malolan kino film ijodkori. Mirzo Ali Sobir Qozonlik ma’rifatparvar olimlar Axmad Xoji, Maqsud Qozoniy, Afg‘on noshiri va buyuk olimi Mir Muhammad Gul’moniy, Petirbuklik shoir olimlar F.E.Petrov, I.P.Saxarov, Eronlik Ziyo

Muhammad, Mashhur Hindistonlik Mavlono Muhammad Barkatullo va ko‘plab qator mamalakatlar olimu-fuzalolari ahli ilm, ahli qalam sohiblari.

Bu vatandoshimiz ulug‘, bobokalonimiz yozgan asarlarini, ro‘znoma, oynomalarda chop etilganligi, ularni bugungi kunlarda ham ko‘zdan kechirib borsangiz Said Rizo Alizodaning zukko, aql va teran tafakkur sohibi ekanligiga tan berasiz.

Qarang, maktab islohoti deb, endigina jon kuydiryapmiz, ustoz esa yuz yildan ko‘prog‘iga oldindan buni o‘ylab kelgan, uzoqni ko‘zlaydigan, ertangi kunini o‘ylab rejalashtiradigan fikr va o‘ylovlarda, tashvishlarda bo‘lgan. Bizning shu joyda (yangi innovatsionpedagogik prinsiplarini yarata va tamal toshining asoschisi bo‘lgan deb fikrlashsak yanglishmagan bo‘lamiz).

“Hammabasirat arboblariga oshkor har bir millat va har bir toifaning ravnaqi maktab siyosatining ravnaqi islohotiga bog‘liqdur”. Yana bir misol “Har millat o‘z tili ila fahr etar” maqolasida “Ahli zamonamizdagi eng muhim masalalarning birida til masalasidur”.

Hushyor millatlar o‘zining ahamiyatini barcha masalalardan ortiq sanaydurlar. Agar til va adabiyotimizni muhofaza qilmas ekanmiz, ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘sha bersak, biroz zamonda ona tilimiz va o‘z millat tilimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta yo‘qolur” deb yozib qo‘yganlar.

Eng katta ma’naviy boyligimiz bo‘lgan buyuk o‘zbek tilimizni avaylab asrashga da’vat etgan. O‘sha vaqtlar dehqon bolalari uchun bu maktab Samarqandning Mingtut mahallasida joylashgan bo‘lib, o‘quvchilar uchun o‘zi darsliklar yoza boshlagan “Ilm hisob”, “Qalam ahliga”, “Xosilot”, “Vatan tarixi kitobi”, “Tamdurustiy” Maxmudxo‘ja Behbudiyning muharrirligida, “Oyna jurnali uchun” “Alifbe” kitoblari nashr etilgan bo‘lib, “Alifbesi” xat sovet davrida ishlatiladi. O‘sha zamonda chor mirshablari maktablari faoliyatiga to‘sqinlik qilardi, chunki o‘qimagan xalq, ular uchun yaxshi qullik kuch edi.

1913-yil avgust oyida Samarqandda nihoyatda kata o‘zgarishlar ro‘y beradi va ko‘pgina salbiy asoratlardaan so‘ng Samarqand ro‘znomasining birinchi soni o‘zbek, tojik, rus tillarida nashr etila boshlaydi. “Oyna” jurnali ham chop etila boshlaydi. Bu o‘zgarishlarning karvonboshisi hamda bosh redaktori bo‘lmish, buyuk olim mutaffakir, ustoz, shoir, turkiston jadidlar yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy ko‘pgina ulamolar tahlil va tavsiyalariga ko‘ra ijod yo‘llaridan dadil qadam bosib kelayotgan 26 yoshar qalamkash do‘sti Saidrizo Alizoda mas’ul kotib etib tayinlanadi. Va shu yilning o‘zidayoq sarmuharrir Mahmudxo‘ja Behbudiy izdoshi mas’ul kotib Saidrizo Alizodaga, o‘sha paytdagi general gubernator I’liya Zurabovich Odiysheledzega “Men deydi u mazkur mahalliy Samarqand ro‘znomasi hamda oyna jurnallarining chop etish masuliyatlarini o‘z zimmamga olaman deya so‘z beradi”. Hamda tipografiya (bosmaxona) ishlarini amalga oshirish maqsadida

Gazarov va Siliyanov bosmaxonalarida, Eronlik mashhur shoir, olim ko‘pgina ro‘znomalar sarmuharriri 14 tomlik lug‘at asoschisi Aliakbar Dehudo do‘sti Saidrizo Alizodaga 120 kgmlik arab imlosida bosma uskunasini Erondan Samarqandga yuborib hadya etadi.

Muntazam ravishda chop etilayotgan hamda Samarqand ahlini shodu-xurramlikka chorlab katta yutuqlarga erishilgan bo‘lib Yaqin sharq Osiyo mamlakatlarida ham taniqli bo‘lib jaded muxlislariga buyuk ipak yo‘li karvonlariga etkazib turgan.

Shunga qaramasdan maktablar boshqa nomlanib, qayta ochilib faoliyat ko‘rsata boshlagan. Bundan zavqlangan Mahmud Xo‘ja Behbudiy Yevropa, Osiyo, Rossiya mamlakatlarida turli xil siyosiy anjumalrga qatnashib Odessada bo‘lib o‘tgan anjumandan qaytgach, Alizoda matkabiga Globus tuxfa qilgan va uni kurs maktab o‘quvchilari zavqlanib, jug‘rofiya faniga qiziqishi oshib boradi. Said Rizo Alizodani eshitib, ko‘rib, suhbatda bo‘lgan Afg‘oniston, Turkiya, Eron davlatlariga yuksak lavozimlarga ishga taklif etishgan. Birgina Muhammad Dovud Afg‘oniston hukumati Amonullaxonnining davlat maslahatchisiga ikki marotaba tashrif buyurib yurtida “Monografik-matbuot’’ ishlarini yo‘lga quyib berishni iltimos qiladi lekin Said Rizo Alizoda bu takliflarni rad etib o‘z ona yurtida qolib, o‘z ona tilini har tamonlama nufuzi va mavqei uchun tinmay mehnat qiladi.

Mehribon do‘sti Buxoro amri hukmi bilan 1919-yilda vaxshiylarcha qatl qilganligi to‘g‘risidagi noxusg xabarni eshitib Saidrizo Alizoda juda og‘ir his tuyg‘ular bilan eslaydi. Va fikriga, boshqa yo‘l bilan ya’ni yangichasiga dunyoqarash fikrlash, va mehnat qilishga o‘zini undaydi. Va shu joyda ularning yo‘llari o‘z poyoniga etadi. Alohida yo‘l tanlagan Saidrizo Alizoda qadrdoni bo‘lmish Mahmudxo‘ja Behbudiyni doimo o‘z yuragida qalbida, asarlarida va keng xalq ommasida doim esga olib turardi.

1924-yil Said Rizo Alizoda “Zarafshon’’ nashriyotining mudiri O‘zbekiston kompartiyasi markaziy qo‘mitasining nashriyot ishlari bo‘yicha vakil bo‘lgan.

1933-1937-yillar O‘zDU talabalariga arab, fors tillarida dars beradi, 1938-yilda (Angliya josusi) deb qamoqqa olinadi, yasama soxta ayblovlarni qo‘yib, uni Tobolsk turmasiga surgun qiladilar.

Ming afsuslar kim shunday ma’rifatparvar jadid harakatining asoschilaridan birining nomi ko‘p yillar davomida unutilib kelgan hamda ro;yxatlarda bo‘lmagan. O‘ylaymizki, oramizda yashab kelayotgan millatparvar, serg‘ayrat, tinib-tinchimas bobomizning nasillarini boy madaniy va tarixiy me’rosimizdan munosib joy olishga yurt tarixiga qaytadan oqlanib yozishga o‘rganib 50 yildan ziyod vaqtini sarflagan va borini shu ishga bag‘ishlagan fidoiy inson bu bobnabiralari bo‘lmish professor Farxod Tagiyevich Alizodadir.

Boboning nomini yosh avlodga etkazgan, bularni ma’naviy bilimlarga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Bobomiz ijodini o‘rganib, xalqqa taratgan barcha yozuvchi jurnalistlarga va qalam ahliga o‘z minnadorchiligimizni bildiramiz.

Adabiyotlar:

1. F.T.Alizoda bobo haqidaSamarqand-1978 247b.
2. “Said maxallaning bir oilasi to‘g‘risida” Samarqand nashr qalam-2000 y.
3. Turkiston jadidlari. To‘plam T.2001 y.
4. Chorraha jadid maktablari Erfon-2001 y.
5. Ananstasiya Povlenko Saidrizo Alizoda biografiya 2023, Samarqand.

САИДРИЗО АЛИЗОДА - АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Рахимкулова Махбуба Бахроновна
доцент кафедры методики дошкольного, начального и специального образование Национального центра обучения педагогов новым методикам в Самаркандской области
rahimkulovam438@gmail.com, **tel:+998917016499**

Аннотация: Статья представляет собой практико-ориентированное исследование, посвященное анализу вклада Саидризо Ализода в развитие образовательной практики в Узбекистане. Автор рассматривает конкретные примеры внедрения инноватsiй, предложенных ученым, и их эффективность. Исследование может быть полезно для педагогов, методистов и образовательных менеджеров, заинтересованных в повышении качества образования.

Ключевые слова: Саидризо Ализода, образование в Узбекистане, инновации в образовании, образовательная политика, педагогика, анализ образовательной практики.

Annotatsiya: Maqola Saidrizo Alizodning O'zbekistonda ta'lim amaliyotini rivojlantirishga qo'shgan hissasini tahlil qilishga bag'ishlangan amaliyotga yo'naltirilgan tadqiqotdir. Muallif olim tomonidan taklif qilingan innovatsiyalarni joriy etishning aniq misollarini va ularning samaradorligini ko'rib chiqadi. Tadqiqot ta'lim sifatini oshirishga qiziqqan o'qituvchilar, metodistlar va ta'lim menejerlari uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Saidrizo Alizoda, O'zbekistonda ta'lim, ta'lim sohasidagi innovatsiyalar, ta'lim siyosati, pedagogika, ta'lim amaliyotini tahlil qilish.

Annotation. The article is a practice-oriented study devoted to the analysis of Saidrizo Alizoda's contribution to the development of educational practice in Uzbekistan. The author examines specific examples of the implementation of innovations proposed by the scientist and their effectiveness. The research can be useful for educators, methodologists, and educational managers interested in improving the quality of education.

Keywords: Saidrizo Alizoda, education in Uzbekistan, innovations in education, educational policy, pedagogy, analysis of educational practice.

В эволюцию образовательных практик в Узбекистане повлияли различные исторические, культурные и политические факторы, кульминатsiя которых стала преобразующим вкладом Саидризо Ализода. До его участия образовательная структура Узбекистана характеризовалась сдерживающими

методологиями, которые часто отражают более широкий социально-политический ландшафт региона, созданный преимуществами культурных обменов и исторических потрясений. Советская эпоха, в частности, оставила глубокий отпечаток на образовательной системе, отдав приоритет стандартной учебной программе, которая часто игнорировала местные культурные контексты и педагогические разработки. По мере того, как Узбекистан переходил к независимости, необходимость в образовательной реформе стала существенной, педагоги и политики стали искать инновационные подходы, которые не только уважали бы богатое культурное наследие нации, но и создавали современный мировой формационный стиль. В этой среде Саидризо Ализода стал ключевой фигурой, выступающей за более инклюзивную и адаптивную образовательную парадигму, которая объединяет критическое мышление, креативность и интеграцию местных знаний в учебную программу. Его инициативы вызвали переоценку существующих практик, возможностей создания среды, благоприятствующей экспериментированию и инновационным методам обучения. Целью этой статьи является анализ, внесенный Ализоди в практику развития образования в Узбекистане, изучение того, как его видение приводит к формированию образовательного ландшафта, и выявление серьезных проблем, с которыми сталкивается страна в своем стремлении к эффективному и культурно соответствующему образованию. Благодаря подробному изучению исторических прецедентов, культурных тонкостей и политического фона, это исследование объясняет инновационность работ Ализоды и ее последствия для будущего образования в Узбекистане.

Каковы были основные образовательные практики в Узбекистане для вклада Саидризо Ализода?

Значительный вклад Саидризо Ализода в образовательную практику в Узбекистане характеризовался сочетанием традиций и современных влияний, которые сформировали интеллектуальный ландшафт региона. Образовательная система в основном вращалась вокруг медресе, где особое внимание уделялось религиозным и философским учениям, способствуя глубокому пониманию исламских текстов и пресечению. Эти учреждения часто служили образованием, предоставляя не только религиозное образование, но и такие предметы, как математика, астрономия и литература, которые были необходимы для любого внешнего академического образования. Кроме того, упор на устаревшую традицию сыграл решающую роль, поскольку у студентов, обучавшихся посредством заучивания и декламации, развивалось сильное чувство общности и культурной идентичности. Несмотря на эти устоявшиеся практики, отсутствие

формализованного, широко распространенного доступа к образованию ограничивало возможности для многих, особенно женщин и жителей сельской местности. Однако появление таких личностей, как Саидризо Ализода, ознаменовало собой кардинальный сдвиг в этой динамике, поскольку он осознал необходимость преобразования и создания более структурированных образовательных рамок, что в конечном итоге привело к основанию университета в Самарканде, который расширил доступ к образованию и диверсифицировал возможности обучения.

Как исторические события сформировали нынешнюю образовательную систему в Узбекистане?

Система образования в Узбекистане сегодня является результатом сложных исторических событий, которые сформировали ее эволюцию с течением времени. Исламское образование, которое доминировало в колониальный период, оставило неизгладимые следы в нынешней эпохе, поскольку когда-то оно отдавало приоритет религиозным учениям под контролем исламского духовенства. Однако приход царской России ввел светское образование, которое давало научные знания, осознав тенденцию в приоритетах образования и приведя к росту светских школ среди населения. Этот переход встретил сопротивление со стороны исламского духовенства, которое выступало против реформы, отделивших образование от религиозного общества. В последующую советскую эпоху еще больше преобразовала образовательный ландшафт Узбекистана, которая делала упор на профессионально-техническую подготовку, отражая советскую экономическую модель и устанавливая путь к элитному статусу через высшие технологические учреждения. К концу XIX века и в советский период образование служило не только экономической передачей, но и мощной политикой, укрепляя цели государства и одновременно способствуя постепенному изменению культуры в сторону секуляризма. После обретения Узбекистаном независимости в 1991 году унаследованная система образования оказала сильное влияние советского прошлого, характеризовавшегося поворотным акцентом на подготовку учителей и специализированных институтов, которые обслуживали экономику. В ответ на продолжающиеся общественные изменения недавние реформы были направлены на интернационализацию образования и приведение его в соответствие с потребностями рынка, что отражает отход от современного общественного прошлого и постоянно решает проблемы доступа и равенства в нынешнем образовательном ландшафте.

Какую роль играют культурные и политические факторы в эволюции методов обучения в странах?

Культурные и политические факторы сыграли решающую роль в изменении методики образования, особенно в девяти крупных международных школьных округах. Например, политическое давление в таких городах, как Нью-Йорк и Балтимор, привело к принятию культурно-чувствительных и поддерживающих образовательных подходов, которые направлены на лучшее обслуживание бедных групп учащихся путем признания и включения их культурного происхождения в учебную программу. Эта эволюция отражает более широкое движение к инклюзивности в образовании, поскольку округа реагируют на демографические сдвиги и движения за экономическую справедливость, возникшие на последних выборах. В совокупности культурные факторы также важны для подготовки учителей, что приводит к интеграции культурно-чувствительных методов их обучения в технологических программах. Обучаемые будущие педагоги интерпретируют и ценят культурный контекст своих принципов, эти программы обеспечивают более осмысленный опыт обучения и позволяют преодолеть разрыв между потерянной жизнью и школьным развитием. В разработке этих культурных и политических принципов принимаются меры по повышению эффективности методов обучения с учетом реалий учащихся, что в конечном итоге обеспечивает формирование более справедливой образовательной среды.

Анализ, представленный в этой исследовательской работе, приводит к глубокому влиянию Саидризо Ализода на эволюцию образовательных практик в Узбекистане, особенно в двадцатилетней истории, сотканной из традиционных и современных влияний. С.Ализода вступил в поворотный момент, когда Узбекистан боролся с остатками советской образовательной системы, которая ставила следующие цели - консервативное поведение, особенно для маргинальных групп, таких как женщины и демократизированное государство. Выступая за реформы, направленные на модернизацию и интернационализацию образования, С.Ализода бросил вызов статус-кво и повернулась к крайним вопросам доступа и равенства. Этот сдвиг имеет решающее значение, поскольку предыдущая образовательная структура, на которую сильное влияние повлияла медресе, не должна готовить студентов таким образом, чтобы соответствовать требованиям современного общества. Хотя в работе применяются меры инклюзивности и реагирования на различные истоки студентов, в ней также признаются текущие культурные и политические факторы, которые продолжают формировать образовательные методики в Узбекистане. Однако обсуждение также должно учитывать ограничения, такие как потенциальная предвзятость в экономическом вкладе Ализоды, сложные исторические исторические взаимодействия и

современные реформы. Будущие исследования могли бы выиграть от длительных исследований, которые приводят к долгосрочным эффектам инноваций в образовании, особенно в сельской местности или среди женщин, тем самым достигается более тонкое понимание образовательного ландшафта. Кроме того, изучение сравнительных принципов с другими постсоветскими государствами может дать представление об общих проблемах и успешных стратегиях образовательной реформы. В конечном счете, это обсуждение не только контекстуализирует влияние жадидов в более современной истории и культуре Узбекистана, но и создает критическую необходимость в постоянном диалоге и исследованиях, направленных на сравнительно более справедливую и отзывчивую образовательную среду для всех учащихся.

Литература:

1. *On Repressed from Samarkand State University*. (n.d.) retrieved January 3, 2025, from media.neliti.com
2. (n.d.) retrieved January 3, 2025, from www.childresearch.net/papers/school/2004_05.html
3. *9049810*. (n.d.) retrieved January 3, 2025, from core.ac.uk/download/pdf/9049810.pdf
4. *Uzbekistan: Higher Education Reforms and the Changing Landscape Since Independence*. (n.d.) retrieved January 3, 2025, from link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-319-52980-6_17
5. *What Is Culturally Responsive Teaching?*. (n.d.) retrieved January 3, 2025, from www.edweek.org

ILMIY MEROSIDA YOSHLAR MUAMMOSINING ILMIY TALQINI

Sharopova Diyora
Navoiy davlat universiteti “Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jadidchilikning vujudga kelishi XX asr boshlarida Turkiston hududida faoliyat olib borgan jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning millat ongini o‘stirish borasidagi fikrlari ijtimoiy-tarixiy jihatdan bayon etilgan. Behbudiy - muftiy va dramaturg. Milliy uygonish va yangi ma’rifatchilik. Ilm-fan va ta’lim-tarbiyaga e’tibor.Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renesans davrida jaded ma’rifatparvarlarining ilmiy merosini o‘rganish muhim ahamiyatga egadir.

Kalit so‘zlar: Turkiston, jadid, jadidchilik, milliy til, teatr, adabiyot, chorizm mustamlakachiligi, ma’rifatparvarlik g‘oyalari.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida o’tgan asrimizning 20-yillarida mahalliy matbuotda uning zamondoshlari tomonidan Behbudiyning bir qator maqola va xotiralari e’lon qilingan. 1926-yil sharqshunos

Laziz Azizzoda “Agar O’zbekistonda Navoiy va Ulug’bekdan boshqa uchinchi bir ilm va madaniyat arbobiga haykal qo’yiladigan bo’lsa, shubhasiz, bu Behbudiyning haykali bo’lg’usidir”[1], deb ta’kidlagan edi. Keyingi yilllarda, xususan, vatanimiz o’z mustaqilligini qo’lga kiritganidan so’ng jadidlar faoliyatini o‘rganishga e’tibor qiziqish kuchaydi va Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi. Biz Behbudiyni Turkistonda tez fursat ichida shakllanib rivojlanib kelayotgan Turkiston jadidchilik harakatining rahnamosi, yalovbardori, mustaqil jumhuriyat tashkil etish tarafdori, uning nazariyotchisi va amaliyotchisi shu bilan birga birinchi o’zbek dramaturgi, noshir, teatrchi, jurnalist va tarjimon sifatida qadrlaymiz.

Mahmudxo’ja Behbudiy tariximizning g’oyatda bir “qora” kunlarida yashadi. Shunga qaramay u bidatga qarshi kurashib dinni to’g’ri tushunish va targ’ib etishga xalqni zamona ilm-fanidan boxabar bo’lishga da’vat etgan. O’lkamizni bosib olgan chor hukumati xalqimizni tutqunlikda turg’un va tutqun saqlashga, uni o’ziga tobe sifatida bo’ysundirib turishga urinar edi. Mana shunday qiyin bir holatda millatni butunlay mahv bo’lishi xalqni uning urf-odatlarini, qadriyatlarini, madaniyatini uning o’tmishini saqlab qolish va uni avlodlarini erk va ozodlik hurriyat mustaqillik ruhida tarbiyalash, uni ma’rifat va taraqqiyot, kelajak sari boshlash jadidlar nomi bilan tariximizda o’chmas iz qoldirgan Behbudiy boshliq fidoiylar zimmasiga tushdi. Va ular xalqning erk va ozodligi uchun kurashdilar, umrlarini shunga baxshida etganlar.

Xalqimiz ko’p yillar davomida chorizm istilosi davrida yashadi va uzoq yillar davomida kutgan o’zining istiqboliga erishdi, uning o’z istiqlolchiligining kurtagi dastlab jadidlar taraqqiyotida rivojlangan edi. Buni yurakdan his etgan, teran tafakkur bilan mushohada etgan Turkiston jadidlarining sarkori Mahmudxo’ja Behbudiy, “ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq millat va vatanning axvolidan kundalik hayotidan ogoh bo’lmoq kerak edi. Binobarin millat uchun shunday oyna kerak ediki unda u o’z qabohatini ham malohatini ham ko’ra olsin”[2], deb ta’kidlaganida u benihoya haq edi. Mana shunga ehtiyoj va zarurat Behbudiyni teatr drammachiligi sari boshladi va “Padarkush” asari shu tariqa maydonga keldi. Biroq bu asarning dunyo yuzini ko’rishi oson kechmadi. Bundan chor hukumati o’zining mustamlakachilik g’oyalarini fosh etilishidan, o’zining haq-huquqlarini oshkora etilishidan va Turkiston xalqining ma’rifat yo’liga kirib o’z haq-huquqlarini anglashidan manfatdor emas edi.

Turkistonda Milliy Uyg’onish harakatining ulug’ etakchisi va bayroqdori bo’lgan Mahmudxo’ja Behbudiy faqat birinchi dramaturg bo’libgina qolmay, milliy

[1] Alimova D., Rashidova M. Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri T.: “Akademiya” nashriyoti 1999. 5-bet.

[2] Qosimov B. Milliy o’yg’onish. T.: “Ma’naviyat” 2002. 219-bet.

teatr san’ati nazariyasining ham ilk asoschilaridan hisoblanadi. U o’z vaqtida Saidahmad Vasliy, Fazlulvahhob qori kabi teatr san’atini shar’an harom deb isbot qilmoqchi bo’lgan eski ulamolarning chiqishlariga javoban islomiy manbalar va mantiqiy dalillarga tayanib, teatr san’atining «darsxonai ibrat» va shar’an savob ekanligini isbot qilib berdi.

1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Mutaxasislar va behbudiyshunos olimlar, ushbu asarni janr va mazmuniga ko’ra yangi o’zbek adabiyotini boshlab bergan asar sifatida baholaydilar. Behbudiy “milliy fojea” deb atagan uch parda va to’rt manzarali bu drama hajman qisqa ixcham mazmunan sodda va jo’n bo’lib asarning mazmuni nihoyatda boy. Unda jaholat ilmsizlik, nodonlik yoxud o’qimagan ilmsiz bolaning buzuq, nopok yo’llarga kirib o’z otasini o’ldirganligi haqida so’z yuritiladi. Agarda millat shu holga tushsa-chi? Uning tarixi va kelajagi qanday bo’ladi, kelajakda uni qanday yutuq va muvafaqqiyatsizliklar kutmoqda. Behbudiy bular haqida chuqur o’ylaydi, qayg’uga botadi. 1899-1900-yillarda Behbudiy arab mamlakatlarida haj safarida bo’ldi. Albatta bu sayru-sayohat emas xizmat safari edi va tatar ziyolilari bilan madaniy v ma’rifiy aloqani yo’lga qo’ydi.

Behbudiy qaysi shaharga bormasin uning tarixini, u erda etishib chiqqan tarixiy siymolar, u erdagi buyuk zotlarni va uni dini, e’tiqodi, urf-odatlari hamda ilmi ma’rifati haqida ma’lumotlar to’playdi. U erning tili, maorifini Turkiston maorifi bilan solishtirib yutuq va kamchiliklarimizni ko’pgina dalillar bilan isbot qilib beradi. Behbudiy fikricha, jamiyat tanazzulining boisi millat farzandlarining davr talab qilgan darajadagi kamolatga intilmasligidadir. Bu to’g’risida, Behbudiy, “boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe ekan, bizni ulamo bil’aks avomg’a tobedur? Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o’ttiz sana so’ngra yana yomonroq bo’lur. Musulmonlik ilm va odob ila qoim millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur”[3], deb qayg’uga botadi, tashvishga tushadi. Mahmudxo’ja Behbudiyni qaysi bir asarini yoki maqolasini tahlil etmaylik unda millatni ma’rifatga undaydi. Yoshlarni ilmu-ma’rifatga o’z ona tilisi bilan bir qatorda chet tillardan birini mukammal o’rganishga dav’at etadi. Jumladan, Behbudiy “Ikki emas, to’rt til lozim” maqolasida quyidagi so’zlarni aytadi. “Bizg’a lozimki, o’z naf’imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarinda o’quylik…. Vatanimizg’a va o’z dinimizg’a xidmat (*xizmat-D.Sh.*) etaylik. Musulmon bo’lib turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanot va mamlakat ishlari, xatto dini islom va millatg’a xizmat ilmsiz bo’lmaydur”[4] Chorizm istilosi davrida Behbudiy tomonidan yozilgan bu so’zlar bugungi istiqlolimiz kunlariga erishishimizda muhim xizmat qildi va xizmat qilmoqda desak hech-hech

[3] Mahmudxo’ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: “Ma’naviyat” 1999. 203-bet.

[4] Mahmudxo’ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: “Ma’naviyat” 1999. 152-bet.

yanglishmagan bo’lamiz. Ochiq tan olish kerak, bugun aniq fanlar, tabiiy-iqtisodiy bilimlar sohasida ham muammolar ko’p, ammo ma’naviyat, milliy mafkura sohasida ahvol o’ta murakkab. XX asr milliy ma’naviyatimiz ulkan yutuqlarga erishdi, bu sohada, ayniqsa, 20-30 yillar milliy ziyolilarimizning jonbozligini aslo unutmasligimiz kerak. Kelgusida ham uning nomi yanada ulug’lanadi, avlodlar ardog’ida mangu yashaydi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Mahmudxo’ja Behbudiy XX asr o’zbek xalqi tarixining quyoshi sifatida maydonga keldi va tariximizda o’chmas iz qoldirgan buyuk siymolarimiz qatoridan munosib o’rin egalladi.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY TURKISTON TARAQQIYPARLAR HARAKATINING G‘OYAVIY RAHNAMOSI

Tagayev Ganisher Xasanovich
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti.
Tel: (+998 97) 392-92-09

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining namoyandalari o‘zlarining bilim salohiyati, fidoyilik xususiyatlari, insoniylik xislatlari, ijtimoiy-ma’naviy va siyosiy faoliyatlari bilan ajralib turuvchi xalqning eng ilg‘or vakillari bo‘lib tarix maydoniga kirib keldilar.

Jadidlar o‘z faoliyatlarida ma’rifatparvarlik bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarni ham ilgari surdilar. Ularning vazifasi Turkistonni chor hukumati mustamlakachiligidan ozod etish edi. o‘zlarining g‘oyalari, maqsadlari, vazifalarini targ‘ib etish yo‘lida Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon shaharlarida gazeta va jurnallar chiqara boshlaganlar. Chunki ular matbuotni g‘oya tarqatishdagi asosiy qurol deb bildilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ham o‘sha davrdagi vaqtli matbuot sahifalarida Turkistondagi zulm va mahalliy istibdodga qarshi erk va ma’rifat, madaniyat, milliy ozodlik va adolat uchun kurash g‘oyalarini targ‘ib etuvchi maqolalari bilan chiqishlar qilgan va bu kurashda hamma jadidlarni birlashishga chaqirgan[2:36]. Uning publisistik chiqishlari 1917 yilga qadar Turkistonda Behbudiydan oldin turadigan ikkinchi bir kishining yo‘qligini ko‘rsatdi. Shuning uchun ham, davlat va jamoat arbobi F.Xo‘jayev “…o‘sha davrdagi Turkiston jadidlari orasida ham siyosiy, ham ijtimoiy faoliyat va bilimi kengligi jihatdan Mahmudxo‘ja Behbudiyga teng keladigani topilmasa kerak”[6:6], - deb yozgan edi.

Vatan, millat, din, ilm-fan, maorifni yosh avlod orasida ravnaq ettirish va umuman, umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etish maqsadida Mahmudxo‘ja Behbudiy ham 1913 yilning aprel oyidan boshlab “Samarqand” gazetasini chiqara

boshlaydi. Gazeta Samarqandda “Gazarov va Smeyanov” tipografiyasida nashrdan chiqarilar edi. Bu gazeta nafaqat Samarqand, balki Turkiston yoshlari orasida obro‘ qozongan edi. “Samarqand” gazetasi Turkistonda madaniyat, ma’rifat va taraqqiyot targ‘ibotchisi sifatida juda katta faollik ko‘rsatib, mahalliy maktab va madrasalardagi o‘rta asrcha ko‘hna o‘qitish usullariga qarshi kurashni boshlab yubordi. U o‘z sahifalarida “Usuli jadid maktabi uchun bosilgan tayyor kitoblar” nomli yangi rubrika ochib, unda Turkistonda chop etilayotgan ilm, fanga oid kitoblar, darsliklar, to‘plamlar, tarjima qilingan asarlar haqida ma’lumotlar, izohlar, sharhlar, taqrizlar berib bordi. Ularda zulm, zo‘rlik, haqsizlik, ma’rifatsizlik natijasida nochor holga kelgan o‘zbek xalqining kelgusi taqdiri haqida afsus bilan yozilgan hamda bu holdan tezda chiqish yo‘lida yoshlarga tayanish kerakligi haqida haqqoniy fikrlar bildirilgan edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z noshirlik faoliyatini keyin ham davom ettirib, 1913 yilning avgustidan rus, o‘zbek va tojik tillarida “Oyna” musulmonlar jurnalini nashr qila boshlaydi. “Oyna” jurnali orqali o‘zbek ziyoli ma’rifatparvarlari madaniyat va ma’rifat tarqatdilar. Jurnalda millat ravnaqi, haq-huquqi, tarixi, til-adabiyot masalalariga doir qiziqarli maqolalar berib kelingan. Masalan, ilmiy “Jug‘rofiya nadur?”, “Yer”, “Quyosh”, “Tarix va jug‘rofiya”, “Teatr nadur?” maqolalari; hayotdagi yangi voqyea-hodisalar haqidagi “Samarqandda elektr tramvay”, “Buxoroda temir yo‘l”, “Andijonda yangi bank”; teatr havaskorlari truppalarining tashkil etilishi, tayyorlanayotgan va o‘tkazilgan premyeralar; chet elda tahsil olayotgan talabalar, yangi maktablar hisobiga tushayotgan mablag‘lar va xarajatlar; yangi kutubxonalar, qiroatxonalar; Qozon, Orenburg, Qrim, Hindiston, Misr, Eron, Turkiyadan keltirilgan kitoblar ro‘yxati, Farangiston, Olmoniya, Angliya, Belgiya, Italiya, Rossiya va boshqa mamlakatlardagi teatrlar soni, u bilan raqiblikka tushgan sinematografiya va boshqalar haqida maqolalar chop etilgan.

M.Behbudiy noshirlik faoliyatini davom ettirib, “Behbudiya” nashriyotini ochadi. U A.Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini ruschaga tarjima qildirib, nashrdan chiqaradi[1:102]. Mahmudxo‘ja Behbudiy ham boshqa jadidlar qatori faqat madaniyat, ma’rifat ravnaqi uchungina kurashmay, balki siyosiy g‘oyalar bilan ham chiqishlar qilgan. M.Behbudiy vujudga kela boshlagan yangi siyosiy partiyalar, guruhlar o‘z faoliyatida demokratik talablarni asos qilib olsalargina xalqning xohish-irodasi bajariladi, deb qayta-qayta ta’kidladi va bu fikrlarni hayotga tadbiq etishga intildi[4]. Demak, M. Behbudiy mustamlakachilik siyosatini qoralab, o‘lkada demokratik huquqlar poymol qilinayotganligi, yoshlar esa mahalliy xalq ozodligi uchun intilishi kerakligini targ‘ib qilgan. Buning uchun siyosiy kurash olib borgan. M.Behbudiy o‘z xalqining taraqqiyotini nafaqat ma’rifat bilan, balki siyosiy o‘zgarishlar, mustaqillikka erishish bilan bog‘lagan. O‘zining aksariyat maqolalarida rus chorizmining mustamlakachilik siyosatini ochib tashlaydi, go‘yoki

bular mahalliy aholi foydasi uchun qabul qilinganday, aslida uning ahvolini og‘irlashtirishga yo‘naltirilgan qonunlarni tanqid qiladi[2:46-47].

Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifat haqida, mahalliy xalqdan etishib chiqishi lozim bo‘lgan yosh milliy mutaxassislar haqida fikr yuritib, mahalliy bolalarni Peterburg, Qozon va boshqa yirik shaharlarga ilm olish uchun yuborishga chaqiradi. Munavvarqori Abdurashidxonov jadid maktabini tuzishdan maqsad “Xalqning umumiy saviyasini ko‘tarish, zamonaviy fanlarni egallagan injener, vrach, jurnalist, yuristdan tortib, davlat arbobigacha bo‘lgan kishilarni tarbiyalash va ular yordamida davlat idoralarini erlilashtirish, shu tarzda mustamlakachilarni Turkiston tasarrufidan siqib chiqarish” kerakligi haqida yozgan edi[3:31].

Mahmudxo‘ja Behbudiy ilm-fan va madaniyatda boshqa xalqlardan orqada qolish sabablarini tahlil qilib berar ekan, shunday deydi: “Oxirgi yarim ming yil biz musulmonlar fan va falsafada orqada qoldik. Qaranglar, boshqa davlat xalqlarida dunyoqarash qanday o‘zgargan. Biz ham ilm-fan va falsafaning yangi cho‘qqilariga etishishda materializm, ateizm va sotsial-demokratlar bilan muvaffaqiyatli kurashmog‘imiz kerak. Chunki materialistlar, ateistlar va sotsial-demokratlar bilan besh yuz yil oldingi falsafa, qalam tartibotlari va dalillari bilan kurash olib borish mumkin emas”[5:212].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston mahalliy xalqlarining siyosiy, milliy va iqtisodiy manfaatlarini himoya etish jadidlarning faoliyatida ustuvor masalaga aylangan edi. Shu bilan birga, ular Turkiston fuqarolari jamiyat hayotining barcha iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va madaniy jabhalarida teng huquqqa ega bo‘lishlari lozimligini ham targ‘ib qilganlar. Aynan shu tashabbuslarda Maxmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy hamda ilmiy qarashlari butun Turkiston o‘lkasida keng samara bera boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абд-ур-Рауфъ. Рассказы индийского путешественника (Бухара как она есть). Самарканд: Махмудходжа Бегбуди. 1913. 102 с.
2. Алимова Д. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури. // Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. - Т., 1999. Б. 36.
3. Каримов Н. XX аср бошларидаги тарихий вазият ва жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши.// Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Даврий тўплам №1).-Т.,1999.Б.33.
4. Қаранг: Беҳбудий М. Хайр ул-умури авсатуҳо. // Хуршид. 1906. 11 окт.
5. Қаранг: Муминов И. Избр. произв. Т. 2. - Т.: Узбекистан. 1976. С. 212.
6. Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. - Т., 1926. Б. 6.
7. Хуршид. 1906. № 10.

5-SHO‘BA

TURKISTON JADID NAMOYONDALARINING YANGI O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATIDA TUTGAN O‘RNI

JADIDCHILIK MOHIYATI HAQIDA O‘ZBEK VA XORIJIY TADQIQOTCHILARNING FIKR-MULOHAZALARI

Patiyev Xoldor Ikromovich
Termiz davlat pedagogika institute falsafa, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi
xpatiyev@gmail.com, +998972268889

Annotatsiya: Mazkur maqola XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining mohiyati, uning ma’rifiy, siyosiy va madaniy jihatlari haqida bahs yuritadi. Tadqiqotda o‘zbek va xorijiy olimlarning ushbu harakatga oid turli qarashlari tahlil qilinadi. D.Alimova, X.Ashurova va boshqa tadqiqotchilarning fikrlari orqali jadidchilikning aholi ongiga ko‘rsatgan ta’siri, ichki bo‘linishlari va xalqni uyg‘otishdagi o‘rni yoritiladi. Sovet davridagi tanqidlar va jadidchilikka nisbatan noto‘g‘ri yondashuvlar izohlanadi. Xorijiy olimlar – A. Bennigsen, A.Xolid va A.Zaki Validiy kabi mutafakkirlarning mulohazalari asosida jadidchilikning xalqaro e’tirofi va ta’siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, F.Xo‘jaev, ma’rifiy harakat, siyosiy islohot, diniy yangilanish, O‘rta Osiyo, panturkizm, milliy uyg‘onish.

Kirish. Jadidchilik harakati Sharqning Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmon xalqlarining ijtimoiy-madaniy uyg‘onishi natijasida yuzaga kelgan. Ushbu harakatning boshlanishida ma’rifiy maqsadlar ustuvor bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan u keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy harakatga aylandi. O‘z davrining ilg‘or ziyolilari, jumladan, Munavvarqori, Behbudiy, I.Ibrat, A.Avloniy kabi jadidchilar tomonidan olib borilgan faoliyat Turkiston xalqlarining ongini uyg‘otish va madaniy hayotini yangilashga qaratilgan edi. Maqola jadidchilik harakatining mohiyati, uning bosqichlari va g‘oyalari atrofida bahs yuritib, bu jarayonning ijtimoiy, madaniy va siyosiy islohotlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda o‘zbek va xorijiy tadqiqotchilarning jadidchilik haqidagi mulohazalari va turlicha baholari keltiriladi. Sovet davridagi tanqidiy yondashuvlar, jadidchilarning g‘oyaviy pozitsiyalari va harakatlarining xalqaro ahamiyati tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada jadidchilik harakatining mohiyatini o‘rganishda o‘zbek va xorijiy tadqiqotchilarning asarlariga tayanilgan.

Jumladan: **Tarix fanlari doktori D.Alimova** tomonidan F.Xo‘jaev, M.Behbudiy, A.Fitrat kabi ajdodlarimiz faoliyati orqali jadidchilikning rivojlanishi, uning siyosiy jarayonlarga aylanish bosqichlari tahlil qilingan. Muallif jadidchilikni ma’rifiy va madaniy islohotlardan siyosiy harakatga aylangan jarayon sifatida talqin qilsa, Tatar olimi **Y.G. Abdullin** va boshqa mualliflarning asarlarida jadidchilikning ijtimoiy qatlamlararo ahamiyati va tabaqalar manfaatlarini uyg‘unlashtirganligi qayd etilgan. Falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) **X.Ashurova** esa jadidchilikning ijtimoiy hayotdagi yangilikka yo‘naltirilgan pozitsiyasini ta’kidlab, uning turli davrlarda noto‘g‘ri talqin qilinganini yoritadi. Xorijiy tadqiqotchilar, xususan, **A.Bennigsen** va **A.Xolid**, jadidchilikning ijtimoiy va madaniy islohotlarga

qaratilgan yondashuvlarini, shuningdek, uning xalqaro ahamiyatini ko‘rsatib o‘tadilar. **Ahmad-Zaki Validiy** va **A. Xolid** kabi olimlar jadidchilikni musulmon dunyosining zamonaviy madaniyat va tafakkurga moslashish harakati sifatida tahlil qilganlar. Maqolada sovet davrida jadidchilikka nisbatan tanqidiy yondashuv va uning aksilinqilobiy sifatida baholanishi borasida ham ko‘plab tadqiqotlarga murojaat qilingan. Ushbu tanqidiy qarashlar jadidchilik harakatining ijtimoiy ahamiyatini to‘g‘ri baholashga to‘sqinlik qilgan.

Metodologiya. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar va usullardan foydalanilgan: t**ahliliy yondashuv**, **tarixiy yondashuv, ilmiy-nazariy yondashuv, taqqosiy usul, kontekstual tahlil.**

Tahlil va natijalar. D.Alimova “Fayzulla Xo‘jaev va jadidchilik” deb nom olgan maqolasida Yosh Buxoroliklar siyosiy partiyasining rahbari bo‘lgan, keyinchalik BXSR va O‘zbekiston SSR rahbari lavozimida ishlagan F. Xo‘jaevning jadidchilikka bo‘lgan dastlabki munosabati va ta’qiblar hamda tanqidlar davomida fikrlarini o‘zgartirishga majbur bo‘lganligi haqida ma’lumotlar beradi. Muallif bu faoliyatni tahlil qilish borasida quyidagicha mulohazalarini bayon qiladi: “…jadidchilik harakatida orqaga qaytish yo‘q edi: ma’rifatchilik va tor doiradagi madaniylashtirishdan ish boshlab u siyosiy harakatga aylandi, o‘z oldiga jamiyatni va uni boshqarishni qayta qurishdek vazifalarni qo‘ydi”[1:43]. Demak, harakat ma’rifatchilik, madaniylashtirish va siyosiy harakat bosqichlarini bosib o‘tganligini hamda bu bosqichlar davomida aholining turli tabaqalarini o‘ziga jalb qilganliklarini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Ko‘pchilik tadqiqotchilar harakatning maqsadlari o‘zlariga mos bo‘lmagan qishloq boylari va o‘ziga to‘q dehqonlari qo‘shilmaganligi haqida ma’lumotlar keltirganlar. Jadidlarning ko‘pchiligi moddiy jihatdan kam va o‘rta ta’minlangan ziyolilar va mayda burjaziya vakillari, diniy maktab talabalari, mayda amaldorlar, mayda do‘kondorlar hamda qisman yirik savdogarlar bo‘lgan. Harakatda qatnashgan barcha tabaqa vakillari umumiy manfaatlar yo‘lida harakat qilganlar.

Bu haqida tatar faylasufi Y.G.Abdullin yozganidek, “jadidchilikka qo‘shilgan turli tabaqa va ijtimoiy guruhlar vakillari hech qanday shaxsiy maqsadni ko‘zlamagan va shunga mos ravishda turli manfaatlarni himoya qilganlar”[2:165]. Bundan shunday xulosa chiqarsak bo‘ladiki, harakatda qatnashgan turli tabaqa vakillari umumiy holat yaxshilansagina shaxsiy manfaatlari uchun foydali bo‘lishini to‘g‘ri anglaganlar. Jadidchilikning gnesiologik tomoniga e’tibor qaratadigan bo’lsak, Jadidchilar yangi bilimlarni o’rganish va tarqatishga, an’anaviy qarashlardan zamonaviy qarashlarni shakllantirishni maqsad qilgan edi. Bu jarayon insonning bilim olishi, tajriba va mantiqiy fikrlash orqali amalga oshadi. Ular, shuningdek, ilm-fanning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyatiga yuqori baho beradi. Dastlabki bosqichda eskilik va yangilik o‘rtasidagi qarama-qarshilik bo‘lgan

bo‘lsa, yangilik tarafdori bo‘lgan jadidchilik o‘rtasida ham “og‘irlik, vazminlik va bosiqlik” bilan harakat qiluvchi yoshi ulug‘ jadidchilar va keskinlik bilan barcha narsani tubdan yangilamoqchi bo‘lgan so‘l, ya’ni yosh jadidchilar bo‘linishi yuz berdi. Bu esa pirovardida jadidchilik harakati ichida bo‘linishlarga olib keldi. Shunday qilib, “jadidchilik harakatini o‘zining tor sinfiy manfaatlariga moslashtirishga intilgan milliy liberal burjuaziya mafkurachilari keyinchalik milliy burjua tashkilotlari boshida turishdi”[2:165}. Bunday bo‘linish nafaqat Turkiston, balki boshqa o‘lkalarda ham yuz berib, so‘l jadidchilar tomonidan yangi dasturga ega bo‘lgan firqalarga asos solindi. Bunday partiyalar Ozarbayjonda - Musavatchilar, Tataristonda - Musulmonlar Ittifoqi, O‘rta Osiyoda - "Sho‘ro-i Islomiya[2:165,1:43], Buxoroda – Yosh Buxoroliklar, Xivada – Yosh Xivaliklar kabi partiyalar paydo bo‘ldi.

Samarqand jadidchilari ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqida tadqiqot olib borgan X.Ashurova jadidchilik mohiyati haqida o‘z qarashlarini quyidagicha ifodalaydi: “…jadidchilik o‘z davrining ijtimoiy hayotdagi yangi pozitsion harakat va pozitiv mohiyatga ega bo‘lgan. Afsuski, jadidchilik harakatiga nisbatan turli xil munosabatlar bildirilgan, gohida uni panturkizm, gohida panislomizm, gohida millatchilar, gohida esa milliy burjuaziya ma’rifatparvarlari singari ko‘plab nomlar bilan tilga olingan”[3:12]. Jumladan, sovet davrida faoliyat olib borgan Otaboy Eshonov va H.P. Vohidov[4] kabi olimlar asarlarida ham jadidchilik o‘ta reaksion harakat sifatida baholangan. Manbada Munavvar qori, Behbudiylarning “millatchilik faoliyati”ni keskin fosh etibgina qolmay, ularni “ko‘zga ko‘ringan ma’rifatparvarlar” sifatida tilga olgan Elizabet Bekon, Elen Karer d Enkos, Lauell Illet singari “burjua olimlari”ning fikrlarini tanqid ham qilgan. Mazkur kitob so‘nggi jadid mafkurasining aksilinqilobiy mohiyatini yashirishga, mehnatkash xalq sinfiy ongining o‘sishiga xalaqit berishga, millatning qolgan qismi ustidan burjuaziya hukmronligini ta’minlash va mustahkamlashga harakat qilganlar, degan xulosaga kelingan[5:34].

F.Xo‘jayevning “millatchilik xarakteridagi g‘oyaviy datozlarining tanqidiga qo‘shilgan so‘nggi hissa VKP MK O‘rta Osiyo byurosi kotibi Ya.K.Baumanning Toshkent shahridagi anjumanida (1932) so‘zlagan nutqi bo‘ldi. F. Xo‘jayevni tanqid qilish olti yil davom etdi. U asarni qayta ishlashga majbur bo‘ldi va asar o‘zgartirishlar bilan 1932 yilda chop etildi. F. Xo‘jaev asaridagi kirish qismini va xulosasini qayta ishladi va unga Buxoro Xalq Sovet Respublikasidagi ahvol hamda O‘rta Osiyoda milliy-ozodlik chegaralari masalalarini kiritdi. Natijada jadidchilik quyidagicha bolshevikcha baho oldi: jadidlarning xizmatlari bor, biroq ular aksilinqilobchi boylar va quloqlarining pozishiyasini egallab “kapitalning sodiq malaylari bo‘lib qoldilar”[1:40].

Tadqiqotchi Ashurova X. aytganidek, jadid harakatiga nisbatan uzoq yillar

davomida uning mohiyatiga to‘g‘ri kelmaydigan tuhmatlar qilindi. Lekin, biz o‘sha davr mualliflarining keltirilgan ma’lumotlari uchun ayblashga haqqimiz yo‘q. sababi, siyosiy jarayonlar va tatalitar tuzimning iskanjasida ular o‘zlari yozgan ma’lumotlar uchun bolshevistik partiya oldida javob berishi kerak edi. Masalan, F. Xo‘jaev tomonidan yuqorida yozilganidek o‘zgarishga majbur etilgan “Buxoro inqilobi tarixidan matreallar” asari 1926-yilda yozilgan bo‘lib, unda jadidchilik haqida tubdan boshqa fikrlar bildirilgan edi. Jumladan, “O‘rta Osiyoda bizning inqilobiy harakatimiz buyuk inqilobiy oqimga qo‘shilgan paytda ham milliy inqilobiy harakatga rahbarlik qilishga, unga rahbarlik qilishga qodir kadrlar tayyorlanayotganidan biz, albatta, jadidizm oldida qarzdormiz”[6:91], – deb yozib qoldirgan edi. Afsus-ki, muallifning fikrlarini o‘zgartirishga o‘sha paytdagi siyosiy jarayonlar ta’sirida o‘zgartirishga majbur bo‘ldi. Jadidchilikni biz birinchi navbatda ma’rifatchilik deb bilamiz. Ma’rifatpavlikni salbiy hodisa sifatida baholashning o‘zi noto‘g‘ri xulosa chiqarishga olib keladi. Ma’rifat hamma davrlarda insoniyatni ezgulikka etaklab, jamiyat hayotiga ijobiy ta’sir etuvchi masala sifatida qaralgan. Chunki, “ma’rifat dunyoni obod va ozod etishga, insonni jaholat va xurofot botqog‘idan olib chiqib ketishga, uning ma’naviy-iqtisodiy muammolarini hal etishga qodir bo‘lgan yagona va qudratli kuchdir”[7:296]. Biz jadid ma’rifatparvarligi bo‘ladimi, g‘arb uyg‘onish davri ma’rifatparvarligimi, Qadimgi yunon ma’rifatparvarligimi, umumuman olganda, ma’rifatparvarlik g‘oyasini avlod va asrlarni bir-biriga tutashtirib turuvchi hayotbaxsh ko‘prikka qiyos qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shu o‘rinda, Jadidchilikning tarbiyaviy mohiyati haqida ham to‘xtalib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ma’rifatchilarning ko‘pchiligi maktab faoliyati bilan shug‘ullanish jarayonida, o‘quvchilar uchun darsliklar yaratadi va unda tarbiyaga ham katta e’tibor beradi. Mirza-Ahmedova P. va Rashidova A. “Jadidchilik harakatini o‘rganish yo‘lida” deb nomlangan maqolasida jadidchilikka quyidagicha ta’rif beradi: “Jadidchilik harakati nafaqat O‘rta Osiyoda, balki XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining boshqa musulmon xalqlarida ham ijtimoiy tafakkur hodisasidir. Ijtimoiy tuzum voqeliklari bilan hayotga tatbiq etilgan jadidchilik harakati boshidanoq yaqqol tarbiyaviy xususiyatga ega edi”[8:60]. S.Kovalskaya yuqoridagi qarashga yaqinroq fikr bildirib, “jadidchilik harakati O‘rta Osiyo milliy taraqqiyparvar ziyolilarining tarbiyaviy g‘oyalari asosida shakllanib, jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan keng ko‘lamli vazifalarni o‘z oldiga qo‘ydi”[9:876-881], – deb ta’kidlaydi. Yuqoridagi fikrlarda jadidchilikka pedagogik nuqtayi-nazardan yondashilgan bo‘lib, tarbiyaviy g‘oyalari ham ma’rifatparvarlarning asosiy jihatlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Jadidchilikning mohiyati haqida xorijiy davlat olimlarining fikr va qarashlarini ko‘rib chiqsak, albatta, foydadan xoli bo‘lmaydi. Fransuz tarixchisi

Bennigsen A. Jadidchilik shakllanishining uch bosqichini ko‘rsatdi: teologik, madaniy va siyosiy[10:6].

Bennigsenning fikricha, modernistlarning birinchi davridagi diniy ta’lim tizimidagi innovatsion o‘zgarishlar ijtimoiy taraqqiyotga to‘sqinlik qilmadi, balki til, ta’lim va siyosiy sohalarda islohotlarga yo‘l ochdi.

Islohotning ikkinchi bosqichida an’anaviy musulmon madaniyatini tubdan o‘zgartirish, adabiy tilni yangilash, ta’lim va tarbiyani isloh qilish ko‘zda tutilgan va bundan tashqari, davlat ziyolilari va ommaning maqsad va manfaatlari ham bir edi. Mustamlakachilik kishanidan chiqish yo‘lini ta’lim orqali izlagan, jaholatga qarshi, milliy ozodlik uchun kurashgan turli ijtimoiy guruhlardan bo‘lgan o‘qimishli jadidlar O‘rta Osiyo xalqining ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyoti yo‘lida birlashdilar. Ushbu jarayonlarga pragmatik jihatdan e’tibor qaratadigan bo’lsak, jadidchilik amaliy hayotda o’zgarishlarga erishishni ko’zlaydi. Jadidchilik o‘zining tamoyillari orqali jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishni maqsad qilgan edi. Bu jihatdan, jadidchilik insonlar o’rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, jamiyat va davlat o’rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga umid bog’lagan edi. Ularning g’oyalari amaliy harakatlarga aylanishi, ijtimoiy adolat va erkinlikni ta’minlashga qaratilgan.

A. Xolid: “Jadidchilik islom jamiyati va islom elitasining siyosati, musulmon madaniy islohoti bo‘lib, boshqa musulmon mamlakatlaridagi ziyolilarning harakatlariga o‘xshab, uning maqsadi islomni zamon talablari asosida isloh qilish edi”[11:2], – degan qarashlarni bildirib, “Jadidizmni Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga, musulmonlarga, tobe xalqlarga nisbatan kamsitishlarga qarshi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida qarashni taklif qiladi”[11:81,82].

A.Xolidning fikricha, jadidlar musulmonlar kosmosiyosiy hamjamiyatining bir qismi edi. Jadidchilar islomdan uzoqlashmadilar, ular faqat islomning asrlar davomida qamrab olingan torroq dunyoqarash qatlamlarini olib tashlagan “sof” islomga erishish va yangilanishini targ‘ib qildilar[11:113]. Bu erda olim jadidchilikning dinga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri talqin etgan. Bizning fikrimizcha ham Jadidchilik islom dinini isloh qilish maqsadida bo‘lmagan. Ular islomga kirib qolgan begona va yot tushunchalarni, xurofotni yo‘q qilib islomning haqiqiy mohiyatini tiklashni orzu qilganlar.

Taniqli boshqird olimi Ahmad-Zaki Validiy (1890-1970) ham ushbu jahon integratsiyasi jarayonida jadidchilik muhim o‘rin tutganini ta’kidlaydi. U shunday dedi: “Yevropa madaniyati o‘zining ilg‘or ta’siri bilan Islom olamining ayrim hududlariga bostirib kirganida, ob’yektiv sabablarga ko‘ra, musulmonlarimizda yangi madaniyat va yangi hayotga intilish hissi paydo bo‘ldi. Jadidchilik harakatlari orqali biz yangi ilg‘or madaniyat bilan aralashish jarayonida ishtirok etish zarurligini tushundik”[12:65], deb yozgan. Validiyning fikriga ko‘ra, jadidchilik o‘zga

xalqlarning ilg‘or madaniyatini o‘ziga qabul qilishni maqsad qilgan edi.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqodchilar fikrini yuqori baholagan holda shuni aytishimiz mumkin, **birinchidan**, ma’naviy-ma’rifiy harakat sifatida boshlangan, keyinchalik Rossiya imperiyasida sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar tufayli siyosiy harakatga aylangan jadidchilik faoliyatini o‘rganishda muammoning nazariy-uslubiy asoslarini yaratish lozim; **Ikkinchidan,** jadidchilikning shakllanishi, rivojlanishi, aholi ongiga ta’siri haqida olimlar turlicha fikr bildiradilar. Olimlarning bir guruhi jadidchilik harakatini diniy-islohotchilik harakati deb atasa, boshqalari esa bu harakatni madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy, burjua-milliy, panturkistik harakat degan xulosaga keldi; **Uchinchidan,** XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya imperiyasida turk-musulmon xalqlarining ijtimoiy-madaniy jonlanish jarayoni boshlandi, Turkiston xalqi bu jarayonning bir qismi sifatida diniy va dunyoviy ta’limni zamonaviy tendensiyalar asosida yo‘lga qo‘ydi va jamiyat hayotida muhim o‘zgarishlarni amalga oshirdi. **To‘rtinchidan,** Jadidchilik harakatiga qanday baho berilishidan qatiy nazar, Rossiya ta’sirida bo‘lgan musulmon xalqlarini uyg‘otishga xizmat qilgan, pozitiv qarashlarni o‘zida jamlagan, taraqqiyotga olib boruvchi harakat sifatida dunyo ilm-fanida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ta’limot hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D.Alimova. Fayzulla Xo’jayev va jadidchilik. Fayzulla Xo’jayev hayoti va faoliyati haqida yangi mulohazalar. Toshkent.: Fan.: 1997.-B:43
2. Абдуллин Я. Г. Джадидизм, его социальная природа и эволюция//Из истории татарской мысли. Казань, 1979. С. 106.
3. Ашурова Х.С. Самарқанд жадидларининг ижтимоий-сиёсий қарашлари (xx асрнинг биринчи чораги). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати.-Samarqand-2020 –B:12.
4. Эшонов.О “Файзулла Хўжаев” ҳақидаги китоби 1973., “Ўзбекистон совет энциклопедияси”нинг 4-томидаги мақоласи 1973: Воҳидов Ҳ.Р. Туркистонда маърифатпарварлик мафкураси 1979.
5. Абдивоҳидов С.А. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий жиҳатлари ва ҳозирги замон. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Samarqand-2020.-B:34.
6. Ходжаев Ф. Джадидизм//Очерки революционного движения в Средней Азии. М., 1926. -B:91
7. Р.Шарипов,Ф.Муҳиддинова. Ўзбекистон халқлари сиёсий-ҳуқуқий таълимотлари тарихи. Toshkent 2004 19-bet. 296-b.
8. П. М. Мирза-Ахмедова, Д. А. Рашидова . К изучению джадидского движения. №7 .Общественны е наук и в Узбекистан е 1990 г.-B:30. 60-b

9. Kanat Kaldybekovich Bazarbayev et al. / Procedia - Social and Behavioral Sciences 89 (2013) 876 – 881
10. Беннигсен А. Мусульмане в СССР. – Париж: YMKA-PRESS, 1983. -B:6.
11. Adeeb Khalid The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1999. –B:2.
12. Тоган А.В. Сочинения дореволюционного периода. – Уфа: Китап, 1996. – B:65.

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA MA’RIFATLI JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHDA M.BEHBUDIY MA’NAVIY MEROSINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Yenilenen Özbekistan'da aydınlanmış bir toplumun şekillenmesinde M.Behbudi'nin manevi mirasının rolü ve önemi.
The role and significance of M. Behbudi's spiritual heritage in shaping an enlightened society in the renewing Uzbekistan.
Роль и значение духовного наследия М. Бехбуди в формировании просвещенного общества в обновляющемся Узбекистане.

Achilova Nilufar Norbutayevna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada Yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishda ajdodlardan avlodlarga etib kelgan ma’naviy meroslardan foydalanish zaruriyati jadidchilik harakatining yo‘lboshchilaridan biri bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning qoldirgan ma’naviy merosi misolida qisqacha bayon qilingan.

Kalit so‘z va iboralar: Yangi O‘zbekiston, insoniyat, meros, tarixiy meros, jadid, jadidchilik, ma’rifat, ma’rifatparvarlik, ma’rifatli jamiyat, jamiyat, maktab, ma’naviy meros.

Insoniyat paydo bo‘lganidan boshlab, birinchi navbatda o‘zini qurshab turgan tabiat olamining sir-asrorlarini bilishga, ikkinchi navbatda esa jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglab, ularni o‘z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda boshqarishga intilib kelgan. Natijada, o‘tgan ming yilliklar davomida insoniyat o‘zining tarixiy makon va zamonda qoldirgan izining ibtidosi sifatida katta moddiy va ma’naviy ahamiyatga molik bo‘lgan tarixiy meros qoldirgan. “Meros – bu aslida arabcha so‘z bo‘lib vorislarga qoladigan yoki qolgan mol-mulk, odat, degan ma’nolarni anglatadi”[1.]. Demak, tarixiy meros deb ajdodlardan avlodlarga qolgan, umuminsoniy, milliy va shaxsiy qadriyat maqomiga ega bo‘lgan ilmiy, adabiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy boyliklarga aytiladi. Tarixiy merosni makon o‘lchovlari bo‘yicha tarixiy makon kengliklarida ketma ket tarzda muayyan shaxs, jamoa, elat, millat, xalqlar tomonidan yaratilib, kelgusi avlodlarga qoldirilgan moddiy va ma’naviy ahamiyatga molik bo‘lgan mulklarga ajratgan holda

tasniflash mumkin. Masalan,”Katta Xorazm” davlati davrida “Avesto”, Arab xalifaligi davrida ”Qur’oni Karim”, M.G‘aznaviy davrida A.R.Beruniyning “Geodeziya”, ”Hindiston”, Husayin Boyqaro davrida Alisher Navoiyning "Hamsa“ kabi bir qator abadiyatga daxldor bo‘lgan asarlarni kiritish mumkin.

Mamlakatimizda ajdodlarimiz tomonidan tarixiy zamonning orqaga qaytmaydigan vaqt o‘lchovlariga ko‘ra Qadimgi, O‘rta asrlar, Yangi va Eng yangi davr bosqichlarida yaratilib avlodlarga qoldirilgan ma’naviy meroslar juda bisyor bo‘lib, ularning qo‘lyozma shaklidagi 20 mingtasi hali o‘zining tadqiq etilishini kutib Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Shular ichida XIX asrning oxiri va XX asrning birinchi choragiga daxldor bo‘lgan tarixiy meroslar ichida jadidlar tomonidan qoldirilgan ma’naviy merosning o‘rni alohida ahamiyatga egadir.

Jadidchilik ijtimoiy fenomen sifatida O‘zbekiston hududida XIX asrning oxiri va XX asrning birinchi choragida, nafaqat oqim, balki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy harakatchilik sifatida paydo bo‘ldi, shakllandi va rivojlandi.

Jadidchilikning tub mohiyati haqida adabiyotshunos olim Begali Qosimov:” Jadidchilik g‘oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari po‘panak bosib, biljirab ketgan o‘rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momaqaldiroq bo‘lib, Millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo‘yilgani haqida bong urdi. Chaqmoq chaqib, uning bag‘ridagi jarohatlarini yoritdi. Obirahmat bo‘lib, ona Turkiston ko‘ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollariga hayot baxsh etdi. Bu g‘oyalarning asosida milliy uyg‘onish, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi. Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo‘lgan qizg‘in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o‘z boshiga yog‘ilgan har bir ofatni taqdir deb ta’bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko‘tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab etdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar. ...Jadidchilikning mohiyati shunda. "Jadidchilik"ning asosida "jadid" so‘zi yotadi. "Jadid”ning ma’nosi "yangi” demakdir. U shunchaki "yangi” yo bo‘lmasa, "yangilik tarafdori” degani emas. Balki "yangi tafakkur", "yangi inson", “yangi avlod" singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan”,- deb yozgan edi.[2.].

Jadidchilikning ko‘zga ko‘ringan vakllari 20 nafardan ortiq bo‘lib, ularning ichida Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘rni, uning bayroqdor jangchisi sifatida ajralib turadi.

M.Behbudiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tizimida ilm-ma’rifatga asoslangan jamiyat, ya’ni “ma’rifatli jamiyat” qurish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha “Ma’rifat - bu arabcha bilim, fan, ma’lumot, tanishish”

degan so‘zlardan olingan bo‘lib, ta’lim-tarbiya, siyosiy, diniy, falsafiy g‘oyalar asosida kishilarning ongi, bilimi, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyati” [3.] hisoblanadi. “Jamiyat- arabcha birlashma, uyushma, guruh degan so‘zlardan olingan bo‘lib, birinchidan, tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida moddiy boyliklar yaratishning muayyan usullari va muayyan ishlab chiqarish munosabatlari bilan xarakterlanadigan ijtimoiy munosabatlar majmui, ikkinchidan, biror maqsadda tuzilgan ixtiyoriy birlashma, ijtimoiy tashkilot, uchinchidan, ma’lum doira, davra kishilari, ahllari”[4.],-degan ma’nolarni anglatadi. Shunday qilib, ma’rifatli jamiyat – bu tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida moddiy va ma’naviy boyliklar yaratishning axloqiy-ma’naviy ta’lim-tarbiya, siyosiy, diniy, falsafiy g‘oyalar asosida tarbiyalangan kishilarning yuksak taraqqiy etgan ong-bilimi, madaniyati asosiga qurilgan tashkilot, uyushma, birlashmalardan tashkil topgan ittifoqlari tizimidir.

M.Behbudiyning qoldirgan ma’naviy merosining mamlakatimizda ma’rifatli jamiyatni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi.

Ma’lumki, mamlakatimizda ma’rifatli jamiyatni shakllantirish birinchi navbatda ma’rifatiga e’tibor qaratilib mamlakat ahlini bilim va ilmning, fan va texnologiyalarning eng so‘ngi yutuqlari bilan qurollantirib, uni yangi cho‘qqiga ko‘tarish hisoblanadi. Bu xususda M. Behbudiy : “Bugun, isloh maktab madrasa, ya’ni islohi millatga qo‘shish qilinmasa ra’bi asr so‘ngra diyonat barbod bo‘lur, va aning javobi mas’uliyati bugungilarga qolur. Bu mas’uliyatdan qutulmoq uchun millatni diniy ilm va dunyoviy fanlarni o‘qimoq uchun targ‘ib qilmoq kerakdur. Diniy ilm va fanlarning o‘rni maktab va madrasadur. Dunyoviy fanlarni o‘rni hukumat maktablaridur...” [5.] Bu qo‘qqining tayanch nuqtasini maktablar tashkil qiladi. Shu sababli M. Behbudiy tom ma’nodagi maktabga shunday ta’rif beradi: "Maktab - jannat va istiqbolning eshigi, maktab - ozod va sharofatning bog‘i va mevasi, maktab - dinning chirog‘i va ziyosi, maktab - jaholatga dushman qilichi, maktab - dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir”[6.].

Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyatni shakllantirish dinni inkor qilmaydi. Chunki, M.Behbudiy yozganidek:” Dinsiz dunyoda yashamoq insoniyat va va madaniyatdan emas, hayvoniylikdur. Dinsiz mutamaddun (madaniyatli) bo‘lmoq muhol (qiyin)dur. Jamiyati bashariytni barqaror turmoqig‘a din, shar’(shariat), nizom va bularni boshqaruvchilarga birinchi sababdur. Bas, jamiyat, ilm, insof va hunar sabablari ila uch xil bo‘linadurki, vahshoniyat, badaviyat, madaniyat atalgan. Va bularni(ng) har birini yana bir necha sinfg‘a taqsim qilmoq odamlarni ahvoliga qarab mumkin bo‘ladur”[7].

M. Behbudiyning ma’naviy merosidan yana ko‘plab bunday metodologik ahamiyatga molik bo‘lgan fikrlarni keltirish mumkin. Bu masalada shuni alohida ta’kidlash joizki, birinchidan, kelgusida ma’rifatli jamiyatni barpo etishning ijodkori

bo‘lgan yoshlar zamonaviy bilimlarni egallagan ma’rifatli, ma’rifatparvar inson bo‘lishga chorlashi, ikkinchidan, ma’rifatli jamiyatni taraqqiy ettirishda demokratiya va inson huquqlariga alohida e’tibor qaratib, xalqning turmush darajasini oshirish uchun ta’lim va ilmiy ishlanmalarni jadallashtirish kerakligi; uchinchidan, yoshlarga insonning ichki ma’naviy taraqqiyotiga, axloqiy savodxonlikka va ezgulikka intilishga, insonparvarlik, adolat va inson huquqlariga hurmat qilish kabi muhim qadriyatlarga amal qilgan holda ma’rifatli jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlashga, to‘rtinchidan, o‘zbek xalqining madaniyati va tilini asrab-avaylashga, uning milliy qadriyatlarini jahon madaniyati bilan integral tarzda uyg‘unlashtirishga, beshinchidan, xalqning siyosiy-huquqiy savodxonlik darajasini oshirish va ularda erkin fikrlash, mustaqil va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga tarixiy zamin bo‘lishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev yozganidek:”Yangi O‘zbekiston – ma’rifatparvar davlat... Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining bu boradagi maqsadi milliy o‘ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o‘tgan an’analarimizni, iymon-e’tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab qolish, ham yuksaltirishga qaratilgandir...

Ma’rifatli jamiyatni barpo etishning dolzarb masalalariga hozirjavob bo‘lish, bu boradagi ishlarda mas’uliyatni doimo chuqur his qilib yashash bugungi davr talabi bo‘lib qoladi. Ma’naviy etuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, ma’rifatli jamiyatni barpo etish asnosida taraqqiyot strategiyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi shaxsni voyaga etkazish - pirovard maqsadi inson manfaatlarini ta’minlash bo‘lgan islohotlarimizning eng muhim vazifalaridandir”[9].

Adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.:” Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2006. – Б.580.
2. Қосимов Бегали. Танланган асарлар,Миллий уйғониш даври адабиёти.2-жилд. – Тошкеннт: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи,2022. – Б.12-13.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.:” Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2006. – Б.567
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Т.:” Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2006. – Б.68.
5. Беҳбудий М.. Миллатлар қандай тараққий этарлар. // «Самарқанд» газетасининг 1913 йил 30 июл сонидан Ҳ. Саидов табдили. - «Маърифат», 1995, 3 май.

6. Беҳбудий М. Мактаб. // «Ойина» журналининг 1913 йил 11-сонидан 3. Аҳророва табдили. -«Мактабгача тарбия». 1994. 5 - 6-сон, 36-бет.
7. Қосимов Бегали. Танланган асарлар,Миллий уйғониш даври адабиёти.2-жилд. – Тошкеннт: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи,2022. – Б.308.
8. Мирзиёев Ш.М.Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: ”Ўзбекистон” нашриёти,2022. – Б.290-291.

TURKISTON JADID MA’RIFATPARVARLARI ORASIDA LIBERAL-DEMOKRATIK G‘OYALARNI SHAKLLANISHI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

TÜRKİSTAN’IN AYDINLANMACILARI ARASINDA LİBERAL-DEMOKRATİK FİKİRLERİN OLUŞUMU: SOSYO-FELSEFİ BİR ANALİZ
FORMATION OF LIBERAL DEMOCRATIC IDEAS AMONG THE JADID ENLIGHTENERS OF TURKESTAN: SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS
ФОРМИРОВАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНО-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СРЕДЕ ДЖАДИДОВ-ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ ТУРКЕСТАНА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Dadaxanov Shavkat Shakirovich
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
e-mail: mr.ganiev76_fsu@inbox.ru +998909860045

Annotasiya. Ushbu ilmiy tadqiqotda XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkiston jadid ma’rifatchilari o‘rtasida liberal-demokratik g‘oyalarni shakllantirish asoslari ko‘rib chiqilgan. Mintaqaning musulmon muhitida liberal tushunchalarni idrok etish va moslashtirishga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy va madaniy omillar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: jadidlar, ma’rifat, liberalizm, demokratiya, mafkura, islohotlar, modernizatsiya, ta’lim, ijtimoiy taraqqiyot, inson huquqlari, Islom, panturkizm.

Açıklama. Bu bilimsel çalışma, XIX yüzyılın sonlarında - XX yüzyılın başlarında Türkistan’ın Cedi aydınlanması arasında liberal-demokratik gooyaların oluşumunun temellerini inceledi. Bölgenin Müslüman ortamında, liberal kavramların algılanmasını ve uyarlanmasını etkileyen sosyal ve kültürel faktörler göz önünde bulundurulur.

Anahtar Kelimeler: cedidler, aydınlanma, liberalizm, demokrasi, ideoloji, reformlar, modernleşme, eğitim, toplumsal ilerleme, insan hakları, islam, pantürkizm.

Annotation. This scientific study examined the foundations of the formation of liberal-democratic ideas among the Jadid enlightenment of Turkestan in the late 19th-early 20th centuries. In the Muslim environment of the region, social and cultural factors that influenced the perception and adaptation of liberal concepts are considered.

Keywords: jadids, enlightenment, liberalism, democracy, ideology, reforms, modernization, education, social progress, human rights, Islam, panturkism.

Аннотация. В данном научном исследовании рассматриваются основы формирования либерально-демократической партии среди джадидских просветителей Туркестана в конце XIX-начале XX века. Будут рассмотрены социальные и культурные факторы, которые повлияли на восприятие и адаптацию либеральных концепций в мусульманской среде региона.

Ключевые слова: джадиды, просвещение, либерализм, демократия, идеология, реформы, модернизация, образование, социальное развитие, права человека, ислам, пантюркизм.

An’anaviy jamiyatning o‘zgarishini o‘rganish ma’rifatparvar jadidlar o‘rtasida liberal-demokratik g‘oyalar shakllanishining ijtimoiy-falsafiy tahlili an’anaviy jamoalar modernizatsiya muammolariga qanday moslashganini tushunishga imkon beradi. Jadidlar Islom an’analarini modernistik va liberal qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishning noyob namunasini namoyish etdilar. Ushbu hodisani o‘rganish ijtimoiy rivojlanishdagi an’analar va innovatsiyalarning o‘zaro ta’siri qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ijtimoiy o‘zgarishlar falsafasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi Jadidlar harakati ijtimoiy-madaniy xilma-xillik sharoitida taraqqiyot, erkinlik va tenglik falsafasini qo‘llashning yorqin namunasidir. Ularning faoliyatini tahlil qilish mustamlakachilik hukmronligi va madaniy o‘zaro ta’sir sharoitida jamiyatni isloh qilish jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy tushunishni boyitadi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev jadid ma’rifatparvarlari g‘oyalarining mamlakatning zamonaviy rivojlanishi uchun dolzarbligini bir necha bor ta’kidlagan. Xususan, u “*jadid g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan to‘liq uyg‘un*”ekanini ta’kidladi [1.]. Bundan tashqari, 2023-yil 22-dekabrda bo‘lib o‘tgan respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida prezidentimiz shunday dedilar: “*hozirgi vaqtda mamlakatimiz o‘z rivojlanishining yangi, yuqori bosqichiga qadam qo‘yar ekan, bizga suv va havo kabi G‘arb ilm-fan yutuqlari ruhida jadid bobolarimiz kabi voyaga etgan kadrlar kerak. shuningdek, milliy qadriyatlar*” [2.]. Ushbu bayonotlar zamonaviy O‘zbekistonning strategik maqsadlarini tushunish va amalga oshirish uchun ijtimoiy-falsafiy tahlil kontekstida jadidlarning liberal-demokratik g‘oyalarini o‘rganish muhimligini ta’kidlaydi.

Milliy o‘ziga xoslikning kelib chiqishini o‘rganish Jadidlarning liberal-demokratik g‘oyalari Turkiston xalqlarining milliy o‘ziga xosligining yangi modelini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Erkinlik va ma’rifat g‘oyalari jamiyatning tarixiy yo‘li kontekstida huquq va imkoniyatlarini anglashga qanday hissa qo‘shganligi haqidagi falsafiy tushuncha ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Zamonaviy islohotlar uchun tajriba Jadid g‘oyalari Markaziy Osiyodagi zamonaviy jamiyatlarni isloh qilish va modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ularning an’anaviy va liberal-demokratik qadriyatlarni birlashtirishga bo‘lgan yondashuvlarini o‘rganish zamonaviy sharoitda ta’lim, ijtimoiy va madaniy strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Madaniyatlararo muloqotga misol Jadidlarning turli madaniy an’analarni (Islom, Usmon, Rus) integratsiyalashuvidagi tajribasi sivilizatsiyalar o‘rtasida

muloqot o‘rnatish uchun amaliy ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv zamonaviy ko‘p millatli jamiyatlarda o‘zaro tushunishni kuchaytirish uchun ishlatilishi mumkin. Mintaqa uchun Jadidlarning ta’limni rivojlantirishga qaratilgan islohot g‘oyalari mintaqadagi ta’lim tizimlarini takomillashtirish uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ularning falsafiy tamoyillari - shaxsiy rivojlanish, fikr erkinligi va bilimlarning mavjudligiga urg‘u berish - zamonaviy jamiyat uchun moslashtirilishi mumkin. Madaniy merosni qo‘llab-quvvatlash, Jadidlar faoliyatini o‘rganish mintaqaning tarixiy va madaniy merosini saqlashga yordam beradi. Amaliy qadriyat ularning g‘oyalarini ommalashtirish va ijtimoiy va madaniy hayotga integratsiyalashdan iborat bo‘lib, bu tarix va zamonaviylik o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

Mavzuni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish nafaqat tarixiy kontekstda modernizatsiya jarayonlarini chuqurroq tushunishga, balki zamonaviy jamiyatda ma’rifat g‘oyalarini qo‘llash uchun amaliy tavsiyalar yaratishga imkon beradi.

An’anaviy jamiyatning o‘zgarishini o‘rganish Turkistondagi jadidlar harakati ta’limning yangi usullarini joriy etish va taraqqiyot va modernizatsiya g‘oyalarini ilgari surish orqali an’anaviy ta’lim tizimi va jamiyatni isloh qilishga intildi [3. 799-801.].

Ijtimoiy o‘zgarishlar falsafasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi Jadidlar Markaziy Osiyo xalqlarini jahon tsivilizatsiyasi yutuqlari bilan tanishtirishga intilib, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotni isloh qilish orqali dunyoviy demokratik davlat qurishni qo‘llab-quvvatladilar [4. 247-250.].

Milliy o‘ziga xoslikning kelib chiqishini o‘rganish Jadidlar milliy huquq va dinni himoya qilish, milliy o‘zlikni anglash va mustaqillikka intilishni rivojlantirish uchun sa’y-harakatlarni birlashtirish zarurligini ta’kidladilar [4. 247-250.].

Zamonaviy islohotlar uchun tajriba Jadidlarning ta’lim tizimini va umuman jamiyatni isloh qilish g‘oyalari Markaziy Osiyoda modernizatsiya va rivojlanishga qaratilgan zamonaviy islohotlar uchun qimmatli tajriba bo‘lib xizmat qilishi mumkin [5. 332-334.].

Madaniyatlararo muloqotga misol Jadidlar Sharq va G‘arb madaniyatlarining yutuqlarini o‘zlashtirishga intildilar, boshqalarni ham o‘rganishga va chaqirishga intildilar, madaniyatlararo almashinuv va o‘zaro tushunishni targ‘ib qildilar [3. 799-801.].

Mintaqa uchun ta’lim modeli Diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o‘qitish va o‘qitishning ovozli usulini joriy etgan jadid yangi moda maktablari mintaqada yangi ma’rifatli ziyolilarni shakllantirish uchun asos bo‘ldi [6. 72-76.].

Madaniy merosni qo‘llab-quvvatlash Jadid merosini o‘rganish va ommalashtirish mintaqaning tarixiy va madaniy merosini saqlab qolish va tarix va zamonaviylik o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashga yordam beradi [5. 332-334.].

Ushbu manbalar Turkistondagi jadid harakatini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o‘rganish muhimligini ta’kidlab, uning ijtimoiy o‘zgarishlarga, milliy o‘ziga xoslikni shakllantirishga va mintaqaning madaniy rivojlanishiga ta’sirini aks ettiradi.

Turkiston jadid ma’rifatparvarlari orasida liberal-demokratik g‘oyalarni shakllantirish bo‘yicha ilmiy qarashlarning qiyosiy tahlili va analogiyalari:

- *Jadidizm ijtimoiy-falsafiy oqim sifatida* Evropa ma’rifatiga o‘xshashlik, ma’rifatparvar faylasuflar singari, jadidlar ham ratsionalizm, taraqqiyot, ta’lim sohasidagi islohotlar va dunyoni dogmatik idrok etishdan voz kechish tarafdori edilar. Ular erkinlik, tenglik va inson huquqlari g‘oyalarini musulmon jamiyati haqiqatlariga moslashtirdilar. *Islom modernizatsiyasi*, Jadidlar Islom an’analari va zamonaviy ilmiy bilimlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni izladilar. Bu islohot harakatlariga o‘xshaydi, masalan, Islom falsafasidagi mutazilizm, shuningdek, oqilona bilim va taraqqiyotga e’tibor qaratdi.

- *Rus xalqchiligi bilan o‘xshashliklar*, Rus populistlari singari, jadidlar ham ma’rifat va ta’lim faoliyatida odamlarning yashash sharoitlarini yaxshilash kalitini ko‘rdilar. Biroq, modernizatsiyaga G‘arb ta’siri sifatida tez-tez qarshi bo‘lgan populistlardan farqli o‘laroq, jadidlar modernizatsiyani milliy va madaniy tiklanish yo‘li sifatida qabul qildilar.

- *Usmonli imperiyasining islohot harakatlari bilan taqqoslash*. Tanzimatning Usmonli imperiyasidagi islohotlari va jadidlar faoliyati institutlarni modernizatsiya qilish va ma’rifatga asoslangan jamiyatning yangi modelini yaratish istagini birlashtiradi. Ikkala harakat ham tabiiy fanlar va G‘arb tillarini o‘rganishni o‘z ichiga olgan dunyoviy ta’lim tizimini rivojlantirdi. Madaniyatlararo ta’sir: Jadidlar Usmonli islohot an’analaridan ko‘plab g‘oyalarni, shu jumladan milliy gazetalarni yaratish, adabiyotni rivojlantirish va yangi pedagogik usullarni o‘zlashtirdilar.

- *Hindiston islohot harakati bilan o‘xshashlik*. Sir Sayid Ahmad xonning islohotlari: Turkiston jadidlari va hind islohotchisi sir Sayid Ahmad Xon (“Aligrahlar” harakatining asoschisi) dunyoviy ta’limni rivojlantirish va ilm-fanni integratsiya qilish orqali musulmon jamiyatlarini modernizatsiya qilish zarurligi to‘g‘risida o‘xshash qarashlarga ega edilar. Ikkala harakat ham Islom qadriyatlarini G‘arb tsivilizatsiyasi yutuqlari bilan sintez qilishga urinib ko‘rdi va buni milliy tiklanish yo‘li deb bildi.

- *Marksistik va sotsial-demokratik g‘oyalarning ta’siri*. Ba’zi jadidlar, ayniqsa kech davrda, ijtimoiy adolat va tenglik muhimligini ta’kidlagan sotsial-demokratik va marksistik qarashlardan ta’sirlangan. Biroq, jadidlar Islom qadriyatlariga sodiq qolgan holda, bu g‘oyalarni mahalliy kontekstga moslashtirdilar.

Qiyosiy tahlillarimizdan kelib chiqib, quydagi umumiy xulosalar qilishimiz mumkin: Jadidizm universal ma’rifat va modernizatsiya g‘oyalarini milliy va diniy xususiyatlar bilan birlashtirgan noyob harakat edi. Bu liberal-demokratik qadriyatlarning universalligini tasdiqlovchi falsafiy g‘oyalarni aniq tarixiy va madaniy sharoitlarga moslashtirish uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Evropa, Usmonli va hind harakatlariga o‘xshashliklar ma’rifat va islohotlar tendentsiyasining global mohiyatini, shuningdek, ijtimoiy-falsafiy rivojlanishda madaniy sintezning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu jadidizmni ijtimoiy falsafa uchun muhim tadqiqot ob’ektiga aylantiradi va global g‘oyalar tarixiy va madaniy kontekstga qarab qanday qilib mahalliy shakllarga ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Turkiston jadid ma’rifatparvarlari o‘rtasida liberal-demokratik g‘oyalarning shakllanishini tashqi bosim va ichki inqiroz sharoitida an’anaviy jamiyatni modernizatsiya qilish ijtimoiy-falsafiy tendentsiyasini aks ettiruvchi noyob hodisa deb hisoblash mumkin. Shu nuqtai nazardan, bizning mualliflik nuqtai nazarimiz quyidagicha:

birinchidan, Jadidizm taraqqiyot falsafasining bir shakli sifatida Jadidlar an’anaviy musulmon dunyosi va tez o‘zgaruvchan modernizatsiya haqiqatlari o‘rtasida vositachilik qildilar. Ularning g‘oyalarini taraqqiyot falsafasining ifodasi sifatida ko‘rish mumkin, bu erda, inson ijtimoiy o‘zgarishlarning markazida, ma’rifat orqali o‘zini takomillashtirishga qodir. Ta’lim jamiyatni modernizatsiya qilishning asosiy vositasiga aylanib, ilm-fan va texnologiyalarni an’anaviy jamoalar hayotiga qo‘shishga imkon beradi;

ikkinchidan, an’ana va modernizatsiya o‘rtasidagi uyg‘unlik Jadidlar an’anaviy jamiyatni yo‘q qilishga emas, balki milliy o‘ziga xoslik va ma’naviyatning asosiy elementlarini saqlab, uni yangilashga intildilar. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, bu quyidagilarni ko‘rsatadi, G‘arb fani va texnologiyasi Islom axloqi va axloqiy asoslarini to‘ldiradigan madaniy qadriyatlarni sintez qilish imkoniyati. Yangi g‘oyalarni rad etmaydigan, balki ularni o‘z ehtiyojlariga moslashtiradigan jamiyatning barqarorligi;

uchinchidan, erkinlik va tenglik g‘oyalari falsafiy toifalar sifatida Jadidlarning liberal-demokratik g‘oyalari asosiy falsafiy toifalarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim olish va o‘z nuqtai nazarini ifoda etish shaklida shaxsning erkinligi. Ijtimoiy harakatchanlikni va sinfiy va etnik tengsizlikni kamaytirishga yordam beradigan jamoat institutlarini, shu jumladan ta’lim tizimini isloh qilish orqali tenglik. Ushbu toifalar Evropa ma’rifatining falsafiy an’analariga asoslangan, ammo Islom madaniyati kontekstida qayta ko‘rib chiqilgan;

to‘rtinchidan, ijtimoiy adolat va jamiyatni modernizatsiya qilish ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, jadidlarning faoliyati ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik

sharoitida ijtimoiy adolat muammosini hal qilish modeli sifatida qaralishi mumkin. Jadidlar qashshoqlik va zulmga qarshi kurashish usuli sifatida aholining keng qatlamlari uchun ta’lim olish zarurligini angladilar. Ular taklif qilgan islohotlar jamoaviy manfaatlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning g‘oyalarini zamonaviy jamiyatlarga tegishli qiladi;

beshinchidan, Jadidizm milliy ongni shakllantirish uchun asos sifatida Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, jadidlar jamiyatni birlashtirish usuli sifatida milliy o‘ziga xoslik g‘oyalarini kutishgan. Ularning faoliyatiga, adabiyot, matbuot va ta’lim orqali ijtimoiy o‘zlikni uyg‘otishga ko‘maklashdi. Mahalliy an’analarni universal liberal qadriyatlar bilan birlashtirishga asoslangan madaniy o‘ziga xoslikning ahamiyatini ta’kidladi.

Jadidlar - Turkistonning ma’rifatparvarlari nafaqat ularning tarixiy davrini aks ettiruvchi, balki ko‘plab zamonaviy ijtimoiy va falsafiy muammolarni oldindan aytib beradigan g‘oyalar qo‘llanmasiga aylandilar. Ularning faoliyati liberal-demokratik g‘oyalarni madaniy va diniy kontekstda qanday moslashtirish va amalga oshirish mumkinligini namoyish etadi, shu bilan birga ularning universal ahamiyatini saqlab qoladi. Ushbu pozitsiya jadidizm nafaqat tarixiy hodisa, balki zamonaviy dunyoda dolzarb bo‘lib qolgan an’ana va modernizatsiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning muhim namunasidir.

Olib borgan ilmiy-nazariy tadqiqotimiz natijalariga tayanib, quydagi umumlashtiruvchi xulosalarni taqdim etamiz:

- *Jadidizm modernizatsiya modeli sifatida.* Turkiston jadid ma’rifatparvarlarining liberal-demokratik g‘oyalari an’analar va innovatsiyalar sintezining noyob namunasidir. Ushbu g‘oyalar Islom jamiyati sharoitida erkinlik, tenglik va taraqqiyotning universal qadriyatlarini moslashtirish imkoniyatini namoyish etdi.

- *Ijtimoiy o‘zgarishlarda ta’limning roli*. Jadidlar asosiy e’tiborni ta’lim tizimini isloh qilishga qaratdilar, uni yangi jamiyatni modernizatsiya qilish va shakllantirishning asosiy vositasi deb bildilar. Bu ta’limning ijtimoiy tuzilmalarni o‘zgartirishning universal mexanizmi sifatida ahamiyatini ta’kidlaydi.

- *Milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy taraqqiyot*. Jadidlar ma’rifat, madaniyat va tarixga asoslangan milliy o‘ziga xoslikni shakllantirish asoslarini yaratdilar. Ularning g‘oyalari milliy o‘ziga xoslikni rivojlantirishga turtki bo‘ldi, bu ayniqsa ko‘p millatli jamiyatlarga tegishli.

- *Jadid g‘oyalarining zamonaviylik uchun dolzarbligi*. Globallashuv va madaniy o‘zgarish sharoitida jadidlarning an’analarni modernizatsiya bilan uyg‘unlashtirish g‘oyalari talabga ega bo‘lib qolmoqda. Ular zamonaviy muammolarga moslashib, madaniy merosni saqlab qolishga intilayotgan mamlakatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Jadid merosini ommalashtirish va o‘rganish bo‘yicha quydagi amaliy tavsiyalarni keltiramiz:

1. Jadidizm tarixi va uning jamiyat rivojiga ta’sirini o‘rganishni o‘z ichiga olgan ta’lim dasturlarini yaratish. Jahon islohotlar tarixi kontekstida jadidizmni o‘rganish uchun xalqaro konferentsiyalar, seminarlar va davra suhbatlarini o‘tkazish.

2. Ta’lim tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashda Jadid tamoyillariga asoslangan ta’limni isloh qilish dasturlarini amalga oshirish orqali mavjudlik, inklyuzivlik va jamiyatning amaliy ehtiyojlari bilan bog‘liqlik. Jadidizm va uning zamonaviy ahamiyatini o‘rganadigan tadqiqotchilar uchun grantlar va stipendiyalar yaratish.

3. Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash uchun turli madaniyatlardan g‘oyalarni olgan jadidlarning xalqaro tajribasiga e’tibor qaratish. Jadidizmdan madaniy o‘ziga xoslik va globallashuv masalalarini muhokama qilish uchun platforma sifatida foydalanish.

4. Jadid g‘oyalarini zamonaviy siyosatga integratsiya qilish, shaxsni rivojlantirish, madaniyatni hurmat qilish va ma’rifat kabi jadidizm tamoyillarini hisobga olgan holda milliy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish. Jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonlarida ziyolilar va o‘qituvchilarning rolini kuchaytirish.

5. Yoshlar e’tiborini jalb qilish, Jadidlar faoliyatiga bag‘ishlangan multimedia resurslarini (hujjatli filmlar, interaktiv platformalar) ishlab chiqish. Jadidizm tamoyillariga yo‘naltirilgan ijtimoiy yoshlar harakatlarini yaratish orqali ta’lim, ijtimoiy adolat va madaniy rivojlanishini kuzatamiz.

Turkiston jadid ma’rifatparvarlari orasida liberal-demokratik g‘oyalarni shakllantirish zamonaviy jamiyatlar uchun dolzarb bo‘lib qoladigan muhim tarixiy va falsafiy hodisadir. Uni o‘rganish modernizatsiya jarayonlarini tushunishga, milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlashga va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, uyg‘un va barqaror jamiyat qurish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://buzb.uz/news/shavkat-mirziyoev-idei-dzhadidov-polnostyu-garmonichny-so-strategiej-novogo-uzbekistana?utm_source=chatgpt.com
2. https://www.gazeta.uz/ru/2023/12/22/jadids/?utm_source=chatgpt.com
3. Атаева Д.П. Hatsиональные особенности движения джадидов в Туркестане / Д.П.Атаева, С.Х.Абдираманов. - Текст: непосредственный // Молодой учёный. - 2016. - № 8 (112). - С. 799-801. / URL: https://moluch.ru/archive/112/28778/ (murojaat san’asi: 14.01.2025).

4. Юсупалиева Д.К. Общественно-политические воззрения джадидов / Д.К.Юсупалиева. - Текст : непосредственный // Молодой учёный. - 2021. - № 3 (345). - С. 247-250. / URL: https://moluch.ru/archive/345/77574/ (murojaat san’asi: 14.01.2025).
5. Муртазаев Д.Б. Феномен джадидизма в духовной и культурной жизни Туркестана в период царизма / Д.Б.Муртазаев, У.М.Утамурадов. - Текст : непосредственный // Молодой учёный. - 2020. - № 25 (315). - С. 332-334. / URL: https://moluch.ru/archive/315/72001/ (murojaat san’asi: 14.01.2025).
6. Алихожиев М.О., Тажимирзаев Э.А. Джадидизм в Туркестане и просветительская деятельность джадидов // Интеллектуальный потенциал XXI века: ступени познания. 2016. № 32. - С. 72-76. / URL: https://cyberleninka.ru/article/n/dzhadidizm-v-turkestane-i-prosvetitelskaya-deyatelnost-dzhadidov (murojaat san’asi: 14.01.2025).

TURKISTON JADIDLARI QARASHLARIDA ISHBILARMONLIK OMILLARNING NAMOYON BO‘LISHI VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

TÜRKİSTAN CEDİDLERİNİN GÖRÜŞLERİNDE İŞ FAKTÖRLERİNİN TEZAHÜRÜ VE BUGÜNKÜ SOSYO-FELSEFİ ÖNEMİ

THE MANIFESTATION OF BUSINESS FACTORS IN THE VIEWS OF TURKESTAN JADIDS AND THEIR SOCIO-PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE TODAY

ПРОЯВЛЕНИЕ ДЕЛОВЫХ ФАКТОРОВ ВО ВЗГЛЯДАХ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ И ИХ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СЕГОДНЯ

Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich
FarDU Sosiologiya kafedrasi mudiri, f.f.d. (DSc), professor
e-mail: mr.ganiev76_fsu@inbox.ru, tel.: +998909860045

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot Turkiston jadidlarining qarashlaridagi biznes omillarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ularning Markaziy Osiyoda zamonaviy iqtisodiy, ta’lim va madaniy jarayonlarning rivojlanishiga ta’sirining tarixiy taraqqiyoti va bugungi holatini ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini ko‘rib chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: jadidlar, ishbilarmonlik, ta’lim, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy falsafa, taraqqiyot, qadriyat.

Açıklama. Bu araştırma, Türkistan cedidlerinin görüşlerindeki iş faktörlerinin analizine ayrılmıştır. Orta Asya’daki modern ekonomik, eğitimsel ve kültürel süreçlerin gelişimi üzerindeki etkilerinin tarihsel gelişimi ve sosyo-felsefi önemi göz önünde bulundurulmuştur.

Temel kelimeler: jadidler, işletme, eğitim, sosyal tutum, sosyal felsefe, ilerleme, değer.

Annotation. This research is devoted to the analysis of business factors in the views of the jadids of Turkestan. The historical development and the socio-philosophical significance of their influence on the development of modern economic, educational and cultural processes in Central Asia has been considered.

Keywords: jadids, business, education, social attitude, social philosophy, progress, value.

Аннотация. Данное исследование посвящено анализу бизнес-факторов во взглядах туркестанских джадидов. Рассмотрена социально-философская значимость исторического прогресса и сегодняшнего состояния их влияния на развитие современных экономических, образовательных и культурных процессов в Средней Азии.

Ключевые слова: джадиды, бизнес, образование, социальное отношение, социальная философия, прогресс, ценность.

Ilmiy va nazariy dolzarbligi o‘rganilayotgan mavzu XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkiston jamiyatini modernizatsiya qilishning tarixiy, falsafiy va ijtimoiy kontekstini ochib berish uchun muhimdir. Jadidizm islohotchi harakat bo‘lib, ta’lim, tadbirkorlik va madaniy yangilanishga e’tibor qaratib, yangi ijtimoiy va iqtisodiy yondashuvlarni shakllantirishga yordam berdi. Ushbu omillarni tahlil qilish jamiyatlarni modernizatsiya qilish jarayonida, ayniqsa Islom dunyosi sharoitida ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar va iqtisodiy amaliyotlarning o‘zaro ta’sirini tushunishni chuqurlashtirishga imkon beradi. Bugungi kunda jadid g‘oyalarini ijtimoiy-falsafiy talqin qilish tarixiy tajribani zamonaviy muammolarga moslashtirish imkoniyatlarini tushunishga yordam beradi, an’ana va innovatsiya o‘rtasidagi uyg‘unlikni izlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek barqaror ijtimoiy rivojlanish.

Ushbu mavzuning uslubiy va amaliy dolzarbligi tarixiy va falsafiy tahlil, ijtimoiy antropologiya va iqtisodiy nazariyani o‘z ichiga olgan fanlararo yondashuvdan foydalanishni talab qiladi. Tadqiqotning amaliy dolzarbligi jadidlarning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarini Markaziy Osiyoning zamonaviy muammolarini hal qilishda qo‘llash imkoniyati bilan bog‘liq. Ushbu g‘oyalar ta’lim tizimlarini rivojlantirish, biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va madaniy taraqqiyot uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Mavzuning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati jadid g‘oyalari zamonaviy islohotlarni ilhomlantirishi, jamiyatning uyg‘un rivojlanishi uchun an’anaviy va zamonaviy qadriyatlarni birlashtirishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan mexanizmlarni ochib berishdan iborat.

Mazkur mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun quyidagi ilmiy ishlarni ko‘rib chiqishimiz lozim deb o‘ylaymiz:

Alixojiyev M.O., Tajimirzayev E.A. “Turkistondagi Jadidizm va jadidlarning ma’rifiy faoliyati” // XXI asrning intellektual salohiyati: bilim bosqichlari, 2016. Maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda jadidlar harakatining paydo bo‘lishi va tarqalishi, ularning faoliyati ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan [1. 72-76.].

Bazarbayev K.K. “Milliy-progressiv harakat: jadidlarning davlatchilikka qarashlari” // yosh olim, no 3 (26), 2011. Maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonning islohot harakatlari ko‘rib chiqilgan. va murakkab, tarixiy jihatdan ko‘p qirrali rivojlanish yo‘li [2. 71-74.].

Nishanova N.R. “O‘rta Osiyodagi jadidlar harakati” // ilmiy jurnal, 2022. Maqolada jadidizmning asosiy g‘oyalari va maqsadlari, jumladan Turkistonni o‘rta asrlar, feodal qoloqlik va xurofotlardan ozod qilish ko‘rib chiqiladi [3. 29-33.].

Juraeva N.D. “Turkiston jadidlarining qarashlarida ayolga munosabat” // yosh olim, № 26 (128), 2017. Maqolada jadidlarning Turkistonda ayollar ta’limi va ozodlik masalalariga munosabati tahlil qilingan [4. 799-801.].

Ushbu asarlar Turkiston jadidlarining qarashlaridagi biznes omillarini va ularning zamonaviy kontekstdagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini tahlil qilish uchun qimmatli materiallarni taqdim etadi.

Mavzu bilan bog‘liq quydagi ilmiy qarashlar va ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishlarni tilga olishimiz mumkin:

1. Islom dunyosidagi modernizm va islohot qilish g‘oyasi. Jadidizm ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida Islom dunyosidagi modernizm bilan bog‘liq bo‘lib, G‘arb yutuqlarini Islom qadriyatlarini saqlab qolish bilan birlashtirishga intilgan. Bu g‘oyalar M.Bennabi [5. 50-61.], M.Arnold [6. 288.] kabi tadqiqotchilar asarlarida kuzatish mumkin. Bunda, jadidlar tadbirkorlik va ta’lim, jamiyatni modernizatsiya qilish va iqtisodiy avtonomiyani mustahkamlash vositalari kabi biznes omillarida ko‘rishgan.

2. Rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy falsafasi g‘oyasi. Jadidlarning biznes omillariga bo‘lgan qarashlari tadbirkorlik, savdo va hunarmandchilik orqali kuchli iqtisodiyotni shakllantirish zarurligiga asoslangan edi. Maks Veberning “Protestant axloqi va kapitalizm” [7. 316.] asarini tahlil qilish orqali, Turkiston jadidlari iqtisodiy faoliyatni zamonaviy barqarorlik nazariyalari bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy adolat va tenglik uchun asos sifatida ko‘rdilar.

3. Ma’rifat va ta’lim falsafasi g‘oya. Jadidlar ta’limga alohida e’tibor berib, uni milliy o‘zlikni anglash va tadbirkorlarning yangi avlodini shakllantirishning asosiy omili deb hisoblashgan. Vakillari sifatida J.J.Russo [8. 306.], I.Gasprinskiylarni [9. 384.] keltirish mumkin. Ular tomonidan, yangi turdagi maktabda (jadid) ta’lim zamonaviy mehnat bozori uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni tarbiyalashga qaratilgan edi.

4. Modernizatsiya nazariyasi g‘oya. Jadidlar milliy o‘ziga xoslikni saqlab, an’anaviy agrar jamiyatdan zamonaviy sanoat jamiyatiga o‘tishga harakat qilishdi. Namoyondalari, S.Xantington [10. 368.], S.Eyzenstadtlardir [11. 1-30.]. Ular iqtisodiy va ijtimoiy qoloqlikni bartaraf etishda faol biznes tashabbuslarining rolini ta’kidladilar.

5. Birdamlik va hamkorlik falsafasi g‘oya. Jadidlar kooperatsiyani mustamlaka qaramligiga qarshi turish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash usuli sifatida ko‘rdilar. Tarafdorlari E.Dyurkgeym

[12. 738.], A.Smitlardir [13. 186.]. Kooperativlarni tashkil etish va mahalliy biznesni rivojlantirish ijtimoiy tenglik va mustaqillikka erishishga qaratilgan edi.

6. Gender falsafasi g‘oya. Jadidlar ayollarning ta’lim va iqtisodiyotga jalb qilinishini modernizatsiyaning muhim elementi sifatida ko‘rib, jamiyatdagi roliga e’tibor qaratdilar. Tarafdorlari sifatida S. de Bovuar [14. 174.], N.Abdullayevalarni [15. 54.] keltirish mumkin. Ayollarni ijtimoiy va biznes jarayonlarining faol ishtirokchilari sifatida tan olish jadid qarashlarining progressivligini ta’kidlaydi.

Ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishlar sifatida:

- an’analar va innovatsiyalarni uyg‘unlashtirish - Islomiy qadriyatlarni ishbilarmonlik faoliyati bilan birlashtirishga urinish;

- ma’rifiy pragmatism - bilim va ta’limdan ijtimoiy va iqtisodiy foyda olish uchun foydalanish;

- milliy progressivism - milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish orqali madaniy va iqtisodiy rivojlanishga intilish;

- ijtimoiy harakatchanlik falsafasi - bu jamiyatning barcha qatlamlari uchun ta’lim va biznesning mavjudligi g‘oyasi.

Ushbu yo‘nalishlar jadidlarning qarashlari ijtimoiy modernizatsiya, barqaror rivojlanish va tadbirkorlik falsafasining zamonaviy nazariyalarida qanday aks etishini namoyish etadi.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida, quydagi umumiy xulosalarni keltiramiz:

- Jadidlarning jamiyatni modernizatsiya qilishga qo‘shgan hissasi. Turkiston jadidlari jamiyatni modernizatsiya qilishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi, ta’lim, tadbirkorlik va ijtimoiy adolatning ahamiyatiga e’tibor qaratdi. Ularning g‘oyalari zamonaviy sharoitda jamiyatning rivojlanish yo‘llarini tahlil qilish uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda.

- Taraqqiyot vositasi sifatida biznes omillari. Jadidlar biznes omillarini (tadbirkorlik, savdo, kooperativlar) iqtisodiy va ijtimoiy Ozodlikning asosiy vositalari sifatida ko‘rib chiqdilar. Bu zamonaviy qiyinchiliklar sharoitida tarixiy tajribani qayta ko‘rib chiqish uchun zamin yaratadi.

- G‘oyalarning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. Jadid qarashlari boshqaruv, ta’lim va biznes yuritishning ilg‘or usullari bilan an’anaviy Islomiy qadriyatlarning sintezini namoyish etadi. Ushbu yondashuv an’analarni uyg‘unlashtirish va modernizatsiya qilish uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

- Zamonaviylik uchun dolzarblik. Jadidlarning kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, ayollarning iqtisodiyot va ta’limdagi rolini faollashtirish, shuningdek, ijtimoiy kooperatsiyaning ahamiyati haqidagi g‘oyalari Markaziy Osiyo rivojlanishi uchun amaliy ahamiyatga ega.

Shuningdeq, quyidagi amaliy taklif va tavsiyalarni ham keltiramiz:

1. Ta’lim dasturlarini rivojlantirish. Tadbirkorlik tafakkurini shakllantirish, bilimlarning pragmatizmiga e’tibor qaratish va fanlararo yondashuvlar orqali yoshlarni ijtimoiylashtirish uchun ta’lim tizimlarida jadid g‘oyalaridan foydalanish.

2. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash. Kooperativlar, yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash tashabbuslari va an’anaviy hunarmandchilikni zamonaviy iqtisodiyotga integratsiya qilish orqali mahalliy biznesni rag‘batlantirishda jadid tajribasini qo‘llang.

3. Ayollarning iqtisodiy faoliyatga integratsiyasi. Jadidlarning qarashlaridan ilhomlanib, tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi ishtirokini oshirish dasturlarini ishlab chiqish.

4. Ijtimoiy sheriklik va hamkorlik. Iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga imkon beradigan mahalliy jamoalarga yo‘naltirilgan kooperativ tadbirkorlik platformalarini yaratish.

5. Jadid merosini ommalashtirish. Jadidlarning ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarini zamonaviy voqelikka moslashtirish uchun o‘rganish va ommalashtirishga qaratilgan tadqiqotlar, konferentsiyalar va ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish.

6. An’analar va innovatsiyalarni uyg‘unlashtirish. An’anaviy qadriyatlarni zamonaviy boshqaruv, madaniyat va biznes tizimiga integratsiya qilish uchun jadidlarning ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarini qo‘llash.

Ushbu taklif va tavsiyalar jadidlar merosini qayta ko‘rib chiqishga va ularning qarashlarini zamonaviy ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish muammolariga moslashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Алихожиев М.О., Тажимирзаев Э.А. Джадидизм в Туркестане и просветительская деятельность джадидов // Интеллектуальный потенциал XXI века: ступени познания. 2016. № 32. - С. 72-76. / URL: https://cyberleninka.ru/article/n/dzhadidizm-v-turkestane-i-prosvetitelskaya-deyatelnost-dzhadidov (Murojaat etilgan: 15.01.2025).

Базарбаев К.К. Национально-прогрессивное движение: взгляды джадидов на государственность / К.К.Базарбаев. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2011. - № 3 (26). - Т. 2. - С. 71-74. / URL: https://moluch.ru/archive/26/2753/ (Murojaat etilgan: 15.01.2025).

Нишанова Н.Р. Движение джадидов в Средней Азии // Вестник науки и образования. 2022. № 2-1 (122). - С. 29-33. / URL: https://cyberleninka.ru/article/n/dvizhenie-dzhadidov-v-sredney-azii (Murojaat etilgan: 15.01.2025).

Атаева Д.П. Национальные особенности движения джадидов в Туркестане / Д.П.Атаева, С.Х.Абдираманов. - Текст: непосредственный // Молодой

ученый. - 2016. - № 8 (112). - С. 799-801. / URL: https://moluch.ru/archive/112/28778/ (Murojaat etilgan: 15.01.2025).

Малека Беннаби. Человек, почва, время: цивилизационная концепция. / Ф.О.Нофал // Patria. - Т. 1. № 2. - С. 50-61.

Арнольд Минделл. Вскачь задом наперед Процессуальная работа в теории и на практике. - Москва: Ганга, 2021. - С. 288.

Макс Вебер. Протестанская этика и дух капитализма. (перевод с немецкого М.Левиной) - Москва: АСТ, 2023. - С. 316.

Жан-Жак Руссо. Об общественном договоре. - Москва: Директмедиа-Паблишинг, 2002. - С. 306.

Полное собрание сочинений Исмаила Гаспринского. - Симферополь: ООО ФОРМА, 2016 - Т. I. - С. 384.

Хантингтон С. Третья волна. Демократизация в конце XX века (Пер. с англ.) - Москва: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2003. - С. 368.

EISEUSTADT S. Multiple modernities. // Daedalus. - Cambridge (Mass), 2000. - Vol.129, № 1. - P. 1-30.

Эмиль Дюргейм. Элементарные формы религиозной жизни: тотемистическая система в австралии. (пер. с фпанц. А.Аппололонова) - Москва: Дело. РАНХиГС, 2018. - С. 736.

Смит Адам. Исследование о природе и причинах богатства народов. (пер. с англ., предисл. В.С.Афанасьева) - Москва: Эксмо, 2007. - С. 186.

Симона де Бовуар. **Прелестные картинки (Les belles images).** - Москва: Издательство: Цитадель, 2000. - С. 174.

А.В.Алейников, Н.В.Абдуллаев, Г.Г.Газимагомедов. Экономическая конфликтология (учебное пособие) - Москва: Университет, 2015. - С. 54.

JADID NAMOYONDALARINING MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

CEDID ÜSLERİNİN ULUSAL KIMLIKLERI OLUŞUMDAKI ROLÜ
THE ROLE OF JADID FIGURES IN SHAPING NATIONAL IDENTITY
РОЛЬ ДЖАДИДСКИХ ПРОЯВЛЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Kuvandikov Shokir Oblokulovich
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
shokir_k@mail.ru, +998 88 2863382

Annotatsiya: Jadidlar, 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida O‘zbekiston va Turkiston hududida faoliyat ko‘rsatgan ma’rifatparvarlar guruhi, milliy identitetni shakllantirishda muhim

rol o‘ynagan. Ularning ta’lim, adabiyot, san’at va ijtimoiy harakatlar orqali amalga oshirgan faoliyati o‘zbek xalqining tarixiy merosini qadrlash, milliy g‘oyalarni rivojlantirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan. Jadidlar zamonaviy ta’lim tizimini yaratish, ayollar ta’limini rivojlantirish va milliy uyg‘onish harakatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali milliy ongni oshirishga hissa qo‘shgan.

Kalit so'zlar: jadidlar, milliy identitet, ta’lim, ma’rifat, adabiyot, ijtimoiy adolat, gender tengligi, milliy uyg‘onish, ayollar ta’limi, milliy g‘oyalar

Kirish: Jadidlar, 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida O‘zbekiston va Turkiston hududida faoliyat ko‘rsatgan ma’rifatparvarlar guruhi, o‘z davrining ijtimoiy, madaniy va siyosiy o‘zgarishlariga javob berib, milliy identitetni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Ular an’anaviy ta’lim tizimidan voz kechib, zamonaviy bilimlarni o‘qitishga, xalqni ma’rifatga chaqirishga va milliy g‘oyalarni rivojlantirishga harakat qilgan. Jadidlarning ta’lim, adabiyot va san’at sohasidagi faoliyati, shuningdek, ijtimoiy adolat va gender tengligi masalalariga e’tibor berishlari, ularning milliy ongni oshirishga bo‘lgan intilishlarini ko‘rsatadi. Ushbu maqolada jadid namoyondalarining milliy identitetni shakllantirishdagi roli, ularning ta’lim va madaniyat sohasidagi yutuqlari, shuningdek, ijtimoiy muammolarni hal etishdagi faoliyatlari tahlil qilinadi. Bu orqali jadidlarning merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini ko‘rsatish maqsad qilinadi. Ularning merosi bugungi kunda ham milliy identitetni rivojlantirishda va ijtimoiy muammolarni hal etishda ilhom manbai bo‘lib qolmoqda.

Jadid namoyondalarining milliy identitetni shakllantirishdagi roli hozirgi kunda ham dolzarbdir. Ularning g'oyalari, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy faoliyati o'zbek xalqining o'zligini anglashiga va kelajagi uchun muhim yo'l ko'rsatadi. Bu tarixiy merosni o'rganish va rivojlantirish, bugungi kunda milliy identitetni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jadidlarning ta’limga qo‘shgan hissasi zamonaviy O‘zbekiston ta’lim tizimining poydevorini tashkil etadi. Ular ilgari surgan g‘oyalar, masalan, fanlarni turli tillarda o‘rgatish va zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash, hozirgi ta’lim dasturlarida o‘z aksini topmoqda. Shu bilan birga, ayollar ta’limi va teng imkoniyatlarni ta’minlash borasidagi sa'y-harakatlari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Material va metodlar: Ushbu tadqiqotda quyidagi materiallar asosida ma’lumotlar to‘plandi: Jadid namoyondalarining asarlari (she’rlar, maqolalar, romanlar). O‘zbekiston va Turkiston tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar. Jadidlar faoliyatiga bag‘ishlangan biografik ma’lumotlar va monografiyalar. Zamonaviy tadqiqotlar va maqolalar, internet resurslari. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: Jadid namoyondalarining asarlarini va ularning ta’lim va madaniyat sohasidagi faoliyatini tahlil qilish. Bu metod orqali ularning milliy identitetni shakllantirishdagi roli o‘rganildi. Jadidlar faoliyatining tarixiy kontekstini o‘rganish, ularning o‘z davrida qanday ijtimoiy va siyosiy sharoitlarda ishlashgani tahlil

qilindi. Mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va ularni sharhlash, bu orqali jadidlarning o‘rni va ahamiyatini aniqlash.

Natijalar: Ushbu tadqiqot davomida jadid namoyondalarining milliy identitetni shakllantirishdagi roli tahlil qilindi va quyidagi natijalarga erishildi:
Ta’lim tizimining yangilanishi: Jadidlar zamonaviy ta’lim tizimini yaratish orqali o‘zbek xalqining bilim darajasini oshirishga muvaffaq bo‘lishdi. Ular yangi maktablar ochib, o‘zbek tilida dars berish orqali milliy g‘oyalarni targ‘ib qildilar. [1] Bu o‘zgarishlar o‘zbek xalqining madaniy o‘ziga xosligini mustahkamlashga yordam berdi. Milliy til va an’analarni ta’lim jarayoniga qo‘shish orqali yosh avlod o‘z merosini anglab etdi. Natijada, milliy g‘urur va o‘ziga bo‘lgan ishonch kuchaydi.

Milliy g‘oyalar ta’limda o‘quvchilarga o‘z madaniyati va tarixini anglashga yordam beradi. Bu ularda milliy iftixor va o‘zlikni shakllantiradi, hamda jamiyatda ijtimoiy birlikni mustahkamlaydi. Shuningdek, milliy g‘oyalar yosh avlodning global muhitda o‘z o‘rnini topishiga imkon yaratadi.

Jadidlar zamonaviy ta’lim tizimini yaratish orqali o‘zbek xalqining bilim darajasini oshirishga muvaffaq bo‘lishdi. Ular yangi maktablar ochib, o‘zbek tilida dars berish orqali milliy g‘oyalarni targ‘ib qildilar.[2] Biroq, bu jarayonda ular bir qator qiyinchiliklarga duch kelishdi. Eng katta muammolardan biri etarli darajada malakali o‘qituvchilarni topish edi, chunki yangi ta'lim uslublariga moslashish vaqt talab qiladigan jarayon edi. Shuningdek, moliyaviy resurslarning etishmasligi ham maktablarning rivojlanishini cheklab qo‘ydi.

Adabiyot va madaniyat: Jadid namoyondalari o‘z asarlarida milliy tarix, madaniyat va qadriyatlarni aks ettirib, o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Behbudiy o‘z asarlarida o‘zbek xalqining madaniy merosini, tarixini va an’analarini aks ettirdi. Uning adabiy asarlari milliy ongni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. U shuningdek, **"Yoshlar"** nomli jurnalni tashkil etib, o‘zbek yoshlarining fikrlarini va g‘oyalarini keng ommaga etkazdi. Ularning asarlari o‘zbek xalqining o‘zligini anglashida muhim rol o‘ynadi. [2] Ushbu asarlar milliy ongni mustahkamlashga va xalqning o‘z madaniy merosiga hurmat bilan qarashiga turtki berdi. Jadidlar o‘z asarlari orqali milliy o‘zlikni saqlab qolish va uni avlodlarga etkazish vazifasini amalga oshirdilar. Natijada, o‘zbek xalqining tarixiy ildizlari va qadriyatlari yanada chuqurroq anglanib, milliy g‘urur va birlikni mustahkamladi.

Madaniy merosni saqlab qolish kelajak avlodlarning o‘z ildizlarini bilishi va qadriyatlarini tushunishi uchun nihoyatda muhimdir. Bu nafaqat milliy o‘zlikni mustahkamlashga yordam beradi, balki turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy almashinuv va tushunishni ham rivojlantiradi. Shuningdek, madaniy merosni asrab-avaylash orqali biz boy tariximiz va an'analarimizni saqlab, ularni jahon miqyosida tanitish imkonini yaratamiz. Behbudiy, jadid harakatining muhim namoyondalaridan biri sifatida, ta’lim va madaniyat sohasida yangiliklarni amalga oshirishga qaratilgan

faoliyat yuritdi. U o‘zbek tilida zamonaviy ta’limni rivojlantirishga intilib, yangi maktablar ochdi va o‘quv dasturlarini yangiladi. Behbudiy jadid harakatining faol ishtirokchisi bo‘lib, u zamonaviy fikrlash va milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib qildi. U ijtimoiy adolat va gender tengligi masalalariga ham e’tibor qaratdi, ayollarning ta’lim olish huquqlarini himoya qildi.

Ijtimoiy adolat va gender tengligi: Jadidlar ayollarning ta’lim olishiga katta e’tibor qaratgan bo‘lib, bu jamiyatda gender tengligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular ijtimoiy adolatni ta’minlash maqsadida tabaqalanishga qarshi chiqishdi.

Jadidlar tomonidan 1900-yillarda tashkil etilgan maktablar, xususan, Sirdaryo viloyatidagi "O‘qituvchi" maktabi, ayollar uchun ta’lim olish imkoniyatlarini yaratdi. Bu maktablar o‘zbek tilida ta’lim berish orqali milliy g‘oyalarni targ‘ib qildi. Abdulhamid Choqay va Ismoil Gaspirali kabi jadid namoyondalari ayollar uchun maxsus maktablar ochishdi. Masalan, Toshkentda 1910-yilda ochilgan "Ayollar maktabi" 200 dan ortiq qizni ta’lim oldi. Jadidlar o‘z asarlarida ayollarning ta’lim olishi zarurligini ta’kidlagan. Fitrat va Abdulla Qodiriy kabi yozuvchilar o‘z asarlarida qizlarning o‘qishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ko‘rsatdilar. Jadidlar ayollarning ta’lim olishida gender tengligini ta’minlash maqsadida "Ayol" jurnali (1920-yillarda) orqali ayollarning huquqlari va ta’lim olish zarurligini targ‘ib qildilar. Jadidlar ijtimoiy adolatni ta’minlash maqsadida tabaqalanishga qarshi chiqib, "O‘zbek qizlari" tashkilotini tuzdilar. Bu tashkilot ayollarning ta’lim olishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga qaratilgan dasturlarni amalga oshirdi.[3]
Jadidlar ayollarning ta’lim olishiga qaratilgan e’tiborlari bilan gender tengligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim rol o‘ynadilar. Ularning faoliyati o‘zbek jamiyatining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Biroq, ular bu yo'lda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishdi. Jadidlar patriarxal an’analar va konservativ qarashlarga qarshi kurash olib borishlariga to'g'ri keldi.

Jadidlar milliy uyg‘onish harakatining etakchisi bo‘lib, o‘z xalqining erkinligi va mustaqilligi uchun kurashdilar. Ularning faoliyati xalqni birlashtirishga va milliy ongni oshirishga qaratilgan edi. Jadidlar, xususan, Ismoil Gaspirali va Abdulhamid Choqay, milliy uyg‘onish harakatining asoschilaridan bo‘lib, o‘zbek xalqining erkinligi va mustaqilligi uchun faol kurashdilar. Ular o‘z asarlarida milliy g‘oyalarni targ‘ib qilishdi.[4] Ularning asarlari, xalqning o‘z tarixini, madaniyatini va tilini anglashiga katta hissa qo‘shdi. Bu yozuvlar milliy o‘zlikni tiklash va saqlashda muhim rol o‘ynadi, shuningdek, zamonaviy ta'lim va islohotlar orqali jamiyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan edi. Shuning uchun, jadidlarning madaniy me'rosi bugungi kunda ham o‘zbek madaniyatining ajralmas qismi sifatida qadrlanadi. Jadidlar harakati zamonaviy O‘zbekistonda katta ta’sirga ega bo‘lib, milliy identitet va madaniy merosni saqlashda muhim rol o‘ynadi. Ularning ta'lim va ma'rifatga

bo‘lgan e’tibori bugungi kunda ham o‘z aksini topib, zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishiga zamin yaratdi. Shuningdek, jadidchilarning demokratik va mustaqil jamiyatga intilishi hozirgi O‘zbekiston siyosiy va madaniy hayotida o‘z aksini topmoqda.

Jadidlar "Taraqqiy" (1910) va "Shuro" (1913) kabi gazetalar chiqarib, o‘z fikrlarini keng ommaga etkazdilar. Bu gazetalar jadidchilik harakatining asarlaridan biri bo‘lib, u XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda ma’rifat va islohot g‘oyalarini targ‘ib qilishga qaratilgan edi.[5] Jadidlar zamonaviy bilimlarni, madaniyatni va texnologiyalarni o‘zlashtirishni yoqlab chiqishdi, shu orqali jamiyatni taraqqiyotga olib chiqishni maqsad qilishdi. Ushbu nashrlar orqali ular o‘z g‘oyalarini yoyib, xalqni ilm va madaniyatga da’vat etishga harakat qildilar. Bu matbuot vositalari milliy ongni oshirishda muhim rol o‘ynadi. Jadidlar tomonidan ochilgan maktablar, masalan, "Samarqand jadid maktabi", zamonaviy ta’lim berish orqali xalqni birlashtirishga va milliy g‘oyalarni tarqatishga xizmat qildi. Tashkentda 1917-yilda bo‘lib o‘tgan "Jadidlar qurultoyi" xalqni birlashtirish va milliy muammolarni hal etish maqsadida tashkil etildi.[5] Bu tadbirda xalqning erkinligi va mustaqilligi uchun kurashish zarurligi ta’kidlandi. Biroq, jadidchilik harakati turli to‘siqlar bilan ham yuzma-yuz keldi. Ular an’anaviy qarashlarga ega bo‘lgan dindorlar va konservativ kuchlar tomonidan qarshilikka uchradi. Bundan tashqari, chor hukumati ham ularning faoliyatini cheklashga intildi, bu esa harakatning rivojlanishini sekinlashtirdi.

Jadidlar o‘z asarlarida o‘zbek xalqining tarixiy qadriyatlarini va madaniyatini aks ettirib, milliy ongni oshirishga hissa qo‘shdilar. **Abdulla Qodiriy** va **Fitrat** kabi yozuvchilar o‘z asarlarida milliy g‘oyalarni ilgari surdilar.[6] Biroq, bu yozuvchilar o‘sha davrda siyosiy va ijtimoiy cheklovlar bilan yuzma-yuz kelishdi. Ularning asarlari ko‘pincha senzura ostida bo‘lib, milliy g‘oyalarni ochiq-oydin ifoda etishlari qiyin edi. Shuningdek, ular o‘z fikrlarini tarqatishda davlat tomonidan ta'qib va qatag‘on xavfi bilan ham duch kelishgan.[7]

Jadidlar milliy uyg‘onish harakatining etakchisi sifatida o‘z xalqining erkinligi va mustaqilligi uchun kurashdilar. Ularning faoliyati xalqni birlashtirishga va milliy ongni oshirishga qaratilgan bo‘lib, o‘zbek jamiyatining taraqqiyotiga katta ta'sir ko‘rsatdi.

Xulosa:

- Jadid namoyondalari, xususan, Behbudiy, **Ismoil Gaspirali** va **Abdulhamid Choqay** o‘zbek milliy uyg‘onish harakatining muhim figuralaridan biri bo‘lib, ta’lim, madaniyat va adabiyot sohasidagi faoliyati orqali milliy identitetni shakllantirishda katta hissa qo‘shdi. Uning g‘oyalari va asarlari bugungi

kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.**,** Ular o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy qadriyatlarini yuksaltirishga intildilar.

Jadidlar ta’lim tizimini yangilash orqali milliy identitetni shakllantirishda muhim rol o‘ynadilar. Ular zamonaviy ta’lim usullarini joriy etib, xalqning bilim darajasini oshirishga harakat qildilar.

- Jadidlar tomonidan chiqarilgan gazetalar va jurnallar (masalan, “**Taraqqiy”** va **“Shuro” “Yoshlar”)** orqali milliy ongni oshirish va o‘zbek xalqining muammolarini yoritish maqsadida keng ommaga ma’lumot etkazdilar.
- Jadid namoyondalari o‘z asarlarida o‘zbek tilini va madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan g‘oyalarni ilgari surdilar. Ularning adabiy asarlari milliy identitetni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.
- Jadidlar ayollarning ta’lim olishiga e’tibor qaratib, ijtimoiy adolat va gender tengligini ta’minlashga intildilar. Bu harakatlar milliy identitetni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Jadid namoyondalari milliy identitetni shakllantirishda muhim rol o‘ynadilar. Ularning ta’lim, madaniyat, matbuot va ijtimoiy adolat sohasidagi faoliyati o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy qadriyatlarini yuksaltirishga, milliy ongni oshirishga va xalqni birlashtirishga hissa qo‘shdi. Jadidlar merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi va milliy identitetni mustahkamlashda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, A. (2015). Jadidlar va O‘zbek ta’limi. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. Toshpulatov, M. (2018). O‘zbek adabiyoti tarixi. Tashkent: Sharq.
3. Saidov, R. (2020). Jadid harakati va Milliy Uyg‘onish. Tashkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi.
4. Jumaniyozov, S. (2019). O‘zbek Milliy Identiteti: Tarixiy va Zamonaviy Asoslar. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
5. Murodov, D. (2021). Ayollar va ta’lim: jadidlar misolida. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi ma’naviyat va ma’rifat markazi.
6. Mirziyoyev Sh.M., “Yangi O’zbekiston demokratik o’zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda”, “O’qituvchi” MU, 2021 92-bet
7. Iqbol Mirzo. “Birlashmoq davri”, Jadid adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazetasi. 2024-yil 1-yanvar. №1
8. Choriyev A., Choriyev S. Renessans davri Yevropa falsafasi. T.: Tafakkur qanoti, 2015

TURKISTON JADIDLARI ILGARI SURGAN IJTIMOIY G‘OYALARNING YANGI O‘ZBEKISTON DEMOKRATIK TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

YENİ ÖZBEKİSTAN'IN DEMOKRATİK GELİŞİMİNDE TÜRKİSTAN CEDİTLERİ TARAFINDAN DESTEKLENEN SOSYAL FİKİRLERİN ÖNEMİ

TURKESTAN JADIDS ADVANCED THE ROLE OF SOCIAL IDEAS IN THE DEMOCRATIC DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ИДЕЙ, ВЫДВИНУТЫХ ТУРКЕСТАНСКИМИ ДЖАДИДАМИ, В ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Nabiyev Mansur Jamxur o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi
mansurnabiyev5@gmail.com, +99899 5266979, +99893 3087393

Annotatsiya Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan Turkiston jadidlari tomonidan olg‘a surilgan ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar, jadidlarning ilmiy-ma’rifiy faoliyati, Yangi O‘zbekiston demokratik taraqqiyoti uchun jadidlar tomonidan ilgari surgan ma’rifat va ta’lim, bag‘rikenglik va plyuralizm, milliy o‘zlik, demokratik qadriyatlar, ijtimoiy adolat kabi g‘oyalarni ahamiyatini qiyosiy tahlillar qilingan.

Kalit so‘z va iboralar: Turkiston, jadidlar, ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar, ilmiy-ma’rifiy faoliyat, Yangi O‘zbekiston, demokratik taraqqiyot, ma’rifat va ta’lim, bag‘rikenglik va plyuralizm, milliy o‘zlik, demokratik qadriyatlar, ijtimoiy adolat.

Turkiston xalqlarining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi hayoti nihoyatda sermazmuniligi, g‘oyaviy-mafkuraviy rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ayni shu davrda Turkiston o‘lkasida yangi bir harakat jadidchilik harakati paydo bo‘ldi. “Jadidchilik (arab.yangi) – XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz, Volga bo‘yi hududlarida shakllangan, yangi zamonaviy maktab, matbaa, va taraqqiyotning ilg‘or usul va yo‘llarini yoqlab chiqqan ijtimoiy-ma’rifiy harakat”[1,191]. Turkistonga yoyilgan jadidchilik harakatining g‘oyalari tarixi XVIII asrda Fransiyadagi buyuk Fransuz inqilobiga borib taqaladi. Fransiyada buyuk Fransuz inqilobi g‘alaba qozonadi. Bu inqilob vakillari feodal tizimning adolatsizliklariga qarshi chiqib “ijtimoiy shartnoma” nazariyalarini ilgari surishadi. Bu nazariya davlat va jamiyatning kelib chiqish sababini tabiiy zaruriyat asosida tushuntiradi. Dunyoga kelgan har bir insonda tabiiy huquq bo‘ladi bu huquqqa hech kimning qarshi chiqishga, cheklashga haqqi yo‘q. Har bir inson jamiyatda o‘ziga munosib sharoitda yashashlari shart, ijtimoiy huquqlar har insonda bo‘ladi, Inqilobchilar tabiiy va ijtimoiy huquqlarni cheklashga hech kimni haqqi yo‘q deb qirol hokimiyatiga qarshi chiqishadi, inqilob vakillari o‘z maqsadlariga etishadi. Buyuk Fransuz inqilobining g‘alabasidan so‘ng Fransuz ma’rifatparvarlarining g‘oyalari Fransiyadan Yevropa davlatlariga, va u erdan boshqa turli davlatlarga tarqaladi. Turkistonga kirib kelgan jadidchilik harakatining g‘oyalari ana shu Buyuk Fransuz inqilobining g‘oyalaridir. Turkiston jadidlar-inining g‘oyalari o‘z davrida

va hozir ham xalqning ijtimoiy hayotidagi ahamiyati yuksak darajada bo‘lgan xususan “jamiyatni o‘rtaasrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmida, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi”[2,191]. Turkiston jadidlari o‘zlari yashagan ijtimoiy muhitdan ko‘ngillari to‘lmagan, qoloqlik, xurofotga botgan ijtimoiy muhitni o‘zgartirishga harakat qilishgan. Turkistonda ijtimoiy muhit shu darajaga etganki shu davrda odamlar usuli qadim va usuli jadid g‘oyalari tarafdorlariga bo‘linishgan.

1-ilova

T/R	Usuli qadim	Usuli jadid
1.	Ta’lim mazmuni va metodikasi	
1.1.	An’anaviy maktab va madrasa ta’limi.	Dunyoviy fanlar (matematika, tarix, geografiya, tabiiy fanlar) ta’limga kiritildi.
1.2.	Darslar asosan diniy fanlar (fiqh, hadis, tafsir) va arab tili grammatikasiga asoslangan.	Yangi o‘quv uslublari: tushunishga, tahlil va amaliyotga asoslangan yondashuv.
1.3.	Yodlash asosiy o‘rinda bo‘lib, tushunishga e’tibor kam bo‘lgan.	Bosma darsliklardan foydalanish kengaygan.
1.4.	O‘quv jarayonida ko‘proq diniy matnlar (Qur’on, hadislar) o‘qitilgan.	Ta’limda turkiy tillar va milliy o‘zlik masalasiga e’tibor qaratilgan.
2.	Dars uslublari	
	Usuli qadim	Usuli jadid
2.1.	O‘qituvchi asosiy bilim manbai bo‘lgan.	Sinf tizimi joriy qilinib, darslar jadval asosida o‘tkazilgan.
2.2.	Ta’lim individual yoki kichik guruhlarda olib borilgan.	O‘quvchilar yosh va bilim darajasiga ko‘ra guruhlangan.
2.3.	Sinf va dars tizimi rivojlanmagan.	Ilm-fan va texnologiyalardan foydalanishga urinishlar boshlangan.
3.	Til va madaniyatga yondashuv	
	Usuli qadim	Usuli jadid
3.1.	Arab, fors tillariga asoslangan ta’lim.	O‘zbek tili darslarda asosiy o‘rinni egalladi.
3.2.	Milliy tillar ta’limda deyarli ishlatilmagan.	Mahalliy adabiyot, tarix va madaniyatga qiziqish ortdi.
3.3.		Jadidlar milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surdi.
4.	Jamiyatga ta’siri	
	Usuli qadim	Usuli jadid
4.1.	Jamiyatda diniy qatiylik va an’anaviy hayot tarzini saqlashga xizmat qilgan.	Inson huquqlari, tenglik va milliy o‘zlik g‘oyalari ilgari surildi.
4.2.	Yangiliklarga nisbatan ishonchsizlik, konservativ yondashuv mavjud bo‘lgan.	Jamiyatni isloh qilish va ilmiy taraqqiyotga erishishga harakat qilingan.

5.	Siyosiy va ijtimoiy ahamiyati	
	Usuli qadim	Usuli jadid
5.1.	Hukmron sinf va diniy ulamolar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan.	Islohotchi ziyolilar tomonidan ilgari surilgan.
5.2.	Hukumat va jamiyatda o‘zgarishlarga nisbatan shubha bilan qaralgan.	Jadidlar milliy mustaqillik va madaniy taraqqiyot tarafdorlari bo‘lib chiqqan.
5.3.		Ularning harakatlari keyinchalik siyosiy erkinlik va taraqqiyot g‘oyalariga asos bo‘ldi.

Yuqoridagi solishtirma jadvaldan ko‘rinib turibdiki usuli qadim vakillari jamiyatdagi o‘zgarishlarga keskin qarshilik bildirishgan, odamlarga o‘zgarishlar shariat ahkomlariga to‘g‘ri kelmaydi deb qarshi faoliyat olib borishgan. Qadimchilarning g‘oyalariga qo‘shilmaydigan jadidlarning asosiy maqsadlari quyidagilar bo‘lgan.

Ta’limni isloh qilish, Jadidlar o‘z faoliyatini boshlaguniga qadar Turkiston o‘lasida maktablarda faqat an’anaviy shaklda diniy bilimlar berilardi. Jadidlar maktab ta’limiga zamonaviy fanlarni (matematika, geografiya, tarix va boshqalar) o‘rgatishni taklif qildilar. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil qildilar, bu maktablarda dunyoviy bilimlar o‘rgatilgan. Jadidlarning o‘zlari maktablar uchun darsliklar ham yozishgan.

Millatni uyg‘otish, Jadidlar jamiyatda savodsizlikni kamaytirish va milliy o‘zlikni uyg‘otish orqali Turkiston xalqlarini mustamlaka zulmidan ozod qilishga harakat qildilar. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun turli nomdagi teatr tur-upalarini tashkil qilishib, sahna ko‘rinishlarni namoyish qilishadi. Misol uchun Turon teatr truppasi, sahna asarlaridan Padarkushni olishimiz mumkin.

Matbuotni rivojlantirish, ular gazeta va jurnallar nashr qilish orqali o‘z g‘oyalarini tarqatishga intildilar. Masalan, “Tarjimon”, “Sho‘roi Islomiya”, va “Sadoi Turkiston” kabi nashrlar jadidchilik harakatining asosiy ovozi bo‘lgan.

Milliy til va madaniyatni rivojlantirish, jadidlar milliy til va madaniyatni rivojlantirish, arab alifbosini isloh qilish, xalq og‘zaki ijodini qayta tiklashga intildilar. Milliy til qoidalarini ishlab chiqishgan ham edilar.

Turkiston jadidlari tomonidan o‘z davrida ilgari surilgan ijtimoiy g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

2-ilova

T/R	Jadidlar harakati	Yangi O‘zbekiston
1.	Ta’lim va ma’rifat	
1.1.	Ta’limni modernizatsiya qilish va dunyoviy fanlarni o‘quv dasturiga kiritish tarafdori bo‘lgan.	Ta’limni xalqaro standartlarga moslashtirish, STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika)

		yo‘nalishlarini rivojlantirishga urg‘u berilmoqda.
1.2.	Sinf tizimi, darsliklar va bosma adabiyot orqali ma’rifatni keng yoyishga harakat qilgan.	Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish asosiy maqsadlardan biri.
1.3.	Ayollar ta’limini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.	Ayollar va qizlar ta’limini rivojlantirish, ularni ilm-fanga jalb etish ustuvor yo‘nalishdir.
	O‘xshashliklar	
1.4.	Ta’lim va ma’rifatning jamiyat rivojidagi asosiy rolini tushunish.	
1.5.	Ayollar ta’limiga e’tibor.	
	Farqlar	
1.6.	Yangi O‘zbekiston texnologik taraqqiyotga ko‘proq e’tibor qaratadi.	
1.7.	Jadidlar g‘oyalari milliy uyg‘onish va millat shakllanishiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, Yangi O‘zbekiston g‘oyalari global raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan.	
2.	Milliy o‘zlik va madaniyatni rivojlantirish	
	Jadidlar harakati	Yangi O‘zbekiston
2.1.	Turkiston xalqlari o‘rtasida milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surdi.	Milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi.
2.2.	Turk tillarida adabiyot va darsliklar yaratildi.	Milliy madaniyat va tarixni qayta tiklash, tarixiy shaxslarni ulug‘lash davom etmoqda.
2.3.	Milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish asosiy qadriyat sifatida ilgari surildi.	Milliy meros va global taraqqiyotning uyg‘unligini ta’minlashga intilish mavjud
	O‘xshashliklar	
2.4.	Milliy madaniyat va tarixni rivojlantirish va saqlashga qaratilgan yondashuv.	
2.5.	Mahalliy tillar va milliy merosga e’tibor.	
	Farqlar	
2.6.	Yangi O‘zbekiston g‘oyalari milliy merosni zamonaviy global standartlar bilan uyg‘unlashtirishni maqsad qilgan.	
2.7.	Jadidlar harakati milliy o‘zlikni shakllantirish bosqichida bo‘lgan.	
3.	Ijtimoiy islohotlar va gender tengligi	
	Jadidlar harakati	Yangi O‘zbekiston
3.1.	Jamiyatda ayollarning mavqeyini oshirish, ularni jamiyat hayotiga faol jalb etishga harakat qilingan.	Ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tenglikni ta’minlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.
3.2.	Ijtimoiy tengsizlik va qoloqlikka qarshi kurashgan.	Yoshlar va ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.
	O‘xshashliklar	
3.3.	Gender tengligiga erishish va ayollarning ijtimoiy hayotdagi rolini oshirishga intilish.	

	Farqlar	
3.4.	Yangi O‘zbekiston gender tengligini davlat siyosatining markaziy yo‘nalishi sifatida ko‘radi.	
3.5.	Jadidlar davrida bu g‘oya endi shakllanayotgan edi va qisman madaniy muhit tomonidan cheklangan.	
4.	Texnologik taraqqiyot va innovatsiyalar	
	Jadidlar harakati	Yangi O‘zbekiston
4.1.	Bosma texnologiyalar va gazeta-jurnallar orqali ommaviy ma’rifatni targ‘ib qilgan.	Raqamli texnologiyalar, startaplar va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ajralmas qismi.
4.2.	Ilm-fan va texnologiya taraqqiyotiga qiziqish bildirgan, ammo texnologik resurslar cheklangan edi.	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga katta mablag‘ ajratilmoqda.
	O‘xshashliklar	
4.3.	Texnologik taraqqiyot jamiyat rivojining asosi sifatida qaraladi.	
	Farqlar	
4.4.	Yangi O‘zbekiston yuqori texnologiyalar va raqamli transformatsiyaga ko‘proq e’tibor qaratadi.	
4.5.	Jadidlar davrida texnologiya asosan bosma nashrlar va ma’rifiy vositalar bilan cheklangan edi.	
5.	Siyosiy va iqtisodiy islohotlar	
	Jadidlar harakati	Yangi O‘zbekiston
5.1.	Siyosiy mustaqillik va muxtoriyat g‘oyalarini ilgari surgan.	Ochiq siyosiy tizim, demokratik islohotlar va ijtimoiy adolatga erishish yo‘lida qator dasturlar amalga oshirilmoqda.
5.2.	Mahalliy xalqning siyosiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga intilgan.	Davlat boshqaruvida shaffoflik va qonun ustuvorligi mustahkamlanmoqda.
	O‘xshashliklar	
5.3.	Davlat boshqaruvida adolat va islohotlar g‘oyasi ustuvor.	
	Farqlar	
5.4.	Yangi O‘zbekiston suveren davlat sifatida siyosiy va iqtisodiy islohotlarni keng miqyosda amalga oshirmoqda.	
5.5.	Jadidlar davrida siyosiy islohotlar mahalliy va cheklangan darajada amalga oshirilgan.	

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turibdiki Jadidlar tomonidan orzu qilingan ijtimoiy g‘oyalar bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilmoqda, xususan 2020-yil 23-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasini “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Bu qonun 75-moddadan iborat, ushbu qonun ta’lim sohasini tartibga soluvchi asosiy me’yoriy huquqiy hujjat hisoblanadi[3,1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston

Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni qabul qilindi ushbu farmonga asosan “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida qabul qilingan”[4.1]. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni qabul qilinadi. Ushbu farmon “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan”[5,1]. Ta’lim tizimi bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushu farmoni qabul qilishdan maqsad “iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish”[6,1]. Bunday bajarilgan ishlar hali hammasi emas xususan,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli Qarori qabul qilinadi ushbu qarorga ko‘ra “Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko‘rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, madaniyat va san’at sohasida iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida”[7,1] qabul qilindi. Hozirgi kunda Respublikamizning barcha hududida professional teatrlar faoliyat olib bormoqda. Jadid bobolarimizdan Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Teatr – bu ibratxonadir” degan hikmatli so‘zlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Zero sahna asarlari orqali insonlar jamiyatdagi hayotini ko‘rishadi.

Jadidlarning ta’lim sohasidagi g‘oyalari bugungi hayotimizda o‘z aksini topayotganligini ko‘rmoqdamiz. Husan ta’lim to‘g‘risidagi qonunda “Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta’lim ustuvorligining tan olinishi;

ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;

ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan etti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;

ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;

ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik”[8,3]. Ta’lim sohadagi bu prinsiplarni o‘z vaqtida jadidlarimiz orzu qilishgan desam mubolag‘a qilmagan bo‘laman. O‘zbekiston hozirgi ta’lim siyosatida fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Dunyoda insoniyatni og‘ir sharoitdagi turmushini engil qiladigan narsa ta’lim va ilm hisoblanadi. Ilmni qadrlagan millat yuksaladi, ilmni qadrlamagan millatning taqdiri mavhumlikda bo‘ladi.

O‘zbekistonda amalga oshirayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Husan Oliy ta’limda yo‘nalishlarini maqbullashtirish ishlari olib borildi. Xalqaro reytinglarning etakchi 300 taligiga kirgan oliy ta’lim muassasalari dasturlari asosida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari 40 foizgacha qisqartirildi. Natijada 306 ta yo‘nalish 183 tagacha kamaytirilib, zamonaviy talablar va iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirildi. Yangilangan davlat ta’lim standartlariga muvofiq, auditoriya va mustaqil ta’lim nisbati 50/50 yoki 40/60 foizlarda belgilandi. Shuningdek, tanlov fanlar salmog‘i oshirilib, talabalarning individual ta’lim trayektoriyalari joriy etildi. Toshkent irrigatsiya va qishloq

xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti QS xalqaro reytingida 547-o‘o‘rinni, O‘zbekiston Milliy universiteti esa 781-790-o‘rinlar orasidan joy oldi. Shuningdek, QS Asia University Rankings-2025 reytingida O‘zbekistonning 23 ta oliy ta’lim muassasasi o‘rin oldi.

Ta’lim muassasalari soni va qamrov darajasida esa oliy ta’lim muassasalari soni, so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalari soni 2,5 barobarga ortib, 200 taga etdi. Talabalar soni 1,4 milliondan oshdi. Oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi. Davlat oliy ta’lim muassasalarida 27 364 o‘rinli talabalar turar joyi va 10 500 o‘rinli o‘quv binolari barpo etildi.

Maktab ta’limidagi yutuqlar quyidagilardan iborat 2024-yilda Prezident maktablari ta’lim dasturi yana 1000 ta maktabda joriy etildi.

2024-yilda O‘zbekistonlik o‘quvchilar xalqaro fan olimpiadalarida sezilarli yutuqlarga erishdilar. Xalqaro olimpiadalarda qo‘lga kiritilgan medallar quyidagicha jami medallar soni 91 ta shundan 11 ta oltin, 24 ta kumush va 56 ta bronza.

Ushbu yutuqlar O‘zbekiston yoshlari va ularning ustozlarining mehnati va intilishlari natijasi bo‘lib, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Ta’limga qancha e’tibor bersak shuncha kam.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz mumkinki “ota-bobolarimiz shuhratining soyasiga mahliyo bo‘lib yuradigan davrlar edni o‘tdi. Bugun jahon bizdan o‘z so‘zimizni aytishimizni, o‘z tafakkurimizni namoyon etishimizni talab qilmoqda. Boshqa xalqlar, boshqa millatlar bizga yotsirab – bepisand qaramasligi, balki bizni e’tirof etishi, bizni ehtirom etishi kerak. Biz ana shu yuksak munosabat va hurmatga loyiq bo‘lshimiz darkor”[9,99]. Xalqaro munosabatlarda dunyoni rivojlangan davlatlari bilan tengma teng munosabat o‘rnatishimiz uchun jaded bobolarimiz orzu qilgan, ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilibgina erishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mualliflar jamosi. “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati”. – Toshkent.: “Akademiya”-2009.191-B.
2. Mualliflar jamosi. “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati”. – Toshkent.: “Akademiya”-2009.191-B.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni // www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni // www.lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-sonli Farmoni // www.lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli Qarori www.lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // www.lex.uz.
9. Karimov I.A. “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin”. – Toshkent.: “O‘zbekiston” NMIU, 1999.-99-B.

NOZIMAXONIM ASARLARIDA MA’RIFATPARVARLIK VA HURFIKRLIK G‘OYALARI

Ahrorova Madina Raxmatovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
madinaakhrorova@gmail.com, +99893 680 44 15

Annotasiya: Turkiston jadidlari orasida o‘zining hurfikrli g‘oyalari, ma’riftaparvarlik qarashlari bilan alohida ajralib turgan shoira Nozimaxonim hisoblanadi.

O‘zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi jurnalist-publitsist. Tatar, arab va fors tillarini o‘rgangan. Orenburg va Qozonda chiqib turgan matbuotni muntazam kuzatib borgan. Yevropa adabiyoti va madaniyati bilan tanish, erkparvarlik g‘oyalaridan bahramand bo‘lgan. O‘zbek va fors mumtoz adabiyotini, ayniqsa, Sa’diy, hofiz asarlarini o‘qigan.

Kalit so‘zlar: jurnalist-publitsist, "Shuhrat", "Sadoyi Turkiston", "Taraqqiy"

She’r va maqolalari 1900 yildan matbuotda bosilgan. 20 yoshlarida shoira "beshyog‘ochlik Nozimaxonim" nomi bilan mashhur bo‘lgan. Taraqqiyot, ma’rifat va madaniyatni tashviq etuvchi she’r va manzumalari, jaholat, bid’at-xurofotni fosh etuvchi asarlari, zamonasidagi ijtimoiy tengsizlik va avj olgan milliy istibdoddan keskin norozilik bayon qilingan o‘tkir hajviy she’rlari "Shuhrat", "Sadoyi Turkiston", "Taraqqiy" kabi gazetalarda muntazam chiqib turgan. Shoira mehnat-kash xalqning milliy ozodlik hara-katini qo‘llab-quvvatlagan, xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va o‘rni haqida asarlar yozgan, jaholat va zulm poymol etgan o‘zbek ayolining milliy, insoniy haqhuquklarini talab qilib chiqqan ("Insonga qancha erk darkor?", "Ilm va maorif borasida bir-ikki so‘z", "Xotinlar huquqiga oid" va boshqalar).

Nozimaxonim she’riyati 1905-1917-yillar o‘zbek adabiyotining etakchi tamoyillarini aniklashda, 20-yillar o‘zbek she’riyatining harakterli xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.[1,23]

O‘tmishda yashab, ijod etgan barcha progressiv shoiralarning g‘oyalari lari ijtimoiy taraqqiyotning progressiv tendensiyasini ifodalasa ham bu g‘oyalar o‘sha davr sharoitida amalga oshishi mumkin emas edi. Chunki mavjud ishlab chiqarish usuli, ijtimoiy tuzum mo- hiyat e’tibori bilan progressiv idealdagi orzuga zid

bo‘lgan. Shuning uchun ham progressiv g‘oyalarni ifodalovchi badiiy asarlarda ko‘pincha real ijtimoiy tuzum turli usullar bilan inkor qilingan. Kelajakka umid bilan qarash stixiyali tarzda bo‘lsada, ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini muayyan darajada ko‘ra bilish boshqa shoiralarga nisbatan Dilshod, Barno va Nozimaxonim ijodida kuchli seziladi. Zeroki, Nozimaxonim inqilob arafasida yashab, ijod qildi.

Nozimaxonim yozgan she’rlarida zulmga, adolatsizlikka qarshi ochiq isyon ko‘taradi. Hukmron sinflarning qabihliklarini, ma’naviy tubanliklarshini fosh qilish jarayonida go‘zal jamiyat to‘grisidagi o‘z istaklarini, tushunchalarini ilgari suradi. Nozimaxonimning she’rlari shoira ijtimoiy hodisalarni anglashda boshqa shoiralarga nisbatan bir qadam ilgari ketganligini ko‘rsatadi. Binobarin hukmron sinflar — boyu- boyvachchalarning ayshu ishratlari kambag‘al xalqning og‘ir, ayanchli mehnati hisobiga bo‘layotganligi, jamiyat manfaatlari, maqsadlari va intilishlari, shuningdek jamiyatda tutgan o‘rni jihatidan keskin farq qiluvchi ikkla guruh — jafokash mehnatkashlar va tekinxur oqsuyaklarga bo‘linganligini anglaydi:

Kuring dustlar yuz-ming voy, aysh-ishrat bir yonda,

Qashshok mazlum boshida qaygu-hasrat bir yonda,

Boyvachchalar so‘rsangiz, ham tun bazmu-ishratda,

Mazlum yoq‘sil alar-chun qilur xizmat bir yonda.

Bir yon bo‘lub boyonlar g‘arq tangayu tilloga,

Burda non, deb bechora qilur mehnat bir yonda.[2,45]

Zamona ziddiyatlarini shu qadar jonli, haqqoniy ifodalagan shoira shubhasiz go‘zal jamiyatni shunday ziddiyatlar, kishini kishi tomonidan ekspluatatsiya qilishga chek qo‘yilgan, kishilarning haq-huquqlarini poymol qilinmaydigan, mehnatkash xalqqa chinakam erkinlik teng huquqlilik beradigan jamiyatni orzu qiladi.

Nozimaxonim hayotda sodir bo‘layotgan barcha qing‘ir- liklarning, adolatsizliklarning sababi o‘sha davr ijtimoiy munosabatlarning mahsuli ekanligini, hatto kishilar xatti-harakatidagi, axloqidagi tubanliklar ham zamonaning xatosi deb nihoyatda turri e’tirof etadi. Bu aqliy teranlik shoiraning san’at, adabiyotning, qalam ahlining ijtimoiy hayotda tutgan o‘rnini turri anglashga, ijodidagi estetik qarashlaridagi realistik prinsipga olib keladi. Nozimaxonim ijodda mazmun birinchi o‘rinda turishini, mazmun go‘zal bo‘lishini asosiy narsa deb biladn. Hayot haqiqatini ifodalash o‘rniga mazmunsiz ig‘vo urug‘i bilan bilan, asossiz yolg‘onlar bilan cheklanuvchi shoirlarni jazolash kerak deb hisoblaydi. Eng muhimi shundaki, Nozimaxonim zamonaning shunday shoiralaridan manfaatdor ekanligini, bularga

shon-shuhrat berish zamonaning xatosi ekanligini baralla aytadi. Uning 1913 yilda yozgan «Ahli nazm haqida» she’rida xuddi shuni ilgari suriladi:

Afsus, ko‘p nadomat, “hoy”, derga yo‘q bir oqil,
Onlarga berdi shuxrat, zamonaning xatosi.[3,23]

Haqiqatdan ham ekspluatatsiyaga, xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyatda kishining o‘rni uning mehnati bilan emas, balki boyligi, puli bilan o‘lchangan. Ana shunday sharoitda haq so‘zni aytgan qadr topmasdi, albatta. Hukmron sinfni maqtagan, haqiqatdan ko‘z yumgan shoirlar izzat-ikromda bo‘lardilar.

Nozimaxonim o‘zining go‘zal jamiyat to‘g‘risidagi orzu-istaklari reallashishiga ijtimoiy hayotda adolat o‘z o‘rnini topishiga, haqiqat g‘alaba silishitsa to‘la ishonadi. 1907-yilda yozilgan “Afsus” she’ridagi quyidagi misralar bu fikrimizning dalili bo‘lishi mumkin.

Bukun davron surub, javlon qilonlar.
Bulur haq oldida oxirda mulzam.
Degil nazming aro haq so‘zni Nozim,
Bo‘lur albatta zulm tuni bardam!

Xulosa sifatida ta’kidlaydigan bo‘lsak, XIX asr jadidchilik tarixida Nozimaxonim publist sifatida ayollar nomidan ularning orzu-istaklari, intilishlarini baralla ayta olgan olima ayollardan biri sifatida tarixda qoldi. Uning ijodi bugungi kun barkamol avlod tarbiyasida muhim g‘oya va konsepsiyalar mavjud bo‘lib dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qayumov.Qo’qon adabiy muxiti, Tashkent, UzSSR FA pashriyoti, 1961,313-bet.
3.Jalolov T. O‘zbek shoirlari. 1- kitob (XVII asrdan oktabr inqilobigacha). II nashr. T., badiiy adabiyot nashriyoti 1970 344- bet. 891 709 J -252
3. Jalolov T. O‘zbek shoirlari. 1- kitob. T., badiiy adabiyot nashriyoti 1980 416-bet. 891 709 J -252

“JADID HARAKATIDA GENDER TENGLIGI UCHUN KURASH VA UNING QATAG'ON DAVRIDAGI AKS-SADOSI”

Begaliyev Nurbek
ShDPI Tarix kafedrasi o‘qituvchisi
nurbek050295@gmail.com, tel: +998909344797
Axmadova Ruxshona
ShDPI ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo’nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadidchilik harakatida gender tengligi ya’ni, ayollar huquqi, ularga ta’lim berishning ham yo’lga qo’yilishi uchun harakat va qatag’onchilik davrida ayollar masalalari xususida so’z boradi.

Kalit so’zlar. Jadidchilik, gender tenglik, matbuot, ayollar huquqi, qatag’onchilik siyosati.

Annotation. This article talks about the movement for gender equality, women's rights, education, and women's issues during the period of repression.

Key words. Jadism, gender equality, press, women's rights, repressive policy.

Аннотация. В этой статье говорится о движении за гендерное равенство, то есть о правах женщин, образовании и женских проблемах в период репрессий.

Ключевые слова. Джадизм, гендерное равенство, пресса, права женщин, репрессивная политика.

Jadid harakati XX asr boshida O‘zbekistonda ijtimoiy, siyosiy va madaniy islohotlarni amalga oshirishga intilgan ilg‘or fikrli ziyolilar tomonidan boshlandi. Ular jamiyatni taraqqiyot yo‘liga olib chiqish uchun ta’lim, madaniyat va inson huquqlari masalalariga katta ahamiyat bergan. Harakatning muhim jihatlaridan biri gender tengligi masalasiga bo‘lgan e’tibor edi. Jadidlarning fikricha, erkak va ayolning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi – jamiyatning rivojlanishida muhim shartlardan biri edi. Jadidlar ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini yaxshilash uchun birinchi navbatda ta’lim masalasiga e’tibor qaratdilar. Ular ayollarning savodsizligi jamiyat taraqqiyotiga to‘siq ekanligini anglab, qiz bolalarning maktablarda o‘qishi va ilm olishini targ‘ib qildilar. Is’hoqxon Ibrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi jadidlar bu masalada faol bo‘lib, o‘z asarlarida gender tenglikni qo‘llab-quvvatlagan. Masalan, Munavvarqori ayollarning ma’rifatli bo‘lishini millatning umumiy ma’rifatga erishishi uchun zarur shart deb bilgan. Jadidlar ayollarning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy erkinliklarini ta’minlashga chaqirgan. Ular ayollarni uyda qamalib qolmaslikka, o‘z haq-huquqlarini anglashga undaganlar. Jadid ziyolilari o‘lkaning siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotida oilaning o‘rni beqiyosligini o‘z tajribalarida to‘g’ri anglagan holda oila-nikoh munosabatlarini tartibga solishga va bu sohada ko‘plab ishlarni amalga oshirishga harakat qilishdi. Oila azal-azaldan Sharq dunyosida ham milliy ham umuminsoniy qadriyat sifatida qaraladi. Lekin shuni aytish mumkinki, oila- nikoh munosabatlari XX asr boshlarida izdan chiqib qolgan edi, chunki Turkiston hayotidagi eskilik sarqiti bo‘lib qolgan xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini cheklash va ularga xuddi bir buyumdek munosabatda bo‘lish , oilaning mustahkamlagiga uning jamyatdagi mavqeyining sezirarli darajada pasayishiga olib kelgandi, yana bu davrda Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston aholisining siyosiy huquqlarining cheklanishi davlat idoralarida ayollar u yoqda tursin, hatto erkaklarning ham ishlashi judayam oz miqdorda ekanligi, ayollar faqatgina uy-ro‘zg’or ishlari bandligi, savodxonlik darajasi ham diniy kitoblardan ba’zi birlarini ozgina qiroat qilish bilan cheklangan edi. Insoniyat tarixida ayolning o‘rni beqiyos va oila jamiyatning asosiy poydevori ekanligini jadidlar o‘z asar va maqolalarida asoslab berganlar. Bu masalani ular umuminsoniy, umummilliy darajagacha ko‘tarib, sog’lom, ma’rifatli oila va u voyaga etkazadigan har tomonlama etuk

avlodning, komil insonning xalq, millatning rivoji uchun muhim omil bo‘lganligini tushuntirib berishga harakat qilganlar. [1]

Jadidlarning tashabbusi bilan qizlar uchun maxsus maktablar ochildi. Masalan, Toshkentda qizlar maktablarining tashkil etilishi ayollar ta’lim olishida muhim qadam bo‘ldi. Xususan, arxiv hujjatlarida yozilishicha, Toshkentdagi Eshonxo‘ja Xonxo‘jayev yangi usul maktabida 3 ta qiz, Sobirjon Rahimovning maktabida 15 ta qiz o‘qigan. Boshqa joylardagi yangi usul maktablarida ham qizlarning tahsil olayotganliklarini ko’rishimiz mumkin. Matbuotda ham ayollar mavzusi keng yoritildi. "Oyna", "Sadoi Turkiston" kabi gazeta va jurnallarda ayollarning huquq va ta’lim olish masalalari ko‘tarildi. Adabiyotlarda ayollarning ahvoli tasvirlandi va ularning o‘z huquqlarini anglashiga xizmat qiluvchi asarlar yozildi. Fitratning “Oila” asari bu borada yorqin misoldir. Fayzulla Xo‘jayev ham xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqligini ta’minlashga muhim e’tibor berar edi. Uning fikricha, ayollar faqatgina huquqiy holatda erkaklar bilan teng huquqli deb e’tirof etilishi xotin- qizlarning amalda teng ekanligini anglatmaydi. Ayollarning erkaklar bilan amalda teng huquqligiga erishish uchun mehnatni muhofaza qilish, ta’lim olish, fabrika va zavodlarda ayollar malakasini oshirishda bir qator imtiyozlar berilishi, xalq ta’limi bo‘yichapul ajratmalarini joriy etish, ona va bolalar uylari qurilishi lozim, deydi. Jadidlar tenglikka erishish uchun qizlarimiz ilm olsin, ma’rifatli bo‘lsin deb uqtirganlar. Ayollar ilm olishda erkaklar bilan barobar bo‘lsin, degan fikrni ilgari surar edilar. [2]

1917 yilgi fevral voqealaridan keyin Turkiston jadidlarining xotin-qizlarmuammosi borasidagi faoliyatlari ancha kengaydi. Jadidlarning g’oyalariga ko‘ra o‘lka xotin-qizlarini jamiyatning teng va haqiqiy a’zosiga aylantirishning birdan-bir yo‘li ularning ma’naviy va ma’rifiy ravnaq etishidadir. Shu bilan birgalikda, ular yanada muhim shartlar sifatida milliy matbuotdan boshqa millatlar tajribasidan unumli foydalanishni, maktablar, jamiyatlar, kutubxonalar joriy etishni tavsiya etganlar. Shuni qayd etish joizki, musulmon xotin- qizlarning shahar Dumasiga bo‘ladigan saylovlarda qatnashishi masalasiga bo‘lgan munosabat milliy demokratiyaning o‘zida ham xilma-xilligicha qolgan edi. Misol uchun, Zaki Validiy “Saylovda musulmon xotin- qizlarning ishtiroki” nomli maqolasida Turkiston xotin-qizlarning saylovda ovoz berishlari katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. [3]

Sovet davri boshlanishi bilan jadidlar harakati yangi sinovlarga duch keldi. Jadidlarning ma’rifiy va gender tengligi masalasidagi islohotlari sobiq sovet hukumatining dastlabki yillarida qisman davom ettirilgan bo‘lsa-da, keyinchalik bu harakat siyosiy bosim ostida qolib, ularning ko‘pchiligi qatag‘on qilindi.

Arxivda olib borilgan tadqiqot ishlari shundan guvohlik beradiki, 1937-1938-yillarda qatag'on qilichining o'tkir tig'i ayollarimizni ham chetlab o’tmagan. Ularning ba'zi birlari Tojixon Shodiyeva singari taniqli davlat va partiya arboblari

bo'lgani, boshqalari esa, Maryam Sultonmurodova singari Germaniyada tahsil ko’rib kelgani uchun aksilinqilobchi va millatchi sifatida, ba’zan esa chet el razvedkasining josusi sifatida qamoqqa olingan. Ular yo o’sha kezlardayoq otib tashlangan, yoxud olis va sovuq o'lkalardagi lagerlarga yuborilgan. Quyida shunday qatag’onga uchragan bir nechta ayollarni ko’rib o’tamiz:

1937-1938 yillarda “xalq dushmani” degan nomga uchragan taniqli kishilargina emas, balki ularning xotinlari ham erlarining aksilinqilobiy millatchilik faoliyatlarini yashirib kelganlikda ayblanib, qamoqqa olindilar.

Abdulhay Tojiyevni rafiqasi Tojixon Amedova ham bir qancha soxta ayblar bilan qamoqqa olinadi. “Tojixon Amedova qo‘shimcha himoya vositalarini qo‘llab-quvvatlash, “Milliy ittifoq” va “Milliy istiqlol” qo‘shimcha qurilmalari, ijtimoiy himoya vositalari, qo‘llab-quvvatlash va qo‘llab-quvvatlash xizmatlari Sovet organlaridan yashirib kelgan...”. Qariyb "to'rt devor"dan nariga chiqmagan ayolga shunday dahshatli aybnoma qo'yiladi. 1937-yil 2-oktyabrda, Abdulhay Tojiyev hibsga olinadi. O'sha yilning 21-noyabrida Tojixon Ahmedovaning "ishi" SSSR NKVDsi Alohida Majlisi ixtiyoriga uzatildi va u "Vatan xoini" oilasining a'zosi sifatida 8 yilga hukm qilindi. Shunday qilib, eri Abdulhay Tojiyev 1938-yil 4-oktyabr kuni Toshkentning Yunusobod tumanidagi qatlgohlarning birida otib tashlanganida, Tojixon Ahmedova Mordva avtonom respublikasidagi qamoq lagerida azob-uqubat chekayotgan edi. 1956-yil 11-dekabriga kelibgina Tojixon Ahmedova ustidan boshlangan tergov ishining to'xtatiladi. [4]

Maqsuda Ishoqovaning turmush o'rtog'i G’ani Ishoqov- qamoqqa olingan 1937-yilda respublikaning hurmatli kishilardan biri bo'lgan. 30-yillarning o'rtalarida rahbarlik lavozimlarida bo'lgan eng iste'dodli kishilar nomini tilga olganda tarixchilar Abdulla Karimov, Mirmuslim Shermuhamedov, Rustam Islomov, Abdulhay Tojiyev, Isroil Ortiqov singari taniqli arboblar qatorida uning nomini ham ehtirom bilan tilga olishadi. 3-oktyabri kuni Maqsuda opa birinchi marotaba so'roqqa chaqirildi. Tergovchi undan “xalq dushmani” bo'lmish erining aksilinqilobiy-millatchilik faoliyatini yaxshi bila turib, bu haqda xabar bermaganini aytadi. 1938-yil 7-apreli kuni turmada azoblab o’ldirilgan G’ani Ishoqovning aybsiz aybdor xotini Maqsuda Ishoqova erining aksilinqilobiy faoliyatiga yordamlashgan shaxs sifatida 3 yilga NKVDning mehnat posyolkalariga surgun qilindi. [5]

20-30-yillarda taniqli o'zbek ziyolilariga tan mahrami bo'lgan soxibjamol tatar ayollari orasida Ashob Mirsharopovaning munosib o'rni bor. Ashob Mirsharopova, 1903-yil 3-aprel kuni Toshkentda dunyoga kelgan. Ashobning otasi Nuri Nazirovning qachon va kasrda tug'ilgani noma'lum. Ammo u vafot etgach, onasi Zulayxo Nazirova Mamed Guseynovga turmushga chiqib, Toshkentda istiqomat qilgan. Ashobning 1923-yili mashhur sarkarda Mirkomil Mirsharopovga turmushga chiqadi. [6]

1937-1938 yillarda “xalq dushmani” degan nomga uchragan taniqli kishilargina emas, balki ularning xotinlari ham erlarining aksilinqilobiy millatchilik faoliyatlarini yashirib kelganlikda ayblanib, qamoqqa olindilar. Bunday uqubatdan Ashob Mirsharopova ham benasib qolmadi. U 1937-yil 25-noyabrda qamoqqa olindi. Sarkardaga qo'yilgan asosiy ayb uning 19- tog'li otliq o'zbek diviziyasi yordamida Sovet hokimiyatini ag'darib tashlab, O'zbekistonda mustaqil burjua demokratik davlatni barpo etish bo'lgani uchun undan shu masala bo'yicha ko'rgazmalar olishga harakat qildilar. NKVD “uchlik”lari esa ko'plab “xalq dushmanlari”ning xotinlariga bir necha yillik jazo muddatlarini berganiga qaramay, Ashob Mirsharopova 1938-yil 16-dekabrda aybdorligi aniqlanmagani uchun ozodlikka erishdi. [7]

20-yillarda O'zbekistondan Germaniya, Turkiya singari mamlakatlar qatori Rossiyaning turli shaharlaridagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga ham bir qancha yigit va qizlarimiz o'qishga yuborilgan. Shulardan biri Moskvadagi o'zbek ishchi yoshlar fakulitetida o'qigan Matluba Muhamedovadir. U asli farg'onalik bo'lib, 1911-yili o'qimishli oilada tavallud topdi. Uning otasi Nurmuhammad Dadamuhamedov o'z davrining ma'rifatparvar va hur fikrli kishilaridan bo'lgani uchun qizlarini dastlab oila davrasida, so'ng yangi maktablarga berib, o'qita boshladi. Matluba dastlab Qo'qonda, keyin Toshkentdagi xotin-qizlar bilim yurtida tahsil ko'rdi. 1927-yilda esa Moskvada ochilgan o'zbek ishchi yoshlar fakulitetiga o'qishga ketdi. 1937-yil dekabrida sevimli umr yo’ldoshi Vosiq Muhamedov millatchilikda ayblanib qamoqqa olindi, uyi tintuv qilinib, Matlubaning o'zi ham sarson-sargardon bo'lib qoldi va 1938-yil 17-yanvarda boshlarida, uning o'zi ham qamoqqa olindi. [8]

Xulosa. Jadidlar gender tengligi masalasini jamiyat taraqqiyoti uchun zarur omil sifatida ko‘rgan va bu yo‘nalishda ulkan hissa qo‘shganlar. Ularning qizlar ta’limi, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirgan ishlari zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarbdir. Jadid ziyolilari xotin-qizlarning ma’naviy salohiyatini oshirish uchun, avvalo, maktab ta’limini yo‘lga qo‘yish, ularga ta’lim berishda diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o‘qitish, dunyo yangiliklaridan xabardor qilish uchun esa gazeta, jurnallar nashr ettirib, jahon mamlakatlaridagi xotin-qizlarning qanday yutuqlarga erishayotganini ko‘rsatib, ularni o‘z haq-huquqini talab qila oladigan, siyosiy erkinliklarga ega shaxs qilib tarbilashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydilar. Garchi qatag‘on davri bu harakatni birmuncha susaytirgan bo‘lsa-da, jadidlarning gender tengligi uchun olib borgan kurashi bugungi kun uchun tarixiy meros va ibrat manbayi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sherali Turdiyev “Ular Germaniyada o'qigan edilar” – T.: 2006. – 256b

2. “Turkiston jadidlari qarashlarida xotin- qizlar va yoshlar masalasi” Xurramova Zilola Ilhom qizi T.: 2018 y
3. Раҳимова Г. Жадидлар ва аёллар масаласи. //Адабий мерос, 1992.
4. Абдуллаева. Д. Ёшларни оилавий ҳаёгга тайерлашда аёлнинг роли.//Ўзбекистонда оила, давлат ва жамият курилишида аёлларнинг роли ва Гендер муаммолари: Илмий-амалий конф. маърузалари тўплами.–Т.: 1999.

MALAKA OSHIRISH KURSI TINGLOVCHILARIGA JADIDCHILIK MEROSINING O‘QITILISHI IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDA

Begimqulov Zarif Axmadovich
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Email: zarifbegimqulov77@gmail.com, Telefon:+99890-503-62-77

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning filiallarida malaka oshirayotgan “Sport ta’lim muassasalari tarbiyachilari” sport ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning malaka oshirish kursi tinglovchilariga Turkiston jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan ilgari surilgan salbiy illatlar, zararli odatlar va inson salomatligi to‘g‘risidagi qarashlarini o‘qitish zarurati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘z va iboralar: malaka, jadidlar me’rosi, tarbiya, poklik, zararli odatlar, salomatlik.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida e’tirof etganidek: “Farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o‘rganishni dolzarb vazifa deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi” [1].

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirining 2024-yil 16-dekabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning filiallarida 2025-yilda o‘tkaziladigan malaka oshirish kurslari reja-jadvali va tinglovchilar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 01/1880-A/F-sonli buyrug‘i bilan imzolangan bo‘lib, unda jumladan sport ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar uchun “Sport ta’lim muassasalarining tarbiyachilari” malaka oshirish kurslari joriy etilishi belgilangan.

2024-yildan e’tiboran tashkil etilayotgan mazkur malaka oshirish kurslariga asosan quyidagi ta’lim muassasalarining pedagog kadrlari qamrab olingan:

- Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining tarbiyachilari;

- milliy va olimpiya sport turlariga ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlarining tarbiyachilari.

Yuqorida qayd etilgan buyruqqa asosan, 2025-yilda ham O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tasarrufidagi 15 ta Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari hamda 16 ta milliy va olimpiya sport turlariga ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlarining tarbiyachilari jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar sifatida malakasini oshirishga jalb qilinishi rejalashtirilgan.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislar o‘zlarining kasbiy faoliyati davomida har kuni ko‘p qirrali, ko‘p funksiyali va kasbiy jihatdan murakkab ishlarni bajaradilar, shu jumladan inson shaxsi va ularning sog‘ligi bilan bog‘liq jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish va sport xizmatlarini ko‘rsatadi. Bu esa ulardan ayniqsa yuqori sifatli ishlarni bajarishda, xizmatlar ko‘rsatishda har bir mutaxassis o‘z ish faoliyati uchun shaxsan javobgarligini, alohida e’tibor va kasbiy mahoratni talab qiladi.

Ayniqsa, ushbu mutaxassislarning muntazam ravishda o‘smirlar va yoshlar bilan ish olib borishi, ularning tarbiyaviy ishlar bilan bog‘liqligi, alohida ahamiyatga egadir [5].

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, “Sport ta‘lim muassasalari tarbiyachilari” malaka oshirish kursiga malaka oshirishga kelayotgan sport ta’lim muassasalarining tarbiyachilarining aksariyati oliy ma’lumotli mutaxassislar hisoblanib, ular ish jarayonlarida asosan umumta’lim fanlari bo‘yicha darslar va tanlangan sport turidan sport mahoratini oshirish mashg‘ulotlaridan tashqari vaqtlarda muassasa tarbiyalanuvchilari (yosh sportchilar) bilan dars tayyorlash, o‘quvchilar istiqomat qilayotgan xonalarni tartibga keltirish hamda turli tadbirlar o‘tkazish bilan shug‘ullanib kelmoqdalar [2].

O‘tkazilgan tahlillar malaka oshirish jarayonida sport ta’lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy mahorati, bilim, ko‘nikma va malakalarini chuqurlashtirish, ularning ma‘naviy-axloqiy saviyalarini oshirishda jadidchilik me’rosidan foydalanishni taqozo qilmoqda.

“Sport ta‘lim muassasalari tarbiyachilari” sport ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning malaka oshirish kursi uchun tasdiqlangan “Ma’naviyat va yoshlarga oid davlat siyosati” modulining “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish masalalari” deb nomlangan mavzusini jumladan, “Jadidlarning

ma’naviy me’rosi yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish omili” rejasi asosida ham o‘qitilishi belgilangan.

Ma’limki, jadidchilik namoyondalari voyaga etgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo‘lib etishishi kerakligini o‘z asarlarida alohida uqtirgan holda, bunda ular har xil illatlardan xalos bo‘lishlari lozimligini ham qayd etadilar. Jumladan, Turkiston jadidlarining asarlarida kishilar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, o‘z vaqtida va to‘g‘ri ovqatlanish, inson sog‘lig‘iga ta’sir qiluvchi zararli odatlar va salbiy illatlardan tiyilish, kishilarni o‘z sog‘lig‘iga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirish, jismoniy harakat – hayotning eng muhim xususiyati to‘g‘risidagi qiziqarli fikrlarni uchratish mumkin. Shuningdek, jadidlar jismoniy faollikning etishmasligi natijasida odamlarda turli kasalliklarning kelib chiqishi, inson iloji boricha uzoq yashashga, bunda o‘z salomatligi va mehnat qobiliyatini saqlashga harakat qilishi zarurligi, bunda jismoniy harakat, toza havoda sayr qilish, me’yorida va o‘z vaqtida to‘g‘ri ovqatlanish, xotirjam bo‘lish va boshqalar odamni uzoq umr ko‘rishga imkon berishini uqtiradilar.

Yangi ziyolilarning qarashlarida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta’lim tizimini isloh qilish, qoloq, salbiy va behuda odatlarga chek qo‘yish singari maqsadlar ilgari surildi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ular ayniqsa diniy mutaassiblik, behuda sarf-xarajatlarga olib keluvchi an’anaviy odatlarga tanqidiy yondashgan.

“Sport ta‘lim muassasalari tarbiyachilari” sport ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning malaka oshirish kursi tinglovchilariga “Ma’naviyat va yoshlarga oid davlat siyosati” modulining “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish masalalari” deb nomlangan mavzuni o‘tish jarayonida bir qator jadidchilik harakati namoyondalarining asarlarida qayd etilgan salbiy illatlar, zararli odatlar va inson salomatligiga oid dolzarb masalalarni yoritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Jumladan, “Navodir ul-vaqoye” asaridagi g‘oyalari Ahmad Donishni inson haqida quyidagi falsafiy nuqtayi nazarda turganligidan dalolat beradi: inson tana va ruhdan iborat mavjudotdir; inson ruhi uning kamolotiga yordam beradi; tana istaklari asosida tug‘iladigan nafsni boshqarish zarur, bo‘lmasa u insonni tanazzulga olib keladi; insonga berilgan ixtiyor, erk uni baxtli yoki baxtsizligi mezonidir; inson butun olam bilan uyg‘un, muvofiqdir, shuning uchun uning har bir ta’siriga mos aks ta’sir hosil bo‘ladi; insonda nur va zulmat, rahmoniy va shaytoniy quvvatlar mavjud bo‘lib, ularni ezgulikka ravona etish uchun insonga ixtiyor berilgan; aql moddiy yordam narsalarni bilishga qodir, uning kuch-quvvatining chegarasi bor, ruh butun olamning aslini bila oladi; ruhning eng a’losi va musaffosi va murakkabi insonga singdirilgan va u abadiydir, uning tabiiy manbai yurak; tana to‘rt unsurdan iborat, uning mijozini me’yorda saqlash lozim; inson borlig‘ida hayvoniy, shaytoniy,

malakoniy quvvatlar mavjud; har bir inson o‘ziga xos bo‘lib, olamda o‘ziga yuklatilgan qazoyu qadardagi vazifani bajaradi; inson asl haqiqatni bila oladi; inson haqiqatda ulug‘ olamdir” [6].

“Turkiston viloyatining gazeti”da bosilib chiqqan “To‘raqo‘rg‘ondan maktub” maqolasida Is’hoqhon Ibrat xalq ma’naviyatining illatlarini, yoshlar tarbiyasining kamchiliklarida ota-onalarining rolini e’tirof etadi. Yoshlikda bolaga bilim berish o‘rniga uning ma’naviyatini zaharlovchi illatlar tomon etaklash jaholatga etaklash bilan barobardir. Shu o‘rinda ma’rifatparvar bugungi kunda ham jamiyat rivojiga g‘ov bo‘luvchi ko‘pgina illatlarga qarshi kurashda bilimni, o‘qishni yagona echim sifatida ko‘rsatadi [7].

Behbudiyning ta’kidlashicha, to‘y va azadagi har qanday dabdababozlik va manmanlik yuqumli kasallikdan yomonroq bo‘lib, bu illatlar kishilarni xonavayron va g‘arib etuvchi, inqirozga sabab bo‘luvchi dushmandir. U ayrim kimsalarning Qur’ondagi o‘zingizni o‘zingiz tahlikaga solmangiz, degan qoidaga amal qilmasdan, bor-yo‘qlarini to‘y va azaga sarflashlarini kofirlik, deb hisoblaydi. Darhaqiqat, to‘ylardagi dabdababozlik, ayrim hollarda ichkilikning me’yoridan ortiq iste’mol qilinishi ta’ziyalardagi isrofgarchilik, islom diniga zid bo‘lgan mavrid-ma’rakalar o‘sha davrlardagina emas, hozir ham odamlarning bir necha kunlab ishdan qolishlari yoki foydali ish bilan mashg‘ul bo‘lmasliklariga olib kelmoqda. Bu haqda Behbudiy shunday deydi: “Biz bo‘lsa, o‘luk va to‘y uchun haftalar, hatto oylar ila ishdan qolurmiz. Holbuki, shore’i a’zam, payg‘ambari akram sallollohu alayhi vassalam hazratlari o‘lganni tez ko‘mub va ko‘mgandan so‘ngra tez tarqalib, ishg‘a ketmoqg‘a va o‘lukxona xalqini uch kundan ziyoda ta’ziya tutmasg‘a, qaro kiymasg‘a, kir, falokat bo‘lmasg‘a amr etarlar” [3].

Ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzodni hamisha ezgulikka undaydigan komil inson g‘oyasi Fitrat asarlaridan o‘q ildiz bo‘lib o‘tgandir. Bu bunyodkor g‘oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari etaklagan, ularni tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga etkazish haqida qayg‘urmagan xalqning, millatning kelajagi yo‘q. Fitrat asarlarini mutolaa qilar ekamiz, ana shunday xulosaga kelamiz. Alloma har doim yoshlar haqida qayg‘urib, ularni jismonan sog‘lom, ilm-fan sohibi qilib kamol toptirish xususida fikr bildirdi. Uning vatanparvarlik, xalqparvarlik, ilm-fan taraqqiyoti haqidagi g‘oyalari hozirgi davr uchun qimmatlidir [4].

Fitrat yoshlarni ozod va obod Vatan barpo etishga, uning ravnaqi, xalq farovonligi, millat ozodligi uchun kurashishga, sajdagoh kabi muqaddas go‘sha – Vatanni ardoqlashga undab keldi: “Vatan bizning valine’matimiz va murabbiyimizdir; har bir valine’mat va murabbiyga xizmat qilish lozim, bas, Vatanga xizmat burchdir” [8].

XIX asr oxirida tarix sahnasiga kelgan jadidlar xalq va millatning hayoti va kelajagi uchun tinmay zahmat chekkanlar, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar.

“Sport ta‘lim muassasalari tarbiyachilari” sport ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning malaka oshirish kursi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning filiallaridagi yangi tashkil etilgan yo‘nalish hisoblanadi. Sport ta’lim muassasalari tarbiyachisi, eng avvalo, yosh sportchilarning kelajagi, taqdiri, jamiyatda munosib o‘rnini egallashi uchun yuksak mas’uliyatni to‘la anglab etishi zarur. Bugungi kunda tez o‘zgaruvchan dunyoda ijtimoiylashgan, tafakkuri, madaniyati va ma’naviyati yuksak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lgan shaxsni tarbiyalashda ajdodlarimiz me’rosidan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. Yangi O‘zbekiston gazetasi 2023-yil 7-mart, № 45 (834).
2. Begimqulov Z. Sport ta’lim muassasalari tarbiyachilarining uzluksiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari. “Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani to‘plami (I-qism), B.39-45.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Bizni kemirguvchi illatlar. Tanlangan asarlar. T.: Ma’naviyat, 2006. – B.145-146.
4. Pedagogika tarixi. – T.: 2000. – B.144-146.
5. Utenov O. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida uzluksiz ta’lim. Academik Research in Educational Sciences. Volume 4, Issue 9, 2023, 104-bet.
6. Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое. Форс-тожикчадан А.Ҳамроев ва А.Шокиров таржимаси. – Т.: Фан, 1964. – 361 б.
7. Туркистон вилоятининг газети, 1914 йил 2 март, №18.

8. Фитрат А. Раҳбари нажот. – Т.: Шарқ, 2001, 6-bet.

TURKISTON JADID NAMOYONDALARINING YANGI O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATIDA TUTTGAN O‘RNI

Hamroyeva Anora Faxreddenovna
Navoiy Innovatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadid namoyondalarining yangi O‘zbekiston va jahon hamjamiyatidagi o‘rni o‘rganilgan. Jadidchilik harakati, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda keng tarqalib, ilm-fan, ta’lim, siyosat va madaniyat sohalarida islohotlar amalga oshirishga qaratilgan edi. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda yashagan jadid namoyondalari o‘z milliy, madaniy va siyosiy o‘zliklarini qayta tiklashga intilgan va bu g‘oyalar mustaqil O‘zbekistonning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Jadidchilik harakati nafaqat O‘zbekistonda, balki butun musulmon dunyosida ijtimoiy, siyosiy va madaniy islohotlarni ilgari surdi. Maqola jadidchilik harakatining O‘zbekiston mustaqilligi yo‘lidagi ahamiyatini, ta’lim tizimining zamonaviylashtirilishi va ilm-fanning rivojlanishidagi rolini tahlil etadi. Shuningdek, jadidlarning g‘oyalari bugungi kunda ham O‘zbekiston va jahon hamjamiyatida katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, Turkiston, O‘zbekiston, ilm-fan, ta’lim islohotlari, siyosiy islohotlar, madaniyat, milliy o‘zlik, jahon hamjamiyati, ma’rifatparvarlik, mustaqillik, zamonaviylashtirish.

Jadidchilik harakati, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, Turkistonning turli viloyatlarida keng tarqalib, o‘zining ma’rifatparvarlik va islohotchilik g‘oyalari bilan tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu harakat o‘z vaqtida faqat Turkiston, balki butun musulmon dunyosida ilm-fan, ta’lim va siyosiy tizimlarni yangilashni maqsad qilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda yashagan jadid namoyondalari, o‘zgarishlarga intilib, o‘z milliy, madaniy va siyosiy o‘zliklarini qayta tiklashga harakat qildilar. Turkiy xalqlarning eng ilg‘or ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar sari qadam tashlagan bu jamiyat fidokorlarning g‘oyalari bugungi kunda mustaqil O‘zbekistonning taraqqiyotida va jahon hamjamiyatida muhim o‘rin tutadi.

Jadidchilik harakatining o‘zbekiston taraqqiyotiga ta’siri. Turkiston jadid namoyondalari, o‘zlarining ma’rifatparvarlik va ilmiy islohotlarga bo‘lgan e’tiborlari orqali, o‘z vaqtida muhim jamiyatshunoslik va pedagogik yondashuvlarni ilgari surdilar. Ular o‘quvchilarni faqat diniy fanlarda emas, balki dunyoqarashni kengaytiradigan ilm-fan va tafakkur sohalarida ham ta’lim olishlariga chaqirdilar. Jadid maktablari zamonaviy ta’limni ilgari surib, yosh avlodni o‘zgacha bir dunyoqarash bilan tayyorlashga qaratilgan edi. Ular o‘zbek tilida ta’lim berish g‘oyasini ilgari surib, xalqni ilm-fan bilan tanishtirish, milliy o‘zlikni rivojlantirishni maqsad qilishdi.

Jadidchilik harakatining O‘zbekiston mustaqilligi yo‘lidagi ta’siri juda katta bo‘ldi. O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishi, ayniqsa, jadid namoyondalarining g‘oyalari va islohotchilik faoliyatiga asoslanadi. Ularning ilm-fan, ta’lim va madaniyat sohasidagi islohotlari, bugungi kunda mustaqil O‘zbekistonning ilmiy va ma’rifatparvarlik tizimining asosini tashkil etadi. Bu g‘oyalar nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilindi va davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi.

Jadidchilik harakatining jahon hamjamiyatidagi ta’siri. Jadidchilik harakati faqat Turkiston va O‘zbekiston bilan cheklanib qolmadi. U o‘zining ilg‘or g‘oyalari va islohotlar bilan butun musulmon dunyosida katta e’tibor qozondi. Jadidlarning o‘z vaqtida ilgarilab ketgan pedagogik yondashuvlari, ijtimoiy va siyosiy islohotlarga qaratilgan sa’y-harakatlari, jamiyatda erkinlik va adolat g‘oyalarini ilgari surish hamda taraqqiyotning yangi yo‘llarini topishga qaratilgan ishlar jahon hamjamiyatida keng tarqaldi.

Jadidlarning ta’lim tizimiga qo‘shgan yangiliklari, o‘zbek tili va boshqa milliy tillarda ta’lim berish, diniy va dunyoviy fanlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash masalalari xalqaro maydonda ham muhokama qilindi. Ularning faoliyati, ilm-fan, adabiyot, san’at va madaniyat sohasidagi yangiliklari musulmon dunyosidagi islohotlar va zamonaviylashuv jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, jadidchilik harakati, musulmonlar orasida o‘zlikni anglash, ma’rifatparvarlik va siyosiy mustaqillik yo‘lida birlashish g‘oyalarini ilgari surdi.

Jadidchilikning yangi o‘zbekistonda o‘zgarishlarga ta’siri. Jadidchilik harakatining eng muhim merosi, albatta, bugungi O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatganligidir. Mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ilm-fan, ta’lim, madaniyat va siyosatdagi islohotlar jadid namoyondalarining g‘oyalari bilan uyg‘unlashmoqda. O‘zbekistonning ma’rifatparvarlik yo‘lidagi kurashi, xususan, ta’lim tizimining zamonaviylashtirilishi, yoshlarni ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy taraqqiyotga tayyorlash jadidchilikning merosi sifatida davom etmoqda.

O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirish, yangi maktablar ochish, o‘qituvchilarni malakasini oshirish va ilmiy tadqiqotlar olib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar jadidchilik harakatining asosiy yo‘nalishlariga mos keladi. Shuningdek, milliy o‘zlikni saqlash, tilni rivojlantirish va zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish ham jadidchilikning qadriyatlaridan biridir. Ularning g‘oyalari va harakatlari mustaqil O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy va siyosiy yuzini yaratishda muhim o‘rin tutmoqda.

Xulosa. Turkiston jadid namoyondalarining yangi O‘zbekiston va jahon hamjamiyatidagi o‘rni katta ahamiyatga ega. Ularning ma’rifatparvarlik va ijtimoiy

islohotlar yo‘lidagi kurashlari, ilm-fan va ta’lim tizimida amalga oshirilgan yangiliklari, milliy o‘zlikni rivojlantirishdagi sa’y-harakatlari bugungi O‘zbekistonning taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Jadidchilik harakati nafaqat O‘zbekiston, balki butun musulmon dunyosidagi madaniy va ijtimoiy islohotlar uchun mustahkam poydevor yaratdi. Ularning g‘oyalari bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mustaqil O‘zbekistonning taraqqiyotida va jahon hamjamiyatida o‘zining ijobiy rolini o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedov, K.. *Jadidchilik harakati va uning O'zbekistondagi ta'siri*. Toshkent: Fan va texnologiyalar akademiyasi. 2010 y.
2. Tursunov, A.. *Turkiston jadidlarining ilmiy merosi*. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti. 2007 y.
3. Rahmatov, A.. *O'zbekistonda jadidchilik va uning jamiyatdagi roli*. Toshkent: O'zbekistanning ijtimoiy fikr nashriyoti. 2003 y.
4. Sadikova, N.. *Jadidchilik harakati va O'zbekistonning madaniy merosi*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti. 2015 y.
5. Muminov, Sh.. *Jadidchilik va musulmon dunyosidagi ta'lim islohotlari*. Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti. 2008 y.
6. Shamsutdinov, A.. *Jadidchilik va xalqaro ta'sirlar: tarixiy jihatlar*. Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi. 2012 y.
7. Usmanov, B.. *Jadidchilik va Turkiston madaniyatidagi inqilobiy o'zgarishlar*. Toshkent: O'zbekiston madaniyati nashriyoti. 2005 y.
8. Ismailov, B.. *Jadidchilikning O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni*. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti. 2018 y.
9. Abdurahmanov, Sh.. *Jadidchilik harakati: O'zbekistonda ta'lim islohotlari*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2009 y.

YANGI O’ZBEKISTON POYDEVORINI YARATISDA JADIDCHILIK HARAKATIDA FAN VA MADANIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI

Miraxmedov Jaxongir Muxsinovich

Qo‘qon Universiteti ijtimoy fanlar kafedrasi v.b.dotsent, f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi O’zbekiston poydevorini yaratisda jadidchilik harakatida fan va madaniyat taraqqiyotidagi o’rni falsafiy jihatlari tahlili qilingan. Shuningdek, jadidlar milliy o‘zlikni anglash yo‘lida o‘z faoliyatlari bilan xalq ta’limida ma’rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakatlari, ma’rifatparvar mutafakkirlar va jadidlarning Milliy uyg‘onish va Millatparvarliklari atroflicha o‘rganilgan.

Kalit so’zlari: Jadidchilik o’zligini anglash, milliy o‘zlikni anglash, millatparvarlik va vatanparvarlik, tarix falsafasi, Yangi O’zbekistonn, Milliy uyg‘onish va Millatparvarlik, ma’naviy qadriyat.

“XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasida teran tarixiy ildizlarga egadir. Yurtimiz ulkan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy ahamiyatga ega ushbu jarayonlardan chetda qolmagani, aksincha, bu harakatning markazlaridan biriga aylanganini ta’kidlash lozim. O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o‘z mablag‘lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to‘lqinga aylandi”. [1]

Milliy davlatchilikka intilgan xalq o‘zining milliy o‘zligini anglagan, kelajagiga intilgan va kelgusi avlodlarlarga ozod va obod Vatan qoldirishga intilishgan. Biroq, Turkistondagi Oktyabr voqealari va bolsheviklarning zo‘ravonlik bilan hokimiyatni egallashi ularga o‘z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular Petrogradda tuzilgan Lenin boshchiligidagi bolsheviklar hokimiyatining «Rossiya xalqlari Deklaratsiyasi» (1917 yil 2 noyabr), «Rossiya va sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» Murojaatnoma (1917 yil 20 noyabr), hujjatlarda ko‘rsatilgan millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi to‘g‘risidagi huquqlardan foydalanib, Turkiston muxtoriyati hukumatini e’lon qildilar. Uch oygina yashagan bu muxtor respublika tugatilishi oqibatida jadidlar ta’qibga uchradilar. Munavvarqori Abdurashidxonovning guvohlik berishicha, «Ittihodi taraqqiy» (1917-1920), «Milliy ittihod» (1920-1925), «Milliy istiqlol» (1925-1929) va «Turkiston Milliy Birligi» (1921-1923) (raisi Axmad Zakiy Validiy) maxfiy tashkilotlari o‘lkada hokimiyatni qo‘lga olish maqsadida faoliyat yuritgan[2]

Mustaqillikning yo‘qotilishi, siyosiy haqsizlik va adolatsizlik butun jamiyat ahlini rus davlatiga qarshi kuchli muholifatga aylantirdi. Xalqning noroziligi va xalq ichidan etishib chiqqan ziyolilarning mustabid tuzumga nisbatan noroziligi va nafrati hali XIX asrning 80-yillariga qadar ham shakllanib va kuchayib borganligini ko‘rsatmoqda.

Jadid harakatning vujudga kelishida xorijiy mamlakatlardagi turli xil ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy oqimlarning ma’lum darajadagi ta’siri bo‘lsa-da, ammo bu ilmiy va milliy uyg‘onish harakatining yuzaga kelishini ta’minlovchi asosiy omil, zamin va sharoit bu o‘lkaning o‘zida etilib pishgan edi.

Biz jadidchilik harakatining mazmun-mohiyati haqida gapirishdan oldin tariximiz sahifalarida “oq dog‘lar” deb ataladigan bu harakatning asl mohiyatini, maqsad-muddaolarini xolisona o‘rganish va baholash o‘z echimini kutayotganligini ta’kidlamoqchimiz. Chunki, g‘oyaviy muholiflar yaqin kunlargacha jadidchilikni faqat ma’rifatchilik harakati, deb baholab keldilar. Maqsad –jadidchilikning

doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalqning tarixiy ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Shuninguchun ham g‘oyaviy muholiflar jadidchilik harakatining burjua liberal, millatchilik harakati, mayda burjua mafkurasini ifodalovchi oqim sifatida qarab kelingan edi.

Bizning nazarimizda jadidchilik:

1) jamiyatning barcha qatlamlarini bir g‘oyaga ishonishga jalb eta oldi. Ushbu g‘oya milliy o‘zlikni anglash va milliy uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi;

2) jadidlar o‘z g‘oyaviy va amaliy haraktlari orqali millat mustaqilligi uchun kurash olib bordi;

3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga asosida shakllantira oldi va millatni milliy o‘zlikni anglashga chaqirdi.

Mana shunday keng ko‘lamdi islohotlarni amalga oshirish orqali jadidlar mahalliy aholini jahonning taraqqiy etgan davlatlarida bo‘layotgan o‘zgarishlar va yangilanishlardan xabardor qilib borish lozimligini yaxshi anglaganlar.

Darhaqiqat, milliy o‘zlikni anglashning o‘sishiga muhim turtki bo‘lgan va milliy ozodlik g‘oyasini shakllantirib, o‘z faoliyati bilan uni amalga oshirishga uringan kuchli progressiv harakat – jadidchilik bo‘lgan. U jahondagi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanib, jamiyatning pishib etilgan rivojlanish taraqqiyoti va o‘lka tub erli aholisining zarur manfaatlariga javob berardi. Qoloqlik va jaholat, aholining ayanchli ahvoli, Turkistonning jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib kelishi, Islom va shariatning oyoq osti qilinishi va bunday og‘ir fojiali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida o‘z zamonasining ilg‘or ziyoli, munavvarlaridan fikr-mulohazalar paydo bo‘ldi.

“Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq [3].

Yuqoridagi fikr va mulohazalarni tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, har bir millatning kelajakgi uning jipsligi va qat’iy tartib intizomiga bog‘liq. Xalqning davlatmand va baxtli bo‘lishi uning izzat ehtirom qilinishi bilan bog‘liq. Bir millatning ikkinchi bir millat tomonidan kamsitilishini uning milliy o‘zligi va nomusining toptalishiga olib keladi, degan xavotirli xulosalarga olib keladi.

“Biz ma’rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu borada avvalo ta’lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish, o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Keyingi olti yilda

respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni qariyb 6 barobar ko‘payib, 4988 tadan 29420 taga, oliy o‘quv yurtlari soni esa 77 tadan 213 taga etkazildi. Yurtimizda yangi turdagi Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. [4]

Bizning nazarimizda jididchilik harakati asosida millatparvarlik va vatanparvarlik alohida e’tibor qaratishgan. Jididlar nazdida, millatparvarlik va vatanparvarlik bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldiruvchi ma’naviy fazilatdir. Shuningdek, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, milliy ma’naviyatni o‘stirish jamiyatimizning eng asosiy vazifasi sanalib, tarixiy qisqa davr ichida yoshlarni Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida, ma’naviyatli, mehr-shafqatli, vijdonli va andishali qilib tarbiyalashga erishilmoqda. Bu borada ko‘plab islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, insonlarni shaxs sifatida rivojlanish jarayonining nisbatan ertaroq davri, ya’ni maktabgacha bo‘lgan davridanoq ma’naviy-axloqiy tarbiyani yosh avlod ongiga singdirishga katta e’tibor qaratildi. Bu esa o‘z navbatida yoshlarda ma’naviy va axloqiy prinsiplarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev aytib o‘tganlaridek, «Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog‘liq»[5].

Jadidchilik harakati teran ildizga ega bo‘lib, und olijanob tashabbuslar va harakatlar ilgari surilgan edi. O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdi. Albatta, bugungi kunda ularning gumanistik qarashlari, ma’naviy merosini chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li – bilim va ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda”[6], deb bildilar.

Turkistonda jadidchilik harakatlarini yuzaga kelishdagi asosiy maqsad bu millatni ma’rifatparvar qilish va uni shu yo‘l bilan taraqqiyot yo‘liga olib chiqish edi. Bu yo‘lda mana shu jadidchilik harakatlari rahnamolaridan Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi juda ko‘plab jadidlarimiz umrlari davomida yonib yashadilar, millatning bolasini, ilmli qilish, zamonaviy bilimlarni egallash va jahon andozalariga mos kadrlar, milliy

kadrlar etishtirib chiqarish asosiy vazifasi edi. Ya’ni qonli urushlarsiz millatni tinch yo‘l bilan ilmli, ma’rifatli qilib ozodlikka, erkinlikka, erkin hayotga, taraqqiyot yo‘liga olib chiqishi, milliy o‘zligini anglashi, tarixiy xotirasini yo‘qotmasligi nazarda tutgan edilar.

Hozirgi davrga kelib, “jadidchilik” ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida e’tirof etildi, uning xizmatlari tan olindi. Jadid adabiyoti milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida baholanib, o‘nlab kitoblar, turli asarlar nashr etilmoqda, ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda asrlar davomida orzu qilingan, jadidlar ham intilib kelgan ezgu g‘oyalar amalga oshmoqda, yurtimizda Yangi O‘zbekistonni bunyod etish imkoni paydo bo‘ldi

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, Turkiston jadidlari millatni jisplashtiruvchi, yagona yo’lga boshlovchi milliy g’oyani Ichki Rossiya musulmonlaridan olgan bo’lsalar-da, mahalliy voqelikka moslagan holda qayta shakllantirdilar. Turkiston jadidlari boshlang’ich pallada ta’lim, zamonaviy bilimlar targ’ibi milliy shzlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash hamda mahalliy aholining turmush sharoitini o’zgartirishga qaratilgan dastur asosida ish olib bordi. Aynan mana shu masalalar jadidlarning milliy g’oyasi asosini tashkil etdi. Milliy g’oya targ’iboti asosini tashkil etuvchi xayriya muassasalarining to’laqonli faoliyatiga bir tarafdan mahalliy savdogar va ishlab chiqaruvchilar sinfining sustligi, ikkinchi tarafdan atrofdagi mamlakatlardagi siyosiy vaziyat hamda chor hukumatining o’lkada olib borgan siyosati to’sqinlik qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. // 06.03.2023. www.prezident.uz
2. Munavvar Qori Abdurashidxonov Turkiston taraqqiyparvarlarining sardori. “Munavvar qori Abdurashidxonovning ilmiy-pedagogik merosi. hamda O‘zbekistonda ta’lim tizimini yangilash va rivojlantirish muammolari”mavzuidagi Respublika ilmiy-amstiy anjumani materiallari, 2018 yil 26 aprel’. Toshkent. “Mumtoz so‘z” 2018. B- 6.
3. Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar: J. IV. Darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar/ Abdurauf Fitrat; [Tahrir hay’ati: T.Mirzaev, N.Karimov, D.Alimova va boshq.; Mas’ul muharrir B.Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboev.] –T.: “Ma’naviyat”, 2006. –336
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. // 06.03.2023. www.prezident.uz
5.Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 24.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. // 06.03.2023. www.prezident.uz

MAHMUDXO`JA BEHBUDIYNING TA`LIMGA DOIR QARASHLARINING YANGI O`ZBEKISTONDA TADQIQ ETILISH

Nishonov Muhammad Bahodir o’g’li
Alfraganus universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi 2-bosqich magistratanti,
muhammadnishonov1998@gmail.com

Annotatsiya: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev maktab ta`limi tizimini isloh qilish bo`yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr yuritar ekan, ulug, ma`rifatparvar bobomiz Mahmudxo`ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug`i maktabdir” degan fikrini alohida ta`kidlab, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, ularda jamiyat hayotini o`zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta`lim tizimidan, bog`cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko`ramiz.

Annotatsiya: Our President Shavkat Mirziyoyev, reflecting on the reforms being implemented in our country to reform the school education system, emphasized the opinion of our great, enlightened grandfather Mahmudkhodja Behbudi that "The greatest building in the world is the school." If we look at the history of developed countries in the world, we see that reforms aimed at changing the life of society in them began, first of all, with the education system, with the issue of kindergartens, schools, and upbringing.

Annotatsiya: Президент Шавкат Мирзиёев, комментируя проводимые в нашей стране реформы по реформированию системы школьного образования, подчеркнул мнение нашего прапросвещенного деда Махмудходжи Бехбуди о том, что «Школа – величайшее среди зданий мира», если посмотреть В истории развитых стран реформами, направленными на изменение жизни общества в них, были прежде всего система образования, детский сад, мы видим, что все началось с вопроса о школе и образовании.

Kalit so‘zlar: Turkistonda «usuli jadid» maktablar, Behbudiy axloq va tarbiya, Dasliklar,milliy uyg‘onish, milliy mustaqillik.

Jadidchilik harakati ham millatimiz siyosiy va ma'naviy hayotidagi katta burilishdir. Bu harakat namoyondalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li, Fitrat va boshqalar ilgari surgan g‘oyalar o‘zbek millatini ma'rifatli qilish, uning milliy ongini o‘stirish orqali o‘z erkini qo‘lga kiritishga qaratilgan edi. Darhaqiqat, «Jadidchilik g‘oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari po‘panak bosib, biljirab ketgan o‘rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momoguldirak bo‘lib, Millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo‘yilgani haqida bong urdi. Chaqmoqdek chaqnab, uning bag‘ridagi jarohatlarini yoritdi. Obirahmat bo‘lib, ona Turkiston ko‘ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollariga hayot baxsh etdi. Bu g‘oyalarning asosida milliy uyg‘onish, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi»[91]

[91] Qosimov B. Milliy uyg‘onish. –T.: Ma'naviyat, 2002.-B. 4.

Ular nafaqat g‘oyalari hamda uni amalga oshirishdagi faoliyatlari bilan, balki, o‘zlarining komil inson ekanliklari bilan milliy ma'naviy merosimizda katta o‘rin egallaydilar. Zero, o‘zining hayoti, butun borlig‘ini millatning ozodligi, mustaqilligiga bag‘ishlagan insonlargina komillik darajasiga ko‘tarila olishi mumkin. Zo‘ravonlar o‘z manfaatlari yo‘lida hech narsani ayamagan, hech kimga rahm-shafqat qilmagan bir sharoitda, jadidlar katta jasorat va matonat bilan milliy istiqlol g‘oyalarini ilgari surdilar hamda uni amalga oshirish yo‘lida fidoyilik ko‘rsata oldilar. Shuning uchun ham bugun ularni o‘rganish orqali milliy o‘zligimizni anglashimizni rivojlantirishga erishishimiz mumkin bo‘ladi.Chorizm – chor Rossiyasi tomonidan Markaziy Osiyoga bostirib kirgan 1850-yillardan 1920-yillargacha bo‘lgan davrning nomlanishi. Tariximizning xolis talqini bobolarimizning buyuk davlatlarni barpo qilganlarini, yuksak ma'naviyat, madaniyat, taraqqiyot sahifalarini ochib beradi. Ichki nizo va adovatlar, faqat o‘z qobig‘iga, umrini o‘tab bo‘lgan aqidalarga o‘ralashib yashab, og‘ir ahvolga tushib qolgan davrlarimizni ham. Natijada bizning keyingi olti ajdodimiz ozodlik armonlarida o‘tdi.Ha, o‘sha davrlarda yurtimizning ayrim hukmdorlari va amaldorlari o‘z manfaatlarini ularga ishongan xalq manfaatlaridan ustun qo‘yib, jaholat va g‘aflatga botib qoldilar. El-ulus birligini saqlab, yagona Vatan himoyasi yo‘lida qattiq tura olmadilar. G‘aflat mintaqamizni umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzib, orqada olib qoldi.Ha, millatning o‘sha mash'um yillarda chalingan dardlari ko‘p edi. Ularga darmon kerak edi. Darmondan ham oldin «shamolga qarab» ish qilmaydigan, o‘zimizdagi eski tuzum tarafdorlarining qarshiligini engishga qodir «millat dardi – mening dardim», deb maydonga chiqadigan jasoratli rahnamo kerak edi. Chunki bugun biz yuqorida afsus bilan aytilganidek, millatning bu dardlariga sabab – ayrim hukmdor va amaldorlarning hal qiluvchi paytlarda rahnamo bo‘la olmaganida, ozodlik uchun jasoratli qadam qo‘ya olmaganida ekanligini bildik.Xalqimiz 1991 yilda mustaqillikka erishganida, uning milliy ongi, milliy g‘oya va milliy mafkurasi yana qaytadan jonlandi.Alqissa, milliy ong, milliy g‘oya va milliy mafkura bir-biri bilan bog‘langan yaxlit madaniy-ma'naviy tizimdir.Milliy g‘oya milliy ong negizida kelib chiqib, shakllansada, biroq u o‘z navbatida milliy ongning mazmunini boyitadi va unga o‘zining salmoqli ta'sirini o‘tkazib boradi.Milliy ong umuminsoniy bilimlarni o‘zida mujassam etib, milliy g‘oya va milliy mafkuraning ilmiy-nazariy saviyasini yuksaltiradi, ularning mohiyatini teranroq anglashga yordam beradi.

Xalqni faollashtirib, uni ulug‘ maqsadlar sari yo‘naltirish uchun, uning tarixiy xotirasini tiklash, ma'joziy tarzda aytganda, xalqni uyg‘otish uchun uning tarixini o‘rganish zarur bo‘ladi. Har bir xalq o‘zligini, o‘zining o‘tmishini, milliy ongini teran anglab olgandagina aniq va ravshan milliy g‘oya va mafkuraga ega bo‘lishi mumkin. Bejiz ham, Prezident Islom Karimov: «Ana shu milliy ong, ana shu milliy

g‘urur bugungi istiqlolimizning oltin poydevoridir» , deb aytmagan. Bu to‘g‘rida batafsilroq respublikamizda ma'lum olim N.Jo‘raev shunday fikr bildiradi: «Zotan, o‘tmishni anglagach, uni to‘g‘ri tushunish orqali kishi ruhiyatida jiddiy o‘zgarishlar yasash, shu orqali hayotni, turmush tarzini, oxir-oqibatda esa jamiyatni ma'naviy isloh qilishga erishiladi» va «istiqlol g‘oyalari asosida ... odamlar ongi va tafakkurida tub burilish yasalishiga erishish mumkin bo‘ladi» . Umuman olganda, o‘z milliy ongini teran anglamagan millat o‘zining haqiqiy milliy g‘oya va mafkurasiga ham ega bo‘la olmaydi. Narzulla Jo‘raevning fikrlariga asoslanib aytish mumkinki, milliy g‘oya va milliy mafkura asosida milliy ongni ham ma'lum darajada o‘zgartirish mumkin bo‘ladi.Ammo jadidlar maydonga chiqqan paytda Turkistonda shunday bir tarixiy shart – sharoit mavjud ediki, ular balki shuning uchun ham evolyusion yo‘lni tanlashga majbur edi. Buning uchun quyidagi mulohazalarga etiboringizni qaratamiz: “Milliy – ozodlik kurashida qurol kuchi bilangina muvaffaqiyat qozonib bo‘lmasdi. XIX asr oxirida yuz bergan va isyon va qo‘zg‘alon (“vabo isyoni”, va Dukchi eshon qo‘zg‘alonlari nazarda tutiliyapti . muall.) chor mustamlakachilari tamonidan shafqatsizlarcha bostirildi... Malum bo‘ldiki, zamonaviy qurolga ega, muntazam armiyasi bo‘lgan, oxranka, jandarmeriya kabi tozi itdek hushyor qo‘riqchilar kechayu – kunduz xizmatida tayyor turgan, mazlum xalqlarning erk, ozodlik to‘g‘risidagi orzularini endi butunlay eslaridan siqib chiqarish uchun hech narsadan tap tortmaydigan sanoqsiz amaldor va amaldorchalari bor chor Rossiyasidek mustabid va makkor saltanatning iskanjasidan qutilish oson ish emas ekan. Buning ustiga, mustabidlar ishni shu darajada ishga solganki, mahalliy aholi tilini, ruhiyatini, dinini yaxshi bilgan sharqshunoslardan maxsus guruh tayyorlanib, erli xalqlar ichiga kiritildi, tokim ular “oq poshsho”ning “mehribon” va “odil”ligini targ‘ib etsinlar, go‘yo imperator hazratlarining hech bir ehtiyoji bo‘lmasa-da, odamgarchilik nuqtai nazaridan yaxshtlik qilish maqsadida Turkistonni o‘z panohi ostiga olishga rozi bo‘lganlarini tushuntirsinlar..... ”

Behbudiy Turkiston tashqarisidagi mamlakatlarga saëhat qilib taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashib ular g‘oyalaridan ilhomlangan. Taniqli turkolog olima¸ Germaniyadagi Humbold universiteti qoshidagi Markaziy Osië instituti direktori Ingaborg Baldauf Behbudiy ëzgan asarlarni nemis tiliga o‘girgan va “Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda” degan tadiqotni e'lon qilgan. Baldaufning aytishicha¸ adib qalbini o‘rtagan eng katta dard - erk va ma'rifat istagi edi. “Padarkush” asari haqida to‘xtalgan nemis olimasi bu asarning ijtimoiy ahamiyati badiiyligidan ustunligini aytadi: Badiiy nuqtai nazarlari uncha ham yuksak emas edi. Uning eng muhim qirralari ya'ni uslubi, matn go‘zalligidan ko‘ra ko‘proq fikr va mujda bor, ya'ni Behbudiy mardumga ochadigan fikrlari. yangicha fikr edi o‘zining vaqti uchun. Gap shunda. “Padarkush” spektakli namoyish qilinganidan keyin Behbudiyni "kofir"likda ayblovchilar yanada ko‘paydi. Bu davr tafsilotlarini o‘rgangan nemis

olimasi Ingaborg Baldaufga ko‘ra¸ bu spektakl Behbudiyni ëqtirmagan muhofazakorlar sabrini toshirishga so‘nggi sabab bo‘lgan: Ehtimol spektaklni bahona qilib unga qarshi shunday gapni ochgan ekanlar. Haqiqatan¸ aynan o‘sha vaqtda Behbudiy muftiy sifatida ham o‘zining boshiga tosh yog‘dira boshlagan edi. Masalan¸ Behbudiy aytmaydimi hozirgi olimning ham haqqi bor, Qur'oni Karim, hadisi sharifga bosh ursa, ulardan o‘zicha yangi muammolar uchun hal etadigan vositalarni topsa. Bu o‘z vaqtida boshqa musulmon olimlarining fikricha, ma'qul emas edi. Behbudiy esa bu mavzuni ochgan. Ya'ni uning dahriyligi ëki emasligini bilmayman, kofir deyishlariga sabab o‘sha bo‘lgan. Spektakl ehtimol yana bir vosita, yana bir bahona bo‘lgan. Lekin asosiy sababi boshqa yoqda. Behbudiy islom olimi, ya'ni muftiy sifatida boshqalarga pisand bo‘lmagan nazarlarni aytgan edi, ifodalagan edi. Shuning uchun uni kofirlikka chiqardilar¸ deydi Ingaborg Baldauf.

Xullas, Behbudiy shaxsiyatini o‘rgangan Baldauf uning qadimchi ruhoniylardan farqli taraqqiyparvar bo‘lganiga e'tibor qaratadi: Muftiylar ham hammasi birday emas. Muftiy ham o‘z vaqtiga nisbatan fikri ko‘p ochiq, hatto ilg‘or odam bo‘lishi mumkinligi Behbudiy shahsida ko‘rinadi. Muftiylar orasida boshqalari ham bor, ko‘proq eskilikka intiladigan, konservatizmga tarafdor bo‘ladiganlar ko‘p. Bu o‘rinda muftiy bilan muftiyning farqi bor¸ deydi olima. Behbudiyning ta`limiy-axloqiy qarashlarida insonning ma`naviy barkamol shaxs egallashi zarur bo`lgan talablariga ilmdan orttirilgan xislat, ichki va tashqi ko`rinishidan topilgan haqiqat, aql tufayli hosil qilingan xulq-atvor, mol-mulkdan ham ziyoda bo`lgan salomatlik hisoblangan. Ushbu talablar hozirgi kunda barkamol insonni tarbiyalashda mardlik, to`g`rilik, adolatparvarlik, vafodorlik, halollik, saxiylik, mehr-oqibat, insonparvarlik kabi xislatlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Behbudiyning ma`rifiy qarashlari o`sha davrning etakchi g`oyasi sifatida shakllanib, safdoshlari uchun ushbu qarashlar yo`lboshchi bo`lib xizmat qildi. Uning millatni qullik changalidan qutqarish yo„llari va ma`naviy jihatlarini yuksaltirishni ko`zda tutgan holda fidoiylik bilan faoliyatini olib bordi. Behbudiy yangi maktablarda diniy va dunyoviy bilimlarni mukammal o`qitishni tashkil etib, yoshlarni komillik darajasiga ko`tarish, gazeta va jurnallar tashkil qilib, xalqning ma`naviyatini oshirishni, teatr orqali madaniy darajasini rivojlantirishni o`z oldiga maqsad qildi. Behbudiyning yana bir komillik jihati u nafaqat musulmon dunyosi g`oyalari bilan balki butun dunyo qarashlarini o`rganib, yuksak ma`rifatparvar sifatida shakllandi. Sharqdan donishmandlik va fozillik g`oyalarini olib, g`arbning mehnatsevarligini uyg`unlashtirib, fozil jamiyatni shakllantirishni o`z oldiga maqsad qo„ydi. Ma`naviyatni yuksaltirishning birdan bir yo`li ta`lim va tarbiyaning rivojlantirish edi. Shu o`rinda Prezident Sh.Mirziyoyevning “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir” -deb ta`riflaganlaridek. Bu tushunchalar inson dunyoqarashining ma`naviy jihatlarini o`zida mujassam etgan hodisadir. Bilamizki, insonnning

shakllanishi ta`lim va tarbiyaning maskani bo„lgan maktablarda amalga oshirilib, turmushimizga tatbiq etiladi. Mamlakat oldigan qo`ygan maqsadlari va taraqqiyotiga yuksak insoniy va shaxsiy fazilatlarga ega bo`lgan yoshlar orqali amalga oshiriladi. Behbudiyning qarashlarida yuksak ma`naviyatli yoshlar tarbiyasini birinchi navbatda nazarda tutadi. Ta`limda albatta tartib hamda uslub alohida ahamiyatga ega. Oldinlar o`n yillab savodi chiqmagan o„quvchilarni savodini olti oyda chiqarishaga erishdi. Eski maktablarda faqat yod olish bilan o„qitishgan bo`lsa, bu maktablarda o`quvchilarni ijodiy yonddashish zarurligini belgiladi. Darslarida ko`rgazmali o`tishni tashkil qilib, yoshlarni kuzatish qobiliyati va tafakkurini rivojlantirishini isbotlab berdi. U tashkil etgan maktabda o`qitishning tizimliligi va izchilligi nazariyaning amaliyot bilan bog`liqligini ko`rsatib berdi. Bundan tashqari Behbudiy yurt va millat taraqqiyoti uchun aholi o`rtasida ilm va fanni targ`ib etish, ularni savodxonligin ko`tarish, diniy va dunyoviy bilimlarni o`rganish nihoyatda lozimligi uqtirib, fidoiylik bilan bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Behbudiy o`zining barcha fikrlarida mamlakatni va xalqni og`ir ahvoldan olib chiqishning yagona yo`li ilm va fanni rivojlantirish ekanligini ta`kidlaydi. U barcha harakat va xarajatlarni ilm fanning rivojiga sarflash hamda diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy darslarni hamohang o`rganish va bir necha chet tillarini o`rganish zarurligi aytadi. U xalqni o`zligini anglashga, huquq va erkinligini chuqur bilishga hamda ilm-u ma`rifatli bo`lishga yo`naltiradi. Ma‟rifatparvar Behbudiy ham nazariy ham amaliy jihatdan o`zi namuna bo`ladi. Yana bir mutafakkirimiz Munavavvarqori Abdurashidxonov xalqni savodxon ma`rifatli qilish, maktab va madrasalardagi o`qish va o„qitish, fuqarolarning ta`lim olish huquqi hamda ularni ta`minlash bo`yicha o`z qarashlarini qoldirgan. U o`zining xotiralarida yozishicha, jadidlarning bosh shiori va maqsadi o`ta teran, mazmunli va uchta so`zdan iborat: “Ozodlik, tenglik, adolat”[92] so`zlari ularga dasturamal bo`lgan. U ilm-fanning jamiyat taraqqiyotidagi o`rniga yuksak baho berib, diniy va dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda zamonaviy fanlarni ham o`rganishga chaqiradi. “Ilm odamning zehnini ochar, aqlini ortirar, bilmagan narsalarini bildirur, dunyoda baxtli va izzatli qilur. Oxiratda saodatli va shafoatli qilur” [93] degan sermazmun g`oyalarida ilm olishning afzalliklarini aytib o`tgan. Uning aytishicha agar ota-onalarimiz va ustozlarimiz bizga bilganlarimizni o`rgatmagan bo`lsalar edi, biz hech narsani bilmas edik. Haqiqtdan ham bilim olish insonni yuksaklarga ko`taradi. Uning hayot yo`lini ravon qiladi. Ta`kidlash joizki, Mahmudxo`ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovlar jadidlar siyosiy partiyasining ham dasturlarini ishlab chiqishda etakchilik qilganlar. Jumladan, “Turk adami markaziyat firqasi”ning Maromnomasi va Nizomnomasini ishlab chiqqanlar. Ushbu hujjatlarda ilm, fan va maorif sohalariga alohida e`tibor qaratganlar. “-Ta`lim olish huquqi – jinsi, millati va

[92] Munavvarqori Abdurashidxonov. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent 2022 yil

[93] Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan (jadidchilik tarixidan lavhalar). Nashrga tayyorlovchi S.Xolboyev-Toshkent: Sharq, 2001 yil

dinidan qatiy nazar barchaga beriladi” -deb kiritilgan bandida millat va xalqning barcha qatlamlarini ta`lim olishlari uchun teng huquqlarga egaliklari ko`rsatilib, ijtimoiy adolatning ro`yobga chiqishiga zamin yaratganlar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabr kuni O`qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatida jadidchilik harakati, shaxslari haqida to`xtalib o`tdilar[94]. Prezident so`zlari bilan aytadigan bo`lsak, «bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg`onish g`oyasiga bag`ishlab, o`lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g`aflat botqog`idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo`lda ular o„zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar». Haqiqatdan ham jadid mutafakkir bobolarimizning jonkuyarligi, ta`limga bo`lgan e`tiborlari etirof etgan holda ularning hayot yo`llari biz uchun dasturamal bo`lmog`i lozim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev maktab ta`limi tizimini isloh qilish bo`yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr yuritar ekan, ulug, ma`rifatparvar bobomiz Mahmudxo`ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug`i maktabdir” degan fikrini alohida ta`kidlab, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, ularda jamiyat hayotini o`zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta`lim tizimidan, bog`cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko`ramiz. Chunki maktabni o`zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o`zgartirib bo`lmaydi. Ta`lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o`qituvchilardir.”

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tarix va jug‘rofiya. // Oyina. 1914. 27-son. –502-505-b.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Ehtiyoji millat // Sovet O‘zbekistoni. 1990. 18.09.
3. Zunnunov A. Xayrullaev M. Pedagogika tarixi. -T., 2002
4. “Sharq yulduzi” jurnali, 1992 yil, 3-son
5. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. -T.:Ma’naviyat, 1999.- B. 228.
6. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan (jadidchilik tarixidan lavhalar). Nashrga tayyorlovchi S.Xolboyev-Toshkent: Sharq, 2001 yil
7. Shavkat Mirziyoyev “YANGI O`ZBEKISTON STRATEGIYASI”.– Toshkent: “O„zbekiston” nashriyoti. 2021. 24 bet

TURKISTON JADID NAMOYONDALARINING YANGI O’ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATIDA TUTGAN O’RNI

To’yeva Muhayyo Shuhrat qizi
TDPU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
tuyevamuhayyo@gmail.com, m_toyeva@tdpu.uz, +998931226699

[94] Shavkat Mirziyoyev “YANGI O`ZBEKISTON STRATEGIYASI”.– Toshkent: “O„zbekiston” nashriyoti. 2021. 24 bet

Annotatsiya: Turkiston jadid namoyondalari O’zbekiston va xalqaro hamjamiyatda tutgan o’rni va ahamiyati. Markaziy Osiyoda madaniy, ijtimoiy, siyosiy va ma’rifiy uyg’onish harakatining asoschilari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so’zlar: Jaddilar , ma’orif, global jamiyat, ma’rifiy jamiyat, madaniy uyg’onish, siyosiy faollik, milliy uyg’onish, modernizatsiya.

Аннотация: Роль и значение современных представителей Туркестана в Узбекистане и международном сообществе. Высказано мнение об основателях движения культурного, общественного, политического и просветительского возрождения в Центральной Азии.

Ключевые слова: Джаддилар, образование, глобальное общество, просвещенное общество, культурное пробуждение, политическая деятельность, национальное пробуждение, модернизация.

Abstract: The role and importance of modern representatives of Turkestan in Uzbekistan and the international community. An opinion was expressed about the founders of the cultural, social, political and educational revival movement in Central Asia.

Key words: Jaddilar, education, global society, enlightened society, cultural awakening, political activity, national awakening, modernization.

Bugungi kunda yurtimizda tinchlik va mustaqillik hukum surar ekan, bu hur zamonga biz osonlikcha erishmadik albatta, shunchaki mustaqil bo’lib qolmadik va hozirgi olayotgan ta’limmizda ham buning uchun jonini fido qilishgan mard va jasur qahramonlari ta’riflab bo’lmas xizmatlari bor. Turkiston jadid namoyondalari O‘zbekiston va xalqaro hamjamiyat tarixida muhim o‘rin tutgan, chunki ular XX asr boshida Markaziy Osiyoda madaniy, ijtimoiy, siyosiy va ma’rifiy uyg‘onish harakatining asoschilaridan bo‘lishgan. Ularning faoliyati nafaqat yangi O‘zbekistonning shakllanishiga, balki xalqlarning global hamjamiyatdagi o‘rnini belgilashga ham ta’sir qilganligi bejiz emas.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Jadidlar g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir” [1] deb takidlaganliklarining o’ziyoq: jadidlar harakati vatanimiz taraqqiyoti va o’tmishida nechog’lik dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatmoqda.

Jadidlarning g‘oyalari va faoliyati Markaziy Osiyoda yangi ijtimoiy-siyosiy tafakkurning shakllanishiga olib keldi. Ular millatlarning global maydondagi mavqeini belgilashda intellektual rahnamolar bo‘lishgan. Jadidlarning g’oyalari nafaqt mamlakatimiz ilm-fan va milliy g’oyasining shakillanishiga sabab bo’lidi, qolaversa jahon hamjamiyatidagi ilog’or g’oyalar yaratilishi, dunyoda tinchilik, osoyishtalik va hamdo’stlik shakillanishiga ham ulkan hissasini qo’shdi.

Jadidchilik ham maorif, ham davlatchilik va so‘z erkinligi edi. Masalan, Rossiya imperiyasi davrida (1721—1917) jadidlarning shaxsiy nashriyotlari bo‘lgan. Biroq Sovet Ittifoqi (1917—1991) qaror topgach, bu nashriyotlarning barchasini yopib, ularning asoschilarini otuvga hukm qilgan. **Jadidchilik harakati Markaziy Osiyo mintaqasidagi uchinchi renessansni yaratmoqchi bo‘lgan**. O‘zbekiston rahbarining bunga e’tibor qaratishi juda yaxshi. Chunki butun turkiy millatning

taraqqiy etishida aynan jadidlarning g‘oyalari muhim ahamiyatga ega” [2] deb takidladi Temur Xujao’g’li, tarixchi olim

Jadidchilik harakati aslida bu jamiyatlarning mustaqilligi uchun tamal toshini qo‘ygan bir harakatdir va bu harakat chet elda ham davom etgan. Chunki Stalin davrida katta “tozalash” amalga oshirilgan. Jadidlar Germaniya, Polsha va boshqa xorijiy mamlakatlarga borib, mustaqillik uchun kurashlari haqida kitob yozganligi tarixdan ma’lum.

XIX-asrning ikkinchi yarmida Osiyo ayniqsa Turkiston ilm-fan va texnika taraqqiyoti bo'yicha evropadan ancha orqada qolib ketgan bir davrda qoldi. Qoloqlik va jaholat, o'lka aholisining ayanchli ahvoli Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi va bunday fojiali hayotdan qutulish, erk va ozodlikka erishish haqida o'z zamonasining ilg'or ziyoli qatlamlarida fikr-mulohazalar paydo bo'la boshlagan davri bo'lgan.

XX asr boshlarida Rossiyadagi musulmon maktablarining buyuk islohotchisi va "Tarjimon" jurnali tashkilotchisi Ismoil G'aspiralining nomi butun Sharqqa mashhur bo'lib ketgan. U Bog'chasaroyda eski maktablarning murakkab o'qish usuliga nisbatan engil qiroat usuliga asoslangan yangi maktab ochib, unda o'zi dars bergan, darsliklar yozgan, chorizmning Sharqdagi siyosatini fosh qiluvchi asarlari bilan Turkistondagi ilg'or ziyolilarning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatib borgan edi. Qisqacha qilib aytganda u yangi usul maktablarning vujudga kelishida namuna bo'lgan.

Jadidlar chorizmning mustamlaka siyosati strategiyasiga jiddiy zaiflantiruvchi o'zgarishlar qilishga majbur etuvchi vatanparvar siyosiy kuch sifatida XIX-asr oxiri - XX-asr boshlaridan tarix sahnasiga chiqgan bo’lsalar, Jadidlar Turkistonda XIX-asr oxirida paydo bo'lgan ilg'or usullarni yoqlagan ma'rifatparvarlargina bo'lib qolmay, ayni damda turkiy-islomiy huquqiy merosning millat ichida keng yoyilishi, xurfikrlilik, taraqqiyot va milliy istiqlol uchun ham kurashni maqsad qilib qo'yganiklarini ham ta’kidlash lozim.

Jadidchilik harakati muhitida jadidchilik adabiyoti ham yuzaga keldi va mukammal bir shaklga kirdi. Ham nasrda, ham nazmda yangilanish, qoloqlik va jaholatdan qutilish, rus istilosiga qarshi kurash, ma'rifat va hurriyatga erishish, istiqlolni qo'lga kiritish g'oyalari bilan to'lib-toshgan yangi bir adabiyot shakllanib bordi. Abay bunday adabiyotning ilk namoyandalaridan biri bo'lgan. Shundan so'ng Shayx Ahmad Mahdum maydonga chiqqan edi. O'rta asrlarda shunday ulug' zotlarni etishtirgan Turkiston kabi buyuk bir tabarruk zaminning so'nggi asrlarda jaholat va hurofot azobida inqirozga yuz tutishi, bu erda kuchli bo'lgan o'rta asrchilik va mustamlakachilik zulmlari, o'lkadagi yangi uyg'onish, yangi ma'rifat va adabiyot uchun borayotgan kurash musulmon xotin-qizlar huquqini himoya qilish haqida Ismoil Gaspirali o'tkir publitsistik maqolalari bilan faol qatnasha boshlagan.

«Buxoro va Bog'chasaroy», «Bog'chasaroydan Toshkentga» (1893), «Turkistonning yangi tarixi» (1905), «Buxoroda nimalarni ko'rdim?» (1908), «Turkistondan xat» va boshqalar shu jumlasiga k iradi. Uning ta'siri bilan Turkistonda ham yangi usul maktablari uchun o'quv qo'llanmalari, matbuot va adabiyot namunalari maydonga kela boshladi. Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan Mahmudxo'ja Behbudiy (1871-1919) dir. U "Turkiston jadidlarining otasi" sifatida tarixda nom qoldirgan. Fayzulla Xo'jayev Behbudiy haqida: "Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani bo'lmasa kerak" [3] degan fikrni bildirgan.

Behbudiy Gapirinskiy yo'lga qo'ygan "usuli jadid" maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatdi. Yangi tipdagi maktablarning milliy-madaniy taraqqiyotimizda muhim omil bo'la olishi mumkinligi haqida o'nlab maqolalar yozgan. "Qisqa umumiy geografiya", "Bolalar maktubi", "Islomning qisqacha tarixi", "Amaliyoti islom", "Aholi geografiyasiga kirish", "Rusiyaning qisqacha geografiyasi" kabi darsliklar yaratdi. Nashriyot tashkil qilib, darsliklar va qo'llanmalar, xaritalar bosib chiqargani bizgacha ma'lum bo'ldi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonivich Mirziyoyev “Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan etuk kadrlar suv bilan havodek zarur”,deb takidladilar. Darhaqiqat jadid bobolarimiz ilgari surgan g’oya va mafkuralar butun millatni o’zligini anglashga va uyg’onishaga chorlamoqda desak yanglishmagan bo’lamiz.

Jadidchilik harakati o‘z oldiga Turkiston jamiyatining madaniy-ma’rifiy rivojlanishini maqsad qilgan edi. Jadidlar millatning savodxonligini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish, milliy birdamlikni mustahkamlash va yangi davr talablariga mos islohotlarni amalga oshirish tarafdori edilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy, va Munavvar Qori kabi etakchilar bu harakatning asosiy namoyandalari edi.

Xulosa qilib aytganda Jadidlar harakati va jahon hamjamiyatidagi o’rnini tahlil qilar ekanmiz. Birinchidan, ma’rifat va ta’lim islohotlari: Jadidlar yangi usul maktablarini tashkil etib, o‘quv jarayoniga zamonaviy fanlarni kiritdilar. Bu maktablar millatni jaholatdan chiqarishda muhim rol o‘ynadi.

Ikkinchidan, milliy g‘oya shakllanishi: Turkiston jadidlari milliy birdamlik va o‘zlikni anglash g‘oyalarini ilgari surdilar. Ularning sa’y-harakatlari yangi O‘zbekistonning ma’naviy va siyosiy poydevorini yaratishda ahamiyatli bo‘ldi.

Uchinchidan, jahon hamjamiyatidagi mavqe: Jadidlarning g‘oyaviy mehnati nafaqat ichki rivojlanishga, balki xalqaro aloqalarni yaxshilashga ham xizmat qildi. Ular Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy muloqotni rivojlantirishga e’tibor qaratdilar.

Turkiston jadidlarining yangi O‘zbekiston va jahon hamjamiyatidagi o‘rni millat taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratganida namoyon bo‘ladi. Ularning fidokorona faoliyati bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Shavkat Mirziyoyev 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida so’zlagan nutqlari htt. Daryo.uz
2. 11—12-dekabr kunlari Toshkent shahrida “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusida ilmiy konferensiya
3. O’zbekiston tarixi (qisqacha malumotnoma) T. "Sharq", 2000.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. Toshkent: Sharq, 2008.

ABDULLA QODIRIYNING "O’TGAN KUNLAR" ASARIDAGI AYRIM RANG IFODALOVCHI LEKSEMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xoshimova Oydina Shuxrat qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
oydinakhoshimova@gmail.com

ABDULLAH KADIRÎ'NIN "GEÇEN GÜNLER" ESERINDEKI BAZI RENK IFADE EDEN LEKSIMLERIN LEKSIK-SEMANTIK ÖZELLIKLERI.
LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF CERTAIN COLOR-EXPRESSING LEXEMES IN ABDULLAH QODIRIY'S WORK "O'TGAN KUNLAR".
ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ ЛЕКСЕМ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЦВЕТ, В ПРОИЗВЕДЕНИИ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ "ПРОШЕДШИЕ ДНИ".

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Qodiriyning "O‘tgan kunlar" romanidagi rang ifodalovchi leksemalarning lingvokulturologik va leksik-semantik xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot ranglarning madaniy ramzlar sifatida dolzarbligi va lingvorangli olam manzarasidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Ranglarning qahramonlar ichki dunyosini yoritish va voqealarni boyitishdagi roli ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, "O‘tgan kunlar", rang ifodalovchi leksemalar, lingvokulturologiya, leksik-semantik tahlil, lingvorangli olam manzarasi, madaniy ramzlar.

Rang ifodalovchi leksemalar turli madaniyatlarda va tillarda o‘ziga xos ma’nolarni ifodalaydi. O‘zbek adabiyoti durdonalaridan biri bo‘lgan "O‘tgan kunlar" asarida ranglar milliy va madaniy semantik yuklama bilan boyitilgan. Ushbu maqolada rang ifodalovchi so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlari badiiy asarlar prizmasidan tahlil qilinadi va lingvorangli olam manzarasini rang leksemalari orqali qanday ifodalanishini yoritib beriladi.

Inson tug'ilishining birinchi kunidan ya'ni chaqaloqligidan boshlab bu ajib olamni o'z ko'zi bilan ko'ra boshlaydi. Inson organizmidagi eng yirik iste'molchi ko'zlar hisoblanadi. Atrofimiz olam haqidagi 90% ma’lumotni biz ko’zlarimiz orqali

qabul qilamiz. Ko’z shunchalar noyob organki, u tashqi dunyo bilan ichki dunyoni tog’ridan tog’ri bog’lab beradi.

Hayotimizni qiziqarli va maftunkor qiladigan muhim vositalardan biri esa rang ifodolovchi so'zlardir. O'zbek tilidagi “rang” so'zi asli qadimgi turkiy tillardan kelib chiqqan. Bu so'zning ildizi turkiy tillarda qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib, u dastlab “ko‘rinish”, “tashqi qiyofa” yoki “shakl” ma'nolarida ishlatilgan[1]. Keyinchalik, bu so‘zning ma’nosi torayib, hozirgi zamonda *“rang” (colour)* tushunchasini ifodalash uchun qo‘llanila boshlangan.

Turkiy tillarda rang ifodolovchi birliklarning qo‘llanilishi haqiqiy obyektlarning subyektiv obrazini yaratib, va ularni inson dunyoqarashining prizmasi orqali tushunishga intilish sifatida ifodalanadi, rang bildiruvchi so’zlarda etnomadaniy tarkibiy qismlar va milliy o‘ziga xos assotsiatsiyalar mujassamlashgan. Etnik madaniyatlarda olam manzarasidagi rang bildiruvchi so'zlarning keng qo‘llanilishi bu ranglarning ustuvor o’rindaligi bilan izohlanadi. Ranglar ma'lum bir madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan emotsional holatlar va vaziyatlar bilan bog‘lanishi – *“rang ifodolovchi birliklar - dunyoqarashning o‘ziga xos kontseptsiyalari”* sifatida ko‘rib chiqishning imkonini beradi, chunki bunday muhim obrazlar milliy olam manzarasini tashkil qilishda ahamiyatlidir[2].

M.V.Pimenova va O.N.Kondratyevalar o'z o'quv qo'llanmalarida rang tushunchasini shunday ta'riflashgan : “Rang atrof olamni tushunishning eng muhim elementlaridan biridir. U nafaqat estetik zavq olish vositasi, balki kognitiv jarayonlar va dunyoning konseptual manzarasini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan madaniy va ramziy ma'nolarning tashuvchisi hisoblanadi. " [3, 45-b.] Inson atrof olamni bir xil rangda emas, balki rang-barang qabul qiladi - bu o'ziga xos olam manzarasidagi turli hil yorug’lik va rangdagi muayyan nuqtalarning uyg‘unlashuvidan iborat tasvir sifatida namoyon bo'ladi. Rang haqidagi tushuncha insonda uning hayotiy tajribasi natijasida shakllanadi, ko‘plab rang tasvirlari insonning mental tizimida yig'ilib, ma’lum bir tizimni tashkil qiladi. Insoniyat asrlar davomida, Aristotel davridan to hozirgi kungacha, rangning sir-sinoatini, uning ma'nosini va tilini anglashga harakat qilib kelmoqda. Ranglarni o‘rganish masalasi turli yondashuvlarning ko‘pligi bilan xarakterlanadi. Ilmiy izlanish tushunchasi inson ongida mavjud bo‘lgan rang tasvirlari tizimiga – rangli olam manzarasi sifatida yangi nazar bilan qarashni talab etadi. ”[4, 427-b.]

Ranglarni ifodalovchi leksik birliklar turli tizimli tillarda va davlatlarda lingvistik tadqiqotlarning eng muhim va dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, rang bildiruvchi so'zlarni o'rganishda turli xususiyatlarni yoritish muhim sanalmoqda. Shu bilan birga, rang atamalariga bo‘lgan doimiy ilmiy qiziqish ularning til va tafakkur o’rtasidagi munosabati, ya’ni ularning lingvistik ma’no va mazmuni bilan uzviy bog‘liqligi bilan izohlanadi. Bu

esa rang ifodalarining leksik-semantik xususiyatlari va kognitiv mexanizmlarini nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etishni ahamiyatli qiladi.

Raglarning tahlili asosan til va adabiyot orqali kengroq ko'rib chiqiladi. Rang ifodalovchi sifatlar(leksemalar) badiiy matnlarda muhim semantik vosita sifatida xizmat qiladi. Buyuk shoirlar, yozuvchilar, adiblar, hikoyanavislar va mualliflar asrlar mobaynida ranglar orqali madaniyat va jamiyatning ma’naviy me’rosini shakllantirishga o’z hissalarini qo’shishgan. Ranglar qahramonlarning tashqi ko‘rinishi, hamda ichki dunyosi, ruhiy holati, nozik yoki ziddiyatli kechinmalari va his-tuyg‘ularini yanada aniqroq, jonliroq tasvirlashga yordam beradi va ular orqali yozuvchi voqealar mazmunini boyitadi.

Quyida o’zbek tilidagi ayrim rang ifodolovchi so’zlarning semantik va leksik xususiyatlarini yanada chuqurroq tahlil qilamiz.

Abdulla Qodiriy – XX asr boshlarida, jadidchilik davrida faoliyat ko‘rsatgan. Bu davrda o‘zbek adabiyoti milliy uyg‘onish jarayonini boshdan kechirayotgan edi. A.Qodiriyning asarlarida ranglar muhim simbolik va ma'naviy o‘rin tutadi. Uning asarlarida ranglar faqat tashqi holat va tarixiy voqealarni tasvirlashda emas, balki xalqning ichki hissiyotlari va ijtimoiy ahvolini ifodalashda ham ishlatilgan.Ushbu jadid namoyondamizning ijodidagi “O’tgan kunlar”asaridan parchalarni tahlil qilib chiqamiz:

> *Uning **qora zulfi** par yostiqning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jinggila kiprak ostidag‘i **timqora ko'zlari** bir nuqtag'a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi**... qop-qora kamon**, o'tib ketkan nafis, qiyig' qoshlari chimirilganda,...* [5]

Qora rang – sifat hisoblanib, odatda murakkab va jiddiy tasvirlar uchun ishlatiladi. “Qora zulf” va "qop-qora kamon" so’z birikmalari esa badiiy tasvirda ishlatilib, ayolning tabiiy go‘zalligi vao’ziga xosligini ko‘rsatadi. Qora sochlar va qora qoshlar Sharq madaniyatida nafislik va jozibadorlikning timsoli hisoblanadi."Timqora ko‘zlar" adabiy ibora hisoblanib, "tim" so‘zi qora rangning quyuqligini kuchaytiradi. Bu birikma, ko‘zni faqat rang nuqtai nazaridan emas, balki uning ifodalovchi, taassurot qoldiruvchi jihatlari bilan bog‘liq tasvirni bildiradi. Bu erda Kumushning ko‘zlari sirli va chuqur his-tuyg‘ularini, betakror jozibasini aks ettiradi.

> *....nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lg'an oydek **g'uborsiz oq** yuzi **bir oz qizilliqg’a** aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi...*

Ushbu jumlada "g‘uborsiz oq yuz" ofodasi orqali Kumushning sof qalbi, nafosati va beg‘uborligi ko‘rsatiladi. O‘zbek madaniyatida "oq yuz" iborasi ko‘pincha ijobiy ahloq, ichki dunyoning ruhiy tozaligi va sof ma’naviyatni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu misoldagi “bir oz qizilliqg’a” birikmasida qizil rang hissiy holatni aks ettiradi. Sharq madaniyatida qizil rang odatda ehtiros, uyat yoki ichki hayajon bilan bog‘liq. Bu badiiy tasvir Kumushning hissiyotlarini yanada jonliroq yoritib

berish uchun ishlatilgan. Qizil rangning uyg‘unligi ayolning hayajoni va muloyimligini aks ettiradi.

*Shu vaqt ko'rpani qayirib ushlagan **oq nozik qo'llari** bilan latif burnining o'ng tomonida, tabi'atning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilgan **qora xolini** qashidi...*

“Oq nozik qo‘llari” iborasi “O’tgan kunlar” asarida Kumush obrazini ideallashtiruvchi badiiy vositalardan biridir. Oq rang orqali qahramonning nazokatli, nafis hamda ruhiy jihatdan go’zal qiyofasi ta’riflangan. Bu tasvirda yozuvchi ayollarning jismoniy va ma’naviy go‘zalligini yanada kuchaytirib ifodalashga erishgan. Asardagi keingi misol “qora xol” birikmasi, beqiyos go‘zallikning milliy timsoli sifatida ishlatilgan. Iboradagi “qora” so’zi rang sifatida ishlatilgan bo’lsada, bu erda uning semantik man’nosi kengroqdir.

O‘zbek xalq e’tiqodida xol ayolning betakrorligi va tabiiy jozibadorligini anglatadi, qolaversa bu ayollarning yuzida e’tibor tortuvchi, o’ziga xos qadr-qimmatini oshiruvchi ramz ma’nosida ham ifodalanishi mumkin. Qora xol Sharq she’riyatida ham ko‘p bor ideal latofat va nafosat belgisi sifatida keltiriladi.

*...og‘zi qulog‘i bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik og‘riqlarnikidek **sap-sariq**, qirq besh yoshlar chamasida bir xotin edi...*

Ushbu jumlada "sap-sariq" leksemasi rangning yaqqolroq ko’rinishini ta’kidlaydi. Bu ofoda odamning yuzini tasvirlashda qo’llanilib, u nafaqat tashqi ko‘rinishni, balki xotinning hayotiy mashaqqatlarini ham aks ettiruvchi rang vositasi sifatida ishlatilgan. Bu tasvir orqali yozuvchi xotin obrazining boshdan kechirgan uzoq yillik qiyinchiliklari v a ichki ruhiy holatini ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lgan. Rangning salbiy semantik xususiyatlari asarda inson hayoti va tashqi ko‘rinish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta'kidlab, dramatik effekt yaratadi.

*Daraxtlardagi **sariq barglar** to'kilib tugagan, er yuzi o'zining qishki **sariq kiyimini** kiygan edi.*

Mazkur o'rinda tabiatdagi ma'lum vaqt, ya'ni faslga xos bo'lgan o'ziga xoslikning rangi "sariq" leksemasi orqali ifodalanib, o'quvchi ongida olamning lingvorangli manzarasini hosil qilishga xizmat qilgan. Birinchidan, daraxtlar barglari sarg‘ayib, kuz faslining tugashini bildiradi. Ikkinchidan, er yuzasining "sariq kiyim" kiyishi, ya'ni er yuzining kuzgi barglar bilan qoplashi, qishki tayyorgarlik jarayonini ramziy qilib, tabiatni jonlantiruvchi poetik obraz yaratadi. Shu tariqa, "sariq" so‘zi landshaftni tasvirlashda ham bevosita (denotativ), ham ramziy (konnotativ) ma’nolarni aks ettiradi.

*Kumushning **ko‘kimtil tovlang‘an** yuzini ko‘rdi va manglayini bosdi...*

*Otabek azbaroyi bo‘g‘ilib ketkanidan **ko‘kimtil tovlang‘an**, qutidor bezgaklardek titray boshlag‘an edi…*

“Ko‘kimtil" so’zi sifat bo’lib, ko‘k rangga yaqin bo‘lgan ranglarni ifodalaydi. U odatda ko‘k, moviy, havorang yoki boshqa sovuq ranglar bilan bog‘lanadi. Bu rangning ishlatilish ko’pincha xastalikning yoki og’riqning belgisidir. Bu ikkala misolar orqali qahramonlarning zaifligi, holsizligi yoki noqulay holatlarini tasvirlashda ishlatilgan.

> *....oyoqlarini **kumush uzangiga** tiragan, siyrak qoshlik, cho‘qqi soqol, **bug‘doy ranglik**, qirq besh-elli yoshlar chamaliq bir kishi edi...*

Mazkur jumlada "kumush" so'zi metalning tabiiy rangini bildiradi. Kumush o‘zining oqish-yaltir, toza, va ziynatbop ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Kumush rang ko‘pincha poklik va sof niyatni bildiradi. Bu kontekstdagi uzangi orqali shaxsning boyligi yoki mavqeini ifodalashi ehtimoli bor. *"Bug‘doy rang" (the colour of wheat)* leksemasi odatda och jigarrang yoki sarg‘ish-jigarrang tusdagi rangni bildiradi. "Bug‘doy rang" so‘zida oddiylik, va tabiiylik semalari mavjud. Bu so‘z insonning terisining rangini tasvirlab, uning milliy ajralib turuvchi xususiyatlarini aks ettiradi. Ikkala rang ham mazkur misolda personajning tashqi ko‘rinishini aniqlik bilan tasvirlash va obraz yaratishda muhim rol o‘ynagan.

> *...to‘garak qora ko‘zlik, **oppoq** uzun soqollik edi. Soqolining **oqlig‘iga** qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas...*

Misoldagi rang ifodalovchi leksemalar — "qora" va "oppoq" — ikki xil rangni tasvirlab, ularning semantik xususiyatlarini ochib beradi. Bu erda
"Qora" rang leksemasi "salobat", " sir-sinoat" , "kamtarlik" semalari bilan bog'liq bir qator xususiyatlarga ega. Bu rang insonning tashqi qiyofasi orqali uning shaxsiyati haqida taassurot uyg‘otib, klassik yoki kuchsizlantiruvchi estetik xususiyatlarini ochib bergan. "Oppoq” so‘zi nafaqat rang sifatida, balki obrazning hurmatga loyiq, hayotiy tajriba bilan to‘la ekanini ramziy anglatadi. "Oppoq uzun soqol" bir tomondan insonning keksalikka qadam qo‘yganligini, ikkinchi tomondan esa uning ruhiy va jismoniy tetikligini ko‘rsatishi mumkin. Buni davom etgan jumlada keltirilgan "keksalik alomatlari sezilmas" iborasi ham tasdiqlaydi. Ikkala rang ham personajning hayotiy yo‘lini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu parchalar ranglarning semantik va madaniy xususiyatlarini mukammal aks ettiradi. Parchadagi ranglar xalq og‘zaki ijodi va badiiy asarlarning rangli olamdagi lingvomadaniy timsollari sifatida namoyon bo‘ladi

> *Hasanali otliq bo‘lib, oltmish yoshlar chamasida, cho‘ziq yuzlik, do‘nggiroq peshonalik, **sariqqa moyil**...*

"Sariq" — rangni bildiruvchi sifat bo‘lib, insonning tashqi ko‘rinishini, aniqrog‘i yuz rangini tavsiflash uchun ishlatilgan. Misolda ishlatilgan "sariqqa moyil" leksemasi rangning to‘yingan darajasini emas, balki yumshoq, ohangli ko‘rinishini aks ettiradi. Bu birikmadagi yuz rangi insonning sog‘lig‘i haqida signal beradi. Bu holat ochlik, charchoq yoki ichki kasalliklarni bildirishi mumkin.

-Hozir ko‘klam kunlari: qirlar, tog‘lar, soylar; ***ko‘k-qizil,....***

pushtigo'las *va tag‘in allaqancha ranglik chechaklar bilan ustlarini bejab,...*

Mazkur o’rinda *“ko‘k-qizil”* leksemasining leksik ma’nosi: "ko‘k" – osmon, suv yoki o‘simliklarning yashil va ko‘kimtir ranglari bilan bog‘liq bo‘lib, tabiatning tozaligini va go’zalligini ifodalaydi, "qizil" esa jonlanish va yangilanishni ifodalaydi. Semantik tahlil: ranglarning birikmasi (ko‘k-qizil) bir-biriga qarama-qarshi bo‘lib, ular o‘zaro uyg‘unlik va kontrastni ifodalaydi. Bu birikma rang-baranglikni ta’kidlash uchun ishlatilib, o’quvchi ongida olamning lingvorangli manzarasini tasavvur qilishga hizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu jumlada *“pushtigo‘las”* leksemasining leksik ma’nosi: "Pushti" yumshoqlik, samimiylik va mehr-muhabbatni bildiradi. "Go‘las" (go‘l) so‘zi gullarga nisbatan qo‘llanilib, to‘laligini yoki ochilishini anglatadi. Semantik tahlil: ushbu rang bahorning iliq va rang-barang manzarasini yanada tasvirli qiladi. "Pushtigo‘las" gullarning yorqin va sokin go‘zalligini ifodalaydi.

Aynan shu rang ifodalovchi "pushti" leksemasi A. Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asarida esa noan’anaviy, konnotativ ma’noda qo‘llanilgan.

...Muhammad Sharif dasturxonchi izoh berdi:

– Har kimsa ham ***pushti panohning*** *marhamatlariga loyiq ko‘rila olmaydi [6].*

Pushti leksemasining lug‘aviy ma’nosi : "pushti" rang qizil va oq ranglarning aralashuvidan hosil bo‘lgan yumshoq rangni anglatadi. Bu rang odatda noziklik, mehribonlik, iliqlik va quvonchni ramziy bildiradi. Lekin mazkur kontekstda (ko’chma ma’no) "pushti panoh" iborasi marhamat, himoya, yoki xudojo‘ylik ma’nosini ifodalovchi ramziy birikma sifatida qo‘llangan[7,O’TIL,3,214]. "Pushti" bu erda odatdagi rang ma’nosidan chiqib, ruhiy va ma’naviy ma’noda ishlatilgan. "Pushti panoh" birikmasi Xudoning mehri, iliqligi va najotini anglatib, umidni ifodalovchi vosita sifatida qo‘llanilgan. Pragmatik nuqtai nazardan, ushbu ifoda o‘quvchi ongiga ilohiy himoya va marhamat tushunchalarini yorqinroq tasvirlash uchun lingvorang orqali majoziy ifoda berilgan.

Shu bilan birga, jadid namoyondalaridan emas, balki boshqa davrda XX asrning ikkinchi yarmi va mustaqillikning ilk yillarida ijod qilgan adibimiz G’.G’ulom ham “Tanlangan asarlar”da ham mazkur “pushti panoh” birikmasidan foydalangan.

-Do'stim bor, dushmanim bor, mahalla-ko'y, guzarim bor, qarigan chog'imda kenjaginamning hotini menga ***pushti panoh****, qo'l-oyoq bo'larmikin degan edim[8].*

A. Qodiriyda "pushti panoh" ko‘proq diniy ma’no bilan, ilohiy yordam ramzi sifatida keladi. G‘afur G‘ulomda esa bu ibora diniy konnotatsiyadan xoli bo‘lib, yaqin insonlar mehribonligi, oilaviy qo‘llab-quvvatlash kabi ijtimoiy mazmun kasb

etadi. Ikkala davr ijodkori rang ifodalovchi leksemalarni majoziy va ramziy ma’noda qo‘llagan bo‘lsa-da, ular o‘z davrlarining adabiy talablari va ruhiyatiga ko‘ra turlicha ma’no yuklagan. Bu rang tasvirlarining semantik imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

A.M. Prohorov ta’riflaganidek, leksik-semantik rang tasnifi yuqori darajada tashkillashtirilgan tizimga ega. Rangni ifodalovchi leksik-semantik maydon mohiyatini aniqlash sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar insonda o‘ziga xos bo‘lgan o‘nga yaqin pigment genlarining mavjudligini tasdiqlaydi. Maxsus pigment genlari to‘plami insonga rang va uning tuslarini turlicha idrok etish imkonini beradi. Turli madaniyatlarga mansub odamlarning rangni idrok etish xususiyatlarini kuzatish, turli tizimlar doirasidagi tushuncha va so‘zlar o‘rtasidagi bog‘lanish va o‘zaro ta'sirni aniqladi. Bu esa rangga bo‘lgan munosabatdagi farqlar hamda ayrim madaniyatlarda muayyan rang tusi mavjud emasligi bilan izohlanadi (masalan, AQShda "yashil" xavfsizlikni anglatadi, Fransiyada esa – jinoyatni; xitoyliklarda "oq rang" motam ramzi bo‘lsa, evropaliklarda bu vazifani "qora rang" bajaradi) [9, 252-b].O'zbek madaniyatida esa motam rangi ko'proq qora rang bilan bog'lanadi. Qora rang o'zbek xalqining motam va g'am-tazyiq holatini ifodalovchi rang sifatida ishlatiladi. “O’tgan kunlar”dan misol:

Yusufbek Hoji .... yurtga osh berdi, O‘zbekoyim ***qora kiyib*** *ta’ziya ochdi.*

Mazkur o’rinda rang tus sifati bo’lgan “qora” leksemasi ot so’z turkumiga ko’chib o’tganini korishimiz mumkin. Ushbu gapda konnotativ ma’noda (yashirin ma’no)"qora kiyib" iborasi ta’ziya va qayg‘u ramzi sifatida ishlatilib, bu o'lim yoki og'ir yo'qotishlarni bildiradi. Odatda, motamda qora kiyimlar kiyiladi va O‘zbekoyimning qora kiyim kiyishi ham denotativ (bevosita ma’no), qora rangining ko‘rinishidagi rang xususiyati ma’nosida aks ettirilgan. Yani, bu ma’noda qora kiyim faqat kiyilgan kiyimni ifodalaydi.

Biroq, o‘zbek xalqining ba’zi bir hududlarida, oq rang ham motam bilan bog'lanishi mumkin, ayniqsa, musulmon xalq bo’lganimiz uchun oq rang o’limni qabul qilishdagi poklik, musaffo niyyat, xotiraga so’nggi hurmat va ruhiy tozalikni ifoda etadi. Bu odatlar qadimiy an’analar va diniy qarashlardan kelib chiqadi, shu bilan birga, motamning xushxulq va sadoligi ramzi sifatida ko'riladi. Biroq, umumiy ravishda O'zbekistonda qora rang motamning an'anaviy rangi hisoblib, rangning milliy va diniy kontekstdagi semantik yuklamasini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, maqolada tahlil qilingan ranglar nafaqat qahramonlarning tashqi ko‘rinishi va hissiyotlarini ochib beradi, balki ular orqali madaniyatning tarixiy va ijtimoiy o‘ziga xosliklari ham namoyon bo‘ladi. Abdulla Qodiriyning "O‘tgan kunlar" romanida rang ifodalovchi leksemalar milliy madaniyat va xalq tafakkurini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu ranglar obrazlar dunyosini boyitib, badiiy tasvirning emotsional ta’sirchanligini oshiradi.

Asarda ishlatilgan rang leksemalari leksik-semantik jihatdan boy bo‘lib, ularning semantik tuzilmasi va ma’no qatlamlari o‘zbek xalqining ma’naviy va lingvorangli olamini o‘quvchi ongiga etkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoshg‘ariy, M. "Devonu lug‘otit turk". Toshkent: Fan nashriyoti, 1960. – Tom I, s. 140-142.Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Белов А.И. Цветовые этноэйдемы как объект этнопсихолингвистики. Этнопсихолингвистика. − Москва.: «Наука», 1988. − С. 49-58.
3. Пименова, М.В., Кондратьева, О.Н. (2009). "Введение в концептуальные исследования." Кемерово: КемГу, 160с.
4. Позднякова С. Ю, кандидат педагогических наук, доцент кафедры иностранных языков для технических специальностей № 2, 426-430 с. Москва: Перспективы Науки и Образования.
5. Qodiriy, A. O‘tgan kunlar. Toshkent: Maorif nashriyoti, 1926. 415 b.
6. Qodiriy, A. Mehrobdan chayon. Toshkent: Maorif nashriyoti, 1928.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. 688 b.
8. G‘ulom, G‘. Tanlangan asarlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976.
9. Прохорова А.М. Цветовая символика в английских и русских устойчивых словосочетаниях // Перспективы Науки и Образования. – 2014. – № 1. – С. 252-255

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINI TADQIQ ETISHDA JADIDLAR G‘OYALARIGINING O‘RNI

YENİ ÖZBEKİSTAN KOŞULLARINDA CİNSİYET EŞİTLİĞİ SORUNUNUN ARAŞTIRILMASINDA JADİD FİKİRLERİNİN ROLÜ

THE ROLE OF JADID IDEAS IN THE RESEARCH OF THE PROBLEM OF GENDER EQUALITY IN THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN

РОЛЬ ИДЕЙ ДЖАДИДОВ В ИССЛЕДОВАНИИ ПРОБЛЕМЫ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

G‘anieva Malikaxon Sodiqjonovna
FarDU tadqiqotchisi
e-mail: malika.ganiev85_fsu@mail.ru, tel.: +998939836232

Annotasiya: Mazkur tadqiqot ishi yangilanayotga O‘zbekiston sharoitida gender tengligi asoslarini shakllantirishda jadid g‘oyalarining roliga bag‘ishlangan. Ularning jamiyatni modernizatsiya qilishga ta‘siri va zamonaviy sharoitda ushbu qarashlarning dolzarbligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, jadidlar, modernizatsiya, ijtimoiy falsafa, ta‘lim, ayollar huquqlari, islohotlar, madaniy rivojlanish, ilg‘or g‘oyalar.

Açıklama: Bu araştırma çalışması, Özbekistan koşullarında cinsiyet eşitliğinin temellerinin oluşturulmasında jadid fikirlerinin rolüne ayrılmıştır. Toplumun modernleşmesi üzerindeki etkileri ve bu görüşlerin modern koşullardaki önemi analiz edilir.

Anahtar Kelimeler: cinsiyet eşitliği, jadidler, modernleşme, sosyal felsefe, eğitim, kadın hakları, reform, kültürel gelişim, ilerici fikirler.

Annotation: this research work is devoted to the role of jadid ideas in the formation of the foundations of gender equality in the conditions of Uzbekistan. Their impact on the modernization of society and the relevance of these views in modern conditions are analyzed.

Keywords: gender equality, jadids, modernization, social philosophy, education, women‘s rights, reform, cultural development, progressive ideas.

Аннотация: данная исследовательская работа посвящена роли идей джадидов в формировании основ гендерного равенства в условиях Узбекистана. Анализируется их влияние на модернизацию общества и актуальность этих взглядов в современных условиях.

Ключевые слова: гендерное равенство, джадиды, модернизация, социальная философия, образование, права женщин, реформы, культурное развитие, прогрессивные идеи.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan ushbu mavzusini o‘rganish katta ahamiyatga ega, chunki:

- Jadid g‘oyalari ijtimoiy modernizatsiyaning asosi sifatida talqin qilinishi. Jadidlar ta‘lim va ayollar huquqlari zarurligini ta‘kidlab, gender tengligini tushunish uchun asos yaratdilar. Jamiyatning progressiv rivojlanishiga qaratilgan ularning islohot falsafasi teng huquqlilikning zamonaviy qadriyatlariga mos keladi.

- Tarixiy va madaniy konteksti sifatida. Jadidizm an‘anaviy va modernistik yondashuvlarning noyob aralashmasi bo‘lib, ijtimoiy o‘zgarishlar ildizlarini, shu jumladan ayollarning jamiyatdagi roliga bo‘lgan munosabatdagi o‘zgarishlarni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Bu ularning g‘oyalarini yangi O‘zbekiston sharoitida gender masalalarini tahlil qilish uchun muhim manbaga aylantiradi.

- Global tendentsiyalar bilan bog‘liqligi. Jadid g‘oyalarini o‘rganish mahalliy tarixiy misollarni gender tengligini universal qiymat sifatida targ‘ib qilishga qaratilgan global jarayonlar bilan bog‘lash orqali ijtimoiy-falsafiy nutqni kengaytiradi.

Ta‘lim dasturlarini ishlab chiqishda, Jadid g‘oyalarini tahlil qilish ta‘lim tizimlariga jinsga sezgir yondashuvlarni kiritish uchun asos bo‘lishi mumkin. Bu bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatga asoslangan teng huquqli jamiyatni tarbiyalashga yordam beradi.

Ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, Jadid g‘oyalari ayollarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan madaniy jihatdan sezgir va inklyuziv dasturlarni yaratish uchun moslashtirilishi mumkin.

Gender siyosatini shakllantirish, tadqiqot natijalaridan yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida tenglikni targ‘ib qilish va gender stereotiplarini bartaraf

etishga qaratilgan davlat va jamoat strategiyalarini shakllantirish uchun foydalanish mumkin.

Jadid tajribasini qo‘llash global gender tengligi tashabbuslarida foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan mahalliy muammolar uchun noyob echimlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Mavzuni o‘rganish jadid g‘oyalarining zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun tarixiy va falsafiy asos sifatida ahamiyatini ta‘kidlaydi. Ularning tenglik va ma‘rifatga qaratilgan islohot faoliyati yangi O‘zbekistonda gender tengligini ta‘minlash strategiyasini ishlab chiqishning kalitidir.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev bir necha bor gender tengligi muhimligini ta‘kidlab, jadid g‘oyalarining mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy strategiyasi bilan uyg‘unligini ta‘kidladi. Gender siyosati haqida 2020 yilda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zga chiqqan prezident: *“Gender siyosati biz uchun ustuvor masalaga aylandi. Ayollarning davlat boshqaruvidagi roli tobora ortib bormoqda. Yangi parlamentda ayol deputatlar soni ikki baravar ko‘paydi”* [1.] 2021 yilda BMT inson huquqlari bo‘yicha Kengashining yalpi majlisida Shavkat Mirziyoyev: *“Gender siyosati masalalarida biz ayollarning mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va biznes hayotidagi rolini tubdan oshirish niyatidamiz,”* [2.] - fikr yuritgan edi.

Jadid g‘oyalarining yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan uyg‘unligi haqida: 2023 yil dekabr oyida respublika ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi majlisida prezidentimiz quydagilarni e’tirof etgan: *“Jadid g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har jihatdan uyg‘undir”* [3.]. Shuningdek, u jadidlar singari milliy qadriyatlarni zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan birlashtirgan kadrlar tayyorlash zarurligini ta‘kidladi: “Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, bizning xalqimiz jadid ajdodlarimiz ko‘rsatgan yo‘ldan adashmasdan borishi kerak” [3.]. Ushbu fikr-mulohazalar O‘zbekiston hukumatining jadidlarning gender tengligini targ‘ib qilish va yangi O‘zbekiston sharoitida jamiyatni modernizatsiya qilish borasidagi ilg‘or g‘oyalariga tayanish istagini aks ettiradi.

Tenglikning universal tamoyillari: Jadidlarning ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi o‘rni haqidagi g‘oyalari Birlashgan millatlar tashkilotining barqaror rivojlanishi (SDG), xususan SDG 5 (gender tengligi) va SDG 4 (sifatli ta‘lim) uchun mustahkamlangan zamonaviy global qadriyatlarni oldindan belgilab berdi. Ularning falsafasi ayollar va erkaklarning bilim va imkoniyatlardan teng foydalanish muhimligini ta‘kidlaydi, bu ularning merosini universal qiladi.

Ijtimoiy transformatsiya namunasi: Jadidlar an‘anaviy qadriyatlarni modernizatsiya bilan birlashtirgan modellarni, shu jumladan ayollar ta‘limi sohasida ham taklif qila oldilar. Bu madaniy merosni zamonaviy tenglik tamoyillari bilan

uyg‘unlashtirishga intilayotgan boshqa mamlakatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Gender tengligini targ‘ib qilishda ma‘rifatning roli: ularning yondashuvlari shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim tenglikka erishishning kalitidir, bu global miqyosda dolzarb bo‘lib qolmoqda, ayniqsa gender muammolari hali to‘liq hal qilinmagan hududlarda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida gender tengligi masalasining dolzarbligi davlat islohotlarini qo‘llab-quvvatlash. Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekistonni modernizatsiya qilish sharoitida jadid g‘oyalari xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish va ularni ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotga jalb etishga qaratilgan islohotlar uchun asos bo‘lmoqda.

Ayollarning rolini kuchaytirish: yangi O‘zbekistonda gender tengligi siyosati faol rivojlanmoqda. Jadid g‘oyalari tenglikning tarixiy ildizlarini tushunishga yordam beradi, bu esa ayollarni rivojlanish jarayonlariga kiritish zarurligi haqidagi milliy tushunchani mustahkamlaydi.

Etnik-madaniy xilma-xillik: Turkiston jadidlari mahalliy madaniyat doirasida gender tengligi muhimligini ta‘kidladilar. Bu ko‘p millatli O‘zbekistonning madaniy va ijtimoiy xususiyatlariga sezgir zamonaviy dasturlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Ta‘limning roli: Jadidlar tenglikka erishish vositasi sifatida ayollar uchun ta‘limning asosiy rolini ta‘kidladilar. Bu O‘zbekiston ta‘lim tizimida ayollarning bilim va kasblardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar sharoitida dolzarbdir.

Mavzuni o‘rganish jadidlarning ayollar huquqlari haqidagi tarixiy g‘oyalari gender tengligini targ‘ib qilish bo‘yicha zamonaviy sa‘y-harakatlarni qanday aks ettirishini ko‘rsatadi. Ushbu g‘oyalar erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik nafaqat axloqiy tamoyil, balki yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasiga aylanib borayotgan adolatli jamiyatni barpo etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiq qilinayotgan mavzuni chuqur o‘rganish uchun quyidagi ilmiy manbalar bilan tanishish tavsiya etiladi:

Suguraliyeva F.U. “Jadid g‘oyalarida gender tengligi masalalari va zamonaviylik” [4. 28-31.]. Journal of New Century Innovations, 2024, 62-jild, № 1. Ilmiy maqolada jadid g‘oyalarining gender tengligini shakllantirishga ta‘siri va ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Jo‘rayeva N.D. “Turkiston jadidlarining qarashlarida ayolga munosabat” [5. 32-35.]. Akademiya Jurnali, 2017. Tadqiqot jadidlarning ayollarning jamiyatdagi roli haqidagi qarashlarini va ularning ayollar ta‘limini rivojlantirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Tojiboyeva G.R., Bekirova E.R. “Zamonaviy jamiyatda gender tengligini aktuallashtirish” [6. 389-396.]. 2024. Ushbu maqolada O‘zbekistonning gender tengligiga bo‘lgan siyosiy sadoqati va bu jarayonda jadidlarning o‘rni muhokama qilinadi.

Chebukchieva L.Z. “Jadidizm mafkurasidagi ayol masalasi”. [7. 44-51.], 2024. Maqolada jadidlarning ayollar masalasiga bo‘lgan qarashlari va ularning ayollar ta‘limini isloh qilish borasidagi sa‘y-harakatlari ko‘rib chiqiladi.

Gafurov N.U. “XIX asr oxiri-XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda Jadidizm”. Tarix fanlari doktori dissertatsiyasining referatida [8. 46.] 2014, jadidlarning madaniy-ma‘rifiy faoliyati va ularning ta‘lim va gender tengligini rivojlantirishga qo‘shgan hissalariga bag‘ishlangan.

Mirziyoyev Sh.M. “Jadid ayollarning jamiyat rivojlanishidagi roli”. O‘zA-O‘zbekiston Milliy axborot agentligi [9.], 2023. Manbada O‘zbekistondagi zamonaviy islohotlar kontekstida jadid ayollar merosining ahamiyati ta‘kidlangan. Ushbu manbalar jadidlarning gender tengligini targ‘ib qilishdagi roli va ularning O‘zbekistondagi zamonaviy islohotlarga ta‘sirini har tomonlama tahlil qiladi.

Olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarimiz natijasida, quydagi qisqa xulosalarni taqdim etamiz:

birinchidan, jadidlarning tarixiy merosi gender tengligi uchun asos sifatida, Turkiston jadidlari ta‘lim va ayollarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki jamiyatni modernizatsiya qilishning asosiy omillari sifatida muhimligini ta‘kidladilar. Ularning g‘oyalari yangi O‘zbekistonda gender siyosatini rivojlantirish uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda;

ikkinchidan, an‘analar va modernizatsiyani uyg‘unlashtirishda, jadidlar an‘anaviy qadriyatlarni progressiv yondashuvlar bilan birlashtirishni taklif qilishdi, bu esa jamiyatning madaniy xususiyatlarini hisobga oladigan zamonaviy strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi;

uchinchidan, tenglikni targ‘ib qilishda ta‘limning rolida, jadidlar tomonidan ijtimoiy tenglik vositasi sifatida qaraldi. Ushbu yondashuv O‘zbekistonning ayollar uchun ta‘lim imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan zamonaviy sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi;

to‘rtinchidan, ijtimoiy islohotlarga ta‘siri sifatida, jadidlarning tenglik haqidagi g‘oyalari yangi O‘zbekistonni modernizatsiya qilish sharoitida gender-tengligi sohasidagi islohotlarni shakllantirish uchun falsafiy asos yaratadi.

Shuningdek, quydagi amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish. Tenglik va modernizatsiya g‘oyalarini ommalashtirish uchun ta‘lim muassasalarining o‘quv rejalariga jadid merosiga bag‘ishlangan kurslarni joriy etish.

2. Jinsga sezgir loyihalarni yaratish. Jadid merosidan uslubiy asos sifatida foydalangan holda ayollarning ta‘lim, kasbiy faoliyat va etakchilik mavqeidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqish.

3. Gender tadqiqotlarini qo‘llab-quvvatlash. Jadidlarning tarixiy tajribalarini tahlil qiladigan tadqiqotlarni targ‘ib qilish, ularning g‘oyalarini zamonaviy sharoitlarga moslashtirish.

4. Ijtimoiy ma‘rifat. Jadid g‘oyalarida aks etgan madaniy qadriyatlar va urf-odatlarga asoslanib, gender tengligini targ‘ib qilishga qaratilgan ommaviy kampaniyalarni tashkil etish.

5. Xalqaro hamkorlik. Jadid g‘oyalarini an‘analarni zamonaviy muammolarga moslashtirishning muvaffaqiyatli namunasi sifatida taqdim etish orqali gender tengligi bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan tajriba almashish.

6. Davlat islohotlariga integratsiya. Jadid yondashuvlaridan O‘zbekistonda gender tengligi bo‘yicha milliy strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish uchun falsafiy va tarixiy asos sifatida foydalanish.

Ushbu taklif va tavsiyalar jadidlarning tarixiy merosini saqlab qolishga, uni yangi O‘zbekiston sharoitida dolzarblashtirishga va adolatli va teng huquqli jamiyat barpo etish borasidagi sa‘y-harakatlarni ilgari surishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://kun.uz/ru/41119706?utm_source=chatgpt.com
2. https://yuz.uz/ru/news/gendernaya-politika--odin-iz-glavnx-prioritetov-deyatelnosti-uzbekistana-v-sovete-oon-po-pravam-cheloveka?utm_source =chatgpt.com
3. https://daryo.uz/ru/2023/12/22/savkat-mirzieev-idea-dzadidov-vo-vseh-otnoseniah-garmonicna-so-strategiej-novogo-uzbekistana?utm_source =chatgpt.com
4. Сугуралиева Ф.У. Вопросы гендерного равенства в идеях джадидов и современность. // *Journal of New Century Innovations*, 2024. - *62*(1), - С. 28-31.
5. Джураева Нилуфар Далибаевна Отношение к женщине в воззрениях джадидов Туркестана // Academy. 2017. №10 (25). - С. 32-35.
6. Гульмира Рифовна Тожибоева, Эльвина Реветовна Бекирова АКТУАЛИЗАТSIЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ // Academic research in educational sciences. 2020. № 4. - С. 389-396.
7. Чубукчиева Ленара Закировна Женский вопрос в идеологии джадидизма // Гасырлар авазы - Эхо веков. 2014. № 1-2. - С. 44-51.
8. Гафаров Нуманджон Усманжонович АВТОРЕФЕРАТ диссертатsии на соискание ученой степени доктора исторических наук на тему: Джадидизм в Средней Азии в конце XIX - начале XX вв. - Дунанбе: 2013. - С. 46.

9. https://uza.uz/ru/posts/rol-zhenschin-dzhadidov-v-razvitii-obschestva_ 564721 ?utm_source=chatgpt.com

TURKISTO JADIDLARI GOYALARIDA TA’LIM INKLYUZIVLIGI HAQIDAGI IJTIMOIY-FALSAFIY DISKURS

TÜRKİSTO CEDİDLERİN FİKİRLERİNDE EĞİTİMSEL KAPSAYICILIK ÜZERINE SOSYO-FELSEFİ SÖYLEM

SOCIO-PHILOSOPHICAL DISCOURSE ON EDUCATIONAL INCLUSIVENESS IN THE IDEAS OF THE TURKISTO JADIDS

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ ДИСКУРС ОБ ИНКЛЮЗИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ В ИДЕЯХ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ

Karimov Xayotjon Abdulbokiyevich
FarDU mustaqil izlanuvchisi
e-mail: mr.ganiev76_fsu@inbox.ru, tel.: +998882085525

Annotasiya. Tadqiqot Turkiston jadidlarining ta’lim inklyuzivligi haqidagi g‘oyalarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ularning ta’limning mavjudligi, imkoniyatlarning tengligi va ma’rifatning madaniy va ijtimoiy rivojlanishdagi o‘rni haqidagi qarashlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuzivlik, ta’lim, jadidlar, ijtimoiy falsafa, mavjudlik, tenglik, madaniy rivojlanish, ma’rifat, islohot, an’analar.

Açıklama. Çalışma, Türkistan cedidlerinin eğitimsel kapsayıcılık hakkındaki fikirlerinin sosyo-felsefi analizine ayrılmıştır. Eğitimin varlığı, fırsat eşitliği ve aydınlanmanın kültürel ve sosyal gelişimdeki rolü hakkındaki görüşleri incelenir.

Anahtar Kelimeler: kapsayıcılık, eğitim, jadidler, sosyal felsefe, varoluş, eşitlik, kültürel gelişim, aydınlanma, reform, gelenekler.

Annotation. The study is devoted to the socio-philosophical analysis of the ideas of the Turkestan jadids about educational inclusiveness. Their views on the existence of education, equality of opportunity and the role of enlightenment in cultural and social development are examined.

Keywords: inclusivity, education, jadids, social philosophy, existence, equality, cultural development, enlightenment, reform, traditions.

Аннотация. Исследование посвящено социально-философскому анализу идей туркестанских джадидов об инклюзивности образования. Рассматриваются их взгляды на существование образования, равенство возможностей и роль просвещения в культурном и социальном развитии.

Ключевые слова: инклюзивность, образование, джадиды, социальная философия, существование, равенство, культурное развитие, просвещение, реформа, традиции.

Ijtimoiy-falsafa nuqtai nazaridan mazkur mavzuni o‘rganish ko‘p millatli jamiyatlarda teng huquqli va arzon ta’limni shakllantirish bilan bog‘liq asosiy g‘oyalarni ochib berish uchun muhimdir. Jadidlarning an’anaviy ta’limni isloh qilishga qaratilgan qarashlari shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo‘shadigan yangi bilimlar va ijtimoiy yondashuvlarni birlashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Tadqiqot jadidizm merosini zamonaviy inklyuziya muammolari nuqtai nazaridan

qayta ko‘rib chiqishga yordam beradi, ularning g‘oyalarining ko‘p qirraliligi va dolzarbligini namoyish etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati etnik-madaniy xilma-xillik va ijtimoiy adolatni hisobga olgan holda ta’lim modellarini ishlab chiqish uchun jadid xulosalari va yondashuvlaridan foydalanish imkoniyatidir. Ularning falsafasini tahlil qilish inklyuzivlikka yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim tizimlari uchun uslubiy asoslarni shakllantirishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, ta’limning madaniy va ijtimoiy farqlarini hisobga olish zarur bo‘lgan ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali aholi tarkibiga ega bo‘lgan hududlar uchun to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, tadqiqot tarixiy tajribani chuqur tushunishga va uning sifatli ta’limdan teng foydalanish bilan bog‘liq zamonaviy qiyinchiliklarga moslashishiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda inklyuziv ta’lim va Turkiston jadidlarining merosi muhimligini bir necha bor ta’kidlagan. Jumladan, inklyuziv ta’limning ahamiyati to‘g‘risida: 2024 yil dekabr oyida ijtimoiy siyosat bo‘yicha yig‘ilishda prezident nogiron bolalarni oddiy maktablarda o‘qitish uchun sharoit yaratish zarurligini ta’kidladi: *“Biz nogiron bolalarni oddiy maktabga moslashtirishimiz kerak”* [1.]. Shuningdek, davlatimiz rahbari har bir tumanda inklyuziv ta’lim guruhlarini tuzishni va yangi o‘quv yilidan boshlab 954 ta maktabda inklyuziv ta’lim berishni buyurdi [2.].

Turkiston jadidlarining merosi haqida: 2023 yil mart oyida jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada Shavkat Mirziyoyev: *“Jadidlar o‘z davrining ilg‘or vakillari bo‘lib, juda qiyin sharoitlarda bilim va ma’rifatni tarqatish, ta’lim va tarbiya sohasini tubdan isloh qilish orqali milliy rivojlanish g‘oyasini ilgari surdilar,”* [3.] - deb otganlar. Prezidentimiz jadidlarning g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyasiga mos kelishini ta’kidladi: “Yangi O‘zbekistonda adolatli, erkin va farovon jamiyat barpo etish borasidagi bugungi islohotlarimiz... jadidlarning ezgu g‘oyalari va dasturlariga to‘liq mos keladi” [4.] Ushbu bayonotlar O‘zbekiston rahbariyatining inklyuziv ta’lim muhitini yaratish va ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida jadidlarning ilg‘or g‘oyalariga tayanish istagini aks ettiradi.

Tadqiqotimiz mavzusini o‘rganish jamiyatning globallashuvi va sotsializatsiyasi kontekstida alohida ahamiyatga ega.

Globallashuv va inklyuziv ta’lim. Globallashuv jamiyatning barcha qatlamlari uchun tenglik va ta’lim olish imkoniyatini targ‘ib qiladi. Inklyuziv ta’lim xalqaro ta’lim tizimlarida ustuvor vazifaga aylanib, ijtimoiy, madaniy yoki jismoniy farqlardan qat’i nazar, sifatli ta’limdan teng foydalanish imkonini beradi. Globallashuv sharoitida inklyuziv ta’lim tez o‘zgaruvchan dunyoga moslashish vositasi va shaxslarni xilma-xil va o‘zaro bog‘liq jamiyatda hayotga tayyorlash usuli sifatida qaraladi [5. 73-83.].

Ijtimoiylashuv va ta’limning roli. Ta’lim sotsializatsiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi, shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuviga va ularda ijtimoiy ko‘nikma va qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Inklyuziv ta’lim, xususan, turli xil imkoniyatlarga ega bo‘lgan bolalarni birgalikda o‘qitish uchun sharoit yaratadi, bu esa o‘quvchilar o‘rtasida bag‘rikenglik, hamdardlik va tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi va yanada adolatli va uyg‘un jamiyatni yaratishga yordam beradi [6. 5-18.].

Turkiston jadidlarining g‘oyalari. XIX asr oxiri XX asr boshidagi Turkiston jadidlari zamonaviy bilim va o‘qitish usullarini birlashtirishga intilib, an’anaviy ta’lim tizimini isloh qilishni qo‘llab-quvvatladilar. Ular hayotning barcha qatlamlari, shu jumladan ayollar uchun ta’lim olish imkoniyati muhimligini ta’kidladilar va shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishga intildilar. Ularning faoliyati mintaqada taraqqiyot va modernizatsiya g‘oyalarining tarqalishiga yordam berdi, bu globallashuv sharoitida jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuvning dastlabki namunasi sifatida qaralishi mumkin [7.].

Tadqiqotimizning ilmiy, nazariy va uslubiy ahamiyati Turkiston jadidlari g‘oyalarida inklyuziv ta’limning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o‘rganishdan iborat. Mintaqada inklyuziv ta’lim kontseptsiyasining tarixiy asoslarini va rivojlanishini tushuning. Globallashuv jarayonlarining ta’lim tizimlarining o‘zgarishiga ta’sirini baholang. Jamiyatning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olgan holda inklyuziv amaliyotlarni joriy etishga uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish. Shunday qilib, ushbu mavzuni o‘rganish globallashuv, sotsializatsiya va inklyuziv ta’limni rivojlantirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq tushunishga yordam beradi va tarixiy tajribani zamonaviy ta’lim va ijtimoiy voqelikka moslashtirishga imkon beradi.

Tadqiqotning bugungi global va zamonaviy dolzarbligi sifatida bizning nuqtai nazarimizda o‘rganishda quyidagi jihatlarga asoslangan holda muhim ahamiyat kasb etishini quydagicha izohlaganmiz:

1. Global dolzarblikka inklyuziv ta’lim universal qiymat sifatida: Globallashuv davrida ta’lim inklyuziyasi YUNESKO va BMT kabi xalqaro tashkilotlarning asosiy maqsadlaridan biriga aylandi. Jadid g‘oyalarini shu nuqtai nazardan o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ta’limning tengligi va mavjudligi tamoyillari Markaziy Osiyoni modernizatsiya qilish falsafasida chuqur ildiz otgan. *Ijtimoiy adolat va integratsiya*: Jadidlar jamiyatning barcha qatlamlari, shu jumladan ayollar va ijtimoiy zaif guruhlar uchun mavjud bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatladilar. Bu ta’limdagi kamsitishlarni bartaraf etish bo‘yicha zamonaviy global vazifalarni aks ettiradi. Ularning g‘oyalari ta’lim orqali jamiyatning barqaror rivojlanish kontseptsiyasiga dastlabki hissa sifatida qaralishi mumkin. *Madaniyatlar muloqoti*: Jadidizm an’anaviy Islom qadriyatlarini modernizatsiya jarayonlariga

moslashtirishning noyob namunasini taqdim etadi. Bu turli madaniy va ta’lim modellarining uyg‘un birga yashashi haqidagi global nutq uchun to‘g‘ri keladi.

2. Zamonaviy dolzarblik O‘zbekistondagi islohotlar: Jadid g‘oyalari bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarida o‘z aksini topmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev jadid merosining adolatli jamiyat barpo etishdagi ahamiyatini bir necha bor ta’kidlagan. Ularning ta’limdagi tenglikka bo‘lgan yondashuvlari inklyuziv amaliyotlarni amalga oshirish bilan bog‘liq zamonaviy qiyinchiliklarga mos keladi. *Etnik-madaniy xilma-xillik*: Markaziy Osiyoning ko‘p millatli jamiyatlari sharoitida ta’limning inklyuzivligi g‘oyasi ijtimoiy birlikni mustahkamlash uchun muhim bo‘lib qolmoqda. Jadidlar turli xil ijtimoiy guruhlarning madaniy xilma-xilligi va ehtiyojlarini hisobga olishga imkon beradigan modellarni taklif qilishdi. *Ta’lim siyosatiga ta’siri*: zamonaviy ta’lim tizimlari, ayniqsa tarixiy jihatdan murakkab ijtimoiy tuzilishga ega bo‘lgan mintaqalarda, mavjud, ochiq va madaniy jihatdan sezgir ta’limni shakllantirishga jadidlarning uslubiy yondashuvlarini o‘zlashtirishi mumkin. Shunday qilib, Turkiston jadidlarining ta’limning inklyuzivligi haqidagi g‘oyalarini o‘rganish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nutqni boyitadi. U inklyuzivlik kontseptsiyasining universalligini, uning ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish uchun ahamiyatini ta’kidlaydi. Jadid merosi shuni ko‘rsatadiki, hatto tarixiy qiyin sharoitlarda ham bugungi kunda global miqyosda dolzarb bo‘lib qoladigan ilg‘or g‘oyalarni yaratish mumkin.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar yuzasidan quydagi qisqacha xulosalarni keltirib o‘tamiz:

Jadidlarning ta’limning tengligi va mavjudligi haqidagi g‘oyalari. Turkiston jadidlari jinsi, ijtimoiy mavqei va millatidan qat’i nazar, ta’limning universal huquq sifatida muhimligini ta’kidladilar. Ularning islohotchi qarashlari ta’lim kamsitishlarini bartaraf etish va modernizatsiya qilingan o‘qitish usullarini joriy etishni nazarda tutgan.

Inklyuziya sotsializatsiya vositasi sifatida. Jadidlar ta’limni jamiyatni umumiy bilim va qadriyatlar asosida birlashtira oladigan, shu bilan birga etnik-madaniy xilma-xillikni saqlaydigan sotsializatsiya vositasi deb hisoblashgan.

Jadid g‘oyalarining zamonaviy dolzarbligi. Ularning ta’lim inklyuziyasiga bo‘lgan yondashuvlari ta’limga teng kirishni ta’minlash va ijtimoiy izolyatsiyani bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy global ta’lim siyosatining maqsadlariga mos keladi.

Tarixiy va falsafiy ahamiyati. Jadid g‘oyalari an’anaviy jamiyatlar globallashuv va raqamli transformatsiyaning zamonaviy sharoitida qo‘llaniladigan progressiv tushunchalarni ishlab chiqishga qodirligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari quydagi amaliy tavsiyalarni ham keltiramiz:

Jadid g‘oyalarini ta’lim dasturlariga birlashtirish. Madaniy meros va inklyuziv qadriyatlarga hurmatni tarbiyalash uchun ta’lim muassasalarida jadidizm falsafasini o‘rganish kurslarini ishlab chiqish va joriy etish.

Inklyuziv ta’lim modellarini yaratish. Jadidlar tajribasiga asoslanib, etnik-madaniy xilma-xillik va alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini ishlab chiqish.

Uslubiy moslashuv. Zamonaviy inklyuziv ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish uchun an’anaviy qadriyatlar va innovatsion ta’lim usullarini moslashtirishda jadid yondashuvlarini qo‘llash.

Xalqaro hamkorlik. Inklyuziv ta’lim sohasida mamlakatlar o‘rtasida tajriba almashish va ularning g‘oyalarini global miqyosda targ‘ib qilish uchun jadid merosiga bag‘ishlangan forumlar va konferentsiyalar tashkil etish.

Ta’lim loyihalarini yaratish. Jadidlarning ta’lim tafakkurini rivojlantirishga ta’siri to‘g‘risida tadqiqotlar, monografiyalar va videofilmlarni nashr etish, ularning adolatli va arzon ta’limni shakllantirishga qo‘shgan hissalarini ta’kidlash. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat jadidlarning tarixiy merosini saqlab qolishga, balki ularning g‘oyalarini globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’limning zamonaviy muammolariga moslashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.gazeta.uz/ru/2024/12/14/social-care/?utm_source=chatgpt. com
2. https://uz.kursiv.media/2024-12-13/inklyuzivnoe-obuchenie-vvedut-v-954-shkolah-uzbekistana/?utm_source=chatgpt.com
3. https://kun.uz/ru/81491296?utm_source=chatgpt.com
4. https://nuz.uz/2024/03/03/vozrozhdenie-dobryh-tradiczij-dzhadidizma-v-novom-uzbekistane-chast-2/#utm_source=chatgpt.com
5. Феталиева Л.П. Инклюзивное образование в условиях глобализatsii. // Вестник СПИ. 2018. №4 (28). - С. 73-83. / URL: https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuzivnoe-obrazovanie-v-usloviyah-globalizatsii (дата обращения: 15.01.2025).
6. Шевелева Д.Е. Социализация детей с ограниченными возможностями здоровья через инклюзивное образование: проблемы и социальные возможности массовой школы // КПО. 2024. №1 (37). - С. 5-18. / URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sotsializatsiya-detey-s-ogranichennymi-vozmozhnostyami-zdorovya-cherez-inklyuzivnoe-obrazovanie-problemy-i-sotsialnye-vozmozhnosti (дата обращения: 15.01.2025).
7. Атаева Д.П. Национальные особенности движения джадидов в Туркестане // Молодой ученый. - 2016. - № 8 (112). - С. 799-801. / URL: https://moluch.ru/archive/112/28778/ (дата обращения: 15.01.2025).

TURKISTON JADID NAMOYONLARI QARASHLARINING YANGI O`ZBEKISTON STRATEGIYASI BILAN HAMOHANGLIGI

Mamadjonova Marvarid Qurbanazarovna
Toshkent davlat pedagogika universiteti f.f.d. (PhD), dotsent v.b
sinergiya2020@list.ru, +998998430539

Annotatsiya: Maqolada bugungi inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning jadid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangligi tog`risida mulohazalar bayon etiladi. Turkiston jadid namoyondlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy faoliyatlarini tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье изложены наблюдения о гармонии и согласованности проводимых в Новом Узбекистане реформ, направленных на построение справедливого, свободного и процветающего общества, государства, ориентированного на человека, и благополучную жизнь, с благородными идеями и программами наших предков. Анализируется общественно-политическая, культурная и духовная деятельность представителей Нового Туркестана.

Annotation: The article presents observations on the harmony and consistency of the reforms carried out in New Uzbekistan, aimed at building a fair, free and prosperous society, a state focused on people and a prosperous life, with the noble ideas and programs of our ancestors. The socio-political, cultural and spiritual activities of the representatives of New Turkestan are analyzed.

Kalit so`zlar: jadid, jadidchilik, axloq, axloq tarbiyasi, xulq, yaxshi xulq, yomon xulq, fikr tarbiyasi, ilm, qanoat, sabr, badan tarbiyasi, vijdon, intizom

Ключевые слова: джадид, джадидизм, мораль, нравственное воспитание, поведение, хорошее поведение, плохое поведение, интеллектуальное воспитание, знания, удовлетворенность, терпение, физическое воспитание, совесть, дисциплина

Key words: jadid, jadidism, morality, moral education, behavior, good behavior, bad behavior, intellectual education, knowledge, contentment, patience, physical education, conscience, discipline

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida mamlakatimiz boy ijtimoiy- falsafiy, axloqiy, madaniy taraqqiyotida o‘zining nihoyatda sermazmun, g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi - milliy - taraqqiyparvar ziyolilarilarning islohotchilik harakati - jadidchilik vujudga keldi. Jadidlar merosi va ularning ta’lim-tarbiya sohasidagi sa’y-harakatlari shundan dalolat beradiki, ular bundan bir asr oldin bugungi kunda global ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab muammolarni idrok eta olishgan

“Jadid” so`zi arabcha yangi usul[95] degan ma`noni anglatadi. Jadidlar o`z davrida xalqni ma`rifatli qilish, g`oyaviy - siyosiy jihatdan etuk, kelajakni oldindan ko`radigan yoshlarni tarbiyalash, ularning bilim saviyasini ko`tarish, fikr doirasini o`stirishni millat kelajagi uchun asosiy masalalardan biri deb tushundilar va ana shu olijanob niyatlarini amalga oshirish uchun tinmay harakat qildilar.

[95] Qosimov B.Yusupov Sh. Dolimov D. Rizayev Sh. Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti.-T.: “Ma’naviyat”, 2004 yil, 5-bet.

Xalqimizning ma’rifatparvar farzandlari Madmudxo‘j Behbudiy, Munavvar Qoriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriylar o`z davrining yangi ilg‘or insonlari sanalgan.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir[96]. Ushbu hamohanglik jadid allomalar faoliyati, adabiy merosi va axloqiy qarashlarida aks ettirilgan. Jumladan, jadidchilik harakatining etakchi rahnamolaridan biri Madmudxo‘ja Behbudiyning bizgacha etib kelgan ilmiy merosi orasida 1911 yilda yozilgan “Padarkush ” asari o`izga xos ahamiyat kasb etadi. Asarda muallif axloqsizlik, ma`rifatsizlik millatning har bir a`zosi hayotiga ayanchli kunlarni olib kelishi mumkinligi, bilimsizlik, nodonlik, jaholat kabi illatlar ota va bola hayotining fojeali yakun topishiga sabab bo`lganligi hayotiy ibrat sifatida taqdim etiladi.

Behbudiyning maorif masalasidan tortib, mustaqillik mavzusigacha bo`lgan barcha asarlari Turkiston taqdirini belgilaydigan muhim muammolarga bag`ishlangan. Uning barcha fikrlarini jamiyat va mamlakatni rivojlantirishning izchil nazariy konsepsiyasi sifatida ko`rish mumkin.

Mahmudho`ja Behbudiy faoliyati va unga bo`gliq dunyoqarashida quyidagi uch qoidani olg`a surdi. 1) zamanon talablaridan kelib chiqib ish ko`rish; 2) millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni etishtirish; 3) milliy biqiqlikdan kelib chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet davlatlar bilan siyosiy, iqtisoiy, madabiy- ma`naviy munosabatlar va muloqotlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish. Asrimiz boshlarida ilgari surilgan bu qarash hozirgi davrga hamohangdir. Bu esa Behbudiyning naqadar uzoqni ko`ra bilganidan dalolat beradi

Atoqli jadid namoyondalaridan biri Abdulla Avloniyning XX asr boshlarida mashhur bo`lgan ham nazariy, hamamaliy axloq masalalariga muammolarini falsafiy yondoshuv orqali hal etishga bag`ishlangan “Turkiy Guliston yohud axloq” (1913) asari axloqiy muammolar masalasiga jadidchilik nuqtai nazaridan yondashilishi, ko`pchilikka tushunarli tilda yozilganligii bilan ajralib turadi.

Mamlakatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev “Yangi O`zbekiston strategiyasi” kitoblarida ushbu asarni quyidagicha e`tirof etib, “Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” asari sharqona tarbiyaning noyob qo`llanmasi sifatida bugungi kunda ham o`zining qadri va ahamiyatini yo`qotgan emas. Biz “Tarbiya” fanining nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishda mana shunday bebeho asarlardan samarali

[96] Sh.M.Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. 11.12.2023. https://president.uz/uz/lists/view/6919

foydalanishimiz zarur”[97] deya ta`kidlaydilar. O`z davrida maktablarning yuqori sinflari uchun darslik sifatida yo`zilgan ushbu asar haqida filolog olim, professor Begali Qosimov Turkiston tarixining eng muhim hodisalardan biri hisoblanmish jadidchilik harakati haqida ma`lumot beruvchi “Milliy uyg`onish: jasorat, ma`rifat, fidoyilik” kitobida quyidagi fikrlarni bayon etadi: “…asrimiz boshlaridagi o`zbek jadid ma`rifatchiligining noyob hodisalaridan bo`lgan bu asrning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadi. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo`llanma bo`lib xizmat qildi”[98]. Axloqiy - didaktik mazmundagi ushbu asar XX asr boshlari ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o`rin egalladi.

Avloniy o`z asarini yaratishda Shayx Sa`diy izidan bordi. Kitobning “Turkiy Guliston yohud axloq” deb nomlanganligi bejiz emas. Avloniy buni kitobning 1917 – yilgi ikkinchi nashriga yozgan so`ng so`zida alohida ta`kidlab ko`rsatadi. U shunday yozadi: “Turkiston maktablarida o`z shevamizda yozilmish mukammal “Axloq” kitobining yo`qligi afrodi shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanligi, o`zum muallimlar jumlasidan o`ldug`imdan, manga ham ochiq ma`lum o`ldi. Shuning uchun ko`p vaqtlar tajriba so`ngidan adibi muhtaram Shayx Sa`diy usulinda yozmakni, garchi o`g`ir ish bo`lsa ham, o`zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni arodin munosib ko`rdim”[99][3.59].

Muallif asarni diniy kalima bilan boshlaydi. Asarda inson ma`naviy kamoloti yuksakligiga erishishida zarur bo`lgan axloq, xulq, yaxshi xulq, yomon xulq, fikr tarbiyasi, ilm, qanoat, sabr, badan tarbiyasi, diyonat, riyozat, vijdon, intizom, hayo, idrok va zako kabi yana bir qator xislatlar, ularning amaliy ahamiyatlarini batafsil yoritib o`tadi. Jumladan, ilm haqida keltirib o`tgan “Ilm deb o`qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o`rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g`oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o`z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko`rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o`tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to`g`ri yo`lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas`ud bo`lishimizga sabab bo`lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur” mulohazalarida har qanday jamiyat, millat tarbiyasida ilm naqadar ulug` ahamiyatga ekanligini anglaymiz.

Tarbiya insonning insonligini ta`minlaydigan azaliy va abadiy qadriyatdir. Alohida odam ham, butun insoniyat ham tarbiyasiz mavjud bo`lolmaydi. Chunki inson va jamiyatning mavjudligini ta`minlaydigan qadriyatlar avloddan avlodga tarbiya orqali o`tadi. Adib bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to`rt bo`limga

[97] Sh.M.Mirziyoyev.Yangi O`zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O`zbekiston” nashriyoti, 2021. 227- bet

[98] B.Qosimov. Milliy uyg`onish: jasorat, ma`rifat, fidoyilik. Toshkent “Ma`naviyat”, 2002, 252 bet

[99] Jadidlar. Abdulla Avloniy: risola./ Olim Oltinbek.- Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 59- bet

ajratadi: 1. “Tarbiyaning zamoni”. 2. “Badan tarbiyasi”. 3. “Fikr tarbiyasi”. 4. “Axloq tarbiyasi” haqida hamda uning ahamiyati tog`risida fikr yuritadi. “Tarbiyaning zamoni” bo`limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga barchani: ota-ona, muallim, mudarris, hukumat va boshqalarning kirishishi lozimligini ta`kidlaydi. Oilada to`g`ri yo`naltirilgan tarbiya juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlaydi. Bola tarbiyasida uning nafsoniyatiga tegadigan, bolaning hissiyotiga shikast etkazadigan, uni ruhan va ma`nan ezadigan jazoni qoralaydi. Bolani sevish va unga ustalik bilan ta`sir ko`rsatish zarur, uni ishontirish vositasi bilan o`z burchini anglatish lozim, deb hisoblaydi. Asarda farzand tarbiyasida bola yashab turgan shart- sharoit, muhit, atrofidagi kishilarning roli katta ekanligi ko`rsatiladi.

Asarning “Tarbiyaning zamoni” bolimida “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga, “birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur”, - deb javob bersak, bir kishi deyurki, “qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo`li to`qmoq onalarmi? O`zlarida yo`q tarbiyani qaydan olib berurlar”, der. Mana, bu so`z kishining yuragini ezar, bag`rini yondurar [100][4.4]. Ushbu tushunchalar nafaqat ta`lim – tarbiya oluvchi balki ta`lim – tarbiya beruvchilarga ham taalluqlidir. Adib badan tarbiyasi masalasida bolani sog`lom qilib o`stirishda ota – onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o`qituvchilarning faoliyatlariga alohida e`tibor beradi. Bolalarda fikrlash qobiliyatini o`stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug`ullanish benihoya zarur va muqaddas bir vazifa ekanligini bunda albatta u mualllimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur… Negaki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi, maullimning tarbiyasiga bog`liqdur deb”[101] ta`kidlaydi.[102] Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko`p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g`ayratli bo`lishiga sabab bo`ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so`ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog`lidur. Dars ila tarbiya orasida biro z farq bor bo`lsa ham, ikkisi bir- biridan oyilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur.

Avloniyning asarda tarbiya millat uchun hayot- mamot masalasi ekanligini ta`kidlaydi: “Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamaot, yo najot- yo halokat, yo sadoqat- yo falokat masalasidir” degan so`zlari tarbiya sohasidagi shiorga aylangan desak mubolag`a bo`lmaydi. Farzand tarbiyasida adib: “Agar yaxshi tarbiya topib,

[100] Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.3-4 bet.
[101] O`sha asar.3-4 bet.
[102] O`sha asar. 4 bet.

buzuq xulqlardan saqlanub, go‘zal xulqlarga odatlanub katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqar. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulib o‘ssa, Allohdan qo‘rqmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog‘iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo‘lib qolur[103] – deb yozadi. Adib boylik ketidan quvadigan insonlardan nafratlanadi. Yoshlarni boylikka ruju quymaslikka undaydi. Boylikni o`tkinchi bulutga o`xshatadi.

Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi fikrlarini umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, sharqda odob va axloq masalasi azaldan asosiy masala bo‘lib kelgan. Abdulla Avloniy o‘sha paytdagi ta’lim usullari zamonga to‘g‘ri kelmasligini to‘g‘ri tushungan va ularni isloh qilish zarurligini to‘liq anglagan. Zero, zamonaviy ta’limgina yosh avlodni millat ruhiga aylantira oladi. Asar hozir ham o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Adib asarlari zamonaviy ta’lim-tarbiyada beqiyos o‘rin tutadi. Bitmas-tuganmas bilim manbai, a’lo fazilatlar ko‘zgusi ularni kelajak avlodlarga etkazish barchamiz uchun farzdir.

Jadidlarning Turkistondagi yirik vakillaridan yana biri Abdurauf Fitratdir. Fitrat o‘zbek xalqi ilm-fani va madaniyati tarixida samarali iz qoldirgan siymolardan, istiqlolimizni oldindan ko‘ra olgan fidoiylardan bo‘lib hisoblanadi. Uning serqirra ijodi va ijtimoiy-siyosiy faoliyatida hozirgi zamon va kelajagimiz haqidagi g‘oyalar bayon qilingan. O‘z vaqtida u o‘zbek xalqida milliy vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otishga, yurtni obod, fuqaroni ma’rifatli qilishga intilgan. Olim “Sayha”, “Hind sayyohining qissasi”, “Uchqun” to‘plami, “Chin sevish”, “O‘zbek tili grammatikasi”, “Chig‘atoy adabiyoti”, “Hind istilochilari” va boshqa ko‘plab asarlar yozdi. Fitrat asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm-ma’rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o‘zligini tanishi, onginingg o‘sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo‘lib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o‘rganish kabi g‘oyalar ilgari suriladi.

Fitrat yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘ldan tarbiyalamasdan jamiyatni isloh qilish uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas, millat taqdiri uning oilasining holatiga bog‘liq degan g‘oyani ilgari suradi: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu millatoilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo‘ladi”[104]- deb yozadi, u.

Abdurauf Fitratning fikricha, farzandni kamol toptirib o‘stirish uchun unga jismoniy, aqliy va ma’naviy tarbiyadan iborat, ko‘p tarkibli tarbiya berish

[103] Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.3-4 bet.

[104] A.Fitrat. Oila.- T.; Ma’naviyat, 2000, 32-bet

muhimdir[105]. Umuman, jadidchilik harakatida Abdurauf Fitratning o‘rni beqiyosdir. Uning tarixiy – badiiy, axloqiy – falsafiy asarlari o‘z davri uchun katta ahamiyatga ega edi.

Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g‘oyaviy qarashlaridan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o‘rinliki, jadidlar xalqni savodsizlik, qullikdan qutqarishga bel bog‘lab, shu yo‘lda yoshlar asosiy kuch ekanligini tushunganlar, ularning ong-saviyasini oshirish uchun ko‘p sa’yo-harakat qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o‘rin egallashlari, axloqan yuksak bo`lib etishishlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi ularning fikrlari bugungi Yangi O‘zbekistonda namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev.Yangi O`zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O`zbekiston” nashriyoti, 2021. 227- bet
2. Sh.M.Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. 11.12.2023. https://president.uz/uz/lists/view/6919
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.3-4 bet.
4. Jadidlar. Abdulla Avloniy: risola./ Olim Oltinbek.- Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 59- bet
5. A.Fitrat. Oila.- T.; Ma’naviyat, 2000, 32-bet
6. B.Qosimov. Milliy uyg`onish: jasorat, ma`rifat, fidoyilik. Toshkent “Ma`naviyat”, 2002, 252 bet
7. Qosimov B.Yusupov Sh. Dolimov D. Rizayev Sh. Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti.-T.: “Ma’naviyat”, 2004 yil, 5-bet.

YANGI O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA JADIDLAR G‘OYALARINING AHAMIYATI

YENİ ÖZBEKİSTAN’DA KADIN GİRİŞİMCİLİĞİNİN GELİŞMESİNDE JADİD FİKİRLERİNİN ÖNEMİ

THE IMPORTANCE OF JADID IDEAS IN THE DEVELOPMENT OF WOMEN’S ENTREPRENEURSHIP IN NEW UZBEKISTAN

ЗНАЧЕНИЕ ИДЕЙ ДЖАДИДОВ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Maqsumova Umidaxon Sodiqjonovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: dr.umida_maksumova81_fsu@mail.ru, tel.: +998940108118

[105] Osha asar. 37- bet

Annotatsiya. Maqolada jadid g‘oyalarining zamonaviy O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini shakllantirishga ta’siri tahlil qilinib, ularning ijtimoiy modernizatsiya, xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi va gender tengligidagi o‘rni ta’kidlangan bo‘lib, ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: jadidlar, ayollar tadbirkorligi, ijtimoiy modernizatsiya, gender tengligi, iqtisodiy mustaqillik, madaniy meros, islohotlar, an’analar, ilg‘or g‘oyalar.

Açıklama. Makale, jadid'in fikirlerinin modern Özbekistan’da kadın girişimciliğinin oluşumu üzerindeki etkisini analiz ederek, sosyal modernleşmedeki rollerini, kadınların ekonomik bağımsızlığını ve cinsiyet eşitliğini vurguladı ve sosyo-felsefi olarak çalıştı.

Anahtar Kelimeler: jadidler, kadın girişimciliği, toplumsal modernleşme, toplumsal cinsiyet eşitliği, ekonomik bağımsızlık, kültürel miras, reformlar, gelenekler, ilerici fikirler.

Annotation. The article analyzed the influence of jadid's ideas on the formation of women’s entrepreneurship in modern Uzbekistan and emphasized their role in social modernization, women’s economic independence and gender equality, and studied socio-philosophically.

Keywords: jadids, women’s entrepreneurship, social modernization, gender equality, economic independence, cultural heritage, reforms, traditions, progressive ideas.

Аннотация. В статье анализируется влияние идей джадидов на формирование женского предпринимательства в современном Узбекистане, подчеркивается их роль в социальной модернизатsii, экономической независимости женщин и гендерном равенстве, а также проводится социально-философское исследование.

Ключевые слова: джадиды, женское предпринимательство, Социальная модернизация, гендерное равенство, экономическая независимость, культурное наследие, реформы, традиции, прогрессивные идеи.

Mazkur tadqiqot mavzuning global dolzarbligi sifatida butun dunyo bo‘ylab gender tengligiga bo‘lgan qiziqishning kuchayishi bilan jadid g‘oyalari an’anaviy qadriyatlar va ilg‘or islohotlarni birlashtirishning noyob namunasidir. Ularning ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta’sirini o‘rganish madaniyat, ijtimoiy islohotlar va ayollarning iqtisodiy faolligi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning universal tamoyillarini ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bu mahalliy g‘oyalar global kontekstda jamiyatning barqaror rivojlanishiga qanday hissa qo‘shishi mumkinligini tushunish uchun muhimdir.

Ijtimoiy, iqtisodiy va gender islohotlari faol olib borilayotgan yangi O‘zbekiston kontekstida jadidlar merosi amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ularning g‘oyalarini o‘rganish ayollarning tadbirkorligini rivojlantirishga milliy an’analar va zamonaviy yondashuvlarni birlashtirish yo‘llarini ochib berishga yordam beradi, bu esa ijtimoiy birlikni mustahkamlash, gender tengligini va mamlakatda ayollarning iqtisodiy mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev jadid g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyasiga to‘liq mos kelishini ta’kidladi [1.]. U ma’rifatli ajdodlarning merosi bugungi kunda qurilayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun asos bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi. Prezident jadidlar ko‘rsatgan yo‘ldan borishga chaqirmoqda, chunki ularning g‘oyalari va dasturlari har jihatdan yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasiga mos keladi.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan mavzu an’ana va modernizatsiya o‘rtasidagi dialektik o‘zaro ta’sirni ochib beradi va yangi ijtimoiy tartibni shakllantirishda ijtimoiy g‘oyalarning rolini tahlil qiladi. Bu adolatli jamiyatni qurishda ijtimoiy islohotlarning roli haqidagi falsafiy nutqni kengaytirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari jadidlarning ilg‘or g‘oyalarini ommalashtirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi amaliy tashabbuslarda qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, ular gender tengligi va ijtimoiy modernizatsiyani amalga oshirishga yordam beradigan davlat siyosatini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Mavzuga doir bugungi kundagi ilmiy-nazariy qarashlar va yo‘nalishlarga quydagilarni kiritishimiz mumkin:

Ijtimoiy-falsafiy modernizatsiya. Tadqiqotchilar jadid g‘oyalarini jamiyatni yangilash, uni zamonaviy qiyinchiliklarga moslashtirishga qaratilgan harakat deb bilishadi. Ushbu paradigma an’anaviy qadriyatlarni ijtimoiy institutlarni, shu jumladan tadbirkorlikni modernizatsiya qilish bilan birlashtirishga qaratilgan.

Gender falsafasi. Ijtimoiy-falsafiy tahlil jadid g‘oyalarining ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi rolini mustahkamlashdagi ahamiyatini ta’kidlab, gender tengligini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Ushbu qarashlar ayollarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishining ahamiyati to‘g‘risida jamoatchilik konsensusini shakllantirish bilan bog‘liq.

Madaniy o‘zgarish va o‘ziga xoslik. Jadid g‘oyalari ayollarning jamiyatdagi an’anaviy rolini o‘zgartirish vositasi sifatida qaraladi, bu ularning faol ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatga qo‘shilishiga hissa qo‘shadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligi milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlaydi va ijtimoiy uyg‘unlikni rivojlantiradi.

Iqtisodiy falsafa va ijtimoiy adolat. Jadidlarning ta’lim va iqtisodiy islohotlar zarurligi haqidagi qarashlari ayollarning tadbirkorlik imkoniyatlaridan teng foydalanishlari uchun sharoit yaratish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Tarixiy sotsiologiya. Jadid g‘oyalari rivojlanishining tarixiy kontekstini, ularning ijtimoiy tuzilishga ta’sirini, ayollarning rolini va tadbirkorlik evolyutsiyasini o‘rganadi.

Gender tadqiqotlari. Progressiv g‘oyalar ta’siri ostida gender rollaridagi o‘zgarishlarni tahlil qilib, ularni ayollar tadbirkorligining zamonaviy holati bilan bog‘laydi.

Modernizatsiyaning ijtimoiy falsafasi. Jadid g‘oyalari orqali jamiyatning o‘zgarishini o‘rganadi, islohotlarning falsafiy jihatlariga va ularning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda qo‘llanilishiga e'tibor qaratadi.

Axloqiy falsafa. Jadidlar tomonidan taklif qilingan islohotlarning axloqiy va axloqiy jihatlarini ko‘rib chiqadi, ayollarning ijtimoiy adolat va iqtisodiy erkinligi masalalariga e'tibor qaratadi.

Ta’lim falsafasi. Jadidlarning ta’limiy g‘oyalarining o‘rni ta’kidlanib, xotin-qizlar uchun ta’lim va tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish orqali yangi imkoniyatlar yaratilishiga ko‘maklashadi.

Madaniyatshunoslik va etnofalsafa. Jadid g‘oyalarining gender tengligini rivojlantirishga va ayollarning iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlashga yordam beradigan madaniy meros va an’analarni saqlashga ta’sirini o‘rganadi. Ushbu ilmiy yondashuvlar jadidlarning O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligining ijtimoiy falsafasi va amaliy rivojlanishiga ta’sirini har tomonlama o‘rganishga yordam beradi.

Jadid g‘oyalarining yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga ta’sirining falsafiy jihatlarini o‘rganish quyidagi ilmiy ishlarga asoslanadi:

- Jadidizmning falsafiy dunyoqarashi ilmiy jihatdan jadidizmning falsafiy mohiyati, uning O‘zbekiston tarixidagi o‘rni va fikrlashning zamonaviy yangilanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi [2. 1198-1201.].

- Jadidlarning ayollar masalasiga bo‘lgan qarashlarining dekolonial tarixshunosligi Jadidlarning ayollar huquqlari, ularning jamiyatdagi roli va zamonaviy gender tadqiqotlariga ta’siri haqidagi qarashlarining turli talqinlari o‘rganilmoqda [3. 310-312.].

- Turkiston jadidlarining qarashlarida ayolga munosabatni jadidlarning ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ta’lim faoliyati va gender tengligi uchun kurash haqidagi qarashlari tahlil qilingan [4. 32-35.].

- Jadidlar haqida suhbatni tarixchi Dilor Alimova bilan suhbatda jadidlarning g‘oyalari, ularning jamiyatga ta’siri va zamonaviy O‘zbekiston kontekstidagi dolzarbligi muhokama qilinadi [5.].

- Jadidizmning asosiy mafkuraviy kelib chiqishi haqidagi tadqiqotlarda jadidizmning g‘oyaviy shartlari, uning Markaziy Osiyodagi ijtimoiy ong va ma’rifiy faoliyatga ta’siri ko‘rib chiqiladi [6. 230-232.].

- “So‘zlar ishlarga to‘g‘ri keldi,” ibora bilan jadidlar haqida suhbat professor Bahodir Karim bilan suhbatda bugungi kunda jadidlar hayoti va ijodini o‘rganishning ahamiyati hamda ularning zamonaviy jamiyatga ta’siri muhokama qilinadi [7].

- Ta’lim g‘oyalari va jadidlar haqidagi imiy qarashda jadidlarning ma’rifiy faoliyati, jamiyatni modernizatsiya qilish istagi va ta’lim orqali xalq hayotini yaxshilash uchun kurash yoritilgan [8.].

Ushbu manbalar jadid g‘oyalari va ularning zamonaviy O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga ta’sirini chuqur falsafiy tahlil qilish imkonini beradi.

Jadid g‘oyalari an’anaviy qadriyatlarni kelajakning ilg‘or qarashlari bilan birlashtirgan ijtimoiy falsafaning noyob hodisasidir. Ularning ijtimoiy rivojlanish haqidagi qarashlari nafaqat dolzarb bo‘lib qolmoqda, balki zamonaviy jamiyatni, ayniqsa yangi O‘zbekiston kontekstida o‘zgartirish uchun asosiy manbaga aylanmoqda.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, jadidizmning ahamiyati uning madaniyat, ta’lim va iqtisodiy taraqqiyotni birlashtirish potentsialida yotadi. Jadidlar ijtimoiy va iqtisodiy hayotda ayollarning faol ishtirokisiz jamiyatning barqaror rivojlanishi mumkin emasligini angladilar. Ularning ayollarni o‘qitish, huquqlarini kengaytirish va ijtimoiy jarayonlarga faol jalb qilish haqidagi da’vatlari yangi turdagi ijtimoiy tartibni shakllantirish uchun falsafiy asosdir.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy hodisa, balki gender tengligi, ijtimoiy adolat va iqtisodiy mustaqillik muammolarini hal etishda muhim ijtimoiy vositaga aylanib bormoqda. Aynan shu erda jadid g‘oyalari ta’lim olish va ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish zarurligini ta’kidlab, asosiy rol o‘ynaydi.

Umumfalsafiy nuqtai nazardan, jadid g‘oyalaridan ilhomlangan ayollar tadbirkorligini modernizatsiya dialektikasining namoyon bo‘lishi sifatida ko‘rish mumkin: milliy o‘ziga xoslik va an’analarni saqlab qolish, global qiyinchiliklar va innovatsiyalar bilan birgalikda. Bu nafaqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, balki individual erkinlik va jamoat manfaatlari o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlab, ijtimoiy birlikni mustahkamlaydi.

Shunday qilib, jadid g‘oyalari o‘tmish va kelajak, an’analar va taraqqiyotni bog‘laydigan falsafiy ko‘prikdir. Ularning ta’kidlashicha, haqiqiy modernizatsiya faqat jamiyatning barcha a’zolari, jinsidan qat'i nazar, uning rivojlanishida faol ishtirok etganda mumkin bo‘ladi. Shu ma’noda, yangi O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi ijtimoiy adolat, iqtisodiy o‘sish va madaniy barqarorlikning aksiga aylanmoqda.

Mavzu boyicha quydagi umumlashtiruvchi xulosalarni keltiramiz:

birinchidan, Jadid g‘oyalari ijtimoiy modernizatsiyaning asosi sifatida Jadidizm an’anaviy qadriyatlar va ilg‘or islohotlarni birlashtirish orqali jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkinligini ko‘rsatdi. Ularning ta’lim, tenglik va ayollarning ijtimoiy faolligiga e'tiborlari zamonaviy O‘zbekistonda dolzarbligicha qolmoqda;

ikkinchidan, ayollar tadbirkorligi ijtimoiy adolat omili sifatida Jadid g‘oyalaridan ilhomlangan ayollar tadbirkorligining rivojlanishi ijtimoiy adolat va

gender tengligiga erishish yo‘lidagi muhim qadamdir. Bu nafaqat iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi, balki ayollar uchun yangi ijtimoiy rollarni ham shakllantiradi;

uchinchidan, Jadid ijtimoiy falsafasi universal tushuncha sifatida Jadidizm ta’lim, madaniyat va iqtisodiy faoliyat o‘rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratib, gender tengligi va iqtisodiy inklyuziya kabi zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilishda qo‘llaniladigan universal tamoyillarni taklif etadi.

Shuningdek, quydagi amaliy tavsiyalarni keltirganmiz:

1. Ta’lim dasturlarini ishlab chiqish Jadid g‘oyalarini ta’lim dasturlariga kiritish, ularning ayollar tadbirkorligi va ijtimoiy modernizatsiyaga qo‘shgan hissasini ta’kidlash. Ayollarga biznes ko‘nikmalarini va moliyaviy savodxonlikni o‘rgatishga alohida e'tibor bering.

2. Ayollar tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash Jadidlar asos solgan tamoyillar asosida grant dasturlari, kredit olish va maslahat markazlarini o‘z ichiga olgan tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash uchun platformalar yaratish.

3. Madaniy meros modernizatsiya manbai sifatida Zamonaviy avlodni jamiyat taraqqiyotiga bo‘lgan ilg‘or yondashuvlariga rioya qilishga ilhomlantirish uchun jadid g‘oyalariga bag‘ishlangan madaniy va ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish.

4. Gender siyosati va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash Jadid g‘oyalaridan bunday tashabbuslar uchun nazariy asos sifatida foydalanib, ayollarning iqtisodiyotdagi rolini oshirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish.

5. Tadqiqot markazlarini tashkil etish Jadid merosini va ularning zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga, shu jumladan ayollar tadbirkorligiga ta’sirini o‘rganish uchun ixtisoslashtirilgan ilmiy markazlar tashkil etish.

6. Tadbirkor ayollarning yutuqlarini ommalashtirish tadbirkor ayollarning yutuqlarini ommalashtirishga qaratilgan tanlovlar, forumlar va ko‘rgazmalar o‘tkazish, boshqalarni o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ilhomlantirish.

7. An’analar va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirish milliy an’analar va madaniy qadriyatlarga hurmatni saqlab, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan, shu jumladan raqamli platformalardan foydalanish.

Yuqorida keltirilgan xulosa va tavsiyalar jadid g‘oyalarini Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning zamonaviy jarayonlariga integratsiya qilish uchun barqaror asos yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyoti:

1. https://daryo.uz/ru/2023/12/22/savkat-mirzieev-idea-dzadidov-vo-vseh-otno seniah-garmonicna-so-strategiej-novogo-uzbekistana?utm_source=chatgpt.com
2. Эргашев У.А. Философские мировоззрение джадидизма. // Экономика и социум. 2024. №11-1 (126). - С. 1198-1201 / URL:

https://cyberleninka.ru/article/n/filosofskoe-mirovozzrenie-dzhadidizma (дата обращения: 15.01.2025).
3. Акбарова К.Ш. Деколониальная историография взглядов джадидов на женский вопрос // Молодой ученый. - 2023. - № 4 (451). - С. 310-312. / URL: https://moluch.ru/archive/451/99483/ (дата обращения: 15.01.2025).
4. Джураева Нилуфар Далибаевна. Отношение к женщине в воззрениях джадидов Туркестана // Academy. 2017. №10 (25). - С. 32-35. / URL: https://cyberleninka.ru/article/n/otnoshenie-k-zhenschine-v-vozzreniyah-dzhadidov-turkestana (дата обращения: 15.01.2025).
5. https://www.caa-network.org/archives/23754/dzhadidy-intervyu-s-dilorom-alimovoj?utm_source=chatgpt.com
6. Равшанов Махмуд. Основные идейные истоки джадидизма // Вопросы науки и образования. 2024. №1 (173). - С. 230-232. / URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-ideynye-istoki-dzhadidizma (дата обращения: 15.01.2025).
7. https://kun.uz/ru/61320440?utm_source=chatgpt.com
8. https://testhistory.ru/history.php?id=his_1_76&utm_source=chatgpt.com

THE ACTIVITIES OF THE MUSEUM OF ABDULKHAMID SULAYMON UGLI CHULPON, ONE OF THE REPRESENTATIVES OF THE TURKESTAN JADIDIST MOVEMENT

Mirkhakimova Feruza Kholdorjon qizi
Basic doctoral of Namangan state university

Annotation: This article describes in detail the organization of the museum of one of the representatives of the Jadidist movement, poet, playwright, translator, writer and public figure Abdulkhamid Sulaymon ugli Chulpon, the creative activity of Chulpon through the museum's activities and exhibits.

Keywords: Jadid, Uzbek literature, poet, activity, museum, school, book, exhibit, exposition, re-exposition.

TURKISTON JADID NAMOYONDALARIDAN BIRI ABDULXAMID SULAYMON O‘G‘LI CHO‘LPON MUZEYI FAOLIYATI

Mirxakimova Feruza Xoldorjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annatotsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakati namoyandalaridan biri shoir, dramaturg, tarjimon, yozuvchi va jamoat arbobi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon muzeyining tashkil etilishi, muzey faoliyati va eksponatlari orqali Cho‘lponning ijodiy faoliyati batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jadid, o‘zbek adabiyoti, shoir, faoliyat, muzey, maktab, kitob, eksponat, ekspozitsiya, reekspozitsiya.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУЗЕЯ АБДУЛХАМИДА СУЛАЙМАН ОГЛИ ЧОЛПАНА, ОДНОГО ИЗ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ НОВОГО ТУРКЕСТАНА

Мирхакимова Феруза Холдоржон кызы

Докторант Наманганского государственного университета

Аннотация: В статье подробно рассматривается творчество Абдулхамида Сулаймон оглы Чолпона, одного из представителей движения джадидов, поэта, драматурга, переводчика, писателя и общественного деятеля, через organizatsiю музея, деятельность музея и экспонаты. .

Ключевые слова: джадид, узбекская литература, поэт, деятельность, музей, школа, книга, экспонат, экспозиция, реэкспозиция.

One of the representatives of the Jadid movement in 20th-century Uzbek literature, poet, playwright, translator, writer, and public figure Abdulkhamid Sulaymon oglu Chulpon (1987-1938) was born in Andijan region in 1897. He first studied at a madrasah (1908-1912) and a Russian-language school (1912-1914). He arrived in Tashkent in 1914 and worked as a literary worker in the newspapers “Sadoi Turkiston” and “Yangi Shark” (1919-23), chairman of the scientific council under the people’s commissariat of education (1920-23), editor in the newspaper “Bukhara Akbari” (1921-22), director of the “Turon” theater (1921-23), technical editor and literary worker in the magazine “Mushtum” and the newspaper “Darkon” (1922-23), as a literary worker in the Uzbek Drama Studio (Moscow, 1924-1927) and the Uzbek State Drama Theater, as well as in the newspaper “Teatre”. He has masterfully translated such classic works as his collections “Awakening”, “Springs”, “Uzbek young poets”, “Secrets of the morning”, “Words”, “The killer”, “Shepherd’s Love”, “Yorkinoy”, “Love and Sovereignty”, “Khalil Farang”, A. Gorky’s “Hooks”, “Mother”, A. Pushkin’s “Boris Godunov”, “Dubrovsky”, N. Gogol’s “The Investigator’, I. Turgenev’s “The Maiden”, I. Franko’s “Million”, “Feruza”, A. Chekhov’s “The Fugitive”.

After gaining independence, attention has been paid to restoring the historical memory of the writer, to studying his exemplary life path and literary heritage in detail. A park, a monument and a memorial museum were built in Andijan, where he was born and raised, and his works were republished. The museum was established in 1997 in accordance with Resolution No. 100 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan “On the celebration of the 100th anniversary of the birth of Abdulkhamid Sulaymon ugli Chulpon” [1] and Order No. 81 of the Ministry of Cultural Affairs of the Republic of Uzbekistan “On the celebration of the 100th anniversary of Abdulkhamid Chulpon” dated April 4, 1997. [2] The museum was opened on November 29, 1997 during the celebrations of the 100th anniversary of Chulpon’s birth. [3] It is located at 1 Chulponshok Street, Andijan. The total area of the museum is 300 square meters, and the exhibition area is 270 square meters. [4]

In 2016, the statue of Chulpon was moved to the entrance to the park. The museum was re-exposed in 2017. The museum consists of 3 rooms. The main goal of the exhibition is to form feelings of Chulpon independence, freedom, national

pride, national independence, high spirituality, universal values, love for the homeland, and self-realization. The museum's exposition highlights the life and work of Andijan poet, playwright, and translator Abdulkhamid Sulaymon ugli Chulpon through exhibits. Before entering the museum, the writer's humorous lines in his article “Is Literature Worth It?” will attract your attention. In this article, he reflects on the social essence of literature. In his opinion, literature is a means of developing a nation and a factor that ensures its spirituality. Chulpon was so convinced of the truth of this conclusion that in the article he unequivocally affirms that “if literature lives, the nation lives.” [5]

The room to the left of the entrance hall contains exhibits about Chulpon’s childhood and the early stages of his creativity, and a rough idea of the courtyard where the poet was born, based on the poet’s relatives and historical documents. The carpet in the exposition was included in the bride’s dowry of the poet’s mother, Oishabibi, and the cloak hanging on the wall belonged to his father, Sulaymonkul Mullakh Mukhammadyunus, who wrote under the pseudonym “Wolai Rasvo,” and the room also contains the manuscript “Devon.” It should be noted that Sulaymonkul was one of the intellectuals of his time.

The family tree compiled by Sharifa Mirzakhujaeva in the room provides information about the origin of the writer's seven generations and ancestors, who went to Yorkishlok in the Khojaabad district of Andijan.

The picture of Chulpon with family members was drawn by artist K. Yusupov. It depicts Chulpon’s family members: his father Sulaymonkul Mulla Mukhammadyunus ugli, his mother Oishabibi Kipchakboy kizi, and his sisters Komila, Fozila, and Foika, reading creative works.

Chulpon was born and raised in the city of Andijan. He was the eldest in the family. However, it is said that two or three children were born before him and died before he lived long. Therefore, as a sign of respect, when Chulpon was born, his umbilical cord was cut at the birth to wish him a long life and prosperity. Women affectionately called him Teshaboy. Chulpon himself published several articles and poems under the pseudonym Teshaboy. One of the most valuable exhibits in the exposition is the poet's civil passport. He returned to Tashkent from Moscow in 1934 and lived in a rented apartment near the current Amir Temur Alley. The passport was issued by the police station in Tashkent under the number ЮБ № 108142.

The document was issued from July 3, 1934 to July 3, 1941, was issued in Uzbek and Russian and was signed by the poet. and was valid until July 3, 1941. Chulpon’s personal signature was signed. Chulpon always carried his passport with him. When he was arrested, it was confiscated by the Commissariat of Internal Affairs and kept there until his name was cleared. Later, the passport was returned

to his family members. After the museum was opened, it was transferred to the museum. [6]

In particular, the Kuran in the room belonged to Cholpon, brought to him as a gift by his uncle Abdurakhman Khoji upon his return from the Hajj pilgrimage. The poet memorized the book when he was young.[7]

The next room of the museum displays his personal life, descendants, and translations, as well as scientific research papers written on his scientific works. The Navoi State Prize awarded to Chulpon in 1991, the 1936 edition of the novel “Night and Day” and many other valuable items are truly valuable as relics and rare antiques of the museum.[8]

The scenery of Chulpon’s house, its carpets and shelves, dutar, household items, books and candlesticks, are especially reminiscent of the poet's childhood. The portrait of the poet on the porch of the museum and the line from the poem “The People” “Let’s take all the power from the people, let's go to the people with open arms!”. The verses also form a unified composition. It is as if the progressive writer, who sacrificed his life for independence, expressed his lifelong dreams and noble goals through these two verses! Chulpon made a great contribution to our spirituality and culture. Interest in his work is growing in Europe and Turkey. As a vivid example of this, 2020 was named the “Year of Chulpon” in Turkey.[9]

A modern “Infokiosk” has been installed near the museum. Through this device, visitors can get acquainted with information about Chulpon’s life and work, selected works, stories and electronic editions of his poems. It is noteworthy that close cooperation was established in creating a database about the poet with the Chulpon Museum in Andijan and the Museum of Memory of Repression Victims in our capital.

References:

1.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 21 февралдаги “Абдулхамид Сулаймон ўғли Чўлпон таваллудининг 100 йиллигини нишонлаш тўғрисида” ги 100 -сонли қарори. // Халқ сўзи. 2017 йил 22 февраль, 2 бет.
2.Ўз МА. М– 7 -жамғармаси, 1 – рўйхат, 496 – иш, 48– варақ.
3. Шодмоналиев О. Хазина асралса хазина.// Халқ сўзи. 1999 йил 29 июнь, № 127 (2165). – Б. 4.
4.Ўз МА. М– 7 -жамғармаси, 1 – рўйхат, 1194 – иш, 1– варақ.
5.Чўлпон. Адабиёт надир. (адабий – таниқдий мақолалар, Чўлпон ҳақида хотиралар). – Т.: “Чўлпон”. 1994. -Б. 6.
6.Чўлпон музейи маълумотномаси (мурожаат санаси:03.06.2021)
7.Ўз МА. М– 7 -жамғармаси, 1 – рўйхат, 958 – иш, 22– варақ.
8.Ўз МА. М– 7 -жамғармаси, 1 – рўйхат, 958 – иш, 23– варақ.
9.Дурдиева Г. Чўлпон ва турк адабиёти. // Янги Ўзбекистон.2021 йил 27 июль. https://yuz.uz/news/cholpon-va-turk-adabiy-hayoti

XIX ASR OXIRI – XX ASR BIRINCHI YARMI SAMARQAND TARIXINI O‘RGANISHDA TASVIRIY SAN’AT ASARLARINING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ САМАРКАНДА КОНЦА XIX - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА
THE SIGNIFICANCE OF FINE ART WORKS IN THE STUDY OF THE HISTORY OF SAMARKAND IN THE LATE XIX - FIRST HALF OF THE XX CENTURY

Rustamov Shamsiddin Salohiddin o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi, Arxeologiya bo‘limi xodimi.
e-mail: r_shamsiddin@mail.ru, *Tel: +99890 604-98-88*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand tarixini o‘rganishda “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi fondlarida va muzeylar saqlanayotgan tasviriy san’at asarlarining Samarqand hududi tarixini o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati, ushbu asarlarning tadqiq qilinishi masalalari ilmiy tahlil qilingan, taklif va mulohozalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmi, “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi, tasviriy san’at, me’moriy obidalar, bozor, kompozitsion tahlil, ikonografik tahlil, madaniy meros ob’ekti.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the role and significance of works of visual art preserved in the collections and museums of the Samarkand State Museum-Reserve in the study of Samarkand's history, as well as the issues related to the research of these works. Suggestions and considerations have been presented.

Keywords: Late 19th century – first half of the 20th century, Samarkand State Museum-Reserve, visual art, architectural monuments, bazaar, compositional analysis, iconographic analysis, cultural heritage object.

Аннотация: В данной статье научно проанализированы роль и значение произведений изобразительного искусства, хранящихся в фондах и музеях Государственного музея-заповедника «Самарканд», в изучении истории Самарканда, а также вопросы исследования этих произведений. Внесены предложения и соображения.

Ключевые слова: Конец XIX века – первая половина XX века, Государственный музей-заповедник «Самарканд», изобразительное искусство, архитектурные памятники, базар, композиционный анализ, иконографический анализ, объект культурного наследия.

KIRISH

Tasviriy san’at insoniyat tarixining turli davrlaridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. XIX asr oxiri va XX asr birinchi yarmidagi Samarqand aholisi hayoti, bu davrdagi ayrim madaniy va tarixiy voqealar tasviriy san’at asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ushbu davr Samarqand tarixida Podsho Rossiyasi bosqini, madaniy modernizatsiya va xalqaro madaniy almashinuv jarayonlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun mazkur davrning san’at asarlarini tahlil qilish faqat madaniyat tarixini emas, balki shahar rivojlanishining turli jihatlarini o‘rganishga imkon beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tasviriy san’at asarlarining tarixiy ma’lumot berishdagi ahamiyatini aniqlash va ularning Samarqand tarixi haqidagi tasavvurlarni kengaytirishga xizmat qilishini ko‘rsatishdan iborat.

Tasviriy san’at asarlarining Samarqand tarixini o‘rganishdagi roli bir nechta omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmida rassomlar tomonidan yaratilgan asarlar shaharning me’moriy yodgorliklari va ijtimoiy hayotini tasvirlashda tarixiy manba sifatida qimmatli hisoblanadi. Masalan, V.V.Vereshchagin, P.P.Benkov va boshqa tasviriy san’at ustalarining ishlari Samarqandning XIX asrdagi qiyofasini tasvirlashda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, Samarqandning o‘ziga xos tabiati va madaniy merosini tasviriy san’at orqali o‘rganish shaharning xalqaro madaniy muloqotlaridagi o‘rnini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, ushbu davrda yashagan mahalliy tasviriy san’at ustalari tomonidan yaratilgan san’at asarlari Samarqand aholisining turmush tarzi, urf-odatlari va iqtisodiy jarayonlarni aks ettiruvchi qimmatli ma’lumot manbaidir.

MANBALAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

2024-yil dekab oyi holatiga kora “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasining fondida 238320 ta muzey ashyosi saqlanadi. Shulardan tasviriy san’atning turli janrlariga oid asarlar soni 5645 tani tashkil qiladi.

Mazkur fondda saqlanayotgan, shu davr mualliflari qalamiga mansub bo‘lgan tasviriy san’at asarlarining ko‘pchiligi Samarqand hududi tarixi haqida ma’lumot olishda muhim ahamiyatga ega.

Misol uchun P.P. Benkovning Samarqanddagi hayot manzaralarini aks ettiruvchi asarlari shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tahlil qilish uchun muhim vizual manbalardan biri hisoblanadi (1-rasm). XIX-XX asr boshi Samarqand tarixiga oid arxiv hujjatlari, jumladan, rasmiy hujjatlar va shahar xaritalari, tasviriy san’atda aks ettirilgan obyektlarning tarixini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi[106]. V.V. Bartold va boshqa olimlarning asarlari Samarqandning madaniy tarixini o‘rganishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-rasm. P.P. Benkov. Eski Samarqand.

[106] Самаркандский музей-заповедник. Каталог произведений изобразительного искусства XИХ-XX вв.

Tasviriy san’at asarlari Samarqand hududining quyidagi jihatlarini o‘rganishda manba sifatida muhim ahamiyatga ega.

1. Samarqand hududi me’moriy va tabiiy qiyofasini aks ettirishdagi ahamiyati: XIX asr oxiri va XX asr boshida rus rassomlari tomonidan yaratilgan ishlarda Samarqandning me’moriy obidalari, bozor maydonlari va turmush tarzi tasvirlangan.

Samarqandning me’moriy yodgorliklari, masalan, Registon ansambli, Shohi Zinda majmuasi, Bibixonim masjidi va Ulug‘bek rasadxonasi ko‘plab rassomlarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Bu asarlar me’moriy yodgorliklarning faqat tashqi ko‘rinishini emas, balki ularning tarixiy kontekstini va zamonaviy holatini ham aks ettiradi.

Misol uchun, Registonning turli davrlardagi tasvirlari undagi o‘zgarishlar tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Masalan, L.Bure, V.V. Vereshchaginning ishlari Registonni XIX asr oxiridagi holatda tasvirlagan bo‘lsa, P.P. Benkovning chizmalarida uning keyingi asrlardagi tiklanish holatlari aks ettirilgan (2-rasm).

Shohi Zinda majmuasi o‘zining bezakli mozaikalari va maqbaralari bilan rassomlarning alohida e’tiborini tortgan. Ushbu me’moriy obyektni aks ettiruvchi asarlar o‘sha davr madaniy urf-odatlarini o‘rganish imkonini beradi.

2-rasm. L.L. Bure -Sherdor, 1913-yil.

Samarqand faqat me’moriy yodgorliklari bilan emas, balki tabiiy go‘zalligi bilan ham mashhur. Ko‘pgina rassomlar Samarqandning tabiati – tog‘lar, bog‘lar va suv havzalari manzaralarini o‘z asarlarida tasvirlaganlar. Bu asarlar orqali hududning ekologik tarixi va tabiiy landshaftlaridagi ayrim o‘zgarishlarni kuzatish mumkin.

XIX asr oxirida Samarqanddagi bog‘lar va kanallar rassomlar uchun muhim ilhom manbasi bo‘lgan. Masalan, A.N. Volkov va N. K. Roerixning Samarqand

manzaralarini aks ettiruvchi ishlari ushbu davrda hududning tabiiy, qishloq va shaharsozlik ko‘rinishi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi (3-rasm).

Samarqandni o‘rab turgan tog‘larning tasvirlari, ayniqsa qishloq va shahar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Bu tasvirlar orqali hududning tabiiy resurslari va aholi hayotiga ta’sirini qisman tahlil qilish mumkin.

3-rasm. A.N.Volkov. Qishloq manzarasi.

2. Madaniy va etnografik manba sifatidagi ahamiyati: Tasviriy san’atda turli millatlar, ularning kiyinish odatlari, hunarmandchilik va boshqa turmush elementlari tasvirlangan bo‘lib, bu ma’lumotlar etnografik tadqiqotlarda muhim rol o‘ynaydi.

Masalan, L.D. Rozenberg asarlarida mahalliy aholining ipak, baxmal va adras matolaridan tikilgan kiyimlari chizilgan. Erkaklarning do‘ppisi va ayollarning milliy liboslari aks ettirilgan. Ushbu asarlar orqali Samarqand xalqining kiyinish madaniyatidagi xususiyatlarni tushunish mumkin.

N. Karazin, V. Vereshchagin va P.P. Benkovning Samarqand bozoridagi turli millat vakillarini tasvirlovchi asarlari orqali o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar va boshqa etnik guruhlarning kiyinish madaniyati faoliyatini o‘rganish mumkin. (4-rasm)

4-rasm. P.P. Benkov. Shohi Zindadagi rassomlar.

3. Ijtimoiy hayotni o‘rganishdagi ahamiyati: Tasviriy san’at asarlar orqali shahar aholisining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, faoliyati va kundalik hayot manzaralarini kuzatish mumkin. Masalan, P.P. Benkov o‘z asarlarida bozor sahnalari, qishloq hayoti va milliy bayramlarni aks ettirgan. Uning asarlari orqali o‘sha davrdagi mahalliy kiyim-kechak, ijtimoiy munosabatlar va an’analarni o‘rganish mumkin.

A.N. Volkov va N. Karazinning asarlarida Samarqanddagi to‘y marosimlari va xalq o‘yinlari aks ettirilgan, o‘sha davrdagi xalq an’analari va marosimlarning tafsilotlari ko‘rsatilgan, uy-joylar tuzilishi va ichki bezaklari orqali aholi turmush tarzi haqida batafsil ma’lumot berilgan.

4-rasm. A.N.Volkov. To‘y.

Tasviriy san’at asarlari jamiyatning madaniy diversifikatsiyasi (o‘zgarish, xilma-xil taraqqiyoti)ni aks ettiruvchi va uni tahlil qilish imkonini beruvchi muhim manba hisoblanadi. XIX asr oxiri va XX asr birinchi yarmida Samarqand hududi ko‘plab madaniyatlar chorrahasida joylashgan bo‘lib, bu holat tasviriy san’at asarlarida yaqqol namoyon bo‘lgan. Rassomlar tomonidan yaratilgan asarlar shahar hayotining turli jihatlarini, etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, madaniy o‘zgarishlarni va diversifikatsiya jarayonlarini tasvirlash uchun foydalanilgan.

Masalan, V.V. Vereshchaginning Samarqandda yaratilgan asarlari shahar bozorlarida uchraydigan turli millat vakillarini o‘ziga xos tafsilotlar bilan tasvirlaydi. Bu asarlar o‘sha davrning madaniy tahlilida muhim ahamiyatga ega.

Samarqanddagi tarixiy obidalar turli xalqlar qurilish uslublari ta’sirini o‘zida mujassam qilgan. Bu me’moriy obyektlar tasviriy san’atda ham o‘z aksini topgan.

Masalan, Shohi Zinda majmuasi va Bibixonim masjidi me’morchiligidagi arab, fors va mahalliy uslublarning uyg‘unligi rassomlar tomonidan alohida qayd etilgan.

Ushbu asarlar orqali shahar arxitekturasidagi madaniy integratsiya jarayonlarini o‘rganish mumkin.

XIX-XX asrlar davrida Samarqandning turli guruhlariga xos urf-odatlar, bayramlar va ijtimoiy hayot tasviriy san’atda keng yoritilgan. P.P. Benkovning

Samarqanddagi oilaviy bayramlar yoki mehnat jarayonlarini aks ettiruvchi ishlari ijtimoiy hayotning turli jihatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Tasviriy san’atni tarixiy manba sifatida o‘rganishda bir qator tahlil usullari qo‘llaniladi:

1. Kompozitsion tahlil usuli: Tasviriy san’at asarlaridagi elementlarning joylashuvi va ularning muvofiqligi orqali rassomning qanday tarixiy voqealarni aks ettirishga harakat qilganligini aniqlash mumkin.

2. Ikonografik tahlil usuli: Asarlardagi ramz va belgilarni tadqiq qilish orqali ular ortidagi tarixiy va madaniy ma’nolarni aniqlash mumkin. Masalan, Samarqanddagi masjidlar va minoralarning tasviri ularning tarixiy ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

3. Binolar, me’moriy obidalarning o‘zgarishini o‘rganish usuli: Tasviriy san’at orqali Samarqand me’moriy obidalarining vaqt o‘tishi bilan o‘zgarganligi yoki qayta tiklanganligini kuzatish mumkin.

Misol uchun V.V. Vereshchaginning asarlari Samarqandning me’moriy yodgorliklarini realistik uslubda tasvirlashga intilgan, bu esa tarixchilar uchun me’moriy obyektlarning o‘sha davrdagi holatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. P.P. Benkovning asarlari orqali Samarqandda yashagan aholi turmush tarzi va milliy liboslari haqida ma’lumot olish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Samarqand tarixini o‘rganishdagi ushbu yondashuvlar hududning XIX asr oxiri va XX asr boshidagi ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotini tasavvur hamda tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Har qanday tarixiy manba kabi, tasviriy san’at asarlaridan manba sifatida foydalanishda ham kamchiliklar mavjud. Birinchidan, rassomning subyektiv qarashlari yoki san’at asarlarining idealizatsiyasi real voqelikni to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Ikkinchidan, tasviriy san’atdagi detallarning tarixiy aniqligini arxiv materiallari bilan solishtirish zarurati mavjud.

XULOSA.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki Samarqand tarixi bo‘yicha tadqiqotlarda tasviriy san’at asarlarining ahamiyati hanuz etarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Tasviriy san’at Samarqandning XIX asr oxiri va XX asr birinchi yarmi tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, bu manbalar zamonaviy tarixshunoslik, muzeyshunoslik, manbashunoslik va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida yangi yo‘nalishlarni belgilashga yordam beradi.

Ushbu davrda Samarqandda yuz bergan madaniy, ijtimoiy va arxitektura sohasidagi o‘zgarishlar tasviriy san’at asarlarida keng yoritilgan. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Tasviriy san’at Samarqandning madaniy xilma-xilligi, etnik aloqalari va ijtimoiy jarayonlarini hujjatlashtirishda muhim rol o‘ynagan. San’at asarlari tarixiy obidalar, kundalik hayot va shahar me’moriy uyg‘unligining vizual hujjati sifatida xizmat qiladi.

Samarqand hayotiga oid tasviriy san’at asarlari turli xalqlar madaniyatlarining birlashuvi va o‘zaro ta’sirini namoyon etadi. Rassomlarning asarlari orqali turli millatlarning kiyimlari, me’moriy obidalari va ijtimoiy hayotini o‘rganish mumkin. Bu tarixiy jarayonlarni batafsil tushunish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Samarqandning me’moriy yodgorliklari va tabiat manzaralari nafaqat madaniy meros, balki ijtimoiy va diniy hayotning rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda muhim rol o‘ynagan. Tasviriy san’at ushbu obyektlarning tarixiy holatini saqlab qolish va ularni tiklash uchun asosiy manbalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бартолд В.В. История культурной жизни Средней Азии.Москва: Наука, 1927.
2. Бенков П.П. Картины и гравюры Самарканда. Москва: Искусство, 1910.
3. Бенков П.П. Творчество в Самарканде. Москва: Искусство, 1915.
4. Верешчагин В.В. Регионы и их архитектура. Москва: Искусство, 1898.
5. Бахшиев А. Тасвирий санъат ва тарихшунослик. Тошкент: Академия, 2008.
6. Назаров Р.Х. Социально-экономическое развитие Самарканда в XIX - начале XX вв. Ташкент: Узбекистан, 1980.
7. Самаркандский музей-заповедник. Каталог произведений изобразительного искусства XIX-XX вв. Самарканд, 2006.
8. ЮНЕСКО. Самарканд: перекресток культур. Париж: ЮНЕСКО Пресс, 1994.
9. Роерич Н.К. Самаркандские пейзажи. Москва: Искусство, 1930.
10. “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasining 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar hisoboti. Samarqand, 2025.
11. Назаров Р.Х. Самарканд в историческом контексте. Ташкент: Узбекистан, 1985.
12. Ҳусанов Р. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихи. Тошкент: Фан, 1995.

O‘ZBEK TARIXSHUNOSLIGINING FIDOYLARI: BO‘LAT SOLIYEV VA UNING SHOGIRDLARI

Quvvatalayev Ubaydulla.
Termiz davlat universiteti Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori
@pochta: kuvvataliyev@mail.ru, Telefon raqami:+998998152831

Annotatsiya : Maqolada sovet davrida o‘zbek tarixini o‘rganishdagi qiyinchiliklar, Bo‘lat Soliyev va uning shogirdlari, xususan Ibrohim Mo‘minovning milliy merosni o‘rganish yo‘lidagi fidoyiliklari hamda ularning bebaho merosi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sovet mafkurasi, Bo‘lat Soliyev, Ibrohim Mo‘minov, Amir Temur, o‘zbek tarixshunosligi, milliy meros, fidoyi tarixchilar.

Bo‘lat Soliyev Soliyev tomonidan 1929-yilda nashr qilingan O‘zbekiston tarixi kitobi va uning kirish qismidagi Amir Temur surati

Millatning o‘tmishi uning kelajagining poydevoridir. Shu bois, jadid ma’rifatparvarlari yangi usul maktablarida tarix fanini o‘qitishni o‘zlarining muqaddas burchi deb bilganlar[1]. Ular o‘z xalqining farzandlarini xolis o‘tmishi, buyuk ota-bobolarining shonli tarixi bilan tanishtirishga intilib, ularga vatanning asl o‘g‘lonlari haqida so‘zlashgan. Ammo, shafqatsiz sovet mafkurachilari bu oydin orzulari oldiga g‘ov bo‘lib, o‘zbek xalqining o‘z tarixini bilmasligi uchun millat ziyolilariga doimiy ravishda mafkuraviy bosim o‘tkazib kelganlar. Ularning xudbin siyosati, hatto 1980-yillarda ham o‘zbek xalqining tarixini o‘rganish masalasiga eng so‘ngi darajali masala sifatida qaralishiga olib kelgan.

Shunchalik o‘zbek xalqiga nisbatan adolatsizlik bor ediki, masalan, 1984-yilda akademik B. Ribakov tahriri ostida nashr qilingan 441 sahifalik SSSR tarixi qo‘llanmasida Pyotr I’ning Rossiya imperiyasida amalga oshirgan islohotlariga 19 sahifa ajratilgan bo‘lsa, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston tarixi esa atigi bir betga, juda mujmal va qisqa tarzda yozilgan[2]. Bu shunchaki oddiygina xato emas edi, balki o‘zbek xalqining tarixini berkitishga qaratilgan shafqatsiz siyosat edi. Kommunistik partiya nafaqat o‘zbek xalqi tarixini berkitishga harakat qilgan, balki millat tarixida o‘chmas iz qoldirgan qahramonlar nomini ham qoralash kampaniyasini olib borgan. Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Shayboniyxon, Xo‘ja Ahror Valiy, Dukchi Eshon singari ajdodlarimizning shonli nomlarini tarixdan o‘chirib tashlashga urinishlar bo‘lgan. Biroq, o‘zbek tarixchilari o‘zlarining fidoyi mehnatlari orqali, og‘ir sharoitlarda ham, mard ota-bobolari nomini himoya qilib, ularning xotirasini yo‘q bo‘lib ketishiga yo‘l qo‘ymadi.

Aynan shunday fidoyi o‘zbek tarixchilaridan biri professor Bo‘lat Soliyev edi. U, sovet davlati tashkil topgan 1920-yillardayoq, bolsheviklarning qattiq nazoratiga qaramasdan, o‘zbek millatiga xizmat qilishga bel bog‘lab, Turkiston tarixiga oid darslik yozish ishiga jiddiy kirishadi. Biroq, qizil imperiyaning shafqatsiz siyosati Bo‘lat Soliyev va boshqa mahalliy olimlar tomonidan tayyorlangan tarix bo‘yicha darslik loyihalarini doimiy ravishda rad etib keladi[3]. Ular millat ziyolilarining o‘z tarixini bilishlariga yo‘l qo‘ymaslikka bor kuchi bilan harakat qilishgan. Shunday bo‘lsa-da, ularning zulmi va qatag‘onlariga qaramasdan, Bo‘lat Soliyev o‘zining jasorati va matonati tufayli 1929-yilda “O‘zbekiston tarixi” kitobini nashr ettirishga muvaffaq bo‘ladi [4]. Olim ushbu asarni yaratishda o‘rta asr muarrixlarining bebaho meroslaridan unumli foydalanadi.

O‘zining mafkuraviy ko‘chkiga qarshi ekanligini yashirmagan muallif kitobning kirish qismiga, o‘sha kunlarda sovet mafkurachilari tomonidan ayovsiz tahqirlangan, o‘zbek xalqining g‘ururi bo‘lmish Amir Temurning yorqin suratini ilova qiladi[5]. Bu shunchaki rasm emas, balki mafkuraviy kurashning ramzi edi. Uning mintaqa tarixiga keng va chuqur yondashish haqidagi talabi tez orada kommunist targ‘ibotchilarning keskin tanqidiga sabab bo‘ladi. Ular Bo‘lat Soliyevning tarixshunosligini “millatchilik va panturkistik” ruhda deya ta’riflab, uni qoralash kampaniyalarini boshlab yuborishdi[6].

“O‘zbekiston tarixi” asari o‘quvchiga Temur davrida Turkistonning jahon geosiyosatida qanday o‘rin tutgani va Turkistonning buyuk o‘tmishi haqida qimmatli ma’lumotlarni berardi. Bu, sovet mafkurasi o‘zbek xalqini tarixidan ayirib, o‘ziga qul qilish rejalarini buzib yuborish edi. Undan sal avvalroq, ya’ni 1927-yilda ham Bo‘lat Soliyev Soliyev “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida “O‘zbeklar ham Temur bolalari” deb nomlangan maqolasi bilan katta shov-shuvga sabab bo‘lgan edi[7]. Ushbu maqola chiqqandan so‘ng, sovet mafkurachilari, xuddi g‘azabga to‘lgan arslon singari, o‘sha davrdagi davriy nashrlarda birin-ketin Bo‘lat Soliyevning maqolasi haqida tanqidiy materiallar e’lon qila boshlaydi.

Sovet olimlari 1930-yillarda, butun millatning yodidan o‘chirishga intilib, Amir Temur shaxsini Karl Marksning shafqatsiz “Temurning siyosati minglab ayollarni, bolalarni, erkaklarni, yoshlarni qiynoqqa solish, qirg‘in qilish va shu tariqa hamma joyda dahshat uyg‘otish edi” degan g‘oyasi atrofida qurish kerakligini talab qiladi[8]. Vaholanki, Bo‘lat Soliyev o‘z ishlarida Amir Temur shaxsini zolim bosqinchi sifatida emas, balki o‘zbek xalqini yuksak cho‘qqilarga olib chiqqan, mohir sarkarda, ajoyib davlat arbobi va diplomat sifatida ko‘rsatgandi. Shu boisdan, Bo‘lat Soliyevning ushbu “O‘zbekiston tarixi” kitobi kommunistik mafkura tarafdorlarining yuziga tushirilgan haqqoniy shapaloq bo‘lgan desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. U o‘zbek millatining g‘ururini himoya qilgan va xalqning tarixini anglash yo‘lidagi shiddatli kurash edi.

Bo‘lat Soliyev o‘zining “O‘zbekiston tarixi” asarida Amir Temur va temuriylar merosiga jiddiy e’tibor qaratadi. U o‘rta asr muarrixlarining bebaho merosidan unumli foydalanib, Movarounnahrning mo‘g‘ullar xurujidan keyingi fojiali iqtisodiy ahvoli, ichki feodal urushlarining mamlakat iqtisodiyotini qay darajada tubanga tushirganini chuqur tahlil qiladi. U, shunday og‘ir iqtisodiy tushkunlikda bo‘lgan Turkiston o‘lkasi, Amir Temurning shijoati, oqilligi va yuksak diplomatik mahorati tufayli, qanday qilib dunyodagi eng qudratli davlatga aylanganini batafsil yoritib beradi. Tarixchi, Amir Temur saltanati bu hududda shakllanishi hech qanday tasodif emasligini, balki Temuriylar saltanatining iqtisodiy-ma’naviy asosi bo‘lishi lozim bo‘lgan buyuk shaharlar mintaqada avvaldan mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydi. Soliyev o‘zining asari orqali, o‘zbek xalqiga o‘tmishi buyuk ekanligi, u ham boshqa xalqlar kabi dunyoga o‘z ta’sirini o‘tkazganini ta’kidlab o‘tadi.

Albatta, olimning o‘z millati tarixini yoritish yo‘lidagi bu fidoyiligi, sovet maxsus xizmatlari tomonidan jazosiz qolishi mumkin emas edi. 1936-yilda Samarqandda bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo tarixchilari va olimlarining qurultoyida Bo‘lat Soliyevga nisbatan “millatchi va panturkist” degan ayblovlar qo‘yiladi. O‘sha kundan boshlab uning ilmiy maqolalari jurnallarda bosilishi to‘xtatiladi, Soliyevning kitoblari va darsliklari oliy o‘quv yurtlari kutubxonalaridan yig‘ishtirib olina boshlaydi. 1937-yil olimning o‘zi ham “xalq dushmani” degan ayb bilan qamoqqa tashlanadi va qiynoqlarga solinadi. O‘zbek xalqining haqiqiy va buyuk tarixini yoritishga butun hayotini bag‘ishlagan bu fidoyi olim, 1937-yilning 13-oktyabrida sovet hukumati tomonidan otib tashlanadi.

SSSRning Amir Temur merosiga bo‘lgan mutlaqo toqatsiz siyosatiga qaramay, Bo‘lat Soliyevning shogirdlari Sohibqiron merosini o‘zbek xalqiga etkazish yo‘lidagi kurashni to‘xtatmaydi. Shunday jasur shogirdlardan biri o‘zbek tarixchiligi fidoiysi akademik Ibrohim Mo‘minov edi. U ham ustozining yo‘lidan borib, milliy merosni o‘rganish va targ‘ib qilishga bor kuchini sarflaydi.

Ibrohim Mo‘minovning 1968-yilda nashr etilgan “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” nomli asari, Temurning qudratli davlat tuzish yo‘lidagi kurashlari va faoliyatini o‘quvchilarga ko‘rsatib beradi. Ammo, Ibrohim Mo‘minovning ushbu risolasi nashr etilishi bilan, olimga nisbatan siyosiy bosimlar kuchayadi. O‘sha paytdagi KPSS’ning Mafkuraviy masalar bo‘yicha kotibiyati, olimni badnom qilish kampaniyasini boshlab yuboradi. Turli markaziy nashrlarda Mo‘minovning ilmiy faoliyati qoralangan, bo‘hton va yolg‘onlarga to‘la maqolalar e’lon qilinadi. Uning oila a’zolariga tazyiqlar uyushtiriladi. Bu tazyiqlar oqibatida, Ibrohim Mo‘minovning sog‘lig‘iga jiddiy salbiy ta’sir o‘tkazadi[8]. Lekin shunga qaramasdan, Mo‘minov o‘zining tadqiqotlarida sobitqadam bo‘lib qoladi va millat merosini saqlab qolish yo‘lida kurashda davom etadi.

Faqatgina O‘zbekiston mustaqillikka erishgachgina, Amir Temur shaxsiyatini o‘rganish va yoritish ishlari, erkin va keng ko‘lamda amalga oshirila boshlandi. Bugungi kunda, Bo‘lat Soliyev va Ibrohim Mo‘minov singari jonkuyar, o‘z millatiga sodiq tarixchilarimizning bebaho merosini keng jamoatchilikka etkazish - bizning muqaddas burchimizdan biriga aylangan. Bu zotlar, o‘zlarining hayotlarini xavf ostiga qo‘yib, sovet rejimining zulmidan qo‘rqmasdan, milliy tariximizni yoritish yo‘lida kurashgan edilar. Ular nafaqat o‘z bilimlarini xalq bilan baham ko‘rdilar, balki o‘zlarining jasorati va fidoyiligi bilan kelajak avlodlarga o‘rnak bo‘ldilar.

Ular o‘zlarining shijoati, matonati va jasorati bilan o‘zbek xalqining qalbida abadiy o‘rin egalladi. Ularning nomlari, o‘zbek tarixshunosligi va madaniyatida abadiy yashaydi. Shuningdek, biz o‘zimizning kelajak avlodlarimizga ularning jasorati va fidoyiligini etkazib, ular ham o‘z millatining buyuk o‘tmishi bilan faxrlanishlariga yordam berishimiz kerak. Ularning bebaho merosini o‘rganib, uni asrab-avaylash bizning nafaqat vazifamiz, balki ularga bo‘lgan minnatdorchiligimizning ham ifodasidir. Biz yosh avlodga ularning jasorati va fidoyiligini etkazish orqali, tariximizni qadrlashga va o'zimizga ishonishga yordam beramiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қувватлиев У. Жонкуяр жадид тарихчиси. // Жадид газетаси. – 2024. – 2 август.
2. Рыбаков.Б.А. История СССР с древнейших времен до конца XVIII в. Москва 1984. С 415.
3. Германов В. А. Деревние авторы о Средней Азии. Старный манускрипт. Блогословенна от дней творения // Звезда Востока. Алманах. – 2002. – №2. – Ташкент-Москва. – С. 4-5
4. Soliyev.B. O‘zbekiston tarixi. Toshkent: 1929, 139 b.
5. Soliyev.B. O‘zbekiston tarixi. Toshkent: 1929, b 4.
6. Quvvataliyev.U.Mafkuraviy kurash fronti.// Vatanparvar gazetasi. – 2024. – 13 dekabr.
7. Soliyev.B. O‘zbeklar ham Temur bolalari.\\ “Ma’orif va o‘qituvchi” jurnali Eski o‘zbek yozuvida. 1928 yil № 5-6.
8. Мўминов И . Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли . Т. , “Фан” . 1968 й . 51 - бет .

IS’HOQXON TO‘RA IBRAT HAYOT YO‘LI YOSHLAR UCHUN IBRAT NAMUNASIDIR

B.G‘. Rasulov
O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti

Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti tarix kafedrasi o‘qituvchisi
rasulovbaxtiyor219@gmail.com, telefon: +99893995-27-85

Annotatsiya: Ushbu maqola jadid namoyondasi Is’hoqxon to‘ra Ibrat domlaning hayoti va ijodi, marifatparvarlik g‘oyalari, maktabdorlik hamda maatbachilik faoliyati haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidlar, Is’hoqxon to‘ra Ibrat, 1862-yil, 1878-yil,1886-yil, Ahmad Yassaviy, To‘raxon maxdum, Junaydullaxo‘ja, Hurbibi, “Afsus” taxalusi, “Xodim” taxalusi, “Lo‘g‘ati sittati alsina”, “Jom’e ul-hutut”, “Tarixi Farg‘ona”, “Jome’ul-xutut”, “Matbaaiy Ishoqiya”.

ЖИЗНЕННЫЙ ПУТЬ ИСХОКХОНА ТУРА ИБРАТА — ОБРАЗЕЦ ДЛЯ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ

Аннотация: В статье представлена информация о жизни и творчестве ученого джадида Исхокхона Тора Ибрата, его идеях просветительства, его образовательной и издательской деятельности.

Ключевые слова: Джадиды, Исхокхан тура Ибрат, 1862-й год, 1878-й год, 1886-й год, Ахмад Яссави, Турахон Махдум, Джунайдуллаходжа, Хурбиби, псевдоним «Афсус», псевдоним «Ходим», «Словарь ситтати альсина», «Джоме 'ул-Хутут», «История Ферганы», «Джоме'ул-Хутут», «Матбаайы Ис'хакийа».

THE LIFE OF ISKHOKHON TURA IBRAT IS A MODEL FOR YOUNG PEOPLE.

Abstract: The article presents information about the life and work of the scholar jadid Iskhokhon Tura Ibrat, his ideas of enlightenment, his educational and publishing activities.

Keywords: Jadids, Iskhokhon Tura Ibrat, ear 1862, ear 1878, ear 1886, Ahmad Yassawi, Turakhon Makhdum, Djunaydullakhoja, Khurbibi, pseudonym "Afsus", pseudonym "Khodim", "Dictionary of sittati al'sina", "Jome 'ul-Khutut", "History of Fergana", "Jome'ul-Khutut", "Matbaayy Is'khakiya".

Turkiston jadidlaridan hisoblangan Is’hoqxon Ibrat jadidchilik g‘oyalarini tarqalishida o‘zining yuksak faoliyati bilan alofida iz qoldirgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu zahmatkash insonning hahot faoliyati vatanparvarligi, ilmi shijoati bugungi kun yoshlari uchun ibrat maktabidir. Ibrat domla to‘g‘risida president Shavkat Mirziyoyev ”Ulug‘ ajdodimiz Ibrat taxallusini o‘ziga bejiz tanlamagan, uning vatan va yurt taraqqiyoti yo‘lidagi fidokorona hayoti nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham barchamiz uchun haqiqiy ibrat namunasi bo‘lib qolmoqda” deb bejiz aytmaganlar.[1-1-B]

Is’hoqxon to‘ra Ibrat o‘z davrining shoir va olimi, noshir va pedagogi, ilm-fan sohasining mashhur islohatchisi, vatanparvarlik g‘oyalarining targ‘ibotchisi sifatida nom qoldirgan.

Professor U. Dolimov, Is’hoqxon To‘ra Ibrat haqida “Shoirning asli ismi Is’hoqxon bo‘lib, “Ibrat” uning taxalusidir. Is’hoqxonning o‘ziga Ibrat taxalusini olishini boisi shundaki, u faoliyatini dastlabki yillaridan boshlab, marifatparvar shoir, pedagog, olim sifatida zamandoshlarini, ayniqsa, yoshlarni zamon ilm-fanidan, ilg‘or madaniyatidan, yangicha ta’lim-tarbiya tizimidan ibrat olishga davat etdi” deya yuksak baho bergan. [2-4-B]

Is’hoqxon domla 1862-yili Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on qishlogida tavallud topgan. Uning bobosi To‘raxon maxdum Qo‘qon xonligida etiborga loyiq ziyolilar oilasiga mansub bo‘lib, To‘raqo‘rg‘onda qozilik qilgan hamda adabiyotga bo‘lgan qiziqishi tufayli “Afsus” taxalusi bilan she’rlar yozgan. Is’hoqxonning otasi Junaydullaxo‘ja sohibkor bog‘bonlardan hisoblanib, she’riyatga qiziqishi tufayli “Xodim” taxalusi bilan she’rlar yozib turgan. Uning shajarasi Ahmad Yassaviy avlodlariga borgan bo‘lib, bu borada Ibrat domlani o‘zi ham ta’kidlab o‘tgan.

Onasi Hurbibi o‘z davrining o‘qimishli oqila ayollaridan bo‘lib, o‘z uyida qishloq qizlariga dars bergan. Shuningdek, adabiyot va san’atga qiziqqan, she’riyat bilan ham shug‘ullanib turgan. Ushbu xonadonda Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Navoiy, Jomiy, Beydil, So‘fi Allayor kabi shoirlarni kitoblari mutolaa qilingan. Oiladagi bunday ma’naviy muhit tarzi, Ibrat domlada adabiyotning erta uyg‘onishiga omil bo‘lgan.

Otasi Junaydullo vafot etganidan so‘ng uning ta’lim tarbiya olishi bilan onasi shug‘illanadi. Professor U.Dolimovning takidlashicha, Is’hoqxon dastlab hijo usuliga asoslangan mahalla maktabida ta’lim oladi, Ammo, kiyenchalik onasini qizlar maktabida o‘qib savodini chiqargan.[2-7-B] Shuning uchun ham Is’hoqxon o‘z asarlarida onasini ustozi sifatida ko‘p takidlagan.

Adabiyot va san’atga zo‘r muhabbat qo‘ygan Is’hoqxon, XIX asr boshlarida barpo etilgan Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida 1878 yili o‘qishga kirib, 1886-yildsa bu ilm dargohini tamomlagan. Is’hoqxon Ibratning Qo‘qon madrasasida tahsil olgan yillarda Qo‘qon adabiy muhitining yirik namoyondalari Muqimiy, Furqat, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Haziniylar bilan yaqin aloqada bo‘lgan, adabiy mushoiralarda faol ishtirok etgan. Is’hoqxon Ibrat madrasada beradigan ilmlar bilan cheklanib qolmadi. U o‘qish davomida buyuk sharq olimlari asarlarini mustaqil ravishda qunt bilan mutolaa qildi va arab, fors var us tililarni chuqur o‘rgandi. Madrasani tugatib, To‘raqo‘rg‘onga qaytib o‘z qishlog‘ida maktab ochgan. Is’hoqxon to‘ra Ibrat o‘z maktabiga nisbatan ilg‘or bo‘lgan tovush (savtiya) usulini tadbiq qildi va “usuli savtiya”ni eski metod tarafdorlaridan himoya qildi. Biroq bu maktabida uzoq ishlay olmadi. Ayrim johil mutaassiblar uning maktabini “kofirlar maktabi” deb e’lon qilib, xalq bolalarini bu maktabdan qaytarishga harakat qildilar. Hatto general-gubernatorlik amaldorlar yordamida maktabni yoptirishga muvaffaq bo‘ldilar.[3-681-B]

Ibrat o‘zining “Lo‘g‘ati sittati alsina”, “Jom’e ul-hutut”, “Tarixi Farg‘ona” asarlarida yozishicha, 1887 yili, ya’ni 25 yoshida onasini Makkaga, haj ziyoratiga olib boradi. Biroq onaizoriga o‘z vataniga qaytish nasib etmadi.Onasi Huribibi Jidda shahrida o‘pka shamollash kasali bilan vafot etadi.

Onasini Jidda shahrida dafn etgandan so‘ng chet el hayoti va madaniyati bilan yaqindan tanishishni istagan Isxoqxon Sharq mamlakatlari bo‘ylab safarga otlandi.

Jidda, Istanbul, Sofiya, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida bo‘ldi. Ancha vaqt Afg‘onistonning Kobul, Arabistonning Jidda shahrida yashadi. Makka shahridan Qizil dengiz va Hind okeani orqali Hindistonga keldi. 1892-1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombey va Kalkuttada yashadi. Bu erda ko‘p ishlatiladigan arba’ lison, ya’ni to‘rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi. 1896-yili Hindistondan Birma orqali Xitoyga, so‘ngra Koshg‘arga o‘tadi va Namanganga qaytib keladi. Chet eldan qaytgach, olti tilni o‘z ichiga olgan “Lug‘ati sitta alsina” (“Olti tilli lug‘at”) asarini yozdi. Asar ancha qiyinchiliklar bilan 1901-yili Toshkentda Ilin bosmaxonasida chop etildi. Ilg‘or pedagog sifatida 1907-yilda o‘z uyida yangi usuldagi maktab ochdi. Unda 30 nafar qishloq bolalarini o‘qitadi.

1907 yili Ibrat Orenburgga boradi va Rizo Faxriddinning “Sho‘ro” jurnali faoliyati bilan tanishadi. U Orenburgda Gaufman degan matbaachidan pulini o‘n yil mobaynida to‘lash sharti bilan 1901-yilda chiqqan litografik mashina sotib oladi. Is’hoqxon litografik mashina va harflarni katta mashaqqatlar bilan Orenburgdan Qo‘qonga poyezdda, Qo‘qondan To‘raqo‘rg‘onga tuyalarda olib keladi. 1905-yili o‘zi qurdirgan hammom o‘rnida bosmaxona tashkil qiladi va “Matbaai Is’hoqiya” nomi bilan ishga tushiradi.

Is’hoqxon Ibrat jahon ilmi va madaniyatida yaratilgan har bir ilg‘or yangilikdan o‘z xalqini bahramand etishga harakat qildi. 1908-yili tashkil qilingan “Fotografiyai Is’hoqiya”, 1910-yili To‘raqo‘rg‘on aholisi uchun bunyod etilgan istirohat bog‘i buni tasdiqlaydi. U otasidan qolgan katta erni gulbog‘ qildi. Favvora qurdirdi. 150 tup manzarali daraxtlardan xiyobon yaratdi. Yevropa uslubida katta imorat qurdirib, uning arkiga “Xush kelibsiz, Is’hoqiya bog‘iga” deb yozdirib qo‘ydi. To‘raqo‘rg‘on ahli hozirgi kunda ham bu bog‘ni shu nomda ataydilar.

Is’hoqxon Ibrat 1897-1924 yillarda uzluksiz To‘raqo‘rg‘on qozisi lavozimida faoliyat ko‘rsatib adolatni, haqni ro‘yobga chiqishida ancha xizmat qilgan.

Ibrat - iste’dodli shoir. U uch – o‘zbek, fors va arab tillarida erkin ijod qilgan. O‘z she’rlarini to‘plab devon tuzgan. Ammo mazkur devon bizgacha etib kelmagan. Shunga qaramay, shoirning katta hajmdagi she’rlari vaqtli matbuotda bosilib chiqqan, bayozlarga kiritilgan. Ibrat o‘z she’rlarining kichik qismini 1909-yili o‘z matbaasida bosmadan chiqargan. Bundan tashqari jahon yozuvlari tarixiga bag‘ishlangan “Jome’ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) asarlarini yaratdi. Olimning mazkur asari katta hajmda - 132 betdan iborat bo‘lib, 1912-yilda o‘zining bosmaxonasi “Matbaaiy Ishoqiya” tomonidan nashr qilindi. Bundan tashqari muarrix sifatida “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Mezonuz-zamon” ilmiy asarlarini yaratdi.

Is’hoqxon Ibrat bilim doirasining ancha kengligi bilan ham zamondosh shoirlar va olimlardan ajralib turadi.U ko‘plab Sharq va G‘rb olimlarining ilmiy

asarlari bilan tanishgan. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, uning shaxsiy kutubxonasida rus va o‘zbek tilidagi mahalliy gazeta, jurnal boylamlari kitoblaridan tshqari Rossiyada nashr etilgan “Нива”, «Литературная Нива», kabi adabiy jurnallar boylamlari, “Turkcha – fransuzcha lo‘g‘at”, V.Nalivkin, M.Nalivkinalarning “Сартовскорусскийсловарь”, “Русскосартовский словарь”, “Краткая история Кокандскогоханство” asarlari, V.V. Bartold, V.V. Radlov, G.Vamberi kabi atoqli sharqshunos olimlarning o‘nlab asarlari bo‘lgan. Bular Ibratning evropa tillari va adabiyoti, rus va jahon sharqshunoslarining ilmiy asarlari bilan qiziqqanligidan, ularni mukammal o‘rganganligidan dalolat beradi.[3-684-b]

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Is’hoqxon Ibrat ijodidagi etakchi g‘oya ilm-ma'rifat, madaniyat va texnika yangiliklarini targ‘ib qilish g‘oyasidir. Ibrat ma'rifatparvarligining tub mohiyati shundaki, uning ilm-ma'rifatga chaqiruvchi she'rlarida inson taqdiri birinchi o‘rinda turdi. U xalqning iqtisodiy-madaniy hayotiga xizmat qiluvchi, uning mushkulini engillashtiruvchi, uzog‘ini yaqin qiluvchi ilm-fanni, texnikani targ‘ib etdi. Shu nuqtai nazardan, uning “Tarixi chopxona”, “Madaniyat haqida masnaviy”, “Gazeta xususida”, “Turkiston axdig‘a xitob”, “Tabrik Namangondin”, “Qalam”, “Tarixi manzumai vagon Ibratdin yodgor”, “Muxammasi Ibrat” kabi she'rlari diqqatga sazovor. Shoir bu she'rlarida mamlakatni, xalqni asriy qoloqlikka sudrovchi mutaassiblarni, qadimchilarni keskin fosh etdi. Ibrat mehnatkash xalq boshidagi og‘ir hayot, qashshoqlik, mamlakatning qoloqlikda, xalqning nodonlikda qolganining sabablarini aniqlashga, undan qutqarish yo‘llarini topishga harakat qildi. Bir necha tarahqiy etgan mamlakatlarda bo‘lgan Ibrat xalqni zulmatdan, mamlakatni qoloqliqdan qutqaruvchi birdan bir yo‘l ilm-ma'rifatni egallash deb tushundi. [4-776-B]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jadidchilik harakatining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Is’hoqxon Ibrat nafaqat tarixchi, shoir, tilshunos, noshir va o‘qituvchi balki o‘z davrining etuk diniy ilmlar ulomosi, qozisi va eng avalo vatnparvarlikni targ‘ib qilgan shaxs hisoblanadi. Uning asarlari yoshlarni kamolotga undaydigan yuksak g‘oyalar bilan sug‘orilgan bo‘lib bugungi kun insonlari uchun ibrat namunasi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Shavkat Mirziyoyev. 2016-yil Namangan viloyati saylovchilri bilan uchrashuvdagi nutqi. https://uza.uz/posts/56235.

2. Dolimov U. Jadidlar. Is’hoqxon to‘ra Ibrat. Toshkent., Yoshlar nashriyot uyi, 2022.

2. Ro‘ziyeva N. K Is’hoqxon To‘ra Ibrat shoir va olim, noshir va pedagog, din arbobi va tarjimon/Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences December 2021.

3. Mirahmedova S.N. Is’hoqxon Ibrat asarlarida ma’naviy-axloqiy qarashlarning o‘ziga xos xususiyatlari/ Academic research in educational sciences. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021.

I.A.AKRAMOV TEATR VA MUZEYSHUNOSLIK SOHASIGA HISSASI

Jamshid Avazovich Djurakulov
“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi Turizm va marketing bo‘limi boshlig‘i
jamshidavazovich@gmail.com

Annotatsiya: XX asr mobaynida tarix, adabiyot, san’at, axloq, ta’lim-tarbiyaviy g‘oyalarni ilgari surib, xalqning ma’naviy yuksalishi, qadimiy qadriyatlarni, urf-odatlarni tiklash va saqlab qolish yo‘lida shijoat ko‘rsatgan, jadidlar harakatining tub mohiyatida yotgan maqsadlarni amalga oshirishda faol vakillarini muzeyshunoslik sohasida faoliyat ko‘rsatganlar orasida ham bir necha misollar keltirish mumkin. Ana shunday tajribali xodimlardan biri O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyini 27 yil boshqargan Ismoil Akramovich Akramov hisoblanadi.

Kalit so‘zlari: Abdulla Qodiriy, Sadriddin Ayniy, teatr, dramar, muzeyshunoslik, yozuvchi, dramaturg, tarix, til, adabiyot, san’at, din, axloq, ta’lim-tarbiyaviy g‘oyalar.

Tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mamlakatimizda xilma-xil xalqlarning madaniyati, ufr-odatlari, diniy etiqodlarni va yashash tarziga oid rang-barang tarix chizgilarini uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, xalqaro va mahalliy muzeylarda saqlanayotgan, ko‘rgazma zallarining turli davrlar silsilasida namoyish etilayotgan eksponatlar fikrimizning yorqin isboti. Muzeylar har bir davlatning tashrif qog‘ozi uning jahon hamjamiyatidagi xalqlar madaniyatini shakllanishidagi o‘rnini, ahamiyatini aniqlab beruvchi, uning imidjini - qiyofasini tasavvur qilishdagi muhim strategik muassasadir. Fikrimizning yorqin misoli sifatida, davlat rahbarlarining xorij davlatiga tashriflarida ularning muzeylariga tashrif buyurishlarini aytib o‘tishimiz mumkin. Muzeylar shunday muhim ahamiyatga ega ekan, ushbu muassasada jonbozlik bilan samarali faoliyat ko‘rsatgan, ularning rivojlanishida, madaniyat osori-atiqalarini saqlash, ilmiy o‘rganish, targ‘ibot qilishda o‘z hissasini qo‘shgan muzeyshunoslarni xizmatlarini e’tiborsiz qoldirish adolatdan bo‘lmaydi.

“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasida faoliyat ko‘rsatgan ana shunday muzey xodimlari sifatida ko‘pchilikni misol keltirish mumkin. Ulardan biri muzeyda 27 yillik samarali faoliyat ko‘rsatgan Ismoil Akramovich Akramov hisoblanadi. U 1907-yil Samarqand shahrining Mirzo Pulat mahallasida ishchi oilasida tug‘ilgan. Uning otasi Akram Komiljonov jamoat ishlarining faoli bo‘lib, tipografiya xodimi bo‘lgan. Oilada 6 o‘g‘il va 1 qiz farzand bo‘lsada, uning otasi barcha farzandlarini ma’lumotli bo‘lishiga harakat qilgan. Uning mehnatlari samarasi natijasida Ismoil Akramov ko‘p yillar O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi direktori lavozimida, Sharif Akramov Hamid Olimjon nomidagi viloyat musiqali va drama

teatrida, Soli Akramov Samarqand davlat universitetida o‘qituvchilik kasbida samarali faoliyat ko‘rsatdilar [8].

Ismoil Akramov murakkab o‘zgarishlar davrida o‘zining yoshlik yillarini o‘tkazdi. U o‘zining tengqurlaridan faolligi, tashabbuskorligi va har bir ishga ijodiy yondoshishi bilan ajralib turganligini ijodiy hamkorlikda bo‘lgan Sh.Rashidovning “Ravshan” dramasi, S.Ayniy “Meni ustozim o‘zim (Ustodi man xudi man)”, G‘ofur G‘ulom va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Ismoil Akramov Toshkent moliya texnikumida o‘qishni bitirgach, O‘zSSR Markaziy bank bo‘limi boshlig‘i, Abdulla Qodiriy rahbarligidagi O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi kotibi lavozimida faoliyat ko‘rsatgan.

1941-yil Ismoil Akramov Vatan oldidagi burchini ado etish maqsadida frontga jo‘natiladi. U uchinchi Ukraina frontida xizmat ko‘rsatadi. 1944-yil urushdan qaytgan Ismoil Akramov Samarqand shahridagi madaniyat tashkilotlaridan biriga boshqaruvchi vazifasiga tayinlangan.

Ismoil Akramov ko‘p yillar Hamid Olimjon nomidagi musiqa va drama teatrida amalga oshirgan ishlari haqida yozuvchi dramaturg Ismoil-Zoda va xalq artisti Xoshim Narziqulov tomonidan “Samarqand O‘zbek teatri rivojlanishi tarixiga tavsif” fikrnomasida uning Samarqandda professional teatrning shakllanishi, dramaturgiya va tomoshabinlarni jalb qilish bo‘yicha amalga oshirgan ishlari haqida fikr yuritilgan. Ismoil Akramov Samarqand teatrining yosh havaskorlar to‘garagining birinchi faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib, keyinchalik ushbu to‘garak a’zolarining amaliy say-harakatlari samarasi o‘laroq professional teatr shakllanishida poydevor bo‘ldi. U Samarqand teatriga keng ommani jalb etish, badiiy ijodiy faoliyatini kengaytirishda o‘zining bir qancha asarlarini sahnalashtirib faoliyat ko‘rsatib keldi [2, Tom-804].

Ko‘pchilik yozuvchi va shoirlar, ijod ahli bilan birga faoliyat ko‘rsatishda yig‘ilgan tajribalar natijasida Ismoil Akramov 20 dan ziyod sahna asarlari, 2 qissa va hikoyalar yozdi. Uning “Lola” (1927-y), “Kurash” (1937-y), “Adolat” (1938-y), “Ayqand” (1939-y), “Muhabbat” (1940-y), “Onalar” (1944-y), “Taqdir” (1946-y), “Farog‘at” (1947-y) nomli pesalari o‘zbek va tojik xotin-qizlarining inqilobdan oldingi og‘ir hayoti, erkinlik uchun kurashishlarini aks ettiradi. Ismoil Akramovning “Amricha” (1931-y), “Shahar o‘t ichida” (1934-y), “Iskandar” (1943-y), “Uchinchi to‘y” (1944-y), “Yulduz va Qunduz” (1966-y) kabi asarlarida Sobiq ittifoq kishilarining qahramonlari tarannum etilgan [1, Tom-1, 211-bet].

Ismoil Akramov 1949-yildan 1976-yilgacha O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyiga rahbarligi davomida Samarqand shahridagi uzoq o‘tmishni o‘zida jo etgan tarixiy obidalar qayta ta’mirlanib, abadiylashtirib muzeylashtirildi, usta-hunarmandlar tomonidan yaratilib kelinayotgan milliy hunarmandchilik buyumlari, arxeologik qazishmalardan topilgan osori-atiqalar muzey fondiga eksponat sifatida

qayd etilib kiritildi va bugungi kundi ham muzeylar ekspozitsiya zallarida o‘z o‘rnini egallab kelmoqda.

Jumladan, Ismoil Akramov 1964-yil Samarqandning o‘ziga xos kulolchilik maktabini yaratgan Usta Umar Juraqulovning hunarmandchilik asarlarini holisona baholab, uning muzey fondida saqlanayotgan va ekspozitsiyalarda joylashtirilgan ashyolari to‘g‘risida ma’lumot berib, u tomonidan yaratilgan milliy hunarmandchilik buyumlarini e’tirof etib o‘tgan [3, Tom-805].

Yozuvchi, jamoat arbobi, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a’zosi, professor Sadriddin Ayniy Samarqandda yashab, bir necha yillar davomida ijod qilgan xonadoni va ashyolari aynan Ismoil Akramovning tashabbusi bilan “Sadriddin Ayniy uy muzeyiga” aylantiriladi. Uning boshchiligidagi komissiya a’zolari Samarqand, Buxoro, Toshkent, Dushanbe va boshqa shaharlardan to‘planib [4, Tom-1381], bugungi kunga qadar saqlanib, ekspozitsiyani mazmun va mohiyatini ochib berishda katta rol o‘ynab kelmoqda.

Ismoil Akramov 1955-yil 10-dekabrda XVI Samarqand shahar partiya konfrensiyasida, 1961-yil 3-dekabrda Farg‘ona viloyati madaniyat xodimlari viloyat kengashida, 1965-yil 18-iyulda Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro konfrensiyada, 1969-yil O‘zSSR fanlar akademiyasining Samarqand shahrining 2500 yillik yubileyiga bag‘ishlangan sessiyasida, 1971-yil Yodgorliklarni asrash jamiyatining II Respublika s’ezdi kabi nufuzli tadbirlarda Samarqanddagi tarixiy obidalar va yodgorliklarni saqlash, ta’mirlash ularni muzeylashtirish hamda keng ommaga targ‘ib qilish, jalb qilish bo‘yicha ma’ruzalar [5, Tom-1428, 1635, 1665, 1675, 1688] bilan faol ishtirok etgan. Ushbu ishtiroklar natijasida Ismoil Akramovich Samarqand muzeyining ayni vaqtdagi joriy ahvoli, dolzarb muommolari va ularning yechimlari haqida fikr yuritib, bu orqali nafaqat Samarqand muzeyining kelgusi faoliyatiga istiqbolli reja balki davlatning tegishli tashkilotlari tomonidan tarixiy obidalar va muzeylarni saqlash, yangi obyektlarni aniqlash, targ‘ib qilish va keng jamotchilikni jalb qilish bo‘yicha hamkorlikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, dasturlarni belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Samarqand muzeyi dastlab bir - ikki xonali ekspozitsiya zallaridan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 1964-1970-yillarga kelib Ismoil Akramov rahbarligida uchta filial O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi, Mirzo Ulug‘bek memorial muzeyi va S.Ayniy uy-muzeylarida 46 ta ekspozitsiya zallarida tomoshabinlarni qabul qildi. Muzeyga dastlabki yillarda 300 kishi tashrif buyurgan bo‘lsa 1917-yilda 6 738 kishi, 1959-yil 36 896 kishi, 1968-yil 266 381 kishi, 1969-yil 348 446 kishiga ekspozitsiya, ko‘chma ko‘rgazma va ekskursiyalar orqali xizmat qo‘rsatildi [6, Tom-1635]. Yuqorida qayd etib o‘tilgan statistik raqamlarning o‘zi bizga Ismoil Akramovning samarali faoliyatidan guvohlik bermoqda.

Nafaqat tashriflar sonini ko‘paytirish bilan balki yo‘qolib ketish xavfi baland, qadri beqiyos, yillar davomida saqlanib kelayotgan nodir ashyolarni to‘plab, fondni boyitish va to‘ldirish ishlari ham nazardan chetda qolmasdan muzeyning ilmiy xodimlaridan tashkil qilingan guruh a’zolarining uyushtirgan ekspeditsiyalar va qabul qilish komissiyalari vositasida muzey-qo‘riqxona fondini ko‘plab ashyolar qabul qilindi. Muzeyni tashkil qilingan yillari saqlash birligi 200-300 dona arxeologiya ashyolari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1964-yil 100 ming, 1969-yil esa 114 ming dona arxeologiya, numizmatika, etnografiya, hujjatlar, geraldika va mukofot, qo‘lyozma va noyob kitoblar, tabiat va negativlar fondiga saqlash birliklari to‘planganligini Ismoil Akramovning arxiv xujjatlariga kiritilgan hisobotlarida qayd etilgan [7, Tom-1688].

1969-yil muzeyda 20 ta ilmiy xodim faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, ulardan A.N.Bogdanov, G.V.Popov, Ye.V.Zabrodin, G.N.Upfal, M.X.Urmanov, I.I.Kazans, M.R.Salixbayevalar tomonidan yigirmadan ortiq ilmiy tadqiqotlar olib borilib, gazeta va jurnallarda maqolalar e’lon qilindi. Ushbu ilmiy xodimlarning ko‘pchiligi Vengriya, Bolgariya, Polsha, Germaniya [7, Tom-1688] davlatlarida bo‘lib, xorij muzeylari faoliyati bilan yaqindan tanishdilar va tajriba oshirdilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, Ismoil Akramov muzeydagi mehnat faoliyati davomida Samarqand muzeyning rivojlanishida hamda tarixiy obidalarni muzeylashtirishda o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбек Совет энциклопедияси. Том 1. Тошкент, 1971 й.
2. Самарқанд давлат музей-қўриқхонаси илмий архив хужжатлари. Том-804. Отзыв, «На работу И.А.Акрамов “Очерки по истории развития Самаркандского Узбекиского театра”, Исмаил-Заде, Х.Нарзыкулов. 1957й.
3. Самарқанд давлат музей-қўриқхонаси илмий архив хужжатлари. Том-805. “Усто-Умар Журақулов ишларига тавсиф”, Исмаил Акрамов, 1964 й.
4. Самарқанд давлат музей-қўриқхонаси илмий архив хужжатлари. Том-1381. Документы о музее Садриддин Айний / Дополнение к тематическому плану мемориалного музея С.Айний / Первый рекомендатсионный список по созданию творческих картин для мемориалного музея С.Айний. 1965 й.
5. Самарқанд давлат музей-қўриқхонаси илмий архив хужжатлари. Том-1428, 1635, 1665, 1675, 1688.
6. Самарқанд давлат музей-қўриқхонаси илмий архив хужжатлари. Том-1635, Доклад, И.А.Акрамова на сессию АН УзССР посвашенный 2500 летию г.Самарканд, 1969 г.; Том-1665, Отчетный доклад ИИ съезду

Общества охраны памятников истории и культуры Узбекистана за период 1967-1971 годы.
7. Самарқанд давлат музей-қўриқхонаси илмий архив хужжатлари. Том-1688. Доклады по работы музея с 1960-1970 й. И.А.Акрамов.
8. Соли Акрамовни Самарқанд замининг олими. С.Шарипов, Ш.Хасанова. Мақола. 2017 й., http://www.gosamarkand.uz/soleakramov
9. Intervyu. Ismoil Akramovning o‘g‘li Nodir Akramov bilan suhbatdan yozib olingan ma’lumotlardan foydalanildi. 2018 y.

ISLOM TA’LIMOTI VA AHMAD DONISH FALSAFIY MEROSIDA OILA MUNOSABATLARI

Abdurahmonov Xolboy To‘xtayevich
Alfraganus universiteti, mustaqil tadqiqotchi
xolboy_abd@mail.ru, +998977321006

Annotatsiya: Islom ta’limoti va Ahmad Donish falsafasi oila munosabatlari kontekstida muhim ahamiyatga ega. Islomda oila muhim ijtimoiy birlik sifatida qaraladi. U insonlarning bir-biriga bo‘lgan mas’uliyatini va mehr-muhabbatini ta’minlaydi.Islom ta'limotida er-xotin o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar aniq belgilangan. Ahmad Donish oila va jamiyat o‘rtasidagi bog‘lanishni ta’kidlaydi. Ahmad Donish falsafasida axloqiy qadriyatlar oila munosabatlarida muhim o‘rin tutadi. Islom va Ahmad Donish falsafasi bu jarayonda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Islom ta'limoti va Ahmad Donish falsafasi oila munosabatlarini tushunishda muhim manba hisoblanadi. Ular oila va jamiyat o‘rtasidagi bog‘lanishni, axloqiy qadriyatlarni va madaniy merosni saqlashni ta’kidlaydi. Oila munosabatlari ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishning asosi sifatida ko‘riladi.

Аннотация: Исламское учение и философия Ахмада Дониша имеют важное значение в контексте семейных отношений. В Исламе семья рассматривается как важная социальная ячейка. Это обеспечивает ответственность и любовь людей друг к другу. Права и обязанности между мужем и женой четко определены в исламском учении. Ахмад Дониш подчеркивает связь между семьей и обществом. В философии Ахмеда Дониша моральные ценности играют важную роль в семейных отношениях. Ислам и философия Ахмада Дониша занимают в этом процессе особое место. Исламское учение и философия Ахмада Дониша являются важными источниками для понимания семейных отношений. Они подчеркивают связь семьи и общества, сохранение моральных ценностей и культурного наследия. Семейные отношения рассматриваются как основа социальной стабильности и развития.

Abstract: Islamic teachings and the philosophy of Ahmad Donish are important in the context of family relations. In Islam, the family is considered an important social unit. It ensures the responsibility and love of people for each other. Islamic teachings clearly define the rights and obligations between husband and wife. Ahmad Donish emphasizes the connection between family and society. In the philosophy of Ahmad Donish, moral values play an important role in family relations. Islam and the philosophy of Ahmad Donish play a special role in this process. Islamic teachings and the philosophy of Ahmad Donish are important sources for understanding family relations. They emphasize the connection between family and society, the preservation of moral values and cultural heritage. Family relations are seen as the basis of social stability and development.

Kalit so‘zlar: Islom ta’limoti, Oila, Munosabatlar, Axloqiy qadriyatlar, Jamiyat, Huquqlar, Tarbiya, Ijtimoiy barqarorlik, Ahmad Donish, Falsafa, Mas’uliyat, Mehr-muhabbat.

Ключевые слова: Исламское учение, Семья, Отношения, Моральные ценности, Общество, Права, Образование, Социальная стабильность, Ахмад Дониш, Философия, Ответственность, Любовь.

Keywords: Islamic teachings, Family, Relationships, Moral values, Society, Rights, Education, Social stability, Ahmad Donish, Philosophy, Responsibility, Love.

Insoniy taraqqiyotda “Nur Sharqdandur” degan ulug‘ e’tirofga musharraf bo‘lgan Sharq tamadduni inson hayotining tub mohiyati bo‘lgan komillikning yaxlit tizimini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Ma’naviyati yuksak, e’tiqodi butun, aql-idroki baland, niyatlari ezgu, maqsadlari ulug‘ barkamol shaxs tarbiyasi Sharq tamaddunining buyuk vazifalaridan biri bo‘lib kelgan. Jaloliddin Rumiy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Muhammad Qoshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Kaykovus, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Bahovuddin Naqshband, Shayx Sa’diy, Hofiz Sheroziy, Amir Temur, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Bobur, Ahmad Donish kabi mutafakkirlarimiz ma’naviy-ahloqiy va ilmiy-falsafiy tafakkuri ma’naviy ibtidoga asoslangan hayot tarzining, komillikka erishishning yaxlit konsepsiyasidir “[1]”.

Sharq tamadduni oilaga muqaddas qadriyat sifatida qaragan. Ulug‘ mutafakkirlarning ma’naviy-ahloqiy merosida oila va nikoh munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar tarbiyasi, oila burchi masalalari muhim o‘rin tutadi.

Islom ta’limotida oila muqaddas sanalib, oilaviy munosabatlar, oilada farzand tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Qur’oni karimda «Alloh sizlar uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o‘g‘illar va nabiralar paydo qildi va sizlarni pok narsalardan rizqlantiradi... Bas, (ular) botil (butlar)ga imon keltirib, Allohning ne'matini inkor eturlarmi?! » “[2]” degan oyati karima nozil qilingan. Islomiyatning buyuk elchisi payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam ummatning haq yo‘lda barqaror bo‘lishida beqiyos hissa qo‘shgan va: «Uylaninglar, ko‘payishinglar, chunki men qiyomat kunida ummatimning ko‘pligi bilan faxrlanaman», “[3]” deb marhamat etgan. Islom dinida bo‘lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e’tibor berilgan hamda farzandlarning nasli pok bo‘lishini hisobga olingan. Kelin yoki kuyov qilmoqchi bo‘lgan har bir ota-onaning bo‘lajak qudalar naslini surishtirishlari yohud har bir musulmon o‘zining «yetti pushti»ni bilishi lozim, degan talablar ham islom ma’naviyatidan kelib chiqqan. Oila qurish Islomdan oldin ham bo‘lgan, lekin oilada erning va ayolning huquqlari va mas’uliyatlarini tom ma’noda Islom dini ko‘rsatib berdi. Sarvari olam Muhammad sollallohu alayhi vasallam “Jannat – onalar oyog‘i ostidadir”, – deb marhamat qilganlar. Shuningdek, ota-onani rizoligini olish borasida: “Alloh taoloning rozi bo‘lishi ota-onaning rozi

bo‘lishiga va Allohning g‘azabi ham ota-onaning g‘azabiga bog‘liqdir” deya buyurdilar (Imom Buxoriy rivoyati).

XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan sharq mutafakkirlaridan biri Ahmad Donish o‘zining «Navodir ul-vaqoe» («Nodir voqealar») nomli asarida «Nikoh odoblari bayoni, uylanish shartlari, qaynona va kelinning xusumati» haqida batafsil bayon qilgan. Mutafakkirning fikricha, inson muayyan yoshga etgandan keyin unda oila qurish, uylanishga zarurat paydo bo‘ladi. Albatta, bu davrda inson oila, oilaviy baxt, er-xotinlik, farzandlik, ota-onalik burchlari haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Darhaqiqat, donishmand ayolni sevmoq, hurmat qilmoq har bir erkak (er)ning vazifasi ekanligini aytib o‘tadi. Oilaviy baxt insonlarning orzu-istaklari, maqsadlariga etishib yashashdir. Ahmad Donish oilaviy baxt ko‘proq xotinlarga bog‘liq, chunki erkak uchun soliha xotindan ortiqroq hech bir ne’mat yo‘qdir, oiladagi inoqlik, totuvlik, saranjomlik ular qo‘lidadir, degan fikrlarni ilgari suradi hamda oila qurish motivlarini kengroq yoritib beradi.

Madaniy merosimizda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida bu kabi betakror namunalarni ko‘p bora uchratamiz. Diniy qadriyatlarda kattalar, aynan, ota-onalarning yosh kelin-kuyovlarga oilaviy turmush haqida nasihatlar qilishlari, hayotiy tajribalarni aytib berishlarilari odat tusiga kirib qolgan. Ayniqsa, kelinlarga qilingan nasihatlar qo‘lyozmalarda saqlanib qolgan.

Sahoba Anas ibn Molik roziyallohu anhu: «Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning sahobalari yangi kelinlarga erining hurmatini va xizmatini qilishga buyurar edilar», – deganlar “[4]”. Amoma ismli ayol o‘z qizini kuyovning uyiga baxtli oila asoslarini bayon qiluvchi quyidagi pand-nasihat bilan kuzatgan ekan:

«Ey qizginam! Agar ahli fazlga nasihat kerak bo‘lmaganida, senga ham nasihat qilmasdim. Lekin nasihat – g‘ofilga eslatma, oqilga yordamdir. Agar qiz bola ota-onasining kambag‘alligi sababligina erga berilishi kerak bo‘lganida, sen hech qachon uzatilmagan bo‘lar eding. Chunki otangning boyligi, martabasi etarlidir. Lekin Alloh belgilab bergan hayot qonunlariga ko‘ra, ayollar erkaklar uchun va aksincha, erkaklar ayollar uchun yaratilganlar.

Qizginam! Endi sen o‘zing o‘sgan havodan ayrilding. O‘zing yayrab-yashnagan oshyondan chiqding va notanish joyga borib, avval o‘zing bilmagan sherikka uchraysan.

U endi sening xojang, do‘sting va mahbubingdir. Sen uning uchun quyidagi o‘n xislatni ado etsang, oilada mas’ud va baxtiyor hayot kechirasizlar:

1. Qanoat sohibasi bo‘l, undan hayiqib tur. Ering uyga nima ko‘tarib kelsa, xushfe’llik va odob-nazokat bilan qabul qilib ol, tashakkur ayt.

2. Eringga hamisha itoatda bo‘l, amrlarini yaxshilab tingla va bajar.

3. Eringning nazari tushadigan joylarga e’tibor qil. U senda xunuklik ko‘rmasin. Uy ichi va hovlini nihoyatda ozoda va tartibli tut.

4. Eringning burniga hushyor bo‘l. Dimog‘iga sendan yomon hid kirmasin, faqat xushbo‘ylik sezsin.

5. Ovqatni vaqtida tayyorla, aslo kechiktirma. Ering uyga kelishi bilan, dasturxon sol.

6. Uning uyqu vaqtini, uyg‘onish paytini bilib ol. Chunki ochlik va uyquning buzilishi erkaklarning g‘azabini qo‘zg‘aydi.

7. Xojangning moli va ashyosiga e’tiborli bo‘l, isrof qilma, avaylab asra!

8. Eringning qarindoshi va yaqinlarini izzat-hurmat qil. Bu bilan xojangni hurmat qilgan bo‘lasan.

9. Eringning sirlarini boshqalarga aytuvchi bo‘lma, uning ishonchini yo‘qotasan.

10. Xojangning amriga osiy bo‘lma, uning dinga to‘g‘ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil. Shuni yaxshi bilib olki, xojang xafa bo‘lganda xursand ko‘rinishdan, u quvongan paytda g‘amgin bo‘lishdan o‘zingni ehtiyot qil!» “[5]”.
Kuyovlarga pand va ko‘rsatma ham o‘z o‘rnida bo‘lgan.
«Ayol kishining o‘zgacha tafakkur uslubi mavjud. Uning nafsoniyatini fahmlash va ehtiromini qozonish uchun quyidagi nasihatlarga amal qilish zarur bo‘ladi:

- ayol kishining tafakkurini, uning tabiatini, boshqacha yaratilganini hurmat qilish;
- uni e’tiborsiz qoldirmaslik, muhabbat, mehr va omonlik hadya etish;
- ayolning shikoyatlarini e’tiborsiz qoldirmaslik, har doim ma’naviy qo‘llab-quvvatlash;
- unga hadyalar berish, sovg‘alar taqdim qilish;
- oila ahlini ziyorat qilishiga ijozat berish;
- rashk ayollik izzat-nafsini rozi qilib turuvchidir, shuning uchun ba’zan rashkni bildirib turish;
- ayolga lutf ko‘rsatish;
- uning ayblarini yuziga solmaslik;
- uning fikrlarini hurmat qilish;
- unga xiyonat qilmaslik, zero ayol uchun eng og‘ir narsa erining xiyonat qilishidir.
- uning o‘zini ham, his-tuyg‘ularini ham masxara qilmaslik;
- uning talablarini unutmaslik, qadr-qiymatini o‘rniga qo‘yish;
- undan yordamni ayamaslik, zotan ayol zoti doimo o‘zi ishonadigan va suyanadigan shaxsga muhtojdir;
- oilaviy mas’uliyat va va’dalarga amal qilish;
- uyning mayda-chuyda ishlariga ko‘p aralashmaslik, bu borada ayolga ishonch bildirish;

- ayol kishining homiladorlik, farzand dunyoga keltirish kabi og‘ir holatlarni boshidan o‘tkazishini aslo unutmaslik va o‘sha paytlarda unga

yanada ko‘proq mehribon bo‘lish;

- uning shaxsiy erkinligini ko‘p cheklamaslik.

Sharq tamaddunining ijtimoiy-ma’naviy merosi bugungi axborot jamiyati, globallashuv va ma’naviy tahdidlar davrida ayniqsa o‘ta dolzarb va qimmatlidir.

Jamiyat hayotida, oilaviy tarbiyada, ta’lim jarayonida ajdodlar ma’naviy merosida tarannum etilgan umuminsoniy qadriyatlar, odamiylik, mardlik, muruvvat, mehr-oqibat, sahovatpeshalik, xushmuomalalik, halollik, rostgo‘ylik, ma’rifatparvarlik, mehnatsevarlik kabi yuksak fazilatlarni ijtimoiy tafakkurga singdirish tamaddunning buguni va ertasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jadidlarning Ma’rifiy Faoliyati: G‘oyalari, maqsadlari, vazifalari va sohaga oid zamonaviy tadqiqotlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami 2022-yil.
2. Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi. Tarjimon: Abdulaziz Mansur 173-b
3. oliymahad.uz Islomda nasl-nasab muhofazasining ahamiyati
4. muslim.uz Oila, nikoh va taloqqa oid shar’iy hukmlar

BEHZOD FAZLIDDINNING “OG‘RIQ”, “SHOIR”, ''XASRAT'' SHE'RLARIDA RAMZIYLIK

Ergasheva Nilufar Nosirjon qiz
Namangan davlat universiteti "O‘zbek adabiyotshunosligi" kafedrasi 1-kurs magistranti, nergasheva804@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada XX asr o‘zbek she'riyatining yosh vakili Behzod Fazliddin she'rlarida inson konsepsiyasi ya'ni inson va davr o‘rtasidagi munosabat bayon qilingan. Maqolaga "Og‘riq", " Shoir" she’rlari asos qilib olindi. Bu she'rlardagi har bir ifodaning ma'nolari tahlil etildi.

Kalit so’zlar: qazo, armon gullari, oyoqlar tiqilgan chashma, baxtli o‘g‘riman, *qazo bo‘ldi* , "Armon gullari" , "ko'z ostidan chiqqan arilar" .

XX-XXI asrlar o'zbek she'riyatida shakliy va ma'no o'zgarishlari adabiyot bo'stoniga shamolday kirib keldi. Bu jumlani o'qib she'riyatdagi qahramon ham o'zgardimi? degan savol hayolimizga keladi. Yo'q, zamon va shoir qalami yangilangani bilan she'rning bosh qahramoni insonligicha qoladi. Chunki asr, zamon, muhabbat va Allohga bo‘lgan ishq kabi tuyg‘ular o‘zgargani bilan doim asarlar markazida inson turadi. Lekin Hodi Toqtash aytganidek " Muhabbat ul eski narsa, ammo har bir ko’ngil uni yong’ortaydi."[107] hissiyotlar ya'ni muhabbatlar o‘zgartirib tasvirlanadi. Yosh Bekzod Fazliddin haqidagi Xurshid Davronning so‘zlari ham fikrimizning tasdig‘idir. "Daqqiyunusdan qolgan dunyoda xar bir asl oshiq ko‘xna muhabbatni yashartirganidek, har bir yangi ist’edod ham eski mavzularni yangilaydi, ko‘zimiz o‘rganib qolgan dunyoga boshqacha nigoh tashlashga da'vat etadi. Behzodning she'rlarida men o‘sha yosharishni, ana shu o‘ziga xos nigohni qolaversa, o‘zim mansub bo‘lgan avlodning adabiyotga kirib kelgan chog‘laridagi bir nafasni sezgandek bo‘ldim".[108] Har bir yangi davrda she'rlardagi muhabbatga, insonlarga qaratilgan tasvir o‘zgarib boradi. Chunki har bir shoirning o‘z uslubi bor. Shoirning to‘rt misradangina iborat "Shoir" she'riga e'tibor qaratsak Navoiy, Bobur, Lutfiy g‘azallarining yangi ko‘rinishini ko‘rgandek bo‘lamiz.

Hamma so‘zlar Seniki edi,
Sochding, terib olaverdim jim.
Bu oltinlar meniki endi,
Men eng baxtli o‘g‘riman, Tangrim.[109]

[107] Hodi To’qtash.”Har yurakning bahori bor’’ .Toshkent 1936-yil

[108] Xurshid Davron ‘’Bahordan bir kun oldin’’.1997-yil

[109] Беҳзод ФАЗЛИДДИН СЕН ҚАЧОН ГУЛЛАЙСАН Тошкент «MEHRIDARYO». 2008. 44-бет

Birinchi misrani mutolaa qilgan kitobxonning xayoliga mumtoz g‘azaldagi kabi ramzan Allohga bo‘lgan muhabbat ya'ni yaratuvchiga eltuvchi yo‘l borligini his qilamiz. Shoir yozgan she'rlaridagi hamma so‘zlarni, ya'ni she'rning dunyoga kelishidagi ist’edod, ilhomini Yaratuvchi berishiga ishora bor. "Sochding terib olaverdim jim" she'rlaridagi so‘zlarni go‘yoki osmondan yomg‘ir kabi sochilganiga ishora bor. "Bu oltinlar meniki endi" she'rlarini shoir oltinga benzamoqda. Oltin moddiy tarafdan eng qimmatbaho metal hisoblanadi bu she'rlarining qiymatiga qiyoslanmoqda, yana bir tarafdan oltin yuz yil tuproq ostida qolsa ham zanglamaydi, qiymati pasaymaydi. Shoir ham she'rlarini oltinga o‘xshatish orqali ularni ham umrboqiy qolishiga ishora sezamiz. "Men eng baxtli o‘g‘riman, Tangrim" bu misralarda shoir o‘zini oltinni o‘g‘irlayotgan o‘g‘riga qiyoslayapti. Baxtli o‘g‘ri birikmasi, shoirning oxorli topildig’i bo’lib, “o‘g‘ri” so’ziga balki, she’riyatda birinchi marta “yoqimli” vazifa yuklanmoqda.

Behzod Fazliddinning **"Og‘riq "** she'ridagi ramziylik:

Qancha kunlar qazo bo‘ldi,
Jonimizga jazo bo‘ldi.
Bizdan kimlar rizo bo‘ldi?
Egamizga nima deymiz?[110]

Avvalo, adabiyotda asar tahliliga kirishgan har bir inson, birinchi o'rinda sarlavhaga e'tibor qaratadi chunki asar ma'nolar xazinasi sandig‘ining kaliti, o‘sha birgina sarlavha bahor iforidan mujda beruvchi qaldirg‘och kabi xabarchidir. She'r yoki badiiy asarni tahlil qilishda birinchi o'rinda sarlavhadagi nomning asarda ma'nosi yuzaga chiqqanini kuzatamiz. Masalan, "Mehrobdan chayon" asarini mutolaa qilish davomida chayonlarning namoyishini kuzatamiz. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib she’rning birinchi misra tahliliga o’tamiz: ***"Qancha kunlar qazo bo‘ldi ,"*** asli shaklan so‘roqni bildirgan bu gapning oxiriga vergul qo‘yilishi so‘roqni emas balki kuchli darakni bildirmoqda. ***Qazo*** so‘zini biz Islom dini arkoni hisoblangan namozga nisbatan ishlatamiz. Bu qoldirilgan, ya'ni o‘z vaqtida ado etilmagan namozdir. Qazo so‘zining yana bir etimologik ma'nosiga murojaat etsak o‘lim soati ajal degan ma'no kelib chiqadi. ***Qazo*** namozga nisbatan ishlatilganda "qoldirilgan namoz" ma'nosini ifodalasada bu misrada esa vafot etgan kunlar, o‘lgan kunlar (yo’qotilgan) ma'nosida kelmoqda. Ikkinchi misrada esa ***"Jonimizga jazo bo‘ldi"*** qazo bizga jazo bo‘ldi degan mavzu davom etmoqda bu satrda ham hayotdagi beparvolik bu dunyoni deb oxiratni unutilganiga ishora bor. "Og‘riq" she'ri insonning umri davomida hech kimga foyda keltirmagani, faqat o‘zini o‘ylab hayot kechirgan inson taqdiri aksidir. Bu misra benihoya kitobxonni e'tiborini tortadi.

[110] Бехзод Фазлиддин "Тушларингдан чикиб келдим" Тошкент. Тамаддун. 2017.96-бет

Shayton buncha sohibjamol?!

Aynan shoir ushbu misra orqali insonlarga hayot davomida juda ko‘p xunuk narsalar chiroyli ko‘rinishi, tashqi ko‘rinish aldamchiligini ifodalaydi.

"Hasrat" she'rini mutolaa qilar ekanmiz bu dunyo insonlarining jabrlaridan azob chekkan inson iztiroblari turli tashbehlar asosida ifodalanganini ko'ramiz.

Yaram o'tib ketdi jon-jonlargacha,
Hali ko'p ingrayman azonlargacha.
O'ylab charchamayman qachonlargacha
Armon gullariga ildizligimni?[111]

Yara insonning asosan tana qismida bo'ladi, hayot zarbalari muhabbat azoblari ta'sirida insonning yuragiga ham yara kirib boradi. Azongacha ingrayman degan misra shoirning azoblardan charchagan qalbi ifodalanmoqda. "Armon gullari" gul bu go'zal hayot ifodasi, dunyodagi barcha chiroyli narsalarning inkosi sifatida hayolimizni zabt etgan. Lekin armon bilan birga kelsa baxtsizlikka erishgan umr tasviridir. Nega aynan ildiz so'zi ishlatilmoqda? ildiz bu daraxtni yashatuvchi, nafas olduruvchi qismidir. Armon gullariga ildizligi esa armonni nafas oldiruvchi yashatuvchisi ekanligiga ishoradir.

Ko'zimga tumanlar kutadi kimlar,
Izimga tikanlar otadi kimlar,
So'zimga kishanlar tutadi kimlar,
Bilib osmoni yo'q yulduzligimni.[112]

Yulduzning himoyachisi osmon deyiladi. Chunki osmon olisda va o'z yulduzini odamlardan uzoqda saqlaydi. Lekin osmoni yo'q yulduzlarga niyati yomon kimsalar ko'ziga tumanlar tutadi ya'ni ko'zini ko'rmasligini istamoqda. Iziga tikanlar otmoq ya'ni yurishini xohlamaslik, so'ziga kishanlar tutmoqlik esa so'zlashini xohlamaslikni ifoda etadi.

Mudom ko'z ostidan chiqqan arilar,
Umrimdan gunohlar yiqqan arilar,
Birovning nishida chaqqan arilar
Bilmasmi bulbulmas, qo'ng'izligimni?[113]

Yashashda davom etarkan inson turli holatlarga duch keladi. O'z yaqini deb hisoblagan insonlarning yomonliklariga to’qnashadi. Shoir she’rlarining o’qilishligini ta’minlaydigan vositalardan biri xalq falsafasini chuqur anglash, xalq og’zaki ijodidan oziqlanish, shu jumladan maqol, hikmatli so’zlar, iboralar kabi barqaror birikmalardan mohirona foydalana olishdir. Albatta har qaysi ijodkor xoh nasrda ijod qilsin, xoh nazmda – o’z asarlarida xalq og’zaki ijodi

[111] Беҳзод ФАЗЛИДДИН СЕН ҚАЧОН ГУЛЛАЙСАН Тошкент «MEHRIDARYO» 2008 59-бет
[112] Беҳзод ФАЗЛИДДИН СЕН ҚАЧОН ГУЛЛАЙСАН Тошкент «MEHRIDARYO» 2008 59-бет
[113] Беҳзод ФАЗЛИДДИН СЕН ҚАЧОН ГУЛЛАЙСАН Тошкент «MEHRIDARYO» 2008 60-бет

namunalarini albatta qo’llaydi. Behzod Fazliddin ham iboralardan foydalanish borasida ularga ijodiy yondashadi, ayrim o’rinlarda ularga ayricha jilo beradi, ba’zan aynan keltirish orqali poetik niyatiga erishadi. Jumladan, "Ko'z ostiga olmoq" o'zbek adabiyotida o'ziga eng yaqin inson sifatida hisoblamoq degan ma'noni anglatadi, ammo "ko'z ostidan chiqqan arilar" esa doim yaqining bo'lib turib seni chaquvchi insonlardir. Ari tabiatdagi gullardan shira yig'uvchi hasharot hisoblanadi. Lekin "umrimdan gunohlar yiqqan arilar" deganda savobni emas gunohlarini hammaga ko'rsatuvchi inson qiyofasi ramziy ma'noda ifodalaydi. Ramz (arabcha - ishora) badiiy adabiyotda voqealikni badiiy aks ettirish usulidir.[114] Bu istilohdan kelib chiqib " birovning nishida chaqqan arilar " bu o'zini yaxshi ko'rsatib boshqalar orqali zarar beruvchi makkor insonlar ifodasi berilmoqda. Bulbul so'zini eshitsak doim go'zal navo qiluvchi qush hayolimizga keladi. Shoirlar birorta qushga bulbul kabi ko'p satrlarni bag'ishlamagan. Uning sayrashi eng chiroyli hisoblanadi va uni hali hech kim ko'ngildagidek tasvirlay olmagan. Shuni fakt sifatida keltirsam bulbulni sayrashini birinchi bo'lib tasvirlashga yunon dramaturgi Aristofan urinib ko'rgan. Endi shoir she'riga qaytsak o'zini bulbul emas qo'ng'iz demoqchi, lekin raqiblar uni bulbul deb deb o'ylashadi va unga nayza sanchishadi.

Yuragim -oyoqlar tiqilgan chashma ,
Hali bir tomchimga qilaman tashna,
Yuzimga solishing shart emas, oshna,
O'zim ham bilaman yolg'izligimni...[115]

Chashma bu erning uzoq qaridan chiquvchi toza suvdir. Lekin bu misrada oyoqlar tiqilgan chashma deb ifodalanmoqda. Bu toptalgan, oyoq osti qilingan umrga qiyoslanmoqda. Kunlar o'tib boradi va sen chanqaysan ya'ni me'ni qadrimga etasan va kunlar o'tgan sayin mening qadrim bilinadi demoqchi. Hozir yolg'izligini biladi, lekin uni birovdan eshitishini so'ramoqchi. Nega dushmanni “oshna” deb murojaat qilayapti bu ramziy ifoda bo'lib kinoya asosida aytilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Behzod Fazliddin she'rida ramziylik va turli insonni mushohada qilishga undovchi satrlar keltirilgan. Ramziylik she'r va hikoyalarga badiiylik aks etuvchi vositadir. Shoir she'rida ham bu kitobxonni o'qishga undovchi go'zallikni yaratishga turtki bergan omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беҳзод ФАЗЛИДДИН СЕН ҚАЧОН ГУЛЛАЙСАН Тошкент «MEHRIDARYO» 2008 60-бет

[114] Беҳзод ФАЗЛИДДИН СЕН ҚАЧОН ГУЛЛАЙСАН Тошкент «MEHRIDARYO» 2008 60-бет

[115] Беҳзод ФАЗЛИДДИН СЕН ҚАЧОН ГУЛЛАЙСАН Тошкент «MEHRIDARYO» 2008 60-бет

2.Бехзод Фазлиддин "Тушларингдан чикиб келдим" Тошкент. Тамаддун. 2017.96-бет
3.Hodi To’qtash.”Har yurakning bahori bor’’ .Toshkent 1936-yil
4.Xurshid Davron ‘’Bahordan bir kun oldin’’.1997-yil

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССРДАГИ ИШЧИ ҚАТЛАМ ОРАСИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИ ОММАЛАШТИРИШ ОРҚАЛИ “ПАХТА ПЛАНИ”НИ ОШИРИШДА ФОЙДАЛАНИЛИШИ

Қазбек Бозорбой ули Нағашбоев
Ўзбекистон Фанлар академияси Тарих институти 2-босқич таянч докторант

Аннотация: Мазкур мақолада Совет ҳокимиятининг Ўзбекистон ССРда ишчи қатлам орасида жисмоний тарбияни ривожлантирганлиги, бундан кўзланган асосий мақсад “пахта плани”ни ошириш бўлганлиги акс эттирилиди.

Калит сўзлар: ишчи қатлам, пахта плани, миллий спорт ўйинлари.

Ўзбекистон ССР ташкил этилгач, Совет ҳокимияти бу ерни пахта хомашё марказига айлантира бошлади. СССР марказларидан бири бўлган Ленинград вилояти катта ҳажмдаги текстил фабрикасига эга бўлиб, унинг ривожи СССРнинг олис вилоятларига, айниқса Ўзбекистон ССРдан келадиган пахтага боғлиқ еди. Ўзбекистон ССРдан СССР марказий ҳудудларига жўнатилиши лозим бўлган пахта миқдори йил ўтган сайин ошса ошдики, лекин камаймади. Умумиттифоқ Коммунистик партия (большевик) Марказий қўмитаси томонидан Марказий Осиёга 1932 йил учун 32 эмас, балки 48 млн. пуд пахта териш юклатилади[116]. Шунингдек, Ўзбекистон ССРда “пахта режаси”ни бажаришга қаратилган тарғибот ишларини Жисмоний тарбия ташкилотлари ходимларига юклашди. Сабаби, Совет ҳокимияти наздида, пахта режасини бажариш кўрсаткичи – асосан дехқонларнинг жисмоний қувватига боғлиқ эди. Шу мақсадда аҳолини, айниқса, аҳолининг катта қисмини ташкил этувчи қишлоқларда истиқомат қилувчиларни жисмоний тарбияга кенг кўламда жалб этиш мақсадида жисмоний тарбия тўгараклари ташкил этила бошланди. Ўзбекистон ССР Жисмоний тарбия ташкилотлари – пролетариат маданий армиясининг муҳим қисмларидан бири сифатида баҳоланган бўлиб, юқоридаги масалаларда фаоллик кўрсатиши керак деб баҳоланди. Шунингдек, Совет ҳокимияти Ўзбекистон ССРда жисмоний тарбия билан шуғулланувчилар зиммасига - колхозга қўшилиб, пахта районларида ўрнак бўлиши, европа қишлоқ хўжалик инвентарларини

[116] Ўзбекистон миллий архиви Р-86 фонд, 1-рўйхат, 5967-иш, 233-варақ

ишлатишни ўрганиб бошқаларга ҳам ўргатиши, ҳамда ичкиликбозликка, кашандачиликка, динга қарши курашиш вазифаси юклатилган[117].

Ўзбекистон ССРда Жисмоний тарбияни ривожлантириш ҳаракати 1924 йилдан бошланган бўлиб, Бироқ,ундан кейинги беш-олти йил ичида, жуда оз киши жисмоний тарбия тўгаракларига жалб қилинди (3 700 000 дехқондан 300 таси)[118].

Ушбу кўрсаткични яхшилаш ва бу орқали, албатта, пахта режасини бажариш улушини яхшилаш мақсадида Ўзбекистон ССР қишлоқ жойларида, айниқса, пахта районларида (колхоз, совхоз ва ёш комсомол мактаблари) ўтказилаётган “пахта 2 ҳафталиги” тадбирларига жисмоний тарбия соҳаси вакиллари ташриф буюриб, деҳқонлар орасида тарғибот-ташвиқот ишларини олиб бориб, у ерда жисмоний тарбия тўгаракларини йўлга қўйиш ҳаракатлари амалга оширила бошланди.

Шунингдек, яна бир эътиборли жиҳат, бу Совет ҳокимияти манфаатига сўзсиз хизмат қилувчи Ўзбекистон ССР Жисмоний тарбия Олий совети масъул котиб ўринбосари – Шишкин, ўз баёнотида Ўзбекистон ССР жисмоний тарбия ташкилотлари вакиллари вазифалари этиб - миллий аҳоли орасида жисмоний тарбияни - меҳнаткашлар соғлом бўлишида асосий фактор эканлигини кўрсатиш, Ўзбекистон ССР жисмоний тарбия ташкилот тизимларида Совет жисмоний тарбия тизимига ўхшаш маданий кўриниш яратиш, турли байрамларда ва сайилларда ўтказиладиган “Кураш” мусобақаларида миллий аҳоли кўпчилиги иштирок этишидан фойдаланиб, тарғибот олиб бориш каби вазифалар белгиланганлигидир.[119]

Жумладан, Жисмоний тарбия Олий совети томонидан Фарғона Жисмоний тарбия округига мазкур масалада жўнатилган хатда қуйидагича ёзилади:

“Округда байрам (Жисмоний тарбия байрамлари) ўтказилиш вақтида байрам иштирокчиларини пахта дастури билан таништириш, жисмоний тарбия ташкилоти вакилларини пахта режасини бажариш учун жўнатиш, ҳудудларда, айниқса пахта районларида энг яхши ташкил этилган қишлоқ жисмоний тарбия тўгараклари бўйича мусобақа ташкил қилиш керак (совхоз, колхоз, ёш деҳқон мактабларида)”[120].

Шунингдек, жисмоний тарбия ташкилотлари Ўзбекистон ССРнинг шаҳар ҳудудларида ҳам, қишлоқ ҳудудларида ҳам ташкил этилган бўлиб, у

[117] Ўзбекистон миллий архиви Р-86 фонд, 1-рўйхат, 5967-иш, 228-варақ
[118] Ўзбекистон миллий архиви Р-86 фонд, 1-рўйхат, 5967-иш, 234-варақ
[119] Ўзбекистон миллий архиви Р-86 фонд, 1-рўйхат, 5967-иш, 235-варақ
[120] Ўзбекистон миллий архиви Р-86 фонд, 1-рўйхат, 5961-иш, 18-варақ

ердаги жисмоний тарбия соҳаси вакилларига муҳим вазифалар юклатилган эди.

Жумладан, Ўзбекистон ССР шаҳар ҳудудларидаги жисмоний тарбия соҳаси вакилларига юклатилган асосий вазифалар қуйидагилардан иборат эди:

a) кечалар ва кўрзазмали чиқишлар ташкил этиш ва ташкилот маблағларини қишлоқ ҳудудларида ташкил этиладиган тўгарак учун спорт инвентар сотиб олиш учун ишлатиш;

b) қўшни қишлоқ ҳудудлари томон велопойгалар ташкил этиш, у орқали пахта режасини бажариш ёрқин акс этган шиорли плакатлар намойиш этиш;

c) қишлоқлардаги сайилларда – миллий спорт турларини ёйиш зарурлигини кўрсатишда ўзи ўрнак бўлиши ва пахта дастурини акс эттирувчи чиқишларни ташкил этиш каби вазифалар белгиланган.[121]

Қишлоқ ҳудудлардаги жисмоний тарбия соҳаси вакилларига эса қуйидагича вазифалар қўйилган эди:

1) қишлоқ бўйлаб шиор ёзилган плакатлар билан марафон ташкил этиш;

2) катта миллий байрамлар-сайилларда кўргазмали чиқишлар ташкил этиш, у ерда дехқонлар билан суҳбатлар ташкил этиш ва пахта бўйича баёнот қилиш, колхозлар яратиш ва европа инвентарларини жорий этиш;

3) бозор ва жамоат жойларида дехқонларни йиғиш, миллий спорт ўйинлари (кураш) ва кўргазмали чиқишлар орқали ташвиқот қилиш ва Бошқарув органларининг пахта бўйича Қарорларини дехқонларга етказиш, комсомол билан ҳамкорликда қизил чойхоналарда бурчаклар ташкил этиб, ташвиқот ишлари олиб бориш.

Ўзбекистон ССРда пахта териминиг 5 йиллик режаларини бажаришда қишлоқ аҳолиси асосий рол ўйнаганлиги сабабли асосий эътиборни қишлоқларда ЖМ ҳаракатларини олиб боришга қаратилади. Барча колхозларни ҳисобга олган ҳолда, у ерда ишлаш учун барча шарт-шароитларни таъминлаган ҳолда тўгараклар ташкил этила бошлаган[122].

Совет ҳокимиятининг Ўзбекистон ССРда бу ҳаракатларни амалга оширишидан асосий мақсад, бу якунда, жисмоний тарбия тўгараклари аъзолари ва ҳар бир жисмоний тарбия билан шуғулланишга жалб этилган миллий аҳоли вакиллари - пахта учун курашга хизмат қилишга ўзини бутунлай бахшида этишига эришиш ва бу орқали режадан бир неча баробар ортиғи билан терилган пахта хомашёсини Россияга олиб кетиш эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

[121] Ўзбекистон миллий архиви Р-86 фонд, 1-рўйхат, 5967-иш, 230-варақ

[122] Ўзбекистон миллий архиви Р-86 фонд, 1-рўйхат, 5967-иш, 227-варақ

1. Ўзбекистон миллий архиви Р-86 фонд, 1-рўйхат, 5967-иш
2. Ўзбекистон миллий архиви Р-86 фонд, 1-рўйхат, 5961-иш

UZLUKSIZ METODIK XIZMAT VA METODBIRLASHMALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ORQALI MAKTAB RAHBARLARI HAMDA PEDAGOG XODIMLARINING KASBIY MAS’ULIYATINI OSHIRISH

Xurramov Anvar Vafokulovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi kata o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim tizimining uzluksiz rivojlanishi va sifat darajasining oshishi uchun metodik xizmatning to‘g‘ri tashkil etilishi haqidagi masalalar bayon qilingan. Ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan uzluksiz metodik xizmat va metodbirlashmalar faoliyatining izchil yo‘lga qo‘yilishi nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga, balki ta’lim tizimining umumiy natijadorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ushbu jarayonlarni samarali boshqarish va tizimlashtirish ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur. Shuningdek, bu yondashuv orqali o‘qituvchilarning malakasini oshirish jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: tamoyillar, seminarlar, metodik tavsiyalar, ilmiylik, tizimlilik, innovatsionlik, hamkorlik, reflkeksiya.

ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ РУК ШКОЛЬНЫХ И ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКИХ СОСТАВОВ ПУТЕМ ОРГАНИЗАЦИИ НЕПРЕРЫВНОЙ МЕТОДИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ И МЕТОДИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Хуррамов Анвар Вафокулович
преподаватель Центра педагогического мастерства Самаркандской области

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы правильной организации методической службы для непрерывного развития системы образования и повышения качества. Последовательное создание непрерывных методических служб и методических объединений, направленных на повышение качества образования, положительно влияет не только на профессиональное развитие учителей, но и на общую эффективность системы образования. Поэтому эффективное управление и систематизация этих процессов должны стать одним из приоритетов образовательной политики. Также посредством такого подхода были даны рекомендации, направленные на повышение эффективности процессов подготовки учителей.

Ключевые слова: принципы, семинары, методические рекомендации, научные, системные, инновационные, сотрудничество, рефлексия.

INCREASING THE PROFESSIONAL RESPONSIBILITY OF SCHOOL HEADS AND TEACHERS THROUGH ORGANIZATION OF CONTINUOUS METHODOLOGICAL SERVICE AND METHODOLOGICAL ASSOCIATIONS

Khurramov Anvar Vafokulovich
teacher of the Samarkand regional Pedagogical skills center

Annotation: This article discusses the issues of the proper organization of methodological service for the continuous development of the education system and an increase in its quality. The consistent establishment of continuous methodological service and methodological associations aimed at improving the quality of education has a positive impact not only on the professional

development of teachers, but also on the overall effectiveness of the education system. Therefore, effective management and systematization of these processes should be one of the priority areas of education policy. Recommendations are also given to increase the effectiveness of teacher training processes through this approach.

Keywords: principles, seminars, methodological recommendations, scientificity, systematicity, innovation, cooperation, reflection.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi doimiy ravishda yangilanib borayotgan texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar va didaktik vositalarga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim sifatini oshirish uchun uzluksiz metodik xizmat va metodbirlashmalar faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim tizimi zamonaviy jamiyatning eng muhim sohalaridan biri bo‘lib, uning uzluksiz rivojlanishi va sifat darajasining oshishi uchun metodik xizmatning to‘g‘ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o‘quv-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish va pedagoglarning kasbiy malakasini muntazam oshirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Metodik xizmat o‘qituvchilarning professional rivojlanishini ta’minlovchi va ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks faoliyatdir. Ushbu xizmat o‘qituvchilarga metodik yordam ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ularning o‘zaro tajriba almashuvini tashkil qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Ilmiy izlanishlarimiz uzluksiz metodik xizmatning ahamiyati, uni tashkil etishning asosiy tamoyillari va metodbirlashmalar faoliyatining o‘quv jarayoniga ta’siri haqida ma’lumot berishga qaratilgan. Ushbu tizim o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ta’lim sifatini oshirishning poydevori sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qism. Metodik xizmatning asosiy maqsadi pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish orqali o‘quvchilarning bilim olish darajasini yaxshilash va ta’lim muassasasining umumiy samaradorligini ta’minlashdir. Shu sababli, bu xizmatni samarali tashkil etish har bir ta’lim muassasasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Vazifalari esa pedagogik kadrlarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, metodik yondashuvlarni takomillashtirish, o‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashish, pedagoglarning tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish, monitoring va tahlil orqali ta’lim sifatini nazorat qilishni tashkil qiladi.

Metodbirlashmalar faoliyatini tashkil etish bu o‘qituvchilarning birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali o‘quv-uslubiy jarayonni rivojlantirishga qaratilgan tuzilma hisoblanadi. Har qanday tashkilot yoki o‘quv muassasasining samarali faoliyati yaxshi rejalashtirilgan va tizimli yondashuvga

asoslangan bo‘lishi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, metodbirlashma faoliyatini rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘qituvchilar, mutaxassislar yoki boshqa guruhlar tomonidan bajariladigan vazifalarni muvofiqlashtirishga, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga hamda sifatli natijalarga erishishga xizmat qiladi. Metodbirlashma faoliyatini rejalashtirishning asosiy vazifasi umumiy maqsadlar sari birlashgan harakatlarni aniq va samarali tashkil etishdan iborat.

Mazkur jarayon faoliyatning barcha yo‘nalishlarini qamrab olib, o‘z ichiga metodik tadbirlar, o‘quv rejalarini tuzish, ilg‘or tajribalarni targ‘ib qilish hamda ularni amaliyotga joriy etishni oladi. Shu boisdan, metodbirlashma faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirish va samarali boshqarish, nafaqat tashkilotning rivoji, balki undagi xodimlarning o‘zaro hamkorligi va professional o‘sishi uchun ham mustahkam poydevor yaratadi.

Faoliyatni rejalashtirish quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Yillik reja tuzish. Metodbirlashma faoliyatining yillik rejasi — o‘quv-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish va amalga oshirish uchun muhim hujjat hisoblanadi. Bu reja o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, pedagoglarning malakasini oshirish hamda ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mazkur reja avvalgi yillarda erishilgan natijalar, aniqlangan muammolar va istiqboldagi vazifalar tahlili asosida tuziladi. Unda ta’lim standartlariga mos ravishda belgilangan maqsadlar va ularga erishish yo‘llari aks ettiriladi. Faoliyat yo‘nalishlari aniq rejalashtirilgan holda, pedagogik jamoaning ijodiy salohiyatini oshirish, ilg‘or tajribalarni amaliyotga joriy etish va innovatsion metodlardan foydalanish nazarda tutiladi.

Yillik reja metodbirlashma a’zolari uchun yo‘l xaritasi bo‘lib, ularni umumiy maqsadlar sari birlashtiradi hamda samaradorlikni ta’minlaydi. Shu boisdan, rejani to‘g‘ri va puxta tuzish butun o‘quv yili davomida faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga asos bo‘ladi.

2. Ishchi guruhlarni shakllantirish. Metodbirlashma faoliyatida ishchi guruhlarni shakllantirish jarayoni katta ahamiyatga ega bo‘lib, jamoaviy ishni samarali tashkil qilishning asosiy omillaridan biridir. Ishchi guruhlar pedagogik jarayonni rivojlantirish, metodik yondashuvlarni takomillashtirish va o‘quv-tarbiya faoliyatining sifatini oshirish maqsadida tuziladi.

Har bir ishchi guruh ma’lum bir yo‘nalish bo‘yicha ishlash uchun tashkil etiladi va ularga aniq vazifalar yuklanadi. Bu nafaqat vazifalarning taqsimlanishini osonlashtiradi, balki har bir guruh a’zosi o‘zining kuchli tomonlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Guruh a’zolari o‘zaro hamkorlikda ishlash orqali bilim va tajribalarini boyitadi, bu esa ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Har bir o‘qituvchining vazifasini aniqlash. Har bir o‘qituvchining vazifalarini aniqlash metodbirlashma faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishning muhim bosqichidir. O‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlash va ta’lim sifatini oshirish uchun har bir pedagog o‘z rolini va mas’uliyatini aniq tushunishi lozim. Bu jarayon orqali nafaqat jamoaviy ishlash samaradorligi oshadi, balki o‘qituvchilarning individual yondashuvlari va ijodiy salohiyati ham rivojlanadi.

Har bir o‘qituvchining vazifalari ularning kasbiy malakasi, tajribasi va faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqib belgilanadi. Bu nafaqat aniq maqsadlarga erishishga yordam beradi, balki o‘quv-tarbiya jarayonida kelib chiqadigan masalalarni samarali hal qilish imkonini yaratadi.

Metodik seminarlar va o‘quvlar tashkil ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va ularni yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirishning samarali usulidir. Ushbu tadbirlar nafaqat o‘qituvchilarning tajriba almashish maydonini yaratadi, balki zamonaviy ta’lim talablariga moslashishga yordam beradi.

Seminarlar va o‘quv mashg‘ulotlari o‘qituvchilar faoliyatida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va metodik malakani oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirish va o‘quvchilarga zamonaviy bilimlarni etkazishda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadbirlar yaxshi rejalashtirilgan holda, muayyan yo‘nalishlar bo‘yicha aniq maqsadlarni ko‘zlab amalga oshiriladi. Seminar va o‘quvlar davomida o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik metodlarni o‘zlashtirishi, o‘zlarining kasbiy mahoratini sinab ko‘rishi va o‘quv jarayonida duch keladigan muammolarni echish bo‘yicha tavsiyalar olishlari mumkin. Shu bois, metodik seminarlar va o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish metodbirlashma faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, pedagoglarning kasbiy rivoji uchun muhim platforma hisoblanadi.

Bugungi kunda pedagoglarning rasbiy rizojlanishi va mas’uliyatini oshiruvchi metodik seminarlar va o‘quvlar tashkil etishning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

Dars kuzatish va tahlil qilish. Dars kuzatish va tahlil qilish o‘qituvchilar va ta’lim tizimi uchun juda muhim jarayon hisoblanadi. Bu jarayon yordamida o‘qituvchi o‘z metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Dars kuzatish va tahlil qilishni quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

Darsni kuzatishdan oldin, dars rejasini va maqsadlarini aniqlash kerak. O‘qituvchi yoki kuzatuvchi o‘quvchilarning faolligini, darsga bo‘lgan munosabatini va o‘qituvchining metodikasini tahlil qiladi. Darsni o‘z vaqtida va izchil ravishda kuzatib borish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini tushunishga yordam beradi.

Dars davomida yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi: o‘quvchilarning faolligi, o‘qituvchining uslublari, o‘qitish va o‘quv jarayonining samaradorligi. O‘quvchilarning savol-javoblaridan, guruh ishlaridan va mustaqil ishlaridan qanday foydalangani baholanadi.

O‘qituvchining vaqtni qanday boshqarganini va materialni qanday taqdim etganini tahlil qilinadi va natijalar baholanadi. O‘qituvchining uslubi, metodikasi va darsning umumiy tuzilmasi haqida xulosa chiqariladi. O‘quvchilarning yutuqlari va kamchiliklari aniqlanadi. Olingan natijalarga asoslanib, darsni yanada samarali qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. O‘qituvchining malakasini oshirish uchun yangi metodikalar o‘rganiladi.

Ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish. Ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish – ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalarni birlashtirib, yangi bilim va texnologiyalarni keng auditoriya bilan baham ko‘rish, ilmiy hamjamiyatni rivojlantirish va mutaxassislar o‘rtasida tajriba almashishning samarali shaklidir. Bunday anjumanlar ilmiy, ta’lim, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yangi g‘oyalarni rivojlantirish va dolzarb muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Metodik materiallar ishlab chiqish. Metodik materiallar ishlab chiqish — ta’lim jarayonini samarali va sifatli o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan qo‘llanmalar, darsliklar, ishchi materiallar va boshqa resurslarni yaratish jarayonidir. Bu materiallar o‘qituvchilar va talabalarga o‘quv jarayonini tushunish va samarali amalga oshirishda yordam beradi. Metodik materiallarni ishlab chiqishning maqsadi, ta’limni sifatli, samarali va tushunarli qilishdir.

Metodik materiallar ishlab chiqish — bu o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini samarali va qiziqarli qilishga, o‘qituvchilarga esa o‘z pedagogik faoliyatlarini yaxshilashga yordam beradigan muhim jarayondir. Ularni ishlab chiqishda ijodkorlik, ehtiyotkorlik va tizimli yondashuv zarur.

Metodbirlashmalarni boshqarish tamoyillari



Metodbirlashmalar faoliyatini boshqarishda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

Tizimlilik – bu faoliyatni uzluksiz va izchil ravishda, maqsadga muvofiq ravishda rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish tamoyilidir. Tizimlilikning

asosiy xususiyati shundaki, barcha jarayonlar bir-biriga bog‘liq bo‘lib, aniq reja va strategiya asosida bir butun tizim sifatida ishlaydi. Bu tamoyil, nafaqat ta’limda, balki boshqa sohalarda ham samarali natijalar olish uchun zarurdir.

Innovatsionlik – yangi g‘oyalar, texnologiyalar, metodlar yoki yondashuvlarni yaratish va tatbiq etish jarayonidir. Innovatsionlik yangi imkoniyatlar va echimlar kashf etishga, mavjud tizimlarni yaxshilashga yoki yangi sohalarda yangiliklar yaratishga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Ta’lim jarayonida innovatsionlik, o‘quvchilarga va o‘qituvchilarga yangi pedagogik metodlarni, texnologiyalarni, o‘quv materiallarini va tashkilot shakllarini joriy etishni o‘z ichiga oladi.

Hamkorlik – bu maktabda birgalikda maqsadga erishish uchun o‘quvchilar, o‘qituvchilar yoki ota-onalar o‘rtasida o‘zaro yordam va o‘zaro manfaatlarga asoslangan faoliyatdir. Hamkorlik ta’lim jarayonining sifatini oshiradi, chunki o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish orqali bilimlar yanada boyitiladi. Ta’limni boshqarishda ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik o‘quvchilarning yanada samarali o‘rganishiga olib keladi.

Refleksiya – bu o‘quvchi yoki o‘qituvchining o‘z ta’lim jarayonini tahlil qilish, natijalarini baholash va o‘zini o‘rgangan narsalarini tushunish, xatolarini aniqlash va ularni tuzatish jarayonidir. Ta’lim jarayonida refleksiya o‘quvchilarning o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholash, o‘rganilgan materialni anglash va o‘rganish usullarini yaxshilashga yordam beradi.

Uzluksiz metodik xizmat va metodbirlashmalar faoliyatini tashkil etish, boshqarish, monitoring qilish va tahlil qilish ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismlaridir. Ushbu jarayonlar ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning malakasini doimiy ravishda takomillashtirish va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini yuqori darajada ta’minlashga xizmat qiladi. **Ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan uzluksiz metodik xizmat va metodbirlashmalar faoliyatining izchil yo‘lga qo‘yilishi nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga, balki ta’lim tizimining umumiy natijadorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.** Shu bois, ushbu jarayonlarni samarali boshqarish va tizimlashtirish ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2020 yil.
2. Abdullayeva N. “Maktab rahbarlarining metodik xizmatni tashkil etishdagi roli”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2021.
3. Xasanov J., Yoqubov A. “Pedagogik texnologiyalar va ta’lim sifatini oshirish usullari”. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019.

4. Xodjayev O. “Metodbirlashmalarning innovatsion faoliyati”. – Qarshi: Qarshi Davlat Universiteti Nashriyoti, 2020.
5. Mavlonova R.A. “Umumiy pedagogika”. – Toshkent: «O‘qituvchi» nashriyoti, 2021.
6. Talipova I.B. “Maktabgacha va umumta’limda sifatni boshqarish”. – Nukus: Nukus Davlat Pedagogika Instituti Nashriyoti, 2020.
7. Salimov K. “Kasbiy rivojlanish psixologiyasi”. – Toshkent: “IQRO” nashriyoti, 2019.
8. UNESCO. “Teacher Professional Development Policies and Practices in Central Asia”. – Paris: UNESCO Publishing, 2018.
9. Tursunov A. “Ta’limda metodik xizmatni samarali boshqarishning asosiy jihatlari”. – O‘zbekiston Pedagogika Jurnali, 2022.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО ГЕРОЯ В ЛИТЕРАТУРНОМ ТЕКСТЕ: РОЛЬ ЖАНРОВЫХ И СТИЛИСТИЧЕСКИХ ПРИЁМОВ В СОЗДАНИИ ОБРАЗА АМИРА ТЕМУРА

ADABIY MATNDA TARIXIY QAHRAMONNING TASVIRLANISHI: AMIR TEMUR OBRAZINI YARATISHDA JANR VA TARIXIY QURILMALARNING O‘RNI

TRANSFORMATION OF A HISTORICAL HERO IN A LITERARY TEXT: THE ROLE OF GENRE AND STYLISTIC TECHNIQUES IN CREATING THE IMAGE OF AMIR TEMUR

EDEBİ BİR METİNDE TARİHİ BİR KAHRAMANIN DÖNÜŞÜMÜ: AMİR TEMUR İMAJININ YARATILMASINDA TÜR VE BİÇİMSEL CİHAZLARIN ROLÜ

Гофурова Жайрона Бехзодовна
самостоятельный соискатель, стажёр-преподаватель университета Экономики и педагогики Самаркандского кампуса
jayronagafurova17@gmail.com, +998883902924

Аннотация: В работе анализируется образ Амира Темура, как исторического героя в литературном контексте. Образ великого полководца расскрывается в творчестве Мухаммада Али «Амир Темур Великий». В каждой главе данного романа-эпопеи мы можем увидеть художественную интерпретацию образа Амира Темура, как великого правителя, полководца, стратега с железной волей и характером, но в тоже время великий эмир предстаёт перед нами как смиренный сын своих родителей, любящий брат и ласковый отец. Анализ романа показывает, как автор с помощью метафоры и символики раскрывает характер правителя, его внутреннюю борьбу, сомнения и твердую уверенность и непоколебимость в своей правоте. В той же мере описываются образы и характер второстепенных персонажей.

Ключевые слова: Амир Темур, роман-эпопея, исторический герой, художественная интерпретация, стилистические приёмы, жанры.

После получения независимости наша страна активно стала возрождать духовное, историческое и культурное наследие. В этом контексте, забытые имена великих предков вновь стали известны, вдохновляя молодёжь на мужество, отвагу, патриотизм и силу духа. Одним из таких великих предков является Сахибкиран Амир Темур. Сахибкиран олицетворял выдающийся ум и знания, великодушие и преданность своему народу, стойкость духа и созидательную силу, которые он продемонстрировал в борьбе за независимость и создании сильного централизованного государства. Ему удалось не только восстановить мир на родной земле, но и создать одну из крупнейших империй своего времени, в которой процветали государственное управление, экономика, наука, образование, культура и духовность. Амир Темур, будучи многогранной личностью, прекрасно осознавал, что духовность является основой существования общества и любой цивилизации. В «Уложении...» он утверждает важность таких моральных качеств, как бескорыстие, уважение к людям, благотворительность, милосердие, справедливость и гуманизм, которые являются огромным духовным богатством и красотой.

Амир Темур был мудрым политиком с широким мировоззрением и выдающимся аналитическим умом, войдя в историю прежде всего как великий созидатель. Объединив вокруг себя лучших архитекторов, строителей и мастеров, чьи великолепные работы должны были символизировать мощь и величие его государства, он превратил Мавераннахр в ключевой центр торговли, экономики и культуры Центральной Азии. Как отметил историк XV века Шарафиддин Али Язди, правитель считал неприемлемым, чтобы хоть один участок земли оставался не использованным для благоустройства. Под его руководством быстро возводились новые города, впечатляющие медресе и мечети, парки, караван-сараи, каналы, мосты и дороги.

Образ великого полководца можно встретить в творчестве многих представителей узбекской литературной диаспоры: И.Муминов «Роль и место Амира Темура в истории Средней Азии» [3], Айбек, Мухаммад Али «Амир Темур Великий» [1] и др.

Труд Мухаммада Али «Амир Темур Великий» является широкомасштабным произведением, состоящим из четырёх книг: «Джахангир Мирза», «Умаршейх Мирза», «Мираншах Мирза» и «Шахрух Мирза». Данное произведение относится к жанру романа-эпопеи, так как охватывает огромный исторический пласт.

Роман-эпопея – значительное по объему стихотворное или прозаическое произведение, затрагивающее общенациональную тематику. Возникали прозаические эпопеи, к числу которых в русской литературе относится поэма

Н.В. Гоголя «Мертвые души». В дальнейшем, осмысливая национально-исторические проблемы, литература пришла к созданию романов-эпопей. В одних романах-эпопеях событиям национально-исторического масштаба подчиняется формирование характеров главных персонажей [4].

Анализируя первую часть романа, можно утверждать, что в произведении автор искусно сочетает историческую достоверность и художественную условность, используя такие литературные приемы, как мифологизация, психологический анализ и символизм. Амир Темур предстает не только как носитель исторической миссии, но и как сложная личность, находящаяся в постоянной внутренней борьбе. Это подчеркивается через внутренние монологи, сложные диалоги и многообразие метафорических образов.

Уже в первой части романа можно увидеть, как автор не зацикливается на образе самого Темура, но также описывает и его окружение, что является одним из важных факторов, определяющих период его правления. Второстепенные персонажи, такие как Амир Довуд дуглат, Амир Жаку Барлас, Амир Муайяд Арлат, Амир Сейфиддин Некуз и др. являются олицетворением преданности и мужества, благодаря которым Темур одерживает победы. Они антиподы отрицательных персонажей, Амир Муса, Амир Хусейн и др.

В произведении множество судьбоносных знамений, влияющих на ход событий. Одним из них является вещий сон правителя «...Он увидел бурные потоки реки Ходжент, несущие со страшной силой вперемешку с камнями. Беспрестанно молясь, он просил помощи у Аллаха. В этот момент его накрыло огромной волной! Что было дальше, Темурбек не помнил, он потерял сознание. Придя в себя, он обнаружил, что находится на побережье недалеко от Самарканда...» [1, 10]. Данный сон метафоричное явление, в котором бурные воды, несущие вдаль символ победы над врагом и роль Самарканда в период правления династии Темуридов.

К метафоричному символу также относится землетрясение во время пира у Амира Хусейна «В это время неожиданно трижды содрогнулась земля. <…> У Амира Мусы мелькнула мысль, что это не землетрясение, это пошатнулось обречённое царство Амира Хусейна» [1, 20].

Главное сравнение персонажей в данном произведении представляется образами двух правителей. Амир Темур и Амир Хусейн, две владыки, обладающие разным положением еще с рождения, разными возможностями, характером, волей духа, формой мышления. Анализируя окружение обеих правителей, можно сделать вывод о характере каждого персонажа. Для Амира Темура важна преданность, сила воли, храбрость, отвага. Сахибкиран верил и поддерживал каждого воина, и они отвечали ему тем же. Доказательством

может служить случай, когда эмир приказал одному воину прыгнуть вниз с минарета Арсланхана. Воин подчинился и не задумываясь прыгнул вниз.

Другим примером является Ахий Джаббар, один из бывших сарбадаров, что проявил себя в бою и защитил Джахангира Мирзу. Его отвага была сразу же замечена эмиром и вознаграждена. Ведь каждый окружающий полководца бахадур знает «... на кого Темурбек обратит внимание, тому откроются дороги к высоким должностям, чинам. Ни один из воинов и амиров, самоотверженных и отважных, не будет не замечен и будет оценён по достоинству» [1, 35].

В качестве антипода Сахибкирана представляется Амир Хусейн. Его окружение состоит из людей алчных, самовлюблённых, безнравственных чиновников. Данные персонажи являются олицетворением самого Амира Хусейна. Главным качеством самого эмира была неверность. Данное качество прослеживается во внутреннем монологе персонажа «Ну, так что же ты сделал для друзей? Какую отвагу ты проявил, чтобы твои друзья лелеяли и уважали тебя? <…> Близко подружился с Темурбеком, поклялся в верности на Коране и после этого, скажи на милость, почему не отказался от злого умысла? Намеревался убить Темурбека, друга своего! <…>» [1, 32].

Это произведение отнесли к жанру романа-эпопеи, так как идёт широкий исторический охват и судьбоносные действия для всего народа Мавераннахра, описанные в военных походах на крепость Хиндуван «...Едва ворота распахнулись, конница и пехота Амира Хиндушаха и Амира Халила <...> столкнулись с войском Темурбека» [1, 21].

В исторических романах форма жанра определяет способы восприятия времени и структуры событий. М. М. Бахтин в своей работе «Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет» указывает, что «Эпопея равнодушна к формальному началу, может быть неполной (то есть может получить почти произвольный конец). Абсолютное прошлое замкнуто и завершено как в целом, так и в любой своей части. Поэтому любую часть можно оформить и подать как целое. Всего мира абсолютного прошлого (а он и сюжетно един) не охватить в одной эпопее (это значило бы пересказать все национальное предание), трудно охватить даже сколько-нибудь значительный отрезок его. Но в этом и нет беды, ибо структура целого повторяется в каждой части, и каждая часть завершена и кругла, как целое. Можно начать рассказ почти с любого момента, и можно кончить его почти на любом моменте» [2, 459].

Таким образом литературный образ великого правителя в романе «Амир Темур Великий» раскрывается благодаря художественной интерпретации автора и использованию различных стилистических приёмов.

Использованная литература:

1. Мухаммад А. Амир Темур Великий. Роман-эпопея. Книга первая. Джахангир мирза // «Звезда Востока», 2013, 3-й выпуск.
2.Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет. – М.: Худож. лит., 1975. – с. 447-483.
3. Муминов И. Роль и место Амира Темура в истории Средней Азии. – Т.: «Фан», 1968. Электронный ресурс (дата обращения – 16.12.2024.): http://biliq.ru/lib/sites/default/files/
4. https://www.literatura100.ru/termin

MAKTAB YOSHIDAGI DEVIANT XULQLI BOLALARNI MEHNAT VOSITASIDA TARBIYALASHNING SHART SHAROITLARI

Usmonov Abdurashid Norbo‘tayevich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi

O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, «Ta’lim to‘g‘risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi Qonunlarda ta’lim va tarbiya jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilingan.

O’quvchilar orasida deviant xulqni oldini olish jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi va bugungi kunda sosiologiya, kriminologiya, pedagogika, psixologiya, psixiatriya, narkologiya, deviantologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning doimiy tadqiqot muammosi hisoblanadi.

Mazkur masala dolzarb ijtimoiy muammo sifatida yoshlar o‘rtasida deviant xulqni oldini olish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ko‘zda tutuvchi ijtimoiy dastur ishlab chiqish va bunda huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ta’limiy va sog‘liqni saqlashga doir ustuvor vazifalarni aniq belgilash hamda amalga oshirishni taqazo etadi.

Deviant xulqli o‘quvchilarni tayyorlash muammosining echimini topishda malaka oshirish tizimida ularning qiziqishi, qobiliyatlari, mahalliy shart-sharoitlar va ixtisosliklarga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olib, kasb-hunar sirlarini egallashga imkon yaratish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ularni qobiliyati va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilmog‘i zarur. Chunki yoshlarning qobilyati va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish hozirgi zamonda jadal suratlar bilan sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar, qolaversa mulkchilik shakllari va bozor munosabatlaridan kelib chiquvchi zaruriyatdir. Ana shu xususiyatlarni rivojlantirgan holda yoshlarni kelajakda mehnat bozorida raqobatlasha oladigan kadrlar etib tayyorlash mumkin.

Bozor iqtisodi sharoitida mamlakat aholisi va, ayniqsa, yoshlarning bilimini oshirish hamda insonparvarlik g‘oyalari asosida yangicha fikrlaydigan qilib tarbiyalash masalasini qo‘ydi. Zero, mamlakatni rivojlantirish uchun ta’lim-tarbiyaning tarixiy ildizlarini, zamonaviy iqtisod, biznes, marketing asoslarini yoshlarga chuqur o‘rgatish zarur. Shunga ko‘ra, bo‘lg‘usi mutaxassislarni mustaqil va ijodiy fikrlashga odatlantirish, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri va ravon ifodalashga o‘rgatish, bu borada etarli nutqiy malakaga ega bo‘lish, rasmiy-idoraviy ish yuritish uslubini puxta egallashlarini ta’minlash vazifasi ixtisoslikka kasbiy tayyorgarlikning muhim sharti bo‘lib hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishda iqtisodiy ta’lim-tarbiyaning tarixiy ildizlari – ulug‘ ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan o‘lmas asarlar bizga bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. O’rta Osiyoda iqtisodiy fikrlarning shakllanishi buyuk ensiklopedist-allomalar va mutafakkirlar – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur va boshqalarning nomi bilan uzviy bog‘liq.

Ular o‘z asarlarida mehnatning ijtimoiy taqsimotiga katta o‘rin ajratishgan. Forobiy boyliklarni insonning ishlab chiqarishda ishtirokiga qarab adolatli taqsimlash tarofdori bo‘lgan, urush va qullikni qoralagan, davlatlarar iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish g‘oyasini ilgari surgan.[123]

Mutafakkir Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» (Saodatga eltuvchi bilim) asarida bola tarbiyasi haqida to‘xtalib shunday yozadi: «Farzand qanchalik bilimli, aqlli-hushli bo‘lsa, iqtisodni yaxshi o‘zlashtirsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug‘ bo‘ladi».[124]

Ulug‘ bobokalonimiz ta’kidlaganlaridek, farzandlarimizga kasb-hunar va zamonaviy bilimlarni o‘rgatishimiz kerak. Toki ular o‘zlari qiziqqan kasb va hunarni o‘rganib, hayotdan ta‘lim olib, bilimdon bo‘lsinlar, chinakam insoniy go‘zallikka erishsinlar, boqimandalikka, yalqovlikka, o‘g‘irlik va harom-xarish ishlarga o‘rganmasinlar. Muhtaram Prezidentimiz bugungi kunda ta’limiga juda katta e’tibor berayotgani, zamonaviy ta‘lim muassasalari, maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari, malaka oshirish markazlarining zamonaviy qiyofasi yoshlarimizga bo‘lgan g‘amxo‘rlik timsolidir.

Davlatimiz rahbari jinoyatlarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha o‘tkazilgan majlisda aynan mana shu haqiqatni ilgari surdilar. Jinoyat o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmasligi, jinoyatning oqibati bilan kurashish emas, balki uning oldini olish, ularning sodir bo‘lishiga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlab, o‘z vaqtida bartaraf etish zarurligini ta’kidlagan edilar. Yurtboshimiz bevosita imom-xatiblarga murojaat qilib, din xodimlari jinoyatchilikka qarshi

123 Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Т.: «А.Қодирий» нашриёти, 1993 й.

124 Юсуф. Хос Хожиб. Қутадғу билиг. Т.1992 й.

kurashda kamarbasta bo‘lishlari lozimligi haqida so‘zladilar. Jinoyatchilikning tobora urchib borayotgani, eng achinarlisi, yoshlar va ayollar orasida jinoyatchilikning ko‘payib ketgani xalqimiz uchun nihoyatda uyatli holat bo‘lsa-da, davlatimizning bu dolzarb masalani hal qilishda aynan din xodimlari, imom-xatiblarimizga murojaat qilishi nihoyatda quvonarlidir. Zero, xalqning boshiga tushgan musibatni daf qilish birinchi navbatda mo‘min-musulmonlarning, dindorlarning zimmasidagi mas’uliyatdir. Nima uchun jinoyatchilikka qarshi kurashish birinchi navbatda din xodimlarining vazifasi bo‘lishi kerak? Chunki har bir jinoyat – Alloh taologa isyondir. Har bir jinoyat Qur’oni Karimga, sunnatga, shariatga xilofdir, munkar ishdir. Shuning uchun Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam har bir munkarga qarshi kurashga chaqirganlar. Abu Sa’id Xudriy roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisi sharifda Nabiy sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar: «Qaysi biringiz bir munkar ishni ko‘rsa, qo‘li bilan qaytarsin. Bunga qodir bo‘lmasa, tili bilan qaytarsin. Bunga ham qodir bo‘lmasa, dili bilan qaytarsin. Ammo bu eng zaif iymondir». Munkar ish – dinimizda, shariatimizda inkor qilingan, qaytarilgan har qanday yomon ishdir. Mo‘min-musulmon odam o‘z jamiyatida sodir bo‘layotgan munkar ishni ko‘rib-bilib turgan bo‘lsa, loqaydlik qilishi mumkin emas. Mo‘min odam, avvalo, bu munkarni bevosita o‘zi, o‘z qo‘li bilan qaytaradi. Ulamolarimiz munkarni qo‘l bilan qaytarishni davlat rahbarining, jamiyatda qonun-qoida, tartib-intizom o‘rnatishga mas’ullarning jinoyatchilikka qarshi kurashi deb izohlaganlar. Kichik bir munkar ishni har kim ham to‘xtatishi kerak, ammo jinoyatning ko‘lami keng, unga qarshi jamiyat miqyosida, davlat miqyosida kurashish lozim bo‘lsa, bu ish mutasaddilar, mas’ullarning zimmasidadir. Davlatimiz rahbarining jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish borasida sa’y-harakatlari hadisi sharifning aynan shu qismiga oiddir. Ammo barcha mas’uliyatni rahbarlarga yuklab qo‘yib, qo‘l qovushtirib o‘tirilmaydi. Munkarni qo‘li bilan qaytara olmagan odam tili bilan qaytarishi lozim. Munkarni til bilan qaytarish aynan ulamolarning, imom-xatiblarning, ziyolilarning, ommaviy axborot vositalarining vazifasidir, har birimizning burchimizdir, har bir imkoni bor mo‘min-musulmon uchun vojib amaldir. Mo‘min odam munkarni qo‘li bilan qaytara olmasa, uni amri ma’ruf, nahyi munkar yo‘li bilan qaytaradi, munkar ishning yomonligini bayon qiladi, uni qilmaslikka chaqiradi. Jinoyatning sababi – bu ishning jinoyat ekanini, munkar ekanini, gunoh ekanini bilmaslik, johillikdir. Avval ana shu sababni yo‘qotish kerak, jaholatga qarshi kurashish kerak. Bir ishning gunoh ekanini bilgan mo‘min odam, albatta, undan qaytadi. Jinoyatning qaysi bir turini olib qaramang, shariatimizga xilof bo‘lib chiqadi. Odam o‘ldirish, o‘g‘rilik, zinokorlik, poraxo‘rlik, sudxo‘rlik – bularning barchasi insonni iymonidan ayiradigan, shariat harom qilgan gunohlardir. Shunday ekan, odamlarga buning gunohligini tushuntirishimiz lozim. Buni kim tushuntiradi? Avvalo, ota-ona. Tarbiya uydan,

oiladan boshlanadi. Keyin bola bog‘chaga borsa, tarbiyachi, maktabga borganda, o‘qituvchisi tushuntirishi kerak. To bir bola ulg‘ayib, katta hayotga qadam qo‘ygunicha unga ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, mahalla-ko‘y, o‘qituvchilari, murabbiylari ustozlik qilishi lozim. Dinimizga, mentalitetimizga mutlaqo yot bo‘lgan jinoyatlarga qarshi kurashishga majbur bo‘lyapmiz. Bu esa xalqimiz uchun or-nomusdir. Yoshlarning, ayniqsa, ayollarning jinoyat ko‘chasiga kirishi bu borada qilinishi lozim ishlar juda ko‘pligini ko‘rsatyapti. Endi bu musibatga qarshi butun xalq oyoqqa turishi, hamma safarbar bo‘lishi kerak. Har birimiz ishni avvalo o‘zimizdan, oilamizdan, mahallamizdan boshlashimiz lozim. O’zimizni isloh qilsak, oila isloh bo‘ladi. Oila isloh bo‘lsa, butun jamiyat isloh bo‘ladi. Yuqoridagi holatlar jamiyatda ota-onalarning rolini oshirish bilan birga, yoshlarimizning huquqiy madaniyati va huquqiy qarashlarini yuksaltirishga hamda qonunga itoatkorlik xulqini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy va tashkiliy xususiyatga ega bo‘lgan keskin choralar ko‘rish, jumladan mehnat vositasida tarbiyalash, bolalarni bo‘sh vaqtini qoldirmasdan doimiy nazoratga olish, mehnat qilishga o‘rgatish zamonaviy komil inson bo‘lishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston» NMIU, 2017.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2833-sonli Qarori. − Toshkent, 2017 yil 14 mart.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 5153-sonli Qarori. − Toshkent, 2017 yil 27 mart.
4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr’. https://president.uz/uz/
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «2019–2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.09.2018 y. 06/18/5544/1951-son.
17. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: «O’zbekiston» NMIU, 2017.
18. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 1998. T.2.
19. Abdullayeva Sh.A., Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik. -Toshkent:Universitet, 2019.
20. Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi. – T.: TDPU, 1999.
21. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МЕТАФОРИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ СЕМЬИ В РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ

Хакбердиева Сайёра Фармановна
Преподаватель кафедры русского и общего языкознания
Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова
khakberdiyeva_s25_04@mail.ru, +998915451409

Аннотация: в статье анализируется метафорические образы семьи в русских и узбекских пословицах, раскрывая культурные особенности, ценности и символику семьи, углубляя понимание языковых и мировоззренческих различий двух народов.

Ключевые слова: метафорические образы, семья, паремиология, культурные ценности, аксиологическая значимость, образы, семейные традиции, символика семьи.

Abstract: the article analyzes metaphorical images of family in Russian and Uzbek proverbs, revealing cultural features, values and symbolism of family, deepening the understanding of linguistic and ideological differences of the two peoples.

Keywords: metaphorical images, family, paremiology, cultural values, axiological significance, images, family traditions, family symbolism.

RUS VA O‘ZBEK MAQOL VA MATALLARIDAGI OILA METAFORIK OBRAZLARINING QIYOSIY TAHLILI
RUS VE ÖZBEK ATASÖZLERİ VE SÖZLERİNDEKİ AİLENİN METAFORİK İMAJLARININ KARŞILAŞTIRMALI ANALİZİ
COMPARATIVE ANALYSIS OF METAPHORIC FAMILY IMAGES IN RUSSIAN AND UZBEK PROVERBS AND PROVERBS

Метафорические образы семьи в разных культурах и языках формируют уникальные представления о семейных ценностях, традициях и ролях. Они выражаются в пословицах и поговорках, которые фиксируют культурно-исторический опыт народа. Анализ таких образов позволяет выявить основные аспекты сравнительного анализа пословиц и поговорок исследуемых языков.

Метафоризация играет ключевую роль в формировании культурных и социальных представлений о семье, поскольку позволяет передать сложные концепции с помощью доступных и универсальных образов. Такие метафоры, как «семья – крепость», «семейный очаг», «генеалогическое древо», выражают ценностные ориентиры, социальные установки и эмоциональные отношения, свойственные определенной культуре.

В каждой культуре такие метафоры отражают уникальные особенности мировоззрения, но часто имеют универсальные черты, указывая на общечеловеческую значимость семьи. С помощью метафоризации язык не только описывает, но и закрепляет нормы и ценности, передавая их из поколения в поколение.

Метафорические образы семьи в русских и узбекских пословицах являются важным средством отражения культурных ценностей, традиций и мировоззрения двух народов. Пословицы и поговорки, как элементы языковой картины мира, демонстрируют, как семья осмысляется через символику и ассоциации. Рассмотрим ключевые аспекты и различия в метафорических описаниях семьи в русском и узбекском языках. Например, **образ семьи как крепости и основы,** *«Мой дом – моя крепость», «Без семьи – как дерево без корней», «Где семья, там и дом», «Крепка та семья, где любовь и взаимопонимание велика», «Семья – это опора в жизни»* - эти пословицы показывают как в русской традиции семья часто ассоциируется с прочностью и защитой, а также с корнями, символизирующими принадлежность к роду и устойчивость, а узбекские пословицы как *«Oila jamiyatining ichi – qo‘rg‘onning ichi»* (внутри семьи – как внутри крепости)*, «Oila – turmushning tamali»* (семья – основа жизни), «*Oila – baxt o‘chog‘i»* (семья – очаг счастья), *«Ota – uyning ustuni, ona – poydevori»* (отец – столб дома, мать – фундамент), *«Oila – jamiyatning kichik namunasi»* (семья – малая модель общества*), «Bir yoqadan bosh chiqarish»* (выходить из одного ворота) – эти пословицы показывают, что в узбекской культуре семья также представляется как защита и фундамент, однако акцент делается на её роль в организации жизни и социальном порядке, они отражают ценность семьи как основного элемента жизни и её роль как опоры и защиты [1].

Образ семьи как дерева, «Яблоко от яблони недалеко падает», «Родительское дерево – крепкое наследие», «Дерево держится корнями, а человек семьей», «Без корня и трава не растет», «Каковы корешки, таковы и ветки», показывает, что в русском языке часто использует дерево как символ родовых связей, преемственности и единства. Узбекские пословицы как «Daraxt mevasi bilan chiroyli, oila farzandi bilan» (дерево красиво своими плодами, семья – своими детьми), «Bog‘ning hosili bog‘bondan» (урожай сада зависит от садовника), «Ildizsiz o‘t ham o‘smaydi» (без корня и трава не растет) – эти пословицы и поговорки показывают, что в узбекской традиции акцентируется ответственность родителей за воспитание детей, которые ассоциируются с плодами дерева.

Образ семьи как очага, «Держи очаг теплым – и дом будет счастливым», «Домашний очаг греет лучше солнца», «Дом вести – не бородой трясти», «В гостях хорошо, а дома лучше», «Где любовь да совет, там и горя нет», «Семья крепка ладом» - эти русские пословицы показывают образ очага который символизирует тепло, уют и душевную связь в семье. Узбекские пословицы «Oila qudug‘ining suvi – tanga shifo» (вода из семейного колодца – исцеление для тела), «Oila oqar suv kabi doim toza bo‘lsin» (пусть семья будет

как текущая вода – всегда чистой), «Oila ahillik bilan mustahkam» (семья крепка ладом), «Oila – baxt o‘chog‘i» (семья – очаг счастья), «Uyning ko‘rki – ostonasi» (красота дома – его порог), «Oila – kichik vatan» (семья – маленькая родина) – в этих пословицах очаг заменяется водой или колодцем как символом чистоты и постоянства семейных отношений. Эти примеры показывают, как в русском и узбекском языках метафора очага используется для передачи идеи семьи как места, где есть тепло, уют, любовь, взаимопомощь и поддержка. Пословицы и поговорки подчеркивают важность семьи для человеческого благополучия и эмоционального комфорта [1].

Образ мужа и жены, русские пословицы «Муж – голова, жена – шея», «Где лад, там и клад», ***«Хорошая жена – дому венец, а плохая – дому конец», «Без мужа жена – что без воды рыба», «Муж держит семью на силе, а жена – на ласке»*** - эти пословицы подчеркивают гармонию и сотрудничество между супругами. Узбекские пословицы «Eri oqil bo‘lsa, xotini farishtali» (если муж мудр, жена становится ангелом), «Xotin bilan er – ikki qanot» (жена и муж – два крыла), ***«Xotin uyning shodiyonasi, er uyning qo‘rg‘oni»*** (жена – радость дома, муж – его крепость), ***«Hamjamiyatli er-xotinning ishi unumli bo‘ladi»*** (согласие между мужем и женой приносит плодотворный труд) - эти пословицы и поговорки отражают традиционные представления о ролях мужа и жены, муж воспринимается как защитник, опора, лидер, а жена – как источник тепла, гармонии и порядка, они акцентируют важность баланса и взаимной поддержки в супружеских отношениях. В обеих культурах подчеркивается значимость взаимоподдержки, согласия и уважения между супругами.

Образ семьи как крепости дома, в русских пословицах как *«Мой дом – моя крепость», «В доме лад – в семье клад», «Дом вести – не лапти плести», «В родной семье и каша гуще», «Кто в доме живёт дружно, тому никакая беда не страшна»,* эти пословицы передают идею о том, что семья и дом – это не только физическое пространство, но и символ духовного единства, безопасности и гармонии [2]. Узбекские аналоги, ***«O‘z uyingda devor ham yordamchi»*** (в своем доме даже стена – помощник), ***«O‘z uying o‘lan to‘shaking»*** **(свой дом, свой смертный ложец),** «*Oila – jamiyatning ustuni*» (семья – опора общества), *«Oilaning tinchligi – uyning nurliligi»* (мир в семье – свет в доме), «*Oilaning boshi yovga engilmaydi*» (глава семьи врагу не поддаётся) [4] – эти пословицы и поговорки акцентирует ценность дома и семьи, даже если они скромные, в сравнении с чужими, они иллюстрируют устойчивое восприятие семьи как места безопасности, тепла и уюта в узбекской культуре.

Образ семьи как союза, в русских пословицах как *«Согласная семья горы свернёт», «Одна нитка не ткёт холста», «Где любовь да совет, там и горя нет», «Без семьи нет счастья на земле»* [3], и в узбекских *«Ittifoqli oila – quvvatli qo‘rg‘on»* (согласная семья – крепкая крепость), «*Oila – yaxlit bir makon»* (семья – единое целое), *«Birlikda baraka bor»* (в единстве – благодать), *«Oilasini asray olgan xalq – mustaxkam bo‘ladi»* (народ, хранящий свои семьи, будет крепким) [4] - акцентируется значимость единства и согласия в семье. В обоих языках семья изображается как источник тепла, безопасности и преемственности.

Таким образом, метафорические образы семьи в русском и узбекском языках играют ключевую роль в формировании культурных ценностей и национального самосознания. Сравнительный анализ таких образов раскрывает глубину историко-культурных связей и различий между двумя народами, а также позволяет лучше понять их мировоззрение. Метафорические образы семьи в русском и узбекском паремиологическом фонде отражают сходство культурных ценностей, таких как важность семьи, уважение, почет, единство и гармонию в семье.

Сравнительный анализ метафорических образов семьи в русских и узбекских пословицах показал, что обе культуры воспринимают семью как основу общественной жизни, источник духовных ценностей и место социальной защиты. Общие образы, такие как дом, дерево или очаг, символизируют укорененность семейных традиций в повседневной жизни.

Русские пословицы подчеркивают важность гармонии, взаимопонимания и личной ответственности внутри семьи («*В доме лад – в семье клад*»), а узбекские паремии больше акцентируют роль коллектива и традиционного уважения к старшим («*Ота уйниг устуни*»).

Метафорические образы семьи варьируются в зависимости от национального мировоззрения. В русской традиции дом часто метафорически представлен как крепость, подчеркивающая идею безопасности и автономии. В узбекской культуре семья сравнивается с деревом, указывая на её корни, развитие и преемственность.

Пословицы и поговорки обеих культур выполняют не только эстетическую, но и воспитательную функцию, передавая важные аксиологические установки, такие как уважение, любовь, забота и сплоченность.

Анализ пословиц и поговорок также выявил, что метафорические образы семьи отражают культурные и исторические изменения. В современных интерпретациях акцент всё больше смещается с традиционных устоев на личное счастье, равенство и взаимное уважение.

Таким образом, исследование метафорических образов семьи способствует более глубокому пониманию русской и узбекской культур, помогает выявить сходства и различия, которые могут быть полезны в межкультурной коммуникации и обучении.

Использованная литература:

1. Вагизов Р.Г. Родники народной мудрости. Мудрые мысли, пословицы, поговорки, изречения, афоризмы /– Казань: ЭКОПОЛИС, 1997. – 176 с.
2. Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. В 4-х т. – СПб., 1956. 48-86 с.
3. Леднева А.В. Паремиологическая картина мира в русском языке. Дисс.канд.филол.н. - Уфа., 2016. - 22 с.
4. Ўзбек халқ мақоллари. – Т.: «Шарқ», 2003. – 510 с.

SHAXS SHAKLLANISHIDA MULOQOTNING O’RNI,SAMARALI MULOQOT O’RNATISH SHAKLLARI

Ergasheva Muhayyo Jo’rayevna
Xalqaro innovatsion universitet “Psixologiya ” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muloqot shakllari ,muloqotning yoshga bog’liq xususiyatlari,muloqotning tushunarliligiga erishish,shaxslararo muloqotda nizolarni oldini olish,samarali muloqot shakllarini ishlab chiqish haqida so’z ketadi.

Kalit so’zlar: Muloqot shakllari, individ, kommunikativ, interaktiv, perseptiv, ijtimoiy nazorat, o’smir bola, ijtimoiy xulq shakllari, identifikatsiya, refleksiya, ijtimoiy yo’nalganlik, stereotipizasiya

Abstract: This article discusses communication forms, age-related characteristics of communication, achieving intelligibility of communication, preventing conflicts in interpersonal communication, developing effective communication forms.

Keywords: Communication forms, individual, communicative, interactive, perceptive, social control, adolescent, social behavior forms, identification, reflection, social orientation, stereotyping

Аннотация: В статье рассматриваются формы общения, возрастные особенности общения, достижение ясности общения, профилактика конфликтов в межличностном общении и разработка эффективных форм общения.

Ключевые слова: Формы общения, индивидуальный, коммуникативный, интерактивный, перцептивный, социальный контроль, подросток, социальные модели поведения, идентификация, рефлексия, социальная ориентация, стереотипизация

Muloqot - odamlarning birgalikda faoliyatlari,ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o’zoro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Muloqot jarayonida odamlar bir-birlari bilan ma’lumotlar almashib, o’zaro ta’sir ko’rsatibgina qolmay, balki bir-birlarini to’g’riroq anglashlariga yordam beradi.

Bir qarashda osonga o’xshagan shaxslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab bo’lib, unga odam hayoti mobaynida o’rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin jumladan, shunday yozadi. ”Muloqot shunchalik ko’p qirrali jarayonki,unga bir vaqtning o’zida quyidagilar kiradi:

A) individlarning o’zaro ta’sir jarayoni:
B) Individlar o’rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni
C) Bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni
D) Bir kishining boshqalarga ta’sir ko’rsatish jarayoni
E) Bir -birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati
F) Shaxslarning bir-birlarini tushunish jarayoni

Muloqotning turli shakllari va bosqichlari mavjud bo’lib,dastlabki bosqich - odamning o’z-o’zi bilan bo’ladigan muloqotidir.

Muloqotning shakl va ko’rinishlariga keladigan bo’lsak,uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlariga mos keladigan ,o’sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko’rinishlari haqida aytib o’tish lozimdir.

Ma’lumki muloqot murakkab jarayon bo’lganligi sababli ayrim olingan muloqot shaklini tahlil qilganimizda, unda juda xilma-xil ko’rinishlar ,jabhalar va qismlar borligini aniqlashimiz mumkin.

Muloqotning har qanday ko’rinishlarini yaxlit xolda olib borish orqaligina samarali natijalarga erishish mumkin.O’zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta’sir ko’rsatadi.Bu ta’sir ikkala tomondan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin.Muloqot eng muhim vazifalaridan biri - uning ijtimoiy xulqdagi ishtiroki va uni muvofiqlashtirishdir.

Birgalikdagi faoliyat jarayonida shaxslarning bir-birlarini to’g’ri tushunishlari va aniq idrok etishlari muloqotning samarali bo’lishini ta’minlaydi.

“Identifikatsiya ’ shunday psixologik xodisaki,bunda suhbatdoshlar bir-birlarini to’g’riroq idrok qilishlari uchun,o’zlarini bir-birlarini o’rniga qo’yib qo’yishga harakat qiladilar.

Ya’ni o’zidagi bilimlar ,tasavvurlar,xislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish,o’zini suhbatdoshi xolatiga solib ko’rish orqali muloqotga kirishuvchi insonlarida kechayotgan hissiyotlarni boshdan kechishiga sabab bo’ladi.

Muloqot mavzusi uni tinglovchilariga tanishlik darajasi bilan,qiziqarli va dolzarbligi bilan tinglovchilar diqqatini tortishga sabab bo’ladi.agar e’tibor bilan qaraydigan bo’lsak ilk bolalik davridagi bolajonlarda ko’proq o’ziga notanish narsa buyumlarga qiziqish bildirishini ko’rishingiz mumkin.Ayniqsa ovozli va harakatli o’yinchoqlar ko’proq bolajonlarni e’tibor markazini egallaydi.Ovozli va harakatlar orqali ham bolajonlar taqlid orqali turli tovush va so’zlarni o’rganib

olishadi.Bolalarni shaxslararo munosabatlarga kirishishiga o’rgatish,uni o’rab turgan insonlarning muomila munosabati bilan ham bevosita aloqador.Bolalar o’zi tarbiya topayotgan oila qonun -qoidalarini qabul qilib,unga amal qilish barobarida odatlanishadi.

Ular voyaga etib shaxslararo munosabatlarda muloqotga kirishishda ham o’rgangan yondoshuvlari asosida ish olib boradilar.Muloqot insoniyat tomonidan yaratilgan eng chiroyli topilma bo’lib,bu insoniyat merosi,har qanday sohadagi o’zgarishlarni ,fikrlar turfa xilligini anglashga yordam beradigan quroldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziyev psixologiya Toshkent 2001 yil. 7.Xaydarov F.I., Xalilova N. ―Umumiy psixologiya‖. T.: ―Fan va texnologiyalar‖ markazining bosmaxonasi : 2009.
2. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб: Питер, 2007. 9.Дусмухамедова Ш.А.,Нишонова З.Т., Жалилова С.Х., Каримова Ш. К., Алимбаева Ш.Т. ―Ёш ва педагогик психология‖ Т. ТДПУ, 2013 .
3. Nishonova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M. ―Psixologik xizmat‖.T. ―Fan va texnologiyalar‖ nashriyoti 2014 y.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.childpsy.ru
2. www.edu.uz
3. www.flogiston.ru
4. www.pedagog.uz
5. www.psychology.uz
6. www. psychology.net.ru

XX АСР БОШИДАГИ ТУРКИСТОННИНГ ЙИРИК СИЁСИЙ АРБОБИ

З.Рузиева, О.Хужамурадова
Пахтачи туман Тарих музейи мудири

Туркистон жадидларининг тан олинган раҳнамоси, мустақил жумҳурият ғоясининг яловбардори, янги мактаб ғоясининг назариётчиси ва амалиётчиси, ўзбек драматургиясини бошлаб берган биринчи драматург, театрчи, ношир, журналист. У тарихимизнинг ғоят оғир ва мураккаб бир даврида яшади. XVI асрдан бошланган инқироз ва турғунлик, маҳаллий уруғчилик низолари миллатни ҳолдан тойдирган, Мана шундай бир шароитда Ватанни бутунлай йўқ бўлиш хавфидан сақлаб қолиш, авлодларни эрк ва озодлик, мустақиллик руҳида тарбиялаш, маърифат ва тараққиётта бошлаш жадидлар номи билан тарихга кирган Беҳбудий бошлиқ фидойилар зиммасига тушди.

Биринчи бўлиб замонавий мактаб ғоясини илгари сурдилар. Улар ўз ҳисобларидан мактаблар очиб, ёш авлодни истиқлолга тайёрладилар, шеър ва мақолалар, саҳна асарлари орқали миллий онгни шакллантиришга, миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини сингдиришга уриндилар. Русия қонунлари имкон берган даражада Туркистон мусулмонларининг шаъну шавкатини ҳимоя қилдилар, инқилоб йилларида эса мустақиллик байроғини баланд кўтардилар.

Маҳмудхўжа Беҳбудий мана шу Туркистон жадидчилик ҳаракатининг асосчиси, бошлаб берувчиси эди. У 1875 йилнинг 19 январида Самарқанд яқинидаги Бахшитепа қишлоғида, руҳоний оиласида дунёга келган. Отаси Беҳбудхўжа Солиҳхўжа ўғли туркистонлик, Аҳмад Яссавийнинг авлодларидан, она томонидан бобоси Ниёзхўжа урганчлик бўлиб, амир Шоҳмурод замонида (1785—1800) Самарқандга келиб қолган. 1894 йилда отаси, имом-хатиблик билан шуғулланиб келган Беҳбудхўжа вафот этади. Ёш Маҳмудхўжа тоғаси қози Муҳаммад Сиддиқ тарбияси ва қарамоғида ўсиб вояга етади. Араб сарфу наҳвини кичик тоғаси Мулла Одилдан ўрганади. 18 ёшида қозихонада мирзолик қила бошлайди. Ўз устида қунт билан ишлаб, шариатнинг юксак мақомлари — қози, муфти даражасигача кўтарилади. Ёш Маҳмудхўжа дунёқарашининг шаклланишида Русия жадидчилик ҳаракатининг асосчиси Исмоилбек Гаспринскийнинг хизмати катта бўлган. У 1892 йилда Туркистондаги мактабларни ислоҳ қилиш, «усули савтия»ни жорий этиш таклифи билан генерал-губернатор Н. О. Розенбахга мурожаат этади. 1893 йилда ўзи Тошкентга келди. Самарқанд, Бухорода бўлди. Маҳаллий халқ билан гаплашиб, дастлабки янги усул мактабларни очишга муваффақ бўлди. Беҳбудий ўз хотираларида устози билан учрашувларини ихлос ва муҳаббат билан тилга олади.

1899—1900 йилларда Беҳбудий ҳаж сафарига боради. Дунё кўриш изсиз кетмайди. Сафар янги мактаб ҳақидаги қарашларини мустаҳкамлайди. Унинг ташаббус ва ғайрати билан 1903 йилда Самарқанд атрофидаги Ҳалвойи (С. Сиддиқий), Ражабамин (А. Шакурий) қишлоқларида янги мактаблар ташкил топди. Адиб бу мактаблар учун дарсликлар тузишга киришади. Кетма-кет «Рисолаи асбоби савод» (1904), «Рисолаи жуғрофияи умроний» (1905), «Рисолаи жуғрофияи Русий» (1905), «Китобатул-атфол» (1908), «Амалиёти ислом» (1908), «Тарихи ислом» (1909) каби китоблари пайдо бўлади.

Маърифат учун биргина мактаб кифоя қилмайди. Замон ва дунё воқеалари билан танишиб бормоқ керак. Миллат ва Ватаннинг аҳволидан, кундалик ҳаётидан огоҳ бўлмоқ лозим. Миллат учун ойна керак, токи ундан ўз қабоҳатини ҳам малоҳатини ҳам кўра олсин.

Мана шу эҳтиёж ва зарурат Беҳбудийни театр ва матбуотга бошлади. «Падаркуш» драмаси шу тариқа майдонга келди. Бироқ унинг дунё кўриши осон кечмади. «Падаркуш» драмаси 1913 йилдагина босилиб чиқади. Китоб жилдига «Бородино жанги ва Россиянинг французлар босқинидан халос бўлишининг юбилей санасига бағишланади» деган ёзув билан Тифлис цензурасидан рухсат олинади. Босилиб чиққандан кейин ҳам саҳнага қўйиш учун яқин бир йил вақт кетади.

«Падаркуш» — ўзбек драмачилигининг ҳамма якдил эътироф этган биринчи намунасидир. Мутахассислар уни ҳам жанр, ҳам мазмунга кўра янги ўзбек адабиётини бошлаб берган бир асар сифатида баҳолайдилар. Муаллиф «Миллий фожиа» атаган 3 парда 4 манзарали бу драма ҳажман ихчам, мазмунан ниҳоятда содда ва жўн эди. «Падаркуш» дастлаб Самарқандда 1914 йилнинг 15 январида саҳнага қўйилди. Спектакл ўз маишатига ўралиб, дунёни унутган миллатдошларга чакмоқдек таъсир этди. У Тошкентда 1914 йилнинг 27 февралида қўйилди.

Туркистонни жунбушга келтирган қирғинбарот инқилоб йилларида ҳам саҳнадан тушмади. Бу бир томондан миллатни маърифат ва тараққиёт сари ундашда катта аҳамиятга эга бўлса, иккинчи томондан профессионал ўзбек театри ва драмачилигининг майдонга келиши ҳамда тараққиётида муҳим хизмат қилди.

Бу асарнинг ўз даврида адабий ҳаракатчиликка етказган таъсири ҳақида қайдлар кўп. А. Н. Самайлович ёзади: «Туркистонда янги адабиёт майдонга келди. Бу мен учун кутилган ҳол эди… Янги адабиётнинг маркази — Самарқанд… Ёш қаламкашларнинг бош илҳомчиси самарқандлик муфти Маҳмудхўжа Беҳбудийдир».

1913 йилдан Беҳбудий матбуот ишлари билан шуғулланди. Беҳбудий шу йиллари нашр ишлари билан қизғин шуғулланди. А. В. Пясковский унинг ўз босмахонасида Фитратнинг «Баёноти сайёҳи ҳинди» асарини 1913 йилда русчага таржима қилдириб, нашр этганини хабар беради.

1914 йилнинг 29 майида Беҳбудий иккинчи бор араб мамлакатларига саёҳатга отланади.

Беҳбудий адабий танқидга катта эътибор берди. Навоийдан кейинги бир неча асрлик сукунатдан сўнг бу соҳанинг хос-хусусиятларини таъкидлаб адабиётда тенгҳуқуқлилик масаласини ўртага қўйди. Мақола «Танқид сараламоқдур» (1914 й. 27-сон) деб номланган эди. Адибнинг барча тарихий-илмий мавзудаги мақолалари ўтмишга камоли эҳтиром ва эътиқод билан ёзилган.

Беҳбудий миллат ўзини англагандагина ижтимоий-сиёсий масалаларни бошқалар билан тенг муҳокама эта олади, деган фикрда бўлди. Шунинг учун ҳам тарихга алоҳида эътибор берди.

Муҳими шундаки, у XX аср бошидаги Туркистоннинг йирик сиёсий арбоби эди. Унинг Миллат ва Ватан тақдири ҳақидаги барча қарашлари, аввал, мақолаларида акс этган эди.. Шахс манфаатдорлигида, миллат равнақида тараққиётнинг буюк омилини кўрди. Худди шу эътиқод уни Туркистоннинг мустақиллиги учун курашга етаклади.

Ватан тақдири кун тартибига қўйилган 1917 йилнинг 16—23 апрелида Беҳбудий Тошкентда бўлиб ўтган Туркистон мусулмонларининг 150 вакили иштирок этган қурултойида ҳаяжонли нутқ сўзлади. Миллатни ўзаро ихтилофлардан воз кечишга, буюк мақсад йўлида бирлашишга, иттифоқ бўлишга чақирди. Худди шу ихтилофимиз сабабли «мустамлакот қоидаси ила бизни идора этурлар» деб очиқ айтди.

Орзулари чил-чил бўлган Беҳбудий 1919 йилнинг баҳорида, 25 мартда паришон ҳолда йўлга чиқади ва Шаҳрисабзда қўлга олиниб, тахминан икки ой ўтгач, Қаршига келтириб зиндонга ташланди. Бир неча кундан сўнг Қарши беги Тоғайбекнинг буйруғи билан зиндон якинидаги «подшолик чорбоғи»да ўлдирилган. Унинг қатли ҳақидаги хабар ўша пайтдаги пойтахтимиз Самарқандга роса бир йилдан кейин маълум бўлди. 1920 йилнинг апрелида бутун Туркистон мотам тутди.

Бугун Беҳбудий кабилар муқаддас тутган юрт озод ва мустақил бўлди. Улар жон фидо этган истиқлол авлодларига насиб этди. Миллат ва Ватан мустақиллиги йўлида фидо бўлганлар эса шу Миллат ва Ватан умри қадар боқийдирлар.

Adabiyotlar:

O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 2-jild. T., 1979.

Qosimov B., Behbudiy va jadidchilik. „O‘zbekiston adabiyoti va san’ati“ (https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_adabiyoti_va_san%CA%BCati), 1990-yil 19,26-yanvar.

Qosimov B., Behbudiy Karvonboshi. „Yoshlik“ (https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yoshlik) jurnali, 1990-yil, 1-son.

Qosimov B., Maslakdoshlar. Behbudiy. Ajziy. Fitrat, T., 1994;

Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy. T., 199

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – SAMARQAND JADIDLARINING YIRIK NAMOYANDASI

Jo‘rayeva Zuhra Jalol qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Tel:+998994494710, Jurayevazuhra2303@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jadidchilik harakatining vujudga kelganligi, marifatparvarlarning turli hududlarda g’oyalarini keng yoyilganligi, butun boshli xalqni savodli qilish yo’lida olib borgan faoliyatlari keltirib o’tilgan. Shu bilan birgalikda “O’rta Osiyo jadidlar otasi” bo’lgan Mahmudxo’ja Behbudiyning say harakatlari yorqin namoyish etilgan.

Kalit so’z: “Usuli jadid” “Kitob ul-atfol” Nijniy Novgorod “Amaliyoti Islom”, “Tarixi Islom”

МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИЙ – ВЕЛИКИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ САМАРКАНДСКОГО МОДЕРНИСТА

Аннотация: В данной статье упоминается возникновение движения Джадидчилик, широкое распространение идей интеллигенции в разных регионах, а также проводимая ими деятельность по повышению грамотности всей нации. В то же время были ярко продемонстрированы усилия Махмудходжи Бехбуди, “отца среднеазиатских джадидов”

Ключевые слова: “Усули джадид”, “Китаб ул-атфол”, Нижний Новгород, “Практика ислама”, “История ислама”.

MAHMUDKHOJA BEHBUDIY IS A GREAT REPRESENTATIVE OF SAMARKAND MODERNISTS

Annotation: In this article, the emergence of the Jadidchilik movement, the wide spread of the ideas of the intellectuals in different regions, and the activities they carried out to make the entire nation literate are mentioned. At the same time, the efforts of Mahmudhoja Behbudi, the "Father of Central Asian Jadids", were vividly demonstrated.

Key words: “Usuli jaded” “Kitab ul-atfol” Nizhny Novgorod “Practice of Islam”, “History of Islam”

"Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish sitrategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir".

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi kunda jadidchilik harakatini chuqur o‘rganish, o‘sha davrda ijod qilgan va faoliyat yuritgan ziyolilar, taraqqiyparvarlarning ezgu maqsadlarini keng targ‘ib qilish davlatimizning doimiy diqqat e’tiborida bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 24 yanvarda Parlamentga yo‘llagan murojaatnomasida mazkur masalaga alohida to‘xtalib o‘tgan edi: “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi” [1].

Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tataristonda yuzaga kela boshladi. Bir qator ma’rifatli shaxslar tomonidan yangi siyosiy va ijtimoiy g‘oyalarning ilgari surilishi jadidchilik harakatiga asos

soldi. Shu jihatdan, ushbu davrda boshlangan yangi siyosiy, ma’rifiy hamda ijtimoiy jarayonlar jadidchilik yoki taraqqiyparvarlar harakati deya nomlandi. Jadidchilik harakati keyinchalik mintaqaning boshqa hududlarida ham keng yoyila boshlaydi. Xususan, Turkiston mintaqasidagi XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi jarayonlarda jadidchilik harakati muhim ahamiyat kasb etib, ular tomonidan qator ilg‘or g‘oyalar ilgari surildi. O‘sha vaqtda Turkiston aholisining moddiy ahvoli og‘ir bo‘lib, xalq orasida savodsizlik, diniy mutaasiblik keng tarqalgan edi. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalarga ko‘ra, xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishning yagona yo‘li ularni ma’rifatli qilish edi. Bu yo‘lda yangicha tuzum va tartibotlarni joriy etish, yangi usul maktablarini ochish hamda insonlarni jahondagi ilg‘or tajribalardaf voqif qilish lozim edi. Shu bois, jadidchilik harakati mohiyat va mazmuniga ko‘ra millat, jamiyat tafakkurini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat bo‘lga. Xususan bu paytda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona Qo‘qon, Namangan, Xiva va boshqa shaharlarda dastlabki jadid maktablari ochildi. “Usuli jadid” maktablari tarmog‘i kengayib bordi, ularda diniy ta’limot bilan birga tibbiyot, hikmat, kimyo, nujum, handasa kabi dunyoviy bilimlar o‘rgatildi, va savod chiqarish tezlashtirildi. Mahmudxo’ja Behbudiyning “O‘z urug‘i otini bilmagan, yetti otasini tanimagan qul – manqurtdir!” degan so‘z lari talabalarni milliy o‘zligini anglashga chaqirar edi. Jadid maktablarida har tomonlama bilimli, ma’naviy yetuk, o‘z xalqining tarixini va dunyo ishlarini yaxshi o‘zlashtirgan kadrlar tayyorlab chiqarildi.

Butun Turkiston bo’ylab tarqalgan Jadidchilik harakati Samarqandda ham o’z aksini topmay qo’ymadi. Samarqand jadidlarining eng ko‘zga ko‘ringan vakili, shubhasiz, Mahmudxo‘ja Behbudiydir. “Turkistondagi jadidlik harakatining taniqli namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) mashhur dramaturg va publitsist, jamoat arbobi bo‘lishidan tashqari, o‘z davrining yirik olimi, noshir va matbuotchisi sifatida chuqur iz qoldirdi” [2, Rajabov.].

.Behbudiy nafaqat yangi usul maktablarini tashkil qilish balki, ularni zamonaviy darsliklar, dunyoviy ilmlar bilan ham ta’minlash ishiga boshqosh bo‘ldi. O‘zi ham qator darslik va risolalar yaratdi. “1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi, Rajabamin qishloqlarida uning tashabbusi bilan yangi maktablar ochildi. Behbudiy maktablar uchun “Risolai asbobi savod”, “Risolai 61 jug‘rofiyai umroniy”, “Kitob ul-atfol”, “Amaliyoti Islom”, “Tarixi Islom” kabi darslik va risolalar yozadi [3,Haydarov] Behbudiy jadidlar yetakchisi, mintaqada taraqqiyparvarlik harakatining a’zosi sifatida Samarqand shahrida turli yig‘in, kecha va mashvaratlarni tashkil qildi. Bu kabi yig‘ilishlarga turli shaharlardagi taraqqiyparvar kishilar taklif etildi. Buxorolik mashhur ma’rifatparvar Sadriddin Ayniy Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida bunday eslaydi: “1908 yilda dars sheriklarimizdan bo‘lg‘on Mirzo Abdulvohid bilan Buxorodan Samarqandg‘a kelgan edik. Bu sayohatimizda mulla Abdulqodir Shakuriy, mulla Ismatullo

Rahmatullozoda va bir qancha Samarqand ma’rifatparvarlari oqshom majlisi uchun bizni bir yerga chaqirg‘on edi”

XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining qanot yozishida Rossiya, Turkiya va Eron inqiloblaridan tashqari, Qrim va Volgabo‘yi tatarlarining matbuoti, birinchi navbatda, Ismoilbek Gasprinskiyning «Tarjimon» gazetasi muhim ahamiyatga molik. Matbuotning taraqqiyparvar kishilar qo‘lida qudratli qurol ekanligini sezgan Behbudiy 1901 yildan boshlab «Turkiston viloyatining gazeti», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Tujjor» singari mahalliy hamda «Tarjimon», «Vaqt» va «Sho‘ro» singari qardosh xalqlarning gazeta va jurnallarida 200 dan ziyod maqolalarini e’lon qiddi. Va bu maqolalari bilan xalqning basir ko‘zlarini ochishga urindi. U ayni paytda Samarqandda dastlabki usuli jadida maktablarini ochishga va ular uchun qo‘llanma hamda darsliklarni yaratishga kirishdi. Bexbudiy Rossiya imperiyasqsa yashovchi musulmonlar va turkiy xalqlar manfaati uchun izchil kurashdi. Nijniy Novgorodsa 1906-yili o‘tkazilgan Rossiya musulmonlari syezdida qatnashdi. Fevral inqilobidan so‘ng Turkistonda boshlangan muxtoriyatchilik qarakatining peshkdsam rahbarlarqsan biriga aylandi. 1917-yili o‘tkazilgan Butunturkiston musulmonlarining barcha qurultoylarida faol qatnashdi. Ulamsshar bilan qattiq bahsga kirishib, jadid taraqqiyparvarlari manfaatini himoya qildi [4,Qosimov].

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev maktab ta‟limi tizimini isloh qilish bo’yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr yuritar ekan, ulug’ ma‟rifatparvar bobomiz Mahmudxo„ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir” degan fikrini alohida ta‟kidlab, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, ularda jamiyat hayotini o„zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta‟lim tizimidan, bog’cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko’ramiz. Shunday ekan Mahmudxo‘ja Behbudiyning yaratgan asarlari, jadid maktablariga asos solishi natijasida diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni ham rivoj topganligini hamda bugungi kundagi ahamiyati beqiyosligini ta’kidlab o‘tish mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Parlamentga murojaatnomasi.//https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020

2 Q.Rajabov. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Bolqon urushlari va Anvar Posho haqidagi fikrlari // “Mahmudxo‘ja Behbudiy diniy-ma’rifiy qarashlarining zamonaviy talqinlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T., 2021

3 Zarafshonning Behbudiysi. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Akram Haydarov. –Toshkent: “Sahhof”, 2020

4 .[Begali Qosimov] Mahmudxo’ja behbudiy

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MANAVIY VA MARIFIY FAOLIYATI

G.Toremuratova
QR Kegeyli tumani Jan’abazar OFY yoshlar yetakchisi

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Mahmudxo‘ja tog‘asi Muhammad Siddiqning tarbiyasini olgan. Arab tili grammatikasini kichik tog‘asi Mulla Odildan o‘rgangan. Behbudiy 1899–1900-yillarda hajga boradi; 1903–1904-yillarda Moskva, Peterburgga hamda 1906-yili Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod, Misr va Turkiyaga safar qiladi. Behbudiy XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida munosib o‘ringa ega. Uning hayoti va ijodiy faoliyati jamiyat hayotidagi jiddiy o‘zgarishlar davriga to‘g‘ri keldi. Behbudiy Turkistonda maktab va maorif, matbuot va teatr, jurnalistika sohalarda ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma’rifiy faoliyat olib bordi. Qishloqlarda tashkil qilingan maktablar uchun bir qancha darsliklar yozdi

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullanadi. Ro‘znoma va jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib boradi. U Makkaga borish maqsadida arab tilini o‘rganishga kirishib, islom tarixi va nazariyasi bilan shug‘ullana boshlaydi. 1902 yilda Makkaga borib, xo‘ja va mufti unvonlariga ega bo‘lib qaytadi. So‘ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo‘lib, Ovro‘po madaniyati bilan ham qiziqadi. O‘sha davrdagi Qozon, Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qiladi. Uning qator maqolalari ham mazkur jurnal va gazetalar chiqa boshlaydi. Maktab, maorif, madaniyat, ma’rifatparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti ushbu maqolalarning markazida turardi. Xususan, qrim-tatar allomasi Ismoil Gaspirali (Gasperinskiy) va u bosh muharrir bo‘lgan «Tarjumon» gazetasi M. Behbudiyni buyuk ma’rifatchi va o‘zbek milliy jadidchilik yo‘nalishining otasi darajasiga ko‘tardi. Behbudiy dunyoqarashida Rossiyadagi eng nufuzli bo‘lgan kadetlar partiyasi a’zolari bilan uchrashuv va ular harakatnomalarining ta’siri ham katta bo‘lgan. 1912—1913 yillarda Behbudiy Samarqandda «Samarqand» gazetasi, «Oyna» jurnaliga asos soladi. U 1914 yilda yana Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar, o‘quv qo‘llanmalarini olib keladi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Biroq, u turli to‘siqlarga uchrab, «jadidlar rahnamosi», «dahriy» deb e’lon qilinadi. Shunga qaramay, u tatar mutafakkiri Ismoil Gaspiralining ma’rifatchilik borasidagi

ta’limotini qo‘llab-quvvatlab, o‘z o‘lkasida ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi va ko‘p o‘tmay ma’rifatparvar sifatida o‘z xalqi hurmatiga sazovor bo‘ladi. U bir qator Sharq va G‘arb tillarini bilgan yuksak madaniyat sohibi bo‘lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ‘ibotchisi ham bo‘lgan.

Behbudiy o‘zbek va fors-tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Jumladan, «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» — «Qisqacha umumiy jug‘rofiya» (1903), «Kitob-ul-atfol» — «Bolalar uchun kitob» (1904), «Muxtasari tarixi islom» — «Qisqacha islom tarixi» (1904), «Amaliyoti islom» (1905), «Rusiyaning qisqacha geografiyasi» (1908) kabi darslik va kitoblar yozgan. Uning 1901 yildan boshlab «Turkiston viloyatining gazeti», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Tujjor», «Osiyo», «Hurriyat», «Turon», «Sadoi Turkiston», «Ulug‘ Turkiston», «Najot», «Mehnatkashlar tovushi», «Tirik so‘z», «Tarjumon», «Sho‘ro», «Vaqt», «Toza hayot», «Samarqand», «Oyna» kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyparvar kishilar va ayniqsa, yoshlarning diqqat-e’tiborini qozongan.

Behbudiy adib sifatida «Padarkush» yoki o‘qimagan bolaning holi» dramasini yaratgan. 1913 yilda Samarqandda nashr etilgan bu dramada u yoshlarning (ular xoh kambag‘al, xoh badavlat oilaga mansub bo‘lsin) ilmli, madaniyatli bo‘lishlari lozimligini qayd etgan. M. Behbudiyning «Padarkush» yoki o‘qimagan bolaning holi» dramasi 1911 yilda yozilgan bo‘lib, dastlab 1912 yilda «Turon» gazetasida bosilgan. 1913 yilga kelib kitob holida chop etilgan. Shundan so‘ng tez fursatda Samarqand, Buxoro va Toshkent teatri sahnalarida ijro etilgan. Drama kompozitsion qurilishiga ko‘ra oddiy bo‘lgan holda, mazmun-g‘oya jihatdan ancha qamrovlidir. Xususan, undagi xarakter va harakat, shakl-shamoyil mazkur janr talablariga ancha mos edi. Dramadagi qahramonlar esa ikki qutbda — ikki xil harakat bilan yashaydilar. Bir tomonda boy, o‘g‘li va uning gumashtalari bo‘lsa, ikkinchi tomonda domla, ziyoli obrazlari asar g‘oyasini ochishda muhim o‘rin egallaydi. O‘zbek dramaturgiyasiga, umuman, teatriga poydevor qo‘ygan bu asar o‘z davrida A. Qodiriyning «Baxtsiz kuyov» dramasi, Mirmuhsin-Fikriyning «Befarzand Ochildiboy», Hamza Hakimzoda Niyoziyning «Yangi saodat» kabi qissalarining yaratilishiga turtki bergan. Albatta, Behbudiyning xalq o‘rtasida ortib borayotgan obro‘-e’tibori nafaqat amirlik rahbarlari, balki bolsheviklarning ham reja va niyatlariga zid edi. 1919 yilda xorijiy safarga chiqqan Behbudiy ular chaquvi bilan Qarshida ushlanib, Said Olimxon farmoni bilan qatl qilinadi.

S.Ayniy allomaning fojeali vafoti munosabati bilan bunday yozgan: «Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20 yil mobaynida o‘zining ongi va insoniy qadru qimmatini bilgan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma’rifat uchun kurashga chorlab keldi». Qarshi shahri 20-30-yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan. Behbudiy 1937 yilga kelib qatag‘on qilinadi

va 1956 yili oqlanadi. 1977 yili allomaning «Saylanma» asarlari chop etildi. Asarlari darslik va qo‘llanmalarga kiritilib, ko‘cha va mahallalar uning nomiga qo‘yildi. Hozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma’rifiy meros o‘z xalqining Istiqloliga xizmat etmoqda.